



**IQTIDORLI TALABALAR,
MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING
“TAFAKKUR VA TALQIN”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO'PLAMI**



Buxoro - 2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,
TAYANCH DOKTORANTLAR VA
DOKTORANTLARNING**

**TAFAKKUR VA TALQIN
mavzusida**

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami*

Buxoro 2024-yil, 15-may

Tahrir hay'ati

- O.X.Xamidov** - Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
R.G'.Jumayev - Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent;
T.H.Rasulov - Fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), dotsent;
D.R. Djurayev - Fizika-matematika fanlari doktori, professor;
S.Q. Qaxxorov - Pedagogika fanlari doktori, professor;
A.A. Turayev - Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
S. Bo'riyev - Biologiya fanlari doktori, professor;
B.N.Navro'z-zoda - Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
D.S. O'rayeva - Filologiya fanlari doktori, professor;
A.R.Hamroyev - Pedagogika fanlari doktori, (DSc) dotsent;
M.B.Ahmedova - Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent;
B.E.Qilichov - BuxDU "Ozbek tilshunosligi va jurnalistikasi" kafedrasini professori;
E.B.Dilmurodov - Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Mas'ul muharrir:

A.A. Turayev – magistratura bo'limi boshlig'i f.-m.f.f.d., (PhD) dotsent

Musahhah:

Sh. Ramazonov – bosh muharrir BuxDU 2-bosqich magistranti

T.Sh.Ergashev – Magistratura bo'limi bosh mutaxassisi

D.R.Rahmatova – Magistratura bo'limi mutaxassisi

Ushbu Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'iga asosan tashkil etildi. To'plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

MUQADDIMA

Mamlakatimizda bugungi kunda fan va ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar, yoshlarimizning ta'lim olishlari uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar natijasida fanning barcha tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ma'lumotli, yuqori malakaga ega xodimlarning ulushi ortib bormoqda. Joriy yilning Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi bugun biz yurtboshimiz rahnamoligida ulug' niyatlar bilan boshlagan Yangi Uyg'onish davrida mamlakatimizda ilmiy salohiyati baland yoshlar orqali ulkan intellektual boyluk yaratishga, xalqimizning hayotini va sihatsalomatligini yaxshilashga va kelgusi avlodlarga o'zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning eng avvalo, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz, degan so'zlarida bugungi kunga qadar o'z qiymatini yo'qotmagan Fitrat-u Behbudiylarning ezgu orzu-niyatlari, harakatlari mujassamdir. Zero, ushbu ezgu g'oya har zamonda o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Darhaqiqat, bundan 11 asr oldin buyuk mutafakkirimiz Yusuf Xos Hojib "O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik o'lur, bilim qayda bo'lsa, buyuklik olur" deganda butun insoniyatning kelajagi uchun ta'lim va tarbiya orqali komillikka, tinch va osoyishta jamiyat sari borish mumkinligini eslatma o'laroq yozib qoldiradilar. Zero, Edvert Everett nazdi bilan aytganda, Ta'lim va tarbiya armiyadan ko'ra mustaqillik va erkinlikni himoya qilishning ishonchli vositasi. Millatning najot yo'li ham aslida ta'limdadir. Ta'lim bu butun umr egasini kuzatib boradigan xazinadir. Jamiyatning qon tomiri bo'lgan ta'limga e'tibor Yangi O'zbekistonning galdagi nurafshon yo'lining mayog'idir.

Har qanday sohaning rivoji unda faoliyat olib boradigan kadrlar salohiyatiga bog'liq. Yangi O'zbekistonda ilmga e'tibor, ustozlarning jamiyatda obro'yini oshirish yo'lida qilinayotgan yangiliklar e'tiborga sazovor. Tomirlarida olim-u ulamo, fozil-u fuzalolarning iqtidori, shijoati, yaratuvchanlik qoni oqayotgan yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish uchun yaratilgan shart-sharoit – kelajak yo'lida qurilgan eng mustahkam poydevor demakdir. Zotan, sifatli kadr hamda sifatli ta'limga erishish uchun bugungi tezkor va globallashuv jarayonlariga moslasha oladigan, jahon standartlariga javob beradigan, faoliyatini korrupsiyadan xoli halollik asosida tashkillashtiradigan fidoyi va vatanparvar talaba-yoshlarni tarbiyalashimiz lozim.

2023/2024 o'quv yili hozirgi vaqtda universitetimizda birinchi bosqichda 42 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 216 nafar, ikkinchi bosqichda 34 ta mutaxassislik bo'yicha 310 nafar universitet bo'yicha 45 ta mutaxassislik bo'yicha jami 526 nafar magistrlar tahsil olmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi 447-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat oliy ta’lim muassasalari magistratura bosqichida ta’lim olayotgan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lab berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan universitetda tahsil olayotgan 223 nafar xotin-qizlarimizning kontrakt-to‘lovlari to‘liq davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berildi Bu o‘z navbatida magistrlarımız uchun katta imkoniyat eshiklarini ochib beradi.

Ushbu to‘plamda keltirilgan maqolalar yosh tadqiqotchilarning izlanishlarining ilk samarasi bo‘lib, bu natijalarni ommalashtirish, yosh tadqiqotchilarning o‘zlarining ilmiy faoliyatlari yo‘nalishlari bo‘yicha hamkor korxonalar va o‘z sohasining yetuk olimlari bilan tanishishlariga imkoniyat yaratish lozim. yirik loyihalar ishlab chiqishlari, fan va ishlab chiqarish hamkorligining samarali ko‘rinishlarini yuzaga keltirishlari mazkur to‘plamni tayyorlashning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi. Ilmiy to‘plam materiallari ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, korxonalar va tashkilotlarning mutaxassislari hamda yosh ijodkorlar uchun amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda BuxDUning izlanuvchan ilm talabalari orasidan o‘z ilmiy maktablariga ega bo‘lgan olimlar, nufuzli xalqaro oliy dargohlarda dars bera oladigan ustozlar, xalq xo‘jaligining fidoiy xodimlari, jamiyatimizga kerakli kadrlar yetishib chiqishiga ishonamiz.

O.X. Xamidov,

Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor.

TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA MAGISTRLAR ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYATINING MAQSADI

A.A.Turayev

*Buxoro davlat universiteti magistratura bo‘limi boshlig‘i,
f.-m.f.f.d., (PhD), dotsent*

a.a.turaev@buxdu.uz

Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liqligi prezidentimiz tomonidan ta’kidlanadi. Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, insoniyat fan o‘qi atrofida aylanayotgandek go‘yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning

kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Kontsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o‘quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko‘plab aniq yo‘nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o‘choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so‘nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o‘quv yurtlarining soni 125 taga etdi. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Professor-o‘qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko‘paytirib, 2 mingtaga yetkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko‘lamini yanada kengaytirdi.

Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, magistratura ta'lim tizimidagi istiqbolli vazifalar o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir. Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Ilmiy-pedagogik faoliyat magistratura o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchisi sifatida tayyorlanayotgan magistrantlarning egallagan ilmiy-nazariy bilimlarini bevosita amaliyotga tadbiiq etish, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etish, talabalar bilimni baholash borasida xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, oliy ta'lim muassasasida ta'lim sifatini ta'minlash borasidagi faoliyat turlari bilan amaliy tanishish va ilmiy-pedagogik ishning maqsadini belgilab beradi.

Ilmiy pedagogik ishni amalga oshirishning *maqsadi* - ilmiy-pedagogik amaliyot davrida magistrantlar oliy ta'lim muassasida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishning mazmuni, me'yoriy-huquqiy asoslari va tartibini o'rganadilar va magistrlik dissertatsiyasi mavzusiga oid ilmiy izlanishlari doirasida pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazadilar hamda olingan natijalarni matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlaydi, xulosalar shakllantiradilar.

Ilmiy-pedagogik faoliyati natijalari bo'yicha magistrant:

- innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni, o'quv-tarbiyaviy jarayonni faollashtirish uslublarini, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari, kompetensiyalarini baholashning xalqaro standartlari va ilg'or metodlarini amaliy o'zlashtirishi;
- mustaqil ta'limning tashkiliy va o'quv – uslubiy ta'minoti, masofadan o'qitish texnologiyalarini;
- fanlar bo'yicha o'quv-me'yoriy hujjatlarni (o'quv reja, ishchi o'quv reja, fan dasturi, ishchi fan dasturi, o'quv-uslubiy majmua, kalendar ish reja) larni ishlab

chiqish, o‘quv adabiyotlarini (darslik va o‘quv qo‘llanma, uslubiy yo‘riqnomalarni yaratish asoslarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

- oliy ta‘lim muassasalarida dars mashg‘ulotlarining (ma‘ruza, amaliy, laboratoriya, seminar) kabi an‘anaviy va noan‘anaviy (innovatsion) shakllarini o‘tkazish, ma‘ruza matnlari va mashg‘ulotlar o‘tkazish rejalari (texnologik xaritalari)ni tuzish;
- talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari, kompetensiyalarini nazorat qilishning tashkiliy va uslubiy ta‘minotini ishlab chiqish;
- oliy ta‘lim muassasasida ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy ishlarning tashkiliy va uslubiy ta‘minotini yaratish bo‘yicha **tajribaga ega bo‘lishi kerak.**

Ilmiy-pedagogik ish, odatda, oliy ta‘lim muassasaning mutaxassis tayyorlovchi kafedralarida o‘tkaziladi. Magistrantlar ilmiy-pedagogik ish davrida o‘zlarining magistrlik dissertatsiyasi mavzusi doirasida pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishlari va olingan natijalar asosida magistrlik dissertatsiyalarini mazm unan boyitishlari ham nazarda tutilgan. Ilmiy pedagogik ish o‘tkazish davomida magistrantlarga bir qator vazifalar qo‘yiladi va ularning ilmiy pedagogik ishi rahbarlari va kafedra mudirlari tomonidan bevosita nazorat qilinadi hamda baholanadi.

Magistrant tomonidan kafedrada olib boriladigan ishlar, tadbirlar, o‘tkaziladigan ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ishlarni olib boorish tartibi, qaysi fandan, qanday mavzularda bo‘lishi kafedra mudiri va ilmiy pedagogik ish rahbari tomonidan aniqlanadi. Magistrantning Shaxsiy kalendar ish rejasini “Ilmiy-pedagogik ish rejasi” jadvalida bajariladigan ish turlari, ajratilgan soatlar, rejalashtirilgan muddatlari to‘ldiriladi va kafedra qarori bilan tasdiqlanadi. Kafedra qarori bilan namunaviy rejadagi ishlarni kafedra uchun lozim bo‘lgan va mutaxassislik xususiyatidan kelib chiqib, rejada keltirilmagan ishlar bilan almashtirish mumkin. Bu albatta, aniqlashtirilgan kalendar ish rejada o‘z aksini topishi kerak.

Magistrant har oyda kafedra majlisida reja bo‘yicha bajarilgan ishlarning hisobotini beradi. Hisobot bo‘yicha kafedra yig‘ilishi magistrant tomonidan “**reja bajarilgan**” yoki “**reja bajarilmagan**” mazmunidagi qaror qabul qiladi. Semestr oxirida magistrant oylik hisobotlar asosida semestr bo‘yicha yakuniy ilmiy-pedagogik ishi bo‘yicha hisobotni tayyorlaydi va kafedraga topshiradi. Ilmiy-pedagogik ishning qay darajada samarali bo‘lishi magistrantlarning o‘z ishiga jiddiy va mas‘uliyat bilan yondashishiga har tomonlama bog‘liq jarayondir. Ushbu faoliyat bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishi ham bartaraf etilishi ham har bir belgilangan vazifa va tartib- qoidalarining o‘z vaqtida va tizimli tashkil etilishiga har tomonlama bog‘liq jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.56b.
2. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488b.
3. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 B.
4. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent – “O‘zbekiston” -2017.104 b.
5. Ravshan Ishmuhamedov, Maqsudjon Yuldashev - "Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar"- o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2013
6. Yo‘ldoshev J./. “Ta‘lim yangilanish yo‘lida”. – T.: Tarbiyachi. 2000. 207 b.
7. Nishonaliyev U. Ta‘lim standartlari va pedagogik innovatsiyalar. // Xalq ta‘limi. 1999. № 6. 28-31 b.

1-SHO‘BA: ANIQ VA TABIIY FANLARNING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARB MASALALARI

ELEKTRON TA‘LIM RESURSLARINI TA‘LIM TIZIMIDAGI O‘RNI

F.R.Karimov,
BuxDU, “Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari” kafedrasida o‘qituvchisi

Axborot jamiyatiga o‘tish zaruriyati jahon iqtisodiyotida yangi texnologik tartib shakllanishi va ustuvorligi, axborot resurslarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy resurslariga o‘tishi, jamiyatni axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan talabini qondirish, ijtimoiy ishlab chiqish tizimida axborot kommunikatsion infrastruktura ahamiyatini oshishi, xalqaro axborot almashinuvlar asosida maorif, ilmiy-texnik va madaniy sohalarning takomillashuvi, «global axborot afzalliklari» ni teng huquq asosida ishlatish bilan shartlanadi.

Oxirgi yillarda elektron ta‘limning an‘anaviy ta‘limga qaraganda afzallik jihatlari ko‘proq aniqlanmoqda. So‘nggi vaqtlarda ta‘lim oluvchilar va o‘qituvchilar an‘anaviy ta‘limning ba‘zi turlariga qaraganda onlayn ta‘limning afzalliklari ko‘proq degan xulosaga kelmoqdalar. Sababi, ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan raqamli o‘qitish platformalari ko‘paymoqda, bunda an‘anaviy va onlayn ta‘limning eng yaxshi tomonlari birlashtirilib aralash ta‘lim tizimi shakllantirilmoqda. Aralash ta‘lim narxining pastligi, moslashuvchanligi, bepulligi, bundan tashqari ta‘lim jarayonida murakkab texnologiyalarni qo‘llash afzalligi

ushbu alternativa uchun sabab bo'ladi. Bu tendensiyaga bo'lgan qiziqish ta'lim jarayonida talabalarga ta'sir etadi va ta'lim sifatini oshiradi.

Ko'pgina tadqiqotlar onlayn ta'lim o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga sabab bo'lishini ko'rsatgan, ya'ni o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga, individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'quv jarayoniga moslashtirish qobiliyatini shakllantirishga asos bo'ladi. Elektron ta'limda rivojlanishini o'quvchilarning raqamli dunyoda o'zini erkin tutishi, ya'ni kerakli ma'lumotlarni yuklab olishi, tahlil qilishi, onlayn kontentlardan erkin foydalana olish qobiliyatida ko'rishimiz mumkin. Vaqt o'tgan sayin ushbu tendensiyaga texnologiyalami qo'llash asosida an'anaviy ta'limning xohlagan turi, metodi, ta'lim berish usulini kiritishimiz mumkin.

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'i orqali real vaqt tizimida o'qitish tezlik bilan rivojlanib borayotgan ta'lim olish turlaridan biri hisoblanmoqda. Elektron ta'lim tizimi ixtiyoriy masofadan hech bir to'siqlarsiz ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Mutaxassislaming ta'kidlashicha, an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan real vaqt tizimidagi masofaviy ta'lim tizimida o'qitish samaradorligi yuqoriroqdir. Real vaqt tizimidagi masofaviy o'qitish tizimida video ma'ruzalardan foydalanish eng samarali o'qitish usulidir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikasiya texnologiyalari shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta'limning samaradorligini oshirishda eng qulay omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham ilg'or mamlakatlar ta'lim tizimida kompyuter texnikasidan, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga qaratilgan izlanishlar to'xtovsiz kechmoqda. Umuman olganda, hozirgi kunda jamiyatni standart sanoatlashgan iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishi kuzatilmoqda. Yangi iqtisodiyot mijozlari - foydalanuvchilar iqtisodiyot hisoblanadi, shuning uchun jahon axborot va telekommunikatsiya sanoatini rivojlanishini asosiy omili keng ko'lamda yangi avlod xizmatlarini taqdim etish borib kelmoqda. Ta'limda fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil masofaviy ta'lim tizimi bilim olishni individuallashtirish, texnologiyasini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida elektron ta'lim resurslardan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

O'quv jarayonini elektron ta'lim resurslari asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish kerak bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'ldir. Ta'lim tizimiga elektron axborot ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini tanqidiy baholash va takomillashtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat.

- elektron ta'lim resurslarini o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun lozim moddiy texnika bazasini yaratish;
- o'quv jarayoni uchun elektron ta'lim resurslarini yaratishga mo'jallangan ta'lim texnologiyalarini yaratish va qo'llash;

- o'quvchilarni zamonaviy elektron ta'lim resurslari sohasida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
- elektron ta'lim resurslarini joriy etish orqali ta'lim-tarbiya va o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish.

Zamonaviy elektron ta'lim resurslarining afzalligi, avvalo, o'quv jarayonida o'quvchilarda mustaqillik va faollik rolini samarali tashkil etishdan iborat. Ta'lim jarayoniga elektron ta'lim resurslari joriy etish o'quvchilarga fan bo'yicha axborotning to'liq manzarasini namoyish etish bilan birga, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, o'qitishni individuallashtirish, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish imkonini beradi, ya'ni o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахманова Ш.А. Технология создания электронных образовательных ресурсов. Учебник. -Г РИ Ф № 133-237. -Т.: Навруз, 2020. -С . 204.
2. Набиулина Л.М., Абдурахманова Ш.А. Мультимедийные системы и технологин. Учебник. - ГРИФ № 603-161.-Т. Навруз, 2019. - С. 160.
3. F.R.Karimov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalar fanini o'qitishda ta'lim platformalardan foydalanishning afzalliklari. //Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnali, 2-son (2024-yil, fevral) 88-91-betlar.

NITROFURAL MOLEKULASINING NITROREDUKTAZA FERMENTI BILAN MOLEKULYAR DOKINGI

*Sh. Sh. Rashitova,
BuxDu, kimyo mutaxassisligi,
2-bosqich magistranti
sh.sh.rashitova@buxdu.uz*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy axborot resurs vositalari yordamida farmasevtika sanoati uchun muhim bo'lgan furatsilin dori vositasi tarkibidagi nitrofural molekulasi oqsil tabiatli fermentlar bilan ta'siri ko'rib chiqilgan.


Kalit so'zlar: Nitrofural molekulasi, CB-Dock2 onlayn serveri, NAD(P)H-nitroreduktaza fermenti, ligand faolligi, boshliqlar.

Ushbu ishni olib borish uchun kerak bo'lgan dori vositalaridan biri bo'lgan Furatsilinning mikroblarga qarshi vosita, grammusbat va grammanfiy bakteriyalar (shu jumladan Staphylococcus spp., Streptococcus spp., Escherichia coli Clostridium perfringens) ga nisbatan faolligi aniqlangan. Boshqa kimyoterapevtik vositalarga nisbatan tur xil tasir mexanizmiga ega: mikroblar flavoproteinlari – nitroguruhini tiklaydi, hosil bo'lgan reaktiv amino hosilalar yuqori oqsillarning shu jumladan ribosomalarning va boshqa molekulalarning konformatsiyasini o'zgartirib hujayraning halok bo'lishiga olib. Biz ana shularni inobatga olib furatsilinning

asosiy kimyoviy tarkibi bo'lgan nitrofural molekulasini NAD(P)H- nitroreduktaza fermenti bilan CB-Dock2 onlayn serveri yordamida o'zaro ta'sirini o'rgandik [1,2].


CB-Dock2 onlayn serveri yordamida dastlab oqsilning ligand bilan ta'sirlashish bo'shliqlari izlandi, bunda 787, 786, 767, 763 va 650 Å³ hajmdagi 5 ta faol bo'shliq markazi aniqlandi (1-rasm). So'ng ligand va oqsil serverga yuklanib, molekulyar dokingi amalga oshirildi.

Faol markaz ID	Bo'shliq hajmi (Å ³)	Markaz (x, y, z)	Bo'shliq hajmi (x, y, z)
C1	787	83, 41, 171	13, 15, 10
C2	786	27, 7, 163	15, 24, 22
C3	767	49, 45, 157	17, 12, 9
C4	763	63, 34, 166	15, 12, 21
C5	650	94, 60, 166	13, 14, 8





1-rasm. Bo'shliqlarni qidirish natijalari

Faol markaz ID	Faollik energiyasi	Bo'shliq hajmi (Å ³)	Markaz (x, y, z)	Docking hajmi (x, y, z)
C1	-5.1	787	83, 41, 171	16, 16, 16
C3	-4.8	767	49, 45, 157	22, 16, 16
C4	-4.7	763	63, 34, 166	16, 16, 26
C5	-4.4	650	94, 60, 166	16, 16, 16
C2	-4.0	786	27, 7, 163	16, 29, 27



2-rasm. Bo'shliqlardagi faollik natijalari

Oqsil va ligandning o'zaro ta'siridan yuqoridagi keltirilgan bo'shliqlarga mos ravishda -5.1, -4.8; -4,7; -4,4 va -4,0 kcal/mol energiyaga ega faollik kuzatildi (2-rasm). Natijalar shuni ko'rsatadiki hajmi eng katta va eng kichik bo'shliqda ligandning faolligi yuqori bo'ladi.



4. Bitencourt-Ferreira G., de Azevedo W. F. Molecular docking simulations with ArgusLab //Docking screens for drug discovery. – 2019. – C. 203-220.
5. Rashitova, S. (2023). USE OF INTERACTIVE METHODS IN CHEMISTRY. International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 3(10), 115-119.
6. Rashitova, S. (2023). BENTONIT GIL KUKUNINI SORBSION XOSSASINI KIMYOVIY USULDA FAOLASHTIRISH. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(10 Part 3), 98-102.

O’QUVCHILARNING FANGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV TA’LIM PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH

F.R.Karimov,

BuxDU, “Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari” kafedrası o’qituvchisi

An’anaviy sinf muhiti o’rnini bosgan interfaol o’quv platformalari o’quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini takomillashtirishning muhim vositasiga aylandi. Ushbu tezisda interfaol o’quv platformalaridan foydalanishning ahamiyati va afzalliklari muhokama qilinadi va ular o’z vakolatlarini qanday shakllantirishi mumkinligi ta’kidlanadi.

1. Ta’limda texnologiyaning o’rni:

Texnologik taraqqiyot ta’limga katta ta’sir ko’rsatadi. Interfaol o’quv platformalari ma’lumotlarga tezkor kirish, turli o’quv materiallarini taqdim etish va individual o’quv imkoniyatlari kabi afzalliklari bilan ajralib turadi.

2. Interfaol o’quv platformalarining xususiyatlari:

Ushbu platformalar interfaol o’quv materiallari, real vaqtda fikr-mulohaza, o’lchash va baholash vositalari va hamkorlikda o’rganish kabi xususiyatlarni taklif etadi. Bu xususiyatlar o’quvchilarni o’rganishda faol ishtirok etishni rag’batlantiradi va chuqur tushunishga yordam beradi.

3. O’quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish:

Interfaol o’quv platformalari o’quvchilarga tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, muloqot qilish, hamkorlik qilish, ijodkorlik, innovatsiyalar, axborot va ma’lumotlar savodxonligi kabi ko’nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu platformalar, shuningdek, o’quvchilarning turli fanlar bilan integratsiyalashuvini rag’batlantiradi.

4. Motivatsiya va qiziqishni oshirish:

Interfaol o’quv platformalari o’quvchilarning motivatsiyasi va qiziqishini oshirishning samarali vositasidir. O’yin elementlari, mukofotlar va taraqqiyotni kuzatish kabi elementlar o’quvchilarning faolligini ta’minlaydi.

5. O’quv jarayonidagi moslashuvchanlik:

Interfaol o’quv platformalari o’quvchilarga vaqt va makon mustaqilligini ta’minlaydi. O’quvchilar o’z tezligida va o’z ehtiyojlariga qarab o’rganish

imkoniyatiga ega. Bu o'quvchilarga chuqurroq o'rganish va o'z o'quv jarayonlarini boshqarish imkonini beradi.

6. O'qituvchi va o'quvchilar muloqoti:

Interfaol o'quv platformalari o'qituvchilarga o'quvchilar bilan yanada samarali muloqot qilish imkonini beradi. O'qituvchilar o'quvchilarning taraqqiyotini kuzatishi, fikr-mulohazalarini bildirishi va individual o'quvchilarga yo'l-yo'riq berishi mumkin.

7. O'quvchilarni monitoring qilish va baholash:

Interfaol o'quv platformalari o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholash uchun foydali vositalarni taqdim etadi. Ma'lumotlar tahlili va o'quvchilarning muvaffaqiyati haqida hisobotlar o'qituvchilarga o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

8. Global ta'lim imkoniyatlari:

Interfaol o'quv platformalari o'quvchilarga global ta'lim imkoniyatlarini taqdim etadi. Virtual sinf xonalari, onlayn munozara forumlari va xalqaro ta'lim loyihalari kabi xususiyatlar o'quvchilarga turli madaniyatlar va mintaqalardagi o'quvchilar bilan muloqot qilish imkonini beradi.

9. Barqarorlik:

Interaktiv o'quv platformalari qog'ozdan foydalanishni kamaytirish orqali ekologik toza o'quv modelini taklif qiladi. Elektron foydalanish mumkin bo'lgan materiallar resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini beradi va barqarorlik haqida xabardorlikni oshiradi.

10. Doimiy rivojlanish va yangilanish:

Texnologiya jadal rivojlanib borar ekan, interaktiv o'quv platformalari doimiy ravishda ishlab chiqiladi va yangilanadi. Bu o'quvchilarning har doim eng so'nggi ma'lumotlar va innovatsiyalarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa. Ularning malakasini oshirish uchun interfaol o'quv platformalaridan foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu platformalar o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiradi, individual ta'lim imkoniyatlarini ta'minlaydi va o'quvchilarni chuqur tushunishga yordam beradi. Shuningdek, u o'qituvchilarga o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi va ish faoliyatini nazorat qilish va baholash jarayonlarini osonlashtiradi. Interfaol o'quv platformalarining afzalliklarini inobatga oladigan bo'lsak, o'qituvchilarning ushbu vositalardan unumli foydalanish orqali o'z malakalarini oshirishlari muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F.R.Karimov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalar fanini o'qitishda ta'lim platformalardan foydalanishning afzalliklari. //Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnali, 2-son (2024-yil, fevral) 88-91-betlar.
2. F.R.Karimov. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida 9-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" faniga oid kompetensiyalar va ularning

$$D(\lambda) = \det(A - \lambda E) = \begin{vmatrix} a_{11} - \lambda & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} - \lambda & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} - \lambda \end{vmatrix} = 0 \quad (2)$$

A matrisaning xarakteristik tenglamasi (2) tenglamaning chap qismidan iborat[2].

$$\det(A - \lambda E) = (-1)^n (\lambda^n - p_1 \lambda^{n-1} - p_2 \lambda^{n-2} - \dots - p_n) \quad (3)$$

(3) ko'phad esa A matrisaning xarakteristik ko'phadi deyiladi.

$$P(\lambda) = \lambda^n - p_1 \lambda^{n-1} - p_2 \lambda^{n-2} - \dots - p_n \quad (4)$$

(4) ko'phad A matrisaning xos ko'phadi deyiladi.

Matritsaning barcha xos sonlari va ularga mos xos vektorlarni topish masalasi xos qiymatlarni to'liq muammosi deyiladi. Xos sonlarning bittasi yoki ularning bir qismini va mos ravishda xos vektorini topish xos qiymatlarning qisman muammosi deyiladi.

Shunday qilib xos sonlarni va xos vektorni topish uchun.

- 1) $P(\lambda)$ ko'phad tuziladi.
- 2) $P(\lambda) = 0$ tenglamadan barcha λ_i ($i=1..n$) xos sonlar topiladi.
- 3) (1) tenglamalar sistemasidan xos vektorlar aniqlanadi.

A matrisaning xos sonlarini topishda quyidagi munosabatlardan ham foydalaniladi.

$$\lambda_1 + \lambda_2 + \dots + \lambda_n = a_{11} + a_{22} + \dots + a_{nn} = \text{tr}A$$

$$\lambda_1 \cdot \lambda_2 \cdot \dots \cdot \lambda_n = \det A$$

Matrisaning xos sonlarini va xos vektorlarini topishni Krilov usulini ko'rib chiqaylik[3].

1) Noldan farqli ixtiyoriy $c^0 = (c_{01}, c_{02}, \dots, c_{0n})$ vektor tanlanadi, qolgan $c^{(i)}$ vektorlar $c^{(i)} = A \cdot c^{(i-1)}$ munosabat bo'yicha aniqlanadi.

2) Ushbu

$$\begin{cases} p_1 c_{n-1,1} + p_2 c_{n-2,1} + \dots + p_n c_{0,1} = c_{n,1} \\ p_1 c_{n-1,2} + p_2 c_{n-2,2} + \dots + p_n c_{0,2} = c_{n,2} \\ \dots \\ p_1 c_{n-1,n} + p_2 c_{n-2,n} + \dots + p_n c_{0,n} = c_{n,n} \end{cases}$$

Sistema tuziladi va undan p_i lar aniqlanadi.

- 3) xarakteristik ko'phad tuziladi va undan λ_i ($i=1..n$) xos sonlar topiladi.
- 4) Xos vektor aniqlanadi.

$$x^{(i)} = b_{i1}c^{(0)} + b_{i2}c^{(1)} + \dots + b_{im}c^{(m-1)}$$

$$\begin{cases} b_{i,m} = 1 \\ b_{i,m-1} = \lambda_i - p_1 \\ b_{i,m-2} = \lambda_i^2 - p_1\lambda_i - p_2 \\ \dots \\ b_{i,1} = \lambda_i^{m-1} - p_1\lambda_i^{m-2} - \dots - p_{m-1} \end{cases}$$

Misol:

$$A = \begin{bmatrix} 5 & 30 & -48 \\ 3 & 14 & -24 \\ 3 & 15 & -25 \end{bmatrix}$$

matritsaning xos son sonlari va xos vektorlari topilsin.

Yechish. $y^{(0)} = (1,0,0)^T$ deb

$$y^{(1)} = (5,3,3)^T, \quad y^{(2)} = (-29,-15,-15)^T, \quad y^{(3)} = (125,63,63)^T$$

larni hosil qilamiz va (3) sistemani yozamiz

$$\begin{aligned} -29p_1 + 5p_2 + p_3 &= 125 \\ -15p_1 + 3p_2 &= 63 \\ -15p_1 + 3p_2 &= 63 \end{aligned}$$

Bu sistemani yechishda Gauss usulining uchinchi qadami bajarilmaydi, chunki 2 va 3-tenglamalar bir xil, demak $y^{(0)}$ $y^{(1)}$ $y^{(2)}$ $y^{(3)}$ lar chiziqli bog'liq.

$y^{(0)}$ $y^{(1)}$ $y^{(2)}$ larga bog'liq

$$\begin{cases} 5p_1 + p_2 = -29 \\ 3p_1 = -15 \end{cases}$$

sistemani tuzamiz. Bundan $p_1 = -5$, $p_2 = -4$ bo'ladi. $\lambda^2 + 5\lambda + 4 = 0$ deb

$\lambda_1 = -4$, $\lambda_2 = -1$ ni topamiz. λ_3 ni topish uchun, bizga ma'lum

$$a_{11} + a_{22} + a_{33} = \lambda_1 + \lambda_2 + \lambda_3$$

munosabatdan foydalanamiz

$$5 + 14 - 25 = -4 - 1 + \lambda_3$$

$$-6 = -5 + \lambda_3$$

$$\lambda_3 = -1$$

Yuqoridagi misoldan ko'rinadiki matrisani xos sonlarini hamda xos vertorni topish ancha vaqt va hisob kitoblarni talab etadi.

Matritsaning xarakteristik tenglamasi hamda xos sonini Mathcad dasturlash tilida topish algoritmini ko'rib chiqamiz:

$$A := \begin{pmatrix} 1 & -2 & 1 \\ -1 & 3 & 1 \\ -1 & 2 & 2 \end{pmatrix}$$

Misol: matritsaning xos sonlarini topish so'ralgan bo'lsin. Quyidagi buyruq orqali birlik matritsa aniqlanadi:

E := identity(rows(A))

Expand buyrug'i orqali xarakteristik ko'phadi tuziladi

$$P(\lambda) := |A - \lambda \cdot E| \text{ expand } \rightarrow 6 \cdot \lambda^2 - \lambda^3 - 8 \cdot \lambda + 3$$

Ko'phad koeffitsiyentlari aniqlanadi:

$$a := P(\lambda) \text{ coeffs}, \lambda \rightarrow \begin{pmatrix} 3 \\ -8 \\ 6 \\ -1 \end{pmatrix}$$

Polyroots buyrug'i orqali tenglama nollarini topiladi.

$$\lambda := \text{polyroots}(a) \quad \lambda = \begin{pmatrix} 0.697 \\ 1 \\ 4.303 \end{pmatrix}$$

Berilgan matrisaning xos sonlar shu ko'rinishda bo'ladi. Bu algoritmdan ko'rinadiki faqat A matrisani ko'rinishini bersak, bizga uning barcha xos sonlarini topib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Isroilov M.I. «Hisoblash metodlari»: – T: O`qituvchi, 2000 y.
2. Самарский А.А. «Введение в численные методы»: –М: Наука, 1987 й.
3. Бахвалов Н.С. «Численные методы»: –М: Наука.1987 й.

TIBBIYOT INSTITUTI TALABALARI BILAN KARBONSUVLAR, MONOSAXARIDLAR TUZILISHI VA XOSSALARI MAVZUSIDAGI DARSNI ZAMONAVIY USLUBDA O`TISH VA MAVZUNING DOLZARBLIGINI YORITISH.

*Sh.T.Otamurodova,
Buxoro Innovatsion ta`lim va tibbiyot universiteti dotsenti*

Проведение занятия по строению и свойствам углеводов, моносахаридов со студентами медицинского института в современном стиле и разъяснение актуальности темы.

Conducting a lesson on the structure and properties of carbohydrates, monosaccharides with the students of the medical institute in a modern style and clarifying the relevance of the topic.

Annotatsiya. Bugungi kundagi o`qitishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda talabalarga uglevodlar, xususan, monosaxaridlarning tuzilishi va xossalari haqida chuqur bilim berish. Bunga ko`ra uglevodlar tirik organizmlarning muhim tarkibiy qismi bo`lganligi uchun, inson metabolizmi va fiziologiyasida asosiy rol o`ynaydi. Ularning tuzilishi va xususiyatlarini tushunish uchun quyidagi zamonaviy yondashuv zarur. Uglevodlarning tuzilishi va xossalari tahlil qilish uchun kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish juda samarali usul. Bundan tashqari uglevod almashinuvining buzilishi bilan bog`liq kasalliklarni tashxislash va davolash. Uglevodlar almashinuviga qaratilgan yangi dori vositalarini ishlab chiqish uchun tibbiy bilimning zarurligini tushuntirgan holda talabalarning umumiy biokimyo va patofiziologiya haqida tushunchalarini oshirish.

Аннотация. Дать студентам глубокие знания о строении и свойствах углеводов, особенно моносахаридов, используя современные методы обучения. Соответственно, углеводы являются важным компонентом живых организмов и играют ключевую роль в обмене веществ и физиологии человека. Для понимания их структуры и свойств необходим следующий современный подход. Работа в небольших группах — очень эффективный способ анализа структуры и свойств углеводов. Кроме того, проводится диагностика и лечение заболеваний, связанных с нарушениями углеводного обмена. Улучшить понимание студентами общей биохимии и патофизиологии, одновременно объясняя необходимость медицинских знаний для разработки новых препаратов, воздействующих на углеводный обмен.

Abstract. To provide students with in depth knowledge about the structure and properties of carbohydrates, especially monosaccharides, using modern teaching methods. Accordingly, carbohydrates are an important component of living organisms and play a key role in human metabolism and physiology. To understand their structure and properties, the following modern approach is necessary. Working in small groups is a very effective way to analyze the structure and properties of carbohydrates. In addition, diagnosis and treatment of diseases associated with

carbohydrate metabolism disorders. To increase students' understanding of general biochemistry and pathophysiology while explaining the need for medical knowledge to develop new drugs targeting carbohydrate metabolism.

Tayanch soʻzlar: oksiketon, monosaxaridlar, glukoza, dekstrinlar, amilaza, disaxaridlar, laktaza, maltoza, izomaltoza.

Ключевые слова: оксикетон, моносахариды, глюкоза, декстрины, амилаза, дисахариды, лактаза, мальтоза, изомальтоза

Key words: oxyketone, monosaccharides, glucose, dextrans, amylase, disaccharides, lactase, maltose, isomaltose..

Shavkat Mirziyoyev: Xalqimiz salomatligi hamma narsadan ustun va qadrli.


Biz xalqimiz salomatligi uchun har qancha mablag' va kuch-imkoniyat sarflashga tayyormiz. Shaxsan men uchun xalqimiz salomatligi hamma narsadan ustun va qadrli. Prezidentimizning quyidagi soʻzlari har bir taʼlim fidoyising yuragiga yetib bormay qoʻymaydi.

Jahon sogʻliqni saqlash tashkilotining maʼlumotlariga koʻra, inson salomatligi 19 foiz tashqi muhitga, 20 foiz genetik omillarga, 9 foiz sogʻliqni saqlashni tashkil etish va 52 foiz turmush tarziga bogʻliq.

Bugungi kunda Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz.

“Maktabda oʻqitish metodikasi oʻzgarmasa, taʼlim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham oʻzgarmaydi, –degan fikrni prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev doimo taʼkidlab keladilar. Dunyodagi zamonaviy oʻquv dasturlari, oʻqitish metodikalarini oʻrganib, yurtimizdagi oliy taʼlim muassasalarida ham pedagoglar intrnet tarmoqlaridan unumli foydalangan holda darslarni ilgʻor pedagogik tajriba bilan boyitgan holda oʻtishni yoʻlga qoyishgan. Men 2023-2024-yildagi medagogik ish faoliyatimni boshlab taʼlim jarayoniga sinov tariqasida darsimda Wordwall, Kahoot, kabi internet tarmoqlaridagi programmalardan muntazam ravishda foydalanib kelaman. Bunday jumboqli vaziyatlardan foydalanib darsdagi unumli natijaga erishganimga amin boʻldim. Bu usuldagi dars jarayonlarining afzalligi, birinchidan-talabazarda xotira tizimi rivojlanadi buning natijasida eshitgan va oʻqigan maʼlumotlarini xotirada toʻplay oladi. Ikkinchidan oʻtilgan mavzularni qayta eshitish orqali unda fikrlash qobiliyati rivojlanadi. U oʻzi duch kelgan mantiqiy savollarni tafakkur qilgan holda idrok etadi. Yana bir afzalligi talabaning oʻzi ushbu jarayonni juda yaxshi anglagan holda bajaradi, chunki 21-asr bolasi intent asridagi barcha globallashtirgan muammoni yecha oladi. Oʻzining kasb doirasida ham bu amaliyotni yaxshi tushinib qabul qiluvchiga aylanadi. Xoʻsh dastlab ishni yangi mavzuni tushuntirishdan boshlaymiz. Yangi mavzuni yoritish uchun Power Point dasturida dars ishlanma tayyorlab olgan holda mavzini talabalarga tushintiraman.

Karbonsuvlar miqdor jihatidan olib qaralganda tashqi va ichki organik olam muhitlarining hamda iste'mol qilinadigan oziq ovqatlarning umuman tiriklik dunyosining asosiy qismini tashkil etadi. Ma'lumki katta yoshdagi insonning kundalik iste'mol qiladigan oziq ovqat ratsionini taxminan 500-600 gr miqdorini karbonsuvlar tashkil etadi va insonning kundalik energiyasiga bolgan ehtiyojini



qondiradigan miqdorda energiya ishlab chiqaradi. Bundan tashqari karbonsuvlarning hayot uchun eng zarur ahamiyati ularning boshqa moddalar bilan oqsillar, yog'lar, nuklein kislotalar, kofermentlar va boshqalar reaksiyaga kirishib, organizmga zarur bo'lgan yangi moddalarni (masalan: glukoproteidlar, mukopolisaxaridlar) sentizi uchun sarflanadi.

Uglevodlar- oqsillar va yog'lar bilan bir qatorda odam, jonivorlar va o'simliklar organizmi hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan keng tarqalgan organik birikmalar guruhi. Organizmda moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'ladigan energiya manbalaridan biri. Xossalriga ko'ra, oksialdegidlar va oksiketonlarga yaqin turadi. Uglevodlar asosiy qismining umumiy formulasi $C_nH_{2n}O_n$ yoki $C_m(H_2O)_m$ bo'lib, monosaxaridlardan glyukoza (fruktoza) $C_6H_{12}O_6$ yoki disaxaridlardan saxaroza $C_{12}H_{22}O_{11}$ ularga misol bo'la oladi. O'simliklar qattiq moddasi massasining 80% ga yaqini, jonivorlar quruq massasining 2% ga yaqini uglevodlarga to'g'ri keladi. O'simliklar uglevodlarni anorganik moddalar — karbonat angidrid (CO_2) bilan suvdan sintez qiladi (1-rasm).

Uglevodlar. 2 katta guruhga: monosaxaridlar va polisaxaridlarga bo'linadi. Biz bulardan monosaxaridlar guruhini o'rganamiz. Mavzumizni tibbiyotga oid qismini ham aytib o'taman. Uglevodlarning hazmlanishi va organizmga so'rilishi-haqida qisqacha aytib o'tsak:

So'lak: α -amilaza dekstrinlar

Pankreatik amilaza disaxaridlar

Ichak: Saharaza, laktaza, maltoza, izomaltoza monosaxaridlar

1,4-glikozid bog'larni parchalaydilar

1,4-glikozid bog'larni – amilo 1,6-glikozidaza kabi fermentlar ishini hosil qiladi.

1)- glikozidning shakar bo'lmagan qismi

2) - molekulasida 6 ta C atomi bo'lgan monosaxarid



3) - 5 ta C atomi va aldigid guruhini saqlagan monosaxarid

4) - 6 ta C atomi va aldigid guruhini saqlagan monosaxarid

5) - tadan 10tagacha monosaxaridlar qoldiqlarini saqlagan polisaxarid.

6) - polisaxaridlar va oligosaxaridlarning tarkibiga kiradi. U asosan, kraxmalni kislotali sharoitda gidrolizlab olinadi

7) - 6 ta C atomi va aldigid guruhini saqlagan monosaxarid



<https://wordwall.net/ru/resource/66648227>

Krossvord



<https://wordwall.net/ru/resource/66618120>

Tushunchalar tahlili.

Darsni mustahkamlash qismlarida yoki o`tilgan mavzuni takrorlab mustahkamlash bosqichida ushbu metodik qo`llanmadan juda ko`p foydalanish mumkin. Chunki bu juda oddiy ko`ringani bilan eng samarali usul hisoblanadi. Talabalarga savol beribgina qolmay ularni zeriktirmasdan ramziy zinapoyadan bilimlari ko`magida ko`tarilishni mashq qildirish talabaga kelajakda o`ziga bo`lgan kuchli ishonchni beradi. Bu yerda biror talabani qiyosiy qilib olinadi, uy esa oldindagi maqsadga erishishga bo`lgan eng katta turtki sifatida uygunlashtirilgan. Bolaning tashqi ko`rinishi ta`lim yo`nalishiga oid bo`lishining ham sababi bor. Bu qiyoslash hayotning barcha qismiga ta`lim bilan erishiladi degani. Buni plakat shaklida tayyorlab har bir savolda bir bosqich oshish mumkin. Har bir ko`tarilishni belgi yoki izohlar bilan ifodalab boriladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimxodjayeva N. Tibbiy kimyo I-II qismlari. Toshkent “IJOD - PRINT” 2019-y
2. S, Masharipov Tibbiy kimyo Toshkent 2018-y.
3. Биохимия человека / Под ред. Е. С. Северина. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2021. Глава 8. Углеводы
4. Основы биохимии человека. Том 1. Общая биохимия / Под ред. А. М. Уголева. М.: Медицинское информационное агентство, 2019. Глава

ASETILASETOANILID ATSETILGIDRAZONINING MOLEKULYAR DOKINGI

S.F. Abduraxmonov,
BuxDU, Organik va fizkolloid kimyo kafedrasini mudiri
kimyo fanlari falsafa doktori
Rahmatova R.S,
BuxDU kimyo mutaxassisligi magistranti
r.s.rahmatova@buxdu.uz.


Bugungi kunda β -ketoamidlarining tadqiqotlari ko'p o'rganilgan qiziqarli va muhim birikmalar sinfini tashkil qiladi. β -ketoamid guruhlarini ko'plab tabiiy

molekulalarda va terapevtik vositalarda keng tarqalgan. Molekuladagi bir nechta reaktiv joylarga ega β -ketoamidlarning noyob tuzilishi ularning organik sintezda qurilish bloklari sifatida keng qo'llanilishini ta'minlaydi [1-2]. Bunday qo'llanilishi asosan β -ketoamidlarning β -dikarbonil birikmalarining tipik vakillari ekanligi va ularning reaktivligi, tuzilishi va tautomer muvozanati bilan bog'liq. Tautomeriya jarayonini tushunish zamonaviy organik va tibbiy kimyo, biokimyo va farmakologiyada reaksiya mexanizmlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega [3].

Tadqiqotning maqsadi: Asetilasetoanilid atsetilgidrazonining tuzilishi hamda biologik faolligini P450 bakteriyasiga nisbatan o'rganish.

Tadqiqotning materiallari va usullari: Asetilasetoanilid atsetilgidrazonining tuzilishi tajribada o'rganildi. Moddaning biologik faolligi P450 bakteriyasiga nisbatan experimental hamda tajriba natijalarini tasdiqlash maqsadida CB-Dock2 onlayn serveri yordamida P450 dan olingan oqsil bilan o'zaro ta'siri molekulyar doking usulida o'rganildi. Doking uchun olingan asetilasetoanilid atsetilgidrazoni molekulasi Chemdraw dasturi yordamida optimallashtirib tayyorlanib o'rganildi.

Tadqiqotning natijalari: CB-Dock2 onlayn serveri yordamida dastlab oqsilning asetilasetoanilid atsetilgidrazoni bilan ta'sirlashish bo'shliqlari o'rganildi, bunda 2541; 2317; 2549; 2298 hamda 2338 Å³ hajmdagi 5 ta faol bo'shliq markazi aniqlandi (1-rasm). So'ng birikma va oqsil ilovaga yuklanib, molekulyar doking jarayoni amalga oshirildi [4].



1-rasm. Oqsilning izlangan bo'shliqlarida asetilasetoanilid atsetilgidrazonining o'zaro ta'siri.


Oqsil va birikmaning o'zaro ta'siridan yuqoridagi keltirilgan bo'shliqlarga mos ravishda -7,7; -7,7; -7,5; -7,3 va -6,0 kcal/mol energiyaga ega faollik kuzatildi (1-jadval). Natijalardan bilib olish mumkinki, hajmi eng katta bo'lgan bo'shliqda birikmaning faolligi yuqori bo'ladi. Olingan xulosalarga asoslanib, tekshirish uchun olingan asetilasetoanilid atsetilgidrazonining P450 bakteriyasiga nisbatan faolligi o'rganildi. (2-rasm).


Yuqorida ta'kidlangan oqsil tarkibida 5 ta bo'shliq uchun quyidagi tartibda aminokislotalar qatori faol markaz ta'siri namoyon bo'ldi (3-rasm).

C2 bo'shliq uchun Chain B: ARG101 PHE107 PHE111 VAL116 VAL117 PHE118 ARG128 PHE209 LEU296 ASN297 LEU298 PHE300 ALA301 GLU304 THR305 ILE366 GLY369 LEU370 ARG372 LEU395 PRO431 PHE432 SER433 ARG437 ASN438 CYS439 PHE440 GLY441 PHE480


C4 bo'shliq uchun Chain D: ARG101 PHE107 PHE111 VAL116 VAL117 PHE118 ARG128 PHE209 LEU296 ASN297 LEU298 PHE300 ALA301 GLU304 THR305 ILE366 GLY369 LEU370 ARG372 LEU395 PRO431 PHE432 SER433 LYS436 ARG437 ASN438 CYS439 PHE440 GLY441 PHE480

C1 bo'shliq uchun Chain A: ARG101 PHE107 PHE111 VAL116 VAL117 PHE118 ARG128 PHE209 LEU296 ASN297 LEU298 PHE300 ALA301 THR305 ILE366 GLY369 LEU370 ARG372 LEU395 PRO431 PHE432 SER433 ARG437 ASN438 CYS439 PHE440 GLY441 PHE480

1-jadval. Asetilasetoanilid atsetilgidrazonining molekulyar doking natijalari					2-rasm. Bo'shliqlarni qidirish natijalari
Bo'shliq raqami	Vina score, kcal/mol	Bo'shliq hajmi (\AA^3)	Markaz (x, y, z)	Bo'shliq o'lchami (x, y, z)	
C2	-7.7	2541	-16, -49, -4	19, 25, 29	
C4	-7.7	2317	-37, 1, -50	19, 26, 19	
C1	-7.5	2549	-19, 6, -4	19, 25, 19	
C5	-7.3	2298	3, -52, -45	19, 26, 19	
C3	-6.0	2338	-16, -21, 11	25, 19, 26	




C2




C4




C1



C5



C3



JAMI

3-rasm. Oqsilning izlangan bo'shliqlarda ligandning o'zaro ta'siri.

3-rasm. Oqsilning izlangan bo'shliqlarda ligandning o'zaro ta'siri.

C5 bo'shliq uchun Chain C: ARG101 PHE107 PHE111 VAL116 VAL117 PHE118 ARG128 PHE209 LEU296 ASN297 LEU298 PHE300 ALA301 THR305 ILE366 GLY369 LEU370 LEU395 PRO431

C3 bo'shliq uchun Chain A: ASN167 ILE168 ASP169 PHE172 PHE173 ARG176 LEU315 SER465 GLN466 ASP470 ILE471 ASP472 ARG485 ASN486 TYR487 THR488 Chain B: ASN167 ILE168 ASP169 THR171 PHE172 PHE173 ARG176 LEU199 ARG203 SER465 GLN466 ASN486 TYR487 THR488 PHE432 SER433 ARG437 ASN438 CYS439 PHE440 GLY441 PHE480

Xulosa: Asetilasetoanilid atsetilgidrazon birikmasining tarkibi va tuzilishini batafsil o'rganish barobarida, uning P450 bakteriyasiga nisbatan 5 ta faol markazlari aniqlanilib, undan farmakologik preparat tayyorlashda amaliyotga tadbiiq etish belgilab olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hussain, S.M., El-Reedy, A.M., and El-Sherabasy, S.A., J. Heterocycl. Chem., 1988, vol. 25, p. 9.
2. El-Meligie, S.E.M., Khalil, N.A., El-Nassan, H.B., and Ibraheem, A.A.M., Curr. Org. Chem., 2019, vol. 23, p. 2005.
3. Raczynska, E.D., Kosinska Osmialowski, W.B., and Gawinecki, R., Chem. Rev., 2005, vol. 105, p. 3561.
4. Liu, Y., Grimm, M., Dai, W. T., Hou, M. C., Xiao, Z. X., & Cao, Y. (2020). CB-Dock: a web server for cavity detection-guided protein–ligand blind docking. Acta Pharmacologica Sinica, 41(1), 138-144.

BUXORO HUDUDIDA BALIQCHILIK HOVUZLARINI TASHKIL ETISH VA TOVAR BALIQ MAHSULDORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI

*S.B.Bo'riyevich,
Sh.R.Raxmatulloyevna,
L.T.Yuldoshov,
A.B.Yarashov,
BuxDU, 2-bosqich magistranti,
a.b.yarashov@buxdu.uz*

Respublikada baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etgan holda hajmlarini oshirish, sohani tartibga solish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ularning ijrosini sifatli va puxta ta'minlash choralari ko'rilmoqda.

Shu bilan birga, intensiv usulda baliq yetishtirish bo'yicha ishlarga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti, hududlarda baliqchilik tarmog'ini rivojlantirishda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish, baliqchilik xo'jaliklarini

qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan ishlar yetarli darajada emas. Baliqchilik xo'jaliklariga birlashtirilgan suv havza maydonlaridan ilmiy yondashuv asosida samarali foydalanish, ularning meliorativ holatini yaxshilash, shuningdek, resurs tejankor texnologiyalar va innovatsiyalarni keng ko'lamda joriy qilish ishlariga yetarlicha e'tibor berilmayapti.

Sun'iy suv havzalari hosildorligini oshirish uchun baliqchilik xo'jaliklarining mineral o'g'itlarga bo'lgan talabi to'liq qondirilmayapti. Shuningdek, mineral o'g'itni boshqa muqobil o'g'itlar bilan almashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagan.

Baliqni intensiv usulda yetishtirish, ovlash va qayta ishlash uchun zarur asbob-uskuna, anjom va mexanizmlarni mahalliy ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan. Buning oqibatida ko'plab tadbirkorlar vaqt va mablag'ini ortiqcha sarflab, ularni chet eldan xarid qilmoqda.

Baliqchilik sohaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni kiritish ishlari lozim darajada tashkil etilmagan, bu borada xorijiy davlatlar va tashkilotlar bilan samarali, o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lga qo'yilmagan. Respublikada intensiv usulda baliq yetishtirishni bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish va rag'batlantirish, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish, sohaga innovatsion g'oyalar, ilmiy ishlanmalar, zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini keng ko'lamda joriy qilish, baliqchilik tarmog'ini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining uzluksiz suv ta'minlash imkoniyati bo'lgan sun'iy suv havza maydonlari mavjud bo'lgan baliqchilik xo'jaliklarini bosqichma-bosqich intensiv usulda baliq yetishtirishga ixtisoslashtirish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

Dunyoda iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning buzilishi va tabiiy zahiralarning kamayishi sharoitida aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash birlamchi vazifalardan biri bo'lib turibdi. Shu o'rinda, suv havzalarining barqarorligini ta'minlash, gidrobiontlar bioxilma-xilligini saqlash va zamonaviy usullardan foydalanib baliq mahsuldorligini oshirish muhim vazifalardan sanaladi. Tabiiy va sun'iy suv xavzalarining gidrobiologiyasi va gidrokimyoviy holatini aniqlash hamda ulardan foydalanishning samarador usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ichki suv havzalari orasida arid hududlarida tarqalgan suv xavzalari gidrologik rejimining o'ziga xosligi, gidrokimyoviy tarkibining o'zgaruvchanligi ularda tarqalgan gidrobiont organizmlarning ham xilma-xil bo'lishiga olib kelgan. Baliqchilikni rivojlantirish nuqtai-nazaridan bunday suv xavzalarida zooplankton va makrofit o'simliklar turlarini aniqlash va istiqbolli turlarini alohida ko'paytirishning ekologik-samarador usullarini ishlab chiqish – baliq mahsuldorligini oshirish manbai sanaladi. Shu nuqtai-nazardan, tabiiy suv xavzalari zooplanktonlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, sanoatda

ozuqabop bo'lgan turlarni ko'paytirish aniqlash va baliqlarga qo'shimcha ozuqa sifatida qo'llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizning suv havzalaridagi gidrobiontlarni A.M. Muhammadiev (1968), M.A. Abdullaev (1969), D.S. Niyozov (2011), A.R. Kuzmetov (2019), H.M. Toshov (2021) lar tomonidan o'rganilgan.

Yosh baliqlarning ehtiyojlari oqsil, yog', energiya va ularning ma'lum bir yuki uchun boshqa ko'rsatkichlar tarkibining massa va kimyoviy tarkibi bilan belgilanadi, ekologik ko'rsatkichlar va em-xashak va tabiiy oziq-ovqat miqdori, shuningdek ularda ozuqa moddalarini assimilyatsiya qilish imkoniyatlari hisobga olinadi. Baliqchilikda ishlatiladigan turli xil yoshdagi baliqlarning rivojlanishi uchun mo'ljallangan retseptlar ilmiy asosda tuzilgan va ular turli xil sharoitlarda etishtiriladigan baliqlarni oziqlantirishda qo'llaniladi.



1-rasm. Dala sharoiti va laboratoriyada turlar tarkibini aniqlash jarayoni

Chorvachilikda asosiy oziq moddalar bo'yicha aralash ozuqalarning muvozanatli tarkibi hayvonlarning mahsuldorligini 10-12 % ga oshirish imkonini beradi va ularning o'sish stimulyatorlari (vitaminlar, mikroelementlar, antibiotiklar va boshqa moddalar) bilan boyitilganda 25-30% ga oshadi.

Zooplankton suvda muallaq suzib yuruvchi (substratlarga yopishmaydigan) organizmlar guruxidir. Plankton (gr. planktos—qalqib yuruvchi) terminini birinchi bo'lib fanga 1887 yili nemis fiziolog olimi V.Genzen olib kirgan. Yashash uzoqligiga qarab plankton organizmlar quyidagicha klassifikatsiyalanadi.

Zooplankton namunalarni konusli plankton suzgichlari Djedi to'rlaridan (№ 56-76) yoki tutqich(sachok)lar (2-rasm) yordamida 50-100 litr suvni chelak yordamida suzib olish va suvning ma'lum chuqurligiga to'r tashlanib uni tortib olish usulidan foydalaniladi. Agarda suv xavzasida qayiq bo'lsa uning yordamida o'rtaroq qismidan xam namunalar yig'iladi. Bu namunalar 4% li formalin eritmasida fiksatsiya qilinadi. Keyingi tadqiqotlarni laboratoriyada binokulyar va mikroskopda qaralib, turlari aniqlanib sifat va miqdor ko'rsatkichlari xisoblanadi. Tur andozasi

(Niyozov, 1978, Kiselyov, 1966) adabiyotlarga ko'rsatilgan. Zooplankton namunalarida sifat va miqdor bo'ladi. (Muxammediev, 1967, Metodicheskoe rekomendatsiya, 1979, Kosova, 1961, Rilov, 1948, Bening, 1941, Manuylova, 1978, Niyozov, 2003) kabi adabiyotlardan foydalandi.

Namunalarni miqdoriy qayta ishlash har bir turga mansub organizmlarni miqdorini aniqlashdan iborat bo'ladi. Sanash usulidan tashqari yana hajm va vazn o'lchovlari bo'lib, zooplanktonni va uning alohida turlarini xissasini aniqlash qiyin bo'lgan hollarda yig'indi baholash uchun ma'lumot olinadi. Planktonni hisoblash tindirilgan boshlang'ich namunani zooplanktonini mo'llik darajasiga qarab ma'lum bir konsentratsiyasi hajmidan (20-100 ml) boshlanadi. Organizmlarning zichligi past bo'lgan yoki yirik turlarni hisoblash zarur bo'lgan hollarda namunani tabiiy holdaligigicha ko'rib chiqiladi. Namunalarda organizmlarning miqdori 100 donadan ortiq bo'lgan holda uning bir qismini shtempel-pipetka bilan olib hisoblanadi. Organizmlarning namunadagi miqdoriga qarab 0,2; 0,5; 1; 2 va 5 ml li shtempel-pipetka ishlatiladi.



2-rasm. Organizmlarning namunadagi miqdorini aniqlash.

2019-yilda baliq yetishtirish va ovlash pragnoziga binoan Buxoro viloyatida jami baliq yetishtirish va ovlash hajmi 9100 tonna hajmni tashkil etadi. Shundan sun'iy suv havzalarida ikki xil holatda Ekstensiv va Yarim intensiv holatda bo'ladi. Ekstensiv 3695 tonna yarim intensivda esa 390tonna jami 4085 tonnani tashkil etadi. Tabiiy havza va suv omborlarida 3365 tonna, Qafas(sadok) moslamasida 450 tonna Intensiv usulda kichik suv havzalarida 600 tonna, Yopiq suv aylanma tizimi (UZV)da 600 tonnani tashkil etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universiteti turli tuproq-iqlim sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va o'simliklarni himoya qilishda innovatsion yondashuvlar

mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari Buxoro, 2023.B. 555-557

- 2- International scientific journal science and innovation issue dedicated to the 80th anniversary of the academy of sciences of the republic of Uzbekistan 578 biotechnology of cultivation of phytoplankton and zooplankton containing physiological active substances. Bo'riyev S.B., Sharopova Sh.R., Xodjiyeva M.S., Yarashov A. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8361795> [578-580 bet]
- 3- Bo'riyev S.B., Qobilov A.M., Yuldashov L.T., Jalolov E.K. Yashol suvo'tlarini baliqchilikda qo'llashning istiqbollari. O'zbekiston sharoitida baliqchilikni rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Buxoro, 2021.
- 4- Bo'riyev S.B., Qobilov A.M. Growing Chlorella vulgaris and its use for feeding fish. Biologiya va ekologiya jurnali. 2019. B. 67-72
- 5- Ходжиева М.С. Кормовые водные растения без БЭВ залог улучшения продуктивности рыб. The journal of integrated education and research, 2022. 12.
- 6- Sharopova Sh.R. Buxoro shahar atrofidagi suv havzalari fito va zooplanktonlarini o'rganish, ularni ko'paytirish va baliqchilikda qo'llash biotexnologiyasi. Monografiya. Buxoro, 2022. B. 51-52.
- 7- <https://www.lex.uz>

NYUTON – KOTES KVADRATUR FORMULALARI KOEFFITSIYETLARINI ANIQLASH ALGORITMI.

S.S.Elmurodova,

BuxDU, Amaliy matematika mutaxassisligi

1- bosqich magistranti,

s.s.elmurodova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada integrallarni taqribiy hisoblash metodlari hamda Nyuton – Kotes kvadratur formulalari ko'rib chiqilgan. Nyuton – Kotes kvadratur formulalari uchun algoritmi va dastur yaratilib, misollarda tadbiq qilingan hamda xatoliklari baholangan.

Kalit so'zlar: kvadratur formula, kvadratur formula xatoligi, kvadratur yig'indi, interpolyatsion formulalar, davriy funksiya.

Amaliy va nazariy masalalarning ko'pchiligi biror $[a,b]$ oraliqda uzluksiz bo'lgan $f(x)$ funksiyadan olingan $\int_a^b f(x)dx$ aniq integralni hisoblashga keltiriladi. Ammo integralni hisoblashni asosiy formulasi **Ошибка! Источник ссылки не найден.** (bu yerda $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi) amaliyotda ko'pincha ishlatilmaydi. Chunki ko'p hollarda $F(x)$ ni elementar funksiyalarning chekli kombinatsiyasi orqali ifodalab bo'lmaydi. Bundan tashqari amaliyotda $f(x)$ jadval ko'rinishda berilgan bo'lishi ham mumkin, bunday holda boshlang'ich funksiya tushunchasining o'zi ma'noga ega bo'lmay qoladi. Shuning uchun ham aniq integrallarni taqribiy hisoblash metodlari katta amaliy

ahamiyatga ega. Bu hollarda integrallarni taqribiy integrallash usullaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Aniq integrallarni taqribiy hisoblashning bir necha usullari mavjud bo'lib, ulardan ayrimlarining algoritmlari bilan tanishib chiqaylik[1].

Biz $f(x)$ funksiyalarning yetarlicha keng sinfi uchun $\int_a^b f(x)dx$ aniq integrallarning taqribiy qiymatini integral ostidagi $f(x)$ funksiyaning $[a,b]$ oraliqning chekli songa olingan nuqtalaridagi qiymatlarining chiziqli kombinatsiyasiga keltiriladigan metodlarni ko'rib chiqamiz.

$$\int_a^b f(x)dx = \sum_{k=1}^n A_k f(x_k). \quad (1)$$

Bu yerda x_k ($k=1,2,\dots,n$) kvadratur formulaning tugunlari, A_k kvadratur formulaning koeffitsientlari va $\sum_{k=1}^n A_k f(x_k)$ kvadratur yig'indi deyiladi. Kvadratur formulaning tugunlari x_k va koeffitsientlari A_k funksiyaning tanlanishiga bog'liq bo'lmasligi talab qilinadi.

Ushbu

$$R_n(f) = \int_a^b f(x)dx - \sum_{k=1}^n A_k f(x_k)$$

ifoda esa kvadratur formulaning qoldiq hadi yoki xatoligi deyiladi. Odatda (1) formulaga nisbatan umumiyroq kvadratur formula qaraladi[2,3].

Quyida $[a,b]$ oraliqni chekli deb faraz qilib, biz kvadratur formula tuzishning ayrim yo'nalishlarini qisqacha ko'rib chiqamiz.

1. Ko'pincha kvadratur formula tuzish uchun $f(x)$ funksiya $[a,b]$ oraliqda n ta x_1, x_2, \dots, x_n nuqtalar yordamida interpolatsiyalanadi:

$$f(x) = \sum_{k=1}^n \prod_{j=1, j \neq k}^n \frac{x - x_j}{x_k - x_j} f(x_k) + r_n(f, x).$$

Endi buni $\rho(x)$ ga ko'paytirib integrallasak,

$$\int_a^b \rho(x) f(x) dx = \sum_{k=1}^n A_k f(x_k) + \int_a^b \rho(x) r_n(f, x) dx$$

Kelib chiqadi, bu yerda

$$A_k = \int_a^b \rho(x) \prod_{j=1, j \neq k}^n \frac{x - x_j}{x_k - x_j} dx$$

Shu usulda tuzilgan kvadratur formulalar interpolatsion formulalar deyiladi[3].

2. Veyeshtras teoremasiga asosan, chekli oraliqda uzluksiz funksiyalarni algebraik ko'phadlar bilan yetarlicha yuqori aniqlikda yaqinlashtirish mumkin. Shu bilan birga ko'phad darajasi qancha yuqori bo'lsa, aniqlik ham shuncha yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham (1) formulada A_k va x_k parametrlarni shunday tanlashga harakat qilinadiki, bu tenglik yetarlicha yuqori darajali algebraik ko'phadlar uchun aniq bo'lsin. Shu usul bilan tuzilgan (1) formula $[a,b]$ oraliqda uzluksiz bo'lgan ko'p funksiyalarni integrallashda aniqlik jihatidan yaxshi natija beradi. Odatda, (1) formula barcha darajali ko'phadlar uchun aniq bo'lib, $f(x) =$

x^{m+1} uchun aniq bo'lmasa, u holda uning algebraik aniqlik darajasi m ga teng deyiladi.

Faraz qilaylik, $f(x)$ funksiya davriy funksiya bo'lib, uning davri 2π ga teng bo'lsin va $\int_0^{2\pi} f(x)dx$ integralni hisoblash talab qilinsin. U holda (1) formulaga A_k va x_k parametrlarni shunday tanlashga harakat qilinadiki, u imkon boricha yuqori tartibli trigonometrik ko'phadlarni aniq integrallasin. Aniqlik darajasi eng yuqori bo'lgan kvadratur formulalar katta ahamiyatga ega. Bunday formulalar *Gauss tipidagi kvadratur formulalar* deyiladi[1].

3. Kvadratur formulalar tuzishda yangi bir yo'nalish rivojlana boshladi. Uning mohiyati quyidagidan iborat. Bizga $f(x)$ funksiyalarning biror sinfi F berilgan bo'lsin. Butun F sinf uchun aniqlikni tavsiflaydigan miqdor sifatida quyidagi aniq yuqori chegara

$$R_n = \sup |R_n(f)| = \sup \left| \int_a^b \rho(x)f(x)dx - \sum_{k=1}^n A_k f(x_k) \right|$$

olinadi. Bu yerda $[a,b]$ da x_k tugunlarini va A_k koeffitsentlarni shunday tanlash talab qilinadiki, R_n o'zining eng kichik qiymatiga erishsin. Bunday formulalar, tabiiy ravishda, funksiyalarning F sinfiga eng kichik xatoga ega bo'lgan formulalar deyiladi[4].

Masalani boshqacha tarzda ham qo'yish mumkin, ya'ni A_k yoki x_k larga nisbatan ayrim shartlar bilan, masalan koeffitsentlarning o'zaro teng bo'lishlari $A_1 = A_2 = \dots = A_k$ yoki tugunlarning bir xil uzoqlikda joylashgan bo'lishligi kabi va hokazo.

Integrallarni (1) formula yordamida hisoblashda, kvadratur yig'indi umuman taqribiy ravishda hisoblanadi. Odatda $f(x_k)$ o'rnida biror $f_1(x_k)$ ga ega bo'lamiz, demak

$$f(x_k) = f_1(x_k) + \varepsilon_k$$

bu yerda ε_k – yaxlitlash xatosi. Faraz qilaylik, barcha $k=1,2,\dots,n$ uchun $|\varepsilon_k| \leq \varepsilon$ bo'lsin. Agar ko'paytmalarning yig'indisi $\sum_{k=1}^n A_k f_1(x_k)$ aniq hisoblansa, u holda kvadratur yig'indini hisoblashda yaxlitlash xatosi ε , $\sum_{k=1}^n A_k$ dan ortmaydi, xususan teng bo'lishi ham mumkin[5].

Nyuton – Kotes kvadratur formulalarini ko'rib chiqaylik. Integrallash $[a,b]$ chekli oraliqda teng h qadam bilan uzoqlashgan $x_k=a+k*h$ tugun nuqtalar bilan aniqlangan kvadratur formula quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$\int_a^b f(x)dx \approx (b-a) \sum_{k=0}^n B_k f(x_k)$$

Bu yerda kvadratur formulaning koeffitsiyentlari quyidagicha aniqlanadi.

$$B_k = \frac{(-1)^{n-k}}{n \cdot k!(n-k)!} \int_0^n \prod_{\substack{j=0 \\ j \neq k}}^n (t-j) dt$$

Nyuton – Kotes kvadratur formulalarini koeffitsiyentlari aniqlash algoritmi va dasturini Mathcad dasturida ko'rib chiqamiz hamda misollarda qo'llaymiz.

$$B(n) := \left[\begin{array}{l} \text{for } k \in 0..n \\ b_k \leftarrow \frac{(-1)^{n-k}}{n \cdot k! \cdot (n-k)!} \cdot \left[\int_0^n \left[\text{if } k = 0, 1, \left[\prod_{j=0}^{k-1} (t-j) \right] \right] \cdot \left[\text{if } k = n, 1, \left[\prod_{j=k+1}^n (t-j) \right] \right] dt \right] \end{array} \right]$$

n ga turlicha qiymat berib n ga mos Nyuton – Kotes kvadratur formulalarini koeffitsiyentlari quyidagicha bo'ladi.

$$B(5)^T \rightarrow \left(\frac{19}{288} \quad \frac{25}{96} \quad \frac{25}{144} \quad \frac{25}{144} \quad \frac{25}{96} \quad \frac{19}{288} \right)$$

$$B(6)^T \rightarrow \left(\frac{41}{840} \quad \frac{9}{35} \quad \frac{9}{280} \quad \frac{34}{105} \quad \frac{9}{280} \quad \frac{9}{35} \quad \frac{41}{840} \right)$$

$$B(7)^T \rightarrow \left(\frac{751}{17280} \quad \frac{3577}{17280} \quad \frac{49}{640} \quad \frac{2989}{17280} \quad \frac{2989}{17280} \quad \frac{49}{640} \quad \frac{3577}{17280} \quad \frac{751}{17280} \right)$$

Misollarda qo'llab quyidagi natijalarni oldik.

$$\int_0^1 f(x) dx = 1.462651745907181$$

$$f(x) := e^{x^2} \quad a := 0 \quad b := 1$$

$$n := 7 \quad h := \frac{b-a}{n} \quad i := 0..n$$

$$x_i := a + i \cdot h \quad y := B(n)$$

$$T := (b-a) \cdot \sum_{i=0}^n (y_i \cdot f(x_i)) \quad T = 1.462655249664749$$

Mathcad tizimidan foydalanib hisoblasak bu misolni natijasi quyidagicha:

Bundan ko'rinadiki Nyuton – Kotes kvadratur formulalari $n=7$ bo'lganda 10^{-5} aniqlikda hisoblayapti. n ni oshirsak yana ham aniqroq natijaga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Isroilov M.I. «Hisoblash metodlari»: – T: O`qituvchi, 2000 y.
2. Самарский А.А. «Введение в численные методы»: –М: Наука, 1987 й.
3. Бахвалов Н.С. «Численные методы»: –М: Наука.1987 й.
4. Соболев С.Л. Введение в теорию кубатурных формул. - М.: Наука, 1974. - 808 с.
5. Шарипов Т.Х. Некоторые вопросы теории приближенного интегрирования: Дис... канд.физ.-мат.наук. –Ташкент, 1975. – 102с.

6. O. I. Jalolov, “Asymptotically optimal lattice cubature formulas with a regular boundary layer in the space $H_p^{(m)}(W)$,” AIP Conference Proceedings 3004, 060028 (2024), <https://doi.org/10.1063/5.0199854>

QATLAMALI KO'PXILLIKLARNI GEODEZIK AKSLANTIRISHLAR

Z.Y.Usmonxo'jayev,

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

P.X.Bayramov,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

Qatlamali ko'pxilliklar nazariyasi zamonaviy differensial geometriya va topologiyaning yo'nalishlaridan bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida differensial tenglamalar, differensial geometriya va differensial topologiya fanlarining tutash sohasida paydo bo'lgan. Bu sohaning shakllanish va rivojlantirishda C. Ehresmann [1], G. Reeb [2], P. Molino [3], A. Haefliger [4], R. Langevin [5] kabi fransuz matematiklari salmoqli hissa qo'shdilar. Qatlamalar nazariyasining asoschilaridan biri G. Reebning asosiy ilmiy ishlari qatlamalarning sifatiy nazariyasiga bag'ishlangan. G.Reeb tomonidan, agar kompakt qatlam chekli fundamental gruppaga ega bo'lsa, u holda bu qatlamning unga diffeomorf bo'lgan qatlamlardan iborat atrofi mavjudligi isbotlangan [2]. C. Ehresmann ishlarida esa, to'la riman ko'pxilligidagi riman va to'la geodezik qatlama Ehresmann bog'lanishiga egaligi ko'rsatilgan [1].

So'ngi o'ttiz yilda O'zbekistonda professor A.Narmanov va uning shogirdlari tomonidan qatlamali ko'pxilliklar nazariyasi bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda [6]-[9]. Ushbu maqolada ham shu yo'nalishda olingan natijalar keltirilgan.

Uzluksiz akslantirishlardan biz uchun muhim akslantirishlardan biri bu topologik akslantirishdir. Topologik akslantirish homeomorf akslantirish deb ham ataladi. X va Y topologik fazolar, $f : X \rightarrow Y$ akslantirish berilgan bo'lsin.

Ta'rif 1. Agar f uzluksiz akslantirishga teskari akslantirish f^{-1} mavjud bo'lib, u uzluksiz bo'lsa, f topologik akslantirish deyiladi.

Topologik akslantirish ta'rifidan bevosita kelib chiqadiki, agar f topologik akslantirish bo'lsa, unga teskari akslantirish f^{-1} ham topologik akslantirish bo'ladi. Endi f uchun teskari akslantirish mavjud bo'lishi uchun zarur va yetarli shartlarni ko'raylik. Teskari akslantirish Y ning har bir nuqtasiga X ning har bir nuqtasini mos qo'yadi. Demak, ixtiyoriy $y \in Y$ uchun birorta $x \in X$ mavjud bo'lib, $f(x) = y$ tenglik o'rinli bo'lishi kerak. Buning uchun esa $f(X) = Y$ bo'lishi, ya'ni f ustlama akslantirish bo'lishi kerak. Bundan tashqari f^{-1} teskari akslantirish

$y \in Y$ nuqta bitta $x \in X$ nuqtani mos qo'yadigan $x_1 \neq x_2$ bo'lganda $f(x_1) \neq f(x_2)$ bo'lishi, ya'ni o'zaro bir qiymatli akslantirish bo'lishi zarurdir.

Demak, f ga teskari akslantirish f^{-1} mavjud bo'lishi uchun f ning ustlama va o'zaro bir qiymatli akslantirish bo'lishi zarur va yetarli. Agar X va Y topologik fazolar uchun $f: X \rightarrow Y$ topologik akslantirish mavjud bo'lsa, X va Y topologik fazolar o'zaro gomeomorf yoki topologik ekvivalent fazolar deb ataladi.

Endi $0 \leq k \leq n$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi butun k son qaraylik.

Tarif. Berilgan M ko'pxillikning chiziqli bog'lanishli qismi to'plamlaridan iborat oila quyidagi uchta shartni qanoatlantirsa:

$$(F_1): \bigcup_{\alpha \in B} L_\alpha = M;$$

$(F_2): \alpha \neq \beta$ shartni qanoatlantiruvchi barcha $\alpha, \beta \in B$ indekslar uchun $L_\alpha \cap L_\beta = \emptyset$ munosabat o'rinli;

$(F_3):$ har bir $p \in M$ nuqta uchun $(U_\lambda, \varphi_\lambda) \in A^s$, $p \in U_\lambda$ shunday lokal koordinatalarni tanlash mumkin bo'lsaki, agar biror $\alpha \in B$ uchun $U_\lambda \cap L_\alpha \neq \emptyset$ munosabat o'rinli bo'lsa, u holda $\phi_\lambda(U_\lambda \cap L_\alpha)$ to'plamning chiziqli bog'lanishli komponentalarini $\{(x^1, x^2, \dots, x^n) \in \varphi_\lambda(U_\lambda): x^{k+1} = c^{k+1}, x^{k+2} = c^{k+2}, \dots, x^n = c^n\}$ ko'rinishda yozish mumkin bo'lsa, M ko'pxillikda k o'lchamli silliq qatlama berilgan deyiladi, bu yerda $c^{k+1}, c^{k+2}, \dots, c^n$ sonlar chiziqli bog'lanishlilik komponentalarda o'zgarmas sonlar.

Qaralayotgan L_α to'plam F qatlamaning qatlami deyiladi. Ushbu holatda k o'lchamli c^s qatlama k o'lchami $q = n - k$ ga teng bo'lgan c^s qatlama ham deyiladi. Yuqoridagi (F_1) , (F_2) shartlar M ko'pxillik o'zaro kesishmaydigan qatlamlardan iboratligini, (F_3) shart esa qatlamlar lokal ma'noda parallel tekisliklarga o'xshash joylashganligini anglatadi. Agar (F_3) shart bajarilsa, $(U_\lambda, \varphi_\lambda) \in A^s$ koordinatalar atroflari qatlamlangan deyiladi, barcha qatlamlangan koordinatalar atroflari to'plami A^s bilan belgilanadi va qatlamlangan koordinatalar atroflari sistemasi deyiladi.

Silliq M ko'pxillikda F qatlama berilgan bo'lsa, bunday ko'pxillik qatlamali ko'pxillik deyiladi va (M, F) kabi belgilanadi.

Bizga k o'lchamli F_1, F_2 qatlamalar bilan (M, F_1) va (N, F_2) qatlamali ko'pxilliklar berilgan bo'lsin.

Ta'rif. Biror $\varphi: M \rightarrow N$ topologik akslantirishda F_1 qatlamadagi ixtiyoriy L_α qatlamaning $\varphi(L_\alpha)$ aksi F_2 qatlamaning qatlami bo'lsa, berilgan (M, F_1) va (N, F_2) ko'pxilliklar topologik ekvivalent deyiladi va $(M, F_1) \approx (N, F_2)$ kabi yoziladi. Berilgan (N, F_2) ko'pxillikni (N, F_2) ko'pxillikka akslantiruvchi φ akslantirish qatlamani saqlovchi deyiladi va u $\varphi: (M, F_1) \rightarrow (N, F_2)$ ko'rinishida yoziladi.

Agar $M = N$ va $F_1 = F_2$ munosabatlar o'rinli bo'lsa, qatlamali ko'pxillikning topologik akslantirishi berilgan deyiladi.

Ta'rif. Qatlamali ko'pxillikning topologik akslantirishi har bir qatlamdagi geodezik chiziqni boshqa qatlamdagi geodezik chiziqqa mos qo'yuvchi akslantirish qatlamali ko'pxillikni geodezik akslantiruvchi akslantirish berilgan deyiladi.

Qatlamali (M, F) ko'pxillikning barcha C^r – geodezik akslantirishlari to'plamini $G_F(M)$ bilan belgilaymiz, bu yerda $r \geq 0$. $G_F(M)$ to'plam M ko'pxillikning o'zini o'ziga akslantiruvchi $Homeo(M)$ diffeomorfizmlarning qism to'plamidir. $Homeo(M)$ superpozitsiya va teskari akslantirish amallariga nisbatan gruppasi hosil qiladi.

Ushbu $G_F(M)$ gruppasi $Homeo(M)$ gruppasi qism gruppasi sifatida kompakt-ochiq topologiyada topologik gruppasi bo'ladi.

Teorema. $G_F(M)$ gruppasi $Homeo(M)$ ning qism gruppasi bo'ladi va u kompakt-ochiq topologiyada topologik gruppasi tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. C. Ehresmann, Structures feuilletées // Proc. Fifth Canad. Math. Congress. – 1961. – P.109-172.
2. G. Reeb, Sur certaines propriétés topologiques des variétés feuilletées// Actualité Sci. Indust. 1183 – Paris: Hermann, – 1952.
3. Molino P. Riemannian foliations // Progress in Mathematics Vol. 73, – Birkhäuser Boston Inc. – 1988. – P.399.
4. Haefliger, Variétés feuilletées // Ann. Scuola Norm. Sup. Pisa. – 1962. – V.16. – P.367-397.
5. R. Langevin, A list of questions about foliation. Differential topology, foliations group actions // Contemporary Math. – 1994. – V.161. – P.59-80.
6. Narmanov A.Ya., Sharipov A.S. On the group of foliation isometries// Methods of functional Analysis and topology, Kiev, Ukraine, – 2009. – V.15. – P.195-200.
7. G.M.Abdishukurova and A.Ya. Narmanov Diffeomorphisms of foliated manifolds // Methods of functional Analysis and topology, Kiev, Ukraine, – 2021. – V.27(2021), no 1, pp.1-9.
8. Narmanov A.Ya., Sharipov A.S. Geometry of Foliated Manifolds// Extracta mathematicae vol. 31. Num. 2, 2016, pp. 189-197.
9. А.Нарманов, Ш.Уразметова О геодезических отображениях слоеного многообразия// ДАН РУз., 2010, №3, стр. 15-18.

METALLARNING PANTOTENIK BILAN KOORDINATSION BIRIKMALARI

M.T.Jumayeva,

BuxDU, Kimyo mutaxassisligi magistranti

m.t.jumayeva@buxdu.uz

Q.G'.Avezov,


BuxDU, Organik va fizkolloid kimyo kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya. Vitaminlar tirik mavjudotlar organizmi uchun juda zarur, fiziologik ahamiyatli, fermentlar tizimi tuzilishi uchun muhim. Ularning bo'lmashligi kasalliklarga yoki o'linga olib keladi. Ular oz miqdorda bo'lsa ham kishi organizmida, hujayradagi jarayonda kuchli faollikga ega. Hozirgi kunda vitaminlarning kompleks birikmalari sintez qilinib, organizmda turli xildagi mikroelementlar yetishmovchiligini davolash uchun tavsiya etilmoqda.

Kalit so'zlar: vitaminlar, pantotenik kislota, α -aminokislotalar glisin, valin, arginin, lizin, histidin, aspartik va glutamik kislotalar, halqali geterotsiklik birikmalar, tiamin, fermentlar, energiya, tiamin trifosfat, adenzintiamin difosfat, adenzintiamin trifosfat.

Kirish. Vitaminlar lotinchadan "vita" – "hayot" bo'lib, darmon dori — tirik organizmning hayot faoliyati va normal moddalar almashinuvi uchun zarur bo'lgan organik birikmalardir. Vitamin inson organizmda sodir bo'ladigan barcha kimyoviy reaksiyalarni kuchaytiradi, organizmning oziq moddalarni o'zlashtirishiga ta'sir ko'rsatadi, hujayralarning normal o'sishiga va butun organizmning rivojlanishiga yordam beradi, organizmda fermentlar tarkibiga kirib, ularning normal funksiyasi va faolligini ta'minlaydi. Vitaminlar organizmda energiya almashinuvida, aminokislotalar va yog' kislotalar biosintezida, fotoresepsiya jarayonida, qon ivishida va kalsiyning o'zlashtirilishida ishtirok etadi.

Metallarning pantotenik bilan koordinatsion birikmalari kislota xususiyatlari va u bilan bog'liq B. vitamini hamma joyda kislotali bo'lib, pantotenik kislota deb ataldi [5]. Pantotenik kislota (PPT) pantoik kislota (a) qoldiqlaridan iborat.



B-alanin (b) Adabiyotda tadqiqot bo'yicha kam sonli tadqiqotlar mavjud murakkab qattiq shakl. pantotenik kislota birikmalari, ayniqsa BHX Shunday qilib, [6] da Co (PT-H) CI 3.5 1.0 tarkibidagi birikma suvli muhitda sintez qilindi. ("H" belgisi deprotonlangan ligandni bildiradi), bu uning erish nuqtasi va suvda eruvchanligini o'lchash bilan tavsiflanadi. Kompleksning molekulyar elektr o'tkazuvchanligi ikki ionli elektrolitga to'g'ri keladi. DSOda 16940-14200 sm³

bajaradigan ko'plab vazifalarga ega: to'qimalarning nafas olishida ishtirok etish, energiya ishlab chiqarish, asab va endokrin tizimlarni mustahkamlash va boshqalar.

Metallarning tuzlari, sulfatlari va nitratlariga nisbatan B guruhi vitaminlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining organizmga toksiklik darajasi 3-4 barobar past hamda so'rilishi juda yaxshi bo'lganligi sababli hozirgi vaqtda bu birikmalardan tibbiyotda dori-darmon sifatida foydalanish rivojlanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Фатхуллаева М. Координационные соединения ванадила(II) и ряда 3d-металлов с витаминами группы «В» и их производными. Дис. ... канд. хим. наук.- Ташкент.- НУУз.- 2006.- 126 с.
2. Вильмс Е.А., Турчанинов Д.В., Боярская Л.А., Турчанинова М.С. / Педиатрия, 2010, том 89, № 1, с. 85-90

BUXORO VILOYATI MOXI-XOSSA SUV HAVZASI, ZOOPLANKTON ORGANIZMLARI VA ULARNI KO'PAYTIRISH BIOTEXNOLOGIYASI.

*Sh.Sh.Raxmatullayeva,
BuxDU, Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi dotsenti
A.O'.Kamolova,
BuxDU, Biologiya mutaxassisligi 2- bosqich magistranti
a.o.kamolova@buxdu.uz*

Annotatsiya. Buxoro shahrida bir qancha suv havzali bunyod etilgan bo'lib, ulardan biri Moxi-Xossa saroyi yoqasida joylashgan. Qadimdan mashhur bo'lgan Moxi-xossa tarixiy yodgorligi bugungi kunda turistik va estetik zona hisoblanadi. Bog' markazidagi hovuzda turli mikro makro organizmlar hayot faoliyatini aktiv tarzda olib bormoqda. Zooplankton, fitoplankton, baliqlar va boshqa suv jonzotlari yashaydi. Hovuzdan nafaqat estetik balki, suv florasini yaxshilagan holda foydalanish va atrof muhit iflosliklaridan suvni muhofaza qilish har birimizning burchimizdir.

Kalit so'zlar: zooplankton, fitoplankton, mikroflora, bentos, mikroskop, laboratoriya, xlorella, dafniya, azolla, biotexnologiya, baliq chavoqlari

Moxi-xossa suv havzasida turli tirik organizmlar yashaydi. Shu sababli suv muhiti tabiiyiligi saqlash muhimdir. Respublikamizda suv havzalari bioresurslarini muhofaza qilish va ulardan iqtisodiyot tarmoqlarida oqilona foydalanishga katta

e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan, suv hazalarini boshqarish tizimi tubdan takomillashtirildi, suv havzalari resurslaridan foydalanish, baliqchilikni rivojlantirish chora tadbirlari ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1-maydagi PQ-2939-son "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "...mavjud quvvatlarni moderinizatsiya qilish va yangi quvvatlarni barpo etish yo'li bilan baliqchilik tarmog'ining ozuqa bazasini mustahkamlash.." vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, baliq chavoqlarining dastlabki ozuqasi bo'lgan suv umurqasizlarining istiqbolli turlari mahsuldorligini baholash, ushbu organismlarning baliqchilik xo'jaliklari maqsadlarida foydalanish yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi aholisini baliq va baliq mahsulotlari bilan taminlash asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Buning uchun respublikamizdagi suv omborlar, ko'llar, daryolar va hovuzlar asosiy rol o'ynaydi. O'zbekistonda 13 tadan ortik suv omborlari mavjud bulib, 130ming gektardan ko'roq maydonni tashkil etadi. Shu vaqtar mobaynida qilingan va qilinayotgan ishlar ilmiy izlanishlar talabiga muvofik, suv havzalarining muhiti, baliqlarning yashash sharoiti, soni va ko'payishini o'rganish, suv xavzalaridan oqilona foydalanish hisobiga baliq maxsulotlarini ishlab chiqarish, ovlanadigan qimmatbaho baliq turlarini ko'paytirish va boshka ko'pgina ishlar amalga oshirilib kelmoqda.

Material va metodlar: Ushbu tadqiqot ishlari laboratoriya tajriba xulosalari, ilmiy adabiyotlar, ilmiy ommabop jurnal va gazetalarda chop etilgan maqolar doirasida yig'ilgan.



Tadqiqot tahlili va natijalari:

Buxoro viloyatidagi asosiy hovuzlar shahar markazidagi yodgorliklar atrofiga qurilgan bo'lib, ulardan suv ichish, poklanish va baliq ko'paytirish kabi turli maqsadlarda foydalanilgan. Suv havzalari asosan shahar maydonlarida, madrasa va masjidlar oldida, chorbog' va saroy bog'larida bunyod etilgan XIX asrda Buxoro shahrida Labi hovuz, Boli hovuz, Sitorai Moxi-Xossa va boshqa majmualarda

hovuzlar bo'lgan. Zooplankton organizmlar asosan suv havzasining ochiq bo'laklarida, o'rtasida va qirg'oqqa yaqin ya'ni lotiral planktonlar deb nomlanish qabul qilingan. Zooplankton organizmlarining suv havzasida tarqalishi asosan suvning temperaturasiga, yorug'likka, suvdagi kislorod miqdoriga, karbonat angidrid gaziga

va boshqa moddalarning uchrashiga bog'liq. Ko'pchilik zooplankton organizmlarning ba'zi turlari suvdagi kislorod 0.2ml/l dan kam bo'lsa yashash xususiyatiga ega. Qish oylarida bu organizmlar juda kamayib ketadi. Bahorda suv o'tlarining rivojlanishiga qarab zooplanktonlar ham ancha rivojlanadi. Avval kopepodalar so'ng kladosteralar shundan so'ng rotiferalarning soni o'sadi. Bu organizmlarning suv havzasida bo'lmasligi baliq chovoqlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. O'zbekiston suv havzalarining ekologiyasini baholash uchun undagi Hidrobiontlarning ya'ni fito- va zooplankton, bentos organizmlarning biologiyasini, fasllarda rivojlanishini hisobga olgan holda tadqiq qilish zarur. Shuningdek gidrobiologiyalik tadqiqotlar natijasida suv ekosistemasida kechadigan mexanizmlarni bilishga imkon beradi. Buning uchun suv havzasidagi barcha komponentlarni o'rganishni taqozo etadi. Bunday komponentlarga zooplanktonlar, zoobentos va fitoplankton organizmlar hisoblanadi. Zooplankton organizmlarga kolovratkalar (Rotifera) eshkakoyoq (Copepoda) shoxdormo'ylovli (Cladocera) qisqichbasimonlar kiradi.

Baliq lichinkasi ozuqasi tarkibida zooplanktonlar mavjud bo'lib, ular lichinkaning to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalariga bo'lgan ehtijoni qondiradi. Shuning uchun ular muvaffaqiyatli akvakultura sanoati uchun asos bo'lib ishlaydi. Ushbu qimmatli mavjudotlar muhim rol o'ynagan ekotizmlarda iqlim o'zgarishi va turli antropogen ta'sirlar, masalan; evtrofikatsiya, og'ir metallarning yuklanishi, fizik kimyoviy ko'rsatkichlarning o'zgarishi va boshqalar zooplanktonlarda o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Shuning uchun, ushbu o'zgarishlarning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida chora tadbirlar ishlab chiqish muhimdir. Qadimdan Buxoro viloyatining suvga bo'lgan talabi Zarafshon daryosi hisobidan qondirilgan. Ammo Zarafshon daryosining yuqori qismida suvga bo'lgan talab ortib borganligi sababli, viloyat hududiga kelgan qismida suv yillar o'tgani sari kamayib kelib, hozirda daryoning suvi Navoiy viloyati hududida batamom to'xtatilgan. Hozirgi kunda Zarafshon daryosining Buxoro viloyatidan o'tgan qismi Markaziy Buxoro Zovuri deb nomlanib, oqava va zovur suvlari oqiziladi. Har yili vohadan 1.5 mln m³ oqava suv va zovur suvlari tashqariga chiqariladi. Oqava suvlarni biologik tozalashda Buxoro Davlat Universiteti olimlari hamda suvoqava va parrandachilik korxonasi xodimlari bilan birgalikda oqava suvlarni 90-95% gacha tozalashga erishilgan. Korxonalardan chiqadigan oqava suvlarni biofiltr o'simliklar yordamida tozalab, korxonalarining o'ziga qayta ishlatish uchun tavsiya qilingan. [4] Sun'iy havzalar (hovuz) da yetishtirilayotgan baliqlarning mahsuldorligi havzadagi barcha tirik komponentlarga bevosita bog'liq. Bunday komponentlardan biri zooplankton organizmlar hisoblanadi. Zooplankton organizmlar havzalarning tabiiy mahsuldorligini aniqlashda ma'lum ahamiyat kasb etadi. Chunki, havzaning tabiiy oziqa zahirasini aniqlash natijasida baliqlarning qo'shimcha sun'iy oziqaga bo'lgan talabini hisoblab chiqish imkonini beradi. Baliqchilik hovuzlari boshqa tabiiy va sun'iy suv havzalaridan o'zining yuqori mahsuldorligi bilan ajralib turadi. baliqchilik xo'jaligi hovuzlarida zooplankton organizmlarning mavsumiy miqdor o'zgarishini aniqlashda o'stirish hovuzlarida olib borildi. Bahorda (aprel oyi) zooplanktonlarning miqdori juda yuqori bo'ldi (o'rtacha 287 ming dona/m³), lekin

biomassaning miqdoriga nisbatan past bo'lib, 0,86 g/m³ ni tashkil etdi. Bu paytda asosan Rotiferalar rivojlanganligi kuzatildi. Ayniqsa hovuzda zooplanktonlarning miqdori juda yuqori bo'lib, 1219 ming dona/m³, biomassa esa 0,42 g/m³ ni tashkil etdi. Aprel-may oylarida miqdoriy ko'rsatkichning eng katta raqami kuzatildi. Bu paytda *Daphnia magna*, *Daphnia curvirostris*, *Daphnia galeata*, *Ceriodaphnia turkestanica*, *Moina brachiata*, *Moina Weism* kabi turlar avj olib rivojlanishi hisobiga zooplanktonning miqdori 137-200 ming dona/m³ ga biomassa esa 2,7-5,1 g/m³ ga atrofida bo'ldi. Shoxmo'ylovdor qisqichbaqasimonlarning miqdori 3,5 ming dona/m³, biomassasi esa 3,2 g/m³ ni tashkil etdi. Ushbu hovuzda may oyida dominant formalar eshkakoyoqli qisqichbaqasimonlar bo'lib, ularning miqdori *Acanthocyclops trajani*, *Eucyclops serrulatus* turlarining yoppasiga rivojlanishi hisobiga 100 ming dona/m³ni, biomassasi esa – 4,8 g/m³ni tashkil etdi. So'ngra kun sayin zooplankton organizmlarning miqdori to'xtovsiz pasayib bordi.

Mavsumlar bo'yicha xo'jalik hovuzlaridagi zooplanktonning rivojlanish qonuniyatlari bir - biridan unchalik farq qilmadi. Ushbu hovuzlarda bahorgi (mart-aprel) zooplanktonning sifat tarkibida *Notholca acuminata* turining ko'pligi bilan ajralib turdi. Bu hovuzlarda yozgiga nisbatan bahorgi formalarga quyidagi turlar xos ekanligi kuzatildi: *Keratella cochlearis*, *Keratella quadrata*, *Cyclops vicinus*, *Daphnia magna*. Tipik yozgi formalarga esa quyidagi turlarni kirgizish mumkin. *Diaphanosoma macrophthalma*, *Moina micrura*, *Moina weismanni*, *Thermocyclops rylovi*, *Mesocyclops ogunnus*, *Keratella tropica*. Yoz oylarida plankton shoxmo'ylovdor qisqichbaqasimonlar uchramadi [5]

Zooplankton turlari Zooplankton ularning hajmiga yoki planktonik (asosan harakatsiz) bo'lgan vaqtga ko'ra tasniflanishi mumkin. Planktonga murojaat qilish uchun ishlatiladigan ayrim atamalar quyidagilardan iborat:

- Mikroplankton : kattaligi 2-20 mm bo'lgan organizmlar - ayrim copepodlar va boshqa zooplanktonlarni o'z ichiga oladi.
- Mesoplankton: 200 lardan 2 millimetrgacha bo'lgan organizmlar, ular larvalli xurosonlarni o'z ichiga oladi.
- Makroplankton: Euphaziyiklarni (masalan, krill) o'z ichiga olgan 2-20 mm gacha organizmlar - ko'plab organizmlar, shu jumladan Balen kitlari uchun muhim oziq-ovqat manbai.
- Mikronekton : 20-200 mm hajmdagi organizmlar. Masalan, ba'zi euphasiids va sefalopodlar mavjud.
- Megaloplankton: 200 m dan kattaroq planktonik organizmlar, meduza va saltsiyanio'z ichiga oladi.
- Holoplankton: butun jonivorlarda planktonik organizmlar, masalan, copepodlar.
- Meroplankton: Planktonik bosqichga ega bo'lgan organizmlar baliq va xantalar kabi ba'zi bir nuqtada o'sadi. Dengiz zooplankton guruhlarining ro'yxatini misollar bilan, dengiz sayg'oq Zooplankton veb-saytida ko'rishimiz mumkin.

Fitoplankton turlarga qarab jinsiy yoki aseksual ravishda reproduktiv rivojlanishi mumkin. Aeksüel reproduksiya tez-tez uchraydi va hujayra bo'linishi orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu hujayralar ikkita hujayralarni hosil qilish uchun ikkiga bo'linadi.

Xulosa Baliqchilik hovuzlariga ta'sir etuvchi abiotik va biotik omillar zooplankton organizmlarning tez ko'payishi va biomassasining ortishiga qulay

sharoit yaratib beradi. Baliqchilik xo'jaliklarida baliqlarni ko'paytirishdan avval zooplankton organizmlarni tabiiy holda ko'paytirish, baliq chavoqlari dastlabki zooplankton organizmlar bilan oziqlanishi evaziga baliq chavoqlarining yashovchanligi oshirish usullari baliqchilik xo'jaliklariga tavsiya qilinadi. Biz ham zooplankton dafniyani Moxi-xossa suv havzasida baliq chavoqlari uchun va mikroflorani yaxshilash maqsadida ko'paytirmoqdamiz. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turli xil mikrosuv hayvonlarini o'z ichiga olgan zooplankton suv ekotizimlarining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, asosiy ishlab chiqaruvchilar sifatida ishlaydi va dengiz va chuchuk suv oziq-ovqat zanjirlarining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ularning global uglerod aylanishiga qo'shgan hissasi va atrof-muhit o'zgarishiga zaifligi sayyoramizning suv olamidagi bu kichik, ammo ajralmas organizmlarni tushunish va himoya qilish zarurligini ta'kidlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buxoro tarixi. Rajabov.Q, Inoyatov.S Toshkent 2016, 460bet
2. Baliq chavoqlari uchun tabiiy ozuqa yetishtirish va oziqlantirish Tosh-2021 Kuzmetov.A.R, Abdullayeva.M.S, Qahramonov.B.A va boshqalar.
3. Bioremediation and Biotechnology, vol
4. Persistent and Recalcitrant Toxic Substances, 227-244, 2020
5. Bo'riyev.S.B, Yo'ldoshev L.T Ecological biotechnology of sewage cleaning.//Asian journal of Multidimensional Research. Vol.8 issue 5 may 2019
6. O'zbekiston sharoitida baliqchilikni rivojlantirish muammolari va istiqbollari Buxoro-2021y
7. Xarris, R., Wiebe, P., enz, J., Skjoldal, HR va M. Huntley. ICES Zooplankton uslubiy qo'llanma.2014 yil, 30-mayda mavjud.
8. Avstraliya dengizchilik ta'limi jamiyati.Zooplankton. 2014 yil, 30-mayda mavjud.

9. Morrissey, JF va JL Sumich. Dengiz hayotining biologiyasiga kirish, uning o'ninchi nashri. Jones va Bartlett Learning, LLC. 467p.
10. Woods Hole Oceanographic tashkiloti. Jellyfish va boshqa Zooplankton. 2014 yil, 30-mayda mavjud.

O'SIMLIKSHUNOSLIK FANIDAN "MAKKAJO'XORI" MAVZUSINI O'RGANISHDA "KLASTER" METODIDAN FOYDALANISH.

G.O'.Temirova,
Buxoro davlat universiteti
g.o.temirova@buxdu.uz
Sh.Sh.Nafiddinov,
BuxDU, b.f.n., dotsent,

Annotatsiya. Inson hayoti uchun katta ahamiyatga ega ahamiyatga ega bo'lgan makkajo'xori o'simligi 10-12 ming yil oldin Meksikada madaniylashtirila boshlangan. Ayni paytda makkajo'xori o'simligi dunyo dehqonchiligida asosiy o'rinlarni egallaydigan ekinlardan biri hisoblanadi. Maakkajo'xori donidan oziq-ovqat sifatida foydalanib, undan turli xildagi konservalar, parhez non mahsulotlari tayorlanadi. Sanoatda makkajo'xori donini qayta ishlab undan etil sipirti va uglevodorodli yonilg'i olinadi. Poyasi-ko'k massasi va so'tasi chorva mollari uchun ozuqa sifatida foydalaniladi. Makkajo'xori o'simligi o'zining fitomeliorativ xususiyati bilan dunyo dexqonchiligida asosiy o'rinlarni egallab ulgurgan o'simlik hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Makkajo'xori o'simligi, fitomeliorativ o'simlik, makkajo'xori so'tasi, kosensentrat ozuqa.

Аннотация: Растение кукуруза, имеющее большое значение для жизни человека, культивировалось в Мексике 10-12 тысяч лет назад. В настоящее время кукуруза является одной из основных сельскохозяйственных культур в мировом сельском хозяйстве. Зерно кукурузы употребляют в пищу, из него готовят различные виды консервов и диетические хлебные изделия. В промышленности зерно кукурузы перерабатывают с получением этилового спирта и углеводородного топлива. Стеблевая мякоть и мякоть используются на корм скоту. Кукуруза – растение, занявшее главное место в мировом сельском хозяйстве благодаря своим фитомелиорирующим свойствам.

Ключевые слова: растение кукурузы, фитомелиораторное растение, кукурузные отруби, соконцентрированный корм.

Abstract: The maize plant, which is of great importance for human life, was cultivated in Mexico 10-12 thousand years ago. Currently, the corn plant is one of the main crops in world agriculture. Corn grain is used as food, and various kinds of preserves and dietary bread products are prepared from it. In industry, corn grain is processed to obtain ethyl alcohol and hydrocarbon fuel. Stem-blue pulp and pulp are used as fodder for livestock. The corn plant is a plant that has taken the main place in world agriculture with its phytomeliorating properties.

Key words: Maize plant, phytomeliorating plant, maize bran, co-concentrate feed

MAKKAJO'XORINING KELIB CHIQISHI VA TARQALISHI TARIXI

Makkajo'xori eramizdan 7-12 ming yil oldin Meksikada madaniylashtirilgan. Yovvoyi holdagi makkajo'xori ekini so'talari hozirgilarga nisbatan 10 barobar kichik, ya'ni 3-4 sm bo'lgan. Meksikada arxeologik qazilmalar vaqtida makkajo'xori changdonlari topilib, uning yoshi 5000 yilni tashkil qilishi aniqlangan. Makkajo'xorining vatani – Markaziy va Janubiy Amerika (Meksika, Gvatemala) hisoblanadi. Markaziy Amerikaning mahalliy aholisi uni eramizdan oldin, 3400-2300 yillar muqaddam yetishtirishni boshlashgan. Bu xaqda arxeologik qazilmalar – changlar, ro'vaklar, don va so'tasining sodda shakllari hamda genetik, sitoembriologik tadqiqotlar guvohlik beradi.

Maya hindulari makkajo'xorini “mais” deb nomlashgan. Amerikada hozirgacha shunday ataladi. Makkajo'xori Yevropaga X.Kolumbning ikkinchi ekspeditsiyasi safaridan keyin 1496 yilda keltirilgan. Dengiz yo'li orqali “mais” Old va Sharqiy Osiyoga (shuningdek, Turkiyaga) keltirilgan. Makkajo'xori ispanchada “cucurucho” deyilib, qog'oz kulek, funtik ma'nosini bildiradi. Ruscha "kukuruza" ruminchada “yelovaya shishka” ma'nosini beradi. “Kukuruza” so'zi turkchadan kelib chiqqan bo'lib, turkiyada makkajo'xorini “kokoroz”, ya'ni baland o'simlik deb atashadi. Turkcha bu so'z XIV - XVI asrlarda turk-usmon tasarrufida bo'lgan Bolgariya, Serbiya, Vengriyaga ham singdirilgan. Rossiya 1768-1774 yillardagi rus-turk urushi davrida Rossiya Qrimni egallagan paytda ruslar makkajo'xorini ko'rishgan va dastlab ruslar uni turk bug'doyi deb atashgan. Portugaliyaliklar tomonidan makkajo'xori Hindi-Xitoy mamlakatlariga keltirilgan. XVII asrda Gruziyada tarqalgan, XVIII asrning oxiri-XIX asrning boshlarida g'arbiy Xitoydan Markaziy Osiyoga keltirilgan. O'rta Osiyoga ota-bobolarimiz XIX asr boshlarida Makkayu Madinaga haj safariga ziyoratga borgan paytlarida urug'laridan olib kelishgan va dalaga ekishgan, o'sib turgan ekinini ko'rib, o'zimizda o'sadigan oq jo'xori ekiniga o'xshashligi va urug'i Makkayu Madinadan keltirilganligini inobatga olib makkajo'xori deb nom berishgan.

MAKKAJO'XORINING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Oziq-ovqatdagi o'rni. Makkajo'xori boshqa donli ekinlarga qaraganda hosildorligi va ozuqaviyligining yuqoriligi bilan ustun turadi. Don tarkibidagi murtak qismida moy ko'p bo'lganligi uchun makkajo'xoridan tayyorlangan un tez achiydi, shuning uchun un tayyorlashda murtagi ajratib olinadi, murtagidan oziq-ovqatda ishlatiladigan sifatli moy olinadi. Makkajo'xori uniga 20-30% bug'doy uni qo'shib non yopiladi. Makkajo'xori popugidan tayyorlangan damlama buyrak va jigar xastaliklarini davolashda siydik haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Popugida K vitamini ko'p bo'ladi. Moyi aterosklerozda davo bo'ladi. Braziliyada ko'pchilik avtomashinalar bioetanolda (benzin va dizel yoqilg'isi o'rmini bosadi) ishlaydi. Braziliyaliklar bioetanolni asosan makkajo'xori donidan olishadi (1 tonna dondan 180 litr etil spirti olinadi). 60 t/ga ko'k massasidan 6000 m³ metan gazi olinadi.

Ozuqadagi o'rni. Yem-xashak uchun makkajo'xorining doni va poyasi ishlatiladi. Uning doni juda to'yimli (1 kg makkajo'xori doni 1,34 kg ozuqa birligiga ega) hisoblanib, chorva hayvonlari va parrandalarga butunligicha yoki yorma (maydalangan) holida beriladi. Makkajo'xorining poyasi mollarga yashil holicha beriladi, undan xashak hamda doni sut-mum pishish davrida o'rilganda esa yuqori sifatli silos tayyorlash mumkin. Makkajo'xori silosining bir kilogrammi to'yimliliği jihatidan 0,20-0,25 ozuqa birligiga, so'tasi bilan birga bostirilganda esa 0,40 ozuqa birligiga teng bo'ladi. Makkajo'xori yuqori hosilli ekin bo'lib, 100 kg miqdordagi quruq poya va barglarida 37 ozuqa birligini saqlaydi. Makkajo'xori quruq poyasi va doni yanchib olingandan so'ng qolgan so'ta o'zagi (mardagi)dan yoqilg'i mahsulot sifatida foydalaniladi.

Makkajo'xorining sanoatdagi ahamiyati. Makkajo'xorining sanoatdagi ahamiyati shundan iboratki, uning donidan kraxmal, spirt, glyukoza, sirka kislotasi, poyasidan esa qog'oz, karton, yog'och spirti, sun'iy kauchuk, sun'iy smola va boshqa har xil mahsulotlar olinadi.

Makkajo'xorining agrotexnik ahamiyati. Makkajo'xori agrotexnik ahamiyatga ham egadir, u qurg'oqchilikka chidamli va chopiqtalab o'simlik bo'lganligi uchun ekin maydonida begona o'tlarning kamayishiga olib keladi. Makkajo'xorining quruq poyasi qor to'sish maqsadida ham ishlatiladi. Janubiy mintaqada makkajo'xorining tezpishar navlarini ekish bir yilda ikki marta hosil olish imkonini beradi. Uni boshqa ekinlar bilan birgalikda qo'shib ekish ham mumkin

MAKKAJO'XORI SISTEMATIKASI VA MORFOLOGIYASI

Makkajo'xori qo'ng'irboshlar Roaseae oilasi Zea mays L. avlodiga kiradi. Makkajo'xorining quyidagi kenja turlari mavjud

- Everta (Sturt.) Zhuk. (bodroq qilinadigan)
- Indurata (Sturt.) Zhuk. (kremnistaya (shishasimon));
- Amylaceae (Sturt.) Zhuk. (serkraxmal);
- Indentata (Sturt.) Zhuk. (tishsimon);
- Saccharata (Koern.) Zhuk. (shirin);
- Ceratina (Kulesh.) Zhuk. (mumsimon);
- Tunicata (St. Hil.) Zhuk. (qobiqli).

Zea avlodi yagona tur – Zea mays L. madaniy makkajo'xori hisoblanadi, bu turdagi o'simlik diploid xromosomaga ega ($2n - 20$). Makkajo'xorining sanab o'tilgan turlaridan faqat beshtasi ahamiyatga egadir.

1. Tishsimon makkajo'xori - doni yirik, cho'zinchoq yassi, qorni va orqa tomoni botiq, donining uchi yumaloq endospermning oynasimon qatlami donining yon tomonida bo'lib, unsimon qavati esa donning markaz va tepa qismida joylashgan. Donning ustki qismida chuqurcha bo'lib, bu unsimon kraxmal qismining oynasimon qismiga nisbatan tez qurishi natijasida hosil bo'ladi. Donning rangi oq, sariq, qoramtir. Donning tarkibida 68-78% kraxmal va 8-14% oqsil bo'ladi. Bu kenja turning navlari va duragaylari ko'p tarqalgan.

2. Kremnistisimon makkajo'xori - doni yirik, yumaloq, donining yuzasi silliq, yaltiroq, uchi yumaloq. Endospermi oynasimon bo'lib, faqat markaziy

qismida unsimon bo'ladi. Donining rangi har xil: oq, sariq, qizil. Donining tarkibida 65-87% kraxmal va 8-18% oqsil bo'ladi.

3. Kraxmalli makkajo'xori. Doni yirik, yumaloq, ustki qismi silliq, oynasimon endospermi yo'q, unsimon endospermi yaxshi rivojlangan, donni butunlay to'ldirib turadi. Donining rangi oq, och sariq va boshqa rangda bo'ladi. Donining tarkibida 72-85% kraxmal va 6-13% oqsil bo'ladi.

4. Qandli yoki shirin makkajo'xori. Doni yirik va o'rtacha kattalikda bo'ladi. Donining shakli har xil bo'ladi, botiq, bir oz burchaksimon, burishgan bo'ladi, shoxsimon endospermi yaxshi rivojlangan, unsimon endospermi bo'lmaydi. Donining rangi oq, och sariq, qo'ng'ir. So'tasi donining sut pishish davrida konserva tayyorlash uchun ishlatiladi.

5. Chatnaydigan yoki guruchsimon makkajo'xori. Doni mayda, yumaloq, bir oz botiq, donining uchi o'tkir, oynasimon, endospermi yaxshi rivojlangan, donni butunlay to'ldirib turadi. Donining rangi asosan oq bo'ladi, tarkibida 62-70% kraxmal va 10-15% oqsil bo'ladi

Makkajo'xorining morfologik tuzilishi

Boshqa donli o'simliklarga nisbatan makkajo'xori baquvvat va mustahkam, poyasi yirik, baland va bargi, gulto'plamlari va donining yirikligi bilan farq qiladi.

Figure 2 shows the NMR spectrum of 1,1,1-trifluoro-4-hydroxy-3-penten-2-one, and according to it, the hydrogen group in the 2 atomic position gave a signal at 12.38 ppm.

But if we take the pH value as 7.4, we have 4 tautomeric states. The NMR spectrum was obtained from each of them and analyzed.



The four tautomeric forms showed 4 different spectra. The main chemical shift occurred in the first tautomeric form at 6.07 ppm.

LITERATURE

1. Gilli, G.; Bellucci, F.; Ferretti, V.; Bertolasi, V. Evidence for Resonance-Assisted Hydrogen Bonding from Crystal-Structure Correlations on the Enol Form of the β -Diketone Fragment. *J. Am. Chem. Soc.* 1989, 111 (3), 1023–1028. <https://doi.org/10.1021/ja00185a035>.
2. Gilli, G.; Gilli, P. *The Nature of the Hydrogen Bond*; Oxford University Press, 2009. <https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199558964.001.0001>.
3. Firth, D. W.; Barbara, P. F.; Trommsdorff, H. P. Matrix Induced Localization of Proton Tunneling in Malonaldehyde. *Chem. Phys.* 1989, 136 (2), 349–360. [https://doi.org/10.1016/0301-0104\(89\)80058-8](https://doi.org/10.1016/0301-0104(89)80058-8).
4. Alejandro Gutiérrez-Quintanilla, Rasa Platakyte, Michèle Chevalier, Claudine Crépin, Justinas Cefonkus. Hidden Isomer of Trifluoroacetylacetone Revealed by Matrix Isolation Infrared and Raman Spectroscopy. HAL Id: hal-03189914. <https://hal.science/hal-03189914>

ARZON YO'L WEB ILOVASI

M.Y.Ergashev,

BuxDU, Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada uzoq masofaga qatnovlarda ishtirok etishda yo'l harakati qatnashuvchilari haydovchi va yo'lovchilarga online buyurtma berish, online marshrut yaratish va uni qabul qilish xizmatlarini bajaruvchi web ilovaning loyihasi haqida bo'ladi.

Abstract: The article is about the project of a web application that provides online ordering, online route creation and reception services to drivers and passengers participating in long-distance journeys.

Аннотация. В статье рассматривается проект веб-приложения, предоставляющего услуги онлайн-заказа, онлайн-формирования маршрутов и приема водителей и пассажиров, участвующих в дальних поездках.

Kalit so'zlar: API integratsiya, EJS, MySQL malumotlar ombori, Node.js dasturlash tili, algoritm, funktsiya, Saqlangan protseduralar.

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda taksi xizmatlarini ko'rsatuvchi ilovalarning soni kundan kunga oshib bormoqda, bular o'zlarining qulayliklari va o'zlarining alohida xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bu ilovalar foydalanuvchiga qulay user interfeys ta'minlab va haydovchi va yo'lovchilar orasidagi aloqani ta'minlab beruvchi ko'prik vazifasini bajaradi [1].

Shunday ilovalardan biri Arzon yo'l web ilovasi bo'lib, bu dastur maqsadi hozirda mavjud taksi xizmatini ko'rsatuvchi ilovalardan tubdan farq qiladi va aynan bir shahar hududida emas, balki kattaroq hudud miqiyosida uzoqroq manzillarga

borishda o'z xizmatlarini taklif qiladi. Web ilovaning ishlash prinsptiga keladigan bo'lsak, ixtiyoriy kasb egasi, aynan haydovchi bo'lishi shart emas, qaysidir uzoqroq manzilga o'z mashinasi bilan boradigan bo'lsa va o'z marshruti haqida ilovada ma'lumot qoldirsa, bu ilovadan foydalanuvchi hamda shu mashrut bo'yicha harakatlanish rejalashtiroyaotgan yo'lovchi haydovchi bilan bog'lanib, birgalikda manzilga yetib olishi mumkin. Bu xizmat yordamida haydovchiga uzoq marshrutini maroqli o'tkazishiga hamroh hamda biroz pul ishlab olish imkoniyati va yo'lovchiga ham yo'l yo'lakay arzonroq yo'l haqi to'lash imkoniyati va yaxshi hamroh topishiga ko'maklashiladi.

API integratsiya

Hozirda tashqarida foydalanish uchun ochiq bo'lgan API lar soni cheklangan. Ilovaga yangi funksiyalar qo'shilish bilan ochiq API lar ham ortib boradi va hozirda mavjud va tashqi ilovalarga ulab ishlatilsa bo'ladigan yaratilgan marshrutlar haqidagi ma'lumotni o'qish uchun API mavjud va ishlatishga tayyor.

Ilovada autentifikatsiya jarayoni

Autentifikatsiya va avtorizatsiya bu darsturiy vositalarining asosiy qismlaridan biri bo'lib, asosan rollarga ajratib turli roldagi foydalanuvchilarga turlicha xizmatlarga ruxsat berishda va bazi xizmat va sahifalarga qaysidir rollarga ruxsat berib, qaysilarigadir ruxsat bermaslikni boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi. Joriy ilovamizda autentifikatsiya mavjud autntifikatsiya algoritmlaridan foydalanilmagan, asosan qo'lda oddiy logika bilan qilingan. Bunda biz browserning sessionidan foydalanganmiz va telefon orqali ro'yxatdan o'tganligi sababli, telefonni haqiqiylikka tekshirish maqsadida Apolo platformasidan foydalanilgan. Foydalanuvchini autentifikatsiya qilishda birinchi ma'lumotlari username va telefon ma'lumotlar omborida borlikga tekshiriladi agar bo'lmasagina ro'yxatdan o'tkaziladi, aks holda xatolik qaytariladi. Avtorizarisaga keladigan bo'lsak, buda ham shu username va telefon malumotlar omboridan qidiriladi, agar mavjud bo'lsa, parolni ham tekshirgan holatda ma'lumotlar sessionga saqlangan holatda foydalanuvchi o'ziga beilgan rolga qarab turli sahifalarga yuboriladi. Keying harbir sahifaga o'tishida shu browserda saqlanga sessionlar yordam beradi va shu orqali boshqa sahifalarga ruxsat berilganmi yo'qmi aniqlash mumkin.

Ma'lumotlarni APIlar orqali chiqarib olish.

Ma'lumotlar odatda Relations ma'lumotlar omboridan json formatida keladi va uni shu formatda yoki o'zimizga qulay bo'lgan boshqacha shaklga o'tkazib keyin ko'rinish qismiga berib yuborilgan. Joriy web ilova asosan Node.js va ko'rinish qismiga EJS orqali qurilgan bo'lib buyerda ham dinamik JavaScript codelari berilgan bo'ladi, Ma'lumotlar omboridan esa MySQLdan foydalanilgan.

Ma'lumot chiqarib olishga qisqa misol tariqasida, mavjud route va uning view qismidagi ko'rinishini qarasak [3].

```
app.get("/allroute", (req, res) => {
  pool.query(`SELECT distinct vil.* FROM magister_ay.regions vil
  left join magister_ay.regions tum
  on tum.sub = vil.id
  where vil.sub < 16 and vil.sub > 1;
```

```

SELECT r.*, p.ismi, p.picture_url, p.chair_number, concat(p.mashina_rusumi, ' ',
mashina_raqam) type_car, concat(chair_number, 'x', r.narxi, ' som') summa,
r.has_chekish, r.has_uy_hayvoni, r.has_snakes, p.jinsi, re.adres_name
qayerdan_from, re2.adres_name qayerga_to
FROM magister_ay.driver_route as r
join magister_ay.driver_profile as p
on r.user_id = p.user_id
left join regions re
on re.id = r.qayerdan
left join regions re2
on re2.id = r.qayerga where r.user_id = ? order by r.kun desc`,[req.session.userId],
(err, rows, fields) => {
if (err) return res.render("./user/error-500")

```

```

const address = {address:rows[0]}
const routes = {routes:rows[1]}
res.render("driver_allroute", {...address, ...routes})
})
})

```

Masalan yuqoridagi kod orqali biz ma'lumotlar omboridan ma'lumotni olib mavjud driver_allroute viewsiga berib yubordi va uning keyin qismda ishlatilishi quyidagicha [5].

```

<% for( let i = 0; i < routes.length; i++ ) { %>
<div class="card dark">
<!--  -->
<div class="card-body">
<div class="text-section">
<h5 class="card-title"><%= String(routes[i].kun).substring(0,16) %></h5>
<div class="card-text">
<div class="start">
<div class="left">
<%= routes[i].qayerdan_from %>
</div>
<div class="right">
<%= routes[i].qayerga_to %>
</div>
</div>
<div class="medium">
<span class="circle-start"></span>
<span class="circle-medium"></span>
<span class="circle-end"></span>
</div>
<div class="end">

```

```

<div class="left">
<%= routes[i].vaqt_from %>
</div>
<div class="center">
1h 45min
</div>
<div class="right">
<%= routes[i].vaqt_to %>
</div>
</div>
</div>
<div class=" d-flex justify-content-start align-items-center">


<h6 class="mb-0 mr-4"><%= routes[i].ismi %></h6>
<p class="mb-0">Bo'sh o'rilar soni: <%= routes[i].y_soni %></p>
</div>
</div>
<div class="cta-section">
<div> <%= routes[i].summa %> so'm</div>
<a href="/driver/routedet" class="btn btn-light">Buyurtma</a>
</div>
</div>
</div>
<% } %>

```

Ko'rinib turgani kabi ko'rinish qismida biz dinamik javascript codelaridan foydalana olamiz.

Web ilovada ma'lumotni namoyish qilish

Ma'lumotni namoyish qilishda odatda JavaScriptning EJS kutubxonasidan foydalanamiz, bu bizga ma'lumotlar omboridan kelayotgan ma'lumotni dinamik tarzda namoyish qilishga yordam beradi va komandalar <% %> shu belgilar orasiga yoziladi [7]. Masalan

```

<div class="dropdown col-3 px-0 mb-0 ">
<div onclick="myFunction()" class="dropbtn">Qayerdan</div>
<div id="myDropdown" class="dropdown-content">
<input type="text" placeholder="Search.." id="myInput"
onkeyup="filterFunction()">
<% for( let i = 0; i < address.length; i++ ) { %>
<a id="<%= address[i].id %>"><%= address[i].adres_name %> </a>
<% } %>
</div>
</div>
<div class="dropdown col-3 px-0 mb-0">

```



```

<div onclick="myFunction1()" class="dropbtn">Qayerga</div>
<div id="myDropdown1" class="dropdown-content">
<input type="text" placeholder="Search.." id="myInput1"
onkeyup="filterFunction1()">
<% for( let i = 0; i < address.length; i++ ) { %>
<a id="<%= address[i].id %>"><%= address[i].adres_name %> </a>
<% } %>
</div>
</div>

```

Marshrutni buyurtma qilish

Joriy veb ilovada marshrutga buyurtma berish hamda uni bekor qilish xizmatlar mavjud. Bu xizmatlar foydalanuvchilarga qulay user interfeysda tashkil qilingan.

1-rasm Mavjud mashrutsal sahifasi.

Yon tarafda va yuqorida filtrlar mavjud bo'lib kerakli marshrutni tez topishga ko'malashadi, mashrutlardanechta odam borligiga qarab odam sonini tanlash mumkin va buyurtma beriladi.

Xatolik beradigan holatlar.

Xatolik beradigan holatlar asosan xatolik sahifalariga yo'naltirib yuborilgan, masalan server bilan qanaqadir muammo bo'ladigan bo'lsa bu 500 xato berishi va shunga mos sahifaga yo'naltiriladi, bizga wandaydir sahifaga ruxsat bo'lmasa bu holatda 403 qaytarilishi va shunga mos sahifaha yo'naltirilish kerak. Agar web ilovada nimadir topilmasa u 404 server status qaytaradi va shunga mos sahifaga yuboriladi. Bundan tashqari bazi muhim tranzaksiyalar ma'lumotlar omboridagi tranzaksiyalar orqali amalga oshiriladi, va qaysidir jarayon xato ketsa qolgan barcha bo'lgan jarayonlar orqaga qaytariladi.

Dastur yaratishda ishlatilgan algoritmlar.

Ilova yaratish davomida ko'plab algoritmlar ishlatiladi, bulardan bazilarini berib o'tamiz. Bulardan biri yuzlab shaharlar ichidan qidiruv orqali filtr qilib kerakli shaharni tez toppish algoritmi [2].

```

function filterFunction1() {
var input, filter, ul, li, a, i;

```

```

input = document.getElementById("myInput1");
filter = input.value.toUpperCase();
div = document.getElementById("myDropdown1");
a = div.getElementsByTagName("a");
for (i = 0; i < a.length; i++) {
txtValue = a[i].textContent || a[i].innerText;
if (txtValue.toUpperCase().indexOf(filter) > -1) {
a[i].style.display = "";
} else {
a[i].style.display = "none";
}
}
}
}

```

Bulardan yana biri ma'lumotlar omborida ma'lumot olishda murakkab SQL kod orqali kerakli ma'lumotni chiqarib olish.

```

app.get("/allroute", (req, res) => {
pool.query(`SELECT distinct vil.* FROM magister_ay.regions vil
left join magister_ay.regions tum
on tum.sub = vil.id
where vil.sub < 16 and vil.sub > 1;
SELECT r.*, p.ismi, p.picture_url, p.chair_number, concat(p.mashina_rusumi,' ',
mashina_raqam) type_car, concat(chair_number, 'x', r.narxi, ' som') summa,
r.has_chekish, r.has_uy_hayvoni, r.has_snakes, p.jinsi, re.adres_name
qayerdan_from, re2.adres_name qayerga_to
FROM magister_ay.driver_route as r
join magister_ay.driver_profile as p
on r.user_id = p.user_id
left join regions re
on re.id = r.qayerdan
left join regions re2
on re2.id = r.qayerga where r.user_id = ? order by r.kun desc`,`,[req.session.userId],
(err, rows, fields) => {
if (err) return res.render("./user/error-500")

```

```

const address = {address:rows[0]}
const routes = {routes:rows[1]}
res.render("driver_allroute", {...address, ...routes})
})
})

```

Malumotlar omborida ishlatilgan jadvallar.

1. Users [5]

- **id:** yagona farqlanuvchi ustun,
- **username** foydalanuvchi nomi, registratsiyada kiritiladi,
- **phone** foydalanuvchi raqami,

- **password** foydalanuvchi paroli,
- **role_id** foydalanuvchi roli,
- **is_active** aktiv yoki aktiv emasligi,
- **created_on** yaratilgan sana,
- **updated_on** o'zgartirilgan sana

2. **driver_profile**

- **id** yagona farqlanuvchi ustun,
- **ismi** foydalanuvchining ismi,
- **raqami** foydalanuvchi telefon raqami,
- **jinsi** foydalanuvchi jinsi,
- **email** email adresi,
- **dob** tug'ilgan sanasi,
- **qayerdan** foydalanuvchining qayerdanligi,
- **mashina_rusumi** mashinasining rusumi,
- **mashina_raqam** mashinasining davlat raqami,
- **chair_number** mashinasi necha o'rindiqlik,
- **smoke chekib** bo'ladimi mashinada,
- **user_id** foydalanuvchi idsi,
- **role_id** roli marshrutdagi,
- **picture_url** mashinasining rasmi,
- **kasbi** asosiy kasbi

3. **order_route**

- **id** yagona farqlanuvchi ustun,
- **route_id** mashrut idsi,
- **number_people** mashrutda necha kishiga joy mavjud,
- **total_cost** umumiy har bir yo'lovchi uchun narx,
- **user_id** qaysi foydalanuvchi mashrutni yaratgan
-

4. **regions**

- **id yagona** farqlanuvchi ustun,
- **address_name** shahar, tuman, viloyat nomalari,
- **sub** sub elementi

Xulosa qilib aytganda joriy Arzon yo'l web ilovamiz, uzoq masofaga mo'ljallangan va doimiy qatnov vakili bo'lmagan haydovchilarga va o'zlariga kerak mashrutda arzon va o'zlariga mos hamrohlar bilan borishni xohlagan foydalanuvchilarni bir-biri orasidagi aloqani ta'minlab beruvchi daturlardan biri hisoblanadi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5349-sonli farmoni. 2018 yil 19 fevral.
2. Sayfiyev J.F. "SQL tiliga kirish" uslubiy qo'llanma. Buxoro 2005 yil. 76 bet.
3. <https://nodejs.org/en/learn/getting-started/introduction-to-nodejs>
4. <https://expressjs.com>
5. <https://dev.mysql.com/doc/refman/8.3/en/language-structure.html>
6. <https://blog.logrocket.com/how-to-use-ejs-template-node-js-application/>

QUYOSH PANELLARINING ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

I.I.Raxmatov,
BuxDU dotsenti,
N.N.Halimov,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
n.n.halimov@buxdu.uz

Fotoelektr effekti quyosh energiyasini to'g'ridan-to'g'ri elektr energiyasiga aylantiradigan fotoelektrik tizimda paydo bo'ladi. Fotovoltaik tizim kun yorug'ligini talab qiladi. Fotovoltaik tizimlar to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri ostida bo'lishi shart emas, shuning uchun bulutli kunlarda ham fotoelektr panellari oz miqdorda elektr energiyasini ishlab chiqarishi mumkin. Fotovoltaik yoki quyosh batareyasining (QE) eng oddiy dizayni - quyosh nurlanishining elektr energiyasiga aylantirish uchun bir kristalli kremniyli qurilmaga asoslangan. (1-rasm).



1-rasm. Quyosh batareyasidagi yarim o'tkazgichlarda kechadigan fizik jarayonlar sxemasi

Yarim o'tkazgichli fotoelementlarning volt-amper xarakteristikasini quyidagicha yozaylik:

$$-j = j_s \left(e^{\frac{eV}{kT}} \right) - j_{q.u} \quad (1)$$

Bunda j_s – to'yinish toki
Tashqi zanjirdagi R qarshilikda ajraladigan quvvat

$$W = j \frac{kt}{e} \ln \left(\frac{j_{q.u} - j}{j_s} + 1 \right). \quad (2)$$

Tashqi zanjirda maksimal quvvat olish uchun R qarshilikni shunday tanlab olish kerakki,

$$R = \frac{\mathcal{E}_{max}}{j_{max}} \quad (3)$$

Tenglik bajarilishi kerak. Bunda \mathcal{E}_{max} va j_{max} qarshilikdagi maksimal e.y.u.k va maksimal tok. \mathcal{E}_{max} va j_{max} larni toppish uchun (2) dan j bo'yicha hosila olib, nolga tenglashtiramiz, yani

$$\ln \left(\frac{j_{q.u} + j_{max}}{j_s} + 1 \right) - \frac{j_{max}}{j_s + j_{q.u} - j_{max}} = 0 \quad (4)$$

$$(1) \text{ dan } \frac{e\mathcal{E}_{max}}{kT} = \ln \left(\frac{j_{q.u} - j_{max}}{j_s} + 1 \right). \quad (5)$$

(4) va (5) larni birga yechsak:

$$j_{max} = \frac{(j_T + j_{q.u}) \frac{e\mathcal{E}_{max}}{kt}}{1 + \frac{e\mathcal{E}_{max}}{kT}}; \quad (6)$$

$$e \frac{e\mathcal{E}_{max}}{kT} \left(1 + \frac{e\mathcal{E}_{max}}{kT} \right) = 1 + \frac{j_{q.u}}{j_s} \quad (7)$$

R qarshilikda olinadigan maksimal quvvat

$$W_{max} = j_{max} \mathcal{E}_{max} \quad (8)$$

Formula orqali aniqlanadi. Fotoelementning foydali ish koeffitsenti esa

$$\eta = \frac{W_{max}}{W_i} * 100\% \quad (9)$$


bo'ladi, bunda W_i - fotoelementga 1 sek da tushadigan nurlanish energiyasi. Biz bu yerda nurning fotoelement sirtidan qaytishini, fotoelementda yutilmasdan o'tib ketadigan qismini va kvant chiqarishni hisobga olmadik. Agar bularni ham hisobga olsak, fotoelementning foydali ish koeffitsenti quydagicha yoziladi:

$$\eta = (1-r) (1-e^{-ad_2}) \beta * \frac{W_{max}}{W_{max}} * 100\% \quad (10)$$

bunda r - nurning sirtidan qaytish koeffitsenti, β kvant chiqarish (har bir yutilayotgan foton yoki radio aktiv nurga to'g'ri kelgan electron-teshik jufti).

Fotoelementga tushayotgan nurning r qismi fotoelement sirtidan qaytib foydali ish koeffitsentining kamayishiga olib keladi. R ortishi bilan FIK ham kamayib boradi. Shuning uchun maxsus shaffof qatlam bilan fotoelement yuzi qoplanib r ni kamaytiradi. Yorug'lik nurining $\exp(-a d_1 - a d_2)$ qismi m fotoelementda yutilmay o'tib ketadi. Bu ham F.I.K ning kamayishiga olib keladi. Yarim o'tkazgichda yutilayotgan fotonlarning hammasi fotoaktiv bo'lmasligi mumkin, yani β hamma vaqt birga teng (radiaktiv nurlar uchun $\beta > 1$ bo'la oladi) bo'lmay birdan kichik bolishi ham mumkin. β birdan qancha kichik bo'lsa, f.i.k ham shuncha kichrayib boradi. Bulardan tashqari f.i.k kamayishiga sirtiy va hajmiy rekombinatsiya ta'sir qiladi. Nazariya shunu ko'rsatadiki, agar kontakt va sirt oldida berkituvchin qatlam hosil bo'lsa sirtiy rekombinatsiyakatta bo'lib, f.i.k kamayadi.

Quyosh batareyalari sovuq ob-havo sharoitida yaxshiroq ishlaydi. Oddiy sharoitlarda quyosh paneli 40-45 °C gacha qizdirilganda uning quvvati 15-17% ga kamayadi. Quyida teplovizor orqali o'lgangan havo harorati va quyosh panelidagi temperaturani ko'rishimiz mumkin (2-rasm). Bunda havo harorati 23°C ni, quyosh



paneli sirtidagi temperatura esa 42°C ni, ular orasidagi 19°C ni tashkil etgan. Yozning issiq kunlarida harorat 40-45C ga yetganda quyosh paneli sirtidagi temperatura 55-60°C ga yetadi. Bu esa uning ishlash samaradorligini 15-17% ga kamaytirib yuboradi. Agar quyosh panellarini

2-rasm. Quyosh paneli sirtidagi va havo temperaturalari maydoni

temperaturasini, optimal 25°C dabarqaror saqlay olsak, uning f.i.k ni 10-15%ga oshirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu esa birgina Buxoro Davlat Universitetidagi quyosh panellari (1Gwattli quyosh fotoelektrik stansiya) uchun qo'shimcha 500Mw energiya deganidir.

Xulosa: Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanib elektr energiya ishlab chiqarish hozirda dolzarb vazifa bo'lib turibdi. Chunki energiyaga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda, energiya manbalari esa kundan-kunga kamayib bormoqda. Quyosh panellaridan samarali foydalanish esa bugungi kun talabi.2024-yilda O'zbekiston hududida quyosh energiyasi ulushini 15% ga yetkazish rejalashtirilgan. Agar quyosh panellarining ishlash samaradorligini oshirsak, qo'shimcha MW energiyaga ega bo'lamiz va millionlab dollar mablag'ni tejashimiz mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Основы возобновляемой энергетики. Компания «Ваш Солнечный Дом», 2016. [Электронный ресурс] Режим доступа: <http://www.solarhome.ru/ru/basics>
2. Investigations into kinetics of sun drying of herb greens I.I.Rakhmatov - Applied solar energy, 1995
3. Модель массопереноса при сушке в режиме прямотока и противотока И.И Рахматов, Т.Ойгул - Вестник науки и образования, 2020 Повышение эффективности сушки пряной зелени с использованием нетрадиционных источников энергии И.И.Рахматов – 1993
4. Термодинамика геотермального теплоснабжения И.И Рахматов, Р.М.Саидова- Молодой ученый, 2016 Internet saytlari; www.orbita.uz ; www.lex.uz ;

DASTURLASH TILLARI, ULARNI O'RGANISH VA ULARNING SOHADA QO'LLANILISHI.

*Z.K.Niyozova,
BuxDU talabasi
zaynabbegimniyozova087@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada dasturlash tillari va ularni sohada qo'llanilishi, o'rganish uchun qulay va oson bo'lgan, ko'p foydalanilgan dasturlash tillari va ulardan sohada foydalanish haqida fikr yuritilgan. Kodlash va dasturlar ishlab chiqishni o'rganish paytida dasturlash tillarining ko'pligi va xilma xilligi orqali ko'plab dasturlar yaratish va ulardan foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Dasturlash tillari, C++, Python, PHP, Ruby, web dasturlash, Java, mobil rivojlanish, C#, CSS, sun'iy intellect.

ЯЗЫКИ ПРОГРАММИРОВАНИЯ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В ОБЛАСТИ.

Аннотация. В этой статье рассматриваются языки программирования и их приложения в отрасли, которые удобны и просты в освоении, наиболее используемые языки программирования и их приложения в отрасли. Многие языки программирования при изучении кодирования и разработки программного обеспечения и за счет разнообразия, можно создавать и использовать множество программ

Ключевые слова: Языки программирования, C++, Python, PHP, Ruby, веб-программирование, Java, мобильная разработка, C#, CSS, искусственный интеллект

PROGRAMMING LANGUAGES AND THEIR APPLICATION IN THE FIELD

Abstract. This article discusses programming languages and their applications in the industry, which are convenient and easy to learn, the most used programming languages and their applications in the industry. Many programming languages when learning coding and software development and through diversity, many programs can be created and used.


Keywords: Programming languages, C++, Python, PHP, Ruby, web programming, Java, mobile development, C#, CSS, artificial intelligence

Kirish.

Dasturlash tillari, yani programmalash tili, kompyuter dasturlarini yaratish va ishga tushirish uchun foydalaniladigan formal tildir. Dasturlash tillari ko'p xil bo'lib, har birining o'z maqsadi va foydalanish sohalariga mos keladigan xususiyatlari mavjud. Biz bilamizki, har kimning qaysi dasturlash tili eng yaxshisi, va qaysi tildan qochish kerakligi haqida o'z shaxsiy fikri bor. Ammo shuni bilishimiz kerakki, biz o'zimiz uchun qiziqarli bo'lgan dasturlash tilini tanlashimiz lozim. U dasturlash tili eng mashhur yoki keng tarqalgan til bo'lishi shartmas. Shunday qilib, biz quyida o'rganish uchun dasturlash tiini tanlashimizda e'tiborga olishimiz kerak bo'lgan bir nechta omillarni ko'rib chiqishimiz mumkin. Har bir dasturlash tili, o'z sintaksis va strukturaga ega. JavaScript, Python, Java, C#, Ruby,

Swift, Kotlin, va PHP kabi mashhur dasturlash tillari, xususiyatlariga ko'ra tanlanadi. Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar, va resurslar orqali dasturlash tillarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmak uchun o'qituvchilar, dasturchilar, va talabalarning boy tajribasi mavjud.

Eng so'nggi mavjud ma'lumotlarga ko'ra, quyida O'zbekistonda eng ko'p qo'llaniladigan dasturlash tillari ro'yxati va ularning taxminiy foizlari keltirilgan:



Turli xil dasturlash tillari va ulardan sohada foydalanish

C

C - barcha dasturlash tillarining eng kattasi va u 1972-yilda ishlab chiqarilgan. So'ngi o'n yilliklar davomida C eng keng tarqalgan dasturlash tillaridan biriga aylandi.

C#

Dastlab Microsoft tomonidan o'zlarining .NET ramkalarida ishlash uchun ishlab chiqilgan C# (*"C-sharp" deb talaffuz qilinadi*) C va C++ ga asoslangan .

C# dastlab o'rganish va foydalanish oson bo'lishi uchun yaratilgan.

C# - bu yuqori darajadagi til, ya'ni u biroz ingliz tiliga o'xshaydi.

Bundan tashqari, u kompyuter sizning kodingizni o'qiy olishi va qayta ishlashiga ishonch hosil qilish uchun zarur bo'lgan ko'plab murakkab vazifalarni mavhumlashtiradi.

1. C++

C++ hali ham ishlatilayotgan dasturlash tillarining shubhasiz eng yoshi kattasi deb aytganimiz C tiliga asoslangan . C++ kuchli, yuqori unumdor til, lekin u ancha pastroq.

2. Java

Java dunyodagi eng mashhur va keng qo'llaniladigan dasturlash tillaridan biridir. Biz Java-dan Android smartfon ilovalarini kodlashdan tortib, murakkab ish stoli ilovalarini yaratishgacha bo'lgan turli loyihalar uchun foydalanishimiz mumkin.

Ya'ni, Java barcha platformalar, operatsion tizimlar va qurilmalarda mashhur.

3. JavaScript

Java bilan adashtirmaslik kerak, *JavaScript* Internetning dasturlash tilidir.

Bu veb-saytlarga hayot bag'ishlaydi, ularni yanada interaktiv, foydalanish uchun qiziqarli va foydalanuvchilarga qulay hisoblanadi.

4. **PHP**

PHP - bu HTML-da yozilgan veb-sahifalarni yaratish uchun server tomonida ishlaydigan skript tili

Bu tilni yangi ishlab chiquvchilar uchun ishlatish nisbatan oson bo'lib, uni eng mashhur dasturlash tillaridan biriga aylantiradi. Haqiqatan ham, hozirda eng yaxshi 10 million veb-saytlarning 80% PHP dan foydalanadi.

5. **Python**

Python- bu yangi boshlanuvchilar uchun eng qulay dasturlash tillaridan biri.

Birinchi marta 1990-yillarda Guido van Rossum tomonidan ishlab chiqilgan Python butun dunyodagi eng mashhur dasturlash tillaridan biriga aylandi. Agar siz kodlashni yangi boshlagan bo'lsangiz, Python dasturlash asoslarini o'rganish uchun juda mos keladi.

U ingliz tiliga o'xshaydi, shuning uchun uni o'rganish nisbatan intuitiv va olish oson.

6. **Ruby**

Ruby- bu juda yuqori darajali, ko'p maqsadli dasturlash tili , birinchi marta 1995-yilda chiqarilgan.

Bu ishlash uchun eng qiziqarli va ijodiy dasturlash tillaridan biri , chunki biz ko'pincha muayyan muammoni hal qilishning bir necha usullarini topamiz.

Shu sababli, Ruby boshlang'ich va kichik biznesda veb-illovalarni iloji boricha tezroq ishga tushirish uchun eng foydali dasturlash tilidir.

Quyidagi jadvalimizda dasturlash tillari va ularning qo'llanilis sohalari haqida ma'lumot berilgan:

Dasturlash tillari	Qo'llash mumkin bo'lgan sohalar
Python	Web dasturlash, Ma'lumotlar analizi va tahlili, Yadro dasturlash, Robototexnika, Kiberxavfsizlik, Grafika, Sun'iy intellect (AI)
C#	Windows dasturlash, Web dasturlash, O'yin dasturlash, Yadro dasturlash, Korporativ ilovalar,
C++	O'yin dasturlash, Emulyatorlik va injenerlik, Texnologiya, Yadro dasturlash, Robototexnika, Yadro boshqarish, Mobil ilovalar, Sistem dasturlar, Grafik dasturlar
Go	Server dasturlash, Mikroservislarni yaratish, Bulut kompyutering, Tarmoq dasturlar, Yadro tarmoq dasturlar
Ruby	Web dasturlash, Startuplar va IT-kompaniyalar, E-tijorat, Test avtomatlashtirish, O'yinlar, data analitika

TypeScript	Web dasturlash, Node.js dasturlash, Angular framework, React Native ilovalar, O'yinlar, Mobil dasturlash
PHP	Web saytlar va ilovalar, CMS platformalar, Baza bilan ishlash, E-tijorat, API yaratish, Forumlar va sahifalar
Kotlin	Android ilovalar, Backend dasturlash, Multiplatform dasturlash, Data analitika, O'yinlar

Xulosa

Ushbu maqolamizda dasturlash tillarining ko'p qirrali sohasi, ularning ahamiyati, o'rganish metodologiyasi va turli sohalarda turli xil qo'llanilishi o'rganiladi. U dasturlash tillarining insonlar va kompyuterlar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdagi asosiy rolini tushuntirishdan boshlanadi, zamonaviy texnologiyalarni quvvatlaydigan dasturiy ta'minot, ilovalar va tizimlarni yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqola veb-ishlab chiqish, mobil ilovalarni ishlab chiqish, ma'lumotlar fani, sun'iy intellekt va kiberxavfsizlikni o'z ichiga olgan turli sohalardagi dasturlash tillarining turli xil ilovalarini o'rganadi. Unda turli dasturlash tillari qanday qilib muayyan vazifalar va funksiyalarga moslashtirilgani, ishlab chiquvchilarga murakkab muammolarni hal qilish va o'z sohalarida innovatsiyalar kiritish imkoniyatini berishini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shafiyev T.R., Nazarov S.E., Niyozova Z.K. Dasturlash asoslari fanidan masalalar va yechimlar. Buxoro: Kamolot, 2024. 149 b.
2. <https://habr.com/ru/articles/722586/>
3. <https://www.simplilearn.com/best-programming-languages-start-learning-today-article>
4. <https://www.texnoman.uz/post/dasturlash-tillari-ularning-turlari-va-asoslari.html>
5. Z.M. Adizova Dasturlash texnologiyalari / [Matn]: o'quv qo'llanma / Buxoro : "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. - 204 b.

GLUTAMIN VA ATSETAMID ASOSIDAGI Ni(II) KOMPLEKS BIRIKMASINING IQ SPEKTROSKOPIYASI VA RENTGENFAZAVIY TAHLILI.

*Jumayeva Z.R., Avezov Q.G`,
Mardonov O`M, Ganiyev B.Sh.
Buxoro davlat universiteti, Tabiiy fanlar.*

Annotatsiya: Ushbu ishda glutamin va atsetamidning Ni(II) ioni bilan hosil qilgan kompleks birikmasining IQ spektroskopiyasi va rentgenfazaviy tahlili bo'yicha olingan natijalar bayon etilgan. RFA natijalariga ko'ra, uning kristall

tuzilishi ma`lumotlari quyidagicha: fazoviy guruhi triklinik, $a= 13.62698$, $b= 12.30246$, $c= 11.04721 \text{ \AA}$, $\alpha=104.044$, $\beta= 103.639^\circ$, $\gamma= 106.969^\circ$. $V=1621,9 \text{ \AA}^3$. Ushbu rentgenogramma reflekslarini Rietveld bo`yicha hisoblanganda $R_p=17,141$ va $R_{wp}=16,461$ qiymatlari aniqlandi.

Kalit so`z: glutamin, atsetamid, kompleks birikma, IQ spektroskopiyasi, RFA, chastota, Rietveld, Expo 2014.

O`zMU tadqiqotchilari tomonidan amidlar va aminokislotalarning turli 3d metal ionlari bilan kompleks birikmalari sintezi va tadqiqoti fizik-kimyoviy tadqiqot usullari bilan o`rganilgan [1-3]. Jumladan, [2] adabiyotda atsetamid va tiosemikarbazid bilan aralash ligandli yangi kompleks birikmalari sintezi, termik va SEM analizi amalga oshirilgani to`g`risida ma`lumotlar keltirilgan.

Nuraliyeva va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda tiosemikarbazid va uning kompleks birikmalari IQ- yutilish spektrlari taqqoslanganda $\nu(\text{NH})$ tebranish chastotalari koordinatsiyalanmagan ligandlar bilan taqqoslanganda komplekslar spektrida siljishlar kuzatilgan. Bunday $\nu(\text{NH})$ – past chastotali sohaga siljish bo`lishi metall-tiosemikarbazid orasida bog`lanish aminoguruhdagi azot atomi ishtirokida borishini isbotlangan. $1531-1290 \text{ cm}^{-1}$ sohadagi chiziqlar, tiosemikarbazidning $\nu(\text{CN})$ tebranishiga tegishli bo`lib, spektrda $8-40 \text{ cm}^{-1}$ ga yuqori chastotali sohaga siljish kuzatilgan.

$[\text{Ni}(\text{L})_2(\text{HSal})_2]$ tarkibli kompleks birikmalarning IQ-spektrlarida keskin o`zgarishlar kuzatilib, tiosemikarbazid IQ-spektrida o`ziga xos xarakterli bo`lgan 800 cm^{-1} kuchli sohada $\text{C}=\text{S}$ bog`larning valent tebranishlari namoyon bo`lsa, kompleks birikmada 813 cm^{-1} gacha yuqori sohaga siljigan. Bu esa tiosemikarbazidning oltingugurt atomi orqali koordinatsiyaga uchraganligidan dalolat beradi [2-7].

1-jadval.

Turli 3d metal ionlarining asetamid va tiosemikarbazid asosidagi kompleks birikmalarning IQ spektrlarining asosiy tebranish chastotalari (cm^{-1})

Birikma	ν_{as} (CO-)	ν (-N- N-)	ν (NH)	ν (CN)	ν (M-S)	ν (M - O)	ν (M - N)
Tiosemikarbazid (TCK)	-	1000	3263	1531	-	-	-
Atsetamid(AA)	1665	-	3210	-	-	-	-
$[\text{Ni}(\text{NO}_3)_2 \cdot \text{TCK} \cdot \text{AA}]$	1633	1041	3149	1647	889	599	468
$[\text{NiCl}_2 \cdot \text{TCK} \cdot \text{AA}]$	1647	1047	3147	1633	813	594	491


Glitsin va atsetamid asosida Ni(II) va Zn(II) xlorid, nitrat va atsetatlarining kompleks birikmalari sintez qilinib, ularning tarkibi va tuzilishi va xossalari element analiz, IQ- spektroskopiya, rengenfazaviy va termik analiz usullari yordamida aniqlangan [1]. Atsetamid molekulasining IQ-spektrida $\text{C}=\text{O}$ bog`iga tegishli valent tebranish chastotalari 1665 cm^{-1} sohada, NH_2 guruhining valent tebranishlari esa

3397-3210 cm^{-1} sohada kuzatilgan. $[\text{NiGly}\cdot\text{AA}\cdot\text{H}_2\text{O}\cdot\text{Cl}]\cdot\text{H}_2\text{O}$ tarkibli kompleks birikmaning IQ – spektrida C=O bog'ining yutilish chiziqlari ($\Delta=55 \text{ cm}^{-1}$) ligandlardan farqli ravishda yuqori sohaga siljiganligi kuzatilgan, bu esa metall ioni atsetamid molekulasidagi kislorod atomi orqali koordinatsiyada ishtirok etganligini ko'rsatadi. Kompleks tarkibidagi amino guruhning valent tebranishlari 3356 cm^{-1} , deformatsion tebranishlari esa 1468 cm^{-1} sohada kuzatilgan.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda mualliflar tomonidan glutamin va atsetamid asosidagi Ni(II) ionlari saqlagan aralash ligandli kompleks birikmalari sintezi amalga oshirildi va uning tuzilishini o'rganishda IQ spektroskopiyasi hamda RFA tahlil usullarida tahlil etildi (1-rasm).

Glutamin va atsetamid bilan nikel(II) ionining geteroligandli kompleksining IQ spektrlarida 3735.27 va 3690.79 cm^{-1} chastotada suv molekulasini $\nu(\text{OH})$ tebranishiga xos yutilish chizig'i namoyon bo'lgan. 3113.92 va 3032.13 cm^{-1} chastotada ligandlar – glutamin va atsetamid tarkibidagi amino guruhning $\nu_a(\text{NH}_2)$ va $\nu_s(\text{NH}_2)$ valent tebranishlari hamda 1394.81 cm^{-1} chastotada $\delta(\text{NH}_2)$ deformatsion tebranishlari kuzatilgan. IQ spektrda glutaminning karboksilat guruhi 1571.31 va 1502.43 cm^{-1} chastotada asimmetrik $\nu_a(\text{COO}^-)$ va simmetrik $\nu_s(\text{COO}^-)$ $\nu(\text{C-N})$ valent hamda 675.88 cm^{-1} sohada $\delta(\text{COO}^-)$ deformatsion tebranishlariga xos yutilish chiziqlari namoyon bo'lgan. Atsetamidagi NH_2 guruhining adabiyotda keltirilgan 1665 cm^{-1} sohadagi qayd etilgan yutilish chiziqlari NiGlnAA kompleksida 1657.41 cm^{-1} sohada kuzatilgan. $\nu(\text{M-N})$ bog'ining yutilish chiziqlari 468 adabiyotda keltirilgan bo'lib, NiGlnAA kompleksida esa bu 460.63 cm^{-1} chastotada namoyon bo'lgan. IQ spektr tahlilida $\nu(\text{M-O})$ bog'ining valent tebranishlari $[\text{NiCl}_2\cdot\text{TCK}\cdot\text{AA}\cdot]$ kompleksi uchun adabiyotda 594 cm^{-1} sohada qayd etilganligi keltirilgan bo'lib, NiGlnAA kompleksi uchun bu ko'rsatkich 559.64 cm^{-1} ga teng bo'lgan.

NiGlnAA kompleksining Expo 2014 dasturida qayta ishlangan RFA natijalariga ko'ra, uning kristall tuzilishi ma'lumotlari quyidagicha: fazoviy guruhi triklirik, $a=13.62698$, $b=12.30246$, $c=11.04721 \text{ \AA}$, $\alpha=104.044$ $\beta=103.639$ $\gamma=106.969^\circ$. $V=1621,9 \text{ \AA}^3$. Ushbu rentgenogramma reflekslarini Rietveld bo'yicha hisoblanganda $R_p=10,201$ va $R_{wp}=14,141$ qiymatlari aniqlandi. Bu qiymatlar kristallning tozlik va aniqlik darajasini belgilaydi. Ammo moddaning aniq tuzilishini har ikkala hisoblash texnikasi orqali ham tasvirlash imkoni bo'lmadi.



1-rasm. NiGlnAA kompleksi rentgenogrammasi

RFA analizi natijalarini Expo 2014 dasturi yordamida qayta ishlashdan olingan NiGlnAA kompleksning kristall tuzilish parametrlari Fulprof dasturida qayta ishlab olingan ma'lumotlari bilan taqqoslab o'rganildi, natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. II va III komplekslarning kristall parametrlari

Kimyoviy formula	$C_{24}H_{46}N_{10}O_{14}Ni_2$	$C_{24}H_{46}N_{10}O_{14}Ni_2$
M_r	814.19	814.19
Kristall tizimi, maxsus guruhi	Monoclinic, $P2_1/c$	Monoclinic, $P2/m$
Harorat (K)	314	303
a , (Å)	13.62698	18.46960
b (Å)	12.30246	18.39630
c (Å)	11.04721	10.39671
α (°)	104.044	90
β (°)	103.639	99.515
γ (°)	106.969	90
V (Å ³)	1621,9	3483.9

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Нуралиева Г.А., Шавкатова Д.Ш. Ni(II) va Zn тузларини ацетамид ва глицин билан аралаш лигандли комплекс бирикмаларининг тузилишини ўрганиш. ЎзМУ хабарлари. №3/1. 2018. Б. 494-496
2. Нуралиева Г.А., Умирзокова О.Т., Алиева М.З., Парпиев Н.А. Zn(II), Ni(II), Co(II), Cr(II) va Mn(II) ларнинг комплекс бирикмаларини тузилишини физик-кимёвий усуллар асосида ўрганиш. «Комплекс бирикмалар кимёсининг долзарб муаммолари» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. Ташкент. – НУУ. – 2021 г. 14-15 сентябрь. – С. 51-52
3. Nuralieva G.A., Umirzoqova O.T., Khayrullayev G.U. Study Of Structure Of Heterolygand Complex Compounds Of 3d-Metal Salts. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry 2021, Vol. 12 Issue 9, pp. 5625-5631
4. Нуралиева Г.А., Пиримова М.А. (2020). Исследование смешанно лигандных соединений с d-металлами ацетамида и тиосемикарбазида. Universum: химия и биология, (2 (68)), 55-61.
5. Нуралиева Г.А., Умирзакова О. Исследование смешанно лигандных соединений с d-металлами ацетамида и тиосемикаразида // Симпозиум «Химия в народном хозяйстве» Тез.докл. Россия 12.02.2020.-57 б.
6. Нуралиева Г.А., Умирзокова О.Т., Алиева М.З. Исследование комплексных соединений гетеролиганда 3d-металлов // Modern scientific challenges and trends / Польша, 7-9 май 2021. - С. 67-69

UZLUKSIZ AKSLANTIRISH FAZOSIDA PSEVDOTEKIS TOPOLOGIYASINING XOSSALARI.

Ruziyev J.E., Ahmadova M.G'

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

$(\mathbb{R}, \tau_{\text{tabiiy}})$ topologik fazoda $\mu = \left\{ O_{\frac{1}{n}}(r) : r \in \mathbb{Q}, n \in \mathbb{N} \right\}$ ochiq atroflar oilasi berilgan bo'lsin. To'g'ri chiziqda tabiiy topologiya intervallar orqali aniqlanadi.

1-ta'rif. (\mathbb{R}, τ) topologik fazoning ixtiyoriy ochiq qism to'plamini μ oilaga tegishli to'plamlar birlashmasi sifatida ifodalash mumkin bo'lsa, μ oilaga (\mathbb{R}, τ) topologik fazoning bazasi deb ataladi.

Berilgan $\varepsilon > 0$ son va $A \in \mu$ uchun quyidagi to'plamni kiritamiz:

$$A_\varepsilon = \{(f, g) \in C(\mathbb{R}) \times C(\mathbb{R}) : |f(x) - g(x)| < \varepsilon, x \in A\}.$$

$\{A_\varepsilon : A \in \mu, \varepsilon \in \mathbb{R}^+\}$ to'plamlar sistemasi $C(\mathbb{R})$ da tekis yaqinlashishlar uchun baza bo'lishini oson isbotlash mumkin.

2-ta'rif. Tekis yaqinlashish orqali hosil qilingan topologiya μ da tekis yaqinlashish topologiyasi deb ataladi va hosil bo'lgan fazo $C_{\mu, u}(\mathbb{R})$ kabi belgilanadi, ya'ni \mathbb{R} da uzluksiz hamda μ ga tegishli elementlarga tekis yaqinlashuvchi akslantirishlar fazosi.

Berilgan $f \in C(\mathbb{R})$, $A \subseteq \mathbb{R}$ va $\varepsilon > 0$ uchun

$$V(f, A, \varepsilon) = \{g \in C(\mathbb{R}) : |f(x) - g(x)| < \varepsilon, x \in A\}$$

to'plamni qaraylik. U holda har bir $f \in C(\mathbb{R})$ uchun $\{V(f, A, \varepsilon) : A \in \mu, \varepsilon > 0\}$ oila $C_{\mu, u}(\mathbb{R})$ uchun f da ochiq atroflar bazasini tashkil qiladi.

1-teorema. $C_{\mu, u}(\mathbb{R})$ tixonov fazosi bo'ladi.

1-lemma. μ ochiq atroflar oilasi $(\mathbb{R}, \tau_{\text{tabiiy}})$ topologik fazo uchun baza bo'lib, $\beta := \{\bar{A} : A \in \mu\}$ oila uchun $C_{\mu, u}(\mathbb{R}) = C_{\beta, u}(\mathbb{R})$ tenglik o'rinlidir.

Isbot. Ushbu lemmani isboti har bir $f \in C(\mathbb{R})$ akslantirish, $A \in \mu$ va $\varepsilon > 0$ uchun $V(f, A, \varepsilon/2) \subseteq V(f, \bar{A}, \varepsilon) \subseteq V(f, A, \varepsilon)$ shart o'rinli ekanligidan kelib chiqadi.

2-teorema. μ va β ochiq to'plamlar oilasi \mathbb{R} da baza bo'lsin. U holda quyidagilar ekvivalentdir.

(1) Har bir $A \in \mu$ ochiq to'plam uchun shunday $B \in \beta$ to'plam topiladiki, $A \subseteq B$ shart o'rinli bo'ladi.

$$(2) C_{\mu, u}(\mathbb{R}) \leq C_{\beta, u}(\mathbb{R})$$

Isbot. Faraz qilaylik (2) tasdiq o'rinli. 3.1.1-lemmaga ko'ra β ga tegishli har bir to'plam yopiqdir. Shu sababli, har bir $f \in C(\mathbb{R})$ akslantirish, $A \in \mu$ va $\varepsilon > 0$ uchun shunday $B \in \beta$ to'plam topiladiki, $A \subseteq B$ shart o'rinli bo'ladi.

Endi (1) tasdiqni to'g'ri deb faraz qilamiz. $A \in \mu$ to'plam va $f \in C(\mathbb{R})$ akslantirishni fikserlaymiz. f akslantirish $C_{\mu, u}(\mathbb{R})$ fazoda $V(f, A, 1)$ uchun ichki

nuqta bo'lganligi sababli shunday $B \in \beta$ to'plam va $\varepsilon > 0$ son topiladiki, $V(f, B, \varepsilon) \subseteq V(f, A, 1)$ shart o'rinli bo'ladi. Biz $A \subseteq \overline{B}$ shartni talab qilamiz. Aks holini faraz qilaylik va $a \in A \setminus \overline{B}$ ni fikserlaymiz. Shunday $g \in C(\mathbb{R})$ akslantirish mavjudki, $g(\overline{B}) \subseteq \{0\}$ va $g(a) = 1$. Demak, $g \in V(f, B, \varepsilon) \setminus V(f, A, 1)$ ziddiyatga kelamiz. Farazimizning xatoligi tasdiqning to'g'riligini isbotlaydi.

3-ta'rif. Agar $(f_n)_{n \in \mathbb{N}} \in C(\mathbb{R})$ akslantirishlar ketma-ketligi va $f \in C(\mathbb{R})$ akslantirish uchun $f_n \xrightarrow{\mu} f$ ekanligidan $f_n \xrightarrow{u} f$ yaqinlashishi kelib chiqsa, μ baza \mathbb{R} da psevdotekis deb ataladi.

3-teorema. $\mu = \left\{ O_{\frac{1}{n}}(r) : r \in \mathbb{Q}, n \in \mathbb{N} \right\}$ psevdotekis baza bo'lsa, \mathbb{R} ning bo'sh bo'lmagan ochiq to'plamlaridan tuzilgan ixtiyoriy oila $\{U_n : n \in \mathbb{N}\}$ uchun shunday $M \in \mu$ to'plam topiladiki, $\{n \in \mathbb{N} : U_n \cup M \neq \emptyset\}$ cheklanmagan bo'ladi.

Isbot. Teoremani isbotlash uchun teskari faraz qilamiz. Ya'ni, \mathbb{R} ning bo'sh bo'lmagan ochiq to'plamlaridan tuzilgan ixtiyoriy oila $\{U_n : n \in \mathbb{N}\}$ uchun shunday $M \in \mu$ to'plam topiladiki, $\{n \in \mathbb{N} : U_n \cup M \neq \emptyset\}$ cheklangan bo'lsin.

Har bir $n \in \mathbb{N}$ uchun $x_n \in U_n$ nuqtani fiksirlaymiz va shunday $f_n \in C(\mathbb{R})$ akslantirish olamizki, u $f_n(x_n) = 1$ va $f_n(\mathbb{R} \setminus U_n) \subseteq \{0\}$ shartlarni qanoatlantiradi. U holda, barcha n uchun $f_n \notin V(0, \mathbb{R}, 1)$.

$M \in \mu$ va $\varepsilon > 0$ ixtiyoriy bo'lsin. $\{n \in \mathbb{N} : U_n \cup M \neq \emptyset\}$ chegaralanganligidan shunday m butun son topiladiki, $n \geq m$ uchun $U_n \cap M = \emptyset$ ifoda o'rinli bo'ladi ya'ni, $n \geq m$ uchun $f_n \in V(0, M, \varepsilon)$. Demak, f_n akslantirish μ da 0 ga intiladi, lekin tekis yaqinlashishi kelib chiqmaydi. Bu esa μ ning psevdotekis bo'lmasligini ko'rsatadi. Bu esa ziddiyat. Ziddiyat farazimizning noto'g'ri ekanligini isbotlaydi. Isbot yakunlandi.

4-ta'rif. Topologik fazoning ixtiyoriy uzluksiz funksiya orqali \mathbb{R} dagi obrazi chegaralangan bo'lsa, topologik fazo psevdokompakt fazo deb ataladi.

5-ta'rif. G topologik fazo quyidagi shartlarni qanoatlantirsa,

1. G grupp

2. $\cdot : G \times G \rightarrow G, (x, y) \mapsto xy$ va $^{-1} : G \rightarrow G, x \mapsto x^{-1}$ amallar uzluksiz, G

topologik grupp deb ataladi.

1-xossa. $(C_{\mu, u}(\mathbb{R}), +)$ topologik grupp ya'ni $w(C_{\mu, u}(\mathbb{R})) = \chi(C_{\mu, u}(\mathbb{R})) \cdot d(C_{\mu, u}(\mathbb{R}))$ tenglik o'rinli.

2-xossa. μ psevdotekis bo'lsa, $C_{\mu, u}(\mathbb{R}) = C_u(\mathbb{R})$ tenglik o'rinli.

Isbot. Bizga $\mu = \left\{ O_{\frac{1}{n}}(r) : r \in \mathbb{Q}, n \in \mathbb{N} \right\}$ baza berilgan bo'lib, $C_u(\mathbb{R}) \not\subseteq C_{\mu, u}(\mathbb{R})$ deb faraz qilamiz. Har bir n butun son uchun $x_n \in X \setminus \overline{A_n}$ elementni fikserlaymiz va $f_n \in C(\mathbb{R})$ akslantirishni shunday tanlaymizki, $f_n(x_n) = 1$ va $f_n(\overline{A_n}) \subseteq \{0\}$ shartlarni qanoatlantiradi. Shu sababli, $f_n \xrightarrow{\mu} 0$ ammo $\{f_n : n \in \mathbb{N}\} \cap V(0, \mathbb{R}, 1) = \emptyset$ ya'ni μ psevdotekis emas.

6-ta’rif. Metrik fazoga gomeomorf topologik fazo (X, τ) metrikalashtirilgan fazo deb ataladi. Ya’ni τ topologiya d metrika yordamida hosil qilingan.

7-ta’rif. (X, τ) topologik fazoning har bir elementi sanoqli bazaga ega bo’lsa, bu fazoga birinchi tartibli sanoqli fazo deyilafi.

8-ta’rif. (X, τ) topologik fazoning topologiyasi yaqinlashuvchi (uzoqlashuvchi) ketma-ketlikdan hosil qilingan bo’lsa, bu fazo sekvential fazo deb ataladi.

4-teorema. μ psevdotekis baza bo’lsa, quyidagi tasdiqlar ekvivalentdir.

$$(1) \quad C_{\mu,u}(\mathbb{R}) = C_u(\mathbb{R})$$

$C_{\mu,u}(\mathbb{R})$ metrikalashgan

$C_{\mu,u}(\mathbb{R})$ sanoqlilikni birinchi aksiomasini qanoatlantiradi

$C_{\mu,u}(\mathbb{R})$ sekvensial fazo

Isbot. Bizga ma’lumki, $C_u(\mathbb{R})$ metrikalashtirilgan fazo. Shu sababli, (2)-tasdiq (1)-tasdiqning natijasidir. Ixtiyoriy fazo uchun (2) \rightarrow (3) \rightarrow (4) ketma-ketlik o’rinli. Shu sababli, biz faqat (4)-tasdiqdan (1)-tasdiq kelib chiqishini isbotlaymiz. Buning uchun teskari faraz qilamiz, ya’ni $C_{\mu,u}(\mathbb{R}) = C_u(\mathbb{R})$ tenglik o’rinli emas. F to’plam sifatida $C_u(\mathbb{R})$ da yopiq hamda $C_{\mu,u}(\mathbb{R})$ da yopiq bo’lmagan to’plamni belgilaymiz. $C_{\mu,u}(\mathbb{R})$ ning sekvential emasligini isbotlash uchun F to’plamning sekvential yopiq ekanligini isbotlash kerak. $\{f_n : n \in \omega\} \subseteq F$ va $f \in C(\mathbb{R})$ akslantirishlar shunday tanlanganki, $f_n \xrightarrow{\mu} f$ shart o’rinli. μ psevdotekis ekanligidan $f_n \xrightarrow{u} f$ va $f \in F$. Isbot yakunlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. A.Ya. Narmanov, “Differensial Geometriya”. T.: Universitet, 2012.
2. A.D. Rojas-Sánchez, Á. Tamariz-Mascarúa, H. Villegas-Rodríguez “On the pseudouniform topology on $C(X)$ ”. Topology and its applications, 2021.
3. Энгелькин Р, Общая топология, Москва, Мир, 1986.
4. Ю.В. Садовничий, Р.Б. Бешимов, Т.Ф. Жураев, Топология. Ташкент, Университет, 2021, 200с

ASTROFIZIKADAGI MUHIM PARAMETRLARNI NAZARIY HISOBLASH METODLARINI TANLASH VA MISOLLAR YORDAMIDA ULARNI MIQDORLARNI NAZARIY HISOBLASH.

B.Sh.Usmonova,

BuxDU, Fizika mutaxassisligi 2- bosqich magistranti

b.sh.usmonova@buxdu.uz

. Q.S.Saidov, BuxDU Fizika kafedrasi dotsenti

Kalit so’zlar: Kosmik obyektlar, galaktika, harorat, effektiv harorat, qora tuynuk, kvazar, qora materiya, quyosh massasi, yorug’lik yili, yulduz radiusi,

yulduzning yorqinligi, yulduz massasi, yulduz radiusi, yulduzning harorati, yulduz spektri

Annotatsiya. Astrofizika - fanlararo fan bo'lib, u kosmik ob'ektlar va hodisalarni o'rganish uchun fizikaviy metodlar va usullaridan foydalanadi. Astrofizika yulduzlar, gallaktikalar, qora tuynuklar, kvazarlar, qorong'u materiya va qorong'u energiya kabi ko'plab mavzularni qamrab oladi. Ushbu ishda Astrofizikadagi muhim parametrlarni nazariy hisoblash metodlarini tanlash va misollar yordamida ularni miqdorlarni nazariy hisoblash bilan bog'liq tadqiqotning maqsadlari muayyan miqdorlarni hisoblashning nazariy usullarini o'rganish, shuningdek ishlab chiqilgan usullarni aniq astrofizik ob'ektlarga qo'llash va nazariy hisob-kitoblar natijalarini kuzatish ma'lumotlari bilan solishtirilgandir. Maqolada nazariy hisoblashning analitik va gidrodinamik metodlari to'g'risida malumot berilgan. Qolaversa yulduz atmosferasini haqida va yulduz massasini hisoblash uchun Mass-spektr usuli, Qizil siljish metodi shuningdek, Massa-yorqinlik usullaridan foydalanib natijalar olingan. Spektral sinfi A_1V , harorati 9940 K va yorqinligi $20 L_{\odot}$ bo'lgan Sirius (*α Canis Major*) yulduzi misolida namuna keltirilgan va natija hisoblangan. Qolaversa maqolada yulduzlarning effektiv harorati va radiusi Stefan – Boltsman qonuni asosida nazariy hisoblangan va misollar bilan yoritilgan.

Yulduzlar, osmon jismlari va boshqa obyektlar bilan Yer sayyorasi orasida millionlab yorug'lik yillari uzoqligida masofa bo'lganligi sababli ham, nazariy hisoblash astrofizikada muhim. Chunki bunday uzoq masofada joylashgan obyektlarni kuzatish, o'rganish, ma'lumot almashinish uchun bir inson umri yetmaydi. Yulduzlar, galaktikalar, qora tuynuklar va boshqa jismlarning parametrlarini xarakterlovchi kattaliklarni nazariy hisoblash orqali ushbu ob'ektlar va hodisalarning xatti-harakatlarini tushunish va ularni oldindan taxmin qilishimiz mumkin.

Tadqiqot usullari

Ushbu tadqiqotda yulduzlar, galaktikalar, qora tuynuklar va boshqa jismlarning parametrlarini xarakterlovchi kattaliklarni nazariy hisoblashda bir qancha metodlardan foydalanish mumkin. Masalan: analitik usul, raqamli usul va kompyuter modellashtirish usullari.

Yuqoridagilarni inobatga olib osmon jismlarining quyidagi miqdorlarni nazariy hisoblash mumkin bo'ladi

Astrofizik kattaliklarni nazariy hisoblashning analitik usullari

Astrofizikada turli miqdorlarni nazariy hisoblash uchun ko'plab analitik usullar mavjud. Eng keng tarqalgan usullardan ba'zilari:

Suyuqlik dinamikasi usuli: Kosmik jismlardagi gazlar va suyuqliklarning harakati va o'zaro ta'sirini hisoblash uchun ishlatiladi.

Radiatsion uzatish usuli: Kosmik ob'ektlarda radiatsiya ko'rinishidagi energiya almashinuvini hisoblash uchun ishlatiladi.

Yulduzlar evolyutsiyasi usuli: Yulduzlarning hayot davomidagi evolyutsiyasini hisoblash uchun ishlatiladi.

Galaktik evolyutsiya usuli: Galaktikalarning kosmik vaqt davomida evolyutsiyasini hisoblash uchun ishlatiladi.

Raqamli simulyatsiya usuli: Kosmik jismlardagi fizik jarayonlarni tavsiflovchi murakkab tenglamalarni yechishda foydalaniladi.

Misollar:


Yulduzning yorqinligini hisoblash : Yulduzning yorqinligini Stefan-Boltsman qonuni yordamida hisoblash mumkin, ya'ni yorug'lik yulduz sirt haroratining to'rtinchi darajasiga proporsionaldir.

- **Yulduz massasini hisoblash:** Yulduzning massasini dinamik parallaks usuli yordamida hisoblash mumkin, bu yulduz va uning hamrohi harakatini o'lchashga asoslangan.

- **Yulduzning haroratini hisoblash:** Yulduzning haroratini yulduzning emissiya spektrini o'rganishga asoslangan spektral tahlil usuli yordamida hisoblash mumkin.

Yulduz radiusini hisoblash: Yulduzning radiusini yulduzning burchak o'lchamini o'lchashga asoslangan interferometriya yordamida hisoblash mumkin.

Astrofizikaning nazariy hisoblarida gidrodinamika usuli



Gidrodinamika - ideal va yopishqoq suyuqliklar, shuningdek gazlar harakatini o'rganuvchi uzluksiz mexanikaning bo'limi. Astrofizikada gidrodinamik usullar quyidagilar uchun qo'llaniladi:

Yulduzlar atmosferasi, yulduzlararo muhit, galaktik disklar va boshqa astrofizik ob'ektlarning harakatini modellashtirish uchun;

Yulduzlarning, galaktikalarning hosil bo'lish jarayonlarini, shuningdek, o'ta yangi yulduz portlashlari, qora tuynuklar, akkretsiya diskleri kabi hodisalarni o'rganish uchun;

Harorat, bosim, zichlik, oqim tezligi, magnit maydon kabi turli fizik miqdorlarni hisoblash uchun;

Gidrodinamik usullar yopishqoq suyuqlikning harakatini tavsiflovchi Nave-Stoks tenglamalariga asoslanadi. Bu tenglamalar massa, energiya, impuls va magnit maydonning saqlanish tenglamalari bilan to'ldiriladi.

Yulduz atmosferalarini modellashtirish: Gidrodinamik modellar yulduz atmosferasidagi harorat, bosim, zichlik va oqim tezligini hisoblash imkonini beradi. Bu yulduzlar atmosferasida sodir bo'ladigan jarayonlarni, masalan, konveksiya va yulduz shamollarining shakllanishini tushunishga yordam beradi.

Yulduz atmosferasi tushunchasi keng qamrovli bo'lib uning quyida keltirilgan barcha ta'riflari o'rinlidir, chunki ular yulduzda sodir bo'layotgan jarayonlarning turli tomonlarini aks ettiradi.

Yulduz atmosferasi yulduzning yuqori qatlami sifatida

3. Erdelyi (ed.), *Higher Transcendental Functions*, vol. 3, McGraw-Hill, New York, 1955.
4. Mittag-Leffler, G. M.. Sur la nouvelle fonction $Ea(x)$, *C. R. Acad. Sci. Paris*, (Ser. II) 137, 554-558 (1903).
5. K. S. Miller and B. Ross. *An Introduction to the Fractional Calculus and Fractional Differential Equations*. John Wiley & Sons. New York Press, 1993.
6. U. Ghosh., S. Sengupta, S. Sarkar and S. Das. Analytic solution linear fractional differential equation with Jumarie derivative in term of Mittag-Leffler function. *American Journal of Mathematical Analysis* 3(2). 2015. 32-38, 2015.

ZAMONAVIY PYTHON DASTURLASH TILIDA MURAKKAB TENGLAMALARNI ISHLASH.

D.N. Qurbonova,
BuxDU, 2-bosqich talabasi
dilnoraqurbonova3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz differensial tenglamalarni echish uchun Python dasturlash tilidan qanday foydalanishni ko'rsatganmiz. Biz kodlarimizni aniq va sodda usulda tushuntirib o'tish uchun biz murakkab bo'lmagan differensial tenglamani misol sifatida oldik.

Kalit so'zlar: numpy, matplotlib, differensial tenglama, scipy, sistema.

Аннотация. В данной статье мы покажем, как использовать язык программирования Python для решения дифференциальных уравнений. Мы предложим четкие и всесторонние объяснения нашего кода, который будет иллюстрироваться на примере простых дифференциальных уравнений.

Ключевые слова: numpy, matplotlib, дифференциальное уравнение, scipy, система.

Abstract: In this paper, we demonstrate how to leverage the Python programming language for solving differential equations. We offer clear and comprehensive explanations of our code, which is exemplified using simple differential equations.

Keywords: numpy, matplotlib, differential equation, scipy, system

Hozirgi kunda juda ham murakkab bo'lgan differensial tenglamalar mavjud va bularning barchasini oddiy hisoblash orqali ishlab bo'lmaydi. Buni haqiqiy yechimini topish juda ham mushkul. Shuning uchun bizda Matlab, Python kabi dasturlash tillari mavjud. Bular orqali biz bu differensial tenglamalarni hisoblash usuli orqali ishlashimiz mumkin [4]. Shuning uchun biz Pythonning Scipy bazasidan foydalanib qanday qilib differensial tenglamalarni ishlashni ko'rsatib o'tdik. Ushbu maqolada biz birinchi Scipy bazasi haqida malumot berdik. Keyin differensial tenglamamiz ko'rinishi va bu differensial tenglamani qanday qilib Python tilida yozish va Scipydan foydalanishni tushuntirib o'tdik.

Masalaning berilishi. Ushbu bo'limda biz differensial tenglamalar python dasturiga qanday ko'rinishda berilishi kerakligini ko'rib chiqamiz. SciPyga ikki xil ko'rinishda differensial tenglamalarni berishimiz mumkin. SciPyda ikki xil funksiya mavjud differensial tenglamalarni ishlash uchun birinchisi odeint ikkinchi funksiya esa ode. Odatda odeint ishlashga oson lekin ode funksiyasi ko'proq funksiyalari mavjud. Ushbu maqolada biz odeint funksiyasidan foydalanamiz. Agarda siz ode funksiya haqida ko'proq malumot olish uchun ushbu adabiyotlarni tafsiya qilamiz [3, 5]. Birinchi navbatda biz odeint funksiyasini import qilib olishimiz kerak buning uchun quyida codeni kiritishimiz kifoya:

```
from scipy.integrate import odeint, ode
```

Ushbu kodimizda SciPy malumotlar bazasidan va integrallash usuli bilan differensial tenglamalarni ishlovchi odeint funksiyasini import qildik []. Har qanday differensial tenglamalarni birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasi ko'rinishda yozsa bo'ladi. Shuning uchun odeint funksiyasi ham differensial tenglamalar ko'rinishda qabul qiladi. Buning odatdagi ko'rinish quyidagicha:

$$y' = f(y, t)$$

Bu yerda $y = [y_1(t), y_2(t), \dots, y_n(t)]$ va f berilgan funksiya argumentlari $y_i(t)$ va t vaqtga bog'liq bo'ladi. Differensial tenglamalarni Python'da ishlash uchun biz f funksiya va boshlag'ich qiymatni berishimiz keral $y(0)$.

Garmonik Osilator tenglamasi. Har bir differensial tenglamalar fizik jarayonni ifodalaydi. Biz Garmonic Osilator yani fizikada ipga osilib turgan jismning harakatlanish yo'nalishini aniqlaydi [6]. Va bu differensial tenglama quyidagicha berilgan:

$$\frac{d^2x}{dt^2} + 2\zeta\omega \frac{dx}{dt} + \omega^2x = 0$$

By yerda ω – chastota, ζ – ipning tarangligi. Ko'rib turganimizdek bu ikkinchi tartibli differensial tenglama. Buni birinchi tartibli tenglama ko'rinishda yozishimiz mumkin yangi o'zgaruvchi kiritish orqali $p = \frac{dx}{dt}$:

$$\frac{dp}{dt} = -2\zeta\omega p - \omega^2x,$$

$$\frac{dx}{dt} = p$$

Endi biz bu tenglamalar sistemasini Python dasturlash tiliga kiritib uni ishlash jarayonini ko'rsatamiz. Shu bilan birga yechimini grafik ko'rinishda ifodalab beramiz.

Python dasturlash tilida ishlash. Bu tenglamamizda ortiqcha qiymatlar mavjud yani ω, ζ bu qiymatlarni global qilib kiritish o'rniga biz odeint funksiyasida mavjud bo'lgan args qo'shimcha argumentdan foydalanamiz va natijada bizning python funksiyamiz quyidagicha bo'ladi:

```
def dy(y, t, zeta, w):
    x, p = y[0], y[1]
    dx = p
    dp = -2 * zeta * w * p - w**2 * x
    return [dx, dp]
```

Ushbu kodda ko'rib turganimizdek birinchi argumentlarini kiritdik funksiyani so'ngra differensial tenglamalar sistemasini kiritdik. Va bu funksiya x, p ning xosilalarini qaytaradi.

```
# Boshlang'ich qiymat
y0 = [1.0, 0.0]
```

By yerda boshlang'ich qiymatni kiritamiz. x Bo'yicha boshlang'ich qiymat 1.0 va p ning boshlang'ich qiymati 0.0.


```
# Vaqt koordinatalari
t = np.linspace(0, 10, 1000)
w = 2*np.pi*1.0
```

Ushbu kodda biz vaqt oralig'ini bo'lib chiqib NumPy [1] funksiyalaridan foydalanib t va w ni vector ko'rinishda berdik

```
# Differensial tenglamani ishlash
y1 = odeint(dy, y0, t, args=(0.0, w0)) # undamped
y2 = odeint(dy, y0, t, args=(0.2, w0)) # under damped
```

```
y3 = odeint(dy, y0, t, args=(1.0, w0)) # critical damping
y4 = odeint(dy, y0, t, args=(5.0, w0)) # over damped
```

Bu yerda ko'rinib turib birinchi navbatda biz funksiyani so'ngra boshlang'ich qiymatni keyin vaqtni keyin qo'shimcha argumentlarni kiritdik. Endi biz bu yechimlarni pythoning Matplotlib [2] qo'shimcha funksiyasi orqali grafigini chizamiz: Va natijada ushbu grafikka ega bo'lamiz. Ko'rib turganimizdek ζ qiymatining o'zgarishi bilan yechim ham o'zgarib ketmoqda. Har bir qiymatida har xil fizik jarayonni ifodalaydi.



Xulosa. Ushbu maqolada biz differensial tenglamalarni qanday qilib hisoblash usuli bilan ishlashni ko'rsatdik. Bu tenglamalarni grafik usulda qanday ishlarni va yechimlarni qanday ko'rinishda bo'lishini o'rganib oldik. Python dasturlash tili yordamida boshqa murakkab ko'rinishda bo'lgan differensial tenglamalarni ishlashimiz mumkin ekan. Bu orqali biz fizik jarayonlarni grafik usulda tushunishimizga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://docs.scipy.org/doc/scipy/reference/generated/scipy.integrate.odeint.html>
2. <https://www.geeksforgeeks.org/solve-differential-equations-with-odeint-function-of-scipy-module-in-python/>
3. <https://docs.scipy.org/doc/scipy/reference/generated/scipy.integrate.ode.html>
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Harmonic_oscillator

MASHINANI O'RGANISH YORDAMIDA TEST SINOVI NATIJALARINI TAHLIL QILISH.

Sh.Sh.Abdunasimov,
BuxDU, kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti
2- bosqich magistranti
sh.sh.abdunasimov@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola testlarni tahlil qilishda mashinani o'rganish usullaridan foydalanishning umumiy ko'rinishini taqdim etadi, uning sinov

jarayonlarini takomillashtirish va natijalarning aniqligini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Sinov tahlili turli sohalarda, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash va texnologiyada hal qiluvchi rol o'ynaydi, bunda samaradorlikni baholash va test ma'lumotlaridan mazmunli tushunchalar olish muhim ahamiyatga ega.

Abstract: This article provides an overview of the use of machine learning techniques in test analysis, highlighting its importance in improving test processes and increasing the accuracy of results. Test analytics plays a critical role in a variety of industries, including education, healthcare, and technology, where performance evaluation and deriving meaningful insights from test data are critical.

Аннотация: В этой статье представлен обзор использования методов машинного обучения в анализе тестов, подчеркнута их важность для улучшения процессов тестирования и повышения точности результатов. Аналитика тестирования играет решающую роль во многих отраслях, включая образование, здравоохранение и технологии, где критически важны оценка производительности и извлечение значимой информации из данных испытаний.

Kalit so'zlar: mashinani o'rganish, metamorfik, matematik modellar, algoritmlar.


Keywords: machine learning, metamorphic, mathematical models, algorithms.

Ключевые слова: машинное обучение, метаморфизм, математические модели, алгоритмы.

Mashinani o'rganish turli sohalarga innovatsion yechimlarni taklif qiluvchi ma'lumotlarni tahlil qilishning ajralmas qismiga aylandi. Sinovlarni tahlil qilish sohasida test jarayonlarini yaxshilash va natijalarning aniqligini oshirish uchun mashinani o'rganish usullari tobora ko'proq foydalanilmoqda. Tadqiqotchilar ishlab chiqarish testini optimallashtirishdan tortib, dasturiy ta'minotni sinovdan o'tkazish va tekshirishgacha bo'lgan testlarni tahlil qilishning turli jihatlarida mashinani o'rganishni qo'llashni o'rganishdi. Mashinani o'rganish usullarini tahlil qilishda, test jarayonlarini yaxshilash muhimdir. Bu, testlarni amalga oshirish va natijalarni mustaqil va aniqroq oshirish orqali mashinani o'rganishni yaxshilashga yordam beradi. Mashinani o'rganish qo'llaniladigan muhim sohalardan biri elektron mahsulotlar uchun sinov maydonchalarini tashkil etishdir (Siddiqui va boshq., 2023). Mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalangan holda, tadqiqotchilar RF qabul qiluvchilar uchun ishlab chiqarish testlari rentabelligini oshirish uchun yangi tizimlarni ishlab chiqdilar, bu sinov jarayonlarini optimallashtirish va umumiy samaradorlikni oshirishda mashinani o'rganish imkoniyatlarini namoyish etdi. Sinovlar va testlar o'rganish jarayonida natijalarni aniqlash va tahlil qilish, mashinani o'rganishning keyingi bosqichlarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu, ma'lumotlar analizi, ma'lumotlar cheklovini o'rganish, ma'lumotlar tarqalishi va boshqa analitik metodlarga ko'ra muhimdir. Bundan tashqari, dasturiy ta'minotni sinovdan o'tkazishda mashinani o'rganishdan foydalanish qiziqish mavzusi bo'lib, tadqiqotlar standart dasturiy ta'minotni sinovdan o'tkazish usullaridan foydalangan holda mashinani o'rganish dasturlarini sinab ko'rishga qaratilgan (Herbold & Haar,


2022). Bu an'anaviy test usullarini mashinani o'rganish ilovalarining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish, ushbu tizimlarning ishonchligi va mustahkamligini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi. Dasturiy ta'minotni sinovdan o'tkazish va tekshirish mashinani o'rganishning muhim qismidir. Bu, dasturlarning qismlarini tahlil qilish, ularga test ma'lumotlarini kiritish va natijalarni tekshirish orqali dasturni yangilashni ta'minlaydi. Mashinani o'rganish testlari kontekstida tadqiqotchilar mashinani o'rganish modellarini sinab ko'rish bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlarni o'rganishdi (Chjan va boshq., 2022). So'rovlar o'tkazish va mashinani o'rganish bo'yicha test tadqiqotlari landshaftini o'rganish orqali olimlar ML testing hozirgi holati haqida qimmatli fikrlarni taqdim etdilar va ushbu sohani rivojlantirish uchun kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlarini aniqladilar. Sinovlarni yaxshilashda va natijalarni aniqlashda optimallashtirilgan testlar muhimdir. Bu, jarayonlarni tizimlamoq, test va sinovlarni avtomatlashtirish, natijalar olish uchun avtomatik dastur yozish va boshqa jarayonlarda qisqarishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, metamorfik test konsepsiyasi nazorat ostidagi tasniflagichlarga nisbatan qo'llanilgan, bu uning turli turdagi mashinalarni o'rganish dasturlarini sinab ko'rishda samaradorligini ko'rsatgan (Xie va boshq., 2009). Ushbu yondashuv mashinani o'rganish modellarining to'g'riligini tekshirish va ularning turli sharoitlarda ishlashini ta'minlashning tizimli usulini taklif etadi.

Test sinovlarida tasniflash algoritmlarini qo'llash. Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida tasniflash algoritmlari yordamida ma'lumotlarni birlashtirish va ushlab turish muhimdir. Bu jarayonda ma'lumotlar ko'p yuritiladigan modelga moslashtirilishi va ma'lumotlardan ustunlik olish uchun muhimdir. Quyidagi bosqichlar ma'lumotlarni tahlil qilishda tasniflash algoritmlarini yordamida birlashtirish va ushlab turishni o'z ichiga oladi: Tasniflash algoritmlari mashinani o'rganish, ma'lumotlarni tahlil qilish va aniqlash kabi turli sohalarda muhim ahamiyatga ega. K-means algoritmi: Bu algoritm ma'lumotlarni o'zgaruvchanlar bo'yicha guruhga ajratadi. Ushbu algoritm ma'lumotlarni birlashtirish va ushlab turishda ko'p ishlatiladi.




Bayes algoritmi: ma'lumotlarni moslashtirish va klassifikatsiya qilishda foydalaniladi. Ushbu algoritm ma'lumotlar ustida moslashtirilgan modelni yaratishda yordam beradi.

Bayes algoritmi



SVM algoritmi: ham ma'lumotlarni klassifikatsiya qilishda ishlatiladi. Ushbu algoritm ma'lumotlarni birlashtirish va ushlab turishda samarali bo'lishi bilan mashhur.

SVM algoritmi



Ushbu algoritmlar ma'lumotlarni o'ziga xos xususiyatlar yoki atributlar asosida turli sinflarga ajratish uchun ishlatiladi. Tasniflash algoritmlari yordamida yaratilgan modellar ma'lumotlarni klassifikatsiya qilishda yordam beradi. Bu modellar ma'lumotlarni birlashtirish va ushlab turishda ham foydalaniladi

Xulosa: Mashinani o'rganish jarayonida turli jihatlarni o'rganish, masalan, matematik modellar, ma'lumotlar analizi, texnologik bosqichlarda o'rganish va boshqa usullar kabi turli xususiyatlarni qo'llash muhimdir. Umuman olganda, mashinani o'rganishni test tahliliga integratsiyalashuvi sinov jarayonlarini takomillashtirish, natijalarning aniqligini oshirish va ma'lumotlarni tahlil qilish sohasini rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Mashinani o'rganish algoritmlari va usullaridan foydalangan holda, tadqiqotchilar murakkab sinov muammolarini hal qilishlari, test protseduralarini optimallashtirishlari va turli xil ilovalarda mashinani o'rganish tizimlarining ishonchligini ta'minlashlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Herbold, S. and Haar, T. (2022). Smoke testing for machine learning: simple tests to discover severe bugs. *Empirical Software Engineering*, 27(2). <https://doi.org/10.1007/s10664-021-10073-7>
2. Siddiqui, A., Otero, P., & Zubair, M. (2023). A novel system to increase yield of manufacturing test of an rf transceiver through application of machine learning. *Sensors*, 23(2), 705. <https://doi.org/10.3390/s23020705>

3. Karimov, A. V., Djuraev, D. R., Abdulhaev, O. A., Rahmatov, A. Z., Yodgorova, D. M., & Turaev, A. A. (2016). Tenso properties of field-effect transistors in channel cutoff mode. *International Journal of Engineering Inventions e-ISSN*, 2278-7461.
4. Karimov, A. V., Dzhuraev, D. R., Edgorova, D. M., Rahmatov, A. Z., Abdulhaev, O. A., Kamanov, B. M., & Turaev, A. A. (2011). Nekotorye osobennosti ogranichitelya toka na polevom tranzistore. *Tehnologiya i konstruirovaniye v elektronnoj apparature*, 90(11).
5. Xie, X., Ho, J., Murphy, C., Kaiser, G., Xu, B., & Chen, T. (2009). Application of metamorphic testing to supervised classifiers.. <https://doi.org/10.1109/qsic.2009.26>
6. Zhang, J., Harman, M., Ma, J., & Liu, Y. (2022). Machine learning testing: survey, landscapes and horizons. *Ieee Transactions on Software Engineering*, 48(1), 1-36. <https://doi.org/10.1109/tse.2019.2962027>

QALAMPIR YALPIZ (MENTHA PIPERITA.L) O'SIMLIGINING ASOSIY KOMPONENTI SIFATIDA MENTOLNING SIFAT TAHLILI.

H.T.Avezov,
BuxDU, Organik va fizkolloid kimyo kafedراسي dotsenti

G.Z.Homitova,
BuxDU 1- kurs magistranti
g.z.homitova@buxdu.uz

Annotatsiya. Bugungi kunda zamonaviy kimyoning dolzarb vazifalaridan biri mahalliy floraning keng tarqalgan o'simliklari bo'lgan dorivor o'simlik xom ashyolaridan efir moylarini, shuningdek asosiy komponentlarini olish usullarini kengaytirish bo'lib kelmoqda. Kimyoviy preparatlar sintezi va ularni qo'llash sohalarida sezilarni yutuqlarga erishilgan bo'lsada o'simliklardan olingan tabiiy dori vositalari va preparatlarga bo'lgan ehtiyoj ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Ushbu maqolada efir moyiga boy bo'lgan mahalliy o'simliklardan biri sanalgan qalampir yalpiz (*Mentha piperita.L*) o'simlik xom ashyosida ajratib olingan efir moyi tarkibidagi asosiy komponentlardan biri sanalagan mentolning aniqlanish usullari haqida yoritib berilgan.

Абстрактный. Сегодня одной из актуальных задач современной химии является расширение способов извлечения эфирных масел и их основных компонентов из лекарственного растительного сырья, представляющего собой широко распространенные растения местной флоры. Хотя в области синтеза химических препаратов и их применения достигнуты значительные успехи, потребность в натуральных лекарственных средствах и препаратах, полученных из растений, не потеряла своей важности. В статье описаны методы определения ментола, который является одним из основных компонентов эфирного масла, добываемого из сырья мяты перечной (*Mentha piperita.L*), одного из местных растений, богатых эфирным маслом.

Abstract. Today, one of the urgent tasks of modern chemistry is expanding the methods of extracting essential oils and their main components from medicinal plant raw materials, which are widespread plants of the local flora. Although significant progress has been made in the field of synthesis of chemical preparations and their application, the need for natural medicines and preparations obtained from plants has not lost its importance. This article describes the methods of determining menthol, which is one of the main components of the essential oil extracted from the raw material of peppermint (*Mentha piperita*.L), which is one of the local plants rich in essential oil.


Kalit so'zlar. Mentol, prizmatik, spirt, efir moyi, ftal anhidrid.

Ключевые слова. Ментол, призматический спирт, эфирное масло, фталевый ангидрид.

Key words. Menthol, prismatic, alcohol, essential oil, phthalic anhydride.

KIRISH

Mentha piperita.L- dorivor ahamiyatga ega o'simlik Lamiaceae oilasiga tegishli (Afrika farmakopeyasi, 1985; Hindiston boyligi, 1962) va *Mentha spicata*. L (yalpiz) keng tarqalgan yalpiz -sifatida tanilgan. Yalpiz 0,1-1% uchuvchi moy beradi (Leung, 1980), uning tarkibi asosan mentol (29-48%), menton (20-31%), mentofuran (6,8%) va mentil asetat (3-10%) dan iborat [3,5,6].



Mentol

Mentol- kristallari rangsiz, kukun holida bo'ladi, prizmatik yoki ignasimon yaltiroq kristallar hosil qiladi, suv bug'i bilan distillab olingan mentol oddiy haroratda uchuvchan bo'lib kuchli hid va sovuq tamga ega.

Suvda oz eriydi, ammo organik erituvchilar hisoblangan glitserin, spirt, dietil efir, sirka kislotasida oson eriydi. Fenol, rezorsin, timol bilan evtetik aralashmalar hosil qiladi [3,5,6].


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qalampir yalpiz o'simligi xom ashyosidan ajratib olingan efir moyi tarkibida eng ko'p o'rinni egallagan mentolni identifikatsiya qilish uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi.

1. Fizik konstantalar orqali aniqlash.


Efir moyi eritmasining o'ziga xos nurni burish ko'rsatkichlari qiymatini o'lchash orqali aniqlanadi. Bu jarayonda yalpiz barglari ekstraktining 10% spirtli eritmasi optik aylanish burchagi $-0,20$ $+0,20$ atrofida bo'lishi kerak [4,7].

2. Furfurol bilan kondensatsiyasi. Reaksiya oksidlanishga asoslangan va mentolning faol metilen guruhining aromatik aldegidlar bilan o'zaro ta'siriga asoslangan:



Bajarish texnikasi. 0,1 g gacha maydalangan yalpiz barglari ustiga 20 ml etanol quyiladi. Yalpiz barglaridan olingan ekstraktning 3 ml 10% spirtli eritmasiga furfurolning spirtli eritmasidan 2-3 ml qo'shiladi va reaksiyon muhitga 4-5 tomchi konsentrlangan sulfat kislotaga qo'shiladi. Ehtiyotkorlik bilan isitiladi, binafsha rangli eritma hosil bo'ladi [4,7].

3. Benzoilxlorid bilan reaksiyasi orqali aniqlash. Identifikatsiya qilish usuli tekshirilayotgan moddaning kondensatsiya mahsulotining benzoilxlorid bilan erish haroratiga asoslanadi:




Bajarish texnikasi. 0,1 g gacha maydalangan yalpiz barglari ustiga 20 ml etanol quyiladi. Yalpiz barglaridan olingan ekstraktning 10% spirtli eritmasidan 3 ml gacha va 1,0 ml suvsiz piridin qo'shiladi va 0,5 ml benzoilxlorid qo'shiladi va suv hammomida 10 daqiqa davomida isitiladi va keyin sovutiladi. 7,0 ml suv qo'shilgandan keyin oq cho'kma tushadi. [4,7]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Biz qalampir yalpiz (*Mentha piperita*.L) tarkibining asosiy monokomponenti sifatida mentolni aniqlash maqsadida laboratoriya sharoitida ftal anhidrid bilan kondensatsiya jarayonidan foydalandik. Bu jarayon konsentrlangan sulfat kislotaga ishtirokida ftal anhidrid bilan mentolning rangli kondensatsiya mahsulotlari hosil bo'lishiga asoslangan bo'lib, quyidagi ketma ketlikda amalga oshirdik.

O'simlik xom ashyosi namunalari 2023-yilning oktabr oyida yig'ib olindi. So'ngra barglar, gullar poyadan ehtiyotkorlik bilan ajratilib, tozalanib xona haroratida bir hafta davomida quritildi. Namunalar gullari va barglarini alohida holda yaxshilab tuyib, tolqon holiga keltirildi. 0.1 gr maydalangan yalpiz barglaridan efir moylari suv bug'i bilan distillash orqali ajratib olinib, ustiga 20 ml etanol quyiladi. Yalpiz barglaridan olingan ekstraktning 3 ml 10% spirtli eritmasiga 4 bo'lakcha ftal anhidrid va 3 tomchi konsentrlangan sulfat kislotaga tomizildi. Aralashma sekin qizdirilganda to'q sariq-qizil rangli eritma hosil bo'ldi.



XULOSA. Qalampir yalpiz (*Mentha piperita*.L) o'simligining yer ustki qismidan xomashyo namunalari tayyorlandi va uning tarkibidan bug' distillash orqali efir moylari ajratib olindi. Ajratib olingan qalampir yalpiz o'simligining efir moyi tarkibida asosiy monokomponent sifatida ma'lum bo'lgan mentolni sifat jihatidan aniqlash uchun ftal anhidrid va sulfat kislotalardan foydalanildi. Laboratoriya ishi davomida mentol ftal anhidrid va sulfat kislota ishtirokida sariq-qizil rangli eritma hosil qilishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Справочник химика.–М.– Л.: Химия. 1964.– Т. 3.– 618с.
2. Муравьев И.А., Пщюков Ю.Г., Бережная Л.А. интенсификация экстрагирования при определении экстрактивных веществ растительного сырья. // Фармация. – 1976.– № 4. С. 16–20.
3. Аvezov X.T. Коллоидно–химические аспекты экстракции эфирных масел из дисперсии растительного сырья в присутствии ПАВ.// Дисс. на соискании ученой степени канд. хим. наук. Ташкент – 1997
4. Харчилина А.В Бакалаврская работа на тему «МИКРОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛИСТЬЕВ НЕ МЕНТОЛЬНЫХ ФОРМ МЯТЫ (*MENTHA PIPERITA*. L) В СРАВНЕНИИ С МЕНТОЛЬНЫМИ»
5. Avezov H. T., Homitova G. Z. Efir moylarining tavsifi, ularning ananaviy olinish usullari //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 800-814
6. Avezov H., Homitova G. Efir moylarining tavsifi, ularning ananaviy olinish usullari //Theoretical and experimental chemistry and modern problems of chemical technology. – 2023. – Т. 1. – №. 01.
7. Homitova.G. (2023). Qalampir yalpiz (*Mentha piperita*.L) asosiy komponenti sifatida mentolni aniqlash usullari. Interpretation and Researches,1(19). <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1566>
8. Аvezov X.T. Коллоидно–химические аспекты экстракции эфирных масел из дисперсии растительного сырья в присутствии ПАВ.// Дисс. на соискании ученой степени канд. хим. наук. Ташкент – 19975
9. Аvezov X. T., Аvezova M. X., Жалилов Ш. Н. АНАЛИЗ ЭФИРНЫХ МАСЕЛ, ЭКСТРАГИРОВАННЫХ ВОДОЙ И РАСТВОРАМИ ПАВ И ГИДРОГЕНИЗИРОВАННЫХ МАСЕЛ МЕТОДОМ ГАЗОЖИДКОСТНОЙ ХРОМАТОГРАФИИ //Sciences of Europe. – 2021. – №. 65-1. – С. 10-13.

STEFFENSEN TENGSIZLIGI VA UNING BA'ZI TATBIQLARI.

Sh.H.Turapova,
Termiz davlat universiteti talabasi.

Ushbu ishda Steffensen tengsizligi va uning isbotini keltiramiz, shuningdek Open Mathematical for University Students (OMOUS-2021) olimpiadasining individual turiga taklif qilingan ba'zi misollardagi tadbiqi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Steffensen tengsizligi, Steffensen tengsizligining isboti.

Qisqacha tarixi. Ushbu

$$\int_{b-\lambda}^b f(t)dt \leq \int_a^b f(t)g(t)dt \leq \int_a^{a+\lambda} f(t)dt \quad (1.1)$$

ko'rinishdagi tengsizlik 1918-yilda birinchi marotaba J. F. Steffensen tomonidan isbotlangan[1] Bu yerda $\lambda = \int_a^b g(t)dt$. Qiziq jihati shundaki, tengsizliklar uchun muhim hisoblangan G. H. Hardy, J. Littlewood va G. Po'lyalarning "Inequalities" nomli monografiyalarida ham bu tengsizlik haqida fikr yuritilmagan [2].

Teorema. [3. 49-bet] Aytaylik, f va g funksiyalar (a, b) da aniqlangan integrallanuvchi bo'lsin, f funksiya (a,b) segmentda kamayuvchi, g esa $0 \leq g(t) \leq 1$ bo'lsa, u holda (1.1) tengsizlik o'rinli.

Isbot. [3. 221-bet] Dastlab (1.1) dagi ikkinchi tengsizlikni isbotlaymiz:

$$\begin{aligned} \int_a^{a+\lambda} f(t)dt - \int_a^b f(t)g(t)dt &= \int_a^{a+\lambda} [1-g(t)]f(t)dt - \int_{a+\lambda}^b f(t)g(t)dt \geq \\ &\geq f(a+\lambda) \int_a^{a+\lambda} [1-g(t)]dt - \int_{a+\lambda}^b f(t)g(t)dt = \\ &= f(a+\lambda) \left[\lambda - \int_a^{a+\lambda} g(t)dt \right] - \int_{a+\lambda}^b f(t)g(t)dt = \\ &= f(a+\lambda) \int_{a+\lambda}^b g(t)dt - \int_{a+\lambda}^b f(t)g(t)dt = \\ &= \int_{a+\lambda}^b g(t)[f(a+\lambda) - f(t)]dt \geq 0. \end{aligned}$$

(1.1) dagi birinchi tengsizlik ham yuqoridagi kabi isbotlanadi, Buning uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$G(t) = 1 - g(t), \quad A = \int_a^b g(t)dt$$

bu yerda $0 \leq g(t) \leq 1$, $0 \leq G(t) \leq 1$ va $b - a = \lambda - A$. Demak, (1.1) tengsizlikdan

$$\begin{aligned} \int_a^b f(t)G(t)dt &\leq \int_a^{a+A} f(t)dt, \\ \int_a^b f(t)[1-g(t)]dt &\leq \int_a^{b-\lambda} f(t)dt, \end{aligned}$$

$$\int_a^b f(t)dt - \int_a^{b-\lambda} f(t)dt \leq \int_a^b f(t)g(t)dt,$$

$$\int_{b-\lambda}^b f(t)dt \leq \int_a^b f(t)g(t)dt$$

ko'rinishga kelamiz. Teorema isbotlandi.

Masala. (qarang [4]). $f[0, \infty]$ da musbat, kamayuvchi funksiya va $g[0, \infty]$ da $0 \leq g(x) \leq 2021$ hamda $\int_0^{\infty} g(x)dx = 2021$ shartlarni qanoatlantiruvchi funksiyalar berilgan bo'lsin. U holda quyidagi tengsizlikni isbotlang.

$$\int_0^{\infty} f(x)g(x)dx \leq 2021 \int_0^1 f(x)dx$$

Yechish. Berilgan masala Steffensen tengsizligining ma'lum bir ko'rinishidir. Steffensen tengsizligining tadbiqui: $f[0, \infty)$ da musbat, kamayuvchi funksiya va $g[0, \infty)$ da $0 \leq g(x) \leq A$, $\int_0^{\infty} g(x)dx < \infty$ shartlarni qanoatlantiruvchi funksiyalar berilgan bo'lsin. U holda

$$\int_0^{\infty} f(x)g(x)dx \leq A \int_0^{\lambda} f(x)dx$$

tengsizlik o'rinli bu yerda $\lambda = \frac{1}{A} \int_0^{\infty} g(x)dx$.

Isbot:

$$\int_0^{\infty} f(x)g(x)dx - A \int_0^{\lambda} f(x)dx =$$

$$= - \int_0^{\infty} (A - g(x))(f(x) - f(\lambda))dx - \int_{\lambda}^{\infty} g(x)(f(\lambda) - f(x))dx \leq 0.$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. J. O. Steffensen. On certain inequalities between mean values and their application to actuarial problems. Skand. Aktuarietids. 1918, 82-97.
2. G. H. Hardy, J. E. Littlewood, and G. Po'lya. "Inequalities". Cambridge. 1967.
3. W. J. Kaczor, M. T. Nowak. Problems in Mathematical Analysis III Integration. 2000.
4. <https://iuhd.edu.tm/competition/45>.


FORMILPINAKOLIN *para*-METILBENZOILGIDRAZONINING SINTEZI.

B.B.Umarov,
BuxDU, professori


M.M.Amonov,
BuxDU, kimyo mutaxassisligi 1- bosqich magistranti.
m.m.amonov1@buxdu.uz

Bugungi kunda sintetik koordinatsion birikmalar kimyosining jadal rivojlanishiga polidentatli va ko'pfunksional organik ligandlar hamda ularning kompleks birikmalari katta hissasini qo'shmoqda. Ketoal'degidlar va ketoefirlar asosida olinadigan organik ligandlar shular jumlasidandir.


Olib borilgan izlanishlar natijasida β -ketoal'degidlarning atsildigidrazidlar bilan kondensatlanishidan tri- va geksadentatli organik ligandlar olishga muvaffaq bo'lingan. Bunday ligandlar eritmalarda gidrazon, engidrazin va 5-gidroksipirazolin tautomer aralashmalar shaklida uchrashi aniqlangan. Bu ligandlarning oraliq metallar ionlari bilan hosil qilingan biyadroli kompleks birikmalari sintez qilingan va ular tuzilishi spektroskopik va RSA usullarida o'rganilgan.




I



II



III



IV

Formilpinakolin *para*-metilbenzoilgidrazonining sintezi. 2,56 g (0,02 mol) yangi haydalgan 4,4-dimetil-3-oksopentalning 50 ml etanoldagi issiq eritmasiga tomchilatib turgan holda 3,0 g (0,02 mol) *para*-metilbenzoy kislotasi gidrazidining 80 ml etanoldagi issiq eritmasi aralashtirib turib qo'shildi. Reaksiya aralashma xona haroratida 2 sutkaga qoldirilgandan so'ng hosil bo'lgan kristallar filtrlandi, uning etanol va benzol bilan qayta-qayta yuvildi. Spirtida qayta kristallangandan keyin 4,16 g (78%) unum bilan 4,4-dimetil-3-oksopental *para*-metilbenzoilgidrazoni (H₂L) oq rangli polikristallari olindi – T_{suyuq}=131,5 °C .

Shunga o'xshash formilpinakolin aroilgidrazonlari olindi. Ularning reaksiya unumi, suyuqlanish haroratlari va element analiz natijalari jadvalda berilgan.

Formilpinakolin para-metilbenzoilgidrazonining_(H₂L) reaksiya unumi, suyuqlanish harorati va element tahlil natijalari

Birikmalar	Unum, %	T. _{suyuq.} , °C	Brutto-formula	Topilgan/hisoblangan, %		
				C	H	N
H ₂ L	78	131,5	C ₁₅ H ₂₀ N ₂ O ₂	69,16/69,20	7,69/7,74	10,80/10,76

Sintez qilingan formilpinakolin para-metilbenzoilgidrazonining tarkibi va tuzilishi element tahlil va zamonaviy fizik kimyoviy usullari yordamida o'rganildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

2. Турсунов М. А., Умаров Б. Б. Синтез и кристаллическая структура комплекса никеля (II) на основе бензоилгидразона метилового эфира 4-фенил-2, 4-диоксобутановой кислоты //Universum: химия и биология. – 2018. – №. 12 (54). – С. 50-52.
3. Турсунов М. А., Аvezов К. Г., Умаров Б. Б. Комплексы никеля (II) и цинка (II) с производными бензоилуксусного альдегида //Координационная химия. – 2019. – Т. 45. – №. 7. – С. 399-403.
4. Турсунов М. А., Умаров Б. Б., Амонов М. М. Синтез и исследование пара-замещенных бензоилгидразонов этилового эфира 2, 4-диоксопентановой кислоты. – 2020.
5. Умаров Б.Б., Турсунов М.А., Минин В.В. Комплексы с производными кетоальдегидов и кетоэфиров.– Ташкент.– Нишон-ношир.– 2016.– 350 с.

EGRI CHIZIQ KO'RINISHIDA YOTUVCHI TAJRIBA NATIJALARI UCHUN REGRESSIYA TENGLAMASINI ANIQLASH.


N.Sh.Muhsinova,
BuxDU, Amaliy matematika mutaxassisligi 2- bosqich magistranti
n.sh.muhsinova@buxdu.uz
M.U.Shamsiddinova,
BuxDU, Amaliy matematika mutaxassisligi talabasi

Ushbu tadqiqotda egri chiziqni natural logarifim funktsiya ko'rinishda izlandi [1-5]:


$$B = a \ln(H) + b. \quad (1)$$

(1) ifodaning koeffitsiyentlarini aniqlashda eng kichik kvadratlar usulidan foydalanamiz. Buning uchun tajribada olingan [1] da keltirilgan qiymatlaridan foydalanamiz.

Tajriba qiymatlariga yaqin bo'lgan regressiya bog'liqligini aniqlash uchun 1-jadvaldagi qiymatlarni koordinatalar tekisligida joylashtirsak, 1-rasmdagi ko'rinishga ega bo'lamiz.



1-rasm. Tajriba qiymatlarini koordinata tekisligiga joylashtirish



2-rasm. (B,z) koordinatalar sistemasida joylashtirish

Tajriba natijalarining koordinata tekisligida joylashshidan topiladigan regressiya tenglamasi ko'rinishi

$$\hat{B} = a \ln(H) + b \quad (3)$$

kabi bo'lishi ko'rinyapti. Shuni e'tiborga olib, regressiya tenglamasini (4) ko'rinishida olib, eng kichik kvadratlar usulidan foydalanib a, b qiymatlarini topamiz [8-10].

(3) tenglamaga eng kichik kvadratlar usulini qo'llashdan oldin uni chiziqli ko'rinishga keltirib olish kerak. Buning uchun $z = \ln(H)$ almashtirish bajarsak, (3) quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\hat{B} = az + b \quad (4)$$

$z = \ln(H)$ almashtirish bajarilgandan so'ng (B, z) koordinatalar sistemasida 1-rasm quyidagi ko'rinishni oladi:


(4) ga eng kichik kvadratlar usulini qo'llaymiz [] va quyidagi tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz:

$$\begin{cases} 13101.52 \cdot a + 1503.106 \cdot b = 2280.45 \\ 1503.106 \cdot a + 190 \cdot b = 255.55 \end{cases} \quad (9)$$


Ushbu tenglamalar sistemasini yechish natijasida biz a, b no'malumlar uchun $a = 0,21391$; $b = -34729$ qiymatlarga ega bo'lamiz. Bu holda regressiya tenglamasi uchun

$$\hat{B} = 0.21391 \cdot z - 0.34729 \quad (10)$$

ko'rinishni olamiz. Ushbu regressiya tenglamasi z o'zgaruvchisiga nisbatan yozilgan, ushbu regressiya chizig'ini 2-rasmdagi (B, z) koordinatalar sistemasiga joylashtirsak, quyidagiga ega bo'lamiz:



3-rasm. To'g'ri chiziq modeli.



4-rasm. (B, z) koordinatalarda regressiya modeli.

Endi z o'rniga $z = \ln(x)$ ifodani qo'ysak, (2) regressiya tenglamasini olamiz, (4) ga a, b ning aniqlangan qiymatlarini qo'yganda

$$\hat{B} = 0.21391 \cdot \ln(H) - 0.34729 \quad (11)$$

ko'rinishdagi regressiya tenglamasiga ega bo'lamiz. Ushbu bo'glanish orqali olingan nazariy qiymatlarni tajriba qiymatlari bilan solishtirgan holda bir grafikka joylashtirsak, quyidagiga ega bo'lamiz:

4-rasmdan ko'rinadiki, nazariy qiymatlar tajriba qiymatlariga ancha yaqin.

Xulosa. Egri chiziq atrofida yotuvchi tajriba natijalari asosida regressiya tenglamasini eng kichik kvadratlar usuli yordamida logarifmik funksiya ko'rinishida tanlashning algoritmi keltirildi. Tanlangan model determinatsiya koeffitsienti yordamida baholandi va ishonchliligi Fisher mezonini asosida aniqlandi. Olingan baholar tanlangan modelning ishonchli ekanini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Матюк В. Ф., Осипов А.А. Математические модели кривой намагничивания и петель магнитного гистерезиса // Неразрушающий контроль и диагностика. – 2011. – №. 2. – С. 3 – 20.
2. Kholikov A.A., Jumayev J., Hikmatov D.N., Kuvvatov Kh. Optimization of onion drying process parameters using the full factorial experiment method// IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (EES). 2021. *doi:10.1088/1755-1315/848/1/012010*
3. Жумаев Ж., Опокина Н.А. Решение математических задач в пакетах математических программ Maxima и MathCAD. Электронный учебник. Казань: КФУ, 2021. – 228 с. <https://dSPACE.kpfu.ru/xmlui/handle/net/163784>
4. Холиков А.А., Жумаев Ж. Математическое моделирование сушки лука с использованием метода полного эксперимента// O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. № 2(8/2) 2023. Maxsus son. 80-85 betlar. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9802

5. Жумаев Ж. Решение математических задач в пакетах математических программ. Учебное пособие//”Дурдона”. Бухара, 2020. 240 с.
6. Жумаев Ж., Мухсинова Н.Ш. Исследования влияния основных факторов на производство продукта с использованием двухфакторного эксперимента// Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2023. 10(115). <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/16078>
7. N.Z. Sharipov, F.S. Kuldosheva, J. Jumaev. Research of the effect of factors on the process of Separation of Shadov Seeds from the Peel// Genius Journal Publishing Group, Brussels, Belgium.Vol. 7. April, 2022. Pp. 86-91.<https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1106>
8. Sharipov N.Z., Gafurov K.X., Jumayev J. Mahalliy soya urug’ini po’stlog’idan ajratish jarayonini tadqiq qilish// Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий-техникавий журнал. № 4, 2022. 47-52 betlar. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8538
Fozilov H.S., Turobjonov S.M., Jumayev J., Mavlonov B.A., G’aybullayev S.A. Mahalliy xom ashyolardan sintez qil ingan prisadkalarni dizel yoqilg’isining moylovchanlik xususiyatlariga ta’sirini matematik modellashtirish//“Фан ва технологиялар тараққиёти”, 2023, № 6, 113-119 betlar.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Y4CVrd0AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=Y4CVrd0AAAAJ:k_IJM867U9cC
9. Gafurov K., Jumayev J. Statistical and Mathematical Model of the Process of Extracting Pumpkin Seeds by CO₂-Extraction// AIP Conf. Proc. 3004, 060008 (2024) <https://doi.org/10.1063/5.0199923>
10. Жумаев Ж., Мухсинова Н.Ш. Исследования влияния основных факторов на производство продукта с использованием двухфакторного эксперимента// Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2023. 10(115). <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/16078>
11. Жумаев Ж., Авезов А.А. Естественная конвекция между двумя вертикально расположенными стержнями// BuxDU ilmiy axboroti, 2023, № 10, 54-59 betlar. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1151

BUXORO VILOYATI BALIQCHILIK SUV HAVZALARIDAGI YUKSAK SUV O’SIMLIKLARI VA ULARNING BALIQCHILIKDAGI ROLI.

H.S. Ikromova,

BuxDU, biologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

h.s.ikromova@buxdu.uz

A.M. Qobilov, BuxDU, dotsent,

Annotatsiya. Buxoro viloyati baliqchilik suv havzalarida turlicha tabiiy ozuqalar mavjud. Jumladan, yuksak suv o’simliklari baliqchilik suv havzalaridagi

asosiy oзуqalardan biridir. Baliqchilik suv havzalaridagi yuksak suv o'simliklari turlicha bo'ladi. Ular o'zlarining kimyoviy tarkibi jihatidan sifatli bo'lib, o'zida turlicha makroelementlar, mikroelementlar, vitaminlar, biologik faol moddalar bo'ladi. Bu moddalar o'z navbatida baliqlarning tanasining o'sib rivojlanishi, moddalar almashinuvi jarayonida katta ahamiyatga ega. Baliqchilik suv havzalaridagi yuksak suv o'simliklarini o'rganish bo'yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borildi.

Kalit so'zlar: Tabiiy oзуqa, oq amur, ryaska, azolla, pistiya, fitofil, hammaxo'r, gigrofit, gidrofit, gidatofit, vegetatsiya davri, nitrit, nitrat.

***Аннотация.** В рыбоводных водоёмах Бухарской области имеются разнообразные природные корма. В частности, водные растения являются одним из основных питательных веществ в рыбных прудах. Водные растения в рыбных прудах разнообразны. Они имеют высокое качество по химическому составу и содержат различные макроэлементы, микроэлементы, витамины и биологически активные вещества. Эти вещества, в свою очередь, имеют большое значение в росте и развитии организма рыб, в процессе обмена веществ. Проведен ряд научно-исследовательских работ по изучению водных растений рыбных водоемов.*

***Ключевые слова:** Натуральный корм, белый амур, ряска, азолла, пистия, фитофил, всеядный, гигрофит, гидрофит, гидатофит, вегетационный период, нитрит, нитратю*

***Abstract.** In the fish-breeding reservoirs of the Bukhara region there is a variety of natural food. In particular, aquatic plants are one of the main nutrients in fish ponds. Aquatic plants in fish ponds are varied. They are of high quality in chemical composition and contain various macro elements, microelements, vitamins and biologically active substances. These substances, in turn, are of great importance in the growth and development of the fish body, in the metabolic process. A number of research projects have been carried out to study aquatic plants in fish reservoirs.*

***Key words:** Natural food, grass carp, duckweed, azolla, pistia, phytophile, omnivore, hygrophyte, hydrophyte, hydatophyte, growing season, nitrite, nitrate*

Kirish. Buxoro viloyati baliqchilik suv havzalaridagi baliqlardan yuqori biomassa olish maqsadida turlicha tabiiy oзуqalardan foydalaniladi. Oзуqa turlariga qarab baliqlar turlicha massalarga ega bo'lishadi. Jumladan, oq amur va oq do'ngpeshona baliq turlari tabiiy oзуqa hisoblangan tuban suvo'tlari, yuksak suv o'simliklari (azolla, ryaska, pistiya) bilan oziqlantirilganida ularning massa ko'rsatkichlari oshganligi aniqlangan. Baliqchilik suv havzalari o'g'itlanganida, mineral o'g'itlar tuban suvo'tlari va yuksak suv o'simliklari tomonidan o'zlashtirilib yorug'lik ta'sirida fotosintezni amalga oshiradi va baliqlar uchun tabiiy oзуqaviy biomassa hosil qilishadi. Ushbu maqolada baliqchilik suv havzalaridagi baliqlar uchun tabiiy oзуqa hisoblangan pistiya, azolla, ryaska kabi yuksak suv o'simliklarining suv havzalarida tarqalish darajasi, ularning kimyoviy tarkibi, baliq biomassasini oshirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Material va metodlar. Ushbu tadqiqotlar doirasida olib borilayotgan ma'lumotlardan foydalanish uchun O'zbekiston ilmiy-ommabop jurnallarga murojaat qilingan. Ushbu mavzu bo'yicha nashr etilgan adabiyotlarning ko'pligi, olib borilayotgan ishlarning keng ko'lamlilik ekanligi va ularning soni keltirilishi cheklanganligi sababli ushbu maqola uchun mavjud adabiyotlarning faqat bir qismi tanlangan.

Tadqiqot tahlili va natijalari. Buxoro viloyatining janubi-sharqida joylashgan baliqchilik suv havzalaridagi yuksak suv o'simliklarini o'rganishlari natijasida bu o'simliklarning 21 oilaga mansub 45 ta turi borligini aniqlangan. Ushbu o'rganilgan turlar baliqchilik suv havzalarining gidrobiologiyasini va boshqa turdagi tirik organizmlarni o'rganish uchun ilmiy asos bo'ladi. Bu baliqchilik suv havzalaridagi aniqlangan yuksak suv o'simliklari bir qancha foydali xususiyatlarga ega. Jumladan, baliqchilik hovuzlaridagi fitofil baliqlarning tuxum qo'yishi uchun qulay joy, o'simlikxo'r hamda hammaxo'r baliqlar uchun ozuqa, shuningdek hovuzlarning iqlimini mo'tadil darajada saqlab turish kabi vazifalarni bajaradi. Ular o'z vegetatsiya davrida juda ko'p miqdorda biomassa hosil qiladi. Baliqchilik suv havzalaridagi tanasi yumshoq bo'lgan yuksak suv o'simliklari (*Potamogeton crispus* L., *Ceratophyllum demersum* L., *Lemna minor* L.) oq amur (*Ctenopharyngodon idella*) balig'i uchun asosiy ozuqa hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarimizda Buxoro viloyatining janubi-sharqida joylashgan baliqchilik suv havzalaridagi yuksak suv o'simliklarini ekologik guruhlarda tarqalishi bo'yicha tahlil qilingan. Bu hududda nisbatan kam uchraydigan ryaska (*Lemna minor*) o'simligi oqsilga boy bo'lganligi uchun ko'paytirilib yosh baliqlarga berilsa, yosh baliqlar tez o'sib, to'laqonli semizlikka ega bo'lishi hamda bir mavsumning o'zida tovar baliq ko'rinishiga ega bo'lishi tajribalar natijasida aniqlangan [1].

Yuksak suv o'simliklarining ekologik guruhlaridan gidatofit guruhiga mansub bo'lgan suv yuzasida o'sadigan o'simliklarni laboratoriya va dala sharoitlarida o'stirib ularni baliqlar ozuqasi sifatida qo'llanilgan. Bu yuksak suv o'simliklari Poyabargdoshlar Lemnaceae oilasiga mansub *Lemna minor* L., *L. trisulca* L., *L. gibba* L. va Salviniaceae oilasiga mansub *Azolla caroliniana* kabilardir. Yuksak suv o'simliklari tarkibida ko'plab makroelementlar va mikroelementlar bo'ladi. Masalan, rdest (*Potamogeton filiformis* Pers., *P. pectinatus* L), urut (*Myriophyllum spicatum* L., *M. verticillatum* L) tarkibida Ca va P elementlarining borligi bilan boshqa barcha qishloq xo'jaligi ekinlaridan oldinda turadi [2].

Ryaska o'simligining tarkibida mikroelementlar eng ko'p bo'lib, uning 1 kg ho'l biomassasida 0,48 mg Co, 0,18 mg Br, 0,32 mg Cu, 0,7 mg Ni, 4,8 mg Ti borligi aniqlangan. Shu sababli ham oq amur (*Ctenopharyngodon idella*) balig'idan 1 kg biomassa olish uchun ryaska (*Lemna minor* L., *L. gibba*) o'simligidan 20 kg sarflash yetarli hisoblanadi. Baliqchilik suv havzalaridagi yuksak suv o'simliklari baliqlar uchun ozuqa sifatida foydalanilganida, baliqlarning biomassasi 15% dan 35% gacha oshganligi ma'lum bo'lgan [3]. Suv yuzasida qalqib o'sadigan yuksak suv o'simliklari baliqchilik hovuzlaridan chiqadigan ifloslangan suvlarda juda tez o'sib suvning mineral muhitini yaxshilab suvni tozalaydi, shuningdek, katta miqdorda biomassa hosil qiladi. Bu o'simliklarning poya barglari nisbatan yumshoqligi,

uglevodlar, oqsillar hamda o'nlab vitaminlar borligi sababli ham baliqlar ularni yaxshi iste'mol qilishadi [4].

Buxoro viloyatining shimoliy-g'arbida joylashgan baliqchilik suv havzalarida yuksak suv o'simliklarining 16 oilaga kiruvchi 34 tur o'rganilgan [5,6,7]. Bu ta'kidlab o'tilgan turlar baliqchilik suv havzalarining gidrobiologiyasini va boshqa turdagi tirik organizmlarni o'rganish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shimoliy-g'arb suv havzalarida aniqlangan yuksak suv o'simliklarining baliqchilik suv havzalarida bir qancha foydali xususiyatlari mavjud. Ular hovuzlardagi fitofil baliqlarning tuxum qo'yishi uchun qulay joy hisoblanadi, shuningdek hovuzlarning iqlimini mo'tadillashtiradi hamda o'simlikxo'r va hammaxo'r baliqlar uchun ozuqa ham bo'la oladi. Eng ahamiyatlisi shuki, yuksak suv o'simliklari vegetatsiya davrida juda katta biomassa hosil qilishidir. Oxirgi yillar mobaynida Respublikamiz suv havzalarida azolla (*Azolla caroliniana* Willd.) deb nomlangan suv o'simligi keng tarqalgan. Ayrim bir davlatlar azolla o'simligidan baliqlar, o'rdaklar, cho'chqalar va qoramollarning mahsuldorligini oshirishda aosiy oqsil manbai sifatida foydalanib kelmoqda. Bu o'simlik tarkibida 12,8% oqsil, 22,75% kletchatka, 23,3% mg/kg karotin, 0,94% yog' mavjud. Shuningdek, azolla o'zida bir qancha uglevodlar, karotinlar, B vitamini hamda boshqa fiziologik faol moddalarni saqlaydi. Azolla o'simligidan bizning sharoitimizda iyul-sentabr oylari mobaynida har bir kvadrat suv maydonidan bir sutka davomida 250-300 gramm, yil davomida esa 1 ga maydondan 450-540 tonna ho'l biomassa olish mumkinligi aniqlangan.

Oq amur baliqlarining suv o'simliklari bilan oziqlanishi uchun eng qulay harorat 20-30 °C bo'lsada, ular harorat 10-12 °C bo'lganida oziqlanishni boshlaydilar. Baliqlarning o'sish sur'ati asosan suv haroratiga va ularni ozuqa bilan ta'minlanganliklariga bog'liqdir. Oq amur balig'ining lichinkalari 30 kun ichida 3 sm uzunlikka ega bo'lganlaridan so'ng suv o'simliklari bilan oziqlana boshlaydilar. Oq amur balig'ini ko'paytirish va parvarish qilinadigan hovuzlarda shu hovuzlardagi mavjud o'simliklarga qo'shimcha tarzda ryaska (*Lemna gibba* L) va azolla (*Azolla caroliniana* Willd.)dan foydalanish o'rinlidir. Masalan, ryaska tarkibida (quruq modda hisobiga) 30-32% oqsil, 4-5% yog', 20-30% kraxmal bo'lishi va shuningdek, uning tarkibidagi oqsil moddasi bug'doy urug'ning ratkibidan 12-16 %, jo'xoridan 18-20% ga ko'pligi aniqlangan. Oq amur balig'ining lichinkalari 18-23 kunlikka yetganlaridan boshlab ryaska o'simligini yeya boshlaydi [8].

Buxoro baliqchilik suv havzalari va havzalarga tegishli kanal hamda ariqlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida 19 tur 12 oilaga mansub yuksak suv o'simliklari qayd qilingan. Shu turlardan eng ko'p uchraydiganlari rdest-Potamogeton bo'lsa, keying o'rinda ryaska-Limneadir, boshqa turlar ahyon-ahyonda uchraydigan turlardir [9]. O'txo'r baliqlar guruhiga mansub oq amur balig'ining asosiy ozuqasi yuksak suv o'simliklaridir. Ushbu yuksak suv o'simliklari baliqchilik suv havzalarining qirg'oqlarida o'suvchi - *Phragmites communis*, *Typha latifolia*, *Typha angustifolia*, *Scirpus lacustris*, *Scirpus mucronatus* va boshqalar, suv yuzasida o'suvchilar - *Lemna minor*, *Lemna gibba*, *Lemna trisulea* kabilardir. Suv yuzasida o'suvchi o'simliklar oq amur parvarishlanayotgan baliqchilik hovuzlarida deyarli uchramaydi, chunki oq amur ryaskani tezlik bilan iste'mol qilib qo'yadi. Hozirgi

kunda baliqchilik havzalarida tabiiy holda o'sadigan yuksak suv o'simliklarining barchasining ham tarkibida oqsillar, vitaminlar ko'p miqdorda bo'lmaganligi uchun ham baliqlar yaxshi rivojlana olmaydi. Shuning uchun oq amur baliq'ining mahsuldorligini oshirish maqsadida oqsillarga, vitaminlarga va boshqa biologik faol moddalarga boy bo'lgan, suv yuzasida o'suvchi ryaska (*Lemna minor*), pistia (*Pistia stratiotes*) va azolla (*Azolla caroliniana*) o'simliklari laboratoriya sharoitlarida ko'paytirilib baliqlarga beriladi [10].

Xulosa. Baliqchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirishda sifatli, tabiiy ozuqalardan foydalanish iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi isbotlandi. O'simlikxo'r baliqlar hisobiga maxsuldorlikni oshirish uchun taklif qilinayotgan o'simlik turlaridan samarali foydalanish xo'jaliklar daromatlarini oshishiga yuqori darajada xizmat qiladi. Buning uchun bu boradagi ilmiy izlanishlarni kengaytirish, aniq natijalarni olish oldimizda turgan ko'plab muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR

1. Bo'riyev S.B., Jalolov E.B. Buxoro viloyatining janubi-sharqida joylashgan baliqchilik suv havzalarining yuksak suv o'simliklari va ularning sistematikasi. Namangan Davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2019. № 9-son. – B. 39-43.
2. Bo'riyev S.B., Jalolov E.B. Yuksak suv o'simliklarini akvakulturada qo'llash biotexnologiyasi. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2020. № 9-son. – B. 13-17.
3. Bo'riyev S.B., Jalolov E.B. The importance of high watershed fish production in aquaculture fisheries (example of Bukhara area). Materials of the XV international scientific and practical conference. 2019. Vol. 14. – Pp. 195-198.
4. Bo'riyev S.B., Jalolov E.B. Buxoro viloyati baliqchilik hovuzlaridagi yuksak suv o'simliklari va ularni akvakulturada qo'llash biotexnologiyasi // “Yangilanayotgan O'zbekistonda yangi avlod kadrlari” “Umid” jamg'armasi bitiruvchilarining birinchi Xalqaro konferensiyasi. – Toshkent, 2020. –B. 490-492.
5. Bo'riyev S.B., Jalolov E.B., Sobirov J.J., Temirova N.T. Buxoro viloyatining shimoliy-g'arbida joylashgan baliqchilik havzalaridagi yuksak suv o'simlik turlarining tarqalishi va sistematikasi. O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. – Toshkent, 2019. № 4-son. –B. 78-83.
6. Mukhtorovich, K. A., & Burievich, B. S. (2019). Distribution of High Water Plants of Lake Karakir in Bukhara Region in Ecological Groups. *American Journal of Plant Sciences*, 10(12), 2203
7. Buriev, S. B., & Kobilov, A. M. (2019). The region's aquatic vegetation of lake Kara-Kira Bukhara. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. 9(7), 5-11.

8. Jalolov E.B., Ikromova H.S. Yuksak suv o'simliklarini baliqlar ozuqasi sifatida qo'llash biotexnologiyasi // VII International Scientific-Practical Conference "Problems of rational use and protection of natural resources of southern aral sea region". – Toshkent, 2018. –B. 151-153.
9. Jalolov E.B., Ikromova H.S. Yuksak suv o'simliklari orqali o'simlikxo'r baliqlarni oziqlantirish biotexnologiyasi. VII International Scientific-Practical Conference "Problems of rational use and protection of natural resources of southern aral sea region". – Toshkent, 2018. –B. 95-98.
The transfer surfaces of type 1 is defined by the one-valued projection onto the Oxy plane for the case both $\vec{\alpha}(u)$, $\vec{\beta}(v)$ are isotropic planar curves. And vector equation of this surface is

$$\vec{r}(u, v) = u\vec{i} + v\vec{j} + (f(u) + g(v))\vec{k} \quad (2)$$

where, $\vec{\alpha}(u) = (u, 0, f(u))$ and $\vec{\beta}(v) = (0, v, g(v))$. [1]

Let the surface Φ be admissible surface which is not isotropic tangent planes in isotropic space. \vec{n}_p be an isotropic unit normal vector at a point P of the surface Φ . Take a unit vector at a point P

$$\vec{m}_p = d_1\vec{r}_u + d_2\vec{r}_v + d_3\vec{n}_p \quad (3)$$

where \vec{r}_u, \vec{r}_v are tangent vectors at P and $d_1^2 + d_2^2 = 1$. If there is a function h defined by

$$h: \Phi \rightarrow \Phi^h, h(P) = P + l\vec{m}(P) \quad (4)$$

where l is constant, then the surface Φ^h is called the surface at a constant distance from the edge of regression on Φ . Φ and Φ^h are shown by the pair (Φ, Φ^h) . If $d_1 = d_2 = 0$, then we have $\vec{m}(P) = l \cdot \vec{n}(P)$ and so Φ and Φ^h are parallel surfaces. In this paper, we assume that both d_1 and d_2 are not zero at the same time. Let $\vec{r}(u, v)$ be a parametrization of the transfer surface Φ . In this case, $\{\vec{r}_u, \vec{r}_v\}$ is non-isotropic orthonormal bases of the surface Φ . Let $\vec{n}(P)$ be a isotropic unit normal vector at a point P and $d_1, d_2, d_3 \in \mathbb{R}$ be constant numbers. Then we can write a vector equation of Φ^h is

$$\vec{r}^h(u, v) = \vec{r}(u, v) + l \cdot \vec{m}(u, v)$$

Thus we obtain

$$\vec{r}^h(u, v) = \vec{r}(u, v) + l(d_1\vec{r}_u + d_2\vec{r}_v + d_3\vec{n}(0, 0, 1)).$$

If we take

$$ld_1 = \eta \quad ld_2 = \mu \quad ld_3 = \gamma$$

where $\eta^2 + \mu^2 = l^2$. Thus we get

$$\vec{r}^h(u, v) = \vec{r}(u, v) + \eta\vec{r}_u + \mu\vec{r}_v + \gamma\vec{n}(0, 0, 1) \quad (5)$$

From this, surfaces at a constant distance from the edge of regression on a transfer surface of Type 1 is given by the following formula:[2]

$$\vec{r}^h(u, v) = (u + \eta, v + \mu, (f(u) + \eta f'(u)) + (g(v) + \mu g'(v)) + \gamma) \quad (6)$$

For the total and mean curvatures of this type of surface, the following is valid:

$$K^h = (f''(u) + \eta f'''(u))(g''(v) + \mu g'''(v))$$

$$H^h = (f''(u) + \eta f'''(u)) + (g''(v) + \mu g'''(v))$$

A Weingarten surface is a surface M whose total curvature and mean curvature satisfies a non-trivial relation $\Psi(K, H) = 0$. This type of surfaces were introduced by the very Weingarten in the context of the problem of finding all surfaces isometric to a given surface of revolution and have been extensively studied. In order to simplify the study of Weingarten surfaces, it is natural to impose some added geometric condition on the surface, as for example, that M is transfer or factorable.[3] In this paper we find the equation of the surface generated by the transfer surface of Type 1 that satisfying the conditions $K_u H_v - K_v H_u = 0$ and $2aH + bK = c$ in an isotropic space.

Theorem 1: If the surface at a constant distance from the edge of regression on a transfer surface of Type 1 Φ^h satisfies Weingarten condition:

$$K_u H_v - K_v H_u = 0$$

then the following holds:

1) Φ^h is the graph of $z^h(u, v) = \frac{c_0}{2}(u^2 + v^2) + (c_1u + c_2)\eta + (d_1v + d_2)\mu$

3) Either $z^h(u, v) = \frac{c_0\eta}{2}u^2 + c_1\eta u + \tilde{c}_i + \psi(v)$, $g''' + \mu g^{iv} \neq 0$

or $z^h(u, v) = \frac{c_0\mu}{2}v^2 + d_1\mu v + \tilde{d}_i + \varphi(u)$, $f''' + \eta f^{iv} \neq 0$

where, $c_0, c_1, \tilde{c}_i, d_1, \tilde{d}_i \in \mathbb{R}$.

Theorem 2: If Φ^h be a linear Weingarten surface at a constant distance from the edge of regression on a transfer surface of Type 1 that satisfies $2aH + bK = c$, then the surface equation is:

3) Φ^h is the graph of $z^h(u, v) = \frac{c_0}{2}(\eta u^2 + \mu v^2) + c_1\eta u + d_1\mu v + C$

4) Either $z^h(u, v) = \frac{c_0\eta}{2}u^2 + c_1\eta u + \tilde{c}_i + \psi(v)$, $g''' + \mu g^{iv} \neq 0$

or $z^h(u, v) = \frac{c_0\mu}{2}v^2 + d_1\mu v + \tilde{d}_i + \varphi(u)$, $f''' + \eta f^{iv} \neq 0$

REFERENCES

1. A.Artykbaev, Sh.Ismoilov. "Surface recovering by a given total and mean curvature in isotropic space R_3^2 . Palestine J.Math.,(2022), pp.351-361.
2. M.K.Karacan, A.Cakmak, S.Kiziltug, H.Es. "Surfaces generated by translation surfaces of Type 1 in I_3^1 . Iranian J. Math.Sci. Info., (2021),pp.123-135.
3. A.Bueno, R.Lopez. "Translation surfaces of linear Weingarten type". J.Geo.,(2014), pp.1-9.
4. M.E.Aydin, M.Ergut. "Affine translation surfaces in the isotropic 3-space." J.Int.Elect.Geo.,(2017), pp.21-30.
5. D.W.Yoon. "Polynomial translation surfaces of Weingarten types in Euclidian 3-space." Cent.Eur.J.Math. (2010), pp.430-436.

KOGON TUMANINING TABIIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

G.B.Jo'rayeva
BuxDU, magistranti
g.b.jurayeva@buxdu.uz

Kogon tumani viloyat markazi qadimiy Buxoro shahrining janubiy qismida joylashgan bo'lib, Kogon tumani viloyatning Buxoro tumani, shimolda qisqa masofada Vobkent tumani hamda shimoli-sharqda Amu-Buxoro mashina kanalining

o'zani orqali Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani bilan chegaradosh. Tuman sharkdan g'arbgacha 38 kilometr, shimoldan janubgacha esa 45 kilometrgacha cho'zilgan. Kogon tuman markazi Kogon-Qarshi, Kogon-Qiziltepa magistral yo'li bilan bog'langan. "Buxoro" aeroporti tumandan 8 km uzoqlikdagi masofada joylashgan.

Tuman hududi asosan to'rtlamchi davr yotqiziqlari bilan qoplangan. Hududining asosiy qismini akkumlyativ yuzalarning turon plitasi subaerol-delta zonasining golosten yoshidagi baland subgorizontal balandliklari hamda ozroq qismini ya'ni sharqi va janubini golosten yoshidagi baland subgorizontal yassi balandliklari tashkil etadi.

Seysmik jihatdan 8 balli zilzila yuz beradigan seysmik rayonga kiradi, tuproq zarrasida tebranish tezlanishi 351-400 sm²/sek.

Tuman o'rni subtropik kenglikda va dengiz satxidan 222 metr balandlikda bo'lib, relyefi tekislik. Kunduzi quyosh gorizontdan balandda turishi bilan farqlanadi. Shu sababli iqlimi quruq bo'lib, kun davomida havo harorati keskin o'zgarib turadi. Iqlimi kontinental. Yillik o'rtacha harorat 15°, yanvar oyining o'rtacha harorati 0°, iyul oyining o'rtacha harorati 29°. Eng past harorat —25° bo'lib yanvar oyida, Eng yuqori harorat +46° iyulda kuzatiladi. Vegetastiya davri 214 kun. Yilning o'rtacha havo harorati 15,1° minimal xarorati 25 gradus, eng yukori xarorati 45 gradusdan iborat. (Ayrim manbalarda yanvarning o'rtacha harorati +0,7°S, eng issiq oy – iyunning o'rtacha harorati +28,2°S, qishdagi eng past absolyut havo harorati – 28,0°S, yozda eng balandi +42°S deb ko'rsatilgan).

Tuman hududi yillik yog'in miqdoriga ko'ra viloyat hududi rayonlashtirilganda eng ko'p yog'in tushadigan joy hisoblanadi (140-160 mm). Yiliga o'rtacha 125—140 mm yog'in tushadi. Yog'inning ko'p qismi qish va bahorda yog'adi. Tumanning yillik bulutlik darajasi 3,8 ballga, minimal ko'rsatkich esa 1,5 ballga teng. Yil davomida ochiq quyoshli kunlar 157 kun bo'lib, yillik o'rtacha yog'in 125 mm ni tashkil etadi. Tumanli kunlar kam bo'ladi. Yil davomida 11 kundan oshmaydi, bu ham kish fasliga to'g'ri keladi.

Yil davomida o'rtacha shamol tezligi 2 m/sek.dan (sentyabr oyi) 3,5 m/sek.gacha (mart oyi) o'zgaradi. Yilning o'rtacha shamol tezligi 2,4 m/sek.ga teng. Kuchli shamol – 15 m/sek.ga teng bo'lib, changli bo'ronlar esa kamdan–kam bir yilda 6-7 marta esadi. Shamolning asosiy esish yo'nalishi sharqdan g'arbgacha va shimoldan janubga tomonga yo'nalgan.

Viloyat hududi agroiklimiy rayonlashtirilganda Qizilqum, Quyi Zarafshon hamda O'rta Zarafshon okruglariga bo'linadi. Tuman hududi Quyi Zarafshon okrugiga to'g'ri keladi, okrugning o'zi 2 rayonlar guruhiga - rayonlarning Quyi Zarafshon guruhi va rayonlarning Sandiqli guruhiga ajratiladi. Kogon tumani birinchi rayonlar guruhiga kiritiladi.

Tuman Amu-Buxoro mashina kanali orqali suv bilan ta'minlanadi. Kanalning 10 km qismi tuman hududining shimoli-sharqiy chegarasidan o'tadi. Tuman hududidagi sug'oriladigan yerlar Buxoro viloyati irrigastiya tizimidagi Amu-Buxoro havzasi bilan ta'minlash boshqarmasi xizmat ko'rsatayotgan hududlarga kiradi. Quyimozor suv omboridan boshlangan kanalning bir qismi tuman hududini

janubidan kesib o'tadi. Unda Quyimozor nasos stanstiyasi bor. Cho'l zonasida qorako'lchilik bilan bog'liq chorva mollarining suv ta'minoti sizot va artezian quduqlar suvi yordamida amalga oshiriladi. Tumanning sug'oriladigan yerlari Buxoro vohasiga tegishli bo'lib, u joylarda ko'p tarmoqli zovurlar sistemasi barpo qilingan. Ortiqcha suvlar zovurlar Parallel irrigastiya kollektori (1991 yil foydalanishga topshirilgan, uzunligi 155 km, loyihaviy o'tkazish quvvati 74 m³/c.) orqali janubga — Dengizko'lga (Parallel kollektori 1967 yil foydalanishga topshirilgan, uzunligi 126,4 km bo'lgan, loyihaviy o'tkazish quvvati 55 m³/c. Bo'lgan Dengizko'l tashlamasiga qo'shiladi) yo'naltirilgan .

Tuprog'i asosan sug'oriladigan o'tloqi tuproq bo'lib, yarim mustahkamlangan va mustahkamlanmagan qumlar, sho'rxoklar ham uchraydi. Tuman bo'yicha sug'oriladigan tuproqlarning tavsifini tahlil qiladigan bo'lsak bu tuproqlarning 34.7 % i kuchsiz, 45.1 % i o'rtacha, 13.6 % i kuchli sho'rlangan. 6.6 % i sho'rxoklardir. Tuman hududidagi sug'oriladigan tuproqlar mexanik tarkibiga ko'ra og'ir qumoqli va loyli (18.3 %), o'rta qumoqli (36.9 %), yengil qumoqli (28.9 %) va qumoqli-qumli (15.9 %) tuproqlarga bo'linadi.

Sug'oriladigan yerlarda begona o'tlarning yuzdan ortiq turi uchraydi. Cho'l zonasida gipsli toshloq yerlarda achchiqmiya, gulsapsar, shuvoq, astragal, tuyatovon, karrak, isiriq keng tarqalgan. Sho'rxok yerlarda sho'rajriq, yulg'un, qamish va boshqalar mavjud. Qumoq joylarda yaltirbosh, arpag'on, iloq va cho'lyalpiz kabilar o'sadi.

Geobotanik rayonlashtirilganda viloyatiimiz hududi Osiyo cho'l geobotanik o'lkaga kiritiladi. Bu o'lka hududida Turon va viloyat hududining 95% ini egalaydigan Old Osiyo provinstiyalar guruhlar ajratiladi. O'z navbatida Old Osiyo provinstiyalar guruhi Kaspiy orti va Janubiy Turkiston provinstiyalariga bo'linadi. Kogon tumani hududi Kaspiy orti provinstiyasining Qoraqum podprovinstiyasiga, Janubiy Qizilqum okrugiga kiradi. Tuman hududida asosan vohalarning madaniy o'simliklari va shuvoqli cho'llarga xos o'simliklar, qisman siyraklashgan psammofit butazor o'simlikli cho'llarga xos o'simliklar tarqalgan.

Kogon tumani hududi antropogen, qumli, gipsli, sho'rxokli cho'llar landshaftlarda quyidagi hayvonlar tarqalgan: yovvoyi hayvonlardan bo'ri, tulki, chiyabo'ri, jayron va jayra, qushlardan so'fitor'g'ay, chumchuq, zarg'aldoq, sudralib yuruvchilardan gekkon kaltakesak, toshbaqa, sariq ilon, echkamar; kemiruvchilardan ko'rsichqon, kichik qo'shoyoq, qumsichqon, tipratikan, kalamush va boshqalar uchraydi.

Hududda antropogen landshaftlar (sug'oriladigan yerlar va seliteb hududlar), cho'l landshaftlari (qumli, gipsli, sho'rxoksimon) ajratiladi. Qumli cho'l landshaftlaridan quyidagilar tuman hududida uchraydi:

1. Qumli cho'l tuproqlar va qumlarda cherkez o'simligi jamolari
2. Qumli cho'l tuproqlar va qumlangan qo'ng'ir tusli sur tuproqlarda juzg'un, boyalich, partek, singren o'simliklari jamoalari
3. Qumlar va qumli cho'l tuproqlarda oq saksovul, juzg'un, oq shuvoq o'simliklari jamoalari

4. Qumli cho'l tuproqlarda oq saksovul, qora saksovul, oq shuvoq o'simliklari jamoalari
5. Qumlarda juzg'un, quyonsuyak o'simliklari jamoalari
Gipsli cho'l landshaflaridan quyidagilar uchraydi:
 1. Tipik qo'ng'ir tusli sur tuproqlar va qumlarda to'zgan shuvoq, keyrovuq, boyalich o'simliklari jamoalari
 2. Qumlangan qo'ng'ir tusli sur tuproqlarda partek, singren, jung`or gulsapsari o'simliklari jamoalari
 3. Sho'rxoksimon cho'llar landshaftlaridan tipik sho'rxoklarda dag'al junli yulg'un, qorabaroq, bir yillik sho'ra, sarsazan o'simliklari jamoalari

Tuman hududi tabiiy geografik rayonlashtirishga ko'ra Quyi Zarafshon okrugida joylashgan. Tumanning shimoliy qismi bu okrugning Buxoro-Qorako'l tabiiy geografik rayoniga, janubiy qismi Sandiqliqum tabiiy geografik rayoniga kiradi.

Tumanning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslaridan samarali foydalanish davr talabidir. Buning uchun qishloq xo'jaligini tashkil etishning yangi tiplari (Klaster) ni joriy qilish, qurilish materiallari negizida sanoat korxonalarini shakllantirish, cho'l fauna va florasini muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish, cho'l o'simliklarini shamol ta'siridan himoya qilish uchun ixota o'rmonlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, IV bob
2. Rajabov Q, Jamolova D. "Kogon tumani tarixi" Qisqacha ma'lumotnoma "Tafakkur" nashriyoti Toshkent-2015
3. 3.Dunyoning kichik atlas, Toshkent-2011 9-b
4. O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati Statistika boshqarmasi, 2018- yil
5. Kogon tumani statistika bo'limi, 2019 - yil
6. Kogon tumani Geokadastr tashkiloti, 2018- yil
7. Buxoro viloyat o'lkashunoslik kartasi, 2014-yil

BUXORO VILOYATI SHAROITIDA "ZILOLA" VA "MARJONA" MOSH NAVLARINING AHAMIYATI

A.A. Komilova

BuxDU, 1- bosqich magistranti

a.a.komilova@buxdu.uz

Hozirgi kunda mamlakatimizda va dunyo miqiyosida sifatli va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ko'payib bormoqda. Shu sababli, zarur ahamiyatga ega bo'lgan ekinlarning turli xil navlarini morfologik, biologik, ekologik va fiziologik kabi xususiyatlarini o'rganish yanada unumdor hosil olishga yordam beradi.

Mosh dunyo bo'yicha keng tarqalgan qimmatli ekin hisoblanadi. Mosh tuproq unumdorligini yaxshilaydi, uning ildizlarida vegetatsiya davomida azot yig'uvchi bakteriyalar to'planadi. Vegetatsiya davrida ob-havoning qulay sharoitida u gektariga 200 kg azot yig'ishi mumkin[1]. Shuning uchun mosh ildizlarini yerda qoldirib haydash o'rganilmoqda. Moshda ko'p miqdorda miya, yurak va asab tizimi faoliyatini qo'llab-quvvatlab turuvchi barcha foydali moddalardan magniy, fosfor, kaliy mavjud. Agar iste'mol qilinadigan taomlar ro'yxatiga muntazam moshli ovqat qo'shilsa, stress holatlarni osonlik bilan o'tkazish va o'zini yo'qotmaslikka erishiladi, xotira va ko'rish qobiliyati yaxshilanadi, suyaklar va bo'g'imlar yana-da mustahkamroq bo'ladi. Moshda allergiya va astmani yengishda yordam berish kabi shifobaxsh xususiyatlar ham bor[1].

Hozirgi kunda fermerlar tomonidan O'simlikshunoslik ilmiy tadqiqot instituti Butun-Jahon Sabzavotchilik markazi bilan hamkorlikda yaratilgan yangi navlarni yetishtirishni afzal ko'rmoqdalar. Moshning "Durdona", "Zilola", "Marjona" va "Turon" navlari O'zbekiston respublikasi hududida yetishtirish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining ro'yxatiga kirgan [1]. Buxoro viloyati sharoitida moshni asosiy va takroriy ekin sifatida qo'llash ekinlar difersifikatsiyasiga yordam berishi va daromadni oshirishi bo'yicha tadqiqot olib boorish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning natijasida aholini sifatli va hamyonbop ozuqa bilan ta'minlashga erishiladi.

Mosh donida oqsil, vitaminlar ko'p bo'lishi, to'yimliliigi bilan boshqa dukkakli o'simliklardan ajralib turadi. Mosh doni tarkibini oqsil, lizin, argenin va vitaminlardan B1, PP lar bor. To'la yetilgan mosh urug'ida kalsiy va fosfor tuzlari go'sht va nonga qaraganda ikki barobar ko'pligi aniqlangan. Tibbiyot sohasidan olib qaraydigan bo'lsak mosh doni asabni tinchlantirishda, jigar va buyrak faoliyatini yaxshilashda, ich ketishini to'xtatishda va ko'z kasalliklarini davolashda keng foydalaniladi. Mosh o'simligining ko'k poyasi ham qurigan poyasi ham chorvachilikda yem xashak sifatida foydalaniladi. Mosh o'simligi ildizida tugunak saqlagani tufayli har gektaridan 30-40 kilogramgacha sof azot to'playdi[2].

Mosh bir yillik o'tsimon o'simlik hisoblanadi. Ildizi o'q ildiz, poyasi chirmashuvchi yoki yarim chirmashuvchi qirrali bo'ladi. Barglari esa uzun bandli yirik. O'simlikning deyarli hamma qismi tuklar bilan qoplangan. Gullari shingil to'pgul hosil qiladi. Mevasi dukkak. Biologik xususiyatlariga keladigan bo'lsak, u issiqsevar ekin. Urug'lari tuproqda 12-15 °C bo'lganda una boshlaydi. Urug'larning unib chiqishi uchun optimal harorat 20-25 °C. O'sish davri nav, agrotexnika va ekilish muddatiga bog'liq holda 80-110 kun. Harorat -1°C bo'lganda o'simlik nobud bo'ladi. Namsevar o'simlik bo'lgani uchun O'zbekistonda asosan sug'oriladigan yerlarda ekiladi. Tuproq tanlamaydi o'tloq, o'tloq-botqoqlarda ham o'saveradi. Sho'r, sho'rxok yerlarda esa yaxshi rivojlanmaydi[3].

Moshning "Zilola" va "Marjona" navlari haqida. "Zilola" navi O'simlikshunoslik ilmiy tadqiqot instituti olimlari tomonidan yaratilgan va 2008-yil Davlat reestriga kiritilgan. "Zilola" navi issiqqa va kasalliklarga chidamli, o'rta sho'rlangan yerlarda yetishtirish uchun mos. Vegetatsiya davri 95 kun. O'simlik tik o'suvchan bo'yi 60-65 sm, poyasida 35 dona va undan ko'proq dukkak

shakllantiradi. Har bir urug'da 10-12 dona urug' shakllanadi. 1000 dona urug' vazni 72gr. Mevasi zaytunrang tusda. Dukkaklari poyaning ustki qismida shakllanishi terim jarayonini yengillashtiradi. Dukkaklarning birinchi yig'imi maysalarning paydo bo'lgandan 60-63 kundan so'ng amalga oshirish mumkin. O'simlikdagi dukkaklari dalada chatnab ketmaydi, shu munosabat bilan yig'im dukkaklarning yig'imi to'liq yetilishi bilan amalga oshadi. O'simlikda pishgan dukkaklar to'q jigarrang yoki qora tusda bo'ladi. Intensiv tipdagi nav, kombaynda yig'ishga yaroqlidir[4]. "Marjona" navi ham xuddi yuqoridagi xususiyatlariga ega va zilola navidan vegetatsiya davrining 95 kunligi, poyasida 35 va undan ortiq dukkak shakllanishi, 1000 dona urug'ining vazni o'rtacha 82 gr ni tashkil qilishi, mevasi yaltiroq tusda ekanligi bilan farqlanadi.

"Zilola" navi universal nav hisoblanadi. Sabzavot va g'alla ekinlari bilan almashlab ekishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Tuproq unumdorligini oshiradi. O'simliklar yuqori ko'chat qalinligiga 10-15x15 sm chidamli. Bahorda hamda yoz mavsumida ekishga va to'liq hosil olishga yaroqli. Turli xil taomlar tayyorlashda foydalanish mumkin. O'simlikning ko'k massasi chorva uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi. Ekish muddati asosiy ekinda 25 aprel-10 may, takroriy ekinda 20 iyungacha. Urug' ekish me'yori 10-12 kg[4].

"Marjona" navi tezpishar nav bo'lib, birinchi maysalari unib chiqqandan so'ng 60-63 kun o'tganda birinchi dukkagi pishadi. Butunlay to'liq pishish vaqti esa 90-95 kun. Dukkaklari ustki qismida shakllanadi, soni 20-25 dona bo'ladi va terim uchun qulaydir. Don hosildorligi 25,0-28,5 s/ga tashkil etadi. 1000 dona urug' vazni 87 g. Universal nav. Sabzavot va g'alla ekinlari bilan almashlab ekish tizimida muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Tuproq unumdorligini oshiradi. O'simliklar yuqori ko'chat qalinligiga 10-15x15 sm chidamli. Bahorda hamda yoz mavsumida ekishga va to'liq hosil olishga yaroqli [4].

Xulosa qiladigan bo'lsak, har qanday mosh navini yetishtirishdan oldin ularning morfobiologik xususiyatlarini o'rganish o'simlikdan qaysi paytda va qancha miqdorda hosil olishni yengillashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari mosh o'simligi almashinib ekishda qo'llanilishi hisobiga tuproq unumdorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://agro-olam.uz> "Moshning Zilola navi haqida"
2. Atabayeva X.N., Idrisov X.A. Mosh yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish // Monografiya. – Farg'ona: 2021. – 6. 56-73
3. Mavlyanova R.F., Sulaymonov B.A., Boltayev B.S., Mansurov X.G., Kenjabayev Sh.M. Mosh yetishtirish texnologiyasi (Tavsiyanoma) // Toshkent – 2018. 2-4 b.
4. "INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING" 2022/7 (to'plam)// sug'oriladigan yerlarda mosh navlarining tavsifi

FUNKSIYA TUSHUNCHASINING TAKOMILLASHISH TARIXI VA ZAMONAVIY TA'RIFLARI

S.N.Laqayev,

Bu maqolada biz funksiya (akslantirish) tushunchasining shakllanish tarixi haqida ma'lumotlar keltirib, uning zamonaviy ta'riflarini keltiramiz va bu zamonaviy ta'riflarning boshqa (qat'iy matematik bo'lmagan) ta'riflardan keng va ustun ekanligini ko'rsatamiz.

Funksiya tushunchasi ta'rifining takomillashishi (evolutsiyasi)

Ma'lumki, matematika ko'pincha "to'plamlardagi munosabatlarni o'rganish" yoki "to'plamlarda aniqlangan funksiyalarni o'rganish" aniqrog'i "o'zgaruvchan miqdorlar orasidagi bog'liqliklarni o'rganish" deb hisoblangan. Ushbu konsepsiya qanday paydo bo'lganligini bilish maqsadida biz matematika, aniqrog'i matematikadagi funksiya tushunchasining rivojlanish tarixiga nazar tashlaymiz. Bu tarixni o'rganish davomida biz o'tmishdoshlarimiz harakatlariga ular o'ylaganlaridan ko'ra ko'proq narsaga erishgan deb xulosa chiqarishdan ehtiyot bo'lishimiz kerak!

Biz Bobil matematikasiga e'tibor qaratsak, unda natural sonlarning kvadratlari, kublari va natural sonlarning teskarilari jadvallarini ko'ramiz. Biz bu jadvallarni, albatta, natural sonlar to'plamini uning o'ziga akslantiruvchi funksiyalarning aniqlanishi deb o'ylashimiz mumkin.

Shunday sabablarga ko'ra E.T. Bell 1945-yilda quyidagi fikrlarga kelgan va uni yozib qoldirgan bo'lsa kerak: "Ushbu jadvallarni tuzgan qadimgi Bobilliklarga funksiya konsepsiyasi instinktini tegishli deb hisoblanishi-bu hozirgi zamon matematiklarining qadimdagi matematikani zamonaviy ko'z bilan ko'rishi natijasidir. Bugun biz bobilliklar funksiyalar bilan shug'ullanganliklarini ko'rishimiz mumkin, ammo ular bu atamalar haqida o'ylaganliklari haqida hech qanday ma'lumot yo'q."

Ptolemyning ishida biz aylana vatarlarini hisoblaganligini topamiz, bu uning trigonometrik funksiyalarni hisoblaganligini anglatadi. Ammo Ptolemy funksiya konsepsiyasini tushungan deb taxmin qilish ham saxiylik bo'lardi. Bizning ko'zlarimiz funksiyalarni ko'rishi mumkin, ammo Ptolemyni emas.

Galiley funksiya tushunchasini (konsepsiyani) yanada aniqroq tushuna boshladi. Uning harakat haqidagi tadqiqotlari o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatni aniq tushunishni o'z ichiga oladi. Uning matematik ishlaridan bir parchasi uning to'plamlar o'rtasidagi akslantirishlarni tushuna boshlaganligini ko'rsatadi: 1638-yilda u O markazga ega bo'lgan ikkita konsentrik aylanalar masalasini qaradi. Kattaroq A aylananing diametri kichikroq B aylananing diametridan ikki barobar katta. Ma'lum formulaga ko'ra, A aylana uzunligi B aylana uzunligining ikki barobariga teng, ammo agar biz A aylanadagi biron P nuqtani olsak OP nur B aylanani faqat bir nuqtada kesib o'tadi. Shunday qilib, Galiley A aylananing har bir nuqtasini B aylananing yagona nuqtasiga o'tkazadigan funksiyani qurdi, va aksincha, agar Q nuqta B aylanada bo'lsa, u holda OQ nur A aylanani faqat bir nuqtada kesib o'tadi. U bu safar B ning nuqtalarini A ning

nuqtalariga o'tkazuvchi yangi bir funksiyaga ega bo'ldi. A aylana uzunligi B aylana uzunligidan ikki barobar ko'p bo'lsa-da, ular bir xil miqdordagi nuqtalarga ega.

Bu g'oyalarni ilgari surayotgan Galiley bilan deyarli bir vaqtda Descartes (1596-1650) o'zining "La Geometrie" asarida algebrani geometriya faniga kiritdi. Descartes geometrik ravishda egri chiziq bilan ifodalangan ikkita o'zgaruvchili tenglama o'zgaruvchan miqdorlar orasidagi bog'liqlikni ko'rsatishini aniq aytdi. Funksiya tushunchasi vaqt o'tishi bilan rivojlanib, o'zining ma'nosini o'zgartirib hamda aniqlashtirib bordi. Ammo, oldinroq ishlatilgan funktsiya so'zi zamonaviy funktsiya kontseptsiyasining ba'zi g'oyalarni, cheklangan tarzda, o'z ichiga olgan edi.

Nyuton (1642-1727) funktsiyani cheksiz darajali qator sifatida tasvirlanishini ko'rsatgan birinchi matematiklardan biri sifatida, uning cheksiz jarayonlarga aralashuviga imkon yaratdi. U "fluent" so'zini erkli o'zgaruvchilarni belgilash, "relate quantitates" jumlasini bog'liq o'zgaruvchilar uchun va "genital" so'zini esa to'rtta asosiy arifmetik amallar yordamida olingan miqdorlar uchun ishlatgan.

Leybnits (1646-1716) 1673-yilda birinchi bo'lib "funksiya" atamasini ishlatgan edi. U funktsiya tushunchasini juda umumiy ma'noda, geometrik miqdorlarning egri chiziqli shakllarga bog'liqligini ko'rsatish maqsadida ishlatdi. Shuningdek, u o'zgaruvchan va parametr atamalarini ham kiritdi.

Funksiyaning zamonaviy va "formal" ta'riflari.

Faraz qilaylik X va Y lar ixtiyoriy to'plamlar, $X \times Y$ ularning Descartes ko'paytmasi, ya'ni barcha tartiblangan juftliklar (x, y) , $x \in X, y \in Y$ ning to'plami. $R \subseteq X \times Y$ qism to'plam, ya'ni X va Y lar orasidagi *munosabat* bo'lsin.

Ta'rif 1. Agar biron qoidaga ko'ra X ning har bir elementiga Y ning yagona elementi mos qo'yilgan bo'lsa, bu qoida X ni Y ga o'tkazuvchi funktsiya (*akslantirish*) deyiladi.

Bu ta'rifda ishlatilgan "qoida" so'zi ta'rifdagi funktsiyalar sinfini toraytiradi hamda talab qilinayotgan "qoida" topilmasligi mumkin va uning mavjudligini ko'rsatish kerak bo'ladi.

Ta'rif 2. Agar X ning har bir elementiga Y ning yagona elementi "mos" qo'yilgan bo'lsa, bu "moslik" X ni Y ga o'tkazuvchi funktsiya deyiladi.

Bu ta'rifdagi "moslik" so'ziga qat'iy matematik ma'no berilmaganligi ya'ni bu so'zning to'plamlar nazariyasi yordamida aniqlanmaganligi bu ta'rifning matematik qat'iy emasligiga asos bo'ladi. Yuqoridagi ikkala ta'rifda ham X funktsiyaning **aniqlanish to'plami**, Y esa **o'zgarish to'plami** deyiladi. Funksiya tushunchasi XIX asrning oxirida to'plamlar nazariyasi nuqtai nazaridan rasmiylashtirildi va bu kontseptsiyani qo'llash sohalari ancha kengaytirildi.

Ta'rif 3. Agar $f \subseteq X \times Y$ qism to'plam bo'lib, $(x, y_1) \in f$ va $(x, y_2) \in f$ ekanligidan ushbu $y_1 = y_2$ tenglik kelib chiqsa, f qism to'plam (*munosabat*) X ni Y ga o'tkazuvchi funktsiya deyiladi.

Bu ta'rif to'plamlar nazariyasi asosida berilgan bo'lsa-da, bundan X to'plamning funktsiyaning **aniqlanish to'plami** ekanligi kelib chiqmaydi.

Ta'rif 4. Agar har bir $x \in X$ uchun yagona $y \in Y$ mavjud bo'lib, barcha shunday juftliklar to'plami $f = \{(x, y) \in X \times Y\}$ **aniqlanish to'plami** X va **o'zgarish to'plami** Y bo'lgan funksiya deyiladi.

Bu to'plamlar nazariyasiga asoslangan ta'rifni yanada aniqroq bayon qilsak quyidagi ta'rifga kelamiz.

Ta'rif 5. Faraz qilaylik $f \subseteq X \times Y$ qism to'plam (munosabat) uchun quyidagi shartlar bajarilsin:

(i) har bir $x \in X$ uchun $y \in Y$ mavjud bo'lib $(x, y) \in f$;

(ii) agar $(x, y_1) \in f$ va $(x, y_2) \in f$ bo'lsa, u holda $y_1 = y_2$.

Ushbu f munosabat **aniqlanish to'plami** X va **o'zgarish to'plami** Y bo'lgan funksiya deyiladi.

Funksiya(akslantirish) tushunchasi matematikaning barcha sohalarida keng qo'llaniladi.

Misol. Ushbu $X \times Y \times Z$ Descartes ko'paytmaning qism to'plami $f \subseteq X \times Y \times Z$ ikkilik amali (ikki o'zgaruvchili funksiya) deyiladi va u algebrada, xususan yarim guruhlar, monoidlar, guruhlar, halqalar, maydonlar va vektor fazolar o'rganiladigan ko'pgina tuzilmalarning asosiy toshidir.

Masalan, haqiqiy sonlarni qo'shish $f: R \times R \rightarrow R, f(x, y) = x + y$ kabi ikkilik amalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Courant, Richard and John, Fritz. Introduction to Calculus and Analysis. Interscience Publishers. New York. 1965.

TO'DAKO'L VA QUYIMOZOR SUV OMBORLARI XUSUSIYATLARI.

*M. R.Axtamova,
BuxDU, 1- bosqich magistranti
m.r.axmatova@buxdu.uz*

Annotatsiya: Maqolada To'dako'l va Quyimozor suv omborlarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Mazkur suv omborlarning joylashgan geografik o'rnidan kelib chiqib, hududda ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari beqiyos ekanligi namoyon qiladi. Shu bilan birgalikda ushbu To'dako'l va Quyimozor suv omborlarida ekoturizmni rivojlantirishda ular atrofidagi landshaftlarda yuzaga kelayotgan bir qator muammolar va ularning yechimlari haqida so'z yuritiladi.

KIRISH

Organizm uchun kisloroddan keyingi zarur modda bu – suvdur. Xuddi shunday Buxoro vohasini ham bir butun organizm deb qaraydigan bo'lsak, uning tanasida oqayotgan qon ushbu vohaning suv boyliklaridir.

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan – "...milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini

oshirish uchun melioratsiya va irrigatsiya obyektlarini rivojlantirish” vazifasi belgilab berilgan.

“ Malumki, daryolardagi suv miqdori yil davomida mavsumdan- mavsumga va u yildan-yilga o’zgarib turadi . O’lkamiz sharoitida qishloq xo’jaligida suvga bo’lgan talab ortgan mavsumlarda ko’pchilik daryo va soylarda suv keskin kamayib ketadi, ayrim hollarda butunlay qurib qoladi. Mana shunday sharoitda daryo va soylar suvidan to’la samarali foydalanish maqsadida uning oqim rejimini boshqarib turish zarur. Bu muammoni daryolarda sun’iy ko’llar va suv omborlari barpo etish yo’li bilan hal etiladi.” [1]

“Suv ombori- suvni to’plash , rostlash va chiqarib yuborilishini nazorat qilish uchun xizmat qiladigan tabiiy yoki sun’iy hovuz, ko’l, havza” [2]

Ushbu suv omborlari ham vohada ekinzorlarni suv bilan ta’minlashdan tashqari, ulardan baliqchilikni rivojlantirish, sanoat korxonalari va viloyat suv ta’minotini yaxshilash hamda dam olish maqsadida foydalanish o’ta muhim sanaladi.

ASOSIY QISM

Quyimozor suv ombori Quyimozor va Kogon temir yo’l stansiyalari oralig’ida joylashgan. 1958-yilida Zarafshon daryosining etak qismlaridagi chuqurliklardan birining atrofini ko’tarib qurilgan. Suv omborlarining kosasi Qumtosh aralash loyqalardan tashkil topgan aralash yotqiziqlarda joylashgan. Dastlabki suv hajmi 280 mln m³, maydoni 16,2 km². Eng keng joyi 5km, o’rtacha chuqurligi 17 m, eng chuqur joyi 40 m. 1968-yilda suv omborining qirg’oqlari 2 m dan ortiq baland marzalar bilan ko’tarilgan. Uning suv hajmi 350 mln m³ gacha, maydoni 17,3 km² ga yetdi. Quyimozor suv omboriga maxsus kanal (18 km) orqali Zarafshon daryosidan suv keltiradi, shuningdek, Amu-Buxoro mashina kanalida 40 m³/sek suv quyadigan Quyimozor nasos stansiyalari qurildi. Jamg’arilgan suv 72 km va sekuntiga 100m³/s ga qadar suv oqadigan kanal orqali irrigatsiya shaxobchalariga tarqatiladi. Suv omborlarida suv sathi o’zgarib turadi. Quyimozor suv ombori tarkibiga Xorxo’r va Duoba gidrouzellari kiradi. 1965 yildan beri Quyimozor suv ombori Amu-Buxoro mashina kanali suvini tartibga solish maqsadida foydalaniladi. Magistral kanal bilan birgalikda suv ombori 94 ming gektar yerni sug’oradi.

Quyimozor suv ombori O’zbekistonda kattaligi jihatdan beshinchi o’rinda bo’lgan Buxoro shahri va unga yaqin Kogon shahri uchun asosiy ichimlik suvi manbaidir. Uning suvi qo’shni To’dako’l suv ombori suviga qaraganda chuchukroq. Undan asosan dehqonchilik va qishloq xo’jaligi ekinlarini sug’orishda foydalaniladi. Umumiy maydoni qariyb 32 ming gektarni tashkil etadigan ushbu suvli-botqoq yer maydoni ko’chmanchi qushlar uchun ham muhim to’xtab o’tish joyi hisoblanadi. Ma’lumotlarga qaraganda, so’nggi besh yilda ushbu hududda qo’rib o’tgan qushlarning o’rtacha yillik soni 40 mingdan ortiq. Taxminan 229 ta qush turi, shu jumladan yo’qolib ketish xavfi ostida bo’lgan oqboosh o’rdak ham ro’yxatga olingan, biogeografik xilma-xillikni saqlab qolish uchun ularning 1 % dan ko’prog’i shu makonda qishlaydi. Bundan tashqari 34 xil o’simlik o’sadi va 8 turi O’zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan, 12 ta turi esa Markaziy Osiyo endimikasi sanaladi. Suv

havzalarida Amudaryo kurakburni va baqra balig'i esa yo'qolib ketish xafi ostida qolmoqda[3]

To'dako'l suv ombori Buxoro shahridan 26 km sharqdagi tabiiy soylikda, Quyimozor suv omborining janubi-g'arbida barpo etilgan. 1968-yil ishga tushirilgan. 1977- yilda qayta rekonstruksiya qilingan. To'liq hajmi 800 mln m³. Suv yuzasining maydoni 17,5 km², o'rtacha chuqurligi 4,8 m. To'g'oning balandligi 4m , maksimal suv chiqarish imkoniyati 46,0 m³/sek. O'rtacho'l kanali orqali Zarafshon daryosining ortiqcha suvlarini jamg'aradi, Amu-Buxoro mashina kanali orqali Amudaryodan to'ldiriladi. Kanalning etak qismlaridagi yerlarni qo'shimcha suv bilan taminlaydi. Tutashtiruvchi kanal orqali Quyimozor suv omboriga suv beradi. To'dako'l suv omborining suvi qisman menerallashgan. To'dako'l suv omborida baliqchilik xo'jaligi bor. [4]

To'dako'l va Quyimozor suv omborlari RAMSAR kanvensiyasi ro'yxatiga kiritildi. O'zbekistonda To'dako'l va Quyimozor suv omborlari xalqaro ahamiyatga ega suvli botqoq hududlar sifatida belgilab olingan. Ular Qizilqum cho'lining janubiy-g'arbidagi Navoiy viloyatida joylashgan biogeografik jihatdan Markaziy Osiyodagi qurg'oqchil bo'lgan hududlar suvlarini saqlashga xizmat qiladi. Suv-botqoqlik to'g'risidagi konvensiya 1971-yil 2-fevralda Eronning Ramsar shahrida 18 ta davlat tomonidan imzolangan bo'lib, ayni paytda unga dunyoning 170 dan ortiq davlati a'zo hisoblanadi. Mamlakatimiz ushbu kanvensiyaga 2001 yilda qo'shilgan.

Suv omborlarining foydali tomonlari bilan birga salbiy jihatlari ham mavjud. Ular atrof-muhitni tashkil qiluvchilar gidrosfera va atmosfera, biosfera va geodinamik sharoitni shakllantiruvchi barcha faktorlar, ya'ni yer osti suvlari rejimi, relyef,iqlim, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, landshaft va boshqalariga ta'sir ko'rsatadi. Ulardan sizib chiqqan suv atrofdagi grunt suvlarini to'yintirib, ularning sathini ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda va oqibatda suv omborlari atrofidagi avtomorf landshaftlar asta-sekin yarim gidromorfga va gidromorfga aylanmoqda.[5]

Buxoro viloyati suv omborlari

Suv ombor nomi	Manba	Suv ombor turi	Ishga tushgan yili	Maydoni, km ²	Uzunlik/ kenglik/ chuqurlik m da	To'gon turi	To'g'on balandligi/ uzunligi m da
Quyimozor	Amudaryo, Zarafshon daryosi	Quyilma	1958	17,3 km ²	5250/ 3270/ 22,8	grunt	23,5/ 100
To'dako'l	Amu-Buxoro kanali	Quyilma	1968	162 km ²	15000/ 14000/ 11,7 [6]	grunt	12/ 4000

XULOSA. Ushbu suv omborlar suvidan optimal foydalanishda nafaqat irrigatsiya tizimida balki baliqchilik sanoatida, qishloq xo'jalik sohasida va turizm sohasida ham keng imkoniyatlarni yaxshilashimiz lozimdir.

To'dako'l va Quyimozor suv omborlarida ekoturizmni rivojlantirishda ular atrofidagi landshaftlarda yuzaga kelayotgan bir qator muammolar va ularning yechimlari haqida quyidagi tavsiyalar berib o'tiladi:

Shamol eroziyasi natijasida bo'ladigan qum ko'chishlarini oldini olish maqsadida To'dako'l va Quyimozor atrofi landshaftlarini ihota daraxtzorlarini barpo qilish zarur;

-Suv ombori va unga tutash hududlar atrofida vujudga kelgan karyerlarni esa rekultivatsiya qilish kerak;

To'dako'l suv omborining g'arbiy qismida sho'rxok yerlar va po'rsildoq qumlar maydoni keng tarqalgan. Shamolning akkumulyativ ta'siriga uchramasligi uchun ushbu yerlarga sho'rga chidamli o'simliklarni, masalan, jiyda, o'rik, beda kabilarni ekish tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'. X. Yunusov, R.r. Ziyayev "Umumiy gidrologiya va iqlimshunoslik" Toshkent-2018; 127-b.
2. B.K. Soliyev, S.A. Azimboyev "Gidrologiya va gidrometriya". Toshkent -2006; 195-b
3. Rozanov N.P., Bachkaryov Ya.V., Lapshenkov V.S., Jo'ravliyov G.I., Kaganov G.M., Rумыанов I.S., Gidrotexnika inshootlari. N.P. Rozanova-M: Agroropmizdat, 1985.-451b.
4. S.Y Muhammadova Buxoro viloyatidagi suv omborlari va ularning xo'jalikdagi ahamiyati- Oriental Renaissance : Innovative, educationals, natural and social sciences.542-544-b.
5. Y.Q. Hayitov, I.A.Ramazonova " To'dako'l suv omboridan foydalanishning optimal yo'llari"- O'zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari- Ilmiy amaliy konferensiya materiallari 2021
6. Ikramova, Malika Raximberdievna "Suv omborlari gidrologiyasi" o'quv qo'llanma. Toshkent – 2019. 152-b.

YARIM O'TKAZGICHLI MAYDON TRANZISTORINING TOKNI STABILLASH XUSUSIYATI

M.B.Qayimova

BuxDU 2-bosqich talabasi

O'rganiladigan maydon tranzistori epitaksial struktura asosida tayyorlangan. Zatvor sohani bildiruvchi p - tipdagi kremniy ostiga n -tipdagi o'tkazuvchanlik qatlami o'stirilgan. Kanalning uzunligi 25 mkm, eni 560 mkm, stok va istok kontaktlarining kengligi 12 mkm. Tok tashuvchilar konsentratsiyasining gradienti

kanal kengligida $p-n$ o'tish yo'nalishida ortib boradi. Stokning maksimal toki 6,31 mA, kanal qirqimidagi kuchlanish 2,4 V. Ikki qutblik ko'rinishidagi tok chegaralagich istok bilan zatvorning chiqishlarini tashqi qarshilik orqali ulashdan hosil qilinadi.

Bunday rejim stok tokining to'yinish mexanizmiga ko'ra umumiy istok ulanish rejimi yoki kuchlanish bo'lgich orqali belgilanadigan kuchlanish rejimlaridan farq qiladi [1]. Bunda kanalni modulyatsiya jarayoni samarali bo'ladi. Kanalning dinamik qarshiligi keskin o'sadi. Avtomatik siljishda elektr maydonining ko'ndalang hamda bo'ylama tashkil etuvchilari bilan kanalning siqilishi sodir bo'ladi. Chegaralagichning sxemasidan ko'rinadiki «kanal-istokka ulangan qarshilik» zanjiridan oquvchi I_s tok $U_R = R_T I_s$ munosabatdan aniqlanadi (R_T qarshilikka to'g'ri keluvchi kuchlanish). Berilgan U_m kuchlanishda stok tokining volt-amper chizig'idagi to'yinish rejimi R_T tashqi qarshilik qiymatiga mos keladi. Bunday stabilizator stabillash tokidan tashqari, stabllash sohasidagi qiyalik tavsifi, to'yinish kuchlanishi va buzilish kuchlanishi bilan xarakterlanadi. Maydon tranzistorida stok toki manbadan beriladigan zatvor kuchlanishi bilan boshqariladi.

Integral optika qurilmalarining ishlashining ishonchligini oshirish uchun turli xil turdagi bipolyar va maydon tranzistorlari zarurdir. Nurlatgich (generator) parametrlarini stabillash masalasi juda muhim. Istokni zatvor bilan birlashtiruvchi, stabilizatsiya toki va tashqi qarshilik orasida bog'lanish o'rnatilishi manbalar va tok chegaralovchilarni yaratilishida muhim hisoblanadi.

Stabillash tokining maksimal qiymati nolinci siljishdagi maydon tranzistorining maksimal tokiga teng. Haqiqatdan ham, o'lchash natijalaridan R_T qarshilikning nolinci qiymatida S_{st} stabillash toki maydon tranzistorining maksimal tokiga teng. Tashqi qarshilikning o'sib borishi bilan stabillash toki kamayib boradi. Masalan, 200 Om qarshilikda stabillash toki 3,45 mA bo'lib, 0,8V berkitish kuchlanishida hosil bo'ladi. Karshilikning 400 Om qiymatida tok 0,1V kuchlanishga mos keladi.

Stabillash tokining qarshilikka bog'liqligini quyidagicha tushintirish mumkin: Boshqaruvchi tashqi qarshilik maydon tranzistorining kanali bilan birgalikda, kanalni berkituvchi kuchlanish bo'lgichga o'xshashlik hosil qiladi. Natijada qarshilikka uning qiymatiga proporsional kuchlanish tushadi, va qarshilikning qiymatiga ko'ra tok boshqariladigan bo'lib qoladi. Volt-amper xarakteristikalari chiziqlarining mos kelishini ikala rejimda ham zatvorda bir xil kuchlanish bo'lishi bilan tushintirish mumkin. $p-n$ – o'tishning bir tomoni yuqori legirlangan bo'lsa (masalan, p -yarim o'tkazgichda $p-n$ o'tishni $p^+ - n - o'tish$ deb yuritiladi) n – yarim o'tkazgich qismiga juda ko'p teshiklar in'eksiyalanadi. Bu holda diffuzion, uzluksiz

va Puasson tenglamalari orqali elektron-teshik o'tishning volt – amper xarakteristikasini olish mumkin. Lekin bu tenglamalar sistemasi chiziqli bo'lmagani uchun ikki xil yaqinlashish metodi yordamida echiladi. Bu yaqinlashish metodlari “maydon”li va “diffuzion” yaqinlashish deb yuritiladi. Birinchi xil yaqinlashishda p-n – o'tishdagi tashqi elektr maydoni ta'sirida vujudga keladigan elektr toki ham hisobga olinadi. Bu holda diffuzion, uzluksizlik va Puassonn tenglamalaridan

$$\frac{d^2 p}{dx^2} + \frac{\varepsilon}{2kT} \frac{d}{dx} \left(E \frac{dE}{dx} \right) + \frac{eN}{2kT} \frac{dE}{dx} - \frac{p}{L_p^2} = 0 \quad (1)$$

Ko'rinishdagi tenglamani olamiz. Agar $\frac{d^2 p}{dx^2}$ ni tenglamadagi boshqa hadlarga qaraganda kichik deb qarajak, (1) quyidagicha yoziladi:

$$\frac{\varepsilon}{2kT} \frac{d}{dx} \left(E \frac{dE}{dx} \right) + \frac{eN}{2kT} \frac{dE}{dx} - \frac{p}{L_p^2} = 0 \quad (2)$$

Bu tenglamaning chap tomonidagi hadlarning ikkinchisi yoki birinchisini boshqa hadlarga nisbatan katta deb qarab $j \sim V^2$ yoki $j \sim V^3$ proporsionallikni olishimiz mumkin [2].

Ma'lumki stok tokining to'yinish sohasida uning zatvor kuchlanishiga bog'liqligi darajali funksiya bo'lib, quyidagi munosabat bilan aniqlanadi [3].

$$I_S = I_{S \max} \left(1 - \frac{U_Z}{U_Q} \right)^m \quad (3)$$

Bunda $U_{ZH} = U_R = I_S R_T$ ekanligini inobatga olib stabillash tokining, istok va zatvorning chiqishlarini birlashtiruvchi tashqi qarshilikka bog'liqligini aniqlash mumkin. U_Z -zatvor kuchlanishi, U_Q -kanal qirqimidagi kuchlanish.

$$R_T = \frac{U_Q}{I_S} \left(1 - \sqrt[m]{\frac{I_S}{I_{S \max}}} \right) \quad (4)$$

$p-n$ o'tish bilan boshqariluvchi maydon tranzistorlarining olinish texnologiyasiga bog'liq ravishda m 1,5 dan 2,2 gacha qiymatlarni qabul qilishi mumkin.

Qaralayotgan maydon tranzistori uchun m daraja ko'rsatkichi $\ln \frac{1}{R}$ va $\ln I$ orasidagi bog'lanishdan baholanadi. Mazkur maydon tranzistori uchun stokning maksimal tokida (6,31 mA) $m=1,84$. Bunday bog'lanish kvadratik munosabatga yaqindir. Mos ravishda, o'rnatiladigan stablizatsiya toki uchun olingan munosabatdan talab qilinadigan tashqi qarshilik qiymatini aniqlash mumkin. Tokning kuchlanishga kvadratik bog'lanishi ta'savvurida olingan hisoblashlar, tashqi qarshilikning stabillash tokiga bog'liqligi bo'yicha olingan eksperimental natijalarga yaxshi mos keladi.

Maydon tranzistorining stok xarakteristikasini tadqiq qilishda istok va zatvor chiqishlarini birlashtiruvchi tashqi qarshilik bilan stabillash toki orasida munosabat aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 3. Игумнов Д.В., Громов И.С. Эксплуатационные параметры и особенности применения полевых транзисторов. – М.: Радио и связь, 1981. Kamanov B. M., Kodirov O. G. Features amplifying properties of a field effect transistor in the circuit with dynamic load //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2023. – С. 93-98.
2. Джураев Д. Р., Тураев А. А. МАЙДОН ТРАНЗИСТОРЛАРИ АСОСИЙ ПАРАМЕТРЛАРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ОСОБЕННОСТИ КЛЮЧЕВЫХ ПАРАМЕТРОВ ПОЛЕВЫХ ТРАНЗИСТОРОВ FEATURES OF KEY PARAMETERS OF FIELD TRANSISTORS.
3. Тураев А. А. Исследование биполярного транзистора в качестве датчика температуры.
4. Rakhmatov A. Z. et al. Research the drain characteristics of field-effect transistor as current limiter; Issledovanie stokovykh kharakteristik polevogo tranzistora v kachestve ogranichitelya toka. – 2010.
5. Тураев А. А. Термочувствительный параметр полевого транзистора в режиме ограничения токов //Научный альманах. – 2019. – №. 2-2. – С. 81-84.
6. Karimov A. V., Djurayev D. R., Turaev A. A. Physical-technological aspects of a multifunctional sensor based on a field-effect transistor //World Journal of Engineering Research and//Technology. – 2017. – Т. 3. – №. 2. – С. 57.
7. Тураев А. А., Жураев А. Р. Модуль приема оптических сигналов с входным каскадом на полевом фототранзисторе : дис. – Сумский государственный университет, 2016.
8. Абдулхаев О. А. и др. Особенности температурных свойств полевого транзистора в режиме ограничения токов //Инженерно-физический журнал. – 2013. – Т. 86. – №. 1. – С. 232-237.
9. Abdulkhaev O. A. et al. The optical signal transfer and reception modules via atmosphere. – 2011.
10. Karimov A. V. et al. (2011) //Some features of the field-effect transistor current limiter. Technology and design in electronic equipment.
11. Тураев А. А. Стоковая, вольтамперные характеристики полевого транзистора //Информационные и инновационные технологии в науке и образовании. – 2020. – С. 666-669.
12. Karimov A. V., Djuraev D. R., Turaev A. A. Investigation temperature sensitivity of the field-effect transistor in channel depletion mode //Journal of Scientific and Engineering Research. – 2017. – Т. 4. – №. 2. – С. 1-4.
13. Тураев А. А., Ахтамов Б. Р. Основные критерии параметров полевого транзистора для многофункционального датчика //Наука без границ. – 2017. – №. 6 (11). – С. 99-103.

- 14.Каримов А. В. и др. Особенности температурной чувствительности транзисторной структуры в двухполюсном режиме измерения //Инженерно-физический журнал. – 2016. – Т. 89. – №. 2. – С. 497-500.
- 15.Каримов А. В. и др. Особенности усилительных свойств полевого транзистора в схеме с динамической нагрузкой //Журнал фізики та інженерії поверхні. – 2015. – Т. 13. – №. 1. – С. 12-16.
- 16.Тураев А. А., Хайдаров Р. М., Хожиєв Ж. Ж. Фотовольтаический эффект в диодном режиме включения полевого транзистора //Молодой ученый. – 2015. – №. 23. – С. 40-43.
- 17.Juraev D. R., Nazarova M., Turaev A. The atmospheric optical communication link of new generation. – 2010.
- 18.Turayev A. A., Namrayev J. H. Researching of the influence of mechanical stresses on magneto-optical properties of iron borate crystal //Global Scientific Review. – 2022. – Т. 10. – С. 82-85.
- 19.Atayevich T. A. et al. Properties of the Most Important Semiconductors //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 8. – С. 44-48.
- 20.Тураев А. А. ФИЗИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ДАТЧИКА НА ПОЛЕВОМ ТРАНЗИСТОРЕ //Национальная ассоциация ученых. – 2020. – №. 57-1 (57). – С. 56-59.
- 21.Джураев Д. Р., Тураев А. А. ТЕМПЕРАТУРНАЯ ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТЬ ТРАНЗИСТОРНОЙ СТРУКТУРЫ В ДВУХПОЛЮСНОМ РЕЖИМЕ //ҚАЙТА ТИКЛАНУВЧИ ЭНЕРГИЯ МАНБАЛАРИ ВА БАРҚАРОП АТРОФ МУЎХИТНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ. – С. 92.

EMOTIONAL-EKSPRESSIV TAHLIL UCHUN QO'LLANILISHI KERAK BO'LGAN ALGORITMLAR, VOSITALAR YOKI USULLAR TAHLILI.

S.S.Safoyev

BuxDU, magistranti s.s.safoyev@buxdu.uz

Annotatsiya: Emotsional-ekspressiv tahlil, ya'ni hissiy tahlil, inson his-tuyg'ularini aniqlash va tahlil qilish jarayonidir. Bu jarayon uchun ishlatiladigan algoritmlar, vositalar va usullar turli sohalarda, jumladan, marketing, ta'lim va sanoatda keng qo'llaniladi. Hozirgi kunda hissiy tahlil uchun ishlatiladigan eng mashhur algoritmlar orasida Tabiiy Tilni Qayta ishlash (Natural Language Processing - NLP) algoritmlari, Mashinani O'rganish (Machine Learning - ML) modellari va Chuqur O'rganish (Deep Learning - DL) tizimlari mavjud. NLP algoritmlari matn ma'lumotlarini tahlil qilishda, ML modellari esa o'quv ma'lumotlar to'plamlaridan na'munalalar va bog'liqliklarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. DL tizimlari, ayniqsa, rekurrent neyron tarmoqlari va BERT kabi modellardan foydalanib, hissiy tahlilning aniqligini oshirishda foydalaniladi. Lexicon asosidagi yondashuvlar, hissiy lug'atlar yordamida, tahlil natijalariga

qo'shimcha kontekst beradi. Shuningdek, hissiy tahlil texnologiyalari ijtimoiy media hissiyatlarini, forumlar yoki chat xonalarini kuzatishdan tortib, o'quvchilarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish va ma'lumotlar tahlilidan na'munalar topishgacha bo'lgan ilovalarda keng qo'llaniladi. NLP texnologiyalarining doimiy rivojlanishi hissiy tahlilning haqiqiyli va aniqligini yanada yaxshilashga hissa qo'shadi. Yangi texnologiyalar, masalan, transfer o'rganish va kontekstual kodlashlar, hissiy tahlil imkoniyatlarini yanada kengaytirishda davom etmoqda.

Kalit so'zlar: model, TF-IDF (Term Frequency-Inverse Document Frequency), qarorlar daraxti, SVM algoritmi, LSTM va CNN

Tuyg'ularni tahlil qilish haqiqatan ham tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasidagi asosiy dasturdir. Bu matnda ifodalangan his-tuyg'ularni ijobiy, salbiy yoki neytral sifatida avtomatik ravishda tasniflashni o'z ichiga oladi.(Žunić et al., 2020) Tadqiqotchilar hissiyotlarni tahlil qilish uchun turli yondashuvlarni ishlab chiqdilar, jumladan an'anaviy mashinani o'rganish usullari va ilg'or chuqur o'rganish modellari.

Tuyg'ularni tahlil qilishda ba'zi muhim yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Mashinani o'rganishning an'anaviy modellari: Ushbu modellar his-tuyg'ularni tasniflash uchun so'zlar sumkasi, TF-IDF yoki n-gramm kabi xususiyatlardan foydalanadi. Umumiy algoritmlarga logistik regressiya, vektorli mashinalarni qo'llab-quvvatlash (SVM) va qarorlar daraxtlari kiradi.

Chuqur o'rganish modellari: Ushbu modellar takrorlanuvchi neyron tarmoqlari (RNN), uzoq qisqa muddatli xotira (LSTM) tarmoqlari va konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN) kabi neyron tarmoqlardan murakkab til naqshlari va matndagi kontekstual nuanslarni qo'lga kiritish uchun foydalanadi.

Transformatorlar: BERT (Transformatorlardan ikki tomonlama kodlovchi vakilliklari) va uning variantlari kabi modellar NLPda inqilob qildi. Transformatorlar so'zlarning chuqur kontekstli tasvirlarini ta'minlaydi, hissiyotlarni tahlil qilish modellarining aniqligi va mustahkamligini oshiradi.

Ushbu yondashuvlar tadqiqotchilar va amaliyotchilarga matn ma'lumotlaridan hissiy ohanglar yoki munosabatlarni ajratib olish va his-tuyg'ularni aniq tasniflash imkonini beradi.(Peters et al., 2018) Tuyg'u tahlili keng ko'lamli ilovalarga ega, jumladan, ijtimoiy media monitoringi, mijozlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish va brend obro'sini boshqarish.

Chuqur ikki tomonlama til modellaridan (biLM) o'rganilganlar kabi chuqur kontekstli so'z ko'rinishlaridan foydalanish NLP va hissiyotlarni tahlil qilishda inqilob qildi. Ushbu yondashuv turli senariylarda so'zlarning konteksti va ma'nosini tushunadigan modellarni tayyorlash uchun keng ko'lamli matn korpusidan foydalanishni o'z ichiga oladi. So'zlar va iboralarning atrofdagi kontekst bilan o'zaro ta'sirini o'rganish orqali ushbu modellar matn ma'lumotlarida ifodalangan his-tuyg'ularni yaxshiroq talqin qilishlari mumkin.

Masalan, Peters va boshqalar tomonidan taqdim etilgan ELMo (Til modellaridan o'rnatish) kabi modellar. (Peters et al., 2018) kontekstli so'zlarni joylashtirishni yaratish uchun chuqur ikki yo'nalishli LSTM tarmoqlaridan

foydalanadi. Bu modelga murakkab lingvistik xususiyatlarni olish imkonini beradi, hissiyotlarni tasniflashning aniqligini oshiradi.

Sog'liqni saqlash nuqtai nazaridan his-tuyg'ularni tahlil qilish, ayniqsa, bemorlarning fikr-mulohazalarini, ijtimoiy media muhokamalarini va onlayn sharhlarni tahlil qilish uchun foydali bo'lishi mumkin. Tibbiyot mutaxassisleri va tashkilotlar sog'liqni saqlash bilan bog'liq kontentdagi ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ularni aniqlash orqali bemorlarning qoniqishi haqida tushunchaga ega bo'lishlari, muloqotni yaxshilashlari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishlari mumkin.

Xiao va yana bir guruh tadqiqotchilar esa Shredinger tenglamasini yechishda chastotaviy vaqt kvant mexanikasi kasr hosilalari asosida (FTQM) kvant dinamikasining vaqt evolyutsiyasini tavsiflash usuli yordamida yechishgan[5]. Har qanday potentsial uchun biz kvant fizikasining asosiy qonunlariga mos keladigan kasr vaqtli kvant tizimlarini tasvirlash uchun modellashtirish usulini qo'lga kiritamiz, bu esa kasr vaqt effektlarini tabiiy ravishda kvant mexanikasiga kiradi. Usul faqat boshlang'ich holatlardan foydalaniladi, odatda butun son hosilalarini kasr bilan to'g'ridan-to'g'ri almashtirish yoki standart modellarni parallel ravishda kiritishga asoslanmagan. Jarayonda ushbu usul bo'yicha tadqiqotlarni chalkashtirib yuboradigan uchta ochiq muammo hal qilingan: Muhim kvantlash usuli nima? Fizik ahamiyatga ega bo'lgan holda Gamiltonianning kasr vaqti qanday ifodalanadi? Ko'pgina asosiy kvant fizikasi qonunlari uchun FTQM ning joriy modellari buzilishidan qanday qochish mumkin? Fazali o'tishlar ba'zi klassik fizik effektlar va hodisalarni keltirib chiqaradi: (1) energiya darajalari bilan to'ldirilgan energiya bo'shliqlari; (2) zarrachalar orbitalarining ortishi; (3) birinchi bo'lib FTQMda topilgan kvant mexanikasining dolzarb masalalar; (4) energiya darajasini to'ldirish nuqtai nazaridan diskret energiya darajalarining yangi izohi.

Asosiy natijalarni yetti qismga bo'lish mumkin:

(a) Feynman yo'li integrali va to'lqin mexanikasi asosida fraksiyonel vaqt kvantlash taqdim etilgan. Bu ish Feynman Path Integrali va to'lqinlar mexanikasiga qaraganda kuchliroq qo'llanilishi mumkin.

(b) Fizik ahamiyatga ega bo'lgan qismli vaqt Gamiltonian taqdim etilgan va zaif Gamilton operatori taqdim etilgan.

(c) kasr vaqt energiyasining muvofiqligi ko'rsatilgan.

(d) Shredingerning kasr vaqt tenglamasi berilgan.

(e) Bor yozish printsipi ko'rsatilgan.

(f) energiya-vaqt noaniqlik munosabati berilgan

(g) Bu tenglama va usul avvalgi modellar va usullar buzgan yuqoridagi barcha asosiy kvant fizikasi qonunlariga mos kelishini tekshilgan va natijalar ijobiy.

Abdul-Majid Wazwaz anomal va dispersiv rejimlarda birlashtirilgan chiziqli bo'lmagan Schrödinger (CNLS) tenglamalari uchun optik yorqin va qorong'i soliton yechimlarini o'rgangan[6]. Turli xil turdagi yorqin va qorong'i optik soliton uchun Shredinger tenglamasi yechimlarini olish uchun variatsion iteratsiya usulidan foydalanilgan. Bu metod hech qanday jismoniy cheklovlarsiz yoki chiziqli bo'lmagan muammoni o'zgartirmasdan tez konvergent qatorda yechim beradi. Taqdim etilgan tahlil chiziqli bo'lmagan evolyutsiya tenglamalarini boshqarishda ushbu usulning tegishli xususiyatlarini ko'rsatadi. Bunday masalalarni yechishda shu usul qulayroqligi ta'kidlangan va o'zini oqlagan.

Xulosa qilib aytganda, Shredinger tenglamasi kvant mexanikasi uchun asosiy tenglama hisoblanib uning o'rni klassik mexanikadagi Nyutonning ikkinchi qonuning analogiyasidek qabul qilingan. Bu tenglama Avstraliyalik olim Ervin Shredinger tomonidan eksperimental ravishda kiritilib ko'pchilik olimlar tomonidan tadqiqotlarda ijobiy natijalar olingandan so'ng tan olingan. Shredinger tenglamasini yechishning ko'pgina usullari bor.

Adabiyotlar tahlilida bir qancha maqolalarda bugungi kun olimlarining Shredinger tenglamasining yechilishining bir qancha usullardan foydalanganlari tahlil qilingan. Masalan Yin Yang boshchiligidagi olimlar kasrli statsionar Shredinger tenglamasining asosiy holatini hisoblashning raqamli usuliga e'tibor qaratilgan. Maqolada faqat bir o'lchovli Shredinger tenglamasi ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, ular olgan natijalar to'g'ridan-to'g'ri ko'p o'lchovli Shredinger tenglamasiga ham tadbiiq qilish mumkin.

Xiao Zhanga boshchiligidagi guruh ham Shredinger tenglamasini yechishda chastotaviy vaqt kvant mexanikasi kasr hosilalari asosida (FTQM) kvant dinamikasining vaqt evolyutsiyasini tavsiflash usuli yordamida yechishgan. Bu tadqiqotni olib borilayotganda "kasr tartibli hosilani Shredinger tenglamasiga qo'llash mumkinmi? Agar qo'llanilsa kvant mexanikasi qonunlari qay shaklda bo'ladi?" degan savollarga javob qidirishga harakat qilishgan. Xulosa natijalari tenglama va usul bundan oldingi modellar va usullar buzgan barcha asosiy kvant fizikasi qonunlariga mos kelishini tekshirgan va natijalar ijobiy baholangan.

Abdul-Majid Wazwaz anomal va dispersiv rejimlarda birlashtirilgan chiziqli bo'lmagan Shredinger tenglamalari uchun optik yorqin va qorong'i soliton yechimlarini o'rgangan. Bu usul hech qanday cheklovlarsiz yoki chiziqli bo'lmagan muammoni o'zgartirmasdan tez konvergent qatorda yechim beradi. Bu usullar ichidan men Abdul-Majid Wazwaz qo'llagan usulning oson va xatoligi kamroq deb

topdim va kelajakda shu usulni yaxshiroq o'rganib shu usuldan foydalanib statsionar holatdagi Shredinger tenglamasini yechmoqchiman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.sciencedirect.com>
2. Давыдов А.С. “Квантовая механика”. – Москва: Наука, 1973. -66-71 с
3. David J.Griffith “Quantum mechanics”. – Reed college, 1995. -1-2,121-122 p
4. Yin Yang, Xueyang Li, Aiguo Xiao. Fourier pseudospectral method for fractional stationary Schrödinger equation at Xiangtan University, Applied Numerical Mathematics (2021)
5. Xiao Zhang, Bo Yang, Chaozhen Wei, Maokang Luo. Quantization method and Schrödinger equation of fractional time and their weak effects on Hamiltonian: Phase transitions of energy and wave functions at Sichuan University, Commun Nonlinear Sci Numer Simula (2020)
6. Abdul-Majid Wazwaz. Optical bright and dark soliton solutions for coupled nonlinear Schrödinger (CNLS) equations by the variational iteration method at Saint Xavier University in Chicago, Optik (2020)

AZOLLA CAROLINIANA.WILLD. КУЛЬТИВИРОВАНИЕ ВЫСШИЕ ВОДНЫЕ РАСТЕНИЕ АЗОЛЛА И ПРИМЕНЕНИЕ В РАЗНЫХ ОТРАСЛЯХ

Ф.К.Шодмонов,

*Бухарского государственного университета,
факультет Агрономия и биотехнология,*

кафедра Биотехнология и пищевая безопасность доцент б.ф.ф.д(PhD)

Р.Б.Сарварова

*Бухарского государственного университета,
факультет Агрономия и биотехнология,*

кафедра Биотехнология и пищевая безопасность магистрант

Аннотация. При выращивании *Azolla caroliniana* (Willd.) на различных питательных средах в лабораторных условиях оценивали количество зеленой биомассы, образующейся на 1,0 м² водной поверхности.

Ключевые слова: Вода, *Azolla caroliniana* (Willdenow, 1810) продуктивность, зеленая биомасса, пищевая среда.

Введение: Наша страна отличается разнообразием растительного покрова. В настоящее время интродуцируются растения, привезенные из разных регионов земли, и происходит дальнейшее обогащение нашей флоры. В целях эффективного использования природных и интродуцированных перспективных растений изучение их биоэкологии, морфологии, биотехнологических и других полезных свойств и внедрение их в народное хозяйство являются актуальными задачами современности. В мире, в условиях изменения климата, ухудшения состояния окружающей среды и истощения природных ресурсов, обеспечение населения качественными продуктами питания является одной из первоочередных задач. В этом месте важно

обеспечить стабильность водоемов, сохранить биоразнообразие гидробионтов и повысить рыбопродуктивность современными методами. Поэтому определение гидрохимического состояния природных и искусственных водоемов и разработка эффективных биотехнологических методов их использования имеет большое научное и практическое значение. В дальнейшем, в зависимости от пищевой ценности растения, его используют в качестве дополнительного питания. Для решения этих проблем необходимо изучение морфофизиологических особенностей и продуктивности высокопитательных, быстрорастущих водных растений.

Материалы и методы исследования: В условиях интродукции в Узбекистане мы впервые разработали методы массового культивирования *A. caroliniana* Willd. подобрали оптимальные питательные среды, изучили влияние первоначальной плотности маточной культуры этого вида растения на его урожайность. Установлено, что оптимальная первоначальная плотность маточной культуры *A. caroliniana* Willd. 300-400 г сырой биомассы/м² водной поверхности. При высокой или низкой ее плотности замедляется рост и снижается урожайность.

Использование биомассы азоллы в рисоводстве является перспективным, так как по - вышается урожайность риса на 20-25% или до 60-70 ц/га (без применения азотного удобрения). Экономическая эффективность от использования азоллы в рисоводстве составила 500 тыс. сум/га в 2008 г., а при кормлении цыплят в количестве 100 голов биомассой азоллы в качестве белково витаминной и минеральной добавки в рационе птиц до 10% было сэкономлено ком - бикорма на 1851,8 сум в течение 5 мес. При этом живой вес цыплят контрольного варианта составила 1010 г, а опытного варианта – 1100 г. Кроме того, азоллу можно также успешно использовать при биологической очистке сточных вод сельскохозяйственных производств и промышленных предприятий, воды дрен, колодцев. Биомассу азоллы можно использовать в птицеводстве, рыбоводстве как белково-витаминную и минеральную добавку.

По содержанию отдельных витаминную и минеральную добавку водные и наземные кормовые растения. В ее биомассе содержится (абсолютно сухая) 3,28% сырого жира, сырой золы, 35,7-39,2% клетчатки, 2,24% кальция, 0,3% фосфора. Пестициды ДДТ, ГХГ биомассе *A. caroliniana* не обнаружены. Патогенная микрофлора в биомассе не выделено, афлотоксин не обнаружено. По результатам зоотехнического анализа альдрин, гептахлор в химико-токсикологического и микологического анализов проведено совместно с сотрудниками ГАК «Уздонмахсулот» Республики Узбекистан, можно судить в возможности использования биомассы *A. caroliniana* в качестве белково-витаминной и минеральной добавки в рацион сельскохозяйственных животных птиц и рыб.

Опыты и результаты: *Azolla caroliniana* Willd. относится к числу водных растений, распространенных в различных водоемах Бухарской области, содержит много белков и эффективно применяется в рыбоводстве для очистки водоемов. был выбран завод. *Azolla caroliniana* Willd. его истинная

родина – тропические регионы. Он был завезен в нашу страну и сейчас эффективно адаптируется в наших природных водоемах. Данное растение было размножено в лабораторных и производственных условиях с целью очистки вод Новметанского водохранилища от биогенных минералов и органических остатков и использования производимой ими зеленой биомассы в различных отраслях народного хозяйства, результаты были проанализированы.

В связи с интродукцией *A. Caroliniana* в Узбекистан и использование ее биомассы в качестве зеленого удобрения в рисоводстве и белково-витаминной и минеральной добавки в птицеводстве, рыбоводстве и при биологической очистке сточных вод в последние годы она стала встречаться во многих водоемах Ташкентской, Сырдарьинской, Кашкадарьинской, Сурхандарьинской, Хорезмской областей и в Республике Каракалпакистан. Указанные растения в некоторых странах СНГ выращивают в ботанических садах как декоративные и аквариумные. Зеленая масса растений используется как удобрения. Из биомассы эйхорнии изготавливают бумагу, получают биогаз, из биомассы пистии лечебные средства (Грудзинская, 1982; Сурова, 1982; Цирлинг, 1991; Вульф и Малеева, 1969).

В Узбекистане и за рубежом пистию телорезовидную, эйхорнию отличную и азолду Каролинскую стали широко использовать при биологической очистке сточных вод (Музафаров и др., 1982; Шоякубов и др., 1993; Шоякубов, 1993; Mukherjee et al. 1982; Chassany de Casabianca Marie Luce, 1983; Sauze, 1983, 1984; Reddy et Sutton, 1984; Sridhar, 1988; Shoyakubov et al., 1998; Шоякубов и Досметов, 2001).

Показатели	Сезон отбора проб воды			
	15	20	17	13
Температура °С	15	20	17	13
рН	7,4	7,8	7,6	7,4
Растворенный в воде кислород, O ₂ мг/л	6,7	6,8	6,7	6,6
Биохимическое потребление кислорода, O ₂ мг/л	21,0	28,0	26,0	20,3
Взвешенные вещества, мг/л	15	15	17	14,6
Сухой остаток, мг/л	5762	6143	5906	5716,6

Хлориды, мг/л	2108	2500	2162	2169,3
Сульфаты, мг/л	2115	2134	2207	2052
Аммонийный азот, мг/л	2,0	3,0	2,0	2,0
Нитриты, мг/л	0,16	0,18	0,16	0,14
Нитраты, мг/л	7,0	8,0	7,8	7,0

Таблица 1.

Сезонный гидрохимический состав вод Новметанского водохранилища Бухарской области в 2023-2024 году

Из таблицы видно, что количество минеральных и биогенных веществ в водах Новметанского водохранилища ниже, чем летом и осенью. Основной причиной этого можно объяснить большое количество осадков в весенний сезон и большой объем стока в результате агротехнических мероприятий, проводимых по смыванию соли с земельных участков, подготовленных под посадку годзы в зимний сезон.

Анализ минеральных показателей скважинной воды «Новметан» выявил следующее. Установлено, что минеральный состав пробы родниковой воды, в том числе сухого остатка - 5762 мг/л, хлоридов - до 2108 мг/л, сульфатов - до 2115 мг/л.

Кроме того, было известно, что количество растворенного кислорода в воде увеличилось до 6,8 мг/л, биохимическое потребление кислорода увеличилось до 21,0 мг/л, а рН изменился до 7,4.

Кроме того, в пробах родниковой воды выявлены изменения аммонийного азота до 2,0 мг/л, нитритов до 0,16 мг/л, нитратов - до 8,0 мг/л и фосфатов до 0,03 мг/л.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Досметов А.Т., Норбобоева Р.Б., Шоякубов У.Р., Научно-производственный центр “Ботаника” АН РУз, г.Ташкент, e-mail:botany@uzsci.net ., 2009 . 275-276 с.
2. Определитель растений Средней Азии. В 11-х т. –Ташкент: Фан, 1968 . - 2015. - С. 3-169
3. Строгонов Н.С. Практическое руководство по гидрохимии. - Москва. 1980. - 195 с.
4. Brummit R.K., Powell C.E. (1992): Authors of plant names. - Kew: Royal Botanic Gardens, P. 732
5. Эсанов Х.К. Анализ флоры Бухарского оазиса. Биол. наука. фал. докт. дис. – Ташкент, 2017. – 101 с.
6. Флора Узбекистана. 1941–1962. Editio Academiae Scientiarum UzSSR, Tashkent. Vol. 1–6 pp.
7. International Plant Names Index [Электронный ресурс].– <http://www.ipni.org>.
8. The Plant List. 2013. URL: <http://www.theplantlist.org/tpl1.1/record/gcc->

133949

9. Esanov H.K., Shodmonov F.Q., Kobilov A.M. High Plant Species Distributed in and around Dengizkul, Bukhara Region// American Journal of Plant Sciences, 2021, 12, 266-273 <https://www.scirp.org/journal/ajps>
<https://doi.org/10.4236/ajps.2021.122016>
10. Буриев С.Б., Эсанов Х.К., Шодмонов Ф.К., Размножение микроскопических водорослей и высших водных растений в водах Денгизкуль Бухарской области// "CHRONOS" Мультидисциплинарные науки Том 6 #5(55), 2021. 4-7 стр. <https://multidisciplinary.chronos-journal.ru/volume-6-issue-5-55/>
11. F. Q. Shodmonov, A. M. Kobilov, and G. A. Okilova Propagation of Chlorella Vulgaris and Scenedesmus Obliquus in Dengizkul Lake and determination of protein content in them, E3S Web of Conferences 420, 09012 (2023) EBWFF 2023 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202342009012>
12. Feruzjon Shodmonov, Dilbar Ruzibaeva, Gauhar Allamuratova, Tulqin Abdurayimov, Shukhrat Abdurasulov Determining the alga flora of Dengizkul Lake and breeding promising species in laboratory
13. Conditions // E3S Web of Conferences 421, 01003 (2023) SERBEMA-2023. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202342101003>

KOMPYUTER DASTURIY VOSITALARI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BILISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*E.R.Teshayeva,
BuxDU, Amaliy matematika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
e.r.teshayeva@buxdu.uz*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kompetensiyalarini innovatsion dasturiy vositalar orqali shakllantirish va rivojlantirish, axborot texnologiyalari, internet manbalar va dasturiy vositalardan ta'lim jarayonida oqilona foydalanish metodikasini amaliyotga joriy etish bo'yicha bugungi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlar va mualliflar tomonidan taklif etilgan tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** kompetensiya, dasturiy vositalar, axborot texnologiyalari, internet manbalar, maktabgacha ta'lim, innovatsiya, lingvistika, naturalizm, subekt, masofaviy ta'lim, tajriba sinov, kontent, multimedia.*

Hozirgi kunda aqlan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish, har tomonlama rivojlangan shaxs etib tarbiyalash, voyaga yetkazish maqsadida yurtimizda bir qator say harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu borada respublikamizda oxirgi besh yillikda ta'limning ilk bo'yig'ini bo'lmish maktabgacha ta'lim tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu maqolada, Kompyuter dasturiy vositalari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni bilish kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish, axborot texnologiyalari, internet manbalar va dasturiy vositalardan ta'lim jarayonida oqilona foydalanish metodikasini amaliyotga joriy etishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tizimida turli xil pedagogik innovatsiyalardan foydalanilmoqda. Shulardan eng xarakterli innovatsion texnologiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Dasturiy vositalar bugungi zamonaviy ta'limning innovatsion mahsulidir.

Tajriba-sinov davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv jarayonlarida dasturiy vositalardan foydalanish ko'rsatkishlari va samaradorlik natijalari o'rganildi. Tajriba-sinov ishlarida yuzga yaqin tarbiyachilar o'rtasida so'rovnomalar tarqatilib, bu so'rovnomalar orqali MTTlarda tarbiyachilar dasturiy vositalardan qay darajada foydalanayotganligi, dasturiy vositalardan foydalana olish kompetensiyasi, mashg'ulot jarayonlariga mos keladigan dasturiy vositalarning mavjudligi va dasturiy vositalarning maktabgacha ta'lim tizimida bolaning kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli qay darajada ekanligini o'rgandik.

Bundan tashqari, multimediali kompyuter texnologiyasida izchillik, ketma-ketlik va yoshiga moslik tamoyillari ham amalga oshiriladi. Kompyuterli multimedia dasturlarini tayyorlashda albatta tibbiy ko'rsatmalarga rioya qilingan holda 3-4, 4-5 yoshli bolalar uchun video roliklar davomiyligi 10-15 daqiqadan oshmasligi, 5-7 yoshli bolalar uchun esa 15-20 daqiqadan oshmasligi inobatga olinadi. Bola 15 daqiqa davomida mavzuni o'zlashtirgandan so'ng 10 daqiqalik tanaffus qiladi va yana 10-15 daqiqali mavzuni mustahkamlash mashqlaridan foydalanishi mumkin. Qolaversa bolalar zamonaviy multimediali dasturlardan kompyuter savodxonligiga ega bo'lgandan so'ng mustaqil ravishda foydalanib o'z bilimlarini oshirishlari mumkin. Bu jarayon bola istagan vaqtda bola xohishi bilan amalga oshiriladi. Ushbu holat har bir bolaning individual intellektual salohiyatining rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Zamonaviy kompyuterli animatsion mukammal dasturiy vositalardan foydalanish, uchinchi relyesans bolasining zamon talablariga mos ravishda bilim olishiga, mustaqil fikrining shakllanishiga, tafakkur doirasining ortishiga, kompyuter savodxonligiga ega bo'lishiga, aqliy salohiyatning yuksalishiga xizmat qiluvchi zamonaviy vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son qarori.// lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son qarori. 1-ilova 6-bandi.// lex.uz
3. Abdukodprov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubi (o'quv-uslubiy qo'llanma). - Qarshi: Nasaf, 2011. - 257 b.
4. Begmatova N. Bog'cha bolalarida multimedia texnologiyasi tushunchalarini shakllantirish // Xalq ta'limi. - Toshkent. 2010. - № 2. - B. 76-81.
5. Anisimova N.S. Teoreticheskiye osnovi i metodologiya ispolzovaniya multimediyax texnologiy v obucheniye. Diss...kand. ped. nauk. -Sankt-Peterburg. 2002. - 330 s.
6. Smolyannova O.G. Metodicheskiye aspekti ispolzovaniya multimedia texnologiy v podgotovke uchiteley informatiki. <http://www.btic.m/ciie99M'cv3tiia2 lja.html>
7. Makarichov P.P., Sarvilena I.Yu. Funkcionalnaya model prosessa kompyuternogo obucheniya -Penza,- 2004. - 156 s.
8. Novosel'sev S. Multimedia - sintez trex stixiy // Kompyuter Press, № 7. -1998. - 200 s.
9. Nurakova L.S. Problemi informatizasi doshkolnogo obrazovaniya // Informatika i obrazovaniye. 1990. - № 1. - S. 25-28.
10. Starodubsev V.A. Kompyuterniye i multimediyax texnologii v yestestvenno nauchnom obrazovani. - Tomsk: Deltoplan. 2002. - 224 s.
11. Aripov M. Informatika va axborot texnologiyasi asoslari. - T.: Universitet, 2001.-361 b.
12. Rashidov X., Xabib X., Yeldasheva G., Zakirov A. Kasbiy pedagogika blokini o'qitish metodikasi. - T., 2007. - 200 b.
13. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi—T.: O'qituvchi, 2003. - 257 b
14. Voronova Ye.Ye. Mulipmedenniye prezentasii kak sredstva naglyadnosti v obucheni detey s narusheniyami zreniya.
15. <http://www.aipchankafaVipetsk.m>
16. Savnna L.A. Ispolzovaniye multimedia - sred dlya razvitiya u doshkolnikov oriyentatsii v mnogomernix prostranstvax. <http://www.ito.su/2001/ito^I/II-1-34.html>
17. Frolova N.Z. Multimediyax texnologii na zanyatiyax po informatike s detmi doshkolnogo vozrasta. [http:// do. gendocs .m/docs, index -265841.html](http://do.gendocs.m/docs,index-265841.html)
18. Osmakova M.V. Multimediyax prezentasii v obucheni doshkolnikov. <http://stoscliet.ucoz>
19. Orobinskaya A.N. Multimedia texnologii i ix ispolzovaniye v sisteme doshkolnogo obucheniya. <https://cyberleninka.ru/article/n/multimedia-tehnologii-i-ih-ispolzovanie-v-sisteme-doshkolnogo-obucheniya>. ilmiy maqola.
20. T.V. Krotova, Yu.A. Dmitriyev, T.V. Kalinina. Multimediyax texnologii v sovremennom doshkolnom obrazovani. <https://cyberleninka.ru/article/n/multimediyax-tehnologii-v-sovremennom-doshkolnom-obrazovani/viewer> ilmiy maqola..

21. Zulfitrah ZR. The Use of Multimedia Technology in Early Childhood Literacy. <https://www.atlantis-press.com>.

22. Athanasios D, Georgia K, Miltiadis D.L. Mobile and multimedia learning in preschool education.

QAT'YIY VOLTERRA BO'LMAGAN DINAMIK SISTEMANING DINAMIKASI HAQIDA

N.Sh. Boboxo 'jayeva

BuxDU, Matematika mutaxassisligi 2- bosqich magistranti

n.sh.boboxujayeva@buxdu.uz

Tirik mavjudotlarning rivojlanishi har xil jarayonlarda turli yo'llar bilan namoyon bo'ladi. Bunda tug'ilish, o'sish, individuallik, individlarning o'limi, tashqi muhit va shu kabilar ta'sir qiladi. Shu holatlar inobat olinib biologik populyatsiyaning matematik modeli quriladi.

Populyatsiyaviy dinamika matematik biologiyaning qismi bo'lib, o'z vaqtida, populyatsiyaning holatini aniqlashga qaratilgan maydon hisoblanadi. Chunki, har bir jarayon matematik modellashtirilsa, ushbu modellashtirish o'rganilayotgan jarayon haqida to'liq ma'lumot olishga, uning dinamikasi, kelajakdagi holati haqida xulosa chiqarishga imkoniyat beradi.

Haqiqiy populyatsiyalarda ko'payish va o'lim darajasi turli guruhlarda turlicha bo'ladi. Masalan, hasharotlar tuxum qo'yadi va dushmanlari lichinkalarni o'ldirib yuboradi, bundan tashqari, ularga atrof-muhitdagi metabolik mahsulotlar, kannibalizm va zaharlanishlar, yosh bosqichlari va ularning intensivligi ta'sir ko'rsatadi.

O'z navbatida biologik populyatsiyaning dinamikasi tahlili ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Zararkunanda hasharotlarning ko'payishini boshqarish usullari populyatsiya strukturasi ma'lum bir disbalansni paydo qilishga qaratilgan bo'lib, ularning ko'payishini sekinlashi hamda buzilishiga olib keladi. Ushbu masalalar epidemiologiyaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Oddiy differensial tenglamalar sistemasi asosida qurilgan bu modellar boshqa juda ko'plab turlarning mavsumiy ko'payishi dinamikasini ifodalashda ijobiy (ko'payish jarayoni diskret bo'lganligi uchun) natijalar bermaydi. Ushbu turdagi jarayonlarni impulsli oddiy differensial tenglamalar sistemasi orqali ifodalangan matematik modellari eng ma'qul modellar hisoblanadi va o'rganilayotgan jarayonni haqiqiy jarayonga yaqin ifodalaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, biologiyada populyatsiya evolyutsiyasining matematik modeli kvadratik stoxastik operatorlar orqali ifodalanadi [1].

Biologik sistema evolyutsiyasi jarayonida har xil tipdagi individlarning chegaralangan taqsimotini topish muammosi kvadratik stoxastik operatorning asimptotik xususiyatlarini o'rganilishiga tengdir. Bundan tashqari, kvadratik stoxastik operatorlar nazariyasida oddiy va nostandart masalalar hamda yechilmagan masalalarning ko'pligi matematik nuqtai-nazardan katta qiziqish uyg'otadi.

Operatorlarning nohiziqi, trayektoriyalarni o'rganishda murakkab va qiyin hisoblashlar mavjudligi, analitik yechimlarni topish usullari keng rivojlanmaganligi va kvadratik operatorlarni o'rganishda ko'p sonli hisoblashlarni o'tkazish zarurati borligi bu turdagi masalalarni yechishda qiziqish uyg'otmadi. Lekin, kompyuterlarning paydo bo'lishi natijasida kvadratik stoxastik operatorlarning trayektoriyalarining holatini o'rganish muammosiga qiziqishni qayta tiklandi. Ulam va hamkasblari kompyuterlar orqali kvadratik operatorlarni o'rganish borasida yetarlicha ko'p hisoblashlarni amalga oshirdilar.

Ushbu maqolada [2] ilmiy ishda o'rganilgan qat'iy volterra bo'lmagan diskret vaqtli dinamik sistemaning xususiy holini uzluksiz vaqtli analogi o'rganiladi. U.A.Rozikov va U.U.Jamilovlarning ilmiy izlanishlarida o'rganilgan kvadratik stoxastik operatorning uzluksiz vaqtli analogi (umumiy holda) quyidagi ko'rinishda

$$\text{bo'ladi: } \begin{cases} \dot{x}_1 = \alpha x_2^2 + cx_3^2 + 2x_2x_3 - x_1 = f_1(x_1, x_2, x_3), \\ \dot{x}_2 = ax_1^2 + dx_3^2 + 2x_1x_3 - x_2 = f_2(x_1, x_2, x_3), \\ \dot{x}_3 = bx_1^2 + \beta x_2^2 + 2x_1x_2 - x_3 = f_3(x_1, x_2, x_3). \end{cases} \quad (1)$$

Biz ushbu maqolada parametrlar va izlanayotgan yechimning quyidagi

$$x_1(t) + x_2(t) + x_3(t) = 1, \quad (2)$$

$$\alpha, \beta, a, b, c, d > 0, \quad \beta = b = c = 1/2 \quad (3)$$

shartlarni qanoatlantiradigan holini o'rganamiz.

Asosiy masala. (1) sistemani qo'zg'almas nuqtalari, sonli yechimlarini izlash, fazali portretini chizish, olingan natijalarni tahlil qilish.

Parametrlari (3) shartni qanoatlantiruvchi (1) sistema quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = 0.5x_3^2 + 2x_2x_3 - x_1, \\ \dot{x}_2 = 0.5x_3^2 + 2x_1x_3 - x_2, \\ \dot{x}_3 = x_1^2 + x_2^2 + 2x_1x_2 - x_3. \end{cases} \quad (4)$$

Qulaylik uchun funksiyalarning argumentlarini tashlab yuboramiz.

Ta'rif. $f(x^*(t)) = 0$ ni qanoatlantruvchi fazali fazoning nuqtalari (1) sistemaning qo'zg'almas nuqtalari deb aytiladi. Ravshanki, $x^*(t)$ – ning o'zi ham (1) tenglamaning yechimi bo'ladi, chunki $\dot{x}^*(t) = 0$.

(4) sistemaning yagona $M(x_1^*, x_2^*, x_3^*)$ qo'zg'almas nuqtaga ega bo'lishi va qo'zg'almas nuqtaning tipi [3-5] da batafsil keltirilgan.

(4) sistemadan ko'rinib turibdiki, sistemaning birinchi qo'zg'almas nuqtasi $M_0(0,0,0)$ bo'ladi. Ushbu qo'zg'almas nuqta (4) sistema uchun o'rganilayotgan masalani shartlarini qanoatlantiradigan muvozanat holat bo'la olmaydi. $M_0(0,0,0)$ nuqta (4) sistema uchun masala shartini qanoatlantiradigan muvozanat holat bo'la olmasligi [4] maqolada uch xil usulda batafsil yoritilgan. Shundan bir usulni keltiramiz:

$x_1 + x_2 + x_3 = 0$. x_1, x_2, x_3 lar ehtimollikdan iborat ekanligi va $x_1 \geq 0, x_2 \geq 0, x_3 \geq 0$ tengsizlikni qanoatlantirishini inobatga olsak, tenglamani yechimi $x_1 = x_2 = x_3 = 0$ bo'lib, (2) shartni qanoatlantirmaydi. Demak, $X=0$ asosiy masalani yechimi bo'la olmaydi.

Xulosa. Shu o'rinda aytish joizki, masalani yechishda oshkor Runge-Kutte usulidan foydalanildi. Aytish joizki, Runge-Kutta usullari qoida tariqasida, mutlaq barqarorligining kichik atrofi tufayli qat'iy tenglamalar tizimini yechish uchun yaroqsiz. Runge-Kutta usullarining beqarorligi qisman differensial tenglamalarni sonli yechishda juda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Agar yechimlarni tahlil qiladigan bo'lsak, $t \geq 3$ dan boshlab, (4) sistemaning boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimlari $M(x_1^*, x_2^*, x_3^*)$ qo'zg'almas nuqtaga intilishi kuzatilmoqda. Shu o'rinda maqolani tayyorlashda qo'llanilgan usullar va [1-3] maqolada olingan natijalardan foydalanib, quyidagi gipotezani aytish mumkin.

Gipoteza. (4) sistemaning ayrim yechimlari turli boshlang'ich qiymatlarda $t \geq 3$ da $M(x_1^*, x_2^*, x_3^*)$ qo'zg'almas nuqtaga intiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Любич Ю.И. Математические структуры в популяционной генетике, Наукова думка, Киев, 1983.
2. Жамилов У.У., Розиков У.А. О динамике строго невольтерровских квадратичных стохастических операторов на двумерном симплексе, Математический сборник, 2009, т. 200, № 9, 81-94.
3. Rasulov X.R. Qualitative analysis of strictly non-Volterra quadratic dynamical systems with continuous time // Communications in Mathematics, 30 (2022), no. 1, pp. 239-250.
4. Rasulov X.R. Uzluksiz vaqtli qat'iy novolterra dinamik sistemasining sifatiy tahlili haqida. BuxDU Ilmiy axboroti, 2023 yil, 10-son, 34-39 b.
5. Muzaffarova M. Bitta ikki jinsli populyatsiyaning dinamikasi haqida. Bull. Inst. Math., 2024, Vol.7, №1, pp. 33-40

PYTHON DASTURLASH TILINING PANDAS KUTUBXONASI IMKONIYATLARI

N.I.Nurullayeva,

*BuxDU, "Amaliy matematika" mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
n.i.nurullayeva@buxdu.uz*

E.R.Panoyev,

Buxoro muhandislik-texnologiyasi instituti dotsenti

Hozirda raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarning asosiy bo'g'ini hisoblangan dasturlash texnologiyalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda tobora o'sib borayotgan axborot oqimi, axborot texnologiyalarining turli-tumanligi, kompyuterda yechiladigan masalalarning murakkablashuvi, ushbu texnologiyalardan foydalanuvchining oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi.

Murakkab masalalarni soda dasturlash tillari asosida yechish maqsadida Python kabi bir qator dasturlash tillari yaratildi. Python dasturlash tili ishlatish uchun oson

bo'libgina qolmay uning qator kutubxonalari asosida kerakli funksiyalarni bajara olamiz.

Kalit so'zlar: PanDas kutubxonasi, Pandalar, Python dasturlash tili, Seaborn, Matplotlib, axborot, DataFrames, Series, DataFrame.



Python dasturlash tili ilmiy ma'lumotlar uchun ko'plab vositalarni yaratgan keng jamoatchilikni birlashtirdi. Masalan, Seaborn va Matplotlib kabi ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish vositalari va NumPy kabi dasturiy ta'minot kutubxonalari mavjud. Ushbu kutubxonalardan biri ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish va tahlil qilish uchun mo'ljallangan PanDas.

PanDas ochiq manbali dasturiy ta'minoti kuchli, moslashuvchan va ishlatish uchun qulay. Pandalar tufayli Python tili nihoyat ma'lumotlarni yuklash, tekislash, manipulyatsiya qilish yoki birlashtirish uchun ishlatilishi mumkin. "Pandalar" nomi aslida bir necha davrdagi kuzatuvlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar to'plamlari uchun "Panel ma'lumotlari" atamasining qisqarishidir.

Pandalar yaratuvchilari ushbu kutubxonani har qanday dasturlash tilida eng kuchli va moslashuvchan ochiq manbali ma'lumotlarni tahlil qilish va manipulyatsiya qilish vositasiga aylantirishni rejalashtirmoqda. Ma'lumotlarni tahlil qilishdan tashqari, Pandas ma'lumotlar janjali uchun keng qo'llaniladi. Ushbu atama tuzilmagan ma'lumotlarni foydalanishga yaroqli qilish uchun o'zgartirish usullarini o'z ichiga oladi. Pandalar jadvallar, matritsalar yoki vaqt seriyalari ko'rinishigagi tuzilgan ma'lumotlarni qayta ishlashda ham ustunlik qiladi. U boshqa Python kutubxonalari bilan mos keladi.

Pandalar "DataFrames" (ma'lumot ramkalari) ga asoslanadi: ikki o'lchovli ma'lumotlar massivlari, bu yerda har bir ustun o'zgaruvchining qiymatlarini va har bir satrda har bir ustunning qiymatlari to'plamini o'z ichiga oladi. DataFrames da saqlanadigan ma'lumotlar raqamlar yoki belgilar bo'lishi mumkin. Ma'lumotlar bo'yicha olimlar va dasturchilar statik hisoblash uchun R dasturlash tilini yaxshi bilishadi va DataFrames dan ma'lumotlarni ko'rib chiqish uchun juda oddiy tarmoqlarda saqlashda foydalanadilar. Pandaning mexanizmlarni o'rganish uchun keng qo'llanilishining sababi shu.

Ushbu vosita sizga CSV yoki JSON kabi turli formatlarda ma'lumotlarni import qilish va eksport qilish imkonini beradi. Boshqa tomondan, Pandas ma'lumotlarni tozalash xususiyatlarini ham taklif qiladi.

Pandas kutubxonasi statik ma'lumotlar, SQL yoki Excel jadvallari kabi jadval ma'lumotlari, vaqt seriyalari ma'lumotlari va satr va ustun teglari bilan ixtiyoriy matritsa ma'lumotlari bilan ishlash uchun juda foydali.

Ma'lumotlarni boshqarish va tahlil qilish uchun Python dasturlash tili uchun yozilgan dasturiy kutubxona. Xususan, u raqamli jadvallar va vaqt qatorlarini boshqarish uchun ma'lumotlar tuzilmalari va operatsiyalarni taklif qiladi. BSD

litsenziyasi ostida chiqarilgan bepul dastur.

Pandas kutubxonasi afzalliklari:

- Ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish va tahlil qilish uchun tez va samarali.
- Turli fayl ob'ektlaridan ma'lumotlarni yuklash mumkin.
- Suzuvchi nuqtada yetishmayotgan ma'lumotlarni (NaN sifatida ko'rsatilgan) va suzuvchi nuqta ma'lumotlarini oson boshqarish
- Hajmi o'zgaruvchanligi: ustunlarni DataFrame va undan yuqori o'lchamli ob'ektlardan kiritish va o'chirish mumkin
- Ma'lumotlar to'plamini birlashtirish va qo'shish.
- Ma'lumotlar to'plamlarini moslashuvchan qayta shakllantirish va aylantirish
- Vaqt seriyali funksiyalarini ta'minlaydi.
- Ma'lumotlar to'plamlarida bo'lish va birlashtirish operatsiyalarini bajarish uchun funksional imkoniyatlar mavjudligi.

Pandasda ishlashning birinchi qadami uning Python papkasida o'rnatilgan yoki o'rnatilmaganligiga ishonch hosil qilishdir. Agar yo'q bo'lsa, biz uni tizimimizga pip buyrug'i yordamida o'rnatishimiz kerak: **pip install pandas**. Pandas tizimga o'rnatilgandan so'ng, kutubxonani import qilishingiz kerak: `Import pandas as pd` Pandas odatda ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish uchun ikkita ma'lumotlar tuzilmasini taqdim etadilar, ular:

- Seriya
- DataFrame

Pandas kutubxonasida arifmetik amallar. Ikki Series yoki DataFrame obyektlari o'rtasida arifmetik amallar bajarishda indekslar juda muhim rol o'ynaydi. Amallar mos tushuvchi indekslar o'rtasida bajariladi. Agar obyektarning birida mavjud indeks ikkinchisda yo'q bo'lsa natija NaN bo'ladi.

Arifmetik amallar bajarish uchun 2 ta "s1" va "s2" Series obyektlarini yaratib olamiz. $s1+s2$ amalini natijasini ko'rishimiz mumkin. s1 da mavjud c indeksi s2 da mavjud bo'lmaganligi sabab $s1+s2$ da c indeksdagi qiymat NaN bo'ldi. Yuqoridagi holat DataFramelarga ham xos. Serieslardan farqli ravishda DataFrame da qator va ustun indekslari hisobga olinadi. DataFrame da Arifmetik amallar bajarish uchun 2 ta "df1" va "df2" DataFrame obyektlarini yaratib olamiz, "df1" va "df2" obyektarini chop qilamiz. "df1" va "df2" obyektarini qo'shamiz. a va d ustunlar hamda Olcha va Anjir qatorlar ikkala DataFrame da bo'lmagani sababli yuqoridagi natija chiqdi. Yuqoridagi qo'shish amalini `add()` metodi yordamida ham bajarish mumkin. Bunda maxsus `fill_value` parametri yordamida mos tushuvchi indekslardagi NaN qiymatlarni boshqa qiymat bilan almashtirish mumkin. Bu usulda yakuniy natijada ikkala df da ham mavjud bo'lmagan indekslarda NaN qiymati qoladi.

Boshqa arifmetik amallar

`add, radd` - Qo'shish (+)

`sub, rsub` - Ayirish (-)

`div, rdiv` - Bo'lish (/)

`floordiv, rfloordiv` - Bo'lish va butun qismini olis (//)

mul, rmul - Ko'paytirish (*)
pow, rpow - Eksponenta (**)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Graphical user interfaces for Python programs” John E. Grayson
2. “Python tilida dasturlash asoslari” Axatov.A, Nazarov.F
3. [Internet manbasi] <http://kompy.info/ii-bob-pandas-kutubxonasi.html?page=2>.
4. Wolfgang Ertel. “Introduction to Artificial Intelligence”. Germany-2017.
5. Joshua Eckroth. “Python Artificial Intelligence Projects for Beginners”.Birmingham 2018.
6. Nigmatov H. “Intellectual tizimlar”. Toshkent-2019.
7. А.В. Гаврилов. Системы искусственного интеллекта. Учебное пособие, ч. 1. - Новосибирск, НГТУ, 2000. – 115 с.
8. Интеллектуальные системы и их моделирование. - М.: Наука, 1986. –с. 25-125.
9. Искусственный интеллект. Применение в интегрированных производственных системах. Под ред. Э.Кюсиака. - М.: Машиностроение, 1991. – с.40-70.
10. Искусственный интеллект. Справочник в 3-х томах. - М.: Радио и связь, 1990. – с.30-140

MALAKAVIY AMALIYOT KUNDALIK HUIJATLARINI YURITISH UCHUN VEBGA ASOSLANGAN ELEKTRON TIZIMNI ISHLAB CHIQUISH

G.Y.Buronova

BuxDU, “Axborot tizimlari va
raqamli texnologiyalar” kafedrasida dotsenti
gulnoraburonova@gmail.com


Sh.N.Habibov

BuxDU, 1- bosqich magistranti
sh.n.habibov@buxdu.uz

Har bir davlatning istiqboli ilm-fan, texnika, ta'lim taraqqiyoti bilan barkamol kadrlarni voyaga yetkazish bilan bog'liqdir. Malakaviy amaliyot bakalavr yo'nalishdagi talabalarning oliy o'quv yurtida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining izchil davomi sanalib, bakalavriyat yo'nalishi bo'yicha olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va mazkur bilim, ko'nikma, malakalarni bevosita ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash imkoniyatini beradi. Malakaviy amaliyot tashkilotlar, ta'lim muassasasida jumladan maktabdan tashqari muassasalari, mahalla, maxsus maktablar, mehribonlik uylarida, o'ringohlarda bo'lajak mutaxassislarining tashkiliy, konstruktivlash, rejalashtirish, kommunikativ tadqiq qilish kabi kasbiy va pedagogik mahoratni shakllantirishgina emas, balki ularning kasbiy xususiyati va mutaxassis shaxsiga qo'ygan talabidan kelib chiqqan holda individual va insoniy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirishga qaratilganidir. Malakaviy amaliyotning asosiy maqsadi bo'lg'usi mutaxassislarini tashkilotlar, maktabdan tashqari ta'lim

muassasalari, o'rgohlarda o'quv, tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Agar talabalar bilimlarini amaliyotda qo'llanishi, hayotga tatbiq etishni o'rgansalar va bu jarayonda nazariy xulosalarga kelsalar ularning olgan bilimlari qat'iy ishonchga aylanadi. Amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbiy-pedagogik xislatlari shakllanishida o'z-o'zini tarbiyalashning kuchayishi ko'mak beradi. Malakaviy amaliyotning birinchi kunidayoq talabalardan asosiy ijtimoiy vazifa, ya'ni har tomonlama rivojlangan yetuk insonni shakllantirish, yosh avlodni hayotga va faol mehnatga tayyorlash talab etiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, malakaviy amaliyot davrida talabalarning ishi ijodiy xarakterga bo'lishi lozim. Talabalar o'z kasbiy majburiyatlarini ijodiy bajarsa pedagogik topshiriqni hal qilishining samarali shakl va usullarini qidirsas, o'zi tanlagan kasbiga munosabati, pedagogic faoliyatga qiziqishi kasbiy mahorati oshib boradi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda malakaviy amaliyot ilg'or ish tajribalarini o'rganish maskani mahorat maktabi hisoblanadi. Elektron ta'lim tizimlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixiga, virtual o'quv muhiti tushunchasiga, o'qitishni boshqarish tizimlariga, shuningdek, intellektual ta'lim tizimlariga (ITS) bag'ishlangan ishlar tahlil qilinadi. Kompyuter texnologiyalari va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan elektron ta'lim tizimlari rivojlanishining uchta davri tasvirlangan. intellektual ta'lim tizimlarida bilimlarni taqdim etishning mavjud modellari, masalan, predikatlar hisobi, ishlab chiqarish modellari, semantik tarmoqlar va ramka modellari ham ko'rib chiqiladi.

Malakaviy amaliyotlarni hujjatlarini yuritishda bir nechta rollarni yaratish va ular o'rtasida hujjat aylanish tizimini joriy etish zarur. Quyidagi 1-rasmda malakaviy amaliyot hujjatlarini yuritish elektron tizim modeli (MAET) keltirilgan.



1-rasm. Malakaviy amaliyot hujjatlarini yuritish elektron tizim modeli

Malakaviy amaliyot elektron tizim ning to'rtta komponenti aniqlangan: domen modeli, talaba modeli, o'quv moduli, shuningdek, turli foydalanuvchi

guruhlari (amaliyot rahbari, amaliyotchi, o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari) Malakaviy amaliyot elektron tizim ning qolgan qismi bilan o'zaro aloqada bo'lgan foydalanuvchi interfeysi. Domen modeli (DM) muammolarni hal qilish uchun tushunchalar, qoidalar va strategiyalarni o'z ichiga oladi. U ba'zan kognitiv model yoki ekspert bilimlari modeli deb ataladi. O'quvchi modeli va o'quv moduli domen modeliga asoslangan. O'quv moduli o'quvchi modeli va domen modelidan ma'lumot oladi va shu ma'lumotlarga asoslanib o'qitish strategiyalari va tadbirlari haqida qaror qabul qiladi. Malakaviy amaliyot elektron tizim dagi mavzuga yo'naltirilgan va mavzudan mustaqil bo'lishi mumkin. Domenga yo'naltirilgan modellar ma'lum bir fanning mavzu sohasini tavsiflaydi, bu esa xatolarni aniqlash va vazifalarni bajarish jarayonida interaktiv yordam bilan echimlarni oqilona tahlil qilish imkonini beradi. Ular fan sohasidagi aniq muammolarni hal qilishda talabning fikrlash jarayonini modellashtirishga imkon beradi. Mavzuga yo'naltirilganlardan farqli o'laroq, mavzuga bog'liq bo'lmagan Malakaviy amaliyot elektron tizim universal tizimlar bo'lib, unda har qanday fanning predmeti tavsiflanishi mumkin. Uniwork tizimining eng samarali ishlashi uchun undan talabning universitetda o'qishning butun davri davomida foydalanish kerakligi sababli, u fan sohasining fandan mustaqil modeliga asoslanishi kerak. O'qituvchilar har qanday yangi o'quv kurslarini qo'shishlari va ularni ta'lim mazmuni bilan to'ldirishlari kerak. Biroq, mavjud bo'lgan mustaqil Malakaviy amaliyot elektron tizim talabalarning kompetentsiyalarini baholashga imkon bermaydi va shuning uchun uchinchi avlod oliy kasbiy ta'lim bo'yicha Federal davlat ta'lim standarti talablariga javob bermaydi. Shularni hisobga olgan holda, fan sohasining kompetentsiyaga yo'naltirilgan modelini ishlab chiqish dolzarbdir. Mavzudan mustaqil Malakaviy amaliyot elektron tizimni ishlab chiqish uchun tavsiflanadi, bunda didaktik birlik o'quv materialining minimal tarkibiy birligi vazifasini bajaradi, bu orqali biz o'quv materialining mantiqiy mustaqil qismini nazarda tutamiz, uning hajmi va tuzilishida tushuncha, nazariya, qonun kabi mazmun tarkibiy qismlariga mos keladi. Darajalardan birida ishlab chiqilgan "kompetentlik" tushunchasini o'z ichiga oladi. Didaktik birlik larni o'rganish tartibi bo'yicha ifodalash uchun operator modeli tasvirlangan, keyinchalik u SWI-Prolog mantiqiy dasturlash tilida amalga oshiriladi. Test topshiriqlarini sinovdan o'tgan tartibda taqdim etish talabani o'qituvchining savollariga javob bergandek, materialni ketma-ket eslab qolishga majbur qiladi. Ta'lim yutuqlari natijalarini baholash sifatini yaxshilash uchun didaktik birlik bo'yicha qo'shimcha topshiriqlarni berishga imkon beruvchi adaptiv test algoritmi ishlab chiqildi, baholash sifati shubhali. Baholash sifati shubhali bo'lishi mumkin bo'lgan ikkita holat mavjud:

1) Agar didaktik birlik uchun bir nechta topshiriqlar mavjud bo'lsa, talaba ushbu test topshiriqlariga to'g'ri va noto'g'ri javoblar beradi. Bunday holda talabaga ushbu didaktik birlik bo'yicha qo'shimcha topshiriqlar kerak.

2) Agar talaba bitta didaktik birlik yordamida topshiriqqa to'g'ri javob bersayu, lekin avval didaktik birlik dan foydalangan holda topshiriqlarga noto'g'ri javob bergan bo'lsa, bilimi birinchisini tushunish uchun zarur bo'lsa, biz u to'g'ri javobni taxmin qilgan deb taxmin qilishimiz mumkin. (birinchi turdagi xato) yoki tasodifan

oldingi didaktik birlik bo'yicha topshiriqqa noto'g'ri javob berdi, masalan, texnik xato (ikkinchi turdagi xato). Qanday bo'lmasin, unga ushbu ikkita didaktik birlik ni sinab ko'rish uchun qo'shimcha topshiriqlar berilishi kerak, bu esa ular bo'yicha talabning bilimni qayta tekshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aliev I.T. Pedagogik amaliyotni tashkil etish. –T.: —Fan va texnologiyal. – 2014. - 56 b.
2. Rozov V. K. Pedagogik amaliyot. T., - 1985. – 24 b.
3. Лазарева, О. Ю. Разработка веб-сервиса визуализации когнитивной карты предметной области для использования в интеллектуальной обучающей системе / О. Ю. Лазарева, Т. С. Грушина // Вестник МГУП имени Ивана Федорова. — 2015. — №1. — С. 123–129.
4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B..Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: «Sano-standart» 2015. 11-bet

LANDSHAFT EKOLOGIYASINING MOHIYATI

I.X.Jankabilov,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
geografiya fanlari nomzodi, dotsent,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
S.I.Abdullayev,
Qarshi davlat universiteti
geografiya fanlari nomzodi, dotsent,

Annotatsiya. Maqolada landshaft ekologiyasining tarkib topishi, rivojlanishi, ilmiy soha sifatidagi mazmuni bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Ekologiya, landshaftshnioslik, lanshft-ekologik tamoyil, landshaft, ekosistema.

СУЩНОСТЬ ЛАНДШАФТНОЙ ЭКОЛОГИИ

Аннотация. В статье рассматриваются некоторые вопросы становления ландшафтной экологии, её сущность как научно направление.

Ключевые слова: Экология, ландшафтоведение, ландшафтно-экологический принцип, ландшафт, экосистема.

THE ESSENCE OF LANDSCAPE ECOLOGY

Abstract. The article discusses some issues of the formation of landscape ecology, its essence as a scientific direction.

Keywords: Ecology, landscape science, landscape-ecological principle, landscape, ecosystem.

1922 - yilda amerikalik olim H.Barrouz geografiya insonning atrof muhit bilan aloqalarini o'rganishga o'z e'tiborini jamlashi lozim ekanligini isbot qilib bergan edi [4]. L.S.Berg V.V.Dokuchayevning ekologik tamoyillarini landshaftshunoslikda qo'llash mumkinligini ko'rsatdi. Ularning tashabbusi tufayli landshaftlarning ekologik–resurslik va muhitlik xususiyatlari tadqiq qilina boshlandi. L.G. Ramenskiyning turli yashash joylari va hayot muhitining bog'liqligi to'risidagi yer ekologiyasi, yoki ekotopologiya ta'limotni yaratdi. Uning bu kontsepsiyasi ekologiyani geografiya bilan yaqinlashtirdi [1].

XX asrning 40–yillarida ko'pgina fanlarda amaliy maqsadlarda aerofotosuratlar metodlaridan samarali foydalanila boshlandi. Jahon miqyosida aerofotosuratlar yordamida olib borilgan tadqiqotlarning metodlari va natijalarini sharhlash maqsadida nemis geografi K. Troll 1939 – yilda bu metodlarni kam o'rganilgan yerlarni kelgusida geografik tadqiqotlarning vazifalari sifatida foydalanishni taklif etadi. O'zining shu ishida K.Troll, shuningdek, mohiyatiga ko'ra “landshaft ekologiyasi (*landshaftsökologie*)” terminini ham qo'llaydi va yangi ilmiy yo'nalishga asos soldi. Pirovardida tabiiy geografiyada landshaft ekologiyasining nazariyasi taklif etildi. Dastlab K.Troll landshaft ekologiyasi “Yer yuzasining makondagi (hududiy) ekologiyasidir” deb fikr bildirgan edi. “Yer yuzasining makondagi ekologiyasi” bo'lgan landshaft ekologiyasi terminini qo'llaganda K.Troll landshaftlarning tashqi qiyofasini, ularning hududiy taqsimlanishini va ularda kechadigan jarayonlarni yaxlit holda qamrab olishi zarur ekanligini nazarda tutgan [3]. Keyinroq K.Troll (1963) tabiiy hodisalarning o'zaro ta'sirini o'rganish maqsadida Yer yuzasining hududiy tabaqalashuvini hamda ekologik sistema sifatida o'rganadigan muayyan ekotopda hodisalarning o'zaro ta'sirini tadqiq qilish landshaft ekologiyaning vazifalaridan biri, deb hisoblaydi. Uning fikricha, landshaft ekologiyasi “landshaftning muayyan qismidagi tirik turkumlar va ularning muhiti orasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq bo'lgan asosiy komplekslarni o'rganish bilan shug'ullanishi lozim” (Troll, 1972). Umumiyroq qilib aytganda, landshaft ekologiyaning asosiy vazifasi hudud bo'yicha ekologik o'zgarishlarni funktsional tahlil qilishdan iborat bo'lib, uning ob'yektini Yer yuzasidagi tabaqalashuvni ifodalaydigan tabiiy–hududiy komplekslar (landshaftlar) hamda muayyan tabiiy–hududiy kompleksni band etgan senozlar va ekotoplar tashkil etadi (K.Troll, 1963)..

Landshaft ekologiyasi K.Toll talqinida landshaftshunoslikka juda yaqin turadi, faqat landshaftlarning ekologik xossalari va funksiyalarini o'rganishga yo'naltirilganligi bilan farq qiladi. U geografiyaga teran ekologik bilimlar, ekologiya esa o'z navbatida - hayotiy uyushmalarning hududiy tabaqalashuviga va ularning kartasini tuzishga asosiy e'tibor berishi lozimligini o'ylagan holda landshaft va ekologik yondashuvlarni yaqinlashtirish zarur deb hisoblagan. Ikkinchi jahon urushidan so'ng K.Trollning ishlari tufayli landshaft ekologiyasining g'oyalari dastlab nemis tili mamlakatlarida, 60 - yillardan boshlab Yevropaning

ko'pgina mamlakatlarga, AQShga tarqaldi. Ko'pgina mamlakatlarda landshaft ekologiyasi jamiyatlari va Xalqaro uyushmasi tashkil topdi. Shu paytdagi har ikkala Germaniyada ayniqsa fundamental landshaft - ekologik tadqiqotlar olib borildi (K.Troll, Y. Shmithyuzen, Y.Neyef, G.Rixter, G.Xaaze, G.Barch, I.Shmithyuzen, G.Noymeyster va b.). Landshaft ekologiyasining konseptual va ayniqsa metodik asosida nemis olimlarining landshaft va ekologik yondashuvlar o'rtasidagi nisbatlarda landshaft yondashuvi ustuvor bo'lgan. Landshaft ekologiyasi materiya uyushuvining tabiiy qonuniyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lsada, inson faoliyatining taqozasi bo'lgan va ma'lum darajada tabiiy aylanma harakatlarga daxldor bo'lgan barcha hodisalarni ham qamrab olmog'i lozim. (Heeφ , 55-6).

Shu yillarda, shuningdek, Polshada (YE. Kondratskiy, T.Bartkovskiy), Chexiya va Slovakiyada (Y. Demek, E.Mazur, M.Rujichka, Y.Drdosh), Vengriyada (M.Pechi), Ruminiyada (X. Grumezesku), Bolgariyada (K. Mishev, P.Petrov), Buyuk Britaniyada (A.P.Vink, K.Gregori) va boshqa mamlakatlarda ham landshaft ekologiyasiga jiddiy e'tibor qaratildi. Bu yillarda landshaftlarni tadqiq qilishda universal ilmiy metodlardan biri bo'lgan ekologik metodlar keng qo'llanila boshlandi. Bu metodlar har qanday sistemani, jumladan geosistemalar (landshaftlar)ni ham tadqiq qilishda samarali foydalanila boshlandi. Ekologik sistemalarni landshaftning topologik komponentlari sifatida o'rganishda ekosistemani tashkil etuvchi barcha elementlarining o'zaro aloqalariga hamda ekologik va landshaft – geografik tamoyillari asosida —hayot muhitining shakllanishi masalalariga qaratiladi.1987-yildan boshlab Springer Netherlands nashriyatida landshaft ekologiyasi bo'yicha yetakchi Landscape Ecology ilmiy jurnali nashr qilina boshlandi [4]. V.B.Sochavaning (1970) fikricha, landshaft ekologiyasining muhim vazifalaridan biri landshaft byujetini va geosistemalarning ekologik mavjudligining tamoyillarini aniqlashdan iborat. Masalani kengroq qo'yganda, tuzilmasida biotik komponent va uni nazorat qiladigan ekologik – geografik aloqalar muhim ahamiyatga ega bo'lgan geosistemaning barcha mexanizmini o'rganish zarur

A.P.Vink (1983) landshaft ekologiyasi (Landscape ekology) termini dastlab K.Troll geografiyaning (landshaftning) biologiya (ekologiya) bilan o'zaro ta'siri natijasini belgilash uchun taklif etilganligini qayd etgan holda landshaft ekologiyasining bosh vazifasi landshaftni uning biosfera va antroposfera orasidagi aloqalarga binoan tasvirlash va tavsiflashdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. A.Vink landshaft ekologiyasini hududni oqilona tashkil etish, regional va mahalliy boshqaruvning amaliy masalalari yechimida geografiya va ekologiyaning o'zaro ta'sirining natijasi sifatida qaraydi. A.Vinkning landshaft ekologiyasi to'g'risidagi qoidaning amaliy yo'nalishdagi fan sifatidagi aniq ta'rifi agroekologlar, biogeograflar, tuproqshunoslar va boshqa sohalar tadqiqotchilarining e'tiborini tortdi. Ular o'zlarining amaliy faoliyatida landshaft-ekologik konsepsiyalarni va metodlarni keng qo'llay boshladilar. XX asrning 80 – 90 yillarida landshaft

ekologiyaga doir tadqiqotlarga AQSh geograflari salmoqli hissa qo'shdilar. Bu tadqiqotlarda landshaftlarni o'rganish ekologiyadagi yangi ilmiy sohani (fanni) tashkil etadi. Amerikalik olimlarning fikriga ko'ra, landshaft ekologiyasi, shuningdek, hududiy xilma – xillikning rivojlanishi va dinamikasini, uning biotik va abiotik jarayonlarga ta'sirini o'rganadi, landshaftlarning makon va zamondagi xilma-xillik (heterogenlik) xususiyatlariga asosiy e'tibor qaratiladi [5].

P.G.Risserga (1987) ko'ra, landshaft ekologiyasi landshaftlarni o'rganishda ularning quyidagi o'ziga xos belgilariga asosiy e'tiborini qaratmog'i lozim: 1) ekosistemalar muayyan tiplarining guruhlari; 2) bu guruhlarning ekosistemalari orasidagi modda va energiya harakati va o'zaro ta'sirining mavjudligi; 3) geomorfologik va iqlimiy jihatdan umumiyli; 4) toyinishlar rejimining umumiyli; 5) guruhlar ichidagi ekosistemalarning nisbiy boyligi, ekosistemalar muayyan tiplarining guruhlari, bu guruhlarning ekosistemalari orasidagi modda va energiya harakati va o'zaro ta'sirining mavjudligi, geomorfologik va iqlimiy jihatdan umumiyli, toyinishlar rejimining umumiyli hamda guruhlar ichidagi ekosistemalarning nisbiy boyligiga asosiy e'tiborini qaratmog'i lozim. [5] Landshaftlarni ekologik jihatdan o'rganish bilan shug'ullangan R.J. Boyerning (1988) fikricha, landshaftlar ekologiyasi geografik nuqtai nazardan qaralganda Yer uzasidagi muayyan joylarda abiotik va biotik omillar orasidagi aloqalar tizimini o'rganadigan fan bo'lib, bu joylar integral, majmuyi hosilalar sifatida qaralishi lozim. R.J. Boyer landshaftlar ekologiyasini fundamental va amaliy landshaft ekologiyasiga ajratadi [1]

Landshaft ekologiyaning muhim xususiyatlaridan biri uning biotsentrikligi bo'lib, geotoplar tashqi muhitning faqat biota yashash joyining sharoitlarini belgilab beradigan omillari sifatida ahamiyatga ega. Landshaft ekologiyasi landshaft strukturasi va funksiyasini, turlarning biotik xilma-xilligini, moddalarning taqsimlanishini, energiya oqimini, butun landshaftning zamonda o'zgarishini va barqarorligini tadqiq ilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadigan juda tez rivojlanayotgan sohalararo ilmiy yo'nalishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев С.И., Назаров М.Г. Геоэкология вузудга келишининг манбалари ва ривожланиши. География ва ландшафт экологияси. Илмий мақолалар тўплами. Самарқанд - 2012.
2. Нееф Э. Теоретические основы ландшафтоведения. Москва. Прогресс, 1974.
3. Тролл К.. Ландшафтная экология (геоэкология) и биогеоценология. Терминологическое исследование. Изв.АН СССР.Сер. геогор. 1972, № 3.
2. 4.Barrows H. Geography as Human Ekology.- Annals of the Association of Amerikan Geographers. – 1923.-Т.XIII, № 7
3. Landscape Heterogen. and. Disturb.,|| 1987

4. 6.Troll C. Landschaftsökologie. In.: Pflanzensoziologie und Landschaftsökologie. – Symposium Stolzenau. The Hage, 1968.

BIR ZARRACHALI DISKRET SHREDINGER OPERATORINING XOS QIYMATI HAQIDA

Sh.I.Xamidov,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
matematika mutaxassisligi 4- bosqich talabasi*

S.I.Baxromov,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
matematika mutaxassisligi 4- bosqich talabasi*

Faraz qilaylik, Z -bir o'lchamli panjara va $\ell^2(Z)$ kvadrati bilan jamlanuvchi funksiyalarning Hilbert fazosi hamda $\ell^{2,e}(Z) \in \ell^2(Z)$ kvadrati bilan jamlanuvchi juft funksiyalarning qism fazosi bo'lsin. Ya'ni

$$\forall \hat{f} \in \ell^{2,e}(Z) \text{ uchun } \hat{f}(x) = \hat{f}(-x), x \in Z,$$

tenglik o'rinli bo'lsin.

Bir zarrachali diskret Shredinger operatori \hat{H}_λ , $\ell^{2,e}(Z)$ fazoda quyidagicha aniqlangan:

$$\hat{H}_\lambda = \hat{H}_0 + \hat{V}_\lambda, \quad \lambda \in \mathbb{R}$$

Bu yerda \hat{H}_0 o'rama tipidagi operator bo'lib, u quyidagicha aniqlangan:

$$(\hat{H}_0 \hat{f})(x) = \sum_{s \in Z} \hat{\varepsilon}(s) \hat{f}(x+s), \quad f \in \ell^{2,e}(Z)$$

$$(\hat{V}_\lambda \hat{f})(x) = \hat{v}_\lambda \hat{f}(x), \quad \hat{f} \in \ell^{2,e}(Z)$$

Bu yerda $\hat{\varepsilon}(s)$ va $\hat{v}_\lambda(s)$ funksiyalar Z panjarada quyidagicha aniqlangan:

$$\hat{\varepsilon}(s) = \begin{cases} 1, & |s| = 0 \\ -\frac{1}{2}, & |s| = 1 \\ 0, & |s| > 1 \end{cases}$$

va

$$\hat{v}_\lambda(s) = \begin{cases} \lambda, & |s| = 2 \\ 0, & |s| \neq 2 \end{cases}$$

Faraz qilaylik, T bir o'lchamli tor bo'lsin, ya'ni $(-\pi; \pi]$ – qarama -qarshi chegaralari bitta nuqtani ifodalovchi kub, va $L^2(T)$, T da kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalarning Hilbert fazosi bo'lsin hamda $L^{2,e}(T)$, T da kvadrati bilan integrallanuvchi juft funksiyalarning qism fazosi bo'lsin.

Quyidagi akslantirish

$$F: \ell^{2,e}(Z) \rightarrow L^{2,e}(T), (F\hat{f})(p) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \sum_{s \in Z} e^{i(p,x)} \hat{f}(x)$$

odatdagi Furrye akslantirishi va F^{-1} esa unga teskari akslantirish:

$$F^{-1}: L^{2,e}(T) \rightarrow \ell^{2,e}(Z), (F^{-1}f)(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_T e^{-i(p,x)} f(p) dp$$

Ushbu Furrye almashtirishi yordamida $H_\lambda = F\hat{H}_\lambda F^{-1}$ Shredinger operatorining $L^{2,e}(T)$ fazodagi impuls tasvirini quyidagicha aniqlaymiz:

$$H_\lambda = H_0 + V_\lambda$$

H_0 operator T da aniqlangan uzluksiz haqiqiy qiymatli $\varepsilon(p)$ funksiyaga ko'paytirish operatori bo'lganligi uchun uning spektri faqat muhim spektrdan iborat bo'ladi:

$$\sigma(H_0) = \sigma_{ess}(H_0) = [\varepsilon_{min}; \varepsilon_{max}] = [0, 2].$$

Bu yerda

$$\varepsilon_{min} = \min_{p \in T} \varepsilon(p) = 0 \quad \varepsilon_{max} = \max_{p \in T} \varepsilon(p) = 2.$$

Qo'zg'alish operatori V_λ ning rangi ko'pi bilan birga teng bo'lganligi uchun Weyl teoremasiga ko'ra H_λ operatorning $\sigma_{ess}(H_0)$ muhim spektri H_0 operatorning $\sigma_{ess}(H_0)$ muhim spektri bilan ustma – ust tushadi, ya'ni:

$$\sigma_{ess}(H_\lambda) = \sigma_{ess}(H_0)$$

Quyidagi

$$\Delta(\lambda, z) = 1 + \frac{\lambda}{\pi} \int_T \frac{\cos^2 2q}{\varepsilon(q) - z} dq$$

tenglik bilan aniqlanuvchi ifodaga $H_\lambda, \lambda \in R$, operatorga mos Fredholm determinanti deyiladi.

Lemma 1. *Ixtiyoriy $\lambda \in R$ uchun $z \in C \setminus [0; 2]$ soni H_λ operatorning xos qiymati bo'lishi uchun*

$$\Delta(\lambda, z) = 0$$

bo'lishi zarur va yetarli.

Teorema 1. *Faraz qilaylik $\lambda \in R$ bo'lsin.*

- i) *Agar $\lambda > 0$ bo'lsa, u holda H_λ operator muhim spektrdan yuqorida yagona $z(\lambda) \in (2; +\infty;)$ xos qiymatga ega;*
- ii) *Agar $\lambda \leq 0$ bo'lsa, u holda H_λ operator muhim spektrdan yuqorida xos qiymatga ega emas.*

ADABIYOTLAR

1. S.N. Lakaev, Sh.Yu. Kholmatov, Sh.I. Khamidov. Bose-Hubbard models with on-site and nearest-neighbor interactions: exactly solvable case. Physics A: Mathematical and Theoretical. 54, 245201 (2021).

BIR ZARRACHALI DISKRET SHREDINGER OPERATORINING XOS QIYMATILARI VA ULARNING JOYLASHGAN O'RNI

Sh.I.Xamidov,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
matematika mutaxassisligi 4- bosqich talabasi*

Sh.X.Xayrullayev,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
matematika mutaxassisligi 4- bosqich talabasi*

Faraz qilaylik, Z -bir o'lchamli panjara va $\ell^2(Z)$ kvadrati bilan jamlanuvchi funksiyalarning Hilbert fazosi hamda $\ell^{2,e}(Z) \in \ell^2(Z)$ kvadrati bilan jamlanuvchi juft funksiyalarning qism fazosi bo'lsin. Ya'ni

$$\forall \hat{f} \in \ell^{2,e}(Z) \text{ uchun } \hat{f}(x) = \hat{f}(-x), x \in Z,$$

tenglik o'rinli bo'lsin.

Bir zarrachali diskret Shredinger operatori \hat{H}_λ , $\ell^{2,e}(Z)$ fazoda quyidagicha aniqlangan:

$$\hat{H}_\lambda = \hat{H}_0 + \hat{V}_\lambda, \quad \lambda \in \mathbb{R}$$

Bu yerda \hat{H}_0 o'rama tipidagi operator bo'lib, u quyidagicha aniqlangan:

$$(\hat{H}_0 \hat{f})(x) = \sum_{s \in Z} \hat{\varepsilon}(s) \hat{f}(x+s), \quad f \in \ell^{2,e}(Z)$$

$$(\hat{V}_\lambda \hat{f})(x) = \hat{v}_\lambda \hat{f}(x), \quad \hat{f} \in \ell^{2,e}(Z)$$

Bu yerda $\hat{\varepsilon}(s)$ va $\hat{v}_\lambda(s)$ funksiyalar Z panjarada quyidagicha aniqlangan:

$$\hat{\varepsilon}(s) = \begin{cases} 1, & |s| = 0 \\ -\frac{1}{2}, & |s| = 1 \\ 0, & |s| > 1 \end{cases}$$

va

$$\hat{v}_\lambda(s) = \begin{cases} \lambda, & |s| = 2 \\ 0, & |s| \neq 2 \end{cases}$$

Faraz qilaylik, T bir o'lchamli tor bo'lsin, ya'ni $(-\pi; \pi]$ – qarama-qarshi chegaralari bitta nuqtani ifodalovchi kub, va $L^2(T)$, T da kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalarning Hilbert fazosi bo'lsin hamda $L^{2,e}(T)$, T da kvadrati bilan integrallanuvchi juft funksiyalarning qism fazosi bo'lsin.

Quyidagi akslantirish

$$F: \ell^{2,e}(Z) \rightarrow L^{2,e}(T), (F\hat{f})(p) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \sum_{s \in Z} e^{i(p,x)} \hat{f}(x)$$

odatdagi Furrye akslantirishi va F^{-1} esa unga teskari akslantirish:

$$F^{-1}: L^{2,e}(T) \rightarrow \ell^{2,e}(Z), (F^{-1}f)(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_T e^{-i(p,x)} f(p) dp$$

Ushbu Furrye almashtirishi yordamida $H_\lambda = F\hat{H}_\lambda F^{-1}$ Shredinger operatorining $L^{2,e}(T)$ fazodagi impuls tasvirini quyidagicha aniqlaymiz:

$$H_\lambda = H_0 + V_\lambda$$

H_0 operator T da aniqlangan uzluksiz haqiqiy qiymatli $\varepsilon(p)$ funksiyaga ko'paytirish operatori bo'lganligi uchun uning spektri faqat muhim spektrdan iborat bo'ladi:

$$\sigma(H_0) = \sigma_{ess}(H_0) = [\varepsilon_{min}; \varepsilon_{max}] = [0, 2].$$

Bu yerda

$$\varepsilon_{min} = \min_{p \in T} \varepsilon(p) = 0 \quad \varepsilon_{max} = \max_{p \in T} \varepsilon(p) = 2.$$

Qo'zg'alish operatori V_λ ning rangi ko'pi bilan birga teng bo'lganligi uchun Weyl teoremasiga ko'ra H_λ operatorning $\sigma_{ess}(H_0)$ muhim spektri H_0 operatorning $\sigma_{ess}(H_0)$ muhim spektri bilan ustma-ust tushadi, ya'ni:

$$\sigma_{ess}(H_\lambda) = \sigma_{ess}(H_0)$$

Quyidagi

$$\Delta(\lambda, z) = 1 + \frac{\lambda}{\pi} \int_T \frac{\cos^2 2q}{\varepsilon(q) - z} dq$$

tenglik bilan aniqlanuvchi ifodaga $H_\lambda, \lambda \in R$, operatorga mos Fredholm determinanti deyiladi.

Lemma 1. *Ixtiyoriy $\lambda \in R$ uchun $z \in C \setminus [0; 2]$ soni H_λ operatorning xos qiymati bo'lishi uchun*

$$\Delta(\lambda, z) = 0$$

bo'lishi zarur va yetarli.

Teorema 1. *Faraz qilaylik $\lambda \in R$ bo'lsin.*

- i) Agar $\lambda < 0$ bo'lsa, u holda H_λ operator muhim spektrdan quyida yagona $z(\lambda) \in (-\infty; 0)$ xos qiymatga ega;*
- ii) Agar $\lambda \geq 0$ bo'lsa, u holda H_λ operator muhim spektrdan quyida xos qiymatga ega emas.*

ADABIYOTLAR

1. S.N. Lakaev, E. Uzdemir. The existence and location of eigenvalues of the one particle Hamiltonians on lattices. Hacettepe J. Math. Stat. 45, 1693-1703 (2016).

YORUG'LIK KVANTLARI. YORUG'LIKNING ISSIQLIK TA'SIRI. KVANT NAZARIYASINING TUG'ILISHI. TASHQI FOTOEFFEKT. STOLETOV TAJRIBALARI. TASHQI FOTOEFFEKT QONUNLARI.

N.F.Xusanova

BuxDPI, 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Yorug'lik bilan o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda yorug'likning to'lqin xossalari ko'proq namoyon bo'lsa, boshqa hollarda olingan natijalarni tushuntirish uchun yorug'likni zarra yoki kvant deb qarashga to'g'ri keladi.

Kalit so'zlar: Yorug'lik, Stoletov qonunlari, elektron, tashqi fotoelektr effekt. Yorug'likning bosimga ega bo'lishini yoki fotoelektrik effekt hodisasini yorug'likning kvant (zarra) tushunchasi orqali tushuntiriladi. Yorug'lik moddaga tushganda o'z energiyasini moddaga beradi. Natijada turli effektlar yuz berishi mumkin. Eng umumiy holda yorug'likni yutgan modda qiziydi, temperaturasi ko'tariladi. Lekin ko'pincha yorug'likning bir qismi issiqlikka aylanib, qolgan qismi boshqa tur energiyalarga aylanadi. Nurlanishning issiqlik ta'sirini tajribada payqash uchun yig'uvchi linzalardan foydalaniladi. Masalan, quyosh nurlarini biror tez alanganuvchi moddaga linza orqali fokuslab, shu moddani yondirib yuborish yoki kuydirish mumkin. Kuchli lazer nurlari yordamida olmos kabi juda qattiq materiallarda juda ham nozik teshiklar ochish mumkin. Demak, yorug'lik energiyasining ta'sirida qiyin eruvchan materiallarni eritib, bug'lantirib yuborish mumkin. Yer sirtining qizishi Quyosh nurlarining issiqlik ta'siri tufayli yuzaga kelishi hammaga ayon hodisa. Yerga nurlanish orqali kelayotgan energiyani Yer sharida barcha sanoatda foydalanilayotgan energiyadan ham kattadir. Hisoblashlarga $www.z96$ ko'ra Yer sirtining har kvadrat metr ko'ndalang kesimiga bir sekunda o'rtacha 1370 J energiya kelib tushar ekan. Bu kattalik Quyosh

doimiysi Quyosh doimiysi deyiladi. Yorug'lik ta'sirida moddalardan elektronlar uchib chiqish hodisasi tashqi fotoelektr effekt deyiladi. Moddadan uchib chiqayotgan elektronlarni fotoelektronlar deb atash qabul qilingan. Fotoelektr effekt, qisqacha fotoeffektning kashf etilishini 1887- yildan hisoblagan ma'qul, chunki o'sha yili Gers kuchlanish berilgan elektrodlar oralig'ini ultrabinafsha nurlar bilan yoritganda uchqun chiqishi osonlashganini kuzatgan. Keyinchalik Galvaks, A.G. Stoletov va boshqa bir qator tadqiqotchilarning sistematik tajribalari shuni isbotladiki (1888- yillar), Gers elektrodlaridan yorug'lik ta'sirida zaryadli zarrachalar ajralib chiqadi va gaz molekulalarini ionlashtirib, uchqun chiqishiga sabab bo'ladi. A.G. Stoletov fotoeffektga doir tajribalarida birinchi bo'lib elektrodlar orasiga kichik kuchlanish berib ko'rdi va u o'ylagan natija kutilgandan ham a'lo bo'lib chiqadi. Kuchli razryad nayidan chiqayotgan ultrabinafsha nurlar \hat{O} to'r orqali o'tib rux plastinkaga tushadi va undan zaryadli zarralarni urib chiqaradi. Bu zarralar zanjirga ulangan to'rga tushadi. Galvanometr orqali fototok oqadi. Demak, yorug'lik ta'sirida manfiy zaryadli zarralar ajralib chiqadi. Ultrabinafsha nurlar manfiy zaryadlangan elektroskop kallagiga tushganda elektroskop yaproqchalari tezda yopilishini kuzatish mumkin bo'ladi, ya'ni elektroskop tez zaryadsizlanadi. Diqqat bilan kuzatilganda zaryadlanmagan plastinka yorug'lik ta'sirida musbat zaryadlanadi. Demak, yorug'lik ta'sirida ajralib chiqayotgan zarralar zaryadi va ishorasini tekshirish zarur bo'lib qoldi. 1898- yilga kelib Leonard va \hat{O} omson ajralib chiqayotgan zarralarning elektr va magnit maydonda burilishiga qarab e m ni aniqladilar. Aniqlangan kattalik elektron degan zarraga mos ekanligi isbotlandi. O'tkazilgan tajribalar asosida A.G. Stoletov fotoeffekt uchun quyidagi qonunlarni yaratdi: 1. Moddadan ajralib chiqayotgan fotoelektronlar soni modda yoritilganligiga yoki unga tushayotgan yorug'lik oqimiga chiziqli bog'liq, ya'ni: $N\hat{O} \sim E$ yoki $N\hat{O} \sim \hat{O}$. Demak, yorug'lik moddaga tushayotgan yorug'lik oqimiga to'g'ri proporsional ekan. 2. Moddadan uchib chiqayotgan fotoelektronlar energiyasi moddaga tashqaridan tushayotgan yorug'lik chastotasiga to'g'ri proporsional, ya'ni: $E_0 \sim \nu$, ν — yorug'lik chastotasi. 3. Moddadan ajralayotgan fotoelektronlar soni moddaga tashqaridan tushayotgan yorug'lik chastotasiga bog'liq emas. 4. Moddadan uchib chiqayotgan elektronlar energiyasi yorug'lik oqimiga bog'liq emas. Fotoeffekt (tashqi fotoeffekt) qonunlarini o'rganishda quyidagi tajribadan foydalaniladi. Havosi so'rib olingan shisha ballon ichiga katod (fotokatod) va anod elektrodleri o'rnatiladi. Shisha ballonning yon tomonida maxsus o'rnatilgan shisha kvars darchadan yorug'lik fotokatodga tushiriladi. Katodga manfiy, anodga musbat kuchlanish beriladi. Anod zanjiridagi sezgir galvanometr fototokni . $K A$ o'lchaydi . Agar elektr manbasi zanjirga ulanmagan bo'lsa, katoddan ajralayotgan elektronlarning juda oz qismi anodga yetib keladi va galvanometr kichik tokni ko'rsatadi. Kalit ulansa, maydon ta'sirida kichik energiyali elektronlar ham anodga yetib borishi mumkin. 9 8 Galvanometr orqali o'tayotgan tok to'yinish toki to'yinish toki deyiladi. Agar katod va anod orasiga berilayotgan maydon yo'nalishini o'zgartirsak (manba qutblarini o'zgartiriladi) va maydonni oshirsak, fototok qiymati nolgacha pasayadi. Bu bog'lanish 78- rasmda keltirilgan. Agar elektrodning joylashishi, shakli o'zgarsa va elektrodlar orasidagi bo'shliq

buzilsa, fototok xarakteristikasi o'zgaradi. Elektrodlar uchun eng yaxshi shakl — sferik kondensatordir. Katod sfera markazidagi kichik o'lchamli shar, anod tashqi elektrod sferasidir. I_0 to'yinish toki katod sirtiga, materialiga va tozaligiga hamda temperaturasiga bog'liq bo'ladi. Moddaga tushayotgan yorug'lik intensivligini oshirsak, to'yinish tokining qiymati oshishini va fototok xarakteristikasi (voltamper xarakteristikasi — VAX) koordinatalar o'qiga nisbatan biroz o'ngga siljishini kuzatish mumkin. Bu qonun yorug'lik intensivligini keng sohada o'zgartirib tekshirib ko'rilgan. Olingan natijalar yaxshi takrorlanadi. 78- rasmga nazar tashlasak, agar anodga teskari kuchlanish berilsa, fototok qiymati biror — U_0 kuchlanishda nolga teng bo'ladi. Bunda shunday xulosa chiqarish mumkin. Oeskari maydon katoddan katta tezlikda chiqayotgan fotoelektronlarni orqaga qaytaradi va anodga tushishiga to'sqinlik qiladi. Agar fotokatod sirtiga tushayotgan yorug'lik chastotasini oshirsak, fototok nolga intiladigan kuchlanish qiymati yana ortar ekan. Boshqacha aytganda, dastlabki berilgan yonuvchi potensial yonuvchi potensial — U_0 katoddan chiqayotgan elektronlarni ushlab qololmas ekan. $U \propto I \propto U$ Biroq yorug'lik ta'sirida katoddan uchib chiqayotgan barcha elektronlar anodga yetib borolmaydi. Katod — anod orasidagi maydonni oshirsak, barcha elektronlar anodga yetib borishiga sharoit tug'iladi. Bu holda galvanometrda tok keskin ortib, so'ng o'zgarmay qoladi. Elektrodni eng qulay joylashtirganda ham fototok qiymati birdan nolga tushmasdan, balki asta-sekin nolgacha pasayishi kuzatilar ekan. Demak, elektronlar energiyasi turlicha ekan, deyish mumkin. Tezligi kichik bo'lgan elektronlar kichikroq yopuvchi potensialda ushlansa, tezliklari katta bo'lgan elektronlarni to'xtatish uchun kattaroq yopuvchi potensial berish lozim. Ushbu xulosalardan formulaning muhim fizik ahamiyatga ega ekanligi kelib chiqadi. Birinchi navbatda, aniqlanadigan tezlik yorug'lik ta'sirida elektronlar oladigan tezlikdir. Ikkinchidan, moddadan uchib chiqayotgan elektronlar energiyasi miqdor jihatdan roppa-rosa yorug'lik energiyasiga teng deb bo'lmaydi. Chunki, yorug'lik, masalan, metall sirtiga tushganda o'z energiyasini kristalldagi erkin elektronlarga uzatadi, elektronlar o'z navbatida, sirdan chiqish uchun ma'lum energiyani yo'qotadi. Yo'qotilgan energiya metallan elektronlarning chiqish ishi chiqish ishi uchun sarf bo'ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fizika. 3-kitob. Ma'ruzalar matni (A.No'monxo'jayev, M.Fattohov va b.)
2. Abdulkhayev O. A. et al. Physico-technological aspects multifunctional sensor on field-effect transistor //New Trends of Development Fundamental and Applied Physics: Problems, Achievements and Prospects. – 2016. – C. 10-11.
3. Turaev A. A., KS S. Dinamik yuklamali sxemada maydoniy tranzistorning kuchaytirish xossalari //Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2016. – T. 4. – №. 64. – C. 31-35.
4. Rahmatov A. Z. et al. Features of the performance of a transient voltage suppressor in the pulsed mode //Semiconductors. – 2013. – T. 47. – C. 387-391.
5. Rakhmanovich D. D., Ataevich T. A., Kobilovich S. F. Physical and Technological Aspects of the Sensor on the Field Transistor //Central Asian journal of theoretical & applied sciences. – 2021. – T. 2. – №. 10. – C. 101-106.

6. Ahmedjonovna S. S., Ataevich T. A. Control of stock current in field-effect transistors by gate voltage //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 417-421.
7. Djuraev D. R., Turaev A. A. Photoelectric sensitivity of multifunctional sensor on the outdoor transistor //Scientific reports of Bukhara State University. – 2018. – T. 1. – №. 2. – C. 7-11.
8. Rakhmatov A. Z. et al. Research the drain characteristics of field-effect transistor as current limiter. – 2010.
9. Kamanov B. M., Kodirov O. G. Features amplifying properties of a field effect transistor in the circuit with dynamic load //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2023. – C. 93-98.

YARIM O`TKAZGICHLARDA DIFFUZIYA JARAYONLARINI O`RGANISHNING AMALIY AHAMIYATI

S.O.Saidov

*Buxoro davlat universiteti «Fizika» kafedراسi dotsenti,
safo.saidov.64@mail.ru*

M.Sh.Sharifova,

*Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti,
m.sh.sharifova@buxdu.uz*

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi oldindan belgilangan, ma'lum xossalarga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli asboblarni yaratish hamda ularni ishlab chiqarish texnologiyalari uchun o'quv va ilmiy jihatdan muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yarimo'tkazgichlarda atomlar diffuziyasi haqida so'z boradi, uning dolzarbligi ko'rsatiladi.

Abstract. This thesis shows the practical relevance of studying diffusion processes in semiconductors, which has educational and scientific-practical significance for the creation of semiconductor devices with specified properties and their production technologies.

Kalit so'zlar: diffuziya, diffuziya jarayoni parametrlari, diffuziya koeffitsiyenti, tok zichligi, gaz, qattiq jism, suyuqlik, geterodiffuziya, kristall panjara, rlrktronika, mikroelektronika, yarimo'tkzglichli asboblari, yarimo'tkzglichli asboblarni ishlab chiqarish texnologiyalari, ilmiy tadqiqot markazlari, institutlar, matematik raqamli modellashtirish va hk..

Keywords: diffusion, diffusion process parameters, diffusion coefficient, current density, gas, solid-state, liquid, heterodiffusion, crystal lattice, electronics, microelectronics, semiconductor devices, semiconductor device manufacturing technologies, scientific research centers, institutes, mathematical numerical modeling.

Yarim o'tkazgichlar **elektronika** va **mikroelektronika sohalarida** juda keng qo'llanilib, zamonaviy elektr jihozlarning deyarli hammasi kompyuterlardan tortib to uyali aloqa telefonlarigacha yarimo'tkazgichli texnologiyalarga asoslangan. Kundalik hayotda, texnika va texnologiyalarda yarimo'tkazgich moddalar va ular

asosida tayyorlanadigan asboblarning va qurilmalar tobora keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Buning asosiy sabablari yarimo'tkazgich moddalarning ajoyib xossalari: yarimtkazgichlar turli tashqi ta'sirlarga juda sezgir, ular zaminida ishlab chiqarilayotgan asboblarning o'lchamlari kichik, ishlash muddati katta va bajariladigan vazifalari juda ko'p. Shu bilan bir qatorda ular turli zarbalarga chidamlidir.

Yarim o'tkazgichlar elektr o'tkazuvchanligiga ko'ra elektr tokini yaxshi o'tkazuvchi moddalar va elektr tokini amalda o'tkazmaydigan moddalar orasidagi oraliq vaziyatni egallagan moddalar sinfiga mansub. Yarim o'tkazgich tarkibidagi kirishma miqdorini foizning 0.1-1% gacha o'zgartirib, uning elektr o'tkazuvchanligini juda katta diapazonda (millionlargacha) oshirish mumkin.

Diffuziya jarayoni gaz, suyuqlik yoki qattiq jismlarda sodir bo'ladi va uning tezligi moddaning zichligi, qovushoqligi, temperaturasi va diffuziyalanuvchi moddaning tabiati va boshqa bir qator faktorlarga bog'liq bo'ladi. Temperatura ko'tarilishi bilan diffuziya jarayoni tezlashadi.

Diffuziyaning juda ko'p turlari mavjud, xususan:

O'z diffuziya (bir aralashmali sistemalarda);

Geterodiffuziya (ko'p aralashmali sistemalarda).

Shved olimi Svente Arrenius yarim o'tkazgichlarda diffuziya jarayonlarini nazariy o'rganib, kristall panjaraning tugunlari va tugunlar orasi orqali atomlarning o'z-o'zidan tarqalishi va turli elementlarning diffuziya mexanizmlariga asosan kristall panjarada hosil bo'lgan qattiq eritmaning turiga qarab belgilanishi aniqlagan. Bundan tashqari 1855-yilda shvedtsariyalik olim Fik tomonidan ideal gazlar va eritmalaridagi diffuziya jarayonlarini tasvirlash uchun o'zining birinchi (Fikning birinchi qonuni) va ikkinchi (Fikning ikkinchi qonuni) qonunlarini yaratdi. Fikning birinchi va ikkinchi qonuni boshlang'ich va chegaraviy shartlar va diffuziya koeffitsiyenti berilganda modda atomlarining koordinata bo'ylab taqsimlanishi, moddaning sirt diffuziyasi, modda miqdori va boshqa kattaliklarni aniqlab beradi [1-15].

Xo'sh, yarimo'tkazgichlarda diffuziya jarayonlarini o'rganishning amaliy ahamiyati nimada?

Hozirgi kunda diffuziyalanuvchi kirishma moddaning oqim zichligi, N - aralashma atomlarining konsentratsiyasi, D_0 doimiy va D - diffuziya koeffitsienti, E_d - diffuziya faollashuv energiyasi, yarimo'tkazgich materialida aralashmalarning taqsimlanish grafiklari, moddaning yarimo'tkazgichda tarqalish tezligi, konsentratsiyalar nisbati, harakatchanliklar va boshqa bir qator parametrlarni aniqlash yangi zamonaviy yarim o'tkazgich asboblarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, yarim o'tkazgichlarda diffuziyaning yuqorida keltirilgan parametrlarini aniqlamasdan turib yarimo'tkazgichlar asosida ishlaydigan asboblarni yaratish texnologiyalarini yaratish ham ancha mushkul.

Ushbu yo'nalishda O'zbekiston (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tarkibidagi bir qator ilmiy tadqiqot institutlari, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Fizika fakulteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi Yarim o'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika instituti,

Islom Karim nomidagi Toshkent Davlat texnika instituti, Andijon davlat Universiteti, Buxoro Davlat Universiteti va boshqalar), Rossiya Federatsiyasi (M. V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti, Sankt Peterburg Universiteti, Rossiya Fanlar Akademiyasi, A.F. Ioffe nomidagi Fizika-texnika ilmiy tadqiqot instituti), Amerika (Kaliforniya Universiteti, Vashington universiteti, Chicago Universiteti,), Xitoy (Tsinghua Universiteti, Fudan Universiteti, Pekin Universiteti,) va Yevropa davlatlarida yarim o'tkazgichlarda diffuziya jarayonlarini tadqiq qiluvchi bir necha yuzlab ilmiy markazlar samarali faoliyat olib bormoqda.

Yarimo'tkazgichli asboblarni yaratishda ular asosidagi materiallarga turli elementlar diffuziyasini o'rganish amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, oldindan rejalashtirilgan, maxsus xossalarga ega bo'lgan yarim o'tkazgich asboblarni yasashda aynan diffuziya jarayonlari parametrlarini bilish dolzarb vazifadir. Lekin o'tgan asrning oxirlariga kelib, yarim o'tkazgichli asboblar ishlab chiqarishda ularni yaratish texnologiyalarining ko'p vaqt talab qilishi sababli, ma'lum yarimo'tkazgichlarda diffuziya jarayonlarini o'rganishda matematik raqamli modellashtirish usullari (maxsus yaratilgan dasturlar) dan foydalanila boshlandi. Misol tariqasida bir qator o'quv va ilmiy markazlarda keng tarqalgan raqamli modellar - Diffuzion, HD DIFFUSION, FYS4310 – (Material Science of Semiconductors) yaratildi. Bu raqamli modellar yarim o'tkazgichlarda diffuziya jarayonlarni o'rganishda ko'plab qulayliklarni yuzaga keltirdi, eng muhimi ko'plab tadqiqotchilar vaqtini tejab qoldi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, yarimo'tkazgichlar fizikasida oldindan belgilangan, ma'lum parametrlarga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli asboblarni yaratish hamda ularni ishlab chiqarish texnologiyalari uchun o'quv va ilmiy jihatdan muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yarimo'tkazgichlarda atomlar diffuziyasi hozirgi kundagi dolzarb yo'nalishlardan biridir.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Хамдамов Ж.Ж., С.О. Саидов, Насуллаев Б.С.Ў. Исследование влияния различных видов излучений на электрофизические свойства кремниевых структур, легированных переходными элементами. Актуальные проблемы современной физики. Материалы международной научной и научно-технической конференции. Бухарский государственный университет. 25-26- ноябрь 2022 г. 68-70 с.
2. Саидов Сафо Олимович, Камолов Жўрабек Жалол ўғли. Технология получения тонкослойных гетероструктур n-CdS/p-CeF₃ и исследование их электрических свойств. // Miasto Przyszosci. 2022. – V. 29.- P. 72-78. [URL: https://miastoprzyszosci.com.pl/index.php/mp/article/view/708](https://miastoprzyszosci.com.pl/index.php/mp/article/view/708).
3. С.О. Саидов, К.С. Ежкова. РОЛЬ ФИЗИКИ ДЛЯ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ. «ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР».

4. S.O. Saidov, I.B. Raupova. <https://philpapers.org/go.pl?id=SAITRO-8&proxyId=&u=https%3A%2F%2Fscholarzest.com%2Findex.php%2Fesj%2Farticle%2Fview%2F2143>.
5. С.О. Саидов, З.И. Туксанова. ҲОЗИРГИ ЗАМОН ФИЗИКАСИНИ ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ЎҚИТИШНИНГ АЙРИМ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ. http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/697.
6. Saidov S.O., Badriddinov Islombek Mustahkam o`g`li. HIGHER EDUCATION AND TEACHING MODERN PHYSICS IN IT. <https://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/388/>.
7. Rahmatov A. Z. et al. Features of the performance of a transient voltage suppressor in the pulsed mode //Semiconductors. – 2013. – Т. 47. – С. 387-391.
8. Rakhmanovich D. D., Ataevich T. A., Kobilovich S. F. Physical and Technological Aspects of the Sensor on the Field Transistor //Central Asian journal of theoretical & applied sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 101-106.
9. Ahmedjonovna S. S., Ataevich T. A. Control of stock current in field-effect transistors by gate voltage //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 4. – С. 417-421.
10. Saidov S.O., Atoyeva M.F., Fayziyeva KH.A. et. all. The Elements Of Organization Of The Educational Process On The Basis Of New Pedagogical Technologies. <https://inlibrary.uz/index.php/tajas/article/view/10356>.
11. Камолов Журабек Жалол угли, Саидов Сафо Олимович. РАЗРАБОТКА МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ НЕСТАЦИОНАРНОГО ПРОЦЕССА НАГРЕВА И ОХЛАЖДЕНИЯ ТОНКОЙ ПЛАСТИНКИ С КЕРМЕТНЫМ ПОКРЫТИЕМ. <https://scientists.uz/uploads/202206/A-109.pdf/>
12. С.О. Саидов, М. Шарофова. Положение и роль современной физики в высшем образовании. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1864>
13. S. Zaynobiddinov, Sh. Yo`lchiyev, D. Nazirov, M. Nosirov. Yarimo`tkazgichlarda atomlar diffuziyasi. O`quv qo`llanma. "O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. Toshkent. 2012. 176 b.
14. П.Т. Орешкин. Физика полупроводников и диэлектриков. Учебное пособие. М.: Высшая школа. 1977. 448 с.
15. М.А. Азизов "Яримўтказгичлар физикаси". Ўқитувчи нашриёти, Тошкент-1974.
16. Abdulkhayev O. A. et al. Physico-technological aspects multifunctional sensor on field-effect transistor //New Trends of Development Fundamental and Applied Physics: Problems, Achievements and Prospects. – 2016. – С. 10-11.
17. Turaev A. A., KS S. Dinamik yuklamali sxemada maydoniy tranzistorning kuchaytirish xossalari //Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2016. – Т. 4. – №. 64. – С. 31-35.

18. Djuraev D. R., Turaev A. A. Photoelectric sensitivity of multifunctional sensor on the outdoor transistor // Scientific reports of Bukhara State University. – 2018. – Т. 1. – №. 2. – С. 7-11.
19. Rakhmatov A. Z. et al. Research the drain characteristics of field-effect transistor as current limiter. – 2010.
20. Kamanov B. M., Kodirov O. G. Features amplifying properties of a field effect transistor in the circuit with dynamic load // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2023. – С. 93-98.

ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА - ПУТЬ РЕШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аллаярова М. К., стар. преп.

Ирматова Л. И., студентка 1 курса

Гулистанский государственный университет

Аннотация: В статье описываются экологические проблемы, связанные с изменением климата, загрязнения воздуха, водных ресурсов, которые негативно влияют на эффективность проводимых в стране реформ. Выходом решения экологических проблем является использование чистых и возобновляемых источников энергии.

Ключевые слова: зелёная экономика, экологические проблемы, климат, экосистема, солнечная энергия, энергоснабжение.

Annotation: The article describes environmental problems associated with climate change, air pollution, and water resources, which negatively affect the effectiveness of the reforms carried out in the country. The solution to environmental problems is the use of clean and renewable energy sources.

Key words: green economy, environmental problems, climate, ecosystem, solar energy, energy supply.

Настоящее время во всем мире экологические проблемы становятся актуальными. Узбекистан имеет богатый природный потенциал и разнообразную экосистему, но несмотря на это сталкивается с рядом экологических проблем.

Одной из основных экологических проблем, стоящих перед Узбекистаном, является истощение водных ресурсов. Среднегодовое потребление воды в сельском хозяйстве, а также в промышленности (хлопчатобумажной, текстильной, легкой, пищевой, химической, металлургической и т.д.) остается высоким, а дефицит воды усугубляется изменением климата, приводящим к увеличению продолжительности и частоты засух. Загрязнение водных объектов происходит в результате неэффективной работы инфраструктуры по очистке сточных вод.

Второй серьезной проблемой является загрязнение воздуха. Загрязнение атмосферного воздуха от стационарных и передвижных источников

усугубляется неблагоприятными климатическими условиями. В значительной степени оно обусловлено деятельностью основных отраслей: энергетики, нефтегазовой промышленности, металлургии, химической промышленности, строительной индустрии, а также ростом количества автотранспорта. Вместе с тем, среднегодовые концентрации основных загрязняющих веществ в большинстве наблюдаемых городов остаются ниже предельно допустимых концентраций. Наблюдается снижение выбросов оксида углерода и углеводородов, но при этом увеличиваются выбросы оксидов азота и твердых частиц. Наибольший вклад в выбросы вносят энергетический (76%) и сельскохозяйственный (18%) сектора.

Третья проблема - изменение климата. Прежде всего, приводит к деградации сельскохозяйственных угодий, снижению уровня воды в озерах и реках, а также создает угрозу для экосистемы. Для борьбы с изменением климата необходимо сосредоточить усилия на развитии возобновляемой энергетики, такой как солнечная и ветровая энергия, и насаждении лесов для увеличения поглощения углекислого газа.

Четвертая проблема деградация почв. Одной из причин деградации и опустынивания земель является чрезмерное использование водных ресурсов. Нерациональная ирригационная практика и устаревшая инфраструктура водоснабжения, требующая масштабной реконструкции, привели к быстрому опустыниванию и высыханию Аральского моря. Площадь Аральского моря, некогда одно из крупнейших в мире внутренних морей, сильно сократилась из-за масштабных ирригационных проектов, отводящих воду из его притоков. Данная экологическая катастрофа привела к потере биологического разнообразия, сокращению рыбных запасов и негативному воздействию на благополучие местного населения.

Узбекистан принимает решительные меры для решения экологических проблем и стимулирует устойчивое развитие экономики. Один из ключевых подходов - это переход к использованию чистых и возобновляемых источников энергии, таких как солнечная и ветроэнергетика.

В Узбекистане продолжается работа над 28 проектами на основе государственно-частного партнерства по строительству солнечных, ветряных и гибридных электростанций общей мощностью 6,3 гигаватта. Из них в 2023 году были запущены первые мощности в рамках 7 проектов на 2,6 гигаватта

В частности, подключены к сети мощности пяти солнечных фотоэлектрических станций (ФЭС) в Самаркандской, Джизакской, Сурхандарьинской, Бухарской и Кашкадарьинской областях, а также ветряной электростанции (ВЭС) в Навоийской области.

Ведется работа над 12 проектами по строительству “зеленых” станций и систем хранения энергии совместно с компаниями из таких стран, как Саудовская Аравия, ОАЭ, Китай, Франция и Швейцария. В 2024 году запланировано довести общую мощность ФЭС до 2,6 гигаватта, ВЭС – до 900 мегаватт, запустить устройства для хранения энергии мощностью 400 мегаватт.

До 2030 года планируется увеличить мощность «зеленых» электростанций до 27 гигаватт. Это позволит ежегодно экономить 25 миллиардов кубометров природного газа, сократить выбросы вредных веществ в атмосферу на 34 миллиона тонн.

Постановлением Президента Ш. Мирзиёева «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на «зеленую» экономику до 2030 года» приняты следующие меры:

- снижение удельных выбросов парниковых газов на единицу валового внутреннего продукта на 35 процентов;

- увеличение производственной мощности возобновляемых источников энергии до 15 ГВт и доведение их до более 30 процентов;

- повышение энергоэффективности в сфере промышленности не менее чем на 20 процентов;

- значительное повышение эффективности водопользования во всех отраслях экономики, внедрение водосберегающих технологий орошения на площади до 1 млн гектаров;

- расширение зеленых зон в городах до более 30 процентов путем посадки по 200 миллионов саженцев в год и доведение общего количества саженцев до более 1 миллиарда.

До 2030 года Узбекистан планирует увеличить долю возобновляемых источников энергии на 25%. Доля возобновляемых источников энергии в общем объеме электроэнергии составляет 10%, а традиционные источники 90%.

Реализация проекта даст возможность стране привлечение прямых иностранных инвестиций более чем на 600 миллионов долларов и создание 1300 новых рабочих мест. Ввод электростанции позволит диверсифицировать и укрепить энергобаланс республики за счет производства дешевой электроэнергии в объеме 1,8 ГВт/ч в год. Это позволит покрытие потребностей более 500 000 домохозяйств.

Внедрение современных технологий возобновляемых энергии даст возможность сократить объем природного газа до 175 миллионов кубических метров в год. Выбросы углекислого газа сократятся на 1,1 млн тонн в год.

В рамках стратегии будут введены в эксплуатацию возобновляемые источники энергии с общей мощностью 4 300 МВт. В том числе, крупные солнечные и ветряные электростанции – 2 100 МВт; солнечные панели, устанавливаемые на объекты социальной инфраструктуры – 1 200 МВт; малые фотоэлектрические станции, сооружаемые предпринимателями -550 МВт.

Кроме этого, в 37 тысячах квартирах будут установлены маломощные, возобновляемые источники энергии. В различных регионах страны будут построены более 103 малые и микро-гидроэлектростанций, 5 407 объектах социальной сферы будут отапливаться углем.

Таким образом, применение доступных недорогих зеленых технологий в энерго-, водо- и землепользования – являются актуальной задачей на пути к

созданию зеленой экономики. Распространение зеленых технологий существенно упростит государственные программы по устойчивому использованию водных ресурсов, снизить нагрузку на природные экосистемы, сократить расходы населения и улучшить качество жизни населения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Постановлением Президента Ш.Мирзиёева «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на «зеленую» экономику до 2030 года, от 02.12.2022 г. № ПП-436.
2. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему расширению и укреплению двустороннего сотрудничества между республикой Узбекистан и объединенными арабскими эмиратами», от 02.04.2019 г. № ПП-4256
3. Аналитическая записка: Зеленое восстановление и переход к Зеленой экономике в Узбекистане. 2021.
4. Порфирьев Борис Николаевич "зеленый" фактор экономического роста в мире и в России // Проблемы прогнозирования. 2018. №5 (170).

СУҒОРИЛАДИГАН ЎТЛОҚИ ТУПРОҚЛАРИНИНГ ШЎРЛАНГАНЛИК ҲОЛАТИ ВА УНУМДОРЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ИЛМИЙ ТАВСИЯЛАР

*Назарова С.М,
Бухоро давлат университети доценти
О.Ш.Хакимова,
Бухоро давлат университети магистри
o.sh.hakimova@buxdu.uz*

Республика Президенти ва Ҳукумати томонидан табиий ресурслар ичида алоҳида, қишлоқ хўжалиги ерлари тупроқларидан оқилона ва самарали фойдаланишни ташкил этиш, уларни муҳофаза қилиш, мелиоратив-экологик ҳолатини яхшилаш, унумдорлигини сақлаш ва ошириш вилоят олдида турган долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Ҳозирги кунда вилоятда тупроқ-иқлим шароитларини ва қишлоқ хўжалиги экинлари талабларини эътиборга олган ҳолда бир қатор агро-мелиоратив, агротехник ва агрокимёвий чора-тадбирлар мажмуаси амалга оширилмоқда. Натижада, суғориладиган тупроқларнинг мелиоратив-экологик ҳолати яхшиланиб, уларнинг унумдорлик даражаси ҳамда қишлоқ хўжалик экинлари ҳосилдорлиги кўтарилмоқда.

Ўзбекистонда суғориладиган шўрланган тупроқлар турли горизонтал-кенглик зоналарда учрайди. Суғориладиган шўрланган тупроқларнинг ҳосилдорлиги тупроқ ҳосил қилувчи жинсларнинг характериға, тупроқ типларига, суғориш даврларига, шўрланганлик даражаларига ҳамда уларда ўтказилаётган агротехник ва мелиоратив тадбирларни мажмуасига боғлиқ.

Шўрланган суғориладиган тупроқлардаги сувда осон эрувчи тузлар асосан 3 катион Na, Ca, Mg ва 4 анион Cl, сульфат, гидрокарбонат, карбонатнинг кимёвий бирикishi натижасида ҳосил бўлган 12 хил туздан иборат. Улар қуйидаги тузлар NaCl, Na₂CO₄, Na₂CO₃, NaHCO₃, MgCl₂, MgCO₄, MgCO₃, Mg(Cl₃)₂. Бу тузлар ўсимлик учун заҳарли, булар ичида энг хавфлиси Na₂CO₃ кейинги ўринда MgCl₂ тузларидир. Калций сульфат заҳарсиз туз ҳисобланади. Бухоро вилоятининг туманларида табиийки шўрланиш хлорид-ёки сульфат тузлардан ташкил топган. Хлоридлар жуда кам учрайди. Суғориладиган тупроқлар шўрланганлик даражасига қараб 5 асосий гуруҳга бўлинади. Ушбу гуруҳлар жадвалда келтирилган:


Тупроқларнинг шўрланганлик даражаси бўйича бўлиниши

№	Шўрланганлик даражаси	0-100 см ли қатламдаги тузлар миқдори	
		Қуруқ қолдиқ	Шу жумладан хлор
1	Шўрланмаган	<0,3	0,01
2	Кучсиз шўрланган	0,3-1	0,01-0,05
3	Ўртача шўрланган	1,0-2,0	0,05-0,10
4	Кучли шўрланган	2,0-3,0	0,10-0,15
5	Шўрхоқлар	>3,0	0,15

Ҳозирги кунда вилоятда тупроқ-иқлим шароитларини ва қишлоқ хўжалиги экинлари талабларини эътиборга олган ҳолда бир қатор агромелиоратив, агротехник ва агрокимёвий чора-тадбирлар мажмуаси амалга оширилмоқда. Натижада, суғориладиган тупроқларнинг мелиоратив-экологик ҳолати яхшиланиб, уларнинг унумдорлик даражаси ҳамда қишлоқ хўжалик экинлари ҳосилдорлиги кўтарилмоқда.

Бухоро вилояти тупроқлари бир қанча олимлар томонидан турли даврларда Л.Т.Турсунов [7; 30 б.], Гафуров К., Абдуллаев С. [2; 130 с.] Х.Т.Артиқова[1; 62 б.], Курвантаев[3; 40-55 с., 4; 142 б.], С.М.Назарова[5. 54-55 б., 6; 44 б.] лар ва бошқалар томонидан илмий изланишлар олиб борган. Бунинг натижасида тупроқларнинг агрофизикавий ва мелиоратив хоссаларига қадимдан суғориладиган ва маданий ҳолатига таъсир қилинганлиги аниқланган.

Ўрганилган хууднинг турли даврлардан суғорилган оғир ва ўрта



1-расм Сувда осон эрувчи тузлар захираси, т/га

кумоқли ўтлоқи тупроқлари сувда эрувчи тузлар миқдори бўйича шўрланмаган ва айрим жойларда (асосан хлор бўйича) кучсиз ва ўртача шўрланган. Бухоро воҳаси туманларининг ўрганилган суғориладиган тупроқларидаги сувда эрувчи тузлар захираси бўйича Жондор туманининг устки 0-35 см қалинликдаги миқдори 27,4 т/га ни, Вобкент (0-27 см) ва Когон (0-25 см) туманларида бу кўрсаткич 3,5 - 5,8 т/га ни ташкил қилади. Қорақўл туманида бу кўрсаткич (0-35см) 18 т/га ни ташкил этиши билан фарқланади. 1-расм маълумотларининг кўрсатишича, Когон туманининг 38-68 см даги қатламида туз захираси кўп миқдорда (47 т/га) бўлиб, худди шундай ҳолат Қорақўл туманидаги тупроқ кесмасининг 90-115 см даги қатламида 63 т/га ни ташкил этиши яъни ушбу қатламларда кўп миқдорда туз захираси сақланганлигини гувоҳи бўлиши мумкин.

Хулоса ва тавсиялар ўрнида шуни айтиш мумкинки, ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилашга қаратилган тадбирларни амалга оширишда биринчи навбатда соғломлаштиришга муҳтож мелиоратив объектларни тўғри танлаш ниҳоятда муҳим ҳисобланиб, бу масалага илмий амалий томондан мажмуавий ёндашиш зарур.

- Суғориладиган ерларида шўрланиш жараёнини олдини олиш, тупроқ унумдорлиги ва маҳсулдорлиги ҳамда қишлоқ хўжалик экинлари ҳосилдорлигини мунтазам ошириб бориш учун гидротехник, агротехник ва мелиоратив тадбирлар тўлиқ бажарилишини талаб этади.
- Суғориладиган асосий майдонларда вужудга келган гидроморф сув режимини (грунт сувлари 1,0-2,0 м дан), ярим гидроморф сув режимига (2,5-3,0 м гача) ўтказиш лозим.
- Грунт сувларининг кўтарилиши ва у билан боғлиқ иккиламчи шўрланиш жараёнларининг олдини олиш учун суғориш сувларидан меъёрида фойдаланиш, каналлар суғориш тармоқлари ва латок тизимларини техник қайта жиҳозлаш ва сифатли таъмирлаш, экинларни суғоришда тупроқ-иқлим шароитлари, экинлар тури, вегетация (ўсиш) даври, сувга талабчанлиги, грунт

сувларининг чуқурлиги ва бошқа омилларни ҳисобга олган ҳолда, суғориш муддатлари, сони ва меъёрларини тўғри белгилаш, суғориш режимларига қатъий риоя қилиш муҳим аҳамиятга эга.

- Мелиоратив тадбирлар ичида тупроқ шўрини ювиш энг асосий ва муҳим тадбирлардан ҳисобланиб, уни ўз вақтида ва сифатли ўтказиш ниҳоятда муҳим. Шунинг учун ҳудудлар учун тузилган “Тупроқ шўрланиш харитаграммаси” асосида тадбирларни амага ошириш тавсия этилади.
- Шўр ювишда тупроқларнинг шўрланиш даражаси, механик таркиби, сув ўтказувчанлиги (сув-физикавий хоссалари) ҳамда илдиз тарқаладиган қатламдаги (0-1м) тузлар миқдори ва захиралари ҳисобга олиниши зарур. Шўр ювиш учун сув меъёрлари механик таркибига қараб турлича сарфланади. Шўр ювишдан кейинги тупроқдаги тузлар миқдори хлор-иони 0,01 % гача ва қурук қолдиқ миқдорини эса 0,4-0,6 % гача камайтириш тавсия этилади.

Юқорида кўрсатиб ўтилганидек, бу тупроқларда реакция ишқори тупроқ физик хоссалари оғир, сув - оқова режими ёмон бўлганидан ўсимликлар ўсиши қийин, шунинг учун шўртоб тупроқларнинг кимиявий ва физикавий хусусиятларини яхшилаш учун бу тупроқларга гўнг солиш тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Артикова Х.Т. Бухоро воҳаси тупроқларнинг эволюцияси, экологик ҳолати ва унумдорлиги. Автореф. док. дисс. (DSc). –Тошкент,2019. 62 б.
2. Гафуров К., Абдуллаев С. Характеристика почвенного покрова орошаемой зоны Бухарской области.- Ташкент: Изд-во «Фан», 1982.-130 с.
3. Курвантаев Р. Оптимизация и регулирование агрофизического состояния орошаемых почв пустынной зоны Узбекистана. Автореф. докт. дисс. - Ташкент. 2000. - С. 40-55.
4. Курвантаев Р., Назарова С.М.Зарафшон воҳаси қуйи оқими суғориладиган ўтлоқи тупроқларининг агрофизикавий ҳолати. –Бухоро.2021.- 142 б.
5. Назарова С.М., Курвантаев Р. Бухоро воҳаси тупроқлари / “O’zbekiston qishloq xo’jaligi” журналининг “Agro ilm” илмий иловаси. –Тошкент, 2012. №3 (23). - Б. 54-55.

ОСОБЕННОСТИ ТЕХНОЛОГИИ ПРИГОТОВЛЕНИЯ КОНЦЕНТРАТОВ НА ОСНОВЕ ОВОЩНЫХ ЭКСТРАКТОВ

Г.Т.Зарипов,

кандидат тех.наук, профессор

Бухарский госуниверситет

Ю.Ш.Жамолитдинова,

магистр Бухарского государственного университета

Переход на рыночную экономику позволил заполнить рынок республики огромным количеством безалкогольных напитков, изготавливаемых на основе импортных концентратов и порошков.

Приготовление последних зачастую не исключает использование различных компонентов химического синтеза. В связи с чем, актуальной является проблема разработки технологий приготовления напитков на основе местного нетрадиционного экологически чистого сырья. В качестве такого вида сырья нами были применены красная морковь и тыква.

Данные пищевые продукты являются богатым источником витаминов и минеральных солей и поэтому, наряду с другими пищевыми продуктами, занимают в рационе человека достойное место.

Так каротин, содержащийся в моркови, под воздействием фермента печени преобразуется в витамин А, который способствует нормальному обмену веществ, физическому и умственному развитию организма, повышает сопротивляемость к простудным заболеваниям, обеспечивает нормальную функцию органов зрения. Поэтому морковь ценится не только как продукт питания, но и как полезное лечебное средство.

Тыквенная мякоть улучшает работу желудочно-кишечного тракта, способствует желчеотделению, повышает водный и солевой обмены, в результате чего повышается диурез. Поэтому она рекомендуется больным, страдающим сердечно-сосудистыми заболеваниями, сопровождающимися отеками, заболеваниями печени и почек, при подагре, а также для нормализации работы желудочно-кишечного тракта, особенно при упорных запорах. Свежеприготовленный сок тыквы также находит применение как мочегонное средство. Рекомендована тыква и больным ожирением и сахарным диабетом, так как она содержит мало углеводов и калорий.

Биологически активные вещества локализованы во внутренних частях клеточных строений, они надежно защищены протоплазматической мембраной клетки. Цементирующим материалом стеночной клетки служат пектиновые вещества и соли, образованные поливалентными металлами. Пектинаты избирательно реагируют на различные органические и минеральные кислоты. Соляная кислота – хороший гидролизат протопектина, однако ее использовать при производстве напитков нежелательно, так как гидролизат, оставаясь в выделенном экстракте, ухудшает качество концентрата. Для этой цели можно использовать щавелевую, винную или лимонную кислоты.

Было установлено, что наибольший эффект от экстракции получается при использовании 0,5% -го раствора лимонной кислоты; оптимальными параметрами процесса оказались: температура – 70⁰С, продолжительность экстракции – 7 минут.

Концентрирование экстракта проводили в вакууме при 70⁰С до накопления сухих веществ до 55%. Интерес вызвала активность ферментов беттафруктофуранозидазы и эстеразы (гидролизующая функция) в

концентрированных экстрактах, полученных с использованием раствора лимонной кислоты.

Результаты исследования приведены в таблице 2. В качестве ферментосодержащего объекта принимали 1 грамма концентрированного экстракта. Активность беттафруктофуранозидазы выражали в мл. 0,1 N раствора израсходованного на титрование при определении инвертного сахара в объекте при инкубации в течение 2-х часов. Активность эстеразы выражали в мл. 0,1 N раствора NaOH, израсходованного на титрование прогидролизованного уксусноэтилового эфира.

Таблица 1

Активность ферментов беттафруктофуранозидазы и эстеразы в концентратах

№	Наименование экстракта	Активность беттафруктофуранозидазы	Активность эстеразы
1	0, 1	3,2	0,8
2	0, 2	3,8	1,2
3	0, 3	7,6	1,7
4	0, 4	8,3	2,4
5	0, 5	10,2	6,2
6	0, 6	10,3	6,4
7	0, 7	10,3	6,4

Как видно из таблицы 1, наибольшая активность ферментов наблюдается в образцах концентратов, полученных 0,5 – 0,7%-ным раствором лимонной кислоты. Как известно, высокая активность фермента беттафруктофуранозидазы будет способствовать не только гидролизу сахарозы в готовом напитке, но и синтезу различных алкилфруктозидов существенно улучшающих вкусовые качества готового продукта [2].

Состав органических кислот концентрата изучали методом бумажной хроматографии. Органические кислоты из разбавленного тыквенно-морковного концентрата выделяли пропусканием последних через ионообменного анионита ЭДЭ – 10 П в форме CO со скоростью 1 мл/мин. Элюцию кислот проводили 10%-ным раствором углекислого аммония. Аммонийные соли органических кислот разделяли на ионообменном катионите КУ-2 в Р-форме. В качестве растворителя при хроматографировании использовали смесь н-бутилового спирта, муравьиной кислоты и воды в соотношении 7:1:2.

Органические кислоты проявляли 0,04%-ным спиртовым раствором бромкрезола синим. Сравнение пятен с метчиками органических кислот показало, что в тыквенно-морковном концентрате находятся такие кислоты,

как: яблочная, янтрачная, кетоянтрачная, лимнная, винная, гликолевая, молочная и 2 неизвестные. Данные кислоты придадут напитку легкую свежесть.

Исходя из вышесказанного, можно сделать вывод, что из красной моркови и тыквы можно вырабатывать экологически чистые безалкогольные напитки, богатые биологически активными веществами.

ЛИТЕРАТУРА

1. Zaripov G. T., Nazarova S. M. The USE of local vegetables raw materials in the production of the soft drinks //The American journal of applied sciences. АКШ. – 2020. – Т. 2. – №. 10.
2. Zaripov G. T., Beshimov Y. S., Normurodov B. R. Effect of concentration of alkaline solutions in production of paper semi-finished products from local raw materials //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 3. – №. 2. – С. 45-49.
2. 3 Зарипов Г. Т., Саломов Х. Т., Мажидов К. Х. Безалкогольный напиток, богатый биологически активными веществами //Пиво и напитки. – 2005. – №. 3.
3. Зарипов Г. Т., Саломов Х. Т., Мажидов К. Х. Безалкогольный напиток, богатый биологически активными веществами //Пиво и напитки. – 2005. – №. 3.
4. Зарипов Г. Т. и др. Изменение качества риса-зерна при послеуборочном дозревании //Хранение и переработка сельхозсырья. – 2003. – №. 11. – С. 68-69.
5. Зарипов Г. Т. и др. Кулинарные достоинства некоторых сортов риса, выращиваемых в Республике Узбекистан //Хранение и переработка сельхозсырья. – 2003. – №. 10. – С. 64-65.

РЕШЕНИЕ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО УРАВНЕНИЯ ТЕПЛОПРОВОДНОСТИ НЕЯВНОЙ АППРОКСИМАЦИЕЙ ПРОИЗВОДНЫХ

*Б.Ф.Очилов,
А.Э.Иззатуллоев,
Магистранты специальности «Прикладная математика» БухГУ*

На практике в процессе теплотехнических расчетов возникает необходимость решения одномерных задач цилиндрической или сферической симметрии. Например, можно решить вопрос об охлаждении длинного цилиндра или анализе теплового состояния выпускных каналов. Моделирование таких процессов с учетом точных характеристик объекта теплоотвода является актуальной задачей.

Анализируем теплообмен через плоскую бесконечную пластину или стержень, не обменивающийся теплом с внешней средой [1-3].

В одномерном случае уравнение теплопередачи имеет следующий вид[1]:

$$c\rho \frac{\partial T}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(\lambda \frac{\partial T}{\partial x} \right) + Q(x), \quad 0 < x < l; t > 0, \quad (1)$$

Здесь, c и ρ соответственно теплоемкость и плотность вещества, λ – коэффициент теплопроводности, $Q(x)$ – источник тепла, который можно разместить на стержене.

Начальные условия:

$$t := 0: \quad T = T_0, \quad 0 \leq x \leq L;$$

Граничные условия:

$$\begin{cases} x = 0: T = T_l, t > 0; \\ x = L: T = T_r, t > 0; \end{cases} \quad (2)$$

В данной исследовательской работе мы рассматриваем случай, когда в процессе отсутствует дополнительный источник тепла, т.е. $Q(x)=0$. Заменяем дифференциальные операторы в уравнении (1) их конечными аналогами вычитания. Используем схему, не описанную в данной теме [4-6]:

$$\frac{\partial T}{\partial t} = \frac{T_i^{n+1} - T_i^n}{\tau}, \quad \frac{\partial^2 T}{\partial x^2} = \frac{T_{i+1}^{n+1} - 2T_i^{n+1} + T_{i-1}^{n+1}}{h^2}$$

Замена специальных производных соответствующими конечными вычитаниями дает следующую систему линейных алгебраических уравнений:

$$\rho c \frac{T_i^{n+1} - T_i^n}{\tau} = \lambda \left(\frac{T_{i+1}^{n+1} - 2T_i^{n+1} + T_{i-1}^{n+1}}{h^2} \right), \quad i = 2, 3, \dots, N-1, n \geq 0 \quad (4)$$

Здесь, N – количество узлов, взятых по оси x .

Причина, по которой такой метод аппроксимации производных называется не раскрытием, заключается в том, что температурное поле в новом временном слое выражено неявно, то есть для их описания используется метод прогонки [7-9].

(4) – реализация формальных замен в равенстве, общий вид можно представить следующим образом:

$$A_i \cdot T_{i+1}^{n+1} - B_i \cdot T_i^{n+1} + C_i \cdot T_{i-1}^{n+1} = F_i \quad i = 1, \dots, N-1 \quad (5)$$

здесь,

$$A_i = C_i = \frac{\lambda}{h^2}, \quad B_i = \frac{2\lambda}{h^2} + \frac{\rho c}{\tau}, \quad F_i = -\frac{\rho c}{\tau} T_i^n$$

(5) Система имеет трех диагональную структуру. Следовательно, поскольку рассматривается нестационарная задача, систему (5) необходимо решать на каждом временном шаге.

Будем решать алгебраическую систему уравнений (5) методом прогонки [10-11].

Программный продукт на основе этого алгоритма был создан в Delphi [11], результаты записаны в виде массивов, а графики получены в математическом пакете Mathcad [12].

Процесс теплопроводности в различных материалах можно увидеть на рисунке 1. На левом графике представлен процесс распространения тепла в стержне из железа, а на втором графике в стержне из меди. Из графиков на рисунке видно, что скорость проводимости тепла в стержне медного материала значительно выше.




Рисунок 1. Сравнение процесса распространения тепла в стержнях железа и меди через 5 и 15 минут.

Заключение

В данной тезисе теоретически рассматривается вопрос рассеивания тепла в одномерном пространстве без внутреннего источника с учетом термодинамических свойств материала. Составленный алгоритм и программное обеспечение можно использовать в практических задачах.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Разностные методы решения задач теплопроводности: учебное пособие. / Г.В. Кузнецов, М.А. Шеремет. – Томск: Изд-во ТПУ, 2007. – 172 с.
2. Дьяконов В.Г., Лонцаков О.А. Основы теплопередачи. Учебное пособие//КНИТУ, Казань, 2011. -230 с.
3. Андерсон Д., Таннехилл Дж., Плетчер Р. Вычислительная гидромеханика и теплообмен. В 2-х томах. М: «Мир», 1990. 344 с.
4. Jumayev J., Mustapakulov Ya., Kuldoshev H. Numerical algorithm for modeling turbulence in a jet with diffusion combustion// 14th international Conference on Application of information and Communication technologies(AICT). Conference Proceedings.(Tashkent, 7-9 okt. 2020). pp. 1-4 DOI 10.1109/AICT50176.2020.9368857
5. Jumayev J., Shirinov Z., Kuldashv H. Computer simulation of the convection process near a vertically located source//International conference on information Science and Communications Technologiyes (ICISCT) 4-6 november. 2019. Tashkent. Conference Proceedings. pp.635-638.
6. DOI: 10.1109/ICISCT47635.2019.9012046
7. Жумаев Ж., Тошева М.М. Моделирование стационарной теплопроводности при свободной конвекции в ограниченном объеме// Universum. Технические науки. Выпуск 4(97). Апрель, 2022. Часть 3. С. 34-38. <http://7universum.com/ru/tech/archive/category/497>

8. Jumayev J. Transport masalasini MathCAD tizimida yechish// BuxDU ilmiy axboroti, 2022, № 6, 27-31 betlar.
https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8701
9. Amirov S.F., Jumayev J., Sattorov T.A. Tarqoq parametrli magnit zanjirlarni magnitlanish egri chizig,ini aproksimatsiyalovchi funksiyani aniqlash// BuxDU ilmiy axboroti, 2024, № 2, 69-74 betlar.
10. Khujaev I., Jumayev J., Hamdamov M. Modeling of combustion processes in cylindrical chambers using modern package programs// AIP Conf. Proc. 3004, 060015 (2024) <https://doi.org/10.1063/5.0199986>
11. Жумаев Ж., Аvezов А.А. Естественная конвекция между двумя вертикально расположенными стержнями// BuxDU ilmiy axboroti, 2023, № 10, 54-59 betlar.
https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11518
12. Jumayev J., Fatulloyeva M.N. Manbasiz turli materialli bir o'lchovli sohalarda issiqlik tarqalishini sonli o'rganish// BuxDU ilmiy axboroti, 2023, № 9, 35-43 betlar.
https://uniwork.buxdu.uz/resurs/48634_1_EAA9C78DB1EB1FD6B9EA3ECC464D54CB42B5D91D.pdf
13. Жумаев Ж. Решение математических задач в пакетах математических программ. Учебное пособие. Бухара. «Дурдона», 2020. 240 с.
https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13227_2_D84564EDB490F3D0421C50F064AA3E32C739DAB1.pdf

QURG'OQCHILIK SHAROITIDA G'O'ZA NAVLARI HUJAYRA SHIRASINING KONSENTRATSIYASI VA OSMOTIK BOSIMI

D.R.Teshayeva,

Buxoro davlat universiteti b.f.f.d (PhD)

N.I.Ruzieva,

BuxDU, biologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

n.i.ruziyeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada g'o'za navlari hujayra shirasi konsentratsiyasi va osmotik bosimiga qurg'oqchilikning ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Olingan ilmiy natijalarga qaraganda qurg'oqchilikning ta'siri natijasida o'rganilgan navlarda qurg'oqchilik sharoitida g'o'za navlarining hujayra shirasining konsentratsiyasi va osmotik bosimi qiymati ko'tarildi. O'rganilgan navlar ichida Buxoro-102 navining hujayra shirasining konsentratsiyasi va osmotik bosimi qiymati Buxoro-8 va C-6524 naviga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: g'o'za, qurg'oqchilik, cho'l, qurg'oqchil iqlim, hujayra shirasi konsentratsiyasi, tuproq namlik darajasi, osmotik bosim.

Kirish. Ma'lumki, tuproq tabiatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'zida jonli va jonsiz tabiiy borliqni mujassam etgan hosilasi va tirik organizmlar uchun yashash muhti hisoblanadi. Buxoro vohasi hududida cho'l zonasiga xos tuproqlar tarqalgan bo'lib, ular bir butun yaxlit maydonlarni hosil

qilmaydi va har xil tipga xos tuproqlar mavjud. Tuproqlar ona jinsning xususiyati, joyning reliefi, sizot suvlarining ximiyaviy tarkibi va chuqurligi kabi omillarga binoan tuproqning tiplari o'zgarib turadi. O'zlashtirilganlik darajasiga ko'ra tuproqlarning ikkita (cho'l va voha) guruhlarini tashkil etadi. Viloyatimiz iqlimi bir necha omillarning o'zaro hamkorligi ta'sirida vujudga kelgan bo'lib, o'lka hududini geografik o'rni bu borada yetakchi ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Viloyat hududida tabiiy namlik yetarli emas. Atmosfera yog'inlarining yillik miqdori 90-150 mm.ni tashkil qiladi. Yer betidan mumkin bo'lgan bug'lanish 2000 mm. gacha yetadi [1].

Buxoro hududi o'ta qurg'oqchilik (arid) zonaga mansubdir. Yog'inlar aksariyat yomg'ir tarzida namoyon bo'ladi. Qor qoplami surunkali va qalin bo'lmay uzoq saqlanmaydi va erib ketadi. Yog'inlarning yil davomida taqsimlanishi nihoyatda notekisdir. Bahor nisbatan eng sernam fasl bo'lib, yillik yog'inning 45-55 foizi shu muddatga to'g'ri keladi. Yoz o'ta quruqdir. Havoning nisbiy namligi juda pasayadi, iyul-avgust oylarining ba'zi kunlarida bu ko'rsatkich 10-20 % kamayadi. O'lka iqlimida mahalliy shamollarning alohida o'rni katta. Ma'lumki, yer sharining hamma joylarida shamollarni kuzatish mumkin bo'ladi. Lekin ularning ta'siri aynan cho'l zonasida kuchli namoyon bo'ladi. Bu yerdagi issiq, qurg'oqchil iqlim va yarim yalang'och qaqragan tuproq yuzasi shamollarning yaratuvchanlik kuchiga qulay imkoniyatlar yaratib beradi. Umuman olganda viloyat iqlimi resurs sifatida bebaho tabiiy boyliklardan biri hisoblanadi. Ayniqsa quyoshli damlarning, foydali haroratning yetarlicha bo'lishi o'lka iqlimining ijobiy sifatleri hisoblanadi va ahamiyatlidir [2].

Hujayra shirasi konsentratsiyasining qiymati o'simliklarni suv bilan ta'minlash darajasini ko'rsatuvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi va ayni paytda o'simliklarga suvning kirishini ham xarakterlaydi. Olimlarning ma'lumotlariga qaraganda hujayra shirasi konsentratsiyasining yuqori bo'lishi o'simliklarni issiqdan va suv tanqisligidan himoya qiluvchi ko'rsatkich hisoblanadi[3].

O'simlik hujayralaridagi suv miqdori va hujayra shirasi konsentratsiyasi qator tashqi muhit omillari, jumladan o'simliklarni suv bilan ta'minlash darajasiga ham bog'liq. Qurg'oqchil sharoitda yashovchi o'simliklar namlik yetarli bo'lgan muhitdagi o'simliklarga qaraganda hujayra shirasi konsentratsiyasining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. G'o'za navlari qurg'oqchilikka nisbatan chidamliligining ekofiziologik asoslarini o'rganishda hujayra shirasining konsentratsiyasi va osmotik bosimi qiymatini aniqlash muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi[4].

Tadqiqot obyektlari va uslublari. Izlanishlarning ob'ekti sifatida o'rta tolali g'o'za navlari guruhiga mansub bo'lgan Buxoro-102, Buxoro-8 va C-6524 navlaridan foydalanildi. Hozirgi vaqtda ushbu navlar respublikamizning qator viloyatlarida ekilmoqda. Tajribalar davomida viloyatda keng tarqalgan o'tloqi-allyuvial tuproqlardan foydalanildi. Bunday tuproqlar Buxoro viloyatining asosiy maydonlarini tashkil qiladi.

G'o'za navlarining hujayra shirasi konsentratsiyasi va osmotik bosimiga qurg'oqchilikning ta'sirini o'rganish maqsadida tajribalar o'tkazildi. Tajribalarda

sug'orishdan oldingi tuproq namligi va dala nam sig'imini aniqlash yo'li bilan tuproqning suv tanqisligi o'rganilib, sug'orish ishlari amalga oshirildi. Barcha tajribalar tuproq namligi mo'tadil va qurg'oqchilik sharoitlarida olib borildi. Hujayra shirasining quyuqlik darajasi va osmotik bosimi RPL yordamida aniqlandi. Fiziologik ko'rsatkichlarni aniqlash va fenologik kuzatishlar tajribalarda g'o'zaning gullash va ko'saklash bosqichlarida o'tkazildi. Bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun poyaning uchki qismidan, o'rtacha rivojlangan uchinchi barg olindi.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Izlanishlarimizda hujayra shirasining konsentratsiyasi va uning osmotik bosimini o'rganishga harakat qildik. Buning uchun bir qancha tajribalar o'kazildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha olingan tajriba natijalari 1- jadvalda keltirilgan.

Hujayra shirasining konsentratsiyasi g'o'za navlarining gullash va ko'saklash bosqichlarida o'rganildi. Tuproqdagi namlik darajasining kamayishi bilan g'o'za navlari hujayra shirasi konsentratsiyasining oshishib borishi aniqlandi. Tuproq namlik darajasi 70 % bo'lgan variantlarda ushbu ko'rsatkich qiymati past bo'ldi. Ikki xil namlik sharoitida ham Buxoro-102 navi hujayra shirasining konsentratsiyasi boshqa navlarga nisbatan yuqori bo'lganligi kuzatildi. Bunday xususiyat o'simliklarni noqulay sharoitda ham ko'proq suv bilan ta'minlashga qaratilgan himoyaviy xossalardan biri bo'lishi mumkin. Umuman olganda tuproqdagi suv miqdorining kamayishi barcha navlarda ushbu ko'rsatkich qiymatining oshishiga olib keldi. Shu kabi xususiyatlar boshqa olimlarning izlanishlarida ham ta'kidlangan.

G'o'zaning rivojlanishi davomida barg hujayralari shirasining konsentratsiyasi oshib boradi va u ko'saklash bosqichida eng yuqori bo'ladi. Bizning izlanishlarimizda olingan natijalar ham yuqoridagi qonuniyatlarga mos keladi.

Ilmiy adabiyotlarda hujayra shirasining konsentratsiyasi o'simlik navlarining biologik xususiyatlariga bog'liqligi to'g'risida bir qancha ma'lumotlar mavjud. Qurg'oqchilikka nisbatan chidamli bo'lgan o'simliklarda hujayra shirasining konsentratsiyasi ham yuqori bo'ladi. Qurg'oqchilik sharoitida ushbu ko'rsatkich qiymatining oshishi hujayrada osmotik faol moddalar to'planishi bilan bog'liq. Shuningdek, uning qiymati murakkab organik moddalarning parchalanishi bilan ham bog'liq [5].

Tajribalarimizda navlarning hujayra shirasining konsentratsiyasi aniqlandi. Bu tajribalarda ikki xil namlik tashkil qilindi. Yuqoridagi ko'rsatkich barcha g'o'za navlarining gullash va ko'saklash bosqichlarida aniqlandi. O'rganilgan ma'lumotlarga qaraganda mazkur ko'rsatkich qiymati namlik darajalari, navlarning rivojlanish bosqichlari hamda ularning biologik va fiziologik xususiyatlariga bog'liq holda har xil bo'ldi. Namlik darajalari pasaya borishi bilan barcha navlarda hujayra shirasining konsentratsiyasi oshib borganligi aniqlandi. Tajribalarimiz davomida hujayra shirasining konsentratsiyasi bilan bir qatorda navlarning osmotik bosimini ham aniqladik.

1- jadval

G'o'za navlari hujayra shirasi konsentratsiyasi, %

T/r	Navlar	Gullash	Ko'saklash
-----	--------	---------	------------

		70 % namlik	
1	Buxoro-8	9,1±0,04	10,1±0,13
2	C-6524	8,5±0,10	9,4±0,12
3	Buxoro-102	9,6±0,07	10,8±0,14
		30% namlik	
1	Buxoro-8	13,1±0,22	14,1±0,13
2	C-6524	10,7±0,21	11,3±0,12
3	Buxoro-102	13,2±0,18	14,8±0,12

G'o'za navlari hujayra shirasining osmotik bosimi g'o'za navlarining gullash va ko'saklash bosqichlarida o'tkazildi. Tuproq namlik darajasi bo'yicha ikki xil, ya'ni 70% va 30% tuproq namlik darajalari hosil qilindi. Tuproq namlik darajasining kamayishi hujayralarda osmotik bosimning oshishiga ta'sir ko'rsatdi. Barcha navlarda vegetatsiyaning boshidan oxirigacha ushbu ko'rsatkich qiymatining oshishi aniqlandi.

J.X Xo'jaev [6], ko'rsatishicha, ko'pchilik holatlarda osmotik bosim qiymati bilan o'simliklarning qurg'oqchilikka nisbatan chidamlilik darajasi o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud. Bizning izlanishlarimizda ham shu kabi qonuniyatlar kuzatildi.

O'simliklarning suvga bo'lgan ehtiyoji va talabini hujayra shirasining konsentratsiyasi va osmotik bosim qiymatiga asoslanib aniqlashni tavsiya qilganlar. Hujayra shirasining konsentratsiyasi va osmotik bosimining qator fiziologik jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini aniqlagan[5].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bizning tajribalarimiz va qator olimlarning izlanishlariga qaraganda o'rganilgan g'o'za navlarining hujayra shirasining konsentratsiyasi va uning osmotik bosimi o'simliklarni suv bilan ta'minlash darajasiga bog'liq ekan. Bunday sharoitda qurg'oqchilikka chidamli bo'lgan navlarda osmotik faol moddalar to'planishi evaziga ularda hujayra shirasining konsentratsiyasi va osmotik bosimi yuqori bo'ladi. Tajribalarimizda ushbu ko'rsatkichlar qiymati Buxoro-102 va Buxoro-8 navlarida yuqori bo'ldi. Bu esa ushbu navlarning tuproqdagi nam tanqisligiga nisbatan moslashuvidan dalolat beradi. Hujayra shirasining osmotik bosimi kuchi navlarning biologik xususiyatlariga, tuproq namlik darajalariga hamda shu navlarda hujayra shirasining konsentratsiyasiga bog'liq bo'lganligi qayd etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ортиқова Х.Т. Бухоро воҳаси тупроқларининг экологик ҳолати//Қишлоқ хўжалигида экологик муаммолар: Республика илмий-амалий конференция материаллари. - Бухоро: 2006. - Б. 201-206.
2. Xolliev A.E. G'o'za navlarining qurg'oqchilikka chidamliligining fiziologik xususiyatlari // diss. doktor biol. –Toshkent, 2016.-82 b.
3. Xolliev A.E., Norboeva U.T. G'o'za va boshqa ekinlarga qurg'oqchilik ta'sirining ekofiziologik asoslari.-Buxoro. Buxoro nashriyoti, 2019.146 b.

4. Xolliev A.E. O'simliklarning noqulay abiotik omillarga chidamlilik xususiyatlari. –Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2019.- 117 b.
5. Xolliev A.E. G'o'zaning ayrim fiziologik jarayonlari va mahsuldorligiga qurg'oqchilikning ta'siri”// diss. biol. –Toshkent, 2012. -82 b.
6. Хўжаев Ж. Х. Ўсимликлар физиологияси. – Тошкент: Мехнат, 2004. - 224 б

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA TARMOQLARINING AYRIM GIDROLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA (KOGON TUMANI MISOLIDA)

*Y.Q.Xayitov,
G.B.Jo'rayeva,*

*BuxDU, geografiya mutaxassisligi 2- bosqich magistranti
g.b.jurayeva@buxdu.uz*

O.K.Ishonova

Annotatsiya. Maqolada Irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarining ayrim gidrologik xususiyatlari jumladan: Kogon tumani misolida ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur Irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini takomillashtirish davr talabi ekanligi to'grisida to'xtalib o'tilgan. Buning uchun esa suv tejamkor texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etish masalalari bo'yicha fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda suvga bo'lgan talabning oshib borishi, bir qator yechimga muhtoj bo'lgan muammolarga sabab bo'lmoqda. Mazkur muammoni yumshatishning eng muhim yo'llaridan biri, mahalliy suv zahiralarni o'rganish va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishdir.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning 2019 yil 9-dekabr – «Qishloq xo'jaligi hodimlari kuni»da qilgan ma'ruzalarida suv resurslaridan va unumli yerlardan foydalanish va uni talon-taroj qilishning oldini olish – eng muhim vazifalardan biridir degan fikrlari bilan sohada qilinishi lozim bo'lgan ishlarga to'xtalishlari bejiz emas edi. Mamlakatda sug'oriladigan yerlar atigi 3 million 300 ming gektar bo'lib, uni ko'paytirishning hech iloji yo'q. Sababi, O'zbekistonda suv resurslari cheklangan. Hozirda mamlakatimizda 830 ming gektar yerni sug'orishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Bunda ilmiy asoslangan sug'orish me'yoring ya'ni qishloq xo'jaligi ekinlarini maqbul sug'orish rejimining o'rnatilishi alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlash joiz. Aholi sonining o'sishi va iqtisodiyot tarmoqlarining jadal rivoji suv resurslari yetishmovchiligini kuchaytiradi. Bu ayniqsa barqaror rivojlanishi transchegaraviy daryolar suvining hajmiga bog'liq bo'lgan cheklangan tabiiy suv resursli hududlarga tegishlidir.

Buxoro viloyati ham o'zining tabiiy suv manbaiga ega bo'lmagan hududlar sirasiga kiradi. Viloyat geografik va gidrologik jihatdan Qizilqum sahrosining markaziy qismida joylashgan, shimoli-g'arbiy tomondan Turkmaniston Respublikasi, janubi- sharqdan Qashqadaryo viloyati, shimoli-g'arbdan Navoiy viloyati, shimoli-sharqdan Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan chegaralangan bo'lib, “Zarafshon” daryosining qurigan o'zanini quyi va o'rta

qismida joylashgan. Viloyat yer maydonining asosiy qismi taqir va yaylovlardan iboratdir.

Buxoro viloyati uchun asosiy suv manbai “Amudaryo” havzasi bo’lib, qo’shni Turkmaniston chegarasidan sug’oriladigan yerlarni suvga bo’lgan ehtiyojini qondiruvchi asosiy suv yo’llari esa “Amu-Buxoro” mashina kanalining I-II navbati va “Amu-Qorakul” kanallari orqali olinadi. Shular bilan bir qatorda “Quy-Mozor”, “To’dako’l” va “Sho’rko’l” suv omborlari ham viloyat uchun qo’shimcha suv olish manbalari hisoblanadi. Shuningdek, yilning asosan bahor oylarida “Zarafshon” daryosidan keladigan suvlar ham viloyatni suvga bo’lgan ehtiyojini qisman qondirishda ishlatilmoqda. Bulardan tashqari, viloyatning gidrografik tarmoqlari ko’p miqdordagi sug’orish inshootlari, kollektor va uning tarmoqlaridan tashkil topgan. Viloyatdagi meliorativ tarmoqlarning asosiylari: “Markaziy-Buxoro”, “Shimoliy”, “Parallel” “Dengizko’l”, “Toshquduq”, “Parsanko’l” va “Og’itma” tashlamalaridan iborat. Buxoro viloyatida qishloq xo’jaligida yetakchi soha dehqonchilik bo’lib, shu bilan birga chorvachilik hamda yaylovlarda qorako’lchilik bilan ham shug’ullaniladi. Dehqonchilikda asosiy ekin paxta va g’alla hisoblanib, ozuqabop ekinlar o’stirish, bog’-chorbog’larni bunyod qilishga ham alohida e’tibor berilgan.

Viloyat sug’oriladigan yer maydonlarining gidrogeologik meliorativ sharoiti o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, respublikaning janubiy viloyatlari singari bir muncha murakkab hisoblanadi. Buxoro viloyatida gidrogeologik meliorativ sharoit, asosan yer osti sizot suvlari gidro hamda gidrokimyoviy rejimiga bog’liq bo’lib, sug’oriladigan yer maydonlari “Zarafshon” daryosining quyi qismida joylashganligi sababli, murakkab hisoblanadi. Viloyatning ayniqsa, o’rta va quyi qismlarida sizot suvlarining yer osti harakati sekinligi va uni yer yuzasiga yaqin joylashganligi sababli meliorativ vaziyat o’ta og’ir hisoblanadi. Havo haroratining yuqori bo’lishi va issiq kunlarning ko’p bo’lishi yer yuzasiga yaqin joylashgan sizot suvlarini evakotranspiratsiyaga ko’p sarflanishiga olib keladi. Bu esa o’z navbatida aeratsiya qismida tuz miqdorini keskin oshishiga sabab bo’ladi. Oqibatda sug’oriladigan maydonlarda sho’rlanish qayta tiklanadi. Shu sababli dehqonchilikda qishloq xo’jaligi ekinlaridan mo’l-ko’l hosil yetishtirishning asosiy omillaridan biri sug’oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yomonlashuvini oldini olishdan iboratdir.

Sug’oriladigan maydonlarning meliorativ holatidan kelib chiqib, asosiy meliorativ tadbirlar amalda holati tabiiy yomon yerlarda, yuza nishabligi kichik, tabiiy drenajlik xususiyati past va yer osti sizot suvlarining harakati sekin bo’lgan yerlarda birinchi navbatda qo’llaniladi. Viloyatda yer osti suvlari sug’oriladigan maydonlar tashqarisidan oqib keladigan sizot suvlari hisobidan hosil bo’ladi. Sizot suvlarida bosimni hosil bo’lishiga asosiy sabab sug’oriladigan yerlar hududiga yer ostidan oqib keladigan sizot suvlarini chiqib ketadigan sizot suvlari miqdoridan ancha ko’pligidir. Sizot suvlari gidrorejimini bir tekisda saqlab turishda asosan kollektor-drenaj tarmoqlarining doimiy ishchi holatda bo’lishi, shuningdek sizot suvlarining yer osti harakati muhim rol o’ynaydi. Buxoro vohasining o’rta qismida sizot suvlari oqimi “Zarafshon” daryosi tomon bo’ladi. Viloyat hududining bu

qismida yer nishabligi va yer osti sizot suvlari oqim yo'nalishi nisbiy balandligi hisobidan aynan "Zarafshon" daryosi tomon yo'nalgan. Daryo bu hudud uchun tabiiy drenajlik vazifasini o'tab kelgan. Hozirda esa daryo o'zanida "Markaziy-Buxoro" magistral kollektori ishlab kelmoqda. Sizot suvining sathining o'zgarishi bo'yicha rejim o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u yilning har-xil vaqtida turli chuqurliklarda bo'ladi.

Ma'lumki, Buxoro viloyatida o'rtacha sug'oriladigan bir gektar maydonga 31,27 p.m. uzunlikda kollektor tarmoqlari to'g'ri keladi. Hidrokimyoviy rejim sizot suvlarida yiliga uch marotaba kuzatuv quduqlaridan olinadigan suv namunalarini tekshirish yo'li bilan o'rganiladi. Sug'oriladigan maydonlarda yer osti sizot suvlarining minerallik darajasi va kimyoviy tarkibi bo'yicha yerlarning tabiiy drenajlik xususiyati, geomorfologik tuzilishi hamda sizot suvlarini yer osti harakatiga asoslangan holda bir necha turlarga bo'lish mumkin. Viloyat sug'oriladigan yer maydonlarining tabiiy sharoitiga ko'ra yer osti sizot suvlarining gidrokimyoviy rejimi, asosan yuqorida ko'rsatilgan ana shu ikkala tur bo'yicha o'rganiladi. Eskidan sug'orilib kelinayotgan maydonlardagi sizot suvlarining minerallik darajasi va tarkibi yangi o'zlashtirilgan maydonlardagi yer osti sizot suvlarining tarkibi va minerallik darajasi bilan deyarli keskin farq qilmaydi.

Yildan- yilga suvga bo'lgan talabning oshib borishi, bir qator yechimga muhtoj bo'lgan muammolarga sabab bo'lmoqda. Mazkur muammoni yumshatishning eng muhim yo'llaridan biri, mahalliy irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarining ayrim gidrologik xususiyatlarini o'rganish va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishdir. Buxor viloyati jumladan: Kogon tumani ham o'zining tabiiy suv manbaiga ega bo'lmagan hududlar sirasiga kiradi. Kogon tumani uziga xos va mos bulgan mahalliy irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlariga ega bulgan tuman hisoblanadi.

Kogon tumani viloyat markazi qadimiy Buxoro shahrining janubiy qismida joylashgan bo'lib, Kogon tumani viloyatning Buxoro tumani, shimolda qisqa masofada Vobkent tumani hamda shimoli-sharqda Amu-Buxoro mashina kanalining o'zani orqali Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani bilan chegaradosh.

Tuman Amu-Buxoro mashina kanali orqali suv bilan ta'minlanadi. Kanalning 10 km qismi tuman hududining shimoli-sharqiy chegarasidan o'tadi. Tuman hududidagi sug'oriladigan yerlar Buxoro viloyati irrigatsiya tizimidagi Amu-Buxoro havzasi bilan ta'minlash boshqarmasi xizmat ko'rsatayotgan hududlarga kiradi.

Quyimozor suv omboridan boshlangan kanalning bir qismi tuman hududini janubidan kesib o'tadi. Mazkur hududda Quyimozor nasos stanstiyasi barpo etilgan bo'lib qo'shni Qashqadaryo viloyatining Muborak shahriga ham ichimlik suvi etkazib beriladi.

Cho'l zonasida qorako'lchilik bilan bog'liq chorva mollarining suv ta'minoti sizot va artezian quduqlar suvi yordamida amalga oshiriladi. Tumanning sug'oriladigan yerlari Buxoro vohasiga tegishli bo'lib, yerlarni ekomeliorativ holatini yaxshilash maqsadida ko'p tarmoqli zovurlar sistemasi mavjud. Ortiqcha suvlar zovurlar Parallel irrigatsiya kollektori (1991 yil foydalanishga topshirilgan,

uzunligi 155 km, loyihaviy o'tkazish quvvati 74 m³/c.) orqali janubga — Dengizko'lga (Parallel kollektori 1967 yil foydalanishga topshirilgan, uzunligi 126,4 km bo'lgan, loyihaviy o'tkazish quvvati 55 m³/c. Bo'lgan Dengizko'l tashlamasiga qo'shiladi) yo'naltirilgan .

Tumanning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslaridan ayniqsa suv resurslaridan samarali foydalanish davr talabidir. Buning uchun esa suv tejamkor texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etish muammoning yechimlaridan biri hisoblanadi. Irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini doimiy monitoringini olib borish kerak. Suv resurslarini gidrologik rejimini samarali boshqarishda mutaxassis kadrlar masalasini ijobiy hal etish va irrigatsiya va melioratsiya ishlarini ilmiy asosda tashkil qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хайитов Ё.Қ., Ўринов Ж.Р. Сув ресурсларидан оқилонга фойдаланиш-ҳозирги замон талаби // Орол денгизи минтақасида юзага келган экологик офатнинг атроф-табий муҳитга таъсири. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Бухоро, 2015. -Б. 111-112.
2. Рашидов Н.Р., Хайитов Ё.Қ., Буриев С.Б. Использование водных растений для очистки коллекторных и сточных вод // Доклады Академии Наук РУз, 1998. -С. 40-42.
3. Ё.Қ. Хайитов, Н.А. Тошбеков, Т. А. Жумаева Критерии и масштабы вторичного использования коллекторно-дренажных вод (на примере Бухарского оазиса) Узбекитон Республикаси Фанлар Академияси Коракалпогистон булимнинг ахборотномаси 2019й 55-58
4. Ё.Қ. Хайитов, Н.А. Тошбеков, Т. А. Жумаева Возможности повторного использование коллекторно-дренажных вод Бухарской области. 2019 йил «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»га бағишланган «Фан ва таълим-тарбиянинг долзарб масалалари» мавзусидаги Республика илмий-назарий анжуман Нэқис-2019 й 373-374
5. Ё.Қ.Хайитов, Н.А. Тошбеков, Бухоро вилоятидаги чўлланишга боғлиқ айрим муаммолар ва уларнинг ечимлари. Илм сарчашмалари Урганч давлат Университетининг илмий-методологик журнал. 2020.
6. Hayitov Yozil Kasimovich Doctor of Geographical Sciences, Professor. Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Jumaeva Tozagul Azamovna, Nasriddinov Zavqiddin Ibrokhim oqli, Bukhara State University. Hydrological Assessment Of The Meliorative Condition Of Collector Drink Water In Bukhara Regio. Nature and Science. MARSLAND PRESS 2020;18(4)
7. Y.Q. Hayitov, I.A.Ramazonova “ To'dako'l suv omboridan foydalanishning optimal yo'llari”- O'zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari- Ilmiy amaliy konferensiya materiallari 2021

SHIRINMIYA O`SIMLIGINING (GLYCYRRHIZA GLABRAL) INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Sh.Sh.Xudoyberdiyev,
Organik va fizkolloid kimyo kafedrası dotsenti, k.f.f.d.
M.T.Saidova,

Kimyo mutaxassisligi 2- bosqich magistranti


Annotatsiya. Mazkur maqolada shirinmiya o'simligining ildizi va ildizpoyasidan tayyorlangan dorilarning inson organizmiga shifobaxsh xususiyatlari haqida bag'ishlangan. Shirinmiya dorivor o'simlik sifatida juda qadim zamonlardan ma'lum. Tibbiyotda Shirinmiyaning ildizi va ildiz poyasidan tayyorlangan dorilar bilan yallig'lanish, allergiya, zaharlanish, belangi, bo`g`ma, sil, chipqon, ekzema va boshqalar kasalliklar davolanadi.

Kalit so'zlar: Dorivor o'simliklar, gormonal salomatlik, antioksidant xususiyat, farmatsevtika sanoati, Glycyrrhiza glabra L, glitsirrizin, saxaroza, fruktoza, glyukoza.

Hozirgi kunda tadqiqotlar aholi uchun mavjud bo'lgan dorivor o'simlik xom ashyosi asosida tayyorlanadigan preparatlar turini kengaytirish nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shunga asosan, shirinmiya (*Glycyrrhiza Glabra L.*) turi alohida e'tiborga sazovor bo'lib, undan bir qancha preparatlar (qalin, quruq ekstraktlar, konsentrat ekstrakti, shirinmiya ildizi siropi va boshqalar) ishlab chiqariladi [1, 2]. Shuningdek, bugungi kunda murakkab farmakologik ta'sirga ega o'simliklarga asoslangan dorilar tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Ko'plab eksperimental klinik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra shirinmiya preparatlari juda samarali bo'lib, xom ashyolardan yallig'lanish, allergiya, yara, terining kuyishi, OITS, boshqa kasalliklarga qarshi ekstraktlar olinadi [3, 4].

Yer yuzida aholi sonining ortib borishi bilan birgalikda uning resurslarga bo'lgan talabi ham oshib bormoqda. Keyingi yillarda insoniyat o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida tinimsiz tabiat resurslaridan foydalanishi oqibatida yer yuzasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, tabiat qonunlarining buzilishlari kuzatilmoqda. Buning oqibatida insoniyatning o'zi zarar ko'rmoqda. Vujudga kelayotgan kasalliklarni davolash, ularning oldini olishda tabiiy vositalardan foydalanish hozirgi davrning dolzarb muammosiga aylanmoqda. Bu borada Xorazm vohasi iqlim-shariotida o'sib rivojlanishga moslashgan Shirinmiya o'simligi katta ahamiyat kasb etadi.

Glitsirrizin kislota shirinmiyaning eng ko'p o'rganilgan faol moddasi bo'lib, shirin ta'mga ega (1-rasm).



1-rasm. Glitsirrizin kislotaning molekulyar tuzilishi.

Tarkibi shakarga qaraganda 50 baravar shirin, bu esa uni oziq-ovqat sanoatida keng ishlatilishiga olib keladi [5].

Shirinmiya - bu an'anaviy tibbiyot tizimida ming yillar davomida oziq-ovqat va farmatsevtika sanoatida ishlatilib kelingan foydali o'simlik. Ushbu o'simlikning ikkilamchi metabolitlari uzoq vaqt davomida nafas olish kasalliklarini (bronxit, allergiya, shamollash, sil va tomoq og'rig'i kabi) davolashda, ularni tinchlantirishda (tinchlantiruvchi, qoplovchi vosita), shuningdek, gastrit, yallig'lanish kasalliklari, jigar va teri kasalliklarini davolashda ishlatilgan [6].

Shirinmiya dorivor o'simlik sifatida juda qadim zamonlardan ma'lum. Xitoy xalq tabobatida bu o'simlik eramizdan 3000 yil avval turli xil xastaliklarni davolashda qo'llanilgan. Shuningdek, shirinmiya o'simligining shifobaxsh xususiyatlari borasida hind va tibbiyot tabobatida ham ma'lumotlar uchraydi. O'rta asrlarning mashhur olim va tabib buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino ham o'zining davolash amaliyotida shirinmiya yer ostki qismlaridan juda keng miqiyosda foydalangan. Jumladan, oshqozon ichak yaralarini, o'pka va nafas yo'llari kasalliklarini davolashda shuningdek, peshob haydovchi dorivor vosita sifatida ishlatilgan.

Tibbiyotda Shirinmiyaning ildizi va ildiz poyasidan tayyorlangan dorilar bilan yallig'lanish, allergiya, zaharlanish, belangi, bo'g'ma, sil, chipqon, ekzema va boshqalar kasalliklar davolanadi. Uning ildizi tarkibida gormonal faol glitsirrizin, saxaroza, fruktoza, glyukoza, oshlovchi moddalar, 30 ga yaqin flavonoidlar va boshqalar bor. Shuningdek, oziq-ovqat, kimyo va kon metallurgiyasi sanoatida ham ishlatiladi. Shirinmiyaning poyasi tarkibida ko'p miqdorda oqsil, yog, qand, vitamin C va boshqalar borligidan qimmatbaho yemxashak hisoblanadi. Undan yaxshi pichan va silos tayyorlanadi. Bu o'simlik ikki oilaga: ildizi shirin maza beruvchilar (lakrichnik va xaqiqiy shirinmiya) va ildizi tarkibida shirin maza bo'lmagan. "Glycyrrhiza glabra" ildizi o'z tarkibida 8% dan 22% gacha glitsirrizin moddasini tutishi bilan birga uning tarkibida 4% gacha flavonoidlar, 15 % gacha glyukoza, 11% gacha saxaroza, 34% gacha kraxmal, 24% gacha kletchatka, 2% gacha steroid va 5% gacha yog ham bor. Shirinmiya turidagi o'simliklar yer osti qismidagi ildiz va ildizchalari triterpen glikozidlarni yig'adi. Asosiy glikozidlardan biri glitsirrizin kislotasi hisoblanadi.

Shirinmiya ildizi mahsulotlari xalq tabobatida dori vositasi sifatida foydalanib kelingan. Uning ildizi tarkibida 15 dan ortiq kimyoviy moddalar (glitsirrizin kislotasi – 3,6 – 11,8%, glyukoza – 0,6 – 15,2%, saharoza – 0,3 – 11,0%, kletchatka – 9,7 – 28,2%, askarbin kislotasi 11,0 – 31,2 mg % va boshqalar) mavjud. Hozirgi davrda shirinmiya o`simligini kimyo - farmatsevtik izlanishlarning rivojlanishi tufayli undan tibbiyotda foydalaniladigan yangi dorivorpreatlar tayyorlanmoqda. Shirinmiyadan oshqozon yaralarini davolashda foydalaniladi. U jigar kasalliklarida, o`t pufagi va taloq siydik haydovchi sifatida, zaharlanishda go`sht va qo`ziqorindan, ilon chaqqanda zaharlanishga qarshi vosita sifatida qo`llaniladi. Shirinmiya ildizi organizmni yoshartiruvchi jenshendan keyin ikkinchi dori modda hisoblanadi va qariyalarga ko`proq tavsiya qilinadi. Shirinmiya ildizi pivo ichimligini tayyorlashda, konditer mahsulotlari ishlab chiqishda, kulinariyada va boshqa texnik maqsadlarda ishlatiladi. O`rta asrning sharq tibbiyotida shirinmiya ildizi ekstrakti bilan davolash san`ati Ibn Sino tomonidan umumlashtirilgan, uning siqib olingan sharbati va ildizi tirnoqxo`rlikda bog`lanadi. Uning surtmasi olovdan kuyganda bog`lanadi, siqib olingan sharbat bilan esa yaralar yuviladi. Shirinmiyada OITS ga, rak kasalliklari va boshqalarda retroviruslarga katalitik tas`ir etuvchi, bir qator ferment sistemalariga ta`sir etuvchi birikmalar borligi aniqlangan.

Shirinmiya o`pka yo`llarini yumshatadi va uni tozalaydi, u o`pka va tomoqqa foydali va tovushni tiniqlashtiradi. Ma`lumki bugungi kunda o`simliklardan ajratib olinayotgan tabiiy birikmalarga talab oshib bormoqda. Sababi tabiiy birikmalardan asosan dori vositasi sifatida foydalaniladi. Tabiiy birikmalardan ajratib olingan moddalardan tayyorlangan dori vositalari o`zining kam zaharliligi, tirik organizmga mos kelishi va o`ziga xos faolligi bilan sintetik usulda olingan dori vositalaridan ajralib turadi. Biologik faolligi yuqori bo`lgan tabiiy birikmalarni o`rganish ko`pgina qiziqishlar paydo bo`lishiga olib keladi.

30 yil ichida muhokama qilib kelinayotgan biologik faol moddalar guruhiga Shirinmiya ildizining asosiy va qimmatli komponenti bo`lgan Glitsirrizin kislotasi (GK) ham kiradi. Shirinmiya ildizi qadimdan xalq tabobatida katta ahamiyatga ega bo`lib, yallig`lanish, oshqozon kasalliklari, yo`tal, teri kasalliklari kabi patologik jarayonlarni davolashda ishlatilib kelingan.

O`simlikdan olingan dori vositalari siydik haydash, og`riq qoldiruvchi, yaralarni tez bitkazuvchi, allergiyaga qarshi, tinchlantiruvchi, o`pka yo`llari kasalliklari va boshqa a`zolarining kasalliklarini oldini olishda ishlatilgan. Qizilmiya o`simligining o`zi vitamin, tabiiy bo`yoq va oshlovchi moddalariga boy o`simlik sifatida hamma`lumdir. Kundan kunga uning ishlatilish sohasi kengayib bormoqda. Hozirgi kunda esa ildiz va uning ekstraktidan faqatgina tibbiyotda qo`llanilib qolmay, balki xalq xo`jaligining 20 dan ortiq tarmoqlarida unga bo`lgan ehtiyoj namoyon bo`lmoqda. Bunga asosiy sabab, ildiz kimyoviy tarkibining xilma-xilligidir va tayyorlangan dori vositalari o`zining kam zaharliligi, tirik organizmga mos kelishi va o`ziga xos faolligi bilan sintetik usulda olingan dori vositalaridan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Егоров М.В., Куркин В.А., Запесочная Г.Г., Быков В.А. Качественный и количественный анализ сырья и препаратов солодки. // Вестник ВГУ. Серия: Химия. Биология. Фармация. 2005. №1. С. 175-180.

2. Kondratenko R.M., Baltina L.A., Mikhailova L.R., Danilov V.T., Gabbasov T.M., Murinov Yu.I., Tolstikov G.A. Obtaining glycyrrhizic acid and its practically useful salts from a commercial licorice root extract. // Pharmaceutical Chemistry Journal. Vol. 39, No. 2, pp. 30 – 33, February, 2005.

3. Столярова О.В., Фаррахова Г.Ф., Балтина Л.А., Габбасов Т.М., Баширова Р.М., Кондратенко Р.М., Балтина Л.А. Выделение глицирризиновой кислоты и ее моноаммонийной соли из корней и корневищ солодки коржинского (*Glycyrrhiza Korshinskyi Grig*). // Химия и химическая технология. 2008. Т. 13. №2. С. 256-258.

4. Павлова С.И. Корень солодки. Возможные механизмы антиоксидантных, антиканцерогенных и противоопухолевых свойств (обзор)/ Павлова С.И., Утешев Б.С., Сергеева А.В. // Хим.-фармац. журн. – 2003. – Т.37, № 6. – С. 36-39.

5. Minglei Tian, Hongyuan Yan and Kyung Ho Row. Extraction of Glycyrrhizic Acid and Glabridin from Licorice. // Int. J. Mol. Sci. 2008, 9, 571-577.

6. Karaogul, E., Parlar, P., Parlar, H., & Alma, M. H. (2016). Enrichment of the Glycyrrhizic Acid from Licorice Roots (*Glycyrrhiza glabra* L.) by Isoelectric Focused Adsorptive Bubble Chromatography. // Journal of Analytical Methods in Chemistry, 2016, 1–5. doi:10.1155/2016/7201740.

МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ ЖАРAYONI VA UNI QO'LLASH SOHALARI

L.D.Yadgarova,

Buxoro davlat universiteti

“Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar”

kafedrasi katta o'qituvchisi

D.B.Ergasheva,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti,

matematika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Kalit so'zlar: model, matematik model, modellashtirish, ob'ekt, bosqich, usul

Annotatsiya. Ilk bor matematik modellashtirish ijtimoiy fanlardan iqtisodiy fanlarga tatbiq etilgan. Model-voqeliklarning soddallashtirilgan ko'rinishi. Ushbu maqolada matematik modellashtirish tushunchasi va jarayoni.

Inson hamma vaqt biror-bir jarayon, voqea yoki hodisani o'rganishda u yoki bu ko'rinishdagi modeldan foydalanadi. Yaxshi qurilgan model real ob'ektga nisbatan juda qulay, chunki modelni xohlaganicha o'zgartirish faqat mutaxassisning o'ziga bog'liq. Bu ishni real ob'ektda bajarish mumkin emas.

Bundan tashqari, tabiatda shunday ob'ekt va hodisalar mavjudki, ularni faqat modelda o'rgansa bo'ladi. Misol uchun biosfera ko'lamida eksperiment o'tkazish, quyoshdagi fizik jarayonlarni o'rganish uchun quyoshning o'zida eksperiment

o'tkazish, yer iqlimi, yerning quyosh atrofida aylanish trayektoriyasiga bog'liqligini eksperimental yo'l orqali o'rganish va h.k. Ko'pincha, bunday eksperimentlarni o'tkazishning imkoniyati bo'lmaydi, yoki qaytmas jarayonlar yuz berishi tufayli qat'iy man qilinadi. Bunday hollarda faqat modellashtirish yo'li orqali ma'lum bir kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Kuzatilayotgan ob'ektlarni chuqur va har tomonlama o'rganish maqsadida tabiatda va jamiyatda ro'y beradigan jarayonlarning modellari yaratiladi. Buning uchun ob'ektlar hamda ularning xossalari kuzatiladi va ular to'g'risida tushunchalar hosil bo'ladi. Bu tushunchalar oddiy so'zlashuv tilida, turli rasmlar, sxemalar, belgilar, grafiklar orqali ifodalanishi mumkin.

Keng ma'noda — model biror obyekt yoki ob'ektlar sistemasining obrazi yoki namunasi. Masalan, yerning modeli — globus, osmon va yulduzlarning modeli — planetariy va h.k.

Model — o'rganilayotgan ob'ekt, jarayon yoki hodisaning muhim xususiyatlarini, xossalari matematik tavsiflash. Modelda ob'ektning faqat izlanadigan xossalari aks etadi, shuning uchun model ob'ektning hamma xossalari aks ettirishi shart emas.

Bundan kelib chiqadiki, model ko'pchilik hollarda abstrakt (mavhum) xarakterga ega. Agar biz xayolimizdagi nusxani, ya'ni abstrakt modelni «o'z tilida» matematik simvollar va tegishli qonun-qoidalarga rioya qilgan holda bayon qilsak, bunday ko'rinishdagi model matematik model deyiladi.

N. P. Buslenkoning ta'rifiga ko'ra matematik model — Real sistemaning matematik modeli bu shunday formal tilda yozilgan abstrakt obyekt, uni faqat matematik modellar orqali o'rganish mumkin.

Model real ob'ektni almashtirishi mumkin. U ma'lum strukturaga ega, tajriba va tadqiqot uchun qulay bo'lgan boshqa bir obyektidir.

Umumiy qilib aytganda, ob'ektning xossa va xususiyatlarini matematik munosabatlar orqali ifodalash shu obyektning matematik modeli deb ataladi. Matematik model qurish va yechish jarayoni matematik modellashtirish deb aytiladi. Matematik modellashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1 -bosqich. Ob'ektni o'rganish.
- 2-bosqich. Matematik model qurish.
- 3-bosqich. Modelni yechish usulini tanlash yoki ishlab chiqish.
- 4-bosqich. Tanlangan yoki ishlab chiqilgan yechish usuli algoritmi asosida dastur tuzish.
- 5-bosqich. Natijalar olish hamda ularni tahlil qilib, xulosalar qilish.

Berilgan ob'ektni modellashtirishda, modellashtirish maqsadidan kelib chiqqan holda avval uni tahlil etishdan boshlanadi. Bu bosqichda ob'ektning modellashtirish husuyatlarini ifodalovchi hamma ma'lum subyektlari belgilanadi. Belgilangan subyektlar obyekt modelini imkoni boricha to'liq ifodalashi lozim. Modelni tasvirlash shakllari turlicha bo'lishi mumkin, Bularga

- ♣ Modelni so'zlar orqali ifodalash;
- ♣ Modelni turli chizmalar orqali ifodalash;
- ♣ Modelni jadvallar ko'rinishida ifodalash;

- ♣ Modelni formulalar orqali ifodalash;
- ♣ Modelni sxematik ko'rinishda ifodalash;
- ♣ Hisoblash algoritmi tuzish;
- ♣ Kompyuterda dasturini tuzish
- ♣ Kompyuterda hisoblash tajribasini o'tkazish va h.k. Modelning tasvirlangan shakli tanlangandan keyin uni formallashtirishga o'tkaziladi.

Kompyuter ixtiro etilganidan so'ng matematik modellashtirishning ahamiyati keskin oshdi. Murakkab texnik, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni yaratish, so'ngra ularni kompyuterlar yordamida tatbiq etishning haqiqiy imkoniyati paydo bo'ldi. Endilikda ob'ekt, ya'ni haqiqiy tizim ustida emas, balki uni almashtiruvchi matematik model ustida tajriba o'tkazila boshlandi.

Kosmik kemalarning harakat traektoriyasi, murakkab muhandislik inshootlarini yaratish, transport magistrallarini loyihalash, iqtisodni rivojlantirish va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan ulkan hisoblashlarning kompyuterda bajarilishi matematik modellashtirish uslubining samaradorligini tasdiqlaydi.

Kompyuterli tajriba yer yuzida bunday urush oqibatida ekologik o'zgarishlar, ya'ni haroratning keskin o'zgarishi, atmosferaning changlanishi, qutblardagi muzliklarning erishi ro'y berishi, xatto yer o'z o'qidan chiqib ketishi mumkinligini ko'rsatadi.

Matematik modellashtirishda berilgan fizik jarayonlarning matematik ifodalari modellashtiriladi. Matematik model tashqi dunyoning matematik belgilar bilan ifodalangan qandaydir hodisalari sinfining taqribiy tavsifidir. Matematik model tashqi dunyoni bilish, shuningdek, oldindan aytib berish va boshqarishning kuchli uslubi hisoblanadi.

Matematik modelni tahlil qilish o'rganilayotgan hodisaning mohiyatiga singish imkoniyatini beradi. Hodisalarni matematik model yordamida o'rganish to'rt bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich- modelning asosiy ob'ektlarini bog'lovchi qonunlarni ifodalash.

Ikkinchi bosqich- modeldagi matematik masalalarni tekshirish.

Uchinchi bosqich- modelning qabul qilingan amaliyot mezonlarini qanoatlantirishini aniqlash. Boshqacha aytganda, modeldan olingan nazariy natijalar bilan olingan ob'ektni kuzatish natijalari mos kelishi masalasini aniqlash.

To'rtinchi bosqich- o'rganilayotgan hodisa haqidagi ma'lumotlarni jamlash orqali modelning navbatdagi tahlilini o'tkazish va uni rivojlantirish, aniqlashtirish.

Shunday qilib, modellashtirishning asosiy mazmunini ob'ektni dastlabki o'rganish asosida modelni tajriba orqali va (yoki) nazariy tahlil qilish, natijalarni ob'ekt haqidagi ma'lumotlar bilan taqqoslash, modelni tuzatish (takomillashtirish) va shu kabilar tashkil etadi.

Matematik model tuzish uchun, dastlab masala rasmiylashtiriladi. Masala mazmuniga mos holda zarur belgilar kiritiladi. So'ngra kattaliklar orasida formula yoki algoritmi ko'rinishida yozilgan funksional bog'lanish hosil qilinadi. Aytib o'tilganlarni aniq misolda ko'rib chiqamiz.

O'ylagan sonni topish masalasi (matematik fokus). Talabalarga ixtiyoriy sonni o'ylash va u bilan quyidagi amallarni bajarish talab etiladi:

1. O`ylangan son beshga ko`paytirilsin.
2. Ko`paytmaga bugungi sanaga mos son (yoki ixtiyoriy boshqa son) qo`shilsin.
3. Hosil bo`lgan yig`indi ikkilantirilsin.
4. Natijaga joriy yil soni qo`shilsin.

Olib boruvchi biroz vaqtdan so`ng talaba o`ylagan sonni topishi mumkinligini ta`kidlaydi.

Ravshanki, talaba o`ylagan son matematik fokusga mos model yordamida aniqlanadi.

Masalani rasmiylashtiramiz: X - o`quvchi o`ylagan son, U - hisoblash natijasi, N - sana, M - joriy yil.

Xlorella tarkibida deyarli barcha turdagi guruhlarning darmondorilari; mikroelementlar (K,Ca, Mg, Cu, Fe va boshqalar); aminokislotalardan iborat oqsillar (glutamat va aspartat kislotalar, glitsin, leysin va boshqalar); fitogormonlar (steroidlar); patogen mikroflora qarshi samarali bo'lgan tabiiy anti biotik (xlorellin) biologik faol moddalar (auksinlar, gibberellinlar, sitokininlar, fenolik birikmalar). Auksinlar kuchli ildiz tizimining shakllanishini va ular orqali oziq moddalar oqimini yaxshilaydi. Gibberellinlar gullash va mevalash jarayonlarini tartibga solishga javobgardir. sitokininlar shox va kurtaklarning rivojlanishini muvofiqlashtiradi. Xlorella suspenziyasi tarkibidagi nodir elementlar o'simlik rivojlanish siklining benuqson yo'nalishi uchun moddalarning to'g'ri nisbatini to'liq ta'min laydi.(<https://www.ogorod.ru/ru/now/fertilizers/16134/Chlorella-udobrenie-mify-i-pravda.htm>).

Tadqiqot maqsadi: - Buxoro viloyatining o'rtacha sho'rlangan tuproq-iqlim sharoitida Xlorellani ekish oldidan chigitiga ishlov berish va o'simlik vegetatsiyasining 2-4 chinbarg, shonalash, gullash-ko'saklash fazalarada g'o'za organlariga suspenziyalashning me'yorlarini "Buxoro-10" navining morfo-biologik xususiyatlariga, chigit unuvchanligi, o'sish rivojlanishi, hosil elementlarining to'planishi, saqlanishi, o'simlik biomassasiga FM, hosil va uning sifatiga, terim salmog'iga, tuproq sho'rlanishi, unumdorligiga, suv taqchilligiga ta'sirini ilmiy asoslashdan iborat.

1-jadval. Tajriba tizimi

Tajriba variantlari	Xlorellani qo'llash me'yorlari va muddatlari, l					
	Chigitiga ishlov	2-4 chinbargd a	shonalashd a	gullashda	Ko'saklarni yetilishida	
1	Nazorat-0,0	Xlorella qo'llanilmaydi				
2	Chigitiga xlorella bilan	4kg chigit 0,5l xlorella+5l toza suv	-	-	-	-

	ishlov berish	bilan 18-24 soat ivi tildi				
3	Chigitiga va g'o'za vegetatsiyalari davrida xlorella bilan ishlov berish	4kg chigit 0,5l xlorella+ 5l toza suv bilan 18-24 soat ivi tildi	1l xlorella +10l suv bilan suspenziyalandi	1l xlorella +20l suv bilan suspenziyalandi	1l xlorella +20l suv bilan suspenziyalandi	1l xlorella +50l suv bilan suspenziyalandi

Tadqiqot uslubi: Buxoro sharoitida ekish oldidan chigitiga ishlovda xlorellani 0,5l+5l, vegetatsiya davrlarida 4 marta: 1l xlorellaga (10+20+20+50l suv qo'shib) g'o'zaning "Buxoro-10"navini suspenziyalash orqali, uning morfo-biologiyasiga, tuproq sho'rlanishiga qanday ta'sir etishi bo'yicha turli tahlillarni o'tkazish orqali tadqiqotlar o'tkazildi.

Izlanishlar 2022-2023yy.da PSUEAITI Buxoro ITSning o'rtacha sho'rlangan dalasida bajarildi va 3 variantda, har bir variant bo'lakchasining qator uzunligi 25 m, 4 qatordan, 3 takrorda, qator orasi 90 smni, har variant 270 m² bo'lib, umumiy hisoblash maydoni 810,0 m².

Ilmiy izlanishlar O'zPITida qabul qilingan "Metodika polevyykh opytov s xlochatnikom" (1981). "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2007) asosida, shuningdek, chirindi miqdori I.V.Tyurin, harakatchan azot Granvald-Lyaju, fosfor -V.P. Machigin, almashinuvchan kaliy- V.P. Protasov, yalpi azot, fosfor va kaliy miqdorlari I.M.Malsev va L.P.Gritsenko usulida aniqlandi. Chigit unuvchanligi Firsov usulida, quruq massa va fotosintez mahsuldorligi Tretyakov usulida, hosildorlik ma'lumotlari B.Dospexovning "Metodika polevogo opyta" (1989) qo'llanmasida dispersion tahlil qilindi.

Bir hujayrali yashil suv o'ti **Chlorella vulgaris**ni o'rtacha sho'rlangan yer sharoitida g'o'zaning "Buxoro-10" g'o'za navida chigitiga ishlov berib va o'simlik vegetatsiyasining 2-4 chinbarg chiqarish, shonalash, gullash va ko'saklarni yetilish fazalarida qo'llab, uning unumdorlikka, unuvchanlikka, o'sish-rivojlanishiga, hosil elementlarin to'planishiga, quruq massaga, SFM, tuproq sho'rlanishi, o'simlikning garmsel, suv taqchilligiga, sho'rlanishga nisbatan bardoshlilikiga, hosil va uning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etishini turli tahlil va kuzatuvlar o'tkazilib, yakuniy ilmiy xulosa qilindi.

Tadqiqot natijalari. 2 yillik tadqiqot natijalariga ko'ra, ekish oldi chigitiga xlorella bilan ishlov va g'o'za vegetatsiyasining 2-4 chinbarg chiqarish, shonalash, gullash va ko'saklarni yetilishi fazalarida suspenziyalangan 3-variantda nazoratga nisbatan urug' unuvchanligi 18%, o'simlikni o'sish va rivojlanish jarayonlarida o'simlik bo'yi (10,2 sm yuqori), hosil shoxi(2ta ko'p), hosil elementlarining to'planishi(jami -18ta gul, shona, ko'sak ko'p), yetilgan ko'saklar sonining ortishiga(4-5,5ta), hosil (48-53s/ga) yuqori bo'lib, tuproqning sho'rlanish

darajasiga (25-30%), pH muhiti (7,8-7,6ga qadar pasaygan) shuningdek, xlorella tarkibida 650 tagacha turli foydali organik moddalar, aminokislota, fitogormon, turli mikroelement, faol komponentli minerallar, immun tizimiga ijobiy ta'sir etuvchi turli fitoaleksinlar mavjudligi bois, viloyatning ekstremal sharoitlarida Xlorellani qancha marta qo'llanilishiga qarab, tarkibidagi foydali oziqa elementlarining o'simlik tomonidan yaxshi o'zlashtirilishi, stresslarga, suv taqchilligiga, sho'rlanishga nisbatan bardoshlilikini oshirishi natijasida nazoratga nisbatan 8s/ga qo'shimcha hosil yetishtirildi.

Ma'lumki, sho'rlanagan yerlarda fosforli o'g'itlarning o'simlik tomonidan o'zlashtirilishi shirin tuproqli yerlarga(kam miqdorda) nisbatan qiyin o'zlashtiriladi. Shu bois, sho'rlangan tuproqlarda mineral o'g'itlarning qo'llanilish me'yorlarini shirin tuproqlarga nisbatan 10-15 % oshirib beriladi. Xlorella tarkibidagi 40ta aminokislota mavjud karbonil guruhlari vositasida tuproq namligi bilan birgalikda karbon kislotasi hosil qilib, fosforli o'g'itlarni erishishiga ijobiy ta'sir etishi natijasida hosil cho'g'iga ijobiy ta'sir etish aniqlandi. Shu bilan birga, barcha variantlarda bir xil me'yorli o'g'it qo'llanilishiga qaramasdan, xlorella qo'llanilgan variantlarda yuqori hosil yetishtirilishi bilan birgalikda, mineral o'g'itlarning tuproq tarkibida ko'p miqdorda saqlanishi, ya'ni mineral o'g'itlar yuqori hosil olinishiga qarab, ularning sarfi kamayishi kerak edi. Bu yerda aksincha, (tuproqning mexanik tarkibi, sho'rlanish, unumdorlik darajasiga qarab ko'paygan) mineral o'g'itlarni qo'llanilish me'yorlarini 40-60%gacha kamaytirish imkonini berishi mumkin ekanligini tadqiqot natijalari ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, **Chlorella vulgaris**ni sho'rlangan tuproq sharoitida urug'iga ishlov berib va o'simlik vegetatsiyalari davrlarida 4marta (jami 5 marta)ishlov berilganda, tuproq sho'rlanishiga, ekstremal holatlarga nisbatan immunitetining oshishi hamda xlorella tarkibidagi turli xil organo-minerallar bilan oziqlanishi natijasida nazoratga nisbatan 8 s/ga yuqori hosil yetishtirishligi ilmiy asosda aniqlandi.

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH MAQSADIDA ZAMONAVIY INTERFAOL METODLAR HAMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

D.Y.Umedova,

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti

Davolash ishi yo'nalishi 1- kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida o'quv jarayonlariga zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati hamda innovatsion texnologiyalar asosida olib borilgan darslarning mohiyati haqida mulohazalar olib borilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim metodlari, interfaol metodlar, venn diagrammasi, tayanch iboralar, innovatsion texnologiyalar.

Kirish. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda tabiiy fanlarning òrni va yutuqlari beqiyosdir. Inson hayoti tabiat bilan uzviy bog'liq va bu bog'liqlik

sayyorada muvozanat bòlishini ta'minlaydi. Anniq va tabiiy fanlarning òrni bugungi ilm-fanning yuragi desak mubolağa bòlmaydi. Chunki hisob-kitobni bilish, tabiat qonunlarini anglash, evolutsion ta'limot, matematika, fizika, kimyo, òsimlik va hayvonot olami sistematikasi, antropologiya, geologiya, geofizika, fizika fanlari oldida qòyilgan muammolar tirik va òlik tabiatni òzaro munosabati masalalarini yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonlar qadim zamonlardan buyon anniq va tabiiy fanlarga qiziqish bilan qarab kelmoqdalar. Tarixiy manbaalarda guvohlik berilishicha ibtidoiy jamoa davrida ham ular oddiy tabiat xossalarini juda yaxshi anglashgan. Muso Xorazmiy, Ahmad al-Farğoniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk allomalarimiz anniq va tabiiy fanlarni rivojiga ulkan hissa qòshganlar.

Asosiy qism. Tabiiy fanlarning joriy etilishidan kòzlangan maqsad va uning ahamiyati shundan iboratki, fan orqali òquvchi olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, tadqiqotchilik kònikmalari, kreativ fikrlash qobilyati rivojlanadi. Mazkur fanlar kichik yoshdagi bolalardan boshlab òqitilib borilishidan maqsad, ularning tabiatga nisbatan mehrini oshirish, tabiat bir butunligini anglashga yordam beradi. Ta'limda shunday gap bor: "Keraksiz va zerikarli fan bòlmaydi, balki, fanni òqitishning keraksiz va zerikarli usullari bòladi" (1)

Tabiiy fanlarni òqitishda òquvchilarning ilmiy-tabiiy dunyoqarashlarini shakllantirish va kengaytirish, mantiqiy fikrlashga òrgatishga, har bir dars mavzuyini bayon qilishga e'tibor beriladi. Òquvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyatiga jalb etiladi, òz bilimi, kuchi va qobilyatiga bòlgan ishonchi ortadi. Buning natijasida har bir shaxs òz imkoniyati darajasida rivojlanib boraveradi. Shu tarzda olib borilgan darslardan olingan bilim unumli va samaraliroqdir.


Shunday ekan biz anniq va tabiiy fanlarni òqitishda eng qulay metod va usullardan foydalanishimiz lozim deb òylayman.

Metod bu tadqiqot, maqsadga erishish yòli, usuli daganidir. Metod-eng umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat. Ta'lim metodlari deyilganda òrganilayotgan materiallarni egallashda qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bòyicha òqituvchining òrgatuvchi ishi va òquvchilar òquv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari tushuniladi.

Interfaol metodlarda òquvchiga òzlashtirish da'vat etiladi, yangi material oson òrganiladi, fikrlash doirasi kengaytiriladi. Bunday interfaol metodlarga Venn diagrammasini misol qilib keltirishim mumkin. Bu metod genetika mavzularini òqitishda xususan xromosoma va autosoma kasalliklarini chuqurroq òrganishda hamda bir-biriga òxshashlik va farqli

Venn diagrammasi -ikkita mavzu yoki gòyalar òrtasidagi munosabatlarni taqdim etish uchun 2 yoki 3 ta dona shakladan foydalanadigan grafikdir.

Ushbu vosita asosan ikkida asosiy mavzu òrtasidagi òxshashlik va farqlarni vizual tarzda ifodalash uchun ishlatiladi. Shuning uchun ikkita mavzu bòyicha bilim olish osonroq. Bunda doiralar bir-biriga òxshasa umumiy xususiyatlar bir xil bir-biriga òxshamasa unda umumiy xususiyatlar har xil bòlib hisoblanadi.



VENN DIAGRAMMASI

Venn diagrammasi haqiqatdan ham ikkita asosiy mavzu yoki fikr solishtirish va solishtirish uchun eng yaxshi vositadir. Bu merodning avfzalliklari ham shundadir.

Bundan tashqari interfaol metodlardan yana biri bu "Tayanch iboralar" metodi (2) "Tayanch iboralar"

"Tayanch iboralar" metodining texnologik maqsadi:

- talabalarning fanga bòlgan qiziqishini orttirish
- qòllanmalardan foydalanmay turib, òzining haqiqiy bilimlarini sinab kòrish
- talaba diqqatini jamlab, tez aniq fikrlashga òrgatish
- òtilgan mavzuni takrorlab olish
- darsda barcha talabalarni jalb qilish, va har bir talabani baholashga erishish.

Xususan, lipidlar, oqsillar, uglevadarodlar mavzusini ozlashtirishda "Tayanch iboralar" metodidan foydalanish juda ham òrinlidir. Chunki, bu mavzularda bir-biridan farq qiluvchi moddalar hamda terminlar talaygina. Bu metod orqali mavzuni yanada chuqurroq bilib olishlari hamda samarali òrganishlari mumkin.

Bu mashg'ulotning òtkazilish tartibi:

Guruhlarga bòlinganda òquvchilarga tayanch atamalar berilgan kartatekalar tarqatiladi, òquvchilar tayanch sòzlar bilan tanishib chiqishlari uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Òqituvchi tomonidan atamalarga ilmiy ta'rif beriladi va berilgan ta'rifni eshitgan guruh a'zolari kelishgan holda òzlari tòg'ri deb bilgan atamani javob tariqasida berishadi (1 tadan ortiq javobni kòrsatish hamda kech qolib javob berish mumkin emas). Shu tarzda barcha javoblar qabul qilinib borilaveradi va doskaga har bir guruhning tòg'ri javobi uchun 1balldan beriladi. Òyin oxirida umumiy ballar hisoblanib boriladi va guruhdagi har bir a'zoning darsga qatnashganiga hamda bergan tòg'ri javoblariga qarab "5", "4" va "3" balldan beriladi. Kutiladigan natijalar: guruhdagi barcha ishtirokchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiriladi.

Ishtirokchilarni atamalarning faqat ilmiy ta'rifini bilishga emas, balki shu atamaning ta'rifini sodda tilda tushuntirishga undaydi, tez fikrlashga òrgatiladi.

Interfaol metodlar asosida o'quvchilar mavzuni yaxshi o'zlashtirib oladilar, 80-90% samaradorlikka erishiladi.

Aniq va tabiiy fanlarni yanada rivojlantirish, ularni o'quvchilarga samarali yetkazib berish usullaridan yana biri bu - innovatsion texnologiyalardan foydalanishdir. Innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda misli ko'rilmagan mavjudlik va moslashuvchanlik davrini boshlab berdi. Talabalar o'quv xonalarda va qat'iy dars jadvali bilan cheklangan kunlar o'tdi. Onlayn platformalar, mobil ilovalar paydo bo'lishi bilan o'rganish vaqt va makon chegaralarini kesib o'tdi. Endi talabalar o'zlari uchun noqulay bo'lgan har qanday vaqtda o'z uylarining farovonligidan ko'plab ta'lim resurslariga kirishlari mumkin. Ushbu yangi mavjudlik, ayniqsa, ilgari sifatli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniga ega bo'lmagan, uzoq yoki kam ta'minlangan hududlardagi talabalar uchun juda muhimdir. Bundan tashqari onlayn ta'lim tomonidan taqdim etilgan moslashuvchanlik talabalarga o'quv jarayonini shaxsiy ehtiyojlarini va avfzalliklariga moslashtirishga imkon beradi. Kechqurun yoki erta tongda mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni avfzal ko'rishlaridan qat'iy nazar ular tanlash erkinligiga ega. Mavjudlik va moslashuvchanlik sohasidagi ushbu yutuqlarni hisobga olgan holda dunyoning ko'p joylarida saqlanib qolgan "raqamli boshliq"ni yodda tutish kerak.

Texnologiya ta'lim olish imkoniyatini demokratlashtirishga qodir bo'lsa-da, mavjud tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, barcha talabalar onlayn ta'limda to'liq ishtirok etishlari uchun zarur vosita va manbaalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun harakat qilish kerak. Ushbu muammolarni Hal qilish orqali biz hamma uchun yanada inklyuziv va adolatli ta'lim muhitini yaratish uchun innovatsion texnologiyalarning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishimiz mumkin. Bundan tashqari, o'yinlashtirilgan o'quv platformalari o'quvchilarni jalb qilish va ularni o'quv maqsadlariga erishish uchun raqbatlantirish uchun o'yin dizayni tamoyillaridan foydalanadi (3)

Ballar, nishonlar va peshqadamlar kabi elementlar bilan ushbu platformalar o'rganishni dinamik va yoqimli jarayonga aylantiradi.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar qulaylik va moslashuvchanlikni oshirishdan tortib, individual ta'lim traektoriyalarini yaratish, hamkorlik va muloqotni rivojlantirishgacha texnologiya kadrlarni tayyorlash usullarini tubdan o'zgartiradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlar hamda innovatsion texnologiyalarning o'rnini benihoya kattadir. Yuqoridagi metodlar orqali ta'lim oluvchilar mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunday interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan dars mashg'ulotlarini o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ularni yangi bilimlarni samaraliroq o'zlashtirishlariga omil bo'la oladi. Innovatsion texnologiyalar esa ta'lim sifatini oshirishda, mavzularni yanada mukammalroq anglab olishda, bosh vaqtlarda ham fan bilan mashg'ul bo'lishda juda ham qol keladi. Bunday texnologiyalar asosida olib boriladigan darslar zamon

talabiga ham javob bera oladi. Talabalar Innovatsion texnologiyalar asosida o'zlashtirilgan bilimlari orqali kelajakda albatta yetuk kadr bo'lib yetishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlarda tabiiy fanlar masalalari. (Scientific journal impact Factor SJIF-2020=5.016)
2. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME I ISSUE 8 UIF-2022:8.2 I ISSN:2181-3337
3. Graafland, M., Schraagen, J. M., & Schijven, M. P. (2012). Systematic review of serious games for medical education and surgical skills training. British Journal of Surgery, (Tibbiy ta'lim va jarrohlik ko'nikmalarini o'rgatish uchun jiddiy o'yinlarni tizimli ko'rib chiqish. Britaniya jarrohlik jurnali) 99(10), 1322-1330.

CANVA HAQIDA MA'LUMOT

*I.A.Jo'raqulova,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
i.a.joraqulova@buxdu.uz*

Annotatsiya. Ushbu tezisda asosan zamonaviy kasblar hamda ularning kelib chiqishiga turtki bo'lgan omillar haqida yozilgan. Bundan tashqari bu faoliyat bilan shug'ullanuvchi kasb egalari va ular faoliyati tezisda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, freelancer, masofaviy faoliyat, web-dizayn, dasturlash.

Canva bepul versiyasini taklif etadi, bu versiya ko'plab asosiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Biroq, yanada kengroq imkoniyatlar va resurslar uchun Canva Pro (premium versiya) mavjud bo'lib, bu sizga kengaytirilgan kutubxona va qo'shimcha dizayn vositalaridan foydalanish imkonini beradi. Canva o'zining sodda interfeysi va keng qamrovli xususiyatlar bilan dizayn dunyosida katta o'zgarishlar yasadi va ko'plab odamlarga professional darajadagi dizaynlar yaratishga yordam berdi.

Canva haqida qisqacha:

Turi: Xususiy

Tarmog'i: Grafik dizayn

Tashkil etilgan yili: 2013

Qayerda joylashgan: Avstraliya, Sidney

Asoschilari: Melanie Perkins, Cliff Obrecht, Cameron Adams

Mahsulotlari: Canva, Canva Pro, Canva for Enterprise, Canva for Education

Web sayti: Canva.com



Canva Avstraliyaning Perth shahrida Melanie Perkins, Cliff Obrecht va Cameron Adamslar tomonidan 2013-yilning 1-yanvarida ishga tushirilgan.

Faoliyatining ilk-yilida, Canva foydalanuvchilar soni 750,000 taga yetadi. 2014-yil aprelida, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar bo'yicha ekspert Guy Kawasaki kompaniyaga brendni tanituvchi (Brand Promoter) sifatida qo'shiladi. 2015-yilda, marketing materiallariga ko'proq e'tibor berilgan Canva for Work servisi ishga tushadi.

2016-2017-yillar oralig'ida, Canvaning daromadi 6.8 million Avstraliya dollaridan 23.5 million Avstraliya dollariga yetib, 3.3 million Avstraliya dollariga teng zarar bilan chiqdi. 2017-yilda kompaniya rentabellikka erishdi va o'sha payt platforma 294000 to'lovchi mijozlarga ega edi.

2018-yil yanvar oyida Perkins kompaniya Sequoia Capital, Blackbird Ventures va Felicis Ventures kompaniyalaridan 40 million Avstraliya dollari miqdoridagi investitsiya jalb qilinib, kompaniya 1 milliard Avstraliya dollariga baholanganini e'lon qildi.

2019-yil dekabr oyida, Canva o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtirish uchun mo'ljallangan maktablar va boshqa ta'lim muassasalari uchun bepul taqdim etiluvchi Canva for Education servisini ishga tushirdi.

2020-yil iyun oyida, Canva FedEx Office bilan, keyingi oy esa Office Depot bilan hamkorlik qilishni boshlaganini e'lon qildi. 2020-yil iyun holatiga ko'ra, Canvaning bahosi 6 milliard Avstraliya dollariga yetdi.

Imkoniyatlari.

Canva interfeysi bilan boshqa web saytlardan ajralib turadi. Bu interfeys bilan dasturda ishlash juda ham qulay hisoblanadi. Bundan tashqari canvada tayyor shablonlar mavjuddir. Ushbu shablonlardan foydalanishimiz va istalgancha tahrirlashimiz mumkindir. Dasturdan foydalanish bepul ammo ayrim shablonlarni sotib olish pullikdir. Pullik shablonlardan 30 kungacha bepul foydalanish imkoniyati mavjud. Biz canva dasturida nimalar qilishimiz mumkin? Tabiiyki, bu savol barchada paydo bo'ladi. Canva yordamida biz

- Taqdimotlar
- Taklifnomalar
- Bannerlar
- Afishalar
- Har xil turdagi ijtimoiy tarmoqlar uchun videolar
- Rasmlarni qayta ishlash
- Plakatlar
- Rezyumelar
- Bukletlar
- Matnlar
- Logotiplar
- Vizitkalar yaratishimiz mumkindir.

Xohlagan auditoriya uchun istalgan dizayndagi shablonlardan foydalanishimiz yoki o`zimiz yaratishimiz mumkin va bu uchun yetarlicha ko`rinishdagi elementlar bizga taqdim etilgandir. Biz yaratayotgan proyektimizning auditoriyasi va maqsadi uchun kerakli bo`lgan elementlar to`plami canvada mavjud. Eng zamonaviy ko`rinishdagi matn shriftlari orqali ishimizni yanada chiroyliroq va mukammalroq qilish o`z qo`limizda.

Bu dastur o`qituvchilar uchun katta imkoniyatni ochadi. Canva orqali yaratilgan taqdimotlar ta`lim sifatini va dars samaradorligini oshiradi. Zamonaviy multimedia va animatsiyalardan foydalanish orqali o`quvchilar diqqat e`tiborini darsga jalb qilish yanada osonroq bo`ladi. Dars jarayoni esa qiziqarli bo`ladi.

Asosiy xususiyatlari

1. Foydalanuvchi do'stligi: Canva'ninng eng katta afzalliklaridan biri bu uning foydalanish osonligidir. Grafik dizayn bilan shug'ullanish tajribasi bo'lmagan odamlar ham yuqori sifatli dizaynlar yaratishlari mumkin.

2. Shablonlar: Canva minglab turli xil shablonlarni taklif etadi, bu shablonlar turli mavzular va sohalarga oid. Bu sizning loyihalaringizni tez va oson tayyorlashga yordam beradi.

3. Hamkorlik: Canva jamoa bilan birga ishlash imkoniyatini beradi, ya'ni bir nechta foydalanuvchilar bir vaqtning o'zida bir dizayn ustida ishlashi va o'zgartirishlarni kiritishi mumkin.

4. Resurslar: Keng qamrovli rasmlar, grafikalar, fonlar, va ikonkalar kutubxonasi mavjud bo'lib, ularning aksariyati bepul foydalanish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, premium kontent uchun to'lov amalga oshirilishi mumkin.

5. Chiqish formatlari: Dizaynlarni PDF, PNG, JPG kabi turli formatlarda saqlash imkoniyati mavjud. Bu sizga turli maqsadlarda dizaynlaringizdan foydalanishga imkon beradi.

6. Mobil ilova: Canva'ning mobil ilovasi ham mavjud, bu esa sizga har qanday joyda, har qanday vaqtda dizaynlar yaratish imkonini beradi.

Qo'llanilishi: Canva turli sohalardagi odamlar tomonidan keng qo'llaniladi: tadbirkorlar, o'qituvchilar, talabalar, marketing mutaxassislari, blogerlar va boshqalar. Bu vosita tijorat taqdimotlari, marketing materiallari, ta'lim resurslari, ijtimoiy media grafikolari va hatto shaxsiy loyihalar uchun ham ishlatilishi mumkin.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki ushbu veb sayt orqali qiziqarli , multimedia va animatsiyalarga boy loyihalar tayyorlash mumkindir. Ayniqsa SMM, ta`lim, marketing, biznes kabi soha vakillari ushbu veb saytdan unumli va maqsadli foydalanish imkoniyatlariga ega bo`lishmoqda.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ СВОЙСТВ КОМПОЗИЦИОННЫХ МАТЕРИАЛОВ

*Э.С.Назаров,
кандидат технических наук, доцент Бухарского*

государственного университета
nazarov.es68@mail.ru
А.Б.Торемуратова,
магистрант Бухарского
государственного университета
a.b.toremuratova@buxdu.uz

Аннотация. При сравнении композиционных материалов с однородными выделяются их существенные преимущества, на которые стоит обратить внимание. К ним относятся высокое значение прочности и жесткости, усталостной долговечности. При изготовлении композиционных материалов возможно улучшение таких характеристик, как износостойкость, теплопроводность, термоизоляция и т.д. В данной статье рассмотрены результаты исследований в области прогнозирования свойств композиционных материалов.

Ключевые слова: Полимерные композиционные материалы, геометрия армирующих элементов, прогнозирование, функциональные материалы, полимерный связующий, наполнитель, модификатор, физико-механические характеристики.

В настоящее время предъявляются все более высокие требования к физико-механическим характеристикам полимерных композиционных материалов (ПКМ). Физико-механические характеристики ПКМ взаимосвязаны между собой, то есть улучшение одних может негативно сказаться на других. По этой причине возникает необходимость прогнозирования свойств вновь создаваемых материалов.

Неоднородность строения ПКМ, в том числе дисперсно-наполненных, определяет отличительные особенности их исследования. Из этого следует, что физико-механические свойства материалов зависят от структуры наполнения (за исключением свойств самих компонентов), а именно от:

- Геометрии армирующих элементов;
- Плотности их укладки;
- Объемного содержания армирующих элементов.

Разработка методов моделирования механического поведения ПКМ имеет практическую значимость. Она определена наличием случайной структуры и ее роли в формировании и образовании эффективных свойств композиционного материала. При сравнении композиционных материалов с однородными выделяются их существенные преимущества, на которые стоит обратить внимание. К ним относятся высокое значение прочности и жесткости, усталостной долговечности. При изготовлении композиционных материалов возможно улучшение таких характеристик, как износостойкость, теплопроводность, термоизоляция и т.д.

Условно композиционные материалы (КМ) подразделяются на материалы, армированные дисперсными частицами и армированные волокнами. При рассмотрении волокнистых материалов основную часть

нагрузки несут жесткие и прочные волокна. Матрица в данном случае является опорой и защитой для волокон, выполняет роль передатчика напряжения на волокна. В последнее время при изготовлении деталей автомобилей, трубопроводов, космических и авиационных конструкций широкое распространение получили армированные волокнами пластмассы и металлы.

Работы российских и их зарубежных коллег доказывают актуальность исследования механического поведения неоднородных по своей структуре материалов. Впервые в работах В. Фойгта [1] и А. Рейсса [2] приведено осреднение упругих характеристик кристалла. В своих трудах ученые выдвинули гипотезы о постоянстве в теле деформаций (схема Фойгта) или напряжений (схема Рейсса). Выдвигаемые гипотезы ограничены частными случаями деформирования.

В работах Хилла [3] приведены доказательства того, что при оценке упругих свойств композиционных материалов метод Фойгта разрешает произвести оценку сверху, метод Рейсса – оценку снизу. Таким образом, можно говорить о возникающих границах Фойгта – Рейсса. Усовершенствование данных границ получили Хашин и Штрикман [4]. Однако существуют и недостатки, к которым можно отнести неучет специфики структуры исследуемого материала. Прогнозирование, основанное с помощью упомянутых подходов, приводит к несоответствиям, что может являться причиной возникающих ошибок при прогнозировании.

В условиях активного внедрения новых функциональных материалов в авиакосмическую отрасль отечественные и зарубежные предприятия химической промышленности занимаются вопросами создания и производства композиционных материалов (КМ) с заданными характеристиками. Одной из актуальных задач для данной отрасли является защита электронных блоков летательных аппаратов от воздействия электромагнитного излучения. КМ с радиопоглощающими свойствами частично могут решить эту задачу. Эти материалы состоят из полимерного связующего, наполнителя и модификатора. Причем процентное содержание наполнителя определяет коэффициент отражения электромагнитных волн, тем самым улучшая его физические параметры. Однако подобные наполнители, как правило, негативно влияют на механические характеристики КМ, что может не лучшим образом сказаться на возможности изготовления конструктивных элементов для защиты электронных блоков летательного аппарата. Для сокращения времени на создание новых КМ специалистам необходимы математические модели, позволяющие описать взаимосвязь характеристик материалов в зависимости от их состава и/или значений параметров технологических режимов синтеза, которые в дальнейшем можно использовать в системе поддержки принятия решения о составе КМ.

В общем случае моделируемый КМ количественно можно охарактеризовать векторами $x \in R^k$, $g \in R^m$ и $y \in R^n$ входных (физико-механические воздействия на конструктивные элементы, выполненные с применением КМ), внутренних (компоненты/параметры технологических

режимов синтеза КМ) и выходных (физико-механические характеристики КМ) параметров соответственно. В моделях различного назначения одни и те же физические и механические характеристики КМ могут быть как внешними, так и внутренними либо выходными параметрами.

При разработке математической модели КМ значения выходных параметров (физико-механические характеристики КМ) и диапазоны их возможного изменения определяются в соответствии с техническим заданием на разработку КМ, входные параметры характеризуют условия функционирования, где применяются конструктивные элементы, выполненные из КМ, т.е. уровень электромагнитного и механического воздействий.

В общем случае математическая модель КМ может быть записана в виде

$$y = f(x, g), \quad x \in R^k, \quad g \in R^m, \quad y \in R^n \quad (1)$$

где f – векторная функция векторного аргумента. Математическая модель в виде (1) позволяет решить так называемую прямую задачу, т.е. смоделировать выходные параметры по задаваемым значениям внешних и внутренних параметров. В практике создания новых КМ с радиопоглощающими свойствами решение прямой задачи, по сути, является проверочным расчетом. Однако процесс создания новых КМ требует решить более сложную, так называемую обратную задачу: по обусловленным заданием на создание нового КМ с определенными физико-механическими значениями входных и выходных параметров найти внутренние параметры КМ (процентный состав/значения параметров технологических режимов синтеза КМ). В практике создания новых КМ решение обратной задачи является проектировочным расчетом, целью которого является определение состава/значений параметров технологических режимов синтеза КМ, соответствующего оптимальным (в силу определенных критериев) значениям физико-механических характеристик. Однако при разработке математической модели КМ функция f в (1) заранее не известна и ее необходимо установить, т.е. идентифицировать математическую модель КМ.

Решение задачи идентификации заключается в математической обработке информации о значения выходных, внутренних и входных параметров КМ, которые определяются в результате экспериментальных исследований. В качестве математического аппарата для решения подобных задач может быть применен регрессионный анализ. Внутренняя структура КМ, обусловленная физико-химическим взаимодействием полимерного связующего, наполнителя и модификатора, слишком сложная. Поэтому для большинства практически важных случаев математическую модель КМ допустимо разрабатывать в соответствии с принципом черного ящика – установить соотношение между составом КМ и его физико-механическими характеристиками. Таким образом, математическая модель КМ, по сути, является имитационной математической моделью.

ЛИТЕРАТУРА

1. Voigt W. Lehrbuch der Kristallphysik – Berlin: Teubner, 1928. – 962 P.

2. Reuss A. Berechnung der Fließgrenze von Mischkristallen auf Grund der Plastizitätsbedingung // Z. Angew. Math und Mech. – 1929. – 9, 1. – P. 49-58.
3. Hill R. Theory of mechanical properties of fibrestrengthened materials // J.Mech. Phys. Solids. – 1964. – V. 12. – №4. – P. 199-218.
4. Hashin Z., Shtrikman S. A variational approach to the theory of the elastic behavior of multiphase materials. // J. Mech. and Phys. Solids. – 1963. – 11, №2. – P. 127-135.
5. Э.С. Назаров, О.Г. Тураев. Научные основы использования минеральных ресурсов. Международный академический вестник. Научный журнал. № 12 (44) 2019. Уфа. Россия. с. 84-86.
6. E.S.Nazarov, Sh.O. Sobirov, I.I.Pirimov Energy-saving and environmentally friendly technologies for vulcanization of elastomeric compositions. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 1 Issue 01, April 2021. pp. 427-434.
7. Э.С. Назаров, М.Т.Хожиев Эффективное использование энергетических ресурсов. Актуальные проблемы современной физики. Материалы Международной научной и научно-технической конференции. БДУ. Бухара. 25-26 ноября 2022 г. С. 343-345.

AHOLI KO‘RSATKICHLARINING EKONOMETRIK MODELI YIRIK SHAHARLAR RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH VOSITASI SIFATIDA.

*G.Sh.Abdullayeva,
Toshkent Oriental Universiteti
“Aniq fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

Zamonaviy sivilizatsiyaning eng muhim muammolaridan biri urbanizatsiya bo‘lib, u nafaqat shaharlarning jamiyat taraqqiyotidagi roli oshib borayotganini, balki shahar aholisining ko‘payishini ham aks ettiradi. 19-asrda boshlangan shaharlarda aholining kontsentratsiyasi jarayoni 1950-yillarda 38% darajaga yetdi va 2021-yil boshida Jahon bankining yangilangan ma’lumotlariga ko‘ra, bu ko‘rsatkich allaqachon 56,16% ni tashkil qildi[1] (Tarasov). Demografiya sohasidagi mutaxassislarning prognozlariga ko‘ra, shaharlarda aholining kontsentratsiyasi davom etadi va 2030 yilga kelib shaharlar aholisi sayyoramiz aholisining 60% ini [2] va 2050 yilga kelib esa 68% ini tashkil qiladi [3].

Demograflar megapolislarning tabiiy o‘shishini postindustrial iqtisodiyotga o‘tish jarayoni bilan izohlaydi. Bir qator tadqiqotlar yirik shaharlar rivojlanishining mahalliy xususiyatlarini ochib berdi. Ya’ni, bu jarayon asosan iqtisodiy omillar: katta bozor va rivojlangan infratuzilma bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda. Rossiyalik olimlar R.V. Fattaxov, M.M. Nizamutdinov, Yu.S. Aitova, V.V. Oreshnikov, 0,56 dan 0,59 gacha ko‘tarilgan Lorenz koeffitsienti dinamikasiga asoslanib, shahar aholi punktlarining farqlanish darajasi oshib bormoqda, degan xulosaga keldilar[4].

Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, shahar aholisining dinamikasi barqaror o'sish omillari va hayot sifati darajasi bilan bog'liq. Shaharning ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida rivojlanishida tizimni tashkil etuvchi omil – ishtirokchi sub'ektlar uchun qimmatli bo'lgan ehtiyojlarni qondirish zarurati hisoblanadi. Infratuzilmaga investitsiyalar, shahar atrof-muhitini yaxshilashga, yangi tashkilotlarning paydo bo'lishiga va yuqori malakali kadrlar oqimi kirib kelishiga yordam beradi.

Shahar jamiyat sifatida ishlaydi, chunki u odamlar va ijtimoiy institutlarning barqaror birlashmasini ifodalaydi va shu bilan birga, reproduktiv jarayonlarning markazidir. Shaharlar rivoji uchun kerakli mezonni tanlashda tizimning ijtimoiy va iqtisodiy elementlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni e'tiborga olish kerak, chunki iqtisodiy muammolar odamlarning ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, iqtisodiyot strukturasi tavsiflovchi parametrlar (masalan, xodimlar soni, ish haqi darajasi va boshqalar), ijtimoiy va boshqaruv infratuzilmasini rivojlantirish parametrlari (masalan, daromadlar va xarajatlar darajasi, aholi, shahar byudjeti, shahar ijtimoiy xizmatlarining tarkibi va boshqalar), aholining demografik xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi shahardagi yashash sharoitlarini belgilaydi. Shaharlar undagi firmalar tomonidan yaratilgan mehnat markazlari atrofida rivojlanmoqda. Yirik shaharlarda yuqori malakali intellektual mehnatni jamlash uchun yuqori darajadagi ish haqi va qulay yashash sharoitlarni ta'minlash zarur.

Shunday qilib, eng yirik shaharning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini rivojlantirishning ajralmas mezoni sifatida doimiy aholi ko'rsatkichidan foydalanish mumkin. Shaharning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini rivojlantirish strategiyasi aholi soni va uning o'sish sur'atlarining o'ziga xos ko'rsatkichini belgilaydi. Ushbu ko'rsatkich statistik jihatdan o'lchanadigan qiymatlarga ega va milliy rivojlanish maqsadlari nuqtai nazaridan juda dolzarbdir.

Agar shaharning doimiy aholisi ko'paysa, demak, unda rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Aholi ko'rsatkichi iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va boshqa ko'rsatkichlarning ta'sirini jamlovchi tartib parametri ekanligini hisobga olsak, shaharning rivojlanishi unga ta'sir etuvchi omillarning o'sish sur'atlarining tartibli o'zgarishi bilan ta'minlanadi. Bizning fikrimizcha, agar hayot xavfsizligi ko'rsatkichlarining yaxshilanishi (HX), savdo va xizmat ko'rsatish (X) rivojlanishidan, o'z navbatida, uy-joy qurilishi sur'atlari (Q)dan, aholi daromadlarining o'sishi (D) dan oshib ketadi, bu iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining o'sishidan (B) yuqori, shahar aholisining o'sishi (O')dan tezroq. Natijada, shaharni rivojlantirish vektori (V) ni ko'rsatkichlar nisbati shkalasi bilan ifodalash mumkin:

$$V = HX > X > Q > D > B > O' \quad (1)$$

(1) tengsizlikda ko'rsatilgan omillar situatsion jihatdan eng yirik shahar aholisining o'sishiga o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lmagan ta'sir ko'rsatadi.

Har bir bunday vaziyat konfiguratsiyasining o'rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimning rivojlanishiga ta'sir qilish traektoriyasini boshqarishning va tushunishning murakkabligi, modellarni ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Shaharlarni rivojlantirishni modellashtirishga yondashuvlarni o'rganishda quyidagi holatlarni hisobga olish kerak.

Birinchiidan, eng yirik shaharning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini rivojlantirishni modellashtirish axborot texnologiyalaridan foydalanib, elektron xizmatlar ko'rsatishga o'tishni jadallashtirishni talab qiladi.

Ikkinchiidan, modellashtirishda nomutanosibliklarni, ya'ni shahar rivojlanishining ijobiy va salbiy tendentsiyalari hisobga olinishi kerak. Aholining ekonometrik modelini ishlab chiqish nafaqat o'z-o'zidan, balki undan eng yirik shaharni rivojlantirishni strategik boshqarish vositasi sifatida foydalanishning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan ham qimmatlidir. Shunday qilib, ekonometrik modeldan foydalanish eng yirik shaharning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini rivojlantirish muammolarini hal qilish imkonini beradi.

Ekonometrik modeldan boshqaruv ta'siri vositasi sifatida foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

1. Modelning elementar konstruksiyasining eng yirik shaharning ijtimoiy-iqtisodiy tizimining tuzilishi va bog'lanishlariga muvofiqligini ta'minlash.
 2. Modelni ishonchli va statistik jihatdan qo'llab-quvvatlanadigan ma'lumotlar bilan to'ldirish.
 3. Namunaviy hisob-kitoblar asosida ishlab chiqilgan boshqaruv harakatlarining yirik shaharlarning qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlariga muvofiqligi.
- Iqtisodiy fikr va modellashtirish amaliyotining rivojlanishi, davlat siyosatini inobatga olgan holda eng yirik shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirishning mavjud innovatsion yondashuvlarini takomillashtirish va optimallashtirishga muqarrar yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tarasov A. Dunyoning urbanizatsiyasi. Migratsiya haqida portal. [Elektron resurs]. URL: <https://visasam.ru/emigration/vybor/urbanizaciya-stran-mira.html>.
2. Urbanizatsiya darajasi bo'yicha mamlakatlar ro'yxati. "Nonews" axborot portali. [Elektron resurs]. URL: <https://nonews.co/directory/lists/countries/urbanpopulation>.
3. Jahon urbanizatsiya istiqbollari. BMTning rasmiy sayti. [Elektron resurs]. URL: <https://population.un.org/wup/Download/>
4. Fattaxov R.V., Nizamutdinov M.M., Aitova Yu.S., Oreshnikov V.V. Rossiya Federatsiyasida shaharsozlik tizimini barqaror rivojlantirishning asosiy tendentsiyalari va istiqbollari // Moliya: nazariya va amaliyot. 2021, N.25(4). 152-172
5. Bughin J., Manyika J., Woetze J. Shahar dunyosi: Shaharlarda demografik muammolarni hal qilish. URL: <https://www.mckinsey.com/featured-insights/urbanization/urban-world-meeting-the-demographic-challenge-in-cities>.
6. Abdullayeva G.Sh. "Xalqaro migratsiya jarayonlari va ularning davlatlar iqtisodiyotidagi ahamiyati", "IQTISODIYOT VA TA'LIM" jurnali, 2024 1-son, 149-153.
7. Arbuzova T.A. "Aholining ekonometrik modeli eng yirik shahar rivojlanishini strategik boshqarish vositasi sifatida", Journal of Economics, Entrepreneurship and Law, 2022 y, 6-son.

MIGRATSIYANING MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA'SIRI.

G.Sh.Abdullayeva,

Toshkent Oriental Universiteti

“Aniq fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi.

M.X.Akbarova,

Toshkent Oriental Universiteti

“Iqtisodiyot va turizm” fakulteti 3 bosqich talabasi

Xalqaro migratsiya shaxslar va ularning avlodlari uchun moddiy takomillashtirishning muhim omillaridan biridir. Odamlarning mamlakat chegaralari bo‘ylab, ayniqsa kam rivojlangan mamlakatlardan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarga ko‘chishi bir necha o‘lchovlarda sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Birinchidan, bu migrantlarning o‘zlariga ta‘sir qiladi va ularga borar mamlakatda yuqori mahsuldorlik natijasida yuqori daromad olish imkonini beradi, natijada ularning avlodlari uchun kutilayotgan daromadni ham oshiradi. Ikkinchidan, u mehnat bozorlari, innovatsiyalar, demografik tuzilma, fiskal muvozanat va jinoyatchilikka ta‘siri orqali borar mamlakatga ta‘sir qiladi. Uchinchidan, u kelib chiqqan mamlakatlarga ta‘sir qilmay qolmaydi. Bu inson kapitalining yo‘qolishiga olib kelishi mumkin, ammo u pul o‘tkazmalari oqimini yaratadi va savdo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va texnologik transferlar ko‘rinishidagi xalqaro aloqalarni rivojlantiradi.

Xalqaro migratsiya va uning so‘nggi 30 yildagi evolyutsiyasi bilan bog‘liq bir nechta muhim faktlarga ko‘ra, jami muhojirlar dunyo aholisining ulushi sifatida 1990-yildan buyon ancha barqaror bo‘lib, taxminan 3 foizni tashkil etadi. So‘nggi yillarda ommaviy axborot vositalari va siyosatchilar orasida katta e‘tibor Afrika va Yaqin Sharqdan Yevropa va Shimoliy Amerikaga migratsiyaga qaratilgan. Lotin Amerikasi bundan mustasno bo‘lib, u yerda mintaqalararo migratsiya nisbatan kam (ehtimol, ba‘zi migratsiya, masalan, Venesueladan qo‘shni Kolumbiya va Ekvadorga statistik ma‘lumotlarda qayd etilmagani uchun). Ya‘ni, aholi sonining o‘sishi bo‘yicha turli mamlakatlarga ta‘siri butunlay boshqacha bo‘lgan. Rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi harakatchanlik ularning aholisiga qaraganda kamroq o‘sgan bo‘lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlardan ilg‘or iqtisodli mamlakatlarga harakatlanish sezilarli darajada oshdi, ayniqsa rivojlangan mamlakatlar aholisining ulushi (so‘nggi o‘n yilliklarda unchalik oshmagan). So‘nggi 30 yil ichida rivojlanayotgan mamlakatlardan ilg‘or iqtisodli davlatlarga migrantlar ulushi rivojlangan mamlakatlar aholisining 4 foizidan 9 foizigacha ulushini tashkil qildi va bu kuchli ijtimoiy va siyosiy reaksiyalarni keltirib chiqardi.

Yana bir muhim fakt shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga yo‘nalgan migratsiyaning aksariyati “iqtisodiy migratsiya” deb ham ta‘riflanishi mumkin, ya‘ni yaxshiroq iqtisodiy imkoniyatlarni qidirayotgan odamlar tomonidan yuzaga keltiriladigan migratsiyadir. Urushlar, tabiiy ofatlar va siyosiy tartibsizliklar sabab bo‘lgan migratsiya ko‘paygan bo‘lsa-da, ularning aksariyati ichki yoki bir-biriga yaqin rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida sodir bo‘lmoqda.

Mamlakatlar bo‘ylab migrantlar zaxirasi va oqimini o‘lchash qobiliyati so‘nggi o‘n yilliklarda sezilarli darajada yaxshilandi, bunga asosan aholini ro‘yxatga olishda foydalanilgan puxta ishlar sababdir. Shu bilan birga, bu ishlar bir mamlakatda tug‘ilgan va boshqa mamlakatda yashovchi odamlar zaxiralarining o‘zgarishi natijasida migratsiya haqida aniq ma‘lumotlar olishga yordam beradi. Ushbu ma‘lumotlar odatda “hujjatsiz”, ya‘ni yashash uchun tegishli unvonga ega bo‘lmagan, mamlakatda mavjud bo‘lgan odamlarni o‘z ichiga oladi, chunki ular doimiy (va fuqaro emas) aholi soniga asoslanadi. Shuning uchun, kelish qaydlariga asoslangan migrantlarning yalpi oqimi ko‘rsatkichlari hujjatsiz muhojirlar oqimi tufayli migratsiyani sezilarli darajada kamaytirib ko‘rsatib qo‘yishi mumkin.

Shu asosda biz xalqaro migratsiyaning iqtisodiy ta‘siri nuqtai nazaridan so‘nggi tadqiqotlar nimani aniqlaganini va qabul qiluvchi va jo‘natuvchi mamlakatlar uchun uning foydasini maksimal darajada oshirish uchun migratsiyani boshqarishda foydalanish mumkin bo‘lgan siyosiy vositalarni ko‘rib chiqamiz.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida dunyo bo‘ylab mamlakatlar ichidagi tengsizlik o‘sib bormoqda, mamlakatlar o‘rtasidagi tengsizlik esa o‘rtacha darajada kamaydi. Shunga qaramay, mamlakatlar o‘rtasidagi o‘rtacha daromad bo‘yicha katta va doimiy tafovut saqlanib qolmoqda. Mamlakatlar o‘rtasidagi daromadlardagi bu jiddiy farq, shubhasiz, iqtisodiy migratsiyaning asosiy omili hisoblanadi.

Boshqa omillardan biri esa boradigan mamlakatlardagi talab yuqori bo‘lgan ta‘lim va malaka darajasi hisoblanadi. Ushbu ko‘chib ketayotgan migrantlar tarkibida yoshroq, o‘qimishli va malakali shaxslar – ko‘chib ketish ehtimoli yuqori bo‘lganlardir. Katta potentsial pul daromadlari migratsiya atrofida sanoatni rivojlantirdi, ayrim yollash firmalari va brokerlar firibgarlik bilan shug‘ullanadi. Migratsiya sohasini tartibga solish mehnat muhojirlarini ekspluatatsiya qilishdan va omonat va aktivlarini sezilarli darajada yo‘qotishdan himoya qiladi.

Xalqaro migratsiya qabul qiluvchi mamlakatlar uchun ham muammo, ham imkoniyatdir. Bir tomondan, ayniqsa qisqa muddatda, muhojirlar mahalliy mehnat bozorlarida qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin, bu ish haqiga ta‘sir qilishi va ular bilan raqobatlashayotgan mahalliy ishchilarni siqib chiqarishi mumkin. Ularning kelishi qisqa muddatli moliyaviy xarajatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Boshqa tomondan, ayniqsa, o‘rta va uzoq muddatda immigrantlar ilg‘or mamlakatlarning yosh taqsimotini yanada muvozanatli qilish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishi, mahalliy firmalar va mahalliy ishchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi, o‘sish uchun zarur bo‘lgan qobiliyat va ko‘nikmalarni ta‘minlashi, yangi g‘oyalarni yaratishi, xalqaro savdoni rag‘batlantirishi va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka hissa qo‘shishi mumkin. Bundan tashqari, qisqa muddatda ham, uzoq muddatda ham turli guruhlar (oliy yoki past ma‘lumotli ishchilar, kapital egalari, uy egalari, yosh yoki keksa shaxslar) muhojirlar oqimidan turli darajada foyda olishlari mumkin. Ushbu omillarning o‘zaro ta‘siri migratsiyaning siyosiy iqtisodiga ta‘sir qiladi: migratsiya haqidagi jamoatchilik fikri va hukumatlar tomonidan tanlangan siyosat ko‘pincha qaysi guruhlar migratsiyadan ko‘proq, kamroq foyda olishi yoki yo‘qotishi va ularning nisbiy siyosiy vazniga bog‘liq. Immigratsiya oqimi, shu

jumladan ko'p sonli yuqori malakali va ishlaydigan immigrantlar, ayniqsa, qabul qiluvchi mamlakatning iqtisodiy va bandlik o'sishiga va uning davlat moliyasiga foydali ta'sir ko'rsatadi.

Belgilangan mamlakatlar nuqtai nazaridan, migratsiya oqimlari yuqori konsentratsiyali hodisadir. Jahon bankining 2019 yildagi hisobotiga ko'ra, Yevropa, Shimoliy Amerika va Fors ko'rfazidagi davlatlar xalqaro muhojirlarni eng ko'p qabul qiluvchilar sifatida ko'rsatilgan. Muhojirlarning bunday konsentratsiyasining asosiy sababi iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli mamlakatlarga va ushbu mamlakatlar ichidagi zich va tez rivojlanayotgan shahar hududlariga ko'chib o'tish tendentsiyasidir. Dunyo miqyosidagi immigratsiyaning 60 foizi eng yaxshi 10 ta mamlakatga to'g'ri keladi. AQShga kelganlarning uchdan ikki qismi 6 shtatda, ularning ichida esa bir nechta okruglarda joylashadi. Nyu-York, Los-Anjeles, London va Vankuver kabi shaharlar muhim migratsiya markazlariga aylangan, ularning aholisida chet elda tug'ilganlarning ulushi mamlakatning qolgan qismiga qaraganda sezilarli darajada kattaroq, ba'zan esa ularning aholisining 40 yoki 50 foizini tashkil qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda yaxshi maoshli ishlar va biznes imkoniyatlari, xususan, innovatsion sohalar va xalqaro korxonalar orqali odamlarga keng rivojlanish va daromad olish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu qatorda, yuqori malakali ishchilar emigratsiya qilishdan o'zlarining iqtisodiy rivojlanish va oilasi uchun yangi imkoniyatlar qidirish uchun foydalanadilar.

“Miyaning ketishi”, ya'ni yuqori malakali va yuqori mahsuldor shaxslarning emigratsiyasi kelib chiqqan mamlakatlar uchun asosiy tashvish manbai hisoblanadi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu haqiqatan ham tashvishlanarli holat, chunki mamlakatni tark etgan yuqori malakali ishchilarning ulushi ba'zi kichik daromadli mamlakatlarda 40 foizgacha yetadi. Umumiy holatda, oliy ma'lumotlilar migratsiyasi ehtimoli o'rta ma'lumotlilarga qaraganda ikki-uch baravar ko'p.

“Miyaning ketishi” jo'natuvchi mamlakatlarga ko'p jihatdan ta'sir qilishi mumkin. Eng birinchi muammo, mamlakatning inson kapitalini pasaytiradi va yuqori malakali ishchi kuchining yetishmasligini keltirib chiqaradi, shu bilan birga samaradorlikni pasaytiradi. Miyaning ketishi davlat moliyasiga ham katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu xususan, daromad solig'idan soliq tushumlarini (yuqori malakali ishchi kuchining pastligi sababli kamayishi) iste'mol soliqlari foydasiga (pul o'tkazmalari oqimi tufayli ortib borayotgan) o'tkazish orqali ishlaydi. Shubhasizki, u ko'pincha davlat xarajatlari balansini o'zgartiradi, bunda ta'limga kamroq xarajatlar ajratilishiga (bu yuqori malakali ishchilarning chiqib ketishi bilan talabning kamayishi bilan izohlanishi mumkin) va ijtimoiy yordam dasturlariga ko'proq sarflanishiga olib keladi.

Shunday qilib, xalqaro migratsiya insonlar uchun yangi imkoniyatlar va muammolar, o'zining o'ziga xos rivojlanish va o'zgarishlarni olib keladi. Bu jarayonlar xalqaro jamoatlar uchun xam ko'plab foydali va muammolarga ega bo'lib, qondoshlik, aloqalar va boshqa ko'rsatkichlar orqali boshqa mamlakatlarda yashash uchun imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. WORLD MIGRATION REPORT 2020.
2. World Bank, 2014,2018.
3. “Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti” Raxmatullayeva F.M., Abdulloyev A.J., Giyazova N.B., Narzullayeva G.S. O’quv qo’llanma, I qism “Durdona” nashriyoti, Buxoro- 2021.
4. Xalqaro migratsiyaning inklyuziv o'sishga ta'siri. Zsoka Koczan, Giovanni Peri, Magali Pinat. 2021/88.
5. Abdullayeva G.Sh. “Xalqaro migratsiya jarayonlari va ularning davlatlar iqtisodiyotidagi ahamiyati” , “IQTISODIYOT VA TA’LIM” jurnali, 2024 1-son,149-153
6. Harris J., Todaro M. Migration, Unemployment, and Development: A Two-Sector Analysis // The American Economic Review. 1970. № 60. P. 126–142.

BERILGAN HARAKAT QONUNIDAN KUCHNI TOPISH.

Sh.Sh.Fayziyev,
BuxDU, fizika kafedrası o'qituvchisi
Sh.M.Zoirova,
22-maktab matematika o'qituvchisi

Abstract. This study is devoted to the study of conceptual metaphors in the English language. In the stylistics department of linguistics, it is recognized that metaphor is an ornament of speech, a unique form of expressing thoughts. The scientific views that appeared in the framework of linguistic and cultural studies showed the relevance of studying metaphor as one of the important tools that express the national, unique, specific worldview of a certain people. The fact that metaphor is one of the means of expressing the national worldview puts a difficult task before the translator in recreating them in translation. In this article, the modern directions of research of metaphor as a specific way of understanding and expressing the world were studied. In this place, the elements that form the metaphor, the types of the metaphor, the specific features and problems of their translation were studied. Key words: metaphor, world view, translation, metaphor components

Key words: metaphor, world view, cognitive metaphor, metaphor components, concept, translation, artistic discourse.

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению концептуальных метафор в английском языке. В стилистическом отделе языкознания принято считать, что метафора – это украшение речи, своеобразная форма выражения мысли. Научные воззрения, появившиеся в рамках лингвокультурологии, показали актуальность изучения метафоры как одного из важных средств, выражающих национальное, неповторимое, специфическое мировоззрение определенного народа. Тот факт, что метафора является одним из средств

выражения национального мировоззрения, ставит перед переводчиком непростую задачу воссоздать их в переводе. В данной статье изучены современные направления исследования метафоры как специфического способа понимания и выражения картины мира. Здесь изучались элементы, образующие метафору, виды метафоры, особенности и проблемы их перевода.

Ключевые слова: метафора, картина мира, когнитивная метафора, компоненты метафоры, концепт, художественный дискурс.

Aksariyat hollarda, metafora tarjimasini muamoli bo'lib, unga "tarjimasiz" lingvistik birlik sifatida qaraladi. Chunki, metafora odatda majoziy ma'no bilan bog'liq bo'lib, shu sababdan tarjima qilish qiyinchilik uyg'otadi. Shuning uchun metaforalarni tarjima qilishda tarjimon, bu muamoga sinchkovlik bilan yondashishi kerak. Matnni tarjima qilishda tarjimonning o'rnini muhim bo'ladi, chunki tarjimonning natijasi, tarjimonning matnni qay darajada e'tibor bilan ishlaganligiga bog'liq bo'ladi. Shu sababdan, tarjimon yaxshi tarjimaga erishishi uchun, yuqori malakaga ega bo'lishi kerak. U ikkala tilda ham mahoratli bo'lib, manba til (source language) va maqsadli til (target language) haqida nafaqat madaniy bilimi balki lingvistik bilimi yuqori bo'lishi kerak. Asl ma'noni yaxshi etkazish uchun u tarjima qilayotgan matnni tushunishi kerak. Bundan tashqari, u manba til (SL) va maqsad tilining (TL) madaniyati haqida chuqur bilimga ega bo'lishi zarur, chunki ba'zida g'oyalari va tushunchalari faqat ma'lum bir madaniyatga xos bo'ladi. Biroq, yuqori malakali ko'nikmalarga ega bo'lish hech qanday muammo bo'lmasligini kafolatlay olmaydi. Metaforik birliklar ishtirok etgan matnni tarjima qilishda, hatto tajribali tarjimon uchun ham muammolar doimo paydo bo'ladi. Tarjimonning mazmuni mohiyati ekvivalent ma'no topib bilishda bo'lganligi tufayli, tarjima jarayonida ko'p qiyinchiliklar paydo bo'lishi tabiiy. Til tuzilishi va madaniyatlar xarakteridagi farqlar, tarjima jarayonini qiyinlashtiradi. Metaforalarni tarjima qilishda juda ko'p tasniflar va yondashuvlar bo'lishiga qaramasdan, ularni tarjima qilishning universal usulini topish va eng maqbulini tanlash qiyin.

Metaforalarni tarjima qilish nazariyalaridan birini Surrey universiteti professori Piter Nyumark taklif qilgan. Professor Nyumark quyidagi yettita tarjima tartibini ta'kidlaydi:

Metaforalarni tarjima qilish uchun etti xil usuldan foydalanish mumkin, xususan: metaforik tasvirni saqlash, agar u tushunarli va tarjima qilinilayotgan til so'zlashuvchilarga yaqin bo'lsa.

Maqsadli tildagi (target language) muayyan tasvirga almashtirish va o'xshashlik ko'rsatish.

Asos tildagi (source language) tasvirga taqqoslash.

Metaforik tasvir saqlangan holda, unga qo'shimcha ma'lumot berib o'tish.

Perefrazirovaniye (ing. paraphrase), ya'ni bo'shqa soz'lar yordamida ma'no saqlangan holda tarjima qilish.

Bir xil ma'noli metaforalarni birlashtirish.

Metaforani olib tashlash.

Bu monosyllabic metaforalarni tarjima qilishning ajoyib usuli. Masalan, "ray of hope" - "umid uchquni" (umid nuri). Murakkab metaforalarni yoki idiomalarni ma'nosini yetkazish kamroq uchraydi va madaniy ma'noga bog'liq, masalan, "his life is on the thread" - "uning hayoti qil ustida" (uning hayoti ip bilan bog'langan/его жизнь висит на волоске). Bir bo'g'inli metaforalarni tarjima qilish qiyinroq, chunki ularning ma'no mohiyat o'z ichiga oddiy obyektни emas, balki hodisa yoki sifatni tasvirlaydi. Biroq, ma'no qanchalik universal bo'lsa adekvat tarjima qilish ehtimoli kattaroq, masalan, "golden hair" (tilla soch).

Hayvonot olami bilan bog'liq bo'lgan metaforalarini tarjima qilish g'oyasi juda qiziqarli tarzda taqdim etilgan. Ba'zi hayvonlar, masalan, cho'chqa, ko'plab madaniyatlarda axloqsizlik, nopoklik, ot esa masalan, kuch, oliy tabaqalik va boshqalar bilan bog'liq. Xuddi shunday, boshqa hayvonlar ham turlicha talqin qilinadi. Misol uchun, sher frantsuz tilida jasur, nemis va ingliz tillarida esa haybatli va diqqat markazi; yo'lbars ingliz tilida shafqatsiz, ammo frantsuz tilida ayyorroq. Metaforalarning tarjimasini bir qator hollarda tarjimaning aniqligi har qanday yondashuvda nutqlar o'rtasidagi tub kelishmovchilik natijasida buziladi. (Paraphrase) boshqacha so'zlar yordamida aytish eng tez-tez uchraydigan bo'lib chiqdi va taqqoslash asl nusxaga eng yaqin bo'ldi. Nyumark, o'zing "Approach to translation" (tarjima yondashuvi) kitobida ta'kidlanishicha, metaforaning manba tilidagi so'zma-so'z tarjimasini aniq bo'lmasligi mumkin tarjima o'quvchisiga. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, tarjimonlar metaforalarni neytrallashtirmagan, matnning ekspressivligi va emotsionalligini saqlab qolinishi mumkinligini aytib o'tgan. Bu bizga qachon kerak bo'ladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Metaforalarni tarjima qilishda tarjimon adekvatlikning yo'qligi sababli qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, maqsadli tildagi ekvivalenti, ikki tilning voqeligidagi farqlar, ularning madaniyati va tizimlari to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilishning iloji yo'qligiga olib keladigan qadriyatlar. Lekin tarjimon ish va analizlar jarayonida har doim metafora ma'nosini iloji boricha to'g'ri yetkaza oladigan tarjima texnikasini topishi mumkin. Metafora adabiy matnlarda, shuningdek, har qanday estetik jihatdan to'ldirilgan janrlar va nutq ko'rinishlarida keng va cheklolansiz qo'llaniladi: gazeta insholari, sud nutqlari, cherkov va'zlari, siyosiy nutqlar, o'ynoqi nutq suhbatlari. Shuningdek, frazeologik birliklar, iboralar, hazillar, taxalluslar tarkibida juda ko'p metafora mavjud. Nutqning janr va turlari bir-biri bilan aloqada bo'lganligi va o'zaro bog'langanligi sababli jamiyat nutq hayotida metafora me'yorini ishlab chiqilishi, ma'lum bir tarixiy davrning kesishgan, bosh metaforasi ishlab chiqilishi mumkin. Shunday qilib, Sovet o'n yilliklari "harbiy metafora" ning jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi: noto'g'ri boshqaruvga hujum, ilg'or texnologiya uchun kurash, hosil uchun kurash, ilm-fanning ilg'orligi, partiya askari.

She'riyatda bir qancha barqaror o'xshatishlar mavjud, uning ichida tasvirlar yaratilgan. Masalan, hayot mumkin yo'l, sayohat, teatr, o'yin, yorug'lik deb talqin qilinadi va hokazo. Quyosh oltin bilan, oy kumush bilan, keksalik - kuz bilan, bahor gullash - va hokazo.

Hamma zamonlarda va barcha xalqlarda bosh alohida ahamiyatga ega bo'lgan, u alohida ahamiyatga ega va hatto muqaddaslikka ega bo'lgan va shaxs bilan birlashtirilgan. Qadimgi yunonlar ishonganidek, bosh- bu hayot yoki hayot idishidir. Boshqa ko'plab xalqlarda ular ruhning o'rni sifatida boshga alohida muqaddaslik berishgan. Buni hisobga olib, shuni ta'kidlash kerakki, ingliz tilida, ma'lum bir jihatdan, bosh shaxsning o'ziga teng (qarang. rus tilida bosh - bosh - asosiy), head of the state davlat rahbari iborasida uning metaforik ifodasi asosiy ma'noni bildiradi, demak u hamma orasida bosh va ehtimol, eng aqlli: "Every book on revolutions shows that they succeeded when the head of state loses is nerve"; "the head of the state is the hereditary monarch, all acts of parliament being made in his or her name". Badiiy matn tarjimasida jarayonida konseptlarning berilishi alohida yo'nalish hisoblanadi, boisi "konsept o'zida milliy xususiyatni aks ettirib, qiyoslanayotgan tillardagi konseptlar har doim ham ekvivalentlikni tashkil qilmaydi". Tarjimon "ikki madaniyat o'rtasidagi mediator vazifasini bajaradi, u, manba va tarjima matni lisoniy dunyo manzalaridagi farq evaziga yuzaga keladigan tillardagi kognitiv va kommunikativ lakunalarni to'ldirishga yordam beradi"

Konseptlarning ko'p jihatligi va turli darajalarga egaligi so'zning semantik tizimida ko'p qatlamlilikni keltirib chiqaradi, natijada, muayyan konsept tarjima qilinayotgan til sohiblari ongida ob'ektivlashadi. Konseptlar tarjimasidagi qiyinchiliklar muayyan madaniyatga xos bo'lgan konseptlarning barcha mazmunlari ekvivalentlarining mavjud bo'lmasligidan kelib chiqadi. Konseptlarning milliy madaniy xususiyatlarini tarjimada berish tarjima tilida manba tili madaniyatiga yaqin bo'lgan konseptni topish muammolari bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бахронова, Д. К. (2020). Метафоры в языковой картине мира (на материале английского и испанского языков). Молодой ученый, (1), 225-228.
2. Большой энциклопедический словарь. (2018). Языкознание. Гл. ред. Ярцева В.Н. – Москва. – 685 с.
3. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001
4. Воркачев С.Г. Культурные концепты и перевод: макаризмы в тексте Евангелия // Вестник МГОУ, 2003
5. Semino, E. (2008). Metaphor in Discourse. Cambridge University Press
6. Dobrynska, T. (1995). Translating metaphors. Problems of meaning. Journal of Pragmatics, 24, 595–604

MAQOL–FILOLOGIK TADQIQOTNING OBYEKTI SIFATIDA

M.F. Xayriyeva,
BuxDU, Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarining tahlili keltirilgan. Tarjima jarayonida har ikkala xalqning tili va madaniyatining bir – biriga bog'liq ekanligi misollar yordamida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: maqol, xalq og'zaki ijodi, paremiologiya, lingvokulturologiya

“Maqollar – xalq og'zaki ijodi merosining eng keng tarqalgan emas, eng xarakterli janri hisoblanadi. Xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushining o'ziga xosliklari maqollarda muhrlangan yoki qadimiy turmushning toshlarga qoldirgan izlari singari ishonchli, metaforik tarzda yashiringan. Maqollar, ularni yaratgan xalq qancha umr ko'rsa, ming yillar bo'yi tirik jon kabi saqlanadi. Maqollarni yuzaga chiqargan xalq tili ham o'zining obrazli qudrati bilan ming yillar bo'yi saqlanib kelaveradi”

Maqollar mazmuniy bir butunlik nomi ostida tilshunoslik yutuqlari asosida o'rganilgan. Xususan, M.Z.Sadriddinovaning ilmiy tadqiqoti o'zbek maqol va matallari leksikasi tadqiqiga bag'ishlangan. Maqollarga til birligi sifatida yondashish, ya'ni maqollarga turg'un birikmalar sifatida ta'rif berish oz bo'lsa-da dissertatsiyalarda o'z aksni topdi. Bunday qilingan ishlar orasida Bibish Jo'rayevaning “Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma'noviy uslubiy qo'llanilishi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda olim maqol va ibora, maqol va matal o'rtasidagi o'xshash va farqli belgilarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan yoritishga harakat qilgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, maqollarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilingan ishlar juda kam.

Til madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida o'ziga xos yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi.

Lingvokulturologiya – “til va madaniyat” ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy sohadir.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, ikki tildagi bir xil ma'noni ifodalaydigan maqollar aynan bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Bir tildagi frazeologizmlarni, maqol va matallarni o'zga bir tilga o'girish ularni muqobili yoki o'xshash ekvivalentlarini 373ilde373h qiyin. Chunki bular darrov kishining xayoliga kela qolmaydi. Fikrimizni quyidagi misollar tasdiqlaydi:

- *Otning yaxshisi izidan ma'lum, odamning yaxshisi – so'zidan.*

It is a good horse that never stumbles.

- Yaxshilik – yog'och boshida, Yomonlik oyoq ostida.

Hope for the best and prepare for the worst.

- Yomon bilan talashsang, qadring ketar.

Make the worst of both worlds.

- Yaxshiga yondashsang, yetarsang murodga, Yomonga yondashsang, qolarsan uyatga.

He that lies down with dogs must rise up with fleas.

Maqol va iboralar olami turli soha mutaxassisleri hisoblangan olimlar–tilshunoslar, adabiyotshunoslar, paremiologlar, folklorshunoslar, etnograflarning tadqiqotlar olib borishlari uchun “hosildor maydon” hisoblanadi. Bu tabiiy hol, chunki maqol shaklan ixcham, 374ild bo'lishiga qaramay, turli tadqiqot nuqtayi nazarlaridan ko'rib chiqilishi mumkin. Maqollar 374ilde374h374 va struktur jihatdan to'la tugallangan matn sifatida tilshunoslikning til haqidagi ancha navqiron sohasi bo'lgan matn lingvistikasining ham diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Bir til, hatto o'zaro yaqin bo'lgan va umuman bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi turli maqollar yagona mantiqiy turga tegishli bo'lishi va bir xil alomatni ko'rsatishi mumkin. Shu bois ular mantiqiy semantika va semiotikaga bevosita tegishli bo'ladi.

Maqollar tilshunoslik nuqtayi nazardan o'rganilar ekan, lingvokulturologiyada antroposentrik tadqiq muhim ekanligini ta'kidlash lozim. Tilshunoslikda bir butunlik doirasida milliy madaniyatning o'ziga xos jihatlarni yoritib berishda antroposentrik tadqiqning o'rni beqiyos, ya'ni ushbu tadqiq orqali madaniyat-til hamda til-madaniyat munosabati mushtarakligi o'rganiladi. Til dunyo manzarasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ikki jarayonda ishtirok etadi. Birinchidan, uning negizida insondagi dunyo manzarasining eng chuqur qatlamlari shakllanuvchi dunyo manzarasining tilga oid ko'rinishi shakllanadi. Ikkinchidan, tilning o'zi insonning maxsus leksika yordamida tilga insonning, u mansub bo'lgan madaniyatning unsurlarini olib kirgan holda dunyo manzaralarini ifodalaydi.

O'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarni tahlil qilish jarayonida har ikkala xalqning tili va madaniyatining bir – biriga bog'liq ekanligi juda muhimdir. Lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan ayrim maqollar ba'zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek maqollarida xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lgan barcha o'zbek va ingliz millatiga 374ilde374h-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi. O'zbek va ingliz xalqining mentalitetiga xos jihatlarni o'rganishda o'zbek va ingliz maqollari bu ikki xalqning o'ziga yarasha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib bera oladi. O'zbek va ingliz xalq maqollarini mavzu jihatdan tahlil qilib, o'zbek tilida mavjud bo'lgan maqollardagi mavzularning barchasi ingliz xalq maqollarida ham uchrashi mumkin degan xulosaga keldik. Har ikkala tildagi maqollarning bir xil mavzudagi bir-biriga o'xshash ekvivalentlarini 374 ilde 374 h

mumkin. Natijada har qanday mavzudagi maqolni olmang, u har ikkala 375ilde o'z muqobil variantiga egadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek xalq maqollarining mavzu doirasi rang-barang va har ikki 375ilde deyarli bir xil mavzular mavjud. Biroq ayrim mavzudagi maqollar bir 375ilde ikkinchi tilga nisbatan ko'proq uchrashi mumkin. Buning sababi ko'p sonli maqollarni qamrab oluvchi mavzular xalq hayotining asosiy bo'g'inini tashkil qilishidadir. Har ikki tildagi maqollarni chog'ishtirma tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tildagi maqollar ixcham va ifodali tarzda xalqlarning milliy o'zligini ko'rsata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – Т.: Mehnat, –2000.
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi Т.: 2000.
3. Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir.Т.: O'zbekiston Madaniyati. – 1965.
4. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. Т., 1990.
5. Hojiyev A., Nurmonov A. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lugati. – Т.: Sharq, 1992.
6. <http://www.yourdictionary.com>
7. <http://www.english-zone.com>

O'ZBEK MILLIY YUMORINING TARJIMA ASARLARDA IFODASIDAGI MUAMMOLAR TAHLILI.

Z.T. Safarova,

*BuxDU, Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik
kafedrasi dotsenti, f.f.f.d*

S.U. Berdiyeva

*BuxDU, Ingliz adabiyotshunosligi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
s.u.berdiyeva@buxdu.uz*

Annotatsiya. Tarjimon o'girayotgan asarining faqatgina asosiy g'oyasini, muallif uslubinigina emas, balki personajlar tilining milliy xususiyatlarini ham to'la-to'kis ochib berishi kerak. Tarjimonning eng muhim vazifalaridan biri esa obrazlar nutqidagi milliy ruhni saqlab qolishdir. Ushbu maqolada G'afur G'ulom qalamiga mansub "Shum bola" asarining ingliz tilidagi tarjimasida milliy xususiyatlarning tarjimon tomonidan qanday berilganligi tahlil qilingan. Tarjima jarayonida tarjimondan bir millatga doir xususiyatlarni boshqa tilda berishda katta mahorat va so'z boyligi talab qilinadi.

Bundan tashqari, tarjima qilishda asl ma'noni saqlagan holda asarni qisqartmalarsiz tarjima qilish ham tarjima jarayonining muammolardan biridir.

Kalit so'zlar: tarjima asarlar, badiiy tarjima, tarjimada lingvo-kulturologik xususiyatlar, tarjimon, tarjima turlari, muallif, realia, milliy-mental xususiyatlar

Agar asliyatdagi barcha milliy belgilar o'chirib yuborilsa, tarjima qilinayotgan asar o'z badiiy qiymatini yo'qotadi, uning obrazlari asar ruhini belgilamaydi. Bunday tarjima qilingan asardan kitobxon asarning muallifi va voqealari haqida, personajlar va voqea sodir bo'layotgan joy haqida to'liq tasavvurga ega bo'la olmaydi. Ma'lumki, har qanday asarning o'ziga xosligi, milliyligi, dastavval, uning mazmunida va asarning tilida ko'rinadi. Haqiqatdan ham ma'lum ma'noga ega bo'lgan, biror voqeani obrazli hamda hajviy ifoda qiladigan maqollar ma'lum bir xalqning turmushini aks ettiradigan hikmatli so'z bo'lib, xalq og'zaki ijodining ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Albatta, bunday hikmatli so'z va idiomatik iboralarni tarjima qilishda xalqning hayotini aks ettirish uchun keltirilgan fikrlarni berish juda muhimdir. Frazeologiya tarkibidagi so'z hamma vaqt ham o'zining morfologik xususiyatlarini yo'qotib qo'ymaydi, aynan morfologiya bu sohada nima yo'qolibsaqlanib qolganini aniqlashda yordam beradi. Frazeologiya tarkibiga turli xil tuzilishga ega bo'lgan so'z va so'z birikmalari, shu jumladan, iborali gaplar kiradi, aynan shu iboralarning grammatik xususiyatlarini o'rganish uchun bizga sintaksis borasidagi bilimlar qo'l keladi. "Shum bola" asari tarkibidagi somatik frazeologizmlar ishtirok etgan quyidagi misralar tahlilida buni yana ham aniqroq ko'rishimiz mumkin:

– Hamyonni, pulni, uzukni menga olib berdilar. Lekin bir yarim tanga cho'tal olib qoldilar. Shunday qilib, o'rtoqlarim bilan qilingan garovni yutdim.

– Ie, sho'rlik begunoh kosib yigit **qulog'ini ushlab ketaverdimi?** – dedim. – Yo'q, birpas qamalib yotdi, keyin bechoraga rahmim kelib, mirshabga bir so'm pora berib, yigitni qutqazib yubordim, da'vom yo'q, dedim. Yigit bechora xursand bo'lganidan bo'ynimdan quchoqlab o'pib...

O'zbek tilida qulog'ini ushlab ketmoq frazeologik birligi "hech narsasiz qolmoq, haqsiz qolmoq" ma'nosida o'zbek xalqi tomonidan aynan shu mazmunni ifodalash uchun ishlatilgan. O'zbek tilidagi matnda muallif qo'ylar podasi o'rtasida turgan bolani tasvirlar ekan, u bolaning ko'zini qo'y ko'zlar frazeologik birligi orqali ta'riflaydi. Ushbu asarning keyingi qismlarida yozuvchi tomonidan ikki barmog'ini burniga tiqib bormoq iborasi ishlatilgan: – Quruqdan-quruq sho'ppayib shaharga tushib ketaveramizmi, ko'rganbilgan ne deydi, shuncha vaqt sanqib yurib, **ikki barmog'imni burnimga tiqib boramanmi**, o'zing o'lguncha nas bosgan pes deganimcha bor bola ekansan, sen bilan birlashganimdan buyon ishim o'ng'alganini bilmayman. Sen yo'liqmaganingda hov anov pulga to'qli olgan bo'lardim, haligacha to'qlim – qo'y, qo'yim – biya, biyam – tuya bo'lardi, – deb meni koyirdi.

Endi mana shu parchani ingliz tilidagi tarjimasini bilan qiyoslaymiz: "We'll go to the city without anything, right? We worked many days and are going to the city **putting fingers to our nose**. Mutarjim bu yerda iboraning muqobil va tushunarli

tarjimasini berishga harakat qilgan, shuning uchun ham iborani so'zma-so'z tarjima qilgan. Bundan tashqari parchadagi "...nas bosgan pes deganimcha bor bola ekansan..." o'xshatishini ingliz tilidagi tarjimada "...You are a dirty and stupid boy" deb mahorat bilan tarjima qilib, o'quvchiga soda va juda tushunarli tarzida yetkazgan.

Xulosa. Tarjima asliyatni qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon. Uni amalga oshirish uchun avvalo ikki tilni mukammal bilish lozim bo'ladi. Tarjimada intuitsiya bilan birgalikda filologik tahlil yonma yon turadi. Hamonki tilsiz tarjima bo'lmas ekan, asliyat tili va tarjima tilining bir-biriga muqobilligini ta'minlash tarjimondan alohida mahorat ko'rsatishni talab qiladi. Yumoristik asarlarining tarjimasi zamirida jiddiy lingvomadaniy muammolar yashiringan bo'lib, ularda hayotiy voqealar aks ettirilgan bo'ladi. Har bir asarning tarjimasida millat mintaliteti, dunyoqarashi, xarakteri namoyon bo'ladi. G'afur G'ulomning "Shum bola" asari o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'zgacha asardir. Qissada nafaqat o'sha davr hayoti, balki o'zbek millatining madaniyati, urf-odatlarini o'z ifodasini topgan. Tarjimada ham milliy koloritni saqlab qolishga harakat qilingan. Xususan, Toshkent ko'chalari, bozorlar tasviridan tortib, asar qahramonlarining nutqidagi ibora va so'zlarning asl mazmuni saqlangan holda ifoda etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ulom G'. Shum Bola. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. – 2018. 190b.
2. Gulom G. Naughty Boy. Translators: Tukhtasinov I, Yuldashev U. - Tashkent: Yangi asr avlodi. - 2017. 125b.
3. G'ofurov I. Tarjima nazariyasi. – Toshkent "Tafakkur Bo'stoni", – 2012. 214b.
4. Safarova, Zilola. "G'afur G'ulom asarlarida yetim bola hayoti va yetimlikka munosabatning yoritilishi." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 22.22 (2022).
5. Safarova, Zilola. "The theme of orphanhood in the poetry of Uzbek and English literature." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 3.3 (2021).
6. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: "FAN nashriyoti", 2005. – 342b.
7. Safarova, Z. T., & Urayeva, D. S. (2020). THE SIMILAR FEATURES IN DEPICTION OF ORPHANS' LIFE IN CHILDREN'S ADVENTURE NOVELS. Theoretical & Applied Science, 4, 343-347.

O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA O'ZGA NUTQ IFODASI

*E.B. Jumayev,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
S.A. Allamova,*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va nemis tilshunosligida o'zga nutq ifodasi, uni o'rganishda tilshunos olimlarning qarashlari haqida fikr yuritiladi, shuningdek, maqolada o'zbek va nemis tillaridagi o'zga nutq ifodasi qiyosiy tahlil qilinadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается иноречевое выражение в узбекском и немецком языкознании, взгляды лингвистов на его изучение, а также сравнивается иноречевое выражение в узбекском и немецком языках.

Annotation. This article discusses foreign speech expression in Uzbek and German linguistics, the views of linguists in its study, and the article compares foreign speech expression in Uzbek and German languages.

Kalit so'zlar: o'zga nutq, ko'chirma nutq, o'zlashtirma nutq, matn, mikromatn, yaxlitlik, muallif nutqi, morfologik vosita, nutq fe'li, til qurilishi.

Ключевые слова: иностранная речь, скопированная речь, самостоятельно направленная речь, текст, микротекст, целостность, авторская речь, морфологический инструмент, речевой глагол, языковая конструкция.

Key words: someone else's speech, direct speech, indirect speech, text, microtext, integrity, author's speech, morphological means, speech verb, language structure.

Kirish. Bundan ikki asr oldin Yevropada til ruhiy-ijtimoiy hodisa ekanligi haqida ta'limot yaratilgan. Mazkur ta'limot buyuk nemis tilshunos olimi Vilhelm fon Humbolt (Wilhelm von Humboldt, 1767–1835) tomonidan yaratilgan va ushbu ta'limot jahon tilshunosligida e'tirof etilgan bo'lib turlicha oqim, yo'nalish, maktablarning paydo bo'lishi uchun asos vazifasini bajargan va bajarib kelmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, nemis tilshunosligida o'zga nutq masalasi ham turli oqim, maktab va yo'nalishlarda ham nazariy, ham amaliy jihatlardan har tomonlama tadqiq-u talqin, tasnif qilingan. Ushbu mavzu yillar davomida uzluksiz nafaqat Germaniyada, balki boshqa mamlakatlar, jumladan, O'zbekistonda ham o'rganilmoqda. Shu sababli mavzuga oid adabiyotlar talaygina. Ushbu maqolada o'zbek va nemis tillaridagi o'zga nutq ifodasiga qisqacha to'xtalamiz.

XX asrning birinchi yarmi oxirlarida gapning lisoniy-nutqiy xususiyati bilan bir qatorda gapdan yirik birlik (rus. sverxfrazovoe edinstvo, nem. Übersatzmassiges Ganzes), murakkab sintaktik butunlik (slojnoe sintaksicheskoe tseloe), gaplar hamkorligi, birligi (nem.Satzgemeinschaft) ham tadqiq etila boshladi. Bunday birlik keyinchalik matn (rus. tekst, nem. text, ing. va frants. discourse, discour) deb nomlanadi. Shu nuqtayi nazardan amalga oshirilgan keng ko'lamli tadqiqotlar natijasida matn lingvistikasi va matn grammatikasi deb nomlangan sohalar shakllandi. O'zga(lar) nutqi, jumladan, o'zlashtirmalik ham aynan matn grammatikasining obyektini hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida o'zga gaplarga doir ilmiy maqola, monografiya, risolalar bosilib chiqqan, dissertatsiyalar yozilgan. Bundan tashqari mazkur mavzu o'zbek

tilining ilmiy, akademik grammatikalari hamda oliygoh filologiya fakul'tetiga mo'ljallangan darslik va qo'llanmalarda turli darajada yoritilgan. Mazkur ishlarda o'zga gapning tuzilishi, mazmuni va qo'llanishiga nisbatan mualliflarning munosabati bir xil emas. Chunonchi, ayrim tilshunoslarning fikriga ko'ra ba'zi ko'chirma gap muallif gapiga nisbatan mustaqilligini saqlaydi. Shu bois uni bog'langan qo'shma gap deyish mumkin. Ikkinchi xil ko'chirma gap esa muallif gapini izohlab keladi va unga nisbatan ergash gap vazifasini bajaradi. Binobarin, bunday ko'chirma gap ergash gapga aylangan bo'ladi.

O'zbek tilining akademik grammatikasida mazkur mavzu *ko'chirma va o'zlashtirma gap* sarlavhasi ostida berilgan bo'lib, prof. A. N. Nurmaxonova tomonidan yozilgan [2, 490 – 504]. O'zga gapning xususiyati haqida bayon qilingan fikrlardan ayrimini keltiramiz: *Ko'chirma gapli jumla* ikki qism (avtor gapi va ko'chirma gap)dan iborat. Ko'chirma gap alohida grammatik qoidalar asosida tuziladi [2, 495]. Ko'chirma gapni ifodalash uchun leksik, grammatik, intonatsion vositalar qo'llanilib, uning o'ziga xos konstruksiyasi bor [2, 491]. Ko'chirma gap bilan avtor gapi orasida organik aloqa mavjud. Avtor gapi ko'chirma gapni ma'lum jumlagacha kiritib qolmasdan uni boshqa gaplardan ajratib ham turadi. Avtor gapi bilan ko'chirma gap birga qo'llanishi natijasida qo'shma gap konstruksiyasi kelib chiqadi. Bu konstruksiyada ko'chirma gap o'z mustaqilligini saqlaydi; avtor gapi, aksincha, mustaqillikka ega emas. Bu hol, ayniqsa, u ko'chirma gapdan ajratib olinganda yaqqol seziladi: *Juda to'g'ri qilibsan, – deb uning so'zini bo'ldi chol.* (N. Safarov) [2, 495].

So'zlovchi nutqining so'zma-so'z berilishiga ehtiyoj bo'lmaganda o'zlashtirma gap qo'llanadi. O'zlashgan gap turmushda ko'p ishlatiladi. Chunki o'zga gapning bu turi katta jumalarni qisqartirib aytishga qulaylik tug'diradi. Natijada ko'chirma gap ikkinchi marta avtor tomonidan o'zlashtiriladi. Bu o'zgarish natijasida ko'chirma gap tarkibida kishilik olmoshi bo'lmaydi, fe'lning shaxs, son kategoriyalari ko'rsatilmaydi, butun gap avtor nomidan III shaxs orqali ifodalanadi [2, 501–502]. Yakuniy xulosa shuki, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar kommunikativ vazifani yuzaga chiqaruvchi vositalardan biridir.

O'zbek tilida o'zlashtirmalik ikki usul bilan ifoda etiladi: biri sintaktik, biri morfologik.

Sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalikning eng kichik ko'rinishi ikkita o'zak, negizga qo'shimcha yoki yordamchi so'z qo'shish bilan yasaladi. Uning bir necha andozasi bor, barchasi ikki qismdan iborat bo'ladi. Shulardan biri (o'zlashtirma xabar)ning birinchi qismi to'rt yoki besh uzvdan, ikkinchi qismi ikki uzvdan tuziladi. Ikkinchi qism vazifasida qo'llanuvchi so'zning soni cheklangan, birinchi qismda esa morfologik vosita soni chegaralangan. Jumladan, kelishik qo'shimchasidan faqat bittasi yoki u bilan vazifadosh bo'lgan ko'makchi ishlatiladi: *Ol+gan+i+ni ayt+di. Ol + ish + i + ni ayt+di. Ol+moqchi+lig+i+ni ayt+di. Ol+gan+i haqida gapir+di* va hokazo.

Sho'ro davrida o'zlashtirmalikning asosan ana shu turi nazariy jihatdan tadqiq qilinib oliy va o'rta ta'limga tatbiq etildi, ya'ni qoidalashtirilib, kodifikatsiya qilindi. Bu tur ko'chirma gap bilan qiyosan, u bilan bitta umumiy sarlavha (o'zga gap) ostida o'rganildi. O'zlashtirmalikning ushbu turi zohiran sodda, mazmunan qo'shma gapga teng keladi. Akad. G'. Abdurahmonov ta'biri bilan aytganda, bunday sodda gapda ikkita fikr ifodalanadi. Bu ayniqsa flektiv tillar bilan qiyoslangada yaqqol seziladi: *Kitob olganini aytdi. – Он сказал, что покупал книгу. – Er sagte, dass er ein Buch gekauft hat* [1]. O'zlashtirma gapning oliy o'quv yurti darsligida sodda gap shaklida bo'lishi e'tirof etilib, qo'shma gap bahsida berilishi xorijiy til ta'siri bilan izohlanadi.

O'zlashtirmalikning ikkinchi turi o'zbek tili qurilishining o'ziga xos xususiyati, ya'ni tejamkorlik bilan bog'liq bo'lib, uning eng kichik ko'rinishi fe'ning o'zak, negiziga qo'shimcha qo'shish bilan hosil bo'ladi. V.Humbolt tillarning grammatik jihatdan farqi xalqlarning grammatik nazari, idroki (grammatische Ansicht)dagi farq bilan bog'liq bo'lganidan *lug'atga nisbatan grammatikada millatning ruhiy o'ziga xosligi ko'proq aks etadi* [3] deb yozganda haqli edi. Sho'ro saltanati mafkurasiga mos ravishda til faqat ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinib uning ayni paytda ruhiy hodisa ham ekanligi inobatga olinmaganligi oqibatida o'zbek tili qurilishining o'ziga xosligini ko'rsatadigan *o'zlashtirmalik* rus tilidagidaek faqat sintaktik hodisa sifatida talqin qilinib kelindi. Uning *-(i)bdi, -gan ekan (emish), -(a)r ekan (emish, -sin ekan (emish)* kabi morfologik vositalar bilan ifodalanishi e'tibordan chetda qoldi.

O'zgalar nutqi nutqning alohida turi bo'lib, nutqiy vaziyatning alohida ko'rinishi hisoblanadi. Bunda monologda so'zlovchi (yozma nutqda muallif)ning o'z nutqiga boshqa shaxs nutqi, dialogda esa boshqa shaxslar nutqi qo'shiladi. So'zlovchining o'z nutqi obyekt bo'lib borliqdagi voqea-hodisa va faktlar xizmat qiladi. O'zining monologik nutqi asosida so'zlovchi tinglovchi (adresat)ga borliq haqida axborot, ma'lumot beradi. So'zlovchining dialog tarzidagi o'z nutqi esa nutqiy amal (nutq akti) ishtirokchilarining borliq haqidagi suhbatidan iborat bo'ladi. O'zga(lar)ning nutqi tamomila boshqacha nutqiy vaziyatni taqozo etadi. Bunday holda so'zlovchi borliq haqida o'z fikrini emas, o'zgalarning fikrini yoki suhbatini bayon qiladi. Psixolingvistik nuqtayi nazardan monologik o'zga nutqda ham, dialogik o'zga nutqda ham doim bir xil munosabat mavjud bo'ladi: axborot berish axborot olish (yoki xabar qilish va xabardor bo'lish). Axborot (ma'lu'mot) obyekt vazifasini esa, yuqorida aytilganidek, boshqa shaxs yoki shaxslarning fikri, suhbatini bajaradi. Bundan tashqari o'z nutqi orqali so'zlovchining adresatni o'zi yoki adresat amalga oshirgan voqea-hodisa mazmunidan xabardor qiladi [6,126]. O'zga nutqning ifodalanishi turli uslubda turlicha bo'lib, har biri o'ziga xos grammatik me'yorga ega. O'zgalar nutqi ifodalanishining eng oddiy usuli *ko'chirma nutq*dir. Bunday holda o'zganing nutqi hech o'zgarishsiz xabar qilinadi. Ko'chirma nutqning muallif matni bilan birikish mexanizmi shundan iboratki, muallif o'zganing nutqini bayon qilib uning kimga tegishli ekanligini ifodalaydi.

Ko'chirma nutq ikki xil bo'ladi: 1) badiiy asarda qahramonlar nutqi (ko'pincha dialog tarzida); 2) ilmiy, publitsistik matn, ish yuritish hujjatlari va hokazoda o'zganing

iqtibos shaklida ifodalanadigan monologik fikri. Ikkinchi turda iqtibosning aynan ekanligini ko'rsatish maqsadida ko'chirma nutq qo'shtirnoqqa olinadi, matnning tushirib qoldirilgan qismi ko'p nuqta bilan ifodalanadi, maxsus shriftdan foydalaniladi, ilmiy adabiyotda havolada muallifning ismi sharifi, asar nomi, nashr qilingan yili, o'rni kabilar ko'rsatiladi. Publitsistik matnda esa ko'chirma nutq bilan birga o'zlashtirma nutq ham qo'llanadi va hokazo [6,127]. Misollar tahlili ko'chirma va o'zga nutqning boshqa turlari xabar manbaini ko'rsatish va uning ishonchligini tasdiqlash imkonini beradi [6,128].

O'zgalarning nutqi ifodalanishining ikkinchi muhim usuli *o'zlashtirma nutqdir*. Nutqning bu turida o'zgalarning xabari qisman o'zgarish bilan muallif nomidan bayon etiladi. Bunday holda ko'chirma xabardan farqli o'laroq nutqning sintaktik tuzilishi tubdan o'zgaradi. Uning o'ziga xos bir nechta grammatik belgisi bor:

1) o'zga nutq to'lig'icha yoki boshlanishi ergash gapdan iborat bo'ladi; 2) ergashtiruvchi bog'lovchi (o'zlashtirma xabarda *dass*, o'zlashtirma so'roqda *ob*) qo'llanadi; 3) shaxs shakli o'zgaradi (odatda III shaxs); 4) asosan konyunktiv ishlatiladi, 5) uning tarkibida *sollen* va *mögen* fe'llari keladi (o'zlashtirma buyruqda) va b.

Ilmiy, ayniqsa, publitsistik nutqda o'zlashtirma matnning ixcham shakli (erzählte Rede) keng iste'molda bo'lib, otli so'z birikmasi va otli so'z birikmasi hamda fe'l orqali ifodalanadi. Badiiy matnda o'zlashtirma xabar ikki xil vazifa bajaradi [6,131–132].

O'zgalarning nutqining uchinchi turi faqat badiiy adabiyotga xos bo'lib, *o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq* (erlebte Rede) deb ataladi. O'zgalarning nutqining bu turi muallif matniga qo'shib, asar qahramonlari fikr va tuyg'usini ifodalaydi, ularning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi. U muallif nutqi bilan birlashib, chatishib ketadi. Bu uning grammatik jihatdan ifodalanishida namoyon bo'ladi. Unda o'zlashtirma, ko'chirma va muallif nutqining belgilari mavjud bo'ladi. Uning sintaktik tuzilishi ko'chirma gapnikiga o'xshaydi. Unda indikativ va dialogik nutqqa xos bo'lgan his-tuyg'uni ifodalovchi vosita (modal so'z va yuklama, undov so'z, undov gap kabi)lar qo'llanadi. III shaxs shaklining ishlatilishi esa uning o'zlashtirma nutq bilan bir xilligidan dalolat beradi. Muallif nutqi kabi unga ham preterit va preterital zamon shakllarining qo'llanishi xos. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning bu belgilari faqat matnda namoyon bo'ladi. Kontekstdan tashqarida u odatdagi ko'chirma nutqdan farq qilmaydi. O'zga nutqning bu turida Präteritum o'rnida Präsens ham uchraydi [6,132].

Xulosa. O'zbek tilida o'zlashtirmalik ikki usul bilan ifoda etiladi: biri sintaktik, biri morfologik. Sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalikning eng kichik ko'rinishi ikkita o'zak, negizga qo'shimcha yoki yordamchi so'z qo'shish bilan yasaladi. Uning bir necha andozasi bor, barchasi ikki qismdan iborat bo'ladi. Shulardan biri (o'zlashtirma xabar)ning birinchi qismi to'rt yoki besh uzvdan, ikkinchi qismi ikki uzvdan tuziladi. Ikkinchi qism vazifasida qo'llanuvchi so'zning soni cheklangan, birinchi qismda esa morfologik vosita soni chegaralangan. Jumladan, kelishik qo'shimchasidan faqat bittasi yoki u bilan vazifadosh bo'lgan ko'makchi ishlatiladi: *Ol*

+ *gan +i+ni ayt+di. Ol+ish+i+ni ayt+di. Ol+moqchi+lig+i+ni ayt+di. Ol+gan+i haqida gapir+di* va hokazo.

O'zlashtirmalikning ikkinchi turi o'zbek tili qurilishining o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq bo'lib, uning eng kichik ko'rinishi fe'lning o'zak, negiziga qo'shimcha qo'shish bilan hosil bo'ladi. O'zbek tilida morfologik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirmalik ham mazmunan uch xil ko'rinishga ega: 1) o'zlashtirma buyruq, 2) o'zlashtirma xabar (istak va hokazo), 3) o'zlashtirma so'roq. Mazkur ma'nolarni ifodalashda quyidagi vositalar qo'llanadi: *-(i)bdi, -adi (-ydi), -gan, -gan ekan, -gan emish, -(a)r ekan, -(a)r emish, -(a)yotgan ekan, -(a)yotgan emish, -adigan (-ydigan) ekan, -adigan(-ydigan) emish, -moqchi ekan, -moqchi emish, -sin ekan, -sin emish* shakllari hamda *ot va boshqa so'z turkumlari + ekan, emish to'liqsiz fe'li* va b.

O'zlashtirish sintaktik va morfologik yo'l bilan hosil bo'ladi. Tili flektiv deb ataluvchi xalqlar ruhiyati borliqni tilga aylantirishda ikki bosqichli sintezdan foydalanadilar. Tili agglyutinativ deb ataluvchi xalqlarda esa sintez birdaniga ro'y beradi. Ikkala bosqich xususiyati ham o'zakda voqelanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Guliga, E.V., & Natanzon, M.D. (1957). *Grammatika nemeskogo yazika*. Moskva.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili. II tom. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1966. – 172 b.
3. Zikrillaev G'. Ruh va til. Toshkent, "Fan", 2018. 464 b.
4. Jumayev E. B. Gan Ekan (Suffix) Form And Reported Speech // Middle European Scientific Bulletin. ISSN 2694-9970. Vol. 11. April 2021. – P. 748– 751. Impact Factor 5,525.
5. Jumayev E.B. “O'zbek adabiy tilida o'zlashtirmalik va matn”. Monografiya – “Durdoni” nashriyoti, Buxoro-2024
6. Moskalskaya O.I. Grammatika teksta. – Moskva: Visshaya shkola, 1981.–183 s.
7. Ro'ziev, Y. (2023). Noqardosh tillarda ikkinchi tur o'zlashtirmalik va mikromatn. *Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti*, 6(94), 121-126.
8. Ro'ziev, Y. (2023). O'zbek tilida birinchi tur o'zlashtirmalik va gap. *Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti*, 5(93), 80-86.

S.S. BUXORIY IJODIDA “WEST- ÖSTLICHER DIVAN” (MAG'RIBU MASHRIQ” DEVONI) TARJIMASINING AHAMIYATI

M.R. Xaitova,
BuxDU, 1-bosqich magistranti
m.r.xaitova@buxdu.uz

Annotatsiya. Sharq adabiyoti o'zining turfa betakror adabiy shakl va janrlari bilan, ularda ifodalangan yuksak umuminsoniy tuyg'ularga to'lib toshgani bilan shuhrat qozonib, uzoq asrlardan buyon dunyoning ko'plab xalqlariga ma'naviy turtki berib

kelmoqda. Nemis adabiyoti garchi G'arb adabiyotiga daxldor bo'lsa-da, unga ham Sharq adabiyoti an'analari ta'siri borligi kuzatiladi. Xuddi shu jihat Sadridin Salim Buxoriyning Gyote ijodiga, ayniqsa, uning o'zi uchun ham ruhan yaqin bo'lgan Hofiz she'riyati hamda tasavvuf adabiyotiga ergashib yozilgan "G'arbu Sharq devoni" nini tarjima qilishga katta qiziqish uyg'otdi. Mazkur maqolada S.Salimov ijodida Sharqu G'arb mavzusi va "Mag'ribu Mashriq" devoni tarjimasining o'rni borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yohan Volfgang Gyote, Mag'ribu Mashriq, G'arbu sharq, tarjimon, mutafakkir, ijod, mavzu, devon, motiv, so'fiylik.

ВАЖНОСТЬ ПЕРЕВОДА "ЗАПАДНО- ВОСТОЧНОГО ДИВАН" (МОГРИБУ МАШРИК ДЕВОНИ) В ТВОРЧЕСТВЕ С.С. БУХАРИ

Аннотация. Восточная литература прославилась своими неповторимыми литературными формами и жанрами, наполненными выраженными в них высокими общечеловеческими чувствами, и на протяжении веков давала духовный импульс многим народам мира. Хотя немецкая литература связана с западной литературой, замечено, что она также находится под влиянием восточных литературных традиций. Тот же аспект вызвал большой интерес в переводе Садриддином Салимом Бухари сочинений Гёте, особенно «Гарбу Шарк Диван», написанного по мотивам поэзии. Хафиза и духовно близкой ему суфийской литературы. В данной статье рассматривается роль темы Восток-Запад и перевод книги «Магрибу Машрик» в творчестве С. Салимова.

Ключевые слова: Иоганн Вольфганг Гёте, Магриб Машрик, Запад-Восток, переводчик, мыслитель, творчество, тема, почитание, мотив, суфизм.

THE IMPORTANCE OF TRANSLATING THE "WEST-EASTERN DIVAN" (MOGHRIBU MASHRIK DEVONI) IN THE WORK OF S.S. BUKHARI

Annotation: Eastern literature became famous for its unique literary forms and genres, filled with high universal feelings expressed in them, and for centuries gave a spiritual impulse to many peoples of the world. Although German literature is related to Western literature, it has also been observed to be influenced by Eastern literary traditions. The same aspect aroused great interest in Sadridin Salim Bukhari's translation of Goethe's writings, especially "Garbu Shark Divan", written based on the poetry of Hafiz and Sufi literature spiritually close to him. This article discusses the role of the East-West theme and the translation of the book "Maghribu Mashrik" in the work of S. Salimov.

Key words: Johann Wolfgang Goethe, Maghreb Mashrik, West-East, translator, thinker, creativity, theme, reverence, motif, Sufism.

Kirish. Shoir va tarjimon Sadridin Salim Buxoriy nemis tili mutaxassisligini egallash maqsadida uni chuqur o'rganishga bel bog'lar ekan, avvalo, shu tilda ijod qilib,

ona tilining nufuzini o'z durdona asarlari bilan dunyo miqyosiga ko'targan, shu asosda uni katta mehr bilan ardoqlashini isbotlagan mutafakkir shoir I.V.Gyote ijodini sevib o'rgandi. U Gyoteni faqat ijodkor sifatida emas, balki mohir tarjimon sifatida ham e'zozlab, o'zining Gyote bilan ma'nau va ruhan ichki yaqinligini chuqur his qildi. Buni tarjimonning Gyote ijodini ilmiy-ijodiy o'rganish borasidagi ko'p yillik ijodiy mehnati va erishgan natijalari asosida dalillash mumkin, albatta.

Sadriddin Salim Buxoriyning mutarjimlik sohasidagi mahorati olmonlarning mashhur shoiri Yoxan Volʼfgang Gyotening “Mag'ribu Mashriq” devoni tarjimasini amalga oshirish jarayonida yanada yuqori cho'qqiga erishdi, deyish mumkin. Chunki shoir uni o'zbek tiliga bevosita nemis tilidan Yana bir o'rinda G'arbning Sharqdan, Sharqning esa G'arbdan o'rgangani ta'kidlangan:

Qolib Rumi, Navoiy, Halloj,
O'rganmasdan Bedilni,
Singdiribman, onnga, ajabo,
Feyerbax, Kant, Gegelni.
Gegeldan men Rumiya keldim,
Keldim Naqshbandiyaga,
Vaholanki, Rumiya Gegel
Oziq olgan miyaga.
Boshim tegdi G'arb devoriga,
Neni izlab yelibman?
Men mashriqlik Sharqdan G'arbgamas,
G'arbdan Sharqqa kelibman.

S.Salimov – “G'arbu Sharq devoni”ning o'zbek tarjimonlaridan biridir. U nemis tili mutaxassisi bo'lganligi tufayli bu asar muallifi Gyotening she'riy olamini yaqindan anglay oldi. Shuning uchun unga bu asarning yana bir o'zbek tarjimoni Maqsud Shayxzodaga nisbatan yoki Gyotening yana bir mashhur asari – “Faust” tarjimoni E.Vohidovdan ko'ra, “G'arbu Sharq devoni”ning sharqona ruhini ifodalash va o'quvchilarga yetkazish sal oson kechgani ayonlashadi.

Sharqona madaniyat, islomiy qarashlar asosida o'sib-ulg'aygan shoir-tarjimonga orttirgan tasavvufiy bilimlari ham yaqindan yordam berdi. Shuning uchun S.Salimovga nemis shoiri Gyote tomonidan “G'arbu Sharq devoni”da o'ziga xos tarzda talqin qilingan Qur'on motivlari, so'fiylik g'oyalarini “ochish” u qadar qiyin kechmadi. Lekin Gyote favqulodda keng tafakkur egasi va Sharq dunyoqarashining buyuk ixlosmandi bo'lsa-da, baribir g'arb dunyoqarashi vakili edi. Shu sababdan uning devonida sharqona motivlar g'arbona she'riyat texnikasi va tamoyillari asosida ifodalangani sezilib turadi.

Ma'lumki, Gyotening “G'arbu Sharq devoni” turli tillarga tarjima qilingan. Ingliz, rus kabi bunday tarjimalar orasida devonning o'zbekcha tarjima variantlari ham borligi quvonarlidir. Bunda o'zbek tarjimonlari Sharq xalqlarining madaniyati, urf-odatlari, va mutaxassis-tarjimon bo'lishiga qaramay, S.Salimovda faoliyatida ham kuzatiladi. Bu esa devonning murakkab mazmun va shaklga egaligi bilan bog'liqdir.

Gyotening “Qo’shiqchi kitobi”dagi “To’rt manfaat” she’rini o’zbek tarjimoni N.Muhammadiev Qur’oni karim asosida to’g’ri yetkaza olganligini alohida ta’kidlash lozim.

Gyote sharq xalqlarining urf-odatlarini yuksak qadrlagan, u ko’chmanchi badaviylar hayotini va islomgacha bo’lgan “Moallakat” she’riyatini o’rgangan, shu bois arablarning turmush tarziga bag’ishlangan “To’rt qul” she’ri qiziqarli o’qiladi. Bu she’r “To’rt azhib sovg’a” nomi bilan N. Muhammadiev tarjimasida nashr etilgan. Unda Alloh taoloning arabga bergan to’rtta “mol”iga ishora qilinadi. Birinchidan, bu salla, muqaddas libos, balki kafandir. Shariatga ko’ra, har qanday musulmon kafanga o’ralgan holda dafn etilishi kerak, kafansiz dafn qilish katta gunoh hisoblanadi, shuning uchun salla jangchilar va ko’chmanchilar uchun kafan o’rnini egallagan. Ikkinchidan, bu hamma joyda o’rnatilishi mumkin bo’lgan chodir. Uchinchidan, bu qilich devordan qattiqroq va dushmanlardan himoya qiladi. To’rtinchidan, bu har qanday ayolni o’ziga jalb qila oladigan qo’shiq. Tarjimon N.Muxammadiev she’r mazmuniga chuqur kirib, uni o’zbek tilida yetarlicha takrorlay olgan. Uning badiiy shaklidagi tarjimasida aslyatga mos keladi, chunki asl nusxada ab, ab qofiyasi tanlangan.

A.Allaberganov (60:97) fikricha, N.Muhammadiev asl nusxadan tarjima qilmagan, balki V.Levik tarjimasidan foydalangan. Shunday bo’lsa-da, unda Gyote intonatsiyasi, bayt va ritmi, Gyote qo’llagan an’anaviy sharqona atributlar, milliy obrazlar to’g’ri aks ettirilgan. “To’rt qul” she’rida “Salla – toj, chodir – devor, qilich – panjara, qo’shiq – harf” degan arab maqoliga asoslanilgan. Gyote bu maqolning mazmunini ochib beradi.

Gyotening she’riy satrlarida esa hayotni tasdiqlovchi pafos singib ketgan.

N.Muhammadiev ham M.Shayxzoda kabi V.Levikga ergashib, Gyote she’rining asosiy g’oyasini qamrab olishga muvaffaq bo’lgan.

S.Salimov tarjimasida Hofizga Gyotening e’tiqodi, unga “pir”, o’zini esa “murid”, “izdosh”, “Shayx Pir shogirdi” hisoblashi, oralaridagi xayoliy “ustoz” va “shogird”lik tushunchalari tasavvufning qoidalari asosida yoritilgan:

Aslyatda	V.Levikda	S.Salimovda
Und mag die ganze welt versinken	И что мне сельый мир? Судьбою Тебе да	Menga olam g’ami bilki, abasdur,
Hafis, mit dir, mit dir allein!	уподоблюсь я! Хафиз, мы будем как друзья!	Ayo, Hofiz! Agar sen birla bo’lsam,
Will ich wetteifern! Lust und Pein	Сквозь боль и радость бытия,	Ki, faxru iftixorim sen, havasdur
Sei uns der Zwilligen gemein!	Любовь и хмель пройдут с тобою,	Seningday g’am chekib, sen kabi kulsam.
Wie du zu lieben und zu trinken,	И в этом счастье – жизнь моя.	
Das soll mein Stolz, mein Leben sein.		

Murodim may
ichib sen birla
bahsdur.

Seningdek
sevsamu so'ng mayli
o'lsam.

Ko'rinyaptiki, V.Levik tarjimasida Hofiz bilan do'stlashish ma'nosi anglatilmoqda. Bu esa Gyote she'rining asl ma'no-mazmuniga to'liq mos kelmaydi. Chunki Gyote Hofizni o'ziga ustoz, o'zini esa undan o'rganuvchi shogird qiyofasida berishni ko'zda tutgan.

Keltirilgan yuqoridagi parchada “ganze”, “versinken”, “Zwillingen” so'zlari ham unchalik to'g'ri tarjima qilinmagan. S.Salimov esa bu o'rinda asliyatdagi bu kabi so'zlarning sinonimik variantlarini, mos ekvivalentlarini topib, shu orqali adekvat tarjimaga erisha olgan. Parchadagi “Und mag die ganze welt versinken” misrasini tarjima qilishda S.Salimov “g'ami abasdur” (“behuda yig'lash”) birikmasini kiritib, tarjimaning semantikasiga putur yetkazmagan holda uni tovush jihatidan asl nusxaga yaqinlashtirgan. U asl matnda “may” so'zi bo'lmasa-da, tasavvufga xos “may”, “ishq”, “abadiylik” kabi tasavvufiy tushunchalarni keltirib, asar mazmunini ochishga harakat qilgan. Mastlik holatida insonlarning Haqqa erishishi, inson o'zi uchun abadiylik eshiklarini ochishi tasavvufiy ruhda yoritilgan. Shu asosda shoir-tarjimon Gyote va Hofizning “muhabbat” bilan birlashgan do'st, Piru Murshidlar ekanini ta'kidlagan.

Umuman aytganda, S.Salimov o'z tarjimasida shakl va mazmun birligini saqlab qola olgan. Bunda uning shoirligi ham yordam bergan. To'g'ri, ba'zan tarjima shaklining asl nusxadan hajmi jihatidan qisman farq qilishi kuzatiladi. Lekin S.Jabborov haqli e'tirof etganidek, I.V.Gyote she'ri ayrim kamchiliklarga qaramay, shoir-tarjimon S.Salimov tomonidan o'zbek tiliga adekvat tarjima qilingan. Eng asosiysi, u Gyote asarining islom ruhi bilan sug'orilganini ko'rsata bilgan.

Asar ma'nosi ichki jihatdan “jannat” mavzusi bilan ham bog'langan. Bu mavzu devonning asosiy mavzulardan biridir. Gyote fikricha, “jannat ostonalariga uchib borish”, “abadiylikka erishish” uchun, eng avvalo, donishmandlik bilan xalqqa xizmat qilish, xalq baxti uchun jonini fido qilishga tayyor bo'lmoq lozim. Bu g'oya “G'arbu Sharq devoni”ning “Kirish” qismidan boshlanib, so'nggi kitobi – “Jannat kitobi”da yanada chuqurlashtirilgan. Agar devonda “Hijrat” she'ri muqaddima bo'lsa, “Jannat kitobi” epilogdir. Unda o'zga olamga borgan insonni jannat darvozalarida qorovul bo'lib turgan go'zal hurlar savol-javob qiladi. Ular iymon uchun kurashda jon fido qilgan, payg'ambarga fidoyi bo'lgan, butun umri davomida haqiqat, ezgulik va adolatni himoya qilishga intilgan kishilargagina mangu hayotga yo'l ochadi. Xuddi shunday Gyote jannat eshiklarini taqillatib borganda, hurlar uning ham Oллоhga sodiqligini tekshiradi,. Shunda shoir quyidagicha javob beradi:

Asliyatda

V.Levikda

S.Salimovda

Nicht so vieles Federlesen Lass mich immer nur herein; Denn ich bin ein Mensch gewesen, Und dass heisst ein Kämpfer sein.	Распахни врата мне шире, Не глумись над пришлесом, – Человеком был я в мире, Это значит – был борсом.	Takallufsiz gaplar deding, Benafdur yo'lim tusmoq. Men haqiqiy Inson edim, Qurashuvchi – bu demak.
---	--	--

Bunda S.Salimov “Lass mich immer nur herein”, ya’ni “Manga kirishga ruxsat ber” mazmunidagi iltimos ohangli misrani “Benafdur yo’lim tusmoq” deya, ogohlantirish mazmunida, sokin ohangni ko’tarinki ohangga o’zgartirib ifoda etgan. Agar ushbu tarjima asliyat bilan solishtirilsa, undagi so’zlar asl nusxaga mos kelmasligi ma’lum bo’ladi. Lekin, tarjimon asliyatga ijodiy yondashgan va ma’noni saqlab qolgan.

Xulosa takliflar. qilib aytganda S.Salimov – nemis, rus, fors-tojik shoirlari ijodidan ko’plab she’riy tarjimalar qilgan mutaxassis-tarjimon. She’riy tarjima esa murakkab jarayon. Bunda “mutlaq tarjima”ga erishish har qancha qiyin bo’lmasin, S.Salimov o’zi bevosita shoir va mutaxassis tarjimon sifatida buning uddasidan chiqdi. She’riy tarjima me’yorlarini bilgan shoir va tarjimon S.Salimov aksaran hollarda adekvatlikka erisha olgani kuzatiladi. Sadridin Salim Buxoriyning bevosita nemis, rus, fors-tojik tillaridan qilgan dastlabki tarjimalari turli gazeta va jurnallarda e’lon qilingan, adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Makhmudova M.M. Fundamentals and ideological content of the creation of Y.V. Goethe’s “West-east collection of poems”// Scientific reports of Bukhara state University. 2021/5-6(87/88). (Scopus)
2. Makhmudova Muattar. Sadridin Salim Bukhariy’s Role in the Development of the literary Environment of Bukhara in the Late xx and Early xxi Centuries. // Euro-Asia Conferences 2021. – R.92-94.
3. Makhmudova M.M. “Skill of Translating Mystical Ideas in Sadridin Salim Bukhari’s “G’arbu Sharq Devoni (West-East Devon)”// Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT. 2021/1. – R.153-157.
4. Makhmudova M.M. Preservation of Originality in the Translation of Goethe’s Work. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020.
5. Maxmudova M.M. Gyote ijodida sharqona mavzularning badiiy talqini// Ilm sarchashmalari. – Urgench. – № 10. – 2019. – B. 139-142.

6. Mahmudova M.M. Yo.V.Gyote “G’arbu Sharq devoni”ning Maqsud Shayxsoda va S.S.Buxoriy tarjimalariga xos xususiyatlar // Ilm sarchashmalari. – Urgench. – №1. – 2021. – B.166-171.
7. Machmudowa M.M. Johann Wolfgang Goethe und sein West-Ostlicher Divan”//Tilning leksik-semantik tizimi, qiësiy tipologok izlanishlar va adabiëtshunoslik muammolari materiallari bo’yicha ilmiy amaliy maqolalar to’plami. –Buxoro “Durdona” nashriëti, 2020. – B.133-137.
8. Maxmudova M.Cadriddin Salim Buxoriyning nemis tilidan badiiy tarjimalari. // Qiësiy adabiëtshunosli, chog’ishtirma tilshunoslik va adabiëtshunoslik: muammo va echimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Buxoro – 2020. – B. 273-277.
9. Maxmudova M.M.Sadriddin Salim Buxoriyning tarjimon bo’lib shakllanish omillari// Qiyosiy adabiyotshunoslik: o’tmishi, buguni, istiqbollari. –Buxoro – 2020.– B. 126-130.
10. Mahmudova M.M. S.S.Buxoriyning Gëte ijodidan tarjimalarida asliyatning saqlanishi // Ta’lim tizimida chet tillarni o’rganishning zamonaviy muammolari va istiqbollari.– Buxoro, 2020. – 5-6 mart. –B.264-266.
11. Maxmudova Muattar. Sadriddin Salim Buxoriyning tarjimon bo’lib shakllanish omillari // Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti. Qiyosiy adabiyotshunoslik: o’tmishi, buguni, istiqbollari. – Toshkent, 2020. – 6-noyabr. – B. 126-128.
12. Mahmudova M.M. “G’arbu Sharq devoni”dagi tasavvufiy g’o’rlar Sadriddin Salim Buxoriy tarjimasida. // «Til, adabiët, tarjima, adabiy tanqidchilik: zamonaviy ëndashuvlar va istiqbollari» halqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2022. –B. 190-193.
13. Mahmudova M.M.“G’arbu Sharq devoni”dagi tasavvufiy g’o’rlarni tarjimada berishda Sadriddin Salim Buxoriy mahorati” // Qiësiy adabiëtshunoslik, chog’ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik: muammo, echim va istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. – Buxoro, 2021. – B 277-282.

INGLIZ TILIDA INSON HIS-TUYG’ULARIGA OID METAFORALARNING KONSEPTUAL XUSUSIYATLARI

A.A. Fayziyeva,
BuxDU, dotsenti, (PhD)
a.a.fayziyeva@buxdu.uz
N.A. Safarova,
BuxDU, 2-bosqich magistanti
n.a.safarova@buxdu.uz

Annotatsiya. Tilning ifodali va tasviriy birliklari, xususan, metaforalar turli funksional uslubda yozilgan matnlarda uchraydi. Metaforik birliklarning vazifalari, xususiyatlari hamda, umuman, metaforizasiya jarayonining o‘zi tilshunoslikning turli sohalarida, jumladan, qiyosiy va kognitiv tilshunoslikda yangi yo‘nalishdir.

Ushbu maqolada inson his tuyg‘ularini ifodalovchi ingliz metaforalarining kognitiv tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Kognitiv tahlil, metaforalarning konseptuallashuvi, baxt –yuqori, ijobiy hissiyotlar, hissiyotlar – jonli mavjudodlar.

Turli tillarda mavjud bo‘lgan metafora tizimlari o‘rtasidagi farqlar bo‘lishiga qaramasdan metaforalar ma‘nosini kognitiv tahlil orqali to‘la ochib berish murakkab jarayon emas. Ammo ularni boshqa tilga tarjima qilishda eng adekvat ekvivalentni topish biroz mushkul.

Bir xalqning ijtimoiy-maishiy hayoti va tajribasi natijasida yuzaga kelgan metafora tafakkurida, umuman, o‘zga o‘xshatishlar asosida yaralgan olamning manzarasiga ega boshqa til so‘zlovchilari tushnishi uchun qiyin bo‘lishi mumkin. Ammo kognitiv ilm egasi uchun bu qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Tadqiqot ishi uchun Jojo Moyesning “Me – before you” asaridagi metaforalar tahlil qilindi. Asarda inson his tuyg‘ulariga oid metaforalar kognitiv tahlil qilingan.

HAPPINESS IS UP metaforasi BAXT- YUQORI ma‘nosini anglatib, ikkala, ingliz madaniyatida ham o‘zbek madaniyatida ham baxtli insonning ruhi ko‘tarinki, o‘zini osmonda uchib yurgandan his qilishini ifodalaydi.

He smiled then, as if I had amused him. It might sound a bit sad, but Will’s smiles were so rare that prompting one made me feel a bit light-headed with pride.(99)

Bu gapdagi feel a bit light-headed with pride jumlasidagi light-headed g‘ururdan xursan bo‘lganligini ifodalayapti. Bosh Inson tanasining eng yuqori qismida joylashgan tana a‘zosi bo‘lgani uchun ham BAXT konseptini ifodalash uchun ko‘p hollarda bosh/head bilan bog‘liq metaforalardan foydalaniladi. Masalan, o‘zbek tiliga xos boshim ko‘kka yetdi, xursand bo‘ldim ma‘nosini beradi.

POSITIVE FEELING ARE HEAT / IJOBIY HISSIYOTLAR ISSIQLIK konseptual metaforasi voqelanishini misollarda ko‘ramiz.

Muttering my apologies, I baked out, my face burning. (75)

I swallowed, feeling my face flame.(45)

Yuqoridagi gaplarda I baked out, my face burning/ feeling my face flame metaforalari uyalish hissi natijasida insonning qizib ketishi, ayniqsa yuzlarining olovda yonganday qizib ketishi ifodalanyapti.

EMOTIONS ARE LIVING ENTITIES / HISSIYOTLAR – JONLI MAVJUDOTLAR metaforik modelining voqelanganini ko‘rish mumkin. Mazkur konseptual metaforalar o‘zbek tili uchun ham xos tushunchalar bo‘lib, hissiyotlar muloqotda jonli obyekt ko‘rinishini olishi, fikrlar yorqinligini ifodalashda o‘zbek tilining leksik imkoniyatlari yetarli.

He feels a sneaking sense of triumph. (11)

The first time I had seen the Dandelion Lady wandering pass the shop, looking as aimless as I felt, I had fought the urge to go and give her a hug.

Bu yerda, a sneaking sense of triumph / yashirin zafar hissi jumlasida “zafar” konseptiga insonga xos bo‘lgan yashirina olish xususiyati ko‘chirilgan.

I had fought the urge to go and give her a hug jumlasida esa “xoxish, istak”ning kuchliligini ifodalash uchun so‘zlovchi u bilan xayolan kurashganligini aytyapti. Hozirgi kunga kelib, insoniyat uchun aql yoki qalb masalasi dilemma bo‘lib, olamni anglash ratsional fikrlashga tayanishini qo‘llovchilar ko‘plab topiladi.

Fikr va g‘oyalar kabi, hissiyotlar ham ingliz tilida moddiy ko‘rinishda ifodalanishi EMOTIONS ARE OBJECTS / HISSIYOTLAR– OB‘EKTAR metaforik modeli misolida ko‘rish mumkin.

Quyidagi gapda esa qo‘rquv hissining verballashuvi natijasida uning bir JISM kabi ko‘zga ko‘rinadigan holat sifatida ifodalanganini ko‘ramiz:

I hadn’t thought that as well as the obvious fears about money, and your future losing your job would make you feel inadequate, and a bit useless. (22)

Gapdagi “obvious fears” aniq ko‘rinib turgan qo‘rquv ma’nosini ifodalab turibdi. Aslida esa qo‘rquv bir hissiyot bo‘lib u ko‘zga ko‘rinmaydi.

Boshqa bir misolda vahimaning inson ongida paydo bo‘lishini quyosh ufqda sekin asta ko‘tarilib kelgani kabi ifodalangan.

I watched the affable helper putting on his jacket with a rising sense of panic.(40)

Bu yerda “rising sense of panic” jumlasidagi rising so‘zi “sun” so‘zi bilan birgalikda rising the sun iborasini hosil qilgani uchun, quyoshning ufqdan ko‘tarilib kelgani singari qo‘rquv va vahimaning sekin-asta inson qalbini mahv etishiga ishora qilingan. Ya’ni panic/qo‘rquv 390iro b‘yektga o‘xshatilgan.

The last thing he sees is a leather glove, a face under a helmet, the shock in the man’s eyes mirroring his own.(11) Bu gapdagi the shock in the man’s eyes mirroring his own (fear) metaforasida odamning qo‘rquvi o‘z ko‘ziga oynadagi kabi aks etib turgani ifodalangan. Ya’ni qo‘rqish bu yerda ob‘yektlashgan.

EMOTIONS ARE HEART. Ko‘pgina madaniyatlarda sevgi, yoqtirish konsepti yurak/heart bilan bog‘lanadi. Quyidagi gapda ham shunday hodisa yuz bergan:

He does it , but I don’t think his heart’s in it. (74)

His heart’s in it/ uning yuragi uning ichida metaforasini tahlil qilsak, uning yuragi suyuqlikka o‘xshatilgan va idishning ichida (emas) , deb ta’riflanyapti. Bu orqali muallif uning shu ishni yoqtirmasligini aytyapti.

But it broke my heart. (87)

Bu misolda ham his-tuyg‘u ob‘yeklashtirib yurakka o‘xshatilgan, heart/ yurakning sinishi metaforasi hissiyotlarning sinishini ya’ni muallifning xafa bo‘lganini anglatadi.

Insonlarga xos bo‘lgan yana bir hissiyot, qo‘rquv turli xi diskursda turlich ametaforik shakllar bilan voqelanadi, masalan FEAR IS DOWN /QO‘RQUV PAST kabi:

I feel the faint stirrings of panic. (79)

Bu gapda qo'rquv/panic hissi faint stirrings/ojiz tebranish birikmasidagi faint so'zi inson ruhiyatida qo'rquvning past konseptga egaligi ko'rsatilmoda.

EMOTION IS DOWN/TUSHKUN KAYFIYAT konsepti insoning his tuyg'ular domiga qolib tushkunlik kayfiyatiga berilib ketishni ifodalaydi.

Quyidagi misolda inson o'zini jamiyatda quyi pog'onasida turganligini his qilayotganini izohlash uchun "inferior" (quyida, pastda) so'zidan foydalangan:

Walking up a long drive puts you at a disadvantage; it automatically makes you feel inferior. (26)

Bu gapda so'zlovchi vaziyatni nazoratga ola olmaganidan tushkunlikka tushgan va o'zini qo'lini cho'zsa ham yetmaydigan bir vaziyatda ekanligini izohlayapti. Bu yerdagi "makes you inferior", sizni pastga tushirib qo'yadi degan ma'noni ifodalaydi. Aslida, jismoniy pastga tushish emas, balki inson o'zini ma'nan tushkun ekanligini ifodalayapti.

FEELINGS ARE OUTSIDE THE PERSON / Hissiyotlar insondan tashqarida metaforik shakli ham tez-tez uchrab turadigan hodisa. Yani inson o'z vujudida his qilgan kechinma go'yoki jonlanib, uning tanasidan chiqadi va verballashib, ma'lum bir hatti-yarakatni ado etadi. Masalan:

This was the worst part of the day; it seemed wrong, somehow, spoon-feeding a grown man, and my embarrassment made me clumsy and awkward. (48)

Bu gapdagi my embarrassment made me clumsy and awkward / xijolat hissi meni beo'xshov va noqulay holga solib qo'ydi metaforasi inson his qiladigan uyulish, xijolat bolish hissi go'yoki inson tanasidan tashqarida amal bajarayotganini ya'ni inson o'z-o'zini emas, balki xijolatli bir his uni beo'xshov va noqulay holga solib qo'rganini ifodalayapti.

Here, I could hear my thoughts. (82)

Bu yerda hear my thoughts / o'ylarimni tinglay oldim, metaforasi go'yoki o'y fikrlar inson tanasida emas, balki undan tashqarida sado beryaptiyu, uning sohibi esa buni tinglayapti. Aslida esa, muallif o'z his-tuyg'ularini yaxshi angalayotganini aytmoqchi.

His-tuyg'ular ham ko'p holarda ma'lum bir o'lchovlardan iborat. Insonga u boshidan kechirayotgan hissiyot nechog'lik ta'sir etganligini bilishda yoki uni ifodalashda ma'lum bir miqdoriy so'zlardan foydalaniladi. Bu esa FEELINGS ARE MEASURABLE / HISSIYOLAR O'LCHOVGA EGA obyekt metaforasining kelib chiqishiga asos bo'lgan.

I had started to feel a little guilty about the way we were discussing my employer. (59)

Guilty/ aybdorlik so'zi ot so'z turkumiga mansub, a little/ozroq so'zi esa otlardan oldin keladi, ammo guilty a little bilan o'lchanmaydi. Shuning uchun bu yerda so'zlovchi o'zi his etib turgan aybdorlik hissining qiymatini, ya'ni ne qadar o'zini

aybdor deb topganini ifodalalsh uchun qo'llagan jumlaning metafora deb atash mumkin

A little bit of me was hoping that Will had been wrong. (71)

A little bit of me/ mening ozgina qismim, mefaforik shakl, so'zlovchining umidi (hope) qay darajada ekanligi haqida o'quvchini xabardor etyapti. Yani umidim kam degan mazmuni ifodalayapti.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz metaforalarini tushunish, so'zlovchining nima demoqchi ekanligini anglash uchun uni kognitiv tahlil qilish eng yaxshi usul. Bunday tahlil o'zbek tilidagi metaforalar bilan ingliz tilidagi metaforalarni qiyoslashda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live by*. – Chicago, 1980. – 242 p.
2. Lakoff G., Johnson, M. *Philosophy in the flesh: The embodied mind and its challenge to western thought*. – Basic books, 1999. – 640 p.
3. Lakoff G., Turner M. *More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor*, 1989. – 230 p.
4. Lakoff George. *The Conceptual Metaphor in Everyday Language*. – *The Journal of Philosophy*, Volume 77, Issue 8 (Aug., 1980). –P. 462.
5. Larson M. L. *Meaning Based Translation: A Guide to Cross Language Equivalence*. – London and New York: University Press of America, 1984. – 600 p.
6. *Metaphor as a way of understanding reality* Ekaterina B. Ryabikh Derzhavin Tambov State University, Tambov, Russian Federation ORCID ID: 0000-0002-1734-565X.

O'ZBEK ADABIYOTIDA AYOLLAR NUTQINING KOMMUNIKATIV JIHATLARI

R.R. Bobokalonov

BuxDU professori, filologiya fanlari doktori

boboramazon@yahoo.fr

M.F. Nurmatova,

BuxDU 1-bosqich magistranti

m.f.nurmatova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayollar nutqining lingvomadaniy, psixolingvistik, etnolingvistik, sotsiolingvistik va lingvodidaktik jihatlari tahlil qilinadi. O'zbek mentaliteti va madaniyatida ayollar nutqi o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib turadi. Shunga ko'ra, badiiy asarlardagi ayollar nutqidan misollar keltirilgan va

qahramonlar nutqidagi ijobiy hamda salbiy jihatlariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada tilshunoslikning muayyan yo'nalishlari – psixolingvistika, etnolingvistika, lingvodidaktika, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi sohalarga aloqador kommunikativ nutq muammolari yuzasidan umumiy mulohazalar jamlangan.

Kalit so'zlar: lingvodidaktika, psixolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi, ayollar nutqi, nutqning tarbiyaviy ahamiyati, psixolingvistika, intonatsiya, urg'u, geminatsiya, leksik qatlam, ma'no ko'chishi, diskurs, psixologik va fiziologik jarayonlar, sintaktik va paralingvistik vositalar, frazeologizmlar, morfologik ko'rsatkichlar, olamning lisoniy manzarasi.

Kirish. Manbalarda ta'kidlanishicha, til-ijtimoiy hodisa, kishilar, jamoalar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi ekanligi asrlar davomida Sharq va G'arb olim-u shoirlari, mutafakkirlari tomonidan o'rganilib kelinadi. Mir Alisher Navoiy hazratlari e'tirof etganidek: "Odam tili bilan boshqa mavjudotlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa, tilning ofatidir". Har bir milliy adabiyotda ayol obrazini tasvirlashga keladigan bo'lsak, u o'sha xalqning tabiatiga, zamon ruhiga mos tarzda aks ettirilganligini ko'ramiz. Shuningdek, ayollar nutqiga ularning qaysi millat vakilasi ekanliklari ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Masalan, G'arb ayollari savol berib suhbatni davom ettirishga suhbatdoshiga dalda berishga, suhbatni qisqa javoblar bilan qo'llab turishga moyil bo'ladilar. Sharq ayollarining nutqi G'arb ayollari nutqidan ba'zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Kattalarga hurmat, shirin muomalalilik, andisha, hayo va hamiyatlilikning beqiyos darajasi ularning nutqini bezovchi xususiyatlar hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek nasrida ayol obrazi talqini mumtoz va zamonaviy adabiyotda ko'p uchraydi. XX asrning dastlabki yillarida ayollar obrazlari mahorat bilan yoritilgan asarlar soni yanada oshdi va ular orasida aynan nasriy janrda yozilgan asarlarni alohida ko'rsatish mumkin. Misol uchun, Kumushbib, Zaynab (O'tkan kunlar), Zebi (Kecha va kunduz), Unsin (Dahshat), Gulnor (Qutlug' qon), Saida (Sinchalak) obrazlari o'zbek nasrida yaratilgan ayol siymosi mohirlik bilan ochib berilgan asarlar sirasiga kiradi. Ayollar nutq madaniyligida bir holat borki, ayollar qarshi jins vakillariga nisbatan bo'ysinuvchanlik xarakteriga egadirlar. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Oftoboyim nutqida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi:

-Siz muvofiq ko'rgan bir ishka qarshi tushib ra'yingizni qaytarolmayman, chunki nima bo'lganda ham sizning otaliq ismingiz bor, ham ko'broq ixtiyor sizning qo'lingizdadir," - deya Mirzakarim qutidorning qizlarini Otabekka berish taklifiga ko'nadi. Ayollar nutqidagi ushbu xususiyat turg'un emasligi bilan ham ajralib turadi. Aynan shu romandagi Otabekning validasi O'zbek oyim obrazi bo'ysinuvchanlik xususiyatidan ancha yiroq qahramondir. Zero, Otabekni ikkinchi bor uylashga majburlar ekan, Yusufbek hojining shoshma deyishiga qaramay:

- Siz shu kungacha barcha ixtiyorni o'g'lingizga topshirib, bolani bola qilmadingiz bir xudbin qildingiz. O'g'ul o'stirish bir turda bo'lmas, deya keskin fikr bildirishi

yuqoridagi bo'ysinuvchanlik omilining tamoman ziddidir. Bundan kelib chiqilsa, bo'ysinuvchanlik omili ham fe'l-atvorga va ayolning oiladagi mavqeyiga ham bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin (Qarang: Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar, "Yangi asr avlodi". Toshkent, 2018).

Shu bilan bir qatorda o'zbek ayollari nutqiga xos aylanay, girgilton, o'rgilay, qoqindiq kabi so'zlar ijobiy ma'no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar sanaladi. Ular ko'proq keksa ayollar tomonidan qo'llanadi. Chunonchi, O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" romanida Abdullaning buvisi nutqida shunday so'zlar ishlatilgan:

"Voy, o'la qolay! Abdullamisan? Voy, bo'yingga qoqay! Voy, sadag'ang ketay! Sen keladigan kun ham bor ekan-ku. Voy, men o'lay seni tanimay! Indamay termilib o'tiribman-a. Esonmisan, omonmisan? Nechuk, bolam, nechuk? O'zing keldingmi? Oying, dadang eson-omonmi? Voy, kel, bolam, kel!" (Umarbekov O'. Odam bo'lish qiyin. Yangi asr avlodi – T.: 2018).

Ayollar ko'pincha his-hayajon bilan emotsiyaga berilgan holda o'z gaplarini yetkazib bera oladi. Yuqoridagi asardan olingan parchada ham ayol o'z nutqida ko'proq undov so'zlardan foydalangan va bu gaplardan taajublanish, xursandchilik, so'roq ohangi kuchli.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi "Kaltakesakning dumi" hikoyasi shunday so'zlar bilan boshlanadi:

Ertalab tong otishi bilan onam darvozani lang ochib qo'yadi: farishta kirarmish. Hali uyg'onmasimdan gangur-gungur suhbat boshlanadi.

- Yaxshi o'tiribsizmi, poshsha oyi?

- Shukur aylanay. O'g'lingizdan xat bormi?

- Ikki haftadan buyon xat kelmayapti, ko'nglim g'ash.

- Unaqa bo'lsa erta-indin o'zi kirib keladi. Meni aytdi dersiz (Qarang: Hoshimov O'tkir. Dunyoning ishlari, "Yangi asr avlodi". Toshkent, 2018).

Ushbu misol ham yuqoridagi fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi.

Hamma ishlari joyida bo'lgan paytda farzandlarini erkalab, oila a'zolari yoki boshqalar bilan suhbat jarayonida imkon qadar muloyimlik va nafosat bilan, munosabatda bo'ladilar. Aksincha, turmush o'rtog'I yoki boshqa birov bilan arazlashib, asabiylashib turganda esa, buning tamoman aksi, ya'ni suhbatdoshiga qo'pollik bilan javob beradilar va hatto bunday hollarda ayollar nutqidan qarg'ish so'zlar ham o'rin egallashi mumkin. " – Maniki bo'lsa bir paqir suv olib kelmaydi, qo'lginang sinib akashak bo'lib qolgur. Uyim-joyim deb bo'ynini egmaydi, bo'yniginang kesilgur eshshak! Xudoyo bo'yniginang Hazrat Alining qilichida kesilmasa, u dunyo-bu dunyo rozimasman!" (O'. Hoshimov "Dunyoning ishlari").

Xulosa. Adabiyotshunoslikda ayol obrazini yoritishga qaratilgan asarlar juda ko'p, deyarli har bir asarda ayol xarakterini, ayolning ichki kechinmalarini to'laqonli ochib beruvchi qahramonlar mavjud. Ayollar nutqining turli xususiyatlarini o'rganishda ular nutqidagi alohida jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ayollar nutqi insonni shaxs sifatida tarbiyalashi va uning ruhiyatiga

ijobiy ta'sir o'tkazishi bilan ham har qanday sohaning o'rganilishi zarur bo'lgan dolzarb mavzularidandir. Ayolning ayolligi ham so'z sehrini bilishida va har qanday tarang vaziyatni ijobiy tarafga o'zgartira oladigan nutqiy salohiyat yetukligining sohibasi ekanligidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Benveniste, Émile. Problèmes de linguistique générale, 1, 1966; 2, 1974./ Бенвенист Э. - Общая лингвистика / Под ред. Ю.С. Степанова. М., "Прогресс".1974. Изд.3. УРСС. 2009
2. Bobokolonov R. O'zbekcha-fransuzcha semantik-funksional shakllangan gaplarning differentsiyasi va kommunikativ neyropsixolingvistika tadqiqi. Filol.fan. dokt. dissert. Buxoro, 2022, -3-284 b.
3. Bobokalonov R. R. Erkatoyuni erkalatsin onasi. Sog'lom avlod uchun.3-4 son, 1997, 47-48 b.
4. Bobokalonov R.R. Sayfullayeva R.R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Globe Edit,2023
5. Butayeva U.A. Shaxs psixologiyasi. Samarqand davlat universiteti, Samarqand – 2021.
6. Бобокалонов Р. Р. Нуткий ҳосила, семиотик белги, дискурс ва нейропсихолингвистик ҳолат. Монография, GlobeEdit, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023234 с. ISBN 978-620-0-64729-0.
7. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar, "Yangi asr avlodi".Toshkent, 2018
8. Umarbekov O'. Odam bo'lish qiyin. Yangi asr avlodi – T.: 2018
9. Hoshimov O'tkir. Dunyoning ishlari, "Yangi asr avlodi". Toshkent, 2018

MATN GRAMMATIKASI VA UNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI.

E.B. Jumayev,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

F.N. Badalov,

BuxDU 1-bosqich magistranti

f.n.badalov@buxdu.uz.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida matn lingvistikasi, matn grammatikasi tushunchalarining paydo bo'lish hamda rivojlanish tarixi, grammatik hodisalarni o'rganishda tilshunos olimlarning qarashlari haqidan fikr yuritiladi. Shuningdek maqolada matn turlari haqida ham qisqacha bayon qilinadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается история возникновения и развития понятий лингвистики текста и грамматики текста в узбекском

языкознании, а также взгляды лингвистов на изучение грамматических явлений. Также в статье кратко описаны типы текста.

Annotation. This article examines the history of the emergence and development of the concepts of text linguistics and text grammar in Uzbek linguistics, as well as the views of linguists on the study of grammatical phenomena. The article also briefly describes the types of text.

Kallit so'zlar: murakkab sintaktik butunlik, semantik butunlik, period, mikromatn, makromatn, generative grammatika, gaplar hamkorligi, tema-ramatik zanjir, diskurs, aktual matn, potensial matn, tasviriy matn

Ключевые слова: сложное синтаксическое целое, смысловое целое, период, микротекст, макротекст, порождающая грамматика, кооперация предложений, тематико-грамматическая цепочка, дискурс, реальный текст, потенциальный текст, описательный текст.

Key words: complex syntactic whole, semantic whole, period, microtext, macrotext, generative grammar, sentence cooperation, thematic-grammatical chain, discourse, actual text, potential text, descriptive text

Kirish. O'zbek tilshunosligida *matn lingvistikasi* keng ko'lamda jadal sur'atlar bilan keng tadqiq qilinmoqda. Qisqa muddat ichida bu sohaga daxldor o'nlab tadqiqotlar yaratildi. Bu tushunchaning paydo bo'lishi gapni o'rganish jarayonida undan kata sintaktik birlikka e'tibor berilishi bilan bog'liq. 1947 yilda A.I.Belich shunday deb yozgan. Grammatik hodisalarni o'rganishda tilshunoslar tomonidan o'zaro bog'langan gaplar guruhiga ham e'tibor berish kerakligi uqtirilmogda. Bunday guruh tarkibidagi gaplarning mazmunan tugalligi kotekstga bog'liq bo'lib o'zaro maxsus bog'lovchilar bilan birikadi. Natijada *sintaktik-semantik butunlik* yoki *period* hosil bo'ladi. Ana shunday o'ziga xosliklarni sintaksisda bayon qilish darkor.

N.S.Pospelov 1948 yilda bayon qilgan fikrlar yanada qat'iyiligi bilan ajralib turadi. Bunday *murakkab sintaktik butunlik*ni alohida sintaktik birlik hisoblash darkor. Sintaktik tadqiqotlarda yetarli mustaqillikka ega bo'lmagan gapga emas, kontekstga u qadar bog'liq bo'lmagan murakkab sintaktik butunlikka asoslanish lozim. Negaki murakkab sintaktik butunlik funksional va mantiqiy-mazmuniy jihatdan gapdan farq qilib tuzilish jihati uni alohida sintaktik birlik deb atash imkonini beradi. Aynan murakkab sintaktik butunlik asar muallifining tugallangan fikrini ifodalaydi.

K.Boost 1949 yilda mazkur butunlikni *gaplar hamkorligi* deb nomlab uning tarkibidagi gaplar o'zaro lug'aviy takror, artikl, olmosh, ellipsis, fe'ning zamon shakllari, takroriy bog'lovchi, so'roq so'z bilan bog'lanadi. Bir gapni ikkinchisiga ulaydigan chizimcha shu qadar ko'pki gaplar o'zaro shu qadar chatishib ketganki alohida olingan har bir gapni boshqasi bilan uzviy bog'langan deb xulosa chiqarishga to'g'ri keladi deb yozadi.

Grammatik hodisa sifatida mikromatn o'zbek tilshunosigida hozirga qadar faqat bitta nomzodlik dissertatsiyasida obyekt qilib olingan bo'lib, unda nutqda ikki va undan ortiq gapning semantic-sintaktik jihatdan birikishi mikromatn deb e'tirof etiladi. Shunga

asoslanib mikromatnning qo'shma gapdan farqini belgilash mumkin bo'ladi: 1) *Havo sovuq bo'ldi. Biz ishga bormadik.* 2) *Havo sovuq bo'ldi, shuning uchun biz ishga bormadik.* 3) *Havo sovuq bo'ldi va biz ishga bormadik.* Ushbu misollarda mikromatn va qo'shma gap mazmunan mos bo'lib shaklan mustaqil va mustaqil emasligini farqlash mumkin.

Ma'lumki 50-yillarning o'rtasida tilshunoslikda *generative grammatika* deb atalgan oqim tarafdorlari tomonidan gapning xususiyati matndan tashqarida aniqlanadi, har qaysi gap alohida olib qaraladi. Bunday holda tilni bilish grammatik jihatdan to'g'ri bo'lgan gaplarning hosil bo'lish qoidalarini bilishdan iborat deb hisoblanadi. Ammo bunday nuqtai nazarga qo's'ilmagan maktab va oqimlarda gapdan yirik butunliklarni tadqiq qilish davom ettiriladi. 70-yillarning boshida esa bu sohaga qiziqish yanada ortadi. Bu bir jihatdan tilshunoslikda antimentalizmga nisbatan qiziqish so'nishi bilan izohlansa ikkinchi jihatdan tilshunoslikda semantika, nutq faoliyati nazariyasi (psixolingvistika), sotsiolingvistika, pragmalingvistika, funksional uslubiyat ya'ni eng avvalo nutqning sotsial jihatlarini tadqiq qilishga qiziqishning ortishi bilan izohlanadi. Bu qiziqish natijasi o'laroq matn lingvistikasiga doir to'plam monografiyalar nashr etiladi; dissertatsiyalar yoziladi, ilmiy anjumanlar o'tkaziladi, turli nashrlarda yuzlab ilmiy maqola bosilib chiqadi. Bundan tashqari Germaniyada darslik yozilib ikki marta nashr qilinadi. Hatto maktab o'quvchilari uchun alohida darslik chop etiladi. Moskvada esa xorijiy til institut va fakultet talabalariga mo'ljallangan nemis tili darsligida *matn* (Text) alohida bob qilib kiritiladi. Mazkur ta'lim yo'nalishi uchun matn grammatikasidan maxsus qo'llanma bosilib chiqadi. Shuni diqqatga sazovorki qo'llanma oxirida 250 dan ortiq adabiyot ro'yxat qilib berilgan. Mazkur qo'llanma va darsliklar xorijiy tilshunoslikda matn lingvistikasi va grammatikasi bo'yicha erishilgan nazariy yutuqlarning amaliyotga tatbiq etilganidan dalolat beradi. Shu bois ushbu masalaning o'zbek tilshunosligida o'rganilganligini kuzatishdan oldin mazkur adabiyotlardan ayrimini sharhlashni lozim topdik. Negaki bunday holda ushbu sohada o'zbek tilshunoslari oldida turgan masalalar bir qadar oydinlashadi.

Xorijiy tilshunoslikda 60-80-yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar samarasi o'laroq matn lingvistikasi mustaqil fan sifatida shakllanadi. Uning mazmun-mohiyati jumladan quyidagilardan iborat.

Nutqning *tugallangan fikr* ifodalaydigan asosiy birligi gap emas, matndir. Gap matnning xususiy ko'rinishi, alohida turidir. Matn eng yirik sintaktik birlikdir. Bu fikr matnga doir ishlarning aksariyatida bayon qilinadi. Odatda alohida so'z bilan emas, gap yoki matn vositasida gapiramiz. Tildan foydalanganimizda asosiy birlik vazifasini so'z yoki gap emas, matn bajaradi va hokazo.

Matnni eng yirik sintaktik birlik deb e'tirof etish uning jumladan til va nutqqa munosabatni belgilashni taqozo etadi. Matnning gap bilan funksional jihatdan o'xshashligi ya'ni ikkalasining ham fikr ifodalash vositasi ekanligidan gapga nisbatan qo'llangan mezonlarga tayanib ish ko'riladi. Ma'lumki gapda umumiy va xususiy (virtual va aktual) jihatning inobatga olinishi uning faqat nutq birligi emas, til

sistemasiga kirishini ham ko'rsatgan edi. Matnga ham shu nuqtai nazardan yondashiladi. Shu munosabat bilan V. Dreslarning fikri diqqatga sazovor: Matn ham til sistemasi birligi (potensial matn) ham *aniq, muayyanlashgan* (aktual) matnga bo'linadi. Bunday xulosa chiqarishga matn tuzilishiga doir amalga oshirilgan tadqiqotlar imkon beradi. Bu tadqiqotlarda matn tarkibiga kiruvchi gaplarning o'zaro bog'lanishi, uning lug'aviy va grammatik vositalar orqali ifoda etilishi shuningdek matnda tema-remazanjirining qoliplari ko'rsatib beriladi. Bular barchasi murakkab sintaktik birlik (matn)ni o'ziga xos ichki tuzilish (tartibot) va muayyan qoliplarga ega bo'lgan sintaktik birlik deb atash imkonini beradi. Shunday qilib matn faqat nutq birligi emas, til birligi ham hisoblanadi.

Modomiki *tugallangan fikr* ifodalaydigan haqiqiy birlik gap emas, matn va bir gapli matn uning xususiy ko'rinishi ekan nominativ vazifa matnga ham xos deb xulosa chiqarish to'g'ri bo'ladi. Boshqa birliklar kabi matn ham tilning ramziy-ishoraviy tizimi tarkibiga kiradi.

Butun boshli asarni esa grammatik tushunchalarga asoslanib izohlab bo'lmaydi. U eng avvalo sotsial-nutqiy hodisa, jamiyat hayotining turli sohasini aks ettiruvchi eng yirik kommunikativ birlikdir. U matn lingvistikasi bilan bir qatorda nutq faoliyati nazariyasi, sotsiologiya, sotsiolingvistika, funksional uslubiyat, pragmalingvistikada, badiiy matn esa avvalo adabiyotshunoslik va poetikada tadqiq etiladi. Tilshunoslikda butun boshli asar asosan matn uslubiyatida o'rganiladi.

Badiiy yoki ilmiy asarning qism, bob va paragrafi tegishli janr kompozitsion shakli hisoblanadi; ularni alohida lisoniy birlik deb bo'lmaydi. Abzats ham uslubiy-kompozitsion birlik bo'lganidan til birligi bo'la olmaydi. Shunday qilib deb fikrini davom ettiradi olim matn lingvistikasining tadqiq ob'yekti ikkita: 1) gapdan yirik birlik yoki mikromatn va 2) butun boshli asar yoki makromatn.

Mikromatn bilan makromatn chegarasi (hajmi) mos kelishi mumkin. Gazeta maqolasi, qisqa hikoya, ob-havo haqida ma'lumot, e'lon ; sarlavha, xat, telegramma va hokazoo bitta mikromatndan iborat bo'lishi mumkin. Shu bois matn lingvistikasiga doir ayrim ilmiy asar va maqola mualliflari olib qaraydigan misol odatda juda qisqa matn yoki shunchaki ikkita, uchta gapdan iborat bo'ladi.

Matn lingvistikasining obyekti ikkita bo'lsa ham uning predmeti bitta y'ani bog'li nutq tuzilishining qolip-andozalaridan iborat. Boshqacha aytganda matn lingvistikasi (Textlinguistik)da matn hosil qilishning barcha matnga xos qonuniyatlari aniqlanadi.

Matn – nutq ko'rinishi bo'lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Har bir matn murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo'lib, u og'zaki hamda yozma ijod namunasi hisoblanadi. Tilshunoslikda matn tilning alohida birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy ob'ekti sifatida talqin qilinadi.

Matn so'z birikmasi va gapdan farqlanadi, chunki matnning ham o'z kategoriyasi va qonuniyatlari mavjud. Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchilar

yordamida birikishni o`rganish “Matn tilshunosligi” sohasining asosiy muammolaridan biridir.

Tilshunos E.Qilichev “Matnning lingvistik tah`lili” nomli kitobida “Matn – hamma elementlari o`zaro zich aloqada bo`lgan va avtor nuqtai nazaridan ma`lum bir maqsadga yo`naltirilgan nominativ-estetik axborotni ifodalovchi murakab tuzilma» degan ta`rifni beradi. I.Rasulov esa matnni quyidagicha ta`riflaydi: “Gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo`lib, u fikran va sintaktik jihatdan o`zaro bog`liq bo`lgan gaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha to`liq bo`ladi”.

Matn hajm va mazmun belgisiga ko`ra ikkiga bo`linadi: 1. Hajm belgisiga ko`ra matn turlari. 2. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko`ra matn turlari.

1. *Hajm belgisiga ko`ra matn turlari.* Matn gapdan ko`ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq ko`rinishidir. Matn hajm belgisiga ko`ra ikkiga ajratiladi. Minimal matn (mikromatn) va maksimal matn (makromatn).

Badiiy uslubda minimal matn deyilganda biror mavzuni yoritishga bag`ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she`r va she`riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog`lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi.

Maksimal matn deyilganda keng ko`lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Maksimal matn mikromatnlardan iborat. Eng kichik butunlik abzatsga, eng katta butunlik esa bob (qism yoki fasl)larga to`g`ri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, so`zboshi (muqaddima), so`ngso`z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g`oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo`shimcha izoh, sharh bo`lib keladi.

Makromatnning eng kichik birligi abzatsdir. Abzats bir mazmuniy butunlik bo`lib, “matnning bir xat boshidan keyingi xat boshigacha bo`lgan qismi” hisoblanadi.

Oddiy kundalik hayotdagi so`zlashuv nutqida har doim ham yangidan matn yaratmaymiz. Ehtiyojimizga ko`ra turli matn turlaridan foydalanamiz. Ba`zan boshimizdan o`tgan yoki o`zimiz guvoh bo`lgan voqealarni kimgadir aytib beramiz. Insonlar o`rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg`ularini, hayajonlarini, azob va qayg`ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta`sirlantirishni istaydi. Anna shunday hollarda ba`zan mubolag`a ba`zan o`xshash – qiyoslash kabi tasviriy vositalardan foydalanamiz.

2.*Ifoda maqsadiga va mazmuniga ko`ra* badiiy matnni quyidagi turlarga bo`lib chiqish mumkin: 1. Hikoya mazmunli matn. 2. Tasviriy matn. 3. Izoh mazmunli matn.

4. Didaktik matn. 5. Xabar mazmunli matn. 6. Buyruq mazmunli matn. 7. Hissiy ifoda mazmunli matn.

1. Hikoya mazmunli matnlar (Le texte narratif – narrativ matn). Bunday matnda muallif yoki asar qahramoni o`zi boshidan o`tkazgan eshitgan, ko`rgan yoki guvoh bo`lgan biror voqeani hikoya qilib beradi. Xotiralar, esdaliklar, ertak va rivoyatlarni narrativ matn turiga kiritish mumkin. Hikoya tarzi, asosan, o`tgan zamon shaklida, birinchi shaxs birlik yoki ko`plikda ifodalanadi.

2. Tasviriy matnlar (Le texte descriptif – deskriptiv matn). Bunday matn tinglovchiga noma`lum bo`lgan biror kishi, joy, hayvonot va nabotot olamiga mansub mavjudot yoki qandaydir narsa-buyum hamda voqea-hodisani batafsil tasvirlab berish maqsadida tuzilgan bo`ladi. Tasviriy matnda ham monologik nutq ko`rinishi etakchilik qiladi. Partonimik tasvir bunday matnning eng xarakterli xususiyati hisoblanadi, ya`ni tasvirlanayotgan ob`ektning dastlab, birlamchi xususiyati tilga olinadi. Keyin unga aloqador xususiyatlar va qismlardan so`z yuritiladi.

3. Izoh mazmunli matnlar (Le texte argumentatif-argumentli matn). Bunday matnda aytilayotgan fikrning ishonarliligini ta`kidlash uchun turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash, o`zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadida har xil vajlarni keltirish argumentli matn turining o`ziga xos jihatlaridan hisoblanadi.

4. Didaktik matnlar (Le texte explicatif- eksplikativ matn). Kimgadir pand-nasihati qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o`rgatish istagi asosida tuzilgan matn eksplikativ yoki didaktik matn deyiladi. Maqsadga erishish uchun maqol, matal, aforizm, turli hayotiy voqealar, rivoyatlar, masallardan namuna sifatida foydalaniladi.

5. Xabar mazmunli matnlar (Le texte informative - informativ matn). Biror voqea-hodisa haqida xabar berish maqsadida tuzilgan yoki havola qilingan matn informativ matn hisoblanadi. Badiiy matnda informativlik o`ziga xos tarzda bo`ladi. Oddiy xabardan farqlanib, estetik maqsad yuklangan bo`ladi.

6. Buyruq mazmunli matnlar (Le texte injonctif-injonktiv matn). Buyruq havmda maslahat ohangi etakchilik qiladigan, buyruq maylidagi gaplardan tuzilgan, biror ishni bajartirish yoki turli ta`qiqlashlarni ifoda etadigan matn tipiga buyruq mazmunli matn deyiladi. Asosan qao`ramonlar nutqida kuzatiladi.

7. Hissiy ifoda mazmunli matnlar (Le texte expressif - ekspressiv matn). Insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini, o`ziga xos pafos bilan ifodalash maqsadida tuzilgan matnlar hissiy ifoda mazmunli matn deyiladi.

Xulosa. O`zbek tilshunosligida *matn grammatikasining* tutgan o`rni alohida ahamiyat kasb etishiga qaramasdan, tadqiqodchilar e`tiboridan chetda qolib ketmoqda. Nutqda ikki va undan ortiq mustaqil gapning semantic-sintaktik jihatdan birikishi mikromatnni hosil qiladi. Shunga asoslanib mikromatnning qo`shma gapdan farqini belgilash mumkin bo`ladi Mikro matn va qo`shma gap mazmunan mos, sintaktik jihatdan tarkibidagi soda gaplarning mustaqil va mustaqil emasligi bilan farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zikrillaev G'. Ruh va til. Toshkent, "Fan",2018. 464 b.
2. "Matn lisoniy ob'ekt sifatida", Azimova M. Andijon – 2016
3. Jumayev E. B. Gan Ekan (Suffix) Form And Reported Speech // Middle European Scientific Bulletin. ISSN 2694-9970. Vol. 11. April 2021. – P. 748– 751. Impact Factor 5,525.
4. Jumayev E. B. Review of text grammar in uzbek linguistics //IEJRD - International Multidisciplinary Journal Vol. 6 No. 3 (2021): volume 6 issue 3, 2021.SJIF 7.169
5. Jumayev E. B. The role of text in understanding german (fiction) literature // "Online - conferences" platform. Available online 19 June 2021. – P. 134 – 137.
6. Jumayev E. B. Expression of the indirect question in speech and microtext in uzbek language // Online - conferences" platform. Available online 19 June 2021. – P. 137 – 138.
7. Jumayev E.B. Ohang va so'z tartibi – nemis tilidagi jumlaning o'ziga xos sintaktik vositasi sifatida // Ilm sarchashmalari. Urganch davlat universitetining ilmiy-metodik jurnali. – Urganch, 2017. – № 1. – B. 76 – 81. (10.00.00. № 3)
8. Jumayev E.B. "O'zbek adabiy tilida o'zlashtirmalik va matn". Monografiya – "Durdona" nashriyoti, Buxoro-2024

REKLAMALARNING UMUMIY TALQINI VA ALOHIDA SOHA SIFATIDAGI RIVOJI

M.A. Radjabquliyeva

BuxDU, Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi,

1-bosqich magistranti

m.a.radjabquliyeva@buxdu.uz.

Annotatsiya. Ushbu maqolada reklamaning o'zbek tiliga ko'proq kirib kelib, alohida soha sifatida rivojlanayotgani hamda uning turli xil tasnifiga doir fiklar ilgari surilgan. Reklamalarning inson hayotiga qay darajada ta'sir etayotgani, nima uchun biz reklamaga ehtiyoj sezayotganimiz ifodalab berilgan.

Kalit so'zlar: reklama, tasnif, lug'at, reklama xodimlari, iste'molchi

Annotation: In this article, it is pointed out that advertising has entered the Uzbek language and is developing as a separate field, and opinions are being created about its various classifications. The extent to which advertisements affect human life and why we perceive advertisements are described.

Key words: advertising, classification, dictionary, advertising staff, consumer

Reklama faqatgina bir soha vakillarininggina tadqiq obyekti sifatida o'rganilmayapti. Chunki xoh iqtisod, xoh tilshunoslik, xoh psixologiya, xoh tibbiyot sohasini oladigan bo'lsak, albatta, reklamaga murojaat qiladi va barcha sohada

rivojlanishlar hamda yangilanishlar davrini boshdan kechirmoqda. Iqtisod sohasi vakillari uchun reklamalar raqobatbardosh mahsulotlarning ortib borishi va tadbirkorlik subyektlarining ko'payishi uchun xizmat qilsa, tilshunoslar reklama matni, unda qo'llangan so'zlarning qanday ekspressiv bo'yoqdorlik kasb etishi bilan shug'ullansa, psixologlar esa adresatlarga reklama qanday ta'sir qilishini kuzatib, insonning ongostiga singishi va buning kelajakda insonga qanday zarariyu foydasi bo'lishini kuzatadi. Qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyunda "Reklama to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan bo'lib, u 53 moddadan iborat. Mazkur qonun qabul qilingandan so'ng reklamaga bo'lgan qiziqish, uning sifatiga bo'lgan talab yanada ko'proq ortib bordi.

Dodo Pizza Tashkent xalqaro pitsseriya tarmog'ining direktori **Akmal Raimov** yaxshi reklama xususidagi o'z mulohazalarini baham ko'rdi: "Reklama hissiyotlarni uyg'otishi kerak, qizig'i - qandayligi muhim emas. Shunda reklamangiz oson esda qoladi. Agar reklamani eslab qolishsa, demak u haqida do'stlariga va sizning bo'lajak, potensial mijozlaringizga so'zlab berishadi. Har qanday reklama tadbiri raqobat afzalligini aniq ko'rsatib berishi kerak. Aks holda mijoz sizning mahsulotingiz yoki xizmatigingiz nimasi bilan raqobatchilaringizning mahsulotlaridan yaxshiroq ekanini tushunmay, ular uchun pirovard foyda nimada ekanini anglamay qoladilar. Reklama tadbirining natijalari o'lchab bo'ladigan bo'lishi kerak. Agar natijalarni o'lchash mumkin bo'lsa, demak ularni yaxshilash mumkin. Ularni cheksiz yaxshilang!" 1996-yil 25-avgustda, Mustaqillikning 5 yilligiga bag'ishlab, O'zbekistonda birinchi marta ijtimoiy reklamani milliy sujetlari yaratilib, ko'chalarga ilingandi. Mana shu sanani mahalliy tashqi reklama uchun boshlang'ich nuqta deb sanash mumkin. Shunga asoslanib, har yili 25-avgust O'zbekistonda "Reklama xodimlari kuni" sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Reklama turli xil soha vakillari tomonidan o'rganilayotgani hamda bir nechta sohaning kesishgan nuqtasida ekanligi uchun ham turlicha ta'rif va tasniflar berilgan. Jumladan, S.I. Ojegov ta'rificha, "Reklama - bu keng tarqalgan shon - sharafni yaratish, iste'molchilar va tomoshabinlarni jalb qilish uchun turli xil usullarda ogohlantirish". Reklama ham keng va tor ma'noda qo'llanadi. Keng ma'noda istalgan narsa haqida tarqatiladigan har qanday xabarlar tushunilsa, tor ma'noda esa faqat mahsulot va xizmatlar bilan cheklanadi. Ammo shaxs, hudud yoki turizm joylari, siyosiy partiyalar ham o'z o'rnida turlicha usullarda reklama qilinadi. Yoki ma'lum bir mashhur shaxslarni mahsulot reklamasiga da'vat etish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Taniqli reklama mutaxassisi, tilshunos O.Feofanov "Reklama ko'p vazifalarni bajaradi: o'qituvchi vazifasi, maslahatchi vazifasi, diktator vazifasi... U ko'p jihatdan hayotimiz qiyofasi va uslubini belgilaydi", deb belgilagan edi. Jumladan, ba'zi reklamalar bizga o'sha mahsulot yoki predmet haqida sodda ma'lumotlarni bersada, lekin agar bu mahsulotni olmasangiz, afsus chekishingiz haqida ma'lumot yuritib, turli xil ekstralingvistik vositalarni qo'llaydi. Bu esa talabgorlarni o'sha

mahsulotni olishga undaydi. Masalan, “Ko’pchilikka deraza xarid qilishda hech qanday maslahat berilmaydi, ularga hammasi yaxshi bo’lishi aytiladi, xolos. Eh, imzo bilan hammasi boshqacha! O’rnatishdan oldin masahat, professional o’lchov vva montaj, shuningdek sifat kafolati. Imzo- bu oqilona tanlov”.

O’zbek tilining izohli lug’atida esa reklama quyidagicha ta’riflangan: “Reklama (fr. reklame<lot. reklamere – qattiq qichqirmoq). Muayyan tovar yoki xizmat turlari haqida xaridorni xabardor qilish, ularga nisbatan talab- ehtiyojni yuzaga keltirish yoki kuchaytirish maqsadida ana shu tovar va xizmatlar to’g’risida berilgan ma’lumot. Biron bir shaxs, tashkilot, narsani ommalashtirish maqsadida ular haqida ma’lumotlar tarqatish”. Masalan, “Kango” saqichining reklamasida: “Kango qani, ango. Akangga qani Kango, ukangga qani Kango. Kango-o-o-o!!!” degan qofiyadosh so’zlardan foydalaniladi hamda bolalarning mana shu saqichga bo’lgan qiziqishini yanada ortishiga va bu mahsulotga nisbatan talabning kuchayishiga olib kelishni maqsad qilgan.

Davr nuqtayi nazaridan reklama janriga yondashadigan bo’lsak, ibtidoiy davrda ham insonlar o’zining mahsulotini sotish uchun yoki yuqori tabaqa vakillari qullarni boshqa birovga berish uchun uning qanday xususiyatlarga ega ekanligini aytishgan. Ammo hozirgidek internet tarmog’i, peshlavhalarda emas, balki og’zaki tarzda yoki ma’lum bir buyumga yozishgan. Biroz oldingi davrga nazar tashlaydigan bo’lsak, Sharq bozorlaridagi “Obqoling, kebqoling”, “Olganlar darmonda, olmaganlar armonda” kabi iboralarda ham ota-bobolarimizning reklamadan unumli foydalanganidan darak beradi. O’zbekiston Mustaqillikka erishganidan so’ng esa barcha sohalarida, shu jumladan reklama janrida ham evrilishlar bo’ldi. Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan reklamalarga bo’lgan talab kuchaygan bo’lsa-da, lekin u haqida tushuncha to’liq taraqqiy etmagan. Endilikda esa jahondan bizga kirib kelayotgan internet tarmog’idagi reklamalar ommalashdi. Bundan tashqari hozirda aholining ijtimoiy ahvoli yaxshilanib, reklama orqali turli xil mahsulotlarni sinab ko’rish boshlandi.

Reklama yaratilmaydi, balki ma’lum bir bor narsani kuchaytiradi, o’zidan ixtiro ham qilmaydi, balki mana shu ixtiro qilinganlarni yoyadi. Reklama xabarleri oddiy narsadek tuyulsa-da, lekin ko’pchilikning e’tiborini tortadi, fikrini o’zgartiradi. Ayniqsa, keksa avlod vakillari ko’proq ommaviy axborot vositalari orqali ma’lum bir dori vositasi, turli shifobaxsh giyohlar yoki dam olish maskanlari haqidagi reklamalarni jon qulog’i bilan eshitadi hamda boshqalarga ham bu mahsulotlarning xususiyatini tushuntirishga kirishadi. Asosiy maqsadi esa o’sha mahsulotlarga ega bo’lib, uni sinab ko’rish hisoblanadi. Masalan, “Trimol” reklamasini kuzatsak, “Bosh og’rig’i, bel og’rig’i, bo’yin og’rig’i, tish og’rig’ida trimol sizga yordamga shoshadi” kabi jumalarni eshitgan inson birgina dori vositasining shunchalik foydasi kuchli ekanligin sinash uchun ham undan foydalanmoqchi bo’ladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, yuqoridagi tavsiflash jarayonida har qanday reklama xususiyati belgilangan tavsiflarga mos kelishi inobatga olindi. Reklamani

diaxron va sinxron aspektida o'rganadigan bo'lsak, u doim muloqot turi sifatida faoliyat yuritib kelgan. Jumladan, ma'lum tashkilot egasi bo'lgan talabgor o'z mahsulot, shaxs, xizmat ko'rsatishning afzalligi, qulayligi haqida maqtab, foydalanuvchiga yetkazishdan iborat bo'lgan. Reklamaning vazifasi iste'molchiga mahsulot haqida xabar berish, maqtash va tanishtirishdir. Hozirgi davrda insonlar vaqt tejamlorligini inobatga olib, televizordan uzoqlashganligi va yo'l-yo'lakay reklamalar haqida ko'rib, eshitib tanishish ehtiyoji tobora avj olganligi sababli banner va afishalardagi reklamalar asosiy reklama tarqatuvchisi bo'lib xizmat qilmoqda. Jahonda tan olingan reklamalarni ommaga yetkazish uchun eng samarali vosita esa videoreklama taraqqiyoti davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, Sh., Nosirov, P. (1994). Marketing - bozor iqtisodiyoti asosi, Toshkent.
2. Madvaliyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2011
3. Петровский М. Словарь литературных терминов. Москва, Петровский // <http://feb-web.r>
4. Shahobiddinova SH., Abdullayev B. O'zbek tilida reklamalar. Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi Turkish World Journal of Language and Literature Sayı/Issue: 52 (Güz-Spring 2021) - Ankara, TÜRKİYE
5. <https://lex.uz/uz/docs/-6052631>

INGLIZ VA O'ZBEK TILI LINGVOMADANIY REKLAMALARINING QIYOSIY TAHLILI

A.B. Kobilova

Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

e-mail: a.b.kobilova@buxdu.uz

D. Ro'ziyeva

BuxDU, 2-bosqich magistranti

d.roziyeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek reklamalarida uchraydigan til va madaniy xususiyatlarni tahlil qilib misollar yordamida yoritib beradi. Ikkita noqardosh tildagi farqli va o'xshash jiahtlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: reklama tili, lingvomadaniyat, qofiya, tilshunoslik, reklama matni, marketing

Marketing nutqi til, madaniyat va muloqotni o'z ichiga olgan murakkab hodisadir. Kotler va Keller (2016) fikriga ko'ra, marketing kommunikatsiyasi mijozlar, xaridorlar, sheriklar va umuman jamiyat uchun qadrlil bo'lgan takliflarni yaratish, yetkazib berish va almashish jarayonidir. Samarali marketing aloqasi maqsadli auditoriyaning

V.N.Teliya muammoli masala sifatida frazeologiyaning ko'rinishini leksikologiya bilan yonma-yon mustaqil bo'lim sifatida ajratdi va til sistemasi bo'limlarida batafsil asoslash bilan frazeologik qatlamning yuzaga kelishini rad etadi va tilning leksik semantik birligi sifatida e'tirof etilgan so'zning muammoli masalalaridan an'anaviy frazeologiyaning muammoli masalalarini ajratishni frazeologik tadqiqotlarning kamchiliklaridan biri deb qayd etadi .

Darhaqiqat, jahon tilshunosligining frazeologiya sohasidagi tadqiqotlarining qiyosida “fazeologizm” tushunchasining ko’plab variantlari va uning ta’rifida ham turli qarashlarning mavjudligini ko’rish mumkin. Binobarin, fransuz frazeologiyasi bo’yicha tadqiqot olib borgan tilshunos A.G.Nazaryanning ta’kidlashicha: “Fazeologizm – mustaqil til birligi bo’lib, u tarkibiy qism, so’z birikmasi va gapga nisbatan to’liq va qisman semantik o’zgarishi bilan xarakterlanadi. Tilning mustaqil birligi frazeologizm fonema, morfema, so’z kabi boshqa til birikmalariga nisbatan murakkabroq bo’lib, leksik, grammatik va ayniqsa, semantik jihatdan o’ziga xos tuzilishga egadir. Bu strukturada ko’proq ekstralingvistik omillar ishtirok etadi. Ular esa frazeologik birliklarning shakllanishi va rivojlanishida katta rol o’ynab, milliy xarakterni namoyon etadi.

O’zbek tilshunos olimlari A.Mamatov va B.Boltayevalarning “Fazeologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi” nomli monografiyasi frazeologik birliklarning lingvomadaniy, semantik-pragmatik tadqiqiga bag’ishlangan bo’lib, unda shaxs emosiyasi va shaxsga xos fazilatlar va xarakterlarni ifodalovchi frazeologik birliklarning kognitiv hamda lingvomadaniy, milliy-madaniy xususiyatlari haqida so’z yuritiladi. Ushbu monografiyada hozirgi o’zbek adabiy tilining frazeologik tarkibi tarixiy etimologik jihatdan uch yo’l bilan shakllanishi ko’rsatilib o’tilgan:

- 1) o’zbek voqeligi asosida shakllangan;
- 2) qarindosh va noqarindosh tillardan o’zlashtirish;
- 3) kalkalash yo’li bilan kirib kelgan frazeologizmlar farqlanishi ta’kidlangan.

O’zbek frazeologi B.Yo’ldoshevning fikricha, — frazeologik birliklar yoki ibora deyilganda, tuzilishi jihatdan so’z birikmasi yoki gapga teng, umumlashgan ma’no anglatuvchi, komponentlari qisman yoki to’laligicha ko’chma ma’no beruvchi turg’un leksik-semantik birliklar tushuniladi .

Sh.Rahmatullayevning talqiniga ko’ra o’zaro frazeologik omonimlar va frazeologik paronimlar shuningdek frazeologik omoformalar va frazeologik paraformalar bir-biriga shu qadar o’xshash bo’ladiki, ulardan biri o’rniga ikkinchisini xato ishlatib yuborish mumkin. Agar iboralar o’zaro tarkibidagi biror so’z komponenti bilangina farq qilsa, ularni frazeologik paronimlar deb yuritish mumkin bo’ladi. Masalan, “ko’nglini ko’tarmoq” – “ko’ngli ko’tarildi” va “ko’nglini tog’day ko’tarmoq” – “ko’ngli tog’day ko’tarildi”. Agar ba’zi iboralar biri ikkinchisida yo’q grammatik shakllanish sistemasiga ega bo’lsa, frazeologik paraformalar haqida gapirish mumkin bo’ladi. Masalan, “jon(i)kirdi” – “jonini kirgizmoq” va “jon kirdi” – “jon kirgizmoq” kabilar. So’nggi yarim asr davomida frazeologiya jahon tilshunosligining diqqat markazida bo’ldi, bir qator monografik ilmiy izlanishlar natijasida uning ob’yekti aniqlandi, tadqiqot metodlari ishlab chiqildi va bu fan tilshunoslikning boshqa sohalari qatorida o’z o’rnini shakllantirdi. Hozirgi kunda bu termin ikki ma’noda qo’llanilmoqda.

1. Tildagi frazeologik birikmalarning jami;
2. Turg’un iboralarni o’rganuvchi soha, fan.

M.Irisqulovning ta'rifiga ko'ra: – Frazeologizmlar barcha tillarda o'zlarining barqarorlik xususiyatlari bilan, nutq jarayonida ularni yasash uchun so'z tanlash va ma'lum grammatik shakllarda ishlatish yo'li bilan yasalmasdan, tayyor holda mavjud bo'lgan birlik sifatida qo'llaniladi

Shunday qilib, o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni struktural- grammatik, semantik-uslubiy, funksional jihatlardan o'rganish yuzasidan muayyan yutuqlarga erishildi va buning natijasida o'zbek frazeologiyasi shakllandi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni ligvomadaniy, kognitiv va pragmalingvistik jihatdan o'rganishga e'tibor kuchayib, bu sohadagi tadqiqotlar soni kengayib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, Jahon tilshunosligida hozirgi kunga qadar frazeologiya sohasi keng va tor ma'noda tushunilib kelinmoqda. Masalaning murakkab tomoni shundaki, so'z birikmalari o'rtasidagi chegarani aniqlab beruvchi mezon mavjud emasligi, mavjud bo'lganda ham uning mukammal emasligidadir. Frazeologik birliklarda ortiqcha so'z, tasviriylik uchramaydi, chunki ixcham fikrning o'zi estetik jihatdan katta mohiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nader Afshunpoura. Interlingual Transfer of Idioms by Persian Learners in Procedia. – Social and Behavioral Sciences, 2014. – P.45.
2. L.Pinnavaia. Sugar and spice... Exploring food and drink idioms in English. – Milan: Polimetrica, International scientific publisher, 2010. – P.22.
3. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. Монография.– Самарқанд: СамДУ, 2013. – Б.
4. Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари. Док дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 16 б.
5. Холмуродова Л.Э. Инглиз ва француз тилларидаги образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик идеографик талқини (лингвомаданий аспект): Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 50 б.
6. Ирискулов М.Т. Тилшуносликка кириш. – Т., 2008, – Б.128-272.

ERTAKLARGA XOS BADIY XUSUSIYATLAR (AKA-UKA GRIMM ERTAKLARINING QIYOSIY TAHLILI MISOLIDA)

D.H.Karimova,
Nemis filologiyasi kafedراسи dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
D.R.Narziyeva,
BuxDU, Lingvistika (nemis tili) mutaxassisligi

Ertak xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, kattayu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janridir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlari, marosimlari asosida paydo bo'lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlari haqidagi orzu-o'ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Xalq og'zaki nasriy asarlarida syujet muhim o'rin tutadi. Ular hech qachon syujetsiz bo'lmaydi. Nasriy asarlar syujetini kirish, tugun, epik sarguzasht yoki voqealar rivoji, kulminatsiya (asarining eng avj nuqtasi), yechim kabilar tashkil etadi. Har bir xalqning ertagi o'sha xalq tarixini, ma'naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon-e'tiqodini boshqa qardosh elu elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini, urf-odatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi. Deyarli barcha ertaklarning g'oyaviy yo'nalishi yagona maqsadga- mehnat ahlining buyuk va yorqin kelajak uchun olib borgan kurashlarini, intilish va orzularini aks ettirishga qaratilgan. Shuning uchun ertaklar hamisha yaxshilik va murodga yetishdan iborat umidbaxsh g'oya bilan yakun topadi. Ertaklar xalq og'zaki badiiy ijodiyotining epik turiga mansub bo'lib, o'ziga xos g'oyaviy – mavzuviy yo'nalishga, axloqiy – ta'limiy va ijtimoiy – estetik vazifalarga ega. Ertaklar ham og'zaki tarzda jamoa ijodi mahsuli sifatida anonim ko'rinishda yaratiladi. Garchi uning to'qilish ibtidosi individual ijodkorga borib taqalsa-da, og'izdan – og'izga, urug'dan-urug'ga, avloddan-avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijrochisiga xos belgilarini, obrazlarini, motivlari va badiiy vositalarini deyarli saqlab qoladi. Shu bilan birga versiya va variantlilik hosil qilishi mumkin yoki boshqa xalq ertaklariga o'xshashi mumkin. Har qanday ertak uchun xarakterli xususiyati ulardagi badiiy obrazlarning uning g'oyasiga tamoman bo'ysundirilishidir. Xuddi shu g'oya mazmun o'zining ifoda etilishi uchun hayotni badiiy to'qimalar bilan tasvirlash formasini talab etadi. U yoki bu konkret poematik maqsadni ertakda ifoda etishga intilish ertak voqealarini to'liq holda o'ylab topilgan ajoyib dunyoga (ertakona dunyoga) ko'chirishni talab etadi. Chunonchi mug'ombir, ayyor tulki va laqma bo'ri haqida gap ketar ekan, bu albatta fantastik to'qima o'ylab topilgan voqealarsiz bayon etilmaydi. Ertaklarda bayon etilgan voqealardan shu narsa ko'zga tashlanadiki, ularda hayot voqealari yuqori badiiy did bilan bayon etilgan. Bu yerda biz tulkining ayyorligini, bo'ringning ochko'zligini oladigan bo'lsak, bu xususiyatni barcha xalqlar o'z ertaklarida asos qilib olganlar. Jumladan, chunonchi o'zbek xalqi ham. Ertaklardagi yana bir o'xshashlik bu to'qimalarning ahamiyati kattadir, haqqoniylik, yaramaslik, ochko'zlik, yomonlikning ustidan doimo yaxshilikning ustun kelishi g'olib chiqishi, albatta, hamma yerda uchraydigan voqeadir.

Nemis xalq ertaklari bilan o'zbek xalq ertaklarini solishtirib qiyoslab, "Die Bremer Stadtmusikanten" ertagi o'zbek xalq ertaklaridagi "Susambil" ertagi bilan mos kelishini aniqladik. „Susambil“ ertagida musulmon xalqlarga xos bo'lgan

so'zlar, ya'ni „munkar nakir“, „azroil“, „so'fi“, „eshon“ kabi so'zlar qo'llangan. „Susambil“ ertagida bo'rilarni quvib solishgan bo'lsa, „Die Bremer Stadtmusikanten“da esa qaroqchilarni qo'rqitib quvib yuborishganligi bilan bog'liq jihatlarni kuzatish mumkin.

„Es hatte ein Mann einen Esel, der schon lange Jahre die Sacke unverdrossen zur Mühle getragen hatte, dessen Kräfte aber nun zu Ende gingen, so dass er zur Arbeit immer untauglicher ward. Da dachte der Herr daran, ihn aus dem Futter zu schaffen, aber der Esel merkte, dass kein guter Wind wehte, lief fort und machte sich auf den Weg nach Bremen: Dort meinte er, könnte er Stadtmusikant werden“.

„Bir kishining eshagi bor ekan. Xo'jayin eshakni minib ishlarini bitiribdi va uyiga kelib eshakni ko'chga yomg'irga bog'lab, yoniga quruq poya tashlabdi. Bundan eshakni xo'rliqi kelib, shu kayfiyatda yuraveribdi. Bir kuni eshak endi nima qilsam ekan deb o'ylabdi. „Men shu xo'jayinning qo'lida tokay ezilaman axir xo'jayinnikidan chiqib ketsam ochdan o'lmaymanmi? Kel-e, shu yerdan boshimni olib ketayin“ debdi.

Mana ikkala xalq ertagiga nazar soladigan bo'lsak, ikkala ertakda ham ma'no va g'oya bir xil. Ikkala ertakda ham hayvonlarning ishga yaroqsiz bo'lganidan so'ng, qadri ham qolmasligi tasvirlangan. Bu jihatdan biz ertaklarni bir-biriga o'xshashligini ko'ramiz. Bu holatlar ikki xalqning ham turmush tarzida uchrab turadigan tabiiy hol. Farqlari haqida gapiradigan bo'lsak, o'zbek xalq ertaklari uchun yaxshi joy, ezguliklar makoni sifatida „Susambil“ olingan bo'lsa, nemis xalq ertaklari uchun bu „Bremen“ shahridir.

Nemis xalq ertagi „Aschenputtel“ va o'zbek xalq ertagi „Zumrad va Qimmat“ ertaginini qiyoslab o'rganish davomida bu ertaklarning mazmun jihatdan bir-biriga juda yaqin ekanligiga guvoh bo'ldik. O'xshashligi shundaki, qahramonlarning xarakteri tamoman bir xil desak ham bo'ladi. Ikkala ertakda ham bechora o'gay qiz Zumrad va Aschenputtel o'gay ona tomonidan doim kaltaklangan, xo'rlangan, jazolangan, biroq ertak oxirida har doimgidek ikkala ijobiy qahramon ham o'z niyatlariga yetishib, baxtli hayot kechirishgan. Har galgidek salbiy qahramonlar o'zlarini qora niyatlarini yuzaga chiqara olmay, yuzlari shuvut bo'lib qolaverdi.

„Die Frau hatte zwei Töchter mit ins Haus gebracht die schön und weiss von Angesicht waren, aber garstig und schwarz von Herzen. Da ging eine schlimme Zeit für das arme Stiefkind an. „Soll die dumme Gans bei uns in der Stube sitzen“ sprachen sie, „Wer Brot essen will, muss es verdienen. Hinaus mit der Kuchenmagd“.

„O'gay onaning Qimmat ismli qizi bor ekan. U juda ham qo'pol, xunuk, ishyoqmas, dangasa ekan. Zumradni aksi ekan. Bo'lar bo'lmasga bahona qilib Zumrad bilan tortishar, o'gay ona esa Zumradni urar, so'kar va og'ir ishlarni buyurar ekan“.

Bu ikkala ertakdagi bosh qahramonlarni bir-biri bilan taqqoslab ko'radigan bo'lsak, o'gay ona obrazi, ikkala xalq ertagida ham jahldor, bemehr, faqat o'zini va o'z qizini o'ylaydigan o'gay qiziga nisbatan juda ham qo'pol muomalada bo'ladigan obraz. Ikkinchi qahramonimiz o'gay onaning qizi, o'zbek xalq ertagidagi Qimmat obrazi. Bu obrazni ikkala xalq ham erkatoy, tantiq, qo'lidan hech ish kelmaydigan, yuragida doim

o'gay onasiga nisbatan g'arazi bo'lgan qahramon orqali bergan. Bu ikkala xalq ertagidagi salbiy obrazlardir.

Xalqimiz yaratgan xayoliy hikoyalar orasida shunday turkum ertaklar borki, ularni biz hayotiy- maishiy ertaklar deb ataymiz. Bunday ertaklardagi voqealarning aksariyati hayotga yaqin, hayotdan olingan. "Zumrad va Qimmat", "Oygul bilan Baxtiyor", "Ziyod botir", "Tohir va Zuhra", "Ozodachehra", "Farhod va Shirin", "Malikayi Husnobod", "Uch og'a-ini botirlar" ana shunday ertaklar sirasidandirtilgan olgan hayotiy-maishiy ertaklar kishida jiddiy fikr-mulohazalar uyg'otadigan, muayyan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lgan asarlardir. Siz ular bilan tanishgach, botirlik, yurtga fidoyilik, odamgarchilik, vafodorlik, himmat va saxovat haqida aniq tasavvurga ega bo'lasiz, o'zingizda ham ertaklar qahramonlaridagi yaxshi fazilatlarni bo'lishini xohlab qolasiz, shunga intilasiz. O'zbek xalq og'zaki ijodi tarixida ertaklarning badiiy asar darajasiga ko'tarilishi va bugungi kungacha saqlanib qolishida Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o'g'li, Haydar Baychi o'g'li, Nurali Nurmat o'g'li, Husanboy Rasul o'g'li kabi ertakchi matalchilarimiz katta xizmat qilganlar. Ular og'izdan yozib olingan o'zbek xalq ertaklarining bebaho namunalari bizga hanuzgacha ma'naviy zavq berib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. –T.: 1999
2. Jumanazarov U. Tarixiy voqyelik va o'zbek folklori. –T.: Fan, 1991. – B.174
3. Jo'raev M. O'zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari // O'zbek tili va adabiyoti, 1996, №5. -B.32.
4. Каримова, Д. (2024). Comparative Analysis of German and Uzbek Fairy Tales (As the Example of the Translation of Grimms' Fairy Tales). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 48(48)
5. Каримова, Д. (2023). THE INFLUENCE OF LANGUAGE AND PRINCIPLES OF TRANSLATION ON THE ORIGIN OF VARIATION AND INVARIANCE IN TRANSLATION. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 30(30).

WAYS OF EXPRESSION OF SIMILE IN THE ENGLISH LANGUAGE AND GENERAL NOTIONS ON STYLISTIC DEVICES

A.Q.Hikmatova,
the second year student of BukhSU
a.q.hikmatova@buxdu.uz

Abstract. *This article describes simile in the English language and gives general notions on stylistic devices; theoretical information represented by the author is proved by means of the examples presented.*

Key words: style, correspondence, language, theory, communication, construction, function, meaning, context, transfer, connotation, additional meaning, text.

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilida o'xshatishni tavsiflaydi va stilistik qurilmalar haqida umumiy tushunchalarni beradi; muallif tomonidan taqdim etilgan nazariy ma'lumotlar keltirilgan misollar orqali isbotlangan.

Kalit sózlar: uslub, o'xshashlik, til, nazariya, aloqa, qurilish, vazifa, ma'no, kontekst, ko'chirish, konnotatsiya, qo'shimcha ma'no, matn.

Аннотация: В этой статье описывается сравнение в английском языке и даются общие представления о стилистических приемах; теоретическая информация, изложенная автором, подтверждается посредством представленных примеров.

Ключевые слова: стиль, соответствие, язык, теория, коммуникация, конструкция, функция, значение, контекст, передача, коннотация, дополнительный смысл, текст.

The word style is derived from Latin word “stylos” which meant a short stick sharp at one and flat at the other used by Romans for writing on wax tablets. Now the word “style” is used in so many senses that it has become a breeding ground for ambiguity. The word is applied to the teaching of how to write a composition, its also used to reveal the correspondence between thought and expression; it frequently denotes an individual manner of making use of language, it sometimes refers to more general, abstract notions thus inevitably becoming vague and obscure, for example, “Style is the man himself”, “Style is depth”, “Style is deviations”, “Style is choice” and others.

All the ideas directly or indirectly bear on issues in stylistics. Some of them become very useful by revealing the springs which make up utterance emphatic, effective and goal-directed. It will therefore not come amiss to quote certain interesting observations regarding style made by different writers from different angles. Some of the observations are dressed up as epigrams or sententious maxims like the ones quoted above.

Some linguists consider that the word “style” and the subject of linguistics confined to the study of the effects of the message, its impact on the reader. Thus Michael Riffaterre writes that “Stylistics will be linguistics of the effects of the message, of the output of the act of communication, of its attention – compelling function”. This point of view has clearly been reached under the influence of recent developments in the general theory of information. Language being one of the means of communication, is regarded in the above quotation from a pragmatic point of view. Stylistics in that case is regarded as a language science which deals with the results of the act of communication.

Stylistics, sometimes called linguostylistics, is a branch of linguistics which deals with the result of the act of communication, investigating a system of interrelated

language means which serve a definite aim in communication. It investigates language potentialities of making the utterance more effective, paying much attention to the analysis of stylistic means of the language, of their nature and functions, their classifications and possible interpretation of the additional meanings they may carry in a message.

One of the tasks set before stylistics is a thorough study of all changes in vocabulary, set phrases, grammatical constructions, their functions and evaluation of any breaking away from the established norm, and classification of mistakes and failures in word-coinage.

According to information of Qudrat Musayev stylistics has two separate fields of investigation .

The first field of investigation deals with the system of special language means which serve to achieve the desired effect, called the stylistic means of the language. The stylistic means of the language can be divided into expressive means and stylistic devices.

The second field of investigation of stylistic is certain types of texts, distinguished by different aspects of communication, called functional styles of the language.

Thus stylistics is a linguistic subject that studies the system of stylistic devices and expressive means as well as the functional styles of the language.

The subject of stylistic has so far not been definitely outlined. It will not be an exaggeration to say that among the various branches of General Linguistics the most obscure in content is undoubtedly stylistic. This is due to a number of reasons. First of all there is confusion between style and stylistics. The first concept is so broad that it's hardly possible to regard it as a term. We speak of style in architecture, literature, behavior, linguistics dress and in other fields of human activity.

The term style is also applied to the teaching of how to write clearly, simply and emphatically. This purely utilitarian approach to the problem of style stems from the practical necessity to achieve correctness in writing to achieve correctness in writing and avoid ambiguity.

These heterogeneous applications of the word style in linguistics have given rise to different points of view as to what is the domain of stylistics. There is widely held view that style is the correspondence between thought and its expression. The notion is based, on the assumption that of the two functions in language: communication and expression of ideas, the latter finds its proper materialization of sentences specially arranged to convey the ideas and also to get the desired response.

Indeed, every sentence uttered may be characterized from two sides:

1) Whether or not the string of language forms expressed is something well-known and therefore easily understood and to some extent predictable,

2) whether or not the string of language forms is built a new; is, as it were, an innovation made on the spur of the moment, which requires a definite effort on the part of the listener to get at the meaning of the utterance and is therefore unpredictable.

In connection with the second function of language, there arises the problem of the interrelation between the thought and its expression. The expression of the thought, the utterance, is viewed from the angle of the kind of relations there may be between the language units and categories of thinking. The concept of this interrelation has given birth to a number of well-known epigrams and sententious maxims. Here some which *alter ago* of the word style.

“Style is a quality of language which communicates precisely emotions or thoughts, or a system of emotions or thoughts, peculiar to the author.”

“...a true idiosyncrasy of style is the result of an author’s success in compelling language to conform to his mode of experience.”

“Thought and speech are inseparable from each other. Matter and expression are parts of one: speaking is thinking out into language.”(Newman)

“As your idea’s clear or else obscure, The expression follows, perfect or impure.”(Boileau)

Some linguists consider that the subject of linguistic stylistics is confined to the study of the effects of message, i.e. its impact on the reader or listener. Thus Michael Riffaterre said that “Stylistics will be a linguistics of the effects of the message, of the output of the act of communication, of its attention-compelling function.”

According to information of both authors Galperin and Qudrat Musayev stylistics is not only manner of communication or expressing ideas, but also it is the way of how to provide your an idea and thought by using different range of word combination. That’s why we can say that language, being one of the means of communication, or, to be exact, the most important means of communication is regarded as an instrument by means of which the actual process of conveying ideas from one person to another is carried out. Stylistics in that case is confined to the study of expressions and thought.

On the following pages, we will explain some of the most important stylistic devices (also called rhetorical devices or figures of speech) – they are not only useful for analyzing texts, but also for creating your own texts. Stylistic devices make your speeches, essays etc. more interesting and lively and help you to get and keep your reader`s, listener`s attention.

In literature and writing, a figure of speech is the use of any of variety of techniques to give an auxiliary meaning, idea, or feeling. Sometimes a word diverges from its normal meaning, or phrase has specialized meaning not based on the literal meaning of the words in it. Examples are metaphor, simile, or personification. Stylistic devices often provide emphasis, freshness of expression, or clarity. There some example of stylistic devices:

Imagery: Simile – an explicit comparison between two things which are basically quite different using words such as *like* or *as*. *She walks like angel, I wondered lonely as a cloud.* (Wordsworth)

Metaphor – a comparison between two things which are basically quite different without using *like* or *as*. While a simile only says that one thing is like another, a metaphor says that one thing is another. *All the world`s a stage and all the men and women merely players.* (Shakespeare)

Personification – a kind of metaphor in which animals, plants, inanimate objects or abstract ideas are represented as if they were human beings and possessed human qualities. *Necessity is the mother of invention.* (Galthworthy)

Synechdoche – a figure of speech in which a part of something stands for the whole or where the whole stands for a part. *All hands on deck.* (Alle Man an Bord)

Symbol – something concrete like a person, object, image, word or event) stands for something abstract or invisible. *The Cross is the symbol of Christianity. The dove symbolizes peace.*

Sound: Alliteration – the repetition of the same consonant sound at the beginning of neighbouring words. *Peter Piper picked a peck of pickled peppers.*

Metre – a regular pattern of stressed and unstressed syllables within a line of a poem.

Iambic – an unstressed syllable followed by stressed one. *The _way a_crow, Shook _down on _me, Tthe _dust of the _snow* (Frost)

Onomatopoeia – the use of words which imitate the sound they refer to. *The cuckoo whizzed past the buzzing bees.*

Rhyme – the use of words which end with the same sounds, usually at the end of lines. *Tiger! Tiger! burning bright.*

Structure: Anaphora – the repetition of a word or several words at the beginning of successive lines, clauses and sentences. *“To raise a happy, healthy, and hopeful child, it takes family; it takes teachers; it takes business people.”*

Parallelism – the similarity of syntactical structure in neighbouring phrases, clauses, sentences or paragraphs. *“Let every nation know that we shall pay any price, bear any burden, meet any hardship, support any friend, oppose any foe to assure the survival and the success of liberty.”* (George Washington)

Triple – a kind of parallelism where words, phrases or sentences are arranged in groups of three (rule of three). *Government of the people, by the people and for the people.*

Climax – a figure of speech in which a series of words or expressions rises step by step, beginning with the least important and ending with the most important. The term may also be used to refer only to the last item in the series. *Some books are to be tasted, others to be swallowed, and some few to be chewed and digested.* (Verdauen)

Anticlimax – the sudden fall from an idea of importance or dignity to something unimportant or ridiculous in comparison, especially at the end of a series. *The bomb completely destroyed the cathedral, several dozen houses and my dustbin.*

Enumeration – the listing of words or phrases. It can stress a certain aspect e.g by giving a number of similar or synonymous adjectives to describe something. *Many workers find their labor mechanical, boring imprisoning, stultifying and repetitive.*

Miscellaneous: Allusion – a reference to a person, work of art, event etc. Allusions require a common cultural experience shared by the writer and the reader. *The old man and the computer.* (Ernest Hemingway)

Euphemism – hiding the real nature of something unpleasant by using a mild or indirect term form it. *“He has passed away” instead of he has died.*

Hyperbole – also **overstatement**: deliberate exaggeration. Its purpose is to emphasize something or to produce a humorous effect. *I’m so hungry I could eat a horse.*

Understatement – the opposite of hyperbole; the deliberate presentation of something as being much less important, valuable etc. than it really is. *“These figures are a bit disappointing”* instead of *“... are disastrous”* (catastrophic)

Irony – saying opposite of what you actually mean do not use “ironic” in the vague sense of “funny, humorous”. Teacher: *“You are absolutely the best class I have ever had”*. Actual meaning: *“the worst class”*.

Satire – a kind of text which criticizes certain conditions, events or people by making them appear ridiculous. Satirical texts often make use of exaggeration, irony and sarcasm.

Paradox – a statement that seems to be self-contradictory or opposed to common sense. On closer examination it mostly reveals some truth. *Its awfully hard work doing nothing.* (Oscar Wilde)

Oxymoron – a condensed form of paradox in which two contradictory words are used together. *Sweet sorrow, wise fool, “o hateful love/o loving hate”* (Romeo and Juliet)

Pun – a play on words that have the same sound but different meanings. *“Is life worth living?” – “It depends on the liver.”*

Rhetorical question – a question to which the answer is obvious and therefore not expected. In reality rhetorical questions are kind of statement. *Don’t we all love peace and hate war?*

Linguistic nature and stylistic functions of Simile in the English language - The intensification of some feature of concept in question is realized in a device called Simile. Ordinary comparison and simile must not be confused. They represent two diverse processes.

A *simile* is a figure of speech that makes a comparison, showing similarities between two different things. Unlike metaphor a simile draws resemblance with the help of the words “like” or “as”. Therefore, it is a direct comparison.

Comparison means weighing two objects belonging to one class of things with the purpose of establishing the degree of their sameness or difference. To a simile is to characterize one object by bringing it into contact with another object belonging to entirely different class of things. Comparison takes into consideration all properties of two objects, stressing the one that is compared. Simile excludes all the properties of the two objects, stressing the one that is compared. Simile excludes all the properties of the two object except one which is made common to them. For example, “*The boy seems to be as clever as his mother*” is ordinary comparison. “Boy” and “mother” belong to the same class of objects human beings and only one quality is being stressed to find resemblance. But in the sentence:

“Maidens, like month, are ever caught by glare” (Byron), we have a simile.

“Maidens” and “month” belong to heterogeneous classes of objects and Byron has found the concept *month* to indicate one of the secondary features of the concept *maiden*, i.e., to be easily lured. Of the two concepts brought together in the simile – one characterized (maidens), and the other characterizing (months) – the feature intensified will be more inherent in the latter than in the former. Moreover the object characterized is seen in quite a new and unexpected light, because the writer, as it were, imposes this feature on it.

Similes forcibly set one object against another regardless of the fact that they may be completely alien to each other. And without our being aware of it, the simile gives rise to a new understanding of the object characterizing as well as of the object characterized.

The properties of an object may be viewed from different angles, for example, its state, its actions, manners, etc. Accordingly, similes may be based on adjective - attributes, adverb - modifiers, verb - predicates, etc.

Similes have formal elements in their structure: connective words such as *like*, *as*, *such as*, *as if*. Here are some examples of similes taken from various sources and illustrating the variety of structural designs of this stylistic devise.

“His mind was restless, but it worked perversely and *thoughts jerked* through his brain *like the misfiring of a defective carburetor*.” (Maughman).

The structure of this simile is interesting, for it sustained. Let us analyse it. The word ‘jerked’ in the micro context, i.e., in combination with ‘thoughts’ is a metaphor, which led to the simile ‘like the misfiring of defective carburettor’ where the verb *to jerk* carries its direct logical meaning. So linking notion is the movement *jerking* which brings to the authors mind a resemblance between the working of the man’s brain and the badly working , i.e., misfiring carburettor in other words, it is action that is described by means of a simile.

Another example:

“It was that moment of the year when *the countryside seems to faint* from its own loveliness, from the intoxication of its scents sounds”. (J. Galtworthy)

This is an example of a simile which is half of metaphor. If not for the structural word ‘seems’ we would call it a metaphor. Indeed, if we drop the word ‘seems’ and say, “the countryside faints from...,” the clue-word ‘faint’ becomes a metaphor. But the word ‘seems’ keeps apart the notions of stillness and fainting. It is a simile where the second member – human being –is only suggested by the word faint.

The semantic nature of the simile - forming elements *seem* and *as if* is such that they only remotely suggest resemblance. Quite different are the connectives *like* and *as*. These are more categorical and establish quite straightforwardly the analogy between the two objects in question.

Sometimes the simile – forming *like* is placed at the end of the phrase almost merging with it and becoming half suffix, for example:

“Emily Barton was very pink, very *Dresden- china -shepherdess like*.”

In simple non-figurative language, it will assume the following form:

“Emily Barton was very pink, and *looked like a Dresden-china-shepherdess*.”

Similes may suggest analogies in the character of actions performed. In this case the two members of the structural design of the simile will resemble each other through the actions they perform. Thus:

“The Liberals have plunged for entry without considering its effects, while the Labour leaders *like cautious bathers* have put a *timorous toe into the water and promptly withdrawn it*”.

The simile in this passage from newspaper article ‘like cautious bathers’ is based on the simultaneous realization of the two meanings of the word ‘plunged’. The primary meaning ‘to throw oneself into the water’ – prompted the figurative periphrasis ‘have put a timorous toe into the water and promptly withdrawn it’ standing for ‘have abstained from taking action.

In the English language there is a long list of hackneyed similes pointing out the analogy between the various qualities, states or actions of a human being and the animals supposed to be the bearers of the given quality, etc., for example:

Treacherous as a snake, sly as a fox, busy as a bee, industrious as an ant, blind as a bat, faithful as a dog, to work like a horse, to be led like a sheep, to fly like a bird, to swim like a duck, stubborn as a mule, hungry as a bear, thirsty as a camel, to act like a puppy, playful as a kitten, vain as a peacock, slow as a tortoise and many other the same type.

These combinations, however, have ceased to be genuine similes become clichés in which the second component has become merely an adverbial intensifier. Its logic meaning is only vaguely perceived.

A simile is a common literary device. It’s a statement that demonstrates similarities between two people or things. Similes are often confused with metaphors. A metaphor shows the meaning of the one thing by pointing out something it resembles. A simile is easy to spot because its typically includes the comparison words “*like*” or “*as*”.

A metaphor is relation between the dictionary and contextual logical meanings based on the affinity or similarity or certain properties or features of the two corresponding concepts. Thus in

“Dear *Nature* is the kindest *Mother* still.” (Byron, “Childe Harold”)

No explanatory words are used. Nature is likened to a Mother in her attitude to man. The action of nursing is implied but not directly stated.

In the following example, however, an explanation is given:

“The *indicators* became *enemies* if they lagged behind his wish: dear and reliable friends when they showed what he wanted.”

The explanatory words “if they...”, “when they...” help the reader to decipher the true meaning of the metaphor.

Metaphor can be embodied in all the meaningful parts of speech, in nouns, adjectives, verbs, adverbs and sometimes even in the auxiliary parts of speech, as in prepositions.

The metaphor is well - known semantic way of building new meanings and new words. “Its due to metaphor” according the remark of Quintilian, “that each thing seems to have its name in language.” Even language has been figuratively defined as a dictionary of faded metaphor.

So I have been mentioned the difference between simile and metaphor, We can say that a metaphor shows the meaning of the one thing by pointing out something it resembles. A simile is easy to spot because its typically includes the comparison words “like” or “as”.

From the above discussion, we can infer the function of similes both in our everyday life as well as in literature. Using similes attracts the attention and appeals directly to the senses of listeners or readers encouraging their imagination to comprehend what is being communicated. In addition, it inspires life-like quality in our daily talks and in the characters of fiction or poetry. Simile allows readers to relate the feelings of a writer or a poet to their personal experiences. Therefore, the use of similes makes it easier for the readers to understand the subject matter of a literary text, which may have been otherwise too demanding to be comprehended. Like metaphors, similes also offer variety in our ways of thinking and offers new perspectives of viewing the world.

THE LIST OF USED LITERATURE

1. Шукурова, М. А. XVI-XVIII асрларда инглиз тилида этика атамаларининг ривожланишига доир баъзи масалалар. *Aniq va tabiiy fanlar*, 165.
2. Askarovna, S. M. General Linguistic Theories in English Linguistics of the Xvi-xvii Centuries and the Practice of Norms in Vocabulary. *European Scholar Journal*, 2(4), 504-506.
3. Askarovna, S. M. (2021). General linguistic theories in english linguistics of the XVI-XVII centuries and the practice of norms in vocabulary.

4. Askarovna, S. M., & Djurabayevna, D. N. Some Principles of the Formation and Development of Ethical Terms in the English Language in the XVI-XVIII Centuries. *International Journal on Integrated Education*, 2(6), 31-39.

5. Askarovna, S. M., & Djurabayevna, D. N. (2019). Some principles of the formation and development of ethical terms in the English language in the XVI-XVIII centuries. *International Journal on Integrated Education*, 2(6), 31-39.

3-SHO‘BA: IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING MUAMMOLARI

INDIRA GANDINING SIYOSAT MAYDONIGA KIRIB KELISHI TARIXIDAN.

B.A.Mehmonov,

BuxDU, 2-bosqich magistranti

b.a.mehmonov@buxdu.uz

J.Y. Ergashev *BuxDU dotsenti, t.f.f.d. (PhD)*

j.ergashev91@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada Indira Gandining XX asr fojiasi bo‘lgan, jahon xalqlarini qattiq tashvishga solgan muammolaridan biri – “qurollanish poygasi”ning avj olishi, yadro halokatining xavfining o‘rib borishining oldini olish uchun qilgan sermazmun faoliyati hamda uning Hindistonda olib borgan ichki va tashqi siyosati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Hindiston, Indira Gandi, “qurollanish poygasi”, Yevropa, Buyuk Britaniya, Kongress, Kongress a‘zolari.

Аннотация. В статье освещаются усилия Индиры Ганди по предотвращению подъема «гонки вооружений» и растущей угрозы ядерного уничтожения, а также ее внутренняя и внешняя политика в Индии, которая является трагедией XX века и одной из проблем великого беспокойства народов мира.

Ключевые слова: Индия, Индира Ганди, «гонка вооружений», Европа, Великобритания, Конгресс, члены Конгресса.

Annotation. The article highlights Indira Gandhi’s efforts to prevent the rise of the "arms race" and the growing threat of nuclear annihilation, as well as her domestic and foreign policies in India, which is a tragedy of the twentieth century and one of the problems of great concern to the peoples of the world.

Key words: India, Indira Gandhi, “arms race”, Europe, Great Britain, Congress, members of Congress.

Hindiston tarixida alohida, o‘ziga xos hamda birmuncha ijobiy iz qoldirgan siyosatchi – Indira Gandi (1917-1984) 1917-yil 19-noyabrda Ollohobod shahrida

kashmirlik pandit (ruhoni) kastasiq mansub oilada tug'ilgan⁵. Uning otasi Buyuk Britaniya hukmronligidan Hindiston mustaqillik harakatining yetakchi vakili bo'lib, Hindiston Dominioni (va keyinchalik respublikasi)ning birinchi Bosh vaziri bo'ldi. Ukasi yoshligida vafot etgan Indira Gandi oilada yagona farzand edi. U o'zining onasi Kamala Neru tarbiyasida Olloxobodagi Anand Bxavan katta oilaviy mulkida katta bo'lgan⁶. Uning bolaligi yolg'izlikda o'tgan bo'lib, havas qilarli darajada emasdi. Otasi Javaharlal Neru ko'pincha siyosiy ishlar bilan band bo'lib, rahbarlik lavozimlarida ishlar yoki qamoqda bo'lardi. Indira Gandining onasi esa tez-tez kasal bo'lib yotardi. U keyinchalik sil kasalligidan erta o'limga duchor bo'lgan. Indira Gandi otasi bilan, asosan, xat orqali cheklangan aloqada bo'lgan.

Indira asosan uyda yollanma o'qituvchilar tomonidan o'qitilgan va 1934-yilda voyaga yetgunga qadar maktabda vaqti-vaqti bilan qatnashgan. U Dehlidagi zamonaviy maktab, Ollohobodagi Sent-Seziliya va Sent-Meri xristianlar monastiri maktablarida, Xalqaro Jeneva maktabi, Mumbay universiteti huzuridagi Puna va Mumbaydagi maktablarda tahsil olgan⁷. Keyinroq u va onasi Kamala "Rama-krishna missiyasi" tashkilotining Belur Math shtab-kvartirasiga ko'chib o'tishdi. U yerda Svami Ranganathananda ularning qo'riqchisi bo'lgan. So'ngra Indira Gandi Santiniketandagi Vishva Bharati universitetida tahsil oldi. Uning matbuotdagi ilk intervyusi paytida Rabindranat Tagor unga "Priyadarshini" (sanskrit tilida so'zma-so'z "hamma narsaga mehr bilan qarab" ma'nosida) deb ism qo'yadi. Shuning uchun ham Indira Priyadarshini Neru nomi bilan mashhur bo'lgan⁸. Bir yil o'tgach, u kasal onasini Yevropada davolatish uchun universitetni tark etishga majbur bo'ladi. U yerda Indira o'z o'qishini Oksford universitetida davom ettirishga qaror qilgan⁹. Onasi vafot etganidan so'ng, u qisqa muddat Badminton maktabida, so'ngra esa 1937-yilda tarixni o'rganish uchun Somervill kollejiga o'qishga kiradi. O'shanda Indira kirish imtihonini ikki marotaba topshirishga majbur bo'lgan. Chunki, u birinchi urinishida lotin tilidagi past ko'rsatkichi bilan muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Oksfordda u tarix, siyosatshunoslik va iqtisod sohasida yaxshi natijalarga erishdi. Lekin, lotin tilidagi darslar u uchun majburiy fan bo'lib qoldi¹⁰. Indira talabalik davrida, shuningdek, Oksford Osiyo Majlisi Jamiyati faoliyatida a'zo sifatida faol ishtirok etdi.

Yevropada bo'lgan davrida Indiraning sog'lig'i yomonlashib, u doimiy ravishda shifokorlar nazoratida bo'ladi. U o'qishni to'xtatib, sog'ligini tiklash uchun Shveysariyaga bir necha bor sayohat qilgan. U 1940-yilda, Germaniya tezda Yevropani zabt etgan vaqtda, o'sha yerda davolangan. Indira Portugaliya orqali Angliyaga

⁵ Jayakar P. Indira Gandhi: a biography. – New York: Penguin books, 1997. – P.10.

⁶ Frank K. Indira: the life of Indira Nehru Gandhi. – New York: Harper Collins, 2010. – P.16.

⁷ Gupte P. Mother India: a political biography of Indira Gandhi. – New York: Penguin books, 2012. – P.151-152, Frank K. Indira: the life of Indira Nehru Gandhi. – New York: Harper Collins, 2010. – P.29,75,83.

⁸ Frank K. Indira: the life of Indira Nehru Gandhi. – New York: Harper collins, 2010. – P.90.

⁹ Gupte P. Mother India: a political biography of Indira Gandhi. – New York: Penguin books, 2012. – P.181.

¹⁰ Somervill B. Indira Gandhi: political leader in India. – Mankato: Capstone publishers, 2007. – P.36.

qaytishga urindi, ammo qariyb ikki oy davomida u yerda qolib ketdi. U 1941-yil boshida Angliyaga kirishga muvaffaq bo'ldi va u yerdan Oksforddagi o'qishini tugatmasdan Hindistonga qaytib keldi. Keyinchalik universitet unga faxriy unvon berdi.

Buyuk Britaniyada bo'lganida, Indira Ollohobodda bo'lgan vaqtlaridanoq tanish bo'lgan, London iqtisodiyot maktabida o'qiyotgan bo'lajak eri Feruz Gandi (Maxatma Gandi bilan hech qanday aloqasi yo'q) bilan tez-tez uchrashib turardi. U Feruz Gandiga 1942-yilda 25-yoshida turmushga chiqdi. Ularning nikohi Ollohobodda Adi Dharma marosimlariga mos tarzda bo'lib o'tdi. Ammo, Feruz Gujaratdagi fors-zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchi oiladan edi. Ularning nikohi 18 yil davom etdi. Feruz Gandi 1960-yilda yurak xurujidan vafot etdi. Ularning ikkita o'g'li bor edi – Rajiv (1944-yilda tug'ilgan) va Sanjay (1946-yilda tug'ilgan). Dastlab uning kichik o'g'li Sanjay uning tanlangan merosxo'ri bo'lgan, ammo, 1980-yil iyun oyidagi aviahalokatda vafot etganidan so'ng, Indira Gandi katta o'g'li Rajivning uchuvchilik ishini davom ettirishini istamagan. Rajiv 1984-yilda onasining o'ldirilishidan keyin bosh vazir lavozimida 1989-yilning dekabrigacha faoliyat yuritgan. Rajiv Gandining o'zi 1991-yil 21 mayda "Tamil Ilamning ozodlik yo'lbarlari" tashkiloti vakili bo'lgan xudkush tomonidan o'ldirilgan.

Fikrimizcha, Indira Gandining katta siyosatga kirib kelish jarayoni haqida gapirishdan avval o'sha vaqtlardagi Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti haqida qisqacha to'xtalib o'tish lozim. Hindiston mustaqillikni qo'lga kiritish bilan hokimiyatga Javaharla'l Neru boshchiligidagi Kongresschilar keldi. 1930-yillarda Hindiston Milliy Kongressining asosiy maqsadi iqtisodiy jihatdan keng imkoniyatli sinfsiz jamiyat yaratishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Javaharla'l Neru bunday jamiyatni kerak bo'lsa kuch ishlatib bo'lsa-da, yaratishni maqsad qilib olgan edi. U Mahatma Gandining asosiy yo'nalishi bo'lmish sotsializm yo'nalishdan ancha chekindi. 1948-yili Kongress tomonidan qabul qilingan "Vakumni ijtimoiylashtirish" rezolyusiyani qabul qilganligida bevosita kuzatishimiz mumkin. Yana davlat korxonalari har uch jabhada tashkil etiladigan bo'lib, xususiy korxonalar jamiyatning to'liq iqtisodiy talabiga javob bera olmas edi. Shunday qilib aralash turdagi iqtisodiy tuzilmaga yo'l ochilib, garchand davlat tizimi ustun bo'lib qolsa-da, xususiy tadbirkorlik yetarli ta'sirga ega bo'lib qoldi.

Planlashtirish iqtisodiyotning muhim asosi bo'lib xizmat qildi. Zero, mustaqillikning dastlabki yillarida mustahkam iqtisodiy boshqaruv tizimiga ehtiyoj bor edi. Javaharla'l Neruning maqsadi 10 yil ichida Hindistonni qashshoqlik botqog'idan chiqarish edi. Davlat reja qo'mitasi mamlakat mudofasi va yetakchi xo'jalik tizimi ustidan o'z nazoratini o'rnatishi kerak edi. Tashqi dushmandan himoyalani uchun davlat byurokratik tizimi mustahkam bo'lishi kerakligini Javaharla'l Neru yaxshi tushungan. 1951-1956-yillari dastlabki 5 yillik iqtisodiy reja tuzildi. O'z navbatida xususiy korxonalariga ham erkinlik berdi. 1955-yilda Abadida o'tgan s'yezdga Kongress "sotsialistik shakldagi" jamiyat qurishni e'lon qiladi. Kongressning asosiy

maqsadi Hindistonda kuchli ijtimoiy himoyaga asoslangan jamiyat qurish bo'lib qoldi. Aholisining 40 foizi qashshoq bo'lgan Hindiston uchun bu kabi so'l yo'nalishdagi fikrlar aholining aksariyati tomonidan yaxshi kutib olindi. Lekin, xususiy mulkchilik va erkin tadbirkorlik tarafdorlari manfaatlariga zid keladigan qonunlar qabul qilingan. Davlat barcha yo'nalishlarda o'z nazoratini kuchaytira boshladi. 1962-yilgi manifestlarda aholi o'rtasidagi mulkiy tengsizlik darajasi tenglashtirish masalalari ko'rildi. Ijtimoiy himoya tizimi yana boshqacha yo'nalishlarga burildi. 1963-yil Hindiston Milliy kongressining xalqqa murojaatida davlat sektorining mustaqillik yillaridagi strategik yo'nalishlari to'g'ri olib borilganligi ta'kidlanadi.

O'tgan asrning 60-yillarida Hindiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ancha yutuqlarni ham qo'lga kiritdi. Garchi to'la bo'lmasa-da, yirik pomeshchik yer egaligi tugatildi, ekin yerlari kengaytirildi, suv inshootlari qurildi va davlatning agrotexnika tadbirlari natijasida qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirish taxminan ikki barobarga oshirildi. Sanoat ishlab chiqarishi deyarli to'rt marta, mashinasozlik sakkiz marta ko'paygan edi. Sanoatda qator yangi tarmoqlar vujudga keldi hamda industrlashtirishda tashkil qilingan davlat sektori yetakchi rol o'ynay boshladi.

Shu yillarda milliy iqtisodiyotning ma'lum darajada rivojlanishi va sotsial o'zgarishlarning amalga oshirilishi bilan bir qatorda mamlakatda ma'lum ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar ham namoyon bo'ldi. Boy va yuqori tabaqa vakillari progressiv o'zgarishlarga yo'l qo'ymaslik, o'z siyosiy va iqtisodiy mavqelarini mustahkamlash uchun harakat qildilar. Hindiston tashqi siyosatini o'zgartira olmagan o'ng kuchlar milliy kongress partiyasi siyosatiga qarshi chiqdilar. Milliy kongress partiyasining ahvoli kundan-kunga og'irlashib bordi.

1964-yil may oyida Javaharla'l Neru vafotidan so'ng Hindiston Milliy kongressi partiyasidagi ziddiyatlar, guruhbozlik kurashi keskinlashdi. Shu paytda Hindiston kompartiyasi parlamentga umumiy demokratik o'zgarishlar (chet el kapitalini, banklarni natsionalizasiya qilish, keng yer islohoti o'tkazish va boshqalar)ni amalga oshirish yuzasidan talabnoma topshirdi.

Ish tashlash kuchaya bordi. 1964-yili Hindiston kompartiyasi boshqa so'l partiyalar bilan birgalikda siyosiy ish tashlashlar ("bandx") o'tkazdi. Biroq o'sha yillari kompartiyaning ikkiga bo'linib ketishi (mamlakatda ikkinchi kompartiya vujudga kelishi) demokratik kuchlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1965-yili kuzda yangidan boshlangan Hindiston va Pokiston urushi Hindistonning iqtisodiy va siyosiy ahvolini ancha og'irlashtirdi. Ikkala mamlakat o'rtasidagi mojaroning kelib chiqishiga xalqaro imperiazizm sababchi bo'ldi. Sovet Ittifoqining tashabbusi bilan 1966-yil yanvarda Toshkentda Hindiston bilan Pokistonni o'zaro yarashtirishga qaratilgan "Toshkent deklarasiyasi" imzolandi.

Ammo, 1966-yili yanvarda Hindiston bosh vaziri L.B.Shastri vafoti tufayli bosh vazir lavozimiga Indira Gandi tayinlandi. Indira Gandi Javaharla'l Neru xonadonining eng yaqin kishilari va mashhur shaxslar to'g'risida hayajon bilan shunday yozgan edi: "Mustamlakachilik zulmi hukm surayotgan yillarda Hindiston qanchadan-qancha

ajoyib odam yetishtirib chiqarganiga qoyil qolaman. U odamlar nihoyatda iste'dodli va keng fikrli bo'lib, har biri qip-qizil cho'g' bo'lib yonar, erkin kelajak uchun o'ziga xos yo'l tutar edi". Indira Gandhi yoshligidan vatanparvarlik ruhi asosida tarbiyalandi. "Mening ijtimoiy hayotim, – deb eslaydi u, – uch yoshimdan boshlangan edi. Mening xotiram yoshlik o'yinlari yoki boshqa bolalar bilan aloqada bo'lganimni eslolmaydi. Men baland stulda turib, balandparvoz nutqlar so'zlashni xush ko'rardim..."

Indira Gandhi 1917-yilda tug'ilganidan buyon Hindiston mustaqilligi uchun kurashda tarbiyalangan edi. Shunday qilib, 1947-yilga kelib, u allaqachon siyosat bilan yaxshi shug'ullangan va 1966-yilga kelib, bosh vazir lavozimini egallaguniga qadar, u otasining idorasida bir nechta kabinet lavozimlarini egallagan. U hattoki, 1955-yilning iyulida SSSRga, ayni chog'da O'zbekistonga ham rasmiy tashrif bilan kelgan edi¹¹.

1950-yillarda Indira Gandhi xonim turmushga chiqqandan so'ng, Hindistonning birinchi bosh vaziri lavozimida bo'lgan otasiga norasmiy ravishda shaxsiy yordamchi sifatida xizmat qilgan¹². Indira Gandhi bosh vazir bo'lishidan oldin ayollar masalalariga doir muhim masalalar yuzasidan faoliyat yuritgan edi. Bosh vazir lavozimiga saylanishidan oldin, u Kongress partiyasining tashkiliy qanotida faol bo'lib, qisman Xotin-qizlar bo'limida ishlagan. 1956-yilda Gandhi Kongress partiyasining xotin-qizlar bo'limini tashkil etishda faol rol o'ynaydi¹³. Ayol sifatida u, tabiiyki, Kongress partiyasining Ayollar bo'limini oson boshqara olardi. U ko'pincha ayollarni siyosatga jalb qilishni uyushtirishga urindi. Indira Gandhi ritorik ravishda siyosiy muvaffaqiyatini jinsidan ajratishga harakat qilgan bo'lsa ham, o'zini ayollar tashkilotlariga tez-tez jalb qilardi. Hindistondagi siyosiy partiyalar Indira Gandhi bosh vazir bo'lishidan oldin uning jinsiga katta e'tibor berishgan va undan siyosiy maqsadlarda foydalanishga umid qilishgan. Indira Gandhi haqidagi bir nechta kitoblarda uning Janna d'Arkga bo'lgan qiziqishi qayd etilgan. Bir safar u o'zining do'sti Doroti Normanga 1952-yilda shunday deb yozgan edi: "Taxminan sakkiz-to'qqiz yoshimda meni Fransiyaga olib ketishdi. Janna d'Ark birinchilardan bo'lib mening buyuk qahramonimga aylandi". Boshqa bir tarixchi Indiraning o'zini Janna d'Ark bilan taqqoslagani haqida shunday hikoya qiladi: "Indira Janna xolasiga, – Janna d'Ark kabi men ham bir kun kelib o'z xalqimni erkinlikka olib boraman! – deydi¹⁴". Indira Gandhi o'zini Janna d'Ark bilan bog'lashi tarixchilarning ushbu siyosatchi xarakterini baholashida muhim ahamiyat kasb etadi.

1950-yillarning oxiriga kelib Indira Gandhi Kongress prezidenti bo'ladi. Bu lavozimda u kommunistlar rahbarligidagi Kerala shtati hukumatining 1959-yilda tarqatilishida muhim rol o'ynagan. Ushbu hukumat Hindistonning birinchi marta

¹¹ Мухитдинов Н. Кремлда ўтган йилларим: Сталин, Маленков, Хрушчев, Брежнев, Андропов билан биргаликда ишлаган уруш, меҳнат ва партия фахрийси эсдаликлари. К.1. КПСС Марказий Комитети ва унинг Сиёсий Бюроси фаолияти (50-йиллар). – Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б.170.

¹² Steinberg B.S. Women in power: the personalities and leadership styles of Indira Gandhi, Golda Meir, and Margaret Thatcher. – Montreal: McGill-Queen's University Press, 2008. – P.20.

¹³ Norman D. Indira Gandhi, letters to an american friend. – San Diego: Harcourt Brace Jovanovich, 1985. – P.30.

¹⁴ Genovese M.A., ed. Women as national leaders. – Newbury Park, CA: SAGE Publications, 1993. – P.107.

saylangan kommunistik hukumati sifatida ajralib turardi. 1964 -yilda otasi vafot etganidan keyin u Rajya Sabha (yuqori palata) a'zosi etib tayinlandi hamda Bosh vazir La'l Bahodir Shastri kabinetida Axborot va radioeshittirishlar vaziri sifatida ishladi. 1966-yil yanvar oyida, Shastri vafotidan so'ng, Kongress qonunchilik partiyasi uni Morarji Desay bilan raqobatda o'zlarining yetakchisi etib sayladilar. Indira Gandining g'alabaga erishishida Kongress partiyasi faxriysi K.Kamarajning xizmati katta bo'lgan¹⁵. Indira Gandi ayol bo'lganligi sababli Hindistondagi boshqa siyosiy rahbarlar uni zaif deb hisoblashgan va bir martalik saylangan "qo'g'irchoq" rahbar sifatida ishlatishga umid qilishgan.

O'sha vaqtdagi Kongress a'zolari biri ushbu voqealarni quyidagicha xotirlaydi: "Kongress prezidenti Kamaraj Gandi xonimning bosh vazir lavozimiga saylanishini uyushtirdi. Chunki, uni o'zi va partiyaning boshqa mintaqaviy boshliqlari nazorat qila oladigan darajada kuchsiz hamda shu bilan birga otasiga bo'lgan yuksak ehtirom tufayli partiyaviy saylovlarda Desayni [uning siyosiy raqibi] mag'lub eta oladigan darajada kuchli deb bilgan..Ayol Sindikat uchun ideal vosita bo'lar edi.

YOSHLAR ONGIDA AXLOQIY IDENTIKLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YUZAGA KELADIGAN IJTIMOY TO'SIQLARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI.

*L.A. Tashayev,
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti tyutori*

Bugungi dunyoda identiklik ya'ni mansublik jarayonlari globallasuv fonida asta sekin emirilish jarayonlari davom etmoqda. Oxirgi yillarda bu jarayon anchayin jadallashganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bu borada yoshlar ongida axloqiy identiklikning yo'qolib borishini dunyo yoshlarining umumiy ko'rinishlarida, o'ziga hos madaniyatlarida hamda ular orasida tarqalayotgan salbiy qadriyatlarda yoqqol ko'zga tashlanmoqda. Biz kuzatuv tadqiqotlarimizda aynan o'zimizning yoshlar ongidagi axloqiy mansublikni rivojlantirishda uchrayotgan ijtimoiy to'siqlar mavjuddir. Bu to'siqlarni bir qancha yo'llar va usullar bilan bartaraf etish mumkin.

Yoshlarda axloqiy mansublik tarbiyasi-jamiyatdagi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Zero, inson hayoti bir necha davrlarga bo'linadi. Bu davrlar ichida hayotning yoshlik davri alohida muxim ahamiyatga egadir. Yoshlik vaqti insonning eng jiddiy qaraladigan davri hisoblanib, insonning kelajagini belgilab beradigan yozilmagan oq qog'ozdek beg'uborlik vaqti hisoblanadi. Shu bilan birga bu davr yoshlarning umr maydoni yo'llarining chorrahasida tutashgan vaqti hamdir. Agar, o'sha davrda to'g'ri yo'lga boshqarilsa, o'zi, jamoasi, oilasi, mahallasi, xalqi, yurti, mamlakati uchun juda katta manfaat keltirayotgan hisoblanadi. "Yoshlar har bir

¹⁵ Kochanek S.A. Post Nehru India: The emergence of the new leadership // Asian survey. 6 (5). – Berkeley, 1966. – P.298.

millatning kelajagidir. Bu esa yoshlarga jiddiy ahamiyat berilishi lozimligini bildiradi. Har bir shaxsning kim bo'lishligi yoshlik paytidan bilina boshlaydi. Yoshlik paytida shakllanib qolgan sifatlar insonga butun umri davomida hamroh bo'ladi. Shuning uchun jamiyatda yoshlarning odobli, aqlli, halol, tarbiyali inson bo'lishlari uchun harakat qilinadi.

Har qanday xalq uchun yoshlar axloqiy tarbiyasi eng muhim masala bo'lib hisoblanadi. Sababi yoshlar kelajakni davom ettiradigan sifatida xalq nomini keying avlodlarga etkazib beruvchi eng asosiy ko'prikdir. "Ayniqsa, bu borada yoshlar ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida fikr yuritganda yoshlar o'rtasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning emirilishi, zo'ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlarni ildiz otayotganligi tashvishlidir. Bu esa, o'z navbatida, odamzotning o'z tarixiy, diniy, milliy-ma'naviy ildizlaridan uzilib qolishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur holat, jahondagi ko'plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda". Bu kabi salbiy jarayonlar yoshlar ongida axloqiy identiklikni rivojlantirishda to'siq bo'lib xizmat qilmoqda.

XXI asr jaxon hamjamiyatida globallashuvning tezlikda tus olishi barcha holatlarni, vaziyatlarni o'ziga qamrab olmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonida axborot bugungi kunda inson qalbi va ongini turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi qudratli omilga, eng kuchli vositaga va yashirin ma'naviy qurolga aylangan. Chunki, "Kimki axborotga ega bo'lsa u dunyoga egalik qiladi», - degan fikr bugungi kunda barcha tomondan e'tirof etilmoqda" Bu kabi shiddat bilan rivojlanayotgan virtual olam yoshlar axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatishda afsuski davom etmoqda.

Yoshlar ongida axloqiy identiklik rivojlanishida yuzaga keladiga bir qancha to'siqlar va ularni bartaraf etish mexanizmlarini taxlil qilib o'tamiz.

Birinchi to'siq. "Virtual olam domiga tushish". Inson virtual olamga tushganda rial hayotdan uziladi hamda haqiqiy hayotdagi voqiya – hodisalarni eshitmaydi taxlil qilmaydi. Shuningdek o'z shaxsiy karerasiga ham jiddiy putur etkazadi va o'z-o'zini rivojlantirmaydi. Shu bilan birga yolg'iz qolishni hojlab odamovi bo'lib qolishga olib keladi. Ayniqsa bu jarayonlar yoshlarda yanada ayanchli ta'sir kuchga ega bo'ladi. Virtual olam domiga tushishda yoshlarda kuzatiladigan salbiy jixatlar jizzakilik, qo'pollik, stresga beriluvchanlik, loqaydlik, beparvolik, kabi holatlar uchraydi.

Bartaraf etish mexanizmi: Yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib to'garaklarga, tayyorlov kurslarga, sport klublariga jalb qilgan holda ulardagi beparvolik va loqaydlikni kelajakdagi maqsadlariga intilish hamda o'z hayotiga bo'lgan mustaqil qarashlarini shakllantirish mumkin.

Ikkinchi to'siq. "Ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlari" "Ommaviy madaniyat" tashqi ko'rinishi, oson o'zlashtirilishi bilan yoshlarni qiziqtirmoqda.

Salbiy g'oya va belgilar zamonaviy ko'rinishlar ommaviy madaniyat ko'rinishlari ulardan kuchli mushoxada qilishni talab etmaydi, turli hil yashash muammolardan, "xalos" etganday bo'ladi, huddiki yoshlar boshini dam oldirganday bo'ladi, ularni

intelektual salohiyatini oshirishga, ilm olishga emas, balki o'ynab-quv nab, "yashab olish"ga chaqiradi. Bu holatda inson engil yashashga osonlik bilan tez maqsadiga erishishga, mas'uliyatsizlikga o'rganib qoladi. Aslida "ommaviy madaniyat"ning, uni tarqatayotganlarning ham asl maqsadlari shundan iborat. Yurtimizda insonlarning deyarli 60 foizini yosh avlod tashkil qilishini va "ommaviy madaniyat" mualliflari aynan ana shu guruhni nazarda tutayotganini inobatga olsak, qiladigan ishlarimiz ma'suliyatimiz aniq ayon bo'ladi.

Bartaraf etish mexanizmi: Ommaviy madaniyatning salbiy jixatlariga qarshi milliy madaniyatimiz milliy urf-odatlar va qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish orqali ularda axloqiy mansublikni rivojlantirishimiz mumkin. Buni amalga oshirish uchun yurtimizda o'tkaziladigan barcha bayramlar tadbirlarda milliylik aks etgan jarayonlarni targ'ibot va tashviqot qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Milliy urf-odat qadriyatlar yoki udumlarimizga faqat bayram va tadbirda emas balki, kundalik hayotda amal qilishimiz lozim deb hisoblayman. Bu jarayonni amalga oshirish uchun oilada ota-onalar bobo-buvilar mas'uliyatini oshirish zarur.

Uchinchi to'siq. "Egotsentrizm" bu so'z lotincha «ego» - men va «centrum» doira markazi so'zlaridan olingan. Ma'nosi – o'z fikr-o'ylari, manfaatlari doirasida qotib qolgan yoshlarning ijtimoiy hayotga, ijtimoiy jarayonlarga atrof muxitga nisbatan fikrlarida qotib qolishni tushinish mumkin. Bugungi kun ayrim yoshlarida ana shunday fikran qotib qolish hama faqat o'z manfaatlari yo'lida boshqalar manfaatini mensimaslik holatlari kuzatilmoqda. Shuningdek bunday toifadagi yoshlarni salbiy jarayonlarga tortish oson bo'lib ijobiy hayot tarzini qabul qilishi qiyinroq kechadi.

Bartaraf etish mexanizmi: Egosinterizmni bartaraf etish uchun har bir yosh avlodda faqat o'z manfaati emas o'zgalar manfaatini hurmat qilish umuminsoniylik g'oyalariga sodiqlik hislatlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga ota-onalar shaxsiy namuna asosida har bir honadonlarda kitob o'qish madaniyatini shakllantirish ularning shaxsiy dunyoqarashini boyitishga olib keladi. Xulosa o'rnida internet va boshqa saytlarda kirib kelayotgan salbiy ruhdagi axborotlar ko'payishi ko'zga tashlanmoqda. So'nggi paytlarda zo'ravonlik, beshafqatlik va behayollikni targ'ib qiluvchi video materiallarning keng tarqalishi kuzatilmoqda. Shularni hisobga olib yoshlarda axloqiy identiklikni rivojlantirishning aniq bir mexanizimini ishlab chiqish zarur. Yoshlar milliy, axloqiy mansubligiga asoslangan, mentalitetimizga xos bo'lgan turmush tarzini yaratishga qaratilgan amaliy ishlar dasturini tuzib, xalqaro tajribada sinalgan uslublar orqali amaliyotga joriy etish yaxshi samara beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mo'minjonova U. Yaponiyada yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasi borasidagi jarayonlarning milli va umuminsoniy jixatlari mavzusidagi ilmiy maqolasi *Международный научный журнал № 10 (100), часть 2 «Новости образования: исследование в XXI веке» Май 2023-йил*

2. Sulstonov S. Yoshlar ma'naviyatiga tasir ko'rsatuvchi omillar nomli maqolasi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2023-yil yanvar 698-bet
3. Султанов, С. Х. (2013). меры противодействия против коррупции в условиях глобализации. scienceand world, 67.

SIFATLI TA'LIM VA OILA HAMKORLIGINI MODERNIZATSIYALASHTIRISHNING TARIXIY TAJRIBASIDAN

K.I.Rahmonov,
BuxDU dotsenti, t.f.n.
D.Sh. Yangiyeva, BuxDU magistranti
d.sh.yangiyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh avlodni savodli va ma'naviy komil qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan BXSR davri tarixiy tajribasi orqali oila hamda maktabning o'rni va roli beqiyos ekanligi bilan bog'liq ko'pgina fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: BXSR, Buxoro axbori, Ozod Buxoro, Qoidalar.

1920 yilning sentyabrda Buxoro amirligi ag'darilishi bilan uning o'rniga kelgan BXSR hukumatiga amirlikdan juda katta qoloqlik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy hayot jabhalarida tuzatilishi, yangilanishi, zamon talablariga moslashtirishga muhtoj bo'lgan illatlar meros bo'lib qoldi.

Eski maktablarni isloh qilish, yangi maktablar ishida madrasada ta'lim bergan muallimlardan foydalanib qizlar maktablarini tashkil etish, bolalar bog'cha va yaslilari ochish, ta'limning majburiyligini ta'minlash, o'quvchilarni hukumat hisobidan bepul ovqatlantirish masalalari qat'iy qilib qo'yildi. Yangicha tartiblar joriy qilinishi bilan ota-onalar, ayniqsa, boy xonadonlar o'z farzandlarini maktabga va chet ellarga o'qish uchun yubormaslikka tirishdilar. Xolbuki, rasmiy hujjatlardan birida: «Maktablarning har qaysisida tarbiya olmoq bilan birga, bolalar uchun mumkin bo'lg'on ravishda osh, choy, kiyim ham berilur» -deb yozilgandi. Maktablarda bolalar sog'ligini nazorat qilish uchun doimiy tibbiy ko'riklarni tashkil etishga diqqat-e'tibor qaratilgan. 1920 yillarda chop etilgan hukumat rasmiy gazetalari materiallari bilan tanishar ekanmiz, ko'pgina masalalar bugungi kun ta'lim tizimida joriy etilgan, amaliy natijalar berayotgan jarayonlarga uyg'un ekanligiga shubha tug'dirmaydi. Oila, mahalla, maktab hamkorligidagi faoliyat asosida yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash masalasi o'sha paytlardan oq inobatga olingandi.

Ta'lim-tarbiyada «bolalarni so'kmoq, urmoq, jazo bermoq bitirilib, o'git-nasihat, tanbeh, o'rnak ko'rsatish (ibrat-namuna)» usullarini qo'llash hujjatlardan o'rin olgan. Ta'lim «axloqiy, faniy, siyosiy (mafkuraviy)» ravishda bo'lishi, har bir sinfdagi o'quvchilar soni 30-35 kishi qilib belgilanishi, o'quvchilarga ongli tarbiya berish, ta'lim-tarbiyani uyg'unlikda qo'llashga e'tibor qaratilgan.

Xullas, yuqoridagi fikr va intilishlar hozirgi zamon ruhi bilan hamohang ekanligining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, tarbiya va ta'limning shakllari, ta'lim-tarbiya usullari, hatto bir sinfdagi o'quvchilar soni oilada bolalarga munosabat kabilar ham zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimi parametrlariga mos keladi. BXSRda bu borada olib borilgan ishlar bilan tanishar ekanmiz, bo'lajak ta'lim-tarbiya tizimida axloqiy masalalarga, ma'naviy barkamollikka alohida e'tibor berilganligi ayniqsa muhimdir. Bolalar avvalo, xulq-odob me'yorlarini oilada oladilar, so'ngra esa maktabda ma'naviy yetuklik sari yangi bosqich boshlanadi. Shuning uchun «Maktablarda odob-axloqqa juda ahamiyat berilib odobsizlik, tarbiyasizliklar, tamaki tortmok, qimor, oshik uyinlari, bedana uynamoq maktab bolalariga qat'iy mumkin emasdur. Muallimlarga xam maktablarda tamaki tortmoq mumkin emasdur» -deb yoziladi hukumat tomonidan uning birinchi yilida chiqarilgan «Qoidalar» nomli xujjatda.

Jamiyat a'zolarining yarmidan ortig'ini tashkil etgan ayollar oilada muhim rol o'ynashi bilan bog'liq masalalar hukumat diqqat – e'tiborida bo'lgan. Ilmli, oqila ayollar farzand tarbiyasida kuzatilgan natijalarga erishiladi deb hisoblandi. Jumladan, «Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalaridan xotin-qizlar masalasiga oid bir qator maqolalar tanishilganda, ularda «Jannat onalarning oyog'i ostidadur!», «Ollohga ibodat qilinglar, ota-onalaringizga yaxshilik qilinglar!» kabi islomiy qoidalarni hayotga tadbiq qilishga da'vat etiladi. Ilm olish ayollar uchun ham farzligi, ayniqsa, bosh maqolalarda ko'p o'rinlarda takroriy tarzda eslatib o'tiladi.

Yosh qizlarni turmushga berish, ularni oilaga tayyorlamasdan uzatish jaholat ekanligi ayrim maqolalar mazmuniga singdirilgan. «Jaholat qurboni bo'lurg'a mahkum bo'lg'on muhtaram onalarimizning bisyorlari yamoq ko'rpachalar ustida bekordan-bekorga majbur qilish asosida bolalikdanoq turmushga chiqib, saqich chaynab, vaqt zo'ye qilguncha biroz tafakkur qilsalar, millat va vatan yuksalg'on bo'lur edi».

Buxoro Respublikasi yillarida qizlarni o'qitish va hunarga o'rgatmasdanoq, 11-12 yoshlarida turmushga chiqarib yuborish odati davom etgan. Bu illatga qarshi chiqilib yozilgan maqolalarda oila qurish va nikoh masalalarini hukumat doirasida rasmiy ravishda ko'rib, navbatdagi qurultoylar kun tartibiga kiritilishi zarurligi bayon qilingan. «Buxoro axbori» gazetasining birinchi muharriri Mahmud Said Ahroriy BXSR hukumati davrida o'tkir ijtimoiy muammolardan biri – xotin-qizlar masalasini ham isloh qilish tarafdori bo'lgan. Uning 1924 yil 6 fevraldagi «Ozod Buxoro» gazetasining 44-sonida chop etilgan «Adliyani isloh etmak to'g'risida» nomli salmoqli maqolasida bu sohadagi muammolar ochib tashlangan

Xullas, BXSР hukumati oila va maktab hamkorligida bolalarga ta'lim va tarbiya berish masalalariga jiddiy e'tibor qaratganligini tarixiy dalillar tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. K.Raxmonov. Buxoro xalq sho'rolar jumhuriyati.Ijtimoiy ahvol (monografiya) Buxoro-2024,B.46.
2. R. Mavlonova, K. Xoliqberdiyev, "Pedagogika". T: "O'qituvchi nashriyoti". 2002-yil
3. Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini o'stirish. Academic research in educational sciences, 2(3), 176180.

ҚУРЪОН ИЛМЛАРИ: ҚИРОАТЛАР

А. КАРИМОВ,

*Мир Араб ўрта махсус билим юрти
Қуръон қироати ва тажвид фан ўқитувчиси*

«Қироат» сўзи арабча масдар бўлиб, луғатда «жамлаш» ва «кўшиш» деган маънони билдиради. Зотан, қироат қилган шахс ҳарфларни жамлаган ва бири-бирига қўшган бўлади. Қуръони Карим ҳам сураларни ва ўтган илоҳий китоблардаги маъноларни ўзида жамлагани учун Қуръон деб номланган. Буни биз китобнинг аввалги саҳифаларида айтиб ўтдик.

Уламолар истилоҳида, хусусан, Ибн Жазарийнинг таърифида эса: «Қироатлар Қуръон калималарини адо этиш кайфияти ҳақидаги ва уларнинг ихтилофларини нақл қилувчига нисбат берадиган илмдир».

Ибн Жазарий қорининг таърифида қуйидагиларни айтади: «Қори – қироат олими бўлиб, уни оғзаки ривоят қилган кишидир. Мисол учун, агар у «Тайсир» китобини ёд олган бўлса ҳам, агар ўша китобдаги нарсаларни силсилага асосан, оғизма-оғиз олмаган бўлса, уни бошқаларга ўқитишга ҳаққи йўқ. Чунки қироатлар фақатгина эшитиш ва оғзаки нақл қилиш билан ҳукм қилинадиган нарсадир».

«Тайсир» – қироат илмининг имомларидан бири Абу Амр Донийнинг етти қироатга бағишланган «Ат-Тайсир фил-қироатил-ашр» номли китобидир.

Ушбу таърифдан Қуръони Каримни китобдан ўқиб олган, овоз ёзиш воситаларига тақлид қилиб ўрганиб олган-лар ва бошқа шу кабилар ҳеч қачон қори бўла олмаслигини англаб оламиз. Агар бир киши ўз ҳолича тажвид китобларини пухта ўрганса, сўнг қироатга оид бошқа китобларни ҳам ёдлаб, сув

килиб ичиб юборган бўлса, ўзи Қуръони Каримни энг машхур қориларга ўхшатиб тиловат қилаётган бўлса ҳам, қори бўлмайди. Фақатгина Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламга етадиган силсилага аъзо бўлган қоридан оғзаки эшитиб, ёдлаб, ўша устозга қайта тиловат қилиб, ижозатини олган кишигина қори бўлади.

Уламоларимиз Қуръони Карим ва қироатлар ўзига хос икки алоҳида-алоҳида нарсалар эканини таъкидлаганлар. Бу борада имом Заркаший куйидагиларни айтадилар:

«Билки, Қуръон ва қироатлар айри-айри икки ҳақиқатдир. Қуръон Муҳаммад соллаллоҳу алайҳи васалламга баён ва эъжоз – ожиз қолдириш учун нозил бўлган ваҳийдир. Қироатлар эса ўша ваҳий лафзларининг ҳарфлар ёзилиши ёхуд енгил, оғир ва шу каби талаффуз кайфиятидаги турличалигидир».

Набий соллаллоҳу алайҳи васаллам Жаброил алайҳиссаломдан Қуръони Каримни эшитиб, ўрганиш билан бирга, у кишига ўқиб ҳам берар эдилар. У зот Қуръони Каримни ҳар йили Рамазон ойида бир марта Жаброил алайҳиссаломга бошидан охиригача ўқиб берар эдилар. Вафот этадиган йиллари Қуръони Каримни бошидан охиригача икки марта ўқиб берганлар.

Ўз навбатида саҳобаи киромлар ҳам Муҳаммад соллаллоҳу алайҳи васалламдан Қуръони Каримни Аллоҳ таоло нинг ҳузурида қандай бўлса, ўшандай ҳолида қабул қилиб олар эдилар. Аста-секин саҳобаи киромларнинг ичида қироат бўйича кўзга кўринганлари зоҳир бўла бошлади. Улар бошқа саҳобаи киромларга Қуръони Карим қироатидан дарс ҳам берадиган бўлдилар.

Қироатда устоз бўлган саҳобаи киромлардан ҳазрати Усмон, ҳазрати Алий, Убай ибн Каъб, Зайд ибн Собит, Абу Дардо, Ибн Масъуд ва Абу Мусо Ашъарий розияллоҳу анҳумни мисол тариқасида зикр қилишимиз мумкин. Катта саҳобийлар кичикларига ва кейинроқ Исломга кирганларга қироатни ўргатар эдилар. Убай ибн Каъб розияллоҳу анҳу Абу Ҳурайра, Ибн Аббос, Абдуллоҳ ибн Соиб ва бошқа саҳобаи киромларга қироатдан устоз бўлганлар.

Ўз навбатида саҳобаи киромлардан кейинги авлод тобеъинлар ҳам Қуръони Каримни Аллоҳ таолонинг ҳузурида қандай бўлса, ўшандай ҳолида қабул қилиб олдилар. Аста-секин тобеъинларнинг ичида қироат бўйича кўзга кўринганлари зоҳир бўла бошлади. Улар ҳам бошқаларга Қуръони Карим қироатидан дарс берадиган бўлдилар.

Тобеъинларнинг вақтига келиб, Ислом кўп жойларга тарқалган, мусулмонларнинг сони кўпайган ва ҳар бир ўлка ўз қориларига эҳтиёж сезиб қолган эди. Шунинг учун ҳам тобеъинлардан қироатга моҳир ва устоз бўлганлари ҳақида маълумот олмоқчи бўлсак, уларнинг турли ўлкаларга бўлиб зикр қилинганини кўрамиз.

Тобеъинлардан ўзининг қироати ва Қуръон устози деган номи билан Мадинада машхур бўлганлар: Ибн Мусайяб, Урва, Солим, Умар ибн Абдулазиз, Сулайман ибн Ясор, Ато ибн Ясор, Муъоз ибн Ҳорис, Абдурраҳмон ибн Ҳурмуз, Ибн Шихоб Зухрий, Муслим ибн Жундуб, Зайд ибн Аслам ва бошқалар.

Тобеъинлардан Қуръони Карим қироати ва устозлиги билан Маккада машхур бўлганлар: Убайд ибн Умайр, Ато ибн Абу Рабоҳ, Товус, Мужоҳид, Икритма, Ибн Абу Мулайка ва бошқалар.

Тобеъинлардан Қуръони Карим қироати ва устозлиги билан Куфада машхур бўлганлар: Алқама, Асвад, Масрук, Убайда, Амр ибн Шураҳбил, Ҳорис ибн Қайс, Амр ибн Маймун, Абу Абдурраҳмон Суламий, Саъид ибн Жубайр, Иброҳим Наҳабий, Шаъбий ва бошқалар.

Тобеъинлардан Қуръони Карим қироати ва устозлиги билан Басрада машхур бўлганлар: Абу Олия, Абу Ражо, Наср ибн Осим, Яҳё ибн Яъмур, Ҳасан, Ибн Сирин, Қатода ва бошқалар.

Юзинчи ҳижрий санага келиб, ақоид, фикҳ ва бошқа соҳаларда, жумладан, қироат бобида ҳам мусулмонларнинг сонлари, миллатлари, ирқлари, тиллари ва эҳтиёжларининг ҳаддан ташқари кўпайгани эътиборидан, алоҳида илмий асосга суянган йўналишлар пайдо бўлди. Бу давр ва шароит талаби эди.

Набий соллаллоҳу алайҳи васалламнинг даврларида саҳобаи киромлар соф ва фасиҳ араб тили соҳиблари эдилар. Улар учун Қуръони Каримни ўзлаштириб олиш қийин эмас эди. Уларнинг ҳаммалари юқори даражадаги олим кишилар эдилар. Энди эса араблардан кўра араб бўлмаган мусулмонлар кўпайиб кетган эди. Араблар ҳам аввалгиларига ўхшамас эди. Ушбу ва яна бошқа бир неча омиллар Қуръони Карим қироати бўйича алоҳида илм пайдо бўлишига ва илмнинг имомлари пайдо бўлишига олиб келди.

Қироатлар ва қорилар анча кўпайиб кетди. Аста-секин уларни тартибга солиш бошланди. Ниҳоят, имом Ибн Мужоҳид (ҳижрий 245-324 й.) раҳматуллоҳи алайҳи ўзининг «Ас-Сабъа фил-қироат» номли китобини ёзиб, етти машхур қироатни бир китобга жамлаб, тартиб берди ва барча буни қабул қилди. Бу қироатларнинг бир-биридан фарқи баъзи бир сўзларнинг талаффузида ва шунга ўхшаш кичик нарсаларда, холос. Буни бир қанча фикҳий мазҳаблардан фақат тўрттаси танлаб олинганига қиёслаш мумкин.

Энди ўша иттифоқ қилинган етти қироат ва уларнинг имомлари кимлар экани ҳақида қисқача маълумот олайлик.

Нофеъ Маданий қироати.

Имом Абу Рувайм Нофеъ ибн Абдурраҳмон ибн Абу Рувайм Лайсий. У киши ҳижрий 70 йили таваллуд топиб, 169 санада вафот этган. Етти машхур қироат имомларининг бири Имом Нофеъ Маданий асли асфиҳонлик бўлган. Қора танли, гўзал хулқли ва табиатан ҳазилкаш инсон. Имом Нофеъ Маданий ишончли ва аҳли солиҳ кишилардан эди. Одамларга етмиш йилга яқин қироатдан дарс берган. Мадинада одамларга қироатдан раис бўлиш шу кишига насиб этган. Имом Нофеъ Маданий турли қироатлар бўйича олим ва ўз юртида ўтган имомларнинг изидан эргашувчи зот бўлган.

Имом Нофеъ Маданий раҳматуллоҳи алайҳи қачон гапирса, оғзидан мушк хиди келар эди. Унга: «Одамларга қироатдан дарс беришдан олдин хушбўй

суртиб оласиз-ми?» дейилса, «Хушбўйга қўлимни ҳам теккизмайман, уни суртмайман ҳам. Аммо тушимда Набий соллаллоху алайҳи васалламни кўрганман, у зот оғзимга қироат қилганлар, ўшандан бери оғзимдан мана шу хид чиқади», дер эди.

Имом Нофеъ Маданийдан жуда кўп одамлар қироатни олган. Уларнинг хисобига етиб бўлмайди. У киши Мадинаи Мунавварада вафот этган.

Имом Нофеъ Маданий раҳматуллоҳи алайҳининг қироати бугунги кунда ҳам имом Осим қироатидан кейинги энг кўп тарқалган қироат бўлиб келмоқда. Ҳозирда Либия, Тунис, Жазоир, Мағриб, Нигерия, Мали ва бошқа Африка давлатларида айнан шу қироат кенг тарқалган.

Имом Нофеъ Маданий раҳматуллоҳи алайҳининг икки ровийлари – Қолун ва Варш.

Қолун – Ийсо ибн Мийно ибн Вардон ибн Ийсо ибн Абдуссамад ибн Умар ибн Абдуллоҳ Маданий 220 ҳижрий санада вафот этган. У кишининг куняси Абу Мусо, лақаби Қолун бўлган. Қироати яхши бўлгани учун Имом Нофеъ Маданий унга шу лақабни берган. Зотан, «қолун» румий тилда «яхши» деганидир. У киши Мадинаи Мунавваранинг қориси бўлган.

Имом Қолуннинг катта бобоси Умар ибн Хаттоб розияллоху анҳунинг даврида асирга тушган румликлардан эди. Уни асирга туширган одам Мадинага, Умар розияллоху анҳунинг ҳузурларига олиб келган ва ансорийлардан бир киши сотиб олган.

Абу Муҳаммад Бағдодийдан ривоят қилинишича, Қолун раҳматуллоҳи алайҳининг қулоғи карнайни эшитмайдиган даражада кар бўлган. Аммо унинг ҳузурида бирор қори қироат қилса, эшитган. Ибн Абу Ҳотим айтади: «У қулоғи кар бўлса ҳам, Қуръон ўқитар эди. Ўқувчининг хатосини ва оҳангни бузишини лабидан билиб олар эди».

Варш – Усмон ибн Абдуллоҳ Абу Саъид Қибтий Мисрий ҳижрий 110 йилда туғилиб, 197 йилда вафот этган.

Имом Нофеъ у кишини «Варшон» деган қушга ўхшатиб, «Кел, Варшон», «Ўқи, Варшон», деб мурожаат қиларди. Кейин бу исм қисқариб, «Варш», дейиладиган бўлди ва бу лақаб у кишига исм бўлиб қолди. Имом Варш кейинчалик ҳам шу исм билан чақирилишни хуш кўрар ва: «Бу исмни менга устозим Нофеъ берганлар», дер эди. Баъзилар: «Варш – сутдан тайёрланадиган маҳсулот бўлган, имом Варш эса оппоқ одам бўлгани учун устози эркалаб шундай лақаб берган», дейишган. У киши муҳакқиқ қориларнинг шайхи ва тартил аҳлининг имоми бўлган. Ўз замонида Миср диёрининг қироат бўйича раислиги шу кишида бўлган. У кишининг қироати жуда ҳам гўзал, овози ниҳоятда ширали, тиловати тинглаб тўймайдиган даражада чиройли бўлган.

Ибн Касир Маккий қироати.

Имом Абдуллоҳ ибн Умар ибн Абдуллоҳ ибн Зозон ибн Феруз ибн Ҳурмуз ибн Касир Маккий. Имом Ибн Касир 45 ҳижрий санада туғилиб, 120 ҳижрий санада вафот қилган. У киши Макка аҳлининг қироат бўйича имоми бўлган. Ўзи Маккаи Мукаррамада туғилган. Абдуллоҳ ибн Зубайр, Абу Айюб Ансорий, Анас ибн Молик розияллоҳу анҳум каби саҳобалар билан учрашган ва улардан ривоят қилган.

Имом Ибн Касир раҳматуллоҳи алайҳи фасоҳатли, балоғатли, сўзамол, оппоқ соқолли, новча, жуссадор, бугдойранг, шаҳлокўз киши бўлган. Соч-соқолини ҳинолаб юрган. У киши салобатли ва виқорли зот бўлган.

Имом Ибн Касир раҳматуллоҳи алайҳидан жуда кўп одамлар қироат ўрганганлар.

У кишининг икки ровийлари – Баззий ва Қунбул.

Баззий – Аҳмад ибн Муҳаммад ибн Абдуллоҳ ибн Абу Базза Маккий. У киши 170 ҳижрий йилда туғилиб, 250 са-нада вафот этган.

Имом Абулҳасан Баззий асли форс бўлиб, Ҳамадон аҳлидан эди. У киши Соиб ибн Абу Соиб Махзумийнинг кўлида мусулмон бўлган.

Бу имом Макканинг қориси ва Масжидул Ҳаромнинг муаззини бўлган. У киши қироатда имом бўлиш билан бирга, муҳаққиқ ва энг яхши иш бажарувчи ҳам бўлган.

Қунбул – Муҳаммад ибн Абдурраҳмон ибн Муҳаммад ибн Холид ибн Саъид Маккий. У киши ҳижрий 195 йилда туғилиб, 291 санада вафот этган.

Имом Муҳаммад ибн Абдурраҳмон ибн Муҳаммад ибн Холид ибн Саъид Маккий «Қунбула» номли қавмдан бўлгани учун Қунбул деган номни олган. У киши Ҳижозда қориларнинг шайхи бўлган. Унинг ҳузурида илм олиш учун чор атрофдан одамлар келиб турган. У зотнинг сийрати жуда ҳам яхши бўлган. Узок умр кўрган. Одамларга қироатдан дарс беришни ўлимидан етти йил олдин тўхтатган.

Абу Амр Басрий қироати.

Имом Забон ибн Алоъ ибн Аммор ибн Урён Мозаний Басрий. У киши ҳижрий 68 санада туғилиб, 154 санада вафот этган. Анас ибн Молик розияллоҳу анҳудан ва бошқалардан ҳадис эшитган. Етти имом қорилари ичида ундан устози кўпи йўқ.

Имом Абу Амр Басрий раҳматуллоҳи алайҳи Қуръони Каримни ва араб тилини энг яхши биладиган кишилардан эди. У киши садоқатли, ўта ишончли, зоҳид, кўп ибодатли ва кароматлар соҳиби бўлган зот эди.

Абу Амр Басрий Маккаи Мукаррамада туғилиб, Басрада ўсди ва Куфада вафот этди.

У кишининг икки ровийлари – Дурий ва Сусий. Қироат имомининг ровийси унинг қироатини илмий равишда қабул қилиб, бошқаларга етказишда хизмат қилган бўлади.

Дурий – Абу Амр Ҳафс ибн Умар ибн Абдулазиз Дурий. ҳижрий 246 санада вафот этган. «Дур» Бағдоддаги мавзелардан бирининг номи бўлиб, ушбу қироат имоми Дурий раҳматуллоҳи алайҳи ўша ерга нисбат берилган. У киши ўз замонасида кишиларнинг яхши кўрган шайхи, ишончли, саботли улуғ кишиси бўлган.

Имом Дурий қироатларни биринчи бўлиб жамлаган зотдир. У киши қироатларни ўрганиш ва жамлаш учун жуда кўп сафарларда бўлган. Етти харфдаги қироатларни яхши билган.

Имом Сусий – Абу Шуайб Солиҳ ибн Зиёд ибн Абдуллоҳ Сусий. Ҳижрий 261 санада вафот қилган. У киши ўта ишончли ва саботли зот бўлган. Қироатни Абу Муҳаммад Язидийдан олган. Ҳафсдан имом Осимнинг қироатини олган. Етмиш ёшида вафот этган.

Ибн Омир Шомий қироати.

Имом Абдуллоҳ ибн Омир ибн Язид ибн Тамим ибн Рабиъа Яҳсубий. У киши ҳижрий 8 йилда таваллуд топиб, 118 санада вафот этган. Имом Ибн Омир раҳматуллоҳи алайҳининг кунyasi Абу Имрон бўлган. У киши қироатда Шом аҳлининг имоми бўлган.

Имом Ибн Омир раҳматуллоҳи алайҳи улуғ тобеъинлардан ва катта имомлардан эди. Шу билан бирга, машҳур олим ҳам бўлган. У киши Умар ибн Абдулазиз раҳматуллоҳи алайҳининг даврида кўп йиллар давомида мусулмонларга умавийлар жомеъ масжидида имомлик қилган. Имом Ибн Омир Дамашқда бир вақтнинг ўзида имомлик, қозилик ва қориларнинг шайхи мақомида фаолият олиб борар эди. Одамлар у зотнинг қироатига жамланган эдилар.

Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам вафот топганларида, Имом Ибн Омир раҳматуллоҳи алайҳи икки ёшда эди. У кўпгина саҳобаларни кўрган ва улардан илм олган.

Имом Ибн Омир раҳматуллоҳи алайҳи 110 ёшида, яъни ҳижрий 118 санада Дамашқда Ашуро куни вафот этган.

У кишининг икки ровийлари – Ҳишом ва Ибн Заквон.

Ҳишом – Ҳишом ибн Аммор ибн Нусайр ибн Майсара Қозий. У киши ҳижрий 153 йилда туғилиб, 245 санада вафот этган.

Ҳишом ибн Аммор раҳматуллоҳи алайҳи Дамашқ аҳлининг имоми, хатиби, қироат устози, муҳаддиси ва муфтийси бўлган. У киши илмни нақл қилишда, фасоҳатда, балоғатда, ривоятда машҳур бўлган. У зотга улуғ ёш, соғлом ақл ва тўғри фикр ризқ қилиб берилган эди. Одамлар қироат ва ҳадисдан дарс олиш учун Ҳишом ибн Аммор раҳматуллоҳи алайҳининг хузурига узоқлардан келишарди.

Ибн Заквон – Абдуллоҳ ибн Аҳмад ибн Башир ибн Заквон Қураший. У киши ҳижрий 173 йилда туғилиб, 242 санада вафот этган.

Ибн Заквон раҳматуллоҳи алайҳи машҳур устоз, ишончли ровий, Шомда қироат шайхи ва Дамашқ масжидининг имоми бўлган.

Абу Зуръа айтади: «Ибн Заквоннинг замонида Ироқда ҳам, Хижозда ҳам, Шомда ҳам, Мисрда ҳам, Хуросонда ҳам ундан кўра қироатда пешқадам одам бўлмаган».

Осим Куфий қироати.

Имом Осим ибн Абу Нажуд Куфий. Имом Осимнинг куняси Абу Бакр. У киши машҳур қори бўлган. Таҳқиқ, балоғат, фасоҳат ва ширин овоз ила қироат қилиш билан машҳур бўлган. Имом Осим тобеъинлардан бўлиб, Ҳорис ибн Ҳассон Бакрий, Рифоъа ибн Ясрибийдек саҳобалардан ривоят қилгани айтилади. Қуръони Карим қироатини Зирр ибн Хубайшдан, имом Ҳасан ва Ҳусайн розияллоху анхумонинг устозлари Абу Абдурраҳмон Абдуллоҳ ибн Ҳабиб Сулабий ва кўплаб тобеъинлардан олган.

Имом Осим раҳматуллоҳи алайҳи Куфада қироат илмининг шайхи, етти қорининг бири бўлган. У киши ўзида фасоҳат, таҳқиқ ва тажвидда пешқадамликни жамлаган эди. Қуръони Карим қироатида овози энг гўзал одамлардан бўлган.

Имом Осим ибн Абу Нажуд ҳижрий 127 санада Куфада вафот этган.

У кишининг икки ровийлари – Ҳафс ва Шуъба.

Ҳафс – Ҳафс ибн Сулаймон ибн Муғира Баззоз Куфий. Куняси Абу Амр. Бу киши имом Осимнинг ўғай ўғли бўлган. У кишининг тарбиясида ўсган. Қуръони Карим қироатини ёшлигидан имом Осимдан жуда ҳам дақиқ равишда ўрганган.

Ҳафс ибн Сулаймон раҳматуллоҳи алайҳи ҳижрий 90 йилда туғилиб, 180 санада вафот этган.

Айнан имом Осимдан Ҳафс ривоят қилган қироат ҳозирги кунда бутун олам бўйлаб таркаган. Бизнинг диёримизда ҳам қадимдан шу қироат жорий бўлган. Бизнинг қироат имомимиз имом Осим, ровийимиз Ҳафсдир.

Шуъба – Абу Бакр Шуъба ибн Аббос ибн Солим Куфий раҳматуллоҳи алайҳи ҳижрий 95 йилда туғилиб, 193 санада вафот этган.

Шуъба ибн Аббос раҳматуллоҳи алайҳи катта имом ва амал қилувчи олим бўлган. У киши суннат илмининг имомларидан бўлган. Шуъба ибн Аббос раҳматуллоҳи алайҳи Қуръони Каримни ўн саккиз минг марта хатм қилган, имом Осим раҳматуллоҳи алайҳидан уч марта ўтказган.

Ҳамза Куфий қироати.

Имом Ҳамза ибн Ҳабиб ибн Аммора ибн Исмоил Зайёт Таймий. У киши ҳижрий 80 йилда туғилиб, 156 санада вафот этган.

Имом Ҳамза ибн Ҳабиб раҳматуллоҳи алайҳи етти машҳур қорининг биридир. У киши Куфада Имом Осимдан кейин одамларнинг қироатдаги имоми бўлган. У зот ўта ишончли, Аллоҳнинг Китоби тажвидини яхши биладиган, фароиз илмининг олими бўлган. Шу билан бирга, ҳадис илмида ҳофиз ва обид

хам бўлган. Имом Ҳамза ибн Ҳабиб раҳматуллоҳи алайҳи тобеъинлардан бўлиб, баъзи саҳобаларни кўрган.

У кишининг икки ровийлари – Халаф ва Халлод.

Халаф – Халаф ибн Ҳишом ибн Саълаб ибн Халаф Баззоз Бағдодийдир. У киши ҳижрий 150 йилда туғилиб, 229 санада вафот этган.

Халаф ибн Ҳишом раҳматуллоҳи алайҳи ўн ёшида Қуръони Каримни ёд олган. У зот ишончли, зоҳид, обид ва олим одам эди. У киши имом Ҳамзага ровий бўлиш билан бирга, ўзи алоҳида қироатга имом ҳам бўлган.

Халлод – Халлод ибн Холид Сайрафий Куфий. У киши ҳижрий 119 йилда таваллуд топиб, 220 санада вафот этган.

Халлод ибн Холид Сайрафий раҳматуллоҳи алайҳи қироатда ўта ишончли имомлардан бўлиши билан бирга, ориф, муҳаққиқ ва машҳур устоз ҳам бўлган.

Кисойй қироати.

Имом Алий ибн Абдуллоҳ ибн Баҳман ибн Феруз Ҳамза Кисойй. У кишининг куняси Абулҳасан. У зот ҳижрий 119 йилда таваллуд топиб, 189 санада вафот этган.

Имом Кисойй Ҳамза Зайётдан кейин Куфанинг қироат бўйича имоми бўлган. Қироатни Ҳамзадан олган. Қуръони Каримни ундан тўрт марта ўтказиб олган. Басрага бориб, Халилдан араб тили қоидаларини олган.

Абу Убайд «Китабул-Қироат»да қуйидагиларни айтади: «Кисойй қироатларни танлар эди. У қироат аҳлидан эди. Қироат унинг ҳунари ва санъати эди. Қироатни ундан кўра тўғри биладиган одам йўқ эди».

Абу Бакр Анборий айтади: «Кисоййда бир неча ишлар жамланган эди. У наҳв бўйича одамларнинг энг билагони бўлган. Ғариб сўзларни билишда тенги йўқ эди. Қуръон борасида ягона эди. Унинг ҳузурида кўп одамлар жамланарди. У курсига ўтириб, Қуръони Каримни аввалидан охиригача ўқир эди. Одамлар эшитиб, турли нарсаларни ўрганар эдилар».

Имом Кисойй раҳматуллоҳи алайҳи бир неча китобларнинг муаллифидир. Жумладан, у зотнинг «Китабу маъанил-Қуръан», «Китабул-қироат», «Китабул-адад», «Китабун-навадир» каби асарлари бор.

У кишининг икки ровийлари – Абу Ҳорис ва Ҳафс Дурий.

Абу Ҳорис – Лайс ибн Холид Бағдодий. У киши ҳижрий 240 санада вафот этган.

Лайс ибн Холид Бағдодий раҳматуллоҳи алайҳи ўта ишончли, ҳозиқ инсон бўлган.

Ҳафс Дурий – Абу Амр Ҳафс ибн Умар ибн Абдулазиз Дурий. У киши 246 ҳижрий санада вафот этган. Бу зот ҳақидаги маълумотлар аввал ўтди.

Баъзи бир уламолар мазкур етти қироатга яна учни қўшиб, ўн қироат, яна бошқалар ўнга тўртни қўшиб, ўн тўрт қироат ҳам қилишган. Аслида эса улардан бошқалари ҳам бўлган. Бу қироатлар, уларнинг хусусиятлари, ораларидаги

фарқлари ва яна шунга ўхшаш нарсалар ҳақида алоҳида-алоҳида китоблар ҳам ёзилган.

Агар қироатлар орасидаги фарқлар асосан баъзи бир сўзларни талаффуз қилиш оҳангида эканини эътиборга оладиган бўлсак, мусулмон умматининг Қуръони Каримга қанчалар аҳамият берганига қойил қолмай, илож йўқ. Фақат Қуръони Каримнинг талаффузи учун шунчалар катта ва мислсиз илмий ишлари амалга ошириш ҳеч бир китобнинг, ҳеч бир умматнинг тарихида бўлмаган.

Ҳозирга келиб, мазкур қироатлар ичида кўпчилик томонидан қабул қилиниб, амалда қолгани иккитадир.

Биринчиси – Имом Осимдан Ҳафс ривоят қилган қироат.

Бу қироат Ислом оламининг машриқ ва марказий тарафининг барчасида кенг тарқалган.

Иккинчиси – Имом Нофеъдан Варш ривоят қилган қироат. Бу қироат асосан Ислом оламининг мағрибига тарқалган.

Бу икки қироат орасидаги фарқларни мутахассис аҳли илмлар аниқ фарқлашлари мумкин. Мисол учун, Осим қироатида «Йа айюҳаннабийю» деб ўқилса, Нофеъ қироатида «Йа айюҳаннабию» деб ўқилади. Осим қироатида «Ваддуҳа» деб ўқилса, Нофеъ қироатида «Ваддуҳе» деб ўқилади. Ҳолбуки, бу сўзлар мусҳафи шарифда бир хил ёзилади.

Албатта, ҳар бир қироатнинг имоми шогирдларига ўз устозидан қандай эшитган бўлса, айнан ўзини нақл қилган. Бирор ҳарфнинг талаффузида бошқача бўлишига йўл қўйилмаган. Шундай тарзда силсила давом этиб келаверган. Қайси бир талаба қироатни тўғри қиладиган бўлиб етишса, устози унга «ижозат» деб аталувчи ҳужжат берган. Уша ҳужжатда Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламгача етиб борадиган ўз устозлари санади ҳам аниқ келтирилган. Бу эса ҳар бир қорининг Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламга боғланишини таъминлаган. Устоздан расмий шаҳодатнома олган қори Набий соллаллоҳу алайҳи васалламга етадиган санадга эга бўлган. Шунинг учун ҳам устоз кўрмаган, ўзича Қуръони Каримни ўқиб олган ёки устозидан «ижозат» олмаган кишилар қори деб ҳисобланмаган.

Бу борада мусулмон уммати қилган тенги йўқ улкан меҳнат, эҳтиёткорлик ва мислсиз фидокорлик ҳар қанча мақтовга сазовордир.

Дунёда ҳеч бир китоб бу шаклдаги эҳтимомга сазовор бўлган эмас.

Дунёда ҳеч бир уммат ўз китобига бу шаклда фидокорлик кўрсатган эмас.

Айтиб ўтилган маълумотларнинг тасдиғи сифатида ватанимизда қироат илмининг кейинги даврда тарқалиши ва қарор топишида катта ҳисса қўшган қори боболаримиздан бирларининг машҳур етти қироат бўйича «ижозат» силсилаларини ҳужжат ва далил сифатида келтиришни лозим топдик.

Бу санад Мулла Рўзи домла ибн Муҳаммад Толеъ алайҳирраҳманинг етти мутаботир қироатдан олган «ижозат»идир. Унда Мулла Рўзи домла ибн

Мукаммад Толеънинг Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васалламгача бўлган устозлар силсиласи, яъни санади баён қилинган.

Адабиётлар:

1. Asilbek, Khojayorov. "History of Sufism in Nasaf Oasis." *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599) 1.6 (2023): 15-19.
2. Ходжаёров, Асилбек Отабек угли. "СОМОНИЙЛАР ДАВРИДА НАСАФ ШАҲРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҲАЁТИ." *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ* 6.1 (2023).
3. Хўжаёров, Асилбек Отабек ўғли. "ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ АЛЛОМАЛАРИ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 21. 2022.
4. Khojayorov, Asilbek. "THE SCIENTIFIC–LITERARY ENVIRONMENT OF THE NASAF OASIS IN THE MIDDLE AGES." *Educational Research in Universal Sciences* 2.3 (2023): 885-888.
5. Хўжаёров, Асилбек. "ЎРТА АСРЛАРДА НАСАФ ВОҲАСИ ИЛМИЙ–АДАБИЙ ҲАЁТИ." *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 2.7 (2023): 41-43.
6. Бўриев, Очил, Шерзод Искандаров, and Асилбек Хўжаёров. "Абу Райҳон Берунийнинг “Ҳиндистон” асари ноёб этнографик манба сифатида." *Academic research in educational sciences* 3 (2022): 399-411.

ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.

М.М. Мадина

m.m.muxamedova@buxdu.uz

Магистрант 2-курса БГУ

Аннотация. Данная работа анализирует текущие тенденции и будущие перспективы развития инновационного потенциала в Республике Узбекистан. Исследование основывается на анализе актуальных данных и статистики, а также научных исследований в области инноваций. Авторы обращают внимание на ключевые факторы, влияющие на инновационную активность в стране, такие как государственная политика, экономический климат, образование и научные исследования. Работа также обсуждает возможные стратегии и рекомендации для улучшения инновационной среды в Узбекистане, направленные на стимулирование развития инноваций, привлечение инвестиций и поддержку молодых предпринимателей и исследователей.

Ключевые слова: *Модернизация реального сектора, Инновационные процессы, Новая инновационная модель развития, Экономический потенциал, Национальные инновационные системы, Конкурентные позиции предприятий, SWOT-анализ, Инновационный потенциал.*

Происходящие в Узбекистане социально-экономические преобразования требуют модернизации реального сектора с целью её максимального приспособления к реалиям общественной жизни. Важнейшим средством обновления и модернизации промышленности являются инновационные процессы, происходящие в сфере производства и реализации продукции и услуг. Узбекистан ставит перед собой амбициозные цели достижения высокого уровня производственных отношений и предусматривает переход к новой инновационной модели развития.

Повышение экономического потенциала страны, выдвинутое в качестве стратегического направления дальнейшего развития производительных сил и достижения общественного прогресса может быть обеспечено не только на базе новых инвестиционных вложений в экономику или создания новых предприятий и производств, но и путем рационального и эффективного использования всех имеющихся ресурсов – трудовых, материальных, финансовых, природных и т.д.

Изучение зарубежного опыта по формированию национальных инновационных систем показывает, что без участия государства реализовать инновационные программы в отраслях экономики невозможно. В процессе индустриального развития общества государство брало на себя подготовку кадров и создание соответствующей инфраструктуры. В условиях перехода к инновационной фазе оно берет на себя организацию и финансирование сектора экономики, который служит базисом взаимодействия науки, образования и бизнеса. Инновации являются продуктом такого взаимодействия и новым хозяйственным ресурсом, активно вовлекаемым в экономическое развитие. Комплексная оценка инновационного потенциала должна охватывать ресурсы, задействованные на всех этапах инновационного процесса, и не должна быть ограничена показателями стадии производства и распространения инноваций.

При диагностическом подходе к оценке инновационного потенциала охватывается предприятие в целом. Оценка внутренней составляющей системы определяется относительно аналогичных систем, т.е. предприятий-конкурентов. Следовательно, в данном случае сферой стратегического анализа является анализ конкурентных позиций предприятия. Для этого могут быть использованы как аналитические модели (SWOT-анализ), так и модели конкурентного анализа (стратегического менеджмента и маркетинга).



Рис.1 Обзор инновационно активного сектора экономики

Оценка инновационного потенциала по предлагаемым показателям, характеризующим основные ресурсы предприятий, используемые в инновационной деятельности, будет не объективной без оценки эффективности их использования. Иначе говоря, наличие у предприятий ресурсов даже самого высокого качества и в необходимом количестве еще не означает, что предприятия в полной мере используют имеющийся инновационный потенциал.

Подход к комплексной оценке инновационного потенциала, на мой взгляд, должен исходить из того, что целью создания и накопления необходимых ресурсов для предприятий, осуществляющих внедрение инноваций, является, во-первых, возможность создавать инновации на регулярной основе, во-вторых, получение прибыли от реализации инновационной продукции. Таким образом, в систему показателей, оценивающих инновационный потенциал предприятий, должны быть включены показатели результативности и эффективности инновационной деятельности. Необходимой основой такого участия является взаимосвязь и последовательность этапов инновационного цикла, так как в процессе инновационной деятельности заложен механизм стимулирования инновационной активности экономических субъектов.

Республика Узбекистан располагает существенным сравнительным преимуществом, которое заключается в том, что достигнутое развитие отраслей с высокой добавленной стоимостью происходит не только за счет общего состояния технологии или промышленности, но и за счет наличия фактического качественного человеческого капитала. Принадлежащей экономической и правовой поддержке государства, существующий научный сектор способен осуществлять производство продукции, которое было бы выгодным и направлено на обеспечение экономической безопасности страны. В Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах определены конкретные задачи по развитию инновационного потенциала промышленных предприятий страны

В Узбекистане созданы и действуют мощные, а в ряде случаев уникальные промышленные предприятия, представляющее практически все отрасли экономики – от тяжелой до легкой промышленности, от переработки сельскохозяйственной продукции до наукоемких производств. Они в своей деятельности используют все известные факторы производства – землю, природные и трудовые ресурсы, технику и технологию, инвестиции, современную информационную систему, которых современная наука называет производственным потенциалом или национальным богатством страны. Это богатство или потенциал, как известно, создается трудом многих поколений, усилиями всего общества.

Задача предприятий заключается в бережном отношении и эффективном использовании этого богатства. Любое отклонение от этого принципа хозяйствования – прямой путь к расточительству, бесхозяйственности и снижению эффективности общественного производства. И предприятие здесь – не исключение. Современный этап экономического и социального развития Узбекистана характеризуется усилением конкуренции между предприятиями, одним из главных инструментов которой являются цена и качество продукции. При этом конкурентное преимущество предприятия в преобладающей части обуславливается достаточным разнообразием предлагаемых им видов продукции и услуг. Поэтому разработка методического подхода к формированию оптимальной структуры производства, позволяющей предприятию использовать конкурентные преимущества по производству и реализации, представляет большой теоретический и практический интерес.

Проводимые в Республике Узбекистан структурные реформы направлены на скорейшее развитие промышленного сектора экономики. Однако расчёты и проведённые исследования показывают, что промышленность республики развивается в основном экстенсивным путём. Но, исходя из зарубежного опыта, развитие промышленности чаще происходит интенсивным путём, т.е. развитие обеспечивается внедрением инноваций. Стоимость валовой промышленной продукции Республики Узбекистан с 2000 по 2017 годы постоянно росла. В 2017 году по сравнению с 2000 годом она увеличилась на 140692,8 млрд. сум. или в 18,3 раза. Начиная с 2018 года наблюдается ускорение роста. Это произошло по причине привлечения большого объёма инвестиций в отрасль на основе программ перспективного развития промышленного сектора, отмеченные задачами Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития страны в 2017-2021 годах, введение в строй новых производственных объектов и др.

На этом этапе значительным преимуществом для любого предприятия является внедрение и использование инноваций в создании и предложении инновационных продуктов. Именно эти стороны деятельности, на наш взгляд, способны сформировать у потребителя новую ценность по отношению к

продукции, что приводит к росту конкурентного положения предприятия на рынке.

Поскольку нам необходимо вести плановую деятельность по обеспечению инновационности предприятия, то перед нами неизбежно возникает задача систематизации этой деятельности. Как мы уже выяснили, среди принципов организации таковой деятельности существенное место занимает системность. На практике это означает, что обязательно должен существовать и применяться инструмент, позволяющий управлять инновационным процессом. За годы независимости структура промышленного производства Узбекистана изменялась в соответствии с требованиями рыночной экономики, усилилась ее прогрессивность, что выразилась в ускоренном развитии базовых отраслей, определяющих, научно-технический прогресс и быстрееший перевод экономики на рельсы модернизации и обновления. 2020 год был объявлен в нашей стране «Годом науки, просвещения и развития цифровой экономики».

Импульсом в сфере цифровизации послужило подписание Президентом Республики Узбекистан Ш.Мирзиёевым Указа «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по ее эффективной реализации» от 5 октября 2020 года, которым определён успешный переход на цифровую экономику с учетом современных реалий. Сегодня доля цифровой экономики в ВВП в стране составляет 2,2 %. Принятие Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и «дорожной карты» по ее реализации в 2020- 2022 годах создали, прежде всего правовую базу для перехода на цифровую экономику В республике предусмотрено организация 700 информационных систем, причём 30 % из них с подключением к «Электронному правительству». Разработана программа внедрения 104 проектов в рамках «Электронного правительства» на сумму 1,3 трлн. сум., 87 проектов в реальном секторе экономики на сумму 5,3 трлн. сум., 35 проектов в сфере телекоммуникаций на сумму 15,1 трлн. сум., 18 проектов по ИТ-паркам и 24 проекта в агросекторе.

Shuningdek, o’smir stress bilan reaksiyaga kirishmaguniga qadar hayotiy muammoni yengish sifatida qarab bo’lmaydi. “Koping strategiyasi” tushunchasi

jarayon resurslarini boshqarish sifatida ham keng tahlil qilinadi. Taxminlarga ko'ra hayotiy murakkabliklarni bartaraf etish mohiyatan shaxs resurslarini safarbar etish orqali amalga oshiriladi. Koping strategiya va uning usullari himoya mexanizmlaridan farqlanganda konstruktiv faol zarurat nazarda tutiladi va vaziyat orqali yoqimsizliklardan chetlashishga harakatdir. Psixologiyada kopingning predmeti mavjud bo'lib, u maxsus tadqiqot hududida insondagi emotsional mexanizm va rasional regulyatsiyani o'rganishda o'zining maqsadli optimal xulq-atvoriga ko'ra hayotiy holatlarni o'zining maqsadlariga muvofiq qayta qurishni amalga oshiradi.

O'smirning stressli vaziyatlardagi koping xulq-atvori ma'lum darajada stressli vaziyatlarda javob reaksiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Inson hayoti va faoliyatidagi ekstremal sharoitlar ta'siri ostida rivojlanadigan eng xarakterli emotsional holat bu stressdir. Stress o'z tabiatiga ko'ra murakkab bo'lib, shaxslilik, psixofiziologik, va ijtimoiy jabhalarga egadir. stressli vaziyatlarga qarshilik ko'rsatishning samarali strategiyalarini izlashga yo'naltirilgan tadqiqotlar bugungi kunda o'ta dolzarb hisoblanadi. Stressli vaziyatlarni muvaffaqiyatli yengish va uning salbiy ta'sirini minimum darajasiga olib tushish har bir insonning muhim ko'nikmalaridan biri deb e'tirof etiladi. Hozirgi davrda o'smirlarni emotsional holatlarini o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus oldi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muhim nuqtai-nazarning shakllanmaganligi, hissiyotlilik, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur. Fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotgani, ommaviy axborot ko'lamining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasini ko'tarilgani, o'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan yetarli darajada xabardorligi o'smir shaxsi rivojlanishida katta o'zgarishlar yuz berayotganidan dalolatdir. O'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi, oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani kabi omillar o'smirlar muammosiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani, o'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani o'smir shaxsi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan nafaqat aqliy faoliyatiga balki, emotsional holatlarida ham o'zgarishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatlarda, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Uning o'z qadr-qimmatini haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik xatti-

harakatining ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar, nizolar kelib chiqadi.

Shunday qilib, xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ijobiy sifatlar, ehtiyojlar va intilishlar har bir yoshda, jumladan, ma'lum darajada yoldan ozgan o'smirda ham bo'ladi. O'smirlar hamma narsani bilishga qiziqadilar. Ko'pchilik o'smirlar boshqalardan yomonroq bo'lishni xohlamaydilar va o'z muhitida ko'zga tashlanib turishga hamda boshqalardan nimalar bilandir farq qilishga intiladilar. O'smirlarning hammasi g'ayratli va faoldirlar, biroq, o'zlarining kuch-quvvatlarini qayoqqa yo'naltirishni hamma vaqt ham bilavermaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akramova.G.S.- "Yosh psixologiyasi" – 2015 y.
2. Karimova .V.-"Oila psixologiyasi"-Toshkent 2017-yil.
3. Qodirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarining shakllanishi.-Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2017.
4. 4.To'ymurodovna, I. D. (2021). Specific psychological aspects of parental cooperation in child rearing. Researchjet journal of analysis and inventions, 2(04), 75-80.
5. 5.to'ymurodovna, i. D. (2021). Specific psychological aspects of parental cooperation in child rearing. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(04), 75-80.

CHOR ROSSIYASINING O`RTA OSIYOGA BOSQINI, YOXUD O`ZBEK XONLIKLARIDAGI JARAYONLARI HAMID ZIYOYEV QARASHLARIDA

F.U. Temirov,
BuxDU dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
A.I. Hasanov
BuxDU, 2-bosqich magistranti
a.i.hasanov@buxdu.uz.

Annotatsiya: Ushbu Maqola XIX asrning 40-yillaridan to XIX asrning 80-yillarigacha bo`lgan davrda Chor Rossiyasining Turkiston o`lkasini umuman olganda

utun O`lkasini zo`r bilan egallab olinishi, shafqatsizligi, zulmi va O`zbek xonliklarining Chor rossiyasi istibdodiga qarshi olib borgan mardonavor kurashlari aks ettirilgan .

Kalit so`zlar: Buxoro, Xiva va Qo`qon xonliklari, Chorizm, chor hukumati, Perovski, Istehkom, harbiy qal`asi, Oqmachit.

Mavzuning dolzarbligi. Ko`pchilik tarixchi olimlar Chor Rossiyasi bosqini arafasida O`zbek xonliklari birlasha olishmadi degan fikrni ilgari surishadi . Lekin Akademik Hamid Ziyoyev bunday fikrga qo`shilmaydi .Chunki O`zbek xonliklarining chet ellar bilan jumladan, Angliya va Turkiya bilan diplomatic aloqalar o`rnatganligi haqida chet el arxivlarida ma`lumotlar uchraydi. Tarixning bunday tomonlarini o`rganish albatta ahamiyatlidir.

Mavzuning tahlil. XVI asr boshlarida temuriylar davlati yemirilganidan to XIX-asrning 60-70-yillarigacha O`rta Osiyoda uchta — Buxoro, Xiva va Qo`qon xonliklari hukm surdi. Bu orada O`rta Osiyo Afg`oniston, Hindiston, Arabiston va Xitoy bilan qadimiy siyosiy-iqtisodiy aloqalarini davom ettiraverdi. Vaqt o`tgan sari Rossiya bilan bunday aloqalari kuchayib bordi. Chorizm XVI-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Ashtarxon, Qozon, Sibir va Qrim xonliklarini bosib olgach, rus davlati O`rta Osiyo va Qozog`istonga qo`shni bo`lib qoldi. Natijada rus davlati o`zbek xonliklari bilan bevosita barcha sohalarda munosabatga kirishish imkonini qo`lga kiritdi. U o`z qaramidagi chet o`lkalarning gazlama, kiyim-kechak va boshqa turli-tuman mollarga bo`lgan ehtiyojini qondirish maqsadida savdoni rivojlantirishga qaratilgan muhim choralarni amalga oshira bordi.

O`z navbatida o`zbek xonliklari Sibir, Volga va Orol bo`yida yashovchi xalqlar bilan tijorat ishlarini kuchaytirishdan manfaatdor edilar. Chunki u erlarda o`zbek mollariga talab katta edi. Bu esa har uchala xonlikda hunarmandchilik, qishloq xo`jaligi rivojiga ijobiy ta`sir ko`rsatdi. Rus davlati birmuncha ilg`or va qudratli bo`lganligi uchun o`zining siyosiy-iqtisodiy rejalarini ustalik bilan ro`yobga chiqara bordi. U savdo-sotiqni, chegara xavfsizligini ta`minlash bayrog`I ostida asta-sekin Qozog`istonning ichki tomoniga siljiy boshladi. Bunda, 1731 yilda Kichik juz, 1731—1740 yillarda esa Katta juz qozoqlarining aksariyati rus davlatining tobeligiga o`tishi juda qo`l keldi. Xuddi shunday bo`lishini bir zamonlar Pyotr I orzu qilgan edi. «Sharq bilan aloqada, — degan edi u, — Qozog`iston tasarrufi kalit va darvoza hisoblanadi. Shuning uchun millionlab so`m sarflansa ham Qozog`istonni bo`ysindirish yoki hech bo`lmasa u erda Rossiya ta`sirini o`rnatish zarurdir».

Shu nuqtayi nazardan rus davlati Qozog`istonda ko`plab shahar va qishloqlar barpo etdi. Masalan, Semipalatinsk, Petropavlovsk, Usti-Kamenogorsk, Orenburg, Troisk va boshqalar ana shu siraga kiradi. XVIII asrda Qozog`istonda 46 ta harbiy qal`a va 96 kichik qal`alar qurilgan edi. Ruslar egallagan joylarda ovrupocha turarjoylar, savdo markazlari, korxonalar va kon sanoati vujudga keldi. Pirovardida ular rus hukumatining o`zbek xonliklariga harbiy yurish qilishida muhim tayanch vazifasini o`tadi. O`zbek xonliklarini zabt etish niyati ochiqdan-ochiq Pyotr I davrida boshlangan edi.

1717-yili A. Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida yaxshi qurollangan, uch yarim mingdan ortiq askarlik qo'shinini Xivani bostirishga yuborgan, biroq badniyat qo'shin Xiva xonligi tomonidan tor-mor qilingan edi. 1830 yili Orenburg general-gubernatori Perovskiy qo'mondonligidagi qo'shin Xiva xonligini bosib olish uchun yo'lga chiqadi. Ammo istilochilar safardagi og'ir sharoitga bardosh berolmay orqaga qaytgan edilar. XIX asrning o'rtalaridan boshlab chor hukumati o'zbek xonliklari tasarrufidagi joylarni bosib olishga kirishadi. Chunonchi, 1847 yili Sirdaryoning Orolga quyilish joyi egallanib, Orol harbiy qal'asi barpo etiladi. Bu vaqtlarda Oq machit (Qizil O'rda), Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Pishpek, To'qmoq va boshqa mavzelarda Qo'qon xonligining harbiy istehkomlari mavjud edi. 1852 yili chor qo'shini Oqmachitga hujum qiladi, lekin uni qo'lga kiritolmaydi. 1853 yilda general Perovskiy boshchiligidagi ikki ming askardan ortiq qo'shin yana Oqmachitga hujum uyushtiradi.

Istehkom mudofaachilari general Perovskiyning taslim bo'lish haqidagi taklifiga «Bizlar bir dona porox va ko'chada bir kesak qolguncha, hamma qurollarimiz tamoman sinib bitguncha kurashamiz», deb javob qaytaradi[2]. Darhaqiqat, general Perovskiyning o'zi keyinchalik istehkom himoyachilari oxirgi imkonlariga qadar qahramonona jang qilganini tan oladi. 22 kunlik qurshov va jangdan so'ng chor askarlari istehkomni tor-mor etishga muvaffaq bo'lganlar. Qal'a himoyachilaridan bor-yo'g'I 74 kishi tirik qolgan, xolos. Chor qo'shinlaridan esa 25 kishi halokatga uchragan va 46 kishi yarador qilingan. Istehkom o'rnida «Perovskiy forti» degan nom bilan rus harbiy qal'asi bunyod etildi. Oqmachitdagi mag'lubiyat Qo'qon xonligini qattiq tashvishga 520 ikipe. Darhol Toshkentda kuch to'planib, hokim Sabdalxo'ja boshchiligida 8 ming askarlik qo'shin va ko'ngillilar Oqmachitni egallash uchun yo'lga chiqadi. Qirg'in-barot jangdan so'ng ular 192 kishini yo'qotadi va yaradorlarni 92 tuyaga ortib ortga chekinadilar. 1853-yilning dekabri oyida 13 ming kishidan iborat qo'shin Yoqubbek qo'mondonligida Oqmachitga kelib dushman bilan to'qnashadi. Natijada yurt himoyachilaridan ikki mingga yaqin kishi o'ldiriladi va yarador qilinadi. Chor qo'shinlaridan 55 kishi nobud bo'ladi. Biroq, bunday ketma-ket mag'lubiyatlar umidsizlikka olib kelmadi.

1855-yil yanvarida 1500 kishilik qo'shin va ko'ngilli qasoschilar yana Oqmachitga o'tlanadi, lekin ular dushman saflariga yangi kuch qo'shilganligini eshitib, orqaga qaytadilar. 1860-yilda Pishpekda ham dushman qo'shini bilan to'qnashuv bo'ladi. Bu joyni egallash uchun chor qo'shinlari 954 ta snaryad va 13 mingga yaqin o'q otganlari ma'lum. Himoyachilardan ancha kishi o'ldiriladi va yarador qilinadi. Shu yili To'qmoq qal'asi ham chor qo'shini tomonidan zabt etiladi, bu hol butun xonlikni katta tashvishga 520 ikipe. O'zbek, qozoq va qirg'izlar Toshkent hokimi Qanaotshoh boshchiligida urushga o'tlanishadi. Ularning umumiy soni 20 mingga borar edi. Pishpek ostonasida har ikki tomon o'rtasida qonli to'qnashuv yuz berib, himoyachilar qahramonona jang qiladilar, Mudofaachilarga qarshi dushman tomonidan 2051 ta snaryad, 31879 ta o'q va 63 ta to'p o'qi otilgan. Bu jangda Qo'qon qo'shinlaridan va olomondan 1500 kishi o'ldiriladi va ko'pi yaralanadi. Dushman askarlaridan atigi 13

kishi o'ldiriladi va 29 kishi jarohatlanadi. 574 himoyachi asirlikka olinadi. Shuningdek, istehkomda 82 savdogar, 92 ayol va bolalar 521ikiped. Chor qo'shinlari 1864-yil may oyida Avliyoota ostonasida 1500 kishilik Qo'qon qo'shinlari va xalq qasoskorlari bilan yana to'qnashadi. Bu safar ham himoyachilar mag'lubiyat alamini tortadilar: ulardan 307 kishi o'ldirilib, 390 tasi yarador bo'lgan edi. 1864-yilning iyuni oyida Turkistonda ham chor hukumati o'z hukmronligini o'rnatadi. Bu suronli jangda mahalliy xalq vakillaridan yuzlab kishi halokatga uchraydi va jarohat topadi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, chor qo'mondoni agar shahar taslim bo'lmasa, Ahmad Yassaviy maqbarasiga to'p otilishini ma'lum qilgan. Shundan keyingina himoyachilar urushni to'xtatishga majbur bo'ladilar.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, boshqa olimlarning fikridan farqli ravishda, Hamid Ziyoyev o'zining ilmiy izlanishlarida o'zbek xonliklarining Chor Rossiyasiga qarshi kurashlari biroz bo'lsada ichki birlashuvlar bilan birga amalga oshib 521ikiped.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Зияев. Х. Волга ва Урал буйларидаги ўзбеклар. –Т.: Фан, 1963, 40-6.
2. Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи вахукмронлигига қарши кураш. –Т.: Шарқ, 1998.-480 б.
3. Зияев. Х. Т ошкентнинг Россияга қўшиб олинishi. –Т.: Фан, 1967, 47 б.
4. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – 386 б.
5. Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи вахукмронлигига қарши кураш. –Т.: Шарқ, 1998.-480 б.
6. Зияев. Х. Т ошкентнинг Россияга қўшиб олинishi. –Т.: Фан, 1967, 47 б.
7. Муҳаммаджанов Р. Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.-Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси, 1975. – 224 б
8. www.ziyonet.uz;
9. www.wikipedia.ru;

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON HAMJAMIYATIGA QO'SHILISHI HUQUQIY POYDEVORINI QO'YILISHI

A.G'.Aslonov
BuxDU 2-bosqich magistranti
a.g.aslonov@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida jahon hamjamiyatiga a'zo bo'lishi, xorijiy xalqaro tashkilotlarga teng huquqli subyekt sifatida qo'shilishi kabi omillar adabiyotlar tahlili orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Jahon hamjamiyati, xalqaro hamkorlik, mintaqaviy hamkorlik, jahon xo'jaligi, globallashuv, islohot, diplomatiya, iqtisodiy hamkorlik.

Asosiy qism. Ma'lumki, xalqaro munosabatlar, geosiyosat, diplomatiya singari fanlar mamlakatimizda asta-sekin rivojlanib borayotgan yangi yo'nalishlar qatoriga kiradi. O'zbekiston xalqaro maydonga dalil qadamlar bilan kirib borib va dunyodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning to'la huquqli sub'yekti sifatida faol ishtirok etayotgan mamlakatlardan biriga aylandi. Vaholanki, bu jarayonni xalqaro munosabatlar va diplomatiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbekiston milliy mustaqil, boshqariladigan bozor munosabatlariga asoslangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan ekan, eng avvalo, o'z mustaqilligini saqlash va mustahkamlash, davlatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash uchun dunyo hamjamiyati, xalqaro tashkilotlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan davlatlari bilan aloqalar olib borishi zarur bo'ladi. O'zbekiston hozirgi kunda dunyo hamjamiyatida o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lib, dunyoda yuz berayotgan xalqaro siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etmoqda va bu jarayonlarga o'z munosabatini bildirmoqda. Bu holat O'zbekistonning dunyo miqyosida har tomonlama keng va mustahkam diplomatik munosabatlarga kirishganligidan dalolat beradi.

O'zbek diplomatiyasining asosiy prinsiplari va strategik yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, huquqiy hujjatlarida, davlatimiz rahbarining xalqaro minbarlarda turib so'zlagan nutqlarida va asarlarida o'z aksini topgan. O'zbekiston diplomatiyasining ayrim sohalari alohida tadqiqot sifatida o'rganilgan bo'lishi mumkin, lekin o'z qiziqishlarimiz hamda O'zbekistonning eng yangi tarixining dolzarb muammolarini o'rganish nuqtai nazaridan kelib chiqib, O'zbekiston diplomatiyasi va uning dunyo hamjamiyati hamda davlatlari o'rtasidagi o'rmini tadqiqotimiz ob'yekti qilib oldik.

O'zbekistonning dunyo hamjamiyati va davlatlari bilan to'laqonli diplomatik munosabatlarga kirishishi, asosan, 1991 yildan, ya'ni Vatanimiz istiqlolga erishgan yillardan boshlandi. O'zbekiston tashqi siyosati tez orada dunyoning rivojlangan davlatlari va nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan "tasdiqlash diplomatiyasi" deb e'tirof etildi. Bunday baho o'z mohiyatiga ega bo'lib, vujudga kelgan muammolarni tizimli va bosqichma-bosqich hal etishdir. Diplomatik maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishda O'zbekiston, avvalo, "o'zbek modeli", mentalitetining hayotiy milliy manfaatlaridan kelib chiqadi. Shundan kelib chiqib hozirda O'zbekiston 100 dan ziyod xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etmoqda.

O'zbekiston o'z tashqi siyosatini respublika Tashqi ishlar vazirligi va o'zining xorijdagi vakolatxonalari orqali amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi

iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi hamda mamlakatdagi ayrim xalqaro tashkilot, kengash va jamiyatlar O'zbekistonning tashqi aloqalarida o'z vakolatlari doirasida masalalarni hal etishga ko'maklashadi.

Tashqi ishlar vazirligi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, mamlakat Prezidenti farmonlari, ko'rsatmalari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va o'z Nizomiga asoslanadi. Uning asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti qat'iyatini, mamlakat Prezidentining tashqi siyosat sohasidagi yo'lini hayotga tadbiq etish, xorijiy davlatlar bilan munosabatlarda, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O'zbekistonning manfaatlari va uning fuqarolari huquqlarini himoya qilishdan iboratdir.

O'zbekiston tashqi siyosatining hozirgi zamon talablari darajasida olib borilishida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarori (1992-yil 25-may), birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni (1994-yil 25-fevral) hamda shu farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori (1994-yil 16-mart) alohida ahamiyat kasb etgan edi. Ushbu hujjatlarda Tashqi ishlar vazirligining vazifalari aniq belgilangan. Ularda qayd etilishicha, Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining strategiyasi, uning tashqi siyosiy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarish masalalari, shuningdek, davlat xalqaro faoliyatining umumiy muammolari bo'yicha takliflar ishlab chiqadi. Tashqi ishlar vazirligi xalqaro aloqalarni rivojlantirish borasida davlat idoralarining ishini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi, respublika idoralari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining milliy davlat manfaatlarini, shuningdek, uning chet ellardagi fuqarolari huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Shuningdek, respublika hududida xorijiy vakolatxonalar va xalqaro tashkilotlarning diplomatik hamda konsullik daxlsizligiga rioya etish uchun shart-sharoit yaratadi va xalqaro huquq normalariga muvofiq ularga o'z vazifalarini bajarishlarida ko'maklashadi. Mana shu vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi boshqa mamlakatlarning tegishli davlat idoralari hamda tashqi siyosat muassasalari bilan, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan belgilangan tartibda muzokaralar olib boradi, shartnoma va bitimlar tuzadi. Bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlariga binoan, tashqi siyosiy faoliyatga taalluqli masalalar bo'yicha qonun hujjatlarining loyihalarini ishlab chiqadi, respublika qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga oid takliflarni tayyorlaydi, shuningdek, Tashqi ishlar vazirligi muassasalarining faoliyatini takomillashtirish masalalari bo'yicha takliflar ishlab chiqib, ularni kun tartibiga kiritadi

Xulosa. Yuqoridagi omillar mamlakatimizda ichki va tashqi siyosat borasida mustahkam huquqiy poydevor yaratilganligini, respublikamizning hozirgi kundagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy holati bu qonunlarning naqadar hayotiyliigi ko'rsatadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. Тошкент. “Академия”. 2005.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2006. Т. 6.
3. <http://www.mfa.uz>

TALABALAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH

*N.S. Ibragimov,
BuxDU professori (DSc),
N.U. Axrorova,*

“Ipak yo'li” xalqaro turizm va madaniy meros universiteti doktoranti.


Annotatsiya: Talabalar turizmi sayyohlik sanoatining o'sib borayotgan segmenti bo'lib, yoshlar ko'proq chet elda ta'lim va madaniy tajribalarni izlamoqda. Talaba sayohatchilarni jalb qiladigan va ularga xizmat ko'rsatadigan hududlar daromadli bozorga kirish va sodiq mijozlar bazasini yaratish imkoniyatiga ega. Ushbu maqolada biz talabalar turizmi tendensiyasidan foydalanish uchun maqsadli marketing strategiyalarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: talabalar turizmi, turistik yo'nalish, marketing, strategiya.

Talabalar turizmi bozorning o'sib borayotgan segmenti bo'lib, u yo'nalishlarga yosh sayohatchilarni jalb qilish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. Talaba turistlarning ehtiyojlari va afzalliklarini tushunib, destinatsiyalar ushbu muhim demografik holatga mos keladigan maqsadli marketing strategiyalarini ishlab chiqishi zarur bo'ladi. Talaba sayyohlar odatda yosh, kamxarajat qiladigan sayohatchilar bo'lib, ular haqiqiy va hayratlanarli tajribalarni izlaydilar. Ular ko'pincha yangi madaniyatlarni o'rganishga, yangi odamlar bilan tanishishga va turli xil turmush tarzini o'rganishga qiziqishadi. Talaba turistlar borish joyini tanlashda, ehtimol, *arzonligi, xavfsizligi, madaniy diqqatga sazovor joylari, transport imkoniyatlari* kabi omillarni hisobga olishadi.

Talabalar turizmidan foydalanishga qodir bo'lgan turistik destinatsiyalar bir qator imtiyozlarga ega bo'lishi mumkin, jumladan, daromadlarni ko'paytirish, ularning o'quv dasturlari va tadqiqotlarini ilgari surish, talabalarni yollash va saqlab qolish darajasini oshirish, jonli kampus hamjamiyatini yaratish va shu kabilar. Destinatsiyalar

quyidagi rasmda marketing strategiyalarini amalga oshirish orqali talaba sayyohlarni jalb qilishda boshqa destinatsiyalardan raqobatda ustun kelishlari mumkin (1-rasm):



1-rasm. Turistik destinatsiyalar uchun talabalar turizmini rivojlantiruvchi marketing strategiyalari. Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Targeting va segmentatsiya talaba sayyohlarini jalb qilmoqchi bo'lgan turistik destinatsiya marketologlari uchun hal qiluvchi strategiya sifatida paydo bo'ldi. Ushbu demografiyaning afzalliklari va xatti-harakatlarini tushunib, destinatsiyalar yosh sayohatchilarning o'ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirish uchun o'z takliflarini moslashtirishi mumkin. Bunda mahsulotni ishlab chiqish, narxlash,

rag'batlantirish va tarqatish kanallari talaba turistlar uchun jozibali tajriba yaratishning asosiy elementlari sifatida belgilanadi.

Talabalar turizmi ommalashib borar ekan, destinatsiyalar yosh sayohatchilarni qiziqtiradigan maqsadli marketing strategiyalarini amalga oshirish orqali ushbu tendensiyadan foydalanish uchun muhim imkoniyatlarga ega. Talaba sayohatchilarining afzalliklarini tushunish, talabalar uchun qulay takliflarni ishlab chiqish, raqamli marketing kanallaridan foydalanish, ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish va qo'llab-quvvatlash va resurslarni taqdim etish orqali turistik destinatsiyalar noyob va boyituvchi sayohat tajribasini izlayotgan talabalarning sodiq mijozlar bazasini jalb qilishi va saqlab qolishi mumkin. Talabalar turizm bozoriga sarmoya kiritib, turistik destinatsiyalar unutilmas va o'zgaruvchan sarguzashtlarni qidirayotgan yosh sayohatchilar uchun eng yaxshi tanlov sifatida o'zini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Talaba turistlarning ehtiyojlari va afzalliklarini tushunish va maqsadli marketing strategiyalarini amalga oshirish orqali destinatsiyalar ushbu o'sib borayotgan bozor segmentidan unumli foydalanishlari mumkin. Arzon va qulay variantlarni taklif qilish, talabalar uchun qulay tadbirlar va tadbirlarni targ'ib qilish va talabalar tashkilotlari bilan hamkorlik qilish orqali ko'proq talaba turistlarini jalb qilish va mahalliy iqtisodni yanada oshirish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akhrorova, N. (2023). THE ROLE OF INTERNATIONAL BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH TOURISM AND TRAVEL. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 34(34).
2. Ibragimov, N. (2021). Methods of determination of tourism brand competitiveness. *Journal of Management Value and Ethics*, 11(1), 83-89.
3. Akhrorova, N. U. (2022). Swot Analysis in Youth Tourism Development Strategies for Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(12), 26-33.
4. Axrorova, N. (2021). The Conceptual Clarifications Of Youth Travel And Tourism In The Case Of Uzbekistan. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 8(8).
5. Axrorova, N. (2023). Geoaxborot tizimlari orqali sayyohlar harakatlanishini o'rganishda xorij tajribasi (Tasmaniya oroli misolida). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 33(33).
6. Axrorova, N. (2023). TA'LIM SIFATINI YAXSHILASHDA XALQARO KREDIT MOBILIGINING ROLI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 33(33).

7. Ibragimov, N. S. (2019). METHODS OF DETERMINATION OF TOURISM BRAND COMPETITIVENESS AND WAYS OF ITS SUSTAINABLE DEVELOPMENT. *Economics and Innovative Technologies*, 2019(2), 2.
8. Sayfullayeva, M. (2023). Digitalisation And Sustainable Tourism: Enhanced Benefits. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 35(35).
9. Sayfullayeva, M. (2023). Turizmning kelajak trendi: barqaror turizmga ehtiyoj. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 38(38).
10. Sayfullayeva, M. S. (2023). SUSTAINABLE TOURISM ON A GLOBAL EXPERIENCE: LEADER COUNTRIES AND THEIR STRATEGY. *Journal of new century innovations*, 31(1), 108-115.
11. Uktamovna, A. N. (2023). THE DIFFERENCES AND CHARACTERISTICS OF YOUNG TRAVELLERS. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(5).
12. Uktamovna, A. N. (2023). THE FOREIGN COUNTRIES' EXPERIENCE ON TOURISM AND YOUTH POLICY. *Journal of new century innovations*, 31(1), 125-131.

“BUXORO HAQIQATI (“BUXORONOMA”)” GAZETASIDA BUXORO TARIXI BILAN BOG’LIQ TARIXIY SHAXSLAR FAOLIYATI

A.A.Jo’raboyev,

Buxoro viloyati Qorako’l tumani

44-umumiy o’rta ta’lim maktabining Tarix fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatining davriy matbuot organi hisoblangan “Buxoronoma” gazetasida Buxorodan yetishib chiqqan tarixiy shaxslar faoliyati haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Matbuot, gazeta, maqola, qo’lyozma, risola, tarix, tilshunoslik.

Buxoro vohasi tarixini tadqiq qilib o’rganish tarixchilarning doimo diqqat markazida bo’lib kelgan. Tarixiy tadqiqot va izlanishlari natijasida vujudga kelgan ma’lumotlarni qator ilmiy risolalarda, monografiyalarda chop etish bilan birga davriy matbuotda ham nashr etib borganlar. Shunday matbuot nashrlaridan “Buxoro haqiqati (hozirda “Buxoronoma”)” gazetada tarixiy maqolalar barcha davrlarda uzluksizlik bilan atroflicha kengroq qilib yoritib borilgan. “Buxoro haqiqati (hozirda “Buxoronoma”)” gazeta sahifalaridagi tarixiy maqolalarni o’rganish, tahlil qilish jarayonida, biz ularni quyidagi ikki guruhga: rivojlangan o’rta asrlar va so’nggi o’rta asrlar tarixiga voha tarixida muhim o’rin tutib iz qoldirgan shaxslar haqida ma’lumot beruvchi yo’nalishlariga ajratishimiz mumkin.

Buxoro tarixiga oid N. Naimov tomonidan yozilgan “Muhammad Ja’far Narshaxiy” nomli maqolasida Sam’oniy “Kitob ul-ansab” asarida tabarruk

tarixnavisning to'la ismi sharifi Abu Bakr Nuhannad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Hattob ibn Sharik ekanligi va u buxorolik bo'lib bu muqaddas zaminda yashab o'tganligi naql etdi. Muhammad Narshaxiy asari qo'lyozma nusxalarida "Tarixi Narshaxiy", "Tarixi Buxoro", "Tahqiq ul-viloyat", ya'ni "Viloyat haqiqatini aniqlash", "Ahbori Buxoro", ya'ni "Buxoro xabarlari" kabi turli-tuman nomlar bilan yuritiladi.

Asar matni 1892-yili Ch.Shefer tomidan Parijda, 1904-yili Mullo Sulton tomonidan Buxoroda, 1939-yili mudarris Rizaviy tomonidan Tehronda, 1897-yili Likoshin tomonidan Toshkentda, 1954-yili R.Fray tomonidan Kembrijda turli tillarda nashr etildi.

Atoyeva va Qosimova ilmiy izlanishlari natijasida "Tegina begim Moh buyuk bobokolonimiz sohibqiron Amir Temurdek zotni dunyoga bergan tabbarruk onadir. Tegina begim Moh buxorolik "Sadr-ash" shariati mullosi Muhammad Ubaydullohnning qizi bo'lib, uning sohibqiron Amir Temurdek farzand tug'ishi bashorat qilingan. Naql qilinishicha, Mullo Ubaydulloh talabalarga saboq berib turgan kunlarning birida bir qalandar kelib: – "Taqsir, qizingiz Tegina begim Mohni kuyovga bering. Undan dunyoni tebratuvchi bir sohibqiron tug'ulgay", deb bashorat qiladi. Amir Temurning otasi Tarag'ay Muhammadga ham shunday bashorat ogoh bo'lgan.

Har safar onasining yurti - Buxoroyi Sharifga borganda otidan pastga tushib, onasini yod etib shaharga piyoda kirib borar ekan".

A.Xalilov ma'lumotlariga ko'ra, Qorako'l vohasi tarixda o'ziga xos mavqega ega qadimiy maskanlardan biri. Shu zaminda tug'ilib, o'sgan hamda o'z tafakkuri va zakovati bilan olis yurtlarda dunyo olimlarining e'tirofiga sazovor bo'lgan Muhammad ibn Salom Poykandiy, Yaxyo ibn Ja'far Poykandiy, Ali ibn Husayn ibn Osim Poykandiy (IX-X asrlar) kabi fiqhshunoslar, muhaddislar, Mavlono Qorako'liy, Mavlono Hisomi Qorako'liy kabi shoirlar (XV-XVI asrlar), Baykandiy (XI asr), Sulton Husayn Qorako'liy (XVI asr) singari sarkardalar nomi tarix zarvaraqlariga bitilgan.

Shayx Sulaymon Buxoriy 1821-yilda Qorako'lning Qunduz qishlog'ida tug'ilgan. Ota-onasi savodli kishilar bo'lganligi uchun u juda erta savod chiqardi. Buxoro madrasalarida ta'lim oldi, adabiyotga havas qo'ydi, "Naqshiy" taxallusi bilan she'rlar yozdi.

Shayx Sulaymon Buxoriy o'z sayohati davomida Eron, Afg'oniston, Turkiya, Hindiston va Xitoyda bo'ladi, bu mamlakatlar xalqlarining urf-odatlarini va madaniyatini bilan yaqindan tanishadi. 1847-yilda sayohatdan qaytgan olimni Buxoro amiri Nasrulloxon qabul qilib, u bilan safar taasurotlari xususida suhbatlashadi. Amir bu uchrashuvdan so'ng Sulaymon Buxoriyni Istanbuldagi "o'zbeklar takyasi"ga (muhojir o'zbeklar uyushmasiga) rais va amirlikning Turkiyadagi shehbenderi (elchisi) qilib tayinlaydi.

N.Husanovning "Shayx Sulaymon Buxoriyning hayoti va ijodi merosi" risolasida "Lug'ati chig'atoy va turki usmoniy" kitobining tuzilishi, manbalari, undagi so'zlarning izohlanish usullari, mazkur asarning o'zbek va jahon tilshunosligida tutgan o'rni haqida keng ma'lumotlar berilgan. Chunonchi, u Turkiya sultoni Abdulhamidning

yaqin maslahatchilaridan biri bo'lgan, sulton Yevropa davlatlari vakillari bilan muzokaralar olib borishda qatnashgan.

“Matbuotchi, tabib va jahongashta sayyoh” va “Mirzo Siroj ijodida iqtisodiy hayot” nomli maqolalarda quyidagicha: “To'liq nomi Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriy ibn hoji Mirzo Abdurauf Buxoroda mashhur sarrof savdogar hoji Abdurauf Mirzoxurd oilasida tavallud topganligi nemis va rus tillarini chuqur o'rganib yoshligidanoq Rossiya, Yevropa va Osiyo mamlakatlariga” sayohatga borganligi ma'lumotlar keltiriladi. Mirzo Sirojiddin jadidlarning fikriga qo'shilib, Buxoroni qoloqlikdan chiqarish uchun maktab, maorif ishlarini yevropacha usulda tashkil qiladi, xalqni ma'rifatga da'vat etadi va o'zi shu ishlarga bel bog'lab kirishadi.

Mirzo Sirojiddin Hakimning “Buxoroi sharif” va “Turon” gazetalaridagi maqolalarida mamlakatning iqtisodini ilmiy asosga qo'yib, fan-texnika yutuqlariga tayangan holda sanoat rivojlantirilsa, o'sha davlat qudratli saltanatga aylanadi, degan g'oyani ilgari surdi. U yozgan maqolalariga “M.S.” deb qisqa imzo chekkan.

N.Naimovning “Ahmad Donish” maqolasida “Ahmad Donish Shofirkon tumanining Permast arig'i bo'yidagi So'g'd qishlog'idan bo'lib dehqonchilik bilan shug'ullanishar edilar. Maqola muallifi qayd etishicha, Qori Nosir farzandini ham o'zi singari Qur'oni Karim bilimdoni qilib tarbiyalash niyatida ekanligi keltirib o'tilgan. Hali 30 yoshidayoq, u ilk marta Rossiyaga safar qilib Buxoro amirligi taraqqiyot sohasida Yevropa mamlakatlaridan naqadar oraqaga qolib iztirob chekdi. Shundan keyin 1869, 1873-yillarda qilgan takroriy safarlari natijasida rus hukmdorlari saroylaridagi hayot, davlatni boshqarish usullari bilan chuqur tanishdi, bir vaqtlar inson sivilizatsiyasining makonlaridan biri bo'lgan Buxoroi Sharifni qoloqlik botqog'idan chiqarish yo'llarini izladi. Shunday izlanishlari jarayonida u “Nodir voqealar” va “Buxoro amirlarining tarjimai hollari” asarlarini yaratdi. Sadridin Ayniy “Esdaliklar” asarida naql etishicha, “Ahmad Donish kamsuqum hayot kechirsada atrofiga doim adabiyot, san'at, ilm ahlini to'plab ular sharafiga ziyofatlar uyushtirar, o'zi bo'lsa bir chekkada o'tirib pinagini buzmay xattotligini davom ettirar edi”.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mehnatkash xalqning ozodligi, tenglik, do'stlik va birodarligi uchun, uning kelajak baxt-saodati uchun kurash olib borganliklari, serqirra faoliyatini inson baxt-saodatiga, uning kelajagiga bag'ishlashdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Naimov N. Muhammad Ja'far Narshaxiy // “Buxoro haqiqati” gazetasi, 1997-yil 27-avgust.
2. Atoyeva M. Qosimova N. Tegin Begim Moh // “Buxoro haqiqati” gazetasi, 1997-yil 22-yanvar.
3. Xalilov A. Qorako'llik jahongashta olim // “Buxoronoma” gazetasi-shanba “Buxoro yangiliklari” ilovasi, 2009-yil 17-oktabr.
4. Inoyatov S. Matbuotchi, tabib va jahongashta sayyoh // “Buxoronoma” gazetasi, 2020-yil 29-iyul.

5. Naimov N. Ahmad Donish // “Buxoronoma” gazetasi – shanba “Buxoro yangiliklari” ilovasi, 2000-yil 19-fevral.

FINANCIAL DEVELOPMENT AND ITS INFLUENCE ON INCOME INEQUALITY

A.A. Sharipov,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
a.a.sharipov@buxdu.uz.

Annotation: Since the ancient times, there had been difference between people’s wealth, there were emperors, pharaohs, aristocrats, and ordinary peasants. As the human race has become more intelligent and the countries have developed, many governments have been trying to improve inequality of wealth and incomes. Several factors were found as the cause of difference in income inequality such as economic growth, public transfers, progressive taxes, public spending, government size and financial development to name a few. In this paper the effect of financial development on different distributions of income is going to be studied as nowadays, income inequality and financial development is one of the mostly debated issue. In this paper the role of financial development in dynamics of income level in developing countries is going to be studied and we are going to try to find an answer for our research question which is “What is the role of financial development and its key determinants?” Controversy results can be found looking at the empirical research of economists. One on hand, making financial services more accessible to poor people , equal share of wealth distributions can be achieved, on the other hand it can deteriorate the inequality level.

Key word: wealth, income inequality, financial development, economic growth

According to the recent researches institutional quality plays vital role in capturing the relationship between financial development and income inequality. Institutional quality might be one of the driving factors of the nonlinearity between financial development and income inequality. In order to have an influence on income inequality financial development should reach certain level of institutional quality. With Poor quality of institution, financial development may neither ameliorate economic welfare nor shorten inequality gap due to the weak judicial protection for the poor (Chong and Gradstein 2007), existence of putrefaction and political interference. According to Rajan and Zingales (2003) in the poor institutional atmosphere, de jure political representation is dominated by de facto political effect which implies that greater financial development persuaded by direct controls can impact negatively on poor. Moreover, the ability of financial intermediaries can be weakened by inferior institutions, whereas strong institutions can create an atmosphere in which financial

development is able to reduce inequality, making the finance productive services accessible to the poor. Claessens and Perotti (2007) argues that uneven access political and contractual rights may lead to low provision of finance to the poor. Empirical evidence also proves the existence of threshold effect of institutional quality. For instance, Using instrumental variable method. Law and Tan (2014) also discovered the evidence supporting threshold effect. Conducting cross country analysis of 63 countries Barth et al. (2006) also explored that countries with well-developed institutions have more appropriate environment for competition of the bank with less restrictions.

Economic, legal and political quality of institutions is indeed of significant importance in terms of the factors that can influence income inequality due to its impact on accessibility of finance. Yet, there is a still gap since the previous researches paid attention on only banking sector development to assess development and added institutional quality in only in the frame of cross sectional studies. To eliminate this gap, in this study financial development is measured by 6 financial indicators including capital market and banking sector characteristics, and institutional quality is considered as control variable in the panel data.

Some other well - known theoretical papers such as Banerjee and Newman (1993) and Galor and Zeira (1993) identifies the linear negative relationship between financial development and income inequality. Banerjee and Newman (1993) analyzes the link between occupational choice and process of development and according to it, the pattern of occupational choice is determined by the initial distribution of wealth. To be precise, Because of the capital market imperfections, poor agents prefer working for a wage to self-employment, and wealthy agent become entrepreneurs who monitor workers. Since imperfect capital market provides limited amounts of money that can be borrowed by people. Consequently, occupations requiring high rate of investment remain unreachable for the poor who chooses to work for the rich. Galor and Zeira (1993) also supports the theory of Banerjee and Newman (1993). According to it individuals live to periods. They can either work as unskilled in both cases or invest in human capital in the former and work as a skilled in the latter period. It also states that wealth and equality are strongly correlated with each other e.g. countries with more income per capita have a low level of disparity, on the other hand countries with more equal distribution level of income grow faster and have a high income level in the long term.

Alternatively, another group of researchers support Kuznets hypothesis finding inverted U – shaped relationship between financial development and inequality. For instance, Greenwood and Jovanovic (1990) formed a model assuming a nonlinear between link between financial development and income disparity which means that income inequality grows up initially but it ends up going down and controlling itself on the later phases. It also illustrates that the wealthier are more likely to be benefited when financial development occurs, since only the rich are able to pay the fixed cost required to use financial intermediaries. Greenwood and Jovanovic (1990) explains that

making the financial services available increases returns and decreases the idiosyncratic risk as financial intermediaries diminishes the imperfections within the financial sector and improves the selection of projects, as a result, aggregate growth goes up and enables more people to use financial services and greater their returns which finally leads to lower level of income inequality.

LIST OF REFERENCE

1. Zielschot, M. (n.d.). Financial Development and Income Inequality: Differentiating between Income Definitions. *SSRN Electronic Journal*.
2. Park, D. and Sin, K. (n.d.). *Economic Growth, Financial Development, and Income Inequality*.
3. Jalilian, H., and Kirkpatrick, C., (2005). Does financial development contribute to
4. poverty reduction? *Journal of Development Studies*, 41, 636-656.
5. Law, S., Tan, H. and Azman-Saini, W. (2014). Financial Development and Income Inequality at Different Levels of Institutional Quality. *Emerging Markets Finance and Trade*, 50(s1), pp.21-33.
6. Jappelli, T., Pischke, J. and Souleles, N. (1998). ‘Testing for liquidity constraints in Euler equations with complementary data sources’, *Review of Economics and Statistics*, vol. 80(2), pp. 251-62.
7. Levine, R. (1997). “Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda,” *Journal of Economic Literature*, 35: 688-726.

1940-YILLARDA SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDAGI DINIY SIYOSATI

B.T.Xo'jayev,
BuxDU 2-bosqich magistranti
b.t.xojayev@buxdu.uz

XX asrning so'nggi o'n yilligi O'zbekiston tarixida yangi davrning boshlanganligi bilan xarakterlanadi. Mustaqillik yillarida jamiyatda tub burilishga sabab bo'luvchi voqealar sodir bo'ldi. Jumladan, din va diniy qadriyatlarga munosabat tubdan o'zgardi, haqiqiy ma'nodagi vijdon erkinligi qaror topdi. O'zbekiston Respublikasi hukumati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq diniy tashkilotlar bilan aloqalarni o'rnatdi va uzviy hamkorlikni ta'minlamoqda. Shu maqsadda 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil qilindi. Diniy tashkilotlarning manfaatlarini davlat siyosatida ifoda etish ushbu qo'mitaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Respublikada vijdon erkinligini joriy etilishi, aholining diniy marosim va urf-odatlarini ado etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ushbu maqsadda yangi masjid va madrasalar qurildi, eskilari esa ta'mirlandi. Musulmonlarning qutlug'

sanalari – Qurbon va Ramazon hayitlari kunlarini doimiy sur’atda bayram qilish va ushbu kunlarning dam olish kunlari deb e’lon qilinishi ham xalqning asriy orzu-umidlarni ro’yobga chiqardi va mustaqillikning ne’matlardan biri bo’ldi.

Diniy tashkilotlarning hukumat tomonidan hal qilinadigan masalalari bilan shug’ullanish uchun 1944-yil 9-avgustda O’zbekiston xalq Komissarlari Soveti farmoyishi bilan SSSR hukumatining qarori asosida respublika Diniy ishlar bo’yicha kengash vakili lavozimi tashkil qilindi¹⁶.

1944-yil 20-maydagi SSSR XKSning 919-qarori ijrosi sifatida tashkil etilgan O’zbekiston Kompartiyasi qoshidagi diniy ishlar kengashi vakilligi, 1945-1950-yillarda diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatini qattiq nazorat ostiga oldi. Kengash ishining bosh vazifasi sifatida O’rta Osiyo va Qozog’iston musulmonlari diniy boshqarmasi faoliyatini nazorat qilish, dindorlar tomonidan tushgan arizalarni ko’rib chiqish, ibodat qilinadigan masjid va madrasalarni ochish, ulardan hukumat ruhsati bilangina foydalanish, qayta ta’mirlesh ishlarini yo’lga qo’yish yoki belgilangan tartibda yaroqsiz holatga kelib qolgan masjidlarni buzib yuborish kabi ishlarni amalga oshirdi.

Diniy kengashning vakili joylarda viloyat ijroqo’mining bo’lim mudiri lavozimiga tenglashtirilib, ularga yuqori miqdorda oylik maoshi belgilash uchun O’zbekiston SSR Moliya xalq komissarligiga alohida topshiriq berilgan.

Ta’kidlangan yillarda respublika diniy ishlar kengashining vakilligi tomonidan amalga oshirilgan ommaviy-siyosiy ishlar hisoboti va qarorlarida “ateistik ishlar” yoki “dinga qarshi targ’ibot” masalalariga oid maxsus bir qarorlar qabul qilinmadi¹⁷.

Bu holat esa joylarda musulmon aholi faolligini oshirib, O’zbekiston shahar va qishloqlarida ruhsatsiz masjidlarni ochilishi, yangidan bunyod etish ishlariga kirishishni faollashtirdi. Hatto, ba’zi masjid imomlari tomonidan o’zboshimchalik bilan hayriyalar yig’ish, ruhsatsiz masjidlar bunyod etish ishlari tashkillashtirildi. Jumladan, Buxoro viloyati Ijroiya Qo’mitasining diniy ishlar kengashi vakili 1947-yil 4-aprelda Karmana tumani Ijroqo’miga yuborgan maxfiy xatida: “mavjud ma’lumotlarga qaraganda, tumanda qonundan tashqari ko’plab masjid va ibodatxonalar borligi ma’lum bo’ldi. Bularning o’zboshimchalik bilan faoliyat yuritishiga, qonundan tashqari diniy muassalar tiklanishiga va g’ayri rasmiy urf-odatlarini olib borilishiga qat’iy yo’l qo’yilmasin” degan mazmundagi talab qo’yiladi.

Manbalarda ma’lum qilinishicha, Qoraqalpog’iston ASSRdagi mas’ul din vakilining maoshi 1000 so’m, viloyatlardagi vakillarning maoshi esa 900 so’m, mashinistka uchun 300 so’m miqdorida ish haqi belgilangan. Ularga viloyat Ijroiya Qo’mitasi binosidan 2 ta alohida xona ajratilishiga ko’rsatma berilgan. Biroq urush sharoitida bu ko’rsatmalarga hamma joyda ham amal qilinmagan.

¹⁶ Ганиев Д. Атеизм ва дин. - Т.: Ўзбекистан, 1974. -Б. 24.

¹⁷ Салмонов А. Ўзбекистонда Совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати. – Т.: Тафаккур, 2015. – Б. 127.

Diniy kengashining viloyat vakillari lavozimiga tanlangan nomzod qat'iy tekshirilib, uni avvalo, Kommunistik partiya va Sovet davlatiga sadoqatini sinovdan o'tkazib ishga qabul qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Viloyatlarda ushbu ko'rsatmaga rioya qilmagan sovet rahbarlariga qat'iy chora-tadbirlar ko'rish belgilanadi.

Qoraqalpog'iston ASSR diniy ishlar kengashi vakili Allaniyozovning 1945-yil aprelda yozgan mahfiy hisobotida quyidagi mulohazalar mavjud: «Men 1944-yilning noyabrida ishga kirishdim, lekin hanuzgacha hizmat xonasiga ega emasman, bu masala mening tomonimdan Qoraqalpog'iston ASSR Xalq Komissarlar Sovetining raisi Seyitov oldiga qo'yilishiga qaramay, u hukumat binosidan 2 ta xona ajratilishini inkor qildi, shahar Soveti binosidan tashqarida xona ajratishini buyurdi. Lekin shahar Soveti ham bizga alohida xona ajratmadi. Bu haqda men Qoraqalpog'iston ASSR XKS raisiga bir necha marta murojaat qildim. Hizmatchi, qorovul, hisobchi yo'q, tarkib aniqlanmagan, barcha ishlarni bir o'zim bajarib kelmoqdaman. Bir so'z bilan aytganda ishlash imkoniyati mavjud emas. Yuqori tashkilot va idoralarning hizmat taklifi bilan 60 kilometr uzoqlikdagi Chimboy shahriga qatnashga, chekka tumanlarga borib kelishga to'g'ri kelmoqda. Kelajakda bunday sharoitda ishlab bo'lmaydi»¹⁸.

1944-yil iyulda SSSR XKS huzurida Diniy ishlar bo'yicha kengash tashkil qilingandan keyin masjid ochish uchun uning roziligini olish tartibi o'rnatildi. Yangi tartibga binoan, 1944-yil 9-avgustda tashkil kilingan O'zbekiston XKS huzuridagi Diniy ishlar bo'yicha kengashning vakili Ismoil Ibodov 6 ta masjidni ochishga ruxsat so'rab, barcha zarur hujjatlarni SSSR Diniy ishlar bo'yicha kengashga yuborgan. SSSR XKS huzuridagi Diniy ishlar bo'yicha Kengashning O'zbekiston bo'yicha vakili ochilishi nazoratda tutilgan xar bir masjid va uning hujjatlari to'g'risida o'zining xulosasini yozib jo'natgan.

SSSR XKSning 1944-yil 19-noyabrdagi "Dindorlarning ibodatxonalarini ochish tartibi to'g'risida"gi qarorida Diniy ishlar bo'yicha kengash vakili ro'yxatga olgan ibodatxona ochilgan hisoblanadi, deb ko'rsatilgan. Kengash ruxsatisiz ishlayotgan yoki mahfiy ochilgan masjidlar noqonuniy deb topilgan va yopilgan¹⁹.

1943-1950-yillarda dinga va diniy miuassasalarga berilgan bir qadar erkinlik tufayli, aytish mumkinki, sobiq ittifoqning musulmon aholi yashaydigan respublikalarida, jumladan O'zbekiston SSRda "diniy uyg'onish" ro'y bera boshladi. Ammo sovet hokimiyatining urush tufayli murakkab vaziyatda dinga qarshi kurashi vaqtinchalik chekingan edi. Sovet jamiyatida urushda vayron qilingan xo'jalikni tiklash (1946-1950-yy.) amalga oshishi bilan, hukumat o'zining "xudosizlik" uchun kurash jarayonini yangitdan boshlash bosqichiga kirdi.

¹⁸ Юсупов Р.М. Советлар даврида Ўзбекистонда masjidлар фаолиятининг чекланиши ва унинг оқибатлари // ФарДУ хабарлари. - Фарғона, 2007. - №2. - Б.58.

¹⁹ Юсупов Р.М. Советлар даврида Ўзбекистонда masjidлар фаолиятининг чекланиши ва унинг оқибатлари // ФарДУ хабарлари. - Фарғона, 2007. - №2. - Б.58.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING TARIXIY EVOLUTSIYASI

D.R. Naimov,
BuxDU 2-bosqich magistranti
naimovdostonbek48@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada XX asr birinchi choragi yakunidan boshlab vujudga kelgan ziddiyat va to'qnashuvlar hamda ularni oldini olishga qaratilgan harakatlar, shuningdek, xalqaro tashkilot sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotini tashkil etish yo'lidagi xalqaro harakatlar, shartnomalar va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavi va tashkilotning evolyutsiyasi yoritilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari, ularning tarkibiy bo'linmalari hamda faoliyat yuritish asoslari shuningdek keyingi o'rinlarda uning maqsadlari va ob'ektiv prinsiplari bilan tashkilotning turli organlari orqali misol keltirilib, qisqacha yakuniy mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Millatlar Ligasi, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik, xalqaro nizolar, iqtisodiy erkinlik, inson huquqlari, konferensiya, Ustav, Bosh Kotibitar, Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Vasiylik Kengashi, UNICEF, UNESCO, xalqaro tashkilot.

Abstract: The article describes the conflicts and conflicts that have arisen since the end of the first quarter of the 20th century, as well as efforts to prevent them, as well as international efforts to establish the United Nations as an international organization, treaties, the United Nations Charter and the evolution of the organization. The bodies of the United Nations, their structural divisions and the basis of their activities, as well as their goals and objective principles, are presented as an example through various bodies of the organization, and brief final comments are stated.

Keywords: League of Nations, international and regional security, international conflicts, economic freedom, human rights, conference, Charter, General Secretary, General Assembly, Security Council, Economic and Social Council, Trusteeship Council, UNICEF, UNESCO, international organization.

XX asr boshidanoq butun dunyo miqyosida sodir etilgan falokatli urush va ziddiyatlar dunyo hamjamiyatini urushdan qochish uchun xalqaro tashkilotga katta mablag' sarflashga undadi. Biroq, Birinchi Jahon urushi g'oliblarining dual-maxfiy ittifoqlari va hamkorlik qilmasliklari Ikkinchi Jahon urushi ehtimolini chetlab o'tmadi, natijada nafaqat urush poligoniga aylangan geografik makonlarda, balki butun dunyo bo'ylab, barcha insoniyat ro'baro' bo'lgan qirg'inbarot urushlar, iqtisodiy inqirozlar hamda mutassil davom etgan ocharchilik va qashshoqlik misli ko'rilmagan talofatlar sodir bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, hamkorlik va xalqaro xavfsizlik tamoyillari (Vudro Vilsonning 14-nuqta rejasi) ga asoslanib, 1919-yilda, Birinchi jahon urushi paytida, ikkinchi urushning oldini olish uchun tashkil etilgan Millatlar Ligasi yashirin shartnomalarsiz ochiq diplomatiya, urush va tinchlik davrida dengizlarda erkin

iqtisodiy savdo, teng savdo shartlari hamda barcha xalqlar o'rtasida qurollanishni qisqartirish bo'yicha xalqaro dasturlarni ilgari surgan bo'lsada, mazkur tarixiy fenomenon (voqea-hodisalar) ni oldini olishga qodir bo'lmadi.

Millatlar Ligasi ko'p sonli maqsadlar tufayli bir qancha asosiy maqsadlarga erisha olmadi, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik va manfaatlar samaralicha ta'minlanmadi. Bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti va xalqaro tartibga soluvchi organni tashkil etish uchun o'tkazilgan konferentsiyalar to'plamiga sabab bo'ldi. 1941-1944 yillar oralig'ida bir nechta konferentsiya bo'lib o'tdi. 1941-yil iyun oyida Buyuk Britaniya, Kanada, Chexoslovakiya, Avstraliya, Zelandiya, Janubiy Afrika hamda Belgiyadan surgun qilingan hukumatlar vakillari, Gretsiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Polsha, Yugoslaviya hukumatlari ishtirokida Buyuk Britaniya poytaxtidagi Sent Jeyms saroyida tuzilgan shartnomada "Tinchlikka daxl qilishning yagona haqiqiy asosi dunyodagi erkin odamlarning hamkorligidir" degan tamoyil birinchilikda muhokama qilingan edi.

Navbatdagi to'rtta individual deklaratsiyalar to'plamidan iborat Moskva deklaratsiyasining asosiy xususiyati shundaki, bu deklaratsiyalardan birinchisi Umumiy xavfsizlik to'g'risidagi deklaratsiya edi. To'rt a'zo davlat, xususan Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Sovet Ittifoqi va millatchi Xitoy tomonidan fashistik kuchlarning so'zsiz taslim bo'lishi va xalqaro hamjamiyada tinchlik, tenglik va barqarorlikni saqlashga asoslangan xalqaro tashkilot tuzish, xavfsizlikni ta'minlash asosiy muhokama masalasi bo'ldi. Keyingi ikkita deklaratsiyada mazkur Italiyada demokratik va teng huquqli hukumatni qayta tiklab, Gitler agressiyasi qurboni bo'lgan birinchi erkin mamlakat bo'lgan Avstriyaning ozod etilishiga kelishib oldilar.

1942-yil 1-yanvarda dunyo bo'ylab to'plangan 26 davlat vakillari o'zlarining hukumatlari nomidan urush olovini yoquvchi mamlakatlarga qarshi birgalikda kurashish hamda xalqaro xavfsizlikni taminlashga qaratilgan xalqaro chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida qabul qilingan "Birlashgan millatlar deklaratsiyasi" da Amerika Qo'shma Shtatlari prezidenti F.D.Ruzvelt tomonidan birinchi bor "Birlashgan Millatlar" atamasi ishlatilgan edi. Mazkur atamaning ishlatilishi xalqaro xavfsizlikni, geo-siyosiy maqsadlarni tinch yo'l orqali hal qilishga, dunyo xalqlari orasida tinchlik va osoyishtalikni, fuqaro huquqlarini, iqtisodik erkinlik va xavfsizlikni ta'minlashga qodir bo'lgan "siyosiy kuch" tashkilotga butun dunyo ehtiyoji borligini anglatar edi. Mazkur masala yuzasidan dunyo yetakchi mamlakatlari tomonidan 1944-yilning avgust-oktabr oylari davomida Dumbarton-Oks (AQSH)da BMT ustavi loyihasi ishlab chiqilib, uni tashkil etish bo'yicha takliflar AQSH ning San-Fransisko shahrida 1945-yilning 25-aprelidan 25-iyuniga qadar 50 mamlakat vakillari ishtirokidagi xalqaro tashkilot tuzish yuzasidan o'tkazilgan konferentsiya ayni shu maqsad sari qo'yingan ilk qadam bo'ldi.

BMT ning quyidag organlari mazkur maqsadlarga erishishda doimiy faol harakat olib bormoqda:

-BMT Bosh Assambleyasi – teng va suveren davlatlarning haqiqiy vakillik organi bo'lib, u Xavfsizlik Kengashining nodoiimiy a'zolarini saylash, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash a'zolarini saylash, BMT ning yangi a'zolarini qabul qilish, BMT Bosh Kotibiyatini tayinlash, tashkilot a'zolarining huquq va vakolatlarini cheklash, a'zolikdan chiqarish hamda byudjet va texnik-ma'muriy masalalarini qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan oliy organ;

-BMT Kotibiyati barcha organlar majlisi ishinitexnik jihatdan ta'minlash, hisobotlarini e'lon qilish va tarqatish, arxivlarini saqlash, tashkilotning rasmiy hujjatlari va axborot hujjatlari chiqarishni amalga oshiradi. BMT Bosh kotibiyati hozirda 16 ming kishidan ortiq xodimga ega bo'lib, xodimlari uch turkum: oliy ma'muriy mansabdor shaxslar; bosh kotib va uning o'rinbosarlari; mutaxassislar sinfining xalqaro mansabdor shaxslari; texnik xodimlardan iborat tarkibda ish olib boradi. Shuningdek, a'zo davlatlar tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarni ro'yxtdan o'tkazib, BMT faoliyati bo'yicha Bosh Assambleyaga doimiy hisobot tayyorlab beradi. Kotibiyat Siyosiy masalalar va Xavfsizlik Kengashi ishlari, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash ishlari, Vasiylik va o'z-o'zini boshqarmaydigan hududlar departamentlari hamda Nazorat boshqarmasi, Kadrlar boshqarmasi, Bosh Kotibning Ma'muriy idorasi, Ijtimoiy axborot boshqarmasi va BMT ning Jeneva bo'limidan iborat tarkibda ish olib boradi. BMT Bosh Kotibi tashkilot ma'muriyatining bosh mansabdor shaxsi bo'lib, uning vazifasi (Ustavga ko'ra) ma'muriy ijrochilik xarakteriga ega. Bosh Kotib Bosh Assambleya tomonidan, BMT Xavfsizlik Kengashi tavsiyasiga muvofiq, qayta saylanish imkoniyati bilan besh yillik muddatga saylanadi;

- Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash barcha iqtisodiy va ijtimoiy masalar bo'yicha Bosh Assambleya tavsiyalarini amalga oshiradigan, madaniyat, maorif, sog'liqni saqlash sohalarida tadqiqotlar o'tkazish, ma'ruzlar tuzish va xalqaro konferensiyalar chaqirish vakolatlarini amalga oshiradi. Kengashda: Sanoat taraqqiyoti qo'mitasi, Hukumatdan tashqari tashkilotlar qo'mitasi, Turar-joy masalasi, qurilish va rejalashtirish kabi doimiy qo'mitalar; Statistika komissiyasi, Aholi komissiyasi kabi funksional komissiyalar; Bolalar jamg'armasi (YUNICEF), Yevropa uchun, Osiyo va uzoq Sharq uchun, Afrika uchun, Lotin Amerikasi uchun Iqtisodiy komissiyalar Kengash ishiga yordam berib turadi;

- Xavfsizlik Kengashi 5 ta doimiy (AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya va Xitoy) hamda 10 ta muayyan muddatga saylanadiga a'zo davlatlardan iborat bo'lgan eng muhim organidir. Ustavga ko'ra Kengash urushni oldini olish, davlatlarning tinch hamkorlik qilishiga shart-sharoit yaratishda kata vakolatlarga ega bo'lib Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlar mukammal hisoblaniladi va tekshirilishi mumkin emas. Shuningdek, xavfsizlik qoidalariga tegishli masalalar bo'yicha qarorlar a'zolarining istalgan 9 tasi yoqlab ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Kengashning har bir a'zosi BMT qarorgohida doim o'z vakiliga ega bo'lishi kerak;

- Vasiylik Kengashi BMT ning birinchi sessiyasida 1946-yil dekabrda tashkil etilgan bo'lib, Vasiylik tizimiga qo'shilgan hududlarning boshqarilishini nazorat

qiladigan Bosh Assambleya tomonidan uch yil muddatga saylanadigan a'zolaridan iborat. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Pol Kennedi aytganidek harakat qiladi, u "inson parlamenti" bo'lib, eng kichik va eng yirik davlatlar uchun teng huquqli vakillikdir. Buni bitta ovoz berish orqali amalga oshiradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida barqaror tinchlik va xavfsizlikka sodiqlik namoyon bo'lib, mamlakatlar bir-biri bilan nizolar va kelishmovchiliklarga ega bo'lganda bu ularning urush olib borishi emas, balki tinch yo'l bilan hal qilishga undaydigan xalqaro munozaralarning eng yuqori shaklidir va u yerda a'zolar o'zaro fikr almashishlari va tinch yo'l bilan yechim topish bo'yicha bahsli masalalarni muhokama qilishlari mumkin. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining turli tashkilotlari orqali UNICEF, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti orqali ta'lim dasturlari bilan xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti va yuksalishini o'z zimmasiga oladi.

Xalqaro hamkorlik masalalarida Birlashgan Millatlar Tashkiloti qanday hamkorlik qilish to'g'risida ma'lumot va g'oyalar ishlab chiqarishda yordam berishi mumkin. U mexanizmlar, qoidalar va byurokratiya bilan ta'minlashi mumkin, a'zolariga xarajatlarni to'g'ri taqsimlashiga, foyda adolatli taqsimlanishiga va bizning kelishuv shartlariga qo'shilishiga ko'proq ishonch hosil qilishi mumkin. global o'zaro bog'liqlik shartlarini yanada kuchaytirdi.

Dunyodagi hududlar, qaerda jamoalar, madaniyatlar va ogohlikni oshirish va o'limning oldini olish uchun moddiy tuzilmalar saqlanib qolgan bir madaniyat, masalan, Turkiya darveshlari, Avstraliya aborijenlari va dunyo bo'ylab boshqa shunga o'xshash madaniyatlar va odamlar guruhlariga himoyaviy tizim yaratadi. Rim shahrida joylashgan FAO oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha standartlar yaratadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komissiya (ECOSOC) rivojlanish organi hisoblanib, iqtisodiy rivojlanish uchun pul yordamini taqdim etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xalqaro miqyosda butun dunyo hamjamiyatining tinchlikni, xalqaro xavfsizlikni, iqtisodiy erkinlik hamda yuqori darajada himoya kafolatlangan inson va fuqaro erkinliklarini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan Birlashgan Millatlar tashkiloti XX asr ikkinchi yarmidan boshlab faol geosiyosiy pozitsiyaga ega bo'lib, xalqlarning teng huquqliligi asosida mazkur masalalarni hal etishda yetarlicha chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. XX asrning ikkinchi yarmi va hatto bugungi kun uchun ham dolzarb hisoblangan iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy muammolarni mintaqalar hamda davlatlar miqyosida hal qilishga, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish hamda oldini olishga kata hissa qo'shib kelmoqda. Shuningdek, aholi soni ozchilikni tashkil qiluvchi xalqaro huquq subyektlari, ocharchilik kuzatilayotgan Markaziy Afrika davlatlari hamda demokratik huquq va erkinliklar yetarli darajada o'rnatilmagan hududlarda inson va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish, milliy, irqiy, etnik mojaro sabab aziyat chekayotgan guruhlarining har tomonlama himoyasi yo'lida xalqaro professional hamkorlikni yaratishda ham samarali harakat olib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лукашук И.И., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Darslik. – T.: Adolat, 2006.
2. Международное частное право. Учебник. - М.: Проспект. 2000.
3. Международное право. Словарь-справочник. – М.: ИНФРА-М, 1997.
4. Yuridik ensiklopediya.- T.: Sharq, 2001.
5. Юридическая энциклопедия / Отв. Ред. Б.Н. Топорнин. – М.: Юрист, 2001.
6. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar A.X.Saidov-T.:Adolat, 2004.
7. G.Matkarimova, G.Yuldasheva - Xalqaro huquq, - T.: 2012.
8. Международное публичное право, Учебник. –Т.: “Zarqalam”, ТГЮИ; ЦИЧППП, 2003.
9. www.lex.uz
10. www.unisef.org
11. www.ilo.org
12. www.huquqiportal.uz

BUXORO VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTISHNING MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF QILISH YO`LLARI

*M.K. Musayev,
BuxDU, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi"
kafedrasi tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Buxoro viloyati ziyorat turizmini rivojlantirish va madaniy almashinuv uchun ulkan salohiyatga ega. Biroq, uning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan bir nechta muammolarga duch kelinmoqda. Ushbu maqolada adabiyotlarni tahlili orqali ushbu muammolarni o'rganiladi, ularni yechish yo'llarini muhokama qilanadi, natijalarini taqdim etadi va Buxoroda ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: Ziyorat turizmi, Buxoro viloyati, muammolar, yechimlar, rivojlanish, madaniy almashinuv, iqtisodiy o'sish.

Tarix va madaniy ahamiyatga ega Buxoro vohasi azaldan ma'naviy ma'rifat va madaniy boylikka intilayotgan ziyoratchilar uchun manzil bo'lib kelgan. Masjidlar, maqbaralar va tarixiy joylari bilan mintaqa ziyorat turizmini rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Biroq, o'ziga xos jozibasiga qaramay, Buxoroda ziyorat turizmi uning o'sishi va barqarorligiga to'sqinlik qiladigan bir qancha muammolarga duch kelmoqda. Ushbu maqola ushbu muammolarni o'rganish, mavzuga oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, ularni hal qilish yo'llarini taklif qilish va Buxoro viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berishga qaratilgan.

Ko'plab tadqiqotlar tarixiy va diniy ahamiyatga ega bo'lgan mintaqalarda iqtisodiy o'sish va madaniy almashinuvning drayveri sifatida ziyorat turizmining imkoniyatlarini ta'kidlanadi. Biroq, Buxoro viloyati sharoitida bir qancha muammolar aniqlandi. Bularga infratuzilmaning yyetarli emasligi, sohaning yetuk kadrlari mavjud emasligi, dunyodagi ijtimoiy-siyosiy beqarorligi, madaniyatni saqlash muammolari va marketing hamda reklamaning yetarli emasligi kiradi. Bundan tashqari, manfaatdor tomonlar o'rtasida muvofiqlashtirishning mavjud emasligi va barqaror rivojlantirish strategiyasining yo'qligi bu muammolarni yanada kuchaytiradi.

Ushbu tadqiqotda Buxoro viloyatidagi ziyorat turizmiga oid mavjud adabiyotlar atroflicha ko'rib chiqildi. Asosiy muammolar va potentsial yechimlarni aniqlash uchun akademik jurnallar, hisobotlar va tegishli onlayn manbalar ma'lumotlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, ziyorat turizmining hozirgi holati va uning asosiy muammolari to'g'risida ma'lumot olish uchun mahalliy manfaatdor tomonlar, shu jumladan hukumat namoyandalari, turoperatorlar va jamoat rahbarlari bilan suhbatlar o'tkazildi.

Dunyoda turizmning 200 dan ortiq turlari bo'lib, ular orasida ziyorat turizmi tez rivojlanayotgan, istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ilgari tarixiy, madaniy turizm bilan cheklanib qolingan bo'lsa, oxirgi besh yilda safari (cho'l), etnografik, yoshlar, gastronomik yangi yo'nalishlar qatorida ziyorat turizmiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, O'zbekiston bu borada yuqori salohiyatga ega bo'lib, imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmayotgani ayni haqiqat. Islom sivilizatsiyasi beshigi, ma'rifat va madaniyat markazi sifatida tanilgan yurtimizda dinimiz rivoji, jahon ilm-fani taraqqiyotiga hissa qo'shgan allomalar, mutafakkir olimlar, ulamolar va ulug' avliyolar yetishib chiqqan. Dunyoda ularning ziyoratgoh va muborak qadamjolarini ziyorat qilishga ehtiyoj yuqori.

Ziyorat turizmi yo'nalishida to'g'ri targ'ibotni yo'lga qo'yish va ziyorat ob'ektlari haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni taqdim etish maqsadida 2021 yil 24 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-sonli Qarori qabul qilinib, ushbu qarorga muvofiq Ziyorat turizmini rivojlantirishni muvofiqlashtirish kengashi tashkil etildi. Muvofiqlashtirish kengashining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi [3]:

- O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini to'liq o'rganish, ma'lumotlarni tizimlashtirish, ziyoratgohlar, ulamolar va ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni shakllantirish;
- turizmi bozoridagi real ehtiyojni markazlashgan tarzda tahlil qilish;
- targ'ibot ishlarini sifatli va puxta tashkil qilish;
- media kontent, audiovizual mahsulotlar, maqola va broshyuralar uchun ilmiy asoslangan materiallarni ko'rib chiqish va ma'qullash;
- moddiy madaniy meros ob'ektlaridagi axborot tablolari, gidlar (malakalik kadrlar) va ekskursiya yetakchilarining ekskursiya materiallari uchun sifatli materiallar shakllantirilishini muvofiqlashtirish;

▪ turli konfessiyalarning moddiy madaniy meros ob'ektlari uchun ziyorat odobi bo'yicha tavsiyalar tayyorlanishini tashkil qilish.

Mamlakatimizdagi mavjud ziyorat turizmi salohiyatidan yanada unumli foydalanish, O'zbekiston zaminini dunyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida namoyon qilish, jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarning yuqori e'tiroflariga sazovor bo'lish, shuningdek, ziyorat turizmi xizmatlarini diversifikatsiya qilish va turizm eksportini oshirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2022 yil 20 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi"ni tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 282-sonli Qarori qabul qilindi.

Buxoro viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, ammo ularni hal qilish yo'llari ham mavjud, jumladan:

1. Ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish. Ya'ni, infratuzilmaning yetarli darajada rivoj topmaganligi yo'llar, turar joylar va kommunal xizmatlar ziyorat turizmining o'sishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Yo'llarni yaxshilash, ko'proq mehmonxonalar qurish, toza suv va elektr energiyasidan foydalanishni ta'minlash kabi mazkur infratuzilmani rivojlantirishga sarmoya kiritish ko'proq ziyoratchilarni jalb qilishi va ularning tajribasini oshirishga olib keladi.

2. Muqaddas joylarni obodonlashtirish. Buxoro tarixiy va diniy joylarga boy, ammo bu joylarni saqlash, ularning ziyoratbobliligini yaxshilash juda muhimdir. Tabiatni muhofaza qilishning qat'iy choralarni ko'rish va barqaror turizm amaliyotini targ'ib qilish ushbu joylarni himoya qilishga yordam beradi, shu bilan birga ziyoratchilarga tashrif buyurish va ularni qadrlash imkoniyatini beradi.

3. Madaniy sezgirlikni oshirish. Ziyorat turizmi ko'pincha muqaddas joylarga va diniy marosimlarga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi. Sayyohlarning mahalliy an'analar va diniy urf-odatlarini hurmat ko'rsatishini ta'minlash ziyoratchilar va mahalliy jamoalar o'rtasidagi uyg'unlikni saqlash uchun juda muhimdir. Ta'lim va xabardorlik kampaniyalari sayyohlar orasida madaniy sezgirlikni rivojlantirishga yordam beradi.

4. Xavfsizlikni ta'minlash. Xavfsizlik masalalari, shu jumladan jinoyatchilik va terrorizm, ziyoratchilarni mintaqaga tashrif buyurishdan to'xtatishi mumkin. Turizm politsiyasining borligi va kuzatuvining kuchayishi kabi ishonchli xavfsizlik choralarni qo'llash ziyoratchilarni tinchlantirishga va ularning sayohatlari uchun xavfsiz muhit yaratishga yordam beradi.

5. Transport xizmatlari sifatini yaxshilash. Cheklangan transport imkoniyatlari ziyoratchilarning Buxoro viloyatiga kirishini qiyinlashtirishi mumkin. Aeroportlar, temir yo'l stantsiyalari va avtobus xizmatlarini o'z ichiga olgan transport infratuzilmasini takomillashtirish ziyoratchilarning mintaqaga va uning ichida sayohat qilishlarini osonlashtirishi mumkin.

Yuqorida sanalgan muammolarni strategik rejalashtirish, investitsiyalar kiritish, davlat organlari, mahalliy aholi va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash orqali hal etish orqali Buxoro viloyati ziyorat turizmining barcha imkoniyatlarini ochib berishi va aholisi uchun barqaror iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish davlat idoralari, mahalliy jamoalar, turoperatorlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Yo'l tarmoqlarini yaxshilash va turar joy imkoniyatlarini kengaytirish kabi infratuzilmani rivojlantirishga sarmoyalar ziyoratchilar uchun qulaylik va qulaylikni oshirish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, madaniy asrab-avaylash va barqaror turizm amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar ziyoratgohlarning haqiqiyiligini ta'minlash va ularning uzoq muddatli hayotiyligini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro viloyatida ziyorat turizmi iqtisodiy o'sish va madaniy almashinuvning katalizatori sifatida ulkan salohiyatga ega. Biroq, ushbu potentsialni amalga oshirish uning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan turli xil muammolarni hal qilish uchun birgalikda harakatlarni talab qiladi. Infratuzilmaga sarmoya kiritish, madaniy asrab-avaylashga ko'maklashish, marketing ishlarini kuchaytirish va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali Buxoro viloyati ziyoratchilar uchun tajriba boyitib, mahalliy hamjamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan asosiy ziyoratgoh sifatida paydo bo'lishi mumkin.

Ushbu sohadagi kelajakdagi tadqiqotlar ushbu tadqiqotda aniqlangan muammolarni hal qilishga qaratilgan aniq tadbirlarning samaradorligini baholashga qaratilishi mumkin. Bundan tashqari, tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa hududlarda ziyorat turizmining rivojlanishini o'rganuvchi qiyosiy tadqiqotlar Buxoro viloyatida turizmning barqaror o'sishini ta'minlash uchun qimmatli tushunchalar va ilg'or tajribalarni taqdim etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 maydagi "Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi"ni tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 282-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 sentyabrdagi "2022-2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 543-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-sonli Qarori
4. Xasanova G.D. O'zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan ishlar (Buxoro viloyati misolida) . O'zbekistonda turizm infratuzilmasini

- takomillashtirishda xorijiy tajribani qo'llash". Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar va ma'ruzalar to'plami. Toshkent. 2015. II qism. 138-143 b.
5. Xasanova G.D. O'zbekistonda turizmning rivojlantirilishi (Buxoro viloyati misolida). "Xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish muammolari". Respublika ilmiy-amaliy anjuman. Samarqand. 2016. 204-208 b.
 6. Xasanova G.D. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda davlatning roli. "Barqaror raqobatbardosh turistik hududlarni shakllantirishning ustivor yo'nalishlari: innovatsion boshqaruv, xorij tajribasi va rivojlantirish strategiyalari". Respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislari to'plami. Buxoro. 2018. 283-287 b.
 7. Хушназарова М. Г. и др. Краткий обзор истории Азиатского города Самарканд //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 835-842.
 8. Musaev M. K. THE ROLE OF BANKING AND FINANCIAL SYSTEM IN DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 418-420.

MAXMUD SUBOH (SUBAY) – MA'RIFATPARVAR, PUBLISIST VA TARJIMON

K.Rahmonov,
Ilmiy rahbar, t.f.n., dotsent
Y.M. Cho'lliyeva,
BuxDU magistri
y.m.cholliyev@buxdu.uz.

Annotatsiya: Ushbu maqola ma'rifatparvar shaxshlardan biri Mahmud Subohga bag'ishlangan bo'lib, bunda asosan Suboh shaxshiga, uning matbuotda, adabiy ijodda olib borgan faoliyatiga alohida urg'u beriladi. Ushbu maqola orqali Mahmud Suboh subay shaxsi omma orasida tanishtiriladi. U rus, arab, fors, turk tillarini puxta o'zlashtirgan. U BXSRS hukumatida faol ishlagan namoyondadir. U 1921–1923-yillarda "Buxoro axbori" gazetasida ilmiy-ma'rifiy mavzudagi maqolalari bilan qatnashib kelgan.

Kalit so'zlar: BXSRS, Buxoro axbori, gazeta, ma'rifatparvar, publisist, tarjimon

Istiqlolimiz sharofati bilan milliy ozodligimiz va erkimiz uchun kurashgan ma'rifat va madaniyatimiz darg'alari bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon, Usmon Nosir, Ishoqxon Ibrat, Otajon Hoshim kabilarning ma'naviy merosidan bahramand bo'ldik.

Yuqorida ismi shariflari zikr qilingan ulug' insonlarning hayoti va faoliyati qirralarini yorituvchi maqolalar, asarlar, tadqiqotlar yaratildi. Ularning asarlari turli nashrlarimizda chop etilib, kitobxonlar hukmiga havola qilindi. Lekin XX asr

ma'rifatparvarlari orasida shunday shaxslar borki, ularning ismi shariflari va faoliyati respublikamiz jamoatchiligiga yaxshi tanish emas.

Mana shunday insonlardan biri, quyida hikoya qiladiganimiz-Mahmud Suboh (Subay)dir. XX asr 20-30 yillari bilan bog'liq matbuot organlari bilan tanishar ekanmiz, ma'rifat va ma'naviyat masalalariga oid o'nlab maqolalar ostidagi Mahmud Suboh (gazetalarda Suboy) ism-sharifga duch kelamiz. Xo'sh, Mahmud Suboh kim bo'lgan?

M.Suboh ham asli tatar millatiga mansub bo'lib, Buxoro Respublikasi dastlabki yilida maorif nozirligining umumiy ishlar bo'limi mudirligi lavozimiga taklif etilgan. Keksa jurnalist Abul Bozorov qayd qilganidek, u rus, arab, fors, turkiy tillarni puxta bilgan. Qozon ma'rifiy va adabiy muhitida voyaga yetgan Suboh yangi hukumat tarkibida faol ishlagan.

Biz uchratgan manbalarda uning yashagan yillari bilan bog'liq ma'lumotlar yo'q. Buxorodagi ma'rifiy-ijodiy faoliyati bilan tanishar ekanmiz, Suboh o'z davrining bilimdon, zukko kishisi, bo'lishi bilan birga badiiy ijodga qobiliyatli va iqtidorli shaxs bo'lgan, degan xulosaga kelishimizga ham asos bor. M.Suboh 1921-1923 yillarda "Buxoro axbori" gazetasida ma'rifiy-ilmiy yo'nalishdagi bir qator maqolalari, hamda badiiy tavsifdagi hikoyalari bilan ishtirok qilgan. Inson uchun ilm va ma'rifatning ahamiyati haqida yozar ekan Suboh: «Ilm o'rganmakdan haqiqiy maqsad o'zini haqiqiy inson qilmoqdur. Ilm orqasida yashaguvchilar o'quvdan boshqa hyech tura olmaydilar»-qabilidagi fikrlarni keltiradi. Ilmsizlik jaholatga olib kelishi, u asrlar osha davom etib kelayotgan umumiy dushmanimiz ekanligi, undan qutulmasdan turib taraqqiyot pillapoyalaridan jadal rivojlanishimiz mumkin emasligi muallif tomonidan qayta-qayta ta'kidlanadi. Ilmu-hunar yoshlarga asosan maktabda beriladi. Xorijda bolalarimizning hammasini o'qita olmasligimiz, shuning uchun o'zimizdagi o'quv muassasalarini zamon talablariga ko'tarish masalasi Suboh maqolalarida qat'iy qilib qo'yilgan. U «maktab faqat xat savodsizlikni bitiraturg'on bir hunarxona emasdur. Maktab haqiqiy ma'nosi ila inson chiqara turg'on ilm va oliy maqsadli buyuk bir muassasadar»-deb yozadi. Bu fikrlar hozirgi zamon ruhi bilan hamohangdir. M.Suboh o'z maqolalarida maktablarni ta'mirlash bilan bog'liq ishlardagi masu'liyatsizliklar, o'quv kurslaridagi yuzakichilik hamda soxtakorliklar, mutaxassislarning no'noqligi masalalarini keskin tanqid ostiga oladi. «Qat'iy tartib va intizomsiz hukumatgina, maktabgina emas, bir oila ham yashay olmaydur. Eshkak tutmoqni bilmagan ma'murlar hukumat qayiqclariga o'ltirmaganlari ma'qul». Yuqoridagi fikrdan, avvalo, har yerda tartib-intizom zarurligi anglashilsa, ikkinchidan esa hukumat rahbarlari kema (qayiq) boshqaruvchisiga o'xshatiladi. Davlatning rivoji, xalq farovonligi va yuksak ma'naviyati ko'p jihatdan rahbarlarga bog'liqligiga ishora qilingan.

Ma'lumki, Buxoro Xalq Sovet Respublikasida 1921 yil oktyabridan o'zbek tilini davlat tili sifatida qo'llash to'g'risida maxsus qonun qabul qilingan. Hukumat idoralarida kim ona tilida ish tutmasa, jazolanib jarima to'lagan. Biroq ko'pgina xujjatlar yarmi aholiga tushunarsiz bo'lgan ajnabiy til (rus tili)da yozilardi va tarqatilardi. M.Suboh o'zining «Til masalasi» maqolasida respublikadagi rasmiy

hujjatlarda imloviy qoidalar buzilayotgani, ba'zi e'lon va xabarlar shunchalik xatolarga to'laki, hatto rus tilini biladiganlar ham hayratdaligi, bu esa, jinoyatligini o'kinch bilan yozadi. «Hukumat tili shu hukumatning xo'jasi bo'lg'on xalqning ona tilidir. Shu til bilan uning adabiyoti negizlangan, qalbining teran yerindan o'rin topg'ondur». Demak, Suboh aytmoqchiki, millat taraqqiy qilishi uchun o'z ona tilining sofligini saqlashi, uni boyitishi va qadrini bilishi zarur!

Til-millat ko'zgusi, uni asrash va avaylash esa muqaddas burchimizdir. O'z tili bo'lib vatanida ajnabiy til bilan ish ko'rmak millatni kamsitish, o'zligini yo'qotishgina emas, balki M.Suboh yozganidek, bu: «Hovlining eshigi bor holda, devordan azoblanib yuqoridan tushmakdur!»; «Tilingiz bormi?-deyilganda: uni cho'ntakdan izlab azoblanishdur!». Ona tilimiz, uning qadr-qimmatini va hurmat e'zozi istiqloq tufayli amalga oshdi. Madomiki, shunday ekan Suboh singari ajdodlarimizning milliy tilimiz bilan bog'liq orzu-umidlari ro'yobga chiqdi, deyishga bugungi avlod haqlidir.

O'sha davr matbuot organlaridagi xabarlardan birida M.Suboh tarjima qilgan asarlar ro'yxati keltirilgandi. Ro'yxatni o'z holicha keltirishni lozim topdik:

1. «Qozi bola» (3 pardalik bolalar uchun teatr o'yini, narxi-4 tanga).
2. «Man hozir o'qiyman» (teatr kitobi-3 tanga)
3. «Sir» («Yoshrunchi») (teatr kitobi-2 tanga)

M.Subohning Buxorodagi faoliyati haqida birmuncha ma'lumot berildi xolos. M.Subohning XX asr ma'rifatparvarlari qatorida haqli suratda munosib o'rni borligiga, 1920-1924 yillarda Buxoroda samarali faoliyat olib borganligiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Маҳмуд Субоҳ. Юзни ювмоқ билан оқартмоқ каби қалбни ўқумоқ билан оқартмоқ керак! //Бухоро ахбори. 104-сон. 1922 йил 22 октябр.
2. Маҳмуд Субоҳ. Тил масаласи //Бухоро ахбори. 107-сон. 1922 йил 2 ноябр.
3. Маҳмуд Субоҳ. “Қори Йўлдош” музахонаси //Бухоро ахбори. 109-сон. 1922 йил 12 ноябр.
4. Маҳмуд Субоҳ. Маориф йўлида //Бухоро ахбори. 112-сон. 1922 йил 23 ноябр.
5. Маҳмуд Субоҳ. Бехбудий кечаси //Озод Бухоро. 74-сон. 1924 йил 10 апрел.
6. Маҳмуд Субоҳ. Ҳукумат муассасаларида ишлагувчи тотор аҳолиси диққатиға! //Озод Бухоро. 155-сон. 1924 йил 22 октябр.

“DEVONI SAYQALIY “NING HAMD VA NA'T QISMLARI QIYOSIY TAHLILI

X.I. Ikromova,
BuxDU, 1-kurs magistranti
x.i.ikromova@buxdu.uz

Manbalarga ko'ra, Sobir Sayqaliy 1730-yili Hisorda tug'ilib, 1798-yili vafot etgan. Bizgacha Sobir Sayqaliydan boy adabiy meros yetib kelgan. Sayqaliyning "Devoni Sayqaliy" asari "Sayqaliy kitobi" yoki "Payg'ambarning vafot kitobi" nomlari bilan nomlanadi. Sayqaliyning ushbu kitobi Islom tarixiga doir bo'lib, unda Muhammad s.a.v, Ali, Fotima va ularning farzandlari tarixi haqida she'rlar to'plami berilgan.

Sayqaliyning "Devoni Sayqaliy" asarining 10 dan ortiq nusxasi mavjud. Hozirda ular Buxoro Adabiyot va san'at muzeyida saqlanadi. Filologiya fanlari nomzodi Sunnatulla Soyipovning "Qissai Sayqaliy" dostoni qo'lyozma nusxalari haqida" maqolasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, Qo'qon adabiy muzeyi, Samarqand davlat universiteti xazinalarida asarning qo'lyozma nusxalari saqlanotganligi haqida ma'lumot berilgan. Muzeyda asarning 10 dan ortiq nusxalari saqlanadi. Nusxalaridan 27633 inventar raqami ostida saqlanayotgan asar holati boshqalariga nisbatan ancha yaxshi holatda. 22346 inventar raqamli nusxaning 1-B va 2-A sahifalardagi yozuvlar shikastlangan.

27633 inventar raqamlisi majmua holatida bo'lib, unda quyidagi asarlar o'rin olgan:

1. "Sayqaliy devoni" bo'lib, 1-B varaqdan 281-B varag'igacha davom etgan. Turkiy tilda (o'zbek), nastaliq xatida ko'chirilgan.

2. Boborahim Mashrabning "Mabdayi nur" va "Manbaya surur fis-sudur" asaridir. Ushbu asarda hazrat Mashrab mavlono Jaloliddin Rumiyning masnaviylariga sharh va hikoyalar yozgan. Yozuvi nastaliq xatida, tili turkiy (o'zbek) da ko'chirilgan.

3. Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydoning "Rohati dil" asari oxirgi qismdan joy olgan. Mazkur asar 1-B varaqdan 75-A varaqlarini o'z ichiga olgan. Asar turkiy tilda yozilgan, ba'zi matnlarda forsiy jumlar ham uchraydi. 1298-yil 12-muharram oyining 2-kunida ko'chirilgan. Xattoti haqida ma'lumotlar mavjud emas. Kitobning muqovasi qattiq qog'ozda va yashil rangda. Ikki tomon muqovada jami 4 ta turunj, 2 ta shamsasi bor. Undagi turunj ichiga "Oqibat xayr bot" so'zi o'yib yozilgan. Shamsasi badiiy bezalgan. Ikki muqovani birlashtirib turuvchi qismi qizil rangli charmdan ishlangan.

"Devoni Sayqaliy" nusxasi faqatgina Sayqaliyning shu nomli asaridan tashkil topgan. U turkiy (o'zbek) tilida, nastaliq xatida ko'chirilgan. Uning ham yuqorida sifatlari sanab o'tilgan majmuadagidek turunj va shamsalari bor. Turunjda "Amali mullo Muhammad Amin Naim Sahnof" deb o'yib yozilgan. Nusxaning yana bir o'ziga xosligi undagi sarlavhalar tashlab ketilgan va ramkalardan foydalanilgan. 27633 inventar raqamidagi nusxaning hamd va na't qismlaridagi misralar soni 76 tadan iborat, 22346 inventar raqamida 74 misrani tashkil etadi. Ikkala nusxa ham hamd va na't

bilan boshlangan bo'lsa-da, ularda bir qancha tafovutlar uchraydi. Ularni quyidagicha farqlashni lozim topdik:

T/r	27633 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxada	22346 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxada
1.	Makonsizdur otin kun makona, Jihatsizdur otin kun makona.	Makonsizdur inon kun makoni, Jihatsizdur inon jumla jahona.
2	Qilib suv joriy ko'kda pok zoti azal , Atadi otini Bahrul hayot ul.	Qilib suv joriy ko'kda pok zoti ul , Atandi otini Bahrul hayot ul.
3	Ki uldur yaratdi hut ustinda tutgan, Borib andin madori boda tekkan.	Ki uldur yerni hut ustida tutgan, Borib andin madori boda tekkan.
4	Har ish qilsa,anga dushvor emasdur, Anga hech vosita darkor emasdur.	Bir ish qilsa ,anga dushvor emasdur, Anga hech vosita darkor emasdur.
5	Ahaddur mavjud otidin muqaddam, Samaddur ajvaf ermas misli odam.	Ahaddur mavjudi andin muqaddam Samaddur jaf ermas misli odam.
6	Durudi beqiyos ul rahnamog'a, O'shal kim boisi arzi samog'a.	Durudi beadat ul rahnamog'a, O'shal kim boisi arzi samog'a
7	Muborak etdi aning yorisindur, Tamomi anbiyog'a ul nakindur.	Muborak oti aning yodisindur, Tamomi anbiyolarg'a nakindur.
8	Ahad birla yaqin Ahmad otikim, Bir erdi o'rtada bo'lmasa bir mim.	Ahad birla yaqin Ahmad otikim, Barobar erdi bo'lmasa o'rtada bir mim.
9	Egam qadrlig'idin qildi izhor,	Ezim qodirlig'ini qildi izhor,

	Muhammad javhari zotin namudor.	Muhammad javhari zotin namudor.
10	Yana faqir ila sihat erdi ul nur, Bu so'zni sharhi zafarlarda mashhur.	Yana faqir ila himmat erdi il nur, Bu so'zni sharhi zafarlarda mashhur.
11	Ki Arshi kursi lavhi qalam ham, Aning qudratidin bo'ldi ilm ham.	Ki Arshi kursi lavhi qalam bil, Aning qudratidin bo'ldi ilm bil.
12	Yana shamsul qamar bu to'rt arkon, Ki unsuri arba adirlar ayojon.	Yana shamsul qamar har to'rtu arkon, Ki unsuri arba adirlar ayojon.
13	Yadi hassoyi Muso bo'ldi izhor, Ki ul nurdin topib olam tajallo.	Yadi hassoyi Muso bo'ldi izhor, Ki ul nurdin topib olam majallo.
14	Ikki mim ho erur dol otin, Kutub ichra xudo qildi sifotin.	Ikki mim hosil andin erdi otin. Kutublarda xudo qildi sifotin.
15	Ki fari koinot asl erur ul, Nakim vosil bo'landin vasl erur ul.	Ki fari koinot asli erur ul, Nakim vosil uyidin vasl erur ul

22346 inventar bilan 27633 inventar raqamidagi qo'lyozma nusxalar o'zaro qiyoslanganda, quyidagi baytlarning tushirib qoldirilgani aniqlandi:

1. Aningdur daryoyi su'ning qari bo'lmas,
Jahonda mazhari amvoj erus bas.



Yuqoridagi misra hamd qismidan tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari quyidagi baytlar na't qismida qatnashmagan:

2. Ki ul nuridin yaratdi so'ngra ashyo,

Yo'q ersa, yo'q edi hech qaysi aslo

3. Erur anga xudodin soni yo'q avn,
Tufaylidin berildi ikki kun.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qo'lyozmalarda matniy tafovutlar mavjud. Qo'lyozmaning muallif matniga yaqin variantini tayyorlashga ehtiyoj borligini nusxalardagi farqlar tasdiqlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sobir Sayqaliy. Devonu Sayqaliy. Buxoro adabiyot va san'at muzey qo'riqxonasi. Inv.27633
2. Sobir Sayqaliy. Devonu Sayqaliy. Buxoro adabiyot va san'at muzey qo'riqxonasi. Inv.22346
3. Sunnatullo Soyipov. "Qissai Sayqaliy" dostoni qo'lyozma nusxalari haqida // Abdulla Qodiriy nomidagi JDPI "Filologiyaning umumnazariy masalalari" respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari. – Toshkent: Vneshinvestrom, 2020. – 23b.
4. Rasulov X.O'zbek epik she'riyatida xalqchillik. – Toshkent: Fan, 1972.

QISHLOQ AHOLI JOYLARDA TURMUSH SHAROITINI YAXSHILASH VA BANDLIGINI TA'MINLASH YO'LIDA O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING SHAKLLANIB BORISH JARAYONLARI VA O'RNI

R.N. Djurayeva,

BuxDU Raqamli iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

r.n.djurayeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda qishloq joylarida aholi turmush farovonligini yaxshilash va ish bandligi bilan ta'minlash asosiy ustuvor maqsad yo'nalishlari qo'yilgan. Hozirgi zamon talabiga asosan bu raqamli iqtisod orqali amalga tez oshirilmoqda. Raqamli iqtisod bu zamonaviy hayot bilan bog'liq, zamonaviy texnikalar, texnologiyalar va zamonaviy kompyuterlar kiradi. Zamonaviy texnikalar bugungi kunda qishloq xo'jaligida ko'p uchratish mumkin.

Kalit so'zlar: qishloq aholisi ish bilan bandligi, zamonaviy texnologiyalar, aholi turmush farovonligi yo'lida raqamli iqtisodning shakllanishi

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda. Iqtisodiyot, bank, qishloq xo'jaligi fabrikasida, xizmat sektori shuningdek hamda ta'lim jarayonini ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Globallashtirish sharoitida mamlakatlar raqobatbardoshligini aniqlashda iqtisodiyotning raqamlashtirilganligi darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli iqtisodiyot- bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalgam oshirish tizimidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Iqtisodiyotning qaysi bir tarmog'I yoki sohasiga nazar tashlamaylik, barchasida raqamli texnologiyalarning o'rnini ko'ramiz. Mamlakat bank tizimi xizmatlardan tortib, qishloq agrar korxonalarida ham innovasion raqamli texnologiyalarning ulushi ortib bormoqda. Hozirgi davrda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishni innovasion texnologiyalar asosida ta'minlash dolzarb masalaga aylanib bormoqda, asosan qishloq xo'jaligi joylarida. Jahon tajribasining ko'rsatishicha sanoat qishloq joylarida korxonalarini rivojlantirish bo'yicha innovasion strategiyalarni shakllantirish va amalgam oshirish ularning ishlab chiqarish faoliyatini ichki va tashqi bozor talablariga muvofiqlashtirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar mahsulot va xizmatlar sifatini, oshirishi, ortiqcha xarajatlarni kamaytirishga oid, shuningdek raqamli iqtisodiyot rivojlanishining aholi bandligiga ta'siri, milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik tizimini yaratish, yalpi milliy mahsulotdagi axborot kommunikasiya texnologiyalari sohasining ulushi, aloqa va axborotlashtirishning ayrim ko'rsatkichlari tahlili kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Zero hozirgi kunda hayot rivojlanib bormoqda, shuning uchun hayot bilan tez rivojlangan Davlat barqaror va rivojlangan mamlakatga aylanadi. Bu albatta o'zining xalqiga ham, rivojlanishiga ham juda yaxshi samara beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Bugungi kunda Respublikamizda, ayniqsa, uning qishloq hududlarida aholining ish bilan ta'minlashda o'z amaliy yechimini kutayotgan talaygina muammolar mavjud. Iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirishda aholining ish bilan bandligi muhim omil hisoblanadi. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar, aholi daromadlarini o'sishi, aholini ish bilan bandligini oshirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini isloh qilish, qishloq joylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida yangi ish o'rinlarini yaratish, ish bilan bandlikning turli shakllarini rivojlantirish va boshqa yutuqlarga erishildi. Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlardan kelib chiqib aholining ish bilan ta'minlash muammosi o'ta dolzarb bo'lgani uchun 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarajatlar strategiyasini "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan va ta'kidlab o'tilgan.

Tahlil va natijalar

Qishloq mehnat bozorini tartibga solish, uni raqamli texnologiyalar bilan jihozlash, axborotlar to'plash va tahlil qilishda tenglashtirish va taqqoslash, 551lectron551 tahlil, faktlar to'plash, qishloq joylarida yangi bozor talabiga javob beradigan korxonalar yaratish va aholini ish bilan ta'minlash kabi chuqur masalalar bugungi kunda ko'rib chiqilmoqda.

Ish bilan band aholi soninig hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

Hududlar	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	29,9	9,4	9,3	51,4
Andijon	26,8	13,9	7,3	52
Buxoro	30,2	13,3	15,2	41,3
Jizzax	41,8	9,8	6,7	41,7
Qashqadaryo	28,1	8,4	13,9	49,6
Navoiy	22,3	26,9	12,3	38,5
Namangan	25,2	12,3	8,9	53,6
Samarqand	28,4	12,2	7,2	52,2
Surxandaryo	36,9	6,4	8,8	47,9
Sirdaryo	48	9,2	6,7	36,1
Toshkent	26,2	19,9	9,5	44,4
Farg'ona	27,6	16,9	7,9	47,6
Xorazm	35,6	8	9,5	46,9
Toshkent sh	0,9	19,1	11,2	68,8
Rspublika bo'yicha	27,3	13,5	9,5	49,7

20 Manba O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi soni hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil etilgan.

Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ham alohida ta'kidlab o'tdilar, "Bugungi kunda oldimizda turgan eng asosiy muammolardan biri bu- Respublikamiz qishloq xo'jaligida ilm va amaliyotning bir-biridan uzoqlashgani, aksariyat hollarda uzilib

qolganidir” degan soʻzlari isbotini topadi. Prezidentimiz tashabbuslari bilan hozirgi kunda qishloq xoʻjaligiga katta eʼtibor qaratilmoqda. Bir necha gektar yerlar oʻz hosilini koʻrsatmoqda, yangi texnologiyalar qishloq xoʻjaligida katta yutuqlar olib kelmoqda va ularning ishini yengillashtirmoqda. Barcha korxonalar yangi texnikalar bilan tez va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarmoqda va sifat darajasida chet davlatdan qolishmaydigan mahsulot ishlab chiqarmoqda. Yangi raqamlashtirilgan iqtisod davrida yangi kompyuterlar mahsulotni reklama qilish va sotishni tezlashtirmoqda, zamonaviy texnikalar esa mahsulotni zamonaviy qadoqlash yoki chiroyli va sifatli qilib ishlab chiqarishga yordam bermoqda. Shuni taʼkidlab oʻtish kerakki raqamli iqtisod qishloq xoʻjaligi korxonasida emas, balki butun dunyo ishini yengillashtirayapti, inson mehnati osonlashtirilyapti, qattiq jismoniy mehnat oʻrniga yengil qoʻl barmogʻI orqali zamonaviy texnikalar yurgizilyapti. Bular hammasi albatta yaxshi zamonda yashashimizga dalillik beradi.

21 Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida “2020 yil-Ilm-maʼrifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb eʼlin qilindi. Shundan keyin fuqarolarda “raqamli iqtisodiyot” atamasi haqida koʻplab savollar tugʻila boshladi. Huquqiy axborot kanali “raqamli iqtisodiyot” atamasining mazmunini ochib beruvchi maqola eʼlon qildi. Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yoʻlini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, electron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yoʻnalishlar ochib beradi, bu albatta hozirgi kunda qishloq xoʻjaligi korxonalarida juda katta samara berayapti.. “Raqamli texnologiyalar” tomon burilishga butun jahon internet tarmogʻI va sifatli

Aloqaning rivojlanishi sababchi boʻldi. Taʼkidlash joizki bugungi kunda foydalanuvchilar oziq-ovqat mahsulotlariga buyurtma berish uchun Telegram botlaridan faol foydalanmoqdalar, bu albatta qishloq joylarida ham ishlatilmoqda. Shuningdek turli internet doʻkonlar, 552lectron toʻlov tizimlari ham faol rivojlanib bormoqda. Bu qishloq xoʻjaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarni tez sotishiga va ishchilarining tez oylik daromadlarini olishiga katta hissa qoʻshmoqda. Zero hamma joylarda ham bu zamonaviylashish ancha ishlarini osonlashtiradi. Qishloq joylarida aholi ish bilan taʼminlanyapti va ishlab chiqarilayotgan narsalari dunyo bozoriga ham chiqarilyaptu, buning zahirida zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanishi turibti.

Xulosa va takliflar: Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kun avlodlari oldingi avloddan tubdan farq qiladi. Hozirgi kunda sinf xonalar va parta, doskalar zamonaviylashgan. Doskaga boʻr bilan emas ruchka orqali yozishadi, bu albatta korxonalarda ham aksini topgan. Qancha qancha yangi texnologiyalar insonlar hayotini osonlashtirayapti. Qishloq xoʻjaligida paxta ekish, uni terib olish, ipga aylantirish yoki mato ishlab chiqarish barcha ishlarini zamonaviy texnologiyalar bajarib ishchilar ishini yengillashtirayapti. Koʻp qishloq joylarida korxonalar ochilyapti, chunki yangi

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot davri shahar bilan qishloq o'rtasida farqni olib tashladi, qancha qancha qishloq joylar obod bo'lib, xalqni, aholini ish bilan ta'minlayapti.

4) Xulosa qilib yana aytganda, raqamli iqtisodiyot shunchaki raqamli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish bo'yicha iqtisodiy faoliyat yoki iqtisodiyotning alohida tarmog'I bo'lib qolmasdan, raqamli jarayonlarga integrasiyalashgan mijozlar ehtiyojlarini qondirishni kengaytirish, raqamli ekotizmlarni yaratish uchun axborot tarmoqlaridan foydalangan holda bozorlarda innovasion hamkorlikni rivojlantirish, raqamli qarorlar qabul qilish asosida mahsulot va xizmatlarni texnologik takomillashtirish, biznes jarayonlari va korxonani boshqaruvining tashkiliy shakllarini raqamli qayta tashkil etish hisobiga faoliyat samaradorligining oshishiga erishiladigan iqtisodiyotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Iqtisod va moliya 2021,4(140) Hoshimov Fazliddin Zukurovich
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4847-son farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2017, 13 fevral 6-son 70-modda
3. www. Iqtisodiyot.uz 2/2018 (N 00034)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh. Mirziyoyevning Oliy majlisda murojaatnomasi 2020yil 24 yanvar
5. aniq.uz
6. Abdurahmonov Q H Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot/ darslik qayta ishlangan va to'ldirilgan 3 nashri-; O'zFA "FAN" nashriyot davlat korxonasi, 2019-592b
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali
8. Amalgam oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni
9. Umarov O S Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari " Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy 553lectron jurnali N3 may, iyun, 2018yil
10. Jumanova S Raqamli iqtisodiyot: taraqqiyot sariqisqa yo'l. 17 sentabr 2020. "Yangi O'zbekiston
11. "- Elektron resurs :<https://yuz.uz/news/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyot-sari-qisqa-yo'l>.
12. Jumayev H.X Raqamli iqtisod nega kerak va u nima beradi?-12.03.2020"- Elektron resurs :<https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir>.

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARDA INSON QADRINI YUKSALIRISH TUYG'USINI SINGDIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI

Sh.Q.Ergasheva,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
sh.q.ergasheva@buxdu.uz.

Hozirgi vaqtda zamonaviy ta'lim tizimi katta o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ta'limni insonparvarlashtirish va jamiyatni ma'naviy tiklash sharoitida estetik tarbiya va badiiy tarbiya muammolari katta ahamiyatga ega. Oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida, ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda estetik tarbiyaning rolini oshirmasdan turib, bu masalani hal etib bo'lmaydi.

Kichik maktab o'quvchilarining estetik, axloqiy va ma'naviy rivojlanishining asosi – bu boshlang'ich sinf o'qituvchisi. Yuqori estetik madaniyatga ega, estetik didi rivojlangan, estetika sohasida ma'lum ehtiyojlarga ega, san'atning turli turlari haqida bilimga ega bo'lgan o'qituvchigina o'ziga nisbatan estetik talablari yuqori, estetik faoliyatga ehtiyoj sezadigan shaxsni tarbiyalay oladi. Ushbu muammoni hal qilishda shaxsni shakllantirishning turli tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan to'g'ri tuzilgan estetik ta'lim tizimi yordam beradi.

Estetik tarbiya hozirgi vaqtda shaxsni shakllantirishning yaxlit tizimining elementi hisoblanadi. U inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladi, insonning o'sha fazilatlarini va qobiliyatlarini rivojlantiradi, ular nafaqat atrofimizdagi dunyoni estetik qadriyatlar prizmasi orqali idrok etishga yordam beradi, balki haqiqatni o'zgartirishga qodir estetik faol shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Go'zallik qonunlariga ko'ra.”

Yosh avlodni estetik va axloqiy tarbiyalashning muhim vositalaridan biri xalq amaliy san'atidir, chunki Aynan unda zamonlar bog'liqligi, turli avlodlarning tarixiy xotirasi, xalq dunyoqarashi, dunyoqarashi, xalq donishmandligi, ezgulik va yomonlik, go'zallik, foydalilik tushunchalari saqlanib qolgan.

Buyuk kognitiv, tarbiyaviy va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan xalq amaliy san'ati o'qituvchi shaxsini estetik jihatdan rivojlantirishda faol ishtirok etadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq amaliy san'ati bilan tizimli va maqsadli tanishtirish ularning shaxsini har tomonlama barkamol rivojlantirishga xizmat qiladi, estetik va axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi, voqelik narsa va hodisalariga hissiy va qadriyatga asoslangan munosabatni shakllantiradi, shakllanish faktidir. Dunyoqarashini shakllantiradi va o'qituvchilarning kasbiy darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Shaxsning ma'naviy madaniyatini shakllantirishning umumiy masalalari, shuningdek, yoshlarni estetik tarbiyalash muammolari haqida quyidagi olimlar ilmiy ishlar qilgan bo'lib, M.S. Kogan, L.I. Kogan, B.T. Lixacheva, M.F. Ovsyannikova,

B.C. Kuzina, T.Ya. Shpikalova va boshqalar. Ular yosh avlodni tarbiyalashda hamda Vatanga boʻlgan muhabbatini oshirishda tasviriy sanʼatning oʻrni, ruhiy va rang-tasvir jarayonlarining boʻgliqligini oʻrganganlar.

Yu Arbat, A.B.ning tadqiqotlari dekorativ-amaliy sanʼatning oʻziga xos xususiyatlari va estetik tarbiyada milliy anʼalardan foydalanishga bagʻishlangan. Bakushinskiy, I.Ya. Boguslavskaya, V.M. Vasilenko, M.A. Nekrasova, T.M. Razina, A.B. Saltikova, T.Ya. Shpikalova, Yu.U. Foxta-Babushkina va boshqalar.

Bizning tadqiqotimiz uchun Mordoviya etnograflari va sanʼatshunoslarining asarlari alohida qiziqish uygʻotdi: T.S. Pallas, A.O. Geykel, M.E. Evsevieva, N.I. Smirnova, P.I. Melnikova va boshqalar.

Ushbu olimlarning tadqiqotlarida mordoviyaliklarning moddiy va maʼnaviy madaniyatining muhim xususiyatlarining xususiyatlari, ijtimoiy va oilaviy hayoti, Mordoviya xalqining diniy eʼtiqodlari va marosimlari, shuningdek, boshqa xalqlar bilan etnik-madaniy munosabatlari haqida fundamental maʼlumotlar mavjud.

Hozirgi zamon olimlari, amaliyotchi oʻqituvchilari ham xalq amaliy sanʼatini oʻrganib, u haqidagi bilimlarni oʻz 555 rogan555 ic faoliyatlarida qoʻllaydilar. Biz V.A.Vardanyanning tajribasini oʻrgandik. (tasviriy sanʼat oʻqituvchisi, Saransk sh. 20-son maktab), Ulanova S.L. (Tasviriy sanʼat oʻqituvchisi, maktabgacha taʼlim fakulteti, M.E. Evseviev nomidagi Moskva davlat pedagogika instituti), Yudina G.V. (M.E.Evseviev nomidagi Moskva davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti tasviriy sanʼat oʻqituvchisi), talabalarni estetik tarbiyalash tizimida va boʻlajak oʻqituvchilarni kasbiy 555 rogan555 ic tayyorlashda Mordov xalq amaliy sanʼati va hunarmandchiligini oʻrganishga bagʻishlangan darslarni oʻz ichiga oladi.

Xalq amaliy sanʼati, zamonaviy tadqiqotchilar taʼkidlaganidek, koʻp funksiyali. Eng muhim vazifalar qatoriga estetik, ekologik, badiiy, axloqiy, mehnat va boshqalar kiradi. Xalq amaliy sanʼatining oʻziga xos ahamiyati shundaki, u koʻplab faoliyat turlarini, jumladan ijodiy, tasviriy, mehnat va boshqalarni oʻz ichiga oladi, bu esa shaxsning koʻplab fazilatlarini (masalan, mehnatsevarlik, tejamkorlik, masʼuliyat, aniqlik va boshqalar) shakllantirish imkonini beradi.

Tasviriy sanʼat darslarining yana bir eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va meʼmorchilik sanʼatlari asarlarini oʻqishga oʻrgatishdir. Tasviriy sanʼat asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi maʼlum bir mazmuni aks ettiradi. Biroq uni kitob oʻqigandek oqib boʻlmaydi.

Tasviriy sanʼat asarlarini oʻziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina oʻqiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziq, ranglar, oʻlchovlar, kompazitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar. Tasviriy sanʼat oʻquv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bolibgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli oʻrinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy sanʼat darslari yoshlarda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalbinnal tarbiyada, doʻstlik va oʻzaro yordam gʻoyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega.

Maktab tasviriy san'at dasturiga nazar solars ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o'tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib 556 rogan kurashlari, O'zbekistonning nafosatga to'la tabiati, xalqlar do'stligi g'oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san'at asarlari bilan tolib toshganligining shohidi bo'lamiz. Masalan ona tuproq uchun kurash olib 556 rogan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini, O'zbekistonning rango-rang go'zal manzaralarini, o'zbek xalqining Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganligini tasvirlovchi tasviriy san'at asarlari mavjud. Ularni o'rganish jarayonida bolalar san'atning qonun va qoidalari bilan tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig'indisini o'zlashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirib va boyitib borishni, o'zining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o'rgatish kerak. Bu vazifa o'quvchilarning tasviriy san'at darslarini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.Z. Azimova "Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi" Toshkent – Oqituvchi 1984.
2. B.Z. Azimova, R. Rajabov, S.F. Abdirasulov, Tasviriy sanatga oid atamalarning izohli lugati. Toshkent - 1994.
3. S. Abdiraulov Tasviriy sanat atamalari. Toshkent- 2003
4. X. Egamov. Boyoqlar bilan ishlash. – Toshkent . "Oqituvchi" 1981. 5. R. Hasanov. "Maktabda tasviriy sanat oqitish metodikasi" Toshkent. - "Fan". 2004. 6.
5. www.aexiv.uz

MADANIY VA TAFAKKURIY TARAQQIYOT DAVRI

F.U. Temirov,
BuxDU dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
X.R. Fatilloeva,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
x.r.fatilloeva@buxdu.uz.

Uyg'onish davri (Renessans) – Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy (9-12 va 15-asrlar) va G'arbiy Yevropada yuz bergan alohida "Renessans" atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma'naviy yuksalish (14-16-asrlar) ga nisbatan qo'llanilgan, uni o'rta asrchilik turg'unligidan yangi davrga o'tish bosqichi deb

baholaganlar. Renessansning asosiy alomatlari: tafakkurda va ilmu ijodda 557 poxy 557 ric, jaholat va mutaassiblikni yorib o'tib, insonni ulug'lash (qarang Gumanizm), uning iste'dodi, aqliy fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish; 557 poxy davr (yunon-rum) madaniyatiga qaytib, uni tiklash, boyitish; cherkov sxolastikasidan qutulib, adabiyot va san'atda dunyoviy go'zallik, hayot taronalarini qizg'in kuylash; inson erki, hurfikrlilik uchun kurashish. Buning natijasi o'laroq, ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulug'vor badiiy asarlar, salobatli binolar yaratildi, ilmfan rivojlandi.

Italiyada shoir Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkirlar Bokkachcho, Ariosto, Tasso, Byome Renessans g'oyalarning jarchilari bo'lib maydonga chiqdilar. Keyinchalik Michelangelo, Rafael, Shakespeare, Miguel de Cervantes Yevropaning turli mamlakatlarida buni davom ettirdilar. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o'rgangan olimlarning ishlari shuni ko'rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnaxr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9—12-asrlar) ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida "Musulmon Renessansi" (A. Mets) yoki "Sharq Uyg'onishi" (N. I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda.

Sharq Uyg'onish davrida Yevropa Uyg'onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo'shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilgani shundan dalolat beradi. Aniq fanlar sohasida Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqiddi. She'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulalo al Maarriy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o'lmas asarlar yaratdilar, ishqmuhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Uyg'onish davrining yana bir belgisi xalq ruhini ifodalaydigan "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Qirq vazir", "To'tinoma", "Sindbodnoma", "Jome'ul hikoyot" kabi qiziqarli sarguzashtlarga to'la, shavqu zavq qo'zg'atadigan asarlarning ko'paygani, ikkinchi tomondan "Xamsa" larda bo'lganiday, insoniy ideallarni mujassam etgan hikmat va falsafaga boy umumbashariy g'oyalarning tasvirlanishidir.

Eron va Markaziy Osiyo xalqlari bir necha ming yillik sivilizatsiya tarixiga ega. Markaziy Osiyoda 9—13-asrlarda o'z xalqining qadimiyatiga qaytish, Avesto falsafasini Qur'on ma'rifati bilan uyg'unlashtirib, qayta tiklashga intilish tasavvuf ta'limoti, "Ishroq" falsafasida namoyon bo'lgan. Tasavvufiy orifona ta'limotning qaror topishi, tariqatlar ham, aslida, hurfikrlik va inson kamolotiga bo'lgan ishonchning

nishonasi edi. Uygʻonish davri vakillari dinga emas, balki dinni sxolastika va jaholat manbaiga aylantirgan kishilarga qarshi kurashganlar.

Tafakkurdagi ikki: aqliy (ratsionalizm) va vajdiy (irratsionalizm) yoʻnalish namoyandalari zohiran oʻzaro kelishmay kelgan boʻlsalarda, amalda Yevropa Uygʻonish davrida boʻlganidek, inson ongini bedor etish, uni aqidaparastlik (taqlidchilik) gʻuboridan tozalashda hamkorlik qildilar.

Sharq Uygʻonish davri vakillari oʻz xalqining madaniyat bilan birga, yunon va hind xalqlari merosidan ham foydalanishgan. Yunon olimlarining asarlari 8—9-asrlarda arab tiliga tarjima qilindi, sharxlandi. Aflotun, Arastuni Sharq faylasuflari ham oʻz ustozlari deb hisoblashgan, Platon qarashlari Ibn al Arabiyga taʼsir etib, “vahdatul vujud” falsafasiga turtki berdi. Bu tarix qonuniyati; Abu Rayhon Beruniyning “Kitob at tavihit li avoil sinoat attanjim” asari qoʻlyozmasi (13- asr).yuksalishga shaylangan xalq oʻz madaniyati va oʻzigacha yaratilgan bashariy yutuqlarni oʻzlashtirib, yana yuksaklikka koʻtariladi.

Sharq Uygʻonish davri keng koʻlamli: taʼlim va tahlil, madrasa maorif rivojlangan, ulkan kutubxonalarda yuz minglab jild kitoblar yigʻilgan, “xazinat ul hikma”, “dor ul ulum” larda tolibi ilmlar, ustoz shogirdlar suhbatlari bardavom edi, olimning obroʻ eʼtibori yuksak qadrlandi. Ayniqsa, tutash chegara mamlakatlari: Qurdoba (Ispaniya), Kavkaz, Bolqon yarim orolida bu jarayon kuchli boʻlgan. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoxud bevosita arab tilida oʻqib oʻrganganlar. Ibn Sinoning “Tib qonunlari”, “Ash Shifo”, Forobiyning “Ilmlar tasnifi”, Ahmad Fargʻoniyning “Samo harakatlari va umumi ilmi nujum kitobi”, Muxammad Muso Xorazmiyning “Aljabr val muqobala”, Ibn Rushd, Abu Bakr Roziy asarlari tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan. “Tib qonunlari” 7 asr mobaynida Yevropa universitetlarida tibbiyot darsligi sifatida xizmat qildi.

“Oʻsha paytda (13—16-asr) jaholat changalidagi Yevropaning koʻpgina qismida musulmonlar ilm charogʻini yoqtdilar...; ispanlar yozuvi ham, shimoliy oramiy yozuvi ham Osiyodan olingan; shimoli gʻarbiy va sharqiy Yevropa madaniyati yunon – rumo – arab urugʻidan unib chiqqandir” (G. Gerder). Platon, Aristotel asarlari ham Yevropaga dastlab arabcha tarjima va talqinlar orqali kirib 558poxy558. “Sharqliklar Gʻarbni Aristotel falsafasi bilan yoritdilar” (Gegel).

Aniq fanlar va ularni oʻrganish usullarini, dehqonchilik va chorvachilik ilmlari, dengizda suzish, harbiy texnikani Yevropa sharqdan olib rivojlantirdi. “Matematika, kimyo, tibbiyot sohasida musulmonlarning xizmati buyuk... bu fanlarda musulmonlar Yevropaning muallimlari boʻlib qoldilar” (G. Gerder). Dante “Bazm”, “Ilohiy komediya” asarlarida Ibn Sino va Ibn Rushdni oʻz ustozlari qatorida ehtirom bilan tilga oladi. K. Marloning “Buyuk Temur” dramasida Amir Temur jasur, xaloskor inson sifatida tasvirlangan.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy anʼanalari arab, hind va fors musiqiy meros asarlari, cholgʻulari bilan oʻzaro taʼsir jarayonlari natijasida yanada boyib qaytadan jonlandi. Zero, Farobiy va uning izdoshi Ibn Sino musiqaning nazariy, falsafiy va

estetik masalalarini atroflicha tadqiq etib, umum sharqiy ta'limotni yaratishgan. Xususan, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqa amaliyotiga tayangan holda, kuy va usullar, qo'llaniladigan sozlar, muayyan shakl va janrlar doirasida mushtaraklik mavjudligini isbotlashgan. Forobiyning "Kitob ul musiqa alkabir" ("Musiqaga doir katta kitob") va, ayniqsa, Ibn Sinoning "Javome' ilm ul musiqi" ("Musiqaga oid ilmlar to'plami") kabi asarlarida yunon olimlari (Pifagor, Aristoksen va boshqalar) ning qarashlari boyitilib, tovushlar baland pastligi munosabatlari matematik uslubda ifodalangan. Shuningdek, sof tovush qator tizimi, undan o'rin olgan budlarning muloyimat va munofirat tasnifoti, iyqo nazariyasi ilk bor asoslab berilgan.

12—13-asrlarda ijodiy va aqliy kuchlar rivojini namoyish etgan O'n ikki maqom tizimi yuzaga keldi. Amir Temur (14 a.) va Temuriylar (15—16-asrlar) musiqaning barcha jabhalarida yangi Uyg'onish davri yuzaga kelishini ta'minlab berishdi. Turli mamlakatlardan Samarqand, Buxoro kabi markazlarga keltirilgan san'atkorlar — bastakorlik, musiqa ijrochiligi va musiqashunoslik jadal rivojlanishiga hissa qo'shishgan. Bu davrda mahalliy maqom ijodiyoti va ijrochiligi yuksaldi, og'zaki an'anadagi musiqaning boshqa rivojlangan shakllari (doston, ashula, cholg'u kuy va boshqalar) keng o'rin egallab, o'zlarining yuqori pallalariga ko'tarildi. Ayni shu jarayon keyinchalik Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg'ona — Toshkent maqom yo'llari, katta ashulalar shakllanishiga olib keldi.

Bu davr teatr namoyandalari 559 poxy drama tajribalaridan foydalanib xalq tomosha san'ati an'alarini rivojlantirdilar, kundalik hayot zavq-shavqini idrok qilishga da'vat etilgan dunyoviy sahna asarlarini yaratishga harakat qildilar (L. Ariosto, A. Politsiano, N. Makiavelli va boshqalar). Ispaniyada Uyg'onish davridagi teatr rivoji M. Servantes va Lope de Vega, Angliyada U. Shekspir ijodi bilan bog'liqdir. Uyg'onish davrida teatr san'ati professional omillari kuchaydi, dramaturgiya va aktyorlik san'ati nazariyasi qaror topdi, ilk teatr binolari qurildi.

Uyg'onish davri me'morligi qadimiy an'analarni o'zlashtirib, uni yangi mazmun bilan boyitdi, yangi me'moriy xomashyolar kashf qilindi, ko'p qavatli uylar, yangi qiyofadagi jamoat binolari qad ko'tardi. Binoni tashqi va ichki tomonlarini bezash, kenglikni tashkil etish borasida xam muayyan yutuqlarga erishildi. Yangi uslubdagi binolar Italiyaning Florensiya, Piza, Siyena, Genuya, Milan va Venetsiya shaharlarida qurildi. Ulkan binolar, g'oyat katta gumbazli va bir nechta ustunli saroy va ibodatxonalar qurildi, ayniqsa, florensiyalik me'morlar 559poxy me'morlik an'analari va order tizimidan unumli foydalandi. Bu an'analarni o'rta asr Italiya me'morlik texnikasi yutuqlari, mahalliy qurilish xom ashyolari va konstruksiyalari bilan uyg'unlashtirib, renessans me'morligi uslubini yaratdilar. Devor sathi tekisligining yaxlitligiga e'tibor kuchaydi, me'morlik mujassamotining chizikli ritmi va mutanosibligiga, xonaning kengligiga, uning yaxlit va ko'rkamligiga ahamiyat berila boshlandi; turar joy va ibodatxonalar qurilishi ham yangilandi. Shaharning ijtimoiy ma'muriy markazi tarhi va tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan yangi tipi paydo bo'ldi. Florensiyada yangi mumtoz uslub shakllandi va u Rim, keyinroq Venetsiyada

monumental yodgorliklar (monumental san'at) yaratilishiga sabab bo'ldi. Yirik me'moriy ansambllar vujudga keldi, "ideal" shaharlarning loyihalari yaratildi.

Uyg'onish davrida Italiya me'morlari tomonidan yaratilgan yangi uslubda ular bunyod etilgan binolarda o'z aksini topdi. Jumladan, Filippo Brunelleski katta gumbazli bino qurish muammosini hal qildi (560px 560px 42 m bo'lgan 8 qirrali gumbazli Santa Mariya del Fiore sobori), L. Alberti o'zi yaratgan yangi me'moriy kompozitsiyalarini ilmiy nazariy bayon qilgan "Me'morlik to'g'risida 10 kitob" asari bilan nazariyotchi olim sifatida namoyon bo'ldi. Yuksak Uyg'onish davri- ning asosiy tamoyillari Rimda shakllandi va rivojlandi, davrning insonparvarlik g'oyalari ulug'vor va hashamatli me'moriy kompozitsiyalarda o'z ifodasini topdi. Amaliyotda 560px me'moriy orderlar erkin va ijodiy ishlatila boshlandi, me'moriy uslublar birlashtirilib yagona milliy me'morlik uslubi shakllandi. D. Bramante, Rafael, Mikelanjelo va boshqa murakkab me'moriy majmualarida yuksak mahorat, boy ilm va nazariy fikr, o'tkir tafakkurni namoyon qildilar, badiiy yechimining go'zalligi, nisbat va shakllar o'yinining boyligi, kompozitsiya yechimining rang-barangligi insonga zavq bag'ishlaydigan me'moriy makonni yaratdilar.

Past balandlikka ega bo'lgan maydonda bog' yaratish muhim ahamiyat kasb etdi: past balandliklar bir biri bilan murakkab zinalar orqali bog'landi, tepalik va qiyaliklar turli bezak qurilmalar (g'or, suv kaskadlari, favvora, haykallar) hamda manzarali o'simliklar bilan bezatildi. Asosiy yo'l, qolgan yo'lka va zinalar darvozaga yo'naltirilgan bo'lib, kompozitsiyaning tugal bo'lishini ta'minlagan. Me'moriy uslublarni o'rganishga e'tibor kuchaydi. 16-asr o'rtalaridan Italiyada maxsus o'quv yurtlari, akademiyalar tuzildi va ularda me'morlikka oid ta'lim berilishi muhim voqea bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Mets A., Musulmankiy renessans, M., 1966
2. Xayrullayev M., Uyg'onishdavri va Sharq mutafakkiri, T., 1971
3. Konrad N. I., Zapad I vostok, M., 1992;
4. Sulaymonova F., Sharq G'arb, T., 1997;
5. Komilov N., Tafakkur karvonlari, T., 1999;
6. Yevdokimov Yu., Simakova N., Muzika 560px Vozrojdeniya M., 1982;
7. Vseobshaya istoriya arxitekturi, t. 5, M., 1967;
8. Shramkova G., Iskusstvo Vozrojdeniya, M., 1977; G'afurbekov A., Amir Temur obrazi talqinlari: haqiqat va badiyat // Amir Temur: shaxsning zamondoshlari tomonidan baholanishi, T., 1997.

MANAGEMENT OF INVESTMENTS IN THE DEVELOPMENT OF TOURIST AND GASTRONOMIC STREETS

Annotation. The article explores effective strategies for managing investments in the development of tourist and gastronomic streets, aiming to enhance tourism infrastructure, stimulate economic growth, preserve cultural heritage, and promote community engagement. It emphasizes the importance of strategic planning, stakeholder engagement, infrastructure improvement, culinary diversity, cultural programming, and sustainable management practices. By adopting these strategies, destinations can create vibrant and inclusive streets that serve as dynamic hubs of tourism and gastronomy, contributing to sustainable development and community prosperity.

Keywords: Tourism development, gastronomic streets, investment management, sustainable tourism, community engagement, Cultural programming, infrastructure improvement, culinary diversity, stakeholder engagement, sustainable management practices

The decision of the President "On additional measures to create favorable conditions for entrepreneurs in Khorezm region" was adopted:

The goal is to build modern shopping centers and markets in the cities of Khiva and Urganch, Hazorasp, Khiva, Shavot, Bogot and Urganch districts, as well as to develop tourist and gastronomic streets.

Tourist and gastronomic streets are vibrant hubs of cultural exchange, culinary delights, and immersive experiences for visitors and locals alike. Investing in the development of these streets is not only an opportunity to enhance the tourism infrastructure but also to stimulate economic growth, preserve cultural heritage, and promote community engagement.

Strategic planning and stakeholder engagement: Before embarking on development projects, it is essential to engage in comprehensive strategic planning and stakeholder consultation. This involves identifying the goals and objectives of the development project, conducting feasibility studies, and assessing the needs and preferences of local communities, businesses, and visitors. Engaging stakeholders early in the planning process fosters buy-in, builds consensus, and ensures that investments align with the aspirations of the community.

Infrastructure improvement and beautification: Investments in infrastructure improvement and beautification are essential for enhancing the attractiveness and accessibility of tourist and gastronomic streets. This may include renovating sidewalks, installing pedestrian-friendly features, adding greenery and landscaping, and upgrading lighting and signage. Improving the physical environment not only enhances the visitor experience but also encourages investment from businesses and property owners, leading to further revitalization and economic growth.

Culinary diversity and authenticity: investing in culinary diversity and authenticity is key to the success of gastronomic streets. Supporting local food businesses, artisans, and producers adds to the authenticity of the street and creates a unique sense of place. Encouraging the offering of diverse cuisines and specialties reflects the cultural richness of the destination and appeals to a wide range of tastes and preferences. Investing in food festivals, culinary events, and food education programs further promotes gastronomic tourism and enhances the reputation of the street as a culinary destination.

Cultural programming and events: cultural programming and events play a vital role in animating tourist and gastronomic streets, attracting visitors, and fostering community engagement. Investing in cultural festivals, live performances, street markets, and art installations creates a vibrant atmosphere and encourages repeat visitation. Collaborating with local artists, performers, and cultural organizations adds to the authenticity of the street and provides opportunities for cultural exchange and storytelling.

Sustainable management and maintenance: Sustainable management and maintenance are essential for the long-term success and viability of tourist and gastronomic streets. Investing in effective management structures, such as business improvement districts or street management associations, ensures ongoing coordination, maintenance, and promotion of the street. Implementing sustainable practices, such as waste management, energy efficiency, and responsible tourism initiatives, minimizes environmental impact and fosters a sense of stewardship among stakeholders.

Investing in the development of tourist and gastronomic streets holds immense potential for stimulating economic growth, preserving cultural heritage, and enhancing the visitor experience. By adopting a strategic approach to investment management, engaging stakeholders, improving infrastructure, promoting culinary diversity, programming cultural events, and implementing sustainable management practices, destinations can create vibrant, inclusive, and thriving streets that serve as dynamic hubs of tourism and gastronomy. Through collaborative efforts and responsible investment, tourist and gastronomic streets can become catalysts for sustainable development and community prosperity.

Effective management of investments in tourist and gastronomic streets is essential for creating vibrant, inclusive, and sustainable urban environments. By adopting a holistic approach that integrates planning, public-private partnerships, infrastructure enhancement, cultural preservation, and sustainable practices, decision-makers can maximize the potential of these streets as catalysts for economic growth, social cohesion, and environmental stewardship. With careful planning, strategic investments, and community engagement, tourist and gastronomic streets can thrive as vibrant hubs of urban tourism, offering memorable experiences for visitors and residents alike.

REFERENCES

1. Zokirjon o'g'li AB TURIZMNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI //EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN THE WORLD. – 2023. – T. 13. – No. 2. – pp. 159-162.
2. Zokirjon o'g'li AB TURIZM SOHASIDA KLASTERLARNING SAMARASI VA AHAMIYATI //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 20. – No. 3. – pp. 176-179.
3. Arzimatov B. HUDUDLARDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – No. 13. – pp. 47-50.
4. Arzimatov B. TURISTIK KORXONALARDA INVESTITSİYALARNI BOSHQARISH JARAYONLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – No. 13. – pp. 22-25.
5. Arzimatov B. O 'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALAR JALB ETILISH HOLATI VA SOHA RIVOJLANISHIDAGI O 'ZGARISH TENDENSIYALARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – No. 11. – pp. 807-812.
6. Arzimatov B. MECHANISMS OF ECOTURISM DEVELOPMENT // Pedagogy and psychology in the modern world: theoretical and practical research. – 2022. – T. 2. – No. 17. – pp. 343-345.
7. Arzimatov B. HUDUDLARDA TURIZM SOHASI RIVOJLANISHIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – No. A7. – pp. 692-696.
8. ugli Arzimatov B. Z. SPECIFIC ASPECTS OF INVESTMENT MANAGEMENT IN THE TOURISM SECTOR //World of Scientific news in Science. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 144-148.
9. Arzimatov Bobirmirzo Zokirjon ugli Doctoral student of Fergana polytechnic institute. (2024). IMPLEMENTED REFORMS ON THE DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10899840>

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI TA'LIM YO'NALISH MISOLIDA)

M.H.Habibova,
BuxDU magistranti
m.h.habibova@buxdu.uz

Bugungi kunda jahonning qaysi bir rivojlangan davlatlarini olmaylik, ta'lim sohasida, ayniqsa maktab yoshidan boshlab san'at, xususan, tasviriy san'at haqidagi bilimlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Mamlakatimizda o'rta ta'limning yana o'n bir yillik bo'lishi va unda maktabning o'zida tuman va mahallalarning xususiyatidan kelib chiqib 64 xil ishchi kasblarga o'rgatilishi ko'zda tutilmoqda. O'quv markazlarining tashkil etilishi, shuningdek maxsus san'at maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar hamda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida «Ta'lim sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir.[1] Yusuf Xoshojib bobomiz aytganlaridek:

«Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi,
Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi».

Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak» deb ta'kidladilar.

Bu esa yillar davomida uzluksiz davom ettirilishi yangi O'zbekistonning buyuk kelajagini bunyod qilishga qaratilgan istiqbolli rejalarimizni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga talabalar bilim, ko'nikma va malakasini oshirish, dars jarayonlarida innovatsion yondashuvli metodlardan foydalanish hozirgi zamon talabi bo'lib qolmoqda. Talaba o'z kasbiy faoliyatini chuqurroq anglashi uchun mustaqil ta'lim jarayonida ko'proq ishtirok etishi hamda belgilangan vazifalarni modellashtirish joiz bo'lib qolmoqda.

“Talabalarining mustaqil ishi, o'quv jarayonining asosiy elementlaridan biri bo'lib, buning natijasida talabada mustaqil ta'lim, o'quv-izlanish va ijodiy yo'nalishlar ko'nikma va malakalari shakllanadi. “Talabalarining mustaqil faoliyati quyidagilardan iborat: o'quv ma'lumotlarini izlash, uni analitik idrok etish va qayta ishlash, amaliy jihatdan mustahkamlash, umumlashtirish va o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni o'quv va ijodiy amaliy muammolarni hal qilishda foydalanish”. Grafika san'ati tajribasini o'zlashtirish, badiiy ifoda vositalari va ulardan foydalanish metodikasini o'rganish, talabalar birinchi semestrda boshlab keyingi vizual muammolarni hal qilish bilan duch keladilar: rasm tekisligini, kompozitsion tuzilmani tashkil qilish va boshqa ko'plab ishlar, ko'pincha bu muammolarni rasmiy grafik texnikasi bilan hal qiladilar.

Ko'pincha talabalar ijodiy qiyinchiliklarni va bo'sh qog'oz varag'idan qo'rqishadi. Shuning uchun tartibga solish funksiyasini (charchoqni kamaytirish, kuchlanishni bartaraf etish), kognitiv (fantaziyadan faolroq foydalanish, shaxsiyatning turli sohalarini rivojlantirish), rivojlanish (his-tuyg'ularni o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy o'sish) o'z ichiga olgan vazifalar kerak. Turli xil grafik uslublarni o'zlashtirish

talabalar va bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, tasviriy san'at o'qituvchisi kasbida muvaffaqiyatli ishlash uchun talaba quyidagi malakalarga ega bo'lishi kerak:

- ta'lim muhiti imkoniyatlarini rivojlantiruvchi innovatsion usullar va pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish va ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- o'quv jarayoni sifatini baholash uchun diagnostika o'tkazish jarayonini o'zlashtirish;

- o'quv jarayonini tanlangan faoliyat bo'yicha iqtidorli bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

- o'quvchilarning rivojlanishiga yordam beruvchi qo'shimcha kasbiy tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqishdan iborat.

Shu munosabat bilan san'atshunoslik yo'nalishi talabalariga grafika san'atining texnika va usullarini o'rgatish zarurati shubhasizdir.

“Hozirda nazariy pedagogikada ushbu mavzu bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunday qilib, O.Yu. Polyanichko o'z ishida kompetentsiyaga asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan talabalar tomonidan rasm chizish bo'yicha sinfda va sinfdan tashqari mustaqil ishlar tizimining modelini taklif qiladi. Tadqiqotchi nuqtai nazaridan, talabalar uchun ta'limni shaxsan muhim faoliyatga aylanishi uchun yangilash kerak” [14].

“E.N.ning ilmiy ishida. Trushchenko professional faoliyat uchun motivatsiyani rag'batlantiradigan kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni quyidagi qoidalar bilan belgilaydi:

- o'quvchilarning mustaqil chizmachilik ishlariga motivatsion va qadriyatli munosabatini rivojlantirish;

- ta'lim faoliyatidan kasbiy faoliyatga bosqichma-bosqich o'tishga yordam beruvchi o'quv materiallarini yaratish;

- qo'shimcha uslubiy materiallardan (dasturlar, ball-reyting kartasi, baholash vositalari fondi) foydalanish taklif etiladi” [3].

“O.E. Lebedev kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning asosiy jihatlarini taqdim etdi:

- ta'limning asosiy maqsadi – o'quv-ijodiy muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini shakllantirish;

- ta'limning mazmunli yo'nalishlari turli darajadagi muammolarni hal qilishda uslubiy, didaktik, shuningdek, ijtimoiy tajribani belgilaydi; ta'lim jarayonini tashkil etish psixologik, pedagogik va tarbiyaviy talablarga rioya qilishni o'z ichiga oladi;

- o'quvchilarning natijalarini baholash ta'limning ma'lum bosqichida erishilgan ta'lim darajasi bilan belgilanadi” [3].

“N.V. Bordovskayaning fikricha, darsdan tashqari mashg'ulotlarning ko'payishi quyidagi sabablarga ko'ra kutilgan natijalarni bermaydi:

□ uslubiy ishlanmalarning mazmuniy yo'nalishlari aniq bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadlari bilan bog'liq emasligi;

□ katta hajmdagi topshiriqlar talabalar tomonidan rasmiy ravishda bajariladi;

- mustaqil ish uchun uslubiy ishlanmalar topshiriqning sifatli bajarilishini ta'minlay olmaydi” .

“Mustaqil ishlarni tashkil etishning nazariy jihatlari tahlili tadqiqotchilarning faqat ayrim fikrlarini ko'rsatdi. Bizning fikrimizcha, ko'rib chiqilayotgan muammo qisman hal qilingan va uni yanada mazmunli va uslubiy rivojlantirishni, xususan, refleksiv ta'sirga ega bo'lgan noan'anaviy mashqlarni ishlab chiqishni taqozo etadi».

Tadqiqot ob'ekti - Innovatsion yondashuv asosida talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish metodikasi (tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalish misolida)ni shakllantirish.

Tadqiqot predmeti tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun “Chizmachilik” va “Rang-tasvir ”kursida mustaqil ishlarni tashkil etish mazmuni va usullaridan iborat.

Ishning maqsadi: tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish va mazmuni singdirish, shu jumladan mustaqil o'quv va ijodiy ish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan o'quv-uslubiy materiallar to'plami, asoslarni o'qitish metodikasini o'zlashtirishdan iborat.

Tadqiqot gipotezasi: Talabalarning mustaqil rasm chizish ko'nikmalarini rivojlantirish, agar talabalarning mustaqil ishi quyidagilar asosida tashkil etilsa samarali bo'ladi.

□ o'quvchilarning o'quv va darsdan tashqari (mustaqil) faoliyati jarayonini ta'minlovchi ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy materiallar majmuasini tashkil etish;

□ grafik texnologiyalarni o'qitishning psixologik-pedagogik sharoitlarini hisobga olish;

□ zarur bilimlar miqdori va turli xil o'qitish usullaridan foydalangan holda nazariy asoslangan vazifalarni ko'rib chiqish;

□ mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv xonasining moddiy-texnik jihozlaridan foydalanish zarur.

Tadqiqotning metodologik asosini faylasuflarning asarlaridagi ta'limga tizimli yondashuvni o'rganish: D.B.ning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyalari tashkil etadi. Elkonina, V.V. Davydova; XONIM. Kogon, E.G. Yudina; tasviriy san'at sohasidagi nazariy tadqiqotlar, rassomlar tayyorlashning pedagogik tamoyillari va usullari (V. Gropius, I.I. Itten, V.V. Kandinskiy, V.A. Favorskiy, V.N. Andreev, M.S. Kagan, T. S. Komarova, B.P. Yusov, N.A. Bashkatov, N.A. Vetlugina, N.A. Vetlugina) , R.G.Koptseva, V.S.Mukhina, F.Italo, M.Montessori, R.Muller, E.A.G.A. Blend, S. Langler, N.A.Vetlugina, T.S.Poluyanova); grafika sohasida tadqiqotlar (B.V. Lushnikov, V.V. Pertsov, N.P. Beschastnov, V.N. Polunina, V.V. Kandinskiy, A.F.

Paxomov, R.C. Bartsits, L. V. Jelondievskaya, N. Li, L.P. Sopronenko, V.A.V.Lokalov, V.A.V.Lokalov.

Muammolarni hal qilish va gipotezani tekshirish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

□ o'rganilayotgan tadqiqot mavzusi bo'yicha turli dissertatsiya ishlari, avtoreferatlar, ilmiy nashrlar, shuningdek, turli o'quv dasturlari va standartlari, ilmiy davriy nashrlarning nazariy va uslubiy tahlili bo'lgan tadqiqot ishlarini o'rganish;

□ empirik tadqiqot, ya'ni pedagogik eksperiment, kuzatish, suhbat, tajribaning nazorat, oraliq va shakllantiruvchi bosqichlarida bajarilgan talabalar ishini qiyosiy tahlil qilish;

□ eksperimentdan oldin va keyin talabalarning badiiy faoliyati natijalari va mahsulotlarini o'rganish va tahlil qilishdan iborat bo'lgan baholash va statistiktahlillardan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi uslubiy jihatlarining hal etilmaganligi sababli o'quv-uslubiy materiallar majmuasini shakllantirish zarurligini asoslashda; o'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan psixologik-pedagogik, o'quv-uslubiy talablarni belgilash, talabalarning mustaqil chizmachilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga hissa qo'shish; "talabalarning mustaqil rasm chizish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'quv-uslubiy materiallar to'plamini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish kerak.

Nazariy ahamiyati shundan iboratki, talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv, ijodiy va uslubiy vazifalar tizimi taklif etilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tasviriy san'at yo'nalishi talabalarining mustaqil ishlari tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va yangi ta'lim metodlari hamda modellaridan foydalanish bir muncha yutuqlarga erishishga hamda talaba va ustozning o'zaro fikriy-ijodiy tushunchalarini ilg'ashga bir muncha ko'maklashadi deska adashmagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi
2. Doston Abduvoitovich Berdiyev Maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitishda kelajak ta'limi steam interaktiv ta'limini rivojlantirish // "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022/ Volume 3 Issue 2 Pages:687-690
3. Землякова Г. М., Латипова В. А. Психолого-педагогические и учебно-методические требования к организации учебного процесса, способствующие формированию и развитию навыка самостоятельной работы по рисунку студентов первого курса магистратуры / Г. М. Землякова, В. А. Латипова // colloquium-journal. – 2018. - №3 (27).

4. Землякова Г.М., Латипова В.А. Теоретические аспекты организации самостоятельной работы по дисциплине «Рисунок» / Г. М. Землякова, В. А. Латипова // colloquium-journal. – 2018. - №3 (27).

S.P.TOLSTOVNING ETNOGRAFIYA FANI RIVOJIDAGI XIZMATLARI

M.B.Qurbonova

BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

A.H. Hakimova

*Etnografiya, etnologiya, antropologiya
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

a.h.hakimova@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tashkilotchisi va rahbari S.P.Tolstovning faoliyati jarayonida amalga oshirgan tadqiqotlari, ilmiy izlanishlari hamda etnografiya fani rivojidadagi xizmatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ekspeditsiya, madaniyat, etnograf, tilshunoslik, arxeologiya.

SSSR Fanlar Akademiyasi muxbir a'zosi, Davlat mukofoti laureati, tarix fanlari doktori, professor S.P.Tolstov o'ta bilimdon inson sifatida tarixda nom qoldirgan olimdir. Uning etnografiya, arxeologiya, tilshunoslik, antropologiya, geografiya singari fanlarga qo'shgan beqiyos xizmatlari nafaqat Sovet ittifoqida balki, xorijda ham keng e'tirofqa sazovor bo'lgan²².

Sergey Pavlovich Tolstov ilmiy faoliyatini tarixchi, arxeolog, etnograf kabi ilmiy kadrlar tayyorlash bilan chambarchas birlashtirib olib borgan, ushbu xizmati nafaqat sobiq ittifoq Respublikalari, balki O'rta Osiyo davlatlari uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Hozirgi vaqtda uning shogirdlari va izdoshlarini barcha etnografik markazlarda uchratish mumkin.

S.P.Tolstov nomi Sovet etnografiyasining asosiy yo'nalishlari va eng muhim muammolarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Uning qariyb chorak asr davomidagi izlanishlari natijasida Etnografiya Instituti etnografiya fanlari markaziga yaratildi. Uning tarixiy muammolarni hal qilishda o'ziga xos kompleks yondashuvi natijasida yirik mintaqaviy ekspeditsiyalar yaratildi²³.

Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi bevosita Tolstov nomi bilan bog'liq edi. Professor Yahyo G'ulomov ta'kidlaganidek "S.P.Tolstov rahbarlik qilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining uzoq vaqt davomida va keng ko'lamda olib

22 Жданко.Т.А, Итина М.А. Сергей Павлович Толстов // Советская Этнография,-М; -1977. -С.3

23 Итина М.А. Заседание ученого совета Института этнографии АН СССР, посвященное памяти С.П.Толстова // Советская этнография. Москва , № 2.-1988. С.147

borgan ishlari natijasida Xorazm tarixining “Islomgacha bo’lgan davri” o’z hikoyasini boshladi. Qadimgi kanal bo’ylaridagi Qizilqum va Qoraqumning qumlari ostida ko’mlib qolgan behisob xarobalar o’z hikoyalarini gapirib bera boshladilar”²⁴.

U hamkasblari va shogirdlari xotirasida katta ilmiy tashkilotchilik qobiliyati bilan ajralib turuvchi shaxs, ko’pqirrali bilim sohibi, insoniylik timsoli, yangilik uchun doimiy ijodiy izlanishdan tolmaydigan edi.

Olimning yoshligidanoq etnografiyaga qiziqishi yuqori bo’lgan. Bo’lajak olim talabalik yillarida izchil kompleks tadqiqotlar tarafdori D.N.Anuchin etnografiya maktabida faoliyatini boshlagan.²⁵

Faoliyatini 1929-yilda Moskva viloyatidagi muzeyda boshlagan. Xorazmda 1937-yildan arxeologik ekspeditsiyasini boshlagan bo’lsada, II jahon urushining birinchi yillarida atrilleriya razvedkasiga qo’shiladi. 1942-yilda ilmiy faoliyatiga qaytgan S.P.Tolstov “Qadimiy Xorazm” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shundan so’ng Etnografiya Instituti direktori etib tayinlangan.

Uning Moskva Davlat universitetida etnografiya sohasidagi maruzalari S.P.Tolstovni buyuk pedagog va talantli tadqiqotchi ekanligini namoyon qilib, o’z atrofida ko’plab is’tedod egalarini jalb qilgan²⁶.

O’rta Osiyoning quruq iqlim sharoitida insoniyat uchun suv asosiy manba ekanligini hisobga olgan holda, olim Amudaryo va Sirdaryoning qadimiy delta tekisliklarini o’rganish bo’yicha keng ko’lamli kompleks ishlarni tashkil etgan. Uning bunday qarorga kelishi ikkinchi jahon urushidan oldingi yillarda Amudaryo quyi oqimidagi qadimiy sug’orish tarmog’ida olib borgan tadqiqotlari turtki bo’lgan. Bu ishlarning natijalarini “Qadimgi Xorazm” monografiyasida umumlashtirgan.

Unda S.P.Tolstov Xorazm vohasining ma’lum bir tarixiy davrda vayron bo’lish sabablari haqidagi savolga javob qaytarishga, O’rta Osiyoda qadimiy sug’orish yerlarining qurib ketishi haqidagi nazariyalarni o’rgangan. Uning fikricha, sug’orish tizimlarining tarixiy dinamikasi va tanazzuli tabiiy emas, eng avvalo ijtimoiy-siyosiy omillar ya’ni halokatli urushlar, feodal tarqoqlikning kuchayishi va feodal nizolar natijasi mahsuli bo’lgan.

1987-yil 3-fevralda SSSR Fanlar Akamediyasi Etnografiya institutida S.P.Tolstov tavalludining 80-yilligiga bag’ishlangan ilmiy kengash bo’lib o’tdi. Kengash majlisini ochgan akamedik Yu.V.Bromley sovet etnografiyasi shakllanishi hamda rivojlanishida S.P.Tolstovning ulkan mehnati, xususan, tarix, arxeologiya fanlarining asosiy yo’nalishlari qatorida zamonaviy etnografiyani o’rganishni ilgari surganligini ta’kidlagan.

S.P.Tolstov ittifoq va respublika ilmiy muassasalar uchun malakali mutaxassislar tayyorlashda samarali ishlarni amalga oshirgan. Uning rahbarligi va ishtirokida

24 Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача. -Т; 1959. -В.11.

25 Жданко.Т.А, Итина М.А. Сергей Павлович Толстов //Советская Этнография. -М.-1977. -С.4

26 Жданко.Т.А, Итина М.А. Сергей Павлович Толстов //Советская Этнография, -М; 1977. -С.5

18jildlik “Dunyo xalqlari” turkumi tuzilib, ushbu to’plam bugungi kungacha fundamental umumlashtiruvchi etnografik asarlardan biri bo’lib qolmoqda²⁷.

Ushbu tarixiy-etnografik ocherklar to’plami etnografiyaning rivojlanishida qo’shgan ilmiy-nazariy hissasi va xalqlarning kundalik hayotini keng qamrovli dalillar bilan boyitganligi sababli yuksak baho bilan qabul qilingan.

S.P.Tolstovning arxeologik, etnografik, ilmiy va tashkiliy faoliyati doimo hamkasblari va shogirdlari e’tirofida bo’lgan. Shunday shogirdlaridan biri M.A.Itina Sergey Pavlovichni o’zining xotiralarida quyidagicha xotirlaydi: “Uning ko’p qirrali faoliyatida barchasi bir-birini to’ldirib birlashtiradi. Ustozning tarixiy muammolarni shakllantirib, ularni o’rganishda keng yondashuvi uni ensiklopedik olim sifatida namoyon qiladi. Tinimsiz ilmiy izlanishlar jarayonida to’plangan tajribalar S.P.Tolstovning ikki muhim fazilatini namoyon qilgan. Biri, yuqori darajadagi ilmiy sezgirligi, geografik joylashuvni aniqlashdagi yondashuvi edi. Ikkinchidan, Sergey Pavlovich uzoqni ko’zlab ish tutganligi, ilmiy izlanishlari nafaqat bugungi kun muammolarini balki kelajakni ham ko’zlagan edi.

Olimning ibtidoiy jamiyat tarixi muammolarini, xalqlarning rivojlanishidagi ilmiy tahlillari va mavjud nazariyalarga tanqidiy yondashuvi fanga qo’shilgan muhim hissasi edi. U ikki-qavmli qabilalarning umumiy tuzilishi va davriylashtirish muammolarini tahlil qilish bilan shug’ullanib, M.Morganning nazariyasiga tanqidiy ko’z bilan yondashib, o’zining ibtidoiy jamiyat, yashirin erkaklar jamiyati, jamoaviy nikoh munosabatlari haqidagi umunazariy xulosalarini taqdim qiladi²⁸.

O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akamediyasini tashkil etilganligining 60-yilligiga bag’ishlangan yubiley sessiyasida birinchi Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov nutq so’zlab S.P.Tolstovning xizmatlari e’tirof etilgandi. “S.P.Tolstov singari rus olimlarining o’zbek ilm-fani rivojiga qo’shgan hissasini hech qachon unutmashligimiz kerak”²⁹ deya e’tirof etgandilar.

Olim ilm-fan imkoniyatlaridan yuqori saviyada foydalanib, turli soha mutaxassislarini o’z atrofida jamlagan. Uning Xorazm vohasida qilgan izlanishlari va ilmiy yutuqlarining ahamiyati O’rta Osiyo tarixi, etnografiyasi, antropologiyasida yechilmagan muammolarni oydinlashtirishga imkon yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Итина М.А. Заседание ученого совета Института этнографии АН СССР, посвященное памяти С.П.Толстова // Советская этнография. № 2. 1988.
2. Фуломов Я. ”Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача”. Т. 1959

²⁷ Итина М.А.Заседание ученого совета Института этнографии АН СССР, посвященное памяти С.П.Толстова // Советская этнография. № 2.-1988. -С.147

²⁸ Жданко.Т.А, Итина М.А. Сергей Павлович Толстов //Советская Этнография, -М; -1977. -С.7

²⁹ Жабборов И. Великий учений, открывший миру Академию Маъмуна, или жизн, сполна отданная науке // ЭО, №5. -М; 2007. -С.167.

3. Жданко.Т.А, Итина М.А. Сергей Павлович Толстов //Советская Этнография, “Наука”. -М. 1977
4. Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. Москва. 1948.
5. Жабборов И. Великий учений, открывший миру Академию Маъмуна, или жизнь, сполна отданная науке //ЭО, №5. -М. 2007.
6. www.ziyonet.uz

BUXORO SHAHRI TABIIY SHAROITI VA IRRIGATSIYA TIZIMI XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA

M.S. Tog'oyeva,
BuxDU 2-bosqich magistranti
m.s.togoyeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Buxoro O'rta Osiyoning eng qadimiy va eng yirik shaharlaridan biri bo'lib, ko'p asrlar davomida jamiyat tarixida muhim rol o'ynagan va bir necha bor zamonaviy O'zbekiston hududida shakllangan davlatlarning poytaxti bo'lgan. Buxoroliklarning ko'plab avlodlari inson hayoti uchun qulay bo'lmagan sharoitlarni o'zgartirib, o'zlarining iqtisodiy faoliyati jarayonida ajdodlari tanlagan hududni obodonlashtirdilar va boshdan qurdilar; asrdan-asrga, avloddan-avlodga ular shahar qurilishiga hissa qo'shdilar va uni inqilobdan keyin tarixning yangi bosqichiga olib o'tdilar.

Joylashuv va tabiiy sharoitlar. Buxoro shahri Movaraunnahr nomi bilan tanilgan O'rta Osiyoning g'arbiy qismida joylashgan. Shahar Zarafshonning quyi oqimida, Xorazmgacha cho'zilgan keng cho'l bilan chegarada tashkil etilgan hududning eng yirik markazi bo'lgan. U O'rta Osiyoni bir tomondan Old Osiyo va Janubiy Rossiya hududlari bilan, ikkinchi tomondan Afg'oniston, Hindiston, Sharqiy Turkiston va Xitoy bilan bog'laydigan savdo yo'llari kesishmasida joylashgan edi. Movaraunnahrning turli hududlaridan Buxoroga savdo yo'llari kelgan.

Shahar va uning atrofidagi hududlarni egallab olgan sho'r cho'l yerlariga Zarafshandan qadimgi davrlarda qazilgan maxsus kanal (shahri Rud) orqali suv olib kelingan.

Buxoroga bevosita tutash bo'lgan, shaharning shimolida ayniqsa zich bo'lgan qishloq hududlari ushbu kanaldan chiqarilgan ariqlar tarmog'i bilan sug'orilgan. U yerda Jizmandu, Navmiton, Talipoch, Xonobod va boshqa ariqlar oqib o'tgan. Sharqdan g'arbiga bir nechta parallel kanallar shaklida oqib, ular bu yerda joylashgan bog'lar va haydaladigan yerlarni sug'organ va shaharni g'arbdan aylanib o'tib, g'arbiy va janubi-g'arbiy shahar atrofini suv bilan ta'minlagan. Janubi-Sharqiy tomondan, shuningdek, parallel kanallar to'plami shaklida Safedmo'y (o'rta asrlar Safedmun), Laylak, Foshun, Zarmanok, Bogdash kanallari o'tgan.

Buxoroning eng yaqin atroflariga obi hayot olib boruvchi kanallar bilan bir qatorda, yer osti suvlari va chiqindi suvlarni to'playdigan va shahardan uzoqlashtiradigan kollektorlar (zahkash) tarmog'i bilan bo'lgan. Ushbu kollektorlar aholining meliorativ rivojlanish va hududni hayotga moslashtirish uchun ko'p asrlik kurashidan dalolat beradi. Biroq, mavjud kollektorlar shahar devorlariga yaqinlashayotgan botqoqlarni yo'q qila olmadilar. Ayniqsa, uning shimolida bunday botqoqlar ko'p edi.

Inqilobdan oldingi davrda Buxoro atroflari holati Narshaxiy tomonidan keltirib o'tilgan tasvirni yodga soladi: "Buxoro devorlariga to'g'ridan-to'g'ri Dashtak deb nomlangan tekislik tutashgan. Bu butun hudud qamish bilan qoplangan".

N. Lukoshin tarjimasiga ko'ra, arkga tutash hudud haqida gapir ketmoqda deb o'ylashga imkon beradi: N. Lukoshin hisor (حصار) atamasini "Buxoro qal'asi" deb tarjima qiladi, odatda bu so'z ark degan ma'noni anglatadi. Biroq, "hisor" atamasining asl ma'nosi "to'siq" degan ma'noni anglatadi va manbalarda shahar devorini anglatish uchun ishlatiladi. Narshaxiy davrida Ark Registonning shimoliy chegarasi va oxirgi shahar devori o'rtasida o'tgan.

O'shandan beri buxoroliklar botqoqlarni quritish uchun ko'p mehnat qilishdi va Narshaxiy yozgan joydagi botqoqlar shimolga, devor chegarasidan orqaga chekinishdi. Uning orqasida, shahardan bir oz masofada, eng katta kollektor - zahkashi Amir Temur o'tgan edi. Bu nom, ehtimol, uning qurilishi boshlangan vaqtni bildiradi. Ammo uning yordami bilan Buxoroning Shimoliy chekkalarida bog'dorchilik va dehqonchilik bilan shug'ullanish mumkin bo'lgan bo'lsa-da, buxoroliklar barcha botqoqlarni to'liq quritishga muvaffaq bo'lmadilar.

O'rganilayotgan davrda qamish bilan qoplangan ko'plab botqoqlar to'g'ridan-to'g'ri Imom va O'g'lon darvozalari orqasida joylashgan edi. Janubda, Sallaxon darvozasi oldida keng botqoq bo'lgan, u ham qamish bilan qoplangan edi. Shahar ichida ham bir nechta botqoq joylar bo'lgan: ular Iskandarxon va Kemuxtgaron guzarlarida joylashgan bo'lib, bu yerda joylashgan terichilar ularning suvidan terini qayta ishlashda foydalangan. Sovet davrida tropik kasalliklarga qarshi kuchli kurash olib borishi natijasida buxoroliklarning yashash sharoitlarini sezilarli darajada yaxshilagan taniqli parazitolog L.M.Isaevning qiziqarli taxminiga ko'ra, ushbu botqoqlarning barchasi qurilish uchun doimiy ravishda tuproq qazib olish natijasida hosil bo'lgan.

Inqilobdan oldingi Buxoro aholisi shaharga yaqin joyda bezgak chivinlari ko'payadigan botqoqlarning mavjudligidan juda aziyat chekdilar, inqilobdan keyingi dastlabki yillarda Buxoro fuqarolarining tibbiy tekshiruvi shuni ko'rsatdiki, bu yerda bezgak bilan kasallanish yuz foiz edi.

Shaharni suv bilan ta'minlash asosan Shohrud yoki Rudi-shahr kanali shahar daryosi (qadimda Rudi-zar – Oltin Daryo) orqali amalga oshirildi.

Ushbu kanal Zarafshondan chiqarilgan, shahardan bir necha kilometr masofada olib chiqilgan va sun'iy kanal bo'ylab yuqoriga ko'tarilib oqqan.

Shaharga eng kam miqdorda suv shahar tashqarisidan oqib o'tgan ariqlardan (zahkash, Navmiton) kelgan; u shahar devoridan olib o'tilgan kichik quvurlar orqali o'tgan.

Shohrud kanali Mozor darvozasidan biroz janubda joylashgan. U shahar devori ostidan o'tib, panjara bilan to'silgan juda katta teshik jo'rinishida edi, panjara odamning u yerdan shaharga kirishiga to'sqinlik qilgan. Kanal shahar hududini diagonal ravishda ikkita deyarli teng qismga kesib o'tgan va shaharni Talipoch darvozasi yaqinida tark etdi. Kanalning deyarli barcha suvlari shaharda iste'mol qilingan, chiqish paytida u kichkina ariq ko'rinishiga ega edi. Kanal juda chuqur edi. Shaharning eng gavjum hududlari - Toqi Sarrofon yaqinida hamda uning Sharqiy va g'arbiy qismida joylashgan savdo markazida kanal to'silib, yer osti kanali (tazor) bo'ylab oqishi uchun to'sib qo'yilgan. Bu yerda joylashgan turar - joy binolaridan-karvonsaroylar, madrasalar va, ehtimol, ba'zi turar-joy binolaridan tunnelga maxsus yo'llar olib borgan, shunda aholi suvdan foydalanishlari mumkin edi.

Shahar hududidagi Shohruddan shaharning turli hududlariga suv yetkazib beradigan ko'plab kanallar (jo'y) ajratilgan. 1925-1926 yillarda tropik institut tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, daryodan 220 ta ariqcha ajratilgan.

Buxoroda yaxshi ishlab chiqilgan hovuz qurilishi texnikasi bilan bir qatorda shahar aholisiga suv yetkazib berish tizimi ham ishlab chiqilgan: bu suvni maxsus ishlangan terilarda (meshk) olib yurgan professional suv tashuvchilar tomonidan amalga oshirilgan.

Hovuzlardan tashqari Buxoroda suv manbalaridan quduqlar ham bo'lgan. Ular turlicha edi: ularning katta qismi ichishga yaroqsiz achchiq sho'r suv dan iborat edi.

Boshqalarida suv chuchuk ta'mga ega edi. Biroq, quduq suvi buxoroliklar tomonidan hovuz suviga qaraganda kamroq mazali va unchalik foydali emas deb hisoblangan. Shuning uchun, hatto uyda toza suv qudug'i bo'lgan oilalar ham u bilan birga hovuz suvidan foydalanganlar. Tropik institut ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroda 309 ta quduq bor edi, ulardan 146 tasida ichishga yaroqli suv bo'lgan.

Ayniqsa, yahudiylar yashaydigan shaharchalarda ko'plab quduqlar mavjud edi: yangi mahallada 123 ta quduq bor edi.

Shunisi qiziqki, hujjatda qadimgi Shahrison hududidagi quduqlar ko'rsatilmagan. Shu bilan birga, shaharning ushbu qismidagi guzarlardan biri Chohizanjir (zanjirli quduq) deb nomlangan va qadimgi odamlarning xabarlariga ko'ra, u yerda odamlar orasida shaharning eng qadimgi qudug'i deb hisoblangan quduq bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Н.Ф. Ситняковский, Заметки о Бухарской части долины Зеравшана, -«Известия Туркестанского отделения РГО», т. I, 1899. вып. H)
2. И.Т. Пославский, Бухара. Описание города и ханства, стр. 46
3. О.А. Сухарева. Бухара 19- начало 20 в. 1966 г. Москва.
4. М. Наршахи, История Бухары, Ташкент, 1897, стр. 39.

BRENDINGDA NAZARIY YONDASHUVLAR

M.E.Axmatova

BuxDU Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi

Z.Jo'raqulov

BuxDU talabasi

"Brend" atamasi qadimgi Nors (shimolliklar) tilidan olingan. Qadimgi vikinglar chorva mollari va uy-ro'zg'or buyumlariga egalik huquqini tasdiqlovchi belgini bildirish uchun "brand" fe'lidan foydalanganlar. Hozirgacha ba'zi hududlarda bu atama egalari o'z chorva mollarini markalash uchun foydalanadigan belgiga nisbatan qo'llaniladi. Brend-bu bir sotuvchining tovar yoki xizmatini boshqa sotuvchilarnikidan ajratib turuvchi nom, atama, dizayn, belgi yoki boshqa xususiyatni jamlaydi. Brendlar biznes, marketing va reklama qilishda obyektни tanitish uchun ishlatiladi, eng muhimi, brend kapitali qiymatini yaratish, brendni alohida ajratib turish va xaridorlarni ushlab qolish bilan mijozlarni, aksiyadorlarni va egalarini manfaatiga xizmat qiladi.

Brendning zamonaviy jamiyatdagi roli va o'rni insoniyat sivilizatsiyasining uzoq rivojlanish davrida borib taqaladi. Kelajakdagi mahsulot belgilarining individual protoelementlari ibtidoiy jamoa shakllanishida paydo bo'ldi, ularning mavjud bo'lish davri ikonik belgilarining paydo bo'lishi bilan belgilandi. Bayramona liboslar, kashta tikish, bezaklar, tumorlar, tatuirovka va qoyatosh rasmlari ko'rgazmali ramziylikning dastlabki shakllarini ifodalagan. Maxsus ramz va belgilar qabila a'zolarining ijtimoiy mavqegini belgilab, narsa va buyumlarning jamoa a'zolariga tegishlilikini ko'rsatish uchun foydalanilgan. Misr piramidalari toshlarida miloddan avvalgi 3200 yilda yashaganlarga tegishli belgilar topilgan.

Qadimgi davrda hunarmandlar mahsulotlarga ishlab chiqaruvchilarning nomlarini yozib qo'yadigan maxsus belgilarni qo'llashni boshladilar. Qadimgi Yunonistondagi kulollar o'zlari yasagan sopol idishlarda bosh barmoq izi yoki tinalgan bosh harflarni qoldirishgan. Xuddi shunday belgilar Qadimgi Rimda qazishmalar paytida topilgan g'ishtlarda va qadimgi Xitoy chinnilarida topilgan. Rim imperiyasi davrida hunarmandlar o'z mahsulotlariga tovarlarning kelib chiqishi va egalik huquqini belgilovchi maxsus belgi yoki imzo qo'llashni boshladilar. Bunday belgilar mahsulotning haqiqiyiligini tasdiqladi va uning sifatini kafolatladi. An'anaviy ramzlardan foydalanish - pul beruvchining uchta to'pi, sartaroshning qaychi, novvoyning kalachasi - qadimiy shaharning savodsiz aholisi uchun yaxshi qo'llanma sifatida xizmat qilgan.

Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdoning rivojlanishi bilan tovar belgisining roli va funksionalligi yangi rivojlanishga ega bo'ldi. Ramziy belgi - usta belgisi - asl mahsulotning haqiqiyliги kafolati bo'lib xizmat qildi va uning tan olinishiga hissa qo'shdi. Yevropada tovar sifatini tasdiqlash uchun savdo belgilaridan foydalanila boshlandi. 1266 yilda Angliya qiroli Genrix III novvoylarni o'z mahsulotlarini markalashga majbur qildi. Keyinchalik, 1373 yilda bu talab hunarmandlarga ham tatbiq etildi. Shunday qilib, o'rta asrlarda oltin buyumlarning haqiqiyliги tekshirilgan Londondagi Goldsmith-Hall zargarlik xonasi nomi bilan atalgan inglizcha Hall-markasi barcha ishlab chiqarilgan oltin mahsulotlariga joylashtirila boshlandi. Belgisi bo'lmagan mahsulotlar yo'q qilindi.

Shunga o'xshash qonunlar ko'plab mamlakatlarda qabul qilingan. Misol uchun, Frantsiyada qonunga ko'ra, qalaydan yasalgan idishlarni markasiz sotish taqiqlangan. Keyinchalik bunday tartib Germaniya, Gollandiya va Amerikada o'rnatildi.

Brendlar biznes, marketing va reklama qilishda obyektни tanitish uchun ishlatiladi, eng muhimi, brend kapitali qiymatini yaratish, brendni alohida ajratib turish va xaridorlarni ushlab qolish bilan mijozlari, aksiyadorlari va egalari manfaatiga xizmat qiladi.

Mahsulotlardan farqli o'laroq, brendlar ishlab chiqarishda yaratilmaydi, ular iste'molchilar ongida shakllanadi, ularni idrok etish va mahsulotning funksionalligi o'rtasidagi hissiy aloqani ta'minlaydi. Brend - bu tovar belgisida ifodalangan haqiqiy va virtual fikrlar to'plami bo'lib, ular to'g'ri boshqarilsa, ta'sir va qiymat yaratadi.

D.Aakerning so'zlariga ko'ra, brend iste'molning kengaytirilgan kontekstini taklif etadi, jumladan:

- mahsulotning o'zi, uning imkoniyatlari, xossalari, sifati, qo'llanish doirasi;
- iste'molchi tomonidan idrok etilgan tasvir;
- tashkilot bilan bog'liq birlashmalar;
- hissiy foyda;
- brend va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlar;
- shaxsiyat (brend xarakteri);
- belgisi;
- kelib chiqqan mamlakat.

Assotsiativ qobiliyat bilan ta'minlangan brend uchun kengaytirilgan iste'mol kontekstining mavjudliги iste'molchilar bilan hissiy darajada yaqin munosabatlar o'rnatishga imkon beradi. Tish pastasining oq rangi mahsulotning funktsional maqsadiga bog'liq emas. Darhaqiqat, jismoniy mahsulotning asosini tashkil etuvchi

tozalovchi moddasi pasta har qanday rangga ega bo'lishi mumkin va xom ashyo tarkibi bilan belgilanadi. Biroq, an'anaviy ravishda oq rang tozalik va tazelik bilan bog'liq, shuning uchun tish pastasi brendlari bu xususiyatlarni iste'molchilarning yuqori sifat haqidagi tasavvurlari bilan bog'laydi.

“Aquafresh” tish pastasi brendi misolida, aksincha, kompaniya rahbarlari oq, qizil va ko'k chiziqlar kombinatsiyasi iste'molchilarning ishonchini sezilarli darajada oshirishi va tishlarni uch baravar himoya qiladigan assotsiatsiyalarni yaratishi mumkin degan qarorga kelishdi.

Agar mahsulot sifati mahsulotning funktsional maqsadini bajarish qobiliyati bilan cheklangan bo'lsa, iste'mol konteksti bilan qat'iy bog'liq bo'lmagan brend bir vaqtning o'zida to'rtta sifat darajasida iste'molchilarning turli xil umidlari va afzalliklarini qondiradi:

1. brendning (maqsadning) funktsional sifati brend asosida yotgan mahsulotning korporativ, milliy va xalqaro standartlarga muvofiq o'z maqsadini bajarish qobiliyatiga asoslanadi;
2. brendning individual sifati (qiymati) brendning iste'molchilarning hayotiy qadriyatlariga mos kelish qobiliyatida ifodalanadi;
3. brendning ijtimoiy sifati (hurmat) iste'molchilarning ijtimoiy guruhga mansubligini ta'minlaydi va ularga ijtimoiy tan olinishi va ma'qullanishiga imkon beradi;
4. kommunikativ sifat (va'da) uning funktsional, individual va ijtimoiy sifatning barcha xususiyatlarini umumlashtirib, iste'molchiga maxsus imtiyozlar taklif qiladigan iste'molchilar bilan munosabatlarni saqlab turish qobiliyatiga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kadirova, S. X. Formation Of National Attention In Innovative Education- Preschool Educational Schools. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. A peer reviewed journal.*
2. Кадирова, Ш. Х., Фарманов, Э. А., & Пулатов, М. М. (2020). Важность внедрения новых транспортных маршрутов в развитии туризма. *Вопросы науки и образования*, (10 (94)), 9-14.
3. Axmatova, M. (2023). BUXORO VILOYATIDAGI DIQQATGA SAZOVOR JOYLARGA TRANSPORT XIZMATLARI VA HARAKATCHANLIGI TAHLILI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 37(37).
4. Nematillokizi, K. N., Nematillokizi, K. N., Khabibulloevna, K. S., & Salimovna, N. G. (2020). Professional proficiency progress in a foreign language on the example of students of tourism. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 1249-1255.

5. Sarvinoz, S. (2021). The importance of marketing activities in placement tools. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
6. Axmatova, M. (2021). TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARINI OPTIMALLASHTIRISH CHORA TADBIRLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
7. Axmatova, M. (2021). Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
8. Axmatova, M. (2023). TURISTIK TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASINI ANIQLASH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 36(36).
9. Axmatova, M. (2023). Анализ транспортных услуг и мобильности к достопримечательностям Бухарской области. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 37(37).
10. Axmatova, M. (2023). INTERNATIONAL CONNECTION OF TOURISM AND TRANSPORT SERVICES. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 37(37).
11. Axmatova, M. (2023). TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARGA INNOVATION YECHIMLARI. *DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE*, 1(4), 58-65.
12. Shaxnoza, A. (2023). THE ESSENCE OF MARKETING TO DEVELOP INDEPENDENT TOURISM. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 37(37).
13. Shaxnoza, A. (2023). WELLNESS TURIZMNING MOHIYATI VA UNI XALQARO TAJRIBA ASOSIDA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 37(37).
14. Sarvinoz, S. (2021). Prospects of the Development of Business Tourism and Corporate Tourism. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8)
15. Sarvinoz, S. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ГИДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЛЯ СТРАНЫ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 37(37).
16. Salimova, S. F. (2023). ONLAYN TURISTIK AGENTLIKLAR TIZIMI ORQALI JOYLASHTIRISH VOSITALARI XIZMATLARINI SILJITISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 16(4), 7-12.

MADANIY-TARIXIY TURIZMNING ASOSIY SHAKLLARI

X.R. Xamroyev,
Buxoro, BDU. professor, i.f.n.
O.Z. Jumaniyazova,
BuxDU 1-bosqich magistranti
o.z.jumaniyozova@buxdu.uz.

Annotatsiya: Maqolada madaniy-tarixiy turizm shakllari, ularning bir-biriga bog'liqligi, turizm sohasidagi ahamiyati, tarixdan muhimligi, rivojlanayotgan turlari, mamlakatimizdagi madaniy-tarixiy turistik resurslar yoritilgan bo'lib, ushbu maqolani yozishning asosiy maqsadi „madaniy-tarixiy“ turizmning asosiy shakllarini o'rganishdir.

Kalit so'zlar: madaniy-tarixiy turizm, madaniy-tarixiy turizm shakllari, turistik resurslar, tarix, xilma-xillik.

Аннотация: В статье описаны формы культурно-исторического туризма, их взаимозависимость, значение в сфере туризма, историческое значение, развивающиеся виды, культурно-исторические туристские ресурсы в нашей стране, а основной целью написания данной статьи является описание основных формами «культурно-исторического» туризма является обучение.

Ключевые слова: культурно-исторический туризм, формы культурно-исторического туризма, туристские ресурсы, история, многообразие.

Abstract: The article describes the forms of cultural-historical tourism, their interdependence, their importance in the field of tourism, historical significance, developing types, cultural-historical tourist resources in our country, and the main purpose of writing this article is to describe the main forms of "cultural-historical" tourism. is learning.

Key words: cultural-historical tourism, forms of cultural-historical tourism, tourist resources, history, diversity.

KIRISH

Tarix, madaniyat va tabiat yodgorliklari mamlakatning milliy boyligidir. Ko'pgina hududlar qadimiy o'rmonlar, qasrlar va bog'lar ansambllari, murakkab diniy arxitektura, tarixiy binolar, tarixiy va madaniy yodgorliklar va boshqalar kabi noyob tarixiy hududlarga boy. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda hududning tarixiy qiyaletini buzmaslik muhim ahamiyatga ega. Turizmni rivojlantirish dasturlari avvalo, mamlakat tarixiy-madaniy yodgorliklarini saqlab qolgan holda hamda mamlakat atrof-muhitiga zarar yetkazmagan holda amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, mamlakatimizda ham ushbu masalalar bo'yicha ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikaning turizm salohiyotini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 26.04.2023 yildagi PQ-135-

son Qarorida “Respublikaning turizm salohiyatidan to’liq va samarali foydalanish, hudud va uning tarixi, turistik obyektlari va o’ziga xos xususiyatlari to’g’risida turli tillarda kontentlar yaratish; hududlardagi aholi tomonidan turizm xizmatlarini ko’rsatish sifatini yaxshilash hamda kadrlarning malakasini oshirishda ko’maklashish” kabi vazifalar belgilanib olingan va ushbu qaror bo’yicha bugungi kunda hududlar kesimida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Madaniy-tarixiy turizmning hozirgi kundagi holatini, uning muhumliligini o’rganish juda muhimdir, chunki bizning mamlakatimizga tashif buyuradigan turistlar uchun asosan bizning tariximiz, madaniyatimiz, obidalarimiz va tarixiy maskanlarimiz qiziqarli ekanligi statistik ma’lumotlarda ham aniq ko’rsatilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Sharqiy Michigan Turizm va Sayohat Universiteti mintaqaning milliy merosi va an’alarini saqlash va ulardan foydalanishga asoslangan adekvat turizm konsepsiyasini ishlab chiqqan. Ushbu konsepsiyaga ko’ra, agar u hududning noyob resurslariga asoslangan bo’lsa va uning madaniy-tarixiy va tabiiy merosini saqlash va ulardan oqilona foydalanishga faol hissa qo’shsa, turizm adekvat hisoblanadi. Adekvat turizmning to’rtta tamoyili mavjud:

- 1) hududning madaniy-tarixiy va tabiiy merosini saqlashga faol yordam berish;
- 2) hudud merosining boshqa hududlarga nisbatan o’ziga xosligini ta’kidlash;
- 3) mahalliy aholida betakror meros uchun g’urur va mas’uliyat hissini shakllantirish;
- 4) hududning noyob merosidan foydalanish asosida turizmni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;

Turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi potensial sayyohlarni ommaviy ravishda jalb qilish hududning madaniy-tarixiy va tabiiy resurslarini saqlashga qaratilgan harakatlarga bog’liq.

Madaniy-tarixiy turizm sayohat turi sifatida shaxsning doimiy yashash joyidagi madaniy muhitdan farq qiluvchi elementlarni o’z ichiga oladi.

Bugungi kunda butun dunyoda xalqaro sayyohlikning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda, shuning uchun mezbon mamlakatlarning madaniy va tabiiy resurslaridan foydalanish ko’paymoqda. Jamiyatni rivojlantirishda madaniyatni yangi tushunish va dunyoda madaniy xilma-xillikni saqlab qolish zarurligini anglash madaniy turizmni mintaqaviy rivojlanish manbai sifatida, shuningdek, ijtimoiy va madaniy sohaga, ekologiya, tashqi iqtisodiy faoliyat va xalqaro munosabatlarga ta’sirini kengaytiradi. Buning sababi shundaki, zamonaviy dunyoda turizm asosan iqtisodiy hodisadan ijtimoiy va madaniy tartib fenomeniga aylanadi.

Madaniy-tarixiy turizmning bir nechta shakllari mavjud, ular quyidagilardir:

1. Arxeoturizm yoki arxeologik turizm - bu madaniy turizmning bir turi bo’lib, uning maqsadi arxeologiyaga va tarixiy obidalarni saqlash va ularga bo’lgan qiziqishni oshirish hisoblanadi.

2. Muzeylar va maqbaralar turizmi - turizmning xilma-xilligi bo'lib, o'ziga xos xususiyati muzeylar va maqbaralarning ularga yondashgan hududlardan turistik potensial sifatida foydalanish. Muzeylar madaniy, tarixiy, badiiy me'rosimiz, xalqlar dini va e'tiqodi, ularning an'analari bilan tanishtirib, yoshlarimizni vatanparvarlikka va buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishga o'rgatadi.

3. Diniy-tarixiy turizm - Diniy turizm ikki asosiy turga bo'linadi:

- ziyorat turizmi;

- ekskursiya va ma'rifiy yo'nalishdagi diniy turizm;

Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, yiliga 150 mln. xristianlar, 45 mln. musulmonlar, 40 mln. buddistlar va sintoistlar, 30 mln. induistlar diniy ziyorat maqsadida sayohat qiladilar. Ziyoratlar, odatda, turli dinlarning taniqli namoyandalarining qadamjolariga tashrif buyurishni aks ettiradi.

4. Etno-tarixiy turizm - (yoki xalqaro terminda- sentimental turizm) asosan xalqaro sayohatlarga taalluqlidir. Etno turizm ishtirokchilari avvalo o'zlarining kimligi, ildizlari, kelib chiqishi va qadriyatlarini izlaydilar, undan so'nggina o'z galar hayoti va turmushini o'rganishga bo'lgan qiziqish o'z-o'zidan uyg'onadi.

5. Madaniy meros turizmi - Madaniy meros jamiyat madaniyatining avloddan avlodga o'tib kelayotgan barcha jabhalarini o'z ichiga oladi. Bu moddiy yoki nomoddiy bo'lishi mumkin. Moddiy madaniy merosga binolar, yodgorliklar, san'at asarlari va artefaktlar kabi jismoniy obyektlar kiradi. Nomoddiy madaniy merosga og'zaki yoki amaliyot orqali o'tadigan an'analari, urf-odatlar, e'tiqodlar, bilim va ko'nikmalar kiradi.

Bizning fikrimizcha, bu turizmning har bir shakli o'zining o'ziga xos qobiliyat va imkoniyatlariga ega bo'lib, insonlarga tarixiy, madaniy va san'at asoslari haqida ko'proq bilim olish imkonini beradi.

Ko'p odamlar butun ta'tilini plyajda o'tkazishdan allaqachon charchagan. So'nggi paytlarda madaniy-tarixiy turizmga qiziqish ortib bormoqda. Bugungi kunda madaniy-tarixiy turizmning asosan quyidagi shakllari keng rivojlangan:

➤ sanoat turizmi;

➤ arxeologik turizm;

➤ gastronomik turizm.

Mamlakatimiz O'zbekistonda madaniy-tarixiy turizm, mamlakatning yirik turi hisoblanadi. Mamlakatning bog'liq qismi bo'lgan qadimiy O'rta Osiyo madaniyati, shuningdek, Islom madaniyati va sharqshunoslik, mamlakatning tarixiy va madaniy bog'larini ifodalaydi. Bundan tashqari, O'zbekiston mustaqil davlatlarning unikal madaniy va tarixiy obyektlarini saqlash bo'yicha juda mashhur. Masalan, Xiva shahri "Ichan-Qal'a" tarixiy-me'moriy majmuasi va Buxoro shahri Poi-Kalon Minorasi va Qo'rg'on masjidi kabi obyektlar ko'plab turistlar uchun kashf qilinishi lozim bo'lgan joylar hisoblanadi. Bu soha rivojlantirilgan holda, mamlakat turizm sifatini oshirishi, moliyaviy daromadni ko'tarishi va global turizm bozorida o'z o'rnini egallashi mumkin.

Xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga, "Boysun madaniy muhiti", "Shashmaqom musiqasi", "Navro'z", "Katta ashula", "Askiya", "Palov madaniyati va an'analari" nomzodlari Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga, Usmon Qur'oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar to'plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro'yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e'tirof etilganiga yorqin misol bo'la oladi.

Xulosa

Madaniy-tarixiy turizmi o'zining keng qamrovliligi va bog'liqliligi bilan sayyohlarni o'ziga jalb qiladi va dunyodagi ko'plab turistlarni o'ziga qiziqтира oladi. Bu turizm turining shakllari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi va mamlakatning turizm sifatini oshirishga hissa qo'sha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikaning turizm salohiyotini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 26.04.2023 yildagi PQ-135-son Qarori.// www.lex.uz
2. Berdiev, K. A. (2022). TRADITIONAL CARPETS OF THE LIVESTOCK POPULATION OF THE NURATA OASIS IN LATE XIX BEGINNING OF XX CENTURY. Journal of Social Research in Uzbekistan, 2(1), 8-18.
3. Behrouz Afkhami - Archeological tourism: characteristics and functions, Journal of Historical Archeology & Antropological Sciences . 2021 y, 59 pages
4. I.S.Tuxliyev "Turizm asoslari " fanidan O'quv qo'llanma, Samarqand 2010.
5. Raxmatullayeva N.K, Djalalova G.T. "Madaniy turizm va uning hozirgi kundagi ahamiyati", Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences Hosted online from Toronto, Canada. Date: 5 th January, 2023 ISSN: 2835-5326 Website: econferenceseries.com 201|Page <https://uz.wikipedia.org/wiki/Turizm> <https://uzbekistan.travel/uz/turizm-qonunlari/#>
6. Axmatova, M. (2023). BUXORO VILOYATIDAGI DIQQATGA SAZOVOR JOYLARGA TRANSPORT XIZMATLARI VA HAKAKATCHANLIGI TAHLILI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 37(37).
7. Axmatova, M. (2021). TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARINI OPTIMALLASHTIRISH CHORA TADBIRLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 8(8).
8. Butler, R.W. (2002): Cultural Tourism. The Partnership Between Tourism and Cultural Heritage Management. (1980).

9. Michael H., Liz Sh., Richard M., Niki Butler, R.W. (2002): Cultural Tourism. The Partnership Between Tourism and Cultural Heritage Management. (1980). M. Gastronomy, Tourism and the Media. Bristol: Channel View Publications, 2016
10. Е.Н. Трофимов “Развитие этнографического туризма в Россию” Вестник Рмат №4 2013.
11. <https://uzbektourism.uz/>
12. https://zelenogradsk.com/tourism/kinds-of-tourism/?ELEMENT_ID=528

HUDUDLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH

F.M. Raxmatulloyeva,
i.f.n., dotsent
N.O. Raxmonqulova,
BuxDU 2-bosqich magistranti
n.o.raxmonqulova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish hamda iqtisodiyotning sohalari va tarmoqlari bo'yicha islohatlar hamda iqtisodiy rivojlanish strategiyasida tarmoqlar tarkibiy o'zgarishining ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: hududiy iqtisodiyot, bozor, iqtisod, prinsip, boshqaruv, tarmoq, strategiya, mexanizm.

Respublika iqtisodiyotida davlatning roli va ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishga bozor prinsiplari va mexanizmlarini keng joriy qilish, shuningdek aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotning o'zgarishi sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asoslangan maqsadli yo'nalishlarini shakllantirish, shuningdek mavjud ichki va tashqi omillarni hamda islohotlarning 582 haker 582 va ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini aniqlash tizimi mavjud emas. Iqtisodiyotning hududiy va tarmoq taraqqiyoti, shu jumladan urbanizatsiya salohiyatini amalga oshirish orqali mutanosiblikni ta'minlash uchun ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish tizimi kerakli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilishni, shuningdek hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg'unligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish asosida mamlakat sanoatini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, innovatsiya ishlanmalari va texnologiyalarini joriy qilish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlov

berish tarmoqlarini jadal rivojlantirish va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish asosida 583hake bozorlari muvozanatini ta'minlash bo'yicha tizimli choratadbirlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida 583haker583va farmoni qabul qilindi.

Bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari, jumladan, so'nggi o'n yillikda e'tirof etilayotgan Xitoy, Indoneziya, Janubiy 583haker583va boshqalarning milliy taraqqiyot strategiyalari dunyo hamjamiyatiga yaxshi ma'lum va samaradorlik jihatlari keng o'rganib kelinadi. O'zbekistonda ham Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan, xalqimiz bilan bamaslahat qabul qilingan Harakatlar strategiyasi "Buyuk o'zbek yo'li"ni belgilab bergan amaliy hujjat sifatida millat taraqqiyotining istiqboliga shaxdam qadam qo'yishimizga zamin yaratdi.

Haqiqatan, bugun yurtimiz demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayon islohotlarimizning eng katta natijasi hisoblanadi. Maqsadning aniqligi harakatlar samarasini ta'minlaydigan eng muhim mezon bo'lib xizmat qilyapti. Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, iqtisodiy barqarorlikning poydevori mustahkam bo'lishi uchun adolatli, shaffof va uzoqqa mo'ljallangan yangi soliq ma'muriyatchiligi yuzaga keldi. Birinchi navbatda, soliqlar turi 16 tadan 9 taga, nazorat shakllari 13 tadan 2 taga qisqartirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan 2022 —2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 — 1,6 baravarga oshirish, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish bo'yicha juda ko'plab qonunlar ishlab chiqilgan va vazifalar belgilab berilgan.

Mamlakatimizda qonun ijrosi bo'yicha 14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" bo'lgan shahar va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish boshlab yuborilgan bo'lib bu borada yaxshi natijalarga erishish davom etmoqda.

Hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan chora tadbirlar uzluksiz davom etmoqda. Asosan Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolida olib qaraydigan bo'lsak ularni "millionlik shaharlar"ga aylantirish bo'yicha choralar ko'rilmoqda. 450 ming aholiga mo'ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzellarini qurib, foydalanishga topshirish va shu bilan birga Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish ishlari faol davom etmoqda.

Strategiyaga muvofiq shaharlardagi aholining turmush 584 hake qulayligini baholovchi “Shaharlar qulayligi” indeksini joriy etish va shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va “Aqlli shahar” konsepsiyasiga muvofiq rivojlantirish bo’yicha berilgan vazifalar faoliyati boshlatilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida arxitektura-qurilish sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan uyg’unlashtirish ham hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish chora tadbirlariga kiritilgan bo’lib hozirgi kungacha juda ko’plab oliy ta’lim muassasalarida faol o’zgarishlarga guvoh bo’lishimiz mumkin.

Qurilish sohasini texnik tartibga solish, aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish va shaharsozlik hujjatlari bilan ta’minlash dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish rejasini bo’yicha qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Hududlarda 2023-yil yakunlari bo’yicha ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 553,3 trln.so’mini yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 84,4 % ni tashkil etdi. Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’minlash va o’rnatish, avtotransport vositalari, treylarlar, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,4 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 22,8 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,4 %), to’qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,4 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,2 %) ga to’g’ri keldi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,6 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,2 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,8 %) ni tashkil etdi. Hududlarda 2023-yil yakunlari bo’yicha respublikada 1 333,1 ming tonna avtomobil benzini (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 6,0 % ga ko’paygan), 553,5 ming tonna kalava ip (5,5 % kamaygan), 263,0 mln. Litr pivo mahsulotlari (21,0 % ga ko’paygan) hamda 1 128,0 ming tonna yumshoq bug’doy va spelta uni (35,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Hududlarda 2023-yil yakunlari bo’yicha ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2 % bo’lib, o’tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 17 968,3 mlrd. So’mga to’g’ri keldi.

Xulosa qilib aytganda hududlarda sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: hududlarda sanoat korxonalarini diversifikatsiyalash va qo’shimcha tarmoqlar faoliyatini yo’lga quyish; hududlarda sanoat korxonalarini rivojlantirishga xorijiy investorlarni jalb qilish va ularga imtiyozlar berish va sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida yaratilayotgan ushbu

imkoniyatlar sanoat tarmoqlarining barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashdagi islohotlar istiqbolida o'zining amaliy natijalarini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi RF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqi. 2021 yil 24 mart. <https://president.uz/uz/lists/view/5077>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. Toshkent.
4. қизи Рахмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. « Экономика и туризм» международный научно-инновационной журнал, 6(14).
5. Рахмонқулова, Н. О. (2022). THE IMPACT OF THE DIGITAL ECONOMY ON RESOURCE CONSUMPTION. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 476-480).
6. Рахмонқулова, Н. (2024). MAIN PRIORITY DIRECTIONS OF REGIONAL ECONOMY DEVELOPMENT. Modern Science and Research, 3(2), 371-375.
7. Sh, Y. D., & Rakhmankulova, N. O. (2021). Risks in the Process of Digitalization of Business Activities. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 19-22.
8. Ахматова, М. (2021). Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 8(8).
9. Ахматова, М. (2023). TURISTIK TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASINI ANIQLASH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 36(36).
10. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). Innovative approaches to the use of digital technologies in theeconomy. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 77-80.
11. Рахмонқулова, Н. (2024). IMPORTANCE OF PERSONNEL MANAGEMENT IN BUSINESS DEVELOPMENT. Modern Science and Research, 3(1), 13-17.
12. Ахматова, М. (2023). Анализ транспортных услуг и мобильности к достопримечательностям Бухарской области. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 37(37).
13. Ахматова, М. (2023). INTERNATIONAL CONNECTION OF TOURISM AND TRANSPORT SERVICES. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 37(37).

14. Axmatova, M. (2023). TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR VA ULARGA INNOVATSION YECHIMLARI. *DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE*, 1(4), 58-65.
15. Shadiyev, A. (2022). FEATURES OF EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF ACTIVITIES AT THE BUKHARA STATE UNIVERSITY. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. Uz), 23(23).
16. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
17. Khalilov, V. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 835-839.
18. Рахматов, Ж. А., Алимова, Ш. А., & Бобомуродов, К. Х. (2021). Стратегия инвестиционной политики Республики Узбекистан.
19. Bustonovna, J. Z. (2024). O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING BARQAROR O‘SISHIDA SANOAT TARMOQLARINING AHAMIYATI.

O‘ZBEKISTONDAGI SHIA JAMOALARIDA “ASHURO” MAROSIMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

I.Nig‘matullayev

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish

UNESCO” kafedrasi tayanch doktoranti

Shialar (arabcha - “partiya”, “izdoshlar”, “tarafdorlar”) - Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.)ning amakivachchasi, kuyovi va sahobasi hisoblangan Ali ibn Abu Tolib va uning avlodlarini Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.)ning yagona qonuniy merosxo‘rlari va ma’naviy vorislari deb tan olgan turli jamoalarni birlashtirgan Islomdagi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi [1:298].

O‘tgan asrning 20-30-yillarida O‘rta Osiyoning yangi respublikalarida ro‘y bergan ijtimoiy-madaniy sohalardagi o‘zgarishlarga qaramay, o‘rta osiyolik eronliklar o‘zlarining etnik o‘ziga xosliklarini, diniy an‘analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganlar.

O‘rta osiyolik eronliklar hozirgi O‘zbekistonning bir qancha shaharlarida – Samarqand, Jizzax, Buxoro, shuningdek, yuqoridagi shaharlarning chekka hududlarida oz sonli etnik-diniy guruh hisoblanadi. Ularga o‘z etnik o‘zligini saqlab qolishiga shialarning yagona Imomiylik mazhabiga e‘tiqod qilishi sabab bo‘lgan [2:762].

Shia jamoalarida o'ziga xos bo'lgan bayramlar – xalifa Ali va uning avlodlarining tavallud kunlari ham katta tantana bilan nishonlanadi. Shu bilan birga, shialar motam kunlariga ham katta ahamiyat beradilar. Mazkur motam kunlari Muhammad (s.a.v.)ning va shia imomlari o'limi bilan bog'liqdir [3:102-103].

Bugungi kunda shialar o'zlarining eng muhim diniy bayramlaridan biri hisoblangan “Ashuro” marosimini nishonlaydilar. Ushbu marosim “Muharram” oyining o'ninchi kuniga to'g'ri keladi. Mazkur “Ashuro” marosimi shialar uchun katta ahamiyatga bo'lib, shahidlik va fidoyilik ramzi hisoblanadi [4]. “Ashuro” marosimi bilan bog'liq asosiy voqealardan biri bu milodiy 680-yilda sodir bo'lgan Karbalo jangi hisoblanadi. Ushbu jangda Muhammad Payg'ambar (s.a.v.)ning nabirasi Imom Husayn nomi bilan ham tanilgan Husayn o'z tarafdorlari, shu jumladan rafiqasi va bolalari bilan birga o'ldirilgan. Ushbu bayram xotira kuni hisoblanib, shialar uni qayg'u va motam kuni sifatida nishonlaydilar [5].

Buxoroda eroniylari “Ashuro” kunini 40 kun nishonlaydilar, Buxoro eroniylaridan farqli o'laroq, Samarqand eroniylarida “Ashuro” kuni 10 kun davom etadi.

Eronda yashovchi shialardan farqli o'laroq, Buxoro eroniylari o'zlarini qonga belangunga qadar azoblamaydilar, balki ko'krakka urish – latmiya bilan cheklanadilar.

Latmiya yoki latmiyat — “Muharram” oyida o'tkaziladigan motam marosimining bir qismi bo'lib, odatda shialar tomonidan ko'krak qafasiga urib zarbalar berish, she'rlar o'qish orqali amalga oshirilib, qayg'uni anglatadi. Latmiya, shuningdek, quvonchni ifoda etadigan qarsak chalishni ham o'z ichiga olishi mumkin, ko'krakka urish esa qayg'uni ifodalaydi. Latmiya ko'pincha Islom Muhammad Payg'ambar (s.a.v.)ning nabirasi Husayn ibn Alining shahidligi xotirasiga bag'ishlanadi.

Latmiya Muharram oyida o'tkaziladigan motam marosimining bir qismi bo'lib, u Karbal jangi (milodiy 680-yil) va Husayn ibn Alining Ubaydulloh ibn Ziyod qo'lida shahid bo'lishiga bag'ishlangan marosimlarning bir qismi hisoblanadi [6]. Asosiy marosimdan keyin duo o'qiladi va hamma xotirlash dasturxoniga o'tiradi. Dasturxonda marosim taomlaridan palov, no'xat, qo'y go'shti, sabzili bug'doy bo'tqasidan tayyorlangan xalisa, novvot choy yoki qaynatilgan turshakdan tayyorlangan sharbat va gulob (tojikcha – gul suvi) bo'ladi. Gulobdan, ovqatga qo'shishdan tashqari, ta'ziya marosimidan oldin atrofni tozalash vositasi sifatida ham foydalanadilar.

Katta diniy bayramlarda marosim ovqatlarini tayyorlash, boshqa mintaqalar va shaharlardan mehmonlarni qabul qilish kabi tashkiliy tadbirlar jamoa a'zolarining xayr-ehsonlari hisobidan amalga oshiriladi.

Uy sharoitida “Ashuro” kunini o'tkazishda ham xuddi shunday holat mavjud bo'lib, unga ko'ra, uy ikki qismga bo'linadi, erkak va ayollar marosimni alohida-alohida o'tkazib, u duo o'qish, sham yoqish va ravzadan iborat. Umuman olganda, uy sharoitida o'tkaziladigan “Ashuro” kuni xudoyi marosimini eslatadi.

O'rta Osiyo shialari orasida Buxorodagi “Ashuro” marosimining o'ziga xos xususiyati teatrlashtirilgan tomoshalarning va motam yurishlarining yo'qligi (shabih) bilan xarakterlanadi.

Ayollar o'rtasida "Ashuro" kunini o'tkazish umumiy tarzda mazkur marosimni amalga oshirishdan biroz farqlanadi. Oyamullo deb ataluvchi ayollar diniy rahbari islomning me'yoriy tomonlari va dinning xalq shakllari bo'yicha mutaxassis sifatida ishlaydi. "Ashuro" marosimida oyamullo imom va ravzaxon vazifalarini bajarishi mumkin hisoblanadi.

"Ashuro" marosimida ayollar tomonidan husayniyaxonada amalga oshirilgan unumdorlik sehlari bilan bog'liq marosimlarni ko'rib chiqish mumkin.

Masalan, marosimga keluvchi ayollar o'z niyatlarini qog'ozga yozib kelishi va uni oyamulloga o'qitishi va yana niyati amalga oshishi uchun xayr-ehson qilishi, minnatdorchilik belgisi sifatida durrachalar olib kelib, uni minbarda qoldiradilar. Keluvchilar avlodi ko'payishini, yaqinlariga sog'liq va boshqalar tilab, niyatlarni qilib, o'sha durrachalardan oladilar. Bu esa zardushtiylik dini e'tiqodlari bilan bog'liq hisoblanadi [7:766].

"Ashuro" marosimining ayollar tominidan o'tkazilishi erkaklarniki kabi davom etadi, ammo oyamullo minbarga ma'ruza qilish uchun chiqmaydi, balki zinapoyaning birinchi pog'onasiga o'tiradi.

Yuqorida aytib o'tilgan marosim taomlaridan tashqari, Ayollar dasturxonida Hazrati Abbos kulchasi katta rol o'ynaydi. Kichik kulchalar xamiriga za'faron, bodiyon va sut kabi mahsulotlar qo'shib tayyorlanadi [7:766].

Umuman olganda, asosan keksalar ishtirok etgan va kechqurun o'tkazilgan "Ashuro" tadbirida ishtirokchilar navbatma-navbat 1.5-2 soat davomida Hazrat Husaynning o'ldirilishi haqidagi hikoyani o'qiydilar. Tadbir ishtirokchilari qora yopiq stol atrofida o'tirib, 588haker bilan to'q qizil choy ichadilar. Keyin xizmat qilgan kishi gulob deb atalgan atirgul suvini qatnashganlarning qo'liga quyadi. Keyin somsa va xalisa deb nomlangan bug'doy bilan qaynatilgan go'shtli taom iste'mol qilinadi [2:21].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ислам. Энциклопедический словарь. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1991. – С. 298.
2. Derviş L. Özbekistan iranilerinin tarihine kisa bir bakiş // Selçuk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi. – 2021. – №. 51. – S. 12.
3. Toxtiyev Sh.R. Markaziy osiyoda shia jamoalarining shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari [Matn]: monografiya / Sh.Toxtiyev. – Toshkent. Bookmany print, 2022. – B. 102-103.
4. [Сегодняшний праздник у шиитов: традиции и обряды \(investim.guru\)](http://investim.guru)
5. [Когда и как отмечается ашура по шиитски: традиции и обычаи \(investim.guru\)](http://investim.guru)
6. [Латмия — Википедия \(wikipedia.org\)](http://wikipedia.org)
7. Аверьянов Ю., Сеитов Э. Обрядовая жизнь шиитов ирони Бухары по данным полевых исследований // Оазисы Шелкового пути: современные проблемы этнографии, истории и источниковедения народов Центральной Азии: К

- 100-letiyu doktora istoricheskikh nauk Balqis Xalilovny Karmyshевой, 2018: sb. nauch. St. / otv. Red. Kotyukova T.B. – M., 2018. – S. 762.
8. Ibrohim Ma'ruf o'g, Nig'matullayev. "The Tradition Of Commemorating Fatima In Shia Communities Of Bukhara." *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities* 28 (2024): 26-28.
9. Nig'matullayev I. O 'ZBEKISTONDAGI SHIA JAMOALARINI O 'RGANISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – T. 1. – №. 1. – S. 84-92.
10. Ibrohim, Nig'matullayev. «Mahmudxo'ja Behbudiy asarlari va uning ahamiyati.» *Yosh Tadqiqotchi Jurnali* 1.2 (2022): 43-46.
11. Nig'matullayev I. O 'ZBEKISTONDA SHIA JAMOALARI VA ULARGA NISBATAN ISHLATILGAN NOMLAR TAHLILI //Interpretation and researches. – 2024.
12. Нигматуллаев И. ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК ВА ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 1. – S. 166-171.
13. Alidjanova L., Nigmatullayev I. Abu Raykhan Beruni And His Scientific-Spiritual Heritage //International Scientific and Current Research Conferences. – 2020. – S. 80-82.

INNOVATION JARAYONLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

L.S. Muxitdinova,
BuxDU, 1-bosqich magistranti
l.s.muxitdinova@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqolada innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish sohasidagi tadqiqotlarning dolzarbligi asoslab berilgan, ularning korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini shakllantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqilib, davlatning innovatsion siyosatining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Raqobatbardoshlik, innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayonlar, menejment, sanoat korxonasi

Bugungi kunda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini saqlab turishi va yangi bozorlarga kirib borishida korxonalarining innovatsion rivojlanishini oshirish juda muhim masala hisoblanadi. Innovatsiya – bu yangi bilimlar, yangi texnologiyalar, yangi mahsulotlar, yangi jarayonlar va ularni jamiyatga tadbiq etish demakdir, sanoat esa iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuchdir. Shu sababli barcha korxonalar

yaratilgan paytdan boshlab va faoliyat ko'rsatish jarayonida raqobatbardoshlikni ta'minlash muammolarini, zamonaviy sharoitda tubdan yangi texnologik va tashkiliy shakllardan foydalanish orqali erishiladigan muammolarni doimiy ravishda hal qilishlari kerak.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davomida iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion rivojlanishiga shart-sharoit yaratishga alohida e'tibor berilib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyulidagi PF165 sonli "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni bilan mamlakatimiz innovatsion rivojlanish strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu strategiya iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan qishloq xo'jaligi, energetika, qurilish, ta'lim, sog'liqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanish bo'yicha davlat siyosatining maqsadli yo'nalishlarini belgilab berib uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- innovatsion infratuzilma subyektlari tarmog'ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash;

- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;

- kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'sishini ta'minlash;

- yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning kompleks tizimini shakllantirish va bu orqali innovatsiyalar talabini rag'batlantirish;

- innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish. Shuningdek, mazkur strategiya doirasida innovatsion faoliyat subyektlari ya'ni sanoat ishlab chiqarish tashkilotlari sonini 613 tadan 2250 tagacha yetkazish, innovatsion infratuzilma subyektlari sonini 3 baravarga oshirish, innovatsion tadbirkorlik natijasida yaratiladigan yangi ish o'rinlari sonini 4 baravarga oshirish maqsad qilingan. Bundan tashqari, yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish, innovatsion markazlar sonini 494 tagacha yetkazish, texnologik innovatsiyalar bilan shug'ullanuvchi mahalliy sanoat korxonalari sonini 600 tagacha yetkazish, hududlarda yaratiladigan yangi texnologiyalar sonini 384 tagacha oshirish, yillik patentlar sonini 184 tagacha yetkazish va ko'plab boshqa vazifalar bajarilishi nazarda tutilgan [1].

Shu sababli mamlakatimizda sanoat tarmog'ini innovatsion rivojlanishini ta'minlash maqsadida, hududlar sanoat tarmog'ini rivojlanish salohiyatini baholash, innovatsion jarayonlar rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning xalqaro raqobatbardoshligi jahon bozorida xorijiy raqobatchi firmalarning tegishli ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda aniqlangan bir qator raqobatdosh ustunliklardan iborat. Shubhasiz, kompaniyaning raqobatdosh afzalliklari to'plami qanchalik keng bo'lsa va ularning sifat ko'rsatkichlari qanchalik baland bo'lsa, uning jahon bozorida muvaffaqiyatli faoliyati uchun qanchalik

qulay shart-sharoitlar mavjud bo'lsa, u o'zining alohida segmentlarida shunchalik barqaror pozitsiyalarni egallashi mumkin.

Eng muhim raqobat ustunligi – bu innovatsion jarayonlarning samaradorligidir. U ishlab chiqarish rentabelligi, mehnat unumdorligi darajasi, kompaniyani strategik rejalashtirish va boshqarish samaradorligi, korxonaning o'zgaruvchan talablar va bozor sharoitlariga moslashishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichdir. Innovatsion jarayonni «yangi, ya'ni iste'molchilarga hali ma'lum bo'lmagan narsalarni ishlab chiqarish " deya ta'riflash mumkin [2]. Keng ma'noda bu jarayonni ikki asosiy bosqichga bo'lish mumkin: birinchi bosqich, ya'ni eng uzun bo'lib, ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalarini o'z ichiga oladi, ikkinchi bosqich – mahsulotning hayot aylanishi.

Ko'rinib turibdiki, kompaniyaning raqobatdosh afzalliklari to'plami qanchalik keng bo'lsa va ularning sifat ko'rsatkichlari qanchalik baland bo'lsa, uning jahon bozorida muvaffaqiyatli faoliyati uchun qanchalik qulay shart-sharoitlar mavjud bo'lsa, u o'zining alohida segmentlarida shunchalik barqaror pozitsiyalarni egallashi mumkin.

Jahon hamjamiyatida raqobatning kuchayishi va iste'molchilarning o'zlari tomonidan tovarlar sifatiga qo'yiladigan talablarning kuchayishi korxonalarda innovatsion jarayonlarni tashkil etishda iste'molchiga yo'naltirilganlik asosiy tamoyilga aylanib borishiga olib keldi. Zamonaviy iqtisodiyot tashkilotlarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish uchun aniq talablarni belgilaydi: barqaror moliyaviy holatni saqlash va o'zgaruvchan bozor sharoitlariga muvofiq faoliyatni tashkil qilishni doimiy ravishda takomillashtirish uchun o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga tezkor javob berish zarur. Bunday sharoitda innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish korxonalar rentabelligini oshirish, raqobatlashish imkoniyatini ta'minlash asosi sifatida ichki korporativ boshqaruvning ustuvor maqsadiga aylanishi kerak. Uzoq muddatli istiqbolda asosiy mahsuldorlik omili texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi innovatsion o'zgarishlar bo'lib, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga olib keladi. Shunga ko'ra, korxonalar ishlab chiqarishga yangi texnik vositalar va texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish va shu asosda uzoq muddatli barqaror ishlab chiqarish o'sishini ta'minlash uchun zarur boshqaruv va tashkiliy shart-sharoitlarni yaratishi kerak.

Mahalliy korxonalarining bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha orqada qolishi ko'pincha ob'yektiv sabablarga ega bo'lib, ular asosan moliyaviy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Shu sababli, korxonalar innovatsion raqobatdosh ustunliklarni yaratishga qaratilgan keng qamrovli siyosatni olib borishlariga to'g'ri keladi, bu quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish orqali mumkin:

- firmalarning texnologik raqobatdosh afzalliklarini oshirish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo'llarini izlash jarayonida ekologik toza texnologiyalarni yaratish;

- kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish xarajatlarini ko'paytirish;

- bilim talab qiladigan ishlab chiqarishlarni yaratish;
- ilmiy-texnik almashinuv;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarga investitsiyalarni yo'naltirish.

Bundan tashqari, innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishga davlat tomonidan tartibga solish orqali erishish mumkin:

1. Innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun moliyaviy va kredit dastaklarini qo'llash. To'g'ridan-to'g'ri moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan rag'batlantirishning muhim vositasi soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar berish, asosiy vositalarning jadal eskirishi, davlat tariflarini pasaytirish va boshqa imtiyozlar kabi bilvosita usullardir.

2. Sifat standartlari tizimini targ'ib qilish. Xalqaro standartlar texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar manbai hisoblanadi. Ular iqtisodiyotni yanada samaraliroq qiladigan mahsulot va xizmatlarning texnik xususiyatlarini uyg'unlashtirishga, shuningdek, xalqaro savdodagi to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi. Xalqaro standartlarga muvofiqligi iste'molchilarga mahsulotning xavfsizligi, samaradorligi va ekologik tozaligi haqida ma'lumot beradi.

3. Texnologiyalarni ishlab chiqish va uzatish jarayonida davlat organlari, biznes va universitetlar o'rtasidagi hamkorlik.

Davlat innovatsion siyosatning maqsad va tamoyillarini hamda ushbu sohadagi o'zining ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishi kerak. Uning maqsadi fan va texnikaning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasini oshirishdan iborat; moddiy ishlab chiqarish sohasida progressiv o'zgarishlarni ta'minlash; milliy mahsulotning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish; mamlakat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash; ekologik vaziyatni yaxshilash; tashkil etilgan ilmiy maktablarni saqlash va rivojlantirishdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash mumkinki, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- innovatsion faoliyatni rag'batlantiradigan dasturlarni yaratish va ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmalarini shakllantirish, innovatsiyalarga dastlabki talabni ta'minlash orqali fan va texnika yutuqlarini rivojlantirish va ishlab chiqarishni yangilash asosida mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlaydigan innovatsion faollikni oshirishga ko'maklashish;

- mamlakatda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ko'maklashish, mintaqalararo va xalqaro texnologiyalar transferi, xalqaro investitsion hamkorlik, milliy innovatsion tadbirkorlik manfaatlarini himoya qilish.

Shunday qilib, jahon miqyosida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish barcha innovatsion jarayonlarni uzoq muddatli, uzluksiz va izchil takomillashtirish sharti bilan ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6102462>
2. Drucker P.F. Management: tasks, responsibilities, practices, Transaction Publishers, New Brunswick, NJ; London. – 2007.
3. Farmonova M.N. Industrial Development in Uzbekistan //Journal of Intellectual Property and Human Rights. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 23-31.
4. Otamurodov Sh., Farmonova M. Hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sanoat korxonalarining o'rni. TISU ilmiy tadqiqotlari habarnomasi 1-son 2023 yil.
5. Axmatova, M. (2021). Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 8(8).
6. Axmatova, M. (2023). TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARGA INNOVATSION YECHIMLARI. *DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE*, 1(4), 58-65.
7. Otamurodov, S., & Farmonova, M. (2023). Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi muammolari. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(3), 106–112. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a16
8. Rumyantseva T.V. K voprosu o soderjaniy protsessu realizatsii strategii// *Sovremenniy aspekti ekonomiki*. 2015. № 5 (213).
9. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. -M.: Progress 1982.

INNOVATSION SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH

M.A. Xudoyberdiyev,
BuxDU, 1-kurs magistranti
m.a.xudoyberdiyev@buxdu.uz.

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion faoliyatning bozor iqtisodiyoti sharoitida uning xatti-harakatlarining xilma-xilligi, moslashuvchanligi yoritilgan. Har qanday korxonaning innovatsion salohiyatini faqat uning ish birliklari va iqtisodiy faoliyatning boshqa komponentlar ishlab chiqarish paytida oshirish mumkin. Bu baholash biznes subyekti, ichki va tashqi atrof –muhitni atroflicha tahlil qilish va tashxis salohiyati yordamida amalga oshirish mumkin.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsion faoliyat, turkumlanish, Y. Shumpeter, g'oyalar manbai, innovatsion salohiyat indeksi.

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Innovatsiya- bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak."

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni davrda taraqqiyotni innovatsiyasiz tasavvur qilish mushkul. Bizga ma'lumki, mamlakatimizda 2018-yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlangan edi. Xo'sh, innovatsiyaning o'zi nima?

Innovatsiya (ingl. "innovation" – yangilik, novatorlik)-yangi texnologiya, mahsulot va xizmatlar turi, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat ko'rsatish va boshqaruv ko'rinishidagi yangiliklarning qo'llanishi.

Demak, bundan ko'rinadiki, agar siz shu vaqtga qadar mavjud bo'lmagan yangi mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'ysangiz u holda innovatsiyani amalga oshirgan bo'lasiz.

Innovatsiya tushunchasini birinchi bo'lib Avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter muomalaga kiritib, beshta jihatini belgilab bergan.

- yangi texnika va texnologik jarayonlardan foydalanish;
- yangi xossalarga ega bo'lgan mahsulotni joriy etish;
- yangi xomashyodan foydalanish;
- ishlab chiqarish va uning moddiy- texnik ta'minotini tashkil etishdagi o'zgarishlar;

- yangi sotish bozorlarining paydo bo'lishi

KORXONANING INNOVATSION FAOLIYATI.

Mamlakatda yuqori iqtisodiy o'sish va rivojlanishni ta'minlash uchun korxonalarda innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yish zarur.

Korxonaning innovatsion faoliyati – yangi bilim va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga qaratilgan tadbirlar yig'indisi .

Bu tadbirlar ilmiy, texnologik, moliyaviy va tijorat tavsifiga ega bo'lishi mumkin. Korxonada innovatsion faoliyatni amalga oshirish natijasida:

- mavjud mahsulot turini ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;
- mavjud mahsulot yoki xizmatlarda yangi sifat xususiyatlari hosil qilishi mumkin

INNOVATSIYANING TURKUMLANISHI

Siz o'z faoliyatingizda innovatsiyalarni amalga oshirmoqchi bo'lsangiz, u holda ularning turlarini bilishingiz lozim. Innovatsiyalarning quyidagi turlari farqlanadi.

Texnik innovatsiyalar- yangi yoki takomillashtirilgan xossalarga ega mahsulotlar ishlab chiqarish. Bunda siz o'z mahsulotingizning biron-bir texnik xususiyatini takomillashtirgan bo'lishingiz mumkin.

Texnologik innovatsiyalar- mahsulotlar ishlab chiqarishning nisbatan takomillashgan usullarini qo'llash. Bunda mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasiga yangi o'zgarishlar kiritishi mumkin.

Tashkiliy-boshqaruvga oid innovatsiyalar- ishlab chiqarish, transport, sotish va ta'minotni maqbul holda tashkil etish bilan bog'liq jarayonlar. Siz korxonadagi mavjud tashkiliy-boshqaruv jarayonlari mazmunida yangi o'zgarishlarni amalga oshirishingiz mumkin.

Axborotga oid innovatsiyalar-korxonada innovatsion faoliyatida axborot olish, uning ishonchliligi va tezkorligini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlar. Ayniqsa, hozirgi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir vaqtda ushbu yo'nalish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy innovatsiyalar- mehnat sharoitlarini yaxshilash, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat sohalaridagi muammolarni hal etish bilan bog'liq jarayonlar. Bundan ko'rinadiki, ta'lim jarayonlariga yangi texnologiyalarni joriy etish ham innovatsiya hisoblanadi.

INNOVATSIYA G'OYALARI MANBALARI.

Siz o'z faoliyatingizda innovatsiyani amalga oshirish uchun dastlab innovatsiya bo'yicha g'oyaga ega bo'lishingiz lozim. Innovatsiya g'oyalarining o'zi to'satdan paydo bo'lishi ham, ularni maqsadga muvofiq shakllan tirish ham mumkin. Shunga ko'ra innovatsiya g'oyalari manbalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq.

1) kutilmagan hodisa sizning hayotingizda biron-bir muvaffaqiyat yoki omadsizlik, qandaydir voqeaning ro'y berishi yangi g'oyalarga, ixtiroga sabab bo'lishi mumkin;

2) biron-bir narsa to'g'risidagi tasavvurlarimiz va haqiqat o'rtasidagi nomuvofiqlik. Odatda tasavvur haqiqiy holatga ko'ra ijobiyroq, yuqoriroq bo'ladi va yangi o'zgarishlar qilishga undaydi;

3) jarayon ehtiyojlari asosidagi yangiliklar. Siz biron-bir jarayonni kuzatib turib, bu yerda nimadir yetishmayotganligini his etasiz. Uni to'ldirish esa yangilikning yaratilishiga olib keladi;

4) faoliyat yo'nalishingiz yoki mahsulot bozorida ro'y beruvchi favqulodda o'zgarishlar;

5) bilimdagi o'zgarishlar. Sizning biron-bir mahsulot yoki jarayon to'g'risida yangi ma'lumotga ega bo'lishingiz darhol uni amaliyotga joriy etishga undaydi. Bu esa yangi bilim asosida yangi mahsulot yoki xizmatlarga asos solinishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiyotning salohiyat indeksi (National 595nnovative Capacity index, NCI) – milliy iqtisodi-siyosiy salohiyatning ko'rsatkichi bo'lib, u tijoriy ahamiyatga ega innovatsiyalar oqimini ishlab chiqarish qobiliyatini aniqlaydi. Birinchi marta 2001-yilda Jahon iqtisodiy forumida nashr etilgan. Rossiya 2002-yilda ushbu ko'rsatkich bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 34-o'rinni egallagan. Oltita asosiy ko'rsatkichga asoslanadi.

- Amerika Patent idorasida ro'yxatga olingan 10 000 aholiga to'g'ri keladigan patentlar soni;

- Tadqiqot va ishlanmalarda ishtirok etayotgan olim va muhandislar soni;

- Innovatsion siyosat sifati- intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, soliq imtiyozlari va xususiy sektorda ilmiy tadqiqot va ishlanmalar uchun davlat subsidiyalari, raqobatni tartibga solish;

- Innovatsion klasterlarni shakllantirish shartlari-klasterlarni rivojlantirish holati va teranligi, mahalliy raqobat darajasi, mahalliy iste'molchilarning sifati;

- Innovatsion infratuzilmaning sifati- ilmiy tadqiqot tashkilotlari va texnik xodimlarni tayyorlash tizimining mavjudligi, texnik jihatdan murakkab loyihalarni amalga oshirish uchun venchur kapitalning mavjudligi;

- Kompaniyalarning innovatsion faoliyatga yo'naltirilganligi- yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish korxonalarining raqobatdoshligi omili sifatida, yangi mahsulot marketingining rivojlanishi ko'lami va darajasi innovatsiyaning samaradorlikka ta'siri.

U alohida mamlakatlar va mintaqalarning iqtisodiy istiqbollari qiyosiy baholash uchun qo'llaniladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, XXI asrda innovatsion loyihalar va yangi g'oyalarning hayotga keng tatbiq etilishi jamiyat va insoniyat taraqqiyoti uchun samarali hisoblanadi. Texnologiya taraqqiyoti asrida ilmiy loyihalarni ishlab chiqarish va hayotga joriy etish, mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida va yangilanishida muhim omil sanaladi. Innovatsion faoliyat infratuzilmasining rivojlanish darajasi innovatsion siyosatni amalga oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biridir.

Korxonalarni yangi mahalliy va xorijiy texnologiyalarni joriy qilishga rag'batlantiruvchi, asosiysi buning uchun imkoniyat taqdim etuvchi tashkiliy va institutsional muhit yaratish birlamchi ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-y.
2. U.K. Muxtorova "Biznes va tadbirkorlik"
3. N. Toxirov "Innovatsion salohiyatni oshirish yo'llari", maqola.
4. "O'zbekiston ovozi" ijtimoiy-siyosiy gazetasi.

MUHAMMAD PORSONING "RISOLAYI MAHBUBIYA" ASARIDA NAQSHBANDIYLIK NAZARIY MASALALARINING YORITILISHI

I.N. Xolnazarov,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
i.n.xolnazarov@buxdu.uz.

Annotatsiya: Muhammad Porsoning "Risolayi Mahbubiya" asarida naqshbandiylik nazariy masalalarining bayon etilishi tarjima qilinib, ochib berilgan hamda allomaning Naqshbandiylik ta'limoti masalalarini sharhlashda oyat va hadislar, rivoyatlardan keng foydalanganligi keltirib o'tilgan.

Kalit soʻzlar: Naqshbandiya, Sidq, Haq, Risola, ilohiy ishq, tariqat, hadis, sahih.

Naqshbandiya tariqatining XIV-XV asrlardagi keng yoyilishi va rivoji naqshbandiya shayxlarining tariqatni jonlantirishlari uni davrning inson va jamiyat uchun muhim taʼlimot ekanligini asoslashga boʻlgan intilishlarining samarasi deyish mumkin. Xoja Muhammad Porsoning “Risolayi qudsiy”, “Maqomoti Alouddin Attor”, “Risolayi Mahbubiya” kabi asarlari naqshbandiylik tariqatini takomillashuvida muhim rol oʻynadi. Ularda tariqat mohiyati amaliy va nazariy jihatdan asoslandi. Bahouddin Naqshband gʻoyalari dunyoga keng targʻib qilindi. Tariqatning islomiy asoslari mustahkamlandi. “Risolayi Mahbubiya” asarida Xoja Muhammad Porso shunday hadis keltiradi: Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda u zot: “Bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kelib: “Yo Rasululloh, qiyomat qachon boʻladi?” dedi. U zot: «Qiyomat uchun nima tayyorlading? » dedilar. U kishi «Allohga va Rasuliga boʻlgan muhabbat», dedilar. Rasululloh «Albatta sen sevganing bilan birgasen (sevganing bilan birga boʻlasan) », dedilar. Anas aytadilar: «Islomdan keyin men Paygʻambarimizning «Albatta sen sevganing bilan birgasen (sevganing bilan birga boʻlasan) », deganlaridek biror narsadan xursan boʻlmadik”, dedilar. Anas r.a. aytadilar: Men Allohni, Rosulini, Abu Bakrni va Umarni yaxshi koʻraman, shuning uchun ularning amallarini qilmasam ham, ular bilan birga boʻlishni umid qilaman. Imom Buxoriy va Muslim ibn Masʻuddan – Alloh u kishidan rozi boʻlsin – rivoyat qiladilar: “Bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kelib: “Yo Rasululloh! Bir xalqni sevgan, lekin ularga qoʻshilmagan odam haqida nima deb oʻylaysiz? Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Inson oʻzi sevgani bilan birga boʻladi” –dedilar. Demak, Allohga va uning rasuliga muhabbat deganda axloqshunoslikning bosh kategoriyalaridan boʻlgan tushunchaga eʼtibor qaratilgan. Chunki, insonparvarlik, vatanparvarlik, yurtsevarlik hammasi asosida muhabbat yotadi. Aytish mumkinki, Xoja Muhammad Porso manbada sahih hadislardan foydalanishga jiddiy eʼtibor qaratgan. Bu naqshbandiya tariqatining nazariy va amaliy jihatlarini mustahkamlashga xizmat qilgan

Senga yetgan yaxshilik Alloh dandir va senga yetgan yomonlik oʻzing dandir. Biz seni odamlarga Paygʻambar qilib yubordik. Shohidlikka Allohning oʻzi kifoya qilur. (Bu oyatda yana bir haqiqatning bayoni kelmoqda. Inson Alloh koʻrsatgan yoʻldan yursa, yaxshilikni qilib, yomonlikdan qaytsa, Alloh taolo uni qoʻllab-quvvatlaydi va zafarga erishtiradi. Bu holda inson Alloh koʻrsatgan yoʻldan yurdi, Uning shariatiga amal qildi, Uning madadi ila faoliyat koʻrsatdi, u koʻrsatgan yaxshilikni qildi va yomonlikdan chetlandi. Natijada yaxshilikka erishdi. Albatta, bu yaxshilik Alloh dandir. Ammo inson Allohning yoʻlidan yurmasa, U bergan aqlni toʻgʻrilikcha ishlatmasa, Uning shariatiga amal qilmasa, buyurgan yaxshiligini bajarmasa, qaytargan yomonlikdan qaytmasa, oʻzidan koʻrsin–oqibat, albatta, yomon boʻladi. Bu yomonlikka uning oʻzi sababchidir. Sening vazifang Paygʻambarlik–elchilik qilish. Odamlarga yaxshilik yoki yomonlik yetkazish emas. Bir narsani bor yoki yoʻq qilish

Allohning qo‘lida. Hammasiga Allohning O‘zi shohid. Shohidlikka esa, Allohning O‘zi kifoya qilur.) (Niso:79)

Sahihi Muslimda keltirilganki bir sahobiy roziyolhu anhu u kishining oldiga kelib aytdiki: “Ey Rosululloh menga musulmonchilik to‘grisida shunday bir so‘z aytingki u asl bo‘lsin, men unga qo‘l uray va undan boshqasiga hojat bo‘lmasin”, Payg‘ambar alayhissalom aydilarki “استقم ثم بالله أمنت قل (qul aamantu billahi summa istaqim)”, ya‘ni aytgin iymon keltirdim, ergashdim Alloh 598order598 jallaga deb va shu so‘zda rost turgin 598order598t qadam bo‘lgin. Istiqomat va sodiq bo‘lishlik bu agar bir so‘z aytdingki boshqasini ayma (ya‘ni qalbingni bir ishga bog‘ladingmi, qasd qildinmi undan hargiz qaytma).

Haq taoloning yo‘lini ikki xislati bor: Sidq bo Haq, Rifq bo xalq-Haq taologa sodiqlik, xalqqa yumshoqlik. Barcha mavjudod zarrasi adadicha Haq taologa (uning roziligiga erishishga) yo‘l 598order, ammo hech bir yo‘l bir musulmonning qalbiga xursandchilik kiritishdanda yaxshiroq va yaqinroq emas. Payg‘ambar alayhissalom: “Bir mo‘minning qalbiga surur kiritish insu-jinning ibodatidan yaxshiroqdir”, - deydilar. Alloh haq subhanahu taoloning to‘rt kitobidan hayotda qo‘llanishi uchun to‘rt so‘z tanlaganlar. Tavrotdan: Man qonaa shabaa-kim qanoat qilsa to‘yadi; Injildan: Man I‘tazala salima-kimiki uzlat qilsa omonda bo‘ladi; Zaburdan: man somata naja ya‘ni kimki jim tursa najot topadi; Qur‘oni karimdan: Man tavakkal alallohi fahuva hasbuh – kimki Allohga tavakkul qilsa bas u (barcha ishlarida) kifoya qiladi.

Hadisi sharifda keladiki Payg‘ambar alayhis salom shunday deganlar: “ummatimning yomonlari shunday kishilarki, yesalar to‘ymaydilar, (mol) jamlasalar qanoat qilamaydilar. Demak, naqshbandiylikdagi “dil bayoru dast ba kor”, boriga qanoat qilishga yo‘g‘ida sabrga undovchi qarashlar ta‘limotning keying davrlarda bardavomlilikini ta‘minlagan.

Xulosa qilib aytganda, Xoja Muhammad Porsoning “Risolayi mahbubiyah” asari naqshbandiya tariqatining ma‘naviy-axloqiy jihatlarini takomillashishida muhim manba hisoblanadi. Asar fors tilida yozilgan. Kichkina hajmda yozilgan ushbu asarning nusxalari Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda. Risolayi mahbubiyah solikning holatlarini, uning kamolot bosqichlari masalasi hamda har bir tamoyilning islomiy asoslari Qur‘on va hadislar bilan asoslangan.

Asarda Naqshbandiya tariqati g‘oyalarining insonparvar maqsadlarga yo‘naltirilgani va tariqatda qabul qingan rashhalarning ma‘naviy-axloqiy mohiyati nasriy va nazmiy tarzda ochib berilga.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Muhammad Porso. “Risolayi Mahbubiyah” asari matni. Buxoro, 2024-yil.
2. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. Forsiydan tarjimon, so‘z boshi, izoh va lug‘at
3. muallifi Mahmud Hasaniy. Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2019

4. Alisher Navoiy. Xoja Bahouddin Naqshband q.t.s. / Nasoyim ul muhabbat. Mukammal asarlar to'plami. O'n yettinchi tom. Toshkent:
5. «FAN», 2001. 261-b.
6. Ismoilov S. Naqshbandiylik jahonshumul tariqat. Toshkent:
7. «MUMTOZ SO'Z», 2016. 4347-b.
8. Komilov N. Tasavvuf. Toshkent: «Movorounnahr» – «O'zbekiston», 2009. 161-181-b

“AVESTO”DAN MEROS MAROSIMLARNING TRANSFORMATSIYASI

M.B. Qurbonova,

BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

M.Z. Jumayeva

Etnografiya, etnologiya, antropologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti

m.z.jumayeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi zardushtiylik dinidan qolgan marosim va urf-odatlarining aholi orasidagi transformatsiyalashgan shakllari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Zardushtiylik, chilla, sidrapo'shlik, Navro'z, Angom, Mehrjon, Ahuramazda, Ahriman, mitraizm.

Аннотация. В данной статье говорится о трансформированных формах ритуалов и обычаев, оставшихся от древней зороастрийской религии среди населения.

Ключевые слова: Зороастризм, Чилла, Сидрапушлик, Навруз, Ангом, Мехржан, Ахурамазда, Ахриман, Митраизм.

Asrlar davomida qadimgi turli dinlardan qolgan udumlar va marosimlarning o'zbek xalqi turmush tarzida hozirgi kunga qadar saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, bugungi kunda qadimgi zardushtiylik dinidan meros ba'zi udumlar mamlakatimiz aholisi turmush tarziga singib ketgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas unsurlaridan biri-olov bilan bog'liq urf-odatlarini aholi orasida keng tarqalgani ma'lum. Antik davrda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan zardushtiylik diniga binoan, shuningdek, eski urf-odatlarga e'tiqod qiluvchilarning tushunchasiga qaraganda, olovga sig'inish turli falokat va ins-jinslardan saqlar, turmushda baxt va muvaffaqiyatlar keltirar emish. O'zbeklarning to'y va boshqa marosimlarida gulxan yoqish odati hali ham uchraydi. Buxoro vohasida kelin kuyov uyiga kelganda gulxan atrofida uch marta aylantirish odatiga rioya qilinadi. Bu odat ham qadimgi zardushtiylik dini sarqitlaridan biridir.

Oilada chaqaloq tug'ilgandan keyin amalga oshiriladigan ayrim odatlarda ham zardushtiylik izlarini ko'rishimiz mumkin. Chaqaloq qirq chillasidan chiqquncha

qorong'ulikdan qattiq muhofaza qilinadi, ya'ni bu davrda xonadon elektr chirog'i o'chirilmaydi. Bunday odat Toshkent o'zbeklari va Zarafshon vodiysi tojiklarida ham uchraydi. Chaqaloq chillasi bilan bog'liq rasm-rusumlarda olov, chiroq va yorug'likka e'tiqod qilish, ularni yovuz kuchlarni quvish xususiyatiga ega bo'lgan magik vosita, aniqrog'i himoya vositasi deb tushunish alohida o'rinni egallar ekan. Bu irimlar va e'tiqodlar qoldig'i ajdodlarimizning yorug'lik va olovni muqaddaslashtirish bilan bog'liq mifologik tasavurlari zaminida shakllangan an'analar sirasiga kiradi. Buxoro vohasida chilla davri bilan bog'liq odatlardan yana biri chaqaloqni beshikka belash jarayonida beshikni yovuz kuchlardan tozalash maqsadida olovdan foydalanish udumidir.

Zardushtiylik yozuvlarida ta'kidlanishicha, marosimlarda ishtirok etish uchun xotin-qizlar ma'lum tabularga amal qilganlar. Ya'ni ular tashqariga chiqib oy va quyoshni ko'rishlari, bog'da ishlashlari, o'choq boshiga borib ovqat tayyorlashlari ta'qiqlangan. Zardushtiylikda marosimiy poklanish davri og'ir, mashaqqatli bo'lib, qirq kun davom yetgan. Demak, bundan kelib chiqib, chilla davridagi ko'plab odatlar va ta'qiqlar qadimgi zardushtiylik marosimlari bilan bog'liq, deyish mumkin. Chilla tutish odatiga Buxoro vohasi aholisi ham rioya qilgan.

O'zbek xalqi urf-odatlarida zardushtiylikda rasm bo'lgan "sidrapo'shlik" udumining o'ziga xos izlari bugungi kunda ham uchraydi. Zardushtiylik e'tiqodiga ko'ra, Ahuramazda farzlari hamda Zardusht o'gitlaridagi sunnatlarni to'la bajaradigan, har jihatdan pok, yuksak axloqli, ustoz fotihasini zardushtiylikka oq matodan chakmon, ko'ylak kiygizib, boshiga salla o'rash, beliga esa yung ipdan to'qilgan belbog'ni bog'lash odat tusiga kirgan. Belbog'ni bog'lashda belidan uch marta o'ralgan va oldi-orqa tarafidan tugun qilib bog'lab qo'yilgan. XX asrning o'rtalarigacha xalqimiz orasida barcha erkaklar yaktak kiyib, bellariga belbog' bog'lash va salla o'rash udumi keng tarqalgan edi. Odatda belbog' va salla o'rash bolalikdan o'smirlik yoshiga o'tgan davrda bajarilgan. Belbog' doimo uch marta tugun qilib bog'langan. Buxoro vohasi o'zbeklari va tojiklari orasida ham sunnat to'yida o'g'il bolaga, nikoh to'yida esa kelinning xonadonida kuyovga to'n, do'ppi kiydirish va beliga belbog' bog'lash udumiga hozir ham keng rioya qilinadi. Shuningdek, boshqa yurtlardan kelgan mehmonlarga to'n sovg'a sifatida kiydirilib, beliga belbog' bog'langan. Bu udumning asosida bir tomondan mehmonga, kuyovga hurmat, izzat-ikrom namoyon etilsa, boshqa tomondan o'sha mehmonning xalqimiz safiga qabul qilinganligi yoki kuyovning kelin oilasining yangi a'zosi bo'lganligini anglatgan. Bizningcha, xalqimiz orasidagi to'n kiydirib, belbog' bog'lash bilan bog'liq udumlar zardushtiylikdagi "sidrapo'shlik" marosimining transformatsiyaga uchragan ko'rinishidir.

Zardushtiylik dinidan qolgan yana bir qadimgi urf-odatlardan biri Navro'z bayramidir.

Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy odat, marosim va bayramlari koinot, tabiat, fasllar va mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Borliqdagi to'rt muhim unsur (quyosh, havo, yer, suv)ni aniqlash bilan bir qatorda, ular bilan bog'liq to'rt ulug' kunni xam

belgilab, uni nishonlashga odatlanganlar. Masalan, tabiat uyg'oni, kun - tun tengligi, dala ishlarining boshlanishi pallasida Navro'z; yozda - quyosh tik bo'lib, tun qisqa, kun uzun davom etganida, havo harorati yuqori darajaga ko'tarilib, suvga ehtiyoj kuchayganida suvga bag'ishlangan tadbir - Angom (Vaxshangom); kuzda kun - tun tenglashib, yilning ikkinchi yarmi boshlanganida, dehqonlar daladagi hosilni yig'ib olgan vaqtda Mehrjon; qishda - eng uzoq tun va qisqa kun sodir bo'lib, sovuq avjiga chiqqanida ("qishki chilla"), isinishga ehtiyoj kuchaygan paytda Sada-Olov bayrami (gulxanlarda isinish) kabi marosimlarni uyushtirganlar.

Miloddan oldin paydo bo'lgan bu bayramlarning barchasi kishilarning tabiiy ehtiyojlari asosida qaror topgan. Avestoshunos Meri Boysning yozishicha, qadimda zardushtiylarning quyidagi yettita bayrami mavjud bo'lib, bu bayramlar diniy marosim shaklida nishonlangan va ular Ahuramazda sharafiga bag'ishlangan ibodat bilan boshlangan. Ibodatdan so'ng xursandchilik, o'yin-kulgi asosiy o'rin tutadigan ziyofat o'tkazilgan. Bayramning keyingi qismida o'yin, tomosha, turli tuman ko'ngilochar tadbirlar uyushtirilgan

"Navruz"ning paydo bo'lishi haqida ko'plab afsonalar, rivoyatlar, miflar mavjud. Masalan, zardushtiylar davrida ezgulik xudosi Ahuramazda (Xurmuz) bahor, yozda, yovuzlik xudosi Ahriman - kuzda va qishda hukmronlik qiladi, degan qarash mavjud bo'lgan. Bahorning birinchi kuni ezgulik xudosi yovuzlik xudosi ustidan g'alaba qilgan muqaddas sana sifatida bayram qilingan. Bu sana aynan "Navro'z" kuniga to'g'ri kelgan.

Ajdodlarimizning qadimgi taqvimini Navro'zdan boshlangan. Navro'z bayramini nishonlash odamlarning Yer sayyorasi haqida, uning koinotdagi o'rni to'g'risida mulohaza yurita boshlagan davriga to'g'ri keladi. Boshqacha qilib ifodalaganda, Navro'z Yer haqidagi dastlabki ilmiy-geografik tasavvurlar paydo bo'lgan zamonlardan boshlab shakllangan. Bundan 4 - 5 ming yil ilgari ajdodlarimiz Quyoshni eng buyuk kuch, hayot chashmasi, yorug'lik va issiqlik manbai, deb bilganlar va unga atab maxsus marosimlar o'tkazganlar. Shu yo'sinda mitraizm - quyoshparastlik, uning zaminida esa otashparastlik shakllana boshlagan. Zardushtiylar olovni quyoshning yerdagi zarrasi - farzandi hisoblab, qish va erta bahordagi marosimlarda katta gulxanlar yoqib qish sovug'ini uning yordami bilan "haydashgan" va ko'klamni "chaqirishgan". Bu marosimlar esa turli bahor bayramlarining shakllanishiga asos bo'lgan.

Miloddan avval qo'llanila boshlagan zardushtiylik taqvimi bo'yicha hozirgi fevral oyining birinchi kunida "Kichik Navro'z" (yoki "Ommaviy Navro'z") boshlanib, oltinchi kunda "Katta Navro'z" (yoki "Maxsus Navro'z") uyushtirilgan. Sosoniylar sulolasi davrida esa bu ikki "Navro'z" birlashtirilib, kichik va katta "Navro'z" o'rtasidagi barcha kunlar bayram, deb e'lon qilingan. Navro'z bayrami hozirgi kunda ham xalqimiz orasida keng nishonlanib kelinmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Zardushtiylik e'tiqodidan qolgan urf-odat va marosimlar hozirgi kunga qadar o'zbek xalqi turmush tarzida muhim ahamiyatga ega. Zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan qadimiy marosim, urf-odat va bayramlarimiz

ajdodlarimizning tabiiy ehtiyojlari zaminida paydo bo'lgan. Shu boisdan ham ular tabiat bilan uzviy bog'liq va har biri mehnat jarayoni hamda turmushning muhim voqealariga bag'ishlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. А. Аширов. “Авесто”дан мерос маросимлар. Т;-2001
2. А. Аширов. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Т;-2007
3. И. Жабборов. Ўзбеклар турмуш тарзи ва маданияти. Т;-“Ўқитувчи” 2003.
4. Б. Исоқов. Н. Исоқова. Анъаналарни абадиятга айлантирган айём. Наманган-2013

ECONOMIC CONDITION OF UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD: ACHIEVED RESULTS, PROBLEMS AND SHORTCOMINGS

*K Orzieva,
Bukhara State University,
PhD student, c.orzieva@gmail.com*

Abstract: The article is devoted to the development of economy of Uzbekistan during the years of Soviet power, the measures implemented in this area, existing shortcomings and problems. The impact of changes in industrial enterprises, agriculture on the economy, its consequences and results are scientifically analyzed.

Key words: economic policy, Soviet power, industry, economic system, agriculture, industrial enterprise, resource.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ УЗБЕКИСТАНА В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД: ДОСТИЖЕННЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ, ПРОБЛЕМЫ И НЕДОСТАТКИ

Аннотация: Статья посвящена развитию экономики Узбекистана в годы советской власти, мерам, принятым в этой области, имеющимся недостаткам и проблемам. Научно анализируется влияние изменений на промышленных предприятиях, в сельском хозяйстве на экономическую жизнь, приспособление проводимых на местах работ к интересам центра и неучет экономических возможностей, его последствия и результаты.

Ключевые слова: экономическая политика, Советская власть, промышленность, хозяйственный строй, сельское хозяйство, промышленные предприятия, ресурс.

Introduction. Following the end of World War II, all operations in the Republic were to be geared at repairing the economy, growing the national economy, and mitigating the effects of the war. However, there remained a scarcity of fuel, raw materials, power, and experienced people to restart manufacturing and provide the

populace with home and food items. It was also necessary to create unique programs that took into consideration Uzbekistan's geographical location as well as its people's interests. However, the governing party only recognized Uzbekistan as a supplier of raw resources. This was the reason for unilateral development of the Uzbek economy. The economic grounds for creating five-year plans for Uzbekistan were also challenged. Scientific examination of difficulties, economic deficiencies, and problems, as well as the experiences that occurred throughout this era, is an urgent topic today.

Literature analysis and methods. During the Soviet era, researchers extensively researched the development of the Uzbek SSR's economy, industry, and national economy, as well as the problems and shortcomings in the industry, the influence of the country's economy on people's way of life, and the work done in this area, which was subordinate to the Center's interests.

On the subject of this article, it is appropriate to highlight the studies and scientific literature produced to date: studies completed during Soviet times³⁰, as well as vital facts covered by historians in their study throughout the years of freedom³¹. Official statistical³² data was also utilized efficiently in this investigation.

Results. The study's findings, conclusions, and theoretical implications will contribute to a better understanding of economic research methodologies in Uzbekistan and the history of Soviet economic policy. The collected information is scientifically significant because it contributes to the development of a new approach to studying Soviet Uzbekistan's history, a broad study of the economic sphere through historical documents and sources that introduces Uzbekistan's postwar economic life.

Discussion. Following World War II, the economy of the Uzbek SSR began to revive. The Soviet government's colonial agenda overshadowed efforts to rebuild the republic's economy. Uzbekistan has emerged as a major raw material source for firms producing primarily light industrial products. The growth of heavy industry, sometimes known as industrial, is not permitted. Previous industry goals and guidelines have been kept.

Naturally, this did not include the utilization of new technologies, specialists, or scientific and technological advancements. The primary criterion for agricultural

³⁰ Зиёдуллаев С. Промышленность Узбекистана и основные экономические проблемы её развития. – Т., 1977.; History of the Uzbek SSR, volume IV, Т. Science, 1971.; Berdintsev K. Uzbekistan and its economic regions. - Т: Red Uzbekistan, 1957.; Bogoprovodsky S. Light Industry of Uzbekistan. – Т.: Uzdavnashr, 1959.

³¹ Radjabova R., Karimov R. History of Uzbekistan (1917–1993). Т.: Teacher, 1996.; Juraev N., Karimov Sh. History of Uzbekistan. Uzbekistan during the period of Soviet colonization. -Т.: East, 2011.; Bobojonova D. Socio-economic relations in Uzbekistan (for example, 70–80 years old). -Т.: East, 1999.; Juraev M., New History of Uzbekistan, Second Book. Uzbek is a Soviet colonial gift. - Т.: East, 2000.; Abdullaev R., Rakhimov M. History of Uzbekistan. Second book (1939–1991). -Т.: Uzbekistan, 2019.

³² Statistics. Main trends and indicators of the socio-economic development of the Republic of Uzbekistan over the years of independence (1990–2011). -Т.: Uzbekistan, 2013.

rehabilitation was the increase of cotton crops. The cotton monopoly has been strengthened in accordance with the Central Government's directives on the restoration and development of cotton cultivation in Uzbekistan. This reinforced Uzbekistan's reliance on the center. The primary purpose of agricultural reconstruction in the republic was to extend planted fields and enhance their proportion in line with party orders.

Excessive development of cotton-sown fields prevented livestock and melons from being raised in the republic. Cotton production increase necessitated significant expenses for industrializing agricultural activities, producing mineral fertilizers, and building new irrigation systems. On the one hand, this had a favorable impact on the growth of diverse farming, resulting in the construction of a cotton monoculture. In particular, Uzbekistan's industrial potential has grown dramatically. The production of industrial items has increased over the last five years as a result of people's hard work. In 1950, for example, cotton production was doubled to 2,200,000 tons. Approximately 100 industrial facilities were commissioned in the areas. Between 1954 and 1956, big industries were moved under the supervision of the republic. As a result, the volume of industrial production rose from 31 to 55%. However, greater labor interest and other measures had little good effect since society had not undergone fundamental adjustments³³. In the 1960s and 1970s, new industries emerged as a result of the inefficient and widespread exploitation of natural resources, as well as the mobilization of the whole population.

Gas and oil product production, nonferrous and ferrous metallurgy, and coal production have all been established. Developed the energy and chemical industries. Only the capital of Uzbekistan, Tashkent, has more than 250 industrial businesses³⁴. With the establishment of industrial firms, the republic's reliance on the Union increased. Uzbekistan was a semi-colonial republic with a fragmented and one-sided economy. For decades, Uzbekistan's economy has been integrated into a single, centrally regulated national economy. Many choices taken at the Center's leadership were economically sound and limited in rights and did not serve Uzbekistan's interests³⁵.

During the 1970s and 1980s, the economy was dominated by commodities sectors with minimal labor requirements. The majority of industrial businesses were geared toward such manufacturing. Although the republic focused on the growth of light industry at this time, these activities were overseen by the central government. In 1980, the USSR was at a low point in terms of industrial growth³⁶. Despite the fact that the Soviet leadership established a number of objectives for the republic's economic

³³ Juraev M. *New History of Uzbekistan. Second book. Uzbekistan during Soviet colonization.* -T.: East, 2000. p-521.

³⁴ This author, p-522.

³⁵ Bobojonova D. *Socio-economic relations in Uzbekistan.* T.: East, 1999. p-15.

³⁶ Radjabova R., Karimov R. *History of Uzbekistan (1917–1993).* T.: Teacher, 1996. p-342.

growth in July 1981, no significant outcomes were obtained. The rebuilding of new economic structures, the introduction of new technology, and a strong management system were all anticipated as ways to advance the economy. In the second part of the 1980s, the republic's metallurgy, mechanical engineering, and chemical industries were all subservient to the Union. The central organizations of the Union set indicators of Uzbekistan's economic progress. In April 1985, the plenum of the Central Committee of the CPSU declared the road to Soviet society's restoration and called for a complete renewal.

Economic reforms were a key component of the reconstruction effort, however the policies and transformations implemented were ineffective. Now, the five-year tasks have not been finished. Uzbekistan's economy specialized mostly in the manufacture of raw materials, hence the percentage of output with added value was quite low. For example, the republic processed only 8% of the raw resources produced on its territory. Of course, this reflected itself in the population's level of life, particularly their desire. In 1989-1990, per capita output numbers were not spectacular. During the crisis in the early 1990s, industrial businesses in the former Union republics halted operations. This has a significant impact on Uzbekistan's industrial businesses, which supplied raw materials and components³⁷.

By 1990, the Soviet leadership had almost completely lost control over economic conditions. Government spending grew as a result of the expansion of "affected enterprises". Strive for market economic connections. As a state that weathered the hardships of a transitional economy for Uzbekistan, it enabled the country to overcome the effects of a catastrophic lag in the manufacturing sector and resume economic development in the mid-1990s. With its proclamation of independence, Uzbekistan tried to establish market contacts. Taking into mind the population's level of living throughout the republic's early phases of economic development, an autonomous route to a market economy was devised. The country now owns all industrial potential, natural resources, and riches.

Conclusion. The administrative-command management approach and rigid economic planning compounded the situation in the Republic, resulting in inconsistencies in industrial growth. Uzbekistan's dictatorial, administrative-command economy pushed the country backward. Resources were mercilessly exploited and removed. As a result, Uzbekistan's economic progress trailed that of other Eastern countries.

The strengthening of the country's authoritarian regime had a detrimental influence on economic development and output growth. To get Uzbekistan out of this economic crisis and back on track for development, the republic's economy needed to be renewed. Taking into consideration our people's historical experience, national

³⁷ Statistics. Main trends and indicators of the socio-economic development of the Republic of Uzbekistan over the years of independence (1990–2011). -T.: Uzbekistan, 2013.

mindset, and hard labor in the new path, we are resolutely marching toward particular goals.

REFERENCES

1. Radjabova R., Karimov R. History of Uzbekistan (1917–1993). - T.: Teacher, 1996.
2. Juraev N., Karimov Sh. History of Uzbekistan. Uzbekistan during the period of Soviet colonization. -T.: East, 2011.
3. Bobojonova D. Socio-economic relations in Uzbekistan. - T.: East, 1999.
4. Juraev M., New History of Uzbekistan. Second book. Uzbekistan during Soviet colonization. -T.: East, 2000.
5. Statistics. Main trends and indicators of the socio-economic development of the Republic of Uzbekistan over the years of independence (1990–2011). -T.: Uzbekistan, 2013.
6. Abdullaev R., Rakhimov M. History of Uzbekistan. Second book (1939–1991). - T.: Uzbekistan, 2019.

QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA KLASTERNI INNOVATSION LOYIHA SIFATIDA VUJUDGA KELISHI

O.H. Raximov,

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

N. Dj.Yusupova,

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) 1-kurs magistranti

Buxoro davlat universiteti

n.dj.yusupova@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqolada “Klasterlash” ning mazmun mohiyati, uning dolzarbligi hamda nazariy asosalari keltirilgan bo'lib, mamlakat iqtisodini barqaror rivojlantirishdagi o'рни hamda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi va agrosanoati samaradorligini oshirishda innovatsion loyiha sifatida qabul qilinganligi bayon etilgan hamda Buxoro viloyati misolida Agroklasterning qishloq xo'jaligi yalpi hududiy mahsulotining oshishiga ta'siri keltirilgan.

Kalit so'zlar: klaster, klasterlash, innovatsiya, agroklasterning, qishloq xo'jaligi, agrosanoat kompleksi, agroxizmatlar

Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida 4 fevral 2021 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6268-sonli farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini to'laqonli amalga oshirish, shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlariga ilmiy asoslangan axborot, zamonaviy xizmatlarni ko'rsatish, ishlab

chiqarishga ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalarni keng joriy etish, ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va agroxizmatlar ko'rsatish tizimining uzviy integratsiyasini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini 2021-2025 yillarda ustuvor rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi

Konsepsiya doirasida qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi sub'yektlariga zamonaviy agroxizmatlar ko'rsatishning uzviy tizimini o'zaro bog'laydigan Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tashkil etildi va u quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritishga mas'ul etib belgilandi:

qishloq xo'jaligi sohasida ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini ta'minlash;

Fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi klasterlari va kooperatsiyalari hamda ilg'or xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan manfaatli ilmiy-ishlab chiqarish hamkorligini yo'lga qo'yish, yangi ilmiy ishlanmalar, innovatsiyalar hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish. [1][2]

Ushbu farmonga ko'ra viloyatlarda,

Mahsulot yetishtirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb qilish orqali agrotexnik tadbirlarni yangilash, hosildorlikni bir necha barobar oshirish.

Mahsulot yetishtiruvchilar tomonidan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish va yakunda olinadigan tayyor mahsulotlarni eksportga yo'naltirish.

Kam xarajat qilib, ko'p daromad olish. Mahsulot yetishtiruvchilarning moliyaviy xolatini yaxshilash.

Mahsulot yetishtiruvchilar moddiy-texnik bazasini zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari va uskunalari bilan boyitish. Infratuzilma obyektlarini yangilash maqsadida Agroklasterlar tashkil etildi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: Klasterlash nima?

Klasterlash - bu unumdorlikni, innovatsiyalarni va kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirishning tan olingan usuli. Klasterlar kichik kompaniyalarga afzalliklarni turli imtiyozlar bilan birlashtirishga imkon beradi. Shunday qilib, klasterlar mintaqaning iqtisodiy o'sishida muhim operatorlardir

Ushbu tadqiqotning sababi klaster biznesini kengroq ko'rib chiqish : klaster biznes hamkorligini rivojlantirishga qanday ta'sir qiladi va qanday klaster harakatlari biznesga foyda keltirishi mumkin degan savollarga javob topishdir.

Klasterlar bir xil sohadagi korxonalarni birlashtiradi va rivojlantiradi. Ushbu tadqiqot klasterlarni juda sodda tarzda tushuntiradi: ma'lum bir hududda o'xshash korxonalar (qishloq xo'jaligi korxonalari) hamkorlik qiladilar va o'z bizneslari va xizmatlarini birgalikda rivojlantiradilar (agroklasterni tashkil qiladi).

Buni biz Buxoro viloyatida tashkil etilgan agroklaster misolida ko'ramiz.

Qishloq xo'jaligida chuqur qayta ishlashni va sanoatni rivojlantirmasdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmasligini bugun hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Keyingi yillarda birlamchi qayta ishlash sanoatida qishloq xo'jaligida amalga

oshirilgan yutuqlarimiz ko'lamini kengaytib borayotgani ana shu jihatdan e'tiborga molikdir.

Buxoro viloyati O'zbekiston Respublikasi viloyatlari ichida chegarasining kattaligi bo'yicha Navoiy viloyatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Buxoro viloyati iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi (paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, chorvachilik) tashkil etadi. Viloyat dehqonchiligida sug'oriladigan yerlar (tomorqa yerlar bilan birga) 273,7 ming ga[3] dan iborat bo'lib, qishloq xo'jaligining Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 43,7% ni tashkil etadi. (2021) Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 12% ga, 2016 yildagi 10 trln. so'mdan 2020 yilda 24,4 trln. so'mgacha o'sdi.^[4]

Jumladan, Buxoro viloyatida ham 2018-2021 yillarda barcha sohalarga klaster tizimi keng joriy etildi. Xususan, viloyatda 40 ta^[7] klaster tashkil etilib shundan 21 ta agroklasterning faoliyati yo'lga qo'yilib, ularga fermerlar birlashtirilayotgani o'zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar barqarorlashishi, raqobatbardoshlik oshishida mustahkam zamin bo'lmoqda. Bugungi kunda yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 20,5 foizi agroklasterni tomonidan tayyorlanmoqda.^[5]

2024- yilning yanvar-mart oylarida, hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)- larining eng yuqori hajmi Samarqand (5 849,4 mlrd. so'm), Toshkent (5 409,2 mlrd. so'm) va Buxoro (4 173,7 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etilib, oxirgi 5 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda barqaror o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2024-yilning yanvar-mart oylarida 42,4 trln so'mni, 2023-yilda 37,8 trln so'mni, 2022-yil, 2021-yil va 2020- yillarning yanvar-mart oylarida esa mos ravishda 31,5 trln so'm, 27,6 trln va 23,2 trln so'mni tashkil etgan.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 86,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,8 % i fermer xo'jaliklariga, 5,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida 4 fevral 2021yil 6268-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni <https://yuz.uz/news/qishloq-xo'jaligida-bilim-va-innovatsiyalar-tizimi-hamda-zamonaviy-xizmatlar-ko'rsatishni-yanada-rivojlantirish-tog'risida>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxoro_viloyati
3. <https://www.buxstat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>
4. <https://www.agro.uz/charts/>
5. <https://lex.uz/acts/-3107036>

6. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/35000-o-zbekiston-respublikasida-maxsus-iqtisodiy-zona-kichik-sanoat-zonasi-texnopark-va-klasterlar-faoliyati>

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Ш.О.Дехқонбоев,

Магистрант Бухарского государственного университета

sh.o.dehqonboyev@buxdu.uz

Аннотация. В статье рассматривается история развития судебно-психологической и комплексных с нею экспертиз, выделяются и анализируются три этапа. Первый этап – возникновение судебно-психологической экспертизы как самостоятельной ветви судебных экспертиз, определение основных предметных видов, внедрение в судопроизводство. Второй этап – становление судебно-психологической экспертизы и разработка теоретических, методологических, организационно-правовых проблем, в том числе – критериев судебно-психологической экспертной оценки юридически значимых способностей обвиняемых, потерпевших и свидетелей в рамках уголовного процесса

Ключевые слова: судебно-психологическая экспертиза, комплексная судебная психолого-психиатрическая экспертиза.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXAMINATION

Annotation. The article examines the history of the development of forensic psychological and complex examinations with it, identifies and analyzes three stages. The first stage is the emergence of forensic psychological examination as an independent branch of forensic examinations, the definition of the main subject types, and the introduction into legal proceedings. The second stage is the formation of a forensic psychological examination and the development of theoretical, methodological, organizational and legal problems, including criteria for a forensic psychological expert assessment of the legally significant abilities of the accused, victims and witnesses in the criminal process.

Key words: forensic psychological examination, complex forensic psychological and psychiatric examination.

Судебно-психологическая экспертиза (СПЭ) является частью судебной психологии - одного из важнейших разделов юридической психологии. При этом психолог может изучать психологические аспекты психической деятельности не

только разнообразных участников правовых отношений, но и самого психолога, выступающего в роли эксперта. Роль психолога в области СПЭ (в отличие от других сфер деятельности юридического психолога) как бы «раздваивается»: он может выступать и как исследователь проблем, связанных с проведением судебной экспертизы с участием психолога, и как собственно практик, осуществляющий само производство экспертизы.

Психолог как исследователь занимается судебно-психологической экспертологией - теоретической областью, изучающей закономерности, методологию и процесс формирования и развития научных основ СПЭ. Психолог как практик непосредственно осуществляет производство судебных экспертиз.

В настоящее время существуют две основные формы использования психологических знаний в форме судебной экспертизы – судебно-психологическая и комплексная судебная психолого-психиатрическая экспертизы. Комплексирование может быть и более широким, к примеру, достаточно распространена комплексная судебная психолого-сексолого-психиатрическая экспертиза.

Постановка вопроса о комплексировании психологических знаний с психиатрическими при производстве судебной экспертизы — это, в первую очередь, заслуга судебных психиатров. С начала 70-х гг. прошлого века Н. И. Фелинской, Н. Н. Станишевской, Т. П. Печерниковой и другими начата разработка вопросов

Qarorda ekoturizm, tibbiyot, ta'lim, etnografik, gastronomik va ishbilarmonlik turizmini rivojlantirish ham nazarda tutilgan. Turizm sohasidagi loyihalarga xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb etish hamda moliya institutlari mablag'larini jalb etish mamlakatimizning turizm sohasidagi salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi "2019-2020-yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 119-son qaroriga muvofiq "Shovot" kichik turistik zonasi tashkil etildi va uni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

"Xorazmda etnografik turizm juda yaxshi rivojlangan. Chunki, Xorazmga tashrif buyurganingizda uning naqadar tarixga boy hudud ekanligiga guvoh bo'lasiz. Turistlar etnografik buyumlar, an'ana va qadriyatlarga qiziqishadi.

Farg'ona. "O'zbekistonda etnografik turizm uchun turistik resurslar noyob va boydir. Bu O'zbekistonning ko'p millatliligi bilan izohlanadi. Me'moriy obidalar, go'zal tabiat maskanlari – bularning barchasi birgalikda dam olish, xalq tarixi, an'analari va madaniyati bilan tanishish uchun qulay sharoit yaratadi. Farg'ona vodiysining milliy tarkibi boy va rang-barang, chunki bu yerda o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, ruslar, tatarlar, koreyslar, armanlar, nemislar istiqomat qiladi."

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ham o'zbek xalqining bag'rikengligini sezish mumkin, o'zbek xalqi azal-azaldan ko'p millatli xalq hisoblanadi.

"O'zining mazmunli o'ziga xosligi va sayyohlarga millatning madaniy va etnik hayotida ishtirok etishi uchun yaratilgan imkoniyat tufayli aytishimiz mumkinki, etnografik turizm Farg'ona vodiysi va butun O'zbekiston rivojida katta istiqbollarni

⁴³ Manba: Davlat statistika qo'mitasi.

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-iyundagi "2021-2-22-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 369-son qarori//<https://lex.uz/uz/docs/-5458180>.

ko'rsatmoqda. Shunday qilib, so'nggi paytlarda etnoturizm tobora ommalashib bormoqda. Etnografik turizm madaniy-ma'rifiy turizmning turi, yo'nalishi sifatida tan olinadi."

Darhaqiqat, Farg'ona vodiysi etnografik turizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega hisoblanadi. Farg'ona tabiatining go'zalligi bilan mamlakatning boshqa hududlaridan farq qiladi, shu bilan birga u yerda hunarmandchilikning ko'plab turlari mavjud, ayniqsa Rishton o'zining kulolchilik mahsulotlari bilan butun dunyoga mashhur, bu mahsulotlardan sayyohlar o'z yaqinlariga esdalik sovg'a sifatida ham xarid qilishadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi davrda "Etnografiya va turizm" tushunchalarini birga qo'llash orqali ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar ushbu terminlarning naqadar bir-biriga hamohang tarzda bog'langanligini tushundi va anglay boshladi. Bu uchun etnologiya, etnografiya va antropologiya yo'nalishlariga murojat qilish orqali muammoning mohiyatini ochib berish mumkin. Barcha fanlarining zamirida inson omili turar ekan, demak turizm mazmuni va mohiyati inson omili bilan chambarchas bog'liq ekanligini tushunish kerak. Zero, insonlar madaniy jarayonlar yaratuvchisi yoki yakunlovchisi bo'lishi ham mumkin. Xulosa qilib, turizm bu yangi madaniy etnoslarga xos bo'lgan jihatlarni o'rganishga qiziqish va ishtiyoq deb ta'rif bersak, xato bo'lmas albatta. Chunki, har qanday turizm tarmoqlari bo'lmasin, sayyoh avvalo joyning madaniy o'ziga xos jihatlarni bilishga oshiqadi va shunga qarab harakat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR

1. Официальный сайт Комитета по межнациональным отношениям и дружественным связям с зарубежными странами при Кабинете министров Республики Узбекистан <http://interkomitet.uz/o-komitete/nacionalnye-kulturnye-centry/#1519390156657-eee09beb-3ae4> фе (Дата обращения: 2020.05.10)
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-iyundagi "2021-2022-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 369-son qarori//<https://lex.uz//uz//docs/-5458180>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi "2019-2020-yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish to'g'risida"gi 119-son qarori//<https://lex.uz/docs/-4199720>.
4. Н.О.Хомидова, «Этнографический туризм Ферганской долины»
5. G.T.Djalalova "Madaniy turizm va uning hozirgi kundagi ahamiyati". Proceedings of international Conference on Scientific Research in Natural and social Sciences. Canada, 2023.
6. Axmatova, M. (2021). Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).

7. Axmatova, M. (2023). TURISTIK TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASINI ANIQLASH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 36(36).
8. Axmatova, M. (2023). Анализ транспортных услуг и мобильности к достопримечательностям Бухарской области. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 37(37).
9. Axmatova, M. (2023). INTERNATIONAL CONNECTION OF TOURISM AND TRANSPORT SERVICES. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 37(37).
10. Axmatova, M. (2023). TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARI BILAN BOG 'LIQ MUAMMOLAR VA ULARGA INNOVATSION YECHIMLARI. *DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE*, 1(4), 58-65.
11. U.N. Atamurodov "Mintaqada turizm sohasi salohiyatidan foydalanishning afzalliklari". Mintaqaviy iqtisodiyot, 2022.

O'ZBEKISTONDA MA'NAVIYATGA BO'LGAN E'TIBOR VA EHTIYOJ

*B.N. Dehqonov,
BuxDU, 4- bosqich talabasi*

Annotatsiya: Bugungi kunda jamiyatimizda ma'naviyatga berilayotgan e'tibor, odamlarning ma'naviyatga bo'lgan munosabati va ehtiyoji, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarimiz va urf-odat an'analimizning o'rni, ilm-fan va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda shuningdek turli xil yangiliklar, ixtirolarni kashf etishda ma'naviyatning o'rni, demokratik jamiyat qurishning muhim mezonlari, jahondagi turli xil millatlarda ma'naviyat va madaniyatning roli haqida maqolada bilib olasiz.

Kalit so'zlar: madaniyat, ma'rifat, loqaydlik, befarqlik, nigilizm, innovatsiya, ilm-fan, taraqqiyot, oila, jamiyat, qadriyat, illat, odob-axloq.

Ma'naviyat bu - arabcha so'z bo'lib "ma'no, ma'nolar majmuasi, odob-axloq majmui" degan ma'nolarni anglatadi. O'zida odob-axloq, qadriyatlar, urf-odatlar, tarix va ilm fanni jamlab olgan ushbu tushuncha ma'lum bir g'oyaviy bo'shliqlarni to'ldirish, jamiyatdagi insonlarning axloqiy, diniy, ilmiy, badiiy, huquqiy, falsafiy tomondan rivojlanishi uchun eng muhimdir. Har bir odam bu hayotda yashar ekan o'z oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib umrini mazmunli o'tkazish, o'zidan aqli yetuk, jismonan sog'lom zurriyotlarni qoldirish kabi maqsadlarni qo'yadi. Ma'naviyat jamiyatda inson hayotining mazmunini o'zida aks etadi va qobilyatli, iste'dodli, millatni yuzini yorug' qila oladigan yoshlarni tarbiyalab beradi. Xoh musofirlikda, xoh o'z mamlakatida ma'lum bir kasb-hunarni egallab o'z oldiga ezgu maqsadlar qo'yib, oilasini halol yedirib, halol kiydirib ular uchun halol mehnat qiladigan, kelajakda tarbiyali farzandni ulg'aytirgan insonlar haqiqiy ma'naviyatli insonlar hisoblanadi. Jamiyatimizda

saqlanib kelayotgan ota-onaga, opa-ukaga hurmat ko'rsatish, keksalar va kasallar holidan xabar olish, qo'shnilarga mehribon bo'lish, nochorlarga yordam berish kabi axloqiy qadriyatlar ham bevosita ma'naviyatga bog'liq.

O'zbekistonda ma'naviyat davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan bo'lib, juda ko'p ta'rif-u tavsiflar berilgan. Biz asosan ma'naviyatni o'rganishimizda ajdodlarimiz merosidan foydalanamiz va bu juda katta samara berib kelmoqda. 20-asr ma'rifatparvarlarimiz Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirning meroslari zamirida ilm olish targ'ib qilingan. Yurtimizdan bunday olim-u ulamolar, adib-u mutaffakirlar juda ko'p yatishib chiqqan. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov o'z ma'ruzasining birida " Har birimiz " bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab", "buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak" deb ta'kidlab o'tgan edi. Afsuski so'nggi paytlarda jamiyatimizda ma'naviyat yuksalishi bilan birga loqaydlik, befarqlik, hasadchilik, g'iybatchilik kabi ma'naviyatga yod bo'lgan illatlar ko'paymoqda. Bularning oldini olishni maqsad qilar ekanmiz avvalo yoshlarga qadriyatlarni asrab qolishni o'rgatmog'imiz lozim. O'z tarixini biladigan, o'z qadriyatlarini hurmat qiladigan millatni hech qachon, hech kim ma'naviyatini buza olmaydi. Agar adiblarimizni asarlariga e'tibor bersak hammasini zamirida doimo yaxshilikka, insonlarning bir-biriga hurmat-izzatda bo'lishi, yomonlik qilsa albatta qachonlardir pushaymon bo'lish chorlovi mavjud. Inson ma'naviyatli bo'lish uchun aynan ma'naviyat haqida uzundan-uzun ta'riflarni-yu jummalarni o'rganishi shart emas. Chunki ma'naviyatga yagona ta'rif mavjud emas. Uning qamrovi keng bo'lib kimdir uni oilasida, kimdir do'stlarida, kimdir esa vatanida ko'radi. Har bir inson ma'naviyat nimaligini tushunish uchun avvalo o'zining kimligini, yer yuzidagi haqiqiy mo'jiza ekanligini, o'z ma'naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqara boshlagan sari tom ma'noda haqiqiy shaxsga aylana borishini anglashi lozim. Bu yo'lda yordam beradigan 2 ta eng muhim narsa bu iymon va ilmdir.

Iymon- shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati, o'zi anglab yetgan va to'g'ri deb bilgan borliq haqiqatiga samimiy e'tiqod. Imon-e'tiqod ma'naviyatning o'zak tomiri bo'lib, shaxs ma'naviyati imondan boshlanadi. Xalqimiz tilida "imonsiz" degan so'z eng og'ir haqorat sanalishi bejiz emas.

Ilm – shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati va milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, borliq haqiqatini anglab yetishda bilimga, aql va tafakkurga tayanish. Ilm nuri bilan yorishmagan e'tiqod "taqlidiy iymon" hisoblanadi va takabburlik bilan birlashsa, aqidaparastlikka olib boradi.

Iymon va ilm birlashar ekan hech qachon yod narsalar insonni chalg'ita olmaydi. Millatda mavjud bo'lgan milliy qadriyatlar esa abadiy insonlarning qalbida yashab uni doimo asrab avaylashga e'tiborini qaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xalqning va millatning ma'naviyatini sun'iy ravishda, qandaydir o'ylab topilgan aqidalarga yoki dogmalarga tayangan holda yuzaga

keltirib ham, keskin o'zgartirib ham bo'lmaydi. Chunki ma'naviyat bir kunda, bir oyda bir yilda yoki bir asrda shakllanib qoladigan narsa emas. Masalan oila qadriyati biz uchun nechi yillik meros. Shu kabi ma'naviyat ham har bir millatning uzoq tarixidan ozuqa olib rivojlanib boraveradi. O'z tarixini yo'qotsa butun millat yo'qoladi. Milliy ma'naviyatimizni bugungi kunda tadqiq etish ma'suliyat talab qiladi. Uni tarixiy fanlarga yuzlanish, bundan tashqari ajdodlarimizning ming yillar davomida erishgan yutuqlarini o'rganish orqali rivojlantira olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhammadjon Imomnazarov. Milliy ma'naviyat bosqichlari. Toshkent-2010 244 bet.
2. I.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T.-«O'zbekiston»-1994, 65 bet

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION MUHITNI YAXSHILASH ORQALI BARQARORLIKNI TA'MINLASH

D.I. Rajabova,
BuxDU 1-bosqich magistranti
d.i.rajabova@buxdu.uz

ANNOTATSIYA: Maqolada innovatsion muhitni takomillashtirish orqali sanoat korxonalarida barqaror rivojlanishni ta'minlashga erishish xususida so'z yuritiladi. Korxonalar, korxonalar rivojlanishining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilinadi, bular ichida iqtisodiy barqarorlikni rivojlantirish uchun eng muhim omil sifatida innovatsiya ajralib turadi. Shuningdek, korxonalar innovatsion muhitini yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

KALIT SO'ZLAR: iqtisodiy barqarorlik, barqarorlik ko'rsatkichlari, innovatsiya, innovatsion muhit, sanoat korxonalar.

Kirish.

Barqaror rivojlanish - bu hozirgi va kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni to'liq saqlash bilan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni uyg'unlashtiradigan insoniyat jamiyatini rivojlantirish yo'lidir. Atrof-muhitni kelajak avlodlar uchun eng kam o'zgartirilgan shaklda saqlash barqaror rivojlanishning asosiy maqsadlaridan biridir. Sanoat inqilobidan beri iqtisodiy taraqqiyotimiz juda tartibga solinmagan bo'lib, hozirgi vaqtda kelajak avlodlar hayoti uchun xavf tug'dirmoqda. Barqaror rivojlanish tashabbuslarini amalga oshirish jamiyatning barqaror yashash qobiliyatiga bog'liq bo'lgan tabiiy resurslarga investitsiyalar va ularni saqlash orqali o'sishni rag'batlantiradigan ekologik iqtisodiyotga tez, keng qamrovli va global o'tish boshlanishini ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, bu barqaror rivojlanishni xalqaro miqyosda boshqarish bo'yicha zarur islohotlarning boshlanishini ko'rsatadi.

Qo'shimcha qiymat bilan iqtisodiy o'sishga erishishning bir yo'li iqtisodiy siyosatga innovatsiyalarni joriy etishdir. Yevropa Ittifoqi barqaror rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan ushbu global inqirozga o'z mamlakatlarida aqlli, barqaror va inklyuziv iqtisodiyotni yaratishni maqsad qilgan strategiyasi bilan javob berdi. Innovatsiyalar, barqarorlik va atrof-muhitning butun kun tartibi juda muhim mavzu bo'lib, atrof-muhit holati tufayli innovatsion rejalar va strategiyalarga kiritilgan.

Hozirgi vaqtda atrof-muhitdan foydalanishning kuchayishi uning xavf ostida bo'lishiga olib keladi, natijada tadbirkorlik faoliyatini uyg'unlashtirish va faoliyatni atrof-muhitni saqlashga qaratilgan faoliyat bilan birlashtirish zarurati tug'iladi. Bunga erishishning eng ma'qul usuli ekologik innovatsiyalardan foydalangan holda yashil iqtisodiyotdir. Bu ekologik mas'uliyatni o'zida mujassam etgan innovatsiyaning o'ziga xos shakli bo'lib, so'nggi yillarda uning ahamiyati ortib bormoqda. Barqarorlik jadal rivojlanmoqda va kompaniyalar hayotining hal qiluvchi qismiga aylanmoqda. Kompaniyalar atrof-muhitni boshqarish amaliyotini, shuningdek, milliy va xalqaro qoidalarni, iste'molchi bosimini va boshqa tashqi omillarni qabul qilish orqali taqdim etilgan imkoniyatlar tufayli o'z xatti-harakatlarini o'zgartiradilar.

Kompaniyalar o'z munosabatlarini nafaqat milliy va xalqaro standartlar, qonunlar yoki iste'molchilar bosimiga majburlangani uchun, balki atrof-muhitni boshqarish strategiyalarini qabul qilish bozorda imkoniyatlar yaratganligi uchun ham o'zgartiradilar. Shu sababli, kompaniyalar manfaatdor tomonlarning talablarini qondirish uchun bunday innovatsion amaliyotlarni ishlab chiqishlari va biznes jarayonlariga innovatsion kontseptsiyalarni kiritish orqali o'z faoliyatini qayta tashkil etishlari kerak. Kichik va o'rta kompaniyalar ko'proq potentsial moslashuvchanlik va mijozlarga yaqinlik va xususiylashtirish va innovatsiyalarga nisbatan ustunlikka ega. So'nggi yillarda barqaror rivojlanish vositasi sifatida innovatsiyalar kontekstida aniq tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning ahamiyati oshdi.

Barqaror rivojlanish va aylanma iqtisodiyotga o'tish uchun ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va yangilashga intilish, ayniqsa, savdo tarmoqlarida muhim ahamiyatga ega. Bu, o'z navbatida, innovatsiyalarni talab qiladi - yoki nima ishlayotganini va nima ishlamasligini aniqlash uchun yangi g'oyalarni yanada tizimli ravishda sinab ko'rishni talab qiladi. Innovatsiyalar bilim va texnologiyalarni ishlab chiqarish va samarali uzatishni, o'sish va bandlik va mamlakatning umumiy farovonligi uchun ko'proq qiymat yaratishni rag'batlantirishni nazarda tutadi. Bu qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, bozor raqobatini yaxshilash va xususiy sektorni innovatsiyalarni o'zlashtirish uchun mustahkam imkoniyatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Ushbu muammolarni e'tirof etgan holda, hukumat iqtisodiy islohotlar, barqaror rivojlanish va yaqinda raqamlashtirish va innovatsiyalar siyosatiga kuchli siyosiy sodiqligini namoyish etdi. Hukumat nafaqat 2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi milliy rivojlanish strategiyasini e'lon qildi, balki 2022–2030 yillarga mo'ljallangan yangi milliy innovatsion strategiya loyihasini ham ishlab chiqdi.

Mamlakatning innovatsion salohiyatiga asoslanib, O'zbekistonda iqtisodiyotda innovatsiyalarni rivojlantirish uchun turli institutlar tashkil etildi va keng ko'lamli davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan mexanizmlar joriy etildi. Eng muhimi, 2017-yilda hukumat qarori bilan innovatsion siyosatni qo'llab-quvvatlashga rahbarlik qilish va muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan Innovatsion rivojlanish vazirligi (IIV) tashkil etildi. Biroq, innovatsiyalar hali tizimli ravishda amalga oshirilmaydi, chunki siyosatlar tarqoq, ijobiy sinergiya va muvofiqlashtirish mavjud emas va har doim ham barqaror rivojlanish uchun muammolarni hal etmaydi, bu esa siyosatni samarali o'rta va uzoq muddatli rejalashtirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, yangi innovatsion strategiya (2022–2030) nuqtai nazaridan, kiritilgan tashabbuslarni ko'rib chiqish va ularning innovatsion faoliyatga ta'sirini o'rganish, nima ish bermayotganini ko'rish va nima ko'lamini kengaytirish uchun juda muhim bo'ladi. Raqamlashtirish, iqtisodiy aylanma va ekologik barqaror rivojlanishni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti the third *Environmental Performance Review of Uzbekistan* (O'zbekistonning Atrof-muhit samaradorligining uchinchi sharhi)ni boshladi, unda atrof-muhitni boshqarish va samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish uchun innovatsion strategiyasi doirasidagi Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPECA) orqali submintaqaviy darajada innovatsion siyosat bo'yicha mamlakat bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Sanoat korxonalarida barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash haqida T.Maltus, L.Valras, K.Ya.Kondratiev va boshqa tadqiqotchilar izlanish olib borishgan. Ularga ko'ra davlatning barqarorligi siyosiy, iqtisodiy tizimlar, ijtimoiy siyosiy tuzilmalar barqarorligiga bog'liq. Milliy miqyosda barqarorlik milliy qonunchilik, milliy rejalar va harakatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish, iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish bilan ta'minlanadi.

V.K.Petrov va S.G.Selivanovlar barqarorlikni tashqi va ichki bezovta qiluvchi ta'sirlar ta'sirida muvozanat yoki maqsadli harakatni saqlash uchun mavjud resurslarni samarali safarbar qilish qobiliyati sifatida belgilaydilar.

F.Herzberg, M.Porter, G.R.Yarullina, G.V.Savitskaya, A.V.Grachevning ilmiy izlanishlari korxonaning iqtisodiy samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Ular korxonada darajasi barqarorlikni mikroiqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi. Sanoat korxonasining barqaror rivojlanishini boshqarishga yondashuv tashkilotni ochiq tizim sifatida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Natijada, tashqi va ichki omillarning ta'siri mavjud. Umuman korxonaning holati tizimning har bir elementining barqarorligiga bog'liq.

Shunday qilib, korxonada darajasida barqarorlik oldindan belgilangan natijalarga erishish uchun tashqi va ichki omillar ta'sirida bo'lgan ishlab chiqarish, ijtimoiy, kadrlar, marketing, texnologik, moliyaviy, ekologik va boshqaruv quyi tizimlarining muvozanatli kombinatsiyasiga bog'liq.

Barqarorlik kabi tushuncha ko'pincha "barqaror rivojlanish" iborasi sifatida ham ishlatiladi.

"Rivojlanish" toifasining birinchi ta'rifi platonik kontsepsiya hisoblanadi, u rivojlanish haqida biror narsaning ochilishi sifatida gapiradi, shu bilan birga ma'lum imkoniyatlar boshidanoq yaratilgan deb ishonilgan. Bundan tashqari, rivojlanishni takomillashtirish, miqdoriy o'sish nuqtai nazaridan talqin qiluvchi mexanik tushuncha mavjud edi.

"Taraqqiyot" toifasining zamonaviy kontsepsiyasi ko'p qirrali va tortishuvli. T.F.Efremova lug'atida unga quyidagi ta'riflar ta'kidlangan:

- harakat jarayoni (rivojlanish);
- tabiiy o'zgarish jarayoni, bir holatdan ikkinchi holatga o'tish, eng yaxshilangan, oldingi sifat holatidan yangi holatga o'tish;
- - ma'rifat, madaniyat, aqliy va ma'naviy tajriba darajasi.


E.N.Loguntsev rivojlanishni sifatni modernizatsiya qilish, tashkilotning yangi darajasiga o'tkazish bilan tavsiflangan qaytarib bo'lmaydigan, maqsadli, tabiiy o'zgarish sifatida belgilaydi.

Har bir muallif "rivojlanish" tushunchasini o'ziga xos tarzda izohlaydi. Bu tabiiy o'zgarish sifatida tushuniladi yoki kimdir tomonidan o'zgarishga olib keladi, har qanday holatda ham u erda ham, u erda ham "o'zgarish" so'zi mavjud. Bizning fikrimizcha, rivojlanish ob'ekti mavjudlik bosqichiga qarab o'zgaradi. Shunday qilib, dastlabki bosqichda tabiiy o'zgarish sodir bo'ladi, so'ngra ob'ektga turli xil ekologik omillar ta'sir qiladi, ular mustaqil o'zgarish bilan birga ob'ektning sifat jihatidan o'zgarishiga yordam beradi.

Shunday qilib, biz shuni xulosa qilishimiz mumkinki, rivojlanish bu ham ichki, ham tashqi omillar ta'sirida sodir bo'ladigan, miqdoriy, sifat va tarkibiy o'zgarishlarning shakllanishiga olib keladigan qaytarilmas, yo'naltirilgan va mantiqiy o'zgarishlar jarayonidir.

Korxonaning barqarorligi to'liq yoki qisman ishlab chiqarish, boshqaruv, narx, moliyaviy, ijtimoiy barqarorlik va tadbirkorlik faoliyatining barqarorligi natijasi bo'lishi mumkin, bu esa korxonaning barqarorligiga turli yo'llar bilan ta'sir qiladi.

Ishlab chiqarish korxonasining iqtisodiy barqarorligi strukturasi 1-rasmda aks ettirilgan.



Axborot barqarorligi

Intellektual (innovatsion)
barqarorlik

1-rasm.

Sanoat korxonalarini rivojlanishining barqarorligiga ta'sir etuvchi muhim omillar qatorida, birinchi navbatda, iqtisodiy barqarorlikni ajratib ko'rsatish kerak. Iqtisodiy barqarorlik doimiy yoki sust o'zgaruvchan narxlar, soliq stavkalari, bank kreditini berish shartlari, milliy valyuta kursi, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish shartlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Natija


2020-yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston iqtisodiyoti pandemiya va unga bog'liq cheklov choralari sharoitida rivojlandi. Sog'liqni saqlashga sarflanadigan xarajatlarni ko'paytirish, mehnat va tadbirkorlik vaqtincha to'xtatilgan sharoitda jamiyatning zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash zarurati mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli qo'shimcha yuk keltirdi. Ayni paytda biz ijobiy dinamikani saqlab qolishga muvaffaq bo'ldik. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti o'sish sur'atlarini 2019-yilning yanvar-sentyabr oylaridagi 5,9 foizdan joriy yilning shu davridagi 0,4 foizgacha sezilarli darajada pasaytirdi.

Innovatsiyalar mamlakatning Barqaror Taraqqiyot Maqsadlari (SDGs) maqsadlariga erishish va iqtisodiy aylanaga o'tish ambitsiyalariga erishishda, jumladan, malaka va ekologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbekistonda SDG yo'l xaritasi 15, shuningdek, taraqqiyotni nazorat qiluvchi Muvofiqlashtiruvchi kengash va Parlament komissiyasi mavjud. U 2016-yilda o'zining birinchi ixtiyoriy milliy sharhini o'tkazdi (MoDPR, 2020-yil) va taraqqiyotni o'lchash va islohotlarni yo'naltirish uchun takrorlanuvchi xususiyat sifatida bunday sharhlarni kiritish niyatida (O'zbekiston Respublikasi, 2020). 17 SDGdan 16 tasi Milliy rivojlanish strategiyasida ko'zda tutilgan rivojlanishning beshta asosiy yo'nalishiga to'g'ri keladi. SDG asboblar panelida O'zbekiston 2020-yilda Turkmaniston (63/100) va Tojikistondan (69/100) 71/100, 17 ball bilan yuqori, lekin Qirg'iziston (73/100) va Qozog'istondan (71) biroz pastroq bo'lib, 66/193-o'rinni egalladi. /100). Tengsizliklarni kamaytirish (SDG 10) va sanoat, innovatsiyalar va infratuzilma (SDG 9) bo'yicha maqsadlarga erishish mamlakat haligacha duch kelayotgan asosiy muammolardan biridir.

Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalar innovatsiyalarning asosiy manbalaridan biri bo'lib, unumdorlikni oshirish va iqtisodiyotda qiymat yaratish (Vergara, 2019), mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va xalqaro qiymat zanjirlariga kirishni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. U yuqori daromad keltirishi va uzoq muddatli o'sishni rag'batlantirishi mumkin (Izvorski va boshqalar, 2019). Shunga qaramay, O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga yalpi xarajatlar nisbatan past – 2012-yildan buyon YaIMning 0,2 foiziga teng yoki undan kam, 2018-yilda esa 0,13

foizga kamaygan, Tojikistondan (0,1 foiz) biroz yuqori va Qozog'iston (0,12 foiz), lekin 2017 yildagi o'rtacha daromad guruhidan (0,58 foiz) past (2.-rasm). 2019–2021 yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasida ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalarning past darajasini e'tirof etgan holda, 2021-yilda bu ko'rsatkichlarni YaIMning 0,8 foiziga ko'tarish belgilangan (O'zbekiston, 2018 yil), bu maqsadga erishilmadi.

ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARGA YALPI XARAJATLAR, 2009–2018




Sektorlar bo'ylab innovatsion potentsialdan foydalanish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini tadqiqot sohalarida yanada diversifikatsiya qilish mumkin. Masalan, 2018 yilda GERDning 29 foizi amaliy tadqiqotlarga, 21,5 foizi eksperimental ishlanmalarga va 19,5 foizi fundamental tadqiqotlarga (YUNESKO, 2021a) sarmoya kiritildi. va muhandislik va texnologiyada, birinchisining ulushi so'nggi yillarda 40 foizga oshdi. Bundan farqli o'laroq, qishloq xo'jaligi, tibbiy va ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlar bo'yicha tadqiqot faoliyati GERD ning 10 foizdan kamini oldi . Qishloq xo'jaligining sezilarli o'sish potentsialini hisobga olgan holda, qishloq xo'jaligi faoliyatida GERD ning hozirgi past darajasini oshirish barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning istiqbolli yo'lidir.

So'nggi yillarda tadqiqotchilar soni nisbatan barqaror. 2019-yilda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi xodimlarning 85 foizini ilmiy xodimlar va har biri 5 foizini texnik, yordamchi yoki boshqa xodimlar tashkil etdi (O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi, 2021 yil). Tadqiqotchilarning yarmidan ko'pi oliy ta'lim muassasalarida ishlagan (3-rasm). 2009-yildan buyon tadqiqotchilarning to'liq vaqtli ekvivalent soni har million aholiga 470 dan 580 gacha bo'lib, 2018-yilda atigi 476 taga

yetdi, bu Qozog'iston (667), Turkiya (2017-yilda 1379) va Rossiya Federatsiyasi (2784)dan past (YUNESKO, 2021a).

SEKTORLAR BO'YICHA TADQIQOTCHILAR (TO'LIQ KUNLIK EKVIVALENT).



XULOSA

O'rganilayotgan korxonada faoliyatidagi zaif tomonlarni izlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nihoyatda muhim, ular asosida ushbu joylarni bartaraf etish chora-tadbirlarini rejalashtirish mumkin.

Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi zaif tomonlarni aniqlash uchun iqtisodiy barqarorlik toifalarini baholash ko'rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi, ulardan eng muhimi:

- ishlab chiqarish barqarorligi ko'rsatkichlari (asosiy vositalarning amal qilish va yangilanish koeffitsienti, asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti);

- ijtimoiy barqarorlik ko'rsatkichlari (professional kadrlar almashinuvi nisbati, kadrlar almashinuvi darajasi va boshqalar);

- tadbirkorlik faoliyati barqarorligi ko'rsatkichlari (sotish bozorlarining kengligi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotish hajmi, kapitalning umumiy aylanma koeffitsienti, kapital unumdorligi va boshqalar);

- moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari (mahsulotlar likvidlik koeffitsienti, moliyaviy barqarorlik koeffitsienti va boshqalar);

Hozirgi sharoitda korxonaning barqarorligi murakkab omillar majmuasi ta'sirida shakllanadi. Bu omillar orasida ishlab chiqarish ichidagi, iqtisodiy, moliyaviy, marketing, texnologik va boshqa omillar mavjud. Korxonani boshqarish tizimi atrof-

muhitdagi eng kichik o'zgarishlarga tezda javob berishi va o'zgargan vaziyatga moslashishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlari ushbu muhitda joylashgan korxonalar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan qulay tashqi muhit mavjudligi bilan ta'minlanadi. Noqulay tashqi muhit va iqtisodiy beqarorlikning kuchayishi sharoitida o'sish sur'atlari muqarrar ravishda pasayadi va uzoq davom etadigan retsessiya xavfi mavjud.

Mavjud vaziyatni o'zgartirish va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishiga erishish uchun iqtisodiy barqarorlikka o'tish talab etiladi. Bu jarayon iqtisodiy beqarorlikka olib kelgan omillarning zaiflashishiga asoslangan. Xususan, xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish, xomashyo va energiya resurslariga barqaror va adolatli narxlarni o'rnatishga ko'maklashuvchi kuchlarni qo'llab-quvvatlash, kapital va mehnat resurslari harakatidagi sun'iy to'siqlarni bartaraf etish orqali beqarorlikning tashqi omillarini zaiflashtirish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.07.2020 yildagi O'RQ-630-son
2. Бекетов Н.В., Денисова А.С. Проблемы управления экономической устойчивостью и конкурентоспособностью предприятия // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2008. № 4. С. 23–27.
3. Bhupendra, K., Sangle, S. (2015). What drives successful implementation of pollution prevention and cleaner technology strategy? The role of innovative capability. *J. Environ. Manag.*, 155, pp. 184-192
4. Зиньков Д.В. Осуществление аутсорсинга для повышения устойчивости компании: Монография. Тюменский государственный университет. Тюмень: ТГУ, 2006.
5. Самосудов М.В. Механизмы управления системной устойчивостью // Современная конкуренция. 2008. № 4. С. 12–14.
6. Attah, Nkechinyere V., *Environmental Sustainability and Sustainable Growth: A Global Outlook. Master of Science in Organizational Dynamics. 2010. Theses. 34.*
7. Федотов, А.В. Определяющие факторы инновационного развития промышленных предприятий / А.В. Федотов, А.В. Васюков // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. 2014. № 2 (62). С.
8. <https://review.uz/post/ekonomika-stran-centralnoy-azii-pod-davleniem-pandemii>
9. Повышение эффективности отечественной промышленности в модели устойчивого развития: коллективная монография / под ред. Веселовского М.Я., Кировой И.В., Никоноровой А.В. М.: Научный консультант, 2015. 252 с
10. Организационно-экономический механизм повышения эффективности функционирования промышленных предприятий: коллективная монография /

- под ред. Веселовского М.Я., Кировой И.В. М.: Научный консультант, 2015. 269 с.
11. AfonasoVA M.A. The development mechanisms investigation of ultrafast processes in the economy // Review of European Studies, Vol. 6, No. 4, December, 2014. P. 216–223.
 12. www.stat.uz
 13. Мальтус, Т.Р. Опыт о законе народонаселения [Электронный ресурс] / Т.Р. Мальтус // Аналогия экономической классики. Т.2. <http://www.pseudology.org/Reklama/MaltusNarodZakon2.pdf>.
 14. Вальрас, Л. Элементы чистой политической экономии / Л. Вальрас. - М.: Изограф, 2000.- 448 с.
 15. Кондратьев, К.Я. Глобальная экодинамика и устойчивое развитие: естественнонаучные аспекты и человеческое измерение / К.Я. Кондратьев // Изв. Рус. геогр. общества, 1997. № 6.- С. 1-12.
 16. Петров, В.К. Устойчивость государства: монография / В.К. Петров, С. Г. Селиванов. - Москва: Экономика, 2005.- 488 с.
 17. Герцберг, Ф. Мотивация к работе / Ф. Шрецберг, Б. Моснер, Б. Снидерман. - М: Вершина, 2007.- 240 с.
 18. Портер, М. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. - Альпина Паблишер, 2016.- 453 с.
 19. Яруллина, Г.Р. Управление устойчивым экономическим развитием предприятий промышленного комплекса (теория и методология): дис. д-ра экон. наук: 08.00.05 / Г.Р. Яруллина. - Казань, 2011.- 415 с.
 19. Савицкая, Г.В. Анализ эффективности и рисков предпринимательской деятельности: методологические аспекты: монография / Г.В. Савицкая. - 2-е изд., перераб. и доп.- М.: ИНФРА-М, 2017.- 291 с.
 20. Грачев, В.А. Научные идеи В. И. Вернадского как основа для нового мировоззрения и устойчивого развития / В.А. Грачев // Век глобализации, 2015.- №2.- С. 143-157.
 21. Ефремова, Т.Ф. Современный толковый словарь русского языка под редакцией Т.Ф. Ефремовой. URL: <http://dic.academic.ru/dic.nsf/efremova/274621>.- 2017.

MEHMONXONA SANOATINI RIVOJLANTIRISH HAMDA XIZMATLAR BOZORINI TAKOMILLASHTIRISH

N.M. Sadikova,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
n.m.sadikova@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehmonxona va joylashtirish vositalariga qo'yilgan davlat talablarini optimallashtirish, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xorijiy davlatlarda hamda O'zbekistonda "yulduz"li mehmonxonalarga qo'yilgan talablar, "yulduz" olish talablarini kamaytirish yoki susaytirish mehmonxonalar obrusi va maqomini, shuningdek, tasniflanishi sifatini pasayishiga olib keluvchi omil bo'lishi tahlil qilingan. Mehmonxona va joylashtirish vositalarining o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar, sifatli kadrlar tayyorlash, bozor talablariga mos xizmat ko'rsatishni tashkil qilish orqali turizmni rivojlantirish asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: Mehmonxona, joylashtirish vositalari, tadbirkorlik, bozor talabi, tashqi o'zgarishlar, mehmonxonalarga talablar, Davlat Standartlari, kadrlar tayyorlash, professional.

DEVELOPMENT OF THE HOTEL INDUSTRY AND IMPROVEMENT OF THE SERVICES MARKET

Annotation: In the article is discussed the issues of state requirements optimization for hotels and accommodation facilities, state support of business entities, international requirements for "star" hotels and in Uzbekistan, disclosed that reduction or weakening of requirements for obtaining "star" will be a factor leading to a decrease of hotels reputation and status, as well the quality of their classification. The development of tourism is justified by the factors affecting the growth of hotels and accommodation facilities, the training of quality personnel, the organization of service in accordance with market requirements.

Key words: hotel, accommodation facilities, entrepreneurship, market demand, external changes, requirements for hotels, state standards, personnel training, professional

Jahondagi beqaror iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vaziyatga qaramay, turizm va mehmonxona sohasi jadal rivojlanishda davom etmoqda. Turizm va mehmonxona sohasining rivojlanishi talabiga qarab taklif etilayotgan mehmonxona xizmatlari turlarining ortishiga sabab bo'lmoqda. "O'zbekiston turizm va mehmonxona sohasidagi bozorda o'z o'rniga ega bo'lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, mehmonxona va joylashtirish vositalari, servis xizmatini yaxshilash, jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past". Ushbu maqsadda, mehmonxona va joylashtirish vositalari ulardagi xizmatlarni sezilarli o'sishi borasida tadqiqotlar o'tkazish dolzarb ahamiyatga ega.

Servis soxasi odamlar hayotini yaxshilashga qaratilgan. Odamlarning hayotini yaxshilash esa benihoya keng qamrovli jarayon. Shu tufayli servis sohasining tarmoqlari va ko'lami juda keng. Ushbu soha odamlarga munosib sharoit yaratib berish bilan birga mamlakat yalpi ichki maxsulotida ham o'zining sezilarli o'rniga ega bo'lib bormoqda. Shuning bilan bir qatorda davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida, respublikamiz prezidentu qator muhim qarorlarni qabul qildilar. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023 yildagi

PQ-238-son turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida 45 gi qarori imzolangan.

Mehmonxona xo'jaligi sohasining barqarorligini ta'minlash professional kadrlar salohiyatiga bog'liq bo'lib, yangi texnologiyalarning jamiyatga kirib kelishi va mehmonxona xizmatlari sifatini oshirib borishni inobatga olib, muntazam mutaxassislarning malakasini oshirish dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek, "mehmonxona xo'jaligi professional faoliyatning murakkab sohasidir". Bunda, mehmonxona va joylashtirish vositalarining biznes sharoitidagi tashqi o'zgarishlarga juda tez moslashishi katta ahamiyatga ega. Har bir mijozga qiyin raqobat sharoitida sifatli xizmat ko'rsatish bozor talabiga aylangan. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mehmonxona sohasining rivojlanishi, xalqaro e'tirof etilgan standartlarga va bozor talablariga javob berishiga bog'liq. muammoning qo'yilishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018yil 4-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasiga xorijiy fuqarolarning kirishi tartibini optimallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ3836-son qarori bilan xorijiy fuqarolarning respublikaga kirishi tartibini yanada takomillashtirish, elektron kirish vizasini rasmiylashtirish va berish bo'yicha interaktiv xizmatlarni, shuningdek, bir qator xorijiy mamlakatlar fuqarolari uchun O'zbekiston Respublikasiga vizasiz qisqa muddatli kirish va 16 yoshga to'lmagan xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasiga vizasiz kirish tartibini joriy qilish yo'li bilan xorijiy fuqarolarning kirish vizasini olish jarayonlari soddalashtirildi³. Sohani rivojlanishi borasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, Yu.N. Saybel mehmonxona boshqaruvini avtomatlashtirish orqali xizmatlar samaradorligini oshirish xususida tadqiqot olib borgan⁴. Katerina Berezina, Cihan Cobanoglu, Brian L. Miller, Francis A. Kwansa "The impact of information security breach on hotel guest perception of service quality, satisfaction, revisit intentions and word-of-mouth" nomli ilmiy maqolasiga ko'ra "Mehmonxona xizmat ko'rsatish jarayonida eng avvalo axborot xavsizligiga ahamiyat qaratishi lozim.

Har bir mijozga xizmat ko'rsatish jarayonida, mehmonxona mijozning ayrim shaxsiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ma'lumotlar bazasiga ega bo'ladi. Bunday ma'lumotlarni saqlash va har qanday sharoitda oshkor etmaslik, mehmonxona xizmat ko'rsatish obrusiga ijobiy ta'sir qilishi" mumkinligi haqida fikr yuritgan¹. Aleksa S. "Influence of specialized hotels on employees' perception of abuse in the selective tourism destination" nomli maqolasida "Ixtisoslashtirilgan mehmonxonalar

45 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023 yildagi PQ-238-son <https://kun.uz/uz/news/2018/01/02/uzbekistonda-turizm-kaj-avolda-va-uni-rivozlantiris-ucun-nimalar-kilis-kerakmutahassis-takliflari>. 2 Fedorov, R. G. Gostinichiy biznes kak sostavlyayushaya sovremennoy industrii turizma / R. G. Fedorov. — Tekst : neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. — 2013. — № 4 (51). — S. 307-311. — URL: <https://moluch.ru/archive/51/6687/> (data obraçeniya: 15.02.2023). 1 Katerina Berezina, Cihan Cobanoglu, Brian L. Miller, Francis A. Kwansa "The impact of information security breach on hotel guest perception of service quality, satisfaction, revisit intentions and word-of-mouth"

xodimlarini qobiliyatiga va ixtisosligiga qarab o'qitish, ularning ish vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, ularga noto'g'ri munosabatda bo'lishni oldini olish, xodimlar o'rtasidagi bag'rikenglik darajasini oshirish" mehmonxona sohasini rivojlantirishga olib kelishi haqida tadqiqot olib borgan² . D. Norkulova, J. Fattayev "O'zbekistonda mehmon uylari faoliyatini mobil ilovalar orqali takomillashtirish" nomli ilmiy maqolasida "A.F. Nuriaxmetova oilaviy mehmon uylarini qishloq joylarida sayyohlarni joylashtirish vositasi sifatida ta'riflagan bo'lsa, E.E. Osipova mehmon uyining kelajakdagi egasi marketing asoslarini bilishi kerakligiga e'tibor qaratgan. A.I. Chupaxina qisqa muddatli xizmatlarni taqdim etish haqida, Y.A. Balashova esa "uyda bo'lgan kabi" shiori ostidagi xizmat ko'rsatishga" e'tibor qaratgan³ . Biroq, olib borilgan tadqiqotlarda mehmonxona va joylashtirish vositalariga qo'yiladigan davlat talablarini optimallashtirish orqali xizmatlar sohasini rivojlantirish mumkinligiga e'tibor qaratilmaganligi bois, mazkur tadqiqotda bu masalaga ahamiyat berildi. Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda mehmonxona va joylashtirish vositalari fondi o'sish dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar, sohada sifatli xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi.

Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil qilish, xorijiy va O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Tahlil va natijalar. 2020-yil turizm sohasi dunyo miqyosida inqirozga yuz tutdi deyish mumkin.⁴⁶ Yilda xalqaro tashriflar ko'rsatkichi avvalgi yilga qaraganda 74 foizga qisqardi. Pandemiya, ayniqsa, Tailand, Filippin, Meksika, Ispaniya kabi yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismi turizmning ulushiga to'g'ri keluvchi mamlakatlar uchun og'ir zarba bo'ldi⁴⁷ . Nigora Shaymanovanning "Xalqaro mehmondo'stlik sanoati tajribasini O'zbekistonda qo'llash" nomli maqolasida "O'zbekiston "The guardian" nashri tomonidan dunyoning eng yaxshi sayyohlik yo'nalishi, "Wanderlust" nazdida eng tez rivojlanayotgan davlat, "grandvoyage" hisob-kitobiga ko'ra eng yaxshi rivojlanayotgan o'lka deb topildi. BMT huzuridagi Jahon turizm tashkiloti O'zbekistonni turizm sohasida shiddat bilan rivojlanayotgan davlatlar ro'yxatida 4-o'rin bilan baholanganiga"⁵ muallif tomonidan e'tibor qaratilgan. Turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga qaramasdan jahonda turizm sohasi rivojlanishda davom etmoqda.

O'zbekistonda ham turizm va mehmonxona sohasi jadal rivojlanmoqda. Turli tadbirlarda turizm sohasini rivojlantirish yuzasidan kelishuvlar amalga oshirilib, xorijiy


46 2 Aleksa S. Vucetic, (2018) "Influence of specialized hotels on employees' perception of abuse in the selective tourism destination", International Journal of Contemporary Hospitality Management, Vol. 30. Issue: 2, pp.740-756, <https://doi.org/10.1108/IJCHM-08-2016-0434> 3 Servis ilmiy-amaliy jurnali. 2022-yil, 2-son, 138-bet.

47 <https://bugun.uz/2021/07/22/rejting-garbdansharqqacha-dunyoning-eng-kop-sayyoh-tashrif-buyuruvchidavlatlar>.

5 <https://cyberleninka.ru/article/n/xalqaro-mehmondo-stliksanoati-tajribasini-o-zbekistonda-qo-llash>. 6

<https://yuz.uz/uz/news/shht--turizmni-yanadarivojlantirish-uchun-eng-yaxshi-maydon>.

turistlarning mamlakatimizga tashrif buyurishi yildan yilga ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, Samarqand-2022 Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) sammiti doirasida Hindiston, Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Pokiston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston tomonidan mamlakatlar o'rtasida turizm rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va xorijiy davlatlar aholisini o'zaro bir-birlarining madaniy hayoti bilan yanada yaqinroq va yaxshiroq tanishtirish ko'zda tutilgan. ShHTga a'zo hamda kuzatuvchi mamlakatlarda 3.2 mlrddan ortiq aholi istiqomat qiladi. Bu dunyo aholisining 40%ni tashkil qiladi. Turizm sohasining rivojlanishi mehmonxonalarga bo'lgan talabni oshiradi. Shu maqsadda, mehmonxona va joylashtirish vositalarining o'sishiga ta'sir qiluvchi omillarni, sohaning rivojlanishi sifatli kadrlar tayyorlashga bog'liqligini, bozor talablariga mos xizmat ko'rsatishning tashkil qilish vositalarini o'rganib chiqdik. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 433-son qarori 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan "Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va turistik industriya obyektlarini tasniflash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan joylashtirish vositalarida, shu jumladan bajaruvchi va iste'molchi o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'yicha ro'yxati belgilangan qo'shimcha xizmatlar majmui bo'lib, joylashtirish vositalariga mehmonxonalar, turistik bazalar va majmualar, dam olish uylari va zonolari, pansionatlar, kempinglar, motellar, mehmon uylari, sanatoriylar hamda mehmonxona xizmatlari (joylashtirish bo'yicha xizmatlar) ko'rsatiladigan boshqa obyektlar, shuningdek joylashtirish vositasi sifatida tunash uchun jihozlangan yer usti transporti kabi turlari mavjud⁴⁸ avjud¹.



1-rasm Joylashtirish vositalarining yillar kesimida o'sishi

⁴⁸ Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O'zbekistonda mehmonxona, joylashtirish vositalari fondi tahlil qilinganda, 2022-yilda 1209 ta yangi joylashtirish vositalari (29817 ta o'rin), shundan, 149 ta mehmonxonalar, 254 ta xostellar, 734 ta oilaviy mehmon uylari, 13 ta sanatoriy va sog'lomlashtirish obyektlari, 59 ta boshqa joylashtirish vositalari tashkil etilib, ularning jami soni 5029 taga, o'rinlar soni 124,2 mingtani tashkil qilgan² (1-rasm). O'zbekistonda oxirgi yillarda, 2016-yildan boshlab turizm sohasini rivojlantirish borasida bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi natijasida sohada tadbirkorlik rivojlandi. Jumladan, 2016-yilda O'zbekistonga 2 mln nafar atrofida, 2019-yilda 6.7 mln nafar atrofida, 2022-yilda 5.2 mln nafar atrofida xorijiy turistlar tashrif buyurgan³. Bu o'z navbatida mehmonxonalar fondining oshishiga olib kelgan. 2020-yildan hozirgi vaqtgacha COVID-19 pandemiyasining turizm hamda mehmonxona sohasiga salbiy ta'siri sezilgan bo'lsada, umumiy holatda soha o'sishda davom etmoqda.

2016-yilda jami mehmonxona va joylashtirish vositalarining soni 609 tani tashkil qilgan bo'lib xonalar soni 1645 tani, o'rinlar soni 31950 tani tashkil qilgan¹ (2-rasm). 2022-yilda jami joylashtirish fondi 5029 tani tashkil qilgan bo'lib xonalar soni 55277 tani, o'rinlar soni 124191 tani tashkil qildi. Ya'ni, joylashtirish vositalari fondi 2016 yildagiga nisbatan 825%ga, xonalar 335% hamda o'rinlar soni 388% oshdi². Mehmonxona va joylashtirish vositalarining hududlarda joylashuvi tahlil qilganida, turizm salohiyati yuqori hududlarda ularning soni nisbatan ko'pligini ko'rish mumkin (3-rasm). Mehmonxona bu "Mahsulotini" xizmatlar to'plami shaklida sotish orqali foyda olishni maqsad qilgan korxonalar bo'lib, xizmat ko'rsatish orqali pudratchi va iste'molchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri o'zaro munosabatlar, shuningdek, iste'molchi ehtiyojlarini qondirish bo'yicha pudratchining o'z faoliyati davomida erishgan natijasidir. Xizmat nomoddiy tushuncha bo'lib, uni o'lchash mumkin emas, faqat baholanishi mumkin.

Mehmonxona mahsulotining asosiy xususiyati shundaki, mijoz o'zi foydalanadigan tovarlarga egalik qilmaydi. Mamlakatimizda mehmonxona va joylashtirish vositalari o'sishi dinamikasini quyidagicha tahlil qilish mumkin: Birinchidan, yurtimizda mazkur sohada davlat talablari optimallashtirilib borilmoqda. Xususan, Mehmonxonalar doir O'z DSt 3220:2017 "Turizm xizmatlari", "Joylashtirish vositalari", "Umumiy talablar" va O'z DSt 3296:2018 "Turizm xizmatlari", "Mehmonxonalar va o'xshash joylashtirish vositalari", "Tasniflash tizimi davlat standartlari" joriy qilingan. Shuningdek, 2022-yilda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish va xorijiy davlatlar tajribalari va ularda belgilangan talablarni o'rgangan holda turizm sohasi va mehmonxona biznesida yuqori yutuqlarga erishish uchun mazkur sohada davlat standartlari qayta ko'rib chiqildi. Mehmonxonalar tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga bir qancha yengilliklar berildi. Mehmonxona faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga bir qator qulayliklar yaratish maqsadida mavjud talablarni soddalashtirish, ixchamlashtirish, bir birini takrorlovchi va xizmat ko'rsatish sifati bilan bog'liq bo'lmagan talablarni chiqarib

tashlash orqali O'z DSt 3220:2022 "Turizm xizmatlari", "Joylashtirish vositalari", "Umumiy talablar davlat standarti" yangi tahriri loyihasi ishlab chiqildi. Bunda, xorijiy davlatlar Birlashgan Arab Amirligi, Yevropa Ittifoqi Otellar uyushmasi "Hotelstars Union", Rossiya, Belarus davlatlar tajribasi o'rganilib, xalqaro talablar doirasida yangi tartibda bevosita mehmonxona faoliyati va xizmat ko'rsatish sifati bilan bog'liq talablar qoldirildi³. Shu bilan birga, "yulduz"li mehmonxonalarga qo'yilgan talablar qayta ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda mehmonxonalarni tasniflash maqsadida o'tkaziladigan baholashda mehmonxonalar uchun "yulduz" olish uchun tadbirkorlik subyektlari tomonidan 138 ta talab bajarilishi lozim. Mazkur talablar, O'z DSt 3296:2018 "Turizm xizmatlari", "Mehmonxonalar va o'xshash joylashtirish vositalari", "Tasniflash tizimi davlat standarti" da belgilangan bo'lib, bunda agar bir dona talab bajarilmagan taqdirda tegishli yulduz toifasini berish rad etilishi belgilangan. Xorijiy davlatlar talablari bilan taqqoslanganda, "yulduz" olish juda murakkab va ko'plab talablarni kamaytirish yoki susaytirish mehmonxonalar obru, maqomini hamda tasniflanishi sifatini pasayishiga olib keluvchi omil bo'lishi mumkin. O'zbekistonda barcha manfaatdor tomonlar bilan birgalikda mehmonxonalarni baholash tasniflash tizimi butunlay qayta ko'rib chiqildi va "Balli tasniflash tizimi"ni ko'zda tutuvchi O'z DSt 3296:2022 "Turizm xizmatlari", "Joylashtirish vositalari", "Balli tasniflash tizimi" yangi davlat standarti loyihasi shakllantirildi. Mehmonxonalar tegishli "yulduz" toifasini olish uchun, standartda belgilangan talablarni bajargan holda tegishli ballarni to'playdi. Ushbu standartda, oldingi talablarni kamaytirmagan holda "majburiy" va "qo'shimcha" talablarga ajratildi. "Majburiy" talablar xalqaro umum qabul qilingan mezonlardan kelib chiqib, bevosita xizmat ko'rsatish sifati va qulayligiga ta'sir ko'rsatuvchi talablar mehmonxonalar tomonidan bajarilishi majburiy etib belgilandi. "Qo'shimcha" talablar, tegishli "yulduz" toifasini olishda zarur ballarni to'plash uchun bajariladi. To'plangan ballar miqdoriga ko'ra mehmonxona tegishli "yulduz" toifasini olish imkoniga ega bo'ladi. Bunday islohotlar mehmonxona sohasida tadbirkorlik subyektlarining ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasiga xorijiy fuqarolarning kirishi tartibini optimallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3836sonli qaroriga muvofiq O'zbekistonga chet el fuqarolarining kirish tartibi takomillashtirildi. 2018-yil 15-iyuldan boshlab 51 davlat fuqarolariga 30 kungacha elektron turistik viza olish tartibi joriy qilindi. 2023-yilda O'zbekistonga 30 kungacha turistik viza olishi mumkin bo'lgan davlatlar soni 93 taga yetdi. Shuningdek, 101 davlat fuqarolariga O'zbekistonga besh kungacha vizasiz tranzit kirish tartibi joriy qilinishi² mehmonxona va joylashtirish vositalari xizmatiga bo'lgan talabni keskin oshishiga sabab bo'ldi. Uchunchidan, O'zbekistonda mehmonxona va joylashtirish vositalari fondi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, mehmonxona va joylashtirish vositalariga imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratilmoqda. Alohida ta'kidlash joizki, har

yilgi davlat dasturlari ishlab chiqilishida turizm infratuzilmasini yaxshilash uchun davlat budjetidan mablag'lar ajratilib kelinishi soha rivojlanishiga olib kelmoqda. Olimlarning fikricha, talab va taklif omillari ta'siri ostida chet el turistik bozori tobora ixtisoslashgan va segmentlangan bo'lib bormoqda. Yangi turistik yo'nalishlar sarguzasht, ekologik va boshqa turlarning ko'payishi mehmonxona xizmatlarining o'sishida aks etmoqda. Mehmonxona xodimlarini ixtisosligi bo'yicha o'qitish, xorijiy mutaxassislarni sohadagi kadrlarni tayyorlashga jalb qilish muhim ahamiyatga ega⁴⁹.



2-rasm Dunyoning mashhur brendiga ega mehmonxonalar

Sohada kadrlar tayyorlashdagi mavjud muammolar:

- kadrlar tayyorlash xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat va xususiy ta'lim tashkilotlarining aksariyatida o'quv-amaliyot bazalari ish beruvchi tashkilotlarning talablariga javob bermaydi;
- umumiy ovqatlanish (Oshpazlar uyushmasi) sohalarida kadrlar tayyorlash onlayn yo'lga qo'yilgan. (Bu sohalarida onlayn kurslar orqali sifatli kadr tayyorlab bo'lmasligi xalqaro tajribadan ma'lum);
- kadrlar tayyorlash xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat va xususiy ta'lim tashkilotlari tinglovchilarning o'quvchilarining ishga joylashishidan manfaatdor emasligi hamda ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida aloqalar qoniqarsizligi sifatli kadr tayyorlashda muammolar keltirib chiqarmoqda.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqotda, O'zbekistonda mehmonxona va joylashtirish vositalari xodimlarining mutaxassislik bo'yicha lavozimga to'g'ri taqsimlanishi holati o'rganildi. Ularga qo'yilgan talablar tahlil qilindi. "Housekeeping", "Food & Beverage", "Front-office" bir oyga mo'ljallangan, malaka oshirish kursining o'quv-me'yoriy hujjatlari tasdiqlandi. Xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha moliyaviy mablag' manbalari

⁴⁹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son. <https://lex.uz/docs/-3810649>.

aniqlandi. Mehmonxona va joylashtirish vositalarida har bir mijozga sifatli xizmat ko'rsatish uchun kadrlar tayyorlashga alohida ahamiyat qaratish lozimligidan kelib chiqib, xodimlar malakasini oshirishni tizimli tashkil qilish bo'yicha quyidagi takliflar tayyorlandi:

- mazkur sohadagi xodimlarni malaka oshirish kurslariga tizimli ravishda (har uch yilda bir marotaba muntazam) jalb qilishni yo'lga qo'yish;

- sohada kadrlar tayyorlash xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat va xususiy ta'lim tashkilotlariga aniq talablar qo'yish, tegishli mutaxassislariga hamda o'quv-amaliyot xonalari bo'lgan taqdirda kadrlar tayyorlashga ruxsat berish tartibini kiritish;

- ish beruvchi tashkilotlarga "Housekeeping", "Food & Beverage", "Front-office" sohasiga ishga qabul qilishda, shuningdek, faoliyat ko'rsatishida mutaxassislikka ega bo'lishi (belgilangan muddatlarda malaka oshirishi) kabi davlat talablarini kiritish;

- soha xodimlarining kiyinish, sanitariya-gigiyena qoidalari va muomala madaniyatiga e'tibor qaratishi bo'yicha yagona standart joriy qilish;

- kadrlar sifatini doimiy oshirishda turizm va mehmonxona sohasida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish; ish beruvchi tashkilotlarda "Тайный гость" mahfiy mehmon xizmatlarini takomillashtirish orqali hozirgi qiyin raqobat sharoitida sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil qilish. Alohida ta'kidlash joizki, mehmonlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish masalalari, xizmat ko'rsatilayotgan mehmon uchun ham mehmonxona faoliyatining rivojlanishi uchun ham muhimdir.

Mehmonxona xizmatlari ko'rsatishni doimiy nazorat qilish qiyin biroq, xodimlarni malakasini tizimli oshirish orqali tasodifiy omillarning xizmatlar sifatiga ta'sirini kamaytirish mumkin. Shuningdek, tizimdagi har bir xodimga o'ziga tegishli soha bo'yicha rivojlanish ko'nikmalarini shakllantirish, kiyinish hamda muomala madaniyatini yuksaltirish, tashkilotda jamoaviy muhitni takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, xodimlarning shaxsiy madaniyatini oshirish, o'zaro xizmat ko'rsatish madaniyati va kasbiy mahoratini o'zlashtirish bo'yicha doimiy treninglar o'tkazish zarur. Yuqoridagi tamoyillarga rioya qilgan holda, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mehmonxona va joylashtirish vositalarida xizmat ko'rsatish yaxshilanishi mumkin. Shu bilan birga, soha rivojlanishi mamlakatda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratadi. Bu o'z navbatida, davlatning turizm va mehmonxona sohasi rivojlanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasiga xorijiy fuqarolarning kirishi tartibini optimallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3836-son qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5048son qarori.
5. Eshtayev A. "Turizm sohasida mehnat salohiyatidan oqilona foydalanishning marketing strategiyasi" "O'zbekiston mehnat salohiyati: hozirgi holati va undan foydalanish istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman tezlari to'plami. - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2011-yil 20-dekabr.
6. Musayev B.Sh. Mehmonxona xodimlarining iste'molchilar bilan muomala qilishning etika qoidalari. // "Servis" ilmiy-amaliy jurnali. 2022-yil, maxsus, 20-bet.
7. Kholmatjonov F.M., Muminov Nozim Gaffarovich. FEATURES OF STATE REGULATION IN THE FIELD OF TOURISM IN FOREIGN COUNTRIES. ResearchJet Journal of Analysis and InventionsRJAI. Volume 4, Issue 4 April, 2023 pp. 273-279.
7. "Совершенство гостиничного сервиса как основа успешного бизнеса" Luchina N. A. Mejdunarodniy nauchno-issledovatel'skiy jurnal. 2021-yil, ISSN 2227-6017 online, 175-bet.

ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUD IQTISODIYOTIGA TA'SIRI (BUXORO DESTINATSIYASI MISOLIDA)

*D.S. Muxidinova,
BuxDU magistranti*

d.s.muxidinova@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqola ichki turizmni rivojlantirishning hudud iqtisodiyotiga ta'siri, ijtimoiy soha va aholi favonligidagi ahamiyati, iqtisodiy yo'nalishdagi vazifalariga bag'ishlanib, Buxoro viloyatida ichki turizmning rivojlantirilishi uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilayotganligi va qanday natijalarga erishilayotganligi, jahon tajribasi o'rganilib, O'zbekistonda qo'llash haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: "O'zbekiston-2030" strategiyasi, "oilaviy sayohat ta'tili", investitsion faollik, bandlik, hududiy mahsulot eksporti, kambag'allikni qisqartirish,

Kirish. Jahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, turizmdan keladigan umumiy daromadning qariyb 70%i ichki turizmga, 30%i esa xalqaro turizmga to'g'ri keladi. [1]. Bundan ko'rinib turibdiki, ichki turizmni rivojlantirish hududning barqaror rivojlanishiga, aholi daromadining oshishiga va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifadir". [2] Shu sababli, O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan chora- tadbirlar, huquqiy, nazariy- uslubiy asoslarning ko'lami keskin oshib bormoqda. Xususan, "O'zbekiston-

2030” strategiyasiga ko’ra, mamlakatimizda ichki sayyohlaning sonini 25 millionga yetkazish maqsadi ilgari surildi.[3]

1.UNWTO(2022). Tourism Highlights. <https://www.UNWTO.org>:

2.Mirziyoyev.Sh. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi.–Toshkent: ”O’zbekiston nashriyoti”,2022.-168 bet.

3.“O’zbekiston -2030” strategiyasi to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2023-yil, 11-sentabr, №PF-158.

Mamlakatimizda ichki turizmni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, “O’zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida” prezidentimiz farmonlariga ko’ra quyidagilar belgilandi:

*O’zbekiston bo’ylab sayohat qilish uchun xarajatlarning bir qismi tartibi joriy qilish;


*yuridik shaxslardan olinadigan yer solig’i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to’lashdan ozod qilish;

*O’zbekiston Respublikasidagi yirik moddiy madaniy meros obyektlarida ichki turizm oqimlarini shakllantirish;

*Navro’z umumxalq bayrami, Mustaqillik kuni va Yangi yil bayrami hamda Ramazon hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-Adha) diniy bayramlarini nishonlash davrida qo’shimcha va ko’chirish hisobiga ishlanmaydigan kunlar uch kundan kam bo’lmagan muddatga belgilash;

*

Hududda ijtimoiy soha va aholi farovonligiga turizmning ta’siri[5]



Ota-onalar, qarindoshlar, qariyalar va ustozlar bilan birgalikda sayohat qilishni nazarda tutuvchi besh ish kunidan kam bo'lmagan "oilaviy sayohat ta'tili" tizimi joriy qilish. Bunda, "oilaviy sayohat ta'tili" yillik asosiy ta'til hisobidan taqdim etiladi va jamoaviy shartnomalarga muvofiq ish beruvchining roziligi bilan amalga oshirish;

*Respublikaning turizm namoyishi obyektlarini keng targ'ib qilish, fuqarolarni boy tabiiy, madaniy va tarixiy meros obyektlari bilan tanishtirish hamda ichki turizmni ommalashtirishga qaratilgan (tijorat maqsadlarni ko'zlamagan) axborot ma'naviyat va ma'rifat masalalariga doir axborotga tenglashtirish;[4]

Ichki turizmni rivojlantirishdan maqsad o'zi nima? Va u qanday vazifani bajaradi? Ichki turizmni rivojlantirishdan maqsad, avvalo, aholi turmush sifati va

4. <https://lex.uz/docs/-5283956>

darajasini oshirishdir. Ichki turizmni rivojlantirish hududda barqaror o'sish omili bo'lib, yalpi hududiy mahsulot eksporti hamjiming o'sishiga xizmat qiladi. Turistik salohiyatdan oqilona foydalanish va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlaydi. Ilg'or innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishiga o'rnak bo'ladi. Ko'proq investitsiyalarni jalb qiladi va investitsion faollikni kuchaytiradi. O'zaro bog'liklik asosida qurilish, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun muhim omil bo'la oladi. Yuqoridagi sanab o'tganlarimiz ichki turizmning iqtisodiy yo'nalishdagi vazifalari edi. Uning ijtimoiy yo'nalishdagi eng muhim vazifasi yosh avlodni ta'lim –tarbiyasini ta'minlashdan iborat. [5]

5. Xidirova. G.R. Ichki turizm metodologiyasi.(Buxoro viloyati misolida) Monografiya. – Buxoro: "Durdoni nashriyoti", 2023. 26-bet.

Jadvalda ko'rib turganimizdek, turizmning jamiyatga yo'naltirilganligi aholi bandligining, daromadlarining oshishiga, aholi salomatligining mustahkamlanishiga, o'rta sinfni shakllantirish, kambag'allikni qisqartirishga, hudud infratuzilmasining yaxshilanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko'tarish, ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va hajmini keskin ko'paytirish, fuqarolarni mamlakatimizning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, zamonaviy xizmatlar infratuzilmasini jadal rivojlantirish, shuningdek, aholini ish bilan ta'minlash va ularning daromad manbaini kengaytirish maqsadida 2022 yilning 30-aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-232-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq 2022 yil 1 iyundan boshlab "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida: a) jamoa shartnomalariga ish beruvchilar tomonidan

xodimlar uchun yiliga bir marotaba mahalliy sayohatga chiqish imkonini yaratish qoidalari kiritiladi; b) sayohat xarajatlarining bir qismi ish beruvchilarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qolab beriladi.

Mintaqamizda sayyohlik sohasini izchil rivojlantirish, turizm industriyasi va infratuzilmasini yanada takomillashtirish maqsadida Yurtboshimiz tomonidan bir qator dastur va qarorlar tasdiqlangan. 2021-yil davomida viloyatimizga 2 mln 265 ming nafar sayyohlar tashrif buyurgan. Shulardan, mahalliy sayyohlar 2 mln 216 ming nafarni, xorijiy sayyohlar esa qariyb 49 ming nafarni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan ichki turizmga qariyb 9,3 baravarga, xorijiy sayyohlar soniga nisbatan 3,6 baravarga ortgani kuzatilgan.[6]

2021-yilning 21-22-yanvar kunlari O'zbekiston Prezidenti Shavkat

6. "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Buxoro viloyati Kengashi raisi, Maxsud MUHAMMEDOV Manba: <https://mt.uz/yangiliklar/392>

Mirziyoyevning Buxoro viloyatiga tashrifi davomida hududni ijtimoiy-iqtisodiy takomillashtirish bo'yicha belgilagan muhim vazifalar ijrosi yuzasidan ba'zi ishlar amalga oshirilgan bo'lib, 2022-yilda G'ijduvon tumanida "Qo'rg'on", "Turizm mahallasi", Vobkent tumanida "Shirin etnoturizm qishlog'i" va Ahmad Donish ko'chasida "Turizm ko'chasi"ni tashkil etish ishlari yakunlangan.

2022-yilning 28-sentyabrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022 - 2026 yillarida Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 543-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, Buxoro viloyatidagi 800 dan ziyod madaniy ob'ektlarni birma-bir restavratsiya qilish bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshiriladi.[7] Buxoro shahrida "Street Food" gastronomik ko'chasi tashkil etiladi va gastronomik ko'chani tashkil qilish uchun mo'ljallangan ko'cha va yer maydonlarini tadbirkorlarga muayyan muddatga o'rnatilgan tartibda vaqtinchalik ijaraga berish choralari ko'riladi. "Qadimgi Poykent" arxeologiya merosi ob'ektini muhofaza qilish, tadqiq etish, muzeylashtirish choralari ko'rib, arxeologiya parki yaratiladi. Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi hamda Buxoro viloyat axborot kutubxona markazi fondidagi noyob va alohida qiymatga ega bo'lgan nashrlarni alohida kolleksiya holida Buxoroda saqlanadi va muhofaza qilinadi. Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi hamda Buxoro viloyat axborot kutubxona markazi fondidagi qo'lyozmalar, noyob va alohida qiymatga ega bo'lgan nashrlarni tahlil qilgan holda, YUNESKOning "Jahon xotirasi" ro'yxatiga kiritilishi bo'yicha zarur choralarning ko'riladi. Buxoro viloyati hokimligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Qurilish vazirligi bilan birgalikda "Turizm mahallasi", "Turizm ovuli", "Turizm qishloqlari"ning ichki yo'llari, ichimlik suvi va boshqa infratuzilma ob'ektlarini ta'mirlash ishlarini keyingi yillardagi "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlariga kiritiladi hamda uning doirasida tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.[8]

7. <https://lex.uz/docs/-6212874#-6217692>

8. <https://advice.uz/oz/document/2847>

Shuningdek, ushbu qarorga asosan, 2026 yilga qadar Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilab berilgan.

2022-2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari[9]

№	Ko'rsatkichlar nomi	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.	2026 y.
1	Ichki turistlar tashrifi soni (mln kishi)	2,4	2,9	3,4	3,8	4,1
2	Xorijiy sayyohlar soni (ming kishi)	450,0	900,0	1,200	1,500	1800
3	Xizmatlar eksporti (mln AQSH doll)	121	200	230	270	300
4	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	5,399	6,131	6,721	7,336	7,976
5	Mehmonxonalar nomer fondining bandlik darajasi	45,0	51,0	61,0	71,0	93,0
6	Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming)	12,147	13,672	14,902	16,182	17,512
7	Mehmonxonalar soni (dona)	178	198	218	238	258
8	Oilaviy mehmon uylari soni (dona)	264	314	325	335	345
9	Hostellar soni (dona)	55	61	66	71	76
10	Internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrovi darajasini oshirib borish	7	8	9	10	11

Shuningdek, Hududning turistik salohiyatini yanada kengroq targ'ib qilish maqsadida "Ipak va ziravorlar", "Buxoro shahri kuni", "Qovun sayli", "Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivali" va "Buxoro hunarmandlari", festivallari tashkil

etilgan. Bu festivallarga tashrif buyuruvchi mahalliy sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida viloyatlararo maxsus charter-reyslar, qo‘shimcha avtotransport va temiryo‘l qatnovlari yo‘lga qo‘yilgan.

Tadqiqotimiz davomida bir nechta davlatlarning ichki turizmni

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yilning 28-sentabridagi “2022-2026- yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 543-sonli qaroriga ilova.

rivojlantirishdagi tajribasini o‘rgandik: **Italiya** davlatida o‘qituvchilarning ta‘til vaqtida maktab o‘quvchilari uchun qishloq joylarida dam olish dasturlari ishlab chiqilgan. 3-13 yoshgacha bo‘lgan bolalar qishloq oilalariga joylashtiriladi va uyerda ular o‘z tengqurlari bilan tabiatga sayohat qilishadi, qishloqdagi hayvonlar bilan tanishishadi. Italiya vinochilik qishloq turizmiga ixtisoslashgan va turli hududlarda vino, sir, qo‘ziqorin va boshqa mahsulotlarning tayyorlanishni ko‘rishni taklif etishadi.

Ispaniya davlatida esa qishloq turizmni rivojlantirish uchun mehmonxonalar turli kategoriyalarga bo‘lingan va ularning ayrimlari tarixiy qasrlar va monastrlarda qurilgan.

Xitoy davlati esa mamlakat fuqarolari uchun yilida 3 marotaba sayohat qilish imkonini beruvchi “Oltin hafta” deb nomlangan imtiyozli ta‘til kunlarini tashkil qilgan. Va aynan shu muddatda xizmat narxining oshib ketmasligi uchun “Arzon narxlar” siyosatini olib boradi.

Janubiy Koreya Respublikasi Nogironlar, xomilador ayollar qariyalar va 3-7 yoshdagi bolalar uchun maxsus kontentlar va ekskursiya dasturlarini ishlab chiqishni yo‘lga qo‘ygan.

Germaniya davlati Xalqaro yo‘nalishdagi turistik destinatsiyani Germaniyaning shunga o‘xshash manzili bilan taqqoslaydigan samarali reklama tizimini yo‘lga qo‘ygan.

Gong Kong va BAA davlatlari esa yirik tadbirlar, ommaviy bayram va festivallar Osiyoda muhim voqealar sifatida bozorga chiqarish maqsadida tashkiliy ishlarni kuchaytirishni maqsad qilgan.

Xitoyning “Oltin hafta” turizm siyosati, Janubiy Koreya va Italiyada maktab o‘quvchilarni maxsus turistik marshrutlar asosida sayyohlik turlarini tashkil etish tajribasini chuqur o‘rganish va O‘zbekistonda qo‘llash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNWTO(2022). Tourism Highlights. <https://www.UNWTO.org>;
2. Mirziyoyev.Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.–Toshkent: ”O‘zbekiston nashriyoti”,2022.-168 bet.
3. “O‘zbekiston -2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2023-yil, 11-sentabr, №PF-158.
4. <https://lex.uz/docs/-5283956>
5. Xidirova. G.R. Ichki turizm metodologiyasi.(Buxoro viloyati misolida)

6. Monografiya. – Buxoro: “Durdona nashriyoti”, 2023. 26-bet.
7. “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Buxoro viloyati Kengashi raisi, Maxsud MUHAMMEDOV Manba: <https://mt.uz/yangiliklar/392>
8. <https://lex.uz/docs/-6212874#-6217692>
9. <https://advice.uz/oz/document/2847>
10. Axmatova M. BUXORO VILOYATIDAGI DIQQATGA SAZOVOR JOYLARGA TRANSPORT XIZMATLARI VA HARAKATCHANLIGI TANHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 37. – №. 37.
11. Axmatova M. TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARINI OPTIMALLASHTIRISH CHORA TADBIRLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
12. Axmatova M. Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog’liqligi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
13. Axmatova M. TURISTIK TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASINI ANIQLASH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 36. – №. 36.
14. Axmatova M. Анализ транспортных услуг и мобильности к достопримечательностям Бухарской области //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 37. – №. 37.
15. Axmatova M. INTERNATIONAL CONNECTION OF TOURISM AND TRANSPORT SERVICES //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 37. – №. 37.
16. Axmatova M. TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARI BILAN BOG’LIQ MUAMMOLAR VA ULARGA INNOVATSION YECHIMLARI //DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 58-65.

HUUDLARDA TO’G’RIDAN-TO’G’RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH DASTURINI AMALGA OSHIRISHDA MARKETINGNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO’LLARI

A.F.Tojiyeva,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
a.f.tojiyeva@buxdu.uz

Hududlarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish dasturini ikkita guruhga ajratish mumkin: birinchisi, hududlararo xalqaro dasturlar; ikkinchisi, hududlardagi alohida tumanlar dasturi. Hududlarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish dasturlari joylarda iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy vazifalarni hal etishda muhim rol o'ynaydi. Hududlarni xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishda investitsiyalarni kirib kelishi va rivojlanishi har bir hududda ishlab chiqilayotgan dasturlarning nechog'li to'g'ri tuzilganligi bilan baholanadi hududlarda investitsiyalarni jalb etish tashqi savdo aloqalarini rivojlanganligi bilangina emas, balki unga ta'sir etuvchi boshqa omillar bilan ham baholanadi.

Hududlarda iqtisodiy jarayonlarning tez rivojlanib borishi, infratuzilmani o'zgarishi va chet el 656 lectro qo'yilmalarini kirib kelishi joylarda turlicha o'zgarishlarni yuzaga keltira boshlaydi. Ushbu holat hududlarning biznes yuritish uchun qulayligiga, ulardagi tabiiy boyliklariga, imidjiga, siyosiy barqarorligiga, turizm va mehmonxonalarning holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan, o'zaro qo'shni bo'lgan hududlar o'rtasida raqobatning yuzaga kelishiga olib keladi. Yuqoridagi holatlarning yuzaga kelishi hududda marketing faoliyatini shakllanishiga imkon yaratadi.

Hududlarning marketing strategiyasini ishlab chiqishda uning ichki va tashqi omillarini chuqur tahlil qilish lozim. Ushbu strategiyaning eng muhim tomonlaridan biri hududning kuchli va kuchsiz tomonlari chuqur tahlil qilinganidan so'ng, uning marketing strategiyasini to'liq shakllantirish kerak. Marketing strategiyasini natijaga olib boradigan omillar tahlili albatta e'tiborga olinadi yoki ikkinchi holat unga erishish imkoniyatlarini bermaydigan holatlar va omillar ham inobatga olinadi. Hududning marketing strategiyasining yana bir modeli quyidagilarni asos sifatida qabul qilishni taklif etadi:


- ❖ marketing imidji hududning asosiy biznes imkoniyatlarini ochib beradi. Ushbu holatni hududni boshqa hududlardan ustunlik tomonlari va o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi;

- ❖ mehmondo'stlik 656 lectron 656 . Bunda hududning tabiiy iqlimi, sharoiti, tarixiy obidalari, mashhur insonlari va boshqalar;

- ❖ infratuzilma 656lectron656. Hududning qulay infratuzilmasi, uning salohiyati va imkoniyatlari ko'rsatiladi;


- ❖ reklama marketingi.

Xorijiy va milliy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat va uning hududlarida yaratilgan investitsion jozibadorlik, qulay investitsion muhit va hududlarning nisbiy afzalliklari muhim o'rin tutadi. Aynan yuqoridagi omillarga xorijiy investorlar tomonidan alohida e'tibor beriladi. Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlashda turli uslublardan foydalaniladi. Ularning bir-biridan farqi investitsion muhitni belgilaydigan omil va indikatorlarni tanlab olishda namoyon bo'ladi.



1-rasm. Hududiy rivojlanishdagi investitsiya marketingning asosiy kichik turlari

O'zbekiston mintaqalarining investitsiyaviy jozibadorligida qayd etilgan turli pozitsiyalar, shuningdek, ularda ushbu jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillarning turlicha ifodalanishi investitsiya 657 lectron 657 doirasida yechim izlashga qiziqish uyg'otadi, bu esa quyi va o'rta guruh mintaqalarining mavqeini oshirishga, shuningdek, yetakchi mintaqalar tomonidan amalga oshirilayotgan natijalarni saqlab qolishga yordam beradi.



2-rasm. 2023 yilda O'zbekistonning yuqori, o'rta va o'rtacha investitsiya jozibadorligi bo'lgan hududlari

Shu nuqtai nazardan, investitsiya marketingning tarkibiy qismlari bo'yicha qarorlar asosida mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Shuningdek, mintaqaning ijobiy imidjini yaratish va uning brendini ma'lum darajada targ'ib qilishga harakat qilish tavsiya etiladi. Shu nuqtai nazardan, investitsiya

marketingining tarkibiy qismlari bo'yicha qarorlar asosida mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Horijiy investorlarni hududlarga keng jalb qilish hamda hududlarning investitsion jozibadorligini va investitsiya muhitini yaxshilovchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: mavjud huquqiy-qonunchilik sohasini takomillashganligi; investitsion ma'lumotlar yagona bazasining yaratilganligi hamda ochiqligi; hududlarni boshqarish darajasi, ma'muriy to'siqlarning kamligi; soliq va kredit tizimining maqbulligi; transport va aloqa infrastruktura holatining rivojlanganligi; iqtisodiyotning ochiqligi; hududning obro'si (imidji) yuqoriligi; bank-moliya va sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining yuqoriligi; hududiy imtiyoz va qo'shimcha yengilliklarning mavjudligi va boshqalar.

Shuningdek, sa'y-harakatlarni mintaqaning ijobiy imidjini yaratish va uning brendini ushbu hududga xos bo'lgan muayyan 658 lectron 658 yo'nalishlarga va ma'lum maqsadli auditoriyalarning, bu holda potentsial investorlarning aniqlangan afzalliklariga muvofiq targ'ib qilishga qaratish tavsiya etiladi. Muayyan hudud ehtiyojlariga moslashish imkoniyati bilan o'rtacha asosda investitsiyalarni jalb qilish nuqtai nazaridan mintaqaning marketing strategiyasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi (12-rasm).




3-rasm. Investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq mintaqaning marketing strategiyasining asosiy elementlari

Taqdim etilgan elementlar doirasida amalga oshiriladigan marketing echimlariga haqiqiy investorlar doirasini aniqlash, maqsadli auditoriya ehtiyojlarini aniqlash asosida investitsiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, uzoq muddatli hamkorlik qilish imkonini beradigan ishbilarmon sheriklik tarmoqlarini shakllantirish, ishbilarmon sheriklarga kreditlar olishda, foydali kontragentlar, mijozlar topishda, innovatsion loyihalarni rag'batlantirishda ko'maklashish va h.k kiritish mumkin.

Ushbu ro'yxatni muayyan hududda ustuvor vazifalar sifatida tanlangan vazifalarga qarab aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Marketingni rejalashtirish va turli mintaqalar uchun ustuvor loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish masalalari muhim hisoblanadi⁵⁰. Hududiy rivojlanishda investitsiya marketing, shu jumladan raqamli yechimlarni hisobga olgan holda foydalanish bo'yicha amaliy yechimlarga quyidagilarni kiritish mumkin (rasm 4).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, investitsiya 659 lectron 659 asosida hududiy rivojlanishning muayyan yo'nalishlarini tanlash va to'ldirish ma'lum bir hududning imkoniyatlari, uning salohiyati va ko'tarilgan vazifalar doirasiga asoslanishi va erishiladigan bo'lishi kerak. Globalizatsiya sharoitda O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va mavjud investitsion jozibadorlik bo'yicha turli pozitsiyalarga ega. Shu bilan birga, ular tashqi investitsiyalarni jalb qilish va ichki investitsiyalarni ko'paytirish asosida muvaffaqiyatli rivojlanish imkoniyatlari uchun bir-biri bilan raqobatlashadi. Hududlarni rivojlantirishning 659 lectron 659 rejalarida belgilangan vazifalarni ta'minlash uchun mintaqalar o'zlarining evolyutsiya vektorining ustuvorliklarini, maqsadli auditoriyalar, investorlarning afzalliklarini va talablarini tushunishlari kerak.



4-rasm. Hududning rivojlanishini ta'minlash uchun investitsiya 659lectron659 yechimlari

Investitsiya marketingining amaliy yechimlari onlayn va oflayn muhitda parallel ravishda amalga oshirilishi, maqsadli auditoriyalarning e'tiborini ijobiy imidj va brendga qaratishi, shuningdek, uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlik doirasida

⁵⁰ Bondarenko V.A., Diyanova S.N., Dzhum T. A., Dubinina M. A. Residents' inter- est to form a "green" territory brand // Euro- pean Research Studies Journal. 2018. Vol. 21. No. S1. Pp. 51-62.

tashqi va ichki investorlarni jalb qilish, saqlab qolish va rivojlantirish uchun mintaqada mavjud bo'lgan real salohiyatga tayanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Hududlarning investitsion jozibadorligi: aniqlashning uslubiy jihatlari va ta’sir ko’rsatadigan omillarning tasnifiy tahlili” Sh.I.Mustafakulov, Moliya va bank ishi 660lectron ilmiy jurnali 5-son oktabr, 2016 yil,
2. Almatova D. Mintaqalarda investitsiyalar jalb etishning muhimyo’nalishlari. “UZIA” – “EVU” 1/2012.
3. Sh.I.Mustafakulov, Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. BMA. 2017. 208-b.

ZARDUSHTIYLIK TA’LIMOTIDA DINIY MAROSIMLARNING AMALGA OSHIRILISHI VA ZARDUSHTIYLIK QABRISTONLARI

S.S. Djumayeva,
BuxDU, “Arxeologiya” yo’nalishi
2-bosqich magistranti
s.s.djumayeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zardushtiylik dini tarixi, undagi marosimlar, xususan dafn marosimlarining talqini va o’tkazilish tartibi bayon qilingan.

Kalit so’zlar: Zardushtiylik, ossuariy, tepalik, Yazd, Chilpiq, Zardusht, Ahuramazda, marosim, qabriston, ruh, unsur.

Аннотация. В данной статье описывается история зороастрийской религии, ее ритуалы, в частности, трактовка и порядок погребального обряда.

Ключевые слова: зороастризм, костница, холм, Йезд, Чильпик, зороастризм, Ахурамазда, церемония, кладбище, дух, стихия.

Abstract. This article describes the history of Zoroastrian religion, its rituals, in particular, the interpretation and procedure of funeral rites.

Key words: Zoroastrianism, ossuary, hill, Yazd, Chilpiq, Zoroastrianism, Ahuramazda, ceremony, cemetery, spirit, element.

KIRISH. Zardushtiylik – eng qadimgi dunyoviy dinlardan biri bo’lib, u insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan. Ushbu din uch buyuk Fors imperiyasi hukmronligi davrida davlat dini sanalgan. Zardushtiylik Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlarining katta qismida asosiy din bo’lgan. Hozirgi kunda zardushtiylik diniga e’tiqod qiluvchilarning ko’pchiligi Eron va Hindiston hududida yashovchi aholi vakillari hisoblanadi. Bu dinning nomlanishi uning payg’ambari Zardusht nomiga borib taqaladi. (Yunonlar uni “Zoroastr” ya’ni “Munajjim olim” deb atashgan)

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Zardusht mil.avv. VII-VI asrlarda yashab o'tgan bo'lib, u Lao-szi, Budda va Konfutsiylarning zamondoshi bo'lgan. Yaqin sharq diniy an'anasi bo'yicha agar afsonaviy qadimgi yahudiylarning payg'ambari bo'lmish Muso alayhissalomni inobatga olmasak, aynan Zardusht birinchilardan diniy ilmlarni o'rgatuvchi payg'ambar hisoblangan. Zardusht-afsonaviy shaxs. Uning kelib chiqishi haqida juda kam ma'lumotlar uchraydi (ba'zi manbalarda u Fors shohlarining sulolasiga borib taqaladi). Shunga qaramasdan, Ahamoniylar qoyatosh bitiklarida ham u haqida deyarli ma'lumotlar yo'q. [Васильев, 1983, стр 60-61]

NATIJALAR. Zardushtiylik dinida diniy marosimlar o'tkaziladigan muqaddas joylar "pavi" – ya'ni "pokiza joy" deb nomlanib, bunday joylar ochiq hududlar, keng yalanglik yoki to'g'ri to'rtburchakli maydonlarda o'tkazilgan. Bunday hududlarda diniy marosimlar o'tkazilishidan oldin suv sepib tozalanilgan (suv Zardushtiylik dinida muqaddas bo'lgan to'rt unsurdan biri) va maxsus duolar o'qilib poklangan. Marosim boshlanishi bilan ruhoniy yerda oldindan yoqilgan olov yonida chordana qurib o'tirgan. [Мери Бойс, 1987, стр 13Ъ]

Zardushtiylik ta'limotida borliq bir-biriga mutanosib ikkita qutbga – ezgulik va yovuzlik hamda zulmat va yorug'likka bo'linadi. Ezgulik, yorug'lik va adolat –Ahura-Mazda (yunon.Ormuzd), zulmat va yovuzlik esa Angra-Maynu (Ahriman) timsolida gavdalanadi. Avval boshidan ikkala kuch o'rtasida kurash boshlangan bo'lib, Ahuramazdaga ushbu kurashda g'olib bo'lish uchun ezgulik va soflik ruhlari, Ahrimanga esa yovuzlik ruhlari yordamga kelishadi. Avestoning madhiya va she'rlarida ham asosiy e'tibor faqat ezgulikka qaratilgan.

Ushbu dinning diqqatga sazovor marosimlaridan biri – bu dafn marosimlari hisoblanadi. Dafn marosimlarida inson vafot etganidan keyingi dastlabki uch kun asosiy kunlar sanalib, mazkur kunlarda vafot etgan kishining yaqinlari marhum haqqiga duolar o'qishgan va motam tutishgan. Uchinchi kunning kechki paytida marhumning tanasi suyaklaridan tozalangan ya'ni mayitni yirtqich hayvonlar va o'limxo'r qushlar yeyishi uchun baland tepaliklarga chiqarib qo'yishgan, suyaklari oftobda quritilib poklangan. (Zardushtiykil ta'limotida "o'lim bu yovuz kuch va u inson tanasini ifloslaydi" degan qarash bo'lgan) 30 kunlik motam davomida o'lganning haqqiga maxsus taom tayyorlangan, oxirgi 30-kuni qurbonlik qilinib, bu tadbir 1 yil davomida har oyda amalga oshirilgan. Zardushtiylikda qurbonlik qilish marosimi – "Xamaspatmaedaya" nomi bilan tilga olinadi. Mayitning suyaklari oftobda quritilganidan so'ng dahmalarga qo'yilgan. "Rivoyat"larda dahmalar "zad-marg" nomi bilan tilga olinadi. "Rivoyat" – Eron va Hindiston zardushtiylik ta'limotida alohida ahamiyatga ega tarixiy manba. Azal-azaldan fors va pars (Janubiy Osiyo mintaqasida etnokonfessional guruh vakillariga tegishli ibora. Parslar asosan Hindiston Pokiston hududlarida istiqomat qilishgan. An'anaviy muqim joylashgan hududi – Gujarat hisoblanadi, ammo hozirda ularning ko'pchiligi Mumbayning Maxarashtra shtatida yashashadi) [<https://ivran.ru>articles>] ruhoniylari o'zaro zardushtiylik diniga oid marosim va urf-odatlar to'g'risida fikr almashishgan va bu xat orqali amalga

oshirilgan. Bu jarayon XV-XVII asrga qadar davom etgan. Ushbu maktublarning jamlanmasi “Rivoyat” ni tashkil etadi. [Мейтарчиян, 1999, с. 16-17]

Dahma yoki dafma “saqlash” degan ma’noni bildirib, bu qabr vazifasini o’tagan ya’ni baland tepaliklar ustiga maxsus joy tayyorlanib uning markazi chuqur o’yilgan va shu chuqurlarga suyaklar qo’yilgan (suyaklar maxsus tayyorlangan quduqlarga ham qo’yilgan) Bunday dahmalar “Sukunat tepaliklari” deb nomlanib hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Shulardan biri Eronning Yazd shahridagi qadimgi zardushtiylar qabristoni bo’lgan “Sukunat tepaligi”. Ushbu qabriston tepalikning ustiga aylana tosh minora shaklida qurilgan bo’lib, minora usti ochiq holda tasvirlanadi. Sababi quyosh nuri ushbu minora ichidagi suyaklarga to’g’ridan-to’g’ri tushishi uchun mo’ljallangan. “Sukunat tepaligi” ko’rinishidan insonni vahimaga soluvchi xaraktega ega va u yerda oxirgi marta XX asrning 60-yillarida dafn marosimlari o’tkazilgan. Hozirgi kunda mazkur tepalik Yazd shahrining ko’zga ko’ringan obidalaridan biri sanaladi.

Xuddi shunday dahmalar bizning hududimizda ham uchraydi, xususan, “Chilpiq” nomli sukunat tepaligi Qoraqalpog’iston hududida, aniqrog’i Nukus sharqidan 45 km uzoqlikda o’rin egallagan. Undagi aylana minoraning balandligi 15 metr, diametri 65 metr, 35 metr yerdan balandlikda joylashgan. Tepalik devorlari g’isht bloklaridan qurilgan. U yerda mayitlar yirtqich hayvonlar va qushlar yeyishi uchun sufalarga - maxsus joylarga qo’yilgan. Qolgan suyaklar esa ossuariylarga solingan yoki nauslarga qo’yilgan. Chilpiq tepaligining ahamiyatli tomoni shundan iboratki, u yerda ko’p miqdorda ossuariylar topib o’rganilgan. Ushbu hududda tadqiqot ishlarini olib borgan S.P.Tolstov va Yu.P.Manilovlarning ta’biricha bu “shoh dahmasi” bo’lib, unda ruhoniylar Qadimgi Xorazm hukmdorlarining mayitlarini qo’yishgan.

XULOSA. Zardushtiylik dini dastlabki dinlardan biri bo’lib, u ko’plab hududlar, xususan, Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan va davlatlar ijtimoiy hayotida alohida o’rin tutgan. Ushbu ta’limotning qonun-qoidasiga muvofiq inson vafot etganidan keyin maxsus diniy dafn marosimlari o’tkazilgan. Unda vafot etgan inson tanasiga yovuz ruh-o’lim o’rnashadi va tanani tozalash ishlari olib borilgan, suyak qoldiqlari esa dastlab “dahma” (“dafma”-saqlash, dastlab qabr vazifasini o’tovchi maxsus joylar), nauslarda (zardushtiylar ossuariylarni saqlash uchun loydan, g’ishtdan yoki toshdan qurgan inshootga berilgan nom) saqlangan. Bunday marosimlar muqaddas sanalgan to’rt unsur – suv, havo, olov va tuproqni iflos qilmaslik maqsadida olib borilgan va ruhoniylar tomonidan qattiq nazoratga olingan. Dafn marosimlarini amalga oshirishdagi bunday qat’iy nazorat zardushtiylikning nechog’li insonlar o’rtasida keng tarqalgan ijtimoiy jarayon ekanligini anglab olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. <https://uz.m.wikipedia.org.>wiki>
2. <https://ivran.ru>articles>
3. Жабборов И. Узбеклар: турмуш тарзи ва маданияти/Тошкент 2003, с.205
4. Мери Бойс. Зороасирийцы верования и обычаи/Санкт-Петербург 2003, с.342

MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM XIZMATLARI BOZORINING O'RNI

U.S. Xamroyeva

BuxDU, 1-bosqich magistri

u.s.xamroyeva@buxdu.uz

ANNOTATSIYA. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining o'rni juda katta ahamiyatga ega. Ta'lim xizmatlari va o'quv-uslubiy tizimlar mintaqa iqtisodiyotining asosiy muhitini shakllantiradi. Bu muhitning rivojlanishi uchun amaliy natijalar muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada, oliy ta'lim muassasalari o'z ta'lim dasturlarini farqlash usullari tahlil qilinadi, ularning raqobatbardosh ustunliklarini hisobga olgan holda va milliy talablarga javob beradigan ta'lim standartlari o'rin olgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ta'lim xizmatlarining o'ziga xos jihatlarini aniqlash va baholash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

KALIT SO'ZLAR: mintaqa iqtisodiyoti, oliy ta'lim, boshqaruv samaradorligi, ta'lim sifati, o'quv-uslubiy tizimlar, baholash, marketing, raqobat, ishlab chiqarish.

KIRISH

Mamlakat taraqqiyotini malakali mutaxassislar belgilaydi. Jamiyatni yaxshilash mumkin emas zamon talablariga javob beradigan, erishilgan yutuqlarni o'zlashtirgan kadrlar tayyorlanmasdan ilg'or ilm-fan, texnologiya va texnologiya. asosida yaratilgan uzluksiz ta'lim tizimi 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan tizimi, har tomonlama bilimli, yuksak intellektual salohiyatli va ma'naviyat, yetuk avlodni shakllantirish mexanizmi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ma'lumki, sohadagi islohotlar, ta'lim mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning ajralmas va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biridir. Oliy ta'lim – fan – ishlab chiqarish o'rtasida tafovut mavjud, integratsiya ta'minlanmagan. Tadqiqot institutlar oliy ta'lim muassasalarida zarur hajmda kadrlar tayyorlash jarayoniga jalb etilmaganligi; ulardagi ilmiy tadqiqotlar iqtisodiyot tarmoqlarining real ehtiyojlarini hisobga olmasdan amalga oshiriladi. Yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarning tizimli tayyorlanmasligi oliy o'quv yurtlarining ilmiy salohiyatining pasayishi demakdir. Negaki, oliy ta'lim jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarining asosiy, yetakchi omillaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Deyarli, 10 yil ichida turli faoliyat sohalarida marketingdan foydalanish bilan bog'liq vaziyat shu qadar o'zgardiki, OTM lari o'z dasturlarida marketing bo'lmagan holda qanday boshqarishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin. Muassasa va tashkilotlar, ilmiy-

tadqiqot muassasalari bilan bevosita hamkorlikni yo'lga qo'yish ijobiy samara bermoqda

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oliy ta'lim xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategiyalar nafaqat o'z ichiga o'qitishni oladi, balki innovatsion tarzda o'qitish usullari allaqachon kirib keldi. Shu munosabat bilan o'rta muddatli yoki uzoq muddatli echimlarni o'z ichiga oladigan E.Vagner va J.M.Ferreyra [3] tomonidan olib borilgan tadqiqotda jarayonni tushuntiruvchi kontseptual modelni taklif qilingan. Oliy ta'lim muassasasida raqobatdosh ustunlikni aniqlash, ichki va tashqi omillar aniqlanishi, ta'lim muassasalarini boshqaradigan tashkilotlar uchun raqobatdosh ustunlikni yaratadi. Ushbu tadqiqotning hissasi shundaki, biznes strategiyasi sohasidagi oliy ta'lim tizimida uchta nazariy yondashuvga moslashtirilgan Asosiy ilmiy yangilik shundaki, oliy o'quv yurtlari faqat ular mintaqa va manfaatdor tomonlar o'rtasida kuchliroq aloqaga ega bo'lsa, raqobatda ustunlik qiladi. Mazzarol, Tim va Jeffri tadqiqotida yaratishda muhim bo'lgan omillar modelini va ta'lim muassasalari uchun xalqaro bozorlarda barqaror raqobatdosh ustunlikni saqlab qolishdir. Bu iqtisodiyot tomonidan ishlab chiqilgan raqobatdosh ustunlik nazariyalarini o'rganish asosida aniqlanadigan sanoat va menejment nazariyasi, marketing xizmatlariga oid adabiyotlar Model tushuntirishga qaratilgan ta'limda strategik qarorlar qabul qilish uchun muhit va raqobatbardoshlikka erishish uchun ideal natija, afzallikni kasb etadi. 20-asrning so'nggi o'n yilligida oliy ta'lim marketingidagi asosiy yutuqlarga universitet mahsuloti, uning iste'molchilari, xaridorlari va maqsadli auditoriyalarini aniqlash, shuningdek marketing faoliyatiga strategik yondashuv zarurligini anglash va ularning tashkiliy dizayni kabilar kiradi. [4]

Globalashuv, reytinglar va OTMlarni davlat tomonidan moliyalashtirishning qisqarishi raqobat muhitini yaratadi. Bu ta'limda marketing strategiyalarini ishlab chiqishni rag'batlantiradi. Natijada, OTMlar aniq tanlashlari kerak bo'lgan marketing strategiyalarini ishlab chiqishning strategik yo'nalishlarini tanlab olishadi. Raqobatbardoshlikka erishishga qaratilgan strategik yo'nalishlar afzalligi G. Miotto va boshqa mualliflarning tadqiqotlarida tizimlashtirilgan [5]. Tadqiqot qanday qilish kerakligiga e'tibor qaratdigan davlat universitetlari uchun barqaror raqobat ustunligini yaratish va raqobatdosh ustunliklarni aniqlash zarur bo'ladi. Ispaniyaning 47 ta turli universitetlaridan 509 nafar professor-o'qituvchilarni so'rov qilish orqali davlat universitetlarining yangi muhitga moslashish va foydalanish orqali raqobatbardoshligini ta'minlash yo'llari turli manfaatdor tomonlarni hisobga oladigan va uchinchi tomon institutlarini jalb qiladigan faol marketing strategiyalari S. El Nemar va D. Vrontis [6] tadqiqotlarida, zamonaviy boshqaruv strategiyalari esa M. Kattaneo, M. Meoli, A. Signori [7] fanlarida o'qigan.

Oliy ta'lim bozorini rivojlantirish bo'yicha marketing strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha birinchi tadqiqot xizmatlarini G.Oxunova, so'nggi dissertatsiyani esa G.S.Sa'dullaeva amalga oshirdi. G.S.Sa'dullaeva tadqiqotida oliy ta'limni bo'lish yo'li

bilan alohida marketing strategiyalari taklif qilgan. Muassasalarni guruhlarga bo'lish, sifatini oshirish uchun O'zbekistonda ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa-da ta'lim va raqobatbardoshlik, raqobatbardoshlikni baholash omillari tasnifi va aniqligi matematik funktsiyalar ishlab chiqilmagan. O.Qahhorov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aniqlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi va oliy ta'lim muassasalari faoliyatida marketingni boshqarishning asosiy universal parametrlarini baholash biriktirildi.

NATIJALAR TAHLILI

Marketing strategiyasi bo'yicha xorijiy va o'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari tahlili, uning ahamiyati turli sohalarida ochilgan. Biroq, marketing strategiyalaridan foydalanish bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar o'tkazilmagan va oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari bozorida raqobatdosh ustunligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan marketing strategiyasini ishlab chiqish murakkab va ko'p qirrali tadqiqotlarni amalga oshirishni talab qiladi. Oliy ta'lim muassasalarining raqobatda omon qolishi birinchi navbatda ularning korporativ imidjiga va obro'siga bog'liq, P.M. Feldman tadqiqoti asosida 1500 nafar bitiruvchi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma asosida aniqlandi.

Raqobatbardoshlik quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) Davlat imtihonlaridagi o'rtacha ball (ta'lim faoliyati);
- 2) bitta professor-o'qituvchi (tadqiqot faoliyati) miqdoriga to'g'ri keladigan ilmiy-tadqiqot ishlari;
- 3) Chet ellik talabalar soni (xalqaro faoliyat);
- 4) Universitetning xorijiy manbalardan (xalqaro faoliyatdan) ta'lim faoliyatidan olingan daromadlari;
- 5) OTM professor-o'qituvchilarining o'rtacha ish haqining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbati iqtisodiyot (moliyaviy-iqtisodiy faoliyat);
- 6) Talabalarni infratuzilma bilan ta'minlash [8]. Ommabop "ta'lim xizmatlari" atamasi tomonidan taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlarning barcha turlari kiradi ta'lim dasturlari doirasida universitetlar. Ta'lim dasturi - ta'lim xizmatlari to'plami iste'molchining ta'lim va (yoki) kasbiy tayyorgarligi darajasini o'zgartirishga qaratilgan va taqdim etilgan ta'lim tashkilotining tegishli resurslari. Universitetlarning asosiy mahsulotining bu ta'rifi universitetlarning barcha dasturlarini, taklif etilayotgan ta'lim darajasini, profilini, ta'lim shaklini o'z ichiga oladi qo'llaniladigan o'qitish usullari va faqat bitta universitet mavjud bo'lsa, belgilangan maqsadlarga erishish uchun etarli emas, bo'lishi mumkin qo'shimcha komponentlar mavjudligi bilan tasniflanadi. Ta'lim xizmatlari bozorida sotuvchi bozor taklifini namoyon etish va shakllantirishda ko'maklashuvchi shaxs xisoblanadi.[11,25] Bunda sotuvchi ma'lum iqtisoslashtirilgan bilimga ega bo'lishi va buni iste'molchilar talablaridan kelib chiqib ularga taqdim eta olishi kerak bo'ladi

Universitetning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan uning strategiyasining muvaffaqiyatiga bog'liq. ning strategik tahlili tashqi muhit tashkilot va uning

funksional strategiyasini ishlab chiqishning muhim qismidir. Tahlil natijalari tashkilotning strategik rivojlanish rejasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Universitetning ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligi sifat bilan belgilanadi tayyorlangan mutaxassislar ko'rsatkichlari. Ta'lim sifatini boshqarish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: me'yorlashtirilgan va bozor munosabatlariga asoslangan.

Mintaqada oliy ta'lim muassasalarining soni va talabalar taqsimoti

Hududlar	Universitetlar soni, birlikda		Talabalar soni (ming)		Har 10 000 talabaning qarindoshi (aholi)	
	1991/1992	2021/2022	1991/1992	2021/2022	1991/1992	2021/2022
O'zbekiston	46	100	337,4	571,6	162,8	91,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2	9	9,9	22,1	77,7	105,6
Hududlar						
Andijon	4	5	17,7	20,6	98,6	63,7
Buxoro	2	4	15,0	18,7	125,0	85,2
Jizzax	1	2	6,8	14,7	85,3	94,6
Qashqadaryo	1	3	10,0	14,7	58,9	50,5
Navoiy	0	2	4,5	11,7	65,7	101,1
Namangan	1	3	11,0	15,6	70,6	49,3
Samarqand	6	8	40,0	38,9	181,0	78,3
Surxondaryo	1	6	7,8	14,4	58,4	36,9
Sirdaryo	1	1	6,2	6,2	110,2	56,5
Toshkent	2	5	17,1	16,5	79,7	28,3
Farg'ona	3	7	21,5	26,7	96,5	59,3
Xorazm	1	3	4,8	13,2	44,9	57,9
Toshkent shahar	21	42	165,4	210,9	769,7	462,1

O'zbekistonda 2021/2022 o'quv yilida talabalar soni 571,6 ming kishini tashkil etdi, bundan ko'rish mumkinki, 1991/1992 (337,9) yillarga nisbatan 60% ga talabalar soni oshgan. Mustaqillikning dastlabki 10yilida talabalar soni 54,4 % ga kamaydi, lekin so'ngi 10yil ichida 60% ga o'sdi. O'zbekistonda 2018/2019 o'quv yilida o'quvchilar soni 337,9 ming kishini tashkil etdi, bu 1991/1992 o'quv yiliga teng. Umuman olganda, mustaqillikning dastlabki 10 yilida talabalar soni 54,4 foizga kamaydi. In so'nggi 10 yil ichida talabalar soni 50% ga oshdi. 2010-2018 yillarda soni Respublika bo'yicha talabalar soni 63,4 ming nafarga (123,1 foiz) o'sdi. Mustaqillik yillarida mintaqada har 10000 kishiga talabalar soni 71,6 ga kamaydi. Biroq, bu sonlar Qoraqalpog'iston Respublikasida har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan talabalar soni 27,9 nafarga ko'paydi hamda Toshkent shahrida 45,5 nafarga ko'paydi.

Tovar yoki xizmatlarning raqobatbardoshligini har tomonlama baholash uchta asosda amalga oshiriladigan ko'rsatkichlar guruhlarini - normativ, narx va texnologik. Normativ ko'rsatkichlar muvofiqlik darajasini bildiradi, standartlarga ega bo'lgan tovarlar (xizmatlar). Texnologik ko'rsatkichlar texnik yordam va xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirishni tavsiflaydi. Narx ko'rsatkichlarini aks ettiradi muayyan vaziyatdagi xizmatlar narxi. Universitet marketing xizmatini tashkil qilishda funktsional va mahsulotga qarash kerak (tovar) tuzilmalarning birgalikdagi uyg'unlikdagi holatidir. Ushbu yondashuv ushbu tuzilmalardan foydalanish uchun yo'l ochadi va universitetning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda. Innovatsion marketing texnologiyalarining o'ziga xosligi yotadi va ular mavjud mahsulot bilan emas, balki uni ishlab chiqish kontseptsiyasi bilan shug'ullanishadi. Bu narsa, an'anaviy marketingdan farqli o'laroq, ushbu sohada marketing tadqiqotlari usullariga ma'lum bir o'ziga xoslikni yuklaydi, misol uchun innovatsion marketing. Bugungi kunda O'zbekiston oliy o'quv yurtlari bosqichma-bosqich kredit-modulga o'tmoqda, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish esa talabalarni o'qitishda ustuvor vazifaga aylanib bormoqda. Ta'lim sifatini boshqarishning ishlab chiqilgan marketing modeli ta'limni boshqarish algoritmidir, va unga ko'ra ta'lim faoliyatining eng yaxshi turi va natijasini tanlash orqali amalga oshiriladi. Raqobatchilar - ishlab chiqaruvchilar va raqobatchilar - iste'molchilarning o'zaro ta'siri. Korporativ innovatsion hamkorlik modeli oliy ta'lim iqtisodiyoti va amaliyoti o'rtasida ishlab chiqilgan. Bu, o'z navbatida, muayyan yordam beradigan oliy iqtisodiy ta'limning raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini belgilashda muhim hisoblanadi. SHunga muvofiq marketing faoliyatini tashkil qilish samaradorligini quyidagi mezonlar yig'indisi bilan baholaymiz:

1. Marketing bo'limining professional faoliyatni amalga oshirishi: raqobatchilarni o'rganish, iste'molchilarni tadqiq etish, ta'lim faoliyatini boshqarish, ta'lim xizmatlari va dasturlarining yangi g'oyalarni tashkil qilish, xizmatlarga narx belgilash, ta'lim xizmatlarini ilgari surish va samarali sotuvni tashkil qilish, marketing strategiyasini ishlab chiqish.

2. Marketing bo'limining ichki muhiti: marketing bo'limi xodimlarining malakasi va professionalizmi, marketing xarajatlari tarkibi, marketing bo'limini moliyalashtirish usullari.

OTM marketing boshqaruvini tashkil qilishni ob'ektiv baholash marketing bo'limining mavqeini va uning ishbilarmonlik faolligi darajasini aniqlashga imkon beradi. Mintaqadagi OTM larning zamonaviyligi, innovatsion tartibda faoliyat yuritishi ta'lim xizmatlari bozorida o'z o'rnini mustahkamlab borishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27-iyuldagi PQ-3151-son.
2. sifatini oshirishda iqtisodiyot tarmoqlari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlash.

3. Дихтль Е., Хершген Х. Практический маркетинг. -М.: Высшая школа. ИНФРАМ,1996.-с.21.
4. Emerson Wagner Mainardes, João M. Ferreira. Creating a competitive advantage in Higher Education Institutions: proposal and test of a conceptual model. *Int. J. Management in Education*, Vol. 5 Nos. 2/3, 2011
5. Mazzarol, Tim, and Geoffrey Norman Soutar. "Sustainable Competitive Advantage for Educational Institutions: a Suggested Model." *International Journal of Educational Management* 13.6 (1999): 287– 300. Web
6. Giorgia Miotto, Cristina Del-Castillo-Feito, Alicia Blanco-González, Reputation and legitimacy: Key factors for Higher Education Institutions' sustained competitive advantage,*Journal of Business Research*, Volume 112, 2020, Pages 342-353, ISSN 0148-2963,<https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2019.11.076>.
7. S. El Nemar, D. Vrontis, A. Thrassou. An innovative stakeholder framework for the Student-Choice Decision making process *Journal of Business Research*, November (2018), pp. 1-15, [10.1016/j.jbusres.2018.11.053](https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2018.11.053)
8. M. Cattaneo, M. Meoli, A. Signori. Performance-based funding and university research productivity: The moderating effect of university legitimacy. *The Journal of Technology Transfer*, 41 (1) (2016), pp. 85- 104, [10.1007/s10961-014-9379-2](https://doi.org/10.1007/s10961-014-9379-2)
9. Taylor S., Ryan M., Pearce J. Enhanced student learning in accounting utilising web-based technology, peer-review feedback and reflective practices: a learning community approach to assessment // *Higher Education*
10. Saidova, Hilolaxon Rashidjon Qizi. "QUALITY OF SCHOOL EDUCATION AND FACTORS OF ITS MODERNIZATION." *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS* 2.06 (2021): 43-50.
11. Saidova Hilolaxon Rashidjon Qizi. "METHODS BASED ON THE MODEL OF EDUCATIONAL INSTITUTION IMPROVEMENT OF THE EDUCATIONAL QUALITY CONTROL SYSTEM." *European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS)* 2.06
12. Saidova Hilolaxon Rashidjon Qizi. "VAZIYATLI YONDOSHUV VA UNING BOSHQARUV NAZARIYASI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI." *Oriental Art and Culture* 7 (2021): 254-259.
13. Saidova, Kh. "ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL FEATURES OF EDUCATIONAL QUALITY CONTROL SYSTEM IN ADVANCED FOREIGN COUNTRIES." *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities* 2.1.5 Pedagogical sciences (2022).
14. Saidova, X. R. "MECHANISM FOR ATTRACTING STAFF TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 IMPACT FACTOR: 7.429 11.07 (2022): 59-67.
15. САЙДОВА, ХИЛОЛАХОН. "ТАЪЛИМ тизими бошқарувида сифат ва самарадорлик моделлари." *Общество и инновации* 3.3/S (2022): 42-49.

16. NURMATOVA, MI. "THE NATURE AND THEORETICAL DESCRIPTION OF THE CONCEPT OF" ECONOMIC COMPETENCE"." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.07 (2022): 16-20.
17. Нурматова, М. И. "ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ПОНЯТИЯ "ЭКОНОМИЧЕСКАЯ КОМПЕНСАЦИЯ"." СОВРЕМЕННАЯ НАУКА: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. 2022.
18. Нурматова, Мафтуна. "Оила иқтисоди ва уни юриштига оид компетенциялар." Общество и инновации 2.11/S (2021): 323-329.
19. Отажанов, Шухратжон Эркинжонович, and Музаффар Умматович Курбанов. "РОЛЬ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ НАУКИ В ВОСПИТАНИИ ПАТРИОТИЗМА У МОЛОДЕЖИ." Ученый XXI века 6-2 (2016).
20. Ummatovich, Kurbanov Muzaffar, Otajonov Shukhrat Erkinjonovich, and Sodikova Feruza Rahimovna. "The Role Of Small Business And Private Entrepreneurship In Civil Society." Frontiers in Finance & Economics 16.2 (2019).

RISOLA YOHUD MANG'ITLAR XONADONINING QISQACHA TARIXI ASARIDA AMIR SHOHMURODNING FAOLIYATI

S.S. Sattorov,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
s.s.sattorov@buxdu.uz

Kalit so'zlar: salohiyat ; shariatparvar ; Shayx Safar ; Amiri Ma'sum; "Tajut tavorix" ; qozi; " soxta xonlik; so'fiylik; zodagon; "Majma al- arqam"; moliya ; sud.

Annotatsiya: Ahmad Donishning " Risola yohud Mang'itlar xonadoni qisqacha tarixi" asarida Mang'itlar sulolasining adolati va shariyatparvar hukmdori Amir Shohmurod hayoti va uning davrida olib borilgan ichki va tashqi siyosat haqida

Mang'itlar sulolasining eng salohiyatli, dovyurak va xalq orasida shariatparvarligi bilan tanilgan amirlardan biri Amir Shohmurod bo'lib, u 1785 yilda hokimiyat tepasiga kelgan. Amir Shohmurod haqida Ahmad Donish o'zining "Risola yohud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" asarida quyidagilarni yozadi: "Amir Doniyolbiy boshqaruvi davrida uning o'g'illari hokimiyat lavozimlarning aksariyat qismini egallagan edi. Mamlakatda fisqu-fasod va tartibsizliklar hukm surar edi. Bunday qabihliklarga chiday olmagan Amir Ma'sum otasiga noroziliklar va mamlakatdagi adolatsizliklardan arz etar edi" - deb yozadi. Muallif bu ma'lumot orqali hukmdorning qanchalik shariatparvarligini bilishimiz mumkin.

Amir Shohmurodning davlat arbobi sifatida shakllanishida tasavvuf oqimining ta'siri juda sezilarli bo'lib bu borada, ayniqsa Shayx Safarning o'rni beqiyos bo'lgan. Amir Shohmurod tabiatan zulm va nohaqliklarga chiday olmas edi, u otasiga arz qilib

“Men bunday holni ko’rishni ham, eshitishni ham istamayman, bilim olish uchun madrasaga boraman” – deb arz qiladi.

XVIII asrning o’rtalaridagi parokandaliklar va yuqori lavozim egallaganlarning mansablarini su’istemol qilishlari yosh amirni saltanatdan uzoqlashishga undadi. Tabiiy qobiliyati tufayli qisqa vaqt ichida dinga oid bilimlarni puxta egallaydi va sufiylik suluklaridan bahramand bo’ladi. Amir Shohmurod o’zini yeyishdan tiyar edi, chunonchi bir kuni yegulik uchun merosiy yerdan g’alla olguncha o’z piridan yarim man bug’doy qarz so’ragan. Shahzodaning Davlat ismli g’ulombachchasi bo’lib, bir kuni o’ziga berilgan bug’doyni to’kilgan donlarini tirnoqlari bilan terayotgan edi, shu payt ichkaridan chiqib qolgan shayx: “kimsan? bu yerda nima qilyapsan?”- deb so’raydi. “Men amirzodaning g’ulombachchasi bo’laman, qarzga bug’doy olishga kelgan edim, yerda to’kilganlarini termoqdaman” deb javob beradi. Shayx bu javobdan xursand bo’lib “Amirzodaga jonu diling bilan xizmat qilgin. Sen va avlodning uning davrida vazir hukmgir bo’lasizlar”, dedi. G’ulom bu xabarni amirzodaga etkazadi. Shahzoda bunga javoban shukronalik namozini o’qib: “Pirimning gapı yolg’on bo’lmag’ay” - dedi. Ahmad Donish bu ma’lumotlari bilan Amir Shohmurodni sabrli hukmdor ekanligini, shariatga asoslanib yashashini, shuningdek, o’z ustozlariga hurmatda bo’lishini aytib o’tmoqda.

Bu paytda ko’chmanchi qabilalarning beboshliklari haddan oshib ketdi va xalqning dod- firog’i nihoyat amir Doniyolbiy qulog’iga yetib boradi. Shunda u amirzodaning oldiga bir kishini yuborib: “Men qarib qoldim, kelsin va mening duoyim olsin, olgan bilimi yetarli, mamlakatni mening nomimdan noib sifatida shariatga muvofiq boshqarsin” - dedi. O’sha paytlar haqida Muhammad Sharif tomonidan yozilgan “Tajut tavorix” nomli tarixiy yilnomada mansabdorlarning beboshliklari haqida shunday ma’lumot keltiriladi: “Kambag’allar, gadoylar, daydilar va yetim-yesirlar olomon bo’lib, zodagonlarning uylariga borib talar edilar, zodagonlarni tosh bilan urib o’ldirdilar” – deb yozib qoldirgan. Amir Doniyolbiyning qarib qolgani, uning buyruqlari saroydan chiqmayotganligi, asosiy hokimiyat adolatsiz viloyat hokimlari, vazirlar va qozilar qo’lida ekanligi mamlakatda norozilik kayfiyatini vujudga keltirgan, bu esa yangi siyosatchi hukmdorni talab etar edi. Aynan Amir Shohmurod shunday fazilat va salohiyatga ega hukmdor edi .

Amir Shohmurod otasining taklifini hech kim din va davlat salohiyatini mustahkamlashda unga qarshilik ko’rsatmasligi sharti bilan qabul qilib otasining saroyiga keladi. Askarlar, fuqarolarga oid muhim masalalarning aksariyatiga o’zi imzo chekar edi. Ayrim hollarda qozi yoki vazirlarning aralashuvi tufayli masalani yecholmasa, otasining hukmi bilan hal etar edi.

Hokimiyatga kelganidan keyin u hamma balolarning sababchisi vazirning irodasizligi va qozining ko’plab jabr-sitamlari ekanligini anglab etadi. Ahmad Donish bu ma’lumoti orqali o’z davrida bo’lgani kabi XVIII asrda ham, shu kabi muammo borligini yoritgan. Amir Shohmurod bularga chek qo’ymoqchi bo’ladi va bir kuni saroyda odamlarni qabul qilish va katta majlis o’tkazish bilan bog’liq majburiyatlarni

o'tab , otasini taxtga o'tqazib, o'zi esa besh-olti mahramlari bilan Ark darvozasi oldidagi to'pchixonada yashirib turadi. Shu vaqt qozi Nizomiddin otiga minayotgan edi. Amirzoda shahd bilan pistirtamadan chiqib, uni xanjar bilan o'ldiradi.

Amirzoda qozining jasadini otlarning oyoq ostida tashlashni buyuradi va xalqqa qilgan murojaatida: "Adolat qaror topmog'i uchun qozi Nizomiddinning mol-mulki talon-taroj qilishi lozim, kim nima olsa o'shaniki" deb amr qiladi. Shu orqali Amirzoda ozgina bo'lsa ham fisqu- fasodga barham beradi.

Amir Shohmurod hijriy 1198 (milodiy 1785) yili otasining boqiy dunyoga ketishi bilan Buxoro taxtiga o'tiradi. Ulamolar, a'yonlar va xalqqa ziyofat beriladi. Davlat va elatlarni boshqarishda yangi tartib o'rnatiladi. Dastlab u soxta xon bo'lmish Abulg'ozixonni podsholikdan chetlashtirib, Bozor Xo'jadagi hovlilardan biriga joy berib, vazifa tayinlanadi. Shohmurod "soxta xonlik"ka nuqta qo'yib, xon unvonini bekor qiladi va o'zini "Amir" deb e'lon qiladi. Amir Shohmurod davlat boshlig'i - amirlik unvonini tasis etar ekan, ushbu unvonning o'zbek va mo'g'ul urug'lari an'analari bilan emas balki shariat qoydalari asosida yuzaga kelganini asoslab beradi va shu davrdan mamlakat rasman amirlik deb atay boshlandi.

Amir Shohmurod hukmronligining dastlabki yillarida bir necha bor g'azo niyati bilan Tehronga qadar yurish qildi va shialarni qatlu g'oratga yetkazdi. Bu davrda Eron shohi Nodirshohdan Amudaryoning chap sohilidagi erlarni qaytarib olib, Buxoro amirligiga bo'ysundirildi ya'ni, 1788 - yil Buxoro amirligidagi mashhur Chohar viloyatlar (To'rt viloyatlar) bo'lgan Andxo'y, Shibirg'on, Saripul va Oqcha viloyatlari qaytarildi.

Mirzo Somiyning mashhur asari bo'lgan "Tarixi salotini mang'itiya"da Amir Shohmurodning taxtga chiqishi haqida ijobiy fikrlar bildirgan bo'lib, uning davrida kelib davlatda yangi tartiblar o'rnatilganligi qayd etiladi. Bu ma'lumotlar orqali biz Amir Shohmurod davrini ijobiy baholashimiz, qolgan amirlar davrida ichki va tashqi siyosatda davlat gullab yashnaganini ko'rishimiz mumkin.

Amir Shohmurod islohotlarining ba'zilari uning topshirig'iga binoan 1789 yilda Mirzo Bodi Devon tomonidan yozilgan "Majma al- arqam" ("Raqamalar va rukumlar") asarda keltirilgan. Unda keltirishicha, Shohmurodning davlatni markazlashtirish, yerlarni hisobga olish, soliq solish, uni undirishni tartibga keltirish hamda sug'orish inshootlarini hamda shaharlarini tiklash borasidagi ishlar, u o'tkazgan moliya, sud, harbiy, ma'muriy islohotlarda, davlat xizmatini, ish yuritishni tartibga tushirishga qaratilgan tadbirlar ham o'z ifodasini topgan. Bu islohotlar markaziy hokimiyatning kuchayishiga, shuningdek soliqlar kamayishiga ancha foydasi tegadi, bu orqali xalqning hukmdorga bo'lgan ishochi ortishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligi ham dunyoviy, diniy tamonda juda yaxshi rivojlangan, adolatsizliklarga barham berilib, xalqning turmush tarzi ijobiylashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmad Donish . Risola yohud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqa tarixi.- T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi , 2014. -B.20
2. Muqimov.Z.O'zbekiston davlati va huquqi tarixi.-T:Adalot,2003.-B.206
3. Баракаев Ж., Хайдаров Й. Бухоро тарихи. – Т.: Ўқитувчи .1991.-Б 84
4. Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi. – Т.: Tamaddun.2022. -B 48.
5. Mirzo Salimbek.Kashkuli Salimiy.Buxoro.Durdona.2003.-B.289

O'QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA STEAM O'QITISH YONDASHUVIDAN FOYDALANISH METODIKASI

N.A. Nadirxanova,
BuxDU, 1-bosqich magistranti
n.a.nadirxanova@buxdu.uz

Zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi - jamiyatda mavjud muammolarni hal qilishga qaratilgan fanlararo, integratsiyalashgan faoliyatga qodir bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bugungi kunda sur'atlar o'rtasidagi ziddiyatni kuzatish mumkin.

Jamiyatning texnik va texnologik rivojlanishi va talabalarning tabiiy-matematik sikl fanlariga qiziqishining sezilarli darajada pasayishi, bilimlari turli darajadagi va yo'nalishdagi zamonaviy texnologiyalarning asosi hisoblanadi [1].

Yurtimizda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish va kadrlar malakasini oshirish borasida bir qator ishlar olib borilmoqda:

- ❖ kadrlar tayyorlash mazmuni va tuzilmasini yangilash, uni maorif, fan, texnika, texnologiya, madaniyat sohalarida respublika hamda xorijda erishilgan yutuqlar asosida qayta ko'rib chiqish masalasi ham belgilab o'tish;
- ❖ kadrlar tayyorlash jarayonini o'quv-dasturiy hujjatnomalar, didaktik va uslubiy jihatdan ta'minlashni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini fundamental hamda amaliy ilmiy-tadqiqot ishlari asosida ishlab chiqish;
- ❖ ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'quv jarayonining axborot bilan
- ❖ ta'minlanishini yuksaltirish;
- ❖ ta'lim tizimiga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash;
- ❖ sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish;
- ❖ pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish kabi masalalar
- ❖ shular jumlasidandir.

Darhaqiqat, inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqonliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson hayoti, turmushtarzi, undagi o'zgarishlar atrof muhitdagi buyumlar qurshovida kechadi. Rang-

barang buyum va jismlar borliqqa go`zallik va nafosat baxsh etadi, insonga shu qonuniyatlar orqali qarashga undaydi.

Hozirgi kunda shubhasiz eskirgan pedagogik usullar yordamida yangicha sifatli ta`lim olish mumkin emas. Ta`lim jarayoni zamon bilan hamnafas yangi innovatsion texnologiyalarni talab qilmoqda. Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlarini tasviriy san`atga bog`lash bilan shaxsning o`z-o`zini boshqarishi va ijodiy tafakkurini amaliyotga tatbiq etishga olib keladi. Bunda esa uning eng muhim yo`nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish bo`lib, u talabalarning o`quv ishlarini faollashtirish va kasbiy ixtisoslashuvining faollashuviga olib keladi.

Tasviriy san`at o`quv jarayonida mashg`ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida innovatsion ta`lim texnologiyalari ("Ta`limda innovatsiya (STEAM)" loyihasi), interfaol metodlar (aqqliy hujum, tushunchalarni aniqlash, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi) hamda (klaster, B-B-B chizmasi, «Nima uchun» chizmasi, «Qanday» diagrammasi va toifalash jadvali) kabi grafik organayzerlardan unumli foydalanish mumkin.

STEAM ta`limi - XXI asrning asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo`naltirilgan integral pedagogik texnologiya bo`lib, u muammoli, loyihaga asoslangan, tadqiqot va amaliyotga yo`naltirilgan o`qitish usullari, usullari va usullariga asoslangan bo`lib, o`quvchilarda birlashgan tasavvurni shakllantirishga qaratilgan. dunyoni dinamik o`zgaruvchan sharoitlarga moslashish orqali turli xil miqyosdagi va tabiatdagi mavjud va potentsial muammolarni hal qilishga tayyorlash maqsadida.

Taniqli jamoat arbobi, AQShning sobiq ta`lim vaziri R.V.Rayli, ehtimol, STEAM ta`limining mohiyatini juda aniq ifodalagan bo`lsa kerak: "Bugun biz o`quvchilarni hali mavjud bo`lmagan kasblarga va hali ixtiro qilinmagan texnologiyalardan foydalanishga tayyorlamoqdamiz" biz hali ham muammolarni hisobga olmagan muammolarni hal qilish uchun" [3].

Hozirgi vaqtda "STEAM kasbi" tushunchasi mavjud - bular texnik, tabiiy fanlar va muhandislik tor profilli mutaxassisliklar: kompyuter texnologiyalari va matematika, tabiiy fanlar va tibbiyot, arxitektura va muhandislik, ta`lim bo`yicha mutaxassislar, savdo menejerlari, va boshqalar [4].

Innovatsion texnologiyalar yordamida tasviriy san`at asarlarini keng va yaxlit idrok etish uchun imkon beradigan mashg`ulotlarga ko`proq e`tibor qaratiladi.

Kompyuterlar orqali tasviriy san`at asarlarini tahlil qilish, muzeylar va galereyalarbo`ylab virtual sayohatlar uyushtirishda har xil ovozli matnlar, musiqa, animatsion bezaklardan foydalanish bilan real hayotdagidek ko`rish imkoniyatini beradi. Tasviriy san`at, adabiyot, musiqa va umuman olganda badiiy ijodkorlikda innovatsion texnologiyalarning o`zaro bog`liqligini amalda sinash talabalarning mashg`ulotlardagi faol ishtirokini jonlantirishga xizmat qiladi.

Ta`limning o`zaro bog`liqligi talabalardagi bilim olish va san`atga qiziqishlarini oshiradi. Yangicha ta`lim usullari ta`sirida talabada keng fikrlash, yuqori izlanish,

yangiliklar yaratish bilan uni asoslash, amaliyotga tatbiq etish vositasi sifatida munosabatda bo`lish ko`nikmalari rivojlanadi. Bu asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarlik hissi shakllanib, mustaqil ijodkorlik tajribasi oshadi. Yangi avlod multimedia texnologiyalari bilan faol shug`ullanganda talabalardagi san`at asarlarini idrok qilish tezroq shakllanadi.

Tasviriy san`at mashg`ulotlarida innovatsion texnologiyalarning faol qo`llanilishi zamonaviy talabaning assotsiativ fikrlashi, tasavvur qilishi hamda badiiy tarzda his etish holati rivojlanadi. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g`oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan tasviriy san`at darslari yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalashda yetakchi o`rinni egallaydi.

Buni tushunib yetgan ko`plab pedagog-rassomlar tasviriy san`at mashg`ulotlarida innovatsion texnologiyalarni qo`llashda kompyuter vositalaridan unumli foydalanib kelishmoqda. Ular bu vositalar orqali mavzuga oid «mahorat darslari», jahondagimashhur san`at muzeylariga sayohat, buyuk rassomlar asarlaridan iborat 3D videoroliklar namoyishi, grafik organayzerlar va nostandart testlardan foydalanishadi.

Shu jumladan, pedagogning shaxsan o`zi kompozitsiya yaratish jarayonini amaldako`rsatib, amaliy mashg`ulotlarning qiziqarli o`tishiga erishmoqdalar.

Bundan tashqari, tasviriy san`at darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish:

- talabalarining idrok qilish faoliyatini rivojlantiradi;
- ta`lim olish jarayonini samarali;
- qisqa vaqtda murakkab ishlar bajariladi;
- bilim va ko`nikmalarni mustahkamlaydi;
- darsdan tashqari vaqtlarda talabalarni ilmiy-ijodiy faoliyatga yo`naltirishga sabab bo`ladi.

Xulosa o`rnida shun aytish joizki, hayotimizdagi yangi shart-sharoitlaridan kelib chiqib, o`quv jarayonida kompyuter vositalari va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni axborot hajmining ko`payib ketganligi, jamiyatdagi ilmiy-texnologik rivojlanish bilan izohlash mumkin. Pedagogik faoliyat bosqichma-bosqichligini nazarda tutadigan innovatsion texnologiya bo`lajak mutaxassisni hayotiy hamda o`quv faoliyatini mustaqil ko`ra oladigan, unga kreativ yondasha oladigan faol, ijodkor shaxsni shakllantirishga qaratadigan zamonaviy jarayon hisoblanadi. Ta`limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga samarali ta`sir etuvchi omillaridan biridir. Pedagogik innovatsiya - ta`lim jarayoni sifatini oshirish va pedagogik amaliyotni sifat jihatdan yaxshilashni maqsad qiladi.

Shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy ta`limni kompyuter grafikasi kabi o`quv jarayonida qo`llash imkonini oshiradigan innovatsion texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Taklif qilinayotgan tasvirni ko`rish bilan birga talabaning obrazli fikrlashi materialni yaxlit qabul qilishiga bu katta yordam beradi. Ularda nazariy va ko`rgazmali materiallarni o`zaro mujassamlashtirish imkoniyati paydo bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O`zbekiston xalqiga murojaatnomasi.
2. Султанов Х.Э. Тасвирий санъат машғулотида талабаларнинг ижодий қобилиятини ривожлантиришда инновацион технологиялардан фойдаланиш // “Замонавий таълим” илмий-амалий оммабоп журнали, №11, 2016. -59-64 б.
3. Султанов Х.Э., Бердиев Д.А. Санъат дўстликни мустаҳкамловчи омил //“Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар” халқаро илмий амалий анжуман илмий ишлар тўплами./ II том. Чирчиқ 2019. 443-444 б.
4. Султанов Х.Э. Тасвирий санъат таълимида кластер ёндашуви таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш омили /Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi № 4-sonli respublikasi ko`p tarmoqli, ilmiy konferensiya// 22-dekabr 2022-yil 236-242 б.
5. Султанов Х.Э., Бойназарова Н.Х., Бердиев Д.А., Мирсоатова Л.Ў., Маматкаримова М.Т. Кластер ҳамкорлигида ижодий фаолиятни ташкил этишининг ўқувчилар маънавий-ахлоқий тарбиясидаги аҳамияти //“Yangi O,zbekistonda pedagogik ta`lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari /may 1-qism CHIRCHIQ – 2022. 613-620 б.
6. Doston Abduvoitovich Berdiyev Maktablarda tasviriy san`at fanini o`qitishda kelajak ta`limi steam interaktiv ta`limini rivojlantirish // "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022/ Volume 3 Issue 2 Pages:687-690

JANUBIY KOREYANING MUSTAHKAM DEMOKRATIYA ASOSI: KIM DE JUNG VA ISTIQBOLLI ISLOHOT

R.R. Narziyeva,

BuxDU Tarix (yo`nalishlar va faoliyat turlari bo`yicha) yo`nalishi

2-kurs magistranti

Ijtimoiy gumanitar sohalar yo`nalishi

r.r.narziyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqola Janubiy Koreya Prezidenti Kim De Jung prezidentlik faoliyatiga bag`ishlangan. Bunda asosan Kim De Jungning Koreya Respublikasini iqtisodiy inqirozdan qanday olib chiqqanligi, demokratik islohotlari va Shimoliy Koreya bilan diplomatik aloqalari tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: Janubiy Koreya (Koreya Respublikasi), Kim De Jung, demokratiya, “Quyosh tafti” siyosati, Shimoliy Koreya (KXDR), iqtisodiy inqiroz, “koreys mo`jizasi”, “chebol”.

Bugungi kunda Sharqiy Osiyodagi eng yirik savdo, madaniy markazlardan biri bo'lgan, G-20 davlatlari qatoriga kiruvchi, XX asr oxirida iqtisodiyotda "koreys mo'jizasi"ni yarata olgan Janubiy Koreya davlati tashkil etilganidan boshlab demokratik rivojlanish yo'lidagi, xalq demokratiyasi va diplomatik tashqi siyosatga asoslangan davlat hisoblanadi. 1948-yil Koreya Respublikasining tashkil etilishi va 1988-yil yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi demokratiya poydevori bo'lib xizmat qilgan bo'lsa-da, demokratiyaning mustahkamlanishi, ichki va tashqi siyosatning liberallashtirishida Koreya Respublikasining yettinchi Prezidenti Kim De Jung siyosiy faoliyatining o'rni beqiyos.

Janubiy Koreya tarixida kuchli siyosatchi sifatida tan olingan, Demokratik partiya lideri Kim De Jung 1997-yilgi prezidentlik saylovlarida g'alaba qozonib, o'z faoliyatiga kirishishdan oldingi nutqlarida uning hukumati faqatgina xalq hokimiyatiga asoslanganligi, radikal liberal iqtisodiy islohotlar o'tkazish, shuningdek, Koreya yarimorolida tichlik o'rnatish tarafdori ekanligini ta'kidlagan. Lekin endigina iqtisodiy rivojlanish yo'lida bo'lgan Janubiy Koreyaning 1997-yilda Janubiy Osiyo va Tinch okeani davlatlarida boshlangan iqtisodiy inqiroz ta'sir doirasiga tushishi oqibatida koreys milliy valyutasining qiymati qadrsizlandi, ishsizlar soni uch marta barobarida ko'paydi [1:575].

Prezident Kim De Jung moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun birinchi navbatda aholiga murojaat qilib, oltin va kumushni davlatga arzon narxlarda sotish, shuningdek, iste'mol tovarlarini imkon qadar tejab ishlatishni so'radi. Yig'ish kompaniyasining yordami bilan millionlab koreyslar o'zlarining chet el valyutalari, qimmatbaho qog'ozlari va oltinlarini banklarga topshirdilar. Davlat darajasida esa valyuta qiymatini oshirish choralari ko'rib, hukumatning iltimosiga ko'ra Jahon valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankidan 68 milliard dollar kredit ajratildi. [1:576].

Iqtisodiy inqirozni yengib o'tishda asosiy to'siq bo'lgan, Koreya iqtisodiyoti, hatto siyosatida o'z o'rni va ovozigacha ega bo'lgan, nodemokratik kuch sifatida mavjud bo'lgan korporatsiyalar, ya'ni "chebol"lar bilan hamkorlikda eskirgan iqtisodiy tuzilmalar, bank va boshqaruv tizimi o'rniga yangi iqtisodiy tizimlar kiritildi. Prezident Kim "Chebol", ya'ni Janubiy Koreyadagi beshta eng yirik holding kompaniyalar – "Hyundai", "Samsung", "LG", "Daewoo", "SK" rahbarlari va kasaba uyushmalari bilan 1999-yil uch tomonlama muzokaralar olib bordi [2:11]. Natijada "chebol"larning faoliyat sohasini kengaytirishi hukumat tomonidan cheklanib, korporatsiyalar faqatgina o'zlarining asosiy bizneslari bilan shug'ullandilar, yondosh ishlab chiqarish quvvatlarini esa turdosh shirkatlarga berdilar.

Prezident Kim De Jungning oqilona va istiqbolli siyosati natijasida Janubiy Koreya favqulodda kreditlarni tez muddatda to'lashi bilan xalqaro maydonni hayratda qoldirib, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo'lib iqtisodiy inqirozdan chiqishga muvaffaq bo'ldi. 1998-yilning oxirida mamlakatning valyuta zaxiralari 50 milliard dollardan oshib ketib, inflatsiya ustidan g'alaba qozonildi, koreys milliy

valyutasining dollarga nisbatan kursi stabillashdi. [3:106]. 1999-yilga kelib esa sanoat ishlab chiqarish hajmi qariyb 30% ga, YaIM 10 % ga oshdi. Bu so'nggi o'n yil ichidagi eng yuqori ko'rsatkich sifatida tarixda qoldi [4:504].

Prezident Kim xalqaro diplomatik aloqalar sohasida Shimoliy Koreyaga nisbatan o'zining demokratik qarashlariga ega siyosatchilardan edi. U mashhur masalnavis Ezopning "shamol va quyosh" nomli masalidan ruhlangan holda Shimoliy Koreya bilan munosabatlarda olijanoblik pozitsiyasini qo'llab, bunga "quyosh tafti" deya nom berdi [5:4]. Bu siyosatda uchta tamoyilni ilgari surdi: 1) Koreya Respublikasi tashqi siyosatda har qanday harbiy provakatsiyalarga qarshi turadi; 2) Shimoliy Koreya bilan urush olib borish va uni yenggish niyatida bo'lmaydi; 3) do'stlik va hamkorlikni kuchaytirish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi. Bu prinsiplarga amal qilgan holda Janubiy Koreya XX asr boshida KXDR ning provakatsiyalariga javob bermadi, uning muxolifatdagi davlatlari bilan munosabatlarni yaxshilashda vositachi bo'lib xizmat qildi.

O'zaro munosabatlarni faollashtirish, hamkorlikni amaliy bosqichga ko'tarish uchun 2000-yil 13-15-iyunida Pxenyan shahrida Kim De Jung va Shimoliy Koreya rahbari Kim Chen Ir o'rtasida tarixiy uchrashuv bo'lib o'tdi [6:115]. Sammitda asosan ikki davlat o'rtasidagi kelishmovchiliklarga barham berish, Koreya yarimorolida tichlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, savdo va investitsiyalar bo'yicha qo'shma qarorlar qabul qilish, o'zaro biznesga xalaqit beradigan cheklovlarni olib tashlash, hukumat rolini birinchi navbatda gumanitar sohalarga qaratish kabi masalalar ko'rib chiqildi. "Quyosh tafti" siyosatida yarimoroldagi ziddiyatni faqat iqtisodiy kelishuvlar orqali yumshatish mumkinligiga ishonilganligi uchun ko'proq shu sohada muzokaralar olib borildi.

Prezident Kimning sharofati bilan ikki koreys davlatlari o'rtasida yaxshi qo'shnihilik aloqalari o'rnatilib, o'sha yilning o'zida KXDR rahbari Kim chen Ir o'zining Chon Gim Chjin boshchiligidagi delegatsiyasini Koreya Respublikasi poytaxti Seulga yubordi. Delegatsiya bilan bo'lgan uchrashuvda birinchi navbatda shimol va janubni bog'laydigan temiryo'l qurish masalasi ko'rib chiqildi hamda bu borada amaliy harakatlar olib borish uchun qo'shma qaror qabul qilindi. O'z navbatida bu delegatsiyaga javoban Prezident Kim ham o'zining delegatsiyasini Shimoliy Koreyaga jo'natdi. Shimoliy Koreya rahbari ularni Pxenyan shahrida qabul qilib, o'z nutqida fuqarolar urushi paytida ajralgan oilalar masalasiga asosiy e'tiborni qaratdi. O'zaro delegatsiyalar alamashinuvi paytida ajralgan oilalarning bir qismi ham olib ketilib, oila a'zolari bilan uchrashirildi. Shuningdek, bu masalaga davomiy tus berish uchun Shimoliy Koreya hududida joylashgan Kingansan tog'ida erkin turistik zona yaratilib, ikki davlat fuqarolarining uchrashuvlari tashkil etildi.

Janubiy Koreya Shimoliy Koreyaga "quyosh tafti" siyosati doirasida 114 mln dollar gumanitar yordam ko'rsatdi. Bu xizmatlari uchun 2000-yil noyabrda Prezident Kim De Jungga tinchlik uchun Nobel mukofoti topshirildi [6:115]. Bu mukofot uchun Kim De Jung ikki koreys davlatini birlashtirish yo'lidan borib, yarimoroldagi

muvozanatni ushlab turish mas'uliyatini oldi. Ammo keyingi rahbarlar davrida janub va shimol o'rtasidagi munosabatlar rivojlanmay, stabillik holatiga tushib qoldi, "quyosh tafti" siyosati asta-sekin so'na boshladi.

Xulosa o'rnida fikrimizni bildiradigan bo'lsak, Janubiy Koreya yaqin tarixida harbiylar boshqaruvi davrida iqtisodiy rivojlanishga erishgan bo'lsada, bu rivojlanish mustahkam bo'lmay, iqtisodiy inqirozga yuz tutdi. Shunday sharoitda Prezident Kim De Jungning iqtisodiyotda ham, ichki va tashqi siyosatda ham demokratiyaga asoslangan boshqaruvi, istiqbolli qarashlari tufayli Koreya Respublikasida xalq demokratiyasining barqarorligi ta'minlandi, bu borada koreys millatining fidokorligi va vatanparvarligining o'rni ham beqiyos bo'lganligini inobatga olish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Курбанов С.О. История Кореи: с древности до начала XXI в. – 3-е изд., испр. – СПб.: Изд-во С. – Петерб, ун-та, 2018. – 744 с.
2. Wayne Errington. Kim Dae-Jung and the Consolidation of Democracy in South Korea. – Australasian Political Studies Association Conference: University of Adelaide, 2004. – 29 p.
3. Жўлибой Элтазаров, Ким Ин Те. Жанубий Корея: ўтмиш ва бугун – Самарқанд, 2002. – 128 бет
4. Michael J.Seth. A concise history of Korea: From antiquity to the present. Third Edition. – 595 p.
5. Sarjana. Kim Dae Jung and the sunshine policy: an appealing policy option for inter-korean relations. – Vol. 27, No. 1, June 2012. – 20 p.
6. Xan V.S. Koreya tarixi – T.: Baktaria Press, 2013. – 128 bet.

AYRIM RANG BILDIRUVCHI SIFATLARNING RAMZIY XUSUSIYATLARI

N.M.Qurbonova,
BuxDU, 1-bosqich magistranti
n.qurbonova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada rang bildiruvchi sifatlarning lingvomadaniy jihatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, ular anglatgan ramziy ma'nolar xususida so'z yuritilgan. Ranglarning turli sohalarda hamda turli davrlarda turlicha ma'no nozikliklarini ifodalashi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, ramz, rang, millat, emotsional-ekspressivlik, fenomen.

Rang tor ma'noda fizik hodisa bo'lib, moddiy jismlar tarqatgan yoki qaytargan nurlanish spektriga mos ravishda yorug'likning muayyan ko'rish tuyg'usini hosil qilish

xossasi, keng ma'noda esa, o'zida emotsional-ekspressiv, mantiqiy-semantik, ramziy, estetik, milliy va madaniy axborotlarni saqlaydigan, insonning his-tuyg'ulariga keskin ta'sir eta oladigan tushunchani ifodalaydi. Rang insonning tashqi va ichki dunyosini jonlantiradigan, to'ldiradigan, ruhlantiradigan, boyitadigan keng qirrali hodisa sanaladi. Lingvistik nuqtayi nazardan rang mental lingvomadaniy fenomen hisoblanadi.

Ma'lumki, bizni o'rab turgan olam turfa ranglardan tashkil topadi. Ma'lumotlarga qaraganda, inson 2 millionga yaqin rang turlarini ajrata olish layoqatiga ega bo'lib [5; 216], umri davomida atrofidagi olam bilan bog'liq o'zlashtiradigan axborotlarning qariyb 80 foizini ranglar vositasida angelaydi [8; 35-40]. Ammo shunisi hayratlanarliki, dunyo tillarining hech birida faol qo'llaniladigan rang nomlari ikki yuzga ham yaqinlashmas ekan. Manbalarda qayd etilishicha, zamonaviy rus tilida 130 ta, ingliz tilida 154 ta, nemis tilida 120 tacha rang nomlari mavjud ekan [6; 1-14]. O'zbek tilida esa faol qo'llaniladigan rang nomlari 50 taga ham bormaydi. Qizig'i shundaki, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 130 ga yaqin rang nomi keltirilgan bo'lsa-da, ularning aksariyatini bugungi avlod deyarli tushunmaydi.

Har bir millat, har bir inson olamni o'zicha, o'z imkoniyatidan kelib chiqib tafakkur qiladi. Shu sababli aynan bir rangning ham turli millat vakillarida, turli sohalarda, hatto bir millatga mansub turli kishilarda tushunilishi, anglanishi, tanilishi va ta'sir doirasi turlicha bo'ladi. Ya'ni muayyan rang kimgadir yoqimli bo'lsa, kimgadir yoqimsiz, noxush; kim uchundir tinchlantiruvchi, kayfiyatni ko'taruvchi bo'lsa, kim uchundir diqqatni tortuvchi, asabga teguvchi bo'lishi mumkin [1; 18]. Hattoki, insonlar orasida rang turlarini farqlashda ham o'ziga xos sezgi organlariga ega bo'lganlar (daltoniklar)ni ham uchratishimiz mumkin. Aynan shu sababli turli sohalarda ranglarning tushunilishi ham o'ziga xosdir. Misol qilib aytadigan bo'lsak, yashil rang – psixologiyada eng tinchlantiruvchi, sokin rang (stress holatidagi yoki ruhiy zo'riqqan odamga yashil tabiat qo'ynida bo'lish tavsiya etiladi); tibbiyotda tanani dam oldiradigan, tetiklashtiradigan, hayotbaxsh rang (tayanch-harakat sistemasi faolligini oshirish, qon bosimini tartibga solish, qon tomirlarini kengaytirish, bo'g'im va bosh og'rig'ini qoldirish xususiyatiga ega); marketologiyada omad keltiradigan, jiddiy odamlarning diqqatini tortadigan sokin rang; islom ta'limotida esa eng muborak, qutlug' ranglardan biri hisoblanib, jannatdagi bog'lar, jannat ahli libosi rangini ifodalaydi. U "Qur'oni Karim"da ham eng ko'p uchragan rang nomi hisoblanadi va o'z ma'nosida yomg'irdan keyingi daraxt, ekinzor va yerning rangi, ilohiy ma'noda esa jannatda mangu qoluvchilar, jumladan, yosh bolalar libosining rangi, jannat ahliga beriladigan yostiq jildi rangi, umuman, jannatdagi bog'-u rog'lar rangi sifatida talqin etiladi [4 ; 193-195- 201].

Dunyoda yorug'lik bor ekan, hech shubhasizki, ranglar ham bo'ladi. Olamdagi har bir rangning o'z ramziy ma'nosi bor. Qadimda ajdodlarimiz rang orqali bir-biri ramziy ma'noda so'zlashganlar. Insonlarning yuz rangiga qarab kasalliklarini aniqlaganlar va

davolaganlar. Ranglar vositasida falsafiy fikr berganlar va insonlarga ruhiy ta'sir o'tkazganlar.

Buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy o'zining «Kitob al javohir fi ma'rifat al javohir» (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini keltirib o'tganlar. Sharqda olim-u shoirlarimiz, musavvir-u naqqoshlarimiz, xattotlarimiz va boshqalar yuzdan ortiq ranglarni ajrata olganlar hamda ularning nomini, eng muhimi, har bir rangning ramziy ma'nosi va uning tilini bilganlar. Afsuski, yillar, asrlar o'tishi bilan asta-sekin ranglarning nomi, turlari va ramziy ma'nosi hamda ularning tili yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bugungi kunda jamiyatimizdagi istalgan insondan ranglar nomini sanab bering deb so'rasak, faqat 10 ga yaqinini sanab bera olishlari mumkin, xolos. Bu esa yuqorida aytgan gapimizning dalilidir. Xalqimiz juda ko'p ranglarni ajrata olgan va ularning nomini bilgan. Hattoki, olimlarimiz har bir rang nomi nima uchun qo'yilganligini o'z asarlarida yozib qoldirganlar. Sharq san'atida rang hamisha juda muhim rol o'ynagan. Har bir rang o'ziga xos ramziylikka, falsafiy ma'noga ega bo'lgan. Hattoki, ranglar orqali insonlarni davolaganlar.

Ota-bobolarimiz ranglarning barcha xususiyatlarini juda yaxshi bilganlar. Ular atrofimizni o'rab turgan tabiat ranglariga shaydo bo'lganlari uchun zangori, lojuvard va yashil ranglarini, ayniqsa, ko'p qo'llaganlar. Binolarning koshin va parchin sirlarini oftob nurida tovlanishini hamda atrofda ranglar bilan bog'lanishini hisobga olib, munosib bo'yoqlar tanlaganlar va bo'yaganlar. Parchin va koshinlarda, asosan, lojuvard, zangori, yashil, sariq va oq ranglar ishlatilgan. Ular osmon, yer, terilgan pishiq g'isht rangi bilan juda yaxshi uyg'unlashgan. Har bir rangning o'z mazmuni va asoslangan manbayi bo'ladi. Ajdodlarimiz mana shunday ranglarning ma'noviy, madaniy jihatlariga juda katta e'tibor berganlar.

Ko'm-ko'k, ya'ni havorang — “ota bo'yoq” koinotni eslatadi. Tiriklik, mangu osmon, obihayot, tinchlik, yomon ko'zdan asrash, halollik, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Yashil rang esa “ona bo'yoq” yer yuzidagi yam-yashil tabiat ramzini ifodalaydi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik tabiat timsoli hisoblanadi. Ular aralashmasidan hosil bo'lgan ranglar xuddi onalik va otalik mehri kelib turgandek insonga o'zgacha huzur bag'ishlaydi. Qizil rang – g'alaba, xursandchilik, shodlik ramzi. Sariq rang — muqaddaslik, yorug'lik, kenglik ramzi. Qora rang – motam, cheksizlik, mavhumlik, qo'rquv, tushkunlik, noaniqlik ramzi. Sariq rang – ayriliq. Zangori – oliy e'tiqod. Oq rang – muqaddas tinchlik bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg'unlashib ketgan rang bo'lib, poklik, beg'uborlik, soflik, nazokatlilik, tozalik, yorug'lik, baxt va omad ramzi, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilish timsolidir [2;162].

Qadimda hattoki insonlar kiyimining rangiga qarab ham u haqida, uning madaniyati haqida ma'lumot olganlar. Masalan: bosh kiyimi – sallaning turli rangda bo'lishi, bu orqali u turli ramziy ma'nolarni o'zida ifoda etgan. Sallaning rangiga qarab kishilarning mansabi, mazhabi, madaniyati va boshqa jihatlarini bilish mumkin bo'lgan. Shuningdek, qadimda har bir bayroq rangining ham o'z ramziy ifodasi

bo'lgan. Chunonchi, Amir Temur davlat bayrog'ining rangi moviy rangda bo'lgan. Moviy rang - tiriklik, mangu osmon, obihayot, tinchlik, yomon ko'zdan asrash, halollik, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini anglatadi hamda yurtimizning milliy-madaniy jihatlarni, an'analarni o'zida mujassamlashtiradi.

Bayrog'imizdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Madaniy jihatdan bu yaxshilikni, donishmandlikni halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.

2. Bayroqdagi oq rang - muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritgichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang madaniyatimizda poklik, beg'uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsolidir. Shu o'rinda oq rang qatnashgan realiyani kuzatishimiz mumkin. "Oq o'rar"- Uzoq Sharq mamlakatlarining madaniyatida oq motam rangini bildiradi. Agar motamda qora kiyilsa, marhumning ruhi hech narsa ko'rmaydi, deb ishonilgan. Shuning uchun ham motamda oq rang bu dunyodan keyingi hayotni ko'rish ramzi hisoblanadi. O'zbekistonning ko'pgina viloyatlarida ham motamda oq kiyim kiyish udumi mavjud. Ayollar aza tutganda oq ro'mol o'raydi. Aza ro'molni vafot etgan kishining yaqin uch qarindoshi oladi [3;64].

3. Yashil rang - tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda, jumladan, bizning xalqimizda ham navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

4. Qizil chiziqlar - vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

Tariximizga nazar tashlasak, qizil rang hozirgi ma'nosidan ancha uzoqlashganini ko'rishimiz mumkin.

Qip-qizil turnani kutdim o'ttiz yil,
Yechay deb bo'ynidan billur halqani,
Otamga shifolar so'rdim o'ttiz yil,
Rahm qani? Shafqat qani?[7]

She'rda lirik qahramonning kutgani "qip-qizil turna" – sotsialistik tuzum va'da qilgan jannat ramzi. Qizil rang bilan berilgan ramz ana shu jannatga yeta olmagan, sarobga ergashib adashgan insonning masalasini ta'sirchan va betakror ifodalashga imkon bergan. Abduvali Qutbiddin she'rlaridagi rang bilan bog'liq ramziy obrazlar, yuqorida e'tirof qilganimizday, ijtimoiy hayotdan tanlangan bo'lib, undagi ramziy obrazlarda bevosita hayotimizda ro'y bergan voqeliklar bilan uzviy bog'liqligini ko'ramiz. Qip-qizil turna ramziy obrazidagi rangni bildiruvchi qip-qizil orttirma daraja sifati bizga "bobo meros" rang ramzi bo'lib, biz yetmish yil shu ramzlarga ishonib yashadik; "qip-qizil bayroqlar soyasida, qip-qizil jildli firqa, komsomol biletlarimizni muqaddas bilib ko'ksimizga bosganicha yashadik! "Qip-qizil bayroqlar ozodlik" keltirib, "qip-qizil"jildli biletlarimiz esa bizga "erk" hadya qilgandi. Ammo negadir ozod, erkli shoir o'ttiz yildan buyon turnani kutadi, bahorlarni, yashillikni, yashnash va

yasharishni boshlab kelguvchi qip-qizil billur halqali turnani kutdi. Bundan shu narsa ayon bo'ladiki, davr ranglar ifodalaydigan ma'no uchun eng muhim va eng ahamiyatli vositadir. Har bir millatda ma'lum davrda, muayyan bir rang millat madaniyatining bir parchasini ifodalashga xizmat qiladi.

Anglashiladiki, ranglar har bir millat madaniyatida turli-tuman ramziy ma'noga ega. Xullas, biz ranglar "tili"ni tadqiq etish orqali go'zallik va voqelikni o'qishga, ramziy ma'noviy tovlanishlarni anglashga, shu bilan birga, millatlar tili orqali ularning madaniyatini chuqurroq o'rganishga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алымова Е.Н. Цвет как лингвокогнитивная категория в русской языковой картине мира: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – СПб., 2007. – 18 с.
2. Bulatov S.S. Rangshunoslik.. Toshkent: 2009. – B.162.
3. Hamidov X.X. Tarjimashunoslik ma'ruza matni. – Toshkent: 2022. – B. 64.
4. Muftiy Abdulmatin. Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur'an al-Karim. – Karachi: Maktabai Umar faruq, 2010. – B. 193; 195; 201.
5. Василевич А.П. и др. Цвет и названия цвета в русском языке. – Москва: URSS, 2005. – 216 с.
6. Воробьев Г.Г. Информатика цвета // НТИ. Серия 2: Информационные процессы и системы. –1998. – № 12. – С. 1–14.
7. Qutbiddin A. She'rlar to'plami. 2017.
8. Tropina T.N. Color meanings in the teaching of color science // THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF FINE. № 1, 2018. – С. 35-40.

O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI SALOHIYATINI OSHIRISH YO'LLARI

N. Mustafoyeva
BuxDU, 1- bosqich magistranti
n.mustafoyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqolada ziyorat turizmi haqida umumiy tushuncha berib, oltita alomat bo'yicha uning turlari ajratilgan. O'zbekiston ziyorat turistik salohiyatini belgilovchi asosiy ziyoratgohlari ko'rsatilgan. Mamlakatimizda ziyorat turizmini jadal rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari haqida fikr bildirgan.

Kalit so'zlar: turizm, ziyorat, ziyorat turizmi, diniy turizm, ziyoratgoh, muqaddas qadamjolar,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi Farmonining 58 maqsadi "O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish" belgilangan bo'lib, unga erishiladigan samaradorlik

ko'rsatkichlaridan biri sifatida "ziyosat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish" vazifasi qo'yilgan [1]. Ushbu strategic vazifani amalga oshirish uchun ziyosat turizmini tashkil etishning zamonaviy shakllaridan foydalanish talab etiladi.

Ziyosat turizmi diniy turizmining birta shakli hisoblanadi. Bunda, ziyosat turizmi turli din vakillarining ziyosat qilish maqsadida sayohatlari yig'indisi, deb tushuniladi. Ziyosat turizmi mohiyatan ziyosatgohlarni ziyosat qilish jarayonidir. Ziyosat esa dindorlarning muqaddas joylarga sajda qilishdir. Ziyosat qilishning sabablari quyidagilardan iborat. Ziyosat turizmi tashrif buyurish mumkin bo'lgan shahar yoki ma'lum hududdagi masjidlar va cherkovlarga yoki boshqa diniy diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda dunyo bo,,yicha har yili 200 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyosat maqsadida jahondagi turli ziyosatgohlar va o,,zlari uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy sayohatlarni amalga oshirmoqda. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo,,lsak, yiliga 150 mln xristianlar, 45 mln musulmonlar, 40 mln. buddistlar va sintoistlar, 30 mln induistlar diniy ziyosat maqsadida sayohat qiladilar [].

Ziyosat turizmi diniy turizmining birta shakli hisoblanadi. Bunda, ziyosat turizmi turli din vakillarining ziyosat qilish maqsadida sayohatlari yig'indisi, deb tushuniladi. Ziyosat esa dindorlarning muqaddas joylarga sajda qilishdir. Ziyosat qilishning sabablari quyidagilardan iborat [3]

- ruhiy va jismoniy kasalliklardan shifo topish istagi;
- oila va yaqinlar uchun ibodat qilish;
- inoyat toppish;
- xudojo'y ishlarni bajarish;
- gunohlarni kechirtirish;
- yuqoridan yuborilgan ne'matlar uchun minnatdorchilik bildirish;
- iymonga sadoqatni namoyon etish;
- iymon sari zohidlikka intilish;
- hayotning ma'nosini toppish.

Ziyosat turizmi muammolarning tadqiqotchilari o`rtasda ziyosatni bir nechta turlarini ajratadilar. Birinchi tasniflash ziyosatda qatnashuvchilar bo'yicha ularni uch guruhga bo'ladilar: yakka tartibdagi, oilaviy va guruhli ziyosatchilar. Ikkinchi tasniflash ziyosatning davomiyligi bo'yicha, uni uzoq va qisqa muddatli ziyosat turiga ajratadilar. Uchunchi guruhlanishga ko'ra mavsumiylik bo'yicha yil bo'yi ziyosat qilish va diniy bayramlarga moslashtirilgan ziyosat turlariga bo'linadi. Tashrif buyurish ob'ektlari bo'yicha konfessiyaviy ibodat joylariga (muqaddas joylarga tashrif buyurish va tabiiy ibodat joylari (tog'lar, ko'llar, daraxt, buloqlar) ni ziyosat qilish. Ziyosatgohning joylashgan maskaniga ko'ra - ichki (davlat ichida) va chet el ziyosatlari ajratiladi. Nihoyatda, majburiyat asosida - ixtiyoriy va majburiy ziyosat safarlari (masalan, Islomda haj ziyosati har bir mo'min uchun farzdir) ajratiladi.

O'zbekiston yuqori ziyorat turistik salohiyatiga ega o'lka hisoblanadi. Bunday o'lgan ziyorat maskanlar qatoriga islom olamidagi muhim o'rin tutadigan mashhur allomalari - Samarqanddagi Imom al-Buxoriy ziyoratgohi, "Shohi Zinda" yodgorlik majmuasi, "Imom Moturidiy" ziyoratgohi, "Burhoniddin Marg'inoniy" ziyoratgohi, "Xoja Doniyor" majmuasi, "Amir Temur" maqbarasi, "Xoja Ahror Valiy" ziyoratgohi; Buxorodagi Yetti Pir ziyoratgohlari, Ismoil Somoniy maqbarasi, Miri Arab madrasasi, Chor-Bakr me'moriy majmuasi; Surxondaryodagi al-Hakim at-Termiziy va Imom Abu Iso at-Termiziy ziyoratgohlari; Toshkent shahrodagi "Hazrati Imom" majmuasi, "Shayx Zayniddin bobo" ziyoratgohi, "Suzuk ota" majmuasi; Toshkent viloyatidagi «Zangi ota» me'moriy majmuasi va «Payg'ambar ota» maqbarasi; Jizzax viloyatidagi Mavlono Muhammad Peshog'ariy) ziyoratgohi; Qahaqaryodagi Hazrati Bashir, Abu Muin Nasafiy, "Hazrati Muborak Marvaziy" va "Langar ota" ziyoratgohlari; Farg'onadagi Shohimardon ziyoratgohi va "Xoja Maggiz" maqbarasi; Andijondagi Mehmoni Valiy ziyoratgohi; Xorazmdagi Pahlavon Mahmud va Shayx Muxtor Valiy maqbaralari va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Mamlakatimizda ziyorat turizmini jadal rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, O'zbekistonning turli hududlarida joylashgan muqaddas ziyoratgohlar haqidagi ma'lumotlar dunyoning musulmonlar yashaydigan davlatlarga mamlakatimiz elchixonalari orqali keng targ'ib qilib kelmoqda. 2022 yil oktyabr oyida Buxoro viloyati hokimi Botir Zaripov dunyoning eng katta musulmon tashkiloti sanalgan «Nadhlatul Ulamo» raisati bilan uchrashib, Indoneziyadan O'zbekistonga ziyoratchilar oqimini ko'paytirish masalasini muhokama bo'lib, «Indoneziya – O'zbekiston», «O'zbekiston – Saudiya Arabistoni – Indoneziya» yo'nalishlarida aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish, Buxoroda islom dunyosi olimlari ishtirokida uchrashuvlar tashkil etish, Buxoro va Buxoriylar haqida hujjatli film suratga olish va uni Indoneziya telekanallari orqali doimiy tarzda efirga uzatish, ziyorat turizmining yangi marshrutlarini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Dog'istonda O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyati taqdimoti o'tkazilib, B2B uchrashuvlar uyushtirildi. Dog'iston Respublikasida «Imomlar yurtiga sayohat» yo'nalishidagi targ'ibot ishlari amalga oshirmoqda. Malayziyada haj ziyorati masalalari bilan shug'ullanadigan "Tabung haji" jamg'armasi vakillari bilan o'tkazilgan tadbir samarali o'tgani ma'lum qilindi. a ziyorat turizmini jadal rivojlantirish maqsadida Toshkent xalqaro aeroportida namozxonalar tashkil etilgan. 2018 yilning 1 yanvaridan har bir mehmonxonaning umumiy xonalar sonining kamida o'ndan birida Qur'oni karim, ibodat qilish uchun joynamoz hamda kamida 30 foizida qibla ko'rsatgichi bo'lishi talabi o'rnatilgan edi

Xulosa qilib qayd qilish mumkinki, O'zbekiston o'zining turli hududlarida mavjud bo'lgan ko'pgina ziyoratgohlari bilan Islom olamida obro'li shaxslarning qadamjolarini raqamlashtirish asosida ziyorat klasterini tashkil etish asosida dunyo ziyorat markaziga aylanish imkoniga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.
2. Бабкин А. В. Специальные виды туризма: учебное пособие. Ростов-на-Дону. 2008. – 117 с. www. tourlib.net. Ахматова М. BUXORO VILOYATIDAGI DIQQATGA SAZOVOR JOYLARGA TRANSPORT XIZMATLARI VA HARAKATCHANLIGI Tahlili //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 37. – №. 37.
3. Ахматова М. TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARINI OPTIMALLASHTIRISH CHORA TADBIRLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
4. Ахматова М. Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
5. Ахматова М. TURISTIK TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASINI ANIQLASH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 36. – №. 36.
6. O'zbekistonning ziyorat turizmi sohasidagi salohiyati Malayziyada namoyish etiladi. <https://religions.uz/news/detail?id=680> (murojaat sanasi: 27.04.2024 y.).
7. Эсонов О.А., Холисбеков Ж.К. Ўзбекистондаги муқаддас зиёратгоҳлар (Андижон тумани мисолида) // Экономика и социум. 2021. №4-2 (83). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistondagi-mu-addas-ziyoratgo-lar-andizhon-tumani-misolida> (дата обращения: 27.04.2024). Ахматова М. Анализ транспортных услуг и мобильности к достопримечательностям Бухарской области //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 37. – №. 37.
8. Ахматова М. INTERNATIONAL CONNECTION OF TOURISM AND TRANSPORT SERVICES //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 37. – №. 37.
9. Ахматова М. TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARI BILAN BOG 'LIQ MUAMMOLAR VA ULARGA INNOVATION YECHIMLARI //DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 58-65.
10. Respublikadagi islom dini bilan bog'liq ziyoratgoh va qadamjolar. <https://religions.uz/pages/view?id=55> (murojaat sanasi: 27.04.2024 y.).
11. Bozarov N. Ziyorat turizmi tarixi va uning turizm sohasida tutgan o'rni. Academic Research in Educational Sciences Volume 3. Issue 12. 2022. 540-546 p.

GERMANIYADAGI O'ZBEK DIASPORASI SHAKILLANISHI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR.

A.B. Yo'ldoshev

Buxoro davlat universiteti t.f.f.d PhD

N.O. Jumayeva

Buxoro davlat universiteti 2- bosqich magistranti

n.o.jumayeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 20-yillaridan G'arbiy Yevropa mamlakatlariga o'qishga yuborilgan o'zbek talabalari hayoti va faoliyatining ayrim jabhalari, shuningdek, ikkinchi jahon urushi yillarida asirlikka tushgan millatimiz vakillarining tarixiy taqdiri xususida manbalar tahlili asosida fikr yuritiladi. Talabalarning muhojirlik hayoti, ilmiy va adabiy ijodi, asirlarning taqdirida sodir bo'lgan o'zgarishlarning o'ziga xosligi va ularning muhojirlik hayoti atroflicha bayon etiladi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda shakllangan yangi migratsion jarayonlarning xususiyatlari va mehnat migrantlarining G'arbiy Evropa mamlakatlaridagi faoliyati manba va dalillar asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Diaspora, muhojir, migratsiya, Mustafo Cho'qayev, "Turkiston gazetasi", Peterburg, Ertoy, S.Ayniy, "Ozod Sharq", Fayzullo Xo'jayev, "Ko'mak jurnali", Abduvahob Murodiy, Sattor Jabbor, "Berlin xati", "Hind ixtilolchilari".

O'zbeklarning G'arbiy Yevropa va Amerika hududlarida tarqalishining asosiy sabab va omillarining aniqlashda O'zbekiston Milliy arxivining materiallari asos bo'lib xizmat qildi. Jumladan, arxivning R47- fondning 1-ro'yxati 29, 196, 441, 516, 575-yig'ma jildlari, R36-fondning 1-ro'yxat 42-yig'ma jildi, "Rayonlashtirishga oid hujjatlar to'plami" nomi ostida saqlanayotgan R-1 fondi 1-ro'yxatiga kiruvchi 721, 723, 725-yig'ma jild hujjatlari, Xorijdagi vatandoshlar bilan madaniy aloqa bog'lash "Vatan" jamiyati nomi ostida saqlanayotgan R-2822-fondning qator hujjatlari, Rossiya Federatsiyasi harbiy arxivining "Qizil armiyaning yo'qotishlari va harbiy asirlar to'g'risida"gi 371-fondning 1-ro'yxat 312-319-yig'ma jildlari, "Harbiy asirlar" nomi ostidagi 229-fondning 161-ro'yxati 112-yig'ma jildining 5-6-7-8-9-10 boblaridagi dalillar, shuningdek, Mustafo Cho'qayevning "Turkistondagi xunrezliklar" asari, Sherali Turdiyevning "Ular germaniyada o'qigan edilar", O'rxon Qovunchining "Turkiya dorilfununlarida ishlagan turkistonlik ilm ahllari" (1988), Vali Qayumxonning "Qiyratilgan qismatlar" (1992), B.Yarashyevskiyning "Buxoro talabalari Germaniyada. 1922- 1925" asarlari hamda Buxorolik olimlar Sh.A.Xaitov va K.J.Rahmonovlarning "Buxoro xalq respublikasi va Germaniya: hamkorlikning tarixiy lavhalari" hamda "Buxoroning xorijdagi talabalari. (XX asrning 20-yillari)" asarlari manbaviy asos bo'lib xizmat qildi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlariga o'zbeklar tarqalishini quyidagi uch tarixiy bosqichga bo'lish maqsadga muvofiq deb topdik. Birinchi bosqich, XX asrning 20-yillariga to'g'ri kelib, bu davrda o'zbek ziyolilari hamda taraqqiyparvarlari tomonidan salohiyatli kadrlarni tarbiyalash maqsadida nufuzli oliy ta'lim muassasalariga yuborish harakati o'zbeklarning G'arbiy Evropa mamlakatlari bo'ylab tarqilishining asosiy omili bo'lib xizmat qilgan. Ikkinchi bosqich esa bevosita 2-jahon urushi bilan bog'liq bo'lib, o'zbek harbiy asirlarning tarixiy taqdiri bilan bog'liq. Uchinchi bosqich esa mustaqillik sharoitida mehnat migratsiyasining shakllanishi jaroyoni bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

XX asrning boshlarida Chor Rossiyasida demokratik tartibotlarning vujudga kelishi, hayot va davlat boshqaruvi to'g'risida yangi g'oya va qarashlarning shakllanishi bilan, O'rta Osiyo mintaqasida hurfikrli kishilarning salmog'i ortib bordi. Jadidlar va taraqqiyparvarlar guruhining shakllanishi natijasi o'laroq jamiyat hayotida dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan munosabat o'zgarib bordi. Jadid va taraqqiyparvarlarning qarashlarida iqtidorli yoshlarni ilg'or va zamonaviy bilim berishga ixtisoslashgan oliygohlarga yuborish g'oyasi shakllandi. Zamonaviy bilim va kasblarni egallagan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan harakatlarni amalga tadbiiq etish maqsadida Buxoroda "Ma'rifat" (1919-yil sentabrda-diss), Toshkentda "Ko'mak" (1920 yil yanvar-diss) kabi xayriya jamiyatlari shakllantirildi. Jamiyatlarning foliyati yoshlarni xorijga yuborish ishlarida amaliy ahamiyat kasb etdi. Jamiyat tez orada iqtidorli talabalarni Rossiyaning Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg, Turkiyaning Istanbul, Misrning Qohira shaharlaridagi oliygohlarga yuborish bilan bir qatorda, G'arbiy Evropa mamlakatlariga, jumladan, Angliya, Fransiya va Germaniyada joylashgan oliygohlarga yuborish ustuvor vazifa etib belgilandi. 1921-yil 7- mayda Turkiston Maorif komissarligining kollegiyasi bo'lib o'tib, 25 nafar yoshlarni Germaniyaga yuborishga qaror qilindi. 1922-yil Fayzullo Xo'jayev, Abduvohid Burxonov, Olimjon Idrisiy va A.F.Kemeniskiylardan iborat maxsus komissiya orqali 70 nafar yoshlarni Germaniyaga yubortirildi.

Rossiya-Germaniya diplomatik munosabatlari ijobiy tomonga o'zgarishi bilan salohiyatli yoshlarni Germaniyaga yuborish soddalashib bu jarayonlar qisqa vaqt ichida amaliy ko'rinish berdi. Talabalarni Germaniyaga yuborishda Fitrat, Turor Risqulov, Fayzullo Xo'jayev singari davlat va jamoat arboblari jonbozlik ko'rsatdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Cho'lpon kabi jamoat arboblari va taraqqiyparvarlar Germaniyaga yuboriladigan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida yirik sarmoyadorlar va zamindorlar bilan jamg'armalarni tashkillashtirdilar. Olib borilgan ishlarning samarasi o'laroq 1923-yilning oxirlariga borganda Germaniyada 58 nafar talaba, jumladan, o'zbeklar 42 nafarni tashkil etardi, 47 nafarlik Buxoro o'quvchilari orasidan 4 nafar qizlarning borligi Olima ayollarni tarbiyalash jamiyat hayotining zarur qismi ekanligini anglash bilan izohlanadi.

1921-yilda Germaniyaga o'z xohishi bilan birinchilardan bo'lib Toshkentlik Abduvahhob Murodiy ketgan. Berlindagi Qishloq xo'jalik akademiyasini birinchi

bo'lib bitirib qaytgan. O'qish davomida Abduvahbob Murodiy vatani bilan aloqasini uzmaydi. Germaniyaga talabalar yuborish tashabbusining boshlanishi va shu maqsadda Toshkentda "Ko'mak" jamiyatining tashkil etilishi haqidagi xabarni quvonch bilan kutib olgan, u Turkistonning kelgusi istiqboli uchun juda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida Toshkentda chiqib turgan "Qizil bayroq" gazetasida maqolalar chiqarib turgan.

Uning "Berlindan xat" maqolasida 1921-yildan beri Germaniyada Turkistonliklardan yolg'iz o'zi o'qiganligi haqida ma'lumotlar keltirgan. Abduvahbob Murodiy vatani O'zbekistonga qaytgach, Shreder nomidagi Bog'dorchilik ilmiy-tekshirish institutida direktor muovini, shuningdek, O'rta Osiyo Davlat Universiteti qishloq xo'jalik fakultetida o'qituvchi bo'lib ishlay boshlaydi. Respublika qishloq xo'jaligi ayniqsa paxtachilik, mevachilik va chorvachilik sohalari bo'yicha amaliy va ilmiy ishlarni yo'lga qo'yish, bu sohalarda mahalliy qadrlarni tayyorlash ishlariga faol kirishib ketgan. Ammo afsuski Abduvahbob Murodiy 1930-yilda qatag'onga uchraydi va konslagerga oilasi bilan yuboriladi. Shundan so'ng Abduvahbob Murodiy va oilasining keyingi taqdiri hozirgacha noma'lumligicha qolmoqda.

Germaniyaga yuborilgan o'zbek yoshlaridan yana biri Tohir Chig'atoy o'tgan asrning 20-yillarida Turkistondan Germaniyaga o'qishga yuborilgan, keyinchalik ona vatani O'zbekistonga qaytolmay xorijda qolib ketgan va u yerlarda 30-yillarning boshlaridayoq o'zbeklardan birinchi bo'lib falsafa fanlari doktori degan yuksak ilmiy unvonga ega bo'lgan mashhur olim bo'lib yetishgan edi. Uning rafiqasi professor Saodat Chig'atoyning yozishiga qaraganda, Tohir Chig'atoy 1902-yilda Toshkentda tavallud topgan boshlang'ich maktabni eski maktabda keyin esa yangi usul va rus-tuzem maktablarida oladi, keyinchalik Ufadagi madrasai oliyada Bokudagi dorilmualliminda tahsil oladi. 1922-yilda Germaniyaga ketib, Haydelberg universitetiga o'qishga kiradi. Universitetda 1931-yilgacha falsafa va iqtisodiyot fanlaridan saboq oladi 1929-1939-yillarda Berlinda nashr etilgan "Yosh Turkistonlk" jurnalida olib borgan faoliyati ayniqsa e'tiborga sazovor. Tohir Chig'atoy ushbu jurnalning birinchi sonidan boshlab to so'nggi sonida e'lon qilingan aksar maqolalarni tahrir qilib jurnalning xorijdagi va Turkistondagi vatandoshlari orasida tarqalishida jonbozlik ko'rsatgan edi. Shu bilan birga o'zi ham uning sahifalarida O'rta Osiyo xalqlarining sovet-totalitar tuzumi davrida kechirgan og'ir itimoiy-siyosiy va madaniy hayoti hamda bu hayotning achinarli tomonlari haqidagi "Bolshevik jinoyati qurbonlari", "Milliy tuyg'u va milliy ruh o'ldirilmas", "Sinfy dushmanlar muhokamasi", "Paxta atrofida", "Turkistonda qonli terror"(1934) kabi maqolalari bilan faol qatnashganligi o'sha davrdagi Turkiston voqealariga befarq emasligining yaqqol dalilidir. 1939-yilda Anqaraga ko'chib o'tgan Tohir Chig'atoy Anqara universitetida ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi .

Yana bir xorijga Germaniyaga ketgan talabalardan biri Saida Sherahmedova (1905-1992) Toshkentlik ma'rifatparvar ziyolilaridan bo'lib eski maktabda tahsil olgandan keyin 1918-yildan ochilgan birinchi o'zbek qizlar bilim yurtida Oydin

Sobirova, Xosiyat Tillaxonova, Robiya Nosirovalar kabi keyinchalik O'zbekistonning taniqli shoira va jamoat arboblari bo'lib yetishgan o'zbek qizlari bilan birga o'qigan. Ushbu maktabda dunyoviy bilimlarni puxta egallay boshlagan Saida Sherahmedova 1922-yili bilim yurtini tugatmasdan, bir guruh mahalliy yoshlar bilan Germaniyaga o'qishga ketadi. Saida Sherahmedova ukasi Nasriddin va jiyani Fuzail Sherahmedovlar Germaniyaga ketishda hamrohlik qiladi. Ammo Fuzail Sherahmedov o'qishni bitirib O'zbekistonga qaytganidan keyin 30-yilning o'rtalarida Katta Farg'ona kanali loyihasini tuzuvchi mutaxassislaridan bo'lib ishlayotgan bir paytda (1937-yilda) nemis fashistlarning josusi sifatida qamoqqa olinib, yo'q qilib yuborilgan. Saida Sherahmedovaning ukasi Nasriddin Sherahmedov esa 1926-yili O'zbekistonga qaytishi bilan bir qancha vaqt qamoqqa olinadi. Qarindoshlarining O'zbekistonga qaytganlaridan keying fojiali taqdirini eshitgan Saida Sherahmedova esa o'zi bilan birga Germaniyaga o'qishga borgan boshqa talabalar qatori, qamoqxonalari mahbuslar bilan tolib toshgan vataniga qaytishni xoxlamay Turkiyaga ko'chib o'tadi.

“Turkiston” gazetasida Germaniyada o'qigan turkistonlik talabalardan Sattor Jabborning Ertoy taxallusi bilan yozgan maqolasi e'lon qilinadi. Berlindagi “Ozod Sharq” nashriyotida Fitratning “Xind ixtilolchilari”(1923) dramasi bilan S.Ayniyning “Qiz bola yoki Xolida” (1924) kitobini shuningdek o'zlarining “Ko'mak” (1923) ilmiy, adabiy va ijtimoiy jurnalini nashr qildilar. Ushbu jurnal sahifalarida talabalardan S.Usmonning “Osiyoning oq o'g'li” Axmad Shukriyning “Turk adabiyotida idealizm va realism” , “Cho'lpon-Cho'lpondir” Axmadjon Ibrohimovning “Texnika va biz” kabi muhim ijtimoiy –siyosiy va ilmiy-tarixiy mavzudagi maqolalari nashr qilingan.

O'tgan asrning boshlarida o'rta osiyolik talabalar Germaniyadan tashqari Fransiya va Angliyaga ham o'qishga borganlar. “Farg'ona” gazetasining 1923-yil 26-aprelida Rafiq nomli muallifning yozishicha o'sha davrda Yevropada o'qigan talabalarimiz soni 500 dan kam bo'lmagan⁵¹. Olimjon Idrisiyning “Farg'ona” gazetasida 1926-yil 22-25- martdagi yozgan “Germaniyadagi o'zbek shogirdlari” maqolasidan shuni bilib olish mumkinki Toshkentdan 8 nafar talabalar Sattor Jabbor, Abduvahob Is'hoq, Xayrinisa Ismoil, Sobir Ibrohim, To'lagan Mo'min, Ahmad Ibrohim va Saidali Usmoniylar Buxorodan 2 nafar Bahoviddin Amin va Afzal Abdusaidlar, Turkistondan 2 nafar Ataulla Sadriddin, Bilol Fathulla, Xo'janddan 1 nafar Sulton Matqul, Moskva Tatarlaridan Shamsulbanot Idrislar kabi talabalar tahsil olganligi malumot sifatida keltirilgan⁵².

Ahmad Zaki Validiy To'g'onning “Berlindagi Turkiston talabalari” maqolasida Fayzulla Xo'ja hukumati tomonidan Berlinga 70 ta talaba yuborganligi, ularning orasida Azimbek Berimjonov Baytilov, Sattor Jabborlarning berlindagi hayotlari haqida ma'lumotlar keltirganligi haqida bilib olamiz⁵³.

51 Turdiyev S. “Ular Germaniyada o'qigan edilar”. –T.:2006. -b 193

52 Idrisiy O. // “Farg'ona” gazetasida // 1926-yil 22-25 mart sonlari

53 Turdiyev Sh. “Ular Germaniyada o'qigan edilar”. –T.:2006. -b 218

Gernaniyada o'zbeklarning tarqalishining 2-bosqichi bevosita II jahon urushi bilan bog'liq bo'lib, 1941-yilning 2-yarmida "Qizil Armiya" sharqiy frontda chekinishi bilan bog'liqdir. Tarixchi olim Sh.A.Hayitov o'zining "II Jahon urushi va muhojirlik" nomli asarida asirlikka tushgan o'zbek o'g'lonlarining taqdirleri xususida juda muhim ma'lumotlarni keltiradi. Germaniyaning SSSRga hujumi fonida 1941-1945 yillardagi 4.847.500 nafar Turkistonlik sovet armiyasi saflariga chaqirildi. Shafqatsiz janglarda 1.689.730 nafar (ayrim manbalarda 1.500.000 ortiq) Turkistonliklar fashistlar tomonidan asirga olindi. Asirlarning taqdiri "Asirlar lageri", gettolar, turma va "Todt" kabi asirlarni saqlashga ixtisoslashtirilgan muassasalarda ayanchli kechdi. Turli xil qiynoq va azoblar bilan kurashishga majbur etilgan va insoniy kamsitishlarning barchasi yelkalarida ko'targan o'zbek yigitlari hayot zarbasi oldidda majburiy tanlov qilishga majbur etildilar. Fashist harbiy qo'mondonligining maxsus topshirig'i asosida asirlardan ozodlik guruhleri shakllantirilib, turkistonlik asirlar o'zlarining ozodlik armiyasini tashkil etishga majbur etildilar. Germaniyada tahsil olib, keyinchalik fashist hukumatiga aldangan Boymirza Hayit rahbarligida Turkistonni ozod qilish g'oyasiga xizmat qiladigan Turkiston legionleri shakllantirildi. "Turkiston legion"ga Fashist qo'mondonligining generali Fon Haygendorf rahbarlik qilib, legionleri shakllantirish 1941-yilning avgust oyidan boshlandi va 1943-yilning avgust-sentyabr oylarida yakunlandi. Ma'lumotlarda qayd etilishicha 1941-yilning 22-dekabridan 1944-yilning 5-fevraliga qadar 14 ta Turkistonliklardan iborat batalyon tashkil etildi. Batalyonlarda 7.700 tadan 8.400 asirlar birlashtirilib, Ukraina va Polsha himoya chiziqlarida jang olib bordilar. Sovet Ittifoqiga qarshi jangga kirgan "Turkiston legion"leri SS ning "qora fashistlar" guruhi deb atalib, janglarda yuqori samaradorlik ko'rsatmagan va aksariyat holatlarda Qizil armiya tomoniga yoxud partizan guruhlariga o'tish holati ko'p takrorlangan. 1944-yil oxiriga qadar 6500 legionchi turkistonliklar janglarda qurbon bo'lgan bo'lsa, 9.000 nafar legioner sovet partizan birliklariga qochib o'tgan. Turkiston legionlarining Sovet qo'shinlariga qarshi harakatlari muvaffaqiyatsizlikka uchrangani sababli ular G'arbiy frontga ko'chirib yuborildi. Ammo urushda tobora Germaniyaning yengilishi muqarrar bo'lgach "Turkiston legion"ni tarqatib yuborish asosan SSSR hududiga asir sifatida yuborish choralari ko'rildi, ammo SSSRga borganida taqdiri qanday bo'lishini bilgan askarlar Angliya va Yevropaning boshqa qismlariga qochib ketishni afzal ko'rishgan.

Ma'lumotlarda qayd etilishicha 1945 yilning apreli oyida AQSH harbiylari Italiya dengiz portleri orqali harbiy asirlarni Sobiq Ittifoqqa qaytarish harakatini boshlab yubordi. Ilk asirlar guruhi "Almanzara" paroxodida repatriantlar maqomi ostida Odessaga yetib borgandi va maxsus topshiriq asosida ularning aksariyati portning o'zidayoq otib tashlandi. Xullas, Yalta koferensiyasi shartlarini bajarish maqsadida 1945 yilning noyabr oyigacha AQSh, Angliya va Frantsiya kabi mamlakatlar harbiy asirlarni o'z mamlakatiga jo'natish majburiyatni bajarib, o'zlarining okkupatsiya zonalaridan 2 milliondan ortiq harbiy asirni majburan qaytarishga ulgurdilar. Sovet asirlari SSSRga qaytarishlariga norozilik bildirib, o'z jonlariga qasd qilganlar. Ularni

sovet siyosati bo'yicha "Vatan xoini" hisoblab, otuvga yoki 15-20 yil muddatli qamoq jazosiga hukm qilishar edi. Daxau kontslagerida saqlanayotgan sovet asirlarining Vatanlariga qaytishni istamay o'z jonlariga ommaviy ravishda qasd qilishi, Angliya Bosh vaziri U.Churchillning AQShdagi Fulton universitetida qilgan tarixiy nutqi (1946 yil mart) kabi omillar tufayli SSSRga sobiq asirlarni qaytarish to'xtatildi. Qizil armiyaga qarshi kurashgan general A.I.Denikin va o'sha paytdagi Rim papasi Piy XII lar AQSh generali D.Eyzenxauerga maxsus maktublar yo'llab, Yalta konferensiyasi qarorlarini qoraladilar hamda sovet fuqarolarini ularning xohishini e'tiborga olib, SSSRga qaytarmaslikka undadilar. Jahon jamoatchiligi sovet hokimiyatining asirlikda bo'lgan o'z fuqarolariga nisbatan shafqatsiz qarorini keskin qoralab chiqdi. Natijada okkupantlar qo'lida qolgan asirlarning taqdiri bevosita Evropa mamlakatlari bilan bog'liq bo'lib qoldi. ittifoqchilar ushbu voqealarga qadar ming-minglab sovet fuqarolarining hayotiga zomin bo'ldilar.

Mustaqillik yillarida o'zbeklarning Evropa va AQSHga tarqalishining asosiy sabab va omillaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 7-yanvardagi "Iqtidorli yoshlarni chet elda ta'lim olishlarini qo'llab quvvatlash "Umid" jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi PF-1694-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 1-iyuldagi "Istiqbolli yosh pedagoglarni va ilmiy kadrlarni malakasini oshirish va tajriba orttirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-32752-sonli farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasini faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5545-sonli farmoni asosida chet elga yuborilgan o'zbeklar faoliyati asos qilib olindi.

"Umid" jamg'armasi o'zining 7 yillik faoliyatida (1997-2003 yillar) 828 nafar talabalarni AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Farnsiya, Italiya va Yaponiya mamlakatlariga o'qishga yubordi. 2003-2018 yillar oralig'ida faoliyat yuritga "Istedod" jamg'armasi (2003 yil 1-iyulda tuzilgan-dissertant) 914 nafar yoshlarni Yevropa va AQSHga o'qishga yubordi. Chet ellarga yuborilgan ko'plab yosh o'zbek yigit va qizlari o'z vatanlariga qaytib kelmadi. Sherzod Shermatovning "Qalampir.uz"dagi intervyusida bergan ma'lumotlariga qaraganda Yevropa va AQSHda ko'plab ziyoli va salohiyatli kadrlarimizning istiqomat qilamoqda.

Masalan, Jasurbek Rajabov Informatson Texnologiyalar sohasida Toshkentdagi MDIS institutida University of Wales progmmasi asosida Bank va Moliya ishi fakultetini 1-darajali diplom bilan tugatib, 2012 yilda Global UGRAD almashinuv dasturi doirasida Lousiananing Monroe shahrida joylashgan University of Lousianada tahsil olgan. Lousianadagi o'qishi davomida Emerging Scholars dasturida qatnashib stipendiya sohibi bo'lgan. 2017-yildan New Yorkdagi eng yirik dasturiy konsern bo'lgan "Bloomberg" korxonasi foliyat olib boradi. Bundan oldin J.Rajabov Bank of America Meryll Lynch va Well Fargo korxonalarida biznes analitik lavozimida ishlagan. 2018-yilda Avstriyadagi Markaziy Yevropa Universitetining Iqtisodiyot

yo'nalishining to'liq moliyalashtirilgan grantida magistrlik darajasini qo'lga kiritgan. Hozirgi kunda shu universitetning doktoranti hisoblanadi.

Xullas, AQSH va Yevropa mamlakatlarida o'zbeklar diasporasi shakllanishining asosiy omili sifatida mamlakatni taraqqiyotini belgilab beradigan zamonaviy bilimlarni egallash va yoshlarni tarbiyalash yuzasidan olib borilgan ishlar samarasi desak maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qolaversa, ikkinchi jahon urushi yillarida asirlikka tushgan yosh o'zbek yigitlarining ushbu mamlakat hududlariga majburiy saqlanishi ham o'zbek diasporasining dunyo bo'ylab kengayishiga ta'sir korsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh. Sulaymonov // Ovrupada Turkiston oquvchilari// "Turkiston" gazetasi 1923-yil 1-yanvar soni.
2. T. Risqulov // Наши студенты в Германии // "Туркестанская правда" 2 декабря 1923 года.
3. Hayitov Sh. Urush va muhojirlik. Buxoro. Buxoro nashriyoti. 2009. –b. 17-21.
4. Hayitov Sh. Ikkinchi jahn urushi: asirlarning taqdiri va fojiali hayot lavhalri. Buxoro: "Buxoro" nashriyoti. 2015. –b 31.
5. Turdiyev Sh. "Ular Germaniyada o'qigan edilar". –T.:2006. -b 218.
6. "El-yut umidi" jamg'armasining rasmiy sayti // eyuf.uz/site/view-page?id=15
7. [Qalampir.uz/uz/news/uzbekiston-grant-asososida-khorijga-ketib-k-aytmagan-umidchilar](http://qalampir.uz/uz/news/uzbekiston-grant-asososida-khorijga-ketib-k-aytmagan-umidchilar)
8. <http://uzbekdiasporacom//>

“BOSHLANG'ICH MAKTABDA O'QISHGA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVNI TASHKIL ETISH SHARTLARI”

A.M.Nazarov,
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor,
L.R. Ostonova,
BuxDU , psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
l.r.ostonova@buxdu.uz

Kalit so'zlar: o'quv motivlari, ijtimoiy-psixologik moslashuv, motiv, motivatsion tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, o'zaro ta'sir.

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish jarayoni va boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktabga ijtimoiy-psixologik moslashuvi shartlari muammosi yoritib berilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik o'zgarishlari irodaviy-emotsional sohasidagi ba'zi jabhalar, ularning tarkib topish muammolari muhokama etilgan.

Bugungi kunda maktab ta'limida ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilish asosan boshlang'ich ta'limning yangi Federal Davlat ta'lim standartini joriy etishda ko'rinadi. Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasida ta'kidlanganidek, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'pgina muammolarni hal qilishning bevosita yo'li, shu jumladan. Birinchi sinf o'quvchisining maktabga kirishiga moslashishi, maktabgacha ta'limdan boshlang'ich maktab davriga o'tishi [22]. Ijtimoiy-psixologik moslashuv bilan bog'liq paydo bo'lgan muammolar - bu ta'lim muassasasi va bolaning oilasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik orqali hal qilinishi kerak bo'lgan murakkab muammolar. Keyingi o'quv jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'limning birinchi yillarida moslashuv qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Noto'g'ri birinchi sinf o'quvchilari ko'pincha boshqalarga nisbatan og'riqli munosabatda bo'lishadi va ularni tanqid qilishadi. Bu bolada ichki ziddiyatning kuchayishiga yordam beradi, bu darhol kognitiv faollik va faoliyat motivatsiyasiga salbiy ta'sir qiladi. Birinchi sinf o'quvchilari uchun maktab stressi ko'plab ishlarda tadqiqot mavzusidir. Shunday qilib, bolalarni maktabga psixologik tayyorlash muammosi bo'yicha M.R.ning asarlari alohida qiziqish uyg'otadi. Bityanova, L.A. Venger, L.S. Vygotskiy, A.I. Korotaeva, V.A. Kruchinina, M.I. Matyushicheva va boshqalar. Maktab ta'limiga moslashish muammosi bilan bog'liq masalalar E.M. Aleksandrovskeya, N.F., Vinogradova, G.N. Julina, E.G. Izotova, O.Yu. Kamakina, A.A. Lisenko, N.V. Savik, R.M. Ekhaeva. Bundan tashqari, bevosita ijtimoiy-psixologik moslashish texnologiyalari.

birinchi sinf o'quvchilari maktabda o'qish uchun D.Yu. Bulaev, E.M. Kosterina, T.V. Krasnikova, E.V. Leonova, D.S. Lygdenova, T.S. Semenova, N.A. Stepanova, O.V. Xuxlaeva, G.R. Chukmaeva.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, zamonaviy pedagogikada boshlang'ich maktabda o'qitishga ijtimoiy-psixologik moslashish muammosi mavzusi juda keskin ekanligi ayon bo'ladi. Bu tanlangan mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich maktabda moslashish jarayoni maktab o'quvchilarining yangi maqomga nafaqat jismoniy, balki psixologik moslashuvini qayta yo'naltirish va hisobga olishni o'z ichiga oladi. Jismoniy moslashuv yaxshi salomatlik va farovonlikni, ishlash darajasini, sog'lom uyqu va tuyadi, kasalliklarning yo'qligi va surunkali kasalliklarning kuchayishini anglatadi. Kichik maktab o'quvchilarining psixologik moslashuvi ta'lim motivatsiyasi, aqliy jarayonlarning rivojlanish darajasi, kayfiyat, o'zini o'zi qadrlashga tayyorligi va qobiliyati kabi parametrlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, M.I. Matyushicheva birinchi sinf o'quvchilarining maktabga moslashuvining quyidagi darajalarini belgilaydi. Yuqori daraja quyidagilar bilan tavsiflanadi: moslashish - 2 - 6 hafta; o'rganish uchun ijobiy motivatsiya; o'quv materialini oson o'zlashtirish; ortib borayotgan murakkablikdagi muammolarni hal qilish; o'qituvchining ko'rsatmalarini bajarish; sinfda do'stlar bor; sog'liq muammolari yo'q.

O'rtacha daraja quyidagilar bilan tavsiflanadi: moslashish - 2 - 3 oy; maktabga tashrif buyurishdan salbiy his-tuyg'ular yo'q; yordamida materialni shimib oladi

ko'rgazmali qurollar; tipik muammolarni hal qila oladi; nazorat ostidagi barcha vazifalarni bajaradi; do'stona munosabatlar mavjud. Nihoyat, ijtimoiy-psixologik moslashuvning past darajasi 3 oydan ortiq muddat bilan tavsiflanadi; maktabga salbiy munosabat; intizomni buzish; materialni qisman o'zlashtirish; sinfdoshlar bilan kam muloqot [21].

Menda tasvir bor, aytishimiz mumkinki, birinchi sinfni o'qish va maktab sharoitlariga moslashtirish tananing yangi maqsadga (ta'limga) moslashishini rivojlantirishdir. Ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonida kichik maktab o'quvchisi yangi rejimga, yangi ijtimoiy rolga va yangi muhitga moslashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bolalar psixologiyasi va metodikasi.- Z.Nishanova, G.Alimov.
2. O'qituvchi qobiliyati va uni psixologiyada o'rganilishi- K.Qudratova
3. Davletshin M.G. O'quvchilarda texnik qobiliyatning rivojlanishi. Toshkent. 1991.
4. G'oziyev E.G'. Oliy ta'limda psixologik xizmat – T.: O'qituvchi, 2002. – 95 b
5. Юнг К.Г. Психологические типы: Пер. с нем. // Психология индивидуальных различий: Тексты. - М., 1982.
6. Ostonova, G. (2023). ICHKI SEKRETSIYA BEZLARI FIZIOLOGIYASI. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(10 Part 3), 110-115.
7. Rashidovna, O. G. (2023). PHYSIOLOGY OF THE ENDOCRINE GLANDS. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 3(11), 1-6.
8. Ostonova, G. (2023). TURLI XIL STRESS OMILLARDAN GARMSEL OMILINING G 'O 'ZA BARG SATHIGA TA'SIRI. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(11 Part 2), 107-111.
9. Rashidovna, O. G. (2023). EFFECT OF SOILS WITH DIFFERENT LEVELS OF SALINITY ON COTTON GERMINATION IN FIELD CONDITIONS. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 3(12), 116-119.
10. Rashidovna, O. G. (2023). THE EFFECT OF THE HARMSEL FACTOR ON THE LEVEL OF COTTON LEAVES FROM VARIOUS STRESSORS. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 3(12), 105-107.

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETINGNING ROLI

D.R.Qodirova,

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sohasini innovatsion rivojlantirish masalalari, ular faoliyati samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan sabablar va omillar muhokama qilinadi. Ushbu maqolaning maqsadi dunyoda turizm sanoatini rivojlantirish va o'zgartirishda marketing qanday ekanligini ko'rsatishdir.

Kalit so'zlar: marketing, turizm marketing, reklama, turistik hudud, turistik hudud imidji.

Turistlarni jalb qilishda turizm industriyasida marketing va reklama roli juda muhim. Samarali marketing va reklama strategiyalari diqqatga sazovor joylarni jozibador qiladigan noyob xususiyatlar, diqqatga sazovor joylar va tajribalarni namoyish etish orqali sayohatchilarni jalb qiladi va qiziqish uyg'otadi. Bu tashrif buyuruvchilar sonini oshirish va xabardorlikni oshirish orqali turizm sanoatining muvaffaqiyati va o'sishiga hissa qo'shadi.

Sayohat va turizmni boshqarish maqsad yoki biznesning maqsad va vazifalariga mos keladigan keng qamrovli marketing strategiyalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ushbu strategiyalar maqsadli bozorlarni belgilaydi, asosiy xabarlarni aniqlaydi, marketing kanallarini aniqlaydi va mo'ljallangan auditoriyaga samarali erishish va jalb qilish uchun reklama tadbirlarini belgilaydi.

Turizm industriyasidagi marketing – bu turizm korxonasi tomonidan ilgari surilayotgan siyosat bo'lib, u turizm bozorining hozirgi va kelajakdagi sharoitlarini doimiy ravishda o'rganib, o'z taklifini ushbu shartlarga optimal ravishda moslashtirishni aniqlashga qaratilgan.

Turizm sohasidagi marketing turistik kompaniya rahbariyati tomonidan potentsial mijozni baholash va uni haqiqiy biznesga aylantirish uchun zarur bo'lgan barcha iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va yo'naltirish orqali mahsulot-bozor munosabatlarini o'rganishi mumkin bo'lgan barcha choralarni o'z ichiga oladi. Ma'lum bir turistik mahsulotga bo'lgan talab, shuningdek, kutilayotgan foyda va turistik bo'linmalarni rivojlantirish dasturlarida belgilangan boshqa maqsadlarga erishish uchun uni mijozga yetkazib beradi.

Turistik bozor segmentlar tarmog'idan, ma'lum toifadagi mijozlarning afzalliklari, istaklari, ehtiyojlari va o'z sabablaridan iborat. Shu sababli, tegishli marketing strategiyalarini ishlab chiqish uchun turizm bozorini ko'plab turizm toifalari bo'yicha farqlash mumkin.

Turizm dunyodagi eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishning eng yaxshi usullaridan biridir.

Turizm marketing – bu turizm sanoatida korxonalar tomonidan qo'llaniladigan turli marketing strategiyalariga berilgan umumiy nom. Bunga, masalan, mehmonxonalar va turar joyning boshqa shakllari, shuningdek, aviakompaniyalar,

avtomobil ijarasi xizmatlari, restoranlar, ko'ngilochar joylar, sayyohlik agentliklari va turopoperatorlar kiradi.

Turizm marketingining turli nomlari bor – destinatsiya marketing, kontseptsiya marketing, tajriba marketing. Bugungi kunda ko'plab marketing mutaxassislari turizmga murojaat qilishadi

Turizm marketing butun dunyo bo'ylab mahalliy va milliy iqtisodiyotlarning o'sishiga hissa qo'shadi. Darhaqiqat, so'nggi o'n yil ichida yaratilgan barcha global ish o'rinlarining beshdan bir qismi sayohat sektoriga to'g'ri keladi. Barcha ish o'rinlarining qariyb 10 foizi ushbu sanoat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Qanchalik ko'p odam shahar yoki mamlakatga tashrif buyuradi; ular qancha ko'p pul sarflashadi. Bu mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi va investorlarni jalb qiladi. Yangi mehmonxonalar, dam olish maskanlari o'z eshiklarini ochmoqda, bu esa yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qilmoqda. Mahalliy infratuzilma va xizmatlar yaxshilangani sayin sayyohlar soni yanada ortib bormoqda.

Turizm marketing maqsadlari – uning yakunida erishadigan narsasidir. Marketingning bosh maqsadi – korxonaning faoliyat yuritish jarayonida foydaning eng yuqori hajmini ta'minlash. Bunda talabni qondirishi maqsadga erishishning omili bo'ladi. Turizm marketingining asosiy maqsadlari quyidagilardir:

1. Talab harakatiga egiluvchan tarzda javob berish va mavjud resurslarni oqilona ishlatishga binoan aniq turistik mahsulotlarga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi ma'qul nisbatni ta'minlash orqali iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish.

2. Mahsulot turlanishini rag'batlantirish, anglash va takomillashtirish hamda yaratiladigan mahsulot sifatini yaxshilash ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etish orqali bozor ulushini (qismini) egallab olish.

3. Turistik xizmatlarni ishlab chiqarishda rentabellikning barqaror o'sishini ta'minlash.

2. Turizm marketing vazifalari Turizm marketing vazifalari – turistik korxonaning maqsadlariga erishish uchun sharoitlar yaratib berish. Turizm marketing vazifalari odatda turizm sohasi korxonalarining marketing vazifalaridan kelib chiqqan holda ularni oydin qiladi. Marketingning muhim vazifasi imkon boricha firmaning faoliyatida barqarorlikni, marketing maqsadlarini rivojlanishida va erishishda rejalashtirishga buysinishni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Agar xizmatlar sohasida paydo bo'ladigan xususiy muammolarga e'tibor bermasa, turizm marketing vazifalarning uchta guruhini ajratish mumkin: 1. Bozorni, talabni, iste'molchilar didi va xohishini puxta va har tomonlama o'rganish asosida bozorga chiqish, Shu talablarga javob beruvchi marketing va xizmatlarni ishlab chiqarish; 2. Xizmatlar ishlab chiqaruvchining bozor izmini oshiruvchi bozor munosabatlarning ijtimoiy – iqtisodiy samarasini oshirishi va ularning eng ma'qul darajasiga erishish, xizmatlar turlanishini doimo kengaytirish, yangi bozorlar (bozor segmentlar) ni faol qidirish, mavjud bo'lgan bozorlarni kengaytirish.

O'zbekistonda turizm marketingidan foydalanish va uning samarali rivojlanishni ta'minlash uchun bir qator shart-sharoitlar talab qilinadi:

- bozorni xizmatlar bilan imkon boricha ta'minlash (697arket bozorning mavjud bo'lishi);

- xaridorlar afzalliklari uchun turistik firmalar o'rtasidagi chuqur raqobat;

- iste'molchilarning boshqa mavjud tovarlar va xizmtalar to'g'risida yaxshi axborotga ega bo'lishi;

- erkin bozor munosabatlari, ya'ni ma'muriy cheklashlarsiz savdo bozorlarni, sheriklarni tanlash, narx-navoni o'rnatish, tijorat ishini va h.k. larni olib 697arketi;

- korxonada ma'muriyatning firma maqsadlarini, strategiyalarni, boshqarish tuzilishni aniqlash, byudjet moddalariga binoan mablag'larni taqsimlash bo'yicha erkin faoliyati.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, marketingni tashkil etish tizimining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat, desa bo'ladi:

- uning maqsadi, tamoyillari va vazifalari;

- tashkiliy tuzilishi va usullari;

- tashkil etishning texnika va texnologiyasi;

- kadrlar va boshqalar.

Umuman olganda, marketingni tashkil etishning maqsadi tizimning to'g'ri va murakkablik darajasiga qarab o'zgaradi. Uning tashkiliy tuzilishining mezoni va maqsadi deganda marketingni tarkibiy tuzilishining dinamik barqarorligi, evolyusiya o'zgarishlari va tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri tushuniladi. U avvalo, marketingning oldiga qo'ygan maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsad marketing faoliyat ko'rsatayotgan sohalarda belgilangan darajadagi foyda olishga yo'naltirilgan barcha faoliyatni boshqarish sifatida ko'rinadi.

Turizm korxonalarining marketing maqsadlarini taxminan uch sinfga bolish

mumkin: iqisodiy, nufuzli va ijtimoiy. Iqtisodiy bolganlar uzoq muddata maksimal foyda olish, mijozlaring yangi segmentlarini jalb qilish, sotishni yaxshilash va raqobatchilarga nisbatan bozor mavgeini mustahkamlashga garatilgan. Obro'li – bu

kompaniya, mintaqa yoki muayyan hududning jozibadorligini oshirish va imidjini yashilash, bu esa o'z nabatida mijozlarning ko'proq oqimini ta'minlaydi. Nihoyat, ijtimoiy xizmatlar aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qanoatlantiradigan, atrof-

muhitni muhofaza qilishga hissa qo'shadigan va kichik biznesni kengaytirishni

Turizmda marketing tadqiqotlari – bu turistik korxonani bozorlar, iste'molchilar, raqobatchilar va uning faoliyat ko'rsatish muhitining boshqa elementlari bilan axborot orqali bog'laydigan funktsiyadir. Marketing tadqiqotining predmeti marketing faoliyati, shuningdek, u yoki bu tarzda u bilan bog'liq bolgan jarayonlar va hodisalardir. Bozor, iste'molchilar, raqobatchilar kabi marketing tadqiqoti ob'ektlarini bir-biridan ajratish nihoyatda qiyin. Bozorni raqobatsiz tasavvur etib bo'lmaydi, iste'molchilarning xulq- atvori esa ma'lum bozor muhitida shakllanadi. Demak, tadqiqot

ob'ekti nuqtai nazaridan marketing tadqiqotlari murakkab bo'lishi kerak. Marketing tadqiqotlari mustaqil ravishda, asosan, o'zlariga maxsus bolimga ega bo'lishga imkon beradigan yirik firmalar tomonidan amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sayohat 698 arketing istiqbolli va tez rivojlanayotgan sohadir. Turizmning roli ortib borishi, ushbu sohada raqobatning kuchayishi munosabati bilan ushbu yonalishda turli marketing usullari dolzarb bo'lib bormoqda. Turizm, boshqa faoliyat sohalari kabi, umumiy qabul qilingan qoidalar bilan bir qatorda, marketingda ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu turistik mahsulotning o'ziga xosligi, turizmda o'zaro ta'sir qiluvchi sub'ektlar guruhi, faoliyat sohasi va tashqi omillarning kuchli ta'siri bilan bog'liq. Turizm 698arketing nafaqat "yakuniy iste'molchilar" – turistlarga, balki vositachilar – sayyohlik agentliklariga, hamkorlarga, jamoat turizm birlashmalariga, turizmni tartibga solish bo'yicha davlat organlariga ham qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bizfluent (2019). The Importance of Marketing in Tourism, accessed February 26, 2019,
2. Chron (2019). What Is Tourism Marketing?, accessed February 26, 2019,
3. Jabbarov, Fuad (2018). "Implementation of Corporate Governance Mechanisms in Tourism." *Annals of Spiru Haret University. Economic Series*, 18(4), 113-122, <https://doi.org/10.26458/1846>
4. Axmatova M. TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARI BILAN BOG 'LIQ MUAMMOLAR VA ULARGA INNOVATSION YECHIMLARI //DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 58-65.
1. Gupta, T. C., & Mirjha, N. D. (2016). "Development of Tourism Industry and Marketing in Chhattisgarh." *Journal of Tourism & Hospitality*, 5:219,
2. Kasemsap, Kijpokin (2015). "The Role of Marketing Strategies in the Tourism Industry." *Emerging Innovative Marketing Strategies in the Tourism Industry*,
3. Camilleri, Mark (2017). "The Tourism Industry: An Overview." *Travel Marketing, Tourism Economics and the Airline Product. An Introduction to Theory and Practice*,
4. Axmatova M. INTERNATIONAL CONNECTION OF TOURISM AND TRANSPORT SERVICES //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – T. 37. – №. 37.
5. Nilead (2019), Digital Marketing in Travel and Tourism Industry, accessed February 27, 2019
6. Novelus (2019), Marketing Tourism, accessed February 27, 2019
7. Dilmonov K. B. Classification and types of tourism //International scientific review. – 2020. – №. LXX. – C. 41-42.

8. Bakhtiyrovich D. K. General features of the tourism products in the service //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 7 (61). – С. 14-16.
9. Ахматова М. Анализ транспортных услуг и мобильности к достопримечательностям Бухарской области //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 37. – №. 37.
10. Rasul kizi-student, K. D. (2021). TOURISM CLUSTERS INSTITUTIONAL ENVIRONMENT Kadirova Nozima Rasulovna-student Aminova Niginabonu Bakhridinovna-student. Europe, Science And We Evropa, Vëda A My Evropa, Наука И Мы, 11.
11. Таирова, М. М., & Дустова, А. К. (2020). Роль гостиничных сетей в индустрии туризма. In Прорывные научные исследования: проблемы, закономерности, перспективы (pp. 57-59).

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY-STATISTIK BAHOLASHNING AHAMIYATI

N.R.Qodirova,

BuxDu, Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi, magistr

n.r.qodirova@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlili hududlar kesimida statistik kuzatuv ma'lumotlari tahlilining optimal variantlarini tanlash negizida mahsulot ishlab chiqarish, mehnat sarfi va transaksion xarajatlarni kamaytirishning qo'shimcha imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, jahon xo'jaligi, globallashuv, islohot, kuzatuv, iqtisodiy-statistik tahlil.

Asosiy qism. Jahon xo'jaligi tizimida globallashuv va xalqaro integratsiya jarayonlari kuchayib, ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi chuqurlashib borayotgan bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyot rivojlanishida, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. shu munosabat bilan ilmiy va iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, mezonlari, uni davlat tomonidan qo'llabquvvatlash mexanizmi, moliyalashtirish masalalariga alohida o'rin ajratilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik qobiliyati asosiy iqtisodiy resurslardan biri hisoblanib, inson omilining tarkibiy qismini tashkil etadi. Tadbirkor – bu ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish borasida bilim va malakaga ega bo'lgan, foyda olish maqsadida tavakkalchilik bilan ishko'ra oluvchi tashabbuskor shaxs. Tadbirkorlarning muayyan mahsulotlarni ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyati tadbirkorlik faoliyatini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunida ta'riflanishicha, “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik)

tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida

daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir"⁵⁴. Tadbirkorlik faoliyati asosida quyidagi birqator shart va talablar mavjud bo'ladi:

➤ birinchidan, tadbirkor tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish omillarini birlashtiradi va «katalizator» vazifasini bajaradi;

➤ ikkinchidan, biznesni yuritish jarayonida u mustaqil qarorlar qabul qilishdek qiyin bir vazifani zimmasiga oladi;

➤ uchinchidan, tadbirkor – tashkilotchi shaxs bo'lib, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilib, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga intiladi;

➤ to'rtinchidan, tadbirkor – tavakkal qilishdan qo'rqmaydigan insondir. U nafaqat o'z mol -mulki, vaqti, mehnati bilan, balki o'z sheriklari, hissadorlari qo'shgan mablag'lar bilan ham tavakkal qilishga boradi⁵⁵.

Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida yuqorida keltirilgan turli xil fikr va yondashuvlarni umumlashtirgan holda, qisqa qilib quyidagicha ta'rif berish mumkin: tadbirkorlik faoliyati – shakli va sohasidan qat'iy nazar, foyda olish va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishida quyidagi bir qator qoidalarga rioya etilishi talab qilinadi:

- Tadbirkorning xo'jalik yuritish bo'yicha xuquq va erkinliklarga ega bo'lishi;

- Tadbirkorlik faoliyati mulkdorning o'zi tomonidan ham, uning mol mulki asosida ishyurituvchi sub'ekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkinligi;

- xo'jalik yuritish erkinligini ta'minlovchi qulay iqtisodiy muhit va ijtimoiy-siyosiy sharoitning mavjud bo'lishi;

- mulkchilik va o'zlashtirishning turli –tuman shakllari va turlarining mavjudligi;

- tadbirkorning maxsus bilimga, ma'lumot va malakaviy tayyorgarlikka ega bo'lishi.

Tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari xilma-xil bo'lib, ular orasida o'zining xo'jalik yuritish ko'lamini cheklangani bilan ajralib turuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o'rin tutadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati bu soha tomonidan amalga oshiriluvchi vazifalar orqali namoyon bo'ladi. Bunday vazifalarning turli-tumanligi esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining jahondagi barcha mamlakatlarda uchun ham, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan alohida bir mamlakat uchun ham qandaydir darajada ahamiyat kasb etishidan darak beradi.

Prezidentimiz bu borada Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagilarni ta'kidlagan edi: “Tadbirkorlikni keng rivojlantirish va bu soha uchun yangi sharoitlar

54 O'zbekiston Respublikasining Qonuni. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»g iO'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qoshimchalar kiritish haqida . 2012 yil 2 may.

55Макконнелл К.Р., Брю С.Л.Экономикс: принципы, проблемы и политика: Пер. с 14-го англ. изд. - М.: ИНФРА-М, 2002, с.26.

yaratishga barcha imkoniyatlarimizni safarbaretamiz. “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida o‘z biznesini boshlayotgan oilalarga 5,9 trillion so‘m kreditlar ajratildi... Islohotlarimiz natijasida o‘tgan yili 93 mingta yoki 2018 yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko‘p yangi tadbirkorlik sub’ektlari tashkil etildi. Jahon bankining “Biznesyuritish” reytingida 7 pog‘onako‘tarilib, biznesni ro‘yxatga olish ko‘rsatkichi bo‘yicha dunyoning 190 ta davlat doirasida 8- o‘rinni egalladik va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy oldik”⁵⁶. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritilganda, eng avvalo, uning iste‘mol bozoridagi muvozanatni ta‘minlash vazifasini ta‘kidlash lozim. Uzoq yillik sobiq rejali iqtisodiyot tajribasidan ma‘lumki, o‘tadarajada yiriklashgan ishlab chiqarish ehtiyojlar va talab tuzilishidagi o‘zgarishlarga qiyin moslashuvchan, harakatchanlik borasida o‘ta sust hisoblanadi.

Bundan farqli o‘laroq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning eng moslashuvchan, o‘zgarib turuvchi talabga tez javob beruvchi sohasi hisoblanib, turli ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, iste‘molchi uchun zarur bo‘lgan mahsulot va xizmatni yetkazib berish muammosini zudlik bilan hal etadi. Shu bilan birga, ular aholi ehtiyojlarining o‘zgarishi natijasida mahsulot turlarini o‘zgartirish va ishlab chiqarishga joriy etishni yirik ishlab chiqarishga nisbatan kam xarajat qilgan holda amalga oshira oladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati, ayniqsa, ko‘lami jihatidan katta bo‘lmagan yangi bozorlarni o‘zlashtirishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Mavsumiy, milliy, mahalliy ahamiyatga molik ba‘zi mahsulot va xizmatlar talab hajmiga ko‘ra yirik ishlab chiqarish uchun ko‘p ham istiqbolli hisoblanmaydi. Biz kundalik turmushda kerak bo‘ladigan uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tortib ularning ta‘siri va shu kabi maishiy xizmatlarni ko‘rsatadigan korxonalarining rolini odatda to‘la tasavvur eta olmaymiz.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy sohadagi xizmatlaridan biri – bu aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishdir. O‘z navbatida u mazkur vazifani ikkita asosiy yo‘l orqali bajarishi mumkin: yangi ish o‘rinlarini barpo etish va vaqtincha bo‘sh bo‘lgan yoki ish bilan qisman band bo‘lgan aholini ishga jalbetish, yoki boshqacha aytganda, ikkilamchi bandlikni ta‘minlash. Aholining ish bilan bandligi va qo‘shimcha daromad olish imkonini yaratish orqali jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni saqlashga katta hissa qo‘shish mumkin. Ushbu jihatlarni ham alohida e‘tirof etgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “...Ma‘lumki, tadbirkor o‘zining bola-chaqasidan qiyib, to‘plagan puli, mol-mulkini yangi ish ochishga sarflaydi. Bankdan kredit olsa uni ham foizi bilan o‘zi to‘laydi. Unga hech kim har 15 kunda byudjetdan avans yoki oylik bermaydi. Shunga qaramasdan, tavakkal qilib, huzur-halovatdan kechib, bor imkoniyati va mablag‘ini xavf-xatarga qo‘yib, o‘z ishi uchun kecha-yu kunduz jonini berib ishlaydi. Shu yo‘l bilan nafaqat o‘z oilasini, balki el-yurtini ham boqadi. Shu ma‘noda, tadbirkor bu haqiqiy fidoiy inson. Shaxsan men bunday

insonlarni, ikkitagina ish o'rnini yaratgan tadbirkorni boshimga ko'tarishga tayyorman"⁵⁷, deb ta'kidlab o'tganlar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlantirilishiga xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi salbiy oqibatlarini bartaraf etishdagi asosiy yo'nalishlar sifatida ham qarash mumkin. Jumladan, aynan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi davrida noto'g'ri yuritilgan ijtimoiy siyosat oqibatida yirik shaharlarda ishlab chiqarishning haddan ziyod to'planishi, kichik shahar va qishloq joylarda esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning pastdarajada qolishi tabaqalashuvni keskinlashtirdi. Bunday yaroqsiz usul ayniqsa, mamlakatimizdagi ko'plab kichik shahar va qishloqlardagi ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Respublika aholisining asosiy qismi qishloqlarda joylashganiga qaramay, mavjud ortiqcha ish kuchi uchun yangi ish joylarini tashkil etish muammosi hal etilmadi. Shunga ko'ra, bu muammoni tezlik bilan hal etishning asosiy yo'llaridan biri – kichik korxonalarni, ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishga va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik korxonalarni tashkil etishdir. Keyingi o'n yillikda jahondagi yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotidagi kichik biznesning roli sezilarli darajada o'zgardi.

Jahon tajribasining tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirishdan qator mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning o'ziga xos dastagi sifatida foydalanib kelinmoqda. Jumladan:

- 1) ishchi kuchi bandligini ta'minlashning asosiy sohasi;
 - 2) iqtisodiyot innovatsiya salohiyatini rivojlantirish manbai;
 - 3) ishlab chiqarish faoliyati yangi shakllarini izlash va joriy etish manbai;
 - 4) davlat byudjetini soliq bilan to'ldirish (masalan, Germaniyada soliqlarning deyarli yarmini kichik biznes ta'minlaydi);
 - 5) ishlab chiqarish pasayishining oldini olish (Vengriya, Chexiya, Polsha);
- yirik biznes bilan uzviy bog'liq holda, mamlakat barqaror rivojlanishi hamda uning iqtisodiyoti raqobatdoshligini oshirishning asosi. Ushbu yo'nalishlarni quyidagi jadval orqali yaqqol tasavvur etish mumkin.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash quyidagi chora-tadbirlar hisobidan amalga oshirilishi kerak:

- mazkur tarmoqlardagi ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada o'sishini ta'minlash;
- korxonalarni rekonstruktsiya qilish;
- zamonaviy, ilg'or va yuksak texnologik uskunalarni bilan jihozlangan korxonalar tashkil etish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni muntazam yangilab borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

57 "Qonun ustuvorligi-inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omilidir". Prezident Sh.Mirziyoyevning Prokuratura organlari xodimlari bilan uchrashuvidagi ma'ruzasidan.// "Xalq so'zi" 8-yanvar 2017-yil.

1. Respublikasining Qonuni. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi qonuniga o’zgartirish va qoshimchalar kiritish haqida . 2012 yil 2 may.
2. O’zbekistan Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi
3. “Qonun ustuvorligi-inson manfaatlarini ta’minlashning muhim omilidir”. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Prokuratura organlari xodimlari bilan uchrashuvidagi ma’ruzasidan.// “Xalq so’zi” 8-yanvar 2017-yil.
4. Макконнелл К.Р., Брю С.Л.Экономика: принципы, проблемы и политика: Пер. с 14-го англ. изд. - М.: ИНФРА-М, 2002, с.26.
5. . Junaydullaevich, A. A., & Rasulovna, Q. N. (2023). THE ROLE AND PLACE OF ECONOMIC POTENTIAL IN ACTIVITIES OF THE ORGANIZATION. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(24), 101-104.
6. Abdullayev A.J. Qodirova N.R. SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI BAHOLASH USULLARINI ISHLAB CHIQUISH. Journal of Economy, Tourism and Service
7. Qayimova, Z. (2021). ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В БИЗНЕСЕ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).
8. Junaydullayevich, A. A., & Rasulovna, Q. N. (2023). MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O ‘RNI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(10), 34-37.
9. Rasulovna, Q. N. (2024). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETINGNING O’RNI VA AHAMIYATI. Gospodarka i Innowacje., 46, 274-278.

QADIMGI YUNONISTONNING APPENINDAGI KALONIYALARINING RIM BILAN MUNOSABATLARI TARIXIDAN

M.G. Kodirova,
BuxDU 1-bosqich magistranti
m.g.kodirova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qadimgi Yunonistonda ilk diplomatik munosabatlar, yunon polislarining Sharq davlatlari bilan, shuningdek, Rim davlati bilan ilk munosabatlari kabi omillar adabiyotlar tahlili orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Polis, xalqaro hamkorlik, kolonizatsiya, savdo-sotiq, sivilizatsiya, Krit madaniyati, islohot, diplomatiya, iqtisodiy hamkorlik.

Asosiy qism. Diplomatiya taraqqiyoti tarixning markazi sifatida juda qadimgi davrlardan boshlab muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Eng qadimgi davrlardan shaharlar ilk sivilizatsiya markazi sifatida insoniyat tarixida muhim rol o'ynab keldi.

Xususan, qadimgi dunyo tarixida Yunoniston davlatchiligi ilk davlatchilik va kishilik madaniyatining shakllanishi shaharlar va shahar madaniyatining shakllanishi bilan uzviy bog'liq holda kechdi. Shu bois, Yunoniston hududida qariyb 2700 yillik tarixga ega bo'lgan davlatchilik tarixi ilk bor aynan qadimiy shaharlar atrofida shakllandi. Qadimgi Yunonistonda dastlab paydo bo'lgan polislar keyinchalik dunyo tamadduni markaziga aylangan.

Dastlab Janubiy Italiyada Rimning mavqei mustahkam emasdi. Bu yerdagi Yunon koloniyalari mahalliy apul, lukan va brutlarni siquv ostida tutar edilar. Lekin yunon koloniyalari o'rtasidagi aloqa mustahkam emasdi, ular doimo raqobatda edilar. Ayniqsa, yunonlarning Furiya koloniyasi bilan lukanlar o'rtasidagi raqobat kuchli edi. Shuning uchun furiyaliklar Rimga yordam so'rab murojaat qiladilar. Rimliklar Furiyaga o'z harbiylarini jo'natadilar va u yerdan lukanlar haydab yuboradilar.

Tarentliklar Rimga qarshi turish uchun mashhur qo'mondon, Aleksandr Makedonskiyning qarindoshi bo'lgan Epir podshosi Pirrdan yordam so'raydilar. Miloddan avvalgi 280-yil u Italiyaga keladi. Dastlab, Gerakliya yaqinidagi bo'lgan jangda Pirr g'alaba qozonadi. Butun yunon shaharlari, jumladan, lukan va samnitlar Pirr tomoniga o'tadilar. Miloddan avvalgi 279-yil rimliklar va podsho qo'shinlari o'rtasida Auskul yonidagi Apuliyada jang bo'lib o'tadi. Bu jangda ham Pirr g'alaba qozonadi. Lekin jang haqida Pirr shunday xulosa qilgan edi: "Rimliklar ustidan yana bir marta shunday g'alaba qilsak, biz butunlay halok bo'lamiz". Pirr og'ir ahvolga tushib qoladi. Miloddan avvalgi 275-yili rimliklar Pirr qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratadilar.

Kuchini yo'qotgan Pirr Italiyani tashlab, Yunonistonga qaytishga majbur bo'ladi. Yunonistondagi ko'cha janglaridan birida boshidan zarba olib halok bo'ladi (Miloddan avvalgi 272-yil).

Pirring halokati haqidagi xabar kelgach, Tarentdagi qo'shinlar rimliklarga taslim bo'ladi. Regiy miloddan avvalgi 270-yili rimliklar tomonidan egallanadi. Shu tariqa butun Italiya rimliklar tomonidan bo'ysundiriladi. Faqatgina etrusklarning Volsini shahrigina mustaqilligicha qolgan. Volsiniyaliklar mustaqilliklarini saqlab qolish maqsadida o'zlari uchun eng xavfli yo'lni tanlaydilar: o'zlarining huquqsiz fuqarolarini va qullarni qurollantiradilar. Ammo ezilgan quyi tabaqalar aslzodalarga qarshi shaharda hokimiyatlarini o'rnatadilar. Shunda volsinlik aslzodalar Rim bilan sulh tuzadilar. Miloddan avvalgi 265-yili rimliklar Volsiniyani egallaydilar. Volsin shahri bo'ysundirilgandan so'ng butun Appenin yarim oroli Padangacha bo'lgan hududlar Rimga bo'ysundiriladi. Shu tariqa miloddan avvalgi IX-III asrlarda Appenin yarim orolida mavjud bo'lib kelgan yunon millati vakillari yashagan, o'zlarining yaqin

qo'shnilari janubiy italiyalik xalqlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatgan holda yashab kelayotgan edi. Ammo Rim tomonida Janubiy Italiyaning egallanishi bilan yunon koloniyalari o'z dengiz flotini Rimga topshirishga majbur bo'lib, amalda mustaqilligini yo'qotgan edi.

Rimliklarning ushbu muvaffaqiyatlari tasodifiy bo'lmay, uning bir necha sabablari mavjud edi: ular, Rim Italiyaning markazidagi juda qulay joyda joylashgan edi. Tuz konlari Rimning yaqinida bo'lib, uning iqtisodiy jihatdan tez rivojlanishi uchun qulay edi. iqtisodiy aloqalarning kuchayishi bilan atrofda jamoalarni o'rganish imkonini beruvchi madaniy aloqalar ham taraqqiy etgan.

Eng asosiy faktor raqiblar orasida birlik bo'lmaganligi edi. Yunon koloniyalari apul, brut, samniylar, sabell kabi qabilalari Rim bilan to'qnashuv paytida taraqqiyotning quyi darajasida bo'lib, ibtidoiy jamoa tuzumida bo'lgani, ular bilan raqobatta bo'lishi, mag'lubiyatning sabablaridan biri edi. Etrusk va yunonlar esa madaniylashgan qabilalar bo'lsalarda, o'zarok kelishuv bo'lmagan hamda xususiy qo'shinlari bo'lmagan.

Bularning barchasi rimliklar tarafidan hisobga olingan va "bo'lib tashla, hukmronlik qil" siyosatini qo'llaganlar. Rimliklar raqiblarini turli ittifoqlar yordamida bir-bir yengadi.

Xulosa. Yuqoridagi omillar qadimda Italiyada mavjud bo'lgan yunon koloniyalarining ichki va tashqi siyosat borasida malumotlar, koloniyalarda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli, ularning Rim tomonidan egallanishi kabi omillar tarixning mazkur bosqichida ham muhim bo'lganligini ko'rish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. Тошкент. Академия. 2005.
2. История дипломатии. Москва. 1959.
3. Кузищин В.И. История древнего Рима. Москва. Высшая школа. 2000.
4. Ковалев С.И. История Рима. Санкт-Петербург. 2002.

RAQAMLI BANK VA SOHADAGI YANGI BOSQICH- "AVO bank".

Z.A. Ramazonova,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
z.a.ramazonova@buxdu.uz

Annotatsiya. Raqamli bank- innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi. Ushbu maqola doirasida AVO – "AVO bank" AJ banki faoliyati misolida foizsiz davrga ega AVO platinum kredit kartasi haqida ma'lumot hamda raqamli bank xizmatlarining ayni damdagi holati va bankning faoliyati tahlil etilgan. Shuningdek,

mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan an'anaviy banklar va raqamli banklarning faoliyatini taqqoslash natijasida mamlakatimizdagi bank xizmatlarini rivojlantirish borasida xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli banking, raqamli bank, AVO platinum kredit kartasi, raqamli innovatsiyalar, mobil ilova, an'anaviy bank, aloqa markazlari, online kredit.

DIGITAL BANKING SERVICES AND ITS ADVANTAGES

Abstract: A digital bank is a bank or its structural division that provides remote banking services using innovative banking technologies. In the framework of this article, information about the AVO platinum credit card with an interest-free period, as well as the current state of digital banking services and the operation of the bank, is analyzed on the example of the activity of AVO - "AVO bank" JSC bank. Also, as a result of comparing the activities of traditional banks and digital banks operating in our country, conclusions were formed regarding the development of banking services in our country.

Keywords: Digital banking, digital bank, AVO platinum credit card, digital innovations, mobile application, traditional bank, contact centers, online credit, online deposit.

Kirish. Raqamli banking - bu mijozlarga o'z hisoblariga kirish va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi onlayn platforma. Bunga depozit qo'yish, pul o'tkazish, to'lovlarni to'lash, to'g'ridan-to'g'ri debetlarni o'rnatish va boshqalar kiradi. Odatda u almashtiriladigan har qanday ma'lumot shifrlangan va maxfiy saqlanishini ta'minlash uchun xavfsiz dasturiy ta'minot va serverlardan foydalanadi. Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni imzolangan, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda 2020 yilda "Anorbank" va "TBC bank"lar raqamli bank sifatida ro'yxatga olindi. Ammo 09.09.2023 yilga kelib Markaziy Bank tomonidan №83-sonli litsenziya asosida yangi "AVO" raqamli chakana banki mamlakatda o'z faoliyatini boshladi. AVO-"AVO bank" OAJ va "AVO Services and Technology" MCHJ IT kompaniyasini o'z ichiga olgan kompaniyalar guruhi. Startupning LinkedIn sahifasida tushuntirilganidek, "AVO" so'zi o'zbek tilidagi "havo" so'zining qisqartmasi. Havo yengil va toza bo'lganidek, bank taqdim etadigan moliyaviy xizmatlar ham kundalik foydalanishda qulay, tushunarli va oson.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Raqamli bank bu - tarmoqlari bo'lmagan, faoliyati elektron muomalaga asoslagan bank. Birinchi marta "raqamli bank" yoki "neobank" atamasi Kris Skinnerning 2014 yilda AQShda nashr etilgan "Raqamli bank" kitobida batafsil bayon qilingan. 1989-yil Buyuk Biritaniyada joylashgan First Direct

banki mijozlarga ilk bora telefon orqali xizmat ko'rsata boshladi va Qiziqarli fakt shundaki, birinchi kunida 1000 ta qo'ng'iroq qabul qilingan. 2015-2020 yillar davomida Yevropa mamlakatlarida "raqamli bank" tushunchasi jadal rivojlandi. Raqamli banklar o'z mijozlariga yanada qulay va foydali xizmatlarni taqdim etish uchun zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanish prinsiplariga o'tishdi. Yaqin yillarni ushbu tushuncha bilan birgalikda raqamli banklar O'zbekistonga ham kirib kela boshladi. O'zbekiston qonunchiligiga ilk marta raqamli bank tushunchasi Markaziy bankning "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizom" loyihasida e'lon qilindi va qonunchilikka raqamli bank atamasi kirib keldi.

Unga ko'ra, raqamli bank – innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda(kassa xizmatini ko'rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatish bank ichki tartib qodilariga asosan qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.⁵⁸

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari bilan yangi tashkil etilgan raqamli banklar o'rtasidagi farqlarni ko'rib chiqamiz.

Raqamli banklar:

- bank filiallari tarmog'ining kengaytirilmasligi;
- bank-mijoz o'rtasida onlayn aloqa tizimining 100 foiz o'rnatilganligi;
- sifatli va foydalanuvchilar uchun qulay bo'lgan mobil ilova;
- bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar uchun eng qulay sharoitlar (ya'ni, mijoz talabidan kelib chiquvchi);
- tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi;

Xususiy yoki davlat banklari:

- Bank filiallar tarmoqlarining har bir tuman, shahar va viloyat kesimida faoliyat yuritishi, sifat darajasiga e'tiborning sustligi;
- Bank-mijoz o'rtasida onlayn aloqa o'rnatish holatining pastligi;
- Mobil ilovalari nomiga chiqarilib, foydalanuvchi bir marotaba kiradi va qayta kirmaslikka ahd qiladi (mobil ilovalarda oddiy kartadan-kartaga pul o'tkazish yoki kommunal to'lovlar to'lash jarayonlarida doimiy muammolar mavjud bo'lim, ko'p holatlarda tizimda uzilishlar kuzatiladi);
- bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar chiqariladi, ammo ko'p holatlarda faqat tanish-bilishchilik katta rol o'ynaydi (agar tanish bo'lmasa, o'sha mijoz 3 oy va undan ko'p muddatga sarson-sargardonlikda yuradi).
- tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlari nomigagina faoliyat yuritadi, mijoz bir savoliga javob olish uchun bankning barcha

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizom" loyihasining "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida nizom"ning birinchi bandi uchinchi xat boshidan olindi.

bo'limlari mutaxassislari bilan so'zlashishiga to'g'ri keladi. Mijoz vaqti, telefon aloqa xizmati uchun mijoz tomonidan to'lanadigan summa hisobga olinmaydi.

Demak, moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bank mijozlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, moliyaviy faollikni oshirish uchun muhim bosqich sanalish bilan birga, mijozlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Ya'ni, raqamli banklarning istiqbollardan biri, bu moliyaviy tarmoqlarni raqamlashtirish evaziga xizmatlar tannarxi 40-60 foizgacha pasaytirilishiga erishiladi. Mijozlar bankka tashrifi, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt hamda mablag'larini tejashiga imkon yaratadi.

20.02.2024-yilda "AVO bank" OAJ foizsiz davrga ega AVO platinum kredit kartasini ishga tushirdi. Mahsulot har bir o'zbekistonlik uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etishni hamda moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirishga yordam berishni maqsad qilgan. Qiziqarlisi, bank AVO platinum kredit kartasini ishga tushirish bilan birgalikda O'zbekiston bozorida analogi bo'lmagan bonus dasturini taqdim etmoqda. Bankning mobil ilovasi orqali raqamli identifikatsiyadan o'tgan har bir mijoz bepul virtual kartadan tashqari, bonus hisobiga 250 000 so'm ham oladi. Ushbu bonuslar kommunal xizmatlar, mobil aloqa va bank komissiyalari kabi kundalik xarajatlarni qoplash uchun ishlatilishi mumkin.

Bundan tashqari, mijozlar istalgan paytda do'stlari va tanishlarini AVO bankning raqamli moliyaviy xizmatlaridan foydalanishga taklif qilish orqali bonus balanslarini to'ldirishlari mumkin bo'ladi. AVO platinum kredit kartasi qator afzalliklarga ega bo'lib, masalan, imtiyozli davrda karta orqali amalga oshirilgan xaridlar uchun foizlar olinmaydi. Individual kredit limiti 50 000 000 so'mgacha hisoblanadi, virtual karta esa bepul chiqariladi. Shuningdek, AVO platinum kredit kartasidan nafaqat kredit karta sifatida, balki, undan shaxsiy mablag'larni saqlash va sarflash uchun ham foydalanishingiz mumkin. Bundan tashqari, kredit limiti qarzdorlik so'ndirilishi bilanoq qayta tiklanadi, ya'ni keyingi limitni olish uchun takroriy so'rovlar yuborishingiz ham shart emas.

Xulosa va takliflar. «Kursiv» tadqiqoti statistika ma'lumotlarini o'rganish natijasida aniqlanganidek, neobanking O'zbekiston moliyaviy texnologiyalarining eng tez rivojlanayotgan segmentidir. 2027-yilga borib ushbu sohadagi bitimlar hajmining uch baravardan ko'proq o'sishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, kamtarona imkoniyatlarga qaramay, raqamli banklar har qanday boshqa fintech sanoatiga qaraganda bir foydalanuvchi uchun ko'proq daromad to'playdi. Taklif o'rnida esa quyidagilarni inobatga olish lozim.

1. **Moliyaviy savodxonlikni oshirish:** Aholini, ayniqsa, qishloq joylarda raqamli bank xizmatlari va ularning afzalliklari haqida ma'lumot berish uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha umummilliy dasturlarni amalga oshirish.

2. **Kiberxavfsizlikni kuchaytirish:** raqamli bank tizimlari va foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish uchun mustahkam kiberxavfsizlik choralari sarmoya

kiriting. Ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun muntazam xavfsizlik tekshiruvlarini o'tkazish va ko'p faktorli autentifikatsiyani amalga oshirish.

3. Xarajatlarni kamaytirish: raqamli bank xizmatlaridan aholi uchun yanada qulayroq qilish uchun tranzaksiya xarajatlari va to'lovlarni kamaytirish yo'llarini topish.

4. Innovatsiyalarni rag'batlantirish: raqamli bank sohasida innovatsiyalarni rivojlantirish uchun sun'iy intellekt va blokcheyn kabi rivojlanayotgan texnologiyalar bo'yicha tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash. Yangi mahsulot va xizmatlarni kashf qilish uchun fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilish.

Ushbu takliflarni ko'rib chiqish orqali O'zbekiston raqamli bankingni joriy etishni tezlashtirishi, moliyaviy inklyuzivlikni rag'batlantirishi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin. Kuchli va inklyuziv raqamli bank sektori jismoniy shaxslar, biznes va umuman iqtisodiyotni o'sishiga ijobiy turtki beradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga
2. Murojaatnomasi // Murojaatnoma 2020-yil 25-yanvar
3. Khudoykulov, H. A., & Sherov, A. B. (2021). DIGITAL ECONOMY
4. DEVELOPMENT IN CORPORATE GOVERNANCE OF JOINT STOCK
5. COMPANY. Экономика и бизнес: теория и практика, (3-2), 217-219.
1. Маткулиева, С., & Атабаева, К. (2022). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ БАНКОВСКИХ
6. УСЛУГ В РАЗВИТИИ ОТРАСЛЕЙ И ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ. Scientific
7. progress, 3(2), 360-363.
1. Шеров, А. (2017). Олий таълим муассасаларига бюджетдан ташқари
8. маблағларни жалб этишни такомиллаштириш. " Biznes-Эксперт", (3 (111)), 3.
1. Gontar A.A. Digital banking as one of the components of the economic security of
- a credit organization// Bulletin of the Volzhskiy University im. VN Tatishcheva. –
2017. – Т.1. - no. 4
2. А. Б. Шеров, & Ш. Б. Юсупов (2021). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ
- ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕНЕЖНО-КРЕДИТНОЙ ПОЛИТИКИ
- В СТРАНЕ. Scientificprogress, 2 (1), 605-609.
9. Suchat Tungjitnob, Kitsuchart Pasupa, Boontawee Suntisrivaraporn “Identifying
- 10.SME customers from click feedback on mobile banking apps: Supervised and
- semisupervised approaches”. Volume 7, Issue 8, August 2021, e07761
- 11.А. Б. Шеров, & Х. М. Раджабов (2021). КОММЕРЧЕСКИЕ БАНКИ КАК
- 12.СУБЪЕКТ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ.
- Scientific progress, 2 (1), 889-893.
- 13.Thabani Nyoni va boshqalar “The impact of digital banking on the performace of
- 14.commercial banks in Zimbabwe”. IJARIE-ISSN(O)-2395-4396 Vol-6 Issue-6
- 2020
- 15.SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 2 | 2022 ISSN: 2181-1601

16. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 814
17. Bakberganovich, S. A. (2021). Ways to Increase the Efficiency of Financing Higher Education Institutions. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 1(7), 49-56.
18. А. Б. Шеров, & Х. А. Худайкулов (2021). ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ
19. КОММЕРЧЕСКОГО БАНКА НА МИРОВЫХ ФИНАНСОВЫХ РЫНКАХ.
20. *Scientific progress*, 2 (1), 1261-1265.
21. Taylor Nicole Rogers, “Bank of America finally sees mobile deposits surpass inperson transactions,” *The Street*, July 16, 2018
22. Sherov, Alisher Bakberganovich , & Ruzmetova, Gulira’No Atabekovna (2022).
23. O’ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMI BORASIDA AMALGA
24. OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA UNI MOLIYALASHTIRISHNING
25. DOLZARB MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (2), 264-270.
26. www.avo.uz – “AVO bank” OAJning rasmiy sayti
27. www.lex.uz - O’zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

BXHR HUKUMATI IQTISODIY SIYOSATI HAQIDA AYRIM QAYDLAR

G. Rashidova

BuxDU ,2-bosqich magistranti

g.rashidova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida hukumat tomonidan iqtisodiy hayot, moliya tizimi, qishloq xo’jaligi tarmoqlarini rivojlantirish borasidagi amalga oshirilgan ayrim islohotlar adabiyotlar qiyosiy tahlili orqali ochib berilgan.

Kalit so’zlar: hukumat, milliy davlatchilik, respublika, sovetlar, moliya, iqtisodiyot, siyosat, qishloq xo’jaligi, xalq nozirliqi, soliq siyosati, bojxona, savdo-sotiq aloqalari.

O’zbekiston milliy davlatchiligi taraqqiyotida 1920-1924-yillarda mavjud bo’lgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXHR) muhim tarixiy bosqich ekanligi ayni haqiqatdir. O’zbekiston Respublikasida va xorijiy mamlakatlarda BXHR tarixi mavzusi o’zining dolzarbligi bilan tadqiqotchilarni jalb qilib kelmoqda. Biroq BXHRning moliyaviy masalalari mavzusi tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelayotir.

Buxoro amirligi singari Sharq mamlakatlarida xo’jalikning asosiy sohasi qishloq xo’jaligi bo’lib, bu tarmoqning rivojlanishi uchun, avvalo, sun’iy sug’orish inshootlari muhim o’rin tutadi. 1920-yil sentyabr oyi boshlarida Buxoro amirligi tugatilib, uning hududida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topdi.

BXSRda Fayzulla Xo'jayev boshchiligida nozirlar kengashi hukumati tuzilib, alohida «Ziroat ishlari kengashi» (qishloq xo'jalik ishlari nozirligi) tashkil etildi. Mazkur nozirlikni Buxoro jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri Mirzo Abdulrahim Yusufzoda 1920-yil kuzidan 1921-yil yanvariga qadar boshqardi. Yusufzoda Buxoro Respublikasining Afg'onistondagi favqulodda va muxtor elchisi qilib tayinlangandan so'ng, avval Porso Xo'ja, 1922-1923-yillarda esa Safo Jo'raboyev ziroat noziri vazifasida ishladi⁵⁹. Halim Ashurov ziroat nozirining muovini vazifasida ishlab keldi.

Mamlakatda qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: dehqonchilik, (paxtachilik, donli ekinlar va polizchilik), chorvachilik, qorako'lchilik, ipakchilik bo'lgan.

Respublika yillarida qishloq xo'jaligining rivojlanishiga suv tanqisligidan tashqari boshqa ko'pgina omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Amirlik davrida birinchi jahon urushi tufayli qishloq xo'jaligi rivojiga putur yetib, dehqonchilikda hosildorlik juda pasayib ketgandi. Buxoro Respublikasi hukumati o'rnatilgandan keyin dastlabki 2-3 yil dohiliy (ichki) urushlar bilan o'tdi. Istiqloqlchilik harakati yillarida irrigatsiya inshootlari ishdan chiqdi yoki buzib tashlandi, dehqonlarning asbob-uskunalari eskirib qolgandi, ariq va kanallarni loy va xashak bosib, yaroqsiz holda kelgan, hosildor yerlar tashlandiqqa aylangandi. Qizil armiyani boqish uchun dehqonlardan oziq-ovqat mahsulotlarini zo'rlik bilan tortib olinishi ularni yerdan uzoqlashtirdi. Chorvachilikda esa mollar tuyog'i kamayib ketdi.

1921-yilda paxta maydonlari 30 ming tanobgacha tushdi... chorvachilik ham tanazzulga kelgandur. 1890-yilda butun mamlakatda turli nasl qo'y hamda echkilar 800 ming adad bo'lsa, 1916-yilda 2,5 mlnga qadar oshg'ondur. Bugun (1923-yil) qo'y va echkilar soni 500 mingdan ortiq emasdur)». 1923-yilga kelib chorva mollarining 1916-yilga insbatan respublikada 5 barobar kamayib ketishi 85-90 foizi ziroatchilik bilan shug'ullanadigan aholining moddiy ahvolini ayanchli holatga tushib qolishiga sabab bo'ldi. Hukumat boshlig'i F.Xo'jayev bejiz: «Biz butun kuchimizni sarmoyadorlar urushi va dohiliy urush (birinchi jahon urushi va istiqloqlchilik harakati) natijasida xarob bo'lg'on qishloq xo'jaligini isloh etishga va jumhuriyatning orqa tayanchi hisoblang'on dehqonlarning moddiy va ma'naviy hollarini yaxshiroq etishga sarf qilishga tegishlimiz⁶⁰»-deb fikr bildirmagandi.

Sanoat mollarining narxi 1923-yilga kelib quyidagicha bo'lgan:

«Xom ipakning o'n qadog'i-3 mln so'm, 1 arshin chit-12 mln so'm, har bir arshin satin-18-20 mln so'm, ko'k va qora choyning har pudi-2 mlrd-2 mlrd. 200 mln. so'm, bir yashik gugurt-600 mln so'm, 1 pud qand-600 mln so'm, kerosin-lampa

59 Хайитов Ш., Рахмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий-сиёсат ва маданий ҳаёт (1920-1924 йиллар). Бухоро-2005. –В.14.

60 Ўша жойда.

yog'i 1 pud-60 mln. so'm, sovunning 1 qadog'i-8 mln so'm va hokazo»⁶¹. Million-million summadagi pul jamg'armalari dehqonlarda mavjud emasdi.

Ma'lumki, qorako'lchilik asrlar bo'yi Buxoroda qishloq xo'jaligining asosiy daromad beradigan tarmog'i bo'lib kelgan. Respublika yillarida qorako'l terilar yetishtirish va ularni xorijga chiqarish ham keskin kamayib ketgan edi. «XX asrning boshlaridan 1913-yilga qadar amirlikda har yili 1.500.000 donadan 2.000.000 donagacha qorako'l teri yetishtirilgan. 1920-yilga kelib bu raqam 200.000 donaga tushib qolgan. Faqatgina 1922-yilda bu sohada bir oz jonlanish bo'lib, 800.000 dona qorako'l terilar yetishtirilgan».

Qorako'lchilik inqiroziga sabab, 1-jahon urushi yillarida (1914-1918-yillar) qo'ylarning qirib yuborilishi, ichki urushlar tufayli qorako'l terilarini xorijga (Rossiya va Germaniya) chiqarishning keskin qisqarishi, davlat tomonidan yuqori boj tizimining joriy qilinganligi kabi omillar salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun manbalarda xususiy tadbirkorlar 1920-1922-yillarda Buxoro qorako'l terisini yashirin ravishda Afg'oniston orqali Angliya bozorlariga chiqarganliklari qayta-qayta ta'kidlanadi.

Paxta yetishtiradigan hududlarda dehqonlarning moddiy ahvoli ham unchalik yaxshi bo'lmay, ular oziq-ovqat mahsulotlaridan qiynalardi. Hukumatning «Mehnat sho'rosi» bo'limi vakillari respublika viloyatlari bo'ylab safarlar davomida dehqonlarga markazdan turib oddiy yordam ko'rsatish masalasini kun tartibiga qo'ygan. Qarshi va Chorjo'y viloyatlaridagi turkman dehqonlarining ahvolini borib ko'rgan Qori Yo'ldosh Po'latov ularga hukumat hisobidan 1923-yilda 10 ming pud bug'doy, 5000 pud jo'xori, 1000 pud mosh, 400 pud kunjut yubordi. Nochor kishilarga 500 bosh qoramol ham tekin berilgan.

Paxtachilik hududlariga imtiyozli baholarda urug'chilik chigiti berilgan. 1914 yilga qadar Buxoroda mahalliy paxta navlari ekilgan. 1914-yildan amerika navlarini ekish ayrim xo'jaliklarda joriy qilingandi. 1923-yildan boshlab Buxoro Respublikasida bu masala yangidan kun tartibiga qo'yildi.

1923-yildan boshlab Buxoro Respublikasida aholidan ushr va zakot soliqlari olish joriy qilingan. Hukumat kambag'al xo'jaliklaridan hamda, paxta ekadigan dehqonlardan soliq olmaydi. Aksincha, olinajak soliqlar kamaytirib borilgan. Soliqning umumiy miqdori (1923-yilda) 500.000 so'mgacha kamaytirildi ⁶²»- deyiladi xabarlardan birida.

Buxoro Respublikasi yillarida izdan chiqqan paxtachilik sohasini yo'lga qo'yish uchun yerlarni sotmoq va sotib olishga ham ruxsat berilgandi. Qishloq xo'jaligiga qarz berish kengaytirib turilgandi.

⁶¹ Раҳмонов К. БХСРдаги қишлоқ хўжалиги муаммоларининг даврий матбуотда ёритилиши. «Ўзбекистон тарихи ёш тадқиқотчилар нигоҳида» (ёш тарихчи олимларнинг илмий мақолалари тўплами). Тошкент – «Ўзбекистон»-2010. -Б.46-50.

⁶² Ш.Хайитов ва б. Бухоро Республикасида солиқ сиёсати. «Бухоронома», 2003 йил, 19 июль.

Biroq 1923-yil kuzida kelib respublikada ekishga yaroqli yer maydonlarining 80 foiziga urug' qadalgandi. (Hukumatga tegishli bo'lgan yerlarning 55 foizi vaqf yerlarining esa 25 foizi ekildi). Holbuki, Buxoro iqtisodiy va madaniy hayotida vaqflarning mavqei yuqori darajada ekanligi ko'pchilikka ayon. Respublikaning rahbarlari qancha urinishmasin, mamlakatda paxta hosili 1-jahon urushidan oldingi darajaga ko'tarila olmadi. Ko'pgina bu sohadagi loyiha va rejalar bajarilmay qolib ketdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Раҳмонов К. БХСРдаги қишлоқ хўжалиги муаммоларининг даврий матбуотда ёритилиши. “Ўзбекистон тарихи ёш тадқиқотчилар нигоҳида”(ёш тарихчи олимларнинг илмий мақолалари тўплами). Тошкент – “Ўзбекистон”-2010.
2. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий-сиёсат ва маданий ҳаёт (1920-1924 йиллар). Бухоро-2005.
3. Ҳайитов Ш. ва б. Бухоро Республикасида солиқ сиёсати. «Бухоронома», 2003 йил, 19 июль.

USE AND SELECTION OF INSTRUCTIONAL MATERIAL AND TEACHING AIDS

*G.Sh. Absalamova,
Samarkand Agroinnovations and
Research University (Phd), Associate Professor,
Department of Fundamental and Humanitarian Sciences
absalamovagulmira88@gmail.com*

We know that teaching and learning are processes. A teacher teaches, and students learn from the teacher. In the process of the teaching and learning process, the teacher uses something to make his teaching and learning process effective. The material and aids that are used by the teacher to make his teaching very effective are called teaching aids and instructional material. Language teaching is not a static process; it is a dynamic process.

Static and Working Modal: Models play important role in the teaching-learning process. Teacher can use models to make his teaching very effective. For example, teacher wants to teach the topic of elephants. He can use both. the static and working models. Working model of an elephant creates primary interest in students. Static modals can be used if a working model is not available. If models are not available, he can use charts, pictures, or drawings.

Film strip, slide projector, OHP, transparency, and episcopes: The teacher can use film strip and slide projector to make his teaching too effective. These aids make students draw their attention very carefully toward teaching. Slides are available in the market and teachers can use them according to the need for content.

Overhead Projector: OHP is the hardware used to project the transparencies. The transparency is a plastic sheet on which the teacher can develop his own material to be presented. The use of OHP by the teacher is good and practical, which helps him make his teaching very interesting and effective.

Episcopes are also known as Epidiascopes. The material on the opaque sheet is projected with the help of this hardware. The teacher can project any material developed on a simple paper sheet. A small picture can be projected through this instructional material.

We are all introduced to a tape recorder or audio cassette player. We use it in our houses and shops to listen to songs. It is also used in the teaching learning process by the teacher. It makes teaching very scientific and effective. In this process, the subject matter is recorded as an audio cassette and played on this machine. The students repeat that subject matter and learn. The learners have an access to native language, and they better drill the pattern in its required form. The teaching activities have become more and more effective and alive.

The radio was a very famous medium of mass media for three decades. It was the first attempt to teach English with the help of the radio. In this source, the teacher has no criteria to select the learning material because whatever is shown is the source.

The language laboratory is the place where the learners have to listen with headphones. The language labs are set up with a view to providing listening activities in order to make them develop good speech habits. The learning material is recorded on audiotapes, which are played back by the teacher and monitored by the mentor. The learner himself records his practice and listens to it.

We know that most classroom teaching is verbal, which cannot make teaching and learning effective. The verbal statements made by the teacher do not help to clarify the view points. At such a stage, audiovisual aids help to clarify the view of the teacher.

Audiovisual aids work as motivators in the teaching learning process. Without the use of these aids, the teaching becomes less alive. While the teacher uses teaching aids to clear his content, students take more interest in that teaching. They mentally prepare for further teaching. They are motivated to work more and more effectively. Motivation, in other words, is the preparatory phase for all acts of learning. Audiovisual aids are helpful in establishing motivation.

A teacher uses teaching aids to make his teaching effective and alive. Use of aids prevents monotony and indiscipline in students because it creates interest in learning something. Thus, it is helpful to make teaching very interesting.

Audiovisual aids involve more than one sensory organ of the learner, which improves retentiveness and makes learning permanent. In audiovisual aids, seeing and

hearing go together, which play extraordinary roles in learning. The aid appeals to those senses that can respond adequately.

When a teacher clears his content verbally or without any teaching aid, it takes more time for students to understand that content. But when it is cleared by using audiovisual aids, it takes less time and makes students understand very easily. It saves more time and energy for teachers and students.

There are aids that provide direct learning experiences for students. Under this category, educational tours, visit to zoo, and museums, taking the students into the community- resources etc. are some of the sources that provide first hand knowledge and serve as important aids for learning.

Teaching and learning are dynamic processes that require the use of teaching aids and instructional material. Models, such as static and working models, are essential in the teaching-learning process. Film strips, slide projectors, overhead projectors, and episopes are used to make teaching more effective and engaging. Tape recorders and audio cassette players are also used in teaching, providing students with access to native language and better drill patterns.

Radios have been used for centuries to teach English, and language laboratories are places where learners listen to audiotapes and practice. Audiovisual aids help clarify the teacher's view and motivate students, making teaching more engaging and motivating. They involve multiple sensory organs, improving retentiveness and making learning permanent.

Using audiovisual aids saves time and energy for both teachers and students. Direct learning experiences, such as educational tours, zoo visits, museums, and community visits, are also important aids for learning. These aids help prevent monotony and indiscipline in students, making teaching more interesting and engaging. Overall, the use of teaching aids and instructional materials contributes to the effective and dynamic teaching and learning process.

REFERENCES

1. Hawkins, M. (ed.). 2004. *Language Learning and Teacher Education: A Sociocultural Approach*. Clevedon: Multilingual Matters.
2. Hinkel, E. 2006. 'Current perspectives on teaching the four skills.' *TESOL Quarterly* 40/1: 109–31.
3. Johnson, K. 2006. 'The sociocultural turn and its challenges for second language teacher education.' *TESOL Quarterly* 40/1: 235–57.
4. Mullock, B. 2006. 'The pedagogical knowledge base of four TESOL teachers.' *Modern Language Journal* 90/1: 48–66.
5. Murray, D. 1996. 'The tapestry of diversity in our classrooms' in K. Bailey and D. Nunan (eds.). *Voices from the Language Classroom*, 434–48. Cambridge: Cambridge University Press.

6. Pennycook, A. 1989. 'The concept of method, interested knowledge, and the politics of language teaching.' TESOL Quarterly 23/4: 591–615.

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA KORXONA BANKROTLIK RISKLARNI BAHOLASH AMALIYOTI TAHLILI

H.U. Umarova,

BuxDU Iqtisodiyot va turizm fakulteti

Raqamli iqtisodiyot mutaxassisligi 2-kurs magistranti

h.u.umarova@buxdu.uz

Annotasiya. Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlarda bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari va ularni hisoblash usullari bayon etilgan. Xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda rivojlangan davlatlar bankrotlik risklarni baholash amaliyoti tahlili jarayonlarining asosiy elementlari tadqiq etilgan.

Kalit soʻzlar: Bankrotlik, moliyaviy tahlil, bankrotlik riski, optimal modellar, statistik tahlil, diskriminant tahlil, baholash.

Kirish. Jahon amaliyoti keskin raqobat sharoitida har bir korxonada oldiga nafaqat bugungi kunda, balki istiqbolda ham bozordagi oʻrnini saqlab qolish hamda kengaytirishni shart qilib qoʻymoqda. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, korxonada bu -huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xoʻjalik faoliyati yurituvchi subʼekt boʻlib, oʻziga tegishli boʻlgan mol-mulkidan foydalanish asosida isteʼmolchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish maqsadida maqsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Mamlakatimizda biznes subyektlari mikro, kichik, oʻrta va yirik toifalarga boʻlindi va ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimi yoʻlga qoʻyildi” degan soʻzlari tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilayotganidan dalolat beradi.

Rivojlangan davlatlarda risklarni baholash, asosan uchta usul orqali amalga oshiriladi:

1. Statistik maʼlumotlar asosida yuzaga keladigan axborotlarni oldinigi yilga nisbatan tahlil qilish;

2. Nazariy jihatdan tahlil qilish;

3. Ekspertlar orqali umumiy hulosalar chiqarish. Bunda juda koʻp omillarni hisobga olinadigan murakkab jarayonlarni tahlil etishga moʻljallangan. Ushbu usullar diskriminant tahlilining statistik usullariga asoslangan.

Iqtisodiyot nazariyasida reyting asosidagi bir qator modellar usuli ishlab chiqilgan boʻlib, ulardan quyidagilar hisobga olinadi. Moliyaviy tavakkalchilik tahlili Konan M

va J.Holder ga asoslangan ballar usuli (Z) yordamida amalga oshiriladi. J. Holder modeli, bankrotlik xavfini baholash uchun va u quyidagi formulaga asoslanadi:

$$Z = 0,24 \times X1 + 0,22 \times X2 + 0,16 \times X3 - 0,87 \times X4 - 0,1 \times X5$$

Bunda X1.....X 5 o'zgaruvchilar iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlar konstantalar bilan ular kuchaytirilgan statistik ko'rsatkichlar bo'lib, bankrotlik xavfini baholashda o'zgaruvchilarning foizini ifodalaydi.

$$Z = 0,24 \times X1 + 0,22 \times X2 + 0,16 \times X3 - 0,87 \times X4 - 0,1 \times X5$$

Bunda X1.....X 5 o'zgaruvchilar iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlar, konstantalar esa bilan bankrotlik riskini baholashda o'zgaruvchilarning foizini ifodalaydi.

X1	Yalpi operatsion profitsit / Jami qarzar Yalpi operatsion profitsit = operatsion daromad -operatsion xarajatlar Yalpi operatsion profitsit / Jami qarzar Yalpi operatsion profitsit = operatsion daromad -operatsion xarajatlar
X2	Doimiy kapital / Jami aktivlar Doimiy kapital = o'z kapitali + qarzar > 1 yil
X3	Aylanma aktivlar - Aksiyalar / Jami aktivlar Aylanma aktivlar - Aksiyalar / Jami aktivlar
X4	Moliyaviy xarajatlar / aylanma
X5	Xodimlar xarajatlari / aylanma

Bankrotlik riskining talqini quyidagicha amalga oshiriladi:

Ball qiymati	Korxonaning holati	Bankrotlik riskining ehtimoli
$Z \geq 0,16$	Juda yaxshi	10%dan kam
$0,1 < Z \leq 0,16$	Yaxshi	10%-30%
$0,04 < Z \leq 0,1$	Kuzatuv ostida	30%-65%
$Z \leq 0,04$	Xavf	65%-90%

Altman modeli

Ushbu model asosan sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladi va quyidagi funksiyaga asoslanadi:

$$Z = 3,3 \times R1 + 1,0 \times R2 + 0,6 \times R3 + 1,4 \times R4 + 1,2 \times R5$$

R1 - iqtisodiy rentabellik koeffitsienti	Yalpi natija / Jami aktivlar
R2 - aktivlarning aylanish tezligi	Aylanma / Jami aktivlar

R3 - moliyaviy avtonomiya Kapital / Jami qarzlar	Kapital / Jami qarzlar
R4 – qayta investitsiya qilingan foyda nisbati	Qayta investitsiya qilingan foyda / Jami aktivlar
R5 - aylanma mablag'lar nisbati	Aylanma aktivlar / Jami aktivlar

Ko'rsatkichlarning mazmuniga ko'ra, agar ma'lumotlar kattaroq mutlaq qiymatni qayd etsa, ularning darajalari yanada yaxshi bo'ladi. Shuning uchun Z ball quyidagicha talqin qilinadi:

- Z 1,8 dan past yoki teng bo'lsa, bankrotlik holati yaqinlashadi;
- Z 3 dan yuqori bo'lsa, moliyaviy ahvol yaxshi
- Z 1,8 dan 3 gacha bo'lsa, korxonaning moliyaviy ahvoli aniq kamaygan va bankrotlik holati ko'rsatkichlariga yaqin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tavakkalchilikni batafsil tahlil qilish bugungi kunda biznes-loyihani ko'rib chiqish bosqichidagi ko'plab korxonalar uchun dolzarb ekanligini ta'kidlash kerak. Hozirgi vaqtda bankrotlik riskini baholash rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy mexanizmida mustahkam o'rin egalladi.

Bankrotlik riskiga qarshi turish uchun takliflarning asosiy usullari:

-Risklardan qochish xavfni yaxshi ko'rmaydigan odamlar bu usuldan foydalanadilar. Masalan: korxonaning to'lov qobiliyatiga shubha tug'ilgan kontragent bilan shartnomani yangilamaydi; korxonaning o'zining eksport operatsiyalarini amalga oshiradigan valyutada kredit olishni afzal ko'radi

-Risklarni himoya qilish. Bu xavf-xatarni to'xtatish yoki sug'urtalashni anglatadi va xavfning salbiy oqibatlarini kamaytirish yoki qoplash mumkin bo'lgan chora-tadbirlar majmuidir: opsiyonlar, fyucherslar, forvardlar.

-Xavfni uzatish. Usulning mohiyati shundan iboratki, qaror qabul qilgan shaxs xavfni o'z zimmasiga olishni istamaydi, balki ma'lum shartlar ostida uni boshqa shaxsga o'tkazishga tayyor. Xatarlarni o'tkazishga misol - sug'urta.

Har bir aniq qarorni qabul qilish jarayonida xavfning "mintaqalari" ni ajratish va ajratib ko'rsatish va ularni moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida mumkin bo'lgan, kutilayotgan yo'qotishlar darajasiga qarab tartiblash muhim va tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.

2. Артамонова, Н. А. Методы оценки предпринимательских рисков / Н. А. Артамонова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 22 (156)—С.237-240. URL: <https://moluch.ru/archive/156/43943/> (дата обращения: 01.04.2024)

3. Assessment of the risk of bankruptcy of the enterprise Jan, 20 2023
4. Iqtisodiyot Transdisiplinarlik bilish www.ugb.ro/etcjild. XIV,1/2011-son 2023y 248-259.
5. Интернет ресурс: Оценка вероятности банкротства. – URL: <https://finzz.ru/modelibankrotstva-zarubezhnyx-predpriyatij-4-mda-modeli.html>
6. *Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va risklarni baholash usullari*. II Turaevich, JM Annaqulovich. Science and Education 3 (5), 1646-1654, 2022.
7. Niyozova, I. (2021). The Transition To The Green Economy And The Importance Of Strategy. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 8(8).
8. Niyozova, I. (2021). Mechanism Of Implementation Of Mandatory Health Insurance In Uzbekistan Under Conditions Of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).
9. Rakhmatullaeva, F. M., & Nishonova, Z. A. (2017). Agrotourism And Its Influence On The Economy Of Agro-Industrial Complex. In Современное Экологическое Состояние Природной Среды И Научно-Практические Аспекты Рационального Природопользования (Рр. 1918-1919).
10. Абдуллоев, А. Ж., Таирова, М. М., & Аминова, Н. Б. (2020). Environmentally Friendly And Sustainable Supply Chain Management In The Platform Economy. Economics, (3), 23- 25.
11. Kayimova, Z. A., & Tairova, M. M. (2016). Investment Activity Of Commercial Banks Of The Republic Of Uzbekistan.
12. Giyazova, N. B., Bakayeva, M. A., & Giyazov, B. B. (2022). Public Financial Control Policy And Its Theoretical Foundations. *Miasto Przyszłości*, 128-130.
13. Giyazova, N. B., & Giyazov, B. B. (2022). Importance Of The Textile Industry: The Situation In Uzbekistan And The Legal Framework. *Miasto Przyszłości*, 78-81.

TADBIRKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNING O`RNI

L.B. Navruz-zoda,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
Z.G'. Ro`zimurodova,
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti
z.g.rozimurodova@buxdu.uz

Jahonda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholini iqtisodiy salohiyati va farovonligini oshirish, ularning bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik alohida o'rin tutadi. "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma'limotlariga ko'ra Yaponiya va Xitoy iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 60 foiz,

Frantsiyada – 56 foiz, AQSh va Buyuk Britaniyada – 51 foizni tashkil etadi”. Pandemiya davrida iqtisodiyot bilan bog‘liq muammolarni hal etish uchun xorijda sinalgan zamonaviy usullar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini sifat jihatidan yuksaltirishda ularning iqtisodiy salohiyati, innovatsion faoliyati, investitsion jozibadorligi, raqamlashtirish mexanizmi, raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada kichik biznes sub’ektlari ishtirokida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning institutsional asoslarini yaratish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini tashkil etish va boshqarish strategiyasini ishlab chiqish kabi yo‘nalishlardagi faoliyatlariga alohida diqqat qaratilmoqda.

O‘zbekistonning iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son Farmonida “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, biznes muhiti va zarur infratuzilma yaratish asosida milliy iqtisodiyotni, uning o‘sish sur‘atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish”, zarurligi belgilandi. Ushbu muhim vazifani amalga oshirish uchun kapitalning biznesga aylanishining shart-sharoitlari, iqtisodiy sabablari va biznesni vujudga kelishi, tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash va ularning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab berish juda dolzarb hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida kichik biznesni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va uning tashqi savdo aloqalariga kirishini rag‘batlantirish uchun turli qo‘llab-quvvat chora-tadbirlarini amalga oshirishga imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida insonning iqtisodiy resurs sifatidagi salohiyati uning tadbirkorlik qobiliyati hisobidan kengayadi. Kishi mehnat qobiliyati bilan birga tadbirkorlik qobiliyatini ham jamiyat manfaatida to‘liq va samarali ro‘yobga chiqargan taqdirdagina tovarlarning real nafliligi va nominal foydaliligini yaratish jarayonida faol qatnashadi. Mehnat va tadbirkorlik bozorgir tovarlarni yaratish manbalariga aylanadilar. Bu manbalarning mohiyatini yoritish uchun kapitalning biznesga aylanish jarayonini tadqiq etish zarur bo‘ladi. Zeroki ishlab chiqarishning shaxsiy-insoniy omili sifatidagi tadbirkorlik qobiliyatining shakllanishi aynan biznes atamasining vujudga kelishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, globallashtirish jarayonlarining tezlashishi, jahon iqtisodiyotida raqobatning keskinlashuvi mamlakatlarni innovatsion faoliyatga katta e‘tibor qaratilishiga va ilmiy tadqiqot hamda ishlanmalar ko‘lamini oshirishga olib kelmoqda. Dunyo aholisi soni va bu bilan barobar ehtiyojlarning ortib borishi, resurslar hajmi esa yildan-yilga kamayib borayotganligi iqtisodiyot oldida turgan dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu muammoning yechimi innovatsion iqtisodiyotning

mamlakatlar ichki va tashqi iqtisodiyotiga joriy qilinishi bilan bevosita bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda, ko'pchilik taraqqiy qilgan mamlakatlar davlat budjetining katta qismini, hamda ichki va xorijiy investitsiyalarning asosiy ulushini aynan ushbu sohaga yo'naltirmoqdalar (1-jadval).

1-jadval

2020-2021 yillarda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar uchun eng ko'p pul ajratayotgan mamlakatlar o'nligi

T/r	Mamlakatlar	2020			2021		
		YaIM (PPP) mlrd. AQSh dollari	YaIMga nisbatan R&D* ning % dagi ulushi	R&D uchun xarajatlar o'sishi (PPP) mlrd. AQSh dollari	YaIM (PPP) mlrd. AQSh dollari	YaIMga nisbatan R&D ning % dagi ulushi	R&D uchun xarajatlar o'sishi (PPP) mlrd. AQSh dollari
1	Xitoy	29010,7	1,98	574,4	31389,6	1,98	621,5
2	AQSh	20145,1	2,88	580,2	20789,7	2,88	598,7
3	Yaponiya	5174,2	3,50	181,1	5210,4	3,50	182,36
4	Germaniya	4283,5	2,84	121,65	4480,5	2,84	127,25
5	Hindiston	9991,1	0,86	85,92	10870,3	0,86	93,48
6	Janubiy Koreya	2002,6	4,35	87,11	2102,7	4,35	91,47
7	Fransiya	2864,7	2,25	64,46	2,979,3	2,25	67,03
8	Rossiya	3927,7	1,5	58,92	4037,7	1,5	60,57
9	Buyuk Britaniya	2876,7	1,73	49,77	2983,1	1,73	51,61
10	Braziliya	3199,3	1,16	37,11	3288,9	1,16	38,15

Izoh: *PPP (Purchasing power parity) - Sotib olish qobiliyati pariteti

*R&D (Research and development) - Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar

Ushbu ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar uchun eng ko'p pul ajratayotgan mamlakatlar o'nligi bugungi jahon iqtisodiyotida o'zlarining innovatsion mahsulotlari va innovatsion xizmatlari bilan asosiy o'rinni egallab kelmoqdalar.

Shuningdek, jahon intellektual mulk tashkiloti har yili 132 mamlakatlar o'rtasida "Global innovatsion indeks" reytingini aniqlab boradi. COVID-19 ning salbiy ta'siriga qaramasdan, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarga asoslangan tarmoqlarda 2021 yilda ham o'sishga erishilgan. Innovatsiyalar bugungi dunyo iqtisodiyoti duch kelayotgan muammolarga qarshi kurashishning eng samarali yo'li hisoblanadi.

Xususan, pandemiya ta'sirlarini yumshatish bilan bog'liq iqtisodiy chora-tadbirlar ishlab chiqishda global innovatsiyalar indeksi reytingi asosiy vosita hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval

2021 yilgi Global innovatsion indeks reytingi

GII dagi o'rni	Mamlakatlar	Indeks ko'rsatkichi
1	Shveysariya	65,5
2	Shvesiya	63,1
3	AQSh	61,3
4	Buyuk Britaniya	59,8
5	Janubiy Koreya	58,6
6	Niderlandiy a	57,8
7	Finlandiya	57,3
8	Singapur	55,0
9	Daniya	54,8
10	Germaniya	54,5
45	Rossiya	36,6
79	Qozog'iston	28,6
86	O'zbekiston	27,4

9 8	Qirg'iziston	24,5
1 0 3	Tojikiston	23,9

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-son "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmonining asosiy maqsadi 2030 yilga borib mamlakatimizni global innovatsiyalar indeksi reytingida dunyoning etakchi 50 ta mamlakatlari qatoriga kiritishdan iborat. Olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida, O'zbekiston Respublikasi ushbu ro'yxatda 2015 yildagi 122-o'rindan 2021 yilga kelib 86-o'ringa ko'tarilishiga erishildi. Shunga qaramasdan, yuqoridagi jadvallarga asosan, yetakchi mamlakatlar bilan qiyoslaganda O'zbekistonda ilm-fanga ajratilgan mablag'larning YaIMga nisbatan ulushi ancha kam, ya'ni, 2013 yilda 0,20%, 2015 yilda 0,17%, 2017 yilda 0,16% va 2020 yilda 0,20% ni tashkil qilgan.

2020 yil 29 oktyabrda qabul qilingan PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmonida ilm-fanga ajratilayotgan mablag'larning YaIMga nisbatan ulushini 2021 yilda 0,5%, 2025 yilgacha 1,2% va 2030 yilga borib 2% ga yetkazilishi belgilab berilgan.

Muhtasar qilib aytganda, innovatsiyaga asoslangan iqtisodiyotga erishishda yetakchi mamlakatlar tajribasidan unumli foydalangan holda, milliy tizimga mos innovatsion yo'nalishlarni tanlash maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, kadrlar, menejmenti va mehnat kapitali bilan bog'liq tashkiliy innovatsiyalar kommersiyasi hamda venchur kapitali va jamg'armalari kabi zamonaviy innovatsiyalar mavjud ekan, albatta tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarning o'rni ahamiyatli bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – B. 44-45.
2. Maxmudov E.X., Isakov M.Yu. Biznes – rejalashtirish. O'quv qo'llanma – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil. - B. 11.
3. Axmedov D.Q., Kasimov O.M. Biznes muhiti: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2019. - B. 16.
4. Алиев Я.Э. Инновацион иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2019. – 124 б.
5. Давыденко Е. В. Проблемы модернизации и перехода к инновационной экономике. Проблемы современной экономики, N 2 (50), 2014. УДК 338.221 (99); ББК 65. – Б. 23-26. Ахmatova M. Анализ транспортных услуг и

мобильности к достопримечательностям Бухарской области //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 37. – №. 37.

6. Axmatova M. INTERNATIONAL CONNECTION OF TOURISM AND TRANSPORT SERVICES //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 37. – №. 37.
7. Axmatova M. TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARI BILAN BOG ‘LIQ MUAMMOLAR VA ULARGA INNOVATSION YECHIMLARI //DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 58-65.

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ADAPTATION PROCESSES OF FOREIGN STUDENTS STUDYING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

*S.H.Kamolova,
Bukhara state university
Second year master’s student
s.h.kamolova@buxdu.uz*

Abstract: Adapting to a new educational environment can be a challenging experience for foreign students studying in higher education institutions. This paper explores the social and psychological characteristics of the adaptation processes of foreign students, focusing on factors such as cultural adjustment, social integration, psychological well-being, and coping strategies. Understanding these complexities is crucial for providing effective support and resources to promote the successful integration and academic success of international students.

Keywords: International students, higher education, cultural adjustment, social integration, psychological well-being, coping strategies.

Adapting to a new educational environment can be a challenging experience for international students in higher education institutions. (Dorozhkin & Mazitova, 2008) (Khodabandelou et al., 2015). Adapting to a new educational environment can be a challenging experience for foreign students studying in higher education institutions. This is especially true for international students who may face cultural, social, and psychological barriers when transitioning to a new academic and social setting. Understanding the social and psychological characteristics of the adaptation processes of foreign students is crucial in order to provide effective support and resources for their successful integration into the higher education system. In this paper, we will explore the various factors that influence the adaptation of foreign students and examine potential strategies to promote their well-being and academic success. Some potential

factors that may impact the adaptation process of foreign students include language barriers, cultural differences, homesickness, social isolation, discrimination or prejudice, academic pressure, and financial concerns. Foreign students often face language barriers, which can hinder their academic and social integration. Not being able to fully understand lectures, participate in discussions, or express themselves clearly can lead to feelings of frustration and isolation. Additionally, cultural differences can contribute to a sense of alienation and disconnection from the broader student body. It's important to consider the impact of homesickness and the challenges of being far away from familiar support networks. Social isolation, discrimination, and prejudice can also significantly affect a student's mental well-being and academic performance. Moreover, the pressure to excel academically while also dealing with financial concerns adds an extra layer of stress to their adaptation process.

The pursuit of education knows no borders, as students from around the globe seek academic excellence in foreign lands. Higher education institutions have become melting pots of cultures, hosting a diverse array of students (Marginson, 2012). Among them, international students stand out, bringing with them not only their academic aspirations but also their unique social and psychological landscapes (Ward, Bochner, & Furnham, 2001). The adaptation journey of these students is a multifaceted process influenced by various factors, encompassing cultural, social, and psychological dimensions (Ward & Kennedy, 1999).

Understanding these complex social and psychological characteristics is essential to developing effective support systems for foreign students. By addressing these challenges, higher education institutions can create a more inclusive and welcoming environment, ultimately enhancing the overall academic experience for international students. In the following sections, we will delve deeper into each of these factors and explore specific strategies to help foreign students overcome these obstacles and thrive in their new educational environment.

Cultural Adjustment:

One of the foremost challenges faced by international students is cultural adjustment (Ward & Kennedy, 1999). Moving to a new country entails navigating unfamiliar customs, languages, and societal norms (Ward, Bochner, & Furnham, 2001). The initial phase often involves a honeymoon period, characterized by excitement and novelty (Berry, 1997). However, as reality sets in, cultural differences may lead to feelings of disorientation and isolation (Ward, Bochner, & Furnham, 2001). This phase, known as culture shock, can manifest in various ways, including homesickness, communication barriers, and difficulties in understanding academic expectations (Ward & Kennedy, 1999).

Social Integration:

Social integration plays a pivotal role in the adaptation journey of international students (Smith & Khawaja, 2011). Building meaningful connections with peers, faculty, and the local community fosters a sense of belonging and support (Ward,

Bochner, & Furnham, 2001). However, forging social bonds across cultural boundaries can be daunting (Berry, 1997). Language barriers, cultural differences, and self-doubt may hinder interpersonal relationships (Ward & Kennedy, 1999). Consequently, many international students grapple with feelings of loneliness and alienation, longing for a sense of belonging in their new environment (Ward & Kennedy, 1999).

Psychological Well-being:

The psychological well-being of international students is intricately linked to their adaptation experiences (Smith & Khawaja, 2011). The stressors associated with cultural adjustment and social integration can take a toll on mental health (Ward & Kennedy, 1999). Feelings of anxiety, depression, and self-doubt are not uncommon among this demographic (Wei et al., 2012). Moreover, the pressure to excel academically while navigating a foreign environment adds another layer of complexity to their psychological well-being (Smith & Khawaja, 2011). Furthermore, the pressure to excel academically in an unfamiliar educational system adds another layer of complexity to the psychological well-being of international students (Smith & Khawaja, 2011). The expectations for academic performance, often coupled with language barriers and differences in educational practices, can create significant stress and feelings of inadequacy. International students may experience heightened levels of academic pressure due to factors such as visa requirements, financial investments, and career aspirations, further impacting their mental health and well-being (Altbach & Knight, 2007).

Coping Strategies:

Despite the myriad challenges, international students exhibit remarkable resilience in their adaptation journey (Smith & Khawaja, 2011). Drawing upon their strengths and support networks, they employ various coping strategies to navigate the complexities of their new environment (Ward & Kennedy, 1999). Seeking social support, engaging in cultural exchange programs, and participating in campus activities are some proactive measures adopted by international students to facilitate adaptation (Smith & Khawaja, 2011). Additionally, cultivating a sense of cultural competence and openness to new experiences enhances their ability to thrive in diverse settings (Berry, 1997).

In conclusion, the adaptation journey of international students in higher education institutions is a complex process influenced by a myriad of factors, including cultural adjustment, social integration, psychological well-being, and coping strategies. Foreign students encounter various challenges as they navigate unfamiliar cultural landscapes, language barriers, and academic expectations. However, understanding these challenges is crucial for providing effective support and resources to facilitate their successful integration into the academic community.

Cultural adjustment poses significant hurdles for international students, often leading to feelings of disorientation and isolation during the initial phases of transition. Social integration plays a pivotal role in fostering a sense of belonging and support, yet language barriers and cultural differences can hinder interpersonal relationships. The

psychological well-being of international students is closely intertwined with their adaptation experiences, with stressors such as academic pressure and cultural adjustment contributing to anxiety, depression, and self-doubt.

Despite these challenges, international students demonstrate remarkable resilience and employ various coping strategies to navigate their adaptation journey. Seeking social support, engaging in cultural exchange programs, and cultivating cultural competence are proactive measures adopted by foreign students to facilitate adaptation and enhance their overall well-being.

REFERENCES

1. Marginson, S. (2012). The globalization of higher education and society. In S. Marginson (Ed.), *International handbook of higher education* (pp. 1-26). Springer.
2. Maftuna Shuxratovna Baqoyeva (2022). CHET TILINI O'RGANISHDA MOTIVATSIYA VA MUNOSABATNING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI. *Oriental Art and Culture*, 3 (4), 423-429.
3. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=12107728328657898720&btnI=1&hl=en>
4. Бакоева М.Ш. (2021) ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИ "ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗУЧЕНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА" Volume 23 Pages 44-48 <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=8912651772942993969&btnI=1&hl=en>
5. Ward, C., Bochner, S., & Furnham, A. (2001). *The psychology of culture shock* (2nd ed.). Routledge.
6. Ward, C., & Kennedy, A. (1999). The measurement of sociocultural adaptation. *International Journal of Intercultural Relations*, 23(4), 659-677.
7. Berry, J. W. (1997). Immigration, acculturation, and adaptation. *Applied Psychology*, 46(1), 5-34.
8. Smith, R. A., & Khawaja, N. G. (2011). A review of the acculturation experiences of international students. *International Journal of Intercultural Relations*, 35(6), 699-713.
9. Ward, C., & Kennedy, A. (1999). The measurement of sociocultural adaptation. *International Journal of Intercultural Relations*, 23(4), 659-677.
10. Ward, C., Bochner, S., & Furnham, A. (2001). *The psychology of culture shock* (2nd ed.). Routledge.

“BAHR AL-FAVOID” DA HANAFIYA QOIDALARINING AKS ETISHI

Sh.Sh.Saidov,

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Bakr Kalabodiyning hanafiy olim ekanligi, hamda “Bahr Al-Favoid” asarida hanafiya qoidalarining aks etilishi haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar. Abu Bakr Kalabodiy, “Bahr al-favoid” asari, Hanafiy mazhabi

Abu Bakr Kalabodiyning fiqhiy mazhabi. Muhaddis, usul imomi, fazilatli shayx, o’z asrining imomi laqabini olgan Abu Bakr Muhammad ibn Ibrohim Kalabodiy o’rta osiyodan etishib chiqqan buyuk hanafiy olimlaridan sanaladi. Alloma Abu Xafs Kabir, Abu Xafs Sag’ir kabi buyuk hanafiy ulamolari maskan tutgan Buxoro zaminida tug’ilib o’sha erda vafot etgan. Bu zotni mazhabi hanafiy mazhabi ekanligiga ulamolar ittifoq qilishgan. Hanafiy ulamolarining tarjimai hollari zikr qilingan “Al-javharulul muziyya fi taboqotil hanafiyya” hamda “ Al-fuadul bahiyya fi tarojimil hanafiyya” asarlarda allomani tarjimai hollari zikr qilinishi u kishini hanafiy mazhabida bo’lganligini quvvatlaydi. Abu Bakr Muhammad ibn Ibrohim Kalabodiy o’zining mashhur “Bahrul favoid” asarida bir necha o’rinlarda to’xtalib o’tgan fiqhiy boblari allomani hanafiy mazhabi sohibi ekanligini to’la ravshanlashtiradi.

Shu o’rinda aytib o’tish kerakki, allomani yuqorida zikr qilingan asarida fiqhga oid “Imomlarni tartiblash” bobi borki, bu bobda allomani hanafiy mazhabiga juz’iy ixtiloflari mavjud, ammo bu juz’iy ixtilof bu zotni hanafiy ekanliklariga putur etkazmaydi. Quyida zikr qilingan bob bilan tanishsak.

Imomlarni tartiblash bobi Amr ibn Zubayr Oisha va Abu Hurayra roziyallohu anhumalarning, Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning “Qavmga ularning ichidan Allohning kitobiga qorirog’i imom bo’ladi. Agar qiroatda borobar bo’lsalar, Allohning dinida faqihrog’i. Agar fiqhda ham barobar bo’lsalar, yoshi kattarog’i. Agar yoshda ham teng bo’lsalar, yuzlari jamolli va chiroylirog’i. Agar jamol va chiroyda ham barobar bo’lsalar, [o’ylaymanki quyidagini aytdi] chiroyda a’lorog’i bo’ladi“deb aytayotganlarini eshitganliklarini rivoyat qildi.

Shayx aytdi: “Nabiy sollallohu alayhi va sallam imomlarni mana shunday tartiblab, a’losini muqaddam qo’ydilar. Sababi, imomlik Nabiy sollallohu alayhi va sallamning o’rinbosarlari bo’lish demakdir. Zero u kishi butun insoniyatning qiyomat kunidagi imomidir. U zot sollallohu alayhi va sallam aytadilar: “Odam va undan boshqalar mening bayrog’im ostida bo’ladi. Faxrlanish yo’q”. Huddi shuningdek, namoz vaqtida dunyodagi imomlari ham edilar.

Demak, U zotdan so’ng imomlik manzili eng yaqinrog’i va martabasi u zotga o’xshashrog’ida bo’lishi kerak. Bandalarning martabasi ulug’i va manzili oliysi Allohni tanigadidir.

Insonlar bu borada ikki turlidir:

1. Allohning zotini tanuvchi,
2. Allohning sifatlarini tanuvchi.

Allohning zotini tanish - rasul, anbiyolar, siddiq va avliyolarning martabasidir. Bu boradagi ularning sayyidi Rasulullohdir. U Zot aytadilar: “Men qiyomat kunida insonlarning sayyidiman. Faxrlanish yo’q“. Alloh ta’olo aytadi: “Bas, (ey, Muhammad,) Allohdan o’zga iloh yo’q ekanini biling va o’z gunohingiz uchun hamda mo’min va mo’minalar(ning gunohlari) uchun mag’firat so’rang! Alloh sizlarning (bu dunyodagi) kezadigan joylaringizni ham, (oxiratda) boradigan joylaringizni ham bilur. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdi: “Men Allohni sizlardan bilguchiroqman”.

Ali roziyallohu anhu U zotni sifatlab, oxirida aytdilar: “U Zotni vaflovchilar men avval ham keyin ham uning mislini ko’rmadim”.

Demak, ularning orasidagi chiroyli yuzli va suratlisi U zotga yaqinroqdir va U zotning o’rinbosarlari bo’lishga a’lodir. Gohida go’zallik va husn yuzga nisbatan bo’ladi. Ochiq chehrali va istarasi issiqlik suratga nisbatan bo’lmaydi. Kim ochiq chehra bo’lsa, insonlar u bilan birga ulfat bo’ladi va tabiatlari tortadi. CHunki bu uning xulqi go’zalligining alomatidir.

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: "Qiyomat kuni menga eng yaqin bo’ladiganingiz xulqi go’zalingizdir».

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Mo’minlarning iymoni eng mukammali xulqi eng go’zal bo’lganidir, men sizlarning ichingizda ahliga go’zal xulqrog’ingizman”, dedilar.

Umar ibn Abdulaziz Hasan Basriy rohimahullohga “Meni bir qavmga ro’baro qiling-ki ulardan musulmonlarni ishlari borasida maslahat, yordam olay” deb maktub yozdi. SHunda Hasan Basriy u kishiga “Ey mo’minlar amiri oxirat ahllari sizni xohlamaydilar, dunyo ahllarini siz hohlamaysiz. Shunday ekan iffatli, ta’madan va turli xil yomon illatlardan pok insonlarni o’zingizga lozim tuting. CHunki ularning pokiza qalblariga xiyonat aralashmagan” deya javob yozdilar. Kim razilliklardan uzoq bo’lsa, yaxshi fazilatlarni jamlasa, dunyodan yuz o’girsas, uning boyliklaridan iffat qilsa u kishi rahbarlik va shafolat maqomi bo’lgan imomlikka haqlidir. Nabiy sollallohu alayhi vasallam bu sifatlarni zikr qildilar va uni egallaganlar shafolat va Alloh taoloning bandalari orasida etakchilik bo’lgan imomatga ko’proq loyiqdir.

Bu sifatlarda bir xil bo’lishlari bilan birga hadidagi tartibda tartibladilar. Agar kim bu sifatlardan birida ziyoda bo’ladigan bo’lsa uni oldinlatdilar. Kim mana shu sifatlarni barchasini jamlagan bo’lsa u ahli zamonining eng fazilatlisidir. Va ummatga xalifa bo’lishga loyig’idir. Kim bu sifatlardan ikkita sifatni jamlagan bo’lsa u imomatlikka loyiqdir. Agar bir qishloq yoki mahallada faqihlarni nazdida faqih deb sanalmaydigan imom bo’lsa va qorilarni nazdida qori deb hisoblanmaydigan faqih bo’lsa, imomatlikka qori avlodir. CHunki imomga iqtido qilganlarning namozi imomning namoziga bog’liqdir. Imomni namoziga kirgan har bir fasod ish iqtido qilganlarning ham namoziga kiradi. SHuning uchun imomning namoziga ergashgan namozxon o’zi uchun namozini unga fasod ish kirib qolishidan saqlashi lozim. Namozga qiroat jihatidan etadigan fasod ish, boshqa shartlar tarafidan etadigan fasodlarlan ko’proqdir.

Agar harflarning sifatlari buzilib, boshqa ma'noga o'zgarsa, insonlarning so'zlariga aylanadi. Insonlarning kalomi aksar faqihlar nazdida namozni buzadi. Garchi, sifatlar bilmasdan adashib o'zgartirilsa ham, yodidan ko'tarilib o'zgartirilsa ham farqi yo'q. Va ma'noni o'zgartiradigan darajada xato o'qish ham aksar ulamolar nazdida namozni buzadi. Ayrim harflarni o'z bilganicha talaffuz qilish ham, gohida ma'noni buzadi. Bu esa, ko'pincha haqiqiy qorilar bilan tayyorgarlik qilmagan, ulardan harflar talaffuzini qabul qilmagan va ularga o'qib bermagan kimsalarda uchraydi. Bu kimsani esa, ushbu narsalarni bilishda etarli darajasi bo'lmaydi, garchi Qur'onni nazman yodlagan bo'lsa ham. Va e'tiborsiz o'tib ketaveradi. SHu sabab, har doim uning namozi buziladi. Ammo o'zi buni his etmaydi. Gohida namozni buzuvchi bir necha kamchiliklar bitta surada jamlanadi, gohida bir oyatning o'zida jamlanishi ham mumkin. Kim Qur'on tilovatida ko'mak olmasa, qorilar ila mashq qilmasa, ularga tilovat qilib bermasa, ularning qiroatlarini tinglamasa va ushbu ilmga e'tibor bermasa, garchi u hukmlarni puhta biluvchi faqih bo'lmasin, namozini buzuvchi kamchiliklardan hech ham saqlana olmaydi. Natijada, imomning namozi buzilgani sabab, butun jamoatning ham namozi buziladi. Va kim Qur'on ilmi ila shug'ullansa, qorilar bilan tayyorlansa va ularning odobi bilan odoblansa, namozning va uni buzuvchi shartlaridan bexabar qolmaydi. Chunki, namozning shartlari, tahorat va namozning boshqa amallari bilan komil bo'ladi. Musulmonlarning o'rta hollari ham ko'pincha namozning shartlaridan bee'tibor qolishadi. SHunday ekan, Qur'onni puxta o'zlashtirgan va qiroat ilmi va odoblarini yaxshi bilgan inson bo'lsa, qanday bo'ladi?! Agar odatda namozni buzmaydigan ma'lum qoidalarga xilof ravishta xato paydo bo'lsa, namozni boshidan boshlaydi. Qu'onni yaxshi o'zlashtirgan va qiroatni bilish darajasiga ko'tarilgan kimsa, namozdagi zohiriy amallardagi nodonlik sifatidan uzoq bo'ladi. va Qur'onni yaxshi o'qimaydigan kimsa, garchi barcha hukmlarni bilsa ham, harflarning sifatini o'zgartirish hamda, namozni buzadigan xatolardan yiroq bo'lmaydi.

Agar namozda unutilib yoki yanglishib uning amallariga bir kamchilik, yoki ko'proq nuqson kirib qolsa, sajdai sahv bilan to'lab beriladi. Sajdai sahv bilan to'g'rilansa bo'ladigani kabi, uni to'g'rilashni imkoni yo'g'i ham bor. Agar namozdagi zikrlarda adashib yoki unutib ma'noni buzadigan xato qilsa yoki harflar haqqini ado qilmasa shuningdek, biror kalimani o'z holidek o'qimasa buni to'g'rilashni imkoni yo'q. Faqat namozni qaytadan boshlashi kerak bo'ladi. Chunki talaffuzda xato qilish juda ham nozikdir. SHu sabab aynan mana shu jihatda nuqsonga yo'l qo'yish juda ko'pdir. Bundagi nuqsonlarni bilish esa amallardagi kamchilikni bilishdan qiyinroq. SHunday ekan, Qur'onga mohir bo'lgan kishi imomlikka hukmlarni biluvchi kimsaga nisbatan haqliroqdir. Insha Alloh!

Yana bir dalil: faqih kimsa, gohida yuzaga kelib, goh kelmaydigan namozni buzuvchi hodisalarni to'g'rilaydi. Qori esa, namozdan ajralmas va u siz namoz ham qabul qilinmas bo'lgan qiroatdagi nuqsonlarni to'g'rilaydi. Chunki ko'p insonlar omonda qolmaydigan ofatlardan saqlanish juda kam hollarda yuzaga keladigan nuqsonlardan saqlanishdan afzaldir. Vallohu A'lam.

Ushbu hadisda qorining muqaddam qilinishi, sahobai kiromlarning qorilari ularning eng olimlari bo'lganligi e'tiboridandir.

Demak, namoz haqida eng ilmi ko'p odam oshkora fahsh, gunoh ishlardan chetda bo'lishi va Qur'ondan namoz uchun zarur qismini yaxshilab yodlab olgan bo'lishi sharti bilan, imomlikka eng haqli odam hisoblanadi.

Marsad ibn Abu Marsad Fanaviydan rivoyat qilinadi:

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:

«Agar namozingizning qabul etilishi sizlarni xursand qiladigan bo'lsa, sizga yaxshilaringiz imom bo'lsin. Chunki ular siz bilan Robbingiz orasida vakilingizdir», – dedilar».

Tobaroniy va Hokim rivoyat qilishgan.

Undan keyin qorirog'i imomlikka haqli bo'ladi. YA'ni Qur'onni yaxshiroq qiroat qiladigani, ko'proq o'qigani.

Keyin parhezkorrog'i haqli bo'ladi. YA'ni, harom va makruhlardan taqvo qilish bilan birga, shubhali narsalardan ham o'zini olib qochishda peshqadamrog'i.

Mazkur sifatlarda saviyasi teng bo'lib qolgan kishilar ichidan yoshi kattasi imomlikka o'tadi.

Imomlikka bulardan keyingi haqlilar quyidagi tartibda tanlanadi:

xulqi yaxshisi, tahajjudni ko'p o'qiydigani, nasabi sharaflisi va kiyimi kirchirlardan tozasi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Abu Bakr Kalabodiy o'zlari hanafiy mazhabida bo'lsalarda "Imomlarni tartiblash" masalasida hanafiy mazhabiga juz'iy ixtilofda bo'lganlar. Ammo, bu zotni mazhablari boshqa bo'lgan degan fikrdan yiroqmiz, chunki bu bobdan boshqa juda ko'p o'rinlarda fiqhiy masalalardagi yondashuvlari allomani hanafiy ekanliklarini ochiq oydin dalolat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Laknaviy Muhammad Abdulhay al-Hindiy. Hidoya muqaddimasi sifatida yozilgan risola. – Lakhnau: 1974.
2. Muhammad Amim al-Ehson al-Mujaddidiy al-Barkatiy al-Hanafiy. Qovaid al-fiqh. – Karachi: 1987. J. 1.
3. Mustafõ ibn Abdulloh ar-Rumiy al-hanafiy ash-shahir bi-Hoji Halifa. Kashf az-zunun an asmo al-kutub va l-funun. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1992. J. 1.
4. Mustafõ ibn Abdulloh ar-Rumiy al-Hanafiy ash-shahir bi-hoji Halifa. Kashf az-zunun an asmo' al-kutub va l- funun. – Istanbul: Al-Olam. J. 1. – 294 b.

BOLALARDA NUTQNING SHAKLLANISHIDA BILISH JARAYONLARINING AHAMIYATI

S.A.Izbullayeva,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
s.a.izbullayeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarda nutqning shakllanish bosqichi hamda ularda kuzatiladigan nutqda diqqat, sezgi xotira, tafakkur, hamda idrok jarayonlarining ishtiroki yoritib berilgan. Shuningdek, bolalarda nutqning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar muhokama etilgan bo'lib, ularda nutqning fiziologik mexanizmlari va nutqsiz kommunikatsiya jarayolari batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: nutq fiziologiyasi, afaziya, Broka markazi, Vernike markazi, kommunikatsiya, noverbal, subyekt, funksiya, ijtimoiy tajriba, mimika, verbal, pauza, temp, ritmika, nutq mexanizmlari, signallar signali,

Anotation: This article describes the stage of speech observed in them, attention, sensory, memory, thinking as well as perception the participation of processes is highlighted. Also, in children speech's factors affecting the formation have been discussed, which include physiological mechanisms of speech and non-speech communication the procedures are detailed.

Key words: speech physiology, aphasia, Broka center, Vernike center, communication, nonverbal, subject, function, social experience, mimicry, verbal, pause, tempo, rhythmic, speech mechanisms, signal of signals.

Bugungi kunda bolalarda nutq shakllanishi va rivojlanishi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Xususan, bolalarda nutqning buzilishi ya'ni afaziya holatlari uchramoqda, bu esa o'z navbatida bilish jarayonlarining nutq shakllanishiga o'zaro ta'sir etishi bilan chambarchas bog'liq. Bularni yoritish uchun fanda nutqning fiziologik asoslari o'rganilgan bo'lib, biz bu borada nutq mexanizmlari haqida eslatib o'tishni joiz deb bilamiz.

Nutq o'zining fiziologik negiziga ko'ra, eshitish va harakat analizatorlari faoliyatini bajaradi. Miya qobig'ida tashqi olam tomonidan bo'ladigan turli xil qo'zg'atuvchilar bilan so'zlarning talaffuz qilinishini boshqarib turadigan tovush paychalari, xiqildoq, til va boshqa azolar harakati o'rtasidagi muvaqqat bog'lanishlar o'rnatiladi. Nutq ikkinchi signallar tizimi negizida amal qiladi. So'z, I.P. Pavlov fikricha, "signallar signali"dir. Nutqni dasturlashtirish-nutqiy ifodaning, ya'ni kishi bildirmoqchi bo'lgan fikrning ma'naviy o'zagini tuzish -birinchi bosqich hisoblanadi. Ikkinchi bosqich-jumlaning sintaktik tarkibini tuzishdan iborat. Nihoyat, jumlaning ovoz chiqarib ayta boshlaydi, ya'ni nutq real tarzda ro'yobga chiqadi. Shunday qilib, "gapirish" jarayoni boshlanadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda shuni ta`kidlash kerakki, bolalarda “gapirish” jarayoni psixik jarayonlar yordamida vujudga keladi. Masalan, bola taqlidchanlik xususiyati orqali avval kattalarning so`zlarini idrok etadi va ichida takrorlaydi. Bu esa o`z navbatida xotiraning faolligini talab etadi. Shuningdek, diqqat, tafakkur va sezgilar ham nutqning to`liq va mazmunli bo`lib shakllanishiga sabab bo`ladi. Bolalarda ilk bora nutq shakllanayotganda muvaffaqiyat keltiradigan aqliy markazlar tafakkur jarayonining rivojlanishi bilan bevosita bog`liq. Shuningdek, diqqat, idrok jarayonlari orqali kattalar nutqini tez va to`g`ri idrok etish teranlashadi. Nutq esa barcha bilish jarayonlarida tashqi va ichki nutq ko`rinishida ishtirok etadi.

Nutqiy fikr-mulohazani kodlashtirish va kodini ochish jarayonlari og`zaki muloqotda muvaffaqiyat keltiradigan aqliy markazlar va tizimlar saqlanib qolganda yuz beradi. Mabodo ushbu tizimlar ishida buzilishlar ro`y bersa, kishi nutqida turli xildagi buzilishlar-afaziyalar (so`zlashish va tushunish qobiliyatining yo`qolishi) sodir bo`ladi.

XIX asrning o`rtalaridayoq olimlar miyaning ba`zi bir qismlari ishidagi buzilish nutqning buzilishiga olib kelishini kashf etgan edilar. Jumladan, P. Broka bemorlarda chap yarim sharning pastki peshona qismidagi burmalar orqali orqa tomonning uchdan bir ulushi shikastlangan holda so`zlarni talaffuz etishda buzilish ro`y berishini aniqladik. Keyinroq K. Vernike chap yarim sharning ustki chakka qismidagi burmalari orqa tomonning uchdan bir ulushi shikastlangan holda so`zlarni tushunishning buzilishihollari tavsif qilingan edi. Miya to`qimalarining ushbu qismlari harakatlantiruvchi nutq ("Broka markazi") va nutqni tushunish ("Vernike markazi") "markazlari" deb yuritila boshladi.

Bolalarda nutqning shakllanishi dastlab egosentsik nutq negizida paydo bo`la boshlaydi. Bu ular o`zi tushunadigan tilda o`ziga o`zi gapirib, kattalar nutqini kuzatish jarayonida ularda dastlabki muloqotga kirishish jarayoni paydo bo`la boshlaydi. Bu ichki nutqning tashqi nutqqa o`tishi bilan tavsiflanadi. Bola so`zni talaffuz qilarkan, istaganiga erishishga -e`tibor qilishiga, erkalatilishiga, o`yinchoq kabilarga erishishga intiladi. So`z aloqa vositasiga aylanadi. Qo`llaniladigan so`zlar soni borgan sari to`xtovsiz orta boradi va 2 yoshda bolalarning so`z boyligi haddan ziyod kengayibgina qolmasdan, balki ularning grammatik shakllarini to`g`ri ishlatishi ham mumkin bo`lib qoladi, jumladan murakkablashib va uzunroq qilib tuzila boshlaydi. Bolaning tili maktab yoshigacha bo`lgan yillar davomida boyib boradi.

Bolalikda fikrlash qobiliyati til bilan birga rivojlanadi. Nutqsiz tafakkur-biz ko`pincha obrazlar bilan fikrlaymiz. Rassomlar obrazlardan foydalanadilar. Bu kompozitorlar, shoirlar, matematiklar, atletlar va olimlarga ham xos xislat. Albert Enshteyn o`zining eng buyuk kashfiyotlari vizual obrazlar natijasi ekanini, keyinchalik ularni so`z bilan ifodalaganini tan olgan.

Tilsiz tafakkur. Ba`zi g`oyalar, masalan, turli ranglarni idrok etish va eslab qolish qobiliyati tilga bog`liq emas. Biz ba`zida so`zlardan ko`ra obrazlar bilan o`ylaymiz va yangi g`oyalarni ifodalash uchun yangi so`zlarni o`ylab topamiz. Shunday

qilib, aytishimiz mumkinki, borliq avval tilimizga, keyin bizning fikrlarimizga ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, nutqi ravon bo'lmagan bolalarni biz bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi sifatida ko'rishimiz aslo nojoizdir. Chunki yuqorida keltirilgan misollar orqali hamma aqlli, daho insonlarning ham nutqi ravon bo'lmaganligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun bolada tilning kechroq yoki ertaroq chiqishi ham uni o'rab turgan oilaviy muhit va ijtimoiy muloqot omillari bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda ko'pgina ta'lim muassasalarida ham bejiz, vizual va audial zamonaviy texnologiyalar asosida darslar tashkil etilmagandir. Shu boisdan bolada ba'zi hollarda tafakkur nutq bilan birgalikda rivojlanishi bir tekisda kechmasligi mumkin. Shuni aytib o'tish kerakki, bolalarda nutqning shakllanishi va rivojlanishida uning jismoniy va ruhiy sog'lig'i ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. SH.Barotov, L.Olimov, Z.Maxmudov "Muloqot psixologiyasi" Buxoro 2008
2. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova I.O.Xaydarov. "Umumiy psixologiya" Toshkent-2018
3. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" Toshkent -2008
4. David Mayers. "Psixologiya". Minsk, 2008. 448bet
5. www.ziyouz.com kutubxonasi
6. www.ziyouz.com
7. www.booking.com

BUXORO IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTABI TARIXI

R.T.Sharipov,

Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi

Xalqning ma'naviy taraqqiyotida musiqa va san'atning o'ni muhim bo'lib an'anaviy musiqa va qo'shiqlarni, ajdodlardan meros bo'lib qolgan cholg'u asboblarini, kuy va taronalarni asrab-avaylash, kelajak avlodga yetkazish dolzarb vazifa bo'lib kelgan.

2023-yil 22-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanliklari alohida ta'kidlandi. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarurligiga urg'u

berildi. Davlatimiz rahbari tomonidan ma'naviyat va ma'rifat sohasida 9 ta yo'nalishda muhim tashabbuslar ilgari surilib, sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar, jumladan YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga yana 9 ta milliy merosimiz namunasi kiritilganligi hamda azaldan fan va madaniyat markazi bo'lgan Buxoro shahrining "Ijodkor shaharlar tarmog'i"ga kiritilgani alohida qayd etildi.

XX asrning boshlarida Buxoroda musiqa san'atini keng targ'ib etishni ta'minlash maqsadida dastlabki professional musiqiy bilim maskanini bunyod etish yo'lida dadil qadam qo'yildi. Abdurauf Fitrat sharq musiqasi tarixini o'rganish va targ'ib etishni inqilobdan so'ng boshlab berish bilan musiqashunosligimizda o'chmas iz qoldirdi. 1921 16 iyunda BXSr Maorif noziri Fitratning fidokorligi va tashabbusi tufayli Buxoroda yangi Sharq musiqa maktabi tashkil etildi. Buxoro hukumatining farmoni bilan 1921 yilning 10 avgustida dastlab Fitrat va keyinchalik Rajabzoda Niyoziyalar Sharq musiqa maktabining direktori qilib tayinlanganlar. Ulug' zot bu maktabga o'z hovlisini bergan. (Hozirgi Buxoro shahrining Sobiq Dzerjinskiy ko'chasi, 8-hovli. Ravg'angaron guzari.) Muassasaning ilk ustozlari Ota Jalol Nosir, Ota G'iyos Abdug'ani, Domla Halim Ibodov, Ma'rufjon Toshpo'latovlar bo'lib, o'quvchilarga musiqa san'atidan saboq berganlar. Fitrat Buxoroning barcha tumanlaridan iste'dodli yoshlarni o'z atrofida to'plagan. Iqtidorlilarning boshini bir yerga qovushtirib, sharq musiqasining o'ziga xos betakror jozibasi va tarixini o'rgangan ham o'rgatgan. Musiqa sirlarini o'rganishda buxorolik mashhur hofizu bastakorlar Levicha hofiz, Gavriyel Patak, Quticha El bilan yaqinligi, Xo'ja Abdulaziz va Ota G'iyos bilan o'zaro muloqotlari ancha qo'l kelganligi, shubhasiz. 1927 yilda musiqa maktabi Buxoro sharq muzika texnikumiga aylantirilib, ilk ijrochilik jamoalari tashkil etiladi.

1931-1932-o'quv yilida respublika Xalq Komissarlari Sovetiga qarashli san'at ishlari boshqarmasi huzurida Buxoro musiqa bilim uurti tashkil qilinganligi arxiv hujjatlarida qayd etigan. 1930-yillarda muassasaga Temur Baqoyev rahbarlik qilib, o'qituvchilar jamoasi kengaya boshlagan. Dastlab muassasada Ahmad Ixtiyorov, Vasiliy Vlasenkolar tomonidan birinchi damli cholg'u asboblari orkestri tashkil etiladi. Muassasada talabalarga ikki yo'nalishda Sharq musiqasi va Yevropa cholg'ulari bo'limlarida asosan, yevropalik xalqlarga xos bo'lgan damli cholg'ular hamda, o'zbek va tojik xalqining boy musiqiy merosi bo'lmish «Shashmaqom»ning mushkilot va nasr sho'balaridan saboq berilgan.

II jahon urushining boshlanishin va mamlakatdagi og'ir siyosiy vaziyat sababli 1941 yil O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzuridagi Sa'at Ishlari Boshqarmasining buyrug'iga ko'ra Buxoro musiqa bilim yurti faoliyati to'xtatilib, uning asosida faqatgina Bolalar musiqa maktabi faoliyati yo'lga qo'yiladi. Musiqa bilim yurtining binosi va cholg'u asboblari musiqa maktabiga o'tqazilgan.

XX asrning 40-yillarda tajribali musiqachi, muassasa direktori Ahmad Ixtiyorov rahbarligida o'quv-pedagogik, targ'ibot va konsert faoliyatlari yuqori mavqega ko'tarilib, katta yutuqlar qo'lga kiritiladi. Bu davrda simfonik cholg'u orkestri, torli cholg'ular ansambli va bir nechta yangi bo'limlar tashkil etiladi. 1949-50-yillarda

musiqa maktabida fortepiano, skripka, viloncheli, xalq cholg'u bo'limlari faoliyat yuritganligi direktor A.M. Ixtiyorovning hisobotida qayd etib o'tilgan. 1950 yilda ham viloyatda yagona hisoblangan Buxoro musiqa maktabida 180 nafar bola o'qitilgan. Biroq, bu davrda viloyatda musiqa va san'atga qobiliyati yuqori bo'lgan ko'plab o'smir-yoshlar borligi va ular o'z faoliyatlarini davom ettirish uchun bilim yurti zarur edi.

Ta'lim muassasi bituruvchilari Respublikaning taniqli san'at arboblari va musiqa san'ati ustalari sifatida nafaqat O'zbekiston madaniyati va san'ati, balki qo'shni respublikalar ma'naviyati rivojiga munosib hissa qo'shib, o'zlaridan o'chmas iz qoldirganlar. O'zbekiston madhiyasi muallifi, bastakor Mutavakkil Burxanov, O'zbekiston san'at va madaniyat darg'alari O'zbekiston madhiyasi muallifi, bastakor Mutavakkil Burxanov Tavur Jumayev, O'zbek not orkestri bosh dirijori Said Aliyev, mahoratli bastakor Xayri Izamov, Tamaraxonim musiqa ansambli solistlari Ayub Qodirov, Ergash Shukurullayev, Safo Bakayev, O'zbekiston SSRning faxriy o'qituvchilari Nasretdinov Najmetdin, Buxoro viloyat musiqali drama teatri orkestri artistlari Axmed Mirfayzov, xalq ashulachisi Mushe Babaxanov, Namangan musiqa bilim yurti rahbari Xusaynovlar ham shu ta'lim muassasi bituruvchilari hisoblanishgan.

O'tgan davr mobaynida o'quvchi yoshlar o'z iqtidorlari bilan kollejdagi tahsili va oliy ta'limdagi faoliyati davomida yuzdan ortiq respublika va ellikdan ortiq xalqaro miqyosdagi ko'rik-tanlovlarda ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egallab kelishgan. O'zbekiston respublikasi san'at arboblari Mustafo Bafoyev, Otanazar Matyoqubov, Jo'ra Shukurov, O'zbekiston Xalq artisti O'lmas Rasulov, O'zbekiston Xalq xofizi Soyibjon Niyozov, O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Salomat Raxmonova, "Do'stlik" ko'krak nishoni sovrindori, maqomdon ustoz Ari Boboxonov, O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan artistlar-Yunus To'rayev, Orif Atoyev, Rustam Abdullayev, Yulduz Turdiyeva, O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Raxmatulla Inoyatov, "Zulfiya", "Nihol" mukofoti sovrindorlari Gulzoda Xudoynazarova, Jo'raboy Hafizov, Ilyos Arabov, Sayyod Jo'rayev, Gulchiroy Baxshullayeva, Dilfuza va Marjona Qobilovalar bilim maskanining faxri sifatida O'zbekiston san'ati va madaniyati dovrug'ini jahonga taratib kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://president.uz/uz/lists/viyew/3611>
2. I.G'aniyev. Fitrat va Fitratshunoslik. Toshken, "Fan". 2005. B. 6.
3. Rashidov I., Rashidova O. Istoriya na fotografiyax // Buxarskiy vestnik, 16 oktyabrya 2002 goda.
4. Buxoro viloyat davlat arxivi. 280-fond, 1-ro'yxat, 14-yig'majild, 30-varaq.
5. Buxoro viloyat davlat arxivi. 280-fond, 1-ro'yxat, 14-yig'majild, 31-varaq.

O'ZBEK XALQI KELIB CHIQISHINI DAVRLASHTIRISH BORASIDAGI DASTLABKI TADQIQOTLAR TARIXI

*S.Q.Rahimboyeva ,
BuxDU 2-bosqich magistranti
s.q.rahimboyeva@buxdu.uz*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining o'rganilishi, yetakchi akademik-tarixchi olimlar tomonidan ajdodlarimiz etnogenezi masalalari tarixi adabiyotlar qiyosiy tahlili orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: etnografiya, etnogenez, milliy davlatchilik, tarix, sovetlar, ma'naviy madaniyat, migratsiya, xalq, qishloq xo'jaligi, xalq xo'jaligi, Joytun madaniyati, savdo-sotiq aloqalari.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'tmishdan meros bo'lib o'tgan salbiy holatlarga yangicha nigoh bilan qarash, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho ma'naviy va madaniy merosimizni, soxtalashtirilgan tariximizni yangilash va shu asosda umummilliy ma'naviy islohotlarni amalga oshirish asosiy vazifalardan biri deb e'tirof etildi va ular davlat siyosati darajasidagi muhim vazifa qilib belgilandi. Necha asrlik orzu-umidlarning, kurash va intilishlarning ro'yobga chiqishi tufayli milliy g'oya, milliy mafkura tamoyillari tug'ildi. Tarixiy an'analarga sadoqat, ajdodlardan faxrlanish, ijtimoiy taraqqiyotning muhim, kerakli yo'nalishlarini davom ettirish mustaqillik va milliy g'oyaning eng muhim omillaridan ekanligi oddiy hayotiy haqiqatga aylandi.

Har bir xalqning tarixi uning etnogenezi va etnik tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Etnogenez va etnik tarix esa tarix fanining bosh masalasidir. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi O'zbekiston xalqlari tarixining tarkibiy qismini tashkil etadi. U tarixiy yozma manbalar, etnografiya, arxeologiya, antropologiya, lingvistika, toponimika, epigrafika, numizmatika kabi fanlar bilan o'zaro aloqada va uzviy bog'liq bo'lib, ularsiz o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini mukammal ilmiy o'rganib bo'lmaydi. Ayniqsa ushbu muammoning etnogenez qismini o'rganishda ulardan olingan ma'lumotlar masala yechimiga ko'p oydinliklar kiritadi.

O'rta Osiyoda neolit davridan boshlab rivojlanishning mintaqaviy yo'li shakllanib bordi. Agar O'rta Osiyoning janubi-g'arbiy mintaqalarida qadimgi Sharq tamadduni ta'sirida o'troq dehqonchilik madaniyatiga asoslangan hayot tarzi neolit davridan qaror topa boshlagan bo'lsa (Joytun madaniyati), uning shimoliy sarhadlarida bu davrda ibtidoiy jamoalar hali ovchilik bilan kun kechirar edilar (Kaltaminor madaniyati)⁶³. Eneolit va bronza davriga kelib, bu mintaqaviy rivojlanish muvozanati nafaqat saqlandi, balki uning hududiy doirasi kengaydi.

⁶³ Виноградов А. В. Древние охотники и риболови среднеазиатского междуречья. Москва-1981. -С.67.

Bronza davriga kelib (mil.avv. II ming yillik) ibtidoiy ajdodlarimiz hayotida tub ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Ta'kidlash joizki, tarixiy va arxeologik adabiyotlarda qadimgi Xorazmda ham sug'orma dehqonchilik madaniyatining shakllanishi aynan shu davrda, Sug'diyona madaniy-xo'jalik markazi bilan bir vaqtda yuz bergan, degan fikr mavjud. Bunday fikrning shakllanishiga "Katta Xorazm" tarkibiga "Amudaryoning quyi havzalari ham kirgan", degan chalkash tushuncha sabab bo'lgan. Shu bois, Amudaryoning quyi havzalarida "Xorazm" atamasining paydo bo'lishi borasida ham tarix fanida xato tushuncha shakllanib qolgan. Tarixiy manbalar va arxeologik materiallarning yangicha qiyosiy tahlili "Xorazm" atamasining tarixiy ildizlari aynan "Katta Xorazm" hududlari, uning lotinchada "xorasmiylar" deb yuritilgan xalq etnonimi bilan bog'liq ekanligidan dalolat bermoqda⁶⁴.

Etnogenez, etnik tarix va millat tarixining har birini alohida olganda, ularning boshlang'ich va yakuniy nuqtalari bor. Masalan, mana shu ilmiy konsepsiya asosida o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasi sifatida dastlab turk xoqonligi davri qabul qilindi (akademik A.Yu.Yakubovskiy nuqtai nazari). Keyinroq, o'zbek etnogenezining boshlang'ich nuqtasi antik davrgacha qadimiylashtirildi (akademik S.P.Tolstov nuqtai nazari). Akademik Karim Shoniyozov ham so'nggi fundamental tadqiqoti "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" asarini mana shu nuqtai nazar asosida yozgan.

Hozirgi kunda bu sana yanada qadimiylashtirilgan, ya'ni so'nggi bronza davri bilan belgilanmoqda (akademik A.Asqarov nuqtai nazari)⁶⁵. Bunday qarashlarning ilmiy asosida o'zbeklarning o'q tomiri, bosh ildizi ikki tilda so'zlashuvchi etnik qatlamlar (sug'diy va turkiy)ning qorishuv natijasi ekanligi va uning dastlabki sanasi, ularning ilk bor aralasha boshlagan nuqtasi so'nggi bronza davridan boshlanganligi hisobga olingan.

O'zbek xalqi ajdodlarining tarixi juda katta tarixiy davrni uz ichiga oladi. Uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lida ajdodlarimiz murakkab etnogenez jarayonlarini boshdan kechirganlar. Bu jarayonlar antropologik qiyofalar va boshqa qabilalarning aralashib ketishi, madaniy an'analarning kushilib yangi asosda rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

O'zbekiston O'rta Osiyoning qadimdan o'troq dehqonchilik madaniyati o'choklari tarkib topgan hududda joylashgan. Diyorimiz shu bois arxeologik va mye'morchilik yodgorligiga boy. Farg'ona vodiysining Selung'ur g'oridan topilgan qadimgi tosh davriga oid topilmalar va Teshiktoshdan topilgan O'rta paleolit davriga oid odamzod koldiklari, bizning yurtimiz Afrika va Old Osiyo bilan bir katorda insoniyat paydo bo'lgan hududlar tarkibiga kirganligi hozirgi kunda uzil-kesil

⁶⁴Асқаров А. Ўзбек халқи этногенез ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий методологик асослари // Ўзбекистон тарихи, Т.: 2002. N4.

⁶⁵ Асқаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихи. Т.: Университет. 2007. -Б.5.

isbotlandi. Shuningdek, mezolit davriga (O'rta tosh davri) oid Machay g'oridan topilgan yodgorliklar, neolit (yangi tosh) davriga oid ovchilik va baliqchilik madaniyatini o'zida jam qilgan Kaltaminor, janubdagi ilk dehqonchilik madaniyatiga oid bo'lgan Joytun madaniyati, bronza davriga oid bo'lgan xilma-xil Zamonbobo, Sopollitepa, Sarazm, Dalvarzintepa, Chust madaniyatlari o'lkamizda qadimgi ajdodlarimiz xujaligining jadallik bilan rivojlanganligini isbotlaydi.

Xullas, O'zbek xalqi kelib chiqishning asosini eng qadimgi davrlardan boshlab O'lkamiz hududlarida yashab kelgan xalqlar va elatlar tashkil etgan. Ikki ming yil davomida mahalliy aholiga kelib qo'shilgan turkiy tilli elat va xalqlar o'zbek xalqining shakllanishida asosiy tarkibiy kism sifatida qatnashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Асқаров А. Ўзбек халқи этногенез ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий методологик асослари // Ўзбекистон тарихи, Т.: 2002. №4.
2. Асқаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихи. Т.: Университет. 2007.
3. Виноградов А. В. Древние охотники и рнболови среднеазиатского междуречья. Москва-1981.

HALOL TURIZM XIZMATLARINI SERTIFIKATLASH: DUNYO TAJIRIBASI VA O'ZBEKISTONDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

L.B. Navruz-zoda

BuxDU dotsenti

M.Q. Haymatova

BuxDU, 2-bosqich magistranti

m.q.haymatova@buxdu.uz

Annotatsiya. Halol turizm xizmatlarini sertifikatlash zamonaviy turizm industriyasining muhim jihati bo'lib, ayniqsa, musulmon turistlarni jalb qilmoqchi bo'lgan davlatlar uchun aktual hisoblanadi. Tarix va madaniy yodgorliklarga boy bo'lgan O'zbekistonda ham bu sohani rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Maqolada halol turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish bo'yicha jahon tajribasi hamda bu borada O'zbekiston duch kelayotgan dolzarb muammolar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: diniy turizm, ziyorat, halol standartlar, sertifikatlash.

O'zbekiston o'zining maftunkor tabiati, urf-odatlarini, milliy an'analari bilan doimo e'tiborni tortgan. Shu bilan birga, respublikaning istalgan burchagida o'ziga xoslikning mavjudligi bir xillikdan qochishga yordam beradi. Shuning uchun sayyohlar mamlakatni yaxshi ko'radilar. Har yili dunyoning turli burchaklaridan sayohatchilar O'zbekistonga tashrif buyurib, tabiatning noyob mo'jizalari va madaniy hayotidan

bahramand bo'lishadi. Xalqaro e'tirof etilgan nashrlardan biri Buyuk Britaniyaning The Telegraph nashri tashrif buyurishga arziydigan shaharlar ro'yxatini e'lon qildi. Ular orasida respublikaning turli turistik hududlari ham bor.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2023-yil 6-dekabr holatiga e'lon qilgan ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yil yanvar-oktyabr oylari uchun turistik xizmatlari ko'rsatuvchi agentliklar, turoperatorlar, bronlash xizmatlari va tegishli xizmatlar ko'rsatish hajmi 64 632,86 AQSH dollarini tashkil etgan.

Yildan yilga sayohatchilarning ko'payishi bilan ularning ehtiyojlarini qondirish ustuvor vazifaga aylandi. Qolaversa, diniy maqsadda tashrif buyuruvchilar sonining ortib borayotgani mamlakatimizda halol turizmni rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Halol ehtiyojlar haqida gapirganda, odatda oziq-ovqat, kiyim-kechak, moliya va hokazolarga oid islom qoidalariga rioya qilish orqali ehtiyojlarni qondirishni nazarda tutiladi. Bu halol taomlarni tanlash, taqiqlangan taomlardan (masalan, cho'chqa go'shti va spirtli ichimliklar) saqlanish, biznes yuritish va boshqalar bilan muloqot qilishda axloqiy tartiblarga amal qilishlarini anglatishi mumkin. Halol standartlarga javob beradigan turizm xizmatlarini ko'rsatish mamlakatimizga tashriflar sonini oshirish va iqtisodiyotni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Mamlakat azaldan jahon islom madaniyati markazlaridan biri bo'lib kelgan. Ko'p sonli go'zal tarixiy obidalar, madrasalar, masjidlar, yodgorliklar va boshqa tarixiy qadamjolar sayyohlarni o'ziga jalb etishda turtki bo'lib kelgan. Markaziy Osiyo va MDHning qo'shni davlatlari, Yaqin, Uzoq va O'rta Sharq mamlakatlari, shuningdek, Yevropadan sayyohlarning yillik oqimi so'nggi 5 yil davomida hech qachon to'xtamagan. Yuqoridagi hududlardan tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi musulmon davlatlari fuqarolari ekanligini inobatga olsak, kelganlarning halol turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning katta bo'lishini bildiradi.

O'zbekistonda halol turizmni rivojlantirish salohiyatiga qaramay, xizmatlarni sertifikatlashtirish sohasida muayyan muammolar mavjud. Eng asosiy muammolardan biri – halol turizmning xalqaro tan olingan sertifikatlashtirish tizimi va standartlari mavjud emasligidir. Bu musulmon sayyohlarda noaniqlik va ishonchsizlikka olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, musulmon bozorining madaniy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim, bu esa xizmatlarni ularga moslashtirishni va chuqurroq o'rganishni talab qiladi.







Halol tadqiqotlar kengashi (Halal Research Council) islomiy halol oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgilangan standartlarga muvofiq quyidagi **go'sht va go'sht mahsulotlarini**: so'yish joylari (hayvon go'shti uchun); oziq-ovqat (ham xom, ham qayta ishlangan); **xizmatlarni**: sut va suv mahsulotlari; neft mahsulotlari; ingredientlar; retseptlar; mevalar, un va makkajo'xori mahsulotlari; parrandachilik va chorvachilik mahsulotlari; qandolat mahsulotlari; energiya qo'shimchalari; parhez ovqatlanish; ichimliklar va gazaklar; **nooziq-ovqat mahsulotlarini**: ishlab chiqarishda ishlatiladigan kimyoviy mahsulotlar; kosmetika mahsulotlari; tibbiyotda ishlatiladigan



dorilar; islom moliya tashkilotlari faoliyati; transport xizmatlari; turizm sohasida joylashtirish vositalari; turizmdagi ko‘ngilochar muassasalarni global tekshirish, tahlil qilish va sinovdan o‘tkazish xizmatlarini taqdim etadi.

Dunyoning boshqa mamlakatlarida halol turizm xizmatlarini sertifikatlash tizimiga nazar tashlasak, ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun mas’uliyatni alohida tashkilot o‘z zimmasiga olganini ko‘rish mumkin.

1-jadval

Dunyoning bir qator mamlakatlarida halol xizmatlarni sertifikatlovchi tashkilotlar va ular tomonidan beriladigan “Halol” belgisi

T/r	Mamlakat	Tashkilot nomi	Belgi namunasi
1	Avstraliya	Australian Halal Authority & Advisers (AHAA) Pty. Ltd.	
		Perth Mosque Incorporated (PMI)	
4	Braziliya	CDIAL Halal Certification Authority LtdA	
5	Kanada	Halal Montreal Certification Authority (HMCA)	
6	Xitoy	Shandong Halal Certification Service (SHC) 山东哈拉认证服务有限公司	
8	Qozog‘iston	ALE “Association Halal Industry of Kazakhstan” (AHIK)	

9	Saudiya Arabistoni	Saudi Food and Drug Authority (SFDA)	
10	Rossiya Federatsiyasi	LLC “Centre of Halal Supervision” (CenterHalalNadzor)	

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, sertifikatlashtirish jarayonini amalga oshiruvchi tashkilotlar “Halol” darajasini aniqlash uchun belgilangan me’yor va standartlar asosida mustaqil audit o’tkazgandan so’ng xalqaro darajadagi sertifikat taqdim etadi. Ularning aksariyati davlat musulmon idoralari yoki qo’mitalari bo’lib, ularning qarorlari butun mamlakat bo’ylab amal qiladi, bundan tashqari, sertifikatlashtirish jarayoniga xalqaro standartlarni tatbiq etish natijasida faoliyat global talablarga mos keladi.

O’zbekistonda “Halol” standarti talablariga muvofiqligini baholash ixtiyoriy bo’lib, sertifikatlash talabnoma beruvchining so’rovi asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki xizmatlarning “Halol” standarti talablariga muvofiqligini baholash maqsadida amalga oshiriladi. “Halol” standarti bo’yicha ixtiyoriy sertifikatlash talabnoma beruvchi va “O’zbekiston-Turkiya Test Markazi” QK MChJ o’rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Ushbu tashkilot “O’zstandart” agentligi va Turk standartlari instituti (TSE) ishtirokida tashkil etilgan. Tashkilot Islom hamkorlik tashkilotining (IHT) standartlashtirish, metrologiya va akkreditatsiya sohasida faoliyat yurituvchi hukumatlararo tashkiloti – Turk Standartlar Instituti (TSE), Islom Davlatlari Standartlashtirish va Metrologiya Instituti (SMIIC) bilan tuzilgan shartnoma asosida faoliyat yuritadi va quyidagi standartlarga asoslanadi:

TS OIC/SMIIC 1 “Halol oziq-ovqat mahsulotlariga qo’yiladigan talablar”;

TS 13571 – “Tayyorlangan halol oziq-ovqat va ichimliklar saqlanadigan va xizmat ko’rsatadigan joylarga TS OIC/SMIIC 1 standartini qo’llash uchun maxsus talablar”;

TS 13683 – “Halol mehmonxonalarni boshqarish tizimi”;

TSE K 202 – “Halol kosmetika”;

TS 6915 – “Mehmonxona xonalari uchun umumiy talablar”;

TS 10082 – “Ish joylari, mehmonxona xonalari, turistik sertifikatlariga ega mehmonxonalar va ularni tasniflash uchun umumiy talablar” asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, 2023-yil 17-iyul kuni Madaniyat va turizm vazirligi qoshidagi “Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” DUK tomonidan “World Halal Trust Group” va “Halol “MAIB” Xalqaro sertifikatlashtirish markazi” MChJ bilan Halol turizm sohasida yaqin hamkorlikni rivojlantirish maqsadida memorandum imzolanganligi haqida xabar berilgan.

Ushbu memorandumga binoan tomonlar Halol turizm, shu jumladan turizm xizmatlarini “Halol” sertifikatlash masalalari bo’yicha qo’shma tadqiqotlarni rivojlantirish va bunday tadqiqotlarni xalqaro, milliy, mintaqaviy darajalarda o’tkazish usullarini ishlab chiqishda ishtirok etishlari, kasbiy tayyorgarlik bo’yicha qo’shma dasturlarni tashkil etishlari, OIC/SMIIC 9:2019 “Halol turizm xizmatlari. Umumiy talablar” standarti talablariga muvofiqligiga mehmonxona xizmatlarini sertifikatlash bo’yicha birgalikda ishlarni amalga oshirishlari mumkin.

Yuqorida nomi keltirilgan muassasalarning har ikkisi ham global turistik bozorda o’zining o’rniga ega hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, halol sertifikatlash jarayonlari qat’iy nazorat ostida amalga oshirilib, mas’ul tashkilot tomonidan nazorat qilinishi va yakuniy xulosa hamda sertifikatlanganlik to’g’risida beriladigan rasmiy hujjatning jahonning qaysi nuqtasida bo’lmasin tan olinishi xizmat ko’rsatuvchi turistik korxonaning nufuzini yanada oshirishga, uni sayyohlar tomonidan iliq kutib olinishiga va o’zlarining sayohatlari davomidagi xavfsizliklarini ishonib topshirishlariga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytilish lozimki, O’zbekistonda halol turizmni rivojlantirish xizmatlarni sertifikatlashtirish masalalariga e’tibor qaratishni taqozo etadi. Mamlakatda musulmon sayyohlar talablariga va xalqaro amaliyotga javob beradigan standartlar va sertifikatlashtirishning yagona tizimini ishlab chiqish yoki mavjud xalqaro tizimlarni o’ziga moslashtirib tadbiq etish lozim. Bunday xizmatlarini taqdim etishga qaratilgan ishlar yangi turistik bozorlarni ochishga yordam beribgina qolmay, kompaniyalar o’z mahsulotlarini boshqa mamlakatlarda va halol mahsulotlar talab qilinadigan bozorlarda sotishlari mumkin bo’ladi.

Bundan tashqari, maqsadli auditoriyani jalb qilish uchun turizm sanoati korxonalari o’rtasida halol sertifikatining ahamiyati haqida targ’ibot ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega. Bu chora-tadbirlar O’zbekistonning halol turizm bozoriga muvaffaqiyatli kirishiga va bu boradagi salohiyatidan foydalanishga erishishni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Buyuk Britaniyaning The Telegraph nashri, Emma Kok, 2020-yil 18-noyabr. <https://www.telegraf.co.uk/sayohat/yangiliklar/oshkor-dunyolar-eng-arzon-qimmat-shaharlar/>
2. O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligi matbuot xizmati. <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/47903-turistik-agentliklar-tomonidan-790-7-mlrd-so-mlik-xizmatlar-ko-yosh-2>
3. Halol tadqiqotlar kengashi (Halal Research Council) rasmiy ma’lumoti <https://www.halalrc.org/halalcertification.php>
4. Sh.Sh.Sharifova. “Halol standartlarini joriy etishda xalqaro tajriba va O’zbekistondagi holat”. Xorazm Ma’mun akademiyasi Axborotnomasi. 2021-12. Xiva -2021. 155-bet.

5. O'zbekiston Respublikasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi matbuot xizmati.
<https://www.standart.uz/ru/news/view?id=1566>
6. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi matbuot xizmati
<https://uzbektourism.uz/news/view?id=2822>
7. Джураев А. Т., Ахматова М. Э., Тешаева М. Д. Современная характеристика типов экономических систем // Молодой ученый. – 2015. – №. 12. – С. 409-413.
8. Rozikovich H. H. et al. The role of innovative technologies in improving the quality of transport services // World Bulletin of Management and Law. – 2021. – Т. 3. – С. 4-8.

BUXORODA DASTLABKI MAHALLIY MATBUOT ORGANLARI

F.X. Utayeva,
BuxDU dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
A.A. Azimova
BuxDU 2- bosqich magistranti
a.a.azimova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxorodagi dastlabki matbuot organlari va ularning tashkil etilishi, ahamiyatli jihati va Buxoro tarixini o'rganishda qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Matbuot, ta'lim, ma'rifatparvarlik, "Tarbiyayi atfol", Jadid, bosmaxona, muharrir.

Mavzuning dolzarbligi. Buxoroda matbuotning tashkil etilishida chet elda ta'lim olgan bir qancha ma'rifatparvar kishilar tomonidan amalga oshirilgan. Bundan tashqari, ko'plab jadid maktablarining tashkil etilishi va hukumatning ularni yopishga bo'lgan harakatlari o'z aksini topadi.

Mavzuning tahlil. Buxoro vohasida matbuotining tashkil etilishi XIX asrning oxirlarida Turkiya, Rossiya, Eron kabi mamlakatlarda birinchilardan bo'lib ta'lim olib qaytgan Abduvohid Burxonov, Hamidxo'ja Mehriy, Ahmad Maxdum, Mirzo Sirojiddinov, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev kabi buxorolik yoshlar boshlab bergan marifatparvarlik harakati bilan bevosita bog'liqdir. Mirzo Abdulvohid Burxonov 1908-yilning bahorida marifatparvarlik yo'lida o'z xonadonida ilk jadid maktabini ochdi. Ko'p o'tmay Mirzo Abdulvohid katta yoshdagilar uchun kechki ta'lim ham tashkil etdi. Ushbu tashkil etilgan maktablar uchun o'quv aqo'llanmalar, ma'rifiy kitoblar chop etish zaruratida Mirzo Abduvohid 1909-yilning mart oyi oxirida "Buxoroyi Sharif" nashriyotchilik shirkatini tashkil etishiga olib kelgan. Mazkur shirkat ta'sischi 9 kishidan iborat bo'lib, Abduvohid Burxonov va Sadridin Ayniy uning nizom

jamg'armasiga 14 so'mdan, Mulla Nizom, Sobit Gabdraxman Saadi 7 so'mdan o'z ulushlarini qo'shdilar.

Ko'p yillar faoliyat ko'rsatgan mazkur shirkat "Munzim boshmaxonasi" nomi bilan tarixga kirgan. Abdulahadxon hukmronligining so'nggi yillarida yangi usuldagi maktablar jamiyatda ixtilofli vaziyatni vujudga keltirishidan xavotirga tushib amirlikdagi barcha jadid maktablarini yopish to'g'risidagi ko'rsatmasidan keyin Abdulvohid Burxonov ta'lim-tarbiyani yashirin usulda berishni taklif qilib 1910-yilning 2- dekabrda uning rahbarligida "Tarbiyayi atfol" yashirin tashkiloti tuzildi. "Tarbiyayi atfol" jamiyati yoshlarni o'z mablag'lari hisobidan Turkiya, Rossiyaga o'qishga yubordilar. 1913-yilga kelib jamiyat hisobidan Turkiyada tahsil ko'rganlar soni 30 kishiga yetdi. Iqtidorli yoshlarni nafaqat Buxoroda balki viloyatlardan ham izlab topib o'qitish maqsadida joylarda marifatparvarlik g'oyalarini tarqatish lozim edi. Abdulvohid Burxonov shuni nazarda tutib ma'rifatparvar shoir va shifokor Mirzo Sirojiddinov bilan hamkorlikda Buxoroda kundalik gazeta tashkil qilish g'oyasini ilgari surdi. Buxorolik Muhitdin Mansurov kattagina mablag'ni gazeta tashkil qilishga safarbar etadi. N.Naimov ma'lumotlariga ko'ra Buxoroda noshirlik tajribasini yo'lga qo'yish maqsadida Bokudan taniqli jurnalist Jamol Yusufzoda taklif qilingan. 1912-yilning 25-martida Kogonda Levin bosmaxonasida "Buxoroyi sharif"ning birinchi soni nashr etilib yashirin yo'llar bilan poytaxtda, viloyat va tumanlarda tarqatildi. Buxoroda matbuot tarixi mana shu kundan boshlanadi.

"Buxoroyi sharif" gazetasi to'g'risida Sadridin Ayniy 1926-yilda Moskvada o'zbek tilida nashr etilgan "Buxoro inqilobi tarixiga oid materiallar risolasida" shunday yozadi: "Buxoroyi sharif shul holkim kundalik 4 oy davom qildi. Lekin bu orada Buxoro qishloqlari va atrof viloyatlarining ko'p aholisi o'zbekligi nazarga olinib "Buxoroyi sharif" idorasi ostida haftada ikki marta "Turon" ismida turkcha bir gazeta chiqarmoqqa qaror berildi. Turonning birinchi soni 1912-yilning 14-iyul kuni nashr qilindi. Shunday qilib haftada 4 qatla "Buxoroyi sharif", 2 qatla "Turon" chiqa boshladi". "Buxoroyi sharif" gazetasiga asos solingan sanadan 4 oy o'tib, ya'ni 1912-yil 14-iyul "Turon" gazetasining 1- soni nashr qilindi. Jamol Yusufzoda rahbarligi ostida gazeta nashrida muayyan tajriba to'plab ulgurgan Mirzo Sirojiddin "Turon" gazetasiga o'zi muharrirlik qilgan. Umumiy rahbarlik esa Abdulvohid Burxonov tomonidan amalga oshirilgan. Buxoroda matbuotning vujudga kelishini o'rgangan B.Do'stqorayeva "Turon" gazetasi tahlil qilib quyidagilarni keltirib o'tadi: "Turon" gazetasining birinchi sonida shunday rukndagi materiallar uchraydi: bosh maqola, ijtimoiy madaniy mavzudagi maqolalar, telegraf xabarlar, mahalliy, xorijiy, tijoriy xabarlar: reklama va e'lonlar. Bu tuzilish gazetaning deyarli oxirgi sonigacha saqlanib qolgan.

"Buxoroyi sharif" haftada 3-4 marotaba, "Turon" gazetasi esa 2-3 marotaba chiqib turgan. Gazetalarda bosilayotgan qaltis maqolalardan xavotirga tushgan Levin mablag' yetishmaganligi bois gazetalarni chop etishni to'xtatishni jadidlarga ma'lum qildi. Buxoroda M.Mansurov, Usmon Xo'ja Pulatxo'jayev kabi jadidchilik harakati

namoyandalari matbuot organlari faoliyatini to'xtatmasdan ularga ketadigan sarf-harajatlarni o'z zimmalariga olganlar. Jumladan, Usmon Xo'ja "Tarbiyayi atfol" tashkiloti faoliyatida va gazetalar nashr qilinishida xizmatini ayamagan. Siyosiy muxoliflar mazkur gazetalarini yopish uchun harakat qilib Buxoro amiriga, rus siyosiy vakolatxonasi rahbarlariga bu gazetalarini chop etishni davom ettirish oqibatida hukumat to'ntarishiga olib kelishi bilan qo'rqitishdi. 1913-yilning 15-yanvarida Kogondagi rus vakolatxonasi rahbari Miller bosmaxona xo'jayini Levinga amir Olimxonning "Buxoroyi sharif" va "Turon" gazetalarini yopish to'g'risidagi ko'rsatmasini yozma tarzda yetkazdi. Natijada 1913-yilning 2 yanvarida "Buxoroyi sharif" va "Turon" gazetalarini o'z faoliyatini to'xtatdi. Qisqa davr mobaynida nashr etilgan "Buxoroyi sharif" va "Turon" gazetalarini orqali Buxoroda dastlabki matbuotchilik faoliyatiga asos solindi.

1920-yil 2-sentyabrda Buxoro amirligi ag'darilib amirlik tuzumining o'rniga BXSР tashkil topganidan so'ng shu yilning 9-sentyabrda hukumatning dastur va vazifalarini xalqqa yetkazish maqsadida "Buxoro axbori" gazetasi chop etildi. "Buxoro axbori" gazetasi, uning tuzulishi, davriylik faoliyati, gazeta sahifalarida chop etilgan maqolalarning xalqning siyosiy va madaniy faolligida tutgan o'rni haqida K.Raxmonov o'zining ilmiy tadqiqotlarida yoritib bergan. Jumladan olimning "Buxoroda mahalliy matbuotning vujudga kelishi tarixidan" nomli maqolasida "Buxoro axbori" gazetasining tashkil topishi haqida to'xtalib, "1920-yil 9-sentyabrda, ya'ni amirlik tuzumi ag'darilganidan roppa-rosa bir hafta o'tib, BXSРning markazi eski Buxoro (hozirgi Buxoro) shahrida o'zbek adabiy tilida, isloh qilingan arab imlosida "Buxoro axbori" nomi bilan gazeta chop etildi. Gazeta Butun Buxori Inqilobiy qo'mitasi, 1921-yildan esa BXSР Markaziy Ijroiya qo'mitasi organi sifatida nashr etilgan. "Buxoro axbori" gazetasining birinchi soni A-3 formatda 2 sahifada, A-4 formatda 4 sahifada yupqa va sifati yuqori bo'lmagan sarg'ish rangli bosmaxona qog'ozida chop etilgan" deb yozadi. K.Raxmonov bilan bir qatorda Buxoroda mahalliy matbuotning vujudga kelishini o'rgangan B.Do'stqorayeva o'zining "Cho'lpon va Buxoro axbori" nomli maqolasida gazetada muhim siyosiy o'rin tutgan F.Xo'jayevning gazetasining sahifalarida e'lon qilgan maqolalari va ularning mazmuni haqida ma'lumotlar beradi. Buxoro xalq sho'rolar jumxuryatining rahbari F.Xo'jayev gazetaga 1921- iyul-dekabr oylarida "Qurultoyga hozirlik", "Sho'rolar hukumati va uning xalqqa foydali bo'lish shartlari", "Xotiramda", "Navbatdagi ishlarimizdan", "Nimalar kerak" kabi maqolalar e'lon qilingan. "Sho'rolar hukumati va uning xalqqa foydali bo'lish shartlari" maqolasida F.Xo'jayev "Bizning inqilobimiz xalq inqilobi, xalqni aksariyatini tashkil etgan dehqon va fuqaro inqilobi, hukumatimiz Xalq hukumati deb atalib, xalq va yurt mudofaasi bilan ma'murdir".

Gazetasining dastlabki muharriri Said Ahroriy hisoblanib, u gazetasining 1920-yil 9-sentabrdan 1921-yil 30-iyuniga qadar bosh muharriri lavozimida ishlaydi. Said Ahroriy "Buxoro axbori" gazetasiga 9 oy ichida 28 ta maqola e'lon qilgan. Ushbu maqolalarning nomlari va mazmuni haqida Sh.Hayitov o'zining "Birinchi

muharrir”nomli maqolasida quyidagi ma’lumotlarni beradi: “S.Ahroriy muharrirligi davomida “Buxoro xabarlari”, “Viloyatlarimizda”, “Sharq dunyosi”, “Chet ellarda”, “Fan va texnika”, “Hukumat tadbirlari” kabi ruknlarga asos solingan. Ayniqsa, “Buxoro xabarlari” rukni ostida BXSRS va unga qo’shni bo’lgan Turkiston ASSR, XXSR, RSFSR kabilardagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayot o’zgarishlari muntazam berib borilgan. Sh.Hayitov S.Ahroriyning maqolalarini tahlil qilib berar ekan uning muharrirligi ostida chiqqan gazeta sonlaridagi maqolalar kechayotgan voqealarni xolis, tanqidiy, ayni paytda oddiy aholiga tushunarli qilib yetkazishi bilan muhim manba bo’lib hisoblanadi degan xulosaga kelinadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Buxoroda paydo bo’lgan dastlabki gazetalar buxoro tarixi bo’yicha turli xil masalalarni yoritishi bilan bir-biridan farq qilgan va ahamiyatga ega bo’lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Abdulazizova N. O’zbek jurnalistikasi tarixi. –T.: Akademiya, 2002, -192 b.
2. Do’stqorayev B. O’zbekiston jurnalistikasi tarixi (1870-1917-yil noyabr). Darslik.- T.:G’afur G’ulom. 2009. 378 b
3. Do’srkorayev B. Ismoil Gasprinskiy va Turkiston. T.: Sharq, 2005. -288 b.
4. Naimov N. Buxoro matbuotining tug’ulishi. / Tarixga muhrlangan 90- yil. ”Buxoronoma” gazetasining 90 yilligiga bag’ishlanadi. Buxoro, 2010. -B.19-20.
5. Shodmonova S. Turkiston tarixi-matbuot ko’zgisida. T.: Yangi nashr, 2011. -B. 48-53.
6. Raxmonov K, Hayitov J. Buxoroda maxalliy matbuotning vujudga kelish tarixidan (XX asrning birinchi choragi) // Buxoro davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. - Buxoro, № 3.-2008. –B. 27.
7. www.ziyonet.uz;

“TAHQIQOT” ASARINING ISLOM TARIXINI O’RGANISHDAGI O’RNI

A.S. Raxmonov,
BuxDU,2-bosqich magistranti
a.s.raxmonov@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Tahqiqot” asarining islom tarixini o’rganishdagi o’rni haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: Xo’ja Muhammad Porso, “Tahqiqot” asari, Buxoro vohasi, Naqshbandiya tariqati.

Muhamad Porso fikriga ko’ra, ilmlarning boshi hikmatdir. Ilmning sharti xavf va qo’rquv bilan bo’lishi lozim. Insonning ilmi qancha ko’paysa, xavf va qo’rquv shuncha

oshadi. Chunki, inson o'sha ilm bilan ish qiladi, uni vositaga aylantiradi. Ilmni mol to'plashga, obro' kasb qilishga yoki chiroyli ne'matlarni qo'lga kiritish vositasiga aylantirmasdan, uni hayotining mazmuni va oxirat vasilasi uchun ogoh bo'lgan holda ishlatishi kerak bo'ladi. Muhammad Porso bu bilan ilmli odamlarning mas'uliyati oddiy odamlardan bir necha barobar ortiq ekanligini bayon qiladi.

Muhammad Porsoning fikricha, ilm payg'ambarlar merosi bo'lib, zohiriy va botiniy ilmlarga bo'linadi. Zohir ilmlari foydali ilmlardan bo'lib, uni sahobalar payg'ambarning so'zlaridan va fe'llaridan olishgan. Tobeinlar va salaf olimlar ularga ergashishgan. O'qib, o'rganib, unga amal qilishgan. Qur'on ilmidan, sunnat, tafsir, axbor va osor, fiqh va shunga ergashuvchi ilmlardan o'rganganlar. Botin ilmi esa o'sha ma'nolarni tanishlik ilmidir. Muhammad Porso "Faslul-xitob" asarida "Bilginki, ilm eng ulug'vasiladir. U Allohga yaqin bo'lish va uning sifatidir. Ilm vositasi va vasilasi orqali ulug'darajalarga etishing mumkin", -deb ta'kidlaydi.

Muhammad Porso ta'kidlashicha, ilmlarning foydalisi, u bilan ish qilinganidir. SHariat ilmi-agar u bilan ish qilinmasa foydasizdir. Agar o'z o'rnida foydali bo'lsa ham. YUlduzlar ilmi folbinlik va turli nomlardagi ilmlar borki, u bilan ma'rifat ilmini, haqiqatni tanish, bilish mumkin emas. Zotan, Allohning ma'rifati o'qish bilan yoki rivoyat qilish bilan hosil bo'lmaydi. Foydasiz ilm ofatlaridan saqlanish, niyatning xolisligiga bog'liq. O'qitilgan dars, qilingan fatvo, munozaralar yaxshilikka, oxirat saodatiga va Haqqa yaqin bo'lishiga xizmat qilishi kerak. Ilmni yoyish, shariatni bayon qilish, dinni himoyalash, ilmni hirs va tama' bulg'anishidan asrash kerak, olimlarning halokatining sabablari shundandir.

Muhammad Porso o'zining "Faslul-xitob" asarida o'zi yashagan davrning olimlari, ularning fazilatlarini bilan birga illatlari haqida ham yozib qoldirgan:

Mazmunan tarjimasi:

Dirham hirsini olimlarni oluda qildi.

Bu xo'rlik ularga kazzoblardan kelmas.

Dodu-hasrato bilan umr tamom bo'ldi.

Hamon bu o'lik hirs qumsiz oxiriga etmaydi.

Muhammad Porso ilmni qadriga etadigan, uni ikki dunyo saodati deb biladigan, xalq og'irini o'ziga oladigan olimlarni ulug'laydi. SHuningdek, ilmni xor qiladiganlarga qarata: "Kim ilmni olimlarga maqtanish, pastlarga ko'rsatish uchun va uning bilan odamlarni roziligini topishga qaratsa, unga faqat do'zax avlodidir", -deydi.

Muhammad Porso o'z fikrlarini mustahkamlash uchun Abu Bakr Kalobodiyning "at-Taarruf" asaridan iqtibos keltiradi: "banda tavhid ilmini o'rgangandan keyin kitobi sunnat, ijmo', salaflar ko'rsatgan yo'lga ko'ra shariat hukmlarini o'rganishga intilishi lozim. Namoz, ro'za va boshqa farzlar, muomala ilmini bilish lozim. Savdo-sotiq ilmini ham ta'bga yarasha o'rganish kerak. Ilm ikki harakat o'rtasidadir. Uni hosil qilishdan oldin unga harakat qilish, hosil qilgach esa unga amal qilish kerak. O'z nafsida nima narsa azizroq bo'lsa o'sha narsani talab qilish qattiqroq bo'ladi".

Muhammad Porso bayon qilishicha, kimki zohiriy ilmlarni to'liq egallab unga amal qilsa, botiniy ilmga o'tadi. "Kimki o'zining bilgan ilmiga amal qilsa, Alloh unga bilmagan ilmni beradi". Zero, kishi ilm bilan o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. Bunda, avvalo, ilmga amal qilishlik, ilm o'rganishdan maqsad faqat moddiy manfaatlarni qondirish yoki shaxsiy g'arazlarga erishish emas, balki ma'naviy ehtiyojni qondirish hamdir. Qur'onning ilk oyatining ham "O'qi", deb tushirilganligi insoniyatga ma'rifat va ilm o'rganish uchun xitobdir. Tasavvuf ahli Haqni bilishning birinchi bosqichi bu zohiriy bilim ekanligini bilib olganlar.

Muhammad Porso ulamolarning ham uch toifa ekanliklarini ta'kidlaydi. Ular muftiylar, muzakkirlar va qozilar. Muftiylar ahli dars va ahli nazar va ahli fatvo hisoblanadi. Bular ham ikki toifadir. Ulardan biri ham dil, ham til olimidir. Ularda qo'rqinch bor ilm bilan amal qiladilar. Fatvo bilan taqvo qiladilar. Ilm tahsil qilish va uni yoyishni najot va oxirat darajalari qiladilar. Dunyoning molu obro'sidan nazarlarini uzadilar.

Ikkinchisi, til olimi dil johili bo'ladi. Uning dilida Allohdan qo'rqish va umid qilish bo'lmaydi. Ilm o'rgatish va yoyishda molu obro' topish niyati bo'ladi. Xalq qabuli va mansab topish uchun intiladilar. Ularning nafsu-havolari g'olib bo'ladi. Uning ilmi nafsu-havosiga bo'ysunadi. Har bir ishni nafs-havo bilan qiladi. Ilmiga amal qilmaydi. Taqvoli olimlarga hasad qiladi. Ularning kiyimiga kirib olib, ularni bo'hton qiladi. Bahsu-jadal maqomida oldinda turadi. O'zini fozil qilib ko'rsatadi.

Muhammad Porso fikriga ko'ra, ba'zi oriflar aytishgan riyozat yo'li u g'olib haddan oshish sifatini uning ziddiga ishlatishidir. Uning teskarisiga amal qiladi. Mushohada, ya'ni harakatning ham me'yori bor. O'sha me'yor bilan o'lchanadi. Agar olim o'sha me'yorni bilmasa, shaytondan salomat bo'lmaydi. Agar o'sha me'yorga ega bo'lmasa edi, biror kimsa o'zining namoz, ro'za, Qur'on o'qishdan iborat bo'lgan ibodatlarining qaysi biri afzalligini bilmas edi. SHuning bilan birga ba'zisi zararli va ba'zisi foydalidir. Agar me'yor bo'lmasa aqlli kishi o'zining ro'zalari va namozlarini qaysi foydali ekanini ajratib ololmas edi.

Manabshunoslik sohalridan biri tasavvuf manbashunosligi deyish mumkin. Chunki, tasavvuf uning tarixi evolyutsiyasi jamiyat hamda inson ma'naviy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tasavvufning tarixi, mohiyati va xususiyatlarini birlamchi nabalardan o'rganish har tomonlama ahamiyatlidir.

Tahqiqotda tasavvuf allomalari orif kishilar haqida shunday fikrlar bor. Ahli kashf va basirat o'zlarining ichki olamini doim poklash va o'zlarini ahli komolotga o'xshatib hamisha tavajjuh bilan yurishadi, shu orqali o'z maqsadlariga yetishishadi. Ular Alloh ta'oloning jalolati va jamoli oldida yo'q bo'lib qolishadi. Lam yazol va loyazol bo'lgan Allohning mahbublari fitratlari pok bo'lgan kishilardirlar. Borliqning o'zgarishlari va koinotning qorong'uligi bu zotlarga ta'sir qilmaydi va ular Allohni hech bir vositasiz tanishadi. "Tongning otishi, chirog'dan behojat qildi. " Alloh ta'olo aytadi: "bu fitrat Alloh ta'olo odamlarni yaratgan asl tabiatdir, Alloh yaratganini o'zgartirib bo'lmas". Ko'zi ochiq, ranglarni idrok qiladigan kishilar uchun o'sha rangni

ushlab, isbotlashga ne hojat. Yer va osmonni yaratgan Allohda shak bormi? Chunonchi, Allohning borligi borliqning o'zidan nishona. Alloh ta'oloning pok zotining borligiga bu borliqdagi yer-u osmon, koinotlarning mazhari dalolat qiladi. Bilinglar, ey birodarlar Alloh ta'olo sizning qalbingizda tavhid nurini ziyoda qilsinki, tavhid bu insoniyat yetishishi mumkin bo'lgan eng oliy maqomdir. Vusqo darajasi shunday oliy maqomdirki, anbiyolar tojidir, avliyolarning ziynatli kiyimidir. Tavhid haqiqatlariga yetishishlik yo'lida yursang, javohiri tamkinni topgaysan va haqiqat xazinalariga yetishasan. Bu na nozik va na qahr-u g'azablik narsadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI'

1. Laknaviy Muhammad Abdulhay al-Hindiy. Hidoya muqaddimasi sifatida yozilgan risola. – Lakhnau: 1974.
2. Muhammad Amim al-Ehson al-Mujaddidiy al-Barkatiy al-Hanafiy. Qovaid al-fiqh. – Karachi: 1987. J. 1.
3. Mustafu ibn Abdulloh ar-Rumiy al-hanafiy ash-shahir bi-Hoji Halifa. Kashf az-zunun an asmo al-kutub va l-funun. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiiyya, 1992. J. 1.
4. Mustafu ibn Abdulloh ar-Rumiy al-Hanafiy ash-shahir bi-hoji Halifa. Kashf az-zunun an asmo' al-kutub va l- funun. – Istanbul: Al-Olam. J. 1. – 294 b.

TALABALARNI KREATIVLIGINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.U.Oripova,
BuxDU 2- bosqich magistranti
m.u.oripova@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalardagi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, vazifalari haqidagi kerakli ma'lumotlar va manbalar keltirib o'tilgan. Maqolada berilgan ma'lumotlar asosida talabalar va pedagoglar o'zlari uchun kerakli tavsiyalarni olishlari mumkin.

Kalit so'zlar: ta'lim, metodika, tafakkur, kreativlik, belgi, mashq, fikrlash, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik.

Аннотация: В данной статье представлены необходимые сведения и источники о социально-психологических особенностях и задачах развития творческих способностей у студентов. На основе информации, представленной в статье, студенты и преподаватели смогут получить для себя необходимые рекомендации.

Ключевые слова: образование, методика, мышление, творчество, символ, упражнение, мышление, творчество, мышление, свобода.

KIRISH

Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. Kreativlik (lot. creatio – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, holatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan.

Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq. Kreativlik (lotincha “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

ASOSIY QISM

Talaba o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Talabalarning psixologik-pedagogik faoliyati va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi Talaba shaxsning kreativligi uning tafakkuri, muloqoti, his-tuyg'ulari, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Aytib o'tilganidek, barcha shaxslarda bo'lgani kabi talabalarda ham kreativlik sifatlari o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Shunga ko'ra kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari mavjud.

Ikkinchi yo'l - Pedagoglar talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalanadilar. Bu o'rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, u talabalarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

Uchinchi yo'l - kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish. Mazkur yo'lda talabalarni muammoni yechish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg'u beriladi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo'llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi.

To'rtinchi yo'l - kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish. Bu yo'lni tutishda pedagog talabalarga turli mavzularda Power Point dasturi yoki multimedia vositalari yordamida taqdimotni yaratish topshirig'ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi. Talabalar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar talabalarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud

bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrashdan qo'rqisalar, bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi.

Talabalarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlash ko'nikmasini mashq qildirish natijasida talabalar faqatgina o'rnatilgan aloqalarga tayanibgina qolmay, balki miyada yangi, ma'noga boy aloqalarni o'rnatish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va yangicha fikrlashga moyil bo'ladilar. Doimiy ravishda olib borilgan mashqlar natijasida yangicha kreativ fikrlash odatiy va avtomatik xarakterga ega bo'ladi. Inson miyasi doimo to'g'ri ishlashga odatlangan, ya'ni miya uchun faqat birgina to'g'ri javob mavjud bo'ladi. Vaholanki, bu kreativlik emas.

Kreativlik – talabalarining o'z qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar to'g'ri bo'lishi mumkin degani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. Shu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun talabalar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim. Talabalarining kreativlik qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, ular kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o'qituvchi va talabalar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lish va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o'rganadilar. Xato qilish yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrash, kamsitilishdan qo'rqish kabi hislatlar talabalarda kreativlikni shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu talabalarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash talabalarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq talabalarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq.

Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari talabalarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu “auditoriyadagi muhit, talabalarda fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategik elementlarini o'z ichiga oladi”. Talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchi alohida o'rin tutadi. Vaholanki, o'qituvchi auditoriyada talabalar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Talabalar kreativlikni auditoriyada o'z g'oya va fikrlarini turli yo'llar bilan ifoda etishlari lozim. Talabalar ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun-qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollarga javob berishda erkin harakat qilishlari ham lozim bo'ladi. Bu esa, talabani mustaqil ishlash jarayonida namoyon bo'ladi. O'qituvchi talabalardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rta tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llabquvvatlaydi.

O'qituvchining talabalar berayotgan kreativ g'oyalari nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi o'qituvchi-talaba munosabatining muhim qismi bo'lib, talabalar muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

XULOSA

“Kreativlik” tushunchasi “ijod” tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, “kreativlik” tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma'no anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko'z o'ngiga ma'lum bir narsani ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin.

Ma'lumotlarni kuzatish natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1) avvalo, har bir dars jarayoni tashkil etilishida aniqlik bo'lishi. O'qituvchi talabalarga erkinlikni, albatta, me'yorida ta'minlab berishi lozim;

2) ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri talabalarning kreativ qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Xato qilishdan, muvaffaqiyatsiliklardan cho'chish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo'rqish hissi mavjud talabalarda kreativlik odatga aylanmaydi.

3) muayyan omillar talabalarda kreativlik sifatleri, malakalarining rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o'qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari kerak.

REFERENCES

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O'zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016 yil, 56 bet.
3. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :- Toshkent 2015,40 bet
4. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To'ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O'quv metodik qo'llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.
5. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua – Toshkent. 2016
6. Jo'rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'lim aasoslangan o'quv-metodik qo'llanma. –T.: Fan, 2005, 66 bet.
7. Aliyev A. Talabalarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent: O'qituvchi,1991.40 bet

MYTHOLOGY IN NATIVE AMERICAN LITERATURE

S.B. Hamroyeva,
2nd year Master student, BSU
s.b.hamroyeva@buxdu.uz

Abstract. Native American literature is rich with mythical characters and legendary heroes that form their cultural aspects throughout the history. The mythology of these cultures often related with nature, spirituality and existence. This article analyzes the role of mythology in Native American literature and how different mythological characters and heroes were depicted in the works of Native American writers. In the analytical part of the article fragments from the novels presenting mythical figures are discussed and their role in the novel is clarified. Common motifs in Native American mythology include trickster figures, shape-shifting animals and powerful nature spirits.

Key words: mythology, trickster figures, Coyote, oral tradition, indigenous people, allusion, Native communities.

Introduction. Native American mythology is rich and diverse, reflecting the cultural, spiritual, and geographical diversity of Indigenous peoples across North and South America. These myths often serve to explain natural phenomena, teach moral lessons, or recount the origins of tribes and their customs. Here are some common mythical figures and themes found in Native American writing, along with examples:

In many Native American traditions, Coyote is a trickster figure known for his cunning and mischief. He often plays pranks on other animals or humans, sometimes with humorous or disastrous results. For example, in some Navajo stories, Coyote is portrayed as a shape-shifter who uses his cleverness to outwit adversaries and navigate through difficult situations.

Raven is a prominent figure in the mythology of Pacific Northwest tribes such as the Haida, Tlingit, and Tsimshian. Raven is often depicted as a shape-shifter and culture hero who brings light, fire, and other essential elements to the world. In some stories, Raven is a trickster who uses his wit to steal valuable objects or disrupt the plans of others.

The Sky Woman: This creation myth is shared by several Indigenous cultures in the northeastern United States and Canada, including the Haudenosaunee (Iroquois) and Huron-Wendat peoples. According to the myth, the world was initially covered in water until Sky Woman fell from the sky and was caught by birds who helped her land safely on the back of a turtle. From there, she created the land and gave birth to the first humans.

White Buffalo Woman: Among the Lakota Sioux, White Buffalo Woman is a sacred figure who is said to have brought the Lakota people the Seven Sacred Rites, including the sacred pipe ceremony. She is often associated with purity, abundance, and spiritual renewal.

These examples represent just a fraction of the vast and diverse body of Native American mythology and storytelling. Each tribe and culture has its own unique myths, legends, and spiritual beliefs that reflect their distinct worldview and connection to the natural world.

There have been several literary critics and scholars who have explored Native American mythology and its significance within literature. One of these scholars is Vine Deloria, who explores the role of Native American spirituality and mythology in shaping Indigenous identity and resistance to colonialism in his book "God Is Red: A Native View of Religion" stating: "The power of the Indian world lies in its spiritual understanding of the universe. This understanding is not a belief or faith, but a profound knowledge"⁶⁶.

Another prominent scholar, Paula Gunn Allen in her book called "The Sacred Hoop: Recovering the Feminine in American Indian Traditions" examines the role of women in Native American myth and culture. As Paula Gunn thinks, "the recovery of the feminine in Native American traditions is essential for restoring balance and harmony within Indigenous communities. By reclaiming the voices and roles of women, we can rediscover the holistic nature of Indigenous spirituality."⁶⁷

"Trickster figures embody the spirit of survivance—the ability of Indigenous peoples to adapt, resist, and thrive in the face of adversity. Through their cunning and humor, tricksters challenge dominant narratives and assert Indigenous sovereignty."⁶⁸ These are ideas of one more Native American literary critic Gerald Vizenor from his book "Crossbloods: Bone Courts, Bingo, and Other Reports." Vizenor is known for his innovative and experimental approach to storytelling.

Barbara Tedlock, an anthropologist and scholar of Maya culture, has written extensively about Native American and Indigenous mythologies. Her book "The Woman in the Shaman's Body: Reclaiming the Feminine in Religion and Medicine" explores the role of women in traditional Indigenous healing practices and spiritual traditions. She claims "women have long been central to Indigenous healing practices and spiritual traditions. By reclaiming the feminine in religion and medicine, we can challenge patriarchal systems and honor the wisdom of Indigenous women healers."⁶⁹

One more literary critic, Brian Swann, a poet, translator, and scholar of Native American literature. His book "Coming to Light: Contemporary Translations of the

66 Deloria Vine. *God Is Red: A Native View of Religion*. — US.: Fulcrum Publishing, 2003. —P. 53

67 Paula Gunn Allen. *The Sacred Hoop: Recovering the Feminine in American Indian Traditions*. — Boston: Beacon Press, 1992. —P. 184

68 Gerald Vizenor. *Crossbloods: Bone Courts, Bingo, and Other Reports*. — Minnesota: Univ of Minnesota Pr, 1990. —P. 69

69 Barbara Tedlock. *The Woman in the Shaman's Body: Reclaiming the Feminine in Religion and Medicine*. — New York: Bantam Books, 2005. — P. 261

Native Literatures of North America" showcases the diversity and richness of Native American storytelling traditions. In this book he says "through poetry, fiction, and mythology, Native American writers reclaim their languages and stories, asserting their cultural sovereignty and resilience. These contemporary translations illuminate the diversity and richness of Indigenous literary traditions."⁷⁰

These scholars, among others, have played integral roles in expanding our understanding of Native American mythology and its significance within literature, culture, and identity. Their works offer valuable insights into the complexities of Indigenous worldviews, spiritualities, and storytelling traditions.

USED LITURATURE:

1. Deloria Vine. *God Is Red: A Native View of Religion*. – US.: Fulcrum Publishing, 2003. –P. 53
2. Paula Gunn Allen. *The Sacred Hoop: Recovering the Feminine in American Indian Traditions*. – Boston: Beacon Press, 1992. –P. 184
3. Gerald Vizenor. *Crossbloods: Bone Courts, Bingo, and Other Reports*. – Minnesota: Univ of Minnesota Pr, 1990. –P. 69
4. Barbara Tedlock. *The Woman in the Shaman's Body: Reclaiming the Feminine in Religion and Medicine*. – New York: Bantam Books, 2005. – P. 261
5. Brian Swann. *Coming to Light: Contemporary Translations of the Native Literatures of North America*.- New York: Vintage, 1996. – P. 102

UMUMIY OVQATLANTIRISH KORXONALARIDA SIFAT MENEJMENTNING ASOSIY TAMOYILLARI

D.S. Raximova

*BuxDU, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi
stajyor-tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonada sifat menejmentining mohiyati ko'rib chiqinladi. Sifat menejmentining 7 ta asosiy tamoyillari, jumladan, iste'molchiga e'tibor qaratish, boshqaruvning roli, xodimlarning ishtiroki, jarayonga yondashuv, boshqaruvga tizimli yondashish, doimiy takomillashtirish va faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilish tamoyillariga tafsilot beriladi.

Kalit so'zlar: sifat menejmenti, mahsulot sifati, boshqaruv tizimi, tamoyillar, mijoz ehtiyoji, talab.

Mahsulot va xizmatlar sifati har doim milliy va jahon bozorlarida raqobatning asosiy omillaridan biri, alohida korxonalar, hududlar va butun davlatlar gullab-

70 Brian Swann. *Coming to Light: Contemporary Translations of the Native Literatures of North America*.- New York: Vintage, 1996. – P. 102

yashnashining ramzi bo'lib kelgan. Iqtisodiy kategoriya sifatida sifat - bu mahsulotga aniq ifodalangan yoki potentsial kiritilgan xususiyatlar to'plamini iste'mol qilishning muayyan sharoitlarida ehtiyojlarini qondirish darajasini tavsiflovchi ijtimoiy baholash [1]. Ushbu menejmentga ko'ra, sifat - bu sifat jihatidan tashkilotni boshqarish va boshqarishning muvofiqlashtiruvchi faoliyati[2].

Sifat menejmenti tizimi (SMS) korxonaning sifat sohasidagi siyosatini amalga oshirish, mahsulot (ishlar, xizmatlar) sifatini tartibga solish darajasiga erishish va saqlash va iste'molchilar talablariga muvofiqligini ta'minlash, xizmat sifatini doimiy ravishda yaxshilash, iste'molchi, shuningdek, boshqa manfaatdor tomonlar sifatida ushbu xizmatlardan qoniqishni oshirish maqsadida yaratilgan. [5,6]. Sifat menejmenti tizimi korxonaning xizmat ko'rsatish faoliyatini umumiy boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo'lib, korxonada umumiy sifat menejmenti asosida yaratiladi. Ovqatlanish korxonasida sifat menejmentining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1-tamoyil: Iste'molchiga e'tibor qaratish. Ovqatlanish tashkilotlari o'z mijozlariga bog'liq va shuning uchun mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun ularning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini tushunishlari kerak. Korxonada xizmatining sifati mijozlarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, korxonalar korxonada xohlagan narsani emas, balki mijozga kerak bo'lgan xizmatni ko'rsatishi va sotishi kerak. Korxonada va tashkilotlar o'z xo'jalik faoliyatini iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish asosida daromad olish, yashash va rivojlanish maqsadida amalga oshiradilar. Bu shuni anglatadiki, mijozlar biznesga foyda keltiradigan odamlardir. Mijozlarga e'tibor qaratish korxonalariga hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini, qayerda va nimani xohlashlarini aniq belgilashga yordam beradi. Mijozlarning ehtiyojlari har doim kompaniyalar mijozlarga sotadigan mahsulot va xizmatlar orqali qondiriladi. Korxonalar mijozlarning qalbi va ishonchini qozonish uchun iste'molchilarga nafaqat ko'proq e'tibor, balki mijozlar ehtiyojlarini ham oldindan qoniqtirgan bo'lishlari kerak. Shu bilan birga, korxonada doimo xizmat ko'rsatishni yaxshilash yo'llarini izlashi kerak. Mijozlarga yo'naltirilganlik nafaqat oddiy tamoyil, balki korxonada biznesini boshqarish tizimini ajratishning muhim qismiga aylandi.

2-tamoyil: Boshqaruvning roli. Rahbarlar biznesning maqsadi va yo'nalishi o'rtasidagi birlikni ta'minlaydi. Menejerlar xodimlarni korxonada maqsadlariga erishishga yo'naltirish uchun korxonaning ichki muhitini yaratishi va qo'llab-quvvatlashi kerak. Sifatni boshqarish faoliyati menejerlar ishtirokisiz natijalarga erisha olmaydi. Tashkilot rahbarlarining qarashlari, aniq maqsadlar qo'yishi, aniq va mijozlarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Menejerning ushbu maqsadlarga sodiqligini ta'minlash va tashkilot a'zosi sifatida uning shaxsiy etakchiligini amalga oshirish muhimdir.

Sifat menejmenti - bu menejer sifat siyosati va uning maqsadlarini belgilaydigan faoliyat turlari, umumiy boshqaruv funktsiyalaridir. U o'z majburiyatlarini sifat tizimi doirasida sifatni rejalashtirish, sifat nazorati, sifatni ta'minlash va sifatni yaxshilash kabi chora-tadbirlar orqali amalga oshiradi. Shunday qilib, samarali boshqaruvni

amalga oshirish va sifat menejmenti tizimini qo'llab-quvvatlashda boshqaruv faoliyati muhim ahamiyatga ega.

3-tamoyil: Xodimlarning ishtiroki. Odamlar va xodimlar korxonaning eng muhim resursi bo'lib, xizmat sifatini ta'minlashda xodimlarning faol ishtiroki, ularning bilim va tajribasi biznes muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tashkilot korxonaning barcha a'zolari ishtirok etadigan, korxonada muvaffaqiyati uning hissasi va sa'y-harakatlariga bog'liq bo'lgan operatsion tizim sifatida ishlaydi. Shu sababdan, korxonani ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qarash kerak [3, 54-68], bunda faoliyat samaradorligi inson kapitalining rivojlanishini ta'minlaydigan ham texnologik, ham ijtimoiy omillarga bog'liq [4, p. 29-42]. Tashkilotda inson omilining rivojlanishi, asosan, yuqori sifatga erishish uchun tashkilotning kuchini oshirish uchun ichki resurslarni rivojlantirishdir. Sifat menejmenti tizimida kompaniyaning butun jamoasi, yuqori darajadan quyi bo'g'ingacha, sifat tizimini joriy qilish va saqlashda bir xil darajada muhim rol o'ynaydi. Jamoaning barcha a'zolari doimiy ravishda mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga intilishlari kerak. Har bir darajadagi xodimlar o'z lavozimiga muvofiq funksiyalarni bajarishi kerak.

4-tamoyil: Jarayonga yondashuv. Resurslar va tegishli faoliyatlar jarayon sifatida boshqarilsa, kerakli natijalarga samarali erishish mumkin. Jarayon - bu bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va tashkilot uchun qimmatli natijalar / xizmatlarni yaratish uchun mantiqiy ketma-ketlikda amalga oshiriladigan tadbirlar to'plamidir. Samarali ishlashi uchun tashkilotlar tegishli va o'zaro ta'sir qiluvchi jarayonlarni belgilashi va boshqarishi kerak. Odatda, bitta jarayondan chiqish keyingi jarayon uchun kirishni yaratishni o'z ichiga oladi. Tashkilotda sodir bo'ladigan jarayonlarni aniqlash va boshqarish, ayniqsa bu jarayonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni boshqarish "jarayon yondashuvi" deb ataladi. Sifat menejmentiga jarayon sifatida qarash kerak, chunki tegishli faoliyat jarayon sifatida boshqarilsa, yaxshi boshqaruv natijalariga erishiladi. Jarayon - bu kirishlarni chiqishga aylantiradigan hodisalar ketma-ketligi. Jarayon samarali bo'lishi uchun chiqish qiymati kiritilgan qiymatdan kattaroq bo'lishi kerak, ya'ni jarayon qo'shimcha qiymat beradi.

5-tamoyil: Boshqaruvga tizimli yondashish. Bu yondashuv korxonalar samaradorligini ta'minlaydigan umumiy maqsad bilan bog'langan jarayonlar tizimini boshqarish sifatida sifatni tushunish va boshqarishni o'z ichiga oladi. Tashkilotlar sifatga ta'sir qiluvchi har bir omilning sifat muammosini alohida hal qila olmaydi, lekin sifatga sinxron va tizimli ravishda ta'sir qiluvchi barcha omillarni hisobga olish kerak. Tizimli boshqaruv usuli tashkilotning umumiy maqsadlariga erishish uchun barcha resurslarni samarali qo'llash va muvofiqlashtirishdan iborat.

6-tamoyil: Doimiy takomillashtirish. Doimiy takomillashtirish har qanday korxonaning maqsadi va usulidir. Raqobatbardoshlik xizmatlar sifatining eng yuqori darajasiga ega bo'lish uchun korxonalar doimiy ravishda o'z ishini yaxshilashlari kerak. Sifat mijozga yo'naltirilgan. Biroq, mijozning talablari va istaklari har doim o'z ehtiyojlarini qondirish ortib borishiga qarab o'zgaradi, shuning uchun sifat talablari

doimo o'zgarishi kerak. Sifatni yangilash va yaxshilash uchun uni doimiy va doimiy ravishda takomillashtirish kerak. Yaxshilash kichik bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, siz boshqaruv usullarini takomillashtirishingiz, innovatsion jarayonlarni, uskunalarni, texnologiyalarni, resurslarni takomillashtirishingiz va hatto boshqaruv tuzilmasini boshqa joyga ko'chirishingiz mumkin. Biroq, yaxshilanishlar ehtiyotkorlik bilan hisoblab chiqilishi va tashkilotning maqsadlariga mos kelishi kerak.

7-tamoyil: Faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilish. Samarali bo'lishi uchun biznesni boshqarish tizimining barcha qarorlari va harakatlari aniq ma'lumotlar va aniq ma'lumotlar tahliliga asoslangan bo'lishi kerak. Muammolarni faqat g'oyalar asosida hal qilib bo'lmaydi; hamma narsa aniq faktlarga asoslangan bo'lishi kerak. Baholash tashkilot strategiyasiga, jarayonning tanqidiy tahliliga, jarayonning kirish va natijalariga asoslanishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, sifatni boshqarishning barcha kontseptsiyalari, tamoyillari va ularning o'zaro ta'siri har doim bir-biridan ajralgan holda emas, balki bir butun sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Hech bir tamoyil boshqasidan muhimroq emas. Sifatni boshqarishning etti tamoyilini qo'llashda hal qiluvchi omil doimo to'g'ri muvozanatni topishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vaynsveg A. Benuqson xizmat: Har bir mijoz o'zini qiroldan his qilishi uchun: Per. Ingliz tilidan M.: "Yaxshi kitob" nashriyoti, 2006. – P – 152.
2. Vasyukova A.T., Pivovarova V.I., Pivovarov K.V. Umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulot sifatini boshqarish. M.: Dashkov 2006. – P – 296.
3. Erdosh J. Catering: Saytdan tashqari restoran biznesini qanday boshlash va muvaffaqiyatli olib borish kerak / trans. ingliz tilidan M.: Alpina Business Books, 2005. - P - 238.
4. Burmenko T.D. Xizmat ko'rsatish sohasi: iqtisodiyot, menejment, marketing. Seminar: darslik. Knorus, Moskva-2016.
5. Kondratyev K.P. Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmatlarni tashkil etish. Ulan-Ude. VSTU nashriyoti 2007 yil.
6. A. Popov, E. A. Popov, M. V. Kolmykova, S. P. Spiridonov. Sifat menejmenti tizimi. Tambov, 2010. - P. 6.

TALABALARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA, XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATINING O'RNI VA AHAMIYATI

Z.N. Xayrullayeva,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
z.n.xayrullayeva@buxdu.uz

Shaxsning ma'naviy madaniyatini tarbiyalashning tarkibiy qismlaridan biri uning badiiy madaniyatni egallashidir va uni o'zlashtirish uning butun hayoti davomida izchil amalga oshiriladi. Biroq, taraqqiyot nafaqat yakuniy natija, har qanday badiiy va madaniy jarayonning natijasi, nafaqat jamiyatda madaniyatni tarqatish maqsadi, balki insonning atrofdagi voqelikka munosabati va ma'naviy va ma'naviyat darajasining eng muhim belgisidir.

Shaxsning asarlar yaratish, rivojlantirish va tarqatishdagi amaliy faoliyati badiiy yoki yuqori estetik ahamiyatga ega bo'lgan moddiy va badiiy ob'ektlarga baholanadi. Badiiy madaniyatning maqsadli rivojlanishi har bir shaxsning badiiy ijodiyoti va uning natijalarini shaxsning ijtimoiy, estetik, axloqiy-axloqiy sifatlari tizimiga aylantirishdagi muhim jarayondir. O'quvchilarning ma'naviy-estetik rivojlanishi, asosan, badiiy ta'lim va tarbiya jarayonida badiiy vositalar orqali ta'minlanadi. San'atning har bir turi voqelikni badiiy va obrazli aks ettirishning o'ziga xos vositalari bilan bolalar ongiga ta'sir qiladi, ularning bilim imkoniyatlarini kengaytiradi va shu bilan atrofdagi voqelikka hissiy munosabatni shakllantirish va go'zallikni o'zlashtirish jarayonining sifat darajasini ta'minlaydi. Katta kognitiv salohiyatga ega bo'lgan ko'plab san'at turlari orasida tasviriy va xalq amaliy san'ati ham mavjud bo'lib, ular odamlarning hayot haqidagi g'oyalarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Go'zallikni xalq amaliy san'ati orqali anglashning alohida ahamiyati quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

Birinchidan, ushbu san'at asari atrofdagi dunyoni idrok etishning ma'lum madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga imkon beradi, boshqa san'at turlarining badiiy va ifodali vositalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va milliy badiiy va madaniy qadriyatlarga hurmatni tarbiyalaydi;

Ikkinchidan, bilim va to'laqonli g'oyalar san'atning ijtimoiy ahamiyatini, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini aniqlash imkonini beradi.

Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning badiiy faoliyati va ijodiy rivojlanishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan idrok etish qobiliyatlari va san'atga samarali munosabatning shakllanish darajasiga bog'liq. Dekorativ amaliy san'at asarlari tasviriy san'atning boshqa turlaridan farq qiladi. Bu nafaqat tasviriy til, balki asarlarning mohiyati va mazmunidir. Dekorativ-amaliy san'atning obrazli tilini o'zlashtirish va u orqali ularni xalqning moddiy-badiiy qadriyati, estetik an'analari bilan tanishtirish jarayonida o'qituvchidan idrok va ko'rgazmalilikni tashkil etish va boshqarishda maqsadli uslubiy va ijodiy yondashishni talab qiladi.

Talabalarga san'at shakllarining o'zgaruvchanligi mantiqini ularning o'z xalqining ijtimoiy hayoti strukturasiidagi o'zgarishlar, estetik ideali va badiiy an'analari bilan uzviy bog'liqligida yetkazish, shu orqali talabalarga qiziqish bilan ta'minlash imkoniyatini berish printsiplal jihatdan muhimdir. bu o'zgarishlarning tarixiy sabablarini tushuning. Shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchilarning xayoliy tafakkuri asosan o'z onalik san'ati ta'sirida, ona tabiati va o'lkasining rangi ta'sirida shakllanadi. O'z xalqining butun donishmandligi, ideali, didi, estetik an'analari, tarixi

mujassamlashgan o'z xalqining badiiy tilini puxta egallamasdan turib, boshqa xalqlar san'atining obrazli tilini o'zlashtirib bo'lmaydi.

Yosh avlodga badiiy ta'lim va tarbiya, san'atga estetik munosabat, o'z xalqining badiiy madaniyati va an'analari o'zlashtirishga oid pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida tarbiyaviy ish jarayonida quyidagi pedagogik muammolarni hal qilishni taqozo etadi:

Talabalar tomonidan xalq amaliy san'atining tasviriy tilining o'ziga xos xususiyatlari, xalq hunarmandlari tomonidan badiiy buyumlar yaratish tamoyillari va atrof-muhitni estetik jihatdan o'zgartirish an'analari to'g'risida g'oyalarni to'plash bo'yicha maqsadli yo'l-yo'riqlar tashkil etish. qozoq xalq amaliy san'atining tarixiy va milliy xususiyatlari haqida tushunchalarni shakllantirish;

Dekorativ-amaliy san'at asarlarini tahlil qilish va baholash usullarini o'zlashtirgan holda birlikda go'zallik haqidagi estetik mulohazalar va tushunchalarni shakllantirish, o'quvchilarni san'at bilan qayta aloqa qilishga undash va baholash idrokini rivojlantirishga hissa qo'shish;

Talabalarda axloqiy va estetik tuyg'ularni shakllantirish, ilg'or estetik qadriyatlarga, axloqiy me'yorlarga, shuningdek, xalqning badiiy madaniyat sohasidagi yutuqlariga hurmatni targ'ib qilishdan iboratdir.

Dekorativ-amaliy san'at asarlarini o'rganish jarayonida tashkiliy-ommaviy ish shakllari muhim rol o'ynaydi:

- ❖ san'at muzeylariga, amaliy rassomlar ustaxonalariga, me'moriy yodgorliklarga ekskursiyalar;
- ❖ san'at va hunarmandchilikni yig'ish;
- ❖ mahalliy amaliy san'at ustalarining ko'rgazmalarini tashkil etish;
- ❖ yil yakunlari bo'yicha talabalarning ishlari ko'rgazmalarini tashkil etish;
- ❖ xalq hunarmandlari va amaliy rassomlar bilan uchrashuvlar.

Binobarin, xalq hunarmandchiligi va badiiy hunarmandchilik san'atda har bir insonni o'z xalqining tarixi, madaniyati va turmush tarzi bilan bog'lovchi eng muhim va yaqin manbalardan biridir.

Ular nafaqat ma'lum badiiy vositalar bilan ifodalangan tabiat hodisalari va predmetlarining go'zalligi mohiyatini tushunishga, balki shaxsni ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ham hissa qo'shishi kerak. Shunga ko'ra, estetik va axloqiy tamoyillarni tarbiyalash jarayoni o'quvchining nafaqat o'z ona yurtining tabiati, o'z xalqi hayoti bilan yaqinroq bo'lish, balki madaniy madaniyatni shakllantirishda ishtirok etish istagi bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Shuningdek, badiiy qadriyatlar va go'zallikning ma'nosini tushunish, o'z xalqining o'ziga xos milliy xususiyatlari va tarixiy madaniyatini hisobga olish. Uni ob'ektlarning dekorativ sifatlarida stilizatsiya ma'nosi va ma'nosini eng aniq va qulay tarzda ochib berish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lum vizual vositalar bilan ifodalash, inson, birinchi navbatda, ideal badiiy tasvirni mos keladigan moddiy shaklga rasmiylashtiradi.

Bu aslida, ko'rinadigan estetik qiymatni ifodalaydi. Badiiy ta'limning asosiy maqsadi insonning ma'naviy madaniyatini shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish, milliy madaniy merosni o'zlashtirish, dekorativ-amaliy va xalq amaliy san'ati sohasidagi ishlarning o'ziga xos jihatlari bilan tanishtirish, o'quvchilarni kamol toptirishdan iborat, deb bilamiz. Tasviriy qobiliyat, badiiy did, ijodiy tasavvur, fazoviy tafakkur, tasviriy san'atga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash uchun muhim rol o'ynaydi.

Xulosa, o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, xalq amaliy san'atini talabalarning pedagogik madaniyati va dunyoqarashi, ilmiy hamda ijodiy ishlarini rivojlantirish hamda shakllantirish uchun asosiy tayanch hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пучкова Е.В. Условия эффективности организации художественно-творческой деятельности / Е. В. Пучкова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 5 (64). — С.551-553. — URL: <https://moluch.ru/archive/64/10374/>
2. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства / Н. Н. Ростовцев. — М.: Учебное пособие, 2000. — 282 с.
3. Рязская Т. М. Развитие детской руки и подготовка её к письму / Т. М. Рязская. — М.: Академия, 2003. — 103 с.
4. Сокольникова Н.М. Изобразительное искусство и методика его преподавания / Н. М. Сокольникова. — М.: Учебное пособие, 1998. — 256 с.

XOJA ALOUDDIN ATTOR VA MUHAMMAD PORSO MEROSINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

A.A. Yakubov,
BuxDU, 2-bosqich magistranti
a.a.yakubov@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xoja Alouddin Attor va Muhammad Porso merosining tarbiyaviy ahamiyati masalasi tarixiy manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Xoja Alouddin Attor, Muhammad Porso, tasavvuf, ma'naviy meros.

Tasavvuf – Qur'oni karim, hadisi sharif va shariat tushunchalari bilan tasavvuf bo'la oladi. Shu jihatdan balarsiz olganda so'fiylik, ilohiy ishq, komillik to'g'risida aytilgan fikr-mulohazalar muyyan ahamiyat va qiymat kasb etmaydi. Tasavvufning asli botillikdan forig', har turli fitna va jaholatdan yiroq olamidagi barcha yo'l, barcha ta'limot oqimlari haqiqati Muhammadiyaga borib bog'lanadi. Bunga qanoatlanarli darajada ishonch hosil qilmoq uchun tasavvufning zuhd bosqichi va ilk so'fiylarning

amaliy hayoti, mulohaza va xulosalari bilan tanishish kifoya qiladi. O'ninchi, ayniqsa o'n ikkinchi asrlarga kelib esa salbiy o'zgarish, inonch-e'tiqodda buzilishlar ustunlik qila boshlagan. So'fiylikda soxtakorlik, makr, hiyla va riyo avj olgan.

Tasavvufdan bo'lmagan narsalar unga kiritilgan. So'fiylik yo'lida valiy, orif yo shayx bu muborak va muqaddas yo'lni o'zining sezgisi, mushohadasi va ifoda tarziga muvofiq izohlaydi. Chunonchi, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni bu yo'ldan zuhd va taqvo holi bilan yurgan bo'lsa, Jaloliddin Rumiy ishq va zavq yo'lini tanlagan. Ammo na G'ijduvoni, na Rumiy beqiyos va betakror ushbu yo'lni o'zining tabiati, xohishi bo'yicha o'zgartirishni xayolga ham keltirmagan. Haq oshiqclarini – haq oshig'i, mujtahidlarni – mujtahid, irfon ahlini – irfon sohibi qiyofasida bilish muhim sanaladi.

Hazrati Xoja Alouddin “Tangri inoyati bilan Hazrati Xojamiz qaddasallahu sirrahuning muborak nafasclari barakatidan toliblar ko'pincha birinchi qadamdayoq muroqaba davlatiga musharraf bo'lar edilar. Agar bu inoyat nazari va tarbiyatlari ziyoda bo'lsa adam (yo'qlik) darajasiga yetardilar. Agar bu nazar bundan ziyoda bo'lsa fano maqomiga yetishar edilar. O'zlaridan butunlay foniy bo'lib, Haqqa boqiy bo'lardilar. Shunda Hazrati Xojamiz iltifot qilardilar: “Bu davlat hosili vositasi ila o'zidan butunlay uzilish va haqiqiy maqsudga yetishish kerak!” [1:62-63]. Avliyolarning karomatlari haqdir. Bahouddin Naqshbandga bejizga Balogardon nisbati berilmagan, sababi xalq boshiga tushgan ko'plab ko'ngilsizliklarni bartaraf etgan. Tarbiya topish uchun kelgan shogirdlar ham to'g'ridan to'g'ri Hazrati Xoja yonlariga bormagan. Avval Xoja Alouddin Attor nazoratida boshlang'ich bilimlarga ega bo'lgandan so'nggina Bahouddin Naqshband suhbatlariga ruxsat berilgan. Xoja Alouddin Attor guvohlik beradiki, suhbat chog'ida Bahouddin Naqshbandning qalb ko'zi va zehnli nigohi har qanday shogird qalb ko'zlarining ochilishiga sabab bo'lardi. Ba'zi shogirdlar birinchi suhbatdayoq bunga musharraf bo'lardilar.

Hazrati Xojamiz birinchi marta Hijoz safaridan qaytganlarida bir necha muddat Marvda turdilar va ziyorat qilish uchun do'stlarga ruxsat etdilar. Marvda katta yig'in barpo bo'ldi. Xurosonliklar bunday suhbatni ko'rmagan edilar. Bir kungi yig'inda Hazrati Xojamiz dedilar: “Har kim bir ovozdan gurm (Bu yerda bizningcha ishqiy bayt o'qish nazarda tutilayotgan bo'lsa kerak.) aytsin. Xoja avval o'zlari boshladilar va gurm aytdilar. Shunday qilib o'n besh – yigirma kishi gurm aytdi. Navbat Xoja Alouddin va Mahmud Xojaga keldi. Mahmud Xojadan ter sharillab oqa boshladi. O'rnidan turib, “Fotiha” o'qishga ijozat berishlarini so'radi, ijozat bo'lgach, “Fotiha” ni o'qidi. Xoja Alouddin ham qo'rqib-qaltirab bir bayt o'qidilar. Navbat oxiri Shayx Rashidga keldi. Mana bu baytni o'qidilar.

Har kase az suyi kuyat rah kujo donal, ki xast,

Rohi tu xum dar xumu sad ajdaho dar hume [1: 64-65].

Bahouddin Naqshband ikki marta Haj safarida bo'lib, safar chog'ida ko'plab shaharlarda suhbatlar uyushtirgan. Birinchi safaridan qaytayotib Xurosonning yirik Marv shahriga to'xtaydi. Shahar ahli bunday mazmunli va ta'sirli suhbatdan bahramand bo'lmagan edi. Bahouddin Naqshband o'z so'zlarini nazmda ham, nasrda ham birdek

yetkaza olgan. Shu xususiyatini o'z shogirdlarida ham ko'rishni istagan va ulardan ham talab qilgan. Bu bilan din ahli she'r va noyob nutq egasi bo'lishi, kam so'z bilan keng ma'noli gaplarni xalqqa yetkazish kerakligi, dunyoviy ilm ahli esa so'zlaridagi vaznsizlikni yo'qotishi talab etiladi. Xoja Alouddin Attor baytni ung'aysizlanib keltirganligi alloma biror bir asar yozmagan degan hulosa kelish noo'rin. Hazrati Xojamiz hol avvalida Xoja Alouddinni o'z oldilarida ko'p tutar edilar. Bu haqda yomonlar savol qilganlarida, shunday dedilar: "Uni bo'ri yemasin deb oldimga o'tqizaman. Uning bo'ri nafs doimo pistirmadadur. Har lahza uning holidan xabar olaman, to menga uning holi bilinib tursin" [1: 66].

Demak, Bahouddin Naqshband o'z shogirdlarini doimo ardoqlab ularning holatlaridan xabardor bo'lganlar. Ustoz-shogirdlikning o'ziga xos tarbiyaviy, ta'limiy, axloqiy normalariga mal qilishlarini talab qilganlar. O'z o'rnida shogirdlari ham o'z murshidlariga sadoqat ko'rsatganlar.

Manbalarda keltirilishicha, Bahouddin Naqshband Xoja Alouddin Attorga shunday bog'langanki, shogirdining kamolotga yetishishini qattiq xohlagan. Shu bilan birga o'zining eng ishonchli shogirdlaridan biri sifatida bilgan. Inson taftini oladigan, his-tuyg'ulari haqida fikrlashadigan yaqin suhbatdosh va ishonchli do'st o'rnida qabul qilgan. Shogirdini faqat nafs bo'risidan himoyalabgina qolmay qanotlari ostida noyob iste'dod egasini o'stirgan. Shogirdining har nafasidan ogoh bo'lib, uning xato qilishiga imkon bermagan. Bu "nafs bo'risidan" himoyalashning konsepsiyalari Alouddin Attor taklifi bilan Xoja Muhammad Porso tomonidan ishlab chiqilgan. Mutasavvifning ta'kidlashicha, har qanday ishda nafsoniy maqsad paydo bo'lsa 764ravel qochadi. Qalb to'g'ri yo'ldan adashib, noto'g'ri yo'lga mayl qiladi. Nafsnig maqsadi paydo bo'lib, nafs murodining hosil bo'lishi uning halokatidan boshqa narsa emas. Agar nafs maqsadi qaytarilsa, bu uning najot topganidir. Mutasavvif quyidagi mazmundagi Qur'on oyati bilan o'z fikrlarini asoslaydi. "Nafsni kim havodan qaytarsa 764ravel uning joyi bo'ladi". Demak, nafsni jilovlash uni tarbiyalashning o'ziga xos mashaqqatlari, yo'llari bor. Uni bartaraf etishda ustoz-va shogirdning qanday vazifalari borligini ham Porso o'z qarashlarida bayon etgan. Bu yo'lda muridga tanbeh berish, uning xatolariga himmat bilan chora 764ravele ustoz Pirning vazifasidir". Shuningdek, professor B. Namozov tadqiqotlarida Xoja Muhammad Porsoning nafs tarbiyasida qilish kerak bo'lgan amallarni quyidagicha ifodalaydi. Xoja Muhammad Porso nafsni tarbiyalashda ustoz bo'lmagan murid, ustoz topgunga qadar o'z nafsini jilovlashda to'qqiz amalni o'ziga lozim tutishi kerakligini ta'kidlaydi [2:68].

Shundan to'rtasi zohirda. Bular:

1. Ochlik-ochlik ummat va millat nazdida ulug' sharafiga egadir. Zohiriy och bo'lgan kishining xotirasi tez, hamma narsaga qobiliyatli va tandurust

bo'ladi. Ochko'z bo'lmaydi va ibodatga moyil bo'ladi. Ochlik bu nafsni o'ziga bo'ysundirish, qalbni Haq itoatiga to'ldirishdir.

2. Safar-bu mashaqqat, safar nafsni xor qiladi. Nafsni isloh etadi.
3. Sukut-tariqat ahllari o'z so'zlarida ma'zun va muztadirlar, ya'ni ruxsat berilganligi yoki majbur bo'lganlari uchungina gapiradilar. Sukutlarida esa uyatchan va bechoradirlar. Sukutning sharti shuki, botil uchun sukut qilmasin, so'zlamonqning sharti haqdan boshqa narsani so'zlamasin.
4. Uzlat-hayotdan qochish, turmushdan ajralish, odamlardan bezish ehtiyoji emas, balki ma'lum muddat o'z ustida ishlash, zikr ibodat bilan mashg'ul bo'lish ruhiy kamolot hosil qilishdir.

Beshtasi botinda:

1. Sidq-Allohning yaxshi amallar evaziga mukofot berish to'g'risidagi va'dalari va yomon amallar evaziga jazo berish to'g'risida ogohlantirishlarini tan olish hamda ko'ngilda, 765rave amalda to'liq tasdiqlash.
2. Tavakkul-o'zini topshirish, ya'ni bandaning o'z taqdirida yuz beradigan barcha voqea va hodisalar, yaxshi va yomon ishlarni Allohdan deb bilish, o'zining Alloh tomonidan belgilangan taqdiriga rozi bo'lish, o'z taqdiri bilan bog'liq barcha narsalarni Allohning hukmiga topshirib qo'yish.
3. Sabr-chidam, sabot, bardosh. Tasavvufda o'z ixtiyori bilan nafsni tiyish, yoqmagan narsa sodir bo'lsa haqdan qo'rqib undan umidvor bo'lib o'zini tutish. Nafs sabr bilan jilovlanadi, toatida halovat 765ravele ham sabr bilan bog'liqdir.
4. Qasd-irodaning birlashishi, g'azabdan xoli pok tutish, dilning istig'roq holi.
5. Yaqin-to'la ishonch.

Shuningdek, Xoja Muhammad Porso ma'rifat ahllarida nafsdan foniy bo'lish quyidagi uch holatda kuzatilishini ta'kidlaydi:

1. Fano holatiga g'arq bo'lish. Fano (yo'qlik), ba'zan xususiy sifatlarni yo'qotishdan iborat, ya'ni shunday holatki, so'fiy aqlidan mahrum bo'la turib, aqlsizlik (bunda aql ishtirok etmaydi) holatiga tushadi. So'fiy fano holatidan keyin yangidan o'z sifatlarini kasb eta oladimi, degan savolga buyuk so'fiylar aytishadiki, so'fiy fano holati yo'qolgandan keyin o'z sifatlariga qaytadi, deydi. Ularning aytishicha, yo'qolish, o'lish – bu ilohiy in'om hisoblanadi, so'fiy o'shanga loyiq bo'lishi lozim. Bu holat Xudo oldida maxsus sajda qilish belgisidir, ammo bu kasb etish holati sanalmaydi. Xoja Muhammad Porso va boshqa so'fiylarning fano va baqo tushunchalariga tayanib yaponiyalik olim Tosoxiko Izusu fanoni shunday sharhlaydi, fano bu o'zining xususiy "Men"ini to'la yo'qotilishini anglashigacha davom etadi va o'shanda faqat sof, mutlaq haqiqatning yagonaligi qoladi. Bu uning ikkilanib, sub'ekt (Xoliq) va ob'ektga (maxluqqa) ajralganicha mutlaq anglashi sifatida qoladi. Muhammad Porso Abu Bakr Kalobodiy va G'azzoliy ta'limotlariga asoslanib, nafs va nafsning haqqi orasidagi farq muammosini hal qilishda o'rta yo'lini topishga harakat qilgan. Darhaqiqat, ustoz

shogirdlik avvalo o'z ustozini qadrlash uning aytganlarini so'zsiz bajarish, qat'iyatli bo'lish, ilmni olish bilan bo'ladi. So'fiyona an'analarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri yuqorida aytganimiz singari shogirdning nafsini tarbiyalashda ko'maklashish o'zligini anglashga yo'naltirishdan iborat bo'ladi. Alouddin Attor Bahouddin o'rtasidagi ustoz shogirdlik ushbu an'analari asosida shakllangan ediki, uning shogirdlari yuksak maqomlarga erishdilar. Ustozlaridan keyin uning g'oyalarini keng targ'ib qilib tariqatning jahon xalqlari ma'naviy merosining durdonasiga aylantirdilar. Shu o'rinda Bahouddin naqshbandning "Man arafallaha la yaxfi alayhi shay'un" (Kimki Allohni tanisa, undan hech narsa mahfiy qolmaydi.) degan so'zlarini sharhlab, Xoja Alouddin Attor aytar edilar: "Ularning bu qudsiy kalimalaridan murod shuki, orifga narsalar sirining ayon bo'lishi, uning tavajjuh qilishiga bog'liqdir" [1:93]. Xulosa qilish mumkinki, Alouddin Attor shogird sifatida ustozining qudsiy so'zlarini sharhlab tushunarli iboralar bilan ifodlaganlar. Qudsiy kalimalarni sharhlash har kimning ham qo'lidan kelavermagan.

Bir kuni Xojamiz yo'lda ketib borar, egnilarida eski po'stini bor edi. Ularning endi zuhur qilayotgan paytlari edi. Buxoroning ulug'lari va ulamolari hali ularning muborak suhbatlariga musharraf bo'lmagan edilar. Shu payt Mavloni Hisomiddin Xoji Yusuf bir guruh tolibi ilmlar bilan ularning ro'paralaridan chiqib qoldi. Hazrati Xojamiz yo'lning bir chetiga o'tdilar va yo'lda davom etdilar. Ular bilan bu guruhning o'rtasida hali ancha masofa bor edi. Xoja Yusuf guruh orasidan ajralib chiqib Xoja tomonga qarab, bir necha qadam yurdilar va nihoyatda tavoze bilan ularga salom berdilar. Xoja salomga alik olgach, Xoja Alouddin Attorga: Olimlardan biz bilan tanish bo'ladigan birinchi olim shu buzrug bo'ladi, dedilar. Hazrati Xojaning bu muborak nafasleri doimo Alouddinning xotiralarida yod edi. Yetti yildan keyin bu muborak nafasning asari zohir bo'ldi va Xoja Yusuf Hazrati Eshonga yetishdilar [1:100].

Bahouddin Naqshbandning har bir aytayotgan so'zi besamar emas, asosli va chuqur mushohada qilinib asoslanib aytilgan. Xoja Yusuf haqida aytgan gapi yetti yil o'tgach sodir bo'lishi yoki nabirasi Hasan Attorning do'stlari bilan buzoq minib yurganda, erkalab, "Hali jilovingni podshohlar tutadi" deganda adashmagan edi. Oradan ko'p yillar o'tib Shohrux Mirzo Hasan Attorga hadya qilgan ot, hurkib bir necha qadam bosganda podshohning ot jilovidan torib turganini ko'rib, Hasan Attor bobosi so'zlari ijobat bo'lganining guvohi bo'ldi. Fanda prognozlash yoki ilmiy faraz nomi bilan kirgan holatlar ham bunchalik aniqlikka asoslanmagan. Alouddin Attor esa ustoz yonida bu holatga tez-tez guvoh bo'lgan.

Xoja Alouddin Attor "Bir kuni Hazrati Xojamiz, qaddisallohu sirrahu-l-aziz, menga: "Peshin vaqti bo'ldi" dedilar. Ittifoqo havo bulutli edi. "Hali erta" dedim. Ular: "Osmonga qara" dedilar. Qarasam, osmon farishtalari peshin namozini ado etish bilan mashg'ul edilar. Aytganimdan xijolat bo'lib, tavba qildim va bir muddat yomg'ir ostida turib qoldim" [1:120].

Bahouddin Naqshband kundalik hayotining har lahzasida suyuqli shogirdi bilan birga bo'lgan. Birga suhbat qurgan, birga taomlangan, birga ibodat qilgan, birga safar

qilgan. Shogirdini faqat so'zlari bilan emas, amallari bilan ham tarbiyalagan. Bu Xoja Alouddin Attorning har tomonlama mukammal shaxs bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Xoja Alouddin Attor "Said Amir Kulol boshlang'ich hollarida ularga iltifotlar ko'rsatib, degan edilar: "Men sen uchun ko'ksimni(sutdan) quritdim va sening tarbiyangni joyiga qo'ydim, sening ruhoniyat qushing tuxumidan chiqsin dedim, ammo sening himmat qushing balandparvozroq chiqib qoldi". Shunday deb ularga xalqni Haqqa da'vat qilishga ruxsat bergan edilar. Bu ishga takror amr qilganlarida, Hazrati Xoja amrlariga bo'ysungan edilarki, buning bayoni yuqorida o'tdi [1:104].

Alouddin Attor guvohligida shu ayon bo'ladiki, tariqat ahlining bir-biri bilan yoki ustoz-shogird bilan munosabatida zarracha soxtalik bo'lmagan. Aytilayotgan so'zlar, qilinayotgan amallarda, berilayotgan va'dalarda sun'iylik kuzatilmaydi va shu odatni o'zlariga kasb qilishgan. Avliyolarning shogirdlari qatorida farzandlari ham kamol topgan. Silsilai sharifda qarindoshlik bo'lgan va bo'lmagan holatlarni ko'rganimizda, o'sha jamiyatda qalbida ezgu maqsadi bor, niyati aniq shogirdlarni bironta ustoz qandaydir dunyoviy sabab bilan ko'krigidan itarmagan. Aksincha, ularga shaxsiy namuna bo'lib to'g'ri yo'l ko'rsatishdan charchamagan.

Xoja Alouddin Attor bir kuni ulovga minib ketayotgan edim, nogoh ulov hech sababsiz ketayotgan yo'lini qoldirib, boshqa tarafga qarab keta boshladi. Yuganini qancha tortmay, to'xtamay ketaverdi. Bu yerda bir sir borligini sezdim, saodatli bir ish uni olib ketyapti, deb uyladim. Qarasam, biyobonda bir kishi xirmon shopirayotgan, yerlarni supurib, qolgan donlarni yig'ayotgan ekan. Ulovdan tushib, uning oldiga o'tirdim. Somon ichida to'rtta qovun bor ekan, tezda borib qovunlarni oldimga keltirdi. Men unga: "Ikkita katta qovunni qoldirib, ikkita kichigini keltirding, dedim. U yana qaytib borib, qolgan ikkitasini ham olib keldi. Oradan bir oz o'tgach, Xoja unga: Oramizda non-tuz haqqi hosil bo'ldi, kel, sening uyingga boramiz, xotining qo'y kallasini tandirda pishirib turibdi, dedilar.

Shayx Shodi aytadi: "Ularning muborak qadamlari mening xonamga yetganda, haqiqatdan ham aytganlaridek bo'lib chiqdi. Shunday qilib, Hazrati Xojaning muhabbati, saodatlari Shayx Shodi xonadonlarida sodir bo'ldi. Bular doimo Hazrati Xojaning sharif suhbatlariga shaydo edilar" [1:144].

Demak, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar orif zotlarning irfoniy qarashlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib beradi. Tasavufda bu ilmi ishorat ham deyiladi. Unga ichki bir signal hodisa yoki muayyan voqelik haqida xaba yetkazadi.

Xoja Alouddin Attor fikricha, Bahouddin Naqshband o'z davrida omma bilan birga bo'lgan. Ularni halollikka va rostguylikka chaqirgan. To'g'ri yo'lga boshlagan. Aholining halol yashashi tanballik va yalqovlik qilmasligi, yolg'on va birovni haqqiga hiyonat qilmasligi o'sha davr kishilarining turmush tarziga farovonlik keltiradi. Bu oddiy haqiqatlar hech qachon ahamiyatini yo'qotmaydi. Munosabatlar har doim bir-biri bilan uzviy bog'liq. Xalq bilan davlat, inson va tabiat, keksa avlod va yosh avlod. Jamiyat rivojida bir kichkina bo'g'inga etibor qilinmasa, vaqti kelib shu bo'g'in uni

zavolga uchratishi mumkin, shuning uchun ta'limotda harakatlardagi aniqlik va vazifalarni to'g'ri bajarish uchun shunchaki xirqa kiyish va qo'lga asov tutish kamlik qiladi. Buning uchun yuksak tafakkur va bilim talab etiladi.

Hazrati Xojamiz qaddasallohu sirrahul aziz Marvda edilar. G'adyut darvishlari va boshqalar bu saodatga musharraf bo'ldilar. Hazrati Xoja bir necha vaqt ularning xizmatlarida bo'ldilar. Hazrati Xoja darveshlarga qaytish uchun ruxsat berayotganlarida shunday dedilar: "Buxoroga borib, Alouddin bog'idagi imoratga himmat ko'rsatinglar va extiyotkorlikni joyiga qo'yinglar" [1:144].

Bir necha muddatdan so'ng Hazrati Xoja Buxoroga keldilar. Darveshlar ularning ziyoratlariga keldilar. Hazrati Xojaning nazari bu darveshlarga tushgach: "Xoja Alouddin bog'idagi imoratga himmat qilmadingiz, dedilar va nuqsonga yo'l qo'yilgan joylarni birma-bir aytib berdilar. So'ng dedilar: "Darvesh pir aytgan har bir ishni u aytganidek bilishi va qilishi kerakki, shunda bu ish uning uchun saodatga yetish vositasi bo'ladi" [1:155-157].

Odamlarning bir-biriga yordam qo'lini cho'zishi, birlikda harakat qilish qoidalari xamma davrning ko'plab muammolarni bartaraf etgan. Jamoaviy harakatda qonunning ustuvor bo'lishi, ya'ni shogird ustoz tanlagandan so'ng kamolga yetishish uchun u kishi aytgan har bir ko'rsatmani oliy darajada bajarmas ekan, uning hikmatiga yetmaydi. Insonlar bir- birlariga yordam qo'lini cho'zishi, va'da bersa uni bajarishi umumiy holatda muhimdek ko'rinmasa-da, ammo shular asosida jamiyatning mustahkamligiga erishiladi. Naqshbandiyaning alturistik g'oyalari, insonparvarlik maqsadlariga yo'naltirilgan tamoyillari millatidan irqidan qat'iy nazar birlashtirganligi Mavarounnahrda ijtimoiy ma'naviy hayotni barqarorlashtirishga xizmat qildi. Alouddin Attorning murshidlik faoliyati uning ibratomuz hayot tarzi yoki ustozining g'oyalarini targ'ib qilishi naqshbandiylikda o'ziga o'rin tutadi. Bu o'z davrida va keyingi davrlarda naqshbandiyaning rivojiga muhim hissa qo'shgan.

Alouddin Attorning Bahouddin haqidagi ko'plab fikrlari manblarda keltirilgan. "Bir kuni Hazrati Xojamiz qaddasallohu sirrahul azizning oyoqlarini o'qalayotgan edim. Shu suhbatda tasodifan bir sharifzoda (aziz kishining farzandi) o'tirgan edi. Xoja fano haqida so'zlar aytayotgan edilar. So'z orasida Xoja dedilar: Avliyolarga fano holatida tasarruf qilish qobiliyatini beradilar" deb qoldilar. Haligi sharifzoda Xojadan: Avliyo fano holatida qanday tasarruf qiladi?, deb so'radi. Hazrati Xoja muborak oyoqlarini mening ko'kragimga tegizdilar, menda bir holat paydo bo'lib, o'zimdan ketdim. Ularning bu inoyatlari namozi asrdan avval edi, to bomdodgacha davom etdi. O'z holimga qaytib Hazrati Xoja huzurlariga kelganimda, shunday dedilar: "Sen bilan bo'lgan bu muomala o'sha sharifzodada ishonch hosil qilish uchun qilingan edi" [1:159].

Xoja Alouddin Attorning so'zlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Hazrati Xoja suhbatiga oddiy odamlardan torib, sharifzodalar, o'z davrining din va dunyoviy ishlar rahnamolari, ularning farzandlari tashrif buyurganlar va tarbiya topganlar. Bahouddin Naqshbandni xuddi o'zidek birgina kishi tushuna olgan u ham bo'lsa, Xoja Alouddin

Attordir. Shogird tomonidan ko'rsatilgan ulkan ishonch uzoq yaqindan ilm istagida kelgan kishilarni tarbiyalashda Hazrati Xojaning unga suyanganligini ko'rsatadi.

Xoja Alouddin Attor, attarallohu-l- marqadahu naql qilib dedilar: Men Hazrati Xoja, quddasillohu sirrahul-l-azizga yetishganimda, birodarim Shahobiddin meni ko'p malomat qildi. Meni mol-dunyo ahlining yo'lga undadi. Nogoh tijorat asnosida yo'lto'sarlar uning mablag'ini talab ketdilar. Unda kuchli istirob paydo bo'ldi, orom-u qarorini tamom yo'qotdi. Har lahzada: Endi nima qilaman?! Der edi. Men uning iztirobini ko'rib: "Bu ishning chorasi bor, agar Hazrati Eshonning muborak quloqlariga yetkazilsa, mol-amvolning qayta qo'lga kelishiga umid qilsa bo'ladi, dedim. Shunday deb birodarimning holini Hazrati Xojaga yetkazdim. Xoja: Tezda hal bo'ladi, bu borada xotirni jam qilmoq kerak dedilar.

Shundan so'ng, Xoja manzildan tashqariga chiqdilar. O'sha onda bir otliq ularning oldilariga kelib otidan tushdi. Xojaga salom qildi: "Biz bir ishni hal qilmoq uchun chiqqan edik, birinchi uchragan kishi sen bo'lding", dedilar. So'ng voqeani bayon qildilar. Otliq: "Tavajjuhingiz harakatidan hal bo'lajak", deb tezlik bilan jo'nab ketdi. Biror soatdan keyin qaytib keldi. "O'g'rilar falon bog'da ekanlar, mollarni taqsimlamochi bo'lib turibdilar", dedi u. Hazrati Xoja meni va mening ukam Xoja Muborakni o'sha bog'ga yubordilar. Boqqa kirganimizda, o'g'rilar ko'rdik, mollarni bo'lar edilar. Bizni ko'rib otlarga mindilar va qo'llarini o'qqa cho'zdilar. Ukam qattiq qo'rqib ketdi. "Hazrati Xojamizning diqqatlaridan bizga hech qanday zarar yetkaza olmaydilar", dedim unga. Biz mollarni salomat holda qo'lga kiritib, akamizga yetkazib berdik. Shundan so'ng, akam Shahobiddinning e'tiqodi Hazrati Xojaga oshdi, meni malomat qilishdan tiyildi [1:108].

Xoja Alouddin Attor ota merosdan voz kechgan bo'lsada, birodarlarining taklifi bilan tijorat bilan shug'illanmochi bo'ladi va qaroqchilar hujumiga uchrab, boyligidan ajraladi. Shunda ustoz ko'magi bilan og'ir vaziyatdan qutiladi. Demak, XIV asrning 50-60 yillari tarqoq mulklar o'rtasidagi yagona davlatning qaror topishiga ehtiyoj yuqori edi. Adolatli jamiyat o'rnatish borasidagi harkatlarda tariqat ahli ham bevosita ishtirok etgan. Birodari Xoja Alouddin Attorni haq yo'lidan ketayotganligini shu voqeadan keyin tan olgan va Hazrati Xojaga nisbatan e'tibori oshgan.

Hazrati Xoja Alouddin Attordan naql qilinishicha, azizning yoqimli yo'llari shariatni mahkam tutish va sunnatga amal qilish bo'lgani uchun, ko'pincha ularning suhbatlari ulamolar bilan edi. Hazrati Eshon davrida Buxoroning peshqadam ulamolari mavlono Hisomiddin Xoja Yusuf Asiliy va mavlono Hamiduddin Shoshiy rahimahumulloh edilar. Ular Hazrati Xoja bilan ko'p hamsuhbat bo'lar edilar.

Bir kuni Hazrati Xoja bu faqirga ishora qilib: "Biroz bodom ol, mavlono Hamiduddin Shoshiy suhbatini topgani boramiz", dedilar. Hazrati Xojamiz bilan mavlono Hamiduddin uchrashganlarida, Xojamiz: "Biz sizni qidirishda, siz bizni gapirishda", dedilar. Ularning bu so'zlaridan bu suhbatda bo'lgan donishmandlarning holi o'zgardi. Mavlono Hamiduddin ko'p tavozelar qildilar. Voqea shunday ediki, uchrashishdan avval mavlono Hamiduddin o'z do'stlariga Hazrati Xojaning yaxshi

sifatlarini zikr qilish bilan mashg'ul edilar. Mavlono Hamiduddin va birodarlari bodomni yeyishgach, Hoja Yusuf uning po'chog'ini pokiza yerga ko'mdilar. Mavlono Hamiduddin ba'zi as'hobalari buni inkor qildilar. Mavlono, ularni inkor qilmanglar, sabr qilinglar deb man etdi. Hazrati Xojamiz dedilar: "Mag'iz po'stning himoyatida bo'ladi. Agar po'stiga nuqson yetsa mag'iziga ham ta'sir qiladi. Agar shariatda nuqson bo'lsa, tariqatga nuqson yuzlanadi". Mavlono Hamiduddin ko'p tahsin qildilar va rahmat aytdilar. So'ng munkirlar guruhiga qarab: "Adabsizlik atrofida aylanmanglarkim, ular buni siz uchun isbot qilib berdilar. Haq taolo do'stlariga hurmatsizlik qilib bo'lmaydi". Hazrati Xojamiz: "Xojagonlarning so'ziking, biz ulamolar boshqoq teruvchilarmiz, demak biz isbot qilamiz". Bir kuni bir ulug' kishi bizdan: "Bir qancha muddatdan buyon biz sizlar bilan muloqatdamiz va nega biz sizlarning tariqatlaringizni qabul qiluvchilardan emasmizmi?" deb savol qildi. Biz buzrukka: "Bizning tariqatimiz sunnatga amal qilishdir, Hazrati Rasul sallolohu alayhi vasallamning sunnatini tasdiq bilan isbot qilganmiz, ilm va amalda ulamolarga ergashamiz, ular Onhazrat sallolohu alayhi vasallamdan nimani naql qilsalar, biz ularni amalda yuzaga chiqaramiz, avvaldan to shu zamongacha bizning vazifamiz shudir" [1:197-198].

Bu voqeadan shu anglanadiki, shu davrda Bahouddin Naqshband suhbatini istovchilar Buxorodan tashqari Samarqand, Kesh, Nasaf, Urganch va Shoshda ham bo'lgan. Suhbatni sunnatlarning eng ulug'i sifatida e'tirof etgan tariqat ahli ulamolar bilan suhbatni kanda qilmagan. Bu soha ulomalari shariatga amal qilishni, payg'ambarimiz sunnatlariga bo'ysunishni oddiy halq tilida ta'sirli misollar bilan ularga yetkaza olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али.Баҳоуддин Балогордон (Маноқиб) –Т.: Ёзувчи, 1993. – Б. 62-63.
2. Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Қуръони Карим (маънолар таржимаси).Наазибаат сураси 40-41-оят Тошкент, Шарқ, 2009. – Б. 583.
3. Муҳаммад Порсо. Фаслу-л-хитоб. Қўлёзма. Таржима Н.Б. – Бухоро: Когон, Нақшбандия тариқати музейи фонди. Инв.42. 1331.-Б.-Б.66..

“PILGRIMAGE TOURISM: REQUIREMENTS FOR TRAINING SPECIALISTS FOR EXCURSION ACTIVITIES

*Y.E. Khayitova,
masters student*

*(Tourism: Ziyarah Tourism) and local guide
Bukhara State University
y.e.khayitova@buxdu.uz*

Abstract. A High school diploma is the minimum requirement to be a tour guide. However, when guiding a group of travelers, the tour guide or the specialist for excursion activities needs to be aware of the responsibilities that accompany the job. In pilgrimage tourism these responsibilities are a little bit different compared to other types of tourism, since it is the fact that religion is a very personal and sensitive subject.

The knowledge, qualification and well preparation of tour guides can play a key role to deepen the traveler's faith and pilgrim's satisfaction and re-visit intention in pilgrimage tourism. Pilgrimage tourism can also increase traveler's understanding of different religions and cultures based on them, when they visit a site that belongs to another religion. With increased understanding of different religions, increased tolerance is likely to follow. So it means a qualified tour guide can play a vital role in peace building and promoting religious destinations, while, an unqualified and badly prepared tour guide can cause great damage to both the local site and the travelers partaking in the tour by portraying the religion badly.

This article try to answer the question where the tour guide's responsibilities mainly lie, how they differ between religious tourism and other kind of tourism, and the requirements for training specialists for excursion activities are worked out in this research paper, as well.

Keywords: Tour guides, Pilgrimage Tourism, Education, Tolerance and Respect.

Introduction

Of course, there are number of tips, materials about tour guide skills, requirements for training specialists in this sphere on the Internet, however tourism literature lacks a cohesive framework for tour guides performance, especially for excursion specialists in pilgrimage tourism.

Pilgrimage tourism is a relatively large sector within the field of tourism and is commonly travelers as cultural tourism. Jackowski estimates that 240 million people embark on pilgrimages every year⁷¹. Pilgrims are, however, just one group of religious tourists, with more people taking religious tours out of curiosity rather than religious experience. The concept of religious tourism is considerably bigger than people often think and that is proven by how many people have taken part in religious tourism without being aware of the fact that they are doing so, says Shinde⁷². According to Larsen the definition of religious tourism has expanded greatly from when the term first arose⁷³. In short it can be said that religious tourism is everything from

⁷¹ Timothy, D.J. and Olsen, D.H. (editors). (2006). *Tourism, Religion and Spiritual Journeys*. Oxon: Routledge.

⁷² Shinde, K.A. (2007). Case Study 6: Visiting Sacred Sites in India: Religious Tourism or Pilgrimage? In: Raj, Razak & Morpeth, Nigel D. (eds.), *Religious Tourism and Pilgrimage Management. An International Perspective*. King's Lynn: CABI, pp. 184–197

⁷³ Larsen, P. (2012, October). *Courier*. The Why, Who, Where, When and How of Faith-based Tourism, pages 14-15.

going on a pilgrimage where the sole purpose of the trip is to visit a Holy site, to visiting a religious site merely for its historical or architectural importance.

Today many of the world's most popular tourist destinations are religious sites and landmarks that people visit, often without it having specific religious meaning to them. For example, thousands of yearly visitors who flock to the Buddhist and Hindu temples in Asia and to the churches in the western world. These places have gained popularity amongst modern day travelers, largely due to their historical rather than religious significance, and because they are often amongst the oldest symbols of civilization. As a result, in many cases, the religious significance of the site goes unnoticed, leaving the traveler unaware of the fact that he or she had taken part in religious tourism.

These "hidden" effects of religious tourism form the basis to develop list of requirements for training specialist who lead tours in the sphere of pilgrimage tourism.

Literature review:

Rabotić discusses how the act of guiding travelers is one of the oldest activities known in human history, even though it has only recently received any real academic attention.⁷⁴ This newfound attention is probably thanks to Cohen who was one of the first to ever turn scientific attention towards the act of guiding⁷⁵. According to him the role is mainly about social mediation and cultural brokerage. Tour guiding can be a rather difficult job and often highly misunderstood by those who fascinate over the exciting and diverse life that the tour guide must lead. Diversity is something that can be found within the job, but not always, since often the tour guide facilitates the same tour over and over again without any diversity what so ever.⁷⁶ Complexity is another thing that the job can entail, given that people can expect their tour guide to fulfil greatly diverse tasks with hardly any limits as to what situations a tour guide can be faced with handling. Rabotic takes Black as an example but she identified the role of the tour guide in general to be six-fold: "information provider, social facilitator, cultural host, motivator of conservation values, interpreter of the natural and cultural environment and a people mover"⁷⁷. Pond agrees that a tour guide's job description varies greatly from one guide to another but she carries on addressing their role as educators. According to Pond, "tour guides more often than not have little or no professional or

74 Rabotić, B. (2010, March). Traveller guides in contemporary tourism. International conference on tourism and environment, Sarajevo

75 Cohen, E. (1985). *The Traveller Guide: the Origins, Structure and Dynamics of a Role*; *Annals of Tourism Research* (Vol. 12, pp. 5-29) Evans-Pritchard, E. E. (1965). *Theories of Primitive Religion*. Oxford: Oxford University Press.

76 Pond, K.L. (1993). *The Professional Guide: Dynamics of Tour Guiding*. New York: John Wiley & Sons Inc

77 Rabotić, B. (2009). *Turističko vođenje u savremenom turizmu*. Unpublished doctoral Dissertation: Univerzitet Singidunum, Beograd.

academic support and do not consider it to be important.”⁷⁸ This opens up opportunities for volunteers who are perhaps interested in the site in question or the history behind it to become more popular for the job due to their supporting knowledge. Pond goes as far as arguing that in many cases this results in the volunteers, or so called docents, to be the best tour guides. This lack of professional and academic support that Pond believes to be the fact within tour guides in general is quite a serious issue if true, since many see the tour guide mainly as an educator. This educational aspect means that a tour guide can give a place an entirely new meaning to a person by filling the experience of visiting it with historical facts and deeper thoughts. “In some cases tour guides can also offer ⁷⁷travelers access to new sites or closed off parts of a site that they have already visited, thereby further enriching their experience” cites Rabotic⁷⁹. This matter of education and understanding is especially crucial in religious tourism and the tour guide needs to always make sure all information being relayed is accurate and up to date. Despite Pond’s conclusions that tour guides in general do not find education of value, Holloway argues that various studies confirm that the majority of guides see themselves mainly as information-givers⁸⁰.

Research methodology:

By getting the definition of tour guide, it becomes clear that, the tour guide is generally responsible for developing and implementing most tourism programs. His duties vary according to the mission and may include conducting walking tours, providing historical facts or cultural information, comments on sites visited, and answering tourist’s questions. So as can be understand that, the duty of guides may vary. And this is the point in pilgrimage tourism, while tour guides are being prepared and while they are giving an excursion. And in order to design and implement requirements for training specialists for excursion activities, first of all the responsibilities of tour guide have been clarified.

The method of interview with several questions was used to make a general view of responsibilities of pilgrimage tour guides and according to them categorized group of requirements have been worked out by the author.

A survey was organized during the trips to Bukhara, Uzbekistan by local guide and author of the publication, as well, where participated 30 tourists from different countries and 35 inbound visitors, with different faith. In the interview there was only one questions “What responsibilities does a religious tour guide have towards the

⁷⁸ Pond, K.L. (1993). *The Professional Guide: Dynamics of Tour Guiding*. New York: John Wiley & Sons Inc.


⁷⁹ Rabotić, B. (2010, March). Traveller guides in contemporary tourism. International conference on tourism and environment, Sarajevo.

⁸⁰ Holloway, J.C (1981) *The Guided Tour: A Sociological Approach*; *Annals of Tourism Research* (Vol. 12), pages 377-402.

pilgrimage tourists?”. Collected answers were categorized according to their repetitiveness. Here below it has been depicted in pie chart.

Pie chart 1


Share of respondents about the responsibilities of pilgrimage tour guide



Among all different answers, when they were categorized by the similar meaning we got the results. According to this, it became clear that knowing different religious practices was the main criteria for guides, since more than half of respondents, 54% to be exact pointed that, knowing various religious practices, for example, praying times for Muslims, dressing code during religious practices is really important for a pilgrimage guide. Of course, knowing foreign languages and being able communicate fluently is main rule for guides, in general. The same percentage of people, 15% of participants outlined that historical knowledge of pilgrimage guide is also very important. Since, explaining certain religion, their tradition, guide as a information holder, must know the origin, source of them. And historical knowledge helps, turn stop various religious fanaticism among pilgrims. Only small percentage of respondents, considered interpersonal skills and cultural sensitivity of pilgrimage guides as vital.

As was mentioned above, this survey helped to understand what pilgrims or tourists as pilgrims usually wait by tour guide during pilgrimage tours. And as a result the requirements for preparing tour guides for religious tourism was developed. Author has categorized these requirements into two main categories and three sub-categories.

Graphic 1
Pilgrimage tourism: requirements for training specialists
For excursion activities



The graphic shows, that during the education of specialists, tour guides for pilgrimage tourism they should be educated by these two categories first one is “personal” skills, which comprises good grooming and appearance, these guides should be educated as “culture brokers and they must know and be ready to different emergency situations.

Second category is named “professional” and mainly focuses on the knowledge of a guide.

Further these terms to be exact these requirements are explained, deeply.

1. “Good grooming and appearance” means that tour guide have to know where what to wear, since usually pilgrimage tours connected with various religious sessions, so they have their own dress code. For example, women have to cover their head with scarf entering to holy sites, mosques, while men are not allowed to wear shorts. So, guides also must have suitable appearance and clothes.

2. Secondly, during the excursion, guides mainly become “culture broker”. These functions suggest that a tour guide acts as a cultural interface between the visitors and the host population and plays a vital role in interpreting the host culture to visitors. According to Leclerc and Martin (2004), tour guides provide information and anecdotal stories about the sites visited, places photographed and people encountered. Moreover, they provide a text to the silent panorama passing outside the windows of tour buses and they are often regarded as culture interpreters or culture brokers being the go-between for the tourists and local hosts and their cultural and communication competence play a significant role for those local hosts receiving ‘hordes of culture-

hungry tourists' 81(Leclerc & Martin, 2004) from this point of view, for pilgrimage tours, they must know religious stories, sites, belief of localities.

3. Any type of guide should develop "Complaint handling" skills. Which means, they will face different situations, will work with different people with various characters and background, so guides will face different, unexpected situations, so skill is must have.

tasavvufning nazariy masalalarini chuqur o'rgandi. Tasavvufni unga xos bo'lmagan tushunchalar, rasm-rusum va boshqa turli bid'atlardan tozalashga harakat qildi va bunga erishdi. G'arb olimi Ulrix Rudolf "Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti" nomli kitobida "tasavvuf nazariyasi va amaliyotiga oid "At-Ta'arruf" asari muallifi buxorolik Abu Bakr Kalobodiy X asrda o'zini ilohiyot nazariyalarining chuqur bilimdoni sifatida namoyon etgan", deya ta'kidlaydi. Darhaqiqat, keyingi davr hakim va so'fiylari Abu Bakr al-Kalobodiyning mazkur asariga juda yuqori baho berganlar, jumladan, Shayxul-ishroq "Ovoriful-ma'orif" asarining muallifi Yahyo as-Suhravardiy Maqtulga nisbat beriluvchi ushbu "Agar At-ta'arruf" bo'lmasa edi, bizlar tasavvufni bilmagan bo'lar edik", degan ibora ko'p allomalarga nisbat beriladi. bizgacha etib kelgan "At-ta'arruf li mazhabi ahli-t-tasavvuf" (Tasavvuf ahli mazhabi bilan tanishish) asari o'z nomi bilan tasavvufni tanishtirish kitobi hisoblanadi. Abu Bakr al-Kalobodiy ilohiy ma'rifatni himoya qilish, yoyish, va tasavvufning nazariy-ijtimoiy tomonini rivojlantirishda alohida xizmat ko'rsatdi. Mazkur qo'lyozma asar Markaziy Osiyodagina emas, butun islom olamida birinchi umumlashtiruvchi nazariy-tarixiy manba hisoblanadi. Unda tasavvuf tarixi, so'fiylar hayot tarzi, mashhur so'fiylar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur asar, tasavvufni fan sifatida rivojlantirishdagi birinchi yozma manbalardandir. Asarda Abu Bakr al-Kalobodiy o'zidan ko'ra ko'proq o'sha soh buyuk allomalrining so'zlarini kelirgan. Bu qo'lyozmaga sharhlar yozilgan: Mulla Muhammad Olim Shoshiy "Sharhi Taarruf", Alauddin Ali ibn Ismoil at-Tabriziy "Sharhul-Qodiy", "Sharhi Abdullah ibn Muhammad al-Ansoriy al-Hiraviy", "Sharhi at-taarruf" Imom Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Mustamliy Buxoriy, Xoja Muhammad Porso ham bu asarga sharh yozganligi manblarda ta'kidlanadi. Abu Bakr Kalobodiy "At-Taarruf" ning muqaddimasida kitobning yozilish sabalariga to'xtalib, "Shu vaziyat meni qo'lga qalam olib, tasavvuf ahlining tariqatlarini ushbu kitob orqali ko'rsatib berishga majbur etdi. Qalamim bilan imkoni boricha kashf etdim, zohiriy ilm vositasi ila ishoratlarni tushunmaydiganlar va iboralarini anglamaydiganlar uchun izoh berdim" -deb yozadi. Shu bilan birga ushbu kitobga shuning uchun ham "Tasavvufni tanishtirish kitobi" deb nom qo'ydim. Kitobni yozishdan oldin hoziq va mohir musanniflarning kitoblariga murojaat qildim va ulug' mashoyixlar bilan birga yashab, ular haqlarida ustozlardan so'rab, haqiqiy ahli hollar to'g'risidagi hikoyalarni ham o'qib chiqdim, deb yozadi.

Abu Bakr al-Kalobodiy "At-ta'arruf" kitobining qo'lyozma nusxalaridan biri O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 3154-V raqami ostida saqlanmoqda. Qo'lyozma kolofonidagi ma'lumotga qaraganda, u hijriy 415 yili (milodiy 1025 y.) ko'chirilgan bo'lib kotibning nomi ko'rsatilmagan. Abu Bakr Kalobodiyning 991 yilda vafot etganligini xotirga keltirsak, demak mazkur qo'lyozma muallif vafotidan keyin 34 yoki 35 yil o'tgach ko'chirilgan bo'lib chiqadi. Bu esa, qo'lyozma qadimiy va mo'tabar ekanligidan dalolat beradi. Qo'lyozma ta'liq va nasta'liq (devoniy) xatlarida aralash ko'chirilgan bo'lib Abu Bakr Kalobodiy yashagan davr ta'liq xatidan nasta'liq xatiga o'tish davri bo'lgan. Ko'p o'rinlarda harflarning

nuqtalari qo'yilmagan. Kitob betlanmagan va 90 varaqdan iborat. Mazkur qo'lyozma bo'yicha, asar muqaddima va 63 bobdan iborat. Mazkur qo'lyozma 4 ta asarni o'zida jamlagan bo'lib, Payg'ambar Muhammad alayhissalomga salovot aytilib axloq-odobga oid hadislar keltirilgan, ammo kitob nomi qayd etilmagan. Bizningcha, bu hadislar "Bahrul-favoid" asariga kirgan hadislar turkumidan bo'lishi mumkin. Yana bir kitob "At-toj fil-me'roj" (Me'roj to'g'risida toj kitobi) deb nomlangan bo'lib, unda payg'ambar me'rojining haqiqati to'g'risida fikrlar yuritilgan. Undan so'ng "At-ta'arruf" ning qisqa ko'chirilgan nusxasi va oxirida "Ba'zi kishilar uchun simo" (eshitish), - deb nomlangan risola ham mavjud. "At-ta'rruf"ning eng oxirgi nashri 1992 yilda arab olimi Ahmad Shamsiddin tomonidan Livanda amalga oshirilgan. Mazkur manba mamlakatimizda mavjud. U muqaddima, 75 bob, asarning qismlari va nomlanishi hamda mundarijadan iborat. Bu kitob sal biroz o'zgacha nomlanganligi bilan farq qiladi, ya'ni "At-ta'arruf li-mazhabi ahli-t-asavvuf" ("Tasavvuf ahli mazhabi bilan tanishish"). Kitob boblarining nomlanishida ham farqlar bor, qo'lyozmada tushirib qoldirilgan ba'zi boblar to'ldirilgan.

Abu Bakr Kalobodiy so'fiylik tarixiga nazar solar ekan, bunda eng avvalo so'fiyona tafakkurning muhim jihatlariga e'tibor qaratadi. U so'fiylarning olam, Alloh to'g'risidagi, insonning zohiriy va botiniy olami, vahiy va aql, odam fe'llari xususidagi doimiy ilohiy qarashlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning oraliq yo'lini topishda mantiqiy mutanosiblik bo'lishi to'g'risidagi fikrni ilgari suradi. Buni o'sha davr nuqtai-nazaridan hanafiycha tafakkurning mag'zi desa ham bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qilish taklifi bilan murojaat qilgan nutqi. <https://religions.uz/news/detailid=589>
2. Abu Bakr Kalobodiy. At-ta'arruf. Tarj. Otaqul Mavlonqul o'g'li va Mavluda Otaqul qizi.T.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti .2002 –B. 48.
3. Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Alimasov V.A., Karimova E.G., Madaeva Sh.O. Yoshlar ijtimoiy faolligi va bag'rikengligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2006. – B.23.
4. Iskandarov B. Tasavvuf falsafasi. – Toshkent: O'qituvchi. 1995. – B.16.

“MUJMAL-I FASIHIY” ASARI HAQIDA

Z.F.Sadulloyeva,
BuxDU, Islom tarixi mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
z.f.sadulloyeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Movorounnahr tarixi va islom tarixiga bag'ishlangan Fasih Xavofiyning "Mujmal-I Fasihiy" asari to'g'risidagi fikrlar yoritilgan. Ushbu asarning ilmiy salohiyati, asardagi tarixiy voqealarni o'z ichiga olgan mavzular qiyosiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Fasih Ahmad Xavofiy, temuriylar davri, Hirot shahri, "Mujmali Fasihiy" asari, Movorounnahr tarixi, islom tarixi.

Fasih Ahmad Xavofiy 1375-yilning 28-sentyabrida (hijriy 777-yil 28-sentabr Jumodul-avval oyida) Ray shahri (Xurosonning Xavof viloyati markazi) da tug'ilgan. Hirot shahrida ulg'aygan va tahsil olgan. Uning asl ismi Fasih ibn Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad ibn Nasriddin Yahyo ibn Alouddin Muhammad ibn Zahridin Abul-Qosim ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Qutayba ibn Abu imom Sa'd ibn Ajlon ibn Vaxb al-Boxiliydir.

Temur va temuriylar davrida yashab ijod etgan Sharq allomalaridan biri hisoblanadi. Fasihiy Temuriylar davrida davlatning yuqori vazifalarida xizmat qilgan. Fasihiy saroyda xizmat qilgan paytlarda davlat kutubxonasidan foydalangan. Shoxrux Mirzoning xizmatida bo'lgan. Tarixchining faoliyati davomida bilishimiz mumkinki, Fasihiy siyosat va iqtisod sohasida yetuk tajribaga ega bo'lgan. Davlat boshqaruvini yaxshi bilganligi sababli Shoxrux va uning o'g'li Boysung'ur Mirzo davrida katta lavozimlarda ishlagan. U fors va arab tillarida she'rlar yozgan. Adabiyot va tarix sohasida yetakchi bo'lgan. Hayotining so'ngi yillarida Shohruxning o'g'li Boysunqur Bahodirxon saroyida devonlik mansabiga tayinlangan. Biroq ko'p vaqt o'tmay Temuriylar saroyidagi xizmatdan butunlay chetlashtirilgan va bizga ma'lum bo'lgan birdan bir asari "Mujma ut-tavorix" ("Tarixiy sanalar yig'indisi") ni yozishga kirishgan. (Bu asar "Mujmali Fasihiy" ham deb yuritilgan).

Fasihiy 1440-1441-yillari Shoxruxning suyuqli va nufuzli xotini Gavharshod begimning amri bilan qamoqqa tushib qoldi. 1441-yil 2-noyabrda ozod qilinganidan so'ng faqat ilm bilan mashg'ul bo'ladi va 1442-yili o'zining yirik-tarixiy biografik asari bo'lmish "Mujmal-i Fasihiy" asarini yozib tammomlaydi va Shoxrux Mirzoga taqdim etadi.

"Mujmal-i Fasihiy" asari forsiyda bo'lib, solnomaga xos bo'lgan bu asar 1442-yilda yozilgan. Boshqa manbalar orasida xronologik jihatdan 845/1441-1442-yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga olganligi bilan ajralib turadi.

Fasih Ahmad Xavofiy mazkur asari ko'pgina tarixiy, adabiy, biografik, geografik asarlar, masalan, al-Ma'sudiy, ibn al-Asir, ibn Halliqon, Nisoviy, Juvayniy, Rashiddin, Faxriddin Banokatiy, Vassof, Hofizi Abru, Robi'a Fushanjiy, Ibn Yamin Faryumadiy, Salmon Sovajiy va boshqalarning asarlari asosida, shuningdek, muallifning kuzatish va taftishlari natijasida to'plangan boy daliliy ma'lumot asosida yozilgandir.

"Mujmali Fasixiy" asari muqaddima bilan boshlanib, ikkita asosiy qism va xotimadan iboratdir. Debochada tarix fanining xususiyati va uni o'rganishning ahamiyati borasidagi fikrlar bildirilib, uning nomi va mundarijasi keltiriladi.

Muqaddima qismida Odam Atodan tortib Muhammad sollallohu alayhi vasalamning tavalludlarigacha (570–580) bo‘lgan davr ichida kechgan voqealar haqida ma’lumot berilgan.

Birinchi maqolada Muhammad sollollohu alayhi vasallamning tug‘ilishlaridan to u kishining Makkadan Madinaga hijrat qilishlari, 622-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi maqolada juda katta davr ya’ni 622-yildan to 1442-yilgacha musulmon olamida yuz bergan voqealar bayon etiladi. Xotima esa maxsus Hirot shahriga bag‘ishlangandir.

Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Xavofiyning “Mujmali Fasixiy” asari o‘ziga xos solnoma bo‘lib, unda “dunyoning yaratilishi” dan muallifning zamonigacha bo‘lgan tarix voqea-hodisalari yoritilgan.

Sharq mamlakatlarida, shuningdek Movarounnahr bilan Xurosonda bo‘lib o‘tgan muhim voqealar, mashhur kishilar, olimlar, shoirlar, davlat arboblari, rassomlar, bayon etilgan muhtasham binolar (masjid, madrasa, karvonsaroy va suv inshootlari) haqida qimmatli ma’lumot berilgan. Bo‘lib o‘tgan voqealar asarda yilma-yil ko‘rsatilgan, bu hol undan foydalanishni bir muncha yengillashtiradi. Unda Amir Temur va Temuriylar saltanatining Bobur va uning o‘g‘li Humoyun zamonigacha bo‘lgan qisqacha tavsifini uchratamiz.

“Mujmal-i Fasihiy” asari muqaddima qismida “Odam Atodan tortib, Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasalamning 53 yoshlarigacha, ya’ni u kishining Makkadan Madinaga qilgan hijratlarigacha (622 yil) qadar bo‘lgan tarixdan hikoya qiladi. Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamdan keyin hukmronlik qilgan xalifalar haqida va ularning almashinishi haqida ma’lumotlar beriladi.

Fasixiy 76/695-696 yillarda Ummaviylar xalifasi Abdulmalik ibn Marvon (66/685-86/705) haqida ham ma’lumotlar keltirib, xalifalikning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarini bayon qiladi. Uni qiziqtirgan jihati shundaki, Abdulmalik Marvon xalifalikda oltin, kumush, mis (tangalar) va dirhamlar zarb qilishni buyurganligi, bu avvalgi xalifalar tomonidan bajarilmaganligi haqidagi ma’lumotlarni keltirgan.

So‘ngra Fasihiyning sultonlar haqidagi ma’lumotlarni ketma-ket tartib bilan beradi: Safforiylar (868-909), Somoniylar (875-909), G‘aznaviylar (962-1186), Saljuqiylar (X-XI asrlar), Xorazmshoh (1077-1231) va boshqalar kabi.

Asarning asosiy va katta qismi ikkinchi qismida bo‘lib, u 622-yildan 1442-yilgacha bo‘lgan voqealar sharhidan iborat. Biz uchratgan boshqa qo‘lyozma nusxalarda xotima uchramaydi. Bu qism muallif vatani bo‘lmish Hirot shahri haqidagi ba’zi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan.

Shuningdek, Fasixiy ijodi – bir qator asarlardan o‘zlashtirgan va yig‘ilgan material hamda muallifning o‘zi, shuningdek, unga yaqin kishilar guvohi yoki ishtirokchisi bo‘lgan voqealar materiallariga asoslangan asl ma’lumotlarning uyg‘unlashuvidir.

Jumladan, “Mujmal-i Fasihiy” asarida Amir Temurning avlodiga bag‘ishlangan “Foyda” deb ataluvchi bo‘lim bor. Shu yillarda sodir bo‘lgan siyosiy voqealarga kelsak, asarda Markaziy Osiyo va O‘rta Sharq mamlakatlarida mo‘g‘ullar hukmronligining inqirozga uchrab, asta-sekin yemirilib borishi, ajnabiy hukmdorlar zulmiga qarshi yerli xalqlar orasida norozlik harakatlari aks ettirilgan. 1365-yili Samarqandda tarqalgan sarbadorlar harakati tobora kuchayib, mo‘g‘ullar hukmronligi inqirozini tezlashtirganligi, mo‘g‘ullar davlati o‘rnida Temur davlatining tashkil topishi va yuksalishi kabi muhim voqealarning xulosasi qisqa-qisqa bayon etilib, oy va yillari bilan ko‘rsatilgan.

“Mujmal-i Fasihiy” asarida 1337-yili Hirot viloyatlaridan biri bo‘lmish Havofda, 1363-yili Hirot, 1405-yili Nishopurda sodir bo‘lgan zilzilalar, 1350-yili Yazdda, 1388-yili Tabrizda, 1406-yili Hirot voqe bo‘lgan ocharchilik va qahatchilik, 1345-yili Xorazmning Jurjonida (Ko‘hna Urganchga yaqin), 1346-yili Tabrizda, 1459-yili Ozarbayjonda tarqalgan vabo kasalligi haqidagi ma‘lumotlar ham keltirilgan.

Xulosa qilganda, Havofiyning “Mujmal-i Fasihiy” asari XIV–XV asrdagi Markaziy Osiyo mamlakatlarining siyosiy va madaniy hayotiga oid qimmatli manbadir. Unda keltirilgan tarixiy voqealar, sanalar va boshqa ma‘lumotlar Temur va Temuriylar davrini yanada oydinlashtirishga, bu davr tarixini yanada yaxshiroq bilishga katta yordam beradi.

Bu asar Movarounnahr, E‘ron hamda O‘rta Osiyo mamlakatlari tarixini, hamda musulmon tarixchilarning kitob yozishdagi uslublari bilan yondashilgan. Kitob muqaddimasi Payg‘ambarlar tarixi bilan boshlanib, tarixchining o‘zi yashagan davrigacha bo‘lgan barcha davrni o‘z ichiga olgan. Ushbu asarda juda ham qimmatli ma‘lumotlar jamlangan bo‘lib, ko‘plab tarixchilar va olimlar o‘z tadqiqotlari davomida foydalanib kelayotganlari bilan ahamiyatlidir.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M. Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488b.
2. Sh.M. Mirziyoyev. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56b.
3. Ubaydulla Uvatov. “O‘zbekiston buyuk yurt allomalari”. Toshkent. Ma‘naviyat, 2010.
4. Nasrullayev N “Manbashunoslik asoslari” [matn]: darslik / Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2020. -448 b.
5. “Ma‘naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999)
6. A.Madramov, G.Fuzailov “Manbashunoslik” Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabari uchun darslik/ O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008 -264bet.

7. A.Boqiyev, Z.Yo'ldosheva "Tarixdan saboqlar"-Toshkent. "ADABIYOT UCHQUNLARI". 2017, -356b.
8. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent, -2003.

ISLOM TARIXIDA KUFA SHAHRINING TUTGAN O'RNI

Z.F.Sadulloyeva,

BuxDU, Islom tarixi mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

z.f.sadulloyeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola islom diyorlaridan biri bo'lmish Kufa shahrining tarixi va uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy tuzilishi shuningdek, Islom dini yoyilishidagi ahamiyatiga bag'ishlandi. Kufa shahri ayni islom shariatining ko'plab ilmlar tarmog'ining shakllanishida muhim madaniy va ilmiy markaz bo'lganligi borasida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Kufa shahri, sahobalar, sivilizatsiya, ilmlar rivoji, musulmonlar, Sa'd ibn Abu Vaqqos (r.a), Abdulloh ibn Mas'ud (r.a)

Kufa so'zi arab tilida "tosh bilan aralashirilgan qum tepaligi" yoki "odamlar yig'iladigan joy" degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, Kufa ayni bu so'zdan kelib chiqqanligi yoki shahar nomini Kufa deb nomlangan tepalikdan olganligi qayd etilgan. 17/683-yilda Xalifa Umar roziyallohu anhuning buyrug'i bilan Sa'd ibn Abu Vaqqos tomonidan asos solingan Kufa shahri musulmonlar tomonidan qurilgan ilk shaharlardan biridir. Bu shaharga Sa'd ibn Abu Vaqqosni voliy (hokim) etib tayinlagach, sahoba u yerni musulmonlar uchun obod qilishga jo'nab ketdi. Sad ibn Abu Vaqqos Kufa shahrini bunyod qildi va mana shu katta shaharda Islom qoidalarini o'rnatdi.

Bag'doddan 170 kilometr uzoqlikdagi Kufa shahri bu shahardan bir asr oldin tashkil etilgan. Kufa Islom tarixidagi birinchi Islomiy istilolardan keyin tashkil etilgan muhim madaniy va ma'muriy markazlardan biridir. Bu shahar qadimiy shaharlardan hisoblanadi. O'sha davrda qurilgan Kufa shahri bugungi kundagi ko'plab zamonaviy shaharlarni ortda qoldirishi mumkin. Shahar tashqaridan ichkariga kengligi 40, 30, 20 arshin cho'zilgan tekis ko'chalar dumaloq holda reja asosida qurilgan. Shahar markazida diametri ming metrga yaqin katta shahar maydoni bo'lgan. Masjidlar, savdo markazlari, ma'muriy va madaniy binolar shahar markazida joylashgan. Birinchisi bor Sa'd ibn Abu Vaqqos voliy saroyi va baytul-molni Kufa masjidi yaqinida bino qildi. Bu bino janubi-g'arbiy ko'chaning markaziy maydonga eng yaqin tomonida qurilgan.

Kufa shahri ko'priklar, mehmonxona, g'ishtdan qurilgan uylari, hammomlari, bog'lari, ko'ngilochar markazlari, qamoqxonalari, keng yo'llari va maydonlari, mo'l-ko'l ichimlik suvi ta'minoti bilan ta'minlangan edi. Bugungi kundagi zamonaviy shaharda ko'rish mumkin bo'lgan barcha asosiy unsurlarni o'z ichiga olgan.

Kufa shahri Eron, Xuroson tomonlarga harbiy yurish olib borish uchun musulmon qo'shinlarining tayanch markazi hisoblangan. Bu shaharga ko'plab

sahobalar kelib o‘rnashib qolganlar va shu yerda vafot etganlar. Bu yerga kelgan hadis bilimdonlarining ko‘zga ko‘ringanlaridan Abdulloh ibn Mas‘ud roziyallohu anhu bor edi. Bu shaharda ilmi ko‘pligi va uzoq qolib ketganligi uchun boshqaruv Abdulloh ibn Mas‘ud roziyallohu anhuda bo‘ldi. Bu sahobaning qo‘lida Masruq ibn Ajda‘ Hamadoniy, Ubayda ibn Amr Salmoniy, Asvad ibn Yazid Naxaiy, mashhur qozi Shurayh ibn Horis Kindiy, Ibrohim ibn Yazid Naxaiy, Said ibn Jubayr, Omir ibn Shurahbil Sha‘biy kabi tobiiylardan hisoblangan hofiz imomlar yetishib chiqqanlar.

Bu shahar geografik jihatdan olib qaraganda, turli millatlar, madaniyatlar, dinlar, tillar va irq'larga mansub odamlar yashaydigan joyga aylandi. Boshqa tomondan esa Kufa Islomning ham siyosiy, ham madaniy va ilmiy o‘zgarishlar tarixida katta rol o‘ynashi bilan mashhur bo‘ldi.

Ma‘lumki, Kufaning ijtimoiy, siyosiy va madaniy tuzilishi ikki asosiy omil bilan shakllangan. Ulardan birinchisi o‘sha paytdagi Kufadagi geografik sharoitlari, ikkinchisi esa bu hududni zabt etgan musulmonlarning bu muhitga qo‘shgan hissalaridir. Kufa shahrini qurish Umar roziyallohu anhuning buyrug‘i bilan 17/638-yilda Sa‘d ibn Abu Vaqqos tomonidan boshlangan. Shaharga asos solingan yer; Furotning g‘arbiy qirg‘og‘idagi keng tekislikda, Bobil xarobalari janubida va Hirdan besh kilometr uzoqlikda joylashgan. U dunyodagi eng qadimgi sivilizatsiyalarni bog‘laydigan savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan. Bu shahar haqida Alusiy rohmatallohi alayh: “Ibrohim alayhissalomning otasi Ozar Kufa atrofidagi qishloqlarning birida tug‘ilgan” deb aytadilar. Bundan kelib chiqadiki, Kufa shahri Umar roziyallohu anhu asos solinishidan oldin ham mavjud bo‘lgan.

Ushbu geografik joylashuvi tufayli Kufa ko‘plab sivilizatsiyalar, xususan, Rim, Sosoniy, Daylam, Hind va Arablarning uchrashishi va qo‘shilish joyi bo‘lib, turli madaniyatlar, dinlar, tillar va irq'larga mansub unsurlarga mezbonlik qilgan. Bu tuzilmani tashkil etuvchi deyarli har bir jihati, ayniqsa arablar, o‘z ichida mahalliy va madaniy farqlarga ega. Shu sababli, Kufa o‘zining tashkil topish bosqichida ushbu madaniyatlar tomonidan ishlab chiqarilgan qadriyatlarga javob bera boshladi. Unda bir tomondan yahudiylik va nasroniylik kabi ilohiy din vakillari bo‘lsa, ikkinchi tomondan mazdaiylik, majusiylik, moniylik, hinduizm, buddizm, gnostitsizm kabi tafakkur tizimlarini qabul qilgan kishilar turar edi.

Juda qisqa vaqt ichida Kufa islom ilmlarining eng muhim shaharlardan biriga aylandi. Shu bilan birga qisqa vaqt ichida bu shaharda qarama-qarshi fikrlarni keltirib chiqaradigan shaxslar va guruhlarning markaziga ham aylandi. Bu shaharda horijiy, shia, murjij va mo‘tazila kabi firqa tarafdorlari chiqa boshladi.

Kufa shahri hozirda dunyo musulmonlarining 90 foizini tashkil qilgan Imom Osim qiroatining shakllanishiga guvoh bo‘lib, tafsir, grammatika va tasavvufda ham mashhur maktablar yuzaga keldi. Kufada tez-tez tilga olinadigan o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lgan fan sohalaridan biri hadis edi.

Musulmonlar deyarli har bir sohada, ayniqsa siyosatda katta hissa qo‘shgan. Sa‘d ibn Abu Vaqqos arablarni ikkita asosiy guruhdan iborat bo‘lgan Adnoniylar va

Qahtoniylarni ehtiyotkorlik bilan shaharga joylashtirdi. Biroq, Iroq mintaqasiga yuborilgan arablar orasida Yamanliklar Kufada son jihatdan ustunlik qilganlar, chunki Adnoniylar yashash uchun odatda 16/637-yilda qurila boshlangan Basrani afzal ko'rganlar.

Shuningdek, Umar roziyallohu anhu Madinada bir-biri bilan ziddiyatda bo'lgan va shuning uchun turli muammolarni keltirib chiqargan Hoshim o'g'illarini Kufaga, ularning raqiblarini esa Basraga jo'natadi. Xalifaning bu qadami Kufa va Basraning bir-birini raqib va dushman ko'radigan ikki shaharga aylanishiga sabab bo'ldi va bu raqobat kelajakda boshdan kechiriladigan hokimiyat kurashlari natijalariga ta'sir qildi.

Hazrati Usmon roziyallohu anhu xalifaligining oltinchi yilda fathlarning to'xtab qolishi va buning natijasida o'lja daromadlarining kamayishi, Madinaning Qurayshparastlik siyosati kabi turli omillar tufayli hukumatga qarshi harakatlarning markazida Kufa bo'ldi. Butun mamlakat bo'ylab paydo bo'lgan bu muxolifat harakatlari Usmon roziyallohu anhunging shahidligi va 35/655-yilda Hazrati Aliga bay'at qilgan Kufa ahli hamda Hazrati Oisha roziyallohu anho boshchiligidagi Basra ahli o'rtasida Kufada "Jamal voqeasi" (36/656-657) yuz berdi.

Bu nizodan keyin Ali roziyallu anhu Kufani poytaxt qildi. Keyinchalik Kufada 657-yili Siffin janggi bo'lib, natijada aqidada ummat ichida birinchi marta bo'linish sodir bo'ldi. 661-yili Ali roziyallu anhu shahid bo'lgach Kufa ahli Hasan roziyallohu anhuri qo'llab-quvvatladilar. Kufa ahli janglardan charchagan edi. Hazrati Hasan Muoviya bilan kelishuvga erishdi va xalifalikni unga qoldirdi. Bu kelishuvdan keyin Muoviya roziyallohu anhu Kufaga kirib, shahar ahlidan bay'at oldi. Shunday qilib, barcha islom o'lkalarida bo'lgani kabi Kufada ham Ummaviylar davri boshlandi. Hazrati Husayn Ummaviylar tomonidan shahid bo'lishi Kufa yaqinida Karbaloda sodir bo'ldi.

Kufa maktabi bir asrdan keyin ya'ni ikkinchi hijriy asrda sahobalarning shogirdlarining harakatlar tufayli islom dinidagi ilmlar yanada rivoj topdi. Abu Hanifa rohmatallohi alayh Iroq fiqhiy maktabining yorqin vakili hisoblanadi. Iroq fiqhiy maktabi asoslari Kufada yashagan Hazrati Ali roziyallohu anhu, Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu boshliq Sa'd ibn Abu Vaqqos, Said ibn Zayd, Salmon Forisiy, Huzayfa ibn Yamon, Ammor ibn Yosir, Abu Muso Ash'ariy, Baro ibn Ozib, Abu Tufayl roziyallohu anhum kabi bir ming besh yuzdan ortiq sahobaga tayanadi.

Kufada o'sgan va sahoba Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan ta'lim olgan olimlar tafsir, hadis, grammatika, tarix, fiqh va qiroat kabi fanlarning ko'plab olimlari islom dunyosidagi mashhur olimlardan bo'ldilar. Umaviylar davrida Madinadan boshqa ikkinchi bilim markazi sifatida paydo bo'lgan Kufa Qur'on va Sunnat, ijtihod va fiqh ilmi bilan tanilgan. Bunday darajaga yetishiga esa Umar roziyallohu anhu, Ali roziyallohu anhu, ayniqsa, Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhunging hissasi katta. Ulardan ta'lim olganlar orasida Horis A'var, Alqama ibn Qays, Masruq ibn Ajda, Shurayh ibn Horis, Ibrohim Naxa'iy, Sa'id ibn Jubayr, Omir ibn Shurahbil Sha'biy, Kufa hadisida ibn Abu Laylo, Sufyon Savriy, Hammod, Abu Sulaymon va uning

shogirdi Imom Abu Hanifa, uning mashhur talabalari Imom Abu Yusuf va Imom Muhammad yetakchilardan hisoblanadi.

Xulosa qilganda, bu tadqiqotni o'rganish davomida Kufa shahrining tarixi islom dinida tutgan o'rni va unda sahobalar faoliyatlari, shaharning siyosiy, madaniy, ma'muriy, ijtimoiy jihatlarini shakllanishida sahobalarning xizmatlari o'rganildi. Kufa shahri islom dinidagi ilmlarning asosi bo'lib, shu ilmlar yangi tarmoqlarining yaratilishida buyuk allomalarni yetishtirgan shahar hisoblanadi. Bu shahar fiqh, hadis, tafsir, qiroat, tasavvuf ilmlarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Biz yoshlar dunyoviy ilmlar bilan birga diniy ilmlarning mohiyatini to'g'ri anglashimiz, shuningdek, muqaddas dinimizning asosini tashkil qilishda xizmat qilgan barcha olimu-ulamolarning tarixini, ezgulik yo'lidagi o'g'itlarini o'rganishimiz, ularning ma'naviy merosini xalqimiz va kelajak avlodlarga yetkazishimiz katta ahamiyatga egadir.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488.
2. Sh. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi boshqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – Toshkent: "Hilol-nashr", 2020-yil
4. D. Murodov. Hadis to'plamlarining qiyosiy tahlili. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2019. – 208 b.
5. D. Murodov. Hadisshunoslik o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. – 392 b.
6. Hadis roviylari. Jarh va ta'dil ilmi, o'quv qo'llanma. Muratov D., To'rayev N. Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021.
7. Hadisshunoslik o'quv qo'llanma. D.Rahimjonov, D.Murodov, R.Obidov, M.Alimova. Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2013. – 268 b.
8. Muratov, Doniyor Mr (2019) "The role on the Companions in the Sciylene of Hadith," The Light of Islam: Vol. 2019: Iss. 4, Article 2. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiu/vol2019/iss4/2>.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalah al-hadis Toshkent: Hilol – Nashr, 2019. 384 b.
10. Doktor Abdurohmon Ra'fat Bosho. Sodiq sahobalar qissasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. 64 b.
11. Sunani Termiziy sharhi I jild. Muqaddima/Abu Iso at-Termiziy. – Toshkent: Irfon-nashr, 2021. – 400 b.
12. Hüseyin Kahraman. Sosyal deęişim sürecinde Küfe hadisçilięi. – Istanbul: Merifa, 2006. – 29 b.

13. <https://oliymahad.uz>
14. <https://muxlis.uz>
15. <https://Islom.uz>
16. <https://hadis.islom.uz>

OTANING BEBAHO MEROSI

*A.A.Abduraxmonov,
BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
a.a.abduraxmonov@buxdu.uz*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiya haqida gap yuritilgan. Hozirgi kunda farzandlarni tarbiyasi bilan shug'ullanishlik juda ham muhimdir. Aynan ota-onalar bunga jiddiy ahamiyat berishliklari kerak bo'ladi. Toki farzandlarini kelajakda jamiyatda yaxshi iz qoldirishlari uchun.

Kalit so'zlar: Ota-ona, farzand, tarbiya, ahloq, ta'lim, telefon.

Bugungi kunda ota onadan farzandlar tarbiyasiga yanada e'tiborliroq bo'lishga zamonning o'zi undamoqda. Chunki bugun kechadan shiddatliroq odimlamoqda.

Hazrati Ali roziyallohu anhu: "Farzandlaringizga o'zingiz yashagan oldingi zamonga moslab emas, o'z zamonlariga mos ilm beringlar. Chunki ular sizlarning zamonlaringizda yashamaydilar, balki o'z zamonlarida yashaydilar", deganlar.

Shu bois tarbiya masalasiga o'ta jiddiy yondoshish kerak. Hazrat Navoiy bobomiz: "Balog'at ostonasida turgan avlodingizga siz kabi ishonchli bir do'st topilmas. Ularga eng yaqin do'st siz bo'ling", deb maslahat berganlar. Ayrim ota-onalarning hayot hikmatlarini unutib, farzandlarining oz holiga tashlab qo'yishlari oqibatida esa necha-necha adashgan yoshlar noto'g'ri yo'llarga kirib, yosh umrlari hazon bo'lmoqda. Shuning uchun ham Abdulla Avloniy: "Bugungi o'g'ri, firibgar va xulqi yomon kimsalar kecha tarbiyasiga e'tibor berilmagan bolalardir", degan edilar. Tarbiya faqat uyni ichidagina emas jamoat joylarida ham davomiy bo'sagina foydalidir. Yoshlarning ichkilikbozlik, giyohvandlik dardlariga muhtalo bo'lishi, qimmatli vaqtlarini behuda sovurib, ahloqsiz, ko'ngilochar maskanlarda tentirab yurishlari milliy va diniy qadriyatlarimizga ziddir. Aslida farzandlar ota-ona, ustoz-murabbiylar g'amho'rligida va ko'magida ilm olib, hunar o'rganishlari, Vatanimizga foyda keltiradigan inson bo'lib yetishishlari shartdir. Bu vazifalarni ajdodlarimiz juda yaxshi his etganlar va farzand tabiyasiga mas'uliyat bilan qaraganlar. Zahridin Muhammad Bobur bobomiz farzandlarining ta'lim tarbiyasi haqida har doim o'ylab, mulohaza bilan ish yuritganlar, ularni o'qish va o'rganishga da'vat qilganlar. U hatto farzandlariga qaysi kitob zarurligini bilib, o'zi tallab olib berar, ularning imlosi, inshodagi xatolarini tekshirar, bexato, sodda ravon va yozishni o'rgatganliklari taxsinga sazovordir.

Darhaqiqat, biron ota-ona yo‘q-ki, bolasini kelajagini, kamolini baxtu-kamolini o‘ylamaydigan. Ammo bugungi kunda vaziyat juda nozik, birgina bola qo‘lidagi telfonga beparvolik, bola ongini juda tez zaharlovchi, bemehr bo‘lib ulg‘ayishiga sabab bo‘ladi. Farzandingizni telfondan internetdan oqilona, yaxshilik yo‘llarida foydalanishiga yo‘naltirmog‘ingiz, joiz bo‘lsa, o‘zingiz ham bu ishda namuna bo‘lmog‘ingiz lozimdir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kishining farzandiga chiroyli odob berishi har kuni miskinlarga yarimta non sadaqa qilganidan afzaldir”, deganlar (Imom Termiziy rivoyati). Baxtli farzandlar ota-onasidan chiroyli tarbiya ko‘rganlardir, chunki farzandlarga otadan qoladigan eng bebaxo meros bu go‘zal tarbiyadir hamda uning hayoti davomida asqotadigan ma‘naviy tirgagidir. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “Ota o‘z farzandiga chiroyli tarbiyadan yaxshiroq meros qoldirolmaydi”, degan da‘vatlarini yodimizdan chiqarmaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. “Sahih Buxoriy”. Karachi: “Maktabatul bushro” nashriyoti 2017 y.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Oltin silsila”. Toshkent: “Hilol nashriyoti” 2013 y.
3. Abu Iso at-Termiziy. “Sunani Termiziy”. Baytur: “Muassasatur risalatun nashirun” 2019 y.
4. Abdulla Avloniy. “Turkiy gulston yohud axloq”. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti 2004 y.

4-SHO‘BA: FILOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

„ARBA‘IN“NING QO‘LYOZMA VA TOSHBOSMA NUSXALARI XUSUSIDA

M.S. Davronova,
BuxDU, 1-bosqich magistranti
m.s.davronova@buxdu.uz.

Annotatsiya: Maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy „Arba‘in‘i 1 toshbosma nusxasi va Turkiyaning Istanbul shahri Fotih tumanida joylashgan To‘pqopi saroyidagi Revan ko‘shkining muzey kutubxonasida saqlanayotgan 1 qo‘lyozma nusxasi haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Hadis, Muhammad (SAV), arbai‘nnavislik, an‘ana, „Najh ul farodis“, „Chihil hadis“, „Arba‘in“, qo‘lyozma, toshbosma, xattot, nashriyot, matbaa, tazhip, zahriya, naqsh, sarlavha, muhr.

Аннотация: В статье представлена подробная информация об 1 литографическом экземпляре произведения великого мыслителя Алишера Навои «Арбаин» и 1 рукописном экземпляре, хранящихся в музейной библиотеке дворца Реван во дворце Топкопи, расположенном в районе Фатих в Стамбуле, Турция.

Ключевые слова: Хадис, Мухаммад (ПАВ), Арбайнавислик, традиция, «Наджх уль Фародис», «Чихил Хадис», «Арбаин», рукопись, литография, каллиграф, издатель, печать, тажип, захрия, узор, название, тюлень.

Annotation: The article provides detailed information about the great thinker Alisher Navoi's Arba'in'i 1 lithograph copy and 1 manuscript copy stored in the museum library of the Revan palace in Topkopi Palace, located in the Fatih district of Istanbul, Turkey.


Key words: Hadith, Muhammad (SAW), Arbai'nawislik, tradition, "Najh ul Farodis", "Chihil Hadith", "Arba'in", manuscript, lithograph, calligrapher, publisher, printing, tazhip, zahriya, pattern, title, seal.

Kirish. Islomiy turkiy adabiyotda payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallanning xalq orasida keng tarqalgan sahih hadislaridan tanlab olib, bu hadislarini arabchadan she'riy yoki nasriy yo'l bilan tarjima qilish va sharhlash asosida yuzaga kelgan juda ko'p asar mavjud. Masalan, hadisga doir turkiy tildagi asarlar orasida bugun biz biladiganlarning eng qadimgisi hisoblanadigan, qirq hadis asosidagi asarlardan biri „Najh ul farodis“ asari bo'lib, bu asar hijriy 759 (milodiy 1358) yilda Oltin O'rda davlati zaminida yozilgan. Keyingi asrlarda ham ko'plab shoir va adiblar hadislarining tarjimalariga qo'l urganlar. Bu harakatlar natijasida 40, 100 va hatto 1000 hadisga asoslangan asarlar dunyoga kelgan. Biroq ko'pgina shoirlar, asosan, qirq hadisni tanlab olib asarlar yozganlar. Qirq hadis asosida asar yozish an'anasi ham Payg'ambar alayhissalomning „Ummatimdan kim qirqta hadisni yod olsa va boshqa ummatlarimga yetkazsa, qiyomat kuni men unga shafatchi bo'laman, Alloh uni olimlar jamoasiga qo'shadi“ mazmunidagi hadislariga asoslangan holda boshlangan. Mazkur an'ana asosida asar yozgan buyuk shoirlardan biri Alisher Navoiy hazratlaridir. Navoiy ustoz va piri Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub „Chihil hadis“ asarini „Arba'in“ nomi bilan forsiy tildan turkiy tilga tarjima qilgan. Bugungi kunda bu asarning turli davrlarda xattotlar tomonidan ko'chirilgan ko'plab qo'lyozma va toshbosma nusxalari mavjud bo'lib, quyida asarning ayrim nusxalari xususida so'z yuritamiz.

Tadqiqot metodi.

„Arba'in“ asarining "Kulliyoti Navoiy" deb nomlangan bir qo'lyozma nusxasi Turkiyaning Istanbul shahri Fotih tumanida joylashgan Topkopi saroyidagi Revan ko'shkining muzey kutubxonasida saqlanadi. Kulliyot 808-inventar raqam bilan ro'yxatga olingan bo'lib, 802 varaqdan tashkil topgan. Kulliyotning hajmi 315x230 mm, shrift o'lchami 167 mm va har bir sahifa 27 qatordan iborat. Asar o'sha davrda mashhur bo'lgan xat turlaridan biri bo'lmish ta'liq xatida ko'chirilgan. To'plamda 2 ta miniatyura, 24 ta tazhip (oltin suvi yuritilib bezalgan) sarlavha, 30 ta oltin suvi

yuritilgan zahriya qismi (ya'ni arabcha kitoblarda asar matni boshlangan betning orqa tomonida oltin suvi yuritilib bezalgan qism. Odatda bu qismda asar nomi, muallif nomi yozilgan bo'ladi, ayrim hollarda hech qanday ma'lumot yozilmasdan chiroyli naqshlar bilan bezatilgan bo'ladi). Quyidagi rasmda „Kulliyoti Navoiy“ va ushbu kulliyotdan o'rin olgan „Arba'in“ asarining zahriya qismi bilan tanishishimiz mumkin:



Qo'lyozmaning bargida Mahmud I ning poydevor muhri bor. U nafis jigarrang naqshlarda, tashqi tomoni zarhal bo'rtma bilan bezatilgan. Navoiy tirikligida 1495-yilda xattot Darvesh Muhammad Takiy tomonidan ko'chirilishi boshlangan nusxa, Navoiy vafotidan so'ng, ya'ni 1501-yilning 4-yanvarida, oxirigacha bo'lgan asarlarning sarlavhalaridagi ifodalarga ko'ra tugallangan. To'plamda Navoiyning 26 ta asari mavjud. Qayta nashr etilgan „Kulliyot“ haqidagi 68 betlik sharh maqola Alisher Navoiy asarlari haqida muhim tadqiqotlarni amalga oshirgan Profesor Gunay Kut tomonidan tayyorlangan. Asar 2020-yil Turk qo'lyozmalari muassasasi nashriyotida nashrga tayyorlangan.

Qo'lyozmadan o'rin olgan „Arba'in“ asarining sarlavha sahifasi (zahriya)(60): Bir varaq uzunlikda gulli shoxlar va bargli bezaklar bilan o'ralgan, salbekli medalyonda, sarg'ish fonda, ustiga „Chihl hadis min maqolati efsahis shuaro Amir Navoiy“ yozuvi bor. Matn tashqarisi ko'k fonda oq va qizil to'rt bargli gullar va yashil barglar bilan bezatilgan.

boshi (6b):

Hamd angakim kalomi xayrmaol

Qildi elga rosulidin irsol.

Oxiri (7b):

Ki Navoiyga ul duo yetgay

Bulbuli ruhiga navo yetgay.

Asardagi 1-hadis ,

La yu'minu ahadukum hatta yahibbu la axiyhi ma yuhibbu li nafsihi “, ya'ni „Sizlardan hech biringiz o'ziga ravo ko'rgan narsani birodariga ravo ko'rmaguncha mo'min bo'lolmaydi “-mazmunli hadisdan boshlanadi.

Vohid Turk tomonidan Alisher Navoiyning „ Munojot“, „ Chihil hadis“, „ Nazmul Javohir“ va „ Siroj ul muslimin“ asarlari o'rganilib, matnning Turkiya turkchasiga ko'chirilishi 2017-yilda Anqaradagi Turk madaniyati tadqiqot instituti nashrlari qatorida matnlarning indeksi va faksimeli bilan birga chop etilgan. Ushbu nashr so'z teksturasini ochib berish nuqtayi nazaridan muhim asar hisoblanadi va har bir asarning mazmuni,shu jumladan, har bir asarning faksimili haqida ma'lumot beriladi.Turkiyadagi qo'lyozma kutubxonalaridagi Navoiy asarlarini aniqlash nuqtayi nazaridan turli xil nusxalardan, ayniqsa, faksimiliyada foydalanish muhim ahamiyatga ega.Bu orada kitobxon ham Sulaymoniya qo'lyozmalari kutubxonasidagi Parijdagi Navoiy kulliyoti va Navoiy asarlarining xorijdagi nashrlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Vohid Turk „Chihil hadis"ning 1999-yilda Toshkentda nashr qilingan 20 jildlik Navoiy kulliyotining 15-jildida,„ Xamsatul mutahayyirin “, „ Holoti Sayyid Hasan Ardasher“, „Holoti Pahlavon Muhammad“ va „Nazmul Javohir“ asarlari ham o'rin olganini qayd qilib o'tadi.„Chihil hadis" Abdurahmon Jomiyning shu nomdagi asarining 4misralik qit'a holidayi asari bo'lib, Alisher Navoiy bu asarni hijriy 886(milodiy 1481)- yilda Husayn Boyqaroga bag'ishlab turkiy tilga tarjima qilgan.Bu asar Turkiya Milliy Tatabbular majmuasida Najip Asim tarafidan „Hadis-i Arba'in Tarjimasi" sarlavhasi ostida nashr qilingan.

Alisher Navoiy „Arba'in“ ining bir toshbosma nusxasi Buxoro muzey-qo'riqxonasida 2084-raqam ostida saqlanadi. Ushbu toshbosma majmua ko'rinishida bo'lib, bir muqova ostida uchta asar joylashtirilgan va hammasi bo'lib 179 sahifani o'z ichiga oladi. Bular: „Muhokamatul-lug'atayn“, „Mahbubul-qulub“ hamda Jomiy va Navoiy qalamiga mansub „Arba'in“ asarlaridir. Toshbosma hijriy 1325-yil Ho'qandda Ashur Ali Zohiriy noshirligida Damir parovoy matbaasida chop etilgan. Bu majmua Muso Saidjonov shaxsiy kutubxonasidagi kitob bo'lib, ktiobga Muso Saidjonov muhri urilgan. Majmuadan joy olgan „Arba'in“ asarining umumiy tavsifi haqida so'z yuritadigan bo'lsak,.Asar „Bismillahir rohmanir rohiym“, ya'ni basmala bilan boshlangan. Muqaddima qismi 1-betda 5 bayt, „Sababi ta'lifi manzuma“ qismi 1-2-betlardan joy olgan bo'lib 17baytdan iborat. Keyingi 3-bet 11 qator forsiy tilda arba'innavislik an'anasi va bu an'anaga asos bo'lgan, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning „Ummatimdan kim qirqta hadisni yod olsa vaboshqa ummatlarimga yetkazsa, qiyomat kuni men unga shafatchi bo'laman, Alloh uni olimlar jamoasiga qo'shadi “ mazmunli hadislari keltirilgan. Hadislar 4-betdan boshlanib 23-betda nihoyalangan va 24-betda „Fotiha“ surasi bilan majmua yakunlangan.

Xulosa. *Alisher Navoiy ijodiy merosining salmog'i qanchalik darajada yuksak bo'lsa, bu buyuk ma'rifatparvar siymoning har bir asari bugungi kungacha asrlar*

silsilasidan o'tib bizgacha nodir qo'lyozmalar va toshbosmalar holatida yetib kelgan. Ana shu qo'lyozma va toshbosmalarning ilm-fanga ma'lum bo'lgan nusxalari ustida izchil tadqiqotlar olib borish, yangiliklar topish va ilm ahliga yetkazish matnshunos mutaxassislar oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biridir. Shunday ekan, o'zidan umrboqiy asarlar qoldirgan hazrat Alisher Navoiyning muborak ruhlarini shod etib, bu zotning boy adabiy merosini bizgacha qanday asrab-avaylab saqlanib kelgan bo'lsa, kelajak avlodga xuddi shunday holatda yetkazishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 1. Ashur Ali Zohiriy . ., *Arba'in*".-Ho'qand: Damir parovoy matbaasi, 1907.- 1b.
2. Alisher Navoiy. ., *Arbai'n*'' .- Toshkent: „Fan'' nashriyoti, 2000.-255b.
3. 3. Mahmud As'ad Jo'shon. *Buyuklar tuhfası*.- Toshkent: „Muharrir'' nashriyoti , 2012.-37 b.
4. *Külliyât-ı Nevâyî. Revan Nr. 808. Topkapı Sarayı Müzesi Kütüphanesi- Istanbul: Türkiye yazma eserler kurumu, 2020.- 19b.*
5. *5. Külliyât-ı Nevâyî üzerine. Topkapı Sarayı Müzesi Kütüphanesi- Istanbul: Türkiye yazma eserler kurumu, 2020.*
6. 6. Mahmud As'ad Jo'shon. *Buyuklar tuhfası*.- Toshkent: „Muharrir'' nashriyoti , 2012.-37 b.
7. 7. Türk, Vahit . *Ali Şir Nevâyî Münacât Çihil Hadis (Kırk Hadis)-Nazmü'l-Cevahir Kitâb-ı Sırâcü'l-Müslimîn. Ankara: Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü Yay, 2017.*

MUMTOZ ADABIYOTDA MUHAMMAD HANAFIY OBRAZINING BADIY TALQINI (“ZAYN UL-ARAB” ASARI MISOLIDIDA)

O.A.Omonov,

Buxoro davlat universiteti,

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi magistranti,


“Xoja Buxoriy” o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi

o.a.omonov@buxdu.uz

Islom va tasavvuf tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk shaxslar talaygina. Ularning xalq saodati yo'lidagi xizmatlari beqiyos bo'lganligi uchun ular bilan bog'liq ko'plab xalq qissalari, rivoyatlar yaratilgan. Qolaversa, bular asosida mumtoz adabiyotimizda ham bir qancha nodir asarlar yaratilgan. Ana shulardan biri “Zayn ul-arab” dostonidir. Mazkur asar mavzusiga hamohang yana bir kitoblar yaratilgan. Ularning ayrimlari joriy yozuvda nashr etilgan. Masalan, “Qissayi Shoh Mashrab”, “Ibrohim Adham qissasi”, “Bobo Ravshan qissasi”, “Qissayi Zufunun” shular jumlasidandir. Ammo ko'pgina xalq qissalari qo'lyozmalar fondi, adabiyot va san'at muzeyi yoki kutubxonalar fondida qo'lyozma va toshbosma holida saqlanadi. Hozirda

ularni o'rganish hamda tadqiq etish muammolariga keng ahamiyat qaratilgan. Ayniqsa, Muhtaram Prezidentimizning 2017- yil 24- maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari mazkur sohaning rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi.

Qayd etib o'tganimizdek, Buxoro Adabiyot va san'at muzeyi fondida ham bir qancha qo'lyozma va toshbosma asarlar saqlanadi. Ana shunday nodir manbalardan biri "Zayn ul-arab" asaridir. Mazkur doston Nurmuhammad Andalibga mansub sanaladi. Bu borada Turkman adabiyotshunosi N. Xo'jayev Andalibning 1947-yilda Ashxobodda chop etilgan "Layli va Majnun" dostoniga yozgan so'z boshisida uni "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayxo", "Zayn ul-arab", "Said Nasimiy" kabi dostonlar yozganligini qayd etadi [2, 334]. Aytish lozimki, Buxoro Adabiyot va san'at muzeyi fondida saqlanayotgan mazkur toshbosmaning biror qimida Andalib nomi tilga olinmaydi. Lekin Andalib nomiga mansub "Zayn ul-arab" dostonining bir qancha toshbosma variantlari mavjudligi haqidagi ma'lumotlar bor [2, 334]. Bu o'rinda yana bir jihatga alohida ahamiyat berish kerak, ya'ni mazkur mavzuda Andalibdan tashqari ikki ijodkor qalam tebratgan. Bular fors-tojik tilida ijod qilgan Qova qizi Roviyan (IX asr) hamda o'zbek shoiri Sayqaliy (XVIII asr) larning nomini ko'rsatish lozim [2, 347]. Biz taqdidot obyekti sifatida tanlagan "Zayn ul-arab" dostoni aynan qaysi ijodkorga tegishliligi yoki xalq daostoni ekanligi bilan bog'liq ma'lumot toshbosmada berilmagan. Kitobning titul varag'iga e'tibor qaratsak:



Joriy yozuvdagi tabdili:


Baavniy soni’i zaminu zamon va mukavvini kavnu makon. In jangnomayi hazrati Imom Muhammad Hanafiyya. Almusammo badostoni Zaynularob. Dardorul Qohirayi Buxoroyi Sharif. Darmatba’I Kogon matbu’ batab’i toza gardida zadashut.

Titul varag’idagi ma’lumotlardan asarning Buxoroda Kogon matbaasida chop bo’lganligi va dostonning ikkinchi nomi “Jangnomayi Hazrati Imom Muhammad Hanafiya” ekanligi anglashiladi. Darhaqiqat, mazkur asarning “Zayn ul-arab” yoki “Jangnomayi Hazrati Imom Muhammad Hanafiya” deb ham atalishi haqidagi ma’lumotlar ilmiy adabiyotlarda uchraydi [2,347].

Toshbosma mumtoz adabiyotimizda an’ana bo’lgan basmalayi sharif bilan boshlanadi. So’ng, xalq dostonlarida mavjud bo’lgan maxsus boshlanma “Ammo roviyon andog’ rivoyat qilurlarkim”, deb boshlanadi:

Bismillahir Rohmanir Rohiym

Ammo roviyon andog’ rivoyat qilurlarkim, Hazrati Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam shikor yig’ib Rum shahriga bordilar, Rum bilan urush qildilar, ammo hazrati Ali karramollohu vajhahu Rum podshohini o’ldirib ani bir qizi bor edi ani olib keldilar, alqissa, Rasulu xudo tarahhum birla aydilar: “ey farzand san kimni farzandidursan sani oting nimadur?” Hudoyi taloni bir bilib va mani rasuli barhaq bilib musulmon bo’lg’il. Ul qiz Rasuli Xudodin bul so’zni eshitdi faryod qilib aydiki: “Ya Rosululloh, bildimkim sizning diningiz barhaq turadur sifotingiz rahmatan lilalamiyn turur. Ammo mani uch sharti bor agar qabul qilsangiz bandi xosingiz bo’lurman. Va yana aydiki mani otim Hanifadur otam Rumga qaysardur. Otamni va og’a-inimni hazrati Ali o’ldurupdur. Man yakka-yu yolg’iz qoldim”. Zor-zor chun abri navbahor yig’lar erdi.



Joriy yozuvdagi tabdili

Rasuli xudo bu so'zni qizdan eshitib aydilarkim: "Ey farzand, ko'p yig'lama otang o'rnig'a man otang bo'layin va yana bibi Oishani sanga modar qilayin. Ey farzand, ul uch shartingni bayon qilg'il. Bibi Hanifa bu so'zni eshitib Rasuli Xudoni gardi poyig'a ko'zini surtib aydiki avvalgi shartim budurki Hazrati Ali Mutadoni mai o'z aqdlarig'a kirkussunlar. Ikkinchi shartim buldurki, Fotimayi Zahro mani bu sharting'a g'annok bo'lmasinlar. Uchunchi budurki, Hudoyi Taolo manga o'gul bersa otini Muhammad qo'ysangiz", - deb aydi. Alg'oroz Rasuli xudo bu shartlarni qabul qilib bibi Hanifani sheri dargohga nikohlab berdilar. Oradin bir necha muddat o'tdi. Bibi bir o'g'il tug'dilar, otini Muhammad Hanifa quydilar, xushvaqt bo'lib xaloyiqqa to'y berdilar. Ammo shahzoda Muhammad yetti yoshlar bo'lib urush birla turushni havas qilib ot ustig'a qadam quyub sayru sahro qilib shikor qilmoq uchun otalaridin tavozi ila ruxsat uchun salom berib qo'l qovushturub turdilar. Hazrati Shohimardon o'g'ullarini bu holga ko'rub sanga na bo'ldi deb bir so'z aydilar.

Ta'kidlash joizki, ayrim manbalardagi ma'lumotlarning dostonidagi fikrlar bilan uyg'un emasligini ham ko'rish mumkin. Masalan, quyidagi mulohazalarda biroz tafovutlarni ko'rishimiz mumkin. Ya'ni Hazrati Alining Muhammad Hanafiyaning onalariga uylanish vaqtlari farqli berilgan: Bu qissa Rasululloh alayhissalom hayotining oxirgi vaqtlariga to'g'ri keladi. Bir kuni Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu Nabiy alayhissalom bilan birga o'tirganida: "Yo Rasulalloh, agar sizdan keyin o'g'il farzand ko'rsam, unga ismingizni qo'ysam va kunyangiz bilan kunyalasam, nima deysiz?" deb maslahat so'radi. U zot bu gapdan quvonib rozi bo'ldilar.

Shundan keyin birin-ketin kunlar o'tib, suvlar oqdi. Bu gap shu holicha qolib ketdi. Rasululloh alayhissalom rafiyyul a'loga rixlat etdilar. Shundan bir necha oylar o'tib-o'tmay, Hasan va Husaynning onasi Fotima ham u muborak zotga ergashib, bu dunyoni tark etdi. Suyukli ayoli vafotidan keyin Hazrati Ali Bani hanifalik Ja'far ibn Qaysning qizi Xavlagaga uylanib, ularga kuyov bo'ldi. Bu ayoldan o'g'il farzand ko'rdi, Payg'ambarimiz ijozatlariga ko'ra, uning otini Muhammad deb atadi va Abul Qosim degan nom bilan kunyaladi. Shunga qaramay, odamlar Hazrati Alining bu xotindan dunyoga kelgan o'g'lini Fotimai Zahrodan tug'ilgan ikki o'g'li Hasan va Husayndan farqlash uchun Muhammad ibn Hanafiy deb atashda davom etdi [3, 190].

Muhammad ibn Hanafiy Hazrati Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning xalifalik yillarining oxirgi paytlarida dunyoga keldi. U otasi Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuning bag'rida o'sib-ulg'aydi, tarbiyalandi. U otasidan ilm oldi, ibodati va zuhdini o'zlashtirdi. Hazrati Alidan aynan shu farzandiga baquvvatligi, qo'rqmasligi va shijoati meros bo'lib o'tdi. Yana u otasidan fasohat va balog'atni ham o'zlashtirdi. Bu yigit jang maydonlarida harbiy mahorati va chapdastligi bilan dovruq qozonib, yig'in va majlislarda minbar "chavondozi" bo'lib tanildi. Tun borliqqa zulmat pardalarini yoyib, ko'zlar uyquga ketgan mahalda kechening ruhbon – ibodat qiluvchilaridan biriga aylandi. [191]

Asarda aytilishicha, Muhammad ibn Hanafiy bilan akasi Hasan ibn Ali orasida negadir gap qochib, bir-biridan arazlab yurishdi. Muhammad ibn Hanafiy ota bir akasi

Hasanga xat yozib, dilidagi gaplarini ochiq-oshkora shunday bayon etdi: “Alloh taolo mendan ko’ra sizni fazilatli qildi... Sizning onangiz Fotima Muhammad ibn Abdulloh sollallohu alayhi vasallamning qizi, mening onam Bani hanifalik oddiy ayol, ona tomondan bobongiz Rasululloh alayhissalom bo’ladi, mening ona tomondan bobom Ja’far ibn Qays. Agar sizga bu xatim yetib borsa, oldimga kelsangiz va men bilan yarashsangiz, har bir narsada mendan ko’ra sizga afzallik bo’ladi”.

Bu maktub Hasanga yetib borishi bilan ukasi oldiga shoshildi va gina-kuduratni unutib, u bilan yarashdi. Ayni tutilgan murosa yo’li va zakiylik Muhammad ibn Hanafiyning ilm va zakovatda tengsizligini ko’rsatadi. Bu borada Ibn Junaydning fikrlari ham ayni mulohazalarning asosli ekanligini ko’rsatadi: “Hazrati Alidan (ilm) olib, undan eng ko’p foydalangan olim – Muhammad ibn Hanafiydir”. Ulug’ olimning faoliyati va donishmandligi aks ettirilgan bir qancha ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan. Tadqiqot obektiga olgan dostonimiz ham shunday asarlardan biridir.

Chakka orqali ba'zi insonlar yoki bolalar qay yo'l bilan bo'lmasin o'zining istaklarini amalga oshirish uchun maqsadidan qaytmasligi ko'rsatib berilgan. Bolalar ayrim paytlarda o'z istaklarini amalga oshirishni qat'iy istashadi. Hazil aralsh she'r orqali maqsadga erishish yo'lida taslim bo'lmaslik, ammo ba'zida shu yo'lda kimlarnidir g'ashini keltirib qo'yish ham mumkinligi ifodalangan.

Umuman olganda, ijodkor tabiat va borliq hodisalari bilan yosh kitobxonni tanishtirish hamda ularni tabiat ajoyibotlari va xususiyatlariga oshno qilish orqali tarbiyalash maqsadini ko'zda tutadi. Shuningdek, shoir she'rlari hayotiyli, badiiy qimmat, tarbiyaviy ahamiyati bilan mohiyati bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazarov B. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi 2017-yil 16-iyun 25-son
2. Anvar Obidjon Ona yer. – T.: Yosh gvardiya, 1974. – 39 b.
3. Obidjon A. O'g'irlangan pahlavon. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyoti, 2006. – 118 b.

UY-RO'ZG'OR DOIRASIDA SHAKLLANGAN O'ZBEK VA TURK TILI BARQAROR BIRLIKLARINING QIYOSIY VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

N.E.Bakirova.

BuxDU, adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti mutaxassisligi

2-kurs magistranti

n.e.bakirova@buxdu.uz

Kalit so'zlar: maqol, ibora, barqaror birlik, uy-ro'zg'or buyumlari, lingvokulturologik tahlil

Annotatsiya. Maqolada uy-ro'zg'or doirasida shakllangan o'zbek va turk tili barqaror birliklarning qiyosiy va lingvokulturologik tahlili haqida so'z boradi.

Tilshunoslikda yaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar o'zbek tili barqaror birliklarining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Barqaror birliklar va ularning u yoki bu jihatlari borasida bir qator nomzodlik va doktorlik ishlari amalga oshirildi. Bular asosida o'nlab monografiyalar, o'quv qo'llanmalar, lug'atlar yaratildi.

O'zbek tilshunosligida barqaror birliklar – frazeologik birliklar, maqol va matallarni tadqiq etish ishlari o'tgan asrning 50-60-yillaridan boshlangan bo'lib, bugungi kunda mazkur hodisalarni antroposentrik paradigma asosida, ya'ni tilshunoslikning yangi yo'nalishlari bilan uyg'un ravishda tadqiq va tahlil etish borasidagi ishlar ko'lami oshib borayotganligini ham alohida ta'kidlash mumkin

Asrimizga qadar barqaror birliklarning semantik, grammatik, uslubiy jihatlari e'tibor qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda ularning psixolingvistik, lingvokulturologik, etnolingvistik, sotsiolingvistik va hokazo tilshunoslikning yangi yo'nalishlari bo'yicha tasnif va tavsiflash borasidagi ishlar miqdori oshib bormoqda.

Barqaror birliklarning uslubiy imkoniyatlari ham alohida masala sanaladi. Bugungi kunda barqaror birliklarning semantik-stilistik tabiati ijodkor asarlari bo'yicha ham tadqiq etilmoqda. Bu borada, ya'ni iboralarning badiiy asardagi o'rni masalasidagi kemptiklik B.Yo'ldoshevning doktorlik dissertatsiyasi bilan to'ldirilganligini ham e'tirof etish lozim. Tadqiqotda ilk bor frazeologizmlar funksional-uslubiy jihatdan o'rganildi, shuningdek, nutq jarayonidagi uzual va okkazonal jihatlari, pragmatik imkoniyatlar misollar orqali tahlil etilgan.

“O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari” nomli doktorlik dissertatsiyasi muallifi A.Mamatov ta'kidlaganidek, “hozirgi kunga qadar barcha tilshunoslikda bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham frazeologiyaning o'rganish ko'lamini “tor” va “keng” ma'noda tushunish davom etmoqda. Keng ma'noda tushunuvchilar frazeologiya obyektiga yaxlit ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalar bilan birga, barcha turg'un birikmalar, maqol, matal, aforizmlarni ham kiritishgan. So'nggi yillarda yuzaga kelgan qator ishlarda frazeologiya obyektini “tor” ma'noda tushunish an'anasi ko'zga tashlanadi”. Umuman, frazeologizmlar tilning alohida birligi bo'lib, tuzilishiga ko'ra erkin bog'lanma yoki gapga teng, to'liq yoki qisman semantik qayta shakllangan, obrazli, turg'un so'z birikmalarini o'z ichiga oladi.

Maqol, matal, aforizmlar alohida o'rganilishi kerak bo'lgan hodisalar sanaladi. Bu hodisalardagi shakliy turg'unlik ularni frazeologizmlar bilan qorishib ketishiga sabab bo'lmoqda. Til tarixining xalq tarixi bilan chambarchas bog'liqligi tilning paremiologik tarkibida yaqqol namoyon bo'ladi

Umuman, frazeologizmlar hamda maqollar xalqimizning qadriyati, urf-odati, madaniyati, bir so'z bilan aytganda, tarixiy o'zligi, mentalitetini ko'rsatib turadigan xalq donishmandligi mahsuli sanalib, mazkur hodisalar alohida-alohida kuzatishni talab etadi.

Ma'lumki, barqaror birliklarning shakllanishi so'zlarning shakllanishidan farq qiladi. Ular turli davrlarda, har xil ijtimoiy-hayotiy voqealar, tasavvurlar asosida yuzaga kelgan. Ular asosan shaxs tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning biror

tarzdagi tasavvuri, xatti-harakati, fiziologik, ruhiy holatlari ifodasi uchun qo'llanadi. Uy-ro'zg'or doirasida shakllangan frazeologizmlar kundalik turmushda qo'llaniladigan uy-ro'zg'or ishlarining mantiqiy asosidan kelib chiqib yuzaga chiqqan bo'ladi.

Uy-ro'zg'or doirasidagi o'zbek lug'at qatlamida keng qo'llanuvchi frazeologizmlarga quyidagilar mansub: *po'stagini qoqmoq, sovuniga kir yuvmaslik, yumshoq supurgi, chirog'ini yoqib o'tirmoq, ko'rpasiga qarab oyoq uzatmoq, ichiga chiroq yoqsa yorishmaslik, kosasi oqarmaslik, mag'zavasi chiqmoq, ola xurjun yelkasida turmoq* va hokazo.

Turk tili lug'at qatlamiga xos bu kabi mavzu doirasidagi frazeologizmlar qatoriga: *ağzını bıçak açmamak (og'zini pichoq ochmaydi), akıntıya kürek çekmek (oqimga ketmon urmoq), ününü elemis (unini elagan), eleğini asmış (elagini oshgan), tencere yuvarlanmış (qozon yumalagan), kapağını bulmuş (qopqog'ini topgan), tencerede pişirip kapağında yemek (qozonda pishirib qopqog'ida yemoq), suya sabuna dokunmamak (suvga, sovunga teginmaslik), sokak süpürgesi (ko'cha supurgisi), sepette pamuğu olmamak (savatta paxtasi yo'q), saçını süpürge etmek (sochini supurgi qilmoq), kesenin ağzını açmak (to'rvaning og'zini ochmoq), kesenin dibi görünmek (to'rvaning tubi ko'rinmoq)* va hokazolar mansub. Ko'rinadiki, o'zbek va turk tili lug'at qatlamiga xos uy-ro'zg'or doirasidagi frazeologizmlar ko'p jihatdan o'xshash. Biroq ayrim farqlanishlar ham kuzatiladi. O'zbek lug'at qatlamida mavjud bir qator frazemalarning turk tili lug'atlarida mavjud emasligi yoki aksincha turk tilida kuzatiladigan iboralarning o'zbek tili lug'at qatlamida uchramasligi aniqlandi.

Masalan,

a) Turk tili lug'at qatlamida uchramaydigan o'zbekcha frazeologizmlar:

po'stagini qoqmoq, sovuniga kir yuvmaslik, yumshoq supurgi, chirog'ini yoqib o'tirmoq, ichiga chiroq yoqsa yorishmaslik, kosasi oqarmaslik, mag'zavasi chiqmoq, ola xurjun yelkasida turmoq

b) o'zbek tili lug'at qatlamidagi uchramaydigan turkcha frazeologizmlar:

ağzını bıçak açmamak (og'zini pichoq ochmaydi), akıntıya kürek çekmek (oqimga ketmon urmoq), ününü elemis (unini elagan), eleğini asmış (elagini oshgan), tencere yuvarlanmış (qozon yumalagan), kapağını bulmuş (qopqog'ini topgan), tencerede pişirip kapağında yemek (qozonda pishirib qopqog'ida yemoq), sokak süpürgesi (ko'cha supurgisi), sepette pamuğu olmamak (savatta paxtasi yo'q)

Endi shu asosda maqollarni kuzatamiz, uy-ro'zg'or doirasidagi maqollar sirasiga quyidagi maqollarni sanash mumkin:

O'zbek xalq maqollariga misollar:

Yaxshining so'zi — oltin,

Yomonning so'zi — bolta.

O'tmas pichoqqa — oltin sop.

O'tmas tesha o'tkir bo'lsa,

Bolta dastasini qirqar.

Bolta ursam tegdi toshga,

*Qaytib tegdi munqluq boshga.
Bolta bo'lsang, ur,
Kunda bo'lsang, chida.
O'tin ayirgan bolta maydonda qolar.
Ikki pichoq bir qinga sig'mas,
Ikki sevgi — bir ko'ngilga.
Oldin pichoqni o'zingga ur,
Og'rimasa, birovgga ur.
Pichoq qancha o'tkir bolsa ham
O'z sopini kesolmas.
Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar,
Yomon gap bilan pichoq qinidan chiqar.
Usta pichoqqa yolchimas,
Etikdo'z — bigizga.
Chumchuq semirib botmon bo'lmas,
Tesha o'sib ketmon bo'lmas.
Kosa, kosaning tagida nimkosa.
Tovoq sindirgan kosa to'lar.
Shirin so'zli shoh kosasida suv ichar.*

Turk xalq maqollariga misollar:

Ya baltaya sap ol, ya toprağa kürek (yo boltaga sop bo'l, yo tuproqqa belkurak); tencere dibin kara, seninki benden kara (qozon taging qora, seniki mendan qora); önce iğneyi kendine batır, sonra çuvaldızı ele (oldin ignani o'zingga suq, so'ngra juvoldizni boshqaga); ormana bir balta girmiş, sapı yine kendisindenmiş (o'rmonga bolta kirmish, sopi yana o'zidanmish); mum dibine ışık vermez (chiroq tubi qorong'u); kadın eli kaşık sapından kararır (ayolning qo'li qoshiq sopidan qorayadi); ip inceldiği yerden kopar (ip ingichkalashgan joyidan uziladi); elin ağzı torba değil ki çekip büzesin (xalqning og'zi to'rva emaski, yirtib buzasan); dilencinin torbası dolmaz (tilanchining to'rvasi to'lmas); destursuz bağa gireni sopa ile kovalarlar (ruxsatsiz bog'ga kirganni kaltak bilan quvlaydilar); bir mih bir nal kurtarır, bir nal bir at kurtarır (bir mix bir taqani qutqaradi, bir taqa bir otni qutqaradi); bir fincan kahvenin kırk yıl hatırı vardır (bir finjon qahvaning qirq yillik xotiri bor); bir baş soğan bir kazanı kokutur (bir bosh piyoz bir qozonni hidlatadi); balta değmedik ağaç orman olmaz (bolta tegmagan daraxt o'rmon bo'lmaydi); ayağını yorganına göre uzat (oyog'ingni ko'rpanga qarab uzat); borç yiyen kesesinden yer (qarz yegan xaltasidan yeydi); ananın aşısı - tandırın başı (onaning oshi — tandirning boshi); aç köpek fırın deler (och it o'choq kavlaydi).

O'zbek va turk lug'at qatlamidagi uy-ro'zg'or mavzusidagi maqollarda ham farqlanish mavjud. Masalan, *Bolta ursam tegdi toshga, qaytib tegdi munqluq boshga; bolta bo'lsang, ur, kunda bo'lsang, chida; o'tin ayirgan bolta maydonda qolar; chumchuq semirib botmon bo'lmas, tesha o'sib ketmon bo'lmas; tovoq sindirgan kosa to'lar; shirin so'zli shoh kosasida suv ichar* kabilar turk tilida uchramadi. Shu bilan

birga, *kadın eli kaşık sapından kararır, elin ağzı torba değil ki çekip büzesin, destursuz bağa gireni sopa ile kovalarlar, bir mih bir nal kurtarır, bir nal bir at kurtarır, bir fincan kahvenin kırk yıl hatırı vardır, bir baş soğan bir kazanı kokutur, ananın aşu - tandırın başı, aç köpek fırın deler* kabilar o'zbek tilida kuzatilmaydi.

Xullas, uzoq tarixiy davrda hamnafas, inoq yashab kelgan turk va o'zbek xalqining lug'at qatlami ko'p jihatdan bir-biriga o'xshash. Jumladan, xalq og'zaki ijodi namunasi sanalgan barqaror birliklarning har ikki tildagi shaklan va mazmunan uyg'unligi bu tillar qadimdan bir ildiz asosida shakllanganligidan dalolat beradi. Mazkur xalqlarning ko'p yillar davomida ayro-ayro yashab mustaqil istiqomat qilishi evaziga ular lug'at qatlamidagi barqaror birliklar sirasiga turli tafovutlar kelib chiqishga sabab bo'lgan, deb xulosa chiqarishimizga asos bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rashidova U. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko'z, qo'l va yurak komponentli iboralar misolida): Filol. fan. falsafa dok. (PhD)dis. ...avtoref. - Samarqand. 2018. -B.51.
2. Jumayeva Z. Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. falsafa dok. (PhD)dis. ...avtoref. -Jizzax. 2021.
3. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol.fan.d-ri.dis. ...avtoref. -Toshkent, 1993. -B47.
4. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: Filol.fan.d-ri.dis. ...avtoref. -Toshkent, 2000. -B56.
5. Jo'rayeva B. O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari. Filol.fan. doktori (DSc) diss. - Samarqand, 2019. B.93
6. Aksoy, Ömer Asım. Atasözleri ve Deyimler. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1993. III. Baskı
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. -T.: O'qituvchi, 1978.

O'ZBEK ADABIYOTIDA TARIXIY MAVZUDAGI ZAMONAVIY PENTOLOGIYA

D.U.Mamanova a

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

“O'zbek tili va adabiyot, rus tili bilan” kafedrasi

o'zbek tili fani o'qituvchisi

Anotatsiya. Ushbu maqolada Sa'dixon Mavlavixon o'g'lining “Tanazzul” pentologiyasi va roman badiiyati atroflicha tahlil qilingan. Bu roman o'zbek adabiyotidagi ikkinchi pentologiya hisoblanib, yozuvchi ijodiy rejasi va maqsadi

haqida ham ba'zi ma'lumotlar keltirilgan. Yozuvchining birinchi asari bo'lishiga qaramay tarixiy haqiqat va badiiy to'qima mutanosibliigi misollar orqali tahlil qilingan. Qolaversa, bu davr yoritilgan boshqa romanlar bilan munosabati ham qiyoslangan. Asar til xususiyati jihatidan turli shevalardan obrazlar nutqida foydalanib tarixiy makon-zamon yaratilganiga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, to'qima obrazlardagi ishqiy munosabatlarning boshqa asarlardagi obrazlar bilan aloqadorligi qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, pentologiya, asar g'oyasi, muallif ijodiy maqsadi, asar tili, sheva, lahja, badiiy to'qima, tarixiy haqiqat.

Qadim-qadim necha ming yilliklarni bosib o'tgan va o'tayotgan tarix qanchadan qancha sir-sinoatlarni o'z bag'riga olib barchani lol qoldirib kelmoqda. Ba'zan sharqiroq suvdek noaniq, tinch turgan suvdek aniq namoyon bo'ladi. Yurtimiz tarixi ham juda boy o'tmish voqealariga ega. Bunda Qo'qon xonligi va adabiy muhiti o'ziga xosdir. "Qo'qon xonlari shajarasi XVIII asr boshlarida ming urug'ining hokimiyatni egallab o'zini xon va Qo'qonni xonlik deb e'lon qilishidan boshlanib XIX asr oxirlariga qadar davom etadi. Norbo'tabiydan Xudoyorxon gacha bo'lgan hukmronlik davrida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, harbiy sohalarida turli o'zgarishlar bo'lishi bilan bir qatorda toj-u taxt talashlar, qirg'inbarot urushlar, qo'zg'alon va qon to'kishlardan holi bo'lmadi." [3. 250-b] Bu davr yoritilgan badiiy, tarixiy, ilmiy asarlar bundan guvohlik beradi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar," "Mehrobdan chayon" romanlari ham Qo'qon xonligi tarixini aks ettirar ekan, undan ilhomlangan holda Qo'qon xonligi haqida yozilgan Sa'dixon Mavlavixon o'g'li Eshonjonovning "Tanazzul" romani ham diqqatga sazovordir. Asar yozuvchining ilk asari bo'lishiga qaramay badiiyati, tarixiy voqealarning badiiy jihatdan berilishi, tarixiylik tamoyili, estetik jihatlari bilan o'quvchilarni jalb etadi. Yaqin yillar ichida yaratilgan bo'lishiga qaramay o'z kitobxonlariga ega bo'lgan asar besh kitobdan iborat pentalogiyadir. Yozuvchining ijodiy rejasi ham pentalogiya yaratish edi va bunga ham erishdi.

Yozuvchi haqida professor Qozoqboy Yo'ldoshev "Katta hayotiy tajribaga ega, asl kasbi me'mor bo'lishiga qaramay, tarixni badiiy jonlantirishga qiziqadigan Sa'dixon Mavlavixon o'g'li o'zining "Tanazzul" deb nomlangan pentologiya – beshligida millatimiz tarixidagi g'oyat murakkab, chigal va qora kunlarni aks ettiradi. Qizig'i shundaki, badiiy asarlar, ayniqsa, tarixiy yo'nalishdagi ko'plab bitiklar bilan tanishgan bo'lsa-da, Sa'dixon shu vaqtga qadar badiiy asar tugul birorta ham maqola ham yozgan emasdi. Ammo boshlovchi yozuvchi marhum Murodjon Mansurning "Judolik diyori" romanidan keyin o'zbek adabiyotidagi ikkinchi pentologiyani yaratishga jazm qila bildi." [5. 4-b] deya e'tirof etadi.

"Tanazzul" romani yorqinlik bilan yaqin o'tmish aks etgan, badiiy voqealar, tarixiy shaxslar va makon-zamon, hayot haqiqati hamda tarixiy biografiyani o'z ichiga oladi. Asarda XIX asr 2-choragi Qo'qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy, harbiy jabhalari va Xudoyorxon davri tarixi uning Musulmonqul mingboshi va qipchoqlar ustidan qozongan g'alabasi, Qo'qon-Buxoro munosabatlari, Qo'qonga Rossiyaning hujumi kabi tarixiy haqiqatlar badiiy to'qimaga mutanosib yozilgan.

“Tanazzul” romanida Qo’qon xoni SHERALIXON (1842-1845) davridan boshlab asosiy voqealar XUDOYORXON (1845-1858, 1863-yil 4 oy 1865-1875), davri uning to’rt marta taxtga kelishi va ketishi batafsil badiiy bo’yoqlar bilan yozilgan. Asar tarix, makon-zamon, haqiqat, badiiylik o’rtasidagi mutanosiblikka adabiy badiiy jihatdan tavsif beradi. Naim Karimov tarixiy janr haqida “...Tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsad kitobxonni tarixiy o’tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o’z xalqining tarixiy o’tmishiga nisbatan hurmat uyg’otish va shu yo’l bilan ma’rifatli avlodni tarbiyalash...” dek talabni bajaradi. Haqiqatdan ham asardan kelib chiqqan holda va yozuvchi bilan suhbat jarayonida avvalo Vatan tarixini aks ettirish va shu asnoda yozuvchining bobokalonlarining Qo’qon xonligiga va xonlarga yaqin aloqada bo’lgan pirlar bo’lganligini yoritishni maqsad qilgan. Buni asarning havolasida “Buzrukxon to’ra Shokirxon to’ra o’g’li – otamning bobosi, mening bobokalonim, nasl-nasablari Xo’ja Ahmad Yassaviyga borib taqaladi. O’ratepa bekligida mushovir lavozimida xizmat qilganlar. Har yili O’ratepa bekligidan Qo’qon xonligiga yillik boj olib borganlar. 1866-yil oktabr oyida Fon Kaufman bilan bo’lgan jangda shahid bo’lganlar. Jasadlari O’ratepa shahrining Nayman guzaridagi hovlimizga dafn qilingan. Qabrlari hozirgi kunda ham mavjud.” [4. 76-b] - deya o’z ijodiy maqsadni amalga oshirgan holda tarixiy roman yozishga muvaffaq bo’lganlar. Hozirda Farg’ona, Andijon, Marg’ilon, Namangan kabi viloyatlarga aylangan Qo’qon xonligi tarixi va shu zamin tarixini badiiylashtirgan holatda o’z ijodiyoti bilan boyitilgan roman ham diqqatga sazovordir.

Yozuvchining yetakchi g’oyasi, konsepsiyasi, estetik ideali, tarixiy haqiqat va badiiy to’qimaga mutanosibliigi asarning badiiy estetik jihatdan salmog’ini oshirgan. Buni Xudoyorxon va qipchoqlar qirg’ini, qipchoqlar va qorachopon o’rtasidagi munosabat, Xudoyorxonning hokimiyat tepasiga kelishi, Rossiyaning O’rta Osiyoni bosib olishga bo’lgan harakatlari, “Hokimoyim va haram ahli, Saidbek va Oltinoy munosabati, Saidbekning Rossiyada o’qib kelishi va boshqa ko’plab o’rinlarda ko’rish mumkin. Tarixiy va to’qima qahramonlar ularga yondosh hatto, epizidik hamda qistirma obraz vositasida voqealar tizgini ketma ketlikda olib borilgan. Asar kompozitsiyasi ham shunga xizmat qiladi. Roman konfliktik obrazlar vositasida kulminatsion nuqtadan boshlanadi.” [2. 67-b] Unda Xudoyorxonning bir necha urinishlari zoya ketgandan so’ng “Toshkent itoatdan bosh tortdi” - deb Normuhammad qo’shbegi bilan kelishgan holda Toshkentga hujum qilish bahonasida qipchoqlarning peshvosi Musulmonqul mingboshini yo’q qilish va qipchoqlar qirig’inini uyushtirishidan boshlanib, ungacha bo’lgan voqea-hodisalar xronologik yoritilib boriladi.

Asarda XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyaning O’rta Osiyoga hujum boshlashi natijasida chekka hududlar To’ychibek, Qumqo’rg’on, Kattaqo’rg’on qal’alariga hujum qilib egallab, o’z xufyalarini sayohatchi ko’rinishida mamalakat hududiga kirgizib batafsil o’rganadi va bosib olish rejasini tuzadi. Buning ustiga xonlik hukmronligidagi ichki nizolar, Musulmonqul mingboshining o’g’li Abdurahmon

yordamida Xudoyorxonga qarshi kurashning avj olishi, Alimqul ponsodning ham xonga qarshi urushi, harbiy salohiyat qurol-yarog'da qaloqlik - orqada qolishi natijasida Rossiya xonlikni bosib oladi. Bularning hammasi xonlikni asta-sekin yemirib borgan va tanazzulga uchrashiga olib kelgan. Yozuvchi ham shundan kelib chiqib asarni "Tanazzul" deb nomlagan. Romanga o'zbek adabiyotining yetuk namoyondasi Abdulla Qodiriyning "Moziyga qaytib ish ko'rish hayirlik, deydilar." [1. 3-b] gapi epigraf qilib olingan. Bu tarix undagi xato kechirilmaligi, ba'zi hukmlarni chiqarishda undan o'rnak olgan holda ish ko'rishga undaydi. Kelajakdagi voqea-hodisalarga tarixdagi holat ta'sir etmasligi kerak. Lekin afsuski, o'ylanmay, tezlikda, o'zgalarning turli fikriga quloq solish, jahl va sarxushlik oqibatida bajarilgan ish hech ham yaxshilikka olib kelmagan. Tarixda qilingan xato, albatta, zarhal harflar bilan bitilib, insonlar xotirasiga muhirlanib, og'izdan og'izga o'tib avlodlarga yetib keladi va ularning noroziligiga sabab bo'lmay qolmaydi. Afsuski, uni faqat ijobiy ko'rish ilojisiz – amri maholdir. Asarda shu jihatga yozuvchi tomonidan o'zgacha yondoshilganini ko'rish mumkin.

Romanning voqea-hodisalari unga befarq bo'lmagan kishilarda o'ziga nisbatan haqqoniy fikr yuritishga hamda Vatan tarixiga befarq bo'lmaslikka undaydi. Yozuvchi asarda voqelarni izchil aks ettirib, ma'lum bir voqeani sirli qilib keyinroqqa olib qo'yganga o'xshaydi. Bu ba'zi o'rinlarda obrazlar tilidan qistirma voqea kabi beriladi. Xususan, Musulmonqul mingboshining Bilqillamada qo'lga olinishi, Mirzaali o'nboshi tilidan G'ofur ismli navkar yordamida hikoya qilib berish orqali mingboshiga qarshi hamma Chirchiq bo'yida yig'ilganda saroydagi hayot, qipchoqlarni qamal qilishgacha bo'lgan voqealar batafsil aks ettirilgan. Go'yoki, Qodiriy "O'tkan kunlar" ida usta Alimni qistirma obraz kabi kiritgandek asarda voqealar shunday qistirmalar orqali yoritgan.

Asar tarixni yoritgan holda ijodkorning ijodiy maqsadiga xizmat qilgan holatda yoziladi. Buning tarixiy haqiqatga badiiy to'qimani qay tarzda badiylashirganini keyingi tadqiqotlarimiz davomida ilmiy-nazariy, tarixiy va badiiylik tamoyillari jihatidan muvofiqligi qiyosiy tahlil qilinadi. Demak, asar adabiy jamoatchilikka taqdim etilgan ekan, u badiiy to'qima va tarixiy haqiqatga mutanosib yozilgan bo'lib, yozuvchi o'z maqsadiga erishgan holda roman g'oyasini ham to'laqonli ifodalashga erishgandir. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda ushbu roman-pentologiyani barcha adabiyot muxlislari uchun mutolaa qilishni tavsiya etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdulla Qodiriy. "O'tkan kunlar", - T;,, "Navruz", 2019. 3-bet
2. Mamanova, D. (2024). "TANAZZUL" ROMANIDA MUSULMONQUL MINGBOSHI OBRAZINING TAVSIFI. *Interpretation and researches*, (4 (26)). - 61-64 b.

3. Mamanova, D. (2024). ARTISTIC PARALLELISM IN THE NOVELS “DECLINE” AND “THE SCORPION FROM THE ALTAR”. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 2(1), 249-254.

4. Sa’dixon Mavlavixon o’g’li. “Tanazzul” II kitob, - T.; “Turon zamin ziyo”, 2015. - 344 b.

5. Yo’ldoshev. Q. Badiyatdan nurlangan tarix. “Tanazzul” romaniga taqriz. T: “O’qituvchi”, 2019. - 376 b.

6. Mamanova, D. (2024). THE PROPORTIONALITY OF THE RUSSIAN ATTACK ON THE KOKAN KHANATE TO THE HISTORICAL REALITY IN THE NOVEL OF DECLINE. *Interpretation and researches*.

DRAMATIK ASARLARDA NOVERBAL VOSITALARNING SOTSIAL XOSLANISHI

R.O.Masharibova

Urganch davlat universiteti akademik

litseyi ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi,

Xorazm Ma’mun Akademiyasi erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada noverbal vositalarning dramatik asarlarda qo’llanilishiga doir fikr-mulohazalar bayon qilingan, unda mustaqillik davrida yaratilgan asarlarning, xususan, dramalarning nolisoniy vositalar yordamida ifodalangan ma’nolari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: drama, nutqiy xoslanish, ijtimoiy xoslanish, verbal, noverbal vositalar, kommunikant, tahlil, tashxis.

Verbal tillar madaniyatga ko’ra o’zaro ajralib turganidek muayyan millatning noverbal tili boshqa millatning noverbal tilidan farqlanadi. Qayd qilish joizki, nisbatan keng tarqalgan jest yaqinlashish yoki taktik aloqadir. Teginish, eng avvalo, muloqotdagi sherikka nisbatan hissiyotlarni ifodalaydi. Qo’pol va og’riqli aloqa agressiya va tazyiq bilan kechadi. Mayin va og’riqsiz aloqalar sherikka nisbatan ishonch va simpatiyadan dalolat beradi.

Nolisoniy axborotni qabul qilishning sezilarli darajada noerkinligi va g’ayriixtiyoriyligidan (g’ayrishuuriy) uning retsipiyenti (bu ham sezilarli ongsiz darajada) murojaatning lisoniy mazmunidan ko’ra ko’proq nolisoniy mazmuniga ishonishga moyildir.

Har qanday uchrashuv va xayrlashuvning bevosita atributi qo’l siqishdir. Ushbu holat axborotga boy bo’lishi mumkin, ayniqsa, uning intensivligi va davomiyligi. Quruq qo’llar bilan amalga oshirilgan juda qisqa muddatli va yengil qo’l siqish befarqlikdan dalolat berishi mumkin. Aksincha, davomli qo’l siqish va juda nam qo’llar hayajondan dalolat beradi. Biroz cho’zilgan va tabassum hamda iliq nigoh bilan kechuvchi qo’l siqish do’stona munosabatni namoyon etadi. Agar qo’l siqilganda boshqa odamning qo’li to’liq qamrab olinsa va kaft pastga qarasa, bu hukmron qo’l

siqishdir. Agar kaft yuqoriga qaratilib, qo'l uzatilsa, bu bo'ysunuvchi qo'l siqishdir. To'g'ri, lekin bukilgan qo'l bilan qo'l siqilsa, hurmatsizlik belgisidir. Uning asosiy ma'nosi – masofani saqlash va tengsizlik haqida eslatishdir. Barmoq uchlari bilan qo'l siqish muloqotdagi sherikni o'ziga qulay masofada saqlash xohishini anglatadi. Ikki qo'llab qo'l siqish samimiylilik va tuyg'ularning chuqurligini ifodalaydi. Qo'l va tana harakatlari inson haqida ko'p ma'lumotlarni bera oladi. **Birinchidan**, ularda inson organizmi holati va bevosita emotsional reaksiyalar namoyon bo'ladi. Bu inson temperamenti haqida xulosa qilish imkonini beradi. **Ikkinchidan**, reaksiyalar, tana holati va harakatlari inson xarakterining ko'plab qirralarini ifodalaydi: o'ziga ishonch, qobiqqa o'ralganlik yoki erkinlik, ehtiyotkorlik yoki keskinlik. **Uchinchidan**, holat va jestlarda inson tomonidan o'zlashtirilgan madaniy normalar namoyon bo'ladi. **To'rtinchidan**, jest va holatga shartli ramziy ma'nolar yuklatiladi. Shu tariqa ular aniq axborotni uzatishga qodir.

Ochiqlik jestlari samimiylilik va ochiqchasiga gapirish xohishidan dalolat beradi. Belgilarning ushbu guruhiga “ochiq qo'llar” va “pidjak tugmalarini echish” kabi jestlar kiradi.

Bunga quyida mustaqillik yillarida yaratilgan quyidagi daramadan misollar keltirish mumkin:

Momo: – (**Yuzida qat'iyatli tabassum bilan qo'lini sahnaga ishora qilib**) Xudoga shukur, qo'ni-qo'shni, mahala-ko'y bor! El-yurt bor! O'ligim ko'chada qolmaydi, bolam, meni norozi qilmayin desang, shu pulni olib bugunoq qizingga oyoqkiyim, ust-bosh, o'zingga ham nima kerak bo'lsa sotib ol, bolam...

Shabnam: – (**Yig'lab kampirning quchog'iga otiladi**) Enajon. Enajonim. Hali ko'rasiz, bu kunlar ham o'tadi, ena...Sizni yaxshi ko'raman, enajon...

Momo: – (**Sukut saqlab**) Menga qara, kel shu tomorqamizning 10 sotixini Quدرات mijg'ovga berib yuboraylik... Bo'lmasa Quدراتdan qutulolmaymiz...

Shabnam: – (Qat'iyatli tarzda) Yo'q, enajon, buning iloji yo'q! Bir qarich ham yerni bermaymiz!

Momo: – Ilojimiz yo'q, bolam! **Shabnam:** – (Yana o'sha shahd bilan) Bor, ena, bor ilojimiz... Bu yog'ini menga qo'yib bering.

Momo: – Nima qilmoqchisan?

“Ochiq qo'llar” jestida suhbatdosh siz tomonga qo'l kaftlarini yuqoriga ko'targan holda uzatadi. Mazkur jest suhbatdosh tomonga borish va ish aloqasini o'rnatish xohishini namoyish etadi.

A.K.Mixaylskaya o'zining “Rus Suqroti” («Русский Сократ») asarida rus notig'iga xos, biroq boshqa tilda gapiruvchilarga xos bo'lmagan bir qancha imo-ishoralarni misol tariqasida keltiradi:

1. Ochiq qo'l jesti axborotni berish ramzi.
2. Yopiq qo'l jesti noxushlik, ko'ngilsizlik ramzi.
3. Bir mushtga tugilgan barmoqlar yig'indisi do'q-po'pisa yoki bir qancha g'oyalarning yig'indisini ifodalaydi va hokazo.

Bu – tana muloqoti (tana tili, badan tili) – sifatida fikrlar, his-tuyg’ular, emotsiyani ongli ravishda uzatadigan tananing turli qismlarining pozitsiyalari va harakatlarning alomatlari, ya’ni yuz ifodalari, imo-ishoralar, gavda holatlari (pozalar), yurish va boshqalarni ifodalaydi.

Shu ma’noda “**Yuqoriga ko’tarilgan bosh barmoq**”.

Amerika, Angliya, Avstraliya va Yangi Zelandiyada yuqoriga ko’tarilgan bosh barmoq quyidagi 3 ma’noga ega bo’ladi:

1. Yo’lda yo’l-yo’lakay mashina ushlashda;
2. “hammasi joyida”;
3. Bosh barmoq juda tezlik bilan yuqoriga ko’tarilsa, bu uyatli so’kinish yoki “buning ustiga o’tir” degan ma’noni anglatadigan haqorat belgisiga aylanadi.

Ayrim mamlakatlarda, masalan, Gretsiyada ushbu jest “ovozingni o’chir”ni anglatadi, shunga ko’ra Gretsiya yo’llarida mashina ushlamoqchi bo’lgan amerikalikni tasavvur qiling!

Bunday paralingvistik vositalar dastlab 1644-yili Angliyada D.Bulverning “Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishora harakatlarini ifodalovchi qo’lning tabiiy tili va xronologiyasi” nomli asarida tadqiq qilingan.

Shu o’rinda A.Nurmonov bir tildan ikkinchi tilga ma’lum matnni o’g’irishda faqat shu xalq (millat) tilini bilish bilan kifoyalanib qolinmay, balki ularning o’zlariga xos muomala madaniyati, imo-ishoralarini bilish kerakligini ta’kidlagan edi.

A.Nurmonov: “O’zbeklarda substitutiv funksiya bajara oladigan imo-ishoralar har qanday informatsiyani ifodalamaydi; ularning vazifa doirasi nihoyatda cheklangan; asosan, kundalik og’zaki aralashuv uslubi bilan bog’liq”, – deb uqtiradi.

M.Saidxonov esa “Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar” nomli kitobida kommunikativ jarayon uchun xizmat qiluvchi ma’lum axborotni uzatish vositalaridan bo’lgan ramzlar, shartli belgilar, morze tili, ishoralar va boshqa bir qancha vositalar borki, ular ichida til tabiiy, shu til sohiblari uchun tushunarli, tayyor holdagi aloqa vositasi sanalishini aytib, ishoralar, mimika, ovozdagi turli holatlar va gavda harakatlari aloqa-aralashuv vazifasini bajarishdan qat’iy nazar kommunikatsiyada ikkilamchi vosita vazifasini bajarishini ta’kidlaydi.

Ayrim olimlarning fikriga ko’ra, noverbal muloqot tilshunoslik fanining bir qismi sifatida tadqiq etilib, komponentlar soni quyidagicha:

1. Paralingvistika (*noverbal muloqotning ovoz kodlari*);
2. Kinesika (*imo-ishora harakatlari*);
3. Okuleksika (*ko’z harakatlari*);
4. Auskultarsiya (*insonlarning ovoz ohangi*);
5. Gaptika (*inson gavda qismiga teginish suhbat*);
6. Gastika (*oziq-ovqat va ichimliklar belgisi yoki ta’im bilish*);
7. Olfaksiya (*hid bilish orqali muloqot*);
8. Proksemika (*muloqot maydoni*);
9. Xronemika (*muloqot vaqti*);

10. Sistemologiya (*insonni o'rab turgan atrof-tevarak*).

Muloqot qilganda ikki tomonlamalikka (hamjihatlikka) intiladilar va agar u ta'minlanmasa, diskomfortni his qiladilar. Esda tutish kerak, inson fikrini endi shakllantirayotgan bo'lsa, chetga qaraydi, fikr to'liq tayyor bo'lganida suhbatdoshga qaraydi. Murakkab narsalar haqida gapirilganda suhbatdoshga kamroq qaraladi, qiyinchilik bartaraf etilgandan keyin ko'proq qaraladi.

To'g'ri nigoh barcha narsaga nisbatan to'liq qiziqishning va to'g'ridan to'g'ri ta'sirga tayyorlikning belgisidir. Chetlashuvchi nigoh ojizlik, ishonchsizlik, qo'rquv, haddan tashqari uyatchanlik yoki jur'atsizlik, muayyan aybdorlik hissi tufayli qochib turadi. Qiya qarash qiziquvchanlikni (biroz ko'tarilgan qoshlar yoki tabassum bilan birga kechadi) yoki ziddiyatni, shubhani (pastga tushirilgan qoshlar, xo'mraygan peshona, lablar chetining tushurilishi bilan kechadi) ifodalashda ishlatiladi.

Bunday vaziyatda suhbatdoshni biror nima bilan qiziqtirish yoki unga ketish imkonini berish kerak. Suhbatni shu alfozda davom ettiraversangiz, kutayotgan natijangizga erishishingiz amri mahol.

Oydin momo: – (*Qo'lini siltab*) Hay-hay, Chori bovo! Unday demang! Men hech kimni qarg'amadim. Qarg'amayman ham. Mening o'zimni Xudo qarg'ab, Xudo urib qo'yibdi. Yo'qsa, toyday tosirlagan bolam it izg'ima dig'an yerlarda eldan chiqib, dinu diyonatdan chiqib gulday xotinini tashlab, g'unchaday qizini xor-u zor qilib sanqib, sandiroqlab yurarmidi, Chori bovo! Meni birovni muhokama qilish, birovni qarg'ashga holim bormi, Chori bovo! Qarg'asam men o'zimni qarg'ayman, Chori bobo...(Q.Norqobil)

Himoya jestlari va holatlari suhbatdosh xavf yoki tahdidni sezayotganligini anglatadi. Bu guruhga mansub, keng tarqalgan jestlardan biri bu qovushtirilgan qo'llardir. Bu vaziyatda qo'llar uch xil holatda bo'lishi mumkin.

O'ylash va baho berish jestlari xayolchanlikni va muammoning yechimini topishga intilish holatini aks ettiradi. O'ylovchan (tafakkur qilish) yuz ifodasi "yanoqdagi qo'l" jesti bilan birga kechadi. Ushbu jest nimadir qiziqtirib qolganligini anglatadi. Suhbatdosh qaror qabul qilish bilan ovora bo'lsa, iyagini qashlab qo'yadi. Qaror qabul qilib bo'lingach, qashlash tugaydi. Mazkur jestga, ko'pincha, biroz qisilgan ko'zli yuz ifodasi mos keladi – go'yo javob izlab, uzoqdagi biror nimani kuzatayotgandek. Suhbatdosh qo'lini yuziga yaqinlashtirsa, iyagi bilan kaftiga suyansa, ko'rsatkich barmog'ini esa yanog'i bo'ylab cho'zsa (qolgan barmoqlar og'izdan pastdagi holat), u sizning fikrlaringizni tanqidiy qabul qilayotganligidan dalolat beradi.

Shabnam: – Umringizdan baraka toping.

Yo'ldosh: – (Taltayib) Qo'ysangiz-chi, yaxshilik yerda qolmaydi deydilar, Shabnamxon. Xullas, yana bir yangilik bor.

Shabnam: – (Hayratlanib) Qanaqa yangilik?

Yo'ldosh: – (Ko'rsatkich barmog'ini havoga niqtab) Qizingiz Dildorani viloyatga musobaqaga yuborayapman. Kecha topshiriq berdim, barcha hujjatlar, sarfxarajatlar tayyor. Ustozlar endi jiddiy shug'ullanishadi.

Fikrga qo'shilmaslik jesti sifatida chetlashtirish jestlarini keltirish mumkin. Bularga kostyumdan yo'q bo'lgan patchalarni terish kiradi; bunday inson odatda boshqalardan yuz o'girib, polga qarab o'tiradi. Bu fikrga qo'shilmaslikning eng ko'p tarqalgan jestidir. Agar suhbatdosh tinmasdan kiyimidan patchalarni tersa, garchi u tilda hamma gaplarni tasdiqlab tursa-da, aslida, unga atrofdagi hech bir narsa, hatto suhbat ham yoqmayotganligidan dalolat beradi.

“Quloqni qashlash” jesti suhbatdoshingizning gapirilayotgan gapdan chetlashish istagidan dalolat beradi. Quloqqa tegib, uning go'shtdor qismi cho'zilsa, suhbatdoshingiz sizni obdon tinglaganidan, o'zi ham gapirgisi kelayotganligidan dalolat beradi.

Ataylab vaqtni cho'zish xohishidan dalolat beruvchi jestlar, odatda, ko'zoynak bilan bog'liq. Vaqtni cho'zish uchun yakuniy qarorga qilish maqsadida suhbatdosh ko'zoynagining chetini shimib turishi mumkin. Ba'zan u ko'zoynagini yechadi, taqadi, linzalarini artadi. Biror kishidan nimanidir so'raganingizda shunday jestni kuzatsangiz, jim holatda biroz kutib turish kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mustaqillik davrida yaratilgan dramalarda qahramonlar nutqi verbal vositalardan tashqari noverbal vositalar bilan ham ifodalangan, ayniqsa, imo-ishoralardan foydalanish nasriy asarlarga qaraganda dramalarda ustuvor ekani aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Асмолов А.Г., Фейгенберг Е.И. Некоторые аспекты невербальной коммуникации: за порогом рациональности // Психологический журнал. – 1989. – Т. 10, № 6. – С. 54.
2. Михальская А.К. Русский Сократ: лекции по сравнительно-исторической риторике. – М.: Добросвет, 1996. – С. 18.
3. Николаева Т. Невербальные средства человеческой коммуникации и их место в преподавании языка // Роль и место страноведения в практике преподавания русского языка как иностранного. – М., 1969.
4. Басова А., Егоров С. История сурдопедагогики. – М., 1984. – С. 21.
5. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. –Т.: Академнашр, 2012. –Б. 212.
6. Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. –Т.: Фан, 2008. –Б. 3,18.
7. Крейдлин Г. Невербальная семиотика. М.: Новое литературное обозрение, 2002.–С.22.

A CONNECTION BETWEEN THE WORKS OF EDGAR ALLAN POE

*R.J.Ereshdjumayeva,
Bukhara State Pedagogical Institute
1st year student of Foreign Language Department*

Annotation. In this article, I will talk about the relationship between the works of Edgar Allan Poe to the life of the writer, and through these haunting and atmospheric stories, how Poe invites us to confront our deepest fears and delve into the darkest corners of the human psyche. With his masterful storytelling and vivid imagery, he continues to captivate readers with his timeless tales of terror and suspense.

Keywords: gothic tales, madness, psychological thriller, alcoholism, superstition, karma, guilt, obsession.

Edgar Allan Poe was an American writer, poet and editor. He is best known for his gothic tales, as well as his poetry. Poe's works often explore themes of death, madness, and the supernatural, and he is considered a master of the short story and a pioneer of detective fiction.

Poe was born in Boston, Massachusetts, the second child of actors David Poe and Elizabeth Arnold Hopkins Poe. After his father abandoned the family and his mother died when he was just three years old, Poe was taken in by the Allan family of Richmond, Virginia. He attended the University of Virginia but left after a year due to financial difficulties. He enlisted in the United States Army under the name Edgar A. Perry. In 1827, Poe published his first collection of poetry, "Tamerlane and Other Poems." He later worked as an editor for various literary magazines and journals, where he gained recognition for his critical reviews and literary theories.

Poe's most famous works include "The Fall of the House of Usher," "The Tell-Tale Heart," "The Raven," "The Murders in the Rue Morgue," and "The Masque of the Red Death." His writing style often combined elements of horror, mystery, and psychological thriller.

Despite his literary success, Poe struggled with personal demons throughout his life, including alcoholism and depression. He died under mysterious circumstances at the age of 40 in Baltimore.

"The Black Cat" is a short story written by Edgar Allan Poe and first published in 1843. It is a tale of psychological horror that explores the themes of guilt, madness, and the supernatural.

The story is narrated by an unnamed man who begins by proclaiming his sanity despite having committed a horrific crime. He proceeds to recount the events that led to his downfall. The narrator describes his deep love for animals, particularly his black cat named Pluto. However, as he descends into alcoholism and violent behavior, he becomes increasingly cruel to both his wife and his pets.

The climax of the story occurs when the narrator, in a drunken rage, mutilates Pluto and later hangs him from a tree. This act of cruelty haunts the narrator, but he soon acquires another black cat that bears a striking resemblance to Pluto. As his guilt and paranoia grow, so does his hatred for the new cat until it reaches a horrifying

conclusion. Poe's use of first-person narration creates an intimate and chilling atmosphere as the reader is drawn into the mind of a disturbed protagonist. The story also delves into themes of superstition and karma as the black cat becomes a symbol of retribution for the narrator's sins.

"The Black Cat" is widely regarded as one of Poe's most famous and macabre works. Its exploration of guilt, madness, and moral decay has made it a staple in horror literature and has cemented its place as a classic example of gothic fiction. Overall, "The Black Cat" stands as a haunting exploration of the human psyche and remains an enduring part of Edgar Allan Poe's legacy as a master of macabre storytelling.

"The Tell-Tale Heart" by Edgar Allan Poe is a short story that revolves around a narrator who insists on their sanity while describing their murder of an old man. The story is told in the first person, and the narrator's obsession with the old man's vulture-like eye drives them to commit the murder.

One of the key themes in "The Tell-Tale Heart" is the theme of guilt and its psychological effects. The narrator experiences intense guilt and paranoia after committing the murder, which eventually leads to their confession. This theme is evident in how the narrator becomes increasingly agitated and paranoid as they hear what they believe to be the old man's heartbeat, symbolizing their guilty conscience. Another important theme is the theme of madness and obsession. The narrator's obsessive focus on the old man's eye and their insistence on their own sanity despite exhibiting signs of irrational behavior highlight these themes. The story delves into the depths of human psychology, exploring how obsession and guilt can lead to madness. Poe also uses various literary devices such as symbolism, foreshadowing, and unreliable narration to create a sense of tension and unease throughout the story. The "Tell-Tale Heart" is a classic example of Gothic fiction that delves into dark aspects of human nature and psychology. Overall, "The Tell-Tale Heart" is a chilling exploration of guilt, madness, and obsession, showcasing Poe's mastery in creating psychological horror through his writing.

To sum up, Edgar Allan Poe was an influential American writer known for his contributions to the short story and detective fiction genres. Despite having a short career, his impact on American literature has been profound. He is recognized for his mastery of the short story format and is considered a pioneer in the development of modern detective fiction. Poe's works continue to be studied and celebrated for their innovative storytelling techniques and lasting cultural relevance. His influence can be seen in the works of subsequent writers and his legacy continues to inspire literary enthusiasts around the world.

REFERENCES

1.. Sattorova, S. S., & Jalolova, R. A. (2023). LONELINESS, FRIENDSHIP, LOVE AND LOSS” IN THE LITTLE PRINCE AS THE MAIN IDEAS. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(3), 71-77.

2. Askarovich H. A., Shavkatovna S. S. Ingliz va O'zbek Tillarida Modallik Kategoriyasining Leksik Tahlili //International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses. – 2023. – С. 32-34.

3. Askarovich H. A. et al. MODALLIK-SHARQ VA G'ARB OLIMLARI NAZARIDA //Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation

4. Haydarov A. Importance of Modality in Learning Process //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16. Studies and Language Teaching Processes. – 2023. – С. 14-16.

5. Shavkatovna S. S. Lexic Analysis of Modality in English and Uzbek Languages. – 2023.

FILOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARI.

B.R.Abdullayeva,

*BuxDU, Filologiya va tillarni o'qitish
“O'zbek tili” fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya. Maqolada filologiya fanlari til va adabiyotlari o'qitishning interfaol usullari, fan va texnologiyaning o'zaro bog'liq va farqli tomonlari onlayn ta'limning til va adabiyotni o'qitishdagi zamonaviy uslublari, shuningdek linvistik literaturniy integratsiya ilmiy ommabop nashrlar kitoblarning til va adabiyot tarixini o'rganishdagi roli tillar va o'zbek tili genezesini o'rganishda interfaol metodlarning o'rnini haqida atroflicha so'z yuritilgan.

Tayanch so'zlar: filologiya, fan, texnika, til, adabiyot, interfaol usul, texnologiya, integratsiya, genezis.

Insoniyat tug'ilar ekan ma'lum bir davrni zamoni ongli ravishda yuksaltirish o'rganish asosida yosh avlodni ma'lum bir sohaga o'rganishni hamda shu asosda ilg'or fikrli iqtidorli, avlodni kamol toptirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va ushbu maqsadni amalga oshirish uchun astoyidil harakatda bo'ladi. Natijada o'rganib o'rgatishga bo'lgan ehtiyoj yangi metodlar o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi. Metod so'zi yunonchadan olingan bo'lib “ methodas ” tadqiqot yoki bilish yo'li nazariyasi ta'limot ma'nosini anglatib, voqealikni bilish o'zgartish, o'zlashtirish usullari majmuasidir. Bilish va bilishga intilish, interfaol metodlar yaratish va turini ko'paytirishga bo'lgan uchun talabni oshiradi. Interfaol metodlarning maqsadi fanlar

mavzular doirasida turlicha shaklga ega bo'ladi. Interfaol o'qitish bilish faoliyatini tashkil etishning maxsus turidir. Shu maqsadlardan eng asosiysi tinglovchini o'z maqsadi hamda aqliy yetukligini anglab yetishi uchun qulay sharoit yaratishdir. Yangi O'zbekiston uchinchi renessans tomon faol odimlar ekan, eng avvalo har bir fanda, jumladan ona tili va adabiyot fanlari doirasida ham yangidan yangi innovatsion interfaol metodlar yaratib, amaliyotga tatbiq qilishni davrimiz har daqiqa talab qilmoqda. Shu talabni samarali qondirish o'zbek tili va adabiyot darsini qiziqarli tashkillashtirish maqsadida har soatda zamonaviy izlanishlar olib borilmoqda. Misol tariqasida adabiyot fani uchun maxsus "Maruza" metodini keltirib o'tish o'rinli." Maruza maetodi quyidagicha tashkillashtiriladi. Dastlabki bosqichda, adabiyot darsida ma'lum bir ijodkor hayoti va ijod yo'li tanlanadi yoki o'sha ijodkorning asarlari mavzu sifatida olinganda bu usul juda yuqori natija beradi.

1. Asar tanlanadi;
2. Asar ma'lum qismlarga ajratiladi;
3. O'quvchilar ikki yoki uch guruhga bo'linadi;
4. O'qituvchi bo'lingan asar qismlarini har bir guruhga navbat bilan o'qitadi;
5. O'qitish jarayonida o'qituvchi notanish yangi iboralarni yozuv taxtasiga olib yozib boradi;
6. Ikkala guruhda ishtirokchilar asarni o'qib bo'lib jamoada ishtirokchi qolmagach o'qituvchi asarni qayta o'qib beradi;

O'qituvchi o'qish jarayonida o'quvchilar yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni aytib yangi so'zlarni dalillar asosida imkoni bo'lsa video matn shaklida ko'rsatib o'tsa yanada yaxshi ma'ruza metodi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida mavzulashgan muomala madaniyatini shakllantiradi. O'quvchilarning o'qilayotgan asarga bo'lgan qiziqishini oshirib mavzuning xotirada, yaxshi saqlanib qolishiga zamin bo'ladi desak adashmaymiz. Tilshunoslik linguistika sohasi uning shakllanishi taraqqiy topishi bugun har qachongidan dolzarb masalalardan bo'lib hisoblanadi. Til – milliy ruh ifodasi uning leksik va grammatik jihatdan sharqona shakllanishi o'z navbatida zamonaviy interfaol usullar bilan chamcharchas bog'liq. O'zbek tili genetikasi, yunoncha "genetikos" (tug'ulish, paydo qilish) degan ma'noni bildirishi bizga ma'lum turkiy tillar jumladan ona tilimiz genetikasiga xos ilk daliliy aniq ma'lumotlar Mahmud Qoshg'ariyning " Devoni lug'atit turk " (Turkiy tillar devoni) lug'atida o'z ifodasini topgan ushbu asarda birgina " Otlar va va morfologiya ta'limotiga oid ko'plab qadimgi turkiy so'zlar uchraydi. Jumladan : budun-xalq ingek-sigir art-tepa yag'i-yov, dushman kabi ko'plab birlikdagi va ko'plikdagi atoqli, turdosh otlar lug'at tartibi bilan berilishi, turkiy tilshunoslikning leksikasi nihoyatda boy va rang-barang ekanini har jihatdan isbotlaydi. Bugun texnologiyalar asrida yashar ekanmiz har bir fan, o'zbek tili ham o'z oldiga zamonaviy yo'sinda dars tashkil etish talabini qo'yadi. Buning samarali natijasi bo'lib yangi usullar paydo bo'ladi.

”Inside” (ing - ichkarida metodi)

1. O’quvchilar 2 guruhga bo’linadi va har ikkala guruhdan bittadan o’quvchi doskaga chiqadi;

2. O’qituvchi ularning har biriga bittadan maxsus tarqatma savol beradi;

3. Ushbu savollarga tez va sifatli javob bergan guruh a’zosi o’yinni ochib beradi;

Metodni tashkil etish bosqichlari:

1. O’zbek tili fani doirasida biron mavzuga doir crossover tuziladi. Doskaga chizilsa tushunishga qulay bo’ladi;

2. Krasvordda inside so’zi bo’yiga yoki eniga yozib chiqiladi;

3. Insayd – inside so’zining har bir harfiga moslab lingvistik atama tuziladi va maxsus kataklarga yozib chiqiladi;

4. Yozib chiqilgan har bir so’zning bosh harfi olinib ketma-ket yig’iladi;

5. Yig’ilgan harflardan mavzuga doir maqol hosil qilinadi;

6. Maqolning dastlabki so’zidagi harflar sonlarga almashtiriladi va doskaga yozib chiqiladi;

7. Sonlar ketma-ket qo’shib chiqilgach javob maxsus tarqatmalarda har ikkala guruhga barobar tarqatiladi;

8. Ikkala guruh ham javob raqamlari ostidagi harflardan qisqa so’z hosil qilib, har ikkala guruh sardori hosil qilingan so’zlardan tilshunoslikka oid gap tuzadi;

9. Qaysi guruh sardori tez va mazmundor gap tuzib bilsa o’sha guruh g’olib bo’ladi va dars yakunlanganida tegishli raqabatlantiriladi. Bu universal metod bo’lib, o’quvchilarning diqqatini markazlashtirishga fanlararo integratsiyani chuqur tushuntirishga va xotirani yuqori darajada mustahkamlashda faol qo’llansa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Men xulosam o’rnida shuni aytishim kerakki o’zbek tili va adabiyotini texnologiyalar bilan bog’lab o’rganish, o’rgatish intellektual salohiyatini oshirib xotira prosesini yuqori darajaga ko’tarishda muntazam ravishda ko’makchi bo’lishi bilan juda chuqur ahamiyatga ega. Shu nuqtai-nazardan filologiya sohasida texnologik materiallar va onlayn ta’lim samaradorligini oshirish, turkiy so’zlarning boshqa tillar bilan genetik yangi so’zlar yaratilishi tilimizga olib kirilishini har jihatdan o’rganish tahlil qilish har birimizning burchimiz bo’lib hisoblanadi. Onlayn ta’lim gigiyenasini tillar doirasida izchil shakllantirish, maqbul ta’limni mukammal o’rganishga zamin yaratadi. Zero “Tafakkur-ong oynasi, talqin- mohir metodlar tajjalisidir ”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O’zbek tilidan ma’ruzalar to’plami. Nargiza Erkaboyeva, Xolida Abdusattorova “Yosh kuch” nashriyoti. Toshkent.: 2023-yil 9-bet.

2. Interfaol metodlar internet materiali. “Interfaol metodlar” nomli qo’llanma.

UNRAVELING THE POSTMODERN TAPESTRY: JEAN RHYS’S “I USED TO LIVE HERE ONCE” AND ITS MULTIFACETED POSTMODERNIST ELEMENTS

G.L.Imamova

2nd year Master student of English Literature, BSU

g.l.imamova@buxdu.uz

M.Kilicheva

Associate professor, BSU

Annotation: This article examines the postmodernist approach in the works of Jean Rhys, focusing specifically on her renowned story "I Used to Live Here Once." Through a detailed analysis of various examples within the text, the thesis explores the presence and significance of postmodernist elements in Rhys’s storytelling. The article delves into the complexities of Rhys’s narrative style, highlighting how her use of postmodernist techniques adds depth and nuance to the overall reading experience.

Key words: postmodernist, fragmentation, metafiction, intertextuality, skepticism

Jean Rhys, a renowned author, is celebrated for her literary contributions that have left a lasting impact on readers and critics alike. Her unique postmodernist style has garnered praise from numerous literary experts, solidifying her place in the world of literature.

“For me, Rhys is only interesting because she was a superb craftsperson with words. Paying too much attention, as a biographer, to what people thought of her or to her flouting of convention risks entering the world of gossip, sometimes not benevolently intended”

The story "I Used to Live Here Once" by Jean Rhys contains several elements of postmodernism. Here are some key aspects of the story that align with postmodernist themes:

1.Fragmentation: The story is fragmented, with the protagonist recalling memories of her past as she revisits a place she used to live. The disjointed narrative structure reflects the fragmented nature of memory and identity in postmodern literature. In the story "I Used to Live Here Once" by Jean Rhys, the element of fragmentation is evident in the protagonist’s recollection of the stepping stones by the river: "She was standing by the river and looking at the stepping stones and remembering each one. There was the round unsteady one, the pointed one, the flat one in the middle – the safe stone where you could stand and look round."

This excerpt demonstrates the fragmented nature of memory as the protagonist recalls each individual stone and the memories associated with them, highlighting the disjointed and non-linear quality of her recollection. The fragmented structure of her memories reflects a postmodernist approach to storytelling that challenges traditional narrative coherence.

2. Metafiction: The story blurs the boundaries between reality and fiction, as the protagonist interacts with children who do not acknowledge her presence. This metafictional element challenges the reader's perception of what is real and what is imagined.

The excerpt that shows the usage of metafiction in "I Used to Live Here Once" by Jean Rhys is: "She came to the worn stone steps that led up to the house and her heart began to beat. The screw pine was gone, so was the mock summer house called the ajoupa, but the clove tree was still there and at the top of the steps the rough lawn stretched away, just as she remembered it. She stopped and looked towards the house that had been added to and painted white. It was strange to see a car standing in front of it."

This excerpt demonstrates metafiction as the protagonist observes changes to the familiar setting she remembers from the past, highlighting the theme of memory and the passage of time. The protagonist's recognition of alterations in the landscape creates a sense of disorientation and blurs the boundaries between reality and memory, engaging with the concept of metafiction within the narrative.

The following excerpts also show the usage of metafiction in "I Used to Live Here Once" by Jean Rhys are: "She was standing by the river and looking at the stepping stones and remembering each one. There was the round unsteady one, the pointed one, the flat one in the middle – the safe stone where you could stand and look round. The next wasn't so safe for when the river was full the water flowed over it and even when it showed dry it was slippery. But after that it was easy and soon she was standing on the other side."

"The road was much wider than it used to be but the work had been done carelessly. The felled trees had not been cleared away and the bushes looked trampled. Yet it was the same road and she walked along feeling extraordinarily happy."

"It was a fine day, a blue day. The only thing was that the sky had a glassy look that she didn't remember. That was the only word she could think of. Glassy. She turned the corner, saw that what had been the old pavé had been taken up, and there too the road was much wider, but it had the same unfinished look."

"She came to the worn stone steps that led up to the house and her heart began to beat. The screw pine was gone, so was the mock summer house called the ajoupa, but the clove tree was still there and at the top of the steps the rough lawn stretched away, just as she remembered it. She stopped and looked towards the house that had been added to and painted white. It was strange to see a car standing in front of it."

These excerpts demonstrate metafiction as the protagonist revisits familiar places from her past and notices changes in the landscape, blurring the lines between memory and reality. The descriptions of the setting evoke a sense of nostalgia and disorientation, engaging with the theme of memory and the passage of time within the narrative.

3. Intertextuality: The story references the past and present, creating a sense of intertextuality between different time periods. The protagonist's memories of the past intersect with her present experiences, highlighting the interconnectedness of time and memory.

The excerpt that shows the usage of intertextuality in "I Used to Live Here Once" by Jean Rhys is: "She came to the worn stone steps that led up to the house and her heart began to beat. The screw pine was gone, so was the mock summer house called the ajoupa, but the clove tree was still there and at the top of the steps the rough lawn stretched away, just as she remembered it. She stopped and looked towards the house that had been added to and painted white. It was strange to see a car standing in front of it."

This excerpt demonstrates intertextuality as the protagonist encounters changes in the landscape that disrupt her memories of the place where she used to live. The presence of the car in front of the house and the alterations to the surroundings challenge her recollection of the familiar setting, highlighting the theme of memory and the passage of time within the narrative.

4. Skepticism towards grand narratives: The story questions the stability of memory and identity, suggesting that these constructs are fluid and subject to change. This skepticism towards grand narratives is a common theme in postmodern literature.

In the story "I Used to Live Here Once" by Jean Rhys, the usage of skepticism towards grand narratives can be seen in the protagonist's experience of returning to a place from her past. The following excerpts illustrate this theme:

"The road was much wider than it used to be but the work had been done carelessly. The felled trees had not been cleared away and the bushes looked trampled. Yet it was the same road and she walked along feeling extraordinarily happy."

In this passage, the protagonist encounters changes in the landscape that challenge her memories of the place. The wider road and the careless work suggest a disruption of the familiar environment, leading to a sense of skepticism about the grand narrative of her past experiences.

"She came to the worn stone steps that led up to the house and her heart began to beat. The screw pine was gone, so was the mock summer house called the ajoupa, but the clove tree was still there and at the top of the steps the rough lawn stretched away, just as she remembered it."

Here, the absence of certain elements that were part of her past memories, such as the screw pine and the summer house, highlights the fragility of memory and the skepticism towards the stability of grand narratives. The changes in the landscape challenge her perception of the place she used to live.

These excerpts demonstrate how the protagonist's return to a familiar place is marked by skepticism towards the grand narrative of her past, as she navigates changes in the environment that disrupt her memories and challenge her sense of continuity.

Overall, "I Used to Live Here Once" by Jean Rhys exhibits several elements of postmodernism through its fragmented narrative structure, metafictional elements, intertextuality, and skepticism towards grand narratives.

REFERENCES

1. Elaine Savory. Literary Studies and Environmental Studies. New York NY, U.S.A. 2023.
2. Jean Rhys. I Used to Live Here Once. England. Penguin Books 1994
3. <https://www.goodreads.com>
4. <http://www.caribbean-beat.com>
5. Miranda Seymour. I used to live here once: The haunted life of Jean Rhys

ANVAR OBIDJONNING “DAHSHATLI MESHPOLVON” QISSA-DOSTONIDA FOLKLOR STILIZATSIYASI

*S.O.Hojiyeva,
Buxoro davlat universiteti
I bosqich magistranti
s.o.hojiyeva@buxdu.uz*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Anvar Obidjonning “Dahshatli Meshpolvon” asarida uchraydigan folklor turlarining stilizatsiyasi, stilizatsiya tushunchasi, asarda uchraydigan xalq qo’shiqlari, naql, lof, marosim folklori bilan bog’liq janrlarning stilizatsion namunalari keltirilgan.

Kalit so’zlar: folklor, xalq o’yinlari, xalq donoligi, marosim folklori, xalq qo’shiqlari, lof, naql, xalq dostonlari, kelin salom, stilizatsiya.

Folklor-xalq ijodini ifodalovchi atama bo’lib, xalq ijodi namunalari xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, e’tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan his-tuyg’ulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon haqidagi o’y-fikrlari o’z ifodasini topgan. Folklor, xalq og’zaki ijodi necha asrlardan buyon avloddan avlodga o’tib, xalqimiz o’tmishini, ma’naviy kamolotini o’zida aks ettirib kelayotgan, umrboqiy ahamiyatga ega bo’lgan qimmatli manbadir. Folklor asarlarining o’lmasligi shundaki, unda xalq bilimi, donoligi chuqur iz qoldirgan.

Shuningdek, afsona, rivoyat, lof, latifa, maqol, topishmoq, ertak, doston, qo’shiq, askiya, og’zaki drama va boshqalar xalq og’zaki badiiy ijodining asosiy janrlari bo’lib, ular so’z san’ati namunalari bo’lish bilan birga, jamiyat hayotidagi muayyan maishiy funksiyalarni ham ado etadilar. Masalan, “Xo’p mayda”, Xo’sh-Xo’sh, “Turey-Turey”,

“Churey-Churey” kabi qo‘shiq turlari mehnat jarayonlariga aloqador bo‘lsa, “Yor-yor”, “O‘lan”, “Lapar”, “Kelin salom”, “Yig‘i-yo‘qlov”, “Badik”, “Sust xotin” singarilar har xil marosimlar bilan bog‘liqdir.

Folklor namunalarini nafaqat xalq ijodida, balki bir qator shoir va yozuvchilarning asarlarida ham stilizatsiyalashgan versiyalarini uchratamiz. Jumladan, o‘zbek xalq bolalar adabiyotining sermahsul ijodkori Anvar Obidjon bolalarga bag‘ishlangan ko‘plab qissa, hikoya va she‘rlarida folklor namunalarini mahorat bilan qo‘llagan.

Yozma adabiyotda folklor janrlarini o‘zlashtirib, ular asosida yangi bir asar yaratish o‘ziga xos keng tarqalgan ijodiy jarayonlardan biridir. Ba‘zan bu holat adabiy ta‘sir samarasi sifatida ham izohlanadi. Darhaqiqat, folklor hamma davrlarda yozma adabiyot badiiy takomilining asosiy omillaridan biri bo‘lib kelgan. Deylik, ijodkor ertak janri asosida o‘zi yashayotgan davr voqeliklarini, axloqiy g‘oya va qarashlarni ifodalamoqchi bo‘lib, uning shakli va ifoda uslubini yo to‘liq, yo qisman o‘zgarishlar bilan saqlasa, baribir u yaratgan asar ertak hisoblanaverib, faqatgina u muallifining aniqligi, yozma yaratilganligi inobatga olinib, stilizatsion ertak sifatida qabul qilinadi.

O‘zbek xalq bolalar adabiyotining salohiyatli yozuvchisi Anvar Obidjonning bir qator asarlarida folklor namunalarining stilizatsion versiyasini uchratamiz. Fikrimizning isboti sifatida “Dahshatli Meshpolvon” qissa-dostonidan o‘rin olgan ko‘plab folklor janrlarining anvar obidjon stilizatsiyasidagi namunalarini keltirib o‘tamiz.

Asardagi xalq qo‘shiqlarining stiliatsiyasi: shudgordagi qop-qora do‘ngalak kesaklar xuddi qora papoqli boshlarga o‘xshardi, bolakaylar ularni ayamadan yanchib, havasga tesha urishaverdi

–vuy, manavining kattaligini-i!

–sepkilshohning askarboshisi ana shu-da.

–iye, bir urib atala qilaylik bo‘lmasa. Mana!

–hayuv-v!!!

Olib tesha-to‘qmoqni,
Yanching qora papoqni,
Hayuv-v!
Bilakda kuch to‘playmiz,
Yurakda o‘ch to‘playmiz,
Hayuv-v!
Tog‘imizda lola ko‘p,
Yurtimizda bola ko‘p,
Hayuv-v!
Mayli, bizni ko‘rgan choq
Kuyib o‘lsin sepkilshoh,
Hayuv-v!

Meshpolvnning yo'l-yo'lakay yoki xursandchilik paytlarida kuylaydigan qo'shiqlaridan biri:

Olma yedim baqalog'idan,
Gilos yedim chaqalog'idan,
Anjir yedim yapalog'idan,
Bog'bon buvaning shapalog'idan...

Shuningdek, asarda folklorning xalq o'yinlari janri bilan bog'liq stilizatsiyaning guvohi bo'lamiz:

O'ynamagan bo'lsang «Dasta»²,
Demak, mendan zarbing past-da.
«Hammom pishdi» besh yoshga mos,
O'n yoshgacha hayinchak os.
Katta bo'lib qoldik endi,
Bizga bopi - «Eshak mindi».
Bilmayman deb jahlim qo'zma,
Axir, mashhur «Quloqcho'zma»
Kam emasdir ulog'ingdan,
O't chaqnaydi qulog'ingdan.
Hammasini qiyoslab ko'r,
«Mo'ri-mo'ri» o'yini zo'r.
Bordir yana «Bekinmashoq»,
Eng qaltisi - «Urshapaloq»⁴
Qilar seni ovchi, jangchi:
«Yoppa kurash», «Sholi yanchi»,
«Pichoq sanchar», «Sopqon otdi»,
«Kamand chirmash», «Arqon tortdi».
Aralashsa agar qizlar,
Kelin-kuyov saylab bizlar,
O'ynar edik «Xola quchgan»,
Kimki sovchi – qo'lga tushgan.

Bundan tashqari, asarda marosim folklori bilan bog'liq udumlarning janriy stilizatsiyasi ham qo'llangan bo'lib, bu marosim Oshiqbolaning nikoh to'yi bilan bog'liq:

Lo'pchik yoqib olgan kuyovnavkarlarning alyori atrofda qisbloqlarga taralib, ba'zilar tomosha uchun yoM yoqasiga yugura boshladi. Chapani o'spirinlar ikki-uch joyda, goh arqon tortib, goh xoda yotqizib yo'lni to'sishdi. Ular egachi qiz-ayollardan qiyiq, kashta tikilgan sochiq, loqal gajimdor ro'molcha undirgandan keyingina aravalami odkazib yuborishardi. Kuyovnavkarlar qasr yoniga yetib kelishib, ot va lo'pchiklarni bolalarning qo'lga tutqazishdi. Aravalar ravotning ro'parasida to'xtadi. Lo'pchikli bolalar ularning atrofiga tizilib, yo'lni yoritib turishdi. Oytumorga egachi

bo'lib olgan Achaxon talashibtortishib Oshiqboladan husnpuli olgach, kelinni aravaning qirg'og'iga keltirib o'tirgizdi, kuyov qallig'ini ko'tarib yerga tushirdi.

Bu orada qizlar kelinni davra o'rtasiga boshlab kirishdi, alamazon qilib yoqilgan gulxan tegrasida aylantirib, «yor-yor»ni avjga chiqarishdi:

Nos chekishga berilgan,
Kampiriga kerilgan,
Salom-salom, kelinsalom,
Qaynatasiga bir salom.
Sirini to'yda ochayin,
Qozon-tovoqqa xo'jayin,
Salom-salom, yana salom,
Qaynanasiga bir salom,
Qimmat ro'mol o'ragan,
Saqichni qarzga so'ragan,
Salom-salom, kelinsalom,
Qaynsingillarga salom.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch.-T.: “Ma'naviyat”, 2010.
2. A.Obidjon,. Dahshatli Meshpolvon: Qissa- doston / Toshkent: «Sharq», 2019,
3. B. Jamilova. O'zbek bolalar adabiyoti.-Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo” nashriyoti, 2020-y;
4. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –T.: “Fan”, 2009;
5. Jo'rayev M. Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. –Toshkent: TDMI, 2008;
Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –T.: “Mumtoz so'z”,2010;
6. O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi.-Toshkent: “Musiqqa” nashriyoti, 185-b;
7. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev,J.Eshonqulov, A.Tilavov. O'zbek folklori.-Darslik/ Toshkent: 2020-y;
8. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. Mirzayev T.va boshqalar. “Aloqachi”,2008.

MUMTOZ ADABIYOTDA MAKTUB JANRI

I.B.Murotova

BuxDU, 2-bosqich magistranti

i.b.murotov@buxdu.uz

Maktub mumtoz adabiyotda “noma” deb yuritilgan. “Noma” soʻzi forscha “Xat”, “Maktub” degan maʼnolarni bildiradi. Mumtoz adabiyotda adabiy janr sifatida: Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, oʻzbek va fors adabiyotlarida yaratilgan, real yoki xayoliy toʻqima shaxsga, asosan, sheʼriy maktub tarzida yozilgan badiiy asar turi, biror tarixiy shaxs yoki asar qahramonining sarguzashtlari, safar taassurotlari, ichki kechinmalari nazm yoki nasrda bayon etilgan har qanday (badiiy, ilmiy, memuar va boshqalar) asar turi. Masalan, Boburning “Boburnoma”, Muqimiyning “Sayohatnoma”, Shayxzodaning “Toshkentnoma” asarlari. Janr sifatida paydo boʻlishi fors-tojik adabiyotiga borib taqaladi. Faxriddin Gurgoniy XI asr, Avhadiy Marogʻiy (1274-1338), Xoja Imod Kirmoniylar XIV asr fors adabiyotida noma janriga asos solib, uni rivojlantirganlar. Oʻzbek adabiyotida noma janrining paydo boʻlishi Xorazmiy nomi bilan bogʻliq. Uning “Muhabbatnoma” asari (1353-54) oshiqning maʼshuqaga yoʻllagan gʻazal shaklidagi oʻnta ishqiy maktubidan iborat. Muallifning oʻzi asarida bu haqida shunday deydi: “Bu xon uzra saloyi oma qildim, “Muhabbatnoma”ni oʻn noma qildim”. Xorazmiy oʻzbek mumtoz adabiyotining yirik nomoyondalaridan biridir. Bu isteʼdodli ijodkorning hayoti va faoliyati, adabiy merosi haqida bizgacha juda kam maʼlumot yetib kelgan. Shoirning hozircha bizga maʼlum yagona asari “Muhabbatnoma”ning muaqaddimasi va xotimasida uning shaxsi qisman boʻlsa-da tanishtiriladi. Shuningdek, Natan Mallayevning qayd etishicha, shoirning “Muhabbatnoma” asariga ilova qilingan “hikoyat” ham mavjud boʻlib, unda ijodkorning Sharq mamlakatlariga sayohatga chiqqanligi, jumladan, Rum va Tayfundan oʻtib, bir doʻsti bilan Shomga safar qilganligi haqida maʼlumot beriladi. Xorazmiy ijodkorning taxallusi boʻlib, uning nomi hamon maʼlum emas. “Muhabbatnoma”da mazkur taxallus bir necha bor keltiriladi. Chunonchi, asar muqaddimasida: “Xorazmiyning ketib aqli boshindin, Turur tek surati yoʻq jon ichinda”, birinchi noma tarkibida: “Bukun yoʻqtur sen Oytex koʻkta, asra, Qulung bechora Xorazmiy” shu tarzda asar tarkibida jami oʻn oʻrinda taxallus keltirilgan.

“Muhabbatnoma” tarkibidagi nomalarning sakkiztasi turkiy va uchtasi forsiy tildadir. Aksariyat nomalar masanaviy shaklida boʻlib, ular gʻazal, kichik soqiynomalarni ham oʻz ichiga oladi. Nomalar asarning bevosita yetakchi janri boʻlib, ular oshiqning oʻz yoriga yoʻllagan sheʼriy maktublardir. Nomalar asosan, taʼrif-tavsif usulida yozilgan, ularning har birida shoir Sharq mumtoz adabiyoti anʼanalaridan faol foydalanganligini koʻrish mumkin.

Mumtoz adabiyotda maktub janrini yuksak choʻqqiga olib chiqqan mutafakkirlardan yan biri bu Alisher Navoiydir. Turkiy tilda ilk marotaba yaratilgan “Munshaot” kitobi Navoiy qalamiga mansubdir. Munshaot – insholar, yaʼni maktublar yigʻindisidir. Navoiy Zamondoshlariga yozgan maktublarning qayerda, kim tomonidan yozilganligini, manzilini olib tashlab maktublarni jamlab asar holatiga keltirgan.

A.O'rinov, Y.Tursunov, M.Hasanov singari olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, Navoiy o'z zamondoshlari bilan ko'plab yozishmalar olib borgan. 1485–1499-yillar orasida temuriy shahzodalar va podshohlar, o'z yaqinlariga yozgan maktublarini jamlab “Munshoat” nomli asar yaratgan. Olimlarning ta'kidlashicha, maktublarning kata qismi asosan, mamlakat siyosatiga oiddir. Ayniqsa, Navoiyning shahzoda Badiuzzamon Mirzoga yozgan maktublari ko'zga tashlanarlidir. Asarning muqaddima qismi an'anaviy Allohga hamd va Payg'ambarga na't bilan boshlanadi. Asarning katta qismini Husayn Boyqaro va o'g'illariga yozilgan maktublar tashkil qiladi. “Munshoat”da insholardan tashqari ruboiy, g'azaldan baytlar, masaviylarni ham uchratish mumkin. Asar so'zlarining o'ynoqiligi bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi. Asar nazmiy va nasriy usulda yozilgan. Alisher Navoiy o'zining shaxsiy qarashlarini ushbu asarda to'liq yoritib beradi.

Navoiy muqaddimada asarning yozilish sabablarini keltiradi va turkiy tilda hali hech kim bunday ishga qo'l urmaganligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham bu asarni yozishga kirishganini aytib, “Mushoat”ga 107 ta xat kiritilgani qayd etadi. Xatlar mavzu-mundarijasiga ko'ra xilma-xildir. Asosiy e'tibor davlat va jamiyatning rivoji, xalq farovonligi, mamlakatni tanazzulga yetaklovchi omillarni bartaraf etish kabi masalalarga qaratiladi. Bu mavzular asarda siyosiy maktublarda o'z ifodasini topgan. Qolaversa, asarda tabiat tasviri, ijod jarayonlari, davra suhbatlaridan olingan taassurotlar va shogirdlarga pand-nasihatlarini ham uchratish mumkin. “Munshoat”da ulug' shoir barchani pand-nasihatlariga quloq solishga chaqiradi:

Necha gavhari ichra bo'lsa gavhar-u dur
Ko'rki, bordur aning kalidi temur.
Ganji maqsud kimga bo'lsa umid,
Ul nasihatlar erur anga kalid.
Qulf ocharda gadovu sohibi toj
Teng bo'lurlar kalidga muhtoj.

Maktub na'munalari Alisher Navoiyning yana bir shoh asari “Xamsa” tarkibidan ham o'rin olgan. Ayniqsa, “Farhod va Shirin” dostonida bu yorqin ko'zga tashlanadi. Dostonidagi Farhodning Shiringa va Shirinning Farhodga yozgan maktublarida Nizomiy va Dehlaviy dostonlaridagi noma an'analari davom ettirilgan. “Farhod va Shirin” dostoni o'zining tuzilishi, obrazlari, badiiy xususiyatlari jihatidan shu janrdagi yangi original asardir. Chunki Navoiyga qadar bunday xarakterdagi boshqa asarlar bo'lmagan. Doston oshiq va ma'shuqaning o'zaro sevgi-muhabbat mavzusidagi yozishmalari – nomalaridan tuzilgan o'ziga xos g'oyaviy-badiiy mundarijaga ega bo'lgan asardir Ishq mavzusida yozilgan dostonlarning aksariyatida, oshiq va ma'shuqning bir-birlari bilan maktub orqali muloqot qilishlari asar pafosining eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Chunki maktub dostonidagi obrazlarning

eng ichki intim hissiyotlarini, tuyg'ularni ifodalab, xarakter yaratish xususiyatiga egadir. Sevishganlarning bir-birlari bilan maktub orqali muloqot qilishlari "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" dostonida alohida o'rin tutadi. Bu maktublar har ikkala dostonidagi chuqur lirizm bilan to'la, eng yorqin badiiy lavhalardir. Ayniqsa, Shirinning Farhodga yozgan maktublarida uning Farhodga bo'lgan ehtirosli muhabbati, cheksiz sadoqati, chekayotgan alam-u izzirobi, otashin misralarga jo qilingan edi. Maktublarning biri:

Nedur ahvoling, ey zori g'aribim,

Visolim davlatidin benasibim?

Chekardin g'am tog'in holing nechukdur,

Bu yukdin jismi chun noling nechukdur?

Qatig' g'urbat aro holing ne erkin?

Achiq furqatda ahvoling ne erkin?

Firoq ichra nechukdur jismi zoring,

Ne yanglig' to'lg'onur o't ichra toring?

kabi vafo to'la so'zlar bilan boshlangandi. Maktubida "Sen Sulaymon payg'ambar obro'sini topibsana, men esa Bilqisdek (Bilqis – Sulaymon payg'ambarning sevimli rafiqasi) yoring bo'lolmasam ham, kanizing bo'lmoqqa tayyorman" deb aytadi.

Farhodning maktublari boshqa qahramonlarning maktubidan alohida ajralib turadi. Chunki Farhod har bir maktubini Allohga hamd bilan boshlaydi. Yurak so'zlarini telbalik holatida yozayotganini ta'kidlaganidan so'ng Shiringa:

Nigoro, mahvasho, iffat panoho

Jahon mahvashlariga podshoho!

Sanga haddim yo'q, o'lmoq nukta pardoz,

Tilarmen tillaringga aytmoq roz.

Nedur ko'yung aro itlarlarga holat,

Farog'at birladurlar yo malohat.

Kecha ul ko'y aro qilg'onda faryod

Qilurlarmi bu itgan itni ham yod,

so'zlari bilan murojaat qilib: "o'sha itlar yig'ilgan chog'larida meni yo'qlasharmikan, suv ichganlarida, mening ko'z yoshlarimni eslasharmikan, o'sha ostonaga bosh qo'yganlarida menga ham joy qoldirisharmikan, menga qazodan yetgan azoblarni bilib, holimga aza tutib tunlari ulusharmikan, bo'yinlarini bog'lashganda, mening bo'ynimda yuzta kishan borligini bilisharmikan? Ularning ichida menga o'xshagan behol, qo'tir bir it ham bor bo'lib, men kabi jon o'rtansa ham, sening yuzingni ko'rishga ko'zlari to'rt bo'lib turardi". Navoiy Farhod va Shirinning maktublarini ta'sirchan va o'ta mohirona yaratganki, so'zlar injuday bir qator tiziladi.

Maktublardagi har bir jumla bir birini to'ldirib turadi. Shirinning maktublaridan

ta'sirlangan Farhod har safar ularni o'qiganda o'zini yo'qotar edi. Bu ikki sevishganning maktublari "jonli kabutar" – Shopur vositasida sohibiga yetkazilar edi. Shuningdek, dostonida hirs to'la maktublar ham mavjud. Masalan ayyor Sheruyaning Shiringa yozgan maktubida shunday so'zlar bor edi:

Ki ko'rmak bila husningni, ey hur,
Ul o'tdin ko'nglum andoq bo'ldi mahrur.
Menga andoqqi ul o't soldi partav
Ne Farhod ul sifat kuydi, ne Xusrav.
Dalil istar esang, da'vo surubmen,
Ki ishqingda otamni o'lturubman.
Vafo qilmoq ila komin ravo qil
Visoling va'dasi aylab va'fo qil
Ibo qilmoqliging ham gar bilurmen,
Yaqin bil, ne qila olsam qilurmen!

Sheruyaning bu dag'al so'zlaridan g'amga to'lgan Shirin: "Sen meni sevib qolganing kabi menga ham Farhodning ishq tushgan edi. Otangning adolatsizligi bilan vafot etgan Farhod barcha ishq ahlining yo'l boshchisi edi. U mening ishqimda jonini qurbon qildi. Undan ayrilib, o'zimni chala so'yilgan qushdek his qilyapman. Mening bedorligim uning g'amidandir. Ishqimda o'shandek olam yagonasi ko'z yumdi. Unga aza tutmasam, ko'nglim xotirjam bo'la oladimi?" deya javob beradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak mumtoz adabiyotda maktublar muhim o'rinni egallaydi. Asarlarda maktublar qahramonlar tomonidan xabar, ruhiy holat, muhabbat va nafrat kabi tuyg'ularni ifodalash uchun xizmat qiladi. Maktublar obrazlarni tahlil qilishda katta yordam beradi. Navoiy "xamsa" sida ayniqsa, maktublar qahramonning ruhiy olamiga sayr qilishimiz uchun qulay vozsitadir. Shirinning dil izhorlari Sheruyaning xiyllari maktublarga singdirilgan. Asarni yanada ta'sirchan va romantik bo'lishida xatlar o'z o'rniga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xorazmiy. "Muhabbatnoma"
2. Alisher Navoiy "Xamsa". "Yangi asr avlodi". Toshkent 2019
3. Navoiy asarlari lug'ati. T.1972
4. Alisher Navoiy ijodiy me'rosi va uning jahonshumul ahamiyati. T. "Fan"2001
5. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin dostoni "T.2019
6. Alisher Navoiy. "Munshoat". Asarlar.13-jild. T.1968
7. Jamalova M. "O'zbek adabiyotida noma janri". T.1992
8. Quronov D. "Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari". T.2018

9. Jo'raboyev O. "Mumtoz adabiyotda mug'ayniynoma" .T.2016

10.Vohidov R,Eshonqulov H. "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi". T.2006

ISIRIQ FITONIMI VA UNING MILLIY MADANIYATIMIZDAGI O'RNI

M.J.Sharipova,

BuxDU, filologiya fakulteti o'qituvchisi,
f.f.f.d. (PhD) behruz.lux.stal.@93gmail.com

D.Y.Qobilova,

BuxDU, magistranti,
q.y.qobilova@buxdu.uz

Annotatsiya. *mazkur maqolada isiriq fitonimi ishtirok etgan maqollar tadqiq obyekti sifatida olingan. Maqollarda ishtirok etgan isiriq leksemasining milliy madaniyatimizda tutgan o'rni, ahamiyat darajasi o'rganilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirishicha, isiriq ich qabilasi tilida ilruk; qozoqlarda "adiraspan"; Onado'li turklari tilida esa "yuzarlik" kabi nomlar bilan atalgan. Maqolani yozish jarayonida kuzatish, tavsiflash, semantik va qiyoslash metodlaridan foydalanilgan.*

Kalit so'zlar: *lingvokulturalogiya, isiriq, fitonim, sema, kulturema.*

Annotation. *In this article, proverbs involving the phytonym of incense are taken as the object of research. The role and importance of the lexeme of incense in our national culture was studied. According to Mahmud Koshgari in his work "Devonu Lugotit Turk", Ilruk is the language of the Isiriq tribe; "adiraspan" in Kazakh; In the language of Anatolian Turks, it was called by names such as "yuzarlik". In the process of writing the article, observation, description, semantic and comparison methods were used.*

Keywords: *linguoculturalology, isiriq, phytonym, sema, culturema.*

Insoniyat yaratilgandan buyon hayvonot va nabotot olami bilan hamohanglikda kun kechirib keladi. Jamiyatning yashab qolishi va takomilga erishuvi uchun, albatta, o'simliklar dunyosi ham muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. O'simliklar insonlar uchun nafaqat kiyim-bosh, ozuqa, turar-joy uchun xomashyo va hatto nafas olishimiz uchun zarur bo'lgan manba ham hisoblanadi. Shu asosda, o'simliklarga qiziqish, ularni o'rganish, tadqiq etish qadim zamonlardan boshlangan, ular xalq hayotining ajralmas qismi bo'lib, milliy madaniyatda ham o'ziga xos o'rin egallaydi. O'zbek xalqi o'zining boy tarixi va betakror urf-odatlarini bilan ajralib turadi. Isiriq fitonimi millat madaniyatida asrlar mobaynida yashab kelayotgan ham milliy, ham diniy totem hisoblanadi. Shu sababli u lingvokulturologik birliklar sirasiga kira oladi. Isiriq lingvokulturemasi haqidagi ma'lumotlar qadimdan turli manbalarda, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalarida: xalq dostonlari, qo'shiq va maqollarda uchraydi. Xususan, "Isiriqdan jin qochar, yuduruqdan – jinni" maqoli ham bevosita

milliy urf-odatlarimiz ramzi sifatida isiriqning turli marosimlarda ins-u jinlarni haydash, ko'z tegishidan himoya qilish maqsadida qo'llanib kelinayotganligini ko'ramiz. Maqol izohi bilan tanishadigan bo'lsak: "(yuduruq – mushtum) – zo'ravon kishi ma'nosida, varianti: *"Isiriq, isman deydilar, Siz-u bizga deydilar, Eshikdan kelgan baloga, Qalqon isiriq, deydilar"* (Isiriq solganda shunday der edilar). O'tmishda "jin" deganda juda kichik, hatto ko'zga ko'rinmaydigan narsalarni (ehtimol, turli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi, hozirgi tushunchamizdagi mikroblar va bakteriyalarni) nazarda tutganlar. "Jindek", "Jin ko'cha", "Jin chiroq" va h.k. so'zlari ham shundan kelib chiqqan. Etnograf G.P. Snesevning yozishicha: "Odatda "jin" deganda, xuddi chivinga o'xshab, o'ziga yoqadigan yerlarda gala-gala bo'lib, gujgon o'ynovchi qandaydir juda kichik hajmdagi narsalarni tasavvur etadilar". Biolog olimlardan Q. Hojimatov, O'Pratovning "Muqaddas o'simliklar bormi?" degan kitobida bu xususida shunday yozadilar: "Isiriq, – 40-60 santimetr gacha bo'y cho'zib o'sadigan ko'p yillik o'simlik. O'zbekistonning cho'l va adir zonalarida juda keng tarqalgan... Xalq tabobatida isiriqdan tayyorlangan suyuqlik bilan qichima, bod va teri kasalliklari davolangan... Isiriqning foydali xususiyatlarini bilmagan kishilar unga ilohiy tus berganlar. Chunonchi, ularning aytishicha, uyda isiriq tutatilsa, u barcha jin va alvastilarni haydab chiqarar va insonning ming bir dardiga davo bo'lar emish. Shu sababli isiriq bolalarga qizamiq chiqqanda, yangi farzand ko'rilganda va ba'zan *o'g'il to'yi, mavlud* kabi marosimlarda, *ko'chiriq* qilishda tutatilgan. Bundan tashqari, isiriq ko'ztikan bilan birgalikda shaxsiy uylarga va ekin ekilgan maydonlarga ularni "ko'zdan" saqlash uchun osib qo'yilar, kinna solishda kulga qo'shib ishlatilgan. Vaholanki, isiriqda hech qanday ilohiy sir yo'q. Undagi hamma sir shundaki, u yondirilganda isiriqdan ajraladigan tutun dezinfeksiya qilish xususiyatiga ega. Chindan ham isiriq tutuni havoni turlicha zararli mikroblardan tozalaydi va o'ziga xos yoqimli isi bilan qo'lansa hidlarni yo'qotadi". Shuningdek, milliy marosimlarimizda ham isiriqning o'rni bugungi kungacha bo'lakchadir. Masalan, o'zbek xalqida to'y jarayoni bilan bog'liq yuzdan oshiq marosim va urf-odatlar mavjud. Shundan: "Bet ochar" marosimida kayvoni kelinni kuyov tomon qarindoshlari hamda qo'ni-qo'shnilar huzuriga boshlab keladi va "kelin salom" qo'shiqlarini aytib, hazil-huzul bilan kelinga yangi oila a'zolari hamda bu xonadonning yaqin kishilarini tanishtiradi. "Kelin salom"da nomi aytilgan kishilar kelinga ko'rmana beradilar":

*"Oq bulutning ostidan,
Oyday kelin kelibdi.
Ko'k bulutning ostidan,
Kunday kelin kelibdi.
Kelingiz og'a-inilar,
Kelin betin ochadi,
Ko'rmanani berganlar,
Tanga-tilla sochadi.*

Shundan keyin *isiriqqa* tuz, qalampir qo'shib tutadilar va *isiriqni* kelinning atrofidan aylantirib: "Baniyati shifosini bersin, senday kelinning insof – topig'ini bersin", – deyiladi. Yoki "*Isiriq soldi*" marosimida – nikoh to'yi kuni kuyov bilan uning jo'ralariga, kelinga, kelinni tushirib kelgan qudalarga "yomon ko'zdan saqlasin, bad nazardan hazar" deb isiriq tutatish odati mavjud bo'lib, bu odat Qashqadaryo viloyatida "*dudqamov*" deb ataladi. Chunki kelinni tushirib kelgan quda ayollar chimildiq tutiladigan uyga kirib kelishganida ularning ko'zlari achishadigan darajada isiriq tutatilar ekan". Buxoro viloyatida uylanuvchi yigit qiznikiga borib kelgandan keyin unga isiriq tutatib, ustidan qand, pista, bodom sochilsa, yoshlarga ko'z tegmas va kelgusidagi hayotlari shirin bo'ladi, degan udum mavjud. Shu bilan birgalikda, hayotning davomiyligi timsoli bo'lgan chaqoloqlarni beshikka belash marosimi ham isiriqsiz o'tkazilmaydi, deyarli barcha o'zbek viloyat va tumanlarida go'dakni beshikka bog'lash jarayonida isiriq tutatadilar. Masalan, "Surxon vohasida bolani beshikka belash marosimida hovlida o't yoqiladi va kayvoni yoki qushnoch momo beshikni ko'tarib olov ustidan uch marta o'tkazib oladi. Bu udum "beshikni tozalash" yoki "beshikni xaloslash" deb atalgan. Beshikni uyga olib kirayotganda esa, bola yotgan xona hamda beshikka ziyon-zahmatlar yetmasin, degan maqsadda ham **isiriq** tutatilgan. Momolardan biri: "Xesh, darvesh, so'zanada tesh, ispand, chilband, bo'zband tumor bo'lsin! – deb ko'z-suqlardan saqlash maqsadida chaqaloq xonasiga bir tutam **isiriqni** osib qo'ygan".

Isiriqning yuqorida sanalgan xususiyatlaridan tashqari, xalq tabobatida ham qadimdan shifobaxsh o'simlik sifatida foydalanib kelinganligini Ibn Sino, Beruniy va Mahmud Koshg'ariyning asarlari tasdiqlaydi. Xususan, Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida isiriq – *harmal* deb ham nomlanadi va "...Disquridusning aytishicha, agar isiriqni asal, sharob, kaklik yoki tovuqning o'ti va bodiyon suvi bilan ezib ishlatilsa, ko'rish quvvatining zaiflashganiga muvofiq keladi" – deya ta'rif berib o'tiladi. Shuningdek, Abu Ali Ibn Sino isiriqni kuymich asablari shamollaganida, tizza va suyaklar qaqshab og'riganida, og'riq qoldiruvchi omil sifatida ishlatishni tavsiya etgan. U isiriqdan kuchli siydik haydovchi omil sifatida foydalangan. Ulkan qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning "Kitob as-saydana fit-tibb" asarida isiriqning sut shirasiga o'n kun davomida shimdirilgan bir tutam paxta yoki junli mato qichima bilan og'rigan bemorlarga surtilsa, ular anchagina taskin topishi haqidagi ma'lumot keltiriladi. Isiriq va zig'ir urug'ining qaynatmasi nafas olishining qiyinlashishida, qalampir urug'i qaynatmasi bilan birga zahm, bod kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Ilmiy tabobatda isiriqdan tayyorlangan dorivor vositalar qo'l, oyoq va boshqa yerlarning doim titrab turishi hamda tutqanoq kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Mahmud Koshg'ariy o'z devonida bir necha marta isiriq fitonimini tilga olib o'tar ekan, shunday keltiradi: 1) "...Isiriq – isiriq bolalarning boshiga toshadigan yaralarni yoki ko'z tegishidan bolalarni davolanganda aytiladigan so'z; (isiriqni) tutatiladi va bolaning yuziga tutunini "isiriq-isiriq" ("ey jin, es-hushini yo'qot") deb tutiladi." Yoki 2) "...Ilruk – isiriq; ich qabilasi tilida shunday aytiladi".Qozoqlar

“*adiraspan*”, Onado’li turklari esa “*yuzarlik*” deb ishlatadigan “isiriq” so’zi va u bog’liq an’analar bugungi kunda ko’proq o’zbeklarda uchraydi. O’g’uz turklari “isiriq” tutatish bilan bog’liq irim-sirimlarni deyarli unutmagan bo’lsalar, o’zbeklar, xoh yirik shaharlarda yashasin, xoh chekka qishloqlarda – bu an’anani “Devon”da qanday keltirilgan bo’lsa, shu ko’rinishda qo’llab keladilar.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, milliy madaniyatimizning ko’zgusi bo’lgan xalq maqollarida keltirilgan birgina isiriq fitonimi tashiydigan mazmun millatimiz naqadar boy tarix va urf-odatlariga egaligini yana bir karra isbotlaydi. Keyingi tadqiqotlarda ham bu kabi madaniy birliklar – lingvokulturemalarni elat hayoti bilan bog’liqligini o’rganish, tahlil qilish millat turmush tarzi, urf-odati, kechinmalari, orzu-istaklari, qo’rquvlaridan darak beruvchi vosita sifatida ulkan ahamiyatga egaligi ko’rsatiladi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. – 448.
2. Mirzayev T., Turdimov Sh. O’zbek folklori (Darslik). – Toshkent, 2020. – B. – 67.
3. Маматкул ЖЎРАЕВ, Латифа ХУДОЙҚУЛОВА, МАРОСИМНОМА (ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б. – 172.
4. Абу Али ибн Сино. Тиб конунлари. 1-жилд – Т, 1993. – Б. – 152.
5. Девони лугатит-турк (Туркий сузлар девони) / М.Кошгарий. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриет-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. –488.
6. <https://avitsenna.uz/isiriq-mojizasi/>
7. <https://oyina.uz/uz/article/1510>

HUMILIATION, SUFFERING, LOYALTY, AND DEMAND ARE THE MAIN IDEAS IN "JANE EYRE".

R.A.Jalolova,
rukshonabegimjalolova@gmail.com
Scientific Director: Sh.Sh.Sattorova,
Master of the English Linguistics department,
Bukhara State University, Uzbekistan

Abstract. This article is about the famous English writer Charlotte Brontë. The thoughts and ideas presented in the novel "Jane Eyre" are analyzed. Think about what the novel is about and its essence.

Key words: representative of feminist literature, female governor, symbol of women who have experienced various difficulties of life.

The novel is taken from the author's autobiography. This work is one of the most famous works. In this work, the image of a girl who patiently endured all the ups and downs of life from the age of ten is attractive. The story is told in the third person. If we focus on the main ideas presented in the novel "Jane Eyre", it presents feelings such as humiliation, suffering, loyalty, patience and so on. In this work, the author of the work, Charlotte Brontë, embodied the image of a girl who is truly patient, resistant to difficulties, who has withstood all trials from her youth to adulthood. Because Jane Eyre stays in her uncle's house, in the hands of her uncle's wife and children, and faces many difficulties. They don't fit Jane Eyre in their house. Her uncle's wife sends Jane Eyre to Lowood School. Lowood School will be in a very bad state. Jane Eyre also has a hard time at Lowood School.

Lowood School is very cold and the food is in poor condition. Many girls drop out of Lowood School, and many die from illness. Jane Eyre is treated well by Miss Temple at Lowood School. Then when things get worse, they move to a better school. Pupils studied at Lowood School for six years, then they became teachers. Jane Eyre leaves Lowood School at the age of 18, and she wants to be a governess. She teaches a girl named Adele at Thornfield Hall. She becomes friends with Adele. The owner of Thornfield Hall will be Mr. Rochester. Thornfield Hall will be a very beautiful and large house. Mr. Rochester rarely comes. He meets and falls in love with Jane Eyre. One day, Jane Eyre receives a letter from her nephew. In the letter, it is said that Jane, that is, her niece, has died due to illness, and that her uncle's wife is in a serious condition, and asks her to come to Gateshead Hall. Even though Jane Eyre is tormented by them, Jane Eyre goes back there. And his uncle's wife gives him a letter. In the letter, her uncle left all his money to Jane Eyre. Jane Eyre returns to Thornfield Hall again. Mr. Rochester wants to marry her. But Mr. Rochester will have another woman, but she will be mentally retarded. That's why

Mr. Rochester wants to marry Jane Eyre. Jane Eyre then leaves Thornfield Hall, and she finds her other nieces and lives with them temporarily. He gives them all the money left by his uncle and returns to Thornfield Hall himself. Mr. Rochester has left Thornfield Hall because his mentally retarded wife burned down the house and threw herself off the roof. After that, Mr. Rochester is blind and moves to another house. Jane Eyre goes to him and forgives Mr. Rochester. After this Mr. Rochester's eyes are opened and they live happily ever after.

Through "Jane Eyre", the author teaches us to overcome all the difficulties of life with patience and to be forgiving. Jane Eyre goes through various difficulties from her

youth to adulthood, but she never gives up. He is always looking forward. This gives us a vivid picture of the girl's tenacity.

In short, this work encourages us to be resilient, tenacious, and resilient to the obstacles we encounter in our life. It also teaches us that we should be forgiving. It is said that we should face the difficulties we face in our life with a smile and overcome them with patience.

References

1. Jane Eyre by Charlotte Bronte. -1847. ZSR Library.
2. Sattorova, S. S., & Jalolova, R. A. (2023). LONELINESS, FRIENDSHIP, LOVE AND LOSS” IN THE LITTLE PRINCE AS THE MAIN IDEAS. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(3), 71-77.
3. Askarovich H. A., Shavkatovna S. S. Ingliz va O'zbek Tillarida Modallik Kategoriyasining Leksik Tahlili //International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses. – 2023. – С. 32-34.
4. Askarovich H. A. et al. MODALLIK-SHARQ VA G'ARB OLIMLARI NAZARIDA //Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation
5. Haydarov A. Importance of Modality in Learning Process //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16. Studies and Language Teaching Processes. – 2023. – С. 14-16.
6. Shavkatovna S. S. Lexic Analysis of Modality in English and Uzbek Languages. – 2023.

ЗНАЧЕНИЕ ОПИСАНИЯ ВЗГЛЯДА В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

М.У.Саидова,

Доцент кафедры английского языкознания, д.ф.ф.н. (PhD)

Н.Ш.Косимова,

Магистрант Бухарского государственного университета

n.sh.qosimova@buxdu.uz

Аннотация. Научная статья посвящается изучению одного из типов невербального общения – окулесики. В статье описываются функции и признаки глазного поведения в художественных произведениях. Приводятся анализы взглядов, обнаруженные в литературных работах «Алхимик» Пауло Коэльо и «Человек – Невидимка» Герберта Уэллса.

Ключевые слова: окулесика; глазное поведение; взгляд; регулятивная, когнитивная, контролирующая, эмотивная функции; объект, направление и тип взгляда.

Annotation. The scientific article is devoted to the study of one of the types of nonverbal communication – oculusics. The article describes the functions and signs of ocular behavior in literary works. The analysis of gazes found in the literary works “The Alchemist” by Paulo Coelho and “The Invisible Man” by H.G.Wells is provided.

Key words: oculusics; ocular behavior; gaze; regulatory, cognitive, controlling, emotive functions; object, direction and type of gaze.

В связи с антропоцентрическим характером современных исследований, в центре внимания ученых оказался не только сам язык и его компоненты, но и самое главное – языковая личность. Как известно, коммуникативный акт, совершаемый с целью передачи информации, может осуществляться не только вербально, но и посредством мимики, жестов, взглядов, прикосновений, что в свою очередь представляет собой невербальное общение (без использования языка).

Одним из типов невербальной коммуникации является окулесика, которая занимается изучением языка глаз и интерактивного глазного или визуального поведения людей. Во время процесса общения создается зрительный контакт, который может указывать на отношение говорящего к реципиенту, передать информацию и даже выразить эмоции.

Поэтому в лингвистических исследованиях литературных произведений выделяют такие функции взгляда, как:

- регулятивная – которая направлена на требование отреагировать на переданное сообщение или же на подавление ответной реакции;
- контролирующая – с целью проверки восприятия сообщения;
- когнитивная – передача информации;
- эмотивная – выражение чувств и их восприятие.

Анализируя глазное поведение, также важно учитывать три признака согласно которым можно верно интерпретировать значение взгляда: направление (линия взгляда), объект взгляда (на что он направлен) и тип взгляда (способ визуального взаимодействия).

Рассмотрим на примерах из произведений «Алхимик» Пауло Коэльо и «Человек – Невидимка» Герберта Уэллса:

*I couldn't have found God in the seminary, he thought, as he **looked at the sunrise**.* – здесь взгляд на рассвет говорит о задумчивости персонажа, погружение в собственные мысли. [1, 10]

*He **looked around** at the empty plaza again, feeling less desperate than before.* – исходя из примера видно, что персонаж убедился в том, что он всё еще следует своему пути, и место уже не казалось таким ужасным. [1, 41]

"Fatima," the girl said, averting her eyes. – девушка отвела взгляд от Сантьяго, что означало её смущение. [1, 94]

"Thank you," he said dryily, glancing from her to the door and then at her again. – в данном примере взгляд на дверь указывает о нежелании продолжать разговор. [2, 8]

Cuss appeared, his face white, his eyes staring over his shoulder. – оглядываться через плечо обычно означает страх. [2, 28]

He looked suspiciously at Cuss. – с помощью наречия был определен тип взгляда, говорящий о подозрении. [2, 30]

В соответствии с приведенными примерами видно, что взгляд, действительно, способен служить передаче информации, выражению эмоций и чувств, а также имеет как регулятивную, так и контролирующие функции в литературных произведениях. Однако для того, чтобы правильно воспринять и понять смысл невербальных компонентов нужно владеть всей коммуникативной ситуацией, в которой находятся герои, ведь не всегда глазное поведение имеет одну и ту же функцию и значение, что находится в свою очередь в зависимости от различных контекстов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Coelho P., Clarke A.R. The Alchemist. English version copyright. HarperCollins Hardcover Edition. 1993. P.167.
2. Saidova, M. U. The problem of studying literary terms on figurative language. https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0,5&cluster=9219256601546054307
3. Wells H.G. The Invisible Man. MK Publications, Istanbul. Second Edition. November 2020. P.176.
4. Бартенева В.В., Перельгут Н.М. Окулесический компонент агрессивного невербального поведения в межличностной коммуникации (на примере романа Дж.Сэлинджера «Над пропастью во ржи»). Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота. № 1 (55): в 2-х ч. Ч.2. 2016. С.82-86.
5. Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика: Язык тела и естественный язык. – М.: Новое литературное обозрение, 2002. – 592 с.
6. Паршина С.А. Окулесика в призме межкультурной коммуникации. Молодой ученый. №47 (442). 2022. С.518-520

LORD BYRON AND THE IMAGE OF THE REBEL HERO IN ROMANTIC LITERATURE

D.I.Khodjaeva,
PhD, Bukhara State University
d.i.xodjaeva@buxdu.uz
I.R.Khametov,
Master student,
Bukhara State University
i.r.xametov@buxdu.uz

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of Lord Byron's impact on English literature through the lens of his life and works. It highlights his role in shaping the Romantic movement, particularly through the development of the "Byronic hero", a character archetype that embodies the quintessential qualities of romanticism such as individualism, emotional depth, and social defiance. The study examines Byron's significant works, including "Manfred" and "Don Juan", discussing how these literary pieces reflect his personal experiences and broader societal critiques.

Key words: Lord Byron, Romanticism, Byronic hero, English literature, Individualism, Rebellion, Social critique, Childe Harold's Pilgrimage, Don Juan, Cultural influence

Introduction

George Gordon Byron, known as Lord Byron is a seminal figure of the Romantic movement, Byron's life and works embody the era's defining characteristics—deep emotion, individualism, and a critical stance against established social norms. His literary contributions, most notably the creation of the "Byronic hero", have not only shaped the course of English literature but have also left an indelible mark on the cultural and psychological paradigms of subsequent generations.

Byron's tumultuous life, infused with scandal, passion, and a relentless quest for personal authenticity, mirrors the themes prevalent in his poetry and dramatic works. This article will analyse how Byron's personal experiences influenced his literary creations and how these works, in turn, forged a new archetype within literature—the brooding, defiant, and complex Byronic hero. This character type continues to resonate within modern cultural narratives, illustrating Byron's lasting legacy.

Byron's engagement with the social issues of his time, including his critiques of hypocrisy and his satirical take on societal norms, is explored in this paper, as evidenced by his later works like "Don Juan". The exploration extends to Byron's influence on the Romantic movement's ideals of freedom and personal expression, which have perpetuated through time and still provoke thoughtful examination in contemporary discourse. Through a detailed analysis of his poetry and its reception, we will demonstrate how Lord Byron's artistic legacy continues to influence and inform discussions about the complexities of the human condition and the perpetual struggle against societal constraints.

Discussion

Lord Byron was born on January 22, 1788 in London into a noisy family, which paved the way for his later life, full of contrasts and contradictions. Byron's literary career began to take shape with the publication of his early works, but it was the release of the first two songs of Childe Harold's Pilgrimage in 1812 that led him to fame. The poem, which tells about the wanderings of a young man who became disillusioned with society, reflected Byron's own adventures in Europe and captured the imagination of the public. Throughout his life, Byron was embroiled in numerous affairs, controversies and scandals, his personal life, marked by excesses, debts and, ultimately, self-imposed exile from Britain, fueled public admiration for him and blurred the boundaries between the poet and his creations.[1, p.62].

The Byronic hero, the type of character that Byron perfected and popularized in his works, is characterized by his brooding, lonely and defiant nature. This archetype often embodies qualities such as great talent, contempt for social norms, a troubled past and a pronounced tendency to self-destruction. The Byronic hero is both attractive and repulsive to others, charming the audience with his complexity and depth. [2, p.541]. Byron's own life and personality served as the basis for this archetype. His characters, including Childe Harold from Childe Harold's Pilgrimage and Manfred from the dramatic poem Manfred, reflect Byron's own disillusionment with society, his relentless search for meaning in a seemingly indifferent world and his struggle with personal demons. These characters, like Byron himself, are often isolated, either by choice or circumstance, from the societies in which they live, and they navigate the world with a sense of existential despair and defiance. The appeal of the Byronic hero lies in his rebellion against the status quo, his rejection of traditional moral codes and social restrictions, as well as in his intense, emotional life.[3, p.139].

Don Juan, Byron's epic satirical poem, represents a departure from the brooding character of Childe Harold to a more comedic, but at the same time sharp criticism of society. Telling about the adventures of a young and naive Don Juan, Byron explores the themes of love, innocence and the hypocrisy of public morality: "*But – Oh! ye lords of ladies intellectual, / Inform us truly, have they not hen-peck'd you all?/They looked upon each other, and their eyes / Gleamed in the moonlight; and her white arm clasped / From that time forth around him...*"[4, p.62]. Despite his satirical tone, he does not shy away from portraying deep passion and its complexities. In addition to romanticizing human feelings, the work also contains vivid descriptions of natural conditions and exotic locations, from the countryside of Spain to the Russian steppes, emphasizing the beauty and horror of the natural world: "*Sweet hour of twilight!—in the solitude/Of the pine forest, and the silent shore/Which bounds Ravenna's immemorial wood/Rooted where once the Adrian wave flow'd o'er/Evergreen forest! which Boccaccio's lore!*"[4, p.197]

"Manfred" is a dramatic poem written in 1816-1817, which embodies many of the basic elements of Romanticism in its themes, characteristics and setting. It tells the

story of the tortured nobleman Manfred, who is haunted by the death of his beloved Astarte, and he seeks relief from his guilt and despair by supernatural means. Byron explores not only the theme of forbidden love, but also touches on a broader romantic preoccupation with the limits of knowledge and the search for spiritual freedom.: “*I am the master of my existence. And I will not bow to a spiritual despot/, Manfred’s interaction with supernatural forces, the desire for oblivion./By the strong curse which is upon my soul, / The thought which is within me and around me, / I do compel ye to my will.—Appear!*” and, ultimately, the meeting of death “*Old man! ‘tis not so difficult to die.*”[5, p.172]. Byron’s fascination with the dark aspects of the human psyche and existential search for meaning in a seemingly indifferent universe are reflected with defiant independence.

Through his exploration of topics such as freedom, love, social criticism, and the nature of humanity, Byron not only defined the era of Romanticism, but also left an indelible legacy that continues to influence literature and culture. His satirical approach in works like “Don Juan” highlights the hypocrisy of societal norms while advocating for a more genuine experience of love and life, a theme that remains relevant in contemporary cultural discussions. Byron’s portrayal of characters such as Childe Harold and Manfred reflects a deep disillusionment with societal constructs and an intense quest for personal authenticity. His poetry, marked by emotional depth, criticism of social norms and glorification of personality, makes readers question their own beliefs and the structures of their society.

Byron’s life, as well as his art, embodies the romantic ideal of the artist as a figure of resistance, whose works not only reflect the world, but also represent new ways of being. His depiction of the complexities of human experience, with all its contradictions and passions, remains a powerful reminder of literature’s enduring ability to inspire, challenge and change.

Conclusion

In conclusion, Lord Byron’s legacy as a leading figure of the Romantic movement and his creation of the Byronic hero have profoundly influenced both literature and cultural perceptions of individualism and defiance against societal norms. His life, as turbulent and controversial as the characters he created, exemplified the romantic ideals of emotion, rebellion, and the quest for personal authenticity. Byron’s characters, from Childe Harold to Manfred encapsulate a range of human emotions and philosophical contemplations that continue to resonate with audiences today. The Byronic hero, with his brooding demeanor and complex moral fabric, remains a compelling study in the duality of human nature, inspiring a myriad of literary and cinematic figures. Through his poetry and his life, Byron not only shaped the contours of Romantic literature but also challenged us to consider more deeply the imperfections and the potential of the human spirit.

BIBLIOGRAPHY

1. Tuite Clara. Lord Byron and Scandalous Celebrity. – Cambridge University Press, 2015. – P. 17.
2. Haekel Ralf. Handbook of British Romanticism. – De Gruyter, 2017. – P. 541.
3. Byron George Gordon. Selected Poems of Lord Byron. – T.Y. Crowell & Co., 1893. – P. 62, 197.
4. Higgins David and Sharon Ruston, editors. Teaching Romanticism. – Palgrave Macmillan, 2010. – P. 139.
5. Byron George Gordon. Manfred. – E-artnow, 2020. – P. 172.

MIRMUHSIN HIKOYALARIDA ONA OBRAZI

M.R.Hakimova,
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

m.r.hikmatova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola serqirra ijodkor, o'zining betakror asarlari bilan kitobxon ko'nglidan joy olgan yozuvchi hamda shoir Mirmuhsin qalamiga mansub "Ona qabriga gul" va "Onaizor" nomli hikoyalari tahliliga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, xarakter, ona obrazi, Mirmuhsin ijodi, badiiy g'oya, badiiy talqin, "Ona qabriga gul" va "Onaizor" nomli hikoyalari.

Kirish. Yozuvchi, shoir va publicist Mirmuhsin o'zining serqirra ijodi bilan kitobxonlar qalbini zabt etgan. Uning ko'plab asarlari turli tillarga tarjima qilinib, kitobxonlar e'tiboriga havola etilgan. Mirmuhsin ijodining ko'lami keng bo'lib unda she'r, hikoya, qissa, doston, roman (she'riy romanlar, tarixiy romanlar) kabi janrlardagi asarlarni uchratishimiz mumkin.

Adib o'z asarlarida turli mavzularni keng yoritgan bo'lib, kishilarining ma'naviy qiyofasi, Vatanga bo'lgan muhabbati, o'zbek dehqonlarining mardonavor mehnati, xotin-qizlarning qahramonliklari va hattoki chetel odamlarining (Sharq xalqlari hayotini tasvirlaydigan asarlari "Arab hikoyalari", "Iskandariya ko'rfazi", "Mo'tilal", "G'urbatdagi odam", "Chodrali ayol") hayoti yoritilgan, tarixiy shaxslar ("Temur Malik", "Turon Malikasi", "Movarounnahr") siymosi badiiy aks etgan romanlari shular jumlasidandir.

Mirmuhsin asar yozishdan oldin avvalambor uning mavzusi, qahramonlari ustida jiddiy ish olib borishi haqida to'xtalib shunday deydi: "Asar uchun tanlagan mavzu yurakni jiz etgach, o'ylaysan, chamalaysan, xullas, o'zingni shu ishga chog'lab ko'rasan: salomatlik va chidam yetadimi? Yarim yo'lda qoldirish, og'ir jarayondan hatlab o'tib ketish, yuzakichilik sodir bo'lmaydimi? Erta bilan yuz yuvayotganda ham o'ylaysan, tushingga ham kiradi bunday o'ylar. Bir oy-yarim oy boshqa ishlar bilan shug'ullanib, o'zingni sinab ko'rasan: bu shaydolik yurakka qattiq o'mashganmi yoki shunchaki havasmi?! Agar shunchaki havas bo'lsa, shu bir oy, yarim oy ichida undan

soviysan, uzoq asrlarda yashagan, tuproq qatlamlaridan kelib turgan odamlar ko'zingga xiralashib ko'rinib, oxir yoddan ko'tariladi. Demak, tayyorgarlik yo'q. Ish boshlanmaydi. Agar shu mavzu uyqu bermasa, asrlar qa'ridan sado kelib tursa, qahramonlarning jamoli yaqqol ko'rina boshlasa, demak, pishibdi, ishga tushsa bo'ladi. Inshoolo, tangri yo'l bersin". Demakki, ijodkor ijod jarayoniga kirishar ekan, eng avvalo o'zini tayyorlaydi, hayotni chuqur o'rganadi, o'zi yaratayotgan qahramonlariga oshno tutinadi.

Asosiy qism. Mirmuhsining hikoyalaridagi mavzu g'oyasi turlicha hamda keng bo'lib, uning "Ona qabriga gul" hamda "Onaizor" hikoyalarida mavzu va undagi g'oya yaqqol sezilib turadi. Har ikki asarda ona obrazi gavdalansa-da, birida onasidan erta ayrilgan Erkinjonning onasini sog'inib yashashi tasvirlangan bo'lsa, ikkinchisida qahatchilik, urush tufayli uch farzandidan erta ayrilib, ko'zlari so'qir holga kelgan ona haqida hikoya qilinadi.

"Ona qabriga gul" hikoyasi qahramoni Erkin – onasining erkatoyi, mehriboni, nozik qalbi mehrga, e'tiborga muhtoj paytida onasidan erta ayrilgan go'dak. Onasi kelib uni bag'riga bosishini kutib turgan sodda, murg'ak qalb sohibining ichki tuyg'ulari shunday ta'rif etilardi: "U hozir o'zini oyijonisi bag'riga otgisi, uning tizzalariga boshini, yuzlarini surib, erkalangisi kelib ketdi, ammo qani uning oyijonisi?". Ona xastaligiga qaramay bir on ham bolasini yolg'iz tashlab qo'ymaydi. Umrining so'ngi damlarida Erkinjonga aytgan so'zlari uning yodidan aslo chiqmaydi: "Erkinjon, meni sog'inganingda qabrimga gul olib borib qo'ygin. Men seni juda ham ko'rgim keladi. Men seni sog'inaman... Gul olib kelib qo'ysang men seni ko'rganday bo'laman..." Ushbu gaplarni eslab, Erkin ham onasi uchun erta saharlab hech kim uyg'onmaganda onasining qabriga gul olib boorish uchun yo'lga tushadi. Buni qarangi, onasini tuproqqa qo'yish uchun olib ketishayotganda bu yo'llarni Erkin yodida saqlab qolgan bo'ladi.

Hikoyada Erkinning onasi Ra'no hali yosh bo'lishiga qaramay og'ir (rak) kasalligiga chalingan. Unda barcha onalar qalbida bor noziklik, nafosat, sadoqat, mehr-muhabbat v ago'zallik bor. Hali mitti bolasi mehrga, hidlariga to'ymagan ona, Ra'no asarda shunday ta'riflanadi: "Qani u ko'kraklar-u, bellar! Xonatlas ustida yal-yal yonib, qanchalab ko'zlarni kuydirishlar qayoqda qoldi! Uzun sochi beliga tushib, kulgan dudoqlar-u bodom qovoqlar, qanot qoqib turgan qaldirg'och qoshlar qani?"; "Sal-pal tishi og'rib, isitmasi chiqqanida oh-voh qilib doctor ustiga doctor chaqirtirgan Ra'no"; "Ichib-chekib, vaqtida ovqatlanmay isqirt yuradiganlar emas, saranjom, ozoda, o'ziga qaraydigan Ra'no bu rak degan dardi bedavoga uchraganiga kishilar hayron. Bu o'zi qanaqa dard? Vrachlar aytadigan hamma yomon narsalardan Ra'no qochar edi, u dono vrachlar o'ylagan sog'lom kishi edi. Buni qarangi, bu dard shu gulag yopishib, uni xazon qildi". Dunyoning hazilimi bu yoki taqdirimi insonni chuqur o'ylantiradi, nafaqat hikoyalarda, balki hayotda ham shunday voqealar bo'ib turadi va inson qalbini tushkunlikka soladi. Nahotki, Ra'nochalik go'zal va o'zining sog'ligiga qarab yuradigan ayolda bunday xastalik paydo bo'ldi degan savollar kitobxonlarni

o'ylantiradi. U kasal bo'lmasidan oldin chiroyli, xushbichim ayol edi, keyinchalik og'ir dardga chalingandan keyin esa ozib-to'zib avvalgi chiroyli Ra'nodan asar ham qolmaganini, buni, ya'ni chiroy abadiy emasligini hatto Ra'noning o'ziyam o'shanda angelaydi. Shu joyda muallif hech bir go'zal narsa avvalgi holicha qolmasligini vaqt o'tib asl sifatini, go'zalligini yo'qotishi mumkinligini, bularni barchasi vaqtinchalik ekanligini anglatadi. Lekin mehr–muhabbat, samimiy xotiralar yurakda abadiy qoladi.

Ra'noning turmush o'rtog'I Humoyun ham ayolining vafotidan qattiq istirob chekkan, lekin bir lahza bo'lsayam ayoliga xiyonat qilmagan, boshqa ayollarga qaramagan haqiqiy mard erkak sifatida tasvirlangan. "Ilgari xushomad qilib yuradigan ba'zi juvonlarga ham ortiqcha so'zamollik yo'q, qaragisi ham kelmasdi... Oradan uch yil o'tdi. Erkin ham maktabga bordi. Ammo hamon Humoyun uylanmay yurardi. Uning ko'z oldida hamon o'sha Ra'no... Yer sovuq, kishi qazo qilgach, qolgan qadrdonlari yuragida uning mehri sekin-asta soviydi, derdilar. Bu to'g'ri emas ekan. Humoyun yuragida Ra'no muhabbati hamon yashardi. U, Ra'noni ancha vaqt ketidan yurib, yaxshi ko'rib olgan edi. Nazarida yana bir boshqa kishini Ra'nochalik sevishga qurbi yetmaydiganday tuyulardi. Biron kimsa yuragida g'alayon uyg'otolmasdi" Humoyun bu bilan ayoliga bo'lgan sevgisini, hurmatini va sadoqatini namoyon qilgan edi. Aytish mumkinki, bunda haqiqiy mehr-muhabbat tuyg'ulari yaqqol tasvirlangan, hech qanday bo'rtirishlarsiz bir erkakning ayoliga bo'lgan cheksiz muhabbati go'zal ifoda etilgan. Lekin asar so'ngida Humoyun uch yildan so'ng birinchi marta bir ayolni ko'rib yuragi jiz etganini, uning siymosida Ra'noni ko'rgandek bo'lganligini aytadi. Inson umri davomida ko'plab insonlarga ro'baro' bo'lishi, o'zi kutmagan insonlarni yoqtirib qolishi mumkin. Hattoki insonning hayoti kutilmaganda tubdan o'zgarib ketishi ham mumkin. Xullas, yozuvchi asar yakunida Humoyunning taqdirini ochiq qoldirishni istamagan ko'rinadi.

Mirmuhsinning "Onaizor" hikoyasi Isroil o'zidan qudratli bo'lgan davlat Misrning Al Qantara shahriga urush qilgani haqidagi voqealar bilan boshlanadi. Muallif buni asarda shunday ta'riflaydi: "Sichqondek Isroil fildek Misrni yutib yubormoqchi bo'lib, jon-jahdi bilan kuchanardi". Hikoyada qahatchilik sababli uch farzandidan ayrilib, ularning dog'ida ko'zlari ko'r bo'lib qolgan, umrini bir zax bosgan padval tuynukida o'tkazgan onaizor Shamsiya obrazida tasvirlanadi. Asarda urush tufayli qulab tushgan uylarni ostida qolib ketgan bir bola, Fuadni qutqarmoqchi bo'lgan Shamsiya holati shunday tasvir etiladi: "Shamsiya yer timirsiklab, tuproq va yog'ochlar orasida yotgan inson boshini ikki qo'li bilan ushladi. Uning bo'yniga tushib, bo'g'ayotgan katta-katta kesaklarni olib tashlab, yerda yotgan odam yuzlarini timirskiladi. Uning soqol-mo'ylovi yo'qligidan yosh bola ekanini darhol payqadi. Ikki qo'li bilan bola ustini timirskilab, kesaklarni olib tashlashni boshladi... Somonli kesaklar tamom bo'lgach, u tirnoqlari bilan yer o'yib, chuqur ichidan yuqoriga olib tashlay boshladi... U Fuad tanasini tuproqdan qutqarib olish uchun jon-jahdi bilan urunar: tirnoqlari ajralib, qo'llari qonab ketganini ham payqamasdi. Bir soatlardan so'ng tuproq va mayda kesaklardan bola tanasini ajratdi". Bu farzandini yo'qotgan

onaning yana bir farzandini yo'qotmaslik uchun jon-jahdi bilan uni qutqarish yo'lidagi fidoyiligi edi. Shamsiya bolani begona demay uni qutqarish yo'lidagi jonbozligini ko'rib lol qolmasdan ilojimiz yo'q. Haqiqatan ham onaning mehri naqadar buyukligini so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Asarda xarakterida salbiy jihatlar namoyon bo'lgan savdogar Abdullosarrof bolalarni shu ahvolga tushishiga sababchi bo'ladi. Chunki u urush boshlanganida Isroilga qochib ketadi. Bolalarni o'zi bilan olib ketsa, bo'lardi, ammo mollariga qarab turishini tayinlagan holda ularni urush hukmiga tashlab ketadi. Har ikki qahramonga – savdogarga ham, onaizorga ham bu bolalar begona edi, ammo onaning mehri ustunlik qiladi-da onaizor ko'zlari ojiz bo'lishiga qaramay bolani qutqaradi. Uning qalbidagi bu mehr-muruvvat bir bolani (Fuadni) o'limdan asrab qoladi. Hamma ham bu ishni qilolmaydi, faqatgina buyuk qalb egasi, ayniqsa onalar bunga jazm eta oladi. Bu hikoyada Shamsiya mana shunday obraz sifatida talqin etilgan.

Xulosa. Dunyoda barcha mehrlardan eng a'losi bu ona mehridir. Hech bir narsa, hech bir tasalli ona mehrichalik yuraklarimizga kuch-quvvat berolmaydi. Mirmuhsin hikoyalarda ana shunday mehr haqida hikoya qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. – Тошкент: Фан, 1993. - б.157.
2. Mirmuhsin. Yaxshi kun va yaxshilik abadiydir.//Yoshlik, 1993. – №12. – B.32.
3. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/mirmuhsin-1921-2005>.
4. Мирмуҳсин. Асарлар. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 320.

DANIEL DEFONING ROBINZON KRUZO ASARIDA MEHNATNING INSONGA TA'SIRI

*M.Kh.Niyazova,
BukhSU, associate professor,
English Literature and translation department
N.M.Subxonova,
English literature department
The master student of BukhSU
n.m.subxonova@buxdu.uz*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyat bilan aloqada bo'lmagan orol mavzusidan foydalanib, Daniel Defoning Robinzon hayotidan misol qilib, jamiyat taraqqiyotida mehnatning doimiy qadriyatini isbotlashi haqida so'z boradi. Defoning

chuqur ishonchiga ko'ra, aql va mehnati dunyoni tubdan o'zgartirishga qodir. Buni o'z asarida mehnat tufayli kimsasiz orolda o'ziga xos mini-sivilizatsiya paydo bo'lishi bilan isbotlaydi.

Kalit so'zlar: ma'rifatparvarlik, mehnatsevarlik, dehqonchilik, sarguzashtlar, tabiat va aql

Abstract. In this article, using the theme of an island disconnected from society, Daniel Defoe as an example of the life of Robinson proves the constant value of work in the development of society. According to Defoe's deep conviction, intelligence and work can fundamentally change the world. In his work, he proves this by creating a kind of mini-civilization on a deserted island.

Key words: enlightenment, hard work, farming, adventure, nature and intelligence

Аннотация. В данной статье, используя тему острова, оторванного от общества, жизнь Даниэля Дефо на примере Робинзона доказывает неизменное значение труда в развитии общества. По глубокому убеждению Дефо, интеллект и труд способны коренным образом изменить мир. В своем творчестве он доказывает это, создав на необитаемом острове своеобразную мини-цивилизацию.

Ключевые слова: просвещение, труд, земледелие, приключения, природа и интеллект.

Daniel Defoning birinchi romanini yozuvchining ma'rifatparvarlik davrining ilk bosqichiga xos bo'lgan dunyo va inson tushunchasiga asoslangan adabiy manifesti deyish mumkin. O'sha davr insonining dunyoqarashini uning ongiga diniy-axloqiy tamoyillar ta'sirisiz ko'rib bo'lmaydi, "Robinson Kruzoning sarguzashtlari" romani buning so'zsiz isbotidir. Defo ishining ko'plab tadqiqotchilari roman matnida nafaqat Injil matnlari bilan bevosita illyuziyalarni topadilar, balki "Robinson Kruzoning sarguzashtlari" ning asosiy hikoyasi va Eski Ahdning ba'zi hikoyalari o'rtasida o'xshashlik ham qiladilar.

Bu kontekstda mehnat targ'ibotining kelib chiqishi haqidagi savolning yechimi oddiygina emas: "O'zing olingan tuproqqa qaytmaguningcha, noningni mehnat bilan topasan", dedi Xudo Odam Atoga va uni Jannatdan quvib chiqardi. Tirishqoqlik nasroniy imonining barakali amrlaridan biridir. Robinson bularning barchasini sahro orolda tushunishi va minnatdorchilik bilan qabul qildi.

Mahalliy adabiyotshunoslar orasida Robinson tomonidan orolda amalga oshirilgan barcha tadbirlar orasida Daniel Defo ma'naviy ishlarga eng muhim rol o'ynashiga e'tibor berish odatiy hol emas edi. Birinchi o'rinda, uning diniy burchlari va Muqaddas Bitiklarni o'qishi bor edi, u buning uchun doimiy kuniga uch marta ma'lum vaqt ajratdi. Robinsonning kundalik faoliyatining ikkinchisi ov edi, u har kuni ertalab yomg'ir yog'maganda uch soat vaqtini oladi. Uchinchi ish o'ldirilgan yoki tutilgan ovni saralash, quritish va pishirish edi.

Defo uchun ilk ma'rifatparvarlik g'oyalari timsoli sifatida inson tomonidan tabiatni rivojlantirishda mehnatning roli qahramonning ma'naviy kamolotidan, tabiatni aql orqali bilishdan ajralmasdir. Qahramonning e'tirofi tabiatni oqilona Robinzon tomonidan bo'ysundirish mumkin bo'lganligini ko'rsatdi, muallif buni orolni jismoniy o'rganish sifatida emas, balki tabiat qonunlarini aql bilan bilish sifatida tasvirlaydi.

Defo qahramon sifatida hayotni xuddi shunday ishbilarmonlik yo'lida zabt etgan eng oddiy odamni, xuddi Defoning o'zi kabi, boshqalar kabi, o'sha davrning oddiy odamlarini tanladi. Bunday qahramon adabiyotda birinchi marta paydo bo'ldi va birinchi marta kundalik mehnat faoliyati tasvirlandi.

Romanning boshida u unchalik yaxshi odam emas, u hazilkash va dangasa edi. U o'zining to'liq qobiliyatsizligini, har qanday oddiy insoniy ishlar bilan shug'ullanishni istamasligini ko'rsatadi. Keyinchalik esa u yashash maydonini o'zlashtirib, turli xil asboblardan foydalanishni va turli harakatlarni amalga oshirishni bilib, qanday qilib bu darajada o'zgarganligining guvohi bo'lamiz, chunki u inson hayotining mazmunini ham, qadrini ham topadi. Bu kitobxon e'tibor berishi kerak bo'lgan birinchi voqea - odamning obyektiv dunyo bilan haqiqiy aloqasi, non, kiyim-kechak, uy-joy va hokazolarni qazib olish jarayonlari bilan bog'liq bo'ladi. U birinchi marta o'zi uchun non pishirganida, bu orolga joylashganidan ko'p yillar oldin anglamagan narsasini ya'ni, oddiy bir bo'lak non olish uchun qancha turli mashaqqatli jarayonlar kerakligini o'ylab ham ko'rmaganini tushunib yetadi.

Asar davomida Robinzon ajoyib tashkilotchi ekanligini ham isbotlaydi. U imkoniyat va tajribadan qanday foydalanishni biladi, hisoblash va oldindan ko'rishni biladi. Dehqonchilik bilan shug'ullanib, o'zi ekan arpa va sholi urug'idan qanday hosil olishi, qachon va qaysi qismini yeyishi, zahiraga qo'yishi, ekishi mumkinligini aniq hisoblab chiqadi. U tuproq va iqlim sharoitlarini tekshiradi va yomg'irli mavsumda qayerga ekish kerakligini va qaysi hollarda quruqlikda ekish kerakligini aniqlaydi.

Mehnat jarayonlarini tavsiflashda "Robinzon Kruzo" muallifi, boshqa narsalar qatorida, yetarlicha zukkolikni ko'rsatadi. Uning uchun ishlash odatiy emas, balki dunyoni o'zlashtirishdagi ajoyib tajribadir. Uning qahramoni orolda qilayotgan ishlarida haqiqatdan uzoqda aql bovar qilmaydigan narsa yo'q. Aksincha, muallif mehnat malakalari evolyutsiyasini imkon qadar izchil va hatto hissiy jihatdan faktlarga murojaat qilib tasvirlashga intiladi. Romanda ikki oylik tinimsiz mehnatdan so'ng, nihoyat, Robinzon loyni topgach, uni qazib olib, uyiga olib kelib, ishga kirishganini, biroq ikkita kattagina xunuk sopol idish olganini ko'ramiz.

Ammo Daniel Defo uchun asar taqdimotida asosiy narsa bu hatto natijaning o'zi emas, balki hissiy taassurot - o'z qo'lini yaratishdan, qahramon boshdan kechirgan to'siqlarni yengib o'tishdan zavq va qoniqish hissi: "Ammo men hech qachon trubka yasagan kundagidek ongim bilan g'ururlanib, xursand bo'lmaganga o'xshayman", deydi Robinzon. U kulbaning qurilishi tugagach, xuddi shunday zavq va "mehnat mevalardan" zavqlanish hissini boshdan kechiradi.

Mehnatning insonga ta'siri va, o'z navbatida, insonning mehnat harakatlarining atrofda voqelikka ta'sirini tushunish nuqtai nazaridan, eng qiziqarli qismi bu "Robinson Kruzo" romanining birinchi qismidir. Romanning birinchi qismida qahramon bir o'zi ibtidoiy dunyoni tadqiq qiladi. Asta-sekin Robinson haykaltaroshlik va idishlarni pishirish, echkilarni tutish va qo'lga olish san'atini egallaydi, u tabiat qonunlari haqidagi tajriba va bilimga asoslangan ibtidoiy ish turlaridan eng murakkabiga ko'tariladi. Ammo shu bilan birga, qahramon hayot qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishni, o'z qalbini tarbiyalashni, dunyoviy notinchlik hissini bo'ysundirishni boshlaydi. Daniel Defo ijodi tadqiqotchilari, masalan, Robinsonning kulolchilikni o'zlashtirishning uzoq davom etgan jarayoni qahramonning gunohkor mayllarini jilovlash va o'z tabiatini yaxshilash jarayonini ramziy qiladi, deb hisoblashadi.

Butun roman davomida Daniel Defo o'z qahramoniga mag'rurlik, o'z imkoniyatlarini bo'rttirib ko'rsatish bilan ajralib turishini kinoya bilan ta'kidlaydi. Bu ulug'vor qayiqning qurilishi haqidagi epizodda yaqqol namoyon bo'ldi, Robinson "He was pleased with his idea, he did not take the trouble to calculate whether he had the strength to endure it".

Robinson Kruzoning barcha sarguzashtlarida muallifning ta'lim eksperimenti ikki bosqichdan iborat - jismoniy shaxsni tarbiyalash va sinovdan o'tkazishdan iborat. Tor ma'noda, bu mehnat orqali jismoniy shaxsni tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashdagi tajriba va ma'naviy yetuklik, mehnat orqali shaxsning axloqiy kuchini sinovdan o'tkazishdir. Defo shaxsning shakllanishi va rivojlanishining murakkab jarayonini va unda mehnat faoliyatining rolini tasvirlab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пинский Л. Ренессанс. Барокко. Просвещение. – М., 2002. – С. 829.
2. Braudy Leo. Daniel Defoe and the Anxieties of Autobiography. - Genre, 1973, vol.6, No 1. – P. 32.
3. Zimmerman Everett. Defoe and the Novel. - Berkeley; Los Angeles; London, 1975. – P. 50.

JEYN OSTIN ASARLARIDA GENDER TENGLIKNING IFODALANISHIDAGI O'XSHASHLIK VA TAFOVUTLAR

*Kh.B.Bozorova,
BukhSU, 2nd year Master student,
x.b.bozorova@buzdu.uz*

Annotatsiya. Ushbu maqola Jeyn Ostinning "Pride and Prejudice", "Emma" va "Persuasion" asarlarida gender munosabatlarning o'xshashlik va tafovutlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, nikoh, aql, itoatkorlik.

Annotation: The article reveals similarities and differences of gender relations in Jane Austen's works "Pride and Prejudice", "Emma" and "Persuasion".

Key words: gender equality, marriage, intelligence, obedience.

Аннотация: В статье выявляются сходства и различия гендерных отношений в произведениях Джейн Остин «Гордость и предубеждение», «Эмма» и «Убеждение».

Ключевые слова: гендерное равенство, брак, интеллект, подчинение.

Jeyn Ostinning "Pride and Prejudice", "Emma", "Persuasion" romanlarida XIX asr Angliya ijtimoiy hayotida mavjud gender cheklovlari va nikoh masalalari kuchli satira va ironiya yordamida yoritilgan bo'lib, turli siyosiy-ijtimoiy sinflar, xotin-qizlar va erkaklar orasidagi turli ijtimoiy hayot tarsi tushunchalarining qabul qilinishi va hayotga tatbiq etilishidagi o'xshash va farqli jihatlar ochib berilgan.

Jeyn Ostinning romanlarida turli o'xshash va farqli jihatlarni kuzatish mumkin. Quyida misollar orqali har uchala asarda uchraydigan o'xshashliklarni ko'ramiz:

Aql boshqa jins vakillarini maftun etishi

"Pride and Prejudice"	"Emma"	"Persuasion"
To Mr. Darcy it was welcome intelligence: Elizabeth had been at Netherfield long enough. She attracted him more than he liked.	The intelligence, which had been so anxiously announced to her, she was now to be anxiously announcing to another. Her heart beat quick on hearing Harriet's footstep and voice; so, she supposed, had poor Mrs. Weston felt when she was approaching Randalls.	I regard Louisa Musgrove as a very amiable, sweet-tempered girl, and not deficient in understanding, but Benwick is something more. He is a clever man, a reading man; and I confess, that I do consider his attaching himself to her with some surprise.

Parchada, "Pride and Prejudice" asarida prtagonist Darcy Yelizavetta Nizerfildda bo'lganida o'z aql idroki bilan uni maftun qilganini, "Emma" asarida bosh qahramon Emma Harriotning yuksak intellekt egasi ekanligini tan olishini, "Persuasion" asarida esa garchi Luiza yoqimli qiz bo'lsada Benvik aqlda undan ustunligini ko'rish mumkin.

Pulning sevgidan ustunligi

"Pride and Prejudice"	"Emma"	"Persuasion"
1. Her daughter, Miss de Bourgh, will have a very large fortune, and it is	Well, and that is as early as most men can afford to marry, who are not born	Captain Wentworth had no fortune. He had been lucky in his profession;

<p>believed that she and her cousin will unite the two estates.</p> <p>2. Captain Wentworth had no fortune. He had been lucky in his profession; but spending freely, what had come freely, had realized nothing....</p> <p>3. It is a truth universally acknowledged, that a single man in possession of a good fortune must be in want of a wife.</p> <p>4. “Oh, single, my dear, to be sure! A single man of large fortune; four or five thousand a year.1 What a fine thing for our girls!”</p>	<p>to an independence. Mr. Martin, I imagine, has his fortune entirely to make —cannot be at all beforehand with the world. Whatever money he might come into when his father died, whatever his share of the family property, it is, I dare say, all afloat, all employed in his stock, and so forth; and though, with diligence and good luck, he may be rich in time, it is next to impossible that he should have realised any thing yet.</p>	<p>but spending freely, what had come freely, had realized nothing....</p>
---	---	--

Sevgi va muhabbat har 3 asarda ham puldan ustun bolmagan holatda tasvirlangan. Bu tushuncha “Pride and Prejudice” asarida bir necha bor ta’kidlangan. Xususan, asar mashhur jumla “Har bir boy bo’yoq uylanishi kerak” bilan boshlanishi hamda bu munosabat bir necha asar qahramonlari nutqida ifodalanishi fikrimiz dalilidir. “Emma” asarida esa Emma yaqin o’rtog’ining sevganini kambag’al bo’lganligi tufayli unga rozilik bermasligini undagani bir misol bo’lsa, “Persuasion” asarida qahramon Annaning o’z sevgisiga faqatgina uning kambag’alligi uchun ta’qib qilinganligi hamda Vendworz boyib ketgan holatdagina ular turmush qurganliklari pulning Jeyn Ostin asarlarida qay darajada muhimligini ko’rish mumkin.

Erga itoat qilish

“Pride and Prejudice”	“Emma”	“Persuasion”
-----------------------	--------	--------------

Elizabeth could not but smile at such a conclusion of such a beginning; but Mrs. Bennet, who had persuaded herself that her husband regarded the affair as she wished, was excessively disappointed.	The aunt was a capricious woman, and governed her husband entirely; but it was not in Mr. Weston's nature to imagine that any caprice could be strong enough to affect one so dear, and, as he believed, so deservedly dear.	Husbands and wives generally understand when opposition will be vain. Mary knew, from Charles's manner of speaking, that he was quite determined on going, and that it would be of no use to tease him. She said nothing, therefore, till he was out of the room, but as soon as there was only Anne to hear
--	--	--

Har uchchala asarda ayollar turmush o'rtog'larini hurmat qilishlari hamda har qanday holatda ham ularga itoat etishlari yaqqol ko'rsatilgan.

Nikohning muhimligi

“Pride and Prejudice”	“Emma”	“Persuasion”
Without thinking highly either of men or of matrimony, marriage had always been her object: it was the only honourable rovision for well educated young women of small fortune, and, however uncertain of giving happiness, must be their pleasantest preservative from want.	It was, indeed, a highly prized letter Mrs. Weston had, of course, formed a very favourable idea of the young man; and such a pleasing attention was an irresistible proof of his great good sense, and a most welcome addition to every source and every expression of congratulation which her marriage had already secured. She felt herself a most fortunate woman; and she had lived long enough to know how fortunate she might well be thought, where the only regret was for a partial separation from friends whose friendship for her had never cooled, and who could ill bear to part with her.	

Nikoh asar davrida juda ham muhim sanalganligiga juda katta urg'u berilgan. “Pride and Prejudice” asarida Missis Bennetning yagona orzusi faqat qizlarini turmushga berish bo'lsa, “Emma” asarining bosh qahramoni zamondoshlariga munosib

umr yo'ldosh qidirish bilan mashg'ul, ammo nikoh muhimligi "Persuasion" asarida yoritilmagan. Bu esa yuqorida sanab o'tilgan o'xshashliklarning yagona farqidir.

Yuqoridagi asarlar bosh qahramonlarining bir-biriga o'xshashliklarini yana shunda ko'rishimiz mumkinki, ularning har uchasi ham doimo mukammallikka, bilimga intilgan ayollardir. Jeyn Ostinning "Pride and Prejudice", "Emma" hamda "Persuasion" romanlaridagi farqli jihatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

Qahramonlarning yoshi o'rtasidagi tafovut. Yosh insonning fikr-mulohazalariga ta'sir ko'rsatishini inobatga olgan holda buni farqli jihatga kiritishimiz mumkin;

Bosh qahramonlarning ijtimoiy va moliyaviy ahvoli: Yelizavetta Bennet to'liq oilada, moliyaviy ahvoli unchalik ham yaxshi emas. Emma Vudxaus to'liq bo'lmagan oilada, ammo moliyaviy jihatdan erkin va to'kis. Anna Elliot tarqoq va parchalangan oila, moliyaviy ahvoli og'ir.

Yozuvchining u yoki bu asarini bir-biridan ustun qo'yib bo'lmaydi, chunki har biri o'ziga xoslikka ega hisoblanadi. Ularda asar qahramonlarining aqlan va ma'nan yuksalishi barobarida ularning ulg'ayishi tasvirlangan. Ularning har biri o'ziga xos jozibasiga ega ayollardir. Jeyn Ostin mukammallikka erishishda har bir asarida mohirona ustalik qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Spence J. Gender Identity and Its Implications for the Concepts of Masculinity and Femininity // Nebraska Symposium on Motivation, Vol. 32. -Lincoln, 1994. – 560 p.
2. Showalter E. Toward« a Feminist Poetics // The New Feminist Criticism. Essays on Women, Literature and Theory. - N.Y.: Pantheon Books, 1985. – 360 p.
3. Swords Barbara W. Woman's Place in Jeyn Austen' England. Persuasions, 1988. Web. 10 Apr., 2015. – 320 p.
4. Gilbert S. What Do Feminist Critics Want? A Postcard from the Volcano // The New Feminist Criticism. Essays on Women, Literature and Theory. -N.Y.: Pantheon Books, 1985. – 654 p.
5. Gubar Susan and Sandra Gilbert. The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth Century Literary Imagination. New Haven: Yale University Press, 1984. ISBN 0-300-02596-3. – 357 p.
6. Jane Austen. Pride & Prejudice. - New York: Barnes & Noble Books, 2004.
7. Austen Jane. Nothanger Monastrı. – İstanbul: Türkiye İş Bankası yayınları, 2017. – P. 356

GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARI VA UNING NASHRLARI XUSUSIDA

S.F.Muzaffarova,

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari va uning hozirgacha chop etilgan nashrlariga nazar tashlanadi. Bunda barcha nashrlarning tayyorlanish jarayoni, kimlar tomonidan nashr qilingani to’g’risida ma’lumotlar keltirib o’tildi. Shuningdek, nashrga tayyorlovchi tadqiqotchilar tomonidan aynan asarning qaysi qo’lyozma yoki toshbosma nusxalarga tayanganligi hamda nashrlar o’rtasidagi farqli va o’xshash jihatlari biroz yoritiladi.

Kalit so’zlar. “Zarbulmasal”, S.Dolimov, F.Is’hoqov, H.yoqubov, Buyuk Karimiy, qo’lyozma, M.Sale.

Аннотация. В данной статье рассматривается работа Мухаммада Шарифа Гюльхани «Зарбулмасал» и опубликованные на данный момент публикации. Была предоставлена информация о процессе подготовки всех публикаций и о том, кто их издавал. Также исследователи, готовящие публикацию, прольют свет на то, на каких рукописях или литографиях основана работа, а также на различия и сходства между публикациями.

Ключевые слова. «Зарбулмасал», С. Долимов, Ф. Исхаков, Х. Якубов, Буюк Карими, рукопись, М. Сале.

Annotation. This article looks at Muhammad Sharif Gulkhani’s work “Zarbulmasal” and its published publications so far. Information about the process of preparation of all publications and who published them was given. Also, the researchers preparing the publication will shed some light on which manuscripts or lithographs the work is based on, as well as the differences and similarities between the publications.

Key words. “Zarbulmasal”, S. Dolimov, F. Ishakov, H. Yakubov, Buyuk Karimi, manuscript, M. Sale.

Muhammad Sharif Gulxaniy 18-asrning oxiri va 19-asrning birinchi yarmida Qo’qon xonligida yashab ijod etgan shoir va mohir masalnavis hisoblanadi. Gulxaniyning ijodida eng yaxshi insoniy fazilatlar hamda shu bilan bir qatorda o’z zamonasidan noroziligi ham ko’zga yaqqol tashlanadi. Barchamizga ma’lum bo’lgan “Zarbulmasal” asarida ham Gulxaniy o’z davrining eng aktual masalalarini badiiy ifodalab berdi. Bu asar boshqa yozuvchilarning masallaridan farq qiladi va ko’proq “Kalila va Dimna”ga yaqin turadi. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari masallardan iborat bo’lib, Yapaloqqush bilan Boyqush o’rtasidagi qudashlik voqeasini ifoda etadi. Shuningdek, asarning sarlavhasi ham o’quvchini o’ziga jalb qiladi. Chunki bu asar boshidan oxirigacha masallar va hikoyatlardan tarkib topgan. Asar qahramonlarining har bir gaplari biror maqol yoki hikoyatlar bilan bayon etilgan. Ushbu asar ham dastavval, boshqa turkiy adabiy meroslarimiz singari arab alifbosiga asoslangan eski turkiy yozuvda yozilgan. Yillar osha arab alifbosi muomaladan chiqarilib uning o’rniga krill va lotin alifbolariga o’tilganligi tufayli ushbu yozuvda yozilgan adabiy

manbalarimizning barchasi tabdilga muhtoj bo'lib qoldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunga sabab, keyingi avlod arab grafikasidagi manbalarni o'qiy olmasligida edi. Ayni shu holatlarda Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari ham tabdil qilinishligi lozim edi.

"Zarbulmasal" asari sobiq sovet hukumati davrida ikki marotaba ya'ni 1972-yil va 1974-yillarda F.Is'hoqov hamda S.Dolimovlar tomonidan o'qib tabdil qilinib nashrga tayyorlangan. Albatta ushbu yillardagi kitoblar krill alifbosida shakllangan. Keyinchalik mustaqillik yillarida ham ya'ni 2016-yil va 2019-yillarda S.Dolimov va H.Yoqubovlar tomonidan qayta nashrga tayyorlangan. Bular lotin va krill alifbosida tayyorlangan. Ushbu nashrlarning barchasida bir-biridan farqli va o'xshash o'rinlari mavjud. Har bir nashrning tayyorlanishida o'rganilgan manbalar turli xildir. Biz ushbu maqolamizda yuqoridagi nashrlarni ayrim qisqartmalar: 1972-yilgi nashrni N1, 1974-yilgi nashrni N2, 2016-yilgi nashrni N3, 2019-yilgi nashrni esa N4 deb atadik.

1972-yildagi "Zarbulmasal" asari Subutoy Dolimov tomonidan nashrga tayyorlangan. Ushbu kitob maktab kutubxonasi uchun mo'ljallangan. Kitobning dastavval kirish qismida Muhammad Sharif Gulxaniyning hayoti hamda "Zarbulmasal" asari haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan. Bu bilan S.Dolimov ushbu asarni olib o'qiydigan o'quvchida dastlab asar haqida so'ngra asarni yaratgan yozuvchi va uning ijodi haqida ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlab bergan. Bundan tashqari asarning kirish qismida asardagi obrazlarning xarakter xususiyatlari bilan ham tanishtirib o'tiladi. Asar krill alifbosida yozilgan. Asardagi o'quvchi tushunib, anglab yetishi qiyin bo'lgan jumlar va iboralar satrning pastida iqtiboz tarzida keltirilgan. Bular forsiy, arabiy va tojikcha baytlar, iboralar hamda tushunilishi qiyin bo'lgan jumladir. Masalan: Ko'rqush Hudhudga yo'liqqan paytda, Hudhudning savoliga quyidagicha javob beradi:

"Parvozi bandagi bafazoe namerasad

Ey xok, past bosh, balandast osmon..."(1972,14-bet)

ushbu jumlaning ma'nosi *"Bandaning uchishi osmonga yetmaydi, Ey tuproq, past bo'l, osmon balanddir"* (1972,14-bet).

Shuningdek, asarning oxirida Subutoy Dolimov tomonidan asar yuzasidan tayyorlangan, alifbo tartibida joylashtirilgan izohli lug'at ham berib o'tilgan. Aytib o'tish joizki, asar 1972-yil 3-aprelda terishga berilgan va 1972-yil 1-noyabrda bosishga ruhsat etilgan. Asar Toshkentda "O'qituvchi" nashriyatida №3-72 shartnoma asosida nashr qilingan.

Bundan ikki yil o'tib bu asar 1974-yilda ham yana nashr qilingan. Uni nashrga F.Is'hoqov tayyorlagan. Ushbu 1974-yildagi nashrning boshqa nashrlardan farqi shundaki, asar yakunlangach, xotima qismida Gulxaniyning qalamiga mansub qator g'azallardan ham namunalarni uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari, asarga kichik bir annotatsiya ham berib o'tilgan. "Gulxaniy va uning adabiy merosi" nomi ostida kirish qismi berilgan bo'lib, ushbu qismda Gulxaniyning hayoti, ijodi, g'azallari va "Zarbulmasal" asari haqida ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kirish qismni o'qish davomida bu asar ilk marta 1960-yilda H.Yoqubov tomonidan nashr qilinganligi bilib olinadi. Bundan tashqari bu asar rus tiliga M.Sal'e tomonidan tarjima qilinganligi haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, kirish qismida keltirilishicha F.Is'hoqov ushbu kitobni tayyorlashda manba sifatida olti qo'lyozma va o'ndan ortiq bosma nusxalardan foydalangan. Bular quyidagi manbalardir:

Bobur nomidagi Andijon viloyat kutubxonasida 225-inventar raqami ostida saqlanadigan 1856-yilgi nusxa;

Qo'qondagi G'afur G'ulom nomidagi adabiyot muzeyida 1024, 1052 va 1068-inventar raqamlari ostidagi nusxalar (bularning ikkitasi 187-yilda va 1873-yillarda ko'chirilgan va bittasining ko'chirilgan yili m'lum emas);

Ikkita nusxa Buyuk Karimiy qo'lida saqlangan. Ularning biri 1882-yilda ko'chirilgan, birining esa sanasi ko'rsatilmagan hamda chalaroq nusxa bo'lgan;

Dastlabki litografik nusxalar (1890-yil Qozon nusxasi va 1896-yil Toshkent bosmasi).

Olim manbalarni o'rganib ularni bir-biriga taqqoslab, asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzgan. Bu manbalarni topish va ularni o'rganish juda qiyin bo'lgan. Masalan, Buyuk Karimiy qo'lidagi ikki nusxa faqatgina fotokopiyasi orqali o'rganilgan. Shuni aytish joizki, Buyuk Karimiy o'zining qo'lidagi ikki nusxa asosida "Zarbulmasal" asarining tanqidiy matnini tayyorlagan. Biroq bu matn nashr qilinmay qolib ketgan.

F.Is'hoqov tayyorlagan matndan Gulxaniy haqida ham ko'plab ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Chunki, olim Gulxaniy va uning yashagan davri, ijodi hamda u bilan zamondosh bo'lgan buyuk shaxslar, shoirlar va tarixchilarning Gulxaniy haqidagi fikrlarini ham aniq dalillar asosida keltirib o'tgan. Ushbu matnda F.Is'hoqov kitobxonlarga qiyinchilik tug'dirmasligi uchun anglash qiyin bo'lgan jumlar, boshqa tildagi baytlar va iboralarning ma'nosini ham iqtiboz tarzida keltirib o'tgan. Bundan tashqari asar yakunida matn yuzasidan izohli lug'at ham keltirib o'tgan.

Oradan ancha vaqt o'tib mustaqillik davrida 2016-yilda "Zarbulmasal" asari H.Yoqubov tomonidan nashrga tayyorlandi. Ushbu nashr Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti tomonidan nashr qilindi. 2016-yilgi nashr ikki xil yozuvda tayyorlangan. Bular krill yozuvi va lotin yozuvlaridir. Dastlab krill yozuvida "Zarbulmasal" asari va Gulxaniyning g'azallaridan misollar va asar yuzasidan lug'at keltirib o'tilgan. So'ngra ayni yuqoridagilar lotin yozuvida berib o'tilgan. Bu holat ham ushbu nashrning boshqalaridan ustunligini belgilab beradi.

Asarning 2019-yildagi adabiy – badiiy nashri ham Subotoy Dolimov tomonidan tayyorlangan bo'lib bu nashrning 1972-yildagi nashrdan farqlari shundaki, asar nashrga lotin alifbosida tayyorlangan. Shuningdek, asarda kirish qismi mavjud emas ya'ni Gulxaniy va "Zarbulmasal" asari haqidagi ma'lumotlar qismi olib tashlangan. Bundan tashqari bo'lgan barcha jihatlari ikkala nashrda ham bir xildir. Faqatgina kitobdagi sahifalar soni o'zgargan xolos. Bu esa asarning ma'no va mohiyatiga hech qanday salbiy yoki g'ayri ta'sir o'tkazmaydi. Shu sababli biz 2019-yilgi nashrni 1972-yildagi

nashrning lotin grafikasidagi varianti deb bema'lol ayta olishimiz mumkin. Asarning 2019-yilda qayta lotin alifbosida nashr qilinishligi, hozirda o'quvchi kitobxonlarda oz bo'lsada yengillik uyg'otadi. "Zarbulmasal" asarining 2019-yildagi nashri "Yoshlar nigohi" xususiy korxonasida nashrga tayyorlangan. 2019-yil 21-avgustda bosishga ruhsat etilgan bo'lib Toshkent "Yangi nashr" nashriyotida nashr qilingan.

Bu nashrlar o'rganilar ekan, ularning orasida ko'plab farqli o'rinlarga duch kelinadi. Bu farqlarga quyidagilarni aytish mumkin:

- ayrim so'zlar imlosi ya'ni bir so'zning turlicha o'qilinganligi;
- bir-birida uchramaydigan yangi jumlar va so'zlarning mavjudligi;
- masallardagi farqli o'rinlarning mavjudligi;
- ba'zi so'zlarning tushirib qoldirilganligi kabilardir.

Ko'rinib turibdiki, bu holatlar matnshunoslik nuqtayi nazaridan alohida o'rganilishni talab qiladi. Bu holatlarni o'rganib, asl variantni saralash oson kechmaydi. Bunda, albatta har bir nashrning o'rganilgan nusxasi yoki nusxalari qayta ko'rib chiqilib taqqoslanishi lozim. Ayni shu holatdagina bu tavofutlar va farqlarning kelib chiqish asosi aniqlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yuqorida keltirib o'tilgan barcha nashrlarda asarning boshlanish hamd va basmala qismlari tabdildan tushirib qoldirilgan. Va asar barcha nashrlarda "...Roviylar andog' rivoyat qilurlarkim..." jumlasini bilan boshlanadi. Faqat birgina nashrda "Avval roviylar andog' rivoyat qilurlarkim..."deb boshlangan. Bu albatta o'sha matnga asos qilib olingan asarning qo'lyozma nusxasiga bog'liq holat. Asardagi barcha kamchiliklar va farqlarni nashrga tayyorlovchi olimning qo'lyozmani o'qish jarayonida yo'l qo'ygan xatosi deb ayta olmaymiz.

Chunki, nashrga tayyorlovchi olim asarni to'g'ri tabdil qilgan bo'lishi mumkin, ammo asarni kitob holida terish jarayonida biror texnik xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lishi mumkin. Yana bir holat mavjudki, o'zagi bir xil so'zlar turli shaxslar tomonidan turlicha o'qilgan bo'lishi mumkin. Masalan, "Gunashbonu" – "Kunushbonu" shaklida. Bu holat matnning ma'nosiga ta'sir o'tkazmaydi. Aksincha, so'z yozilishi bir xil bo'lganligi va unli harflar qo'yilmaganligi bois paydo bo'ladi. Yana bu kabi holatlar matnda ko'plab ko'zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dolimov S. Zarbulmasal. Toshkent "O'qituvchi" 1972
2. Dolimov S. Zarbulmasal. Toshkent. Yangi nashr. 2019
4. Is'hoqov F. Zarbulmasal. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. – T., 1974
5. Yoqubov H. Zarbulmasal. Toshkent. "Ma'naviyat". 2016

BOLALAR ADABIYOTIDA O'YIN FOLKLORINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Z.A.Amirqulova,
BuxDU, adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti
mutaxassisligi 2- kurs magistranti
z.a.amirqulova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'yinlar jarayonida ijro etiladigan qo'shiqlarning badiiyati xususida so'z yuritish orqali bolalar o'yinlarining asosiy jihatlari va turlari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: O'yinlar, harakatli o'yinlar, ma'naviy (so'z) o'yinlari, xalqona tirm, "Guldur gup", tez aytishlar, sanamalar, "Chitti gul"

ХАРАКТЕРИСТИКА ИГРОВОГО ФОЛЬКЛОРА В ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.

Аннотация. В данной статье освещены основные аспекты и виды детских игр, рассказана художественность песен, исполняемых в ходе игр.

Ключевые слова: Игры, подвижные игры, духовные (словесные) игры, народная песня, «Гулдур гюп», поговорки, числа, «Читти гуль».

SPECIFIC ASPECTS OF GAME FOLKLORE IN CHILDREN'S LITERATURE

Annotation: This article describes the main aspects and types of children's games, talking about the artistry of the songs played during the game.

Key words: Games, action games, spiritual (word) games, folk song, "Guldur gup", quick sayings, numbers, "Chitti gul"

Har bir kishi necha yoshda bo'lishidan qat'iy nazar turli xildagi quvnoq o'yinlardan zavq oladi. Ayniqsa, bolajonlar uchun o'yin davomida beriladigan maqto'v va erkalamalar xush keladi. Bu holat qadimdan mavjud bo'lgan va hozirgi kungacha davom etib, yangicha ko'rinishlarda o'z aksini topmoqda. O'yinlar bolalar faoliyatida alohida rol o'ynaydi va bolalar o'yin folklori sifatida maxsus guruhni tashkil etadi. Bolalar o'yinlari harakatlar va so'z asosida ro'yobga chiqadi. Shunga ko'ra biz dastlab bolalar o'yin folklorini ikkita katta guruhga ajratishimiz mumkin bo'ladi: a) harakatli o'yinlar. Ma'lumki, bolalarning bunday o'yinlari asosini harakat tashkil etadi. Ammo harakat esa o'z-o'zidan voqelikka aylanmaydi, uning yuzaga kelishida taqlid, narsa va poetik so'z vosita vazifasini o'taydi. Alohida ta'kidlab o'tish joizki, bolalar ijrochiligida o'yinlar qo'shiqlar bilan ziynatlangani tufayli favqulodda estetik mohiyat kasb etgan. O'yinlarga mos qo'shiqlar bolalar tomonidan kuylanadi va o'yin davomida qo'shiq so'zlariga mos harakatlar bajariladi. Chunki, harakatdan iborat bo'lgan o'yinlarning uzviy bog'liq qismi sifatida qo'shiqlar o'yinning mazmundorligini oshirib, qo'shiqning yanada ko'tarinki kayfiyat uyg'otishini

taminlab beradi. Bunday vaziyatda u o'yinning debochasini tashkil qiladi yoki o'yindagi harakatning yo'nalishini belgilab, dramatik holatni yuzaga keltiradi yo o'yinga yakun yasab, ishtirokchilarni tarqalishga da'vat etadi. Bunday o'yin qo'shiqlarga misol tariqasida chorlamalar, cheklashmachoqlar, sanamalar, badihalar va tarqalmachoqlarni keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari bolalar o'rtasida keng tarqalgan "O'rta qo'l topish", "Guldur gup" , "To'p", "To'p tosh", "Chittigul" "Oq terakmi, ko'k terak?", "Chuchvara qaynaydi", "Tepdim, sandiq ochildi", "Dumsiz tulki", "Quyoning, quyoning, ne bo'ldi" kabi o'yinlar keng tarqalgan va ularning o'ziga xos qo'shiqlari ham bor. Bunday qo'shiqlar O'zbekistonning turli joylarida turlicha nomda uchrasa ham, mazmuni asosan bir xil. Aytaylik, "Chittigul" qo'shig'ini oladigan bo'lsak, ushbu qo'shiq asosan yosh qizaloqlar tomonidan kuylanadi va qo'shiqqa mos harakatlar qilinib o'ynaladi. Sodda tuzilganligi uchun ham uni yodlash oson, so'zlar soni ham nisbatan kam va qaytariqlar asosiy o'rin egallagan. Ushbu qo'shiqni aytayotganda qizaloqlar davra qurib joylashib oladilar va kaftlarini bir-biriga tekkizib, aylanib, qarsak urgan kabi qo'shiqni ijro etadilar. Naqorat ijrosijarayonida esa aylanayotgan qizaloqlar tezlik bilan juft –juft bo'lishi, bir-birlarining kaftlariga kaftlari bilan uch marta urib kuylashda davom etishgan. O'yin nihoyasida oxirgi marta kaftlari urishtirib, har bir qizaloq o'z o'mida gir aylanib turib:

Ha-yu, chittigul,
Ha-yu!..

der ekan, barchalari birvarakayiga gurra tarqalishgan. Ushbu qo'shiqni kuylayotganda bir qiz o'rtada o'ynab berganligi uchun unga quyidagicha maqtov ham aytilgan:

O'rtada o'ynagan qizning
Haydar kokili yaxshi.
Hay-yu, chittigul,
Hay-yu, chittigul.

Shu yo'sinda qo'shiq va o'yinlar ko'tarinki kayfiyatda davom etgan. Shu singari ko'plab qo'shiqlarda uchraydigan quvnoq va baland pardali boshlanma va tugallanmalarning borligi bolalar folklorining tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan. Bunday qo'shiqlarda o'yinlar asosida dramatik voqelik tasvirlab beriladi va bugungi kundagi bir qancha zamonaviy janrlarning yaratilishi uchun tamal toshi vazifasini o'taydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday harakatli o'yinlar vositasida bolalarning dunyoqarashi, hayotiy tajriba va voqelikni tezda anglash qobiliyati shakllana boradi. Zero, harakatli o'yinning muhim xususiyati shundaki, unda bolalar ayni choqda ham ijrochi, ham tomoshabin rolini bajaradi.

"O'yin folklorining ikkinchi va keng tarqalgan turlaridan biri bu ma'naviy (so'z) o'yinlarida so'zning o'zi bosh rolni o'ynaydi. Bunda so'zning ma'nosini his qilish ,

soʻz ohangini tuyish , soʻzda yashiringan maʼnoni belgilar ifodasi yordamida topish, soʻzdagi tovushlar garmoniyasini ilgʻash, tovushning soʻzda maʼnoni farqlovchi mohiyatni idrok etish mashqlari muhim ahamiyat kasb etadi.” Guldur-gup, tez aytish, chandish, topishmoq janrlari shu kabi oʻyinlar sirasiga kiradi. Misol tariqasida tez aytishlarni keltirib oʻtsak, Tez aytishlar xalq ogʻzaki ijodining bir turi sifatida uzoq yillik tarixiy rivojlanish bosqichini boshidan oʻtkazgan, ushbu janr ogʻizdan ogʻizga otib yillar davomida sayqal topgan. Tez aytishlar talabgorning yanglishib ketishi mumkin boʻlgan oʻzaro ohangdosh soʻzlardan tuzilgan boʻlib ,asosan, jarangli undosh tovushlarning takroriga asoslanib, alohida oʻziga xos ritm va urgʻular bilan tez aytiladi. Bir nafasda tezkorlik bilan tez aytishni koʻproq aytgan tomon gʻolibdeb topiladi. Bundan tashqari , “Guldur gup” oʻyinini ham misol keltirib oʻtishimiz mumkin. Bu kabi oʻyinlar oʻziga xos qoʻshiq va soʻz oʻyinlarini talab qiladi. U bolalar oldiga gapirmaslikni hamda jim turish shartini soʻzlar vositasida qoʻyadi.

Dim-dim-dim,
Mushuk oʻldi,
Oʻraga sichqon koʻmdim.
Dumi qoldi.
Gapirganing ogʻziga
Kim gapirsa,
Bir shapaloq urdim
Uni eydi.

Koʻrinib turganidek, Guldur-gup oʻyini vositasida bolalarni hushyorlikka chorlash, ularda sabr , matonat, chidamlilik xususiyatlarini shakllantirish gʻoyasi yotadi. Oʻyinda ishtirok etgan bola gapirmasligi, agarda gapirgudek boʻlsa unga jazo belgilanishi ajoyib tarzda ochib berilgan. Bu holat , albatta, bolani bardoshlilikka oʻrgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Ushbu oʻyinning turli hududlarda boshqacha variantlardagi koʻrinishlari va aytilishlari uchrasada, ulardan anglashiladigan maʼno –mazmun oʻz yaxlitligini, koʻzlangan maqsadini yoʻqotmaydi:

Otini -ye otini
Qoʻya turgin shotini
Mendan oldin kim gapirsa,
Koʻr gadoyning xotini.

Maʼnaviy oʻyinlarning yana bir keng tarqalgan turlaridan biri sifatida sanamalar keltiriladi. Sanamalar odatda oʻyinning asosiy qismi boʻlmasada, uning muqaddimasi tarzida oʻyinni boshlashdan oldin oʻyinni boshlab beruvchini aniqlash uchun keng qoʻllanilib kelinmoqda. Bu turdagi oʻyinlarda raqamlar asosiy vazifani bajaradi, chunki ular orqali ajoyib ohangdoshlik hosil qilinib,

raqamlar vaznga solinadi. Hamma raqamlar badiiy g'oya tashiy olmaganligi va qo'shiq matniga mos tushavermaganligi tufayli aniq bir birdan yettigacha, birdan o'n oltigacha bo'lganlari ko'proq faol ishlatiladi. Sanamalarning voqeabandlikka asoslangan, bolalarning fikrlash dunyosini shakllantirishga qaratilgan hamda ma'nosiz so'zlardan tashkil topgan ya'ni so'qma kabi turlari keng qo'llaniladi. Sanamalar ham o'ziga xos badiiy vazifa tashiydi:

Bir, ikki, uch... o'n ikki,
O'n ikki deb kim aytdi?
Babala kuchukcha aytdi.
Babala kuchukcha o'lsin,
Bolasi bizga qolsin!

Yuqorida keltirilgan sanama badiiy jihatdan voqeaband sanama hisoblanib, bu turga mansub sanamalarning asosini sanash ritmlari tashkil qiladi. Syujet mantiqan bir biriga bog'langan bo'lib, ikki-uch harakatni ifodalab keladi va o'ziga xos sanash ohangi vujudga keladi.

Oppa-oppa,
Halima — hoppa.
Tilla-milla, Tilla-pilla...
Hoy! Tilla poyezd o'tdimi?
Halima xolam kelibdi,
Murodiga yetibdi,
Bir, ikki.. uch, to'rt...
Besh, olti... besh, olti...
Yetti... yetti...
Yetaklab ketdi!

Shu kabi sanamalar xalq og'zaki ijodining ajralmas, o'ziga janri sifatida rivoj topib bormoqda. Ular bolalarning fikrlash salohiyati va ohanga mos harakatlar qilish qobiliyatini o'stirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodiga asoslangan o'yinlar yanada qiziqarli bo'lishi uchun, albatta, ularning o'ziga xos qo'shiqlari bolishi lozim. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, o'zbek bolalar xalq og'zaki ijodi xazinasida qo'shiq kompozitsiyasiga aylangan o'yinlar katta bir silsilani tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jumaboyev M. “O‘zbek bolalar adabiyoti”. – T.: O‘zbekiston, 2002
2. Jo‘rayev M. “O‘zbek mavsumiy marosim folklori”. – T.: Fan, 2008
3. Jahongirov G‘. “O‘zbek bolalar folklori”. – T.: Cho‘lpon, 1975
4. Jumaboyev M. “Bolalar adabiyoti va folklor”. – T.: O‘zbekiston, 2006
5. Safarov O. “O‘zbek bolalar poetik folklori” . – T.: 1985
6. “O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari”. O. Safarov. Sharq. Toshkent. 2013.

NAQLLARDA LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR HAMDA ULARNING NUTQDAGI AHAMIYATI (O‘ZBEK VA FRANSUZ XALQ ERTAKLARI MISOLIDA)

O.Q. Matyakubov,

*UrDU akademik litseyi fransuz tili o‘qituvchisi
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu tezisda lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan, xususan, o‘zbek va fransuz xalq ertaklaridagi naqllarda lingvokulturologik birliklar hamda ularning nutqdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi, fransuz va o‘zbek ertaklarining turlari xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: arxip, etalon, syujet, ertak qahramoni, nasriy folklor, sentensiya, assotsiativ, noekivalent, lakunlar.

Ertak, albatta, tarixiy hodisa bo‘lib, u janr sifatida ibtidoiy odam afsonalarga ishonishni boshlagan, mifologik fikrlashni to‘xtatgan va sof she‘riy ma‘no ustun rol o‘ynay boshlagan davrda paydo bo‘lgan. Ammo bu tabiiyki, uzoq vaqt davomida sodir bo‘ladigan jarayon va ertak san‘at hodisasiga aylanishidan bir necha asr oldin sodir bo‘ldi. Ibtidoiy jamiyatdagi ertaklar ibtidoiy marosimlar va mifologik e‘tiqodlarga bag‘ishlangan bo‘lib, ular, shubhasiz, haqiqiy odamlar hayotidagi afsonalarni o‘z ichiga olgan va, albatta, ertakchilar ham, ularning tinglovchilari ham «hikoyaning haqiqiylikiga ishonishgan» [1, 65].

Ertaklar odamlar hayotidagi real vaziyatlarninigi aksi sifatida paydo bo‘ladi va haqiqiy hikoyalar sifatida hikoya qilinadi, ammo voqealarning o‘zi o‘sha paytda tabiat kuchlarini o‘zida mujassam etgan turli ruhlar haqidagi mifologik tasavvurlar nuqtai nazaridan talqin qilinadi.

Turli xalqlarning ertaklarida ko‘pincha o‘xshash syujetlar va tasvirlar, g‘oyalar va mavzularni topishingiz mumkin. Buni tushuntirish oson: ular mehnatkash xalq ijodiyoti mahsulidir va ular o‘xshash iqtisodiy va tarixiy sharoitlarni tasvirleydilar. Biroq, ertaklardagi har bir xalq aniq milliy xarakterga ega. Bugungi kunda tilshunoslikda ertaklarning yagona ilmiy tasnifi mavjud emas. Biroq, ertaklarning eng xarakterli guruhlari hayvonlar, sehrli, sarguzashtga oid va maishiy ertaklar kabi turlari bilan farq qiladi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar Shimoliy Afrika, Polineziya va Shimoliy Amerika xalqlari folklorining asosiy qismini egallaydi, ruslar bilan taqqoslaganda, ularning ertak repertuarida faqat tulki haqidagi ertaklar eng mashhur. Hozirgi vaqtda hayvonlar haqidagi ertaklar asosan bolalar tushunchasiga xos. Biroq, dastlab, etnosni rivojlanishining dastlabki bosqichlarida ular muhim rol o'ynagan va mifologiyaning elementlarini o'z ichiga olgan hamda ularning ba'zilari hatto sehrli ahamiyatga ega bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan ertaklar o'zlarining mifologik va sehrli xususiyatlarini yo'qotdilar, oxir oqibat axloq masalalarini ifodalagan masallar, naqlar yuzaga kela boshladi [2, 140].

Ertak bugungi kungacha, albatta, makon va zamonga moslashgan holda yangilangan shaklda saqlanib qolgan va bolalar olamida ayniqsa mashhur bo'lgan. Qadimgi fransuz ertaklari XVII asrgacha faqat og'zaki versiyada mavjud edi. Ular bolalarga mo'ljallangan bo'lib, oddiy odamlar – enagalar, oshpazlar va shunchaki qishloq aholisi tomonidan yaratilgan. Qizil qalpoqcha, Uyqudagi malika, Etik kiygan mushuk, Zolushka, Kichik Annetta (folklor janr), Kurtiyon-Kurtiyet (folklor janr), Sichqon qirolicha (folklor janr), Qish haqida, Burgut va Qirol o'g'li haqida (folklor ertak), Tikuvchi va girdob, Go'zal Janeton, Malika Markassa va Dredan qushi, Shahzoda va ot Bayyar haqidagi afsonalar kabi fransuz ertaklari dunyoga mashhur. O'zbek tilidagi Ur to'qmoq, Echki bolalari, Sehrli shamchiroq, Zumrad va Qimmat kabi ertaklarning barcha ijobiy qahramonlari o'zbek millati talqinida axloq-odobga chaqiruvchi tushuncha bo'lib, xalq ideallarining timsolidir va ularning mehribon, yorqin dunyosiga ertak olamining qorong'u kuchlari qarshi turadi. Ertaklar yakunlari, formulalari, hikoyalar ko'rinishidagi turlari ertakning boy lug'at inventarizatsiyasining ajoyib mazmunini aks ettiradi.

Sarguzashtli ertaklarga kelsak, aksariyat hollarda ular barcha ertak turlaridan so'ng paydo bo'lgan va ko'pincha ular kitobiy kelib chiqish asosiga ega. Maishiy ertaklar o'zlarining ijtimoiy mazmunining keskinligi bilan ajralib turadi, bu esa ularni latifa janriga yaqinlashtiradi. Bunday ertaklar turli xil insoniy illatlar-o'jarlik, ochko'zlik, ahmoqlik, dangasalik ustidan kuladi.

Jahon adabiyoti xazinasini dunyo xalqlari tillariga bir necha bor tarjima qilingan Ming bir kecha sharq ertaklari to'plami, aka-uka Grimmlar ertaklari, Afanasyev A.N. tahriri ostida rus ertaklari kabi ertak janrining eng yaxshi namunalari va durdonalarini o'z ichiga oladi. Adabiy ertaklar, umumxalq ijodi tomonidan yaratilgan ertaklar bilan bir qatorda, butun dunyo bolalari o'qishi uchun sevimli kitoblar ro'yxatiga kiritilgan Ershov P.P., Pushkin A.S., Tolstoy L.N., Saltikov-Shchedrin M.E., Kerol L., Andersen G.X., Xofman T.A., Gauf V. va fransuz adiblari Charles Perrault (Cendrillon), Jeanne Marie Leprince de Beaumont (La belle et la bête), Marguerite de Luber (Princesse Kamion), Édouard Laboulet (Pacha est un berger), Alexandre Dumas (Pierrot), Victor Hugo (Le conte du Lion), Georges Sand (Le chêne qui parle), Anatole France (Bee) kabilar shular jumlasidandir.

Bu ertaklarning barchasi to'qima obrazlar, ayniqsa unda ifodalangan hayvonlarga assosatsiya qilingan obrazlarning o'zaro ta'siri bir qator umumiy xususiyatlar bilan ajralib turadi. Adabiy shaklning odatiy tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: 1) ertak motivida taqiqning mavjudligi; 2) qahramon

tomonidan taqiqnining buzilishi; 3) bunday qoidabuzarlikning o'sha davr mifologik g'oyalariga mosligi; 4) amaliy sehrga murojaat qilish; 5) sehrning ijobiy natijasi va qahramonning g'alabasi.

Ushbu turdagi ertaklarning har biri ushbu asarlarning tuzilishini asl hikoya asosi sifatida anglatadi. Har bir ertak sehr, mo'jiza aralashuvisiz amalga oshirilmaydi. Ertak janrini eng to'liq o'rgangan olim rus adabiyotshunosi Propp V.Y. hisoblanadi u ertakning morfologik asosini ishlab chiqadi va uni doimiy va barqaror elementlar, funksiyalar mavjud bo'lgan yagona tizim sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi. Propp V.Y.ning fikricha, harakat motivlari qahramonlarning voqelik davomida bajarayotgan vazifasi yoki harakatiga qarab o'zgarib boradi [3, 85]. Xulosa qilib aytganda, ertak janri syujet va belgilar tizimi kabi tarkibiy qismlarning mavjudligini ham o'z ichiga oladi. Syujet esa maxsus janr usullariga asoslanadi va qahramonlar tizimi sodda va uyg'un va ular har bir ertakda boshqa adabiy asar janridan tubdan farq qiladi.

Bilamizki mamlakatimizda hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, o'zbek hamda fransuz tilshunosligida ham eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi. Shuningdek, lingvokulturologik yondoshuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida ham oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Masalan, Z.I.Saliyevaning nomzodlik ishi o'zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya'ni axloqiy-ta'limiy harakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlariga bag'ishlangan.

Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui demakdir [4, 85].

Ma'lumki, lingvokulturologiya fanining obyektini xalq madaniyatining tilda yorqin ifodasini o'zida namoyon etuvchi noekivalent leksika va lakunlar, tilning stilistik jamlanmasi, til birliklarning miflashgan ko'rinishlari: arxitip va miflar (asotir va rivoyatlar), tilda o'z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o'xshatish va metaforalar hamda o'zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllari tashkil etadi.

Bu borada lingvokulturologik obyekt bo'la oladigan naql hamda maqollarni quyidagicha tahlil qilamiz va ularning nutqdagi o'rni haqida gaplashamiz.

"Bir mayizni qirq kishi bo'lib yeydi". O'zbek xalqiga xos bo'lgan eng oliy xususiyatlardan biri ahillik, inoqlikdir. Bu bizga ajdodlarimizdan singgan fazilatdir. Bir mayizni qirqqa bo'lib yeyishlik, o'zi yemay o'zgaga ilinishlik xalqimizga xos

bo'lgan insoniy fazilatlariga ishora qiladi. "Bitta qaldirg'och kelgani bilan bahor bo'lmas". Qaldirg'och xalqimizda yaxshilik, qut-baraka elchisi sifatida e'zozlanadi. Shuningdek, u bahor darakchisi. Naqlning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qiladigan bo'lsak, u mazmunan "Qars ikki qo'ldan chiqadi" naqliga sinonim hisoblanadi va avvalgi naqlga hamohang tarzda uni to'ldiradi. Aynan qaldirg'och obrazining olinganiga sabab xalqimizda bu qushga nisbatan o'zgacha qarash, mehr tufayli. Bu esa naqlda etalon sifatida o'z aksini topgan. "Do'ppining ichida odam bor". Bu naql mazmunan "Devorning ham qulog'i bor" naqliga o'zaro sinonim hisoblanadi. Bu naqlning tahliliga to'xtalsak, har bir narsani har joyda aytmaslik kerakligini uqtiradi, kishini ogohlikka xushyorlikka chorlaydi. Unda ham etalon sifatida do'ppi so'zi olingan. "Hashar qildim-uy qurdim, Bunda ko'p hikmat ko'rdim". Hashar o'zbek xalqiga xos bo'lgan udum sanaldi. Ya'ni uy ko'tarmoqchi (qurmoqchi) bo'lgan yoki mamalakat obodonchiligi yo'lida qilinadigan umumxalq mehanatidir. Bizga ma'lumki, hasharga do'st-u birodarlar, yaqin qarindoshlar yordamga keladi. Hasharda birdamlik, ahillik kabi samimiy tuyg'ular o'z aksini topadi. Shuning uchun, hashar qilgan inson ko'p hikmatlarning guvohi bo'ladi. Ya'ni do'stlarining sadoqatini, mehribonligini ko'radi. Bu naqlda etalon sifatida olingan hashar so'zi lingvomadaniy birlik sanaladi.

"Holva degan bilan og'iz chuchimas". Bu naql mazmunan "Olma pish, og'zimga tush" naqliga sinonim. Zamirida, dangasalik, tayyorga ayyorlik kabi xislatlarni qoralab, mehnatsevarlikka, o'zi ishlab, halol mehnat bilan pul topishga chorlaydi. Ya'ni inson biror nimani orzu qilganligi bilan u amalga oshib qolmaydi, uning amalga oshishi uchun, albatta, harakat qilish kerakligi uqtirilmogda. Etalon bo'lib kelgan so'z "holva" o'zbek milliy shirinligi hisoblanadi.

"Non ham non, ushog'i ham non". Dunyoda o'zbekchalik nonga yuksak hurmatda bo'lgan xalq bo'lmasa kerak. Ulug'larimiz ham "Nonday aziz bo'lg'in" deb duo qilishadi. Farzandlarga yoshligidan "Nonni ushatmay ye", "Nonni bosma", "Nonni ko'zingga sur" deya tarbiya berishadi. Bularning barchasi xalqimizda nonga bo'lgan e'tibor, o'zbekona qarashdan darak beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lingvokulturologik birliklar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalari, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalaydi. Va ularning nutqdagi o'rni azaldan o'zining hayotiy muammolarini – mehnat mashaqqati, g'amanduhi, rohat-farog'ati, muvaffaqiyat va mag'lubiyati, rasm-rusumlari – hamma hammasini maqol va iboralarda ko'zgudagidek aks ettirib keladi.

Ushbu lingvokulturologik birliklarning nutqdagi o'rni beqiyos hisoblanib gapirayotganimizda ularni aytishni xohlaymiz. Go'yoki ularsiz nutqimiz chiroyli bo'lmay qolganga o'xshab ko'rinadi. Chunki ular o'xshtishlar orqali so'z ma'nosini bezaydi. Ammo bu lingvokulturologik birliklarni ishlatishning o'z o'rni bor bo'lib ularni o'z o'rnida mohirona qo'llay olish so'z boyligini oshiradi. Shuning uchun ham o'zbek xalqi purma'no so'zga, o'git-u naqlarga boy xalq sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мелетинский Е.М. Типологические исследования по фольклору. - М.: Высшая школа, 1975. – 328 с.

2. Мелетинский Е.М. Избранные статьи. Воспоминания. М.: Восточная литература, 2003. – 279 с.
3. Пропп В.Я. Морфология сказки. М.: Высшая школа, 1969. – 152 с.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012.

ULUG'BEK HAMDAM HIKOYALARIDA RUHIYAT TASVIRI

*H.I.Norova,
BuxDU Filologiya fakulteti
Adabiyotshunosligi (o'zbek) mutaxassisligi
2-bosqich magistranti
n.i.norova@buxdu.uz*

Annotatsiya. Maqolada Ulug'bek Hamdam hikoyalarida mavzu va g'oyalar ko'lami, inson kechinmalarining badiiy talqin etilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: hikoya, mavzu, g'oya, oilaviy munosabatlar, obraz, hayot hodisalari talqini, so'z.

Mustaqillik davrida hikoya janri rivojlanib, takomillashib bormoqda. Zamonaviy hikoyachilik mavzular olami, g'oyaviy ko'lami, badiiyati jihatidan xilma-xil o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Istiqlol davri hikoyachiligiga barakali hissa qo'shib kelayotgan yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "So'z" va "Qaytish" hikoyalari misolida hozirgi davr o'zbek hikoyachiligiga xos yangilanishlarni kuzatish mumkin.

"So'z" hikoyasini o'qir ekan, kitobxon shuurida, qaysidir jumla, so'z inson taqdiriga ta'sir ko'rsatadi, balki qahramonni u yoki bu tomonga boshlar, qalbini og'ritar degan o'ylar kechadi. Hikoyada er-xotinning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabati (menga shunday tuyuldi) tasvirlari bilan boshlanib, bu hikoya yarmiga qadar davom etadi. Ancha yillar birga yashab, bir o'g'il va bir qizni voyaga yetkazib, jamiyatga qo'shishadi. Turmushi chiroyliligidan er har qadamda xotinini erkalab, parvona bo'ladi. Endi o'zlari uchun yashashlarini bot-bot takrorlaydi. Xotin esa doimgidek jilmayadi. Xullas, hayotidan mamnun va unga sherik go'zal tabiatdan zavqlangan er xotining dugonasiga "bema'ni kun bo'lganligini, tezroq ketish payida" ekanligini aytayotganda eshitib, haykaldek qotadi... Shundan so'ng o'quvchiga mavzu ochiladi. Qahramon o'tgan umrini sarhisob qilishga, umrining qaysi nuqtasida xato qilganini o'ylab, bundan battari yuz beradi: "hayotining hozirgi MA'NISIZ bo'lagi MA'NILI o'tgan qismini kemirishga kirishdi".

Hikoyada so'z qudrati masalasi talqini orqali er-xotinning hayot yo'li, oilaviy munosabatlari, ko'ngil nozikliklari, so'zning kuchi kabi muammolar ochili boradi. Butun umr jilmayish ortida yashiringan "oyna" so'z orqali aks berdi. Qachon qahramonning taqdiri bu "BEMA'NILIK"ka kelib qolibdi, buni u sezmad. Yozuvchining maqsadi ham aslida shu edi: mavzuni ochadigan jumlaning o'z o'rnini va me'yorida qo'llashdir. G'oya ijodkorning nazarda tutayotgan voqelikka munosabati bo'lsa, mavzu aks ettirilayotgan voqea-hodisalarning umumlashmasi, ya'ni badiiy asar uchun tirkak bo'lgan asosiy fikr va maqsad obyektining ekanligiga yana amin bo'lamiz.

Bundan tashqari, hikoyada Zaxariqdaryoning umrning uch pallasida uch xil ko'rishi ramziylik ifodasi sifatida keltirilgan. Nega umrning har pallasida daryo har xil ko'rinish beradi? "Dunyo bu – kenglik bo'lib, unda o'zini yo'qotgan ayol " obrazi va Nega? Nega? Nega? deya javobsiz savollar qurshovida qolgan er obrazi daryoning qaysi xilini ko'rdi?! Ha, ular har ikkisi ham zax suvni ko'rayotgan edi (Garchi er keyinroq bu ahvolga tushsa-da). Asar mutolaasidan so'ng, bizningcha, kitobxon shu kabi o'ylar bilan yashaydi. Zero, yashamasa, hikoya bu qadar ta'sirli chiqmas edi.

"So'z" hikoyasida novatorona yondashuvning guvohi bo'lamiz. Unda "O'tgan kunlar" romanidagi Yusufbek hoji kabi ayolining barcha chaladumbul tabiatiga chidab kelayotgan er obrazining an'anaviylikdan chekingan yangicha talqinini ko'ramiz. Bir og'iz so'z bilan umrining besamar ketganligini anglagan erning ruhiy qiynoqlari, birgina so'zning inson umriga ulkan ta'siri o'zgacha bayon uslubida yoritiladi. Butun umrni bema'ni qilgan, xotirani zaharlagan so'zdan er "asabiylashar, siqilar, ezilar, erning ichi kundankun sho'rlab borar", "erkakning ichi-ga tushgan tuz zahri ortib borardi". Bu kabi talqinlar bilan yozuvchi bir tomondan ko'ngilning qanchalar nozik ekanligini tasvirlasa, ikkinchi tomondan so'zning qudratiga ishora qiladi. Shuning uchun ham adib hikoyaning avvalgi nashrdagi sarlavhasi – "Bir og'iz so'z"ni keyingi nashrida "So'z" nomiga almashtiradi".

Hikoyalardan oladigan g'oya oddiy turmushdagi shunchaki mantiqiy xulosa emas, balki hayotni bevosita mushohada qilish, obrazli va hissiy bo'yoqlar bilan ifodalashga asoslanadi. Sochilgan yomg'ir tomchilaridek hikoyadagi har bir so'z, jumla, fikr qahramonlar o'y-xayollari, kechinmalaridan yig'ib olingan xulosadir. Shu o'rinda Xurshid Do'stmuhammadning qarashlarini eslab o'tsak: "Ulug'bekning qalamiga mansub hikoyalarda hech bir narsani tashqaridan o'rganish bilan kifoyalanilmaydi, aksincha, gap nima haqida bormasin, hamisha bosh maqsad-mohiyat bo'lib qolaveradi muallif uchun".

Raqamlar bilan ajratilib, to'rt qismdan iborat "Qaytish" hikoyasi voqealariga ko'ra birdan bir inson ishdan ketadi. O'lmasdan burun ishdan ketishi, bundan tashqari qayerga ketayotgani noma'lum hikoyachining asabiylashgani bilan boshlanadi. U inson ayolidan ajralgan, ikkita farzandi o'zi bilan ovora bo'lib ketgan hayotda ham, xayolda ham yolg'iz. Ustiga ustak qirq yillik mehnatdan so'ng ishdan ham ketdi. Endi tabiat ham, atrof ham unga begonadek. Nega shularning borligini avval anglamadi yo ko'rmadi? Uning yolg'izlikka hukm qilingan ruhi va tanasi ko'nika olarmikan? Qirq yil payqamagan ko'chalarga, daraxtlarga, qushlarning sayrashi-yu, gullarning hidiga endi e'tibor berdi, undan shuncha yil bebahradek yashagan edi. Endi xuddi yoshligida ko'rganidek o'sha manzarani yana payqadi. Ruhiyatidagi kechinmalarni idrok qilish qiyin kechdi. "Uning kimsasizligi bugun boshlanganga o'xshaydi". Nega bu yoshda yolg'iz qoldi? Farzandlaridan yiroqda tanholikka kim uni hukm etdi? U barcha xonalardagi chiroqlarni yoqib chiqsada, ko'ngli yorishmadi. Buyog'iga qanday yashash haqida o'ylay boshladi. Yolg'izligini nega endi his qildi. Kelasi kuni najotni hovlidan, hovlidagi ishlardan: gullarni o'tlardan tozaladi, supurdi... Balki bu ketish bularni anglab yetish uchundir.

“Keksa nigohlarini endigina nish urib turgan-daraxt-u gullar, o‘tu o‘lanlar o‘sgan kaftdekkina yer maydoniga tikdi. Uzoq vaqt shunday o‘tirib qoldi. Shunda kimdir unga “Sen yolg‘iz emassan!..” deyayotgandek bo‘ldi... Bir seskandi-da, qo‘zg‘alib yurdi. Dimog‘iga suv sepilgan tuproqning bahor aralash hidi urildi. Ko‘ngli bir ko‘tarilib tushdi. Lekin o‘zini tutdi. Daraxtga yaqinlashib, unga xuddi odamga qaragandek qaradi. Birdan botinida nimadir ko‘chdi... Ko‘chdi-yu, o‘zini daraxtga tashlab, uni mahkam quchganicha avvaliga unsiz, keyin negadir piqillab yig‘lab yubordi. Uzoq, juda uzoq vaqtdan beri ko‘zlaridan bir tomchi yosh chiqmagan bu qariya endi yelkalari silkinib-silkinib, ichlari ag‘darilib-ag‘darilib yig‘lar, yig‘lagan sari butun umr yig‘ilgan qatlam-qatlam sitamlari ko‘chib chiqayotgandek yengil tortardi...”

Lekin endi qaytdi... Zulmatni yengib o‘tdi. O‘zligiga qaytdi. Bu qaytish insoniyatning hech qanday jangu jadalsiz o‘zini tanib olishi edi, o‘ziga qaytishi edi.

Ikkala hikoyadagi obraz ham dastlab tashqi ko‘rinishidan hayotiy tashvishlar bilan bog‘langan, ammo qalban yolg‘iz qahramonlardir. Ularni yolg‘izlik birlashtiradi. Oilasi bo‘lasi bo‘la turib, ulardan “olis” insonlardir. Ikkalasi ham hikoya davomida o‘z-o‘zini taftish qiluvchi, o‘zidan ko‘ngli to‘lmagan insonlar timsolidir. Umuman olganda, hikoyada insonning o‘zini anglash, tushunish, o‘zligiga qaytish jarayonlari, ruhiy iztiroblari qalamga olingan.

Adib hikoyalarda inson ruhiyati, kechmishi, iztiroblari o‘ziga xos tasvir etiladi. Yozuvchi asarlari kitobxonni o‘yga toldiradi, insonni tushunishga, uning qalb iztiroblarini anglashga o‘rgatadi.

Umuman olganda, ijodkor hikoyalari kishini o‘zlikka qaytishga, uni anglashga, insoniylikka chorlovchi adabiy asarlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umuruv H. Adabiyot nazariyasi: Oliy O‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.
2. Норматов У. Кичик жанрнинг катта имкониятлари. / “Ватан ҳақида кўшиқ”. – Т.: Академнашр. – 425 б.
3. Ҳамдам У. Тўлин ой қиссаси. – Тошкент: О‘zbekiston, 2017. – 360 б.
4. Hamdam U. Yaxshiyam, sen borsan. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 238 b.
5. Do‘stmuhammad X. Hamdam U. Yaxshiyam, sen borsan. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 238 b.

ISAJON SULTONNING “FARISHTA” HIKOYASIDA OBRAZLAR RUHIYATI TALQINI

*N.U.Shodiyeva,
BuxDU adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti
mutaxassisligi I bosqich magistranti
n.u.shodiyeva@buxdu.uz*

Annotatsiya. Badiiy asar shunday bir yaxlit sistemaki, unda obrazlar ruhiy olami butun murakkabliklari, xarakter-xususiyatlari, sehri bilan aks ettiriladi.

Albatta, bu o'rinda eng ahamiyatli jihat ularning ruhiyatidir. Ushbu maqolada Isajon Sultonning "Farishta" hikoyasidagi obrazlar ruhiyati talqin etiladi.

Kalit so'zlar: psixologizm, xarakter ruhiyati, ramziy timsollar.

O'zbek adabiyoti istiqloq davrida asosiy e'tiborni insonning ichki olamiga qaratdi. Bunda psixologik tasvir asosiy o'rin tutadi. Psixologizm-adabiyotshunoslikda qo'llanadigan atama bo'lib, u asar qahramonlarining his-tuyg'ulari, ehtirolari, o'y-kechinmalarini batafsil ifoda etish vositasi. Ma'lumki, ruhiyat tasviri ustun bo'lgan asarlarda ijodkor e'tiborni tashqi detallarga emas, ichki tomonga qaratadi. Bunday asarlarda qahramonlarning tashqi qiyofasidan-da ko'proq ularning kechinmalari aks ettiriladi. Zero, "Badiiy asar- insoniyat tarixining qaysi qatlamini tasvirlamasin, uni birinchi galda inson sifatidagi o'y-fikrlari bilan yoritish lozim" [1]. Ma'lumki, hikoya hajman kichik bo'lsa-da, unda bir nechta qahramonlar orqali umuminsoniy mavzular yoritiladi va o'zida davr ruhini aks ettiradi. "Hikoyachilik janrining badiiy takomiliga xos belgilardan biri shundan iboratki, yozuvchilarimiz yuzaga kelgan ijodiy erkinlik tufayli, noan'anaviy ko'rinishdagi, yangi tipdagi qahramonlarni, o'ziga xos milliy xarakterlarni adabiyot maydoniga olib kirdi"[2].

Bugungi o'zbek nasrida o'z o'rniga ega bo'lgan, nodir durdona asarlar yarata olgan Isajon Sulton hikoyanavislikda o'z uslubiga, o'z ovozigaga ega. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, adibning hikoyalari xuddi Oybek singari ulkan asarlar, ya'ni romanlari uchun xamirturush vazifasini o'taydi. Adib uslubining o'ziga xosligi shundaki, u o'z fikrlarini tog'ridan to'g'ri emas, balki ramzlarga burkangan holda ifoda etadi. Adabiyotshunos Olim Yo'ldosh Solijonov Isajon Sulton nasridagi ramziy timsollar muhim o'rin tutishini quyidagicha izohlaydi: "Uning nazarida tabiatning har bir bo'lagi, hodisasi hayot falsafasi bilan to'la bo'lib, ular orqali bu murakkab hayotning qandayligi turli ramziy timsollar vositasida teran anglashga undaydi. Adib ijodida, ayniqsa, "Havolarni almashtiradigan va tabiatni jo'shtiradigan" shamol, suv, bulut, yomg'ir kabi tabiat unsurlari muhim o'rin tutadi va muallifga qahramonlari holatini, ichki olamini, muhit hamda vaziyatni yana-da ishonarli ifodalashga xizmat qiladi"[3]. Shuningdek, uning hikoyalardagi syujet, qahramonlar, tasvir vositalari hayotiyli bilan o'ziga xos ahamiyatga ega.

Isajon Sultonning "Farishta" hikoyasi Farg'onaning chekka qishlog'ida erotin to'ydan qaytayotganligi tasviri bilan boshlanadi. Ma'lumki, hikoyada syujet tayyor holda olib kiriladi. Ushbu hikoyada dastlab to'g'ridan to'g'ri tugun keltiriladi: "Terakzorlar adog'ida, chakalakzor boshlangan joyda ko'rib qolishdi uni. Kichkinagina ekan. Oyoqchalari ham mittigina. Tuproqni changallab olibdi, yelkasida ikkita qanotchasi ham bor, uchidagi patlari shundoqqina loyga belanib, shalvirab tushibdi. Bir qanoti g'ayrioddiy qayrilgan, xullas, g'ujanak bo'lib yotar edi" [4]. Shu o'rinda kitobxon tasvirlanayotgan narsa nima ekanligiga toboro qiziqib boradi. Birinchi bo'lib xotini buni ko'rib qoladi va turmush o'rtog'iga ham aytadi: "- Voy, anavini qarang! - dedi xotin, uni ko'rib. Bir nimalarni o'zicha to'ng'illab kelayotgan er "Bor-e" dedi, keyin baribir xotining gapiga kirib, u ko'rsatgan tomonga qaradi-da "Iya" deb yubordi ko'zlariga ishonmasdan. Hali mislsiz qahramonliklar ko'rsatib, qishloq ahlini lol qoldirishni xayol qilib ketayotgan bu

kishining o'ylari-yu xayollari zumda kapalaklarday to'zg'ib ketdi, yaqin borishga jur'at qilolmay to'xtadi-da, ko'zlarini katta-katta ochib, achinarli ahvolda yotgan mana shu mitti oqish vujudga tikilib qoldi" [4]. Bunda ikki jihat ko'zga tashlanadi. Birinchidan, o'zbek erkaklari ayollari gapiga ko'nmasligi, ularni o'zlaridan bir pog'ona yuqori ko'rishlari, ular haq bo'lsa-da, ko'p o'rinlarda buni tan olishga g'ururlari yo'l qo'ymasligi, bora-bora baribir dono ayolining so'zlari tog'ri bo'lib chiqqanligiga ishora bor. Ikkinchidan, umuminsoniyatga xos tuyg'u- umidbaxsh sadolar bilan yashash, kelajakka umid bilan boqish, doim ezgu niyatlar qilish. Ayni paytda, shu ulkan orzular qurshovida yashash insonga kuch beradi, uni hayotda yana-da ildam qadamlar tashlashga undaydi. Hikoyadagi mitti oqish o'z xayollari girdobiga g'arq bo'lib kelayotgan er-u xotinni bir zumda gangitib qo'ydi: "E tavba, dedi hayron bo'lib, xayolida turli-tuman o'ylar nihoyasiga yetmasdan chirpirak bo'lib aylanarkan. Farishtaning ham bolasi bo'lar ekan-da? Hali mo'rt, suyagi qotmapti-ku. Kichkinaligini qara! Voy bechora... Qushday uchib ketayotgan ekan, yiqilib tushganga o'xshaydi. Mana, qanaqa bo'lar ekan farishta deganlari... E tavba, a, xudoni qudratini qara-ya" [4].

Shu jonzot sabab qahramonlar qalbi bo'shliqqa yuz tutadi. Bu bo'shliqda esa turli xil savollar gir aylanib, butun vujudini inja hislar qurshab oladi: "Uning ko'ngli shu tob yaxshiliklarga limmo-lim to'lib ketganday tuyula boshladi. O'zining birdaniga juda yaxshi odam bo'lib qolganini his qildi, bu juda yoqimli va tiniq tuyg'u, hatto sarmast ham qilardi. Farishtaning o'ligi-ki odamning ko'nglini shunaqa o'zgartirsa, tirigi qanaqa bo'lar ekan, demoqchi bo'ldi xotiniga. Axir, yuragim yorug'likka to'lib boryapti. Ko'p javraganing bilan sen ham yaxshi xotinsan, ke, qo'lingni beraqol. Shu murg'ak vujudning mana shu yotishi nimagadir ko'zimda yosh paydo qilmoqda. Bir-birimizga mehr-oqibatliroq bo'laylik, qara, ajal degan narsa farishtalarni ham omon qo'ymas ekan-ku?"[4]

Bu o'rinda farishta ramziy obraz bo'lib, inson qalbidagi eng ezgu, sof tuyg'ular ramzidir. Aslida, har bir inson dunyo yuzini ko'rgan ilk pallalarida shu farishta kabi beg'ubor, sodda bo'ladi. Ammo hayot atalmish doshqozonda qaynab-qaynab, uning dilidagi shu poklik qoralikka aylana boradi. Shuni ham aytish kerakki, inson hayoti davomida o'z nafsini bilan kurash olib boradi. Ba'zan nafsiga yengilib, ko'p gunoh ishlarga qo'l uradi. Lekin qalbining bir chetida sassiz, sadosiz, hikoyadagi nimjon, qanotlari qayrilgan farishta kabi ezgulik uchquni yorug'lik taratib turadi. Ammo hamma ham bu yorug'likni his qila olmaydi. Bunga nafsini yo'l qo'ymaydi. Hiloyadagi it obrazi nafs timsoli bo'lib gavdalangan: "Sal narida esa katta bir kuchuk bularga xo'mrayib qarab turardi. Qaydan kelgani ham noma'lum edi, tevarakda bunaqa kuchuk yo'q edi"[4].

Hikoyadagi it insonlarning farishtaga yaqinlashishiga to'sqinlik qiladi va uni tishlab, chakalakzor oralab olib ketadi. Kishi nafsini doimiy tarzda o'zini ta'qib qiladi va iloji boricha, uni o'z yo'rig'iga solishga harakat qiladi. Hikoyada shu jimitdekkina yog'du ko'ngli dunyo tashvishlaridan xiralashgan qahramonlarning qalbini ravshan qiladi, iymon uchqunlarini yog'diradi: "Hozir murg'akkina bo'lib, loyga qorishib yotganini ko'z oldimga keltirsam, o'pkam to'lib ketyapti. Xuddi o'zim ham... yiqilib tushganmanu umrim bo'yi loyga qorishib ketgandayman..."[4].

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, hikoyaga sinchiklab nazar tashlasak, undagi har bir detal, har bir obraz qahramonlar ruhiy olamini teranroq anglashga, ularni his-tuyg'ulari, kechinmalarini ifodalashga xizmat qilmoqda. Hikoyada ezgulik, mehr-oqibat kabi fazilatlar ulug'langan, nafsni yengish, iymonni mustahkamlashga da'vat etilgan. Shuningdek, Isajon Sulton opz hikoyasida inson va uning ruhiy olami, umuminsoniy qadriyatlar, oilaparvarlik kabi fazilatlarni o'zaro mujassamlashtirib ifodalaydi va bu umumlashma mavzularni yoritishga turtki bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Белинский В.Г. Адабий орзулар.- Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 11-бет
2. Doston Xolmatov —Hikoyalarda davr va qahramon masalasi|| maqola. SCIENTIFIC PROGRESS Farg__ona davlat universiteti
3. Isajon Sulton nasri badiiyati (Ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar).- Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
4. I. Sulton. Asarlar. Hikoyalar. 1-jild. Toshkent: G'afur G'ulom.

O'TKIR HOSHIMOV HIKOYACHILIGIDA MILLIY PORTRET

N.I.Xayriyeva,
BuxDU, O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
1-bosqich magistranti
n.i.xayriyeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Hurkitilgan tush" nomli hikoyasi tahlil qilingan. Xalq milliy koloritini ta'minlab turuvchi asosiy omillaridan biri milliy portret bo'lib, uning hikoya kompozitsiyasidagi maqomi xususida mulohaza yuritilgan. Maqolada obrazlar tahlili asosiy o'rin egallagan.

Kalit so'zlar: portret, milliy portret, adabiy portret, personaj, obraz, prototip, xarakter, tip.

Kirish. O'zbek adabiyoti va publisistikasiga ulkan hissa qo'shgan fidoyi ijod ahllaridan biri "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi bo'lgan sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimov yorqin ijod mahsullari orqali hamisha el-yurt ardog'ida bo'lib kelgan. O'tkir Hoshimov davr muammolarini o'zida aks ettirgan romanlari, his-hayajonga to'la qissalari, haqiqiy o'zbek xalqi hayotini ko'rsatib bergan, adolatni bayroq qilgan sahna asarlari hamda yangicha xarakterdagi "shumliklar"i orqali milliy adabiyotimiz ummonini tiniqlashtirib boyitdi. Yozuvchining qator hikoyalari ham shu ummonning to'lqini kabi mavjlanib e'tiborimizni tortdi va "Hurkitilgan tush" hikoyasi tahlilimiz manbasiga aylandi.

ASOSIY QISM

Portret fr. “partrait”– tasvir soʻzidan olingan boʻlib, lugʻaviy maʼnosiga “aslini tasvirlash”– deya izoh beriladi [1]. Istilohiy maʼnoda esa uch hodisani ifodalaydi:

1. Badiiy asarda kishining tashqi koʻrinishi, qiyofasi, kiyim-kechaklari, rang-roʻyi, feʼl-atvori, oʻzini tutishi va h.k.ni anglatadi. Portret badiiy obraz yaratishning muhim shartlaridan biridir.

2. Ayrim yozuvchi, shoir, jamoat arbobi, sanʼatkor yoki olimning hayoti va faoliyatini ilmiy-estetik jihatdan umumlashtiruvchi asar turini bildiradi.

3. Tasviriy sanʼat, umuman sanʼat asarida inson qiyofasini aks ettiruvchi mustaqil janr” [2].

Oʻtkir Hoshimov oʻziga ustoz deb bilgan Said Ahmad ham shogirdi shaxsi va asarlari borasida mulohazalarini rosmi bayon etadi. “Ijod va jasorat” maqolasida jonkuyar shogirdining adabiyotimiz rivojida sezilarli hissasi borligini taʼkidlaydi. Sohibqiron Temur shaxsi qoralanayotgan bir paytda Oʻtkir Hoshimovning bir qator maqolalar eʼlon qilgani, bir paytlar badnom qilingan “Temur tuzuklari”, “Zafarnoma”, “Kecha va kunduz” asarlarlarini oʻzi bosh muharrir lavozimida faoliyat olib borayotgan “Sharq yulduzi” jurnalida chop etganini, shuningdek, Qurʼoni Karimning oʻzbekcha tarjimai nashrida ham jonbozlik koʻrsatganini eʼtirof etadi. “Dunyoning ishlari” qissasi haqida bunday deydi: “Dunyoning ishlari”ni qissa emas, doston deb atashni istardim. U qoʻshiqday oʻqiladi. Uni oʻqib turib, oʻz onalarimizni oʻylab ketamiz...” [3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Adibning bolalalik shoʻxliklari va begʻubor damlari begʻaraz va pok tuygʻular tarannumi aks etgan ushbu hikoya har qanday insonga yoshlikni, eng tashvishsiz davrlarni esga soladi. Hikoyaga Avstriyalik yozuvchi Stefan Sveygning “Koʻngil vayron boʻlishi uchun taqdirning ojizgina zarbasi kifoya” degan fikri epigraf sifatida tanlangan. Hikoya davomida bu jumla maʼnosi oydinlashib boradi. Hikoya bosh qahramon – bola portreti bilan boshlanadi: “Tishlari toʻkilgan kemshik bola edim...Ovozi doʻrillab qolgan Melivoy koʻkkoʻzni aytmasa, hammamiz yosh bolalar edik...” [4.27].

Ushbu jumlada barcha bolalarga xos boʻlgan soddalik, begʻuborlik hamda tengdoshlariga hazil yoʻsinida laqab qoʻyish kabi faqat yoshlikka xos begʻaraz munosabat, tasvir bor.

“...Oʻrtada urushda oʻlgan dadasining kattakon beqasam choponini kiyib olgan Melivoy yonboshlab yotar, yalang oyoq bolalar uning atrofida oʻtirib olib nimagadir xoxolab kulishardi” [4.28].

Melivoy kabi bolalar yoshlik chogʻidanoq urushda oʻlgan otasi yo akasining hali koʻp kiyib ulgurmagan ust-boshlarini kiyib ulgʻayishadi. Erta ulgʻayishga majbur boʻlgan Melivoy nafaqat otasidan qolgan choponni, balki roʻzgʻor tashvishini ham yelkasiga olgani shubhasiz. Qadimdan ota-bobolarimiz muqaddas sanagan choponga nafaqat ust kiyim, balki bir masʼuliyat, burch deb qaralgan.

Zero, bekorga chaqaloqlarga chopon-to`nlar atalmaydi, sandiqlarda yaxshi yo bir kunga yarar deb kutilmaydi, xatna yoki nikohda, muchallarda, muborak yoshlarda, biror tantana munosabati bilan sovg`a sifatida mehmonlarning eng ulug`idan eng kichigiga qadar tortiq qilinmaydi. Bu bir meros, bu bir an`ana. Bu ham bir milliylik.

“Tolning panasida turgan novcha qizaloqni endi ko`rdim. Uning katta-katta ko`zlari ma`yuslik bilan javdirar, nima qilishni bilmay, kalishining uchi bilan maysalarni ezg`ilardi” [4.28].

Nega bu qiz buncha g`amgin, iymanib uyalib turibdi ekan-a? Nega “yer chizyapti”, u nega tortinchoq? Chunki oiladagi nobop muhit, ota-ona munosabatidagi chigalliklar uni shunday odamovi qilib qo`ygan. Qizning otasi “Hakim sassiq” xotinining bir nojo`ya qadami tufayli shaharga ketib qolgan ona-qizni topib shahardan olib keladi. Qizini adashgan ona qo`lida tarbiya topishini xohlamaydi. Bu holat uchun aynan kim aybdorligi ochiqlanmagan, ammo oiladagi bunday notinchliklar farzandlar qalbi va ruhini yaralamasdan qo`ymaydi, ularning tarbiyasi, tuyg`ulari, ruhiyati va kelajagiga qandaydir salbiy ta`sir ko`rsatadi. “...Bir mahal ko`zimni ochib qarasam, Halima tayoqni ingichka tizzasiga tirab, sindiryapti. Uning tanasi ham qalbi kabi nozik va o`ksik.

– Buzuqning bolasi! dedi Melivoy unga qarab.

Halimaning labi pիրpirab, yig`lab yuboray deya yotganidan bu yomon gap ekanligini tushundim”.

Bolalar hech narsani bilmaydi, hali aqli yetmaydi deya kattalar adashishadi.

Chunki bola haqoratning asl ma`nosi nima ekanligini aniq bilmasa ham, bu haqorat so`z ekanligini, onasi va o`ziga nisbatan qandaydir yomon munosabat borligini sezadi.

“– O`zing buzuqning bolasi! – dedim baqirib. – Ko`kko`z, ko`kqarg`a!” [4.29].

Bolalarga xos hozirjavoblik hamda laqab orqali jazolash va javob qaytarish istnkti bosh qahramon nutqida yonidagi ojiza himoyasi uchun ishlaydi.

“Halima yonimda o`tirib olib, o`tlardan “ajina kavush” to`qir, uzun-uzun barmoqlarining shunchalik chaqqon harakat qilishiga hayron qolardim...

...Halimaning katta-katta, qop-qora ko`zlari jiqqa yosh edi...Halima qo`lidagi “ajina kavush”ni uloqtirib yubordi-da, qizil chit ko`ylagining etagini qayirib, ko`z yoshini artdi” [4.30].

Halimaning uzun ingichka qo`llari orqali oriqligi, turmush va ro`zg`ordagi yetar-yetishmovchiliklar namoyon bo`ladi. Haqoratli so`zlar zalvori qop-qora, katta-katta ko`zlarini namlaydi.

“Hakim sassiq qizarib ketgan ko`zlarini menga qadagan edi, urgani esimga tushib ketdi. O`shanda ham ko`zlari shunaqa qip-qizil edi. To`lash aka og`zini katta ochib xoxolab kula boshladi. Yakkam-dukkam tishlari orasida yarim chaynalgan oppoq bosvoldi bo`lagi ko`rindi [4.31].

– Sassiqlik! – dedi u og`zini to`ldirib. – To`yni boshlayverak ham bo`larkan... Mana kuyov bolayam tayyor. – Keyin yana xoxolab kuldi”.

Bu gaplardan keyin bosh qahramon bola yig`lab yuboradi. Halima va otasining oldida mulzam bo`ladi. O`zidan bir necha yosh katta bo`lgan opa-ukadek mehribon, do`stdek qadrdonlashib qolgan ikki beg`ubor bolaning pok tuyg`ulariga darz ketadi. Shundan keyin Halima shaharga onasining oldiga ketadi. Ikki do`st munosabatlari shu tariqa yakun topadi.

To`lash aka tasviri keltirilgan yuqoridagi jumlada uning qanday bemulohaza, qo`pol va qandaydir tarbiyasizligi namoyon bo`ladi. Sodir bo`ladigan keyingi voqealar bosh sababchisi sifatida ko`zga tashlanadi. Asar so`ngida inoq bo`lib qolgan do`stlarning arzimagan gap uchun ayrilishi va vaqti kelib tasodifan uchrashib qolishi, xotiralarning yangilanishi, birgalikda o`tgan vaqt xuddi shirin tush kabi bo`lib, hurkitilgan holda uyg`ongan holatga qiyoslanadi.

XULOSA

“O`tkir Hoshimov bir gapni bot-bot takrorlaydi: “Avval asarning musiqasi tug`iladi, so`ng uning o`zi yaratiladi”... Ammo yurakni sozlash, undagi erkni e`zozlash har bir ijodkorda o`ziga xos yo`sinda kechadi. O`tkir Haoshimov tabiatan lirikaga moyil, nozik qalb inson” – deydi adabiyotshunos Abdug`afur Rasulov “Ardoqli adib: O`tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar”dagi adabiy portretida. Darhaqiqat, yozuvchining katta-yu kichik asarlari haqiqiy ilhom hosilasi sifatida yuqoridagi kabi adabiyotshunos va tanqidchilar, hamkasblar-u zamondoshlar va eng asosiysi oddiy, kamtarin kitobxonlar tomonidan munosib baholanib kelinmoqda. “Hutkitilgan tush” hikoyasi singari o`lmas mavzu va g`oyalar singdirilgan asarlar hamisha barhayotdir.

ADABIYOTLAR

1. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: "O`zbekiston", 2001. – B. 560.
2. B. Nazarov, A. Rasulov, Q. Qahramonov, Sh. Axmedova. O`zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – T.: Cho`lpon, 2012. – B. 432.
3. S. Ahmad. Ijod va jasorat. Sharq yulduzi, 2000. №6.
4. O`zbeklar: Hikoyalar, o`ylar, hajviyalar/O`. Hoshimov. – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 218.
6. A. Rasulov. Ardoqli adib: O`tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. – T.: “Sharq”, 2001.– B. 128.
7. S. Ahmad. Qo`rquv saltanati. Sharq yulduzi jurnali, 1989. №4.
8. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: 2005. – B. 272.

JON DON IJODIDA YO`QOTISH MAVZUSI YORITILISHIDA O`ZIGA XOSLIKLAR.

*Z.N.Qilicheva,
BuxDU, adabiyotshunoslik: ingliz adabiyoti
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Annotation. This article is aimed to discuss the poetry of one of the greatest minds in English literature, the metaphysical genius John Donne. John Donne's Metaphysical poetry stands as a testament to the power of language and stylistic innovation in literature. His Metaphysical poems show how powerful words and new styles can be in writing. This article looks closely at how Donne describes the theme of loss in his poems

Keywords: loss death, spiritual peace, religion, holy, the power of love, contempt, cynicism, bitterness, sarcasm.

Annotatsiya. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz adabiyotidagi eng buyuk shoirlaridan biri, metafizik daho Jon Donning she'riyatini muhokama qilishga qaratilgan. Uning metafizik she'rlari adabiyotda uslubiy vositalar va til rivoji uchun muhim rol o'ynaydi. Uning metafizik she'rlari qanchalik kuchli so'zlar va yangi uslublar yaratila olishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu maqola Donn o'z she'rlarida hijron mavzusini yoritib berganini ko'rsatadi.

Tayanch so'zlar: sevgi, o'lim, ruhiy tinchlik, din, muqaddas, sevgining kuchi, nafrat, kinizm, achchiqlik, kinoya

Jon Donn tomonidan yaratilgan ko'plab sonnetlar o'lim mavzusi bilan ham bog'liq. Boshqa shoirlardan farqli o'laroq, Jon Donning o'limga munosabati juda optimistik. Jon Don o'limni yangi tug'ilish deb biladi, chunki odamlar o'limni boshdan kechirish orqali o'lmas bo'lib qoladilar, bu uning o'limga bo'lgan munosabatidir. U ko'plab diniy she'rlar yozgan, asosiy mavzu o'limdir. "Death Be Not Proud" asarida Jon Don shunday deb yozadi:

*"From rest and sleep, which but thy pictures be,
Bu elga g'am emas, yomg'irlar yog'sin,
Bahor yomg'irlari,
kuz yomg'irlari,
Sevinch yomg'irlari,
ishonch yomg'irlari,
Yog'sin-ey, mayliga, sog'inch yomg'irlari,
Sog'inib-sog'inib kelgan bu elga,
Suyanib-surinib kelgan bu elga,
So'kilib-sovrilib kelgan bu elga,
Suqlanib-sarg'ayib kelgan bu elga,
Yog'sin-ey, mayliga quvonchlar yog'sin(2,27)

Ko'pchilikka ma'lumki, Tilak Jo'ra ijodining eng gullagan davrlari sho'ro hukmronligi davriga to'g'ri keladi, shuning uchun ham ushbu she'rda o'sha davrdagi siyosiy tuzumning so'lg'in ruhiyatini his qilish mumkin. Mustamlakachilik siyosati tufayli xalqning erksizlikdan, biqiq hayotdan ezilgani "So'kilib-sovrilib kelgan bu elga, Suqlanib-sarg'ayib kelgan bu elga" misralari orqali majoziy tarzda ifodalangan. Shoir shuncha qiyinchiliklarga bardosh bergan xalqiga yaxshiliklar xirmonini tilaydi. Bu samimiy tilaklar noyob tasbehtar orqali amalga oshiriladi. Xalqimizda azaldan yomg'ir motivi mo'l-ko'lchilik, to'kin-sochin hayot asosi sifatida qadrlanib kelingan, shuning uchun ham u "obi rahmat" deya ta'riflanadi. Shoir mana shu motivdan yangi tashbeh yaratadi. Biz sevinch yoki sog'inch ko'z yoshlari degan iboraga duch kelganmiz, lekin sevinch yomg'irlari, ishonch yomg'irlari, quvonch yomg'irlari yoki sog'inch yomg'irlari kabi o'xshatishlarga guvoh bo'lmaganmiz. Bu noyob topilmalar Tilak Jo'ra chashmasining marvaridlaridir. Bu iliq tuyg'ularning aynan yomg'irga o'xshatilishi shoirning xalqiga bo'lgan chuqur mehri sabab tug'ilgan. Tilak Jo'ra

sabrli va zahmatkash, tuzum tufayli jabrdiyda boʻlgan eliga sevinch, ishonch, quvonch kabi tuygʻularning yomgʻir kabi moʻl-koʻl boʻlishini tilamoqda. Bu huzurbaxsh kechinmalar ifodasi tabiatning bbbiqiyos hodisalari zimmasiga yuklanyapti. Bu esa shoirning novatorligidan dalolatdir.

Ijoddagi erkinlik, qalbida kechayotgan kechinmalarni boricha ifodalash shoir ijodining oʻziga xos xususiyatlaridan sanaladi. Tahlil etilayotgan sheʼr namunasida misralarning erkin joylashtirilgani, tinish belgilarining, odatdagidek, faqat toq, yaʼni 1-3 qatorlarda emas, ketma-ket sakkiz misrada qoʻllanishi eʼtiborimizni tortadi. Bu ham shoir qalbining junbushga kelgani, ham mustaqillik, erkinlikka boʻlgan kuchli ishtiyoqning ifodasidir.

Bu bogʻlar koʻrkiga yayrab boqmasam,

Bir soydan kuymanib, kuylab oqmasam,

Chaman deb, chaman-chun oʻzni yoqmasam,

Atirgul tikanin sanching koʻzimga!

(Vatanning tuprogʻin soching koʻzimga!)

Xonanda kuyladi: yaproqda Vatan ,

Lek uni kim uzib, kimlardir otgan.

Men ham bir yaproqman, gar yolgʻon aytsam,

Qoʻrgʻoshin quyilsin, mayli, boʻgʻzimga! (2,47)

Bu sheʼrda vatanga boʻlgan muhabbat tuygʻusining yangicha koʻrinishini kuzatishimiz mumkin. Soyga nisbatan hayqirib oqayotgan yoki mayin shildirayotgan kabi sifatlashlarni qoʻllashdan koʻra oʻzini shu narsa bilan yaxlitlikda, butunlikda ekanligini koʻrsatuvchi “Bir soydan kuymanib, kuylab oqmasam”, “Men ham bir yaproqman,..” kabi yorqin tasvirlarni yaratadi. Bunday tasvirlar esa lirik qahramonning tabiat bilan uygʻunligini taʼminlagan. Sheʼrda gavdalanayotgan obraz oʻz yurtining fidoyi farzandi ekanini uning keskin fikrlaridan, ayovsiz qarorlaridan ham his qilish mumkin: “Chaman-chun oʻzni yoqmasam, Atirgul tikanin sanching koʻzimga”, “Qoʻrgʻoshin quyilsin, mayli, boʻgʻzimga”. Bu misralar orqali xiyonat, sotqinlik u yoqda tursin, yurt taraqqiyoti, farovonligi uchun jon kuydirmaslikning oʻzi kechirib boʻlmas gunoh ekanligi tushuniladi. Bunday oʻtli fikrlar Tilak Joʻraning hassos shoirligiga ham ishoradir.

Tadqiqalarimiz shuni koʻrsatadiki, otashnafas shoir Tilak Joʻra vatanparvarlik ruhidagi sheʼrlarida oʻz maqsad va gʻoyalarini ifodalashda tabiat, undagi har xil hodisalardan unumli foyalanish bilan birga, yorqin tasavvur uygʻota oladigan noyob oʻxshatmalar ham yarata olgan. Bu esa uning novator shoir ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. T.Joʻra. Saylanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.
2. T.Joʻra. Ruhiyat (sheʼriy toʻplam). – Toshkent: Yosh gvardiya, 1990.

3. A.Ulug'ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017;
1. 4. B.Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: BOOKMANY PRINT, 2022.

O'ZBEK ERTAKLARIDAGI TURLI MIFOLOGIK TIL BIRLIKLARINI IFODALOVCHI MILLIY-MADANIY XUSUSIYATGA EGA LISONIY HODISALAR TAHLILI

Z.I.Rasulov,
BuxDU, ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti,
Sh.U.Bobojonov,
BuxDU, 2-bosqich magistranti,
[*sh.b.bobojonov@buxdu.uz*](mailto:sh.b.bobojonov@buxdu.uz)

Annotatsiya. Mazkur tezis o'zbek folklorida muhim o'rin egallaydigan ertaklar tarkibidagi mifologik til birliklarini ifodalovchi milliy-madaniy xususiyatga ega lisoniy hodisalar tahliliga bag'ishlangan. Tezis ertaklarning folkloridagi tutgan o'rni, ulardagi qahramonlar, mifologik obrazlar, milliy-madaniy elementlar, lisoniy hodisalar misollar yordamida tahlilga tortilgan.

Annotation .The thesis is devoted to the analysis of linguistic phenomena of a national-cultural nature, representing mythological linguistic units in fairy tales that takes an important place in Uzbek folklore. The thesis analyzes the role of fairy tales in folklore, their characters, mythological images, national and cultural elements, and linguistic phenomena using examples.

Аннотация.Тезис посвящена анализу языковых явлений национально-культурного характера, представляющих мифологические языковые единицы в сказках, занимающих важное место в узбекском фольклоре. В тезисе на примерах анализируется роль сказок в фольклоре, их персонажи, мифологические образы, национально-культурные элементы, языковые явления.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, uslubiy barqaror, ikkilamchi evrilishlar, sehrli ertaklar, badiiy tafakkur, syujet, ertak poetikasi, ezgulik hamda yovuzlik, tilsimli ertaklar.

Key words: folklore, stylistic stability, secondary evolutions, magical tales, literary thinking, plot, fairy tale poetics, goodness and evil, magical tales.

Ключевые слова: фольклор, стилистическая устойчивость, вторичные эволюции, волшебные сказки, художественное мышление, сюжет, поэтика сказки, добро и зло, волшебные сказки.

Ertak badiiy shakli xalq og'zaki ijodi namunalari ichida janriy o'ziga xosligi, uslubiy barqarorligi va ifoda shakli bilan ajralib turadi. Ilk og'zaki epik janrlardan biri sifatida unda xalqning ibtidoiy dunyoqarashi, badiiy tafakkur rivoji, shuningdek, asriy orzu-armonlari-yu g'am-tashvishi, quvonch-u shodligi to'liqroq namoyon bo'ladi. Ham falsafiy, ham ma'rifiy, ham davrlararo tajribalardan o'tgan mutafakkirona qarashlari akslanadi. Buva u olam makon hamda zamonda ikkilamchi

evrilishlar tafovutini hosil qiladi. Ikki yangi tushuncha—olis tarix va yaqin moziy ham jo'g'rofiy, ham vaqt birligiga daxldorlik kasb etadi». Garchi, fikrlash tarzida an'anaviy vorislik yetakchilik qilsa-da, unda davr ruhiyati hamda muhit o'ziga xosligi mentaliteti saqlanadi. Shu ma'noda, ertaklarda ajdodlarimizning tevarakatrofni qurshagan tabiatni o'z bilim va tafakkuri taraqqiyoti darajasida tushunishi, qayta idrok etishi, inson—jamiyat—borliq mantiqiy birligini tuyishi va unga to'g'ri baho berish mezonlari boshqa janrlarga nisbatan qabariqroq tarzda namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mifologik ifoda miqyoslarini ham belgilab beradi. O'zbek xalq sehrli ertaklarida dev, qanotli ot, ajdarho, jodugar, semurg', pari kabi timsollar uzoq davrlar: turli e'tiqodlar, inson va tabiat munosabatlari hamda olamni anglash jarayonida shakllangan badiiy tafakkur mahsuli sifatida folklor asarlaridan (shu bilan birga, yozma badiiy adabiyot namunalaridan ham) mustahkam o'rin oldi. Bundan tashqari, ertaklarda g'ayritabiiy timsollar zamiridagi mifologik ifoda qahramonning biron predmet bilan bog'liq "jon"i mavjudligi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tish—evrilish hodisasi, sehrli uzuk, telpak, jom, gilam, kamon, afsun (duo), tutatqi kabi predmetlar orqali maqsadga erishish bilan bog'liq motivlar orqali yorqinroq aks etadi. Folklorshunos olim K.Imomovning ta'kidlaganidek, "Tilsimli ertaklar o'ziga xos poetikasi bilan ajralib turadi. Avvalo, fantastik uydirmalar, rang-barang tasviriy hamda tilsim voqealarisujet chizig'ini bezab turadi. Ayniqsa, tilsim voqealar lo'nda ifodalangan sujetlarda hayratomuz hodisalarni bunyod etadi. Tilsim vositalari syujetning asosiy bezagi, ertak poetikasining muhim va yaxlit ko'zga tashlanuvchi, ahamiyati zo'r badiiy figuralaridan hisoblanadi". Jumladan, "Non qudrati" deya nomlanadigan ertakda g'ayritabiiy qiyofali aka-uka maxluqlar zo'ravonlik-zulm timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Tasvirlanishicha, tinch-totuv hayot kechirayotgan oilada bir ola baytal mavjud. U har yili qulunlaganda, yangi tug'ilgan toyni "qora bir narsa uchibmi-yuguribmi kelib, quchoqlab ko'tarib ketadi". G'aroyib xislatga ega toychoq shu tariqa g'oyib bo'ladi. Uch og'a—ini o'g'rini poylaydi. Kenja o'g'il o'g'rini ko'radi, biroq qulunni saqlab qolishga ojizlik qiladi. Voqealar rivoji aynan shu qahramon insoniy fazilatlarini ochib beradi. To'g'ri, asarda nuroniy chol madadkor hamda yordamchi mifologik personaj tarzida ishtirok etadi. Mustahkam irodaga egaligi bilan kitobxonni o'ziga jalb etuvchi universal obraz barcha mashaqqatlarni bosib o'tadi va murod-maqsadiga yetadi. E'tiborli jihati, ertakda muqobil kuchlar—ezgulik hamda yovuzlik (uch aka-uka farzand va uch og'a—ini maxluqlar) bir-birini mantiqan to'ldiradi. Ziddiyat zamiridagi ifoda keskinligini yuzaga keltiradigan muqoyasa, ayni paytda, ertak o'qishligini ta'minlagan: "O'rtanchi maxluqning oti tosh oldiga kelib taqa-taq to'xtab, bir qadam ham bosmay qo'yibdi. Maxluq otiga ustma-ust qamchi ursayam, oti miq etmay turgan joyida qoqqan qoziqday turaveribdi. Shunda maxluq toshga qarab:

—Hoy, tosh ostidagi, insmisan-jinsmisan, odamzodmisan yobiron-bir jonzotmisan, bu yoqqa chiq. Olishaman desang—olishaman, solishaman desang—solishaman, —debdi. Bola tosh tagidan, qo'yniga ikki nonni solib olib, chiqib kelibdi-da:—Xo'sh, nima deysan? —debdi. Maxluq: Odam tugul pashsha uchib kelolmaydigan bu joyga qanday qilib kelib qolding, maqsading ne? —debdi. Bola:—

Men o'g'irlatgan toyimni izlab keldim, shuni olib ketaman, –debdi. Maxluq: – Toyingni olib ketib bo'psan. Bir hamla bilan seni asfalasopilinga ketkazaman. Yaxshilikcha, ajalingdan oldin o'lmay bu yoqdan jo'nab qol, –debdi". «Besh qiz» sehrlertagida parilar podshosining qizi tilidan bayon qilingan tafsilot mifologik tasavvurni ancha teranlashtiradi. Kiritma bir tarafdin, ifoda sujetini qoliplovchi hikoya vazifasini bajarsa, ikkinchi tarafdin, tasvir ruhiyati hayotiy-maishiy va asotiriy-xayoliy sarguzashtni yuzaga keltirishga xizmat qilgan. Janrda faol qahramon sifatida bot-bot uchraydigan pari obrazi, odatda, sehr-jodu bilan aloqalantirilgan mifologik taassurotlarni o'zida namoyon etadi. E'tiborli jihati, ertakda ikkita g'ayritabiiy qiyofa sohibi –pari va dev bir-biriga nisbatan qarama-qarshi pozitsiyada turadi. Ijobiy qahramon –qiz hamda yovuzlik timsoli –dev shamoyilida hosil bo'ladigan evrilishlar ham muvofiq ravishda (oq va qora rangli ilonshaklida) amalga oshiriladi. Zero, ranglarga singib ketgan e'tiqod ziddiyati uyg'unligi hamisha keskin munosabatni yuzaga keltirgan. Tajovuzkor devning pariga xushtor bo'lishi zamirida mangu ixtilof aks etadi. Yoyilib ketgan chizgilar aynan shu badiiy mohiyatga urg'u beradi. Mutaxassislarimiz ta'kidlaganidek "o'zbek xalq ertaklarining obrazlar tizimida kelib chiqishi qadimgi mifologik tasavvurlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan asotiriy personajlar muhim o'rin tutadi. «Semurg'» ertagida ham yalmog'iz universal mifologi yetakchi o'rin tutadi. U birinchidan, voqealarni uyushtiradi, ikkinchidan, qahramonlar xarakter yo'nalishini belgilaydi, uchinchidan, g'ayritabiiy ifoda rivojini tavsiflaydi, to'rtinchidan, tayanch g'oyaviy markazni shakllantirishga xizmat qiladi: "Kenja botir qilich bilanyalmog'iz kampirning boshiga uribdi. Uning kallasini shartta kesibdi. Qarasa, tanasi bir yoqda qolib, kallasini dumalab ketayotgan emish. Kenja botir kalling ketidan quvlab ketibdi. Kalla dumalab-dumalab o'rmonzordagi bir g'orga tushib ketibdi. Kenja botir hayron bo'lib, kalla tushib ketgan joyni belgilab qo'yibdi-da, yalmog'izning tanasini ko'mib akalarining oldiga kelibdi. Ovqatni pishirib, ularning uyg'onishini kutib o'tiribdi". Parchadan ayon bo'ladiki, yalmog'iz kampir –g'ayritabiiy yovuz kuchlar va inson fe'l-atvori qusurlari orasida vositachi universal mifolog sanaladi. Shu boisdan, Kenja botir ikkiyoqlama ziddiyatlar og'ushida qoladi. Murakkablik obraz iroda yo'nalishini toblantiradi. Aslida har qanday g'ayritabiiy mifolog ifodasi xalq e'tiqodi, dunyoqarashi va uning tevarak olam bilan munosabatlarini tashuvchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham millat maqsad-intilishlari hamisha ezgulikka yo'naltirilgan. "Suv qizi" o'zbek xalq ertagidagi lavhada ham Xizr va Suv qizi obrazlari ilohiy-g'ayritabiiy mohiyatni belgilaydi. Odatda, turkiy xalqlar mifologiyasida Xizr timsoli omad ramzi sifatida talqin etiladi. "Ba'zi ertaklarda esa u bir duo bilan kishini o'zga ko'rinishga evriltira oladigan darvesh-qalandar, qahramonga yo'l ko'rsatib, ko'zdan g'oyib bo'ladigan g'aroyib chol sifatida ham tasvirlanadi". Shuning uchun ham uning inson ko'ziga ko'rinishi baxt-saodat keltiradi: "Shu zamon G'ayrat boshini ko'tarib, salom beribdi. Xizr G'ayratning salomiga alik olib, g'oyib bo'libdi. Tursunbek bilan G'ayratbek quchoqlashib ko'rishib birga shaharga qaytib kelishibdi. Ertasi podshoning yomon niyatlarini xalqqa fosh etib, otasi o'rniga o'zi podsho bo'libdi. G'ayrat vazir bo'libdi. Qirq kecha, qirq kunduz to'y-tomosha qilib suv

qizini qaytadan nikohlab olib, murod-maqsadiga yetibdi. Ular yaxshi turmush qurib olibdi, men bo'lsam bolalarim yig'lab qolmasin, deb tezda shahrimga qaytib keldim". To'g'ri, ertakda keltirilgan personajga qo'shimcha estetik yuk orttirilgan. Qahramon toshga aylanib qolgan yigitni asliga qaytaradi va g'oyib bo'ladi. Xaloskor epizodik rol o'ynasa-da, ezgulik tantanasini ta'minlaydigan qudratga evrilgan. Suv qizi esa fabula va konfliktni harakatga keltiradigan tayanch obraz, garchand, u faoliyatsizlikka mahkum etilsa-da, asosiy tugun chizig'iga bevosita-bilvosita daxldorlik kasb qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, ertaklar xalq og'zaki ijodining yorqin namunlaridan biri bo'lib, unda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Afzalov M. I. O'zbek xalq ertaklari haqida. Toshkent "Fan" 1964.120-b.
2. Jumayeva S. Hayvonlar haqidagi ertaklarning syujet va motivlari. O'zbek tili va adabiyoti. 1996. №5.
3. www.ziyonet.com

O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" QISSASI VA UNING INGLIZ TILIDAGI "AFFAIRS OF LIFE" TARJIMASIDA MILLIY MADANIYATNING SAQLANISHI.

R.A.Karimov,

BuxDU, Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi dotsenti, Phd

M.R.Tursunova,

Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasi, 2-bosqich magistranti

m.r.tursunova@buxdu.uz

"Dunyoning ishlari"—O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub memuar qissa. Asar katta-kichik hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va to'liq tarzda 2005-yilda "*Sharq nashriyoti*" tomonidan nashr etilgan. Keyinchalik boshqa nashriyotlar tomonidan ham ko'p bora qayta nashr etildi. Kitobning orqa tomonida adibning quyidagi so'zlari keltirilgan: "*Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sohib turadigan sehrlil kuch bor. Bu—Ona mehri! Alloh Onani shunday yaratgan!*"

Uning qirqdan ortiq asarlari ming-minglab kitobxonlarning ma'naviy mulkiga aylanishga ulgurgan. Asarlari oddiy va xalqchilligi bilan ajralib turadi. "Dunyoning ishlari" asari ham ana shunday xalqchil asarlar sirasiga kiradi. Adib o'z asarini 2005-yilgi nashrida shunday ta'riflagan: " Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq, ularning barchasida eng aziz odam-Onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat, ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatdan onamga

bog'langan". Adib bu asariga o'zining barcha samimiy hislarini tarannum etgan, samimiyat urug'ini kitobxon diliga sochgan. O'tki Hoshimovning asarlarida yetakchilik qilgan insoniylik tarannumi butun insoniyat uchun hayotiy saboq bo'ladi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad qissani shunday tariflagan: "*Dunyoning ishlari asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi*"

"Ermon buvaning tilagi" deb nomlangan hikoyada asliyatdagi matn va uning ingliz tilidagi tarjimasida asliyatni anglatuvchi fikrlar qay tarzda ingliz tiliga o'girilganini qarab chiqamiz.

Asl matnda "*Xullas, nima bo'lgandayam u oqsoqlanib yuradi. Bahor paytlari ola sigirini yetaklab kelib qoladi. Qo'lida hassa, sigirining butun shoxiga tuguncha ilib qo'yilgan. O'tloqqa yetganidan keyin sigirning shoxidagi tugunchani oladi-da, o'zini qo'yib yuboradi. Belidagi qiyiqchasini tol soyasiga tashlab «bismillohu rahmonur rahim» deb maysa ustiga yonboshlaydi. Ola sigir shundayqina uning yonida poyezddek pishillab o'tlashga tushadi. Ora-chora shu ishim ma'qulmi, degandek egasiga qarab-qarab qo'yadi*" parchasi ingliz tiliga:

"*And so whatever might have happened he limped. He came leading his variegated cow during the spring. There was a stick in his hand and he hung a bundle on his cow's unbroken horn. When they reached the field, he took the bundle and set the cow free. He put his belt under the willow and lied on the grass saying "In the name of Allah". Variegated cow herded near him. From time to time it looked at its owner as if it asked permission from him.*" deb tarjima qilingan.

Yuqorida berilgan parchada "*Belidagi qiyiqchasini tol soyasiga tashlab «bismillohu rahmonur rahim» deb maysa ustiga yonboshlaydi.*" iborasiga e'tibor qaratmoqchimiz. Bilamizki o'zbekchilikda har bir ishni boshlashdan oldin "Bismilloh" bilan boshlaymiz, bu bizning millatimizga va asliyatimizga singib ketgan, qon tomirimizgacha o'rnashgan tushuncha hisoblanadi. Va bu tushuncha boshqa millat vakillari uchun yot bo'lganligi sababli, boshqa xalqlarda bu kabi so'zlar nutqda uchramasligi sababli tarjimon berilgan bu gapni "*He put his belt under the willow and lied on the grass saying "In the name of Allah".*" tarzida kitobxonga yetkazishga harakat qilgan.

Shu hikoya davomida berilgan keyingi parchada:

Asl matnda: "*Assalomu alaykum, buvajon, – deb salom beradi. – Vaalaykum assalom, mullo bo'ling, tasadduq, – deydi Ermon buva salmoqlab. Baribir uning ovozi salmoqli chiqmaydi: xotinlarnikidek ingichka, ammo nihoyatda mehribon.*"

Tarjimada: "*– Good morning, dear grandfather, – he greeted him.*

– Good morning, well done, – answers grandfather Ermon weighty. His voice shouted kindly as a woman but very kindly." deb ingliz kitobxonlariga yetkazilgan. Yuqorida berilgan misralarga e'tibor qaratadigan bo'lsak azaldan o'zbek xalqining bolajonligi, farzandlariga nisbatan juda mehribon va chiroyli tilda gaplashilishi

haqida ortiqcha izohga hojat qolmasa kerak. Yozuvchi tomonidan yozilgan “*Vaalaykum assalom, mullo bo ‘ling, tasadduq,*” degan jumlar ingliz tiliga “*Good morning, well done, – answers grandfather Ermon weighty*” deb oddiygina tarjima qilinganidan shuni aytishimiz mumkinki, bu kabi muomala madaniyati bizning millatimiz asliyatiga xos bo‘lib, uni tarjima qilganda bu so‘zlarni to‘laqonli ifodalab beradigan jumlar mos kelmagan.

Qissada keltirilgan “Ermon buvaning tilagi” hikoyasini mutolaa qilishda davom ettiradigan bo‘lsak,

O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub bo‘lgan “Dunyoning ishlari” qissasidan olingan “Ermon buvaning tilagi” hikoyasini o‘zbek va ingliz tiliga tarjima qilingan matnlarini jadval ko‘rinishida berib, unda asl matndan ingliz tiliga tarjima qilinganda asliyatning saqlanib qolishi haqidagi savollarga misollar yordamida atroflicha javob topishga harakat qildik. Bunda berilgan misollardan shuni anglashimiz mumkinki, asl matn yozilgan xalqning milliyligini, qadriyatlarini boshqa tilga o‘girganda tarjimondan juda yuksak mahorat talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E. Ochilov., Tajima nazariyasi va amaliyoti. – T., 2012
2. G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N., Tarjima nazariyasi. – T., 2012
4. G‘afurov I. Tarjimshunoslik mutaxassisligiga kirish. – T., 2008.
5. Mo‘minov O., Turg‘unov R., Rashidova A., Alimova D., - Translation – Yozma tarjima – Pismenniy perevod. –T., 2008.
6. O‘tkir Hoshimov, “Dunyoning ishlari” Toshkent 2005.
7. Obidxon Mo‘minov, “Affairs of life” Tashkent 2013.

ABDULQODIR KAROMATULLO IBN NE‘MATULLO SABBOQ BUXORIY HAYOTI VA ADABIY MEROSI HAQIDA

N.J.Bekova,

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori (DSc)

D.F.Achilova,

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti,

d.f.achilova@buxdu.uz

Annotation: This article contains information about the life activity and creative heritage of Abdulkadir Karomatullah ibn Nematullah Sheikh Sabbag Bukhari, who lived in the 20th century.

Keywords: Sabbagh Bukhari, Saudi Arabia, tazkirah, sheikh, madrasa, rare books, manuscript, hijra, ghazal.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrda yashagan Abdulqodir Karomatullo ibn Ne‘matullo shayx Sabboq Buxoriy hayotiy faoliyati va ijodiy merosiga doir ma‘lumotlar o‘rin olgan.

Kalit so'zlar: Sabboq Buxoriy, Saudiya Arabistoni, tazkira, shayx, madrasa, nodir kitoblar, qo'lyozma, hijrat, g'azal.

Аннотация: В данной статье собраны сведения о жизненной деятельности и творческом наследии Абдулкадира Кароматуллы ибн Нематуллы шейха Саббага Бухари, жившего в XX веке.

Ключевые слова: Саббаг Бухари, Саудовская Аравия, tazkira, шейх, медресе, редкие книги, рукопись, хиджрат, газаль.

Abdulqodir Karomatullo ibn Ne'matullo Sabboq Buxoriy 1903-yili Buxoro shaharidagi ahli Qur'on oilasida tavallud topgan. Boshlang'ich ta'limni uylaridatotalari qo'lida olgach, 12 yoshida madrasaga qatnay boshlagan. O'z zamonasiing mashhur ulamolaridan Asadillo Mahmudga shogird bo'lgan. Ayni o'qib yurgan yillari davlat to'ntarishi yuz berib Sovet tizimiga asos solingan. Bir necha yil Asadillo Mahmuddan ta'lim olgach, madrasani tugatib mullalik faoliyatini endi boshlaganda, Buxoroda ham hayotdan putur ketdi. Dahriylik zug'umi ostida Asadillo Mahmudiyga o'xshagan zabardast mullolar madrasalarni tark etishga majbur bo'ldilar. Shogirdlari u kishini qishloqqa olib ketib, kichkina masjidida qo'nim topdilar. Tez orada Sovet hokimiyatining mash'um quloq siyosati boshlanib endi din peshvolariga ham ochiq hujum boshlandi. Xususan Buxoroda ham uning aks sadosi kuchli bo'ldi. Negaki bu qadimiy ilm markaziga yirik mullolar islomiy ulamolar ko'p edi. Olimlik darajasiga endigina erishgan Abdulqodir Karomatullo ustozlari oldiga-qishloqqa bordi. Maslahatni bir joyga qo'yib ustozlari bilan 1931-yili Buxoroni tark etdilar va Afg'onistonga jo'nadilar. Go'r azobiga teng yo'l azobini tortdilar. Nihoyat ko'p qatori ular ham tunda yuqorida tarifi keltirilgan "Gufsar" da suzib, ammo daryodan eson-omon yetishib Qunduz shahriga yetib bordilar. Ustoz Asadillo Mahmud chog'roq bir masjidida imomlik vazifasiga tayinlandi. Bir vaqtning o'zida ustoz-shogird xususiy maktabda ham dars bera boshladilar. Shogird Abdulqodir ustozlari bilan doimo birga bo'ldi. Musofirlikda ham u kishining xizmatini qildi. Tirikchilik bir nav o'tib ketdi. Bu orada Qunduzda vatandoshlar ham ko'payib qoldi. 3yil o'tgach Abdulqodirning boshiga musibat tushdi: 1935-yili ustozlari vafot etdi. Abdulqodirga ustozsiz Qunduz go'yo torlik qildi-Eronga ketdi. U yerda ham ishi yurishmay Iroqqa kelib Bag'dod madrasalaridan biriga o'qishga kirdi. Yana ilm olishni davom ettirdi. 2yil oliy madrasada o'qidi. Biroq tirikchilik ham kerak. Tavakkal qilib 1938-yili tasodifan uchrab qolga bir ham yurti bilan birga Bag'doddan Saudiya Arabistoniga yo'l oldi. Makkai Mukaramdagi "madrasai oliya"lardan biriga joylashdi. U davrda Buxoriylar kam, shuning uchun ular hozircha e'tibordan chetda edilar.

Abdulqodir Karomatullo o'z bilimi va hushyorligi bilan tezda tanildi, do'stlar orttirdi va 1941-yili Arabistonning janubidagi Abho shahriga kelib, arabcha maktabga o'qituvchi qilib tayinlandi. Besh bu yerda o'qituvchilik qilgach, 1946-yili Qizil dengizga yaqin Robig' shahriga ko'chib keldi va nihoyat ro'zg'or qilish fursati yetib shu yerda 43yoshida bir arab qiziga uylandi. Yarim asrdan oshiq Abdulqodir Karomatullo ushbu shaharda istiqomat qildi. U kishi ham qori, ham olim, ham adib-shoir, xushxulq inson, Vatanni, millatni qalbidan sevadigan mo'min edilar.

Ma'lum bo'ldiki, olim qartayib qolganiga qaramay, 1991-yili ona shahri Buxoroga borib kelibdi. Amakilaridan Qudratullo, Inoyatullo, Hidoyatullo, Raxmatullolarning farzandlari bilan yuz ko'rishgan va bolalik yillari o'tgan ko'chamahallalarni, 'Mir Arab' madrasasini ziyorat qilib kelgan. Shundan buyon Buxoro bilan aloqasi uzilmaydi. Keyingi yillari O'zbekiston musulmonlari idorasi orqali Buxorodagi "Mir Arab" islom o'quv yurtiga yetti sandiq kitob hadya qilgan. Kitoblarni olishgani haqida madrasadan minnatdorchilik xati ham kelibdi. Isomiddin Roshidiyning "Shuaroi Kashmir" nomli 6 jildli asari va "Tazkirai majmuai shuaroi Jahongir shoh" kabi asarlar eng noyob kitoblardir. Shuningdek, 1905-yilgi Rus-Yapon urushi haqidagi 3 jildli turkcha kitob ham bor.

Olimning 2 o'g'li, 3 qizi bor. O'g'illari yaxshi ishlarda, qizlari ham arab maktablarida muallima bo'lib ishlaydilar. Qariyaning bittagina armoni bor, u ham bo'lsa, Vatan firoqi va nashrga tayyorlangan qo'lyozmalarning taqdiri.

Darhaqiqat, buxoroliklar bir onaning ikki ko'krigidan bab-baravar bahramand, ikki ulkan xazina sohibi, ikki daryo suvidan serob, ikki buyuk xazina merosxo'ri, yani, o'zbek va tojik tili egasidurlar. Bu siynalarning biridan tonish nonko'rlik hisoblanadi. Daryoning bir suviga tupurish gunohi kavidur. Bu xazinalarning biridan bebahra qolish jaholat nishonasi erur.

"Yaqinda oltmish yillik hijratdan so'ng Buxoroyi sharifga shoir Shayx Abdulqodir bin Karomatullo Sabboq Buxoriy mehmon bo'ldilar. „Siz qaysi millatga mansub bo'lib, turkey, forsiy, arabiy tillar egasiman“. – deb javob berdilar. Darhaqiqat, barcha musulmonlar Ibrohim Xalilulloh millatidadir" – deb xotirlagandi ustoz shoirimiz ham Sadridin Salim Buxoriy.

Shayx Sabboq Buxoriyi sharifni ziyorat etib, tengdoshlari Qori Aziz, Ahmadjon, shuningdek tug'ishgan ukalari, ayni kunlarda Buxoro tumaniga qarashli G'urbun qishlog'ida istiqomat qiluvchi Abduvahob bilan diydorlashib, Allohga shukronalar qildilar. Ko'pchilik o'shanda ustoz Sabboq suhbatlaridan bahramand bo'ldi, u kishining duolarini oldi. Sabboq Buxoriyning ijodiy faoliyatlari haqida ilk bor o'z yurtlarida ilmiy tadqiqot „Susambil" gazetasida (N2, 1991 yil) chop qilingan edi. Quyida keltiradigan ijod namunalari she'riyat gulshanidan atigi bir dasta gulchambar bo'lib, Sabboq Buxoriy haqida qisqacha bilishimiz uchun darvoza bo'ladi.

Banim xudoyimdur

Qadim xamida xayoli qadi asoyimdur,
Gulum ko'lankasi davlati qushi xumoyimdur.
Muhabbat o'tina qo'y dum annu nola banim,
Tilim taronasi ohu fig'oni navoyimdur.
Jahon saodatini bango kim nasib etgay,
Etorsa lutf ila ul sho'xi xushliqoimdur.
Vafo elina banim bir qara muqoyasa et
Vafo elina baland oshiyona joyimdur.
Elim faqirligimi e'tibora tark etsa
Elimni lutf ila olgan banim xudoyimdur.

Sesing tutildi bu yanglig' nechukla ey, Sabboq
Tutilmisha sabab ul chashmi surmasoimdur.

Qilg'on ishorasi

Oshiq man ishq dashtini bir shaxsuvorasi,
Darmon etar du olama ko'nglumni yorasi.

Burxonni ishqqa ohu fig'onim dalildur,
Hujjat demang alangayi ohim sharorasi.

Dardim davosi yor visolidur, ey rafiq,
Vaslidan o'zga bo'limgay oshiqni chorasi.

Ul podshohi husn, ki har yon xirom etar,
Shoxin g'amza birla dil qushin aylar shikorasi.

Laylocha bir qarashma ilan mot etar ko'zi,
Farzin qilur piyodani qilg'on ishorasi.

La'li labi jarohat siynamni malhami,
Zikri qadidur ikki ko'zimning nazorasi.

Har kimsa ko'rsa holimi Sabboq lavm etar,
Oshiq o'lurmu kimsani o'lmasa porasi.

•Lavm- ta'na, malomat.

Mushkulni oson aylagil

Gulruhimi kelgil bu kulbamni guliston aylagil,
Oy yuzing burqa arosidin namoyon aylagil.

Mudai ko'rmay yuzing iffatni da'vo ayladi,
Och yuzing onlarni lofidin pushaymon aylagil.

Zuxdu taqvo mudai zohidlarning ahvolini,
Bir xirom aylab alar xolin parishon aylagil.

Ko'b zamonlardur sening vasling tamanno aylaram,
Tut qo'limni emdi bu mushkulni oson aylagil.

Ishq o'ti so'ndi vujudim shamini ey dilbarim,
Olm ani ko'ksing'a bu dardimga darmon aylagil.

Bul havas oshuqlarning qo'y bovafo ilgini tut,
Bovafo oshuqlarning o'zingga qurbon aylagil.

O'limgan hajringda Sabboqingni emdi ey, gulum
Bu qulingni bir kecha o'zingga mehmon aylagil.

Tarjiband

Kel ey qosid salomim nozanin dildora etkurgil
Yuza gul, lablari mul, ko'zlari xumora etkurgil.

Bilib xolim tag'oful etguvchi xunxora etkurgil,
O'zi gar bilsa bilsun kel yana bir bora etkurgil.

Sabo arzim eshit payg'omimi gulyora etkurgil.
Fig'onu ohu zorim sho'xi gulruxsora etkurgil.

Fig'on ey do'stlar hijron o'ti kuydurdi jonimni,
Eshitmas ul sitamgar bir yo'lu oxu fig'onimni

O'lurman boshima bir kelturunglar yori jonimni
Shaxidi ishq qabri deb yozing qabringa nomimni.

Sabo arzim eshit payg'onimi gulyora etkurgil,
 Fig'onu oxu zorim sho'xi gulruxsora etkurgil.
 Bukuldi oqibat furqat yukidin qomatim kundek,
 Qurib ketti vujudim toru pudi simi tilfundek,
 Darig'o yorni ahvolini ko'rsam digargundek,
 Ravomu muncha xam javru javolar qilsa gargundek
 Sabo arzim eshit payg'omima gulyora etkurgil,
 Fig'onu ohu zorim sho'xi gulruxsora etkurgil.
 Tabibo ranj chekma yor dardi manga darmondur,
 Shaxidi ishq o'lg'on tongla bilgil shodu xandondur,
 Vujudin yor qurbiga hijob o'lg'on shu armondur.
 Agar ishqqa fano o'lsam muborak vasli jonondur
 Sabo arzim eshit payg'onimi gulyora etkurgil
 Fig'onu ohu zorim sho'xi gulruxsora etkurgil.
 •Loxiq- keyil qo'shilgan, qo'shimcha.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sayfiddin Jalilov. Buxoriylar qissasi (Muhojirat tarixidan lavhalar). „Toshkent islom universiteti“ nashriyoti. T.-2006. –B. 151-153
2. Salmonov A.M. O`zbekitonda xudosizlik uchun kurash\\ FarDU, Xabarlar; 2001. – B. 67-71.
3. Sadridin Salim Buxoriy. Maqola. Buxoroi sharif. 2001-yil fevral soni
4. Samad Azimov. Buxoroyi sharif ziyolilarining mustaqil nashri. 1992-yil yanvar
5. Internet manbalari
6. Susambil. 1992yil. yanvar. N.3.
7. Susambil. 1991yil. N2
8. Buxoroyi SHarif 2001. 17-fevral
9. Buxoroyi Sharif 2000 2-dekabr

EMILY DICKINSON AS A ROMANTIC POET

S.B.Khamdamova,

BukhSU, teacher at English literature and Translation studies department

V.Sh.Gaybulloyeva,

BukhSU, MA student of English literature and Translation studies department

v.sh.gaybulloyeva@buxdu.uz

Annotation. This thesis will examine Emily Dickinson's poetry through the lens of romanticism, focusing on her engagement with nature, love, and emotions. By analyzing key poems and exploring Dickinson's unique voice and style, this

study aims to shed light on her significance as a romantic poet and her lasting impact on the literary canon.

Key words: Emily Dickinson, romantic poet, nature, love, human experience, emotions, language, imagery.

Introduction. Emily Dickinson, a prominent American poet of the 19th century, is often associated with romanticism for her exploration of themes such as nature, love, and the human experience. Despite leading a reclusive life, Dickinson's poetry reflects a profound connection to the natural world and a deep exploration of emotions. This thesis seeks to delve into Emily Dickinson's work as a romantic poet, examining how she subverts traditional conventions and offers a fresh perspective on the genre.

Emily Dickinson, often regarded as a romantic poet, showcases a unique approach to the genre through her exploration of nature, love, and the human experience. This thesis aims to analyze Dickinson's work within the context of romanticism, highlighting her innovative use of language, vivid imagery, and introspective themes. By delving into Dickinson's poetry, we can gain a deeper understanding of her contribution to the romantic tradition and the ways in which she challenges traditional conventions.

Main Part. Emily Dickinson's poetry is marked by its rich exploration of nature, a central theme in romantic literature. Through vivid imagery and symbolism, Dickinson captures the beauty and power of the natural world in her poems. In "A Bird came down the Walk," Dickinson portrays a bird's encounter with a worm in a garden, using this interaction to reflect on life and death. By employing nature as a metaphor for human existence, Dickinson showcases her romantic sensibility and her ability to evoke profound emotions through her poetry.

A Bird, came down the Walk -
He did not know I saw -
He bit an Angle Worm in halves
And ate the fellow, raw. [2,15]

The poem begins with the simple yet evocative image of a bird coming down a walk, setting the stage for a close observation of nature and its inhabitants. Dickinson's keen eye for detail is evident in her vivid descriptions of the bird's behavior, such as "hopped sideways to the wall" and "let a beetle pass." These details not only create a sense of immediacy and intimacy but also highlight Dickinson's fascination with the intricacies of the natural world. [2,23] Furthermore, Dickinson's use of imagery in describing the bird's behavior, such as "stirred his velvet head," "drank the dew," and "let a bead upon each eyelid," imbues the poem with a sense of wonder and enchantment. Through these sensory details, Dickinson captures the beauty and mystery of the natural world, inviting readers to appreciate its splendor and complexity.

In Emily Dickinson's poem "Hope is the thing with feathers," she explores the theme of hope through a metaphorical representation of a bird. This poem exemplifies Dickinson's romantic sensibility by using nature as a symbol to convey deeper emotional and philosophical truths.

“Hope” is the thing with feathers
That perches in the soul
And sings the tune without the words
And never stops – at all [4,25]

The opening line, “Hope is the thing with feathers,” immediately sets the tone for the poem, establishing hope as a fragile yet resilient entity that can uplift and sustain individuals in times of adversity. The comparison of hope to a bird with feathers suggests a sense of lightness and freedom, emphasizing the ethereal and transcendent nature of hope. [4,32] Throughout the poem, Dickinson personifies hope, attributing human qualities to this abstract concept. By describing hope as “perches in the soul,” Dickinson creates a vivid image of hope taking root within the innermost depths of the individual, providing comfort and solace in times of despair. This personification adds a layer of emotional depth to the poem, highlighting the intimate connection between hope and the human experience. Dickinson’s use of imagery further enhances the poem’s romantic elements, as she paints a vivid picture of hope as a bird that never stops singing, even in the face of adversity. The imagery of the bird’s song conveys a sense of resilience and optimism, suggesting that hope has the power to endure and uplift even in the darkest of times.

In addition to nature, Dickinson’s work also delves into themes of love and emotions. Many of her poems explore the complexities of love, longing, and heartbreak, revealing her deep emotional depth. In “I cannot live with You,” Dickinson grapples with the limitations of love and questions the possibility of lasting connections in a transient world. [5,267] Through her exploration of love and emotions, Dickinson offers readers a glimpse into the depths of the human heart and the complexities of human relationships.

Despite her reclusive lifestyle, Dickinson’s poetry is deeply personal and introspective, reflecting her own experiences and emotions. Her innovative use of language and unconventional punctuation create a sense of intimacy and immediacy in her poems, inviting readers to engage with her innermost thoughts and feelings. [1,43] By challenging traditional poetic conventions, Dickinson establishes herself as a unique voice within the romantic tradition, pushing boundaries and offering a fresh perspective on the genre.

Conclusion. In conclusion, Emily Dickinson’s poem “Hope is the thing with feathers” exemplifies her romantic sensibility through its exploration of hope as a transcendent and enduring force in the human experience. Through vivid imagery, personification, and metaphorical language, Dickinson captures the essence of hope as a source of light and resilience in times of darkness. This poem showcases Dickinson’s unique ability to infuse everyday experiences with profound emotional depth, highlighting her lasting impact as a romantic poet.

Emily Dickinson’s work as a romantic poet is characterized by her exploration of nature, love, and emotions. Through her innovative use of language, vivid imagery, and introspective themes, Dickinson challenges traditional conventions and offers a fresh perspective on romanticism. Her poetry continues to resonate with readers today, capturing the beauty of the natural world and the complexities of

human emotions. Dickinson's legacy as a romantic poet endures, showcasing her enduring relevance in the literary canon.

LIST OF USED LITERATURE

1. Barker, Wendy. "Emily Dickinson and poetic strategy." The Cambridge Companion to Emily Dickinson. Ed. Wendy Martin. Cambridge University Press, United Kingdom. 2002 - 91 p.
2. Dickinson, Emily. "A Bird came down the Walk" , Dickinson packet; 1862 – 38 p.
3. Dickinson E. The poems of Emily Dickinson/ E. Dickinson. -Cambridge: The Belknap Press of Harvard University Press, 1955.-Vol. 1,2,3.
4. Reeves, James. Selected Poems of Emily Dickinson. London: Heinemann. 1976 – 58 p.
5. R. W. Franklin. The Poems of Emily Dickinson. – Cambridge, 1998 – 535 p.

AMERIKA BOLALAR ADABIYOTINING TARIXIY TARAQQIYOTI

A.D.Amonova,

Ingliz adabiyotshunosligi 2-bosqich magistranti, BuxDU

a.d.amonova@buxdu.uz

M.R. Kilicheva,

f.f.f.d (PhD), BuxDU

Annotatsiya. Amerika bolalar adabiyoti uzoq bo'lmagan muddat ichida rivojlanib, hozirgi yuksak darajaga erishgan. Bu darajaga yetguncha bir necha asrlarni bosib o'tgan. Quyida Amerika bolalar adabiyoti tarixiy bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari izohlanadi.

Kalit so'zlar: tarixiy bosqichlar, puritanlar, evolutsiya, rasmlar, sarguzasht, axloqiy adabiyot, yosh kitobxon;

Amerika bolalar adabiyoti tarixi bir necha asrlar davomida rivojlangan. Amerika bolalar adabiyoti o'zining butun evolyutsiyasi davomida adabiy manzarani shakllantirish, yosh ongni tarbiyalash va madaniy va ma'rifiy boyitishga ko'maklashishda muhim rol o'ynadi. Quyida uning asosiy bosqichlari haqida ma'lumot beriladi:

1. Dastlabki kashf etilishi va puritanlar ta'siri (XVII asr)
2. Amerikaning ilk rasmlar kitoblari (XVIII asr)
3. Odob-axloq adabiyoti (XIX asr)
4. Bolalar adabiyotining oltin davri (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)
5. Sarguzasht va fantaziyaning yuksalishi (XX asr)
6. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr va realizm (XX asr o'rtalari)
7. Xilma-xillik va ijtimoiy muammolar (XX asr oxiri - hozirgi)

1. Dastlabki kashf etilishi va puritanlar ta'siri (XVII asr) Amerika Puritan adabiyoti tarixini to'liq tushunish uchun Puritanizmni tushunish kerak. Puritanizm - 1500-yillarning oxirida paydo bo'lgan, Angliya cherkovini isloh qilishga intilgan

diniy oqim. Angliya cherkovi 1534-yilda katolik cherkovidan ajralib chiqdi. Puritanlar Angliya cherkovini katoliklik bilan har qanday aloqadan xalos qilmoqchi edilar.

2. Amerikaning ilk rasmi kitoblari (XVIII asr). Amerika bolalar adabiyotidagi dastlabki rasmi kitoblar 18-asr oxirida paydo bo'lgan va yosh kitobxonlarni jalb qilish va tarbiyalashda muhim rol o'ynagan. Quyida Amerikadagi dastlabki rasmi kitoblar haqida ba'zi muhim fikrlar keltirilgan.

Chop etilgan rasmlarning paydo bo'lishi: XVIII asrning oxirlarida matbaa texnologiyasining rivojlandi, bu bolalar kitoblariga illyustratsiyalarni kiritishni oson va arzonroq qildi. Ko'pincha yog'och yoki mis o'yma naqshlar yordamida bosilgan bu rasmlar hikoyalarni jonlantirishga va yosh kitobxonlarni o'ziga jalb qilishga yordam berdi.

3. Odob-axloq adabiyoti (XIX asr). Axloqiy adabiyot dastlabki Amerika bolalar adabiyotida, ayniqsa XIX asrda Amerika puritan ta'siri va axloqiy tarbiya davrida muhim rol o'ynadi. Quyida bolalar adabiyotining yana bir muhim davri izohlanadi:

Axloqiy tarbiyaga e'tibor: Axloqiy adabiyot yosh kitobxonlarda axloqiy qadriyatlar va fazilatlarini singdirishni maqsad qilgan. Unda ko'pincha itoatkorlik, halollik, mehnatsevarlik va taqvoning muhimligi ta'kidlangan. Ushbu kitoblardagi hikoyalar to'g'ri xulq-atvor namunalari va bolalarga taqlid qilish uchun saboq sifatida xizmat qilish uchun mo'ljallangan.

4. Bolalar adabiyotining oltin davri (19-asr oxiri - 20-asr boshlari). Amerikadagi bolalar adabiyotining oltin davri Amerika bolalar adabiyoti sohasida sezilarli o'sish, badiiy yutuqlar va doimiy klassiklarning paydo bo'lishi davrini anglatadi. Bu davr odatda XIX asr oxiridan XX asr boshlarigacha bo'lgan davr hisoblanadi.

5. Sarguzasht va fantaziyaning yuksalishi (XX asr). Amerika bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastika adabiyotining kuchayishi yosh kitobxonlarning tasavvurlarini o'ziga rom etish va ularni g'ayrioddiy sayohatlarga olib chiqishda muhim rol o'ynadi. XIX asr oxiri Amerikada ulkan ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar davri bo'ldi. Sanoatlashtirish rivojlanib, Amerika chegarasi kengayib borar ekan, noma'lum sohalar, sehrii imkoniyatlar va o'rganilmagan hududlarga qiziqish paydo bo'ldi. Bu madaniy zamin bolalar uchun sarguzasht va fantasiya adabiyotining yuksalishi uchun qulay zamin yaratdi.

6. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr va realizm (XX asr o'rtalari). Amerikada nashriyot sanoatining kengayishi bolalar adabiyotining rivojlanishi va o'sishida muhim rol o'ynadi, kitoblardan kengroq foydalanishni ta'minladi va yosh kitobxonlar uchun turli xil adabiy ovozlarning gullab-yashnashiga yordam berdi.

7. Xilma-xillik va ijtimoiy muammolar (XX asr oxiri - hozirgi): Amerika bolalar adabiyotidagi xilma-xillik va ijtimoiy muammolarni o'rganish so'nggi o'n yilliklarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, mualliflar va illyustratorlar irqiy va etnik xilma-xillik, nogironlar hamda turli diniy va madaniy kelib chiqishi kabi o'ziga xosliklarning namoyon bo'lishini oshirish ustida faol ishlamoqda.

O'zining butun tarixi davomida Amerikadagi bolalar adabiyoti o'zgaruvchan ijtimoiy, madaniy va ta'lim manzarasini aks ettirish uchun rivojlandi. U bolalar tajribasini yaxshiroq ifodalash, tushunish va empatiyani rivojlantirish uchun turli xil ovozlarni, hikoya uslublarini va mavzularni tobora ko'proq qamrab oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.Wayne Carp, A History of American Childhood, Pacific Lutheran University – January, 2007
2. Michael O.Tunnel, James S.Jacobs, The History and Origins of American Children's literature, International Reading Association - 2013 October
3. Kilicheva M. R. POETICS OF WORKS ON LONELINESS IN AMERICAN AND UZBEK LITERATURE //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – T. 5. – №. 56. – C. 56-64.
4. Kilicheva M. R. Composition of “Jane eyre” and “Wide sargasso sea” //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2023. – T. 12. – №. 5. – C. 74-79.
5. Kilicheva M. R. Artistic-psychological description and classification of loneliness in literature //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 997-1001.
2. Kilicheva M. R. Artistic-psychological description and classification of loneliness in literature //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 997-1001.
3. <http://britannica.com/art/childrentimes>
4. <http://academia.edu/childrens/literature>

THE ANALYSIS OF PROVERBS IN THE WORK “THE EVENING WHEN THE HORSE NEIGHED” BY TOGAY MUROD

M. Kh. Niyazova,
PhD in philological sciences
Bukhara State University
M.A.Tuxtayeva,
2nd year master student
The department of English literature
m.a.tuxtayev@buxdu.uz

Abstract: This article focuses on the richness of the Uzbek language, as well as its attractiveness in fiction, using Uzbek proverbs. In particular, the proper use of expressive means in the speech of artistic images created in works of art has made it possible to clearly reveal the character traits of artistic images. Phrases based on literary language and dialects are widely used not only in works of art, but also in our daily needs. This article is based on the phrases from Togay Murad's “The evening when the horse neighed” one of the rare masterpieces of Uzbek art.

Key words: proverbs, parema, semantics, folk art, expressiveness, figurativeness, horse, irony.

Proverbs are small, concise, sharp, wise folk sayings that are used expressing a grammatically complete idea both figuratively and literally. Studying proverbs, in particular folk art is very important today. Knowledge of folk proverbs learning and collecting as an object dates back to the beginning of the 20th century. Sh. Shorahmedov, Kh. Sharafiddinov and Kh. Abdurakhmanov, who sheds light on the linguistic features of proverbs research has arisen B.A. Soatov determined the characteristics of genre features and poetry of Uzbek folk proverbs.[1,53] Sh.Shomaksudov and Sh.Shorakhmedov in their "Meanings in the Makhzani" collection, they arranged the proverbs in alphabetical order. It includes collection of 20 thousand proverbs. It contains the etymology and alternatives of proverbs. [2] Such words, which have the possibility to be imported into speech readily, are also called aphorisms. In linguistics, proverbs and wise sayings are also called "parems". [3,64]

One of the most common images in folk proverbs is the animal world, i.e the reference of animals in proverbs. Animal images are not only used in proverbs to strengthen figurativeness in proverbs, but also to be the basis for their becoming more impressive. By using animal images human characteristics in proverbs can also be expressed. Based on their characteristics, people with such characteristics are ridiculed and criticized.

Proverbs are used to ensure the vernacularity and truthfulness of the work of art. The writer Togay Murad used proverbs widely in order to achieve emotional expressiveness and enrich the characters' speech. Proverbs used in the story "The evening when the horse neighed" served to reveal the way of life and character of people. In the story, there are animal words such as horse and cattle, good and bad, anger and intelligence words with opposite meanings used figuratively, and their main function is to express the character of a person. Below, we will try to analyze the proverbs mentioned in the story semantically according to its meaning:

Mol egasiga o'xshaydi – this proverb refers to Rikhsiyev's sheep in the story. Rikhsiyev is a wise and educated reporter. His sheep are different : they are not greedy like other sheep, they eat food selectively or drink water selectively. Based on these characteristics, the above proverb is related to Rikhsiyev's sheep.

Ko'rpangga qarab oyoq uzat; El og'ziga elak tutib bo'lmaydi; Bor bo'lsa berolmaydi, yo'q bo'lsa ko'rolmaydi these proverbs are used in the same situation, i.e. when Ziyodulla purchased about three thousand horse and the people criticized him by saying these proverbs.

Oshingni yesa-da mard yesin, boshingni yesa-da mard yesin; Sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi proverbs like these are used during uloq by people from Boysun when they won the game.

Based on the title of the story, we will analyze proverbs related to the word "horse". It is the author's special skill to use proverbs related to the title of the work. Proverbs applied during the Uloq process, expressing the kindness of a horse rather than a human being, and human characteristics through an animal makes the

meaning much more clear. The word “horse” that is used in these proverbs figuratively have both positive and negative connotations and are used to criticize people using sarcasm and irony. Below, there are given proverbs that contains the word “horse”: *Otga minsang – boshingni o’yla, yerga tushsang – otingni o’yla;* (when you get on horse think about your head, when get off about your horse) *Oti borning – qanoti bor;*(if you have a horse, you have wings) *Ot tepkisini ot ko’taradi;*(only a horse bears other horse’s kick) *Eshak yiqitsa, tuyog’ini to’shaydi, ot yiqitsa, yelini to’shaydi; Yolg’iz otning changi chiqmaydi, changi chiqsa-da dong’i chiqmaydi; Otdan tushsa ham egardan tushmaydi.*

In short, proverbs exist in the life of a nation and is actively used in everyday life. These lexemes create their image in the language and show the national mentality of peoples. Proverbs are national, cultural and spiritual sayings of uzbek people passed down from generation to generation. National customs, values and traditions characteristic of the Uzbek people are also used in proverbs of the story "Evening when the horse neighed". Through the use of these kind of proverbs the spirit of character of people is noticeable. The proverbs used in the story are simple and served to reveal people’s character, characteristics, way of life. These proverbs reflect the semantic meanings in the process of the text and draw the reader’s attention helping them to understand the situation concretely by correct explanation.

REFERENCES

1. A.Soatov. O’zbek xalq maqollarining janr va she’riy xususiyatlari. – Toshkent. 1990. 53-bet.
2. Sh.Shomaqsudov., Sh.Shoraxmedov. Ma’nolar maxzani. – Toshkent. 2001.
3. M.Qurbonova., M.Yo’ldoshev. Matn tilshunosligi. – Toshkent.: Universitet. 2014. 64-bet.
4. O’zbek shevalari leksikasi. T, Fan, 1966.-326-b.
5. Tog’ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Toshkent, 2017.-174-b.
6. S.Qoraev. Toponimika.T, O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati 2006.-318-b.
7. E.Begmatov. O’zbek ismlari ma’nosi. Toshkent, 1998.-604-b.
- 8.

TOG`AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ASARIDA SHEVALAR TAVSIFI

*F.I.Jahonova,
BuxDU, talabasi*

Annotatsiya: Tog`ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asari har tomonlama o`rganilishi hamda tadqiqi qilinishi muhim ahamiyatga ega asardir.Ayniqsa asarning badiiy tili chiroyli tarzda yoritilgan.Dialektalogiya sohasidagi kerakli manba hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: Sheva, lahja, qarluq, qipchoq, oʻgʻuz, fonetik, leksik, morfologik tahlil, tilshunoslik, dialektologiya

Sheva - tilning fonetik ,grammatik va lugʻaviy jihatdan oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan eng kichik hududiy koʻrinishi. Avvalo til mavjud ekan uning turli koʻrinish(sheva)i ham mavjud boʻladi. Shu jumladan ,oʻzbek tili shevalari shakllanib ,oʻtgan asrning 20-30 yillaridan ilmiy asosda oʻrganila boshlangan. Lahjalar nafaqat soʻzlashuvda, balki badiiy adabiyotda ham aks etadi. Badiiy adabiyotda adib dialektizmlardan ikki oʻrinda foydalanadi, yaʼni dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini koʻrsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida hamda adabiy tilda sinonimi boʻlmagan soʻzlarni majburan qoʻllaydi. Hatto butun boshli badiiy asarda mahalliy sharoit, mahalliy mentaliterni, ruhiyatni ifodalashda toʻligʻicha sheva xususiyatlaridan foydalangan holda tasvirlaydi. Bunga Togʻay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarlarini keltirish mumkin. Ushbu roman -ramziy roman hisoblanib, muallif oʻz romanida sobiq shoʻrolar zamonida yashab ,yelkasi oftob koʻrmagan xalqni sodda tarzda talqin qiladi.

Asosiy qism. Ushbu asar voqealari Surxon vohasida boʻlib oʻtgan sababli asar tili, shevasi ham shu hududga tegishli. Oʻzbek tili tarixiy taraqqiyotida 3ta lahjaning birligidan tarkib topgan:

1. Qarluq – chigil – uygʻur lahjasi
2. Qipchoq lahjasi
3. Oʻgʻuz lahjasi

Qarluq-chigil -uygʻur lahjasi - Fargʻona vodiysidagi, Toshkent va Zarafshon vohalaridagi shaharlar va ularga yaqin aholi maskanlari shevalarini oʻz ichiga oladi;

Qipchoq lahjasi - Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Shimoliy Shimoliy Xorazmdagi hamda Fargʻona va Ohangaron vodiylaridagi "j"lovchi oʻzbek shevalarini oʻz ichiga oladi;

Oʻgʻuz lahjasi - Janubiy Xorazm (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp va boshqalar) va Turkmanistondagi oʻzbek shevalaridan iborat.

Mazkur lahjalarning fonetikasi, grammatikasi va lugʻat tarkibida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar mavjud, lekin bu farqlar ularni birbiridan keskin ajratmaydi. Bu Lahjalar oʻzbek xalqi va tilining paydo boʻlishi va rivojlanishida yetakchi oʻrin egallab, oʻzbek adabiy tilining shakllanishi va undagi ayrim lisoniy hodisalarning barqarorlashishida ishtirok etgan.

Biz tahlil qiladigan asarimiz tarkibidagi sheva qipchoq lahjasi tarkibiga kiradi.

Oʻzbek – qipchoq lahjasi – Bu lahjaga Oʻzbekistonning Ohangaron vodiysi ,Mirzachoʻl ,Samarqand,Zarafshon ,Buxoro atroflari,Qashqadaryo,Surxondaryoda yashovchi oʻzbeklar kiradi.

Shevaga oid soʻzlarni 3 jihatdan tahlil qilish mumkin:

1. Fonetik
2. Leksik
3. Morfologik

Asarda uchragan soʻzlarni shu jihatdan guruhlariga ajratamiz.

1. Fonetik jihatdan farqlanuvchi soʻzlar

- **Qozon-tobog`** - adabiy tildagi ko`rinishi “qozon-tovoq” bo`lib, “v” va “q” undoshlari “b” va “g” shaklida qo`llanilgan. Asarda ifodalanishi:
“Bolalar mayda-mayda satillarda suv tashidi.
— Bo`ldi, loydan chiq, — dedim. — Bor, mol-holingga qara, qozon-tobog`ingga qara.
Ayolimiz loydan chiqaman dedi — chiqolmadi, chiqaman dedi — chiqolmadi.
Oyog`ini loydan
tortib ololmadi!”
- **Zaril** – “zarur” so`zining dissimilatsiya shaklida o`zgargan ko`rinishi. Asarda qo`llanilishi quyidagicha:
“...Yopishib oldim, kuyinib oldim.
— Molxonamizni yarmi yo`q! — dedim.
— Yo`q bo`lsa nima qilayin? Mol **zarilmi**, paxta **zarilmi**?
— Paxta **zaril**!
— Otangizga balli, paxtani oldida mol nima degan gap!...” Qahramon tilidan qo`llanilgan.
- **Noparmon** – Asarda tovush o`zgarishi natijasida shu ko`rinishda ishlatiladi. “p”-“f”
“...Bir xushro`y bargli o`t bilan ro`paro` bo`ldim.
O`t bir bargi **noparmon** bo`ldi, o`t bir bargi qip-qizil bo`ldi. O`t uchida popugi-da bo`ldi.
Popugida g`uj-g`uj donalari-da bo`ldi...”
2. Leksik jihatdan farqlanuvchi so`zlar :
- **Poshikasta** – Asarda “ojiza”, “zaif” degan ma`nolarda qo`llaniladi.
“... - Manavi cho`chqalaringga ayt, **poshikasta**-zaifalarni undaychikin so`kmaydilar”
- **Chekanka** – hosil tugish davrida g`ozani chiqayotgan bargchalarini olish mashg`uloti degan ma`noni bildiradi. Asarda ham shu ma`noda qo`llaniladi.
“...Hozir dalada ish qo`qigan vaqt. Davlat hozir pul bersa, kolxozchi kam-ko`stimni tuzatayin deb, bozorma-bozor chopadi. Dalada ish qolib ketadi. **Chekanka** vaqtida esa chekankadan boshqa ish bo`lmaydi. Tushundingmi? Davlat anoyi emas.
- **Olqindi** – ko`p ishlatish natijasida yupqalashgan ,yeyilib ketgan sovun.
“...Men qo`llarimdi **olqindilab-olqindilab** yuvdim...”
- **Nimkala** – uyqusirab qarash degan ma`noda qo`llaniladi. “...Shunda ,uyqum qochdi. **Nimkala** ko`z ochdim. Uyquli qaradim...”
- **Gulligich** – xonqizi (hasharot) ma`nosida qo`llangan . “Dalalarimga xinqizi degich hasharot aylandi. Biz surxonliklar xonqizini **gulligich** deymiz...”
- **Bidon** – Suyuqlik solinadigan qopqoqli idish. Asar qahramoni hisoblangan Dehqonqul nutqida qo`llanilgan:
“...Nima deyishimni bilmadim. Kelgich izimdan qaytib kelaberdim.
Uydan katta **bidon** olib keldim.
Bidon bilan yelkamda suv tashidim. Besh-olti marta qatnadim.

Loy suvladim. Loy yuzi kilkillab-kilkillab qoldi”

- **Bebilchak** – Oyoq yuzining do`ng joyi.
 - **Satil** – shevada chelak ma`nosida qo`llaniladi
“...O`nga **satillab-satillab** suv sepib turdi. Gilamni ho`llab-ho`llab, o`nga yopib-yopib turdi...”
 - **G`umay** – boshqodoshlarga mansub ko`p yillik begona o`t.
“...**G`umay**larni tag-tomiri bilan qo`porib to`daladim. Jarariqqa olib borib ko`mib tashladim...”Asar bosh qahramonining nomi ham bejizga Dehqonqul deya nomlanmagan.Qahramonning mashg`uloti ham dehqonchilik hisoblanadi.Shu boisdan asarda uchraydigan atamalarning ko`pchiligi dehqonchilikka oid.
 - **Jovuz** – Uzunning bir turi bo`lib,qahramon tilidan qo`llangan:
“... - Husayni, nima edi ?
- Men **jovuz**mikin debman...”
 - **Kadi** – qovoq yoki oshqovoqning po`stlog`idan tayyorlanadigan idish ma`nosida qo`llanilgan. “...Molimiz illa bir **kadi** sut beradi...”
“...Elga **kadida** qatiq tutadi...”
 - **Boshmaldoq** – (asli bosh barmoq)Qo`l yoki oyoq panjasining birinchi barmog`i.
“— Ana atlas, mana atlas! — dedi Ideologiya. — Qalay, o`rtoq rejissyor? Rejissyor **boshmaldoq** narraytirib ko`rsatdi. — Bravo! — dedi.
— Ana, o`zbek sovet xotin-qizlari! — dedi Ideologiya.”
 - **Moljallob** – dallol ma`nosida qo`llaniladi.
“...Molbozorda **moljallob** degich kimsa bo`ladi.
Moljallob uchun kirim bo`lsa bo`ldi — buzoqni ho`kiz deya sotib beradi. **Moljallob** uchun kirim bo`lsa bo`ldi—echkini qo`y deya pullab beradi...”
 - **Baharnav** – bir navi ,chidasa bo`ladigan ma`nosida qo`llangan .Talaffuz o`zgarishi natijasida so`zning shakli ham o`zgargan.
“ – Qalay, Dehqonqul Akbarovich ? – deya ko`ngil so`radi.
- **Baharnav – baharnav!**”
 - **Sibizg`a** - cho`pon nayi,puflab chalinadigan musiqa asbobi .
“...Zim-ziyo tunda karnay-surnay qani?
Shunda el hovuchlari bilan karnay chaladi. Hovuchlari bilan surnay chaladi. Hovuchlari bilan **sibizg`a** chaladi...”
 - **O`qlog`**- Oshxamir yoyish uchun ishlatiladigan uzun silliq tayoqcha,o`qlov,o`qlovi,o`qloqi.
 - **Tanapo`sh** –Asarda ushbu so`z ustki kiyim (chopon) ma`nosida foydalanilgan.
“...Bayroqchi aji-buji dorilar bilan bulg`anmish janda chopon beradi.
— Manavi **tanapo`sh**, — deydi. — Jaydari **tanapo`sh**. **Tanapo`sh** chopon yirtiq-yirtiq bo`ladi.
Tanapo`sh chopon qo`lansa is-qo`lansa is bo`ladi...”
3. Morfologik jihatdan so`zlarning farqlanishi
- ❖ **Bundaychikin** – aslida “bundayin”. -**chikin** qo`shimchasi shevada qo`llangan .
“...Direktorimiz **bundaychikin** ishlar uchun oz teruvchilarni jo`natadi.
Ertalab brigadir tag`in sarg`ayadi...”

❖ **Tashqarilamoq** – “Tashqariga chiqmoq”, “oldinlamoq” soʻzlarining oʻzgarishga uchragan shakli.(Ichkarilamoq)
“...Eʼtibor berib quloq soldim – ayolimiz ovozi oʻchib qoldi.Xudo insof berdi-e ,deya **tashqariladim...**”

❖ **Qimirlamishday** – aslida “qimirlaganday”. – **mish** qoʻshimchasi ,**-gan** vazifasida kelgan.(**Erkalamishday,elaklamishday**).Masalan:

“1)Dalalar ostida koʻrsichqon **qimirlamishday** boʻldi.

2)Osmon misoli un **elaklamish-** un **elaklamish** boʻldi.”

Quyidagi bir -birini takrorlamas soʻzlar orqali asar ham til jihatini,ham oʻsha davr mohiyatini ochib beradi.

XULOSA.

Tilimizda mavjud har bir birlikning ahamiyati juda katta hisoblanadi.Ular tilshunoslik fani bilan bir qatorda unga yondosh fanlarni ham asosiy oʻzagidir.Til ifoda vositasi ekan,uni har bir boʻlagini oʻrganish chuqur ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent :“Navroʻz” nashriyoti, 2016.- 136b.
2. .Reshetov V.,Shoabdurahmonov Sh.Oʻzbek dialektologiyasi.- Toshkent:Oʻqituvchi,1978.-230b.
3. T.Murod. Otamdan qolgan dalalar.-Toshkent: “Sharq”,1994.-168b.
4. Rahmonov B. “Qashqadaryo va Surxondaryo qipchoq dialekt va etnografizmlarini yaxlit oʻrganish muammolari”maqolasi

F.ROTNING “HUMAN STAIN” ASARIDA RUHIY JAROHAT IFODASI

*S.L.Xayrulloeva,
Buxoro davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya. 2000-yilda afro- amerikalik professor oʻzini yahudiy sifatida tanitganligi haqidagi romanda, nima uchun Rot bizni Vyetnamga qaytarib olib boradi, Xolokostdan keyin paydo boʻlgan falsafiy muammolardan aks-sado beradi? Ehtimol, Rot oʻzining “Human Stain” asari orqali koʻpchilik unutgan mavzu, inson ruhiy jarohati va uning taʼsiri masalasiga jamoatchilik eʼtiborini qaratmoqchi boʻlgandir.

Kalit soʻzlar: PTSD, ruhiy jarohat, Vyetnam urushi

Karutning tahrirlangan toʻplami “Trauma Explorations in Memory” (“Travma: Xotiradagi tadqiqotlar”) PTSD (travmadan keyingi stress buzilishining) kelib chiqishi bilan boshlanishi zamonaviy madaniyatimizda tashxis sifatida koʻrsatilishi mumkin: Vyetnam urushidan beri psixiatriya, psixoanaliz va sotsiologiya sohalarida ruhiy jarohat muammosi bilan yana qiziqishni uygʻotdi. Bunga javoban Vyetnam urushi, uning taʼkidlashicha, Amerika Psixiatriya Assotsiatsiyasi Diagnostik statistik qoʻllanmaning yangilanishida PTSDni tan oladi

va bu tibbiy sohada bo'lganlar va ijtimoiy olimlar ko'plab boshqa tajribalarga qo'shimcha ravishda, askarlarning Vetnam urushiga bo'lgan takrorlanuvchi javob reaksiyalari "*oddiy inson tajribasi doirasidan tashqarida*" ekanligini ko'rsatadi. Karut davom etganidek: "Shikastlanishning psixoanalitik va tarixiy tahlilining yakuniy ahamiyati quyidagilardan iborat ruhiy jarohat paytidan boshlab undan qochishga bo'lgan tabiiy intilish birinchi paydo bo'lgan ondanoq, shuningdek, voqeani boshqalarga eshittirish orqali tarqatishdir.

Ya'ni bunda travmaning ko'chish hodisasiga urg'u berilyapti. Ruhiy jarohat o'sha onning o'zi bilan chegaralanmaydi, balki u boshqalarga ham ko'chadi. Misol uchun, Freydning Angliyadagi surgunidan so'ng, oxirgi kitobini travma bo'yicha yozgan va uning o'limidan oldin ingliz tiliga tarjima qilingan asari "*Moses and Monotheism*" asari ichida Xirosimadan omon qolganlar birinchi bo'lib o'z hikoyalarini Qo'shma Shtatlarga yetkazishdi. Jon Xersi tomonidan yozilgan hikoya orqali yoki umuman omon qolganlar haqida bir madaniyatning boshqa bir madaniyatning omon qolganlariga qaratilgan falokatlari bu asarda hikoya qilinadi. Karut uchun, psixoanalitik tahlilchining tayyor tinglovchi sifatida harakat qilish usuli barchamiz - kitobxonlar, fuqarolar uchun muayyan madaniyatni. Tarix, o'tmishdan guvohlik beradi, Hartman va Laub Holokost guvohligi uchun arxiv Fortunoff videosini yaratishda buni bilishgan. Xolokost tadqiqotlaridan tashqariga chiqib, Karut PTSD ning "tug'ilishi" ni Vyetnam bilan bog'laganida ushbu loyihani kengaytiradi va keyinchalik o'z karerasida u Amerikaning Iroqdagi urushini Vetnam urushining ta'sirini to'liq bartaraf eta olmasligimizning bevosita natijasidir deya taklif kirgizadi.

Rot ham buni biladi -Bu, Laubning so'zlariga ko'ra, "empatik tinglovchining yo'qligi yoki tubdan, iztirobni eshitadigan boshqa odamning yo'qligisabablar insonlar o'z xotiralarini va shu bilan ularning haqiqatini tasdiqlaydilar va tan oladilar, va o'z hikoyalarini yo'q qiladilar. Psixoanalitik ishning muhim hissalaridan biri u boshqa manzilga, empatik tinglovchiga, hikoyani tan olishga imkon beradi: "Tarixiy boshqa biror ishni boshlashdan oldin voqelikni hammadan oldin qayta qurish va tasdiqlash kerak". Natan Sukerman, obrazi orqali Filipp Rot bizga o'z-o'zini angelaydigan hikoya ovozini taqdim etadi: u o'zini empatik tinglovchi, boshdan kechirgan dahshatlarning guvohi sifatida ko'rsatadi. Les Farli, "*The Human Stain*" asaridagi Vyetnam faxriysi, uning buguni uning o'tmishi kabi qiynoqqa solingan.

Biz romandagi Lesning g'azablangan holatini biladigan birinchi daqiqalardan biri bu qachon Sukerman xabar beradi, yoki, ehtimol, Kolman Silk va Les o'rtasidagi qarama-qarshilikni tasavvur qiladigan paytdir.

Sukerman buni "to'qnashuv" deb ataydi. "to'qnashuv" so'zini u ikki jumlada ikki marta takrorlaydi: "*Farli bilan to'qnashuv*". Farli bilan o'sha kechadagi uchrashuv axloq tilidan foydalangan holda bir lahzada biz aks holda zo'ravonlik bilan bog'lanamiz. Keyingi sahifa, masalan, biz Les Farlining boshida, uning Vyetnamdagi harakatlari haqidagi xotiralarini o'qiymiz, shu jumladan, "*quloqlarini kesib, chunki ular bor edi va ular vazifasini amalga oshirib bo'lgan*" va u "*bir necha homilador ayolning qornini kesib tashlagan*". Les Farlining urush davridagi

tajribalarini aks ettiruvchi to'qqiz sahifali nutq vaqtni orqaga qaytaradigan va oxir-oqibat hozirgi bilan bog'laydigan butun qism o'tmishda, bolalarining yonayotgan uyda vafot etishi va u qaraganida uning guruh psixoterapiyasi sessiyasi, odatda, Les Farlining tushunchasi bilan yakunlanadi: "Mening bolalarim o'lgan, lekin mening tanam hech narsani his qilmaydi va mening fikrim bo'sh. U "Vyetnamda allaqachon vafot etgan" deydi, biz unga ishonamiz. Biz uni his qilamiz. Urush faxriysi sifatida bir vaqtning o'zida uning harakatlari uchun undan nafratlanamiz ham.

Sukerman hozircha qolish kerakligini bilgan narsa bu yaqinda sodir bo'lgan qotillikni tan olish emas, lekin o'tmishdagi qotilliklarni eslaydi; u to'satdan undan so'ralgan lahzada - u o'ldirishdan ko'ra gapirishni tanlaydi. Sukerman Les Farlini o'zlashtirish uchun Vetnam tarixi va uning tarixini qayta taqdim etish uchun haqiqiy tahlilchi ning ishiga muvofiq, u yana Farlini o'zining ahvoli haqida gapirishga undaydi:

U bir hamshira unga shunday: "Siz ular post-travmatik stress buzilishi deb ataydigan narsadan o'tmoqdasiz" va buni tushuntirib: "Hodisalar ongingizga sizni Vyetnamga qaytib olib boraveradi " deganini eslaydi.

Nihoyat, qachon Les Farli Natandan nima haqida yozayotganini so'raydi, Natan shunday dedi: "sizga o'xshagan odamlar haqida. Ularning muammolari haqida" o'zi yozayotgan kitobning nomini "*Human Stain*" deb ataydi.

Les Farlining Vyetnamda guvohi bo'lgan voqealari va PTSDning yakuniy tashxisi haqidagi tavsifi o'rtasida bu o'z-o'ziga havola qilingan burilishda Natan nima uchun qotil oldida hayrat bilan turganini tushunishimizga yordam berishi mumkin.

Roman so'nggi sahnaning oxirida Les shunday deydi: "Kitobingizdan bir nusxasini yuboring" Bu biz qo'limizda ushlab turgan kitob, shunchaki, Bill yoki Coleman haqidagi kitob emas, Vyetnam hikoyasini o'z ichiga olgan va axloqiy guvoh sifatida Neytan yuz o'gira olmaydigan ruhiy jarohat- Les Farli haqida kitob.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khayriddinova G. O. et al. PERSONAL RELATIONS IN THE BRIDAL SEAMSTRESS STORY (THE DEW BREAKER) BY EDWIDGE DANTICAT //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 115-117.
2. Khayriddinova, G. O. "Description of Parental Influence in "East of Eden" by John Steinbeck." INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 1.4 (2022): 94-97.
3. Ganieva Orzigul Khayriddinova, & Ashurova Nigina Aziz Qizi. (2023). INDIRECT CHARACTERIZATION IN JAMAICA KINCAID'S «MR. POTTER». International Journal Of Literature And Languages, 3(12), 51–56. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue12-10>
4. Sadullaev Feruz Bakhtiyorovich, & Safarova Dildora Kabilovna. (2023). The Literary Significance of "The Jolly Corner" in Henry James's Oeuvre. Miasto

Przyszłości, 42, 726–729. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2172>

5. Sadullaev Feruz Bakhtiyorovich. (2022). PECULIAR FEATURES OF HENRY JAMES’S EARLY NOVELS. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(12), 36-38. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2996>

6. Sadullaev Feruz Bakhtiyorovich, & Daminov Jamshid Zafarovich. (2024). Description of Women Image in the Story “the Cut Glass Bowl” by F. Scott Fitzgerald. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(1), 1–3. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2474>

7. Хайруллоева, С. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ РОМАНЫ США И РАЗВИТИЕ ПСИХОЛОГИЗМОВ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 4(4). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N38>

8. Lutfulloyevna, K. S. (2023). THE NOTION OF TRAUMA AND IDENTITY IN “THE AMERICAN PASTORAL” ABSTRACT. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 9(3), 78-85.

9. Lutfulloyevna, X. S. (2023). ZAMONAVIY AMERIKA ROMANLARIDAGI PSIXOLOGIZMLAR VA RUHIY JAROHAT. TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR, 11, 37-40.

STOITSIZM FALSAFASI VA SHARQ DIDAKTIKASI (“TAZKIRAT UL-AVLIYO” ASARI MISOLIDA)

Z.R.Axrorova,
Buxoro davlat universiteti
I bosqich magistranti
z.r.axrorova@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada stoitsizm falsafasi va Sharq didaktikasi, tasavvuf masalalari tahlilga tortilgan. Insonning kamoloti uchun zarur boʻlgan sifatlar turlicha qarashlar orqali yoritilgan.

Kalit soʻzlar: stoitsizm, “Tazkirat ul-avliyo”, komil inson tushunchasi, Marcus Aurelius.

Stoitsizm - qadimgi Yunoniston va Rimda paydo boʻlgan falsafa. Uning negizida ezgulik bu yagona yaxshilik, tashqi omillar, masalan, boylik, shon-shuhrat, zavq-shavq baxt uchun muhim emas. Stoiklar biz oʻzgartira olmaydigan narsalarni qabul qilishimiz va tabiatga muvofiq yashashga eʼtibor qaratishimiz kerak, deb hisoblashadi. Stoiklar fazilatni yagona yaxshilik deb hisoblashadi. Fazilat tabiat va aqlga muvofiq yashash deb taʼriflanadi. Stoiklarning fikricha, boylik, shon-shuhrat va zavq kabi tashqi omillar baxt uchun muhim emas. Bu narsalar bizga na yordam

beradi, na zarar yetkazadi, deb hisoblashgan. Stoiklar biz o'zgartira olmaydigan narsalarni qabul qilishimiz kerak, deb hisoblashadi. Bu biz passiv bo'lishimiz yoki taqdirimizdan voz kechishimiz kerak degani emas. Aksincha, bu biz nazorat qila oladigan narsalarga e'tibor qaratishimiz va qila olmaydigan narsalardan voz kechishimiz kerakligini anglatadi. Stoiklar o'z harakatlarimizni boshqarish uchun aqlimizdan foydalanishimiz kerak deb hisoblaydilar. Aql - bu yaxshi va yomonni farqlashning yagona yo'li. Stoitsizm katta ijtimoiy-siyosiy silkinishlar davrida rivojlangan. Rim respublikasi tanazzulga yuz tutdi va noaniqlik va xavotir hissi kuchaydi. Stoitsizm odamlarga bu qiyinchiliklarni yengish va hayotlarida ma'no topish yo'lini ko'rsatdi.

Stoitsizm odamlarga quyidagilarni o'rgatgan:

1. O'z his-tuyg'ularini nazorat qiling: Stoiklar his-tuyg'ular mantiqsiz va noto'g'ri qarorlarga olib kelishi mumkin deb hisoblashadi. Ular odamlarni his-tuyg'ularini nazorat qilishni va voqealarga oqilona munosabatda bo'lishni o'rgatadi.

2. Taqdirni tan oling: stoiklar biz bilan sodir bo'layotgan hamma narsani nazorat qila olmaymiz, deb hisoblashadi. Ular odamlarga o'z taqdirini tan olishga va o'zlari nazorat qila oladigan narsalarga e'tibor berishga o'rgatadi.

3. Hayotdan ma'no toping: Stoiklar, biz fazilatga muvofiq yashash orqali hayotimizda ma'no topishimiz mumkin, deb hisoblashadi. Ular odamlarni o'z munosabatlariga, ishlariga va jamoalariga e'tibor berishga o'rgatadi. Tarix davomida stoitsizمنى ko'plab misollari mavjud. Ba'zi mashhur stoiklarga quyidagilar kiradi:

Mark Avreliy: Mark Avreliy o'zining stoik yozuvlari bilan mashhur bo'lgan Rim imperatori edi. U o'zining "Meditatsiyalar" kitobida tabiat bilan uyg'un yashash, taqdirimizni tan olish va hayotimizda mazmun topish muhimligi haqida yozadi.

Kichik Seneka: Kichik Seneka Rim faylasufi va davlat arbobi edi. U ezgulikning ahamiyati, tashqi omillarga befarqligi, taqdirimizga tan olish zarurligi haqida yozgan stoik edi.

Epiktet: Epiktet yunon faylasufi bo'lib, umrining ko'p qismini qullikda o'tkazgan. U tabiatga mos ravishda yashash va taqdirimizga tan berish muhimligini o'rgatgan stoiklardan biri edi.

Aytishlaricha, qorong'u kechada Xenofon Afina yaqinida sayr qilayotgan edi, shunda bir inson uni to'xtatib: "Men ba'zi narsalar sotib olmoqchiman, qayerga borsam bo'ladi?" deb so'raydi. Xenofon bozorni ko'rsatib, inson u yerdan ko'ngli tusagan narsani olishi mumkinligini aytadi. So'ng, o'sha odam: "Ayt-chi, inson eng yaxshi sifatlarga ega bo'lishi uchun qayerga borishi kerak?" deb so'raganda, Xenofon javob berolmay qoladi. O'sha inson o'zini Suqrot deb tanishtiradi va ular do'st bo'lib, eng yaxshi inson bo'lish uchun harakat qilishadi.

Sharq adabiyotida, xususan, Attorning "Tazkirat ul-avliyo" va Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida inson eng yaxshi sifatlarga ega bo'lishi, komil inson darajasiga erishishi uchun, avvalo, bir necha yo'llardan o'tishi kerak. Bu yo'llarning debochasi, albatta, tavba yo'lidir. Tavba islomda alohida e'tibor qaratilgan masalalardan biridir. Bu borada Qur'oni Karimning qator oyatlarida zikr etilgan. Hatto "Tavba" nomi bilan yuritiluvchi suraning mavjudligi bu masalaning

alohida ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi: “Bas, agar tavba qilsangiz, u o’zingiz uchun yaxshidir” (“Tavba” surasi 3-oyat) [3, 187]. Islom dini bag’rida shakllangan tasavvuf ta’limotida ham tavba eng dastlabki va asosiy maqom sanaladi. “Tazkirat ul-avliyo” da tavba bilan bog’liq bir necha hikoyatlar mavjud. Fikrimizni asarda keltirilgan Shayx Abdulloh bilan bog’liq hikoyat tasdiqlaydi. “Bir kuni shayx hazratlari bir kofir bilan kurashadilar. Namoz vaqti bo’lgandan so’ng, kofirdan ibodat qilishlari kerakligini so’raydilar. Shayx eson-omon ibodat qilganlaridan so’ng, bir muddat urushdilar. Shu vaqt kofir uning ham ibodat vaqti bo’lganligini aytib, muhlat so’raydi. Shayx Abdulloh unga muhlat beradilar. Kofir yuzlarini butga qo’yib, yalinar, unga kuch berishini so’rar edi. Ayni shu vaqtda, shayx kofirni o’ldirmoqchi bo’ladilar, lekin bu fikrdan qaytib, yig’lashni boshlaydilar. Kofir u kishidan yig’lash sababini so’rganida, u kishi sen kufring bilan ahdingni buzmadim, men islom dinida bo’la turib, seni o’ldirmoqqa jazm etdim, deb javob beradilar. Bu yig’ining sababini bilgach, kofir darhol iymon keltirdi. Bu hikoyatdan biz inson o’z va’dasida turishi, arzimas gunoh qilsa ham, darhol tavba qilish kerakligini o’rganamiz”.

Tavbadan tashqari, tasavvufda nafs masalasiga ham e’tibor qaratilgan. Nafs arabcha so’z bo’lib, lug’atlarda “qalb”, “ko’ngil” yoki “yeyish - ichishga bo’lgan ehtiros”, degan ma’nolarni anglatishiga urg’u beriladi. Ko’pgina shayxlar qatori mazkur masalaga shayx Fariduddin Attor ham alohida ahamiyat qaratgan. Jumladan, “Tazkirat ul-avliyo” asarida nafs tarbiyasi bilan bog’liq bir qancha hikoyatlarni keltirgan, masalan: shayx Yahyo ibn Muoz Roziyning o’g’itlarini misol qilib keltirish mumkin:” Har kim taomni ko’p yesa, farishtalar uning uchun ko’p yig’laydilar. Chunki ko’p yeguvchi shahvat o’tiga bog’langandir” [1, 307]. Ko’p so’zlamolik ham insonni toat - ibodatdan qo’yar. Shuning uchunkim, hazrati Payg’ambar “Sukunat ham ibodatdir”, -demishlar [4, 41]. Bunga qo’shimcha sifatida, shayx Savriyning “Avvali ibodat sukutdur, undan so’ng talabi ilmdir” [1, 207] kabi hikmatlarini ham misol keltirishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, stoitsizm falsafasida ham, tasavvufda ham komil inson tarbiyalash, ruhiyatni tozalash asosiy o’rinlarda turadi va shu kabi sifatlar ularni birlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Donald Roberson. How to think like a Roman Emperor: The stoic philosophy of Marcus Aurelius. St.Martin’s Press. New York
2. Attor F. Tazkirat ul-avliyo.Toshkent.G’.G’ulom.2013y.
3. Qur’oni Karim. SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjiması.Toshkent. 2011.
4. Хаққулов И. Тасаввуф сабоқлари. Бухоро. Бухоро Давлат университети нашриёти. 2000й.

ОСНОВНЫЕ ТЕМЫ ВОПРОСОВ В ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ Б. ПАСТЕРНАКА: АНАЛИЗ ВТОРОГО И ТРЕТЬЕГО ПЕРИОДОВ ТВОРЧЕСТВА

С.М.Остонова,

БГУ, Магистрант 2-курса Лингвистика: Русский язык

s.m.mavlonovna@buxdu.uz

В рамках аналитического изучения творческих работ «Сестра моя — жизнь» и «Темы и вариации», необходимо подчеркнуть, что тщательный анализ основополагающих тематических линий этих произведений выявляет доминирование мотивов аффективных связей, переживания разлуки и, в более обширном контексте, интенсивных эмоциональных состояний, которые играют роль медиатора между субъективным опытом личности и его взаимодействием с окружающим природным ландшафтом и космосом в целом. Эти эмоциональные переживания, с одной стороны, и диалог с артистической средой, с другой стороны, лежат в основе дискурсивной структуры. В сборнике «Сестра моя — жизнь» акцентируется внимание на аспектах любовной связи и с ней ассоциируемых чувствах, таких как восторг, ностальгия, ревность, что находит отражение в 36 вопросах, из которых 29 прямо связаны с эмоциональным спектром лирического персонажа и его объекта чувственного влечения. Примеры таких вопросов включают рефлексии о целесообразности выражения эмоций через физические действия, запросы к партнеру о его желаниях и счастье, а также рассуждения о возможности переживания радости и тоски. В дополнение к личным эмоциям, в тексте также присутствуют вопросы о чувствах, вызванных социальными и политическими событиями, что демонстрируется на примере реакции на встречу А.Ф.Керенского в Москве в мае 1917 года, указывающей на взаимосвязь между историческими событиями и личными переживаниями индивидов.

«В чьем это сердце вся кровь его быстро
Хлынула к славе, схлынув со щек?»

В рамках исследования второй значимой категории вопросительных предложений, которая охватывает не менее обширный спектр, можно выделить те, что описывают эмоциональное состояние не только лирического субъекта, но и окружающего его мира, включая природу, время и предметы, находящиеся в тесной связи с человеческими переживаниями. Эти элементы отражают внутренние ощущения лирического субъекта и демонстрируют формирование поэтики метонимии у Бориса Пастернака, что было подробно проанализировано Романом Якобсоном на примере прозаических работ Пастернака, но, как подтверждается исследованиями в области пастернаковедения, также присуще и его лирике.

Специфика эмоциональной выразительности в «Сестра моя — жизнь» порой достигает экстатического уровня, выраженного через изумление перед

миром внешних явлений, что находит свое отражение в особенностях пунктуационного оформления вопросительных предложений. Примером может служить стихотворение «Наша гроза», где из шести вопросительных предложений на сорок две строки примечательно использование комбинированного знака пунктуации — вопросительного и восклицательного знаков («?!»), указывающего на сильное эмоциональное переживание и глубину задаваемых вопросов.

«Звон ведер сшиблен набекрень.

О, что за жадность: неба мало?!

К малине липнут комары.

Однако ж хобот малярийный,

Как раз сюда вот, изувер,

Где роскошь лета розовой?!

Сквозь блузу заронить нарыв

И сняться красной балериной?

Всадить стрекало озорства,

Где кровь как мокрая листва?!»

Такое пунктуационное оформление, подчеркивающее интенсивность и сложность эмоционального восприятия явлений природы и внутренних переживаний лирического героя, в последующем находит отражение в произведениях Пастернака, в том числе в четырех случаях в «Темы и вариации», подтверждая глубину и многоаспектность его творческого метода.

В сборнике «Сестра моя — жизнь» Бориса Пастернака заложены инвариантные принципы его поэтического мирозерцания, где природа и человеческая душа предстают неотделимыми частями единого целостного устройства мироздания. В данном контексте, природа и весь космос концептуализируются Пастернаком как священные пространства, аналогичные храму, что находит свое выражение в стихотворении «Определение творчества» (1917), где сады, пруды, ограды и весь мир воспринимаются как проявления страстей, скопленных человеческим сердцем.

«И сады, и пруды, и ограды,

И кипящее белыми воплями

Мирозданье — лишь страсти разряды,

Человеческим сердцем накопленной.»

Эта тема получает дальнейшее развитие в одном из поздних стихотворений Пастернака, где просвечивание зелени листьев через цветное стекло сравнивается с живописью, а мироздание — с церковной росписью окон, через которую святые, схимники и цари смотрят в вечность, как изнутри собора. Это сравнение подчеркивает взаимопроникновение природы и духовного мира, где простор земли воспринимается как внутреннее пространство собора, а отголоски хора становятся символом связи с трансцендентным.

«Просвечивает зелень листьев,

Как живопись в цветном стекле.
В церковной росписи оконниц
Так в вечность смотрят изнутри
В мерцающих венцах бессонниц
Святые, схимники, цари.

В стихотворении «Когда разгуляется» Пастернак размышляет о природе и мире как о «тайнике вселенной», подчеркивая свою долгую службу этому таинственному мирозданию, ощущение сокровенной дрожи и слезы счастья, стоящие у истоков его творческого вдохновения. Таким образом, эти произведения демонстрируют глубокую связь между внутренним миром поэта и внешним миром природы, отражая универсальную гармонию и святость бытия.

В рамках академического анализа можно утверждать, что лирика, концептуализированная как «мир», представляет собой процесс объективации взаимоотношений, в ходе которого «Я» трансформируется в действительность, тогда как действительность, в свою очередь, переосмысливается как «Я». Пгагеую вносит важную оговорку, подчеркивая трансформацию лирического субъекта в поздней поэзии Пастернака к более «классической» форме, где он структурно выделяется с четко определенной дистанцией по отношению к «внешнему миру».

Этот тезис находит подтверждение в многочисленных примерах вопросительных предложений из «Сестра моя — жизнь», иллюстрирующих «разлитость» анимистической начальности, присущей «я», в самом существовании. Такое явление коррелирует с отраженным в исследованиях по Пастернаку принципом отражения, в соответствии с которым произведения и элементы окружающего мира обретают «речегенность».

Приведем два примера, демонстрирующие указанный принцип.

«Куда мне радость деть мою?

В стихи, в графленую осьмину?

У них растрескались уста

От ядов писчего листа.»

В стихотворении «Наша гроза» вопрос «Куда мне радость деть мою? В стихи, в графленую осьмину?» свидетельствует о превращении внутренних переживаний в объекты поэтического мира, где «уста» этих объектов «растрескались от ядов писчего листа», что подчеркивает их «речегенность».

В данном контексте Пастернак использует метафорические вопросы, которые не требуют ответа, обновляя и подчеркивая их изначальную тропическую сущность, в отличие от метафорических вопросов, характерных для его лирики первого периода, где метафоры представляли собой цепочку с неясными семантическими обоснованиями, в «Снег идет» присутствуют отдельные изолированные метафоры, уже изведенные языком (проходит время, следуют год за годом, слова в стихотворении следуют одно за другим).

Преобладающей линией в поэзии Пастернака, включая его изыскания на тему, выступает размышление о принципах переменчивости в природном

мире. Проявляются рассуждения, затрагивающие эксклюзивное положение личности творца, вдохновенного любовью поэта, в контексте вселенной, что выступает как один из ключевых аспектов космоса, к анализу которого Пастернак неизменно возвращается в рамках своего творческого пути, начиная с произведения «Близнец в тучах».

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Пастернак Б.Л. «Сестра моя — жизнь» ст «Наша гроза», 1917
2. Пастернак Б.Л. «Сестра моя — жизнь» ст «Определение творчества» 1917
3. Пастернак Б.Л. «Сестра моя — жизнь» ст «Весенний дождь», 1917

“BAYOZI NEKIY” NING TUZILISHI VA TARKIBIY QISMLARI

H.Latipov,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)
M.M.Hayotova,
Buxoro tuman 10-maktab ona tili va
adabiyot fan o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada “Bayozi Nekiy”ning Buxoro san’at muzeyi xazinasida saqlanayotgan 27898 raqamli nusxasi, bayoz tarkibidan joy olgan shoirlar haqida va ularning asarlari ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: Bayoz, “Nek”so’zi, mumtoz adabiyit vakillari, toshbosma, muxammas, g’azal, fard, na’t, munojot

“Bayoz” atamasi Sharq adabiyotida” she’rlar to’plami” degan ma’noni anglatadi. Bayozlar ikki va undan ortiq shoirlar she’rlaridan tuziladi. Ilk bayozlar, dastlab, mashhur shoirlarning g’azallaridan tarkib topgan. Bayozlar tuzilishiga ko’ra ikki turga bo’linadi:


- 1) Turli shoirlarning g’azallaridan tarkib topgan bayozlar;
- 2) Bir shoirning g’azallari jamlangan bayozlar.

Yuqorida nomi keltirilgan bayozimiz esa 1-turga mansub, ya’ni “Bayozi Nekiy”da mumtoz adabiyot vakillarining turli janrdagi sara asarlari jamlangan.

Sarlavhaga qaraydigan bo’lsak, nega aynan “Bayozi Nekiy” deya nomlangan. Navoiy asarlar lug’atiga qaraydigan bo’lsak, “Nek” so’zi “yaxshi, go’zal” degan ma’nolarda keladi. Demak, bayozning bunday nomlanishidan asosiy maqsad, uning naqadar go’zal namunalarni jam qilganligini sezish mumkin.

Buxoro san’at muziyida 27898 raqamida saqlanayotgan “Bayozi Nekiy” to’plami hijriy 1329-yilda, milodiy 1911-yilda tuzilgan. Bayozning chop etilish xususida esa quyidagicha aytiladi: “Bo ehtimomi sayi Mulla Mirzo Abdullo bin Mirzo Orif Marhumiya va shirkati Mulla Said Umarxoniy Maxdum. Toshkent dar matbaayi yakevlev”. Yuqoridagi ma’lumotlarga tayangan holda bayoz Toshkentda

chop etilgan va Buxoro san'at muzeyiga keltirilgan. Mazkur toshbosma ustida olib borilgan izlanishlarimiz asosida quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik:



1. Buxoro san'at muzeyida saqlanayotgan ushbu toshbosmaning faqat bitta nusxasi borligi aniqlandi va u 27898 raqami ostida saqlanyapti.
2. Ushbu bayoz sariq muqovada bo'lib, oddiy bezaklarsiz karton bilan qoplangan.
3. Toshbosma varag'ining hajmi 11.5x22 holatda.
4. Bayozdagi harflar hajmi 8x16 nisbatda yozilgan.
5. Bayozning saqlanish holati ancha yaxshi, harflar o'chib ketmagan. Faqat ba'zi qismlar tushib qolgan

yoki umuman yozilmagan holatlar mavjud.

6. Toshbosmaning sahifalari betlangan va 144 sahifadan tashkil topgan, "Bayozi Nekiy" da hatto poygir ham berilganini ko'rish mumkin.
7. Bayozdagi matnlarning ustunlari 15 qatordan tashkil topgan.
8. Sahifaning bezatilishi uch chiziqli hoshiya bilan ziynatlangan.
9. Toshbosmaning muqova qismida asarning nomi va qayerda chop ettirilgani haqida yozib qoldirilgan.
10. Toshbosma nata'liq yozuvida yozilgan.

Toshbosma an'anaviy tarzda "Bismillahi rahmoni rahim" kalimasi orqali, ya'ni basmaladan boshlangan. Bayoz na't orqali boshlangan va mumtoz adabiyotimiz vakillarining sara g'azal va muxammaslari o'rin egallagan. Bayozda dastlab Navoiyning g'azallaridan namunalar keltirilgan, undan so'ng esa Fuzuliy, Muqumiy, Almaiy, Furqat, Lutfiy kabi mumtoz adabiyotimiz vakillarining asarlaridan parchalar o'rin egallagan. Keyinchalik, Xaziniy, Xislat, Kamiy, Mirzo Shoshiy, Azimxo'ja, Qishmashon, Samarqandiy, Munshiqi Miskin, Rizoiy, Xijlat, Noziliy, Mavlono Valiy, Mavlono Vasfiy, Hofiz, Mahzun, Muhyi kabi yosh ijodkorlarning g'azallari o'rin egallagan.

G'azallardan so'ng esa muxammaslar va fardlar o'rin egallagan. Masalan: muxammasi G'oziy bar g'azali Hotif, muxammasi Komil bar g'azali Fuzuliy, muxammasi Noqis, muxammasi Xislat bar g'azali Xaziniy, muxammasi Kamiy, muxammasi Xilvat, muxammasi G'urbat, muxammasi Nomi bar g'azali Jomiy, muxammasi Huvaydo, muxammasi Vasliy bar g'azali Fuzuliy kabi namunalar joy olgan. Xususan, A.Navoiyning bir qancha g'azallari bayozdan o'rin olgan, bu bayozning naqadar go'zal tuzilganligidan darak beradi. Bayozdan o'rin olgan barcha janrlar o'z o'rnida ishlatilgan va o'sha davrning mashhur shoirlari asarlaridan ham namunalar bilan bayoz yanada takomillashgan.

"Bayozi Nekiy" dan olingan ayrim parchalar:

Kamiy

Ko'rsatib gul orazingni ey sho'xi ra'no takyada
Aylading bulbul kibi ko'p zoru shaydo takyada
Bir ko'ray deb axtarib, hark un tusharman san pari
Uchragay sen gahi nihon gahi oshkoro takyada

Mahv o'lub husni jamolingga yiroqdin o'ltirib
Aylagayman ikki uch soat tamosho takyada
Ko'chada ko'rmak muyassar bo'lmaganing chun sani
Doimo vasling qilur bo'ldim tamanno takyada
Ko'rganimda ba'zi birlarda qiyo boqmay eding
Boqmading aylab tag'ofil emdi aslo takyada
Suhbati ulfatlar bilan tutganda man dil xastani
Yod qilg'il xohi pastu xohi bolo takyada
Tig'I mujgoning bilan, jono mani qatlim tilab
Chashmi jalloding qilung har lahza imo takyada
Yodima mehrobi abro'ying kelur ey dilrabo
Qiblaga yuz do'ndurub solsam musallo takyada
Sabza xat-u sabza husningni tamoshosi bila
Bo'ldi vaqtim chog'u ham nasham du bolo takyada
Ko'p edi hasratlarim lek aytmadim odobdin
Bo'lmasin deb xotiringga ranj paydo takyada
Tinglag'il ey xoni olam bu Kami qil arzini
Takya aylab sanga qildi arzi insho takyada

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Bayozi Nekiy" Buxoro san'at muzeyidagi 27898 raqamli toshbosma nusxa. Toshkent:1911
2. Hamidova M., Qo'lyozma bayozlar-adabiy manba,T., 1981.
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati 4 jildlik (1983-1985)

IQBOL MIRZONING HIKOYANAVISLIK MAHORATI XUSUSIDA

*N.G.Nurullayeva,
Buxoro davlat universiteti
adabiyotshunoslik(o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Maqolada shoir Iqbol Mirzoning nasrdagi mahorati haqida fikr yuritilgan. Uning "Ko'chat" hikoyasi tahlilga tortilib, adib yaratilgan obrazlarning muhim xususiyatlari, yozuvchining hikoyanavislik mahorati tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: adib, shoir, hikoyanavis, mahorat, obraz, xarakter, badiiy matn, nutq, tabiat.

Abstract. The article discusses the prose skills of the poet Iqbal Mirza. His story "Kochat" was analyzed, the important features of the characters created by the writer, and the writer's story-writing skills were studied.

Key words: writer, poet, storyteller, skill, image, character, artistic text, speech, nature.

O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she'rlari xalqimizga yaxshi tanish. 1993 yil uning ilk she'riy to'plami "Yurakning shakli", 1994 yil "Ko'ngil", "Seni sog'inaman", 2000 yil "Meni eslaysanmi", 2002 yil "Tanlangan she'rlar", 2004 yil "Qo'shiqlarim" va "Seni bugun ko'rmasam bo'lmas", 2008 yil "Sizni kuylayman" kabi to'plamlari chop etilgan. Shu bilan birga shoir keyingi yillarda nasrda ham, dramatergiyada ham qalamini sinab ko'rmoqda. Uning bir qator hikoyalari, ayniqsa, "Bonu" romanini kitobxonlarimiz katta qiziqish bilan kutib olishdi. "Avokado", "Zarb", "Ko'chat" singari hikoyalari dolzarb mavzulari, xalqona ruhi, oddiy va samimiy qahramonlari bilan diqqatni toratdi.

Iqbol Mirzoning "Ko'chat" hikoyasini o'qir ekansiz, inson va tabiat orasidagi muvozanatga e'tibor qaratilganini ko'rasiz. Hikoya qahramoni Rahmatjon ko'chat ekishga ishqiboz, darvozasi oldidagi eman daraxtining gurkirab o'sishidan quvonadi. Uning noyob daraxt deb jo'ka daraxti ko'chatini olib kelgani xotiniga yoqmaydi. "– Ha, tinchlikmi? Sulaymon taxtini ko'tarib keldingizmi, shahdingiz osmon? – dedi xotin peshonasiga tang'ilgan yashil durrani mahkamroq tortib. So'ng devorga suwab qo'yilgan juft ko'chatga ko'z tashladi. – Nima bu?"

Adib qahramonning ruhiyatini tabiiy va samimiy chizadi: "Ko'chat ekishni niyat qilgan hamma havaskorlar qatori Rahmatjonning ham dimog'i chog', kimgadir yaxshilik qilayotganday sururli hissiyot ko'nglida hukmron edi. Xotinning zarda aralash so'rog'idan keyin shashti qaytdi, peshonasi tirishdi".

Hikoyada Rahmatjonning xotini qo'pol, zardali, e'tiborsiz ayol sifatida tasvirlanadi. Uning holatini adib "Olmami, behimi? Go'rmi, balomi? – dedi xotin yuziga qon tepchib", yoki "Nima? – dedi xotin tishi og'riyotganday aft burishtirib" kabi gap-so'zlari orqali aniq ifodalab bergan.

Xotinning nutqi orqali uning xaraktyeriga xos belgilar chizib beriladi. Uning eriga – Jo'ka? Hoy dalaning bolasi, gilosmi, o'rikmi ekmaydimi – mevasini bolalar yemaydimi? Manavi zormandani qanday yo'qotishni bilmay turibmiz-ku. – Xotin darvoza yonidagi tarvaqaylagan emanga ishora qildi. – Buni xazonini supurib, changini yutadigan men-da! Qurib ketsin, turgan bitgani quruq savlat!" degan gaplari orqali o'quvchi ko'z oldida go'zallikdan bahra olmaydigan, qalbi zardaga to'la ayol gavdalanadi. Yoki persnaj nutqidagi "amaqi, somaykum", "Maslahatning uyiga o't qo'ygan bu odam!" kabi so'z va gaplar uning ichki qiyofasini yaqqol ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

Rahmatjon xotining noroziligi ta'sir qilib qilgan ishidan pushaymon yeya boshlaydi. Ko'chatni ko'tarib ko'chaga chiqadi. Gulzorga o'rnatmoqchi bo'ladi. Shu o'rinda hikoyaning bosh qahramoni Rahmatjonda ham qat'iylik yo'q, tabiatni, bog'-rog' qilishni sevgan odam xotining yoki oqsoqolning bir og'iz gapi bilan qilgan ishiga pushaymon bo'lib o'tirishi uning xarakteridagi oqsoqlikni ko'rsatadi.

Hikoyada aniq va tabiiy tasvirlangan personajlardan biri mahalla oqsoqolining xarakteriga xos belgilarni ham yozuvchi unga mos holda chizadi. Masalan, "...mahalla oqsoqoli Sobit chaqqon pildirab kelib qoldi.

– Hay, hay, hay, – deb belkurak dastasidan tutganicha shovqinladi Chaqqon kekirdak olmasini o'ynatib, – nima qilmoqchisiz, okasi? Shahar bedarvozami? Buni mahalla deb qo'yibdi. Mahalla instituti degan gaplar bor..."

Yoki daraxtning nomini eshitgandagi holati: “– Ana xolos, – xuddi shumxabar olganday oqsoqolning o’siq qoshlari payvasta shaklga kirdi”.

Adib qahramon ruhiyatini, holatini tasvirlashda mohir. Hikoya qahramonning holati: “So’rashishga uzangan qo’li muallaq qolgan Rahmatjon nochor chakkasi aralash bo’ynini siladi-da, javob qildi”

Oqsoqol xarakteriga xos bir odat shuki, u har bir gapiga chet el so’zlarini qo’shib gapiradi. Masalan, “ Ha... – oqsoqol biroz o’ylanib turdi-da, dabdurustdan allaqanday ichki qoniqish aralash “Subardinatsiya!” deb qo’ydi”.

“Rahmatjon oqsoqol bilan ko’pda oshqatiq bo’lmasa-da, uning tantiqsifat qiliqlariga ajablanmay qo’ygandi. Shuning uchun jo’kaga subardinatsiyaning nima daxli bor, deb so’rab o’tirmadi. Yoki : – Ha-a, – dedi g’ulg’ulnikiday salqi bo’ynini cho’zib oqsoqol emanga suq solgancha.

– Buningni kessa bormi, taxtasi Xitoyga yetadi... Vestern yunyo’n! Yoki:Detsibel!

Oqsoqolning bilib-bilmay bunday so’zlarni ishlatishi bir tomondan o’quvchida satirik kulgi uyg’otsa, ikkinchi tomondan uning o’zini bilimdon ko’rsatishi kishining g’ashiga tegadi. Boshqa qahramonning nutqi orqali oqsoqolga xos bu jihat yanada bo’rtiriladi:” – Voy hozir o’laman, voy hozir ichagim uziladi! Xudoyim-yey, o’sha odati qolmabdi-ya! Yulya, esingdami, dars payti hamma insho yozib o’tirganda tomdan tarasha tushganday he yo’q, be yo’q “Kabardino-Balkariya” yoki “Iosif Vissarionovich Jugashvili!” deb qolardi. Bu so’z qaydan keldi, nimaga aloqador, tushunmay garang bo’lardik”.

Yozuvchining mahorati shundaki, Oqsoqolga xos belgilarni tasvirlar ekan, ular qahramonning qiyofasini yanada yorqinroq namoyon etishga yordam beradi: “oqsoqol boshidagi baxmal do’ppini bir aylantirib, kekirdagini sakratib oldi”;” Oqsoqol ayolning keng-mo’l bag’rida kurk tovuqning qanotiga kirgan sariqtumshuq jo’jaga o’xshab qoldi”; “...kutilmagan uchrashuvdan qattiq hayajonlanib tomog’i quridi, shekilli, halqumini irg’ishlatib g’o’ltillatib yutindi”.

Hikoyaga syujetiga yana ikki qahramon kelib qo’shiladi. Ular Olya va Yulya –rus ayollari. Ularning onalari Klavdiya eri Nikifor bilan urush paytida ko’chib kelishgan ekan. Ayniqsa, ulardan biri eman daraxtini quchoqlab, bolalik xotiralarini eslaydi. Bu tasvir ham Iqbol Mirzoga xos bo’lgan aniqlikda beriladi: “Ayollar o’zlarining o’ris talaffuzida chuchuk qilib to’rt yashar qizchaday biram biyon o’zbekcha so’zlasharkanki, odamning zavqi keladi deng.

– Ha, hammayoq o’zgarib ketibdi, – dedi Olya chuqur xo’rsinib. – Bu joylar jannatday bog’-u dala edi.

Egizaklar hovlining qayerida qanaqa xona bo’lgani-yu qanaqa gul-giyoh o’sganini eslab, bir-biriga “esingdami-esingdami” deyishdan charchamasdi”.

Hikoyada shu vatanda o’sib-ulg’aygan rus millatiga mansub qizlarning yashagan har bir yeri, odamlari, dov- daraxtiga bo’lgan muhabbati o’quvchini befarq goldirmaydi. Ayniqsa, asar qahramonlaridan birining emian daraxtiga murojaati juda ham ta’sirli chiqqan:” Keyin eman yoniga bordi-da, xuddi odam bilan ko’rishayotganday yelka berib silab-siypaladi:

– Omonmisan, azizim! Bizni yelkangda ko’tarib katta qilganding. Bo’ying uzoqlardan ko’rinib turardi. Olya bilan dalada adashib qolganimizda sening

bastingni ko'rib uyni topib kelardik. Pahlavonim, azamatim! Gohida sahar uyg'onib chiqsam, onajonim senga kifti bilan suyanib, teskari quchoqlagancha ko'zlarini yumib turganini ko'rardim. Keyin bilsam, sen taskin, kuch va ishonch berar ekansan. O'zimning emanjonim, otaginam, onajonim mening!"

Asarda kitobxon diqqatini tortadigan yana bir jihat bor: millati rus bo'lishiga qaramay ikkala ayolning o'zbek tilida so'zlashlari orqali adib tilga bo'lgan hurmat g'oyasini ham singdira olgan deyish mumkin." Ayollar o'zlarining o'ris talaffuzida chuchuk qilib to'rt yashar qizchaday biram biyron o'zbekcha so'zlasharkanki, odamning zavqi keladi deng". Qarangki, bugungi kunda o'zbek bo'la turib, o'zining tilini yaxshi bilmaydigan, bilsa ham ba'zan ona tilida gapirishni istamaydigan yoshlar qanchadan-qancha.

Hikoya yakunida Rahmatjon olib kelgan jo'ka ko'chatini mehmonlarga berib yuboradi. Ammo hikoyaning oxiri bir oz mavhum bo'lib qolganday tuyuladi. Shunga qaramay, yozuvchi Iqbol Mirzo insonning tabiatga mehri, tabiatni asrash g'oyasini hikoya qahramonlari qalbiga singdirib yuborgan deyish mumkin. Hatto boshida aftini burishtirib turgan xotini ham savob haqida o'ylay boshlashi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Iqbol Mirzo nasrda ham qalamini sinab ko'rayotgan va bir qancha muvaffaqiyatga erishayotgan ijodkor sifatida adabiy jarayonda faol ijod qilib kelmoqda. "Ko'chat" hikoyasi fikrimizning dalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Iqbol Mirzo. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/iqbol-mirzo/>.
2. Iqbol Mirzo. Ko'chat. Hikoya. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/iqbol-mirzo/iqbol-mirzo-kochat-hikoya/>.
3. <https://aroblar.uz/uzkr/people/ikbol-mirzo>.
4. <http://n.ziyouz.com/kutubxona/category/7-o-zbek-zamonaviy-she-riyati?download=6233:iqbol-mirzo-aytgil-do-stim-nima-qildik-vatan-uchun>.
5. Iqbol Mirzo. Bonu. Toshkent. 2018.
6. Iqbol Mirzo. Ko'chat. «Yoshlik» jurnali, 2020 yil, 2-son
7. Qo'shjonov M. Hayot va mahorat.. Toshkent. 1976.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ

*Н.Р.Нурмухаммадова,
БухГУ, Магистрант 2 курса по направлению литературоведение
n.r.nurmuhammadova@buxdu.uz*

Ключевые слова: Концептуализм, материализм, неосентиментализм, псевдоэпичность, политизированность, самоидентификация, символизм, акмеизм, футуризм.

Современную русскую поэзию стоит выделять, начиная с конца перестройки. Поэзия тех лет была яркой и по-своему целостной. В 1990-е гг. доминировали два течения: концептуализм (Дм.А. Пригов, Т. Кибиров и др.), деконструирующий советские идеологемы, и метареализм (И. Жданов, А. Еременко и др.), конструирующий сложные, многомерные поэтические миры. В первой половине 1990-х наиболее заметными тенденциями в русской поэзии считались концептуалисты и метареалисты (метаметафористы). В центре внимания первых находилась проблема тотальной несвободы человеческого высказывания, его неизбежной неподлинности, неаутентичности, predeterminedности набором дискурсивных практик. В тогдашней культурной ситуации складывалось впечатление, что художественное высказывание концептуалистов заострено прежде всего против советского дискурса. Социокультурная критика, предьявленная концептуализмом, была очень сильна и влиятельна, но к концу 1990-х исчерпала себя.

Уже в 2002 г. Вл. Губайловский отметил «выравнивание» поэтического пространства. В структурированности литературному полю отказывает и С. Чупринин, предпочитающий говорить о параллельном существовании автономных «стратов»: филологическая поэзия, женская поэзия, досуговая литература и проч., о мультикультурности: независимо друг от друга пишут стихи авторы, тяготеющие к необарокко (Е. Шварц), метафизической поэзии (О. Седакова), неосентиментализму (В. Кучерявкин), минимализму (И. Ахметьев), лингвопоэтике (А. Левин и В. Строчков), мистическому авангарду (Е. Головин), панк-поэзии (Т. Трофимов) и т.д. Н. Григорьева, прощаясь с проектом «Курицын-Weekle», утверждает, что победила массовая культура и приходится прощаться с интеллектом. Часто критики характеризуют современную поэтическую ситуацию как «промежуток» или «обрыв». И. Шайтанов отмечает, что в последние годы преобладавшее ранее искусство снижения медленно сменяется игрой на повышение стиля и лирического начала. А. Житенев считает, что поэзия сегодня находится в состоянии «ремиссии».

Лидер молодых поэтов Дм. Кузьмин утверждает, что в 2003 году в поэзию пришло новое поколение, «поколение Интернет», тогда – двадцатилетние, сейчас им под тридцать. Представлено это поколение проектом «Вавилон» (альманах и сайт), клубом «Дебют» (руководитель проекта – Виталий Пуханов, издательство «АРГО-РИСК»), премиями «Дебют», «Молодежный триумф», конкурсом «ЛитератураРентген», поэтическими сериями «Поколение», «Новая серия», журналом «Воздух», антологией «Девять измерений» (2004), интернет-обзорами новых поэтических книг Д. Давыдова. Их активно поддерживает И. Кукулин в журнале «Новое литературное обозрение». Именно концепт «поколение» позволяет как-то проанализировать современную поэтическую ситуацию, подобно тому, как в 1956 г. В. Варшавский описал творчество млядоэмигрантов в книге «Незамеченное поколение». Как показывают современные исследования, для поколения (как формы социальной

солидарности) важны не просто одинаковые даты рождения, а воздействие одних и тех же социокультурных факторов, формирующих специфический тип мироощущения и поведения. Кроме того, в поколении присутствует своя иерархия ценностей, свои авторитеты – и они транслируются вовне. Поколение «молодых» поэтов воспринимается более рельефно благодаря негативной реакции «старших»: С. Чуприна (журнал «Знамя»), И. Шайтанова (журнал «Арион»), Б. Лукина (антология «сорокалетних» «Наше время»). Упреки сводятся к следующему: у молодых «графомания осложняется эпигонством» (уже начиная с концептуалистов), подчинена рецепту «риэлтера» Дм. Кузьмина: спонтанность опыта, ненормативность языка, рефлексивность текста, дилетантизм, беспамятство (забвение традиции), отстраненность от мира, безликость, псевдоэпичность. По существу, не устраивают две особенности поэзии молодых: отсутствие прямого лиризма («душевности») и твердых («общечеловеческих») критериев, а также отказ от доминирования силлаботоники, преобладание интонационно-фразового стиха.

«Старшие» поэты, напротив, тяготеют к прямому лирическому высказыванию. Их поколенческий опыт – развал Советского Союза, бурные 1990-е – провоцирует чувства боли, стыда, жалости. Наталья Ахпашева проводит параллель между раздробленностью Киевской Руси и развалом Союза – и таких примеров читатель найдет много в альманахе «Наше время». В стихах «молодых» как раз заметно усиление социальности и даже политизированности, как, например, в дебютной книжке Антона Очирова «Ластик» (лирический герой не хочет ни денег, ни секса, ни наркотиков, ни путешествий, а хочет, чтобы в нашей стране образовалось гражданское общество). Жесткий экспрессионизм отличает книгу Елены Фанайловой «Черные костюмы» (что свидетельствует о том, что «поколение» определяется не только паспортными данными, но и жизненной позицией): ее героиня выбирает позицию контркультуры в мире, который ей хочется взорвать.

Для «старших» бесспорна гендерная идентичность: для Инны Кабыш и для Елены Исаевой непререкаем долг матери и жены, позволяющий с достоинством жить «при том царе и том народе, каких даст Бог», «держат свою душу в порядке», даже если поезд ушел, и приходится «жить на вокзале, в туалете, в буфете, под фикусом пыльным у касс». Обратим внимание на замечательное стихотворение И. Кабыш, в котором каждая строфа начинается анафорой: «Кто варит варенье в июле,/ тот жить собирается с мужем...», «Кто варит варенье в июле,/ тот жить собирается долго...», «Кто варит варенье в июле,/ уж тот не уедет на Запад/и в Штаты не купит билет», а заканчивается текст парадоксальным утверждением: «Кто варит варенье в России,/ тот знает, что выхода нет».

В русской поэзии XX столетия при всей ее сложности всегда шло творческое освоение традиций классической литературы и искусства, особенно поэзии Золотого и Серебряного веков. При этом наряду с мощным развитием реализма интенсивно проявляло себя романтическое стилевое

течение, и уже в первые десятилетия XX в. активно выступили различные школы модернизма (символизм, акмеизм) и авангарда (футуризм). А во второй половине века возникают явления неоавангарда и постмодернизма, о чем существует обширная критическая и исследовательская литература.

Относительно новейших исследований современного авангарда и постмодернизма хотелось бы сказать несколько слов. Обычно здесь превалирует идея смены эпох (например, модернизм/постмодернизм), при этом несомненны различные точки зрения в подходах и оценках. Современная русская поэзия мыслится искусствоведом Е.И. Беловой «как постмодернистская, выросшая на основе постмодернизма и преодолевающая его».

Следует подчеркнуть, что в разговоре о русской поэзии, особенно на современном этапе, на первый план выходят собственно творческие, художественно-эстетические основания выявления и кристаллизации в нашем восприятии не только и не столько отдельных имен, групп и течений. Не менее существенны те направления, или, быть может, потоки, русла, в которых движутся, развиваются, обновляются крупные и отнюдь не формальные общности самобытных художников, восходящие к давним традициям или сформировавшиеся в XX столетии – в самом его начале и второй половине. Это, как мы уже отмечали, с одной стороны, реализм и романтизм, а с другой - особенно активизировавшиеся в последнее время авангард и постмодернизм.

Термин "постмодернизм" имеет различные толкования. Как пишет И.П. Ильин, это "многозначный, динамически подвижный в зависимости от исторического, социального и национального контекста комплекс философских, эпистемологических, научно-теоретических и эмоционально-этических представлений". Постмодернизм выступает как характеристика определенного менталитета, специфического способа мировосприятия, ощущения места и роли человека в окружающем мире. С начала 80-х годов XX в. постмодернизм был осознан как общеэстетический феномен, специфическое явление в философии и литературе.

В постмодернизме можно выделить два категориальных доминантных качества, пишет Я.В. Погребная: 1) "принцип айсберга", т.е. уход текста корнями вглубь истории и культуры; 2) ориентация культуры не на действительность, а на культуру же. Формируя нового читателя, постмодернизм создает и новую действительность, в которой реальной жизнью живут не только люди и вещи, но и символы, созданные людьми.

Таким образом в основном и реализуется движение современной поэзии, хотя картина, очевидно, более сложная, о чем свидетельствуют попытки ввести новые дефиниции и термины – от «метареализма» (под этим названием выступают такие разные поэты, как А. Ерёмченко, И. Жданов, А. Парщиков), предложенного исследователем и теоретиком «новой волны» М. Эпштейном, и до так называемого почвенного направления (Ю. Кузнецов, Н. Рубцов и др.), обоснование которого находим в работах вологодского ученого В. Баракова.

Не задаваясь целью представить всеохватную картину движения поэзии начала XXI в. в ее сложности и многообразии, выделим прежде всего основные, на наш взгляд, течения или направления, отчетливо различные в восприятии современности и отношении к опыту и традициям искусства прошлого.

Так, обновление и развитие традиций реалистической лирики хорошо видно в позднем творчестве В. Корнилова, А. Кушнера, О. Чухонцева, а из поэтов русского зарубежья – у Ю. Кублановского, Н. Горбаневской и др. Естественно, у каждого из них свое восприятие и образ времени, свой художественный мир и поэтический язык. Однако есть и некие черты общности, обусловленные ориентацией на реалистическую линию развития поэзии.

Наряду с поэтами, продолжающими, обновляющими традиции русской классики и по преимуществу реалистической лирики, в наши дни активно проявляется обращение к опыту поэтического авангарда, в частности в творчестве А. Вознесенского, К. Кедрова, В. Сосноры и некоторых других.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Агеносов В. В., Анкудинов К. Н. Современные русские поэты. Справочник-антология. - М., 1998. - С. 9.
2. Айзенберг М. Вместо предисловия // Личное дело №. [1]. М.: В/О "Союзтеатр", 1991. С. 5–21.
3. Айзенберг М. Литература за одним столом // Литературное обозрение. 1997. № 5. С. 66–70.

5-SHO‘BA: PEDAGOGIKA FANLARINI TADQIQ ETISHNING ISTIQBOLLARI: QARASHLAR VA NAZARIYALAR

BOBUR BADIY MAHORATI RAHIM VOHIDOV NIGOHIDA

*N.M. Saidova,
BuxDU, Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqola buyuk ijodkor Z.M.Bobur merosining talqiniga bag'ishlanadi. Maqolada betakror ijod sohibi sanalmish Z.M.Bobur mahoratiga adabiyotshunos olim Rahim Vohidovning e'tirofi hamda bergan bahosi bayon etiladi.

Kalit so'zlar: mahorat, tahlil, talqin, uslub, adabiyotshunos, nasr, nazm

O'zbek adabiyotshunosligida buyuk ajdodlar merosini o'rganish, ular qoldirgan boy, adabiy merosni avlodlarga yetkazish an'ana tusini olgan. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, faoliyatini o'rganish, uning betakror asarlarini

kitobxonlarga yetkazish borasida ham qator ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda boburshunoslik sohasida buyuk olimlarimiz qator ilmiy izlanishlar olib borilganligini alohida e'tirof etmoq joiz. Jumladan, zahmatkash olimlarimiz X.Sulaymonov, P.Shamsiyev, S.Azimjanova, A.Abdug'afurov, A.Qayumov, S.Hasanov, Z.Mashrabov, H.Qudratullayev, A.A'zamov, V.Rahmonov, X.Sultonov, H.Boltaboyev, N.Otajonov, E.Ochilov, O.Jo'raboyev kabi ko'plab adabiyotshunoslar Bobur Mirzo hayoti va ijodini o'rganish, qo'lyozma nusxalarini qidirib topish va ularni ilmiy iste'fodaga kiritish yuzasidan qator tadqiqot ishlarini amalga oshirgani, mazkur ishlar keyingi bu boradagi ilmiy izlanishlarga ham asos bo'lib xizmat qilayotganini mamnuniyat bilan ta'kidlash joiz. Mana shular qatorida Bobur adabiy merosi o'rganishga munosib hissa qo'shgan Rahim Vohidov nomini ham sanash alohida sanash mumkin.

Boburshunoslik Rahim Vohidov ilmiy faoliyatining bir qirrasini hisoblanadi. Olimning Bobur faoliyatiga oid tadqiqotlari ulug' shoirning shaxsiyati, lirik merosi hamda "Boburnoma"ga tegishli. Bobur lirikasi tadqiqiga bag'ishlangan "*Bobur mirzoning masnu' she'rlari*", "*Bobur Mirzo she'riyatida badiiy san'atlar*", "*Bobur Mirzo va naqshbandiylar*", nasriga oid "Boburnomada" Shayx Sa'diy nafasi" kabi maqolari hamda uning dovyurak sarkarda, shijoatli davlat arbobi va nozikta'b shoir sifatidagi betakror siymosiga oid kuzatishlari jamlangan "Biz bilgan va bilmagan Bobur" risolasi shu sohaning rivoji uchun xizmat qildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur mumtoz lirik janrlarning g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, masnaviy janrlarida mahorat bilan qalam tebratdi. Ayniqsa, g'azal va ruboiy janrlarda yuksak mahorat ko'rsatdi. Shoirning lirik merosi mavzu jihatdan rang-barang. Boburshunos olim Saidbek Hasanovning ta'kidicha: "Garchand Bobur lirikasi hajman kichik bo'lsa-da, shaklan yetuk va badiiy jihatdan barkamoldir. Uning xos belgisi shuki, har bir bayt biron tarixiy haqiqat bilan uyg'undir, Bobur uni nihoyatda ravon va jonli tasvirlaydi. Lirikasining asosiy mavzusi muhabbat ekanligi, shubhasiz. Hijron alamidan shikva-shikoyat, batamom ojiz qilib qo'yuvchi sof muhabbat, visol orzusi va vafodorlikni shior qilgan". Ta'kidlangan mavzular an'anaviy bo'lsa-da, har bir ijodkor o'zi tanlagan mavzuni ohorli misralar va tashbehtar vositasida aks ettirishi uning novatorligi sanalgan. Biz Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida an'anaviy mavzularning va badiiy tasviriy vositalarning qo'llanishida ana shunday novatorlikni ko'rishimiz mumkin.

Sharq mumtoz adabiyotida an'anaviylik ustuvor. Bu badiiy tasvirda ham, obrazlar olamida ham, mazmun va mundarijada ham kuzatiladi. Ammo zohiran qaraganda, bir xillik, o'xshashlik bo'lib tuyuladigan bu holat zamirida ham har bir ijodkorning individual, o'ziga xos poetik ifoda usullari shakllanib borgan. Zotan, mashhur allomalarimiz ijodkorning mahorati va o'ziga xosligi asarda nimani ifodalashiga qarab emas, balki voqe'likni qanday tasvirlashiga qarab belgilanishini ta'kidlashadi". Adabiyotshunos olim Rahim Vohidov ham ayni masalaga e'tibor qaratadi. Olimning "*Bobur Mirzoning masnu' she'rlari*" nomli yirikkina maqolasi fikrimizni tasdiqlaydi. Maqola sarlavhasida qo'llangan "masnu'" so'zi e'tiborni tortadi. Olim o'quvchini shoir olamiga olib kirish uchun dastlab mazkur so'zga izoh beradi. Turkiy she'riyat mulkinging arsloni (Bobur so'zining o'zagi babr -yo'lbars)

maqomida faoliyat ko'rsatgan bu notakror Shaxs va iste'dod sohibi o'zining o'ttiz olti yillik umrini jangu jadallar, iztirob-u kurashlarda o'tkazgan bo'lishiga qaramay, adabiyot mulkidagi bir qator noyob hodisalarga munosabat bildirish uchun vaqt ham topa oldi. Masnu' she'rlar yozishga ruju ana o'shalardan biridir. Ko'pligi "masnuot" va birligi "masnu" shaklida keladigan bu arabiy so'zning lug'atlardagi izohi "yaratilgan, bezakli qilib ishlangan"dir. Badiiy asarni (xoh nazm va xoh nasrda bo'lsin) san'atsiz - tasviriy vositalarsiz tasavvur qilish dushvor. Masnu' she'rlarni esa san'at ichra san'atga yo'g'rilgan satrlar tarzida tushunish va qabul qilish to'g'ri bo'ladi."

Ta'kidlash kerakki, badiiy asarga qo'yilgan sarlavha uning mohiyati va g'oyasining ro'yobga chiqishida katta rol o'ynaydi. Xuddi shunday fikrni biz Rahim Vohidovning ilmiy talqinlarida ham kuzatishimiz mumkin. E'tibor bersak, olimning ilmiy talqinlarida sarlavhaga alohida e'tibor berishi hamda tanlangan sarlavhaning izohini keltirilishi ko'zga tashlanadi. Badiiy asar uchun tanlangan sarlavha qanchalik muhim bo'lsa, ilmiy talqinlarda ham tanlangan sarlavha shunchalik muhim sanaladi. Chunki tanlangan sarlavha kishida qiziqish uyg'otadi hamda tadqiqotda qo'yilgan muammoni oydinlashtirishga xizmat qilgan. Qo'yilgan muammo mohiyati sarlavhada oydinlashadi. Shuning uchun olim tanlangan sarlavhalarni muammoning "ochqichi" sifatida baholash mumkin. Albatta, bu jihat olim uslubining bir qirrasini sifatida namoyon bo'ladi.

Maqolada Bobur she'riyatida masnu' g'azal va ruboiylar bisyorligi ta'kidlagan olim, shoirning mashhur:

Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,

Nega holim yomon qildi, men andin bir so'rorim bor, - baytini tahlilga tortadi. Olim mazkur bayt tahlili va talqiniga o'quvchini tayyorlab boradi. "Bayt tahlilidan avval bir haqiqatni dadil aytmoq lozim: Bobur Mirzo badiiy so'z san'atining jamiyat oldidagi vazifasini g'oyat to'g'ri anglagan va ana o'sha yuksak tamoyillarga mos ravishda unga munosabatda bo'ladi. Ya'ni badiiy adabiyotning vazifasi o'quvchiga faqat fikr aytish emas, balki o'sha so'z javohirini o'ziga yarashliq, husnini ochishga xizmat qiluvchi badiiy libosda yetkaza olish shoirlikdir. Zabardast so'z san'atkori nuqtai nazaridan masala tahlil qilinadigan bo'lsa, shaklu mazmun muvozanati rost kelgan nuqtada mo'jiza sodir bo'ladi, chinakam badiiy asar dunyoga ko'z ochadi va shoirlik darajasi ana o'shandagina ayonlashadi. Yuqoridagi baytning o'zi Bobur Mirzoning ilohiy iste'dodidan darak beradi. To'g'ri, misralardagi ma'no mutlaqo yangi emas. Bunday lavhalar boshqa shoirlarning bisotida ham ko'zga tashlanadi". Albatta, tahlil va talqinda bunday yo'l tutilishi bayt muallifining badiiy mahorati to'g'risida tasavvur uyg'otishi bilan birga, badiiy va ilmiy talqinning mohiyatini, muallif va talqinchi dunyoqarashi to'g'risidagi tasavvurlarning boyishiga ko'mak beradi.

Yaxshi o'zlashtirilgan matnning tahlil va talqini asosiy matnga soya solmaydi. Talqinchi tanlangan har bir so'z matnning kitobxon ilg'ashi qiyin bo'lgan qirralarigacha olib kiradi. Olimning bayt sharhiga oid fikrlarida ham shunday xususiyat ko'rinadi. "Mahbubaning nafis lablari - qon rangida, tiniq. Bunday ko'rk unga ayricha tarovat tuhfa qilgan. Ma'shuqadagi ayni mo'jiza oshiqning

shaydologini oshirishdan tashqari, uning yurak-bag'rini tilka-pora qilib qo'yadi. Qon (rang) labdan oshiq ko'ksiga ko'chadi, uni iztiroblar girdobiga g'arq qiladi, she'r qahramonining ko'zlaridan yosh o'rnida qon marjonlari oqa boshlaydi. Birgina misrada shuncha mazmuni pinhon qilishga muyassar bo'lgan shoir qilcha bo'lsa-da, hayot haqiqatidan, o'xshatish va o'xshatilmish o'rtasidagi aloqadorlikdan yiroqlashgani yo'q". Baytga oid tasavvur va talqinlar juda sodda. Olimning ilmiy talqinlari shoirning badiiy talqinlari bilan bellasha oladi. Ilmiy talqin badiiy matndek taassurot uyg'otadi. Bu esa olim uslubining o'ziga xos xususiyati sanaladi. "Ikkinchi misrada birinchi qatordagi o'xshatish, mubolag'a kabi san'atlar yoniga tajohuli orifona ham qo'shiladi. Hamma narsani o'z jismida sinovdan o'tkazayotgan oshiq o'zini bilib-bilmaslik holatiga (nega holim yomon qildi!) soladi va o'zicha so'roq qo'yib, unga javob (men andin bir so'rorim bor!) beradi. Bobur Mirzoning so'z imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahorati ham diqqatga sazovordir. Birinchi misrada "qon" so'zi uch ma'noda keladi: qon – rang (labga nisbatan); qon – inson tomirlarida oqadigan suyuqlik; qon – bag'ridagi jarohat va ko'zdan oqadigan yosh tomchilaridir. Shunday gapni "so'rorim"ga nisbatan ham aytish mumkin: So'rorim men undan (ma'shuqadan) albatta, so'rayman; so'rorim – ma'shuqa labini so'rmoq (bunisi alamdiyda oshiqning amal choponini kiymagan shirin orzusi). "Qon" va "so'rorim" so'zlari ayni paytda iyhom san'atini (so'zning ko'p ma'nolilik xususiyatidan kelib chiqib, uni "o'ynatish", ma'no jilolarini ochish) hosil qilgan". Adabiyotshunos olim sharhida ilmiy talqin ustundek ko'rinsa-da, so'z tanlashi, matnga izohlarning kiritishi (*bunisi alamdiyda oshiqning amal choponini kiymagan shirin orzusi*) badiiy matnga erkin munosabatda bo'lganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, badiiy matn tahlili va talqinida olim tomonidan obrazli tasvirlarning kiritilishi talqinchining tasavvur olamining kengligini ko'rsatishi bilan birga, san'atni san'at bilan tushuntirish yoki talqin qilishini mohirona iste'dod sifatida baholash mumkin. Tahlil jarayonida badiiy matn mavzusi soddalashtiriladi, bu esa tushunishni osonlashtiradi. Talqin orqali esa matnga qo'shimcha ravishda falsafiy mushohadalar, ilmiy xulosalar yuklanadi. Xullas, Rahim Vohidov o'z tadqiqotlari davomida Bobur mahoratining betakrorligini keng yoritib berdi hamda asarlar tahlilida erkin munosabatda bo'ldiki, bu kitobxonga badiiy matnni tushunishda ancha qulay va oson bo'lishini ta'minladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hayitov Shuhrat. Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'... "Sharq yulduzi" jurnali, 2018-yil, 2-son
2. Hasanov S. Bobur she'riyatidan. –T.: 1982. 13-b.
3. Adizova I. Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. Filol. fanlari doktori
4. (DSc)... diss. – T., 2020. –B.124
5. Vohidov R. Yillardan qolgan ma'naviy yodgorlik... - T.: "Zarqalam". 2006. –126-b
6. Quronov D. Tarix va talqin ma'suliyati. Adabiy meros. 2021. №2. B-114.

BOSHLANG'ICH SINFLAR TEXNOLOGIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH ORQALI O'QUVCHILARDA ZAMONAVIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Saidova Shahodat
BuxDU 5- bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnologiya darslarining maqsadi, tashkil etish texnologiyasi, uning o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdagi o'rni va uni o'qitishning boshlang'ich sinflarga xos xususiyatlari haqida bayon etilgan bo'lib, aqliy va qo'l mehnatidan foydalanish borasida ham fikr-mulohazalar aytib o'tilgan. Maqolada texnologiya darslari samarali tashkil etishga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, STEAM, integratsiya, texnologiya darslari, boshlang'ich sinflar, kollaboratsiya, intellektual salohiyat, qo'l mehnati.

KIRISH

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar xalqaro tajribalari asosida STEAM integrative yondashuvi joriy etilishi umumta'lim maktablarining o'quv jarayonlariga o'zgacha muhitni olib kirdi. Ta'lim jarayonida STEAM yondashuvi tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarining birgalikda integratsiyalashgan (fanlararo bog'lanish) holda, olib borilishini nazarda tutadi. Bunda, asosan amaliy jihatlarga e'tibor qaratiladi. Texnologiya fani ham STEAM fanlarining biri sifatida, intellektual salohiyat va amaliy qo'l mehnatiga asoslanadi va estetik didning shakllanishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Texnologiya fani umumta'lim maktablari doirasida barcha sinflarda amalga oshiriladi. Bu fan o'quvchidan faollik, mohirlik, izlanuvchanlik va ijodkorlikni talab qiladi, qisqa vaqt ichida aqliy bilim va qo'l mehnati orqali yuqori samaradorlikka erishishni ko'zlaydi. Texnologiya fanining mazmunan yuqori darajada tashkil qilinishi fanning strategik maqsadlariga muvofiq (ushbu konsepsiyaning dastlabki bandlariga qarang) begilanadi.

- texnologiya fanini mehnat bozori talablari asosida modernizatsiya qilish;
- ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish;
- o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil amaliy faoliyatda qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish;

O'quvchilarni texnologik savodxonligi, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlashi, va kasbga qiziqtirishda fan o'qituvchisining roli muhimdir. Mazkur fan o'qituvchisi xalq hunarmandchiligi asoslari bilan birgalikda zamonaviy kasblar (marketolog, dizayner, interyer dizayner, fitodizayner, me'morchilik, muhandis-dasturchi) haqida ma'lumot berishi, o'quvchini modellashtirish, robototexnika

sohasiga bo'lgan qiziqishlarini aniqlay olishi, kasbga doir amaliy mashg'ulotlar o'tash orqali o'quvchilar qobiliyatlariga baho bera olishi texnologiya fanining asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini samarali tashkil etishda har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish, uchun o'qituvchi, bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi, dars jarayonida turli metod va interfaol usullarni o'rinli qo'llay olishi juda muhim. Bu o'z navbatida, o'quvchilardan zamonaviy ko'nimmalrning shakllanishiga zamin yaratadi. Ular quyidagilardan iborat:

- kollaboratsiya – jamoa bo'lib ishlash qobiliyatlarini shakllantirish;
- kommunikativlik – muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantirish;
- kreativ fikrlash – o'z maqsadiga yo'lida yangiliklarga qo'l urish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va muammolarni hal qilish;
- tanqidiy fikrlash – o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kollaboratsiya (hamkorlik) ko'nikmasini shakllantirishda “Kichik guruhlarda ishlash”, “Loyiha”, “Bumerang” kabi metodlar samarali hisoblanadi. Ushbu metodlarni qovllash orqali o'quvchida jamoa bilan ishlash mahorati, ko'nikuvchanlik, o'zgalar fikrini hurmat qilishish, ishga ijodiy yondashuv, o'zini baholash kabi sifatlar paydo bo'ladi. Ovquv jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil, aniq, mantiqiy va erkin fikrlashga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoada o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, jamoa bilan o'zaro muloqot qilishga, shuningdek, mavjud imkoniyatlarini ko'rsata olishga undovchi “KBI”, “FMSU”, “Skarabey”, “BBB”, “Muloqot”, “Aqliy hujum” metodlarni hamda, “SCORE”, “Muammoli vaziyat”, “Bahslashuv” kabi interfaol usullarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

NATIJAR VA MUHOKAMALAR

Olib borgan tadqiqotimizda o'quv jarayonini takomillashtirishda yuqorida keltirilgan metod va usullar orqali texnologiya darslarida aqliy va qo'l mehnatidan foydalanish, o'ziga xos texnologiyalar bilan o'qitish jarayonidagi samaradorlikni oshirishda quyidagi natijalarga:

- “Texnologiya” fani darslarida o'quvchi ijodiy shaxs sifatida shakllantirish nuqtayi nazardan foydalanishi maqsadga muvofiqililiga;
- o'z mehnat harkatlarining nazariy va amaliy ahamiyatini o'qitishda o'quvchilarning fikran mustaqilligini shakllantirish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega ekanligiga erishildi.

Kuzatishlar davomida 4-sinf o'quvchilari texnologiya darslarida nazariy olgan bilimlari asosida tabiiy va turli materiallarning xususiyatlarini tavsiflab, ularni ovzaro farqlay olish, buyum va mahsulotlarni loyihalay olish, harakatlanuvch o'yinchoqlar, robot va oddiy samoloyot maketini yasash, lego konstruktoridan kema yig'ish, gul pannosini yaratish, yumshoq o'yinchoqlar tikish, o'z mehnat harakatlarini o'quv topshiriqlati asosida muntazam takrorlay olish kabi bir qancha amaliy ishlarni yakka yoki kichik guruhlar bilan birgalikda bajara oladilar.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda Milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda

muammoli o'qitishning ta'lim samaradorligini oshirish borasida juda ko'p islohotlar amalga oshirilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'qitish mazmunida o'quvchilarning amaliy, eksperimental ko'nikma va malakalarini o'quvchilarda tarkib toptirish lozim. Chunki, texnologiya hozirgi zamon fani, xalqaro mehnat bozorida qo'l mehnat bilan birgalikda yuqori ong, aqliy salohiyati yuqori bo'lgan kadrlarga talab ortmoqda.

Mana shuning uchun ham dars o'tish jarayonlarini to'g'ri va maqsadli tashkil etish, integratsiya va innovatsiyalardan foydalanib, loyiha ishi va amaliy ishlarni o'tkazish, metodlari o'rinli qo'llash, ekskursiyalarni kengaytirish, bu fanga bo'lgan o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish kerak. O'quvchilarning tayyorgarligini nazorat qilish jarayonida eksperimental ko'nikma va malakalarning tarkib topganligi darajasini tekshirishni kuchaytirish zarur.

ADABIYOTLAR

1. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion va pedagogic texnologiyalar" // Toshkent - 2016
2. Mirziyoev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 16 iyun
3. X.Kadirov, D.Sayfurov, Sh.Abdurahmonova "Texnologiya" o'qituvchi kitobi, 4-sinf // Toshkent-2020
4. Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich "TEXNOLOGIYA" FANI DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM // Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). 2020. №6 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tehnologiya-fani-darslarida-muammoli-talim> (data obrasheniya: 13.11.2022).
5. R.R.Ismailova "Texnologiya" 3-sinf darslik // "Novda Edutainment", 2023.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA AUDIVIZUAL VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

*M.A.Rustamova,
UrDU akademik litseyi geografiya o'qituvchisi*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada geografiya ta'limi metodikasi va geografiya ta'limini rivojlanishida audiovisual vositalardan foydalanishning ahamiyati, audiovizual vositalar va ularning turlari haqida so'z yuritiladi. Bugungi kunda geografiya ta'limida axborot texnologiyalaridan va audiovisual vositalardan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.*

***Abstract.** This article discusses the methodology of geography education and the importance of using audiovisual tools in the development of geography*

education, audiovisual tools and their types. Today, the importance of the use of Information Technology and audiovisual tools in geography education is described.

Аннотация. В данной статье рассматривается методика обучения географии и значение использования аудиовизуальных средств в развитии географического образования, аудиовизуальные средства и их виды. Дана информация о важности использования информационных технологий и аудиовизуальных средств в географическом образовании сегодня.

Kalit so'zlar: *geografiya, geografiya ta'limi, audiovisual vositalar, videodarslar, diafilmlar.*

Key words: geography, geography education, audiovisual tools, video lessons, slides.

Ключевые слова: география, географическое образование, аудиовизуальные средства, видеоуроки, слайды.

O'zbekistoning mustaqillikka erishishi munosabati bilan geografiya ta'limida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Maktab geografiyasining mazmuni va tuzilishida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayrim o'quv fanlari maktab dasturidan olib tashlandi, ayrimlarining mazmuni o'zgartirildi, ayrim fanlar yangidan yaratilib, o'quv tizimiga joriy qilindi. O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risidagi qonun»ni qabul qilinishi munosabati bilan o'quv qo'llanmalar va darsliklarga bo'lgan talablar keskin o'zgardi. Barcha fanlarda bo'lganidek maktab geografiyasi fanida ham tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya fanining dasturi va tuzilishi O'zbekiston maktab ta'limi tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda qaytadan ko'rib chiqildi. Shu munosabat bilan geografiya o'qitish metodikasida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya o'qitish metodikasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash munosabati bilan o'qitish metodikasida ham qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya ta'limi deganda o'quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi. Geografiya fanlari tizimining asosini geografiya o'qitish metodikasi tashkil qilib, geografiya o'qitish metodikasining amaliy jixatlari o'qituvchini o'qitish faoliyatini, o'quvchini o'qish faoliyatini aks ettiradigan metodlarni ishlab chiqishdan iborat. Geografiya o'qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarni ishlab chiqadi, yani predmetni o'zini tadqiqot usullarini o'rganadi, bunda asosiy e'tiborni o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga qaratiladi. Aniqlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta'limini mazmuni ishlab chiqqan va ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar qatoriga-Maksakovskiy V.P., Orlov V.A., Solovyova M.G., Pancheshnikova L.M., Petrosyuk A.A., Smirnova M. S., Polyakova A.V., Semakin N.K., Federov O.V., Nikolina V.V., Alekseev A.I., Zuev D.D., Dushina I.V., Yevlaxina T.I., Vaxobov H., Mirzamahmudov O.T., Abdug'aniev O., Baranskiy N.N., Abdunazarov O., Alimova N.X., Rafiqiov A.A.va boshqalarni kiritish mumkin.

Fan va texnikaning rivojlanishi bilan maktab geografiyasining oldiga qo'yiladigan talablar ham ortib boradi. Mazkur talablarni bajarish uchun o'qitish shakllari va metodlarini takomillashtirish lozim bo'ladi. Bu esa o'quvchilar bilish

faoliyatini jadallashtiradi, ularni fikrlashga va ilmiy mushoxada qilishga undaydi hamda o'rganayotgan geografik voqea va hodisalar bilan hayot o'rtasidagi aloqalarni tushunishga yordam beradi. Yangi o'quv vositalarini qo'llash o'quvchilarni dunyoqarashini shakllantirishga, shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aynan dars jarayonida turli texnik vositalardan foydalanishning ahamiyati juda katta. Audiovizual o'quv materiallari- bu yuqori ma'lumotga ega vositalar hisoblanadi, ular o'qituvchiga muhim o'quv muammolarini hal qilish sifatini oshirishga imkon beradi: dunyoning ilmiy rasmini shakllantirish, ilmiy tadqiqot usullari kontsepsiyasini joriy etish.

Audiovizual vositalar yordamida fanlararo aloqalarni amalga oshirish kognitiv qiziqishni rivojlantirishga, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, mazmun tanlashga, ularni qo'llagan holda darslarni qurish va tashkil etish usullariga ma'lum talablarni qo'yadi. O'qitishning og'zaki usulidan ko'ra, materialning audiovizual taqdimoti bilan talabalarning obrazli va hissiy xotirasi yodlashga kiritiladi, ularning intellektual faolligi faollashishi mumkin.

Audiovizual vositalardan foydalanishda bir qator olimlarning didaktik asos sifatida Yu.K.Babanskiy, I.Ya.Lerner, M.I.Maxmutov, V.Okun, M.N.Skatkinlarning ishlari tashkil etildi.

O'qitishning texnik vositalari yordamida o'qituvchi qo'yilgan maqsadga erishishga, o'tkazilayotgan mashg'ulotlarni samaradorligini keskin oshirishga imkon beradi. Texnik vositalarni qo'llashni quyidagi afzalliklari mavjud: - qiziqarliligi, o'quvchilar birinchidan texnika vositalarini o'ziga qiziqsa, ikkinchi tomondan uni ishlatishga va unda ko'rsatilgan ma'lumotlarga qiziqishadi; - voqealarni tez rivojlanishi va aniq ko'rsatilishi o'quv materiallarini tez o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, tabiiy geografik jarayonlarni sodir bo'lishi, tekislik va tog' relefining turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, tropik o'rmonlarning sharoiti, ishlab chiqarish jarayoni va h.k; - texnik vositalar orqali murakkab o'quv materialini oson tushuntirish mumkin. Masalan, havo massalarini vujudga kelishi, imkoni va antitsiklonlarni shakllanishi, tornado, tsunami va boshqa tabiiy geografik jarayonlarni hosil bo'lishi va ularning oqibatlarini; - o'quvchilar qabul qilishi murakkab bo'lgan geografik ob'ektlarni texnik vositalar orqali osongina bajarish mumkin. Masalan, temir yo'l paromi, dengizdagi neft qazib oladigan moslamalar va h.k. O'qitishning texnik vositalarini qo'llashda quyidagi qoidalarga amal qilinishi lozim: - texnik vositalarda ko'rsatiladigan geografik voqea va hodisalar dars mavzusiga mos bo'lishi lozim; - texnik vositalarni qo'llash oldidan uning ishlash tamoili, mazkur darsda nima ko'rsatilishi haqida o'qituvchi axborot bermog'i lozim; - o'qitishni texnik vositalari avvaldan ishga tayyorlab qo'yilishi lozim. Uni dars jarayonida sozlash o'quv soatini ancha qismini olib qo'yishi mumkin; - texnik vositalar orqali ma'lum bir mavzuni o'rganishda uni alohida qismlarga bo'lish lozim; - har bir qismda ko'zda tutilgan material tugallangandan so'ng o'qituvchi izoh berishi, namoish qilingan geografik voqea va hodisalarni o'quvchilar qanday qabul qilganini tekshirib ko'rishi mumkin. Ko'zda tutilgan materiallar namoyish qilib bo'lingandan so'ng o'qituvchi darsni yakunlashi lozim; -

namoish etilgan material aniq va ravshan ko'rinishi lozim. Geografiya darslarida foydalaniladigan o'qitishning texnik vositalarini quyidagi guruhga bo'lishimiz mumkin:

- o'qitishni audiovizual vositalari;
- o'qitishda videotexnika vositalaridan foydalanish;
- o'qitishda axborot vositalaridan foydalanish.

O'qitishni audiovizual vositalariga o'quv kinosi, teleeshittirishlar, diafilmlar, diopozitivlar, transparantlar kiradi. O'qitishni audiovizual vositalariga o'quv kinosi, teleeshittirishlar, diafilmlar, diapozitivlar va transparantlar kiradi. Geografiya darslarida kinofilmlardan foydalanish. Kinofilmlardan geografiya darslarida foydalanish dars mavzusi, dars turi, boshqa holat va sharoitlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Dars jarayonida kinofilmlardan to'la foydalanish mumkin, uning bo'limlaridan va qism yoki lavhalaridan foydalanish mumkin. Kinofilmni namoish qilishni darsning turli xil bosqichlarida amalga oshirish mumkin. Ayrim kinofilmlardan to'la, ayrimlaridan qisman foydalanish mumkin.

Kinofilmlar dars jarayonida foydalanishga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- maxsus o'quv maqsadlarida chiqarilgan filmlar;
- ilmiy- ommabop kinofilmlar;
- tabiat komponentlarining ayrim qismlariga bag'ishlangan filmlar (tog'lar, o'rmonlar, daryolar, ko'llar, hayvonot dunyosi va h. k.)
 - badiiy filmlar;
 - videofilmlar.

Maxsus o'quv filmlari aniq bir mavzuga bag'ishlangan bo'ladi. Masalan, tog'lar, Sahroi Kabir cho'li, tundra, o'rmonlar va h.k. Ilmiy- ommabop kinofilmlar asosan keng halq ommasiga mo'jallab chiqariladi. Dars jarayonida uning ayrim qismlaridan foydalanish mumkin. Tabiat komponentlarini ayrim qismlariga bag'ishlangan kinofilmlardan ham dars jarayonida foydalanish mumkin. Masalan, hayvonlarni ayrim turlariga, okean mavjudotlariga, aholiga va uning turmush tarziga bag'ishlangan filmlar. Badiiy filmlarni ham ayrim dars mavzusiga oid qismlaridan foydalanish mumkin. Bunday filmlar toifasiga sarguzasht filmlar ko'proq kiradi. Unda tasvirlangan tabiat manzaralari, o'simlik va hayvonot dunyosidan dars jarayonida foydalanish mumkin. Bundan tashqari filmlar yordamida sinf sharoitida sayohatlar ham uyushtirish mumkin yoki bo'lmasa o'quvchilar bevosita ko'rolmaydigan jarayonlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, "Qora metallurgiya", "Sintetik tolalar", "Tropik o'rmonlar", "Cho'llar", "Dashtlar".

Dars jarayonida filmlar bilan ishlash metodikasi quyidagi qismlardan iborat:

- a) o'quvchilarni ma'lum bir mavzu bo'yicha kinofilmni ko'rishga tayyorlash;
- b) o'quvchilarni filmni ko'rish jarayonidagi ishlarini tashkil qilish;
- v) ko'rilgan film mazmunini mustahkamlash;
- g) kinolashtirilgan darsni samaradorligini tekshirish.

O'quvchilarni dars oldidan aniq filmni ko'rishga tayyorlash film mazmunini faol tushunishga va uni to'la o'zlashtirishga imkon beradi.

Geografiya ta'limida axborot texnologiyalardan foydalanishni quyidagi shart-sharoitlarini ta'kidlab o'tish lozim:

- geografiya o'qituvchisi axborot texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart;
- maktab o'quvchilari kompyuterlardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart;
- maktabda kompyuterlar sinfi bo'lishi shart.

Geografiya ta'limida axborot texnologiyalarni qo'llash quyidagi soxalarda olib borilmoqda:

1. Elektron darsliklardan foydalanish;
2. Elektoron kartalardan foydalanish;
3. Internet imkoniyatlaridan foydalanish;
4. Videofilmlardan foydalanish;
5. Masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish.

Hozirgi davrda juda ko'p darsliklarning elektron versiyalari yaratilmoqda. Shu munosabat bilan o'quvchilar berilgan mavzuni elektron darslikdan topib uni o'qituvchi yordamida yoki mustaqil o'rganishi mumkin.

Bugungi kunda endi rivojlanib kelayotgan masofaviy ta'limda ham audiovisual vositalardan foydalanish juda katta samara beradi. Masofaviy o'qitish usulidan malaka oshirish kurslarida keng foydalanish mumkin. Demak xulosa qilib aytadigan bo'lsak, axborot texnologiyalardan foydalanish geografiya ta'limida katta imkoniyatlarni beradi, yuqorida ta'kidlaganimizdek o'quvchilarda tasavvur va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga juda katta yordam beradi. Shuning uchun ham bugungi kunda geografiya ta'limini axborotlashtirishni to'xtovsiz takomillshtirib bormoq zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Qurbonniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. UrDU, Urganch, 2001, 222b
2. Vaxobov X., Saydamatov F. Geografiya ta'limida test topshiriqlari tuzishning o'ziga xos xususiyatlari. "Geografiya fanining dolzarb nazariy va amaliy muammolari" Resp. ilm. amal. konf. materiallari. T. 2006. b 132-136.
3. Vaxobov X., Abduraxmonov B. O'rta maxsus o'quv muassalarida o'rganiladigan geonazariyalar. "Geografiya fanining dolzarb nazariy va amaliy muammolari". Resp. ilmiy. amaliy konf. materailari: T. 2006 b.136-138
4. Vaxobov X., Saydamatov F., Eshpo'latova N. Geografiya ta'limida qo'llanadigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish. Xalq ta'limi. 2007. №1, b.102-105
5. Vaxobov X. Geografiya. "O'qituvchi", T. 2000. 103.b

BERUNIY ASARLARI- O'RTA OSIYONING ILK BIBLIOGRAFIK VA FALSAFIY MANBALARINING AJOYIB NAMUNASI SIFATIDA

F.D.Kilichev,
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharq allomalarining ilm fanga qo'shgan hissasi, jumladan qomusiy olim- Abu Rayhon Beruniy hayot yo'li, uning ijodida falsafiy va didaktik g'oyalar, ilm-fanning rivojiga qo'shgan hissalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Falsafa, didaktika, algebra, al-jabr, yer, pedagogika, milliy g'oya, qadriyat, milliylik, sharq allomalari.

Kirish (Introduction). O'rta Osiyo yer yuzining eng qadimiy siyosiy, iqtisodiy va ma'daniy markazlaridan biridir. O'rta Osiyoliklar dunyo tarixiga, kishilik madaniyatiga o'z hissasini qo'shgan, o'z davriga oid so'nmas yodgorliklar yaratgan allomalardandir. Bu merosimizning bir qismi tabiiyot fanlari, xususan geografiya sohasida bo'lib, faxrlanishga arziydi. Ammo ilmiy merosimizni tekshirishda ayrim qiyinchiliklar uchraydi. Dastlab, qo'lyozmalarning butun emasligi, talay qismining yo'qolib ketganligi, borlarining ham juda tarqoq holda, dunyoning turli mamlakatlarida, turli kutubxonalarida saqlanayotganligi va bular to'g'risidagi ma'lumotlar yetarli emasligi har bir tadqiqotchining ishini og'irlashtiradi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, O'rta Osiyolik olimlarni ma'lum bir vaqtgacha vaqtgacha «arab olimi», «eron olimi» deb chalkashtirib kelganlar; bu bir tomondan, umuman fan va ma'daniyat tarixiga noo'rin qarash bo'lsa, ikkinchi tomondan, O'rta Osiyoliklarning va Xurosonliklarning merosini kamsitish bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Abu Rayhon Beruniy hayoti va faoliyati dunyoning ko'pgina mamlakatlarida chuqur o'ganilib, jumladan atoqli olimlar S.P.Tolstov, T.N.Qoriniyoziy, M.Ye.Masson, I.Umnyakov, Yu.Ye.Borshchevskiy, Yuf Rulomov, I.M.Muminov, B.A.Rozekfel'd, P.G.Bulgakov, OI.Islomov, U.Karimov, B.Axmedov, A.O'rinboev, A.Irisov, I.Abdullaev, I.Nizomaddinov va boshqalarning asarlari kitobxonlarni Beruniy kabi O'rta Osiyolik ko'pgina olimlar bilan tanishtirishga yordam berdi. Atoqli rus sharqshunoslari V.V.Bartold va I.Yu.Krachkovskiyning ko'p yillik ijodiy va ilmiy faoliyati aynan Markaziy Osiyolik allomalar hayot yo'li va ijodiga bag'ishlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Beruniy hayot yo'li atoqli olimlar S.P. Tolstov, T.N.Qoriniyoziy, M.Ye.Masson, I.Umnyakov, Yu.Ye.Borshchevskiy, Yuf Rulomov, I.M.Muminov, B.A.Rozekfel'd, P.G.Bulgakov, OI.Islomov, U.Karimov, B.Axmedov, A.O'rinboev, A.Irisov, I.Abdullaev, I.Nizomaddinov va boshqalarning asarlarida aks etib, kitobxonlarni O'rta Osiyolik ko'pgina olimlar bilan tanishtirishga yordam berdi. Ulug'bek, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Forobiylarning tavallud ayyomlari sharofati bilan, ma'rifatparvar-allomalarning faoliyatini yoritish borasida fan va ma'daniyatimiz tarixining yangi sahifalari ochildi, ulug' va dono allomalimiz aniqlandi, ularning xizmatlari taqdirlana boshladi. Va nihoyat, ensiklopediyaning nashr etilishi ko'p yillik ijodiy tadqiqotlarga yakun yasadi. Atoqli rus sharqshunoslari V.V.Bartold va I.Yu.Krachkovskiyning ko'p yillik va chuqur tadqiqotlari ham talay muammolarni oydinlashtirdi. Mashhur sharqshunos olim,

akademik Ignatiy Krachkovskiy allomaning yuksak ilmiy salohiyatini chuqur tahlil qilib «uning qiziqqan ilm sohalaridan ko'ra qiziqmagan soxalarini sanab o tish osondir» (I.Yu. Krachkovskiy. Izbrannyye sochineniya. T.4.-S.247) deb baxolagan edi. Beruniy haqidagi oliy baho va tavsiflar Tabriziy, Suyutiy, Qazviniy, Tusiy, Muhammad ibn Mansur al-Allomiy, al-Xurosoniy kabilarning asarlarida keltiriladi.

XIX asrdan boshlab Yevropa va Osiyo mamlakatlarida Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima etila boshlandi. Beruniy asarlariga bag'ishlangan yevropalik olimlar J. Reno, E.Zaxau, G.Zuter, E.Videman, K.Nallino, J.Sarton, R.Rayt, M.Meyerxof, osiyo olimlari S.X.Nasr, M.Kozim, S.Baraniy, M.Nizamuddin, Sh.Yaltkay kabilarning kitoblari, tarjimalari nashr etildi. Bu tadqiqotchilar Beruniy ijodiga juda yuqori baho berdilar. Amerikalik tarixchi olim J. Sarton Beruniyning merosiga eng oliy baho berish bilan birga, uning o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi. Atoqli sharqshunos V.R.Rozen esa, uning ilmiy qarashlari taajjub qolarli darajada kengligi, unga hozirgi ma'nodagi haqiqiy fanning ruhi xos ekanligini qayd etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabilarni chuqur o'rgandi. U Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tug'ildi va yoshligidanoq ilm-fanga qiziqishi orta bordi. Beruniy keyinchalik mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida ta'lim oldi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rganadi. O'z ilmiy asarlaridan birida yozishicha, u Xorazmda yashagan davrida, 990-yillardan boshlab Kat shahrida muhim astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi astronomik asboblar ixtiro etgan. Xorazm zodagonlari orasida taxt uchun boshlangan kurashlar olimning bu ilmiy ishlarini davom ettirishga imkon bermaganligi bois 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi va bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashadi. So'ng qadimgi Ray shahriga bordi, 998-yildan keyin yana Jurjonga keldi va bu yerda o'zining ikkinchi ustozini tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta'lim oldi. Beruniy "Osor al-boqiya an alqurun al-xoliya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000 yilda tamomlagan. "Osor al-boqiya" Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko'rsatdi. Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astronomiya, netrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozdi. Beruniy Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbas Ma'mun II ibn Ma'mun tomonidan mamlakatning yangi poytaxti Urganchga chaqirtirildi. Xorazmshoh tomonidan juda katta izzat-ikrom bilan qabul qilingan. Beruniy Urganchda Ma'munning bevosita rahnamoligida vujudga kelgan ilmiy markazda faoliyat ko'rsatadi. Beruniy shoh

Ma'mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi.

Xorazmning Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo'yadi. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G'azna shahriga asir qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017-1048-yillarda G'aznada kechirgan hayoti, bir tomondan nihoyat og'ir kechgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo'ldi. Beruniyning "Xorazmning mashhur kishilari" asari ham shu davrda yaratilgan. Uning muhim astronomik-geografik asari "Tahdid nihoyat al-amoniya li tas'hidi masofat al-masokin" ("Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash" – "Geodeziya") 1025-yilda yozib tugatilgan. Beruniyning "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar" asari ham 1029 yil G'aznada yozilgan. Asarning forscha, arabcha nusxalari bizgacha yetib kelgan. Unda o'sha zamon astronomiyasi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha fanlar haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Beruniyning "Hindiston" nomli mashhur yirik asari "Tahqiq mo li-l-Hind min ma'quda maqbula fi-l-aql av marzula" ("Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi") 1030-yilda yozilgan bo'lib, bu shoh asar G'arb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. Akademik V.R.Rozen "Sharq va G'arbning qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'q", deb baho bergan. Mahmud G'aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlaridan birida shohga hamroh bo'lgan Beruniy, u yerda sanskrit tilini puxta o'rganishi hind madaniyati, adabiyoti va Hindistonning o'sha davr olimlari bilan yaqindan tanishishga hamda bu mamlakat haqida o'lmas asar yaratishga imkon berdi. "Hindiston" asari yozib tugatilgan yili Mahmud G'aznaviy vafot etdi va uning o'rniga taxtga o'g'li Mas'ud o'tirdi. Bu davrda Beruniyning ahvoli ancha yaxshilandi. Astronomiyaga oid "Mas'ud qonuni" asarini sulton Mas'udga bag'ishladi. O'sha asr olimlaridan biri Yoqutning yozishicha: "Mas'ud qonuni" kitobi matematika va astronomiya bo'yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o'chirib yuborgan". Beruniy o'z asarlari ro'yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bulardan biri "Mineralogiya"dir. Bu risola o'z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Yevropada ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo'q asar hisoblanadi. Beruniyning oxirgi asari – "Dorivor o'simliklar haqida kitob"ining qo'lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar "Saydona" nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifini beradi. Beruniy shogirdi Abul Fadl as-Seraxsiy ma'lumoti bo'yicha 11-dekabr 1048-yilda vafot etgan. Beruniy so'nggi avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o'z davri ilm-fanning turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma'lum. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya,

geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmakologiya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan ham shugʻullanib sheʼrlar yozdi. “Astrologiyaga kirish”, “Astronomiya kaliti”, “Jonni davolovchi quyosh kitobi”, “Ikki xil harakatning zarurligi haqida”, “Koʻpaytirish asoslari”, “Ptolemey “Almagesti”ning sanskritchaga tarjimasi”, “Foydali savollar va toʻgʻri javoblar”, “Fargʻoniy “Elementlar”iga tuzatishlar”, “Turklar tomonidan ehtiyotkorlik”, “Oq kiyimlilar” va karmatlar haqida maʼlumotlar”, “Sheʼrlar toʻplami”, “Al-Muqanna haqidagi maʼlumotlar tarji-masi”, “Ibn Sino bilan yozishmalar” shular jumlasidandir. Beruniy qadimgi yunon ilmi va uning vakillari Aristotel, Platon, Ptolemey, Yevklid kabilarning asarlari hind olimlari, musulmon olimlari al-Xorazmiy, Fargʻoniy, Battoniy, Roziy, Abu Tammam, ibn Kaysum, Abu Maʼshar asarlari bilan yaqindan tanish boʻlgan, ularga sharhlar, izohlar, tuzatishlar, raddiyalar yozgan. Uning ilmiy merosi gʻoyat rang-barang boʻlib, tibbiyot faniga, astronomiya faniga xizmati juda kattadir. Beruniy oʻz ilmiy asarlarida dunyoning tuzilishi masalasida Ptolemey sistemasiga suyansa ham, yerning harakati haqida Beruniy: “Yerning harakatsizligi (masalasi) astronomiya fanining asosiy masalalaridan biri boʻlib, bu haqda yuz beradigan shubhalarni yechish qiyin”, deb yozadi. Osmon jismlarini geometrik tushuntirish asosida Beruniy Kopernikdan bir necha asr avval Yerni koinotning markazi deb biluvchi geotsentrik va Quyoshni koinot markazi deb oʻrgatuvchi geliotsentrik tizim teng kuchga ega, degan xulosaga keladi. “Geodeziya” asarida Beruniy geotsentrizm bilan bogʻliq boʻlgan baʼzi bir nazariyalarning toʻgʻriligiga shubha bilan qaraganini ochiqdan-ochiq bayon etadi. Beruniy harakat trayektoriyasi va osmon yoritqichlari shaklining ellipsoid ekanligi haqida birinchi boʻlib fikr yuritgan olimlardan boʻlib, joylarning geografik uzoqligini, kengligini aniqlash yoʻllarini tanlab olishda novator hisoblanadi. U trigonometriyani, geometriyani keng qoʻllash orqali oʻzidan oldingi astronomlarga nisbatan ancha aniq natijalarga erishdi. Turli joylarning geografik kengligi va uzoqligini aniqlashda Beruniy erishgan natijalar hatto hozirgi zamon olimlarini ham hayratda qoldiradi. Buyuk olim Yer yuzasining har bir qismi oʻzining uzoq tarixiy taraqqiyotiga ega ekanligini qayd etadi. Markaziy Osiyoning baʼzi bir mintaqalari, shu jumladan, Amudaryo vodiysining geologik rivojlanishini birinchi marta jiddiy oʻrganishga harakat qilgan ham Beruniydir. Uning Amudaryo vodiysining geologik oʻtmishi va Orol dengizining paydo boʻlishi haqidagi xulosalari oʻsha zamonning eng muvaffaqiyatli geologik tahlillaridan biri boʻlib hisoblanadi. Olim “Dengizlar quruklikka, quruqliklar esa dengizga aylanadi” degan nazariyaga suyanadi. Beruniyning foydali qazilmalar qatlaminin paydo boʻlishi, jinslar yemirilishining ahamiyati, togʻ jinslarining nurashi kabilar haqidagi xulosalari katta ilmiy ahamiyatga egadir. U togʻlarning paydo boʻlishi va yoʻq boʻlib ketishi tabiiy omillar asosida yuz berishini talqin etuvchi nazariyani olgʻa suradi. Beruniy Aristotelning naturfilosofiyasi bilan bevosita shugʻullanishi natijasida Aristotel qarashlariga tanqidiy yondashib, hatto

zaif tomonlarini tanqid etish darajasiga borib yetdi. Beruniyning Aristotelga munosabati ibn Sino bilan yozishmasida o‘z ifodasini topgan. Ularning yozishmalari asosan Aristotelning “Fazo haqida” va “Fizika” asarlari bo‘yicha olib borilgan edi. Beruniy Aristotelni qadimgi dunyoning eng qomusiy yetuk olimi deb zo‘r hurmat bilan tilga oladi. Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to‘g‘risida taxmini uning ilmiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Olimning fikrlari, bir tomondan, Markaziy Osiyo, qadimgi yunon va hind mutafakkirlarining ilg‘or an‘analarini ijodiy rivojlantirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Beruniyning yetukligi, tafakkur doirasining kengligidan dalolat beradi. Beruniy tomonidan “sabablarning sababi” – inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasining qo‘yilishi diqqatga sazovor. “Qadimgi tarixlarning eng qadimgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir”. Bu yerda Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi haqida ratsionalizm pozitsiyasida turganini ko‘ramiz. Beruniy insonlar o‘rtasidagi tafovut borligi haqida gapirar ekan, u faqat tashqi farqlar to‘g‘risida fikr yuritgan. Lekin kishilarning ichki tuzilishi va tashkil topishi, uning fikricha, barchada umumiydir. U inson bilan maymun o‘rtasida o‘xshashlik borligini qayd etadi. Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida musulmonlar bilan hindlarning urf-odatlarini o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilib, ular geografik sharoitlarga bog‘liq degan fikrni ilgari surdi, geografik omilning rolini tahlil qilishni davom ettirib, hatto tillarning turlichaligi ham geografik sharoitlarga bog‘liq deb qaradi. “Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-birlaridan uzoq turishi”dir. Beruniy ijtimoiy hayot o‘ziga xos “shartnoma” asosida tuzilishini e‘tirof etadi: “Inson o‘z ehtiyojlarini tushunib, o‘ziga o‘xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o‘zaro kelishuvchanlik qabilidagi “shartnoma” tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir”. Bu fikrni davom ettirib, “insonning qadr-qimmatini o‘z vazifasini a‘lo darajada bajarishdan iborat: shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanadi, inson o‘z xohishiga mehnat tufayli erishadi”, deb yozgan edi u. Olim o‘zining “Hindiston” asarida “xalqlar o‘rtasida tortishish va talashish ko‘p”, deb afsuslanib yozgan edi. Uning Hindistonda olib borgan keng ilmiy-tadqiqot ishlari xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, o‘zaro hamkorlik va madaniy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan edi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Beruniy madaniy hamkorlik va ilm-ma‘rifatning keng tarqalishiga katta e‘tibor berdi. Beruniyning asarlari musulmon Sharqi madaniyatining so‘nggi rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. So‘nggi asarlarda arab va fors tillarida yozilgan Bayhaqiy, Shaxrizo‘riy, Qiftiy, Yoqut Hamaviy asarlarida Beruniy haqida muhim ma‘lumotlar keltiriladi. XIII asrda yashagan suriyalik tarixchi va tabib Xristian Ioanni Bar Ebrey (1226–1286) Beruniyga shunday baho beradi: “O‘sha o‘tgan yillarda yunon va hind falsafasi dengizini kechib o‘tgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy o‘tmish ilmlarda shuhrat qozondi. U matematika ilmlarida mutaxassis bo‘lib, bu

sohada qator muhim kitoblar yaratdi. Hindistonga borib, u yerda bir necha yil yashadi, hind faylasuflaridan ularning san'atini o'rgandi va ularga yunon falsafasini o'rgatdi. Uning asarlari nihoyatda ko'p, yetuk va nihoyatda ishonchlidir. Bir so'z bilan aytganda, o'z davrida, undan so'ng va hozirga qadar hamkasblari orasida astronomiya ilmida bunday bilimdon va bu ilmning asosini hamda nozik tomonlarini chuqur biladigan olim bo'lmagan".

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ma'lumki, Abu Rayxon Beruniy o'z davrida 150 tacha asar yozgan. Hozir shulardan 30 tachasigina «omon» qolgan. Abu Rayxon Beruniyning ilmiy faoliyati fan taraqqiyotida butun bir davrni tashkil etadi. U ilmiy qiziqishlari doirasining kengligi va chuqurligiga, mavxum bilimdonlikdan qochib, moddiy madaniyat sohasida ham, ma'naviy madaniyat sohasida ham, insoniyatning real hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalarga qiziqqan. Uning ilmiy merosi qomusiy ahamiyat kasb etadi. Abu Rayxon Beruniy o'z ilmiy ishlarining ro'yxatini tuzadi. Bunda 1035-yilgacha yozilgan kitoblari va risolalari 113 taga yetgani ko'rsatilgan. Keyingi yozgan asarlarini ham qo'shsak, u qoldirgan ilmiy meros 152 ta kitob va risoladan iborat. Olimning asarlari mavzu jixatdan turli-tuman. Ko'pchilik asarlari esa o'z zamonasida o'ziga xos bir entsiklopediya xisoblangan. Asarlarining 70 tasi falakiyot, 20 tasi riyoziyot, 12 tasi geografiya va geodeziya, 3 tasi ma'danshunoslik, 4 tasi xaritagrafiya, 3 tasi iklimshunoslik biri fizika, biri dorishunoslik, 15 tasi tarix va etnografiya, 4 tasi falsafa, 18 tasi adabiyot va boshqa fanlarga oiddir. Abu Rayxon Beruniy turli tillardan bir qancha ilmiy va adabiy asarlarni tarjima ham qilgan. Shu o'rinda Beruniy bibliograf sifatida ham faoliyat yuritgan serqirra alloma ekanligini aytishimiz mumkin. U o'z ilmiy ishlarini bibliografiyasini tuzgan va zamondoshlariga qulay bo'lishi uchun asarlari ro'yxatini va dastlabki ma'lumotlar taqdim etgan. Beruniy barcha fan sohalarida samarali ijod qilgan qomusiy olim edi. Uning ilmiy ish sohasidagi noyob qobiliyatini ko'pchilik zamondoshlari va boshqa olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Beruniyning yozib qoldirgan bir necha asarlari O'rta Osiyoda ilk bibliografik manbalarning ajoyib namunasi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (REFERENCES):

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «O'zbekiston» 1997.
2. Karimov I.A. Demokratik xuquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish-farovon hayotimiz garovidir". T.: O'zbekiston, 2007.
3. A.K. Munavvar. Oila pedagogikasi. -T., O'qituvchi, 1994.
4. U. Mahkamov. Ahloq-odob saboqlari. -T., „Fan“, 1994
5. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
6. Erkinov, A. S. O., & Haydarov, S. (2021). YUNON-BAQTRYA PODSHOLIGINING IJTIMOYI TUZIMI, XO'JALIGI VA MADANIYATI. Scientific progress, 1(6), 620-622.

7. Nematov, M. D. O., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI ORGANISHDA SHUMER-AKKAD DAVLATCHILIGINING ORNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
8. Ermatov, F., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA 1870-1914 YILLARDA ANGLIYANING O'RGANILISHI. Scientific progress, 1(6).
9. Do'Stmurodov, S., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA XVI-XVIII ASRLARDA HINDISTONNI O'RGANISH. Scientific progress, 1(6).
10. Mengboyev, S. N., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA URARTU PODISHOLIGINING O'RNI. Scientific progress, 1(6).
11. Asqarov, N. S. O., & Haydarov, S. (2021). ARAB XALIFALIGINING POYTAXTI BAG'DODNING TANAZZULGA YUZ TUTISHI. Scientific progress, 1(6).
12. Ro'Zmetov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIXNI O'RGANISHDA SOSONIYLAR DAVLATINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
13. Tulaboyev, D., & Haydarov, S. (2021). TARIXNI O'RGANISHDA MESOPATAMIYANING TARIXI VA DINI: O'RNI HAMDA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
14. Хайдаров, С.А., (2022). Захриддин Муҳаммад Бобур: бир қўлда мўйқалам-у, бир қўлда тож. Scientific progress, 3(3).

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТЫХ СТРАНАХ

Д.И.Иноятова,
Студентка Азиатский
Международный Университет
[*apexscholaruz@gmail.com*](mailto:apexscholaruz@gmail.com)

Аннотация. Статья обсуждает содержание образования в развитых странах, фокусируясь на его ключевых тенденциях, вызовах и перспективах. Рассматриваются вопросы доступности образования, развития навыков XXI века, интеграции междисциплинарных знаний, активного обучения и практического применения знаний. Авторы также обращают внимание на современные вызовы, включая технологические изменения, инклюзивность и равенство, а также роль образования в устойчивом развитии. Заключение подчеркивает важность развития образовательных систем, способных адаптироваться к современным требованиям и обеспечивать учащимся не только знания, но и навыки для успешной адаптации и карьерного роста.

Ключевые слова: Образование, развитые страны, тенденции, вызовы, перспективы, навыки ххi века, интеграция знаний, инклюзивность, глобальные вызовы, устойчивое развитие

CONTENT AND ESSENCE OF EDUCATION IN DEVELOPED COUNTRIES

Abstract. The article discusses the content of education in developed countries, focusing on its key trends, challenges and prospects. Addresses issues of access to education, development of 21st century skills, integration of interdisciplinary knowledge, active learning and practical application of knowledge. The authors also address contemporary challenges, including technological change, inclusion and equality, and the role of education in sustainable development. The conclusion emphasizes the importance of developing educational systems that can adapt to modern requirements and provide students not only with knowledge, but also with skills for successful adaptation and career growth.

Key words: Education, developed countries, trends, challenges, prospects, 20th century skills, knowledge integration, inclusivity, global challenges, sustainable development

Введение. Образование в развитых странах играет ключевую роль в формировании человеческого капитала и обеспечении экономического, социального и культурного развития. Оно является фундаментом для инноваций, конкурентоспособности и социальной мобильности в современном мире. В последние десятилетия в развитых странах наблюдается постоянное развитие образовательных систем в ответ на изменяющиеся потребности общества и вызовы глобализации, технологического прогресса и изменения климата.

Целью данной статьи является рассмотрение содержания и сущности образования в развитых странах с учетом современных тенденций и вызовов. Образование в этих странах стоит перед рядом существенных задач, таких как обеспечение доступности и качества образования для всех слоев населения, развитие компетенций, необходимых для успешной адаптации к быстро меняющимся условиям и обеспечение инклюзивности и равных возможностей для всех учащихся.

Перед образовательными системами развитых стран стоят следующие ключевые вызовы. Гибкость и адаптивность: Современное общество характеризуется быстрыми изменениями и неопределенностью. Образовательные системы должны быть гибкими и способными адаптироваться к новым требованиям и вызовам, включая изменения в технологиях, рынке труда и социокультурной среде.

Качество и доступность: Образование должно быть высокого качества и доступным для всех, независимо от финансового статуса или места проживания.

Инклюзивность и равенство: Образовательные системы должны быть инклюзивными и обеспечивать равные возможности для всех учащихся, включая поддержку студентов с особыми потребностями и борьбу с дискриминацией.

Тенденции в содержании образования: Образование в развитых странах изменяется, чтобы соответствовать современным вызовам общества. Интеграция междисциплинарных знаний становится все более важной,

помогая студентам понимать сложные взаимосвязи между различными областями знаний и применять их на практике.

Активное обучение и практическое применение знаний: Современное образование в развитых странах акцентируется на активном обучении, включающем практическое применение знаний в реальных ситуациях. Это включает проектную работу, лабораторные исследования, стажировки в компаниях и другие формы практического обучения, способствующие лучшему пониманию и применению учебного материала.

Развитие гибких навыков и готовности к изменениям: Современное образование в развитых странах придает большое значение развитию гибких навыков учащихся, таких как умение быстро обучаться новому и адаптироваться к изменениям в рабочей среде. Это стремление отражается в создании образовательных программ, которые развивают не только знания, но и навыки, необходимые для успешной адаптации и достижения успеха в современном мире.

Вызовы и перспективы: Современное образование в развитых странах сталкивается с вызовами, такими как технологические изменения и цифровизация. Это требует обновления образовательных учреждений и подготовки педагогических кадров к современным образовательным технологиям.

Инклюзивное образование и содействие равенству: Обеспечение доступности образования для всех слоев населения и учет потребностей мигрантов, лиц с ограниченными возможностями и других уязвимых групп остаются приоритетами. Необходимы условия для успешного обучения каждого ученика.

Глобальные вызовы и образование для устойчивого развития: Образование играет ключевую роль в подготовке учащихся к решению глобальных проблем, таких как изменение климата и неравенство. Необходимы образовательные программы, способствующие формированию осознанного отношения к окружающей среде и готовности к активному участию в их решении.

Заключение. Образование в развитых странах играет ключевую роль в формировании будущего общества и экономики. Современные образовательные системы сталкиваются с рядом вызовов, но также открывают перед собой перспективы для инноваций и развития. В данной статье были рассмотрены основные тенденции, вызовы и перспективы образования в развитых странах.

Одним из главных вызовов для образования является адаптация к быстро меняющимся условиям современного мира. Это требует развития гибких образовательных программ, которые обеспечивают не только получение знаний, но и развитие навыков, необходимых для успешной адаптации к изменениям.

Важным аспектом современного образования является обеспечение доступности и качества образования для всех граждан. Необходимо уделить

особое внимание инклюзивности и равенству, чтобы каждый учащийся имел возможность получить качественное образование, независимо от своего социального или экономического статуса.

Глобальные вызовы, такие как изменение климата, экологические кризисы и социальные неравенства, требуют от образования активной роли в подготовке учащихся к решению этих проблем. Образовательные программы должны способствовать формированию осознанных граждан, готовых к активному участию в изменении своего общества.

Вместе с тем, перед образовательными системами открываются перспективы для развития новых подходов к обучению, внедрения инновационных технологий и методов, а также сотрудничества с другими странами и международными организациями в области образования.

Таким образом, образование в развитых странах продолжает развиваться и совершенствоваться в соответствии с вызовами современного мира, стремясь обеспечить учащимся не только знания, но и навыки и компетенции, необходимые для успешной адаптации и профессионального роста в современном обществе.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20-апрелдаги “Олий таълим тизимида янада ривожланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сон қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини янада кенгайтириш чора-тадбирларлари тўғрисида”ги ПҚ -3151-сон қарори
3. OECD (Организация экономического сотрудничества и развития). Доклады и публикации, касающиеся образования и его сравнительного анализа в различных странах.
4. Журналы по образованию, такие как "Educational Researcher", "Journal of Educational Psychology", "Teaching and Teacher Education", "Educational Technology Research and Development", и другие, где публикуются исследования в области образования.
5. Национальные отчеты и исследования, выпущенные министерствами образования различных стран.
6. Книги и монографии по образованию, такие как работы Томаса Фридмана, Кеннета Робинсона, Джона Хатти и других авторов, изучающих тенденции и вызовы в современном образовании.
7. Академические исследования и диссертации, доступные в онлайн-библиотеках и базах данных, таких как *Google Scholar*, *JSTOR*, и др.
8. www.ziyonet.uz

MAKTAB O'QUVCHILARIDA WORDWALL DASTURIY O'YIN METODIDAN FOYDALANISH ASOSIDA GEOGRAFIK BILIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada Geografiya darslarida Wordwall dasturiy o'yin metodidan foydalanish asosida geografik bilimlarni takomillashtirish masalalari muhokama qilingan. Tadqiqotlar jarayonida Wordwall platformasidan foydalanish usullari qadamma-qadam ko'rsatib berishga harakat qilingan. Ushbu platformaning inkoniyatlari o'quvchilarning geografik bilimlarni o'zlashtirishdagi metodik yordami, hamda kompyuter dasturlaridan foydalanish imkoniyati yaratilishi to'g'risidagi adabiyotlarni tahlil qilish asosida yotilgan va xulosalangan

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования географических знаний на основе использования метода компьютерной игры «Wordwall» на уроках географии. В ходе исследования была предпринята попытка поэтапно показать, как пользоваться платформой Kahoot. Возможности данной платформы изложены и обобщены на основе анализа литературы по методической поддержке студентов в приобретении географических знаний, а также созданию возможности использования компьютерных программ.

Annotation: This article discusses the issues of improving geographical knowledge based on the use of the Wordwall software game method in geography classes. In the course of the research, an attempt was made to show how to use the Kahoot platform step-by-step. The capabilities of this platform are highlighted and summarized based on the analysis of the literature on the methodical support of students in acquiring geographical knowledge, as well as the creation of the opportunity to use computer programs.

Keywords: Wordwall platform, continents and oceans, countries of the world, quiz, online tests, create kahoot, "Library" menu

Ключевые слова: платформа Wordwall, континенты и океаны, страны мира, викторина, онлайн-тесты, создать kahoot, меню «Библиотека».

Kalit so'zlar: Wordwall platformasi, materiklar va okeanlar, dunyo davlatlari, viktorina, onlayn testlar, create kahoot, "Library" menyusi

Kirish. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish orqali dars o'tish hozirgi davrning dolzarb masalasidir. (Blits-demande, Cluster, La tacsomanie de BLUMM, La technologie "Comment?", La technologie "Pourquoi?", Le diagramme "VENN", La technologie "Pinbort", Le schéma "T", Sinkveyn, L'analyse SWOT, Tests (de correspondances, avec les réponses, sens réponses, suivis), La technologie «Six chapeaux» d'Edvard de Bono, FSMU singari pedagogik taxnologiyalar va interfaol metodlar hamda "Framapad", "Jamboard", "Quizlet", "Coggle", "Padlet", "Learningapps", "Kahoot", "Wordwall", "Test en ligne" kabi elektron dasturlari asosida darsjarayonlarini tashkil etish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini


yanada oshiradi. Mazkur elektron dasturlar hamda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish xorijiy tillarni mukammal o'rganish va o'rgatishda muhim vosita sifatida qo'llanilishi har –bir pedagogning muhim vazifasi bo'lmog'i darkor. Shu dasturiy texnologiyalardan “Wordwall” dasturiga alohida yondashib geografiya faniga tatbiq qilindi. Bu dastur 2006 yil London(Buyuk Britaniyadagi o'rta maktabda o'qituvchilar tomonidan 1-chi soda ko'rinishdagi versiyasi yaratilgan. Hozirda dunyoning 12 ta davlatlarida bu dasturdan foydalanishadi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda [Wordwall \(inglizcha\)](#)” So'z devoir-bu sinfdagi devor, e'lonlar taxtasi yoki boshqa ekran yuzasida katta ko'rinadigan harflar bilan aks ettirilgan so'zlarning tashkil to'plamidan tashkil topgan savodxonlik vositasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu borada biz geografiya dars jarayonlarida foydalangan “Wordwall” platformasi va undan foydalanish usullari sifatli ta'lim olishga yordam beradi. Kahoot! ta'lim sohasidagi mutaxassislariga ruxsat beruvchi bepul vositadir qiziqarli va qiziqarli tarzda dars bera olish, uni juda boyitilgan interaktiv tajribaga aylantiradi. Bunday dastur kompyuterlarda yoki mobil qurilmalarda ishlatilishi mumkin. Ushbu vositaning eng yaxshi tomoni shundaki, u o'qitishni o'yin - kulgi bilan mukammal birlashtiradi, bu muhim narsa, chunki o'quvchilar zavqli tarzda va zerikmasdan o'rganishadi.

Maktab o'quvchilarida Geografiya kurslarini o'qitishda ushbu dasturlardan foydalanish, dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini o'qitishda, Dunyo davlatlari geografiyasini o'rganishda qo'l keladi. O'quvchilarning mustaqil kompyuter dasturlari bilan ishlash imkoniyati yaratiladi.

Ta'lim jarayoniga o'yin usullarini joriy etish amaliy malakalarni, fikrlash va mantiqni rivojlantiradi, shuningdek, materialni o'rganish samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, o'yin elementlari o'quvchilarning ta'lim jarayoniga jalb qilish darajasini oshiradi. Internet resurslari va o'quvchilar smartfonlari yordamida samarali interaktiv ta'lim muhitini tashkil etish mumkin. Shunday manbalardan biri Wordwall hisoblanadi. Wordwall bilan ishlash uchun siz Internetga ulangan shaxsiy kompyuter, noutbuk, planshet yoki smartfondan foydalanishingiz mumkin.


Wordwall bilan ishlash uchun usullari:



1 - rasm. Wordwall dasturini hosil qilish oynasi.


2 - rasm. Yangi Wordwall hosil qilish oynasi.

Shundan so'ng, google platformasiga kiriladi.




4 - rasm. Quyidagi bandi tanlanadi.


5 - rasm. "Create Wordwall Create" bandi tanlanadi. "Start typing your question" bandiga savol kiritiladi.




“Add answer1, 2, 3, 4” bandiga javoblar kiritiladi hamda to’g’ri javob to’g’risiga



to’g’ri belgisi qo’yiladi. Keyingi savolga o’tish uchun “Add question” bandi tanlanadi.





7 - rasm. “Test knowledge”.

“Test knowledge” ro’yxatidan o’zimizga ma’qul bo’lgan test turini tanlaymiz. Oxirida “Save” tugmasi tanlanadi va xotiraga saqlanadi. Tuzgan testlarimiz “Library” minyusida saqlanadi.


Bundan tashqari mazkur platforma jamoaviy ta’lim vositasi bo’lib, uni samarali ishlatish uchun ishtirokchilar jamoasi kerak. Viktorina yaratish bir necha daqiqa davom etadi va jarayonning o’zi juda oddiy va hech qanday qiyinchilik tug’dirmaydi. Viktorina tayyor bo’lishi bilan o’qituvchi o’yinni joylashtiradi va uni talabalarga taqdim etadi. Bunda ishtirokchilar bitta ekran oldiga yig’ilishadi va o’yin kodidan foydalanib o’z qurilmalaridan o’yinga kirishadi. Wordwall interaktiv va bosma materiallarni yaratish uchun ko’p funktsiyali vositadir. Aksariyat shablonlar ham onlayn, ham chop etadigan versiyalarda mavjud. Ko’pgina o’quvchilar xizmatning rus tilidagi versiyasiga ega ekanligidan mamnun bo’lishadi. U brauzeringizda avtomatik ravishda paydo bo’ladi. Interaktiv mashqlarni internetga ulangan har qanday qurilmada : kompyuter, planshet, telefon yoki interativ doskada o’ynash mumkin. Chop etish mumkin bo’lgan versiyalar chop etilishi va mustaqil o’quv faoliyati sifatida ishlatilishi mumkin.

Wordwall platformasini geografiya darslarida qanday qo’llash mumkin .Bu platforma orqali dars uchun 1 ta mavzudan qiziqarli 18-ta activity tayyorlash mumkin.




Match up- Moslashtirish har bir so'zni mosini topish (Geografiya darslarida mavzu yuzasidan darsni mustahkamlash qismida "so'z o'yini" hosil qilish mumkin).


Drag and drop each keyword next to its definition.



Quiz –Test ko'p variantli testdan to'g'risini topish. (Geografiya darslarida mavzular asosida ko'p variantli testlar tuzilib,to'g'ri variant topiladi).A series of multiple choice questions. Tap the correct answer to proceed.




Group sort- Guruhlarga ajratish (Dengizlar,daryolar,ko'llar misolida bo'lishi mumkin). Drag and drop each item into its correct group.



Labelled diagram- ko'rsatilgan geografik joyning nomini topish (Xarita bilan ishlashda qo'l keladi)


Drag and drop the pins to their correct place on the image.




1. **Wordsearch-** yashiringan so'z va atamalarni topish. Words are hidden in a letter grid. Find them as fast as you can.




Flip tiles- nuqtalar o'rnida yashirin so'zni topish. Explore a series of two sided tiles by tapping to zoom and swiping to flip.



Hangman- atama va soʻzlarda tushirilgan harfni topish Try to complete the word by picking the correct letters.



Crossword- Krassword. Use the clues to solve the crossword. Tap on a word and type in the answer.



Gameshow quiz-Toʻgʻri javobni tanlash (Rasm va xaritadan ham foydalanish mumkin). A multiple choice quiz with time pressure, lifelines and a bonus round. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Wordwall - onlayn testlar va soʻrovlar yaratish imkonini beradi. Bundan tashqari matnga qoʻshimcha ravishda Wordwall rasmlar, grafiklar, jadvallar, shuningdek, audio va video kontentni yuklash imkoni mavjuddir. Oʻquvchilar savollarga Internetga ulangan istalgan qurilmadan javob berishlari mumkin. Ushbu resursning ajoyib afzalligi natijalarni saqlash qobiliyatidir, shunda kelajakda

o'qituvchi kelgusi o'quv yili uchun o'quv materialining mazmunini tahlil qilishi va qayta ko'rib chiqishi mumkin. Shuningdek, talabalar uchun qaysi mavzularni o'rganishda qiyinchilik tug'dirishini aniqlash mumkin. O'rganilayotgan material yuzasidan bilimlarni sinab ko'rish uchun turli interaktiv testlar va so'rovlardan foydalanib, o'quv jarayonini hayajonli va dinamik ko'rinishda amalga oshirish imkoni beruvchi ma'lumotlar aks ettirishi bayon qilinadi [2].

Shuningdek, savollarga javoblarning to'g'riligi va reaksiya tezligi ballarga aylantiriladi va muntazam ko'rsatib boriladi. Har bir savoldan keyin ekranda eng ko'p ball to'plaganlarning ismlari ko'rinib turadi. O'qituvchi istalgan vaqtda pauza qilishi va agar talabalar javob berishga qiynalsa savolga izoh berishi mumkin bo'lishi o'rganilgan bo'lib o'quvchilarning testlar bilan ishlash jarayoni ham o'rganilib chiqilganini ko'rishimiz mumkin [3].

D.V Lichargin., A.S Kuznetsov., R.Yu Sarevlarning fikricha, Kahoot xizmati bilan ishlashga tayyorgarlik va tashkil etish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

- mavzuni aniqlash, test uchun mos savollarni o'ylab ko'rish va yozish;
- testga qo'shiladigan rasmlarni tanlash;
- test yaratish;
- maxsus kod yordamida talabalarni testga ulash.

Wordwall oraliq bilimlarni sinab ko'rish va materialni mustahkamlash bilan birga yangi mavzuni kiritish va bu bo'yicha muhokamalarni amalga oshirish uchun qulay vositaligi ta'kidlab o'tiladi [4].

Ushbu platforma istalgan mavzuda va istalgan tilda topshiriqlaringizni tuzish imkonini beradi, yoki ilovaning boshqa foydalanuvchilari tomonidan ilgari yaratilgan millionlab vazifalarni o'z ichiga olgan kutubxonada tayyor tematik test yoki so'rovni tanlashingiz mumkin.

O'qitishda qator afzalliklarga ega bo'lgan yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o'quv jarayonini yangicha tashkil etish imkonini beradi, uning amaliy yo'nalishini oshiradi va o'quvchilarning intellektual salohiyatni rivojlantiradi [5].

Wordwall dasturidan darslar jarayonida foydalanish uchun auditoriyada Internet tarmog'i mavjud bo'lishi va undan samarali foydalanish uchun tegishli texnika vositalari (kompyuterlar, tarmoqqa ulangan telefon, proyektor) mavjud bo'lishi kerakligi haqida bayon etilgan. Wordwall dasturidan darslarda foydalanish imkoniyatlarni xususida bir qator fikrlar ilgari surilgan. Wordwall platformasidan nafaqat dars jarayonlarida yakuniy nazorat oraliq nazoratlarda ham keng foydalanish mumkinligi to'g'risida ilmiy xulosalar keltirilgan. Ushbu dastur platformasini barcha fanlarga tadbiiq qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Царев Р.Ю. Применение Kahoot! при геймификации в образовании // International Journal of Advanced Studies. – 2017. - № 1 – С. 9 – 17.
2. Лазутова Н.М., Волкова И.И. Этическое и игровое в установках коммуникаторов разных поколений // European Social Science Journal (Европейский журнал социальных наук). 2013. № 11. – С. 285–291.

3. Козина Е.С. Геймификация профессиональной деятельности как эффективный инструмент мотивации персонала современной организации // Современные проблемы науки и образования. 2015.
4. Личаргин Д.В., Кузнецов А.С., Царев Р.Ю. Активные методы обучения в рамках инициативы CDIO по направлению «Программная инженерия» // Современные проблемы науки и образования. 2014. № 3.

MILLIY AN'ANALARNING MAZMUN MOHIYATI VA ULARNING JISMONIY TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI

*Z.H.Jo`rayeva,
BuxDU, 1-kurs magistranti
z.h.jurayeva@buxdu.uz*

Annotatsiya. Ushbu maqolada dastlab tuli millat va elatlarda o'yin sifatida vujudga kelgan hamda xalq bayram-sayllarida o'ynalgan jismoniy o'yinlar yillar o'tib avloddan-avlodga o'tib milliy an'ana va urf-odat sifatida shakllangan jismoniy mashqlarning vujudga kelish tarixi nazariy jihatdan o'rganildi.

Kalit so'zlar: milliy urf-odat, musobaqalar, jismoniy qobiliyat va sifatlar.

Abstract: In this article, physical clothing was created as a game in nations and peoples, and the physical games played on public holidays were passed down from generation to generation as a national tradition and custom. the theoretical basis was studied.

Key words: national tradition, competitions, physical ability and qualities.

Dunyodagi barcha xalqlar va elatlarning o'z milliy urf-odat va an'analari borki, ular biri-ikkinchisidan o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. E'tiborlisi shundaki, jismoniy tarbiya va sport sohasiga doir bir qator hodisalar ana shunday milliy an'analar sifatida ibtidoiy davrlardanoq kirib kelgan. Turli xil jismoniy mashqlar, xususan, kurash, otda poyga, nayza uloqtirish, qilichbozlik kabilarning o'yinlar tarzida vujudga kelishi jamiyatchilikning ilk davridan mavjud bo'lib, ular asta-sekin an'ana sifatida avloddan - avlodga o'tib kelgan. Jamiyat shakllanishining bu davrlarida jundan qilingan to'p, shar, nayzabozlik tayoqlari, uchi to'mtoq nayzalar, o'yinchoq, palaxmon, shoxmon, o'yinchoq yoy, boshi egri hassa, to'qmoq kabi uskunalar jismoniy mashqlar uchun yaratilgan. Yoshlarni gurzi (to'qmoq), nayza, so'yil irg'itishga, yoydan o'q otishga o'rgatish ibtidoiy jismoniy mashqlar sirasiga kirgan va bu otadan o'gilga o'tuvchi an'ana sifatida shakllana boshlagan va hayotning asosiy tarkibiy qismini tashkil etgan. Jahon xalqlari tarixi bilan tanishar ekanmiz sport mashg'ulotlari uchun ixtiro qilingan va keyinchalik milliy an'ana va urf-odatga aylangan sport vositalariga guvoh bo'lamiz.

Masalan, hindular qabilasida kauchuklardan koptoklar, maxsus chana yasaganliklari haqida ma'lumotlar bor. Ulardan xo'jalik yumushlari bilan bir qatorda turli musobaqalarda ham foydalanganlar. Kolumb davrida yevropaliklar hindularing koptoklari ispanlarning koptoklaridan yaxshi ekanligini tan olishgan.

Sharqiy Afrikadagi ibtidoiy qabilalarda langarcho'p bilan sakrash va yugurib kelib balandlikka sakrash musobaqalari o'tkazilgan bo'lib, keyinchalik ularni turli bayramlarda namoyish etish an'anaga aylangan.

- Shimoliy Amerikada yevropaliklarning istilosiga qadar katta rezina koptok, chavgon va raketkalaridan foydalanib o'ynaladigan xokkey tipidagi yozgi va qishki o'yinlar rasm bo'lganligi aniq manbalarda o'z ifodasini topgan. Keyinchalik bu o'yin Janubiy Amerikaga ham kirib bordi va xalq bayramlarida o'tkazilishi urf bo'lgan sport mashg'ulotiga aylandi.

- Janubiy Amerikada xokkeydan tashqari suvda suzish, kanoe va baydarka xilidagi yengil uzunchoq qayiqlarda eshkak eshish ham keng qo'llanilgan.

- Sharqiy Braziliya xalqlari orasida nafaqat yigitlar balki, qizlardan epchillik, chaqqonlik chidamlilik, jasurlik va qat'iyatlilik kabi qobiliyatlar hamda sifatlarga ega bo'lish talab etilgan.

- Baroro va konella qabilalarida yigitlar ma'lum sinovlardan o'tmagunlaricha uylanishga ruxsat berilmagan.

- Ibtidoiy jamoaning yemirilishi va quldorlik tuzumining shakllanishi qadimiy german, hindu qabilalarida o'ziga xos jismoniy mashqlar va o'yinlarning rivojlanishiga olib kelgan. Masalan, mayya qabilasida kauchukdan yasalgan koptok bilan jamoa bo'lib basketbolga juda o'xshab ketadigan o'yin o'ynash an'anaga aylangan. Ya'ni uning shakli va mazmuni hozir mashhur bo'igan sport o'yiniga asos solgan bo'lishi mumkin.

- Qadimgi Peru mamlakatida jismoniy mashqlar yoshlardan iborat harbiy qismlarni tayyorlashda eng muhim vosita sifatida xizmat qilgan.

- Manbalarning ta'kidlashicha, jismoniy mashqlarning ilk namunalari, O'rta yer dengizi atrofida, eradan avvalgi IV asrlarda vujudga kelgan Mesopotamiyada ko'proq uchraydi. Jismoniy mashqlarning mazmuni va shakllari harbiy faoliyatlarda o'z ifodasini topgan. Bunda, asosan, merganlik, bel ushlab kurashish, mushtlashish, g'ildirakli aravalarda poyga qilish va merganlik san'ati kabi faoliyatlar muhim o'rinni egallaydi.

- Tarixchilarning e'tirof etishicha, greklar Olimpiya bayramlarini o'z xudosi Zevsga bag'ishlab o'tkazgan bo'lsalar, parfiyonlar, skitlar, eroniylar, rimliklar, arablar o'z o'yin va an'alarini mesopotamiyaliklardan o'rganganlar.

- Qadimgi Misrda harbiy aslzodalarni harbiy-jismoniy jihatdan maxsus tayyorlash uchun kurash, qilchbozlik, kamondan o'q otish, nayza uloqtirish kabi mashqlardan foydalanishgan. Buni eramizdan avvalgi XVIII-XII asrlarda Beni-Gassan degan joydagi fir'avnlarning qabristonidan topilgan yodgorliklarda tasvirlangan 400dan ortiq jismoniy mashqlar va o'yinlarni asoslab beradi. Misr davlatida dinlarning ko'pligi tufayli ularning xudolariga hamda urf-odatlariga bag'ishlangan

ko'pgina bayramlar, an'anaviy xalq musobaqalari o'yinlar va raqslar bilan birga qo'shib olib borilgan.

- Qadimgi Yunonistonda jismoniy tarbiya, ayniqsa, bolalarning jismonan baquvvat qilib tarbiyalash, harbiy-mudofaa ishlarida ishtirok etuvchilarning jangovorlik holatlarini takomillashtirishda Yevropa qit'asida mavjud bo'lgan davlatlarning ish tajribasi katta o'rin tutadi. Bunga qadimgi yunonlarning jismoniy tarbiya tizimi tarixiy jihatdan e'tiborga molikdir. Chunki bu tizim davrlar o'tishi bilan jahonda o'z mazmuni va mohiyatiga ega bo'ldi. Yunoniston tarixining Gomer davri deb eradan avvalgi XII-IX asrlar tilga olinadi. Gomerning «Iliada» va «Odyssey» asarlarida qadimgi davrdagi yunon hayotining yorqin manzaralari aks ettiriladi. Qahramonlar sifatida zodagon jangchilar 10 timsoli chizilib, ularni oddiy xalqdan ajratuvchi jismoniy sifatlari va fazilatlarini talqin etiladi. Gomer asarlarining qahramonlari qabila hayotidagi biror muhim voqea sharafiga bag'ishlab tashkil etiladigan musobaqalar va o'yinlarda o'zlarining jismoniy fazilatlarini namoyish etganlar. Bunda yugurish, nayza va lappak uloqtirish, sakrash, kurash, mushtlashish kabi mashqlar orqali musobaqalashganlar. Bo'lajak jangchilar tayyorlash maqsadida mamlakatning yirik shaharlarida maxsus tarbiya tizimi vujudga keladi. Ular tarixda Sparta va Afina tizimi nomi bilan o'rganildi.

- Rim podsholari davrida turli xil marosimlar suvoriylar, labirintlarda musobaqa o'tkazishgan, ular «troyan o'yinlari» deb tarixda tilga olinadi. Bu o'yinlar asosan rimlik zodagonlar uchun ahamiyatli bo'lgan. Qo'sh g'ildirakli aravada poyga, turh xil harbiy raqslar, nayza uloqtirish, kurash va boshqa mashqlar ham keng tarqalgan. Rimlik yigitlar harbiy xizmatga birmuncha ilgari - oilada, o'z tengdoshlari orasida tayyorlangan. Jismoniy mashqlar va o'yinlar bunda asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. Yigitlar 16-17 yil harbiy xizmatda bo'lishgan. Bu davrda uzoq yurishlar va harbiy- jismoniy tayyorgarlik ishlarini bajarganlar. Bu tartib eradan avvalgi II asrgacha davom etib, Mariya islohoti bilan professional harbiylikka asoslangan davrgacha saqlanib qolgan. Jismoniy mashqlar, o'yinlar, turli musobaqalar qadimgi rimliklarning hayotiga singib ketgan. To'p bilan o'ynaladigan har xil o'yinlar ommalashgan.

- Eramizdan avvalgi VI va III asrlarda sirk tomoshalari rivojlanib, maxsus inshootlar paydo bo'lgan. Aslzodalar uchun eng qulay va ommaviy sirk o'yinlari asosiy jismoniy tarbiya vositasi va tizimini tashkil etgan. Chunki sirkda turli xil atraksionlar, kulgili hajviy va murakkab jismoniy mashqlar namoyish etilgan.

- Eramizdan avvalgi VI asrdan boshlab har 10 yilda bir marotaba o'tkaziladigan yirik musobaqalar an'anaga aylangan. Uning dasturidagi qo'sh g'ildirakli aravada poyga eng qiziqarli o'yin bo'lgan. Bunda kurash, yugurish, mushtlashish kabi turlar ham o'rin egallagan. Qadimgi Yunoniston va Rimning o'zaro aloqalari tufayli Rimga jismoniy tarbiya vositalari ham kirib kelgan. Rimda shu kabi jismoniy o'yinlar turli bayramlarda takrorlangan. Rimliklar yangi-yangi o'yinlarni o'ylab topishga usta bo'lishgan. Masalan, eramizdan avvalgi II asrda vujudga kelgan yangi o'yinlardan diqqatga sazovori gladiatorlar jangi bo'lib, keyinchalik u Rim tomoshalarining asosiy qismiga aylandi. Bunda avvallari sirk o'yinlarida qilichbozlik san'atini yaxshi egallagan qullardan foydalanganlar Ularga asosan

qilichbozlik san'ati o'rgatilgan va sirkalarda namoyish etilgan. Keyinchalik qulikka barham berish kerakligi haqida fikrlar ilgari surildi. Qadimgi Rimda jismoniy mashqlarning jismoniy rivojlanish va jamiyat uchun afzalliklari haqida shoirlar o'z she'rlarida ilgari surishdi. Ulardan biri Yuvenal ilk bor «Sog'tanda sog'aql» shiorini ilgari surdi va u jahon xalqlarining shioriga aylandi.

- Xalq ixtiro qilgan dastlabki jismoniy o'yinlarning keyinchalik urf-odatga aylanishi nafaqat jahon xalqlari, balki bizning Vatanimiz O'zbekistonda ham mavjud bo'lgan.

Ajdodlarimizning turli marosimlar, an'analar, bayram-sayllarni o'tkazishda kurash, ot o'yinlari, dorboz, harakatli o'yinlardan keng foydalanganlar. Ular haqida "O'zbekiston xalqlari tarixi", "O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixi" kabi darsliklarda bayon qilingan. Ushbu manbalar bilan tanishar ekanmiz, ajdodlarimizning ijtimoiy-madaniy turmush sharoitida jismoniy tarbiya vositalari, jumladan, otda yurish, kurash, nayza uloqtirish kabi turli o'yinlar qo'llanilganini guvohi bo'lamiz. Bular haqida Avesto, Alpomish, Go'ro'g'li, Qirg'iz, Manas, kabi tarixiy manbalar hamda xalq og'zaki ijodi guvohlik beradi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatchilikning ilk davrlaridayoq vujudga kelgan jismoniy mashqlar dastlab ko'ngilochdi o'yin sifatida mavjud bo'lib, keyinchalik turli baramlarda doimiy o'ynalgan hamda ular otadan-o'g'ilga, avlodan-avlodga o'tib urf-odat va milliy an'anaga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. М.Аслонова.Таълим жараёнида ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш. Номзодлик диссертацияси. Навоий 2008. 158 б
1. 2.. Махкамджанов К.М. Содикова Е.К. “Ҳаракат - гўзаллик ва саломатлик гарови”. Т.2002й.
2. Ashirboyev, I. M. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda sog'lom turmush tarzini yaratishda xalq o'yinlari foydalanish yo'llari. Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlarini joriy etishning istiqbollari, 15, 276-278.
3. Ashirboyev, I. M. (2022). Bolalarni jismoniy rivojlantirishning pedagogik tizimi. Mu'allim xam uzliksiz bilimlendiriy, 1(2), 154-157.
4. Ashirboyev, I. M. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarning madaniy va gigiena ko'nikmalarini tarbiyalash. Uzakademia, 4(1).
5. Ashirboyev, I. M. (2022). Bolalarni xalq o'yinlari vositasida jismoniy chiniqtirish. Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish istiqbollari: Muammo va yechimlar, 2, 46-48.
6. Ashirboyev, I. M. (2022). Bolalarda jismoniy rivojlantirish yo'llari. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning sifat va samaradorligini oshirish masalalari, 99-100.
7. 8.САТТОРОВ А. Э., ИБРАГИМОВ А. К. СПОРЧИЛАРДА ҲИССИЙ-ИРОДАВИЙ СИФАТЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ //ПСИХОЛОГИЯ Учредители: Бухарский государственный университет. – №. С2. – С. 112-118.

8. Сатторов А.Е., Ибрагимов М. Методы и средства формирования специальных умений в процессе проведения индивидуальных занятий тренеров по боксу //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 1302-1307 гг.

9. Сатторов А.Е., Рустамов А. Пути укрепления здоровья студентов путем организации трехэтапных спортивных соревнований в Узбекистане //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 1121-112

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISHDA AXBOROT-TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

M.H.Ozodova,

BuxDU, 2-bosqich tayanch doktranti

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish, unda axborot-texnologiyalarning o'rni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilishning ta'lim sifatiga haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchi, axborot-texnologiyalar, multimedia, nutq o'stirish,

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o'qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta'minlash, ular faoliyatiga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o'quvchilarning dastlabki egallaydigan bilimlarning poydevori mustahkam bo'lishi, barcha fanlarni o'zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Nutq so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchi va kitobxonga to'liq yetib borishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutq oldiga ma'lum talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to'g'ri, aniq, chiroyli, erkin, maqsadga muvofiq bo'lishidir. Bu belgilar nutqning asosiy sifatлари, xususiyatlari deb qaraladi.

Dars mavzusiga oid multimedia, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda turli fanlarni axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan asosli foydalanib dars o'tish o'quvchilarni ta'lim jarayonida ijobiy motivatsiyalar berish, darsda bajariladigan ish hajmi ham 1.5 – 2 baravarga oshirish, bilimni nazorat qilish o'quvchilarning faoliyatida izlanish, ijod qilish samaradorligini oshiradi. O'quv jarayonlarida o'quvchining berilgan vazifasini anglab olish motivini kuchaytiradi. Sinfdagi o'quvchilarning darsga faol qatnashishi ta'minlanadi. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy axborot kommunikatsiyalarining keng joriy etilishi

fan sohasida axborotlashtirishni, o'quv faoliyatini intellektuallashtirishni, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni ta'lim tizimini infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi. Darsni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilish bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Boshlang'ich sinfda axborot texnologiyalari asosida o'quv jarayonlarini tashkil etish o'quvchilarning kognitiv psixologiya sohasini faollashtirishga, ta'lim materiallarini muvaffaqiyatli o'rganish va aqliy rivojlanishiga xissa qo'shishi kerakligini yodda tutush kerak. Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb atash mumkin. Bola axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ma'lum bir o'quv fuksiyasini bajarishi eslab qolishiga yordam berishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish, badiiy faoliyat bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali yo'nalishi hisoblanadi. O'qish va ona tili, matematika va tabiatshunoslik kabi fanlar ham o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun juda ko'p imkoniyatlarga ega. Sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanish esa o'quvchi yoshlarni sog'lom shaxs bo'lib yetishishlariga imkon beradi. Badiiy o'qish darslarida o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga bog'liq ravishda, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Sinfdan tashqari darslarda o'quvchilar orasida axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ibratli multafilmlarni targ'ib qilish yoki bolalar o'rtasida turli musoboqalarni zamonaviy texnologiyalar bilan o'tkazish ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga katta xissa qo'shadi deb o'ylayman.

Axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha o'quv fanlarida samarali foydalanish mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali mashq, nazorat mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika, orfografik mavzular bo'yicha boy va turlituman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ona tili darslarida insho yozishda taqdimotlardan foydalanish qulay. U orqali mavzuning savol va rejalarini tuzish, qiyin so'zlarni topish osonlashadi. Insho rasm asosida yozilayotgan bo'lsa, mavzuga doir rasmni ekranda namoyish etish imkonini beradi. Ona tili bo'yicha o'rganiladigan so'z leksik mazmunini talqin qilishda va birliklarni turlarga ajratishda o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'diradi. Bular: antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali o'quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi, so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosini topishga, sinonimlarni to'g'ri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni farq qilishga

o'rgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bag'ishlangan «Teskari o'yin» testidan foydalanish o'quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta'sir etadi. Asosiysi: test topshiriqlarini bajarishda o'quvchining ko'zi, miyasi va qo'llari ishtirok etadi, o'yin elementlari esa ularda bajarayotgan ishlariga qiziqishni oshiradi. Testlardan tashqari krossvordlar, sxemalar, jadvallardan foydalaniladi, o'quvchilar dars materiallarni mustaqil o'rganishda bevosita kompyuterda ishlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalanilsa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, mustaqil fikri rivojlana boradi va o'z nuqtini bevosita bayon eta oladi. O'qituvchi esa darsda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga oson erishadi. Faqatgina o'quv jarayonida axborot texnologiyalari darsning asosiy tayanchi emas, balki bolaga yangi ma'lumotlarni, tushunchalarni osonlik bilan yetkazib berish hamda esda saqlashiga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. O'qituvchi esa darsning asosiy boshqaruvchisidir. Shunday ekan, axborot-texnologiyalardan samarali va unumli foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi «Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi № PQ-3931-sonli Qarori.
3. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.
4. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2004.
5. Hamzayevna, O. M. (2024, March). SPEECH DEVELOPMENT OF STUDENTS IN MOTHER LANGUAGE CLASSES OF PRIMARY CLASS. In *Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference* (Vol. 6, pp. 10-12).

РОЛЬ КРИТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ УМСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

И.С.Темирова,

Бухоро давлат педагогика институти таянч докторанти

Аннотация. Статья обсуждает важность критического мышления для подготовки будущих учителей. Различные методы совершенствования критического мышления, такие как интерактивные методы обучения, проблемно-ориентированное обучение и обучение аргументации, рассматриваются в контексте их роли в профессиональном росте педагогов и повышении качества образования. В заключении подчеркивается важность

развития критического мышления для формирования учащихся как аналитически мыслящих личностей.

Ключевые слова. Критическое мышление, образовательные методики, профессиональное развитие, аналитические навыки, учительское образование

THE ROLE OF A CRITICAL APPROACH IN IMPROVING THE MENTAL THINKING OF FUTURE TEACHERS

Abstract. The article discusses the importance of critical thinking in preparing future teachers. Various methods for improving critical thinking, such as interactive teaching methods, problem-based learning and argumentation training, are considered in the context of their role in the professional development of teachers and improving the quality of education. The conclusion emphasizes the importance of developing critical thinking in developing students as analytical thinkers.

Keywords. Critical thinking, educational methods, professional development, analytical skills, teacher education

Введение. Современное образование сталкивается с вызовами, требующими не только передачи фактических знаний, но и развития критического мышления у учеников. В контексте постоянно меняющегося мира, где информация легко доступна, ключевым навыком для успешной адаптации становится умение анализировать, оценивать и применять полученные знания в различных контекстах. В этом контексте, роль критического подхода в формировании умственного мышления учителей приобретает особое значение.

Сегодняшние учителя выступают в роли не только информаторов, но и проводников критического мышления. Их задача не только объяснить материал, но и обучить учеников критически мыслить, анализировать и вырабатывать собственные точки зрения. В этом контексте, развитие критического мышления становится неотъемлемой частью профессиональной подготовки будущих педагогов.

В данной статье будет рассмотрена важность критического подхода в подготовке будущих учителей, а также представлены методы его совершенствования. Развитие у будущих педагогов критического мышления не только способствует повышению качества образования, но и формирует основы для развития самостоятельных и компетентных граждан, способных успешно адаптироваться в современном информационном обществе.

Значение критического подхода в образовании. Критический подход играет ключевую роль в развитии образования, поскольку он способствует формированию у учащихся навыков анализа, оценки и принятия обоснованных решений. В современном информационном обществе, где объем доступной информации постоянно увеличивается, критическое мышление становится необходимым инструментом для успешной адаптации и выживания.

Одним из основных аспектов критического подхода является способность к анализу информации. Умение критически оценивать источники, проверять достоверность информации и различать факты от мнений является важным навыком не только для академического успеха, но и для принятия обоснованных решений в повседневной жизни.

Кроме того, критический подход способствует развитию навыков самостоятельного мышления и анализа. Учителя, обладающие критическим мышлением, способны стимулировать у учеников любопытство, исследовательский подход и самообразование. Они создают условия для формирования учениками собственных мнений и точек зрения, что способствует развитию их интеллектуальной самостоятельности и креативности.

Критический подход также играет важную роль в развитии навыков аргументации и логического мышления. Умение аргументировать свои точки зрения, анализировать альтернативные точки зрения и приходиться к обоснованным выводам является важным навыком как для учащихся, так и для учителей. Эти навыки не только способствуют успешному обучению и преподаванию, но и помогают в повседневных ситуациях, где требуется принятие решений на основе логического анализа.

Таким образом, критический подход в образовании не только помогает учащимся развивать критическое мышление и аналитические способности, но и способствует формированию самостоятельных и компетентных граждан, способных адаптироваться к изменяющимся условиям и успешно функционировать в современном мире.

Методы совершенствования критического мышления у будущих учителей. Интерактивные образовательные методики: Включение студентов в активные формы обучения, такие как обсуждение, дебаты, ролевые игры и групповые проекты, способствует развитию их критического мышления. В процессе обсуждения различных точек зрения и аргументации своих позиций студенты учатся анализировать информацию и принимать обоснованные решения.

Проблемно-ориентированное обучение: Задачи, основанные на реальных ситуациях и проблемах, требуют от студентов критического анализа и поиска решений. В процессе решения проблемных задач будущие учителя учатся выявлять важные аспекты проблемы, оценивать доступные варианты действий и принимать обоснованные решения.

Рефлексия и самоанализ: Систематическая рефлексия над своими мыслительными процессами и принятыми решениями помогает студентам осознавать свои сильные и слабые стороны в критическом мышлении. Проведение рефлексивных анализов позволяет им осознавать свои ошибки и недочеты, а также разрабатывать стратегии для их преодоления.

Использование мультимедийных ресурсов и кейс-стади: Анализ кейсов и работы с мультимедийными материалами помогает студентам развивать навыки критического мышления. Изучение реальных ситуаций и анализ

различных аспектов проблемы способствует формированию у них умения видеть различные точки зрения и принимать взвешенные решения.

Обучение аргументации и логическому мышлению: Специальные курсы по развитию аргументации и логическому мышлению помогают студентам стать более убедительными в своих рассуждениях и анализе. Они учатся строить аргументированные цепочки логических рассуждений и выработать убедительные аргументы в поддержку своих позиций.

Исследовательские проекты и практики: Участие в исследовательских проектах и практиках помогает студентам применять свои знания и навыки критического мышления на практике. Работа над исследовательскими проектами требует от них анализировать литературу, проводить исследования и делать выводы на основе полученных данных.

Эти методы совершенствования критического мышления у будущих учителей способствуют их профессиональному росту и развитию как компетентных и эффективных педагогов. Развитие критического мышления у учителей не только повышает качество образования, но и способствует формированию у учеников навыков анализа, оценки и принятия обоснованных решений.

Заключение. Критический подход играет важнейшую роль в формировании профессиональной компетентности будущих учителей. Развитие критического мышления у педагогов необходимо для успешного выполнения их профессиональных обязанностей, так как они должны не только обладать знаниями в своей области, но и уметь анализировать, оценивать и принимать обоснованные решения в различных образовательных ситуациях.

Методы совершенствования критического мышления, описанные в данной статье, предоставляют будущим учителям возможность развивать этот важный навык на протяжении всего процесса обучения. Интерактивные учебные методик, проблемно-ориентированное обучение, рефлексия, анализ кейсов, обучение аргументации и логическому мышлению, а также участие в исследовательских проектах – все эти методы помогают студентам приобрести навыки критического мышления и применять их на практике.

Развитие критического мышления у будущих учителей не только способствует повышению качества образования, но и формирует основы для развития учащихся как самостоятельных, аналитических и критически мыслящих личностей. Этот процесс является важным шагом в создании образовательной среды, способствующей развитию критического мышления и интеллектуальной самостоятельности как у учителей, так и у учеников.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20-апрелдаги “Олий таълим тизимида янада ривожланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сон қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини янада кенгайтириш чора-тадбирларлари тўғрисида”ги ПҚ -3151-сон қарори
3. Brookfield, S. D. (2012). Teaching for critical thinking: Tools and techniques to help students question their assumptions. Jossey-Bass.
4. Paul, R., & Elder, L. (2006). Critical thinking: The nature of critical and creative thought. Journal of Developmental Education, 30(2), 34-35.
5. Halpern, D. F. (2014). Thought and knowledge: An introduction to critical thinking. Psychology Press.
6. Ennis, R. H. (1985). Goals for a critical thinking curriculum. In Teaching critical thinking: Theory, research, and practice (pp. 297-314). Jossey-Bass.
7. Garrison, D. R., Anderson, T., & Archer, W. (2001). Critical thinking, cognitive presence, and computer conferencing in distance education. American Journal of Distance Education, 15(1), 7-23.
8. Facione, P. A. (2015). Critical thinking: What it is and why it counts. Measured Reasons and The California Academic Press.
9. McPeck, J. E. (1990). Critical thinking and education. Oxford University Press.
10. www.ziyonet.uz
11. www.apexscholar.uz

BO’LAJAK O’QITUVCHILAR KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURLASHTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Z.D.Rasulova,
BuxDU, Pedagogika kafedراسi doktoranti*

Annotatsiya. Maqolada ta’lim texnologiyasi tushunchasi mohiyati, dasturlashtirilgan ta’lim asosida dars jarayonlarini tashkil etish, talabalarning kompyuter savodxonligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bo’lgan bilim, ko’nikmalarini shakllantirish, ularda kompyuter dasturlaridan foydalanishdagi ijodkorlik malakalarini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini oshirishning elektron muhitini joriy qilish masalalari bayon etilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim jarayoni, ta’im texnologiyalari, dasturlashtirilgan ta’lim, elektron ta’lim, mustaqil ishlash, kreativlik, umumdidaktik yondashuvlar.

Ta’lim jarayonining bugungi vazifalaridan biri talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko’rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o’rgatishdan iborat. Buning uchun talabalarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchining diqqat markazida bo’lishini hamda

yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash ta'lim samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'limdagi o'qitish metodlari va texnologiyalari tasnifiga didaktik yondashuvlar, umumdidaktik yondashuvlarga monelik qilmaydi, balki ularni rivojlantiradi. Ular oliy ta'lim tizimidagi o'quv jarayonining xususiyatlari, ularning didaktik vazifalari xarakteriga asoslanadi [1]. Ta'lim texnologiyasi tushunchasiga nazar soladigan bo'lsak, uning lug'aviy ma'nosi o'qitish jarayonini yuksak, san'at darajasida tshkil etish borasida ma'lumotlar beruvchi ta'limot ma'nosini anglatadi [6].

Dasturiy ta'lim o'qituvchi va talaba muloqoti bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi jarayonini boshqaruvchi o'rgatuvchi dasturga asoslanadi. Dasturlar asosida maxsus dasturlashtirilgan darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar va o'rgatuvchi qurilma (kompyuter modeli, dasturi) yaratiladi.

O'rgatuvchi dasturlarda quyidagilar tizimlashtiriladi:

1. O'quv materialli.
2. Talabaning faoliyati va uning o'zlashtirish darajasi.
3. O'zlashtirish jarayonini nazorat qilish shakllari.

Dasturiy ta'lim ta'lim maqsadiga erishish, bosqichlar izchilligini ta'minlash imkoniyatini yaratib qolmay, o'quv materiallarining puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitni yaratishga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonining har bir bosqichida O'quv materialining muayyan qismi o'zlashtiriladi [4].

Xorij tadqiqotchilaridan Anqithan (2009) o'z izlanishlarida kompyuter dasturlari va ilovalardan foydalanishning talabalarning elektron ta'limga bo'lgan motivatsiyasiga ta'sirini o'rganib chiqdi. U power point dasturidan foydalanish motivatsiyaning ijobiy o'sishiga olib kelganligini aniqladi [2].


Gabrielle tomonidan olib borilgan tadqiqotlari (2003) elektron ta'lim kurslarini boyitish orqali talabalarning motivatsiyasi va samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan [3].

Tadqiqotchi Miqdad (2010) elektron ta'lim bilan shug'ullanadigan talabalarda motivatsiya darajasining oshirilishini hal qiladi [5].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalarning kompyuter ilovalaridan foydalanish darajasini rivojlantirish talabalar tadqiqotga kiritilgan ilovalardan juda o'xshash darajada foydalanishlari, bu erda ijtimoiy media tarmoqlari va mobil telefonlar ahamiyatsiz farqlar bilan yetakchilik qiladi.

Hozirda rivojlanayotgan innovatsion o'qitish usullaridan biri bu dasturlashtirilgan o'qitishdir. O'qitishda o'yin va o'yin elementlaridan foydalanishga asoslanadi. Ushbu usullar talabalarga materialni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradigan yanada interaktiv va qiziqarli o'rganish tajribasini yaratishga yordam beradi.

Dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyalari quyidagi tamoyillarga tayanadi.



Dasturlashtirilgan o'qitishning asosiy negizi bu talabalarga kompyuter vositasidan unumli foydalanishni o'rgatish, ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bo'lgan bilim, ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Talabalarning kompyuter vositasida ishlashga bo'lgan qiziqishi ko'pincha quyidagi samarali ko'rsatkichlarga olib keladi:

- o'quv jarayonining yuqori motivatsiyasi;
- kompyuter dasturlaridan foydalangan holda mashg'ulotlar paytida talabalarning umumiy, kompyuter va til madaniyati yaxshilanadi;
- o'quv jarayoni individuallashtiriladi;
- talabalarning kognitiv qobiliyatlari rivojlanadi;
- baholash ob'yektiv bo'lishi;
- mashqlarning samarali bajarilishini ta'minlaydi.

Zamonaviy, kompyuterlashtirilgan o'quv jarayoni ishning quyidagi tashkiliy shakllari mavjud:

- 1) Kompyuter qo'shimcha texnik o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'qituvchining rahbarligi.
- 2) Talabaning shaxsiy kompyuter bilan avtonom ishlashi rejimi.
- 3) Kompyuter dasturlari o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa vositasidir.
- 4) Talabalarning jamoaviy ijodiy ishlari.
- 5) O'qituvchi tomonidan tashkil etilgan turli guruhlar ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot telekommunikatsiya kompyuter vositalaridan foydalanish (elektron pochta).

Hozirgi vaqtda shaxsiy kompyuterlarga asoslangan dasturiy ta'minot texnologiyalari o'quv jarayoniga kiritilgan va ular o'quv materialini puxta o'zlashtirish uchun ishlatiladi. Talabalar va uning assimilyatsiya darajasini nazorat qiladi, yangi ma'lumot vositalari orasida asosiy o'rinlardan birini kompyuter o'qitish dasturlari egallaydi.

Kompyuterli o'qitish dasturi doirasida bir qator o'quv muammolari hal qilinadi, ularni uchta guruhga bo'lish mumkin.

1- guruh vazifalari: talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini, ularning individual qobiliyatlarini tekshirish o'z ichiga oladi. Moyillik va motivatsiyalar uchun psixologik testlarning tegishli dasturlari savollaridan foydalaniladi. Bu guruhga tekshirish vazifalari ham kiradi, bunday psixofiziologik ro'yxatga olish yo'li bilan amalga oshiriladigan talabalarning ishlash ko'rsatkichlari ishlash tezligi, diqqat darajasi va boshqalar kabi ko'rsatkichlari va hokazolar.

2-guruh vazifalari: ro'yxatga olish va statik tahlil bilan bog'liq o'quv materialini o'zlashtirish ko'rsatkichlari - alohida bo'limlarni tashkil etish har bir talaba uchun masalalarni mustaqil yechish vaqtini aniqlash, xatolarning umumiy sonini aniqlash va hokazo. Faoliyatni boshqarish vazifalari, masalan, taqdimot tezligini o'zgartirish vazifalari – o'quv materialini yoki o'quv ma'lumotlarining yangi bloklarini taqdim etish tartibi va hokazo.

3-guruhi vazifalarni: hal qilish bilan bog'liq o'quv materialini tayyorlash va taqdim etish, materialni moslashtirish muammolari murakkablik darajasiga, dinamik illyustratsiyalar, nazorat vazifalari, amaliy mashg'ulotlarni tayyorlash va talabalarning mustaqil ishi.

Kompyuter bo'yicha o'qitish dasturlarining samaradorligi ko'p jihatdan ularning mazmuniga bog'liq va xususan:

- ✓ mantiqiy uyg'unlik, izchillik, noaniqlik, mavjudlik, aniqlik, taqdim etishning soddaligi, dastlabki ma'lumotlarning asosliligi;
- ✓ illyustrativ va grafik (mashhur faylasuflarning portretlari, grafiklar, diagrammalar, gistogrammalar, jadvallar, diagrammalar va boshqalar) va ma'lumotnomalar (kompyuter ensiklopediyalari) va bibliografik sharhlar).

O'quv jarayonida kompyuterli o'qitish dasturidan foydalanishda quyidagilar imkoniyatlar amalga oshiriladi:

- kursning istalgan mavzusini (bo'limini) qidirish va ekranda ko'rsatish, o'quv materialining mustaqil bloki sifatida kompyuterni o'qitish dasturi;
- o'quv materialini ko'rish, o'rganish (agar kerak bo'lsa - qayd qilish) va o'zlashtirish;
- taqdimot orqali o'quv materialini o'zlashtirish darajasini o'z-o'zini tekshirish talabalarga mavzu bo'yicha muqobil javoblar bilan bir nechta savollar berish;
- talabalarning mavzular (bo'limlar) o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini nazorat qilish;
- miqdori bo'yicha avtomatik ball bilan kompyuter o'qitish dasturiga kiritilgan to'g'ri javoblar va ma'lumotlarni shaxsiy kompyuterlar xotirasiga kiritish;
- ma'lumotlar bankini to'plash bilan kompyuterni o'qitish dasturidan takroriy foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, dasturlashtirilgan ta'lim asosida o'qitish, o'quv jarayonlarining asosiy qonuniyatlariga tayanib ta'lim berish va bu ishni boshqarish uchun eng qulay shart-sharoit yaratishdir. Bunda ta'lim jarayonlari individuallashtiriladi, har bir talaba o'z individual imkoniyatlaridan kelib chiqib mustaqil ko'nimmalarni amalga oshiradi. Dasturiy ta'lim talabalarga muayyan bilimlarning alohida qism holda emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Bundan tashqari ta'lim maqsadlarining aniqlanishi, ta'lim jarayonini umumiy loyihalash, ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi extimolini oldindan tashxislash, ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlash, ta'lim maqsadining natijalanganligini o'rganish, faoliyat natijalarini tahlil etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avlayev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.R. "Ta'lim metodlari" / O'quv qo'llanma. Toshkent: - "Navro'z" nashriyoti. 2017, - 208 b.
2. Anqithan, I. (2009). Learners' Attitudes toward using Technology in Higher Education, Professional Development Staff in the Higher Education Community Seminar, Riyadh.
3. Gabrielle, D. (2003). The effects of technology-mediated instructional strategies on motivation, performance, and self-directed learning. In EdMedia: World Conference on Educational Media and Technology (pp.2568-2575).
4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.
5. Miqdad, M. (2010). Motivation toward Learning in E-Learning Students. E-learning Conference for the Advancement of Cognitive Communities, Bahrain.
6. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tadbqiqiy asoslari / O'quv qo'llanma. Toshkent: - "Fan" nashriyoti. 2006, - 261 b.

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KREATIV TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHDA AUDITORIYADAN TASHQARI MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI.

Q.R.Babadjanov,
UrDU, "Kompyuter ilmlari" kafedراسi katta o'qituvchisi
M.R.Atabayeva,
UrDU akademik litseyi geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tasavvurlarni rivojlantirishda auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Bo'lajak pedagoglarda informatika fanini o'qitishda kreativ va ijodiy tasavvurni shakllantirish, ular orqali iqtidorli o'quvchilarni aniqlash usullari keltirilgan.

Annotation. This article will talk about the importance of independent work beyond the audience in the development of creative visions in future teachers. In the teaching of Informatics in future educators, methods are presented for the formation

of a creative and creative imagination, through which talented students can be identified.

Аннотация. В данной статье речь пойдет о важности самостоятельной работы вне аудитории в развитии творческого воображения у будущих педагогов. Приведены методы формирования творческого и творческого воображения в преподавании информатики у будущих педагогов, выявления через них одаренных учащихся.

Kalit soʻzlar: pedagog, mustaqil taʼlim, mustaqil ishlash, informatika, kriteriya, kreativlik, kreativ gʻoyalar, iqtidor, iqtidorli yoshlarni aniqlash.

Keywords: educator, independent education, independent work, Informatics, criterion, creativity, creative ideas, talent, identification of talented young people.

Ключевые слова: педагог, самостоятельное обучение, самостоятельная работа, информатика, критерий, креативность, креативные идеи, одаренность, выявление одаренной молодежи.

Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida taʼlim mazmuni muayyan maqsad va vazifalarga ega boʻlib kelgan. Mamlakatimizda taʼlim borasida olib borilayotgan islohotlar shuni taqozo qiladiki bugungi kunning salohiyatli kadrlarini kamolga yetkazishda har tomonlama rivojlangan mamlakatlar islohotlarini qoʻllash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada 27.07.2017-yilda qabul qilingan PQ-3151 “Oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorida “Oʻqitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini taʼlim jarayoniga joriy etish, oliy taʼlim muassasalarini zamonaviy oʻquv-laboratoriya anjomlari va oʻquv-metodik adabiyotlar bilan taʼminlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish, oliy taʼlim muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish choralarini koʻrish” kerakligi keltirib oʻtilgan. Aynan pedagogika yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalarning kreativ va ijodiy salohiyatini yuksaltirishning eng yaxshi usullaridan biri bu - mustaqil ijodiy faoliyatni shakllantirish hisoblanadi. Mustaqil ijodiy faoliyat talabalarni samarali kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda auditoriyadan tashqari mustaqil taʼlimning ahamiyati katta.

Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatlarini pedagogik boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Talaba oʻzining harakatini rejalashtirishi;
2. Oʻz maqsadini tanlash, ularga erishishning yoʻl va vositalarini aniqlashi;
3. Berilgan topshiriqlarni yechish uchun oʻz imkoniyatlarini birlashtirish-tashkillashtira olishi;
4. Oʻz faoliyatini nazorat qilishi va mos ravishda baholay olishi;
5. Oʻzining keyingi harakatlarini oʻzi nazorat qilishi va oʻzini oʻzi baholashni amalga oshira olishi.

Talabalarning mustaqil va ijodiy ishini toʻgʻri tashkil etishda quyidagi kriteriyalardan foydalanish mumkin:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida kutubxonada mustaqil o'zlashtirish va mavzuning mohiyatini yoritib berish;
- kompyuter sinflarida elektron darsliklar, virtual stendlar, multi- media dasturiy majmualari yoki o'rgatuvchi hamda bilimlarni nazorat qiluvchi interaktiv kompyuter dasturlari yordamida topshiriqlarni mustaqil o'zlashtirish;
- hisob-grafik, jadval-diagramma ishlarini aniq maqsadlar asosida bajarish;
- laboratoriya yoki amaliy mashg'ulotlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, ularning maqsadlarini belgilab olish;
- maket, model, namunalar, detallar yoki kompyuter dasturlari yaratish orqa-li ko'rik tanlovlarda qatnashish va ularni namoyish etish;
- berilgan mavzu bo'yicha referat yoki ma'ruza tayyorlash, seminar yoki anjumanlarda ma'ruza qilish;
- fanlar bo'yicha sinfdan tashqari berilgan misol va masalalarni, nazariy savollarni, test topshiriqlarini bajarish;
- mintaqaviy ta'lim portallarining axborot manbalari bilan ishlash, boshqa ta'lim muassasalarining axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish;
- o'qituvchi ko'rsatmasiga binoan reyting tizimi asosida o'tkaziladigan nazorat turlariga yoki yozma ishlarga tayyorgarlik ko'rish;
- fan olimpiadalarida qatnashish uchun an'anaviy bo'lmagan misol, masala yoki topshiriqlarni bajarish;
- imitatsion o'yinlar tashkil etish, ularning ssenariylarini tayyorlash, tahlil etish;
- ishlab chiqarish tashkilotlari bilan tuzilgan xo'jalik shartnomalarida faol ishtirok etish.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishni kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqsak, O.Yu. Polyanichko o'z-o'zini tarbiyalash kompetensiyasini shakllantirishni talabalarning sinfdan tashqari mustaqil ishi tizimining asosiy maqsadi sifatida belgilaydi. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini E.N. Trushchenko, muayyan sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin deya baho beradi, bunda:

- talabalarning ichki, tashqi va protsessual motivatsiyasini rivojlantirish orqali mustaqil ijodiy faoliyatga munosabat motivatsiyasini ta'minlash;
- o'quv kurslarini kasbiy yo'naltirilgan vazifalar tizimi sifatida loyihalash, ularni hal qilish talabani ta'lim faoliyatidan professional faoliyatga o'tishga imkon beradi;
- telekommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarning o'quv faoliyatini metodik jihozlash;
- bo'lajak mutaxassis shaxsining kasbiy rivojlanish jarayonini monitoring qilish asosida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati ustidan nazoratni ta'minlash.

Zamonaviy ta'lim paradigmasida talabalarning mustaqil ishlariga muhim didaktik maqsad berishga imkon beruvchi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirishning asosiy tamoyillari O.E. Lebedev tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu tamoyillarga ko'ra, ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy ma'nolaridan biri mustaqil ijodiy ishlash qobiliyatini shakllantirish, qo'shimcha ravishda ta'limning tashkiliy asosidir.

Informatikani o'rganish, informatika haqida haqiqatni bilishni tavsiflash shakli va bilish metodi sifatida tasavvur qilib insonning madaniyati va iqtidorining shakllanishiga zamin yaratadi. Ta'lim tarbiyaning umumiy maqsadlaridan informatikaning fan sifatida o'ziga xosligi uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va roolidan hozirgi axborotlashtirilgan jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda informatikani o'qitish o'quvchilarda iqtidorni shakllantirishning maqsadlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- o'quvchilarda kompyuter savodxonligini shakllantirish;
- o'quvchilarda axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli ravishda o'zlashtirib olishlarini ta'minlash;
- o'quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko'rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyatini, jamiyatning rivojida axborot va kommunikatsion texnologiyalarning rolini ochib berish;
- texnika asrida kompyuterlardan ongli va ratsional foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Informatikadan mustaqil ishlar bajarish o'quvchilarning individual faoliyatini nazarda tutuvchi shakllardan biri hisoblanadi. Informatika fanidan nazariy darsni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi: qizitish va qiziqtirish (motivatsiya), ma'lumot berish, bilim berish, o'rganilgan bilimlarni qayta ishlash boyicha topshiriqlar berish, tahlil va sintez, baholash.

Xulosa va takliflar. Ta'lim jarayonida o'tkazilgan bu boradagi turli eksperimental mashg'ulotlar shuni ko'rsatadiki, bunday treninglar o'quvchilarda bugungi kunda jamiyatda, umuman hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi, talabalarda mustaqil, mantiqiy fikr yuritish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, ijodkorlik hislatlarini tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllanishiga va doimo diqqatli bo'lishga undaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, pedagoglar oldiga hozirgi davr tomonidan qo'yilayotgan talablarni bajarish uchun, albatta ta'lim va tarbiya jarayoniga innovatsion yondashish va turli didaktik texnologiyalarni kiritish lozim, deb ta'kidlashimiz mumkin.

REFERENCES

1. M.A. Mirzaahmedov, Sh.N. Ismailov, A.Q. Amanov "Algebra va analiz asoslari" Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. – T.: 2017. – 53 b.
2. Marasulova Z. Informatika ta'limda innovatsion texnologiyalar asosida uzviylikni ta'minlash // "Fizika, matematika va informatika" ilmiy-uslubiy jurnali. – Toshkent, 2011. №3. – 84-88 betlar.
3. Xaitov F.N., Shamsiyev A.Sh., Yusupov R.M., Temurov S.Y. Bitiruv malakaviy ishini yozish, rasmiylashtirish va himoya qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Jizzax. 2008, 32 bet
4. F. Rakhmonkulov. Problems of teaching web design in the development of webcompetencies of future computer science teachers. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 7(12), 342–346. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/F9N4W>.

5. Qarshiyev A. A., Yusupov R.M., O'quvchilarda axborot kompetentligini rivojlantirishda elektron axborot-ta'lim muhitining didaktik vositalarining metodik xususiyatlaridan foydalanish. // "Jizzax davlat pedagogika instituti axborotnomasi" ilmiy-uslubiy jurnali. Jizzax 2013 №4, 102-105.
6. Qarshiyev A.A., Mamatqulova U.E. Maktab o'quvchilarning axborot kompetentligini shakllantirish–T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 284.
7. Raxmonqulov F. Alishev A. O'quvchilarning ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik xususiyatlari. "Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensive o'qitishning psixologik-pedagogik jihatlari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2023-yil 2-iyun 190-bet.

TALABALAR JISMONIY MADANIYATINING ADAPTIV PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Ilmiy rahbar: R.X.Kadirov,
BDU, sport nazariyasi va metodikasi professori
B.B.Sharipov,
BuxDU, Adaptiv sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya va sport mutaxassisligi I-
bosqich magistranti
M.A.Farmonova,
BuxDU, Adaptiv sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya va sport mutaxassisligi II-
bosqich magistranti
Z.J. Boboeva,
BuxDU, Adaptiv sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya va sport mutaxassisligi I-
bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada talabalar jismoniy madaniyatining adaptiv pedagogik muammosining falsafiy, tibbiy, sosiologik, pedagogik, va psixologik jihatlari to'g'risida tasavvurlar kengaytirilgan, talabalar salomatligini asrash, moslashuvchanlik imkoniyatlarini mustahkamlash, ta'lim va tarbiya jarayonlarining aksiologik yondashuvlari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Adaptiv jismoniy tarbiya, adaptiv pedagogika, salomatlik, qadriyat, adaptiv jismoniy madaniyat, pedagogik jarayon, o'qitish, rivojlantirish, shakllantirish.

АДАПТИВНО ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ

Научный руководитель: Р.Х.Кадиров,
БГУ, профессор теории и методики спорта
Б.Б.Шарипов,
БГУ, Магистрант специальности Адаптивная реабилитация
физической культуры и спорта

*М.А. Фармонова,
БГУ, Магистрантка специальности Адаптивная реабилитация
физической культуры и спорта
З.Ж. Бобоева,
БГУ, Магистрантка специальности Адаптивная реабилитация
физической культуры и спорта*

Аннотация: В статье представлены теоретические основы адаптивной педагогики формирования физической культуры студенческой молодежи, философские, медицинские, социологические, педагогические, психологические особенности проблемы охраны здоровья студентов, анализируются аксиологические подходы развития процессов воспитания и обучения.

Ключевые слова: Адаптивная физическая культура, адаптивная педагогика, здоровье, ценностная ориентация, адаптивная физическая культура, педагогический процесс, обучение, развитие, формирование.

ADAPTIVE PEDAGOGICAL APPROACHES OF STUDENTS' PHYSICAL CULTURE

Scientific supervisor: R.Kh.Kadyrov

BSU, professor of theory and methodology of sports

B.B.Sharipov,

*BSU, 71010303 – Master's student in the specialty Adaptive rehabilitation of
physical culture and sports*

M.A.Farmonova,

*BSU, 71010303 – Master's student in the specialty Adaptive rehabilitation of
physical culture and sports*

Z.J.Boboeva,

*BSU, 71010303 – Master's student in the specialty Adaptive rehabilitation of
physical culture and sports*

Abstract: The article presents the theoretical foundations of adaptive pedagogy for the formation of physical culture among students, philosophical, medical, sociological, pedagogical, psychological features of the problem of protecting the health of students, and analyzes axiological approaches to the development of the processes of education and training.

Key words: Adaptive physical education, adaptive pedagogy, health, value orientation, adaptive physical education, pedagogical process, training, development, formation.

Dolzarblik. Talabalarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish muammosi ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Salomatlik qadriyatlarini shakllantirishning ahamiyati talabalar salomatligini saqlash va oshirish hamda ularning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini oshirish zaruriyati bilan belgilanadi. Sihat-salomatlik, jismoniy faoliyat unumdorligi asosida talabalarning ijodiy salohiyatini ochib berish, uning kasbiy o'z-o'zini namoyoni qilishining sharti va asosidir. Shu bilan birga, salomatlik madaniyati nafaqat shaxs uchun, umuman olganda butun jamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz yosh avlod salomatligini asrash va mustahkamlashdan g'oyat manfaatdor bo'lib, bu sog'lom fuqaroni tarbiyalashga bo'lgan ijtimoiy buyurtma sifatida namoyon bo'ladi [1,11].

Har qanday rivojlanayotgan jamiyatida yuzaga kelayotgan noqulay vaziyatni faqatgina birinchi navbatda kasalliklarning oldini olishga emas, balki allaqachon ortirilgan kasalliklarni davolashga yo'naltirilgan tibbiyot sohasi imkoniyatlari bilan amalga oshirib bo'lmasligi yanada ayon bo'lib bormoqda. Bugungi kunda millat salomatligini asrash muammosiga sifat jihatidan yangi yondashuvlar, tabiiyki, turli kasalliklarning oldini olish va davolash borasida allaqachon qo'lga kiritilgan yutuqlarni e'tibordan chetda qoldirmagan xolda zarurdir. Ko'rinib turibdiki, bu masalaga yondashuvlarning yangiligi shaxsning o'z sog'lig'ini saqlash va salomatlikni barpo etishiga bo'lgan qiziqishi va faolligini e'tiborga olishga uning o'zini jalb qilish zaruratidan kelib chiqishi kerak. Bularning barchasi, avvalo, yangicha tafakkurni, aniqrog'i, yangicha ongini, ya'ni inson salomatligi muammosiga qarashlarni qayta qurishni talab etadi.

Salomatlikni targ'ib qilish va yoshlarni sog'lom turmush madaniyatini shakllanirish muammosi falsafiy, tibbiy, sosiologik, pedagogik, va psixologik jihatlari bilan bir qatorda tarixiy jihatlarga ham ega.

Keskin o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitlarga moslashish, yoki adaptasiya (Adaptatio (lotincha) - organizmning evolyusiya jarayonida tashqi muhit sharoitiga moslashuvi) - organizmning funksional resurslarining sarflanishi evaziga, ya'ni muayyan "biososial to'lov" (jismoniy faollik) tufayli amalga oshiriladi. Organizm o'zining hayotiy resurslarini sarflashi bilan birga ularni doimiy ravishda to'ldirib boradi, shu jumladan dam olish va uyqu paytida. Organizm va uning alohida tizimlarining funksional zaxiralarini sarflashi va tiklashi doimiy hayotiy jarayonidir. Adaptasiya tirik materiyaning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida hayotning ichki va tashqi ziddiyatlarini hal qilishning natijasi va vositasidir, u o'zaro to'qnashuv va o'zaro o'tish hodisasi tufayli salomatlik va kasallik yoqasida mavjud bo'lib faollashadi. Hozirgi davrda moslashuv uchun "to'lov", "biososial byudjet" dan tashqariga chiqqanligi sababli organizmning tobora ko'proq harakatlar (profilaktik amallar) ga ehtiyojni oshib borishi va moslashuv mexanizm funksiyalarining buzilishiga olib kelishi e'tirof etilmoqda [3].

Demak, har qanday moslashuv jarayonlari nafaqat biologik, balki ijtimoiy xarakterga ega va ba'zida me'yorga nisbatan salbiy og'ishlar, u yoki bu kelishmovchilik evaziga namoyon bo'ladigan hodisa sifatida qarash va adaptiv pedagogika asoslarini aniqlashtirish talab etiladi.

Tadqiqot maqsadi. Talaba yoshlarda sog'lom turmush madaniyat ko'nikmalarini rivojlantirishning adaptiv pedagogik asoslarini aniqlashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari. Ilmiy uslubiy adabiyotlarni o'rganish, nazariy tahlil, pedagogik kuzatish.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqotimizda talabalarining adaptiv jismoniy madaniyat ko'nikmasini shakllantirishning umumpedagogik va psixologik xususiyatlarini o'rganish sifatida qaraladi. "Jarayon" atamasining etimologik tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim lug'atlarda jarayon deb hodisalar, holatlarning ketma-ket o'zgarishi, biror bir narsa rivojlanishining borishi sifatida tushuniladi. Mazkur pozitsiyalardan kelib chiqib adaptiv pedagogik jarayon muayyan natijaga erishish uchun izchil harakatlar majmuasidan iborat - pedagogik hodisadir [9,10].

Adaptiv pedagogika, jumladan adaptiv jismoniy tarbiya atamasi tadqiqotlarda "o'qitish", "ta'lim", "rivojlantirish", "shakllanish" kabi kategoriyalar bilan bir qatorda keng ko'zga tashlanadi. Olimlarning unga munosabati bir xil emas. Bu asosida pedagogik hodisalar mantig'ini ko'rib chiqish va ma'lum bir natijaga erishishga intiladigan tadqiqotlarda amaliyotga bo'lgan talabdan kelib chiqadigan sabablarga bog'liqdir [2].

"Shakllanish" so'zi "shakl", ya'ni "biror narsaga biror shakl, tus berish" so'zidan kelib chiqqan bo'lib odatda "mazmun" so'zi bilan organik aloqadorlikda qaraladi. Bu falsafiy kategoriya mazmuning butunning aniq shakli sifatida, shaklni esa mazmun ifodasi sifatida o'z ichiga oladi. Mazmun va shaklning munosabatlari muayyan birlik bilan tavsiflanadi. Taraqqiyot jarayonida mazmun va shakl o'rtasida nomuvofiqlik paydo bo'lib, u oxir-oqibat "eskisini tushirib qoldirilishi va rivojlanayotgan mazmunga mos keladigan yangi shaklning yaratilishi" bilan hal etiladi [5].

Psixologik tadqiqotlarda "shakllanish" tushunchasi shaxsning rivojlanish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Ushbu tushunchaning mohiyatiga yondashuvlar aniq emasdir. Jarayonli yondashuv turli omillar: ta'lim, jamiyat, irsiyat va boshqalar ta'sirida shaxsiy rivojlanishni o'rganishni o'z ichiga oladi. Aksiologik yondashuv individda muayyan qadriyatlarni yaratish, ijtimoiy-psixologik sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan [4].

Tadqiqotimizda olib borilgan etimologik va kontent tahlillardan kelib chiqib biz shakllanish deb tashqi va ichki muhit omillari ta'sirida amalga oshiriladigan ketma-ket bosqichlardan iborat, shuningdek, boshqariladigan pedagogik ta'sir natijasida talaba shaxsining salomatlikka muljallangan yunalishini rivojlantirish jarayonini tushunamiz. Bizning holatimizda talaba shaxsining adaptiv jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayoni ko'proq pedagogik qo'llab-quvvatlash va pedagogik yordam elementlari bo'lgan "yumshoq" pedagogik ta'sirni o'z ichiga oladi.

Talabalar faoliyatini adaptiv jismoniy madaniyat asoslari orqali ijtimoiy salomatlikka yo'naltirish muammosining nazariy jihatlarini o'rganish uni hal etishda quyidagi yondashuvlar ahamiyatli deb topildi [2].

1. Jarayonli yondashuv. Adaptiv jismoniy madaniyatning shakllanuvchi jarayon sifatida qaraladi va o`rganiladi. Bunday yondashuv bir necha variantlarni o`z ichiga oladi: jarayonli-faoliyatli, jarayonli-tizimli, jarayonli-mazmuniy.

Tizimli yondashuvi bilishning umum-ilmiy usuli sifatida namoyon bo`ladi. Tadqiqotimizda tizimli yondashuvni amalga oshirish bizningcha faoliyat yuritish "mexanikasi" ni to`liq tushunish va o`rganilayotgan hodisani o`rganishda bir yoqlamalikka yo`l qo`ymaslik va shu asosda talabaning salomatlikka mo`ljallangan yo`nalishini shakllantirishning boshqaruvi jarayoniga ta`sir doirasini aniqlash imkonini beradi.

2. Texnologik yondashuv. Biz tadqiq kilayotgan jarayonni texnologik nuqtai nazardan kurib chiqish xaqlidir. Shu bilan birga talaba shaxsini salomatlikka mo`ljallangan yo`nalishni shakllantirishning pedagogik texnologiyasi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- jarayonni o`zaro bog`liq bosqichlarga bo`lish;
- istalgan natijaga (maqsadga) erishishga qaratilgan harakatlarni muvofiqlashtirish va bosqichma-bosqich amalga oshirish);
- maqsadga muvofiq natijalarga erishishning adekvat ajralmas va hal qiluvchi sharti sifatida texnologiyaga kiritilgan tartib va operasialarni amalga oshirishdagi aniqlik.

3. Shaxsga mo`ljallangan yondashuv. Bunday yondashuv insonning jismoniy, psixik, aqliy va ma`naviy rivojlanishining birligiga asoslanadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida adaptiv jismoniy madaniyat asoslariga mo`ljallangan yo`nalish yondashuvni shakllantirish tushunchasi ilmiy-nazariy konsepsiyasining maqsadi talabalarni jismoniy tarbiyalashda mazmuniy jarayonli tabiatida "jismoniy tarbiya"ning qiymatini, jismoniy ta`limni rivojlantirishda o`z aksini topadi [5, 6,7].

4. Aksiologik yondashuv. Jismoniy madaniyatni qadriyat sifatida ko`rib chiqish asoslidir. Talaba shaxsining yuqori darajadagi adaptiv salomatlikka mo`ljallangan yo`nalishiga erishish, avvalo, jismoniy faoliyatga qadriyatlar (ijobiy) munosabatining mavjudligidan kelib chiqadi. Talaba uchun jismoniy madaniyatning qiymati, avvalo, uning o`z-o`zini shaxsiy rivojlantirish va o`z-o`zini takomillashtirish uchun ijobiy ahamiyatida namoyon bo`ladi.

Ko`tarilgan muammolarni o`rganishning muhim nazariy asoslari sifatida bizningcha quyidagilar xizmat qiladi:

1. Jismoniy ta`limning umuman olganda jismoniy tarbiyaning umumiy konseptual xolatlari xususan, Л.И. Любышева tomonidan ishlab chiqilgan boshlang`ich pozitsiyalari va bu jarayonni shaxsni nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy-madaniy shakllantirishga qaratish zarurligini yaqqol ko`rsatadi; jismoniy tarbiyaning barcha qadriyatlarini boshlash, bunda asosiy natija sifatida jismoniy tarbiya jismoniy faoliyatga jalb qilinishi bo`lishi kerak [9];

2. Insonlarda jismoniy tarbiya-sport faoliyatining tanlangan xolatida namoyon bo`lishi va rivojlanishini ta`minlaydigan adaptiv jismoniy madaniyat faoliyatini erkinlashtirish va insonparvarlashtirishning pedagogik asoslari, o`z navbatida, adaptiv jismoniy madaniyatni o`z-o`zini tarbiyalash, o`z-o`zini rivojlantirish, o`z-

o`zini namoyon qilish jarayoniga jalb qilish uchun muhim sharti bo`lgan adaptiv jismoniy madaniyatning shaxsiy muhim vositalari uchun qadriyat munosabatlarini shakllantirishning poydevori bo`ladi.

Demak, talabalar shaxsining salomatlikka mo`ljallangan yo`nalishini shakllantirish uning rivojlanishidagi muayyan bosqichlar (pallalar), mezonlar, ko`rsatkichlar, darajalarga ega bo`lgan va kerakli natijaga erishishga qaratilgan - salomatlikka mo`ljallangan yo`nalishini shakllantirishning ijtimoiy topshiriq darajasi jarayoni deb hisoblaymiz.

Bu jarayonni bizningcha, eng avvalo, oliy ta`limning birinchi yoki ikkinchi yilida, uni tadqiq etish va bu jarayonni boshqarish uchun qulay imkoniyatlar mavjud bo`lganda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, ekspert baholash va anketa so`rovlarining natijalari bunday imkoniyatlarni aniqlashga imkon berdi [6]:

1. Psixologik imkoniyat. Kichik kurslar talabalarining aqliy rivojlanish darajasi (17-19 yoshda) ularga jiddiylik va sog`lig`ini saqlash va mustahkamlash zaruriyatidan etarli darajada xabardor bo`lish imkonini beradi. Maktab yoshida bunday anglash bo`lmaydi. O`smir o`rta maktab o`quvchisi psixik rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqib, salomatlikni hayotning asosiy qadriyati deb hisoblamaydi. Voyaga yetish yoshlarning ustuvor yo`nalishlarini o`zgartiradi va bu yoshda talabada o`z salomatligi xususida g`amxo`rlik qilish zarurligini tushunish va ehtiyoji shakllanadi.

2. Fiziologik imkoniyatlar. Oliy ta`lim muassasasiga qabul qilingan vaqtga kelib, talaba organizmning shakllanishi asosan tugallangan yoshga etadi. Bundan tashqari, ko`plab yigit-qizlar o`z salomatliklarida kasallik yoki anomaliyalar mavjud bo`lib bu o`z organizmini saqlab qolish va mustahkamlash zaruratini faollashtiradi.

3. Didaktik imkoniyatlar. 17-18 yoshga kelib, inson organizmining tuzilishi, xususiyatlari va faoliyat qonuniyatlari haqidagi bilimlarning hajmi talabalarga salomatlikka mo`ljallangan yo`nalishini shakllantirish jarayoniga samarali kiritish imkonini beradi, chunki urta maktabda o`rganiladigan fanlar mazmuni yoshlarga salomatlikni yaxshilash haqida axborotni olish imkonini beradi.

Xulosa. O`rganilgan ilg`or tajribalar negizida quyidagi pedagogik yondashuvlar aniqlashtirildi:

1. Talabaning tezkor va pragmatik vaziyatlar bilan bog`liqligidan o`zini-o`zi boshqara oluvchi va salomatligini nazorat qiluvchi sub`ekt darajasiga o`zgartirish, mavjud pedagogik shart-sharoitlardan unumli foydalanish, o`zining hayotiy faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtirishga qarab oliy ta`lim shart-sharoitlariga moslashuvchanlik strategiyasini yo`naltirish.

2. Adaptiv pedagogika sohasi ta`limiy-tarbiyaviy xususiyatiga ko`ra talabalik davrida shakllanadigan bilim, ko`nikma va malakalar, odatlar, qarashlar kabi individual xulq-atvor, madaniyat sohibi - keyinchalik insonning faoliyatli yondashuviga asos bo`la oladi. Shu sababli kasbiy tayyorgarlik bilan bir qatorda adaptiv jismoniy madaniyat ko`nikmalarini o`zlashtirishga qaratilgan adaptiv tizimini amalda joriy etishni taqozo etadi.

3. Talabalarning adaptiv jismoniy madaniyat ko`nikmalarini rivojlantirish muhim komponenti va fan sohasi sifatida jismoniy madaniyat ta'lim yo`nalishining o`quv-tarbiyaviy tizimida tadbiq etish va amalda samarali texnologik vositaligi isbotlandi. Tayanch fan sohasining ijtimoiy-madaniy, amaliy va valeologik qadriyatlari va boshqa mutaxassislik fanlarini integrasiyalashtirish va talabalarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishga imkon yarata oladigan zamonaviy ta'lim texnologiyasi bo`lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA OMMALASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA” ги 24.01.2020 yildagi PF-5924-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4711327?ONDATE=07.04.2022>.
2. Антонюк С. Д., Королев С. А., Глинина К. В. Обоснование образовательного пространства адаптивной физической культуры на основе принципа интеграции // Теория и практика физической культуры. – 2007. – №. 8. – С. 15-17.
3. Баевский Р.М. Прогнозирование состояний на грани нормы и патологии / Р.М. Баевский – М.: Издание на русском языке, оформление
4. «YOYO Media», 2014, 2014. – 295 с.
5. Евсеев С. Теория и организация адаптивной физической культуры. – Litres, 2020.
6. Kadirov, R. K. HUMANITARIAN FOUNDATIONS FOR THE EFFICIENCY OF STUDENTS' RESEARCH ACTIVITIES / R. K. Kadirov. — Текст : непосредственный // JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY. — Volume 25 Issue 04, 2022. — № Volume 25 Issue 04. — С. 4237-4244. DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00769.8
7. KADIROV, R. H. JISMONIY TARBIYA DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI. Darslik. / R. H. KADIROV. — 1. — Buxoro : “Durdona” nashriyoti, 2021. — 184 с. — Текст : непосредственный.
8. Кадиров, Р. Х. САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ РАБОТА СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПЛАТФОРМЫ MOODL / Р. Х. Кадиров, Р. С. Шукуров, С. Т. Нематов. — Текст : непосредственный // Международный научно-практический журнал "Мировая наука". — 2020. — № №10(43). — С. 184-190.
9. Kadirov, R. X. JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA DIAGNOSTIK USULLAR AMALIYOTI / R. X. Kadirov. — Текст : непосредственный // "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali. — 2023. — № 5(7). — С. 103-106.
10. Лубышева Л. И. Социальная роль спорта в развитии общества и социализации личности / Л. И. Лубышева // Теория и практика физической культуры. - 2002. - № 4. - С. 3-8.

11. Самусева Н. В., Пенкрат В. И. Динамика ценности здоровья у студентов педагогического вуза в профессионально-аксиологической парадигме. – 2019.
12. Юлдашев М. Инновационные аспекты формирования здорового образа жизни и развития спорта //Актуальный научный журнал педагогики. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 102-107.

ILMIY TADQIQOT JARAYONIDA PEDAGOGIK RISKOLOGİYADAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

*Sh.Sh.Olimov,
BuxDU Pedagogika
kafedrasi mudiri, p.f.d., prof.*

Respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish, har tomonlama mustaqil fikrga ega bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazish, zamonaviy talablarga javob beradigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni, 2021-yil 1-apreldagi “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5047-son Farmon va Qarorida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish borasidagi chora-tadbirlar ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish, har bir yon avlodni intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan. Bu esa birinchi navbatda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi o'qituvchi-tarbiyachilarga bog'liqligi hech kimga sir emas.

Har bir inson o'zining kundalik faoliyatida turli xil qarorlarni qabul qiladi, turli ko'rinishdagi va maqsadlardagi faoliyatni rejalashtiradi. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotganlar, shuningdek, ta'lim tizimi boshqaruvi kadrlari o'z faoliyatlari davomida jamoa a'zolari bilan munosabatlar o'rnatish, strategik rejalar ishlab chiqish, har xil ekstremal holatlarda oqilona qarorlar qabul qilish zarurligi talab qilinadi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, muhim muammolardan biri “ ... bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur” [2,45].

Keyingi yillarda pedagogik fanlar taraqqiyoti, fanlar integratsiyasi natijasida turli xil yangi fanlarning yuzaga kelishi ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, pedagogik fanlar tarmoqlaridan biri bo'lgan pedagogik riskologiya fani ham alohida tadqiqot ob'ekti sifatida shakllanmoqda.

Pedagogik riskologiyaning bilimlar sohasi ta'lim tizimini boshqarishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, pedagoglik kasbida va ta'lim tizimidagi turli tavakkalchiliklar va qarama-qarshilik tabiati to'g'risida umumiy tasavvurlarni shakllantirish maqsadiga qaratilgan. Bunda pedagogik voqelik murakkabliklar va qarama-qarshiliklar sifatida qaralib, bunday holatlarda o'qituvchining asosiy rolini tushunishga e'tibor qaratiladi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqadiki, ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagogik kadrlarning faoliyati zaruriy vosita sifatida pedagogik riskologiyaning nazariy jihatlar va xususiyatlarini yoritishga qaratilgan manbalarni yaratish dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy riskologiyada ma'lum miqdorda tavakkalchilik muammolariga oid tadqiqot tajribasi to'plangan. Shuning uchun, eng avvalo, riskologiyaning asosiy xususiyatlari ta'riflarini aniqlash maqsadida nazariy yondashuvlarni tasniflash zarur. Buning uchun o'rganilayotgan hodisalarning nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy, madaniyatshunoslik va statistik xususiyatlariga ham murojaat qilish maqsadga muvofiq. Bu mukammal darajada tadqiqot yo'nalishini rivojlantirishda qo'llaniladigan ilmiy tushunchalarni tahlil qilish, ularning ichki o'zaro aloqadorligini va o'zaro bog'liqlik xususiyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Pedagogik adabiyotlarda tavakkalchilik muammolariga nazariy va konseptual yondoshuvlar keng qamrovli zamonaviy ijtimoiy kontekst ko'rinishida qaraladi, bu esa riskning ob'ektiv mazmun va mohiyatini yoritish uchun barcha omillarni, ularning xilma-xilligini belgilash uchun har tomonlama tahlil qilishda juda muhim hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogikada olimlar pedagogik riskning mohiyatini ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik hodisalar deb qarashni taklif qiladilar. Ularning fikriga ko'ra qaerda risk kundalik, odatiy holatga aylanmagan bo'lsa, "turmush tarzi"ning turg'un xususiyatlari ko'lamiga kirmaydi va shuning uchun ham xavfli va buzuvchidir. Shu bilan bir qatorda bolalar, o'smirlar, ijtimoiy bo'shliq(inqiroz) qobig'iga tushib qoladilar va oxirgi yillarda jamoatchilik hayotini ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy sohalarini qamrab olgan voqealar noaniqliklar bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, umumevropa modernizatsiyalashgan o'smirlar va yoshlar xavfi 1990-yillarda o'ziga xos inqiroz ko'rinishi qatorida kuchaydi va ijtimoiylashdi.

Bunga ijtimoiy inqirozga xos bo'lgan, ijtimoiy-iqtisodiy to'ntarish natijasida mamlakat aholisining 70 foizini qamrab olgan odatiy noxushliklar kelib qo'shiladi.

G'arb bu kabi tarixiy davrni yangi davr ostonasida, ya'ni XVI-XVIII asrlarda bosib o'tgandi. Shuning uchun ham nemis sotsiolog olimi N.Lumanning taxminiga ko'ra "risk" atamasining keng ravishda tarqalishi XVI asrda dengizlararo suzish, bozor va savdo munosabatlarining shakllanishi vaqtiga to'g'ri keladi.

Riskning aniq mazmunini sayohatchilar, savdogarlarni kutib turgan ko'p sonli xavflarga qarshi turish, o'zgalarning hayoti, savdo-sotiq ishlari uchun doimiy xavf-xatarlarning oldini olish, ularni yengish zarurati natijasida yuzaga kelgan faoliyat natijasida kelib chiqqan.

Aynan hayotiy zaruriyatlar natijasida yuzaga kelgan ushbu holatlar "risk" tushunchasiga xavf, qo'rqitish ma'nosini beradi. Tadqiqotchi D.Lupton fikriga ko'ra tabiiy ofatlar, turli xil epidemiyalar, inson tomonidan sodir etiladigan yo'qotishlar, xavf-xatarlardan o'zlarini himoya qilish ma'nosini anglatadi.

"Risk" so'zi ispan tilidan kirib kelgan bo'lib, "qoya", "rif" ma'nosini anglatadi va kelib chiqishiga ko'ra dengizchilar faoliyatida xavfli bo'lgan holat bilan

bog'liq. Umuman riskning dastlabki belgilari ham ob'ektiv, ham sub'ektiv aspektlarni o'z ichiga oladi.

Tabiatda uchraydigan risklarni ilmiy metodlar yordamida baholash, nazorat qilish mumkin deb tan olingan. Biroq, riskda inson omili ko'proq riskdan himoya qilish yoki riskli faoliyatga qo'shib, yutib chiqish sifatida ko'rilgan. O'z munosabatlariga ko'ra individlar ikki toifaga: riskli vaziyatlardan qochishga harakat qiluvchilar va riskka moyillar toifasiga bo'linadi. Agar ba'zilar xavfsiz variantlarni ma'qul topishsa, riskli vaziyatlardan qochishsa, boshqalar esa kelishi mumkin bo'lgan foyda, ketgan sarf-xarajatlarni qoplashga intiladilar.

Keyinchalik riskni o'lchashda ko'proq aniq matematik metodlar qo'llanila boshlandi. Dastlabki yondashuvlar inson risk darajasini hisoblash, potensial yo'qotishlarni baholash, so'ngra o'zini ularning ta'siridan asrash qobiliyatiga ega degan fikrlarga asoslangandi.

Ushbu yondashuvlarning tarafdorlari ko'z o'ngida risk bo'lishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni yuqori saviyada bartaraf qilish masalalari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqador deb hisoblandi.

Bunday talqinda risk imkon, muvaffaqiyat, qo'rqqanlik yoki sarguzasht kabi tushunchalar tarkibiga kiradi. "Risk" so'zini o'zbek tiliga aynan tarjima qilsak, "tavakkal", "tavakkal qilish" degan ma'nolarni bildiradi.

Tavakkalchilik arabcha - vakolat olish, umid bog'lash, suyanish, ishonish degan so'zdan olingan bo'lib, oqibat-natija qanday bo'lishidan qat'iy nazar biror ishga jazm qilish, nima bo'lsa bo'lar, yo ostidan, yo ustidan zaylida qilingan harakat tushuniladi. Ushbu soha bilimlari biror ish bo'lsa ham mayli, bo'lmasa ham mayli qabilida ish tutadilar.

Ko'rinib turibdiki, dastlabki yondashuvlardayoq risk va xavfsizlik o'rtasida aloqa kuzatiladi. Aynan o'z-o'zidan odamlar intiladigan xavfsizlik riskka qarama-qarshi bo'lgan harakat sifatida qaraladi. Bunday aloqada dixtologiya (bir-biriga qarama-qarshi fikrlar) gavdalanadi. Risk va saqlanish, risk va xavfsizlik uyg'unlashadi. Saqlanish – yo'qotishning qatnashmasligi, shaxsiy risk miqdorini ta'minlovchi, vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qiluvchi vosita sifatida tushuniladi.

Lekin ayrim insonlar uchun xavfsizlik riskdan qochish ko'rinishida talqin qilinsa, boshqalar uchun ma'lum imkoniyatlarni baholash, ularning holatini yaxshilovchi usullar bilan baholanadi va ular tavakkalchilik xulq-atvorini rag'batlantiruvchilar ko'rinishida yuzaga chiqadi. Bunday holatda potensial yo'qotishlar, qaror qabul qilishning mahsuliga aylanadi. Ya'ni ob'ektiv imkoniyatlar miqdori voqea va hodisalarni hal qilish darajasi riskni aniqlashda asosiy kalitlar bo'lib xizmat qiladi.

Risk ehtimollar yondashuviga ko'ra biror-bir hodisa imkoniyatlarini belgilovchi yo'qotishlar, foyda bahosini birlashtirgan neytral g'oya va fikrlar deb aniqlanadi.

Riskning bunday talqini XIX asr boshlariga qadar hukm surib keldi. Ishlab chiqarish revolyusiyasi an'anaviy irsiy imtiyozlarning bekor qilingan barchaga barobar fuqarolar huquqining e'lon qilinishi, demokratlashtirish davrlarini

“birlamchi” modernizatsiyalash sharoitida risk birmuncha aniqlashdi va jamoatchilik hayotining turli xil sohalarida o’ziga xos shakl maqomiga ega bo’ldi.

Risk faoliyatning o’ziga xos xususiyatlariga mos keluvchi barcha sohalarida – iqtisod, huquqiy munosabatlar, siyosat, keyinchalik esa ta’lim sohasida yuzaga keladigan xavflar bilan bog’lana boshlanadi.

Shunday qilib, riskni aniqlashdagi ehtimollar yondashuvi faoliyatlilik bilan to’ldirildi va shu ko’rinishda zamonaviy amaliyotda keng qo’llanilmoqda.

Hozirgi vaqtda jamiyatda ko’plab ijtimoiy o’zgarishlar yuz bermoqdaki, ular yoshlarni yangi ijtimoiy sharoitlarga yuz tutishiga undamoqda. Hozirgi yoshlarning ota-onalariga xos bo’lgan ijtimoiylashuv namunalari boshqacha ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu jihatdan hozirgi yoshlar o’z faoliyati va ijtimoiy tajribasiga ko’ra katta avloddan tubdan farq qilmoqda.

Ijtimoiy munosabatlar strukturasi o’zgarishi “kichik” avlodni yangi ijtimoiy vositachilar, ya’ni bozor, ish beruvchi bilan munosabatlar, yollanma ishchi, kommersiya xizmatlari (ta’lim sohasidagi) kabilar bilan intensiv aloqa (kontakt) o’rnatishga chorlamoqda.

Yoshlarning ta’limga bo’lgan qiziqishlari, professional faoliyati, moddiy ahvoli ijtimoiy borliqni tanqidiy baholash, o’z imkoniyatlarini xohlagan mavqega erishish uchun to’liq ishga solish doimo o’qish o’rganish, izlanish, zarur hollarda yangilik yaratish yo’lida riskka o’tish kabi holatlarni ko’paytirmoqda.

Yangilik, novatorlik innovatsion risk bilan bog’liq. Yoshlarda ulg’ayish davri kechar ekan, bu yosh insonni o’z-o’zini tasdiqlashga kezi kelganda o’tmish tajribalarini inkor qilishga olib keladi.

Lekin shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, o’z-o’zini tasdiqlash, yuqori mavqega erishish inkor orqali yuzaga chiqsa, bu ijobiy yoki salbiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Aynan qayd etilgan holatlar pedagogik riskni o’ta muhimligini, uning nazariy asoslarini dolzarblashtirish va pedagogik riskdan amaliyotda oqilona foydalanish uchun riskni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurligini ko’rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O’zbekiston — 2030” strategiyasi to’g’risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2017. – 104 b.
3. Olimov Sh.Sh., Hasanova Z.D. Pedagogik texnologiyalarni o’quv – tarbiya jarayoniga qo’llash. –T.: «Fan va texnologiya», 2014. - 184 bet.
4. [Soboleva O. B.](#) Pedagogicheskie riski obucheniya obshchestvoznaniyu na osnove ispolzovaniya lichnogo sotsialnogo opyta uchashixsya// Prepodavanie istorii i obshchestvoznaniya v shkole. - 2005. - N 6. - S. 34-39.
5. O’zbek tilining izohli lug’ati. U.Madvaliev tahriri ostida. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 1990. - 629-630 betlar.

TALABA-YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

R.S.Shukurov,

*Sport nazariyasi va metodikasi
kafedra mudiri p.f.f.d(PhD), professor*

R.R.Narzullayeva,

*Adaptiv sog‘lomlashtirish,
jismoniy tarbiya va sportmutaxassisligi
2 bosqich magistranti*

Annotatsiya. Maqola mazmunida talaba-yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari o‘rganilgan, maqsadli pedagogik jarayonni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil etilgan, keyingi tadqiqot ishlarining asosiy yo‘nalishlari belgilangan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush madaniyati, pedagogik vosita, pedagogik shart-sharoitlar, pedagogik jarayon, shaxs, talabaning ijtimoiy mavqesi, ta‘lim sub‘yekti, ta‘lim ob‘yekti, axborot texnologiyali ta‘lim modellari.

Annotation: The content of the article examines the theoretical and methodological foundations of the formation of a culture of a healthy lifestyle of students, analyzes the pedagogical conditions for organizing the target pedagogical process, identifies the main directions of further research.

Key words: culture of a healthy lifestyle, pedagogical means, pedagogical conditions, pedagogical process, personality, social status of a student, subject of study, object of study, models of information technologies of teaching.

Dolzarblik. Zamonaviy ta‘lim jarayonlarining dunyoviy tasviri -uning tarkibidagi turli ijtimoiy-pedagogik yo‘nalishlar va o‘zgarishlar, islohotlarning jadalliligi, ularning rang-barangligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston respublikasida oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush madaniyatini (keyingi o‘rinlarda STM) targ‘ib qilish, mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog‘lom insonni rivojlantirish maqsadida aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarni belgilash, shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog‘lig‘ini mustahkamlashga ko‘maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish kabi masalalar o‘ta muhim va dolzarbdir [3].

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida talaba-yoshlarning STM ga e‘tibor qaratilmoqda, bu esa jamoatchilikni oliy ma‘lumotni tugatgan mutaxassislarning sog‘lig‘i va ularning kasbiy tayyorgarligi jarayonida kasal bo‘lib qolish darajasi oshishi, keyinchalik ish qobiliyatining pasayishi bilan bog‘liq [6].

Talaba-yoshlarni jismoniy tarbiya va sport vositasida STM ni rivojlantirish muammosi o‘z yechimini kutayotgan muhim masaladir. Yoshlar salomatligi hozirgi jamiyatda ijobiy yechimini topishi zarur bo‘lgan eng dolzarb ijtimoiy ahamiyatli

muammolardan bo'lib, mazkur muammoga e'tiborsiz bo'lish, kelajak avlod istiqbolini qo'ldan boy berishga teng keladi.

Globalashuv jarayonida jamiyatni modernizasiyalashning asosiy shartlaridan biri aholi turmush madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi. Talaba-yoshlar STM ni rivojlantirishning nazariy va metodologik muammolarini aniqlash, jismoniy tarbiya va sport vositasida sog'lig'ini yaxshilashning pedagogik shartlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Talaba-yoshlar STM ni rivojlantirishning umumiy omillarini, pedagogik vosita sifatida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va bu yo'nalishning ilg'or tadqiqot natijalarini tahlil qilish usullari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalarining va muhokamasi. STM – bu inson salomatligi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lish asosida hayotiy faoliyatni yo'lga qo'yish hamda salomatligining yuqori darajada bo'lishiga erishishni ta'minlovchi ijtimoiy xodisadir. STM ni rivojlantirish oila va uzluksiz ta'lim tizimida talabalardagi salomatlik, sog'lom turmush tarzi motivatsiya, ehtiyojlilik, qiziquvchanlik, sog'lom avlod kelajagini ta'minlashga intiluvchanlik hamda o'z salomatligiga ongli munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini takomillashtirishga qaratilgan [9]

Insonlarda STM ning qaror topishi, uning sog'lom turmush tarzi borasidagi asosiy nazariy bilim va ko'nikmalar bilan qurollanish darajasiga bog'liq. Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarining shakllanganlik darajasiga muvofiq, faol harakat qiladigan, turli mashqlar yordamida organizmni chiniqtiradigan, ertalabki badan tarbiya, shuningdek, sportning muayyan turi buyicha maxsus seksiyalarida doimiy shug'ullanadigan shaxs tushuniladi [8].

Bugungi kunda sog'lom turush madaniyati ko'nikmalarini rivojlantirish, uning mazmun-moxiyatini talabalar ongida chuqur singdirish muhim masaladir. Zero, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog'lom turmush madaniyatiga egaligi o'ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta'minlash, xalq genofondini bekamu-ko'st saqlash sog'lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. "Sog'lom turmush madaniyati" tushunchasida "sog'lom hayot kechirish" g'oyasi asosiy va muhim masala hisoblanadi. "Sog'lom turmush madaniyati" tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, u insonning jismoniy, ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom rivojlanishini qamrab oladi [7].

Talaba-yoshlarni jismoniy tarbiya va sport vositasida sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, imkoniyatlari va samaradorlik jihatlari borasida imliy ishlanmalar yetarli deb bo'lmaydi. Mavjud manbaalarda muammoning umumiy tomonlari o'rganilib, o'quvchi yoshlar, talabalarda STM muammolarini dolzarbligini e'tirof etib, tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish zaruriyat ekanligini takidlaganlar.

Pedagogik faoliyat o'zining rasmiylik jihatlari bilan inson amaliyotining barcha sohalariga o'xshashdir, chunki ushbu jarayon taxminga asoslanib sub'ekt (ob'ekt), maqsad, jarayon, teskari tashqi va ichki aloqa va boshqalarni o'zida mujassamlashtirgan. Shu bilan birga, pedagogik faoliyatning tub farqlaridan biri

shundaki, bu jarayonda faoliyat ob'ekti ta'limning haqiqiy sub'ektiga aylantirish talab etiladi.

Oliy ta'lim jarayonida talaba shaxsini - haqiqiy sub'ekt darajasida, "... uning sub'ektiv pozitsiyasini (mavqeini) ijobiylikka tomon yo'naltirish - bu murakkab dialektik va muhim pedagogik hodisa bo'lib, pedagogik soha yo'nalishida etarlicha ishlab chiqilmagan"

Talaba-yoshllar STM ni rivojlantirish muammosi, ta'lim va tarbiya tizimining (maktab, lisey, kollej) bir bosqichidan keyingisiga (oliy o'quv yurtiga) o'tishda operativ munosabat va sharoitlar tizimining keskin o'zgartirish bilan amalga oshiriladi.

Bu birinchi kurs talabasiga tashqi va ichki muhit bilan o'zaro munosabatlarni (o'zligini anglashi) muntazam ravishda o'zini-o'zi tahlil qilib borish ehtiyojini keltirib chiqaradi, ya'ni faol, beqaror yoki passiv bo'lish mezonlari orqali shaxsiy mavqei shakllanadi. Ammo ta'lim va tarbiyaning ba'zi shart-sharoitlaridan boshqasiga o'tishning muqarrar qiyinchiliklarini engish uchun talabaning faol (sub'ektiv) pozitsiyasini shakllantirish pedagogik hodisa sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, faol talaba mavqeini bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon muhitida STMni rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqish talab etiladi. Shu bilan birga, bunday talaba mavqeini rivojlantirishning muayyan bosqichlari uzluksizligini, auditoriya va auditoriyadan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirishni taqozo etadi.

STM ni rivojlantirish qonuniyatlari doimiy qayta takrorlanuvchi, barqaror pedagogik jarayoning eng ahamiyatli hodisasidir. Ta'lim jarayonining ob'ektidan - asosan uning sub'ektiga aylantirishga qodir pedagogik faoliyatning muhim, takrorlanadigan va barqaror bog'liqligini aks ettiradi. Uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimi bo'g'inlarida bu muammoni maqsadli va faol amalga oshiruvchi shaxs - o'qituvchidir [5].

O'quvchi ta'limning bir bosqichidan ikkinchisiga, bir yoshdan ikkinchisiga, bir ijtimoiy mavqedan ikkinchisiga o'tganda shaxs uchun o'zining ichki pozitsiyasi shunchalik muhim va ahamiyatli bo'lib qoladi, mazkur hodisaga o'qituvchilar doim diqqat-e'tiborli bo'lishlari zarur [5]. Talaba shaxsining ichki dunyosi quyidagi holatlarda shaxsning eng muhim xususiyatlaridan biriga aylanadi:

- yangi (yangilangan) shart-sharoitlar, munosabatlar tizimida insonni o'zini tutish va faoliyatning yangi strategiyalarini shakllantirishga undaydigan talablarning kelib chiqishi va ijtimoiy mavqening o'zgarishi;

- yaqinlashib kelayotgan muhim hayotiy harakatlar oldidan bir xil maqom sharoitida o'xshash vazifaning paydo bo'lishi: mas'uliyatli qarorlar, uni amalga oshirish usullarini tanlash, qiyinchiliklarni engishga bo'lgan munosabatni belgilash va boshqalar.

Ijtimoiy muhitda STM ni rivojlantirish muammosini aynan majmuaviy yondashuv bilan amalga oshirish mumkin:

- inson jismoniy rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini faqat ontogenez va filogenez yo'nalishlarida chuqurroq ochib berilishi;

- hozirgi davr insoniyatining asosiy hayot tarzi faoliyatiga va kelajak avlod jismoniy qobiliyatlariga tasavvurli ijtimoiy progress tomonidan ehtimollik talablarini oldindan yaqqol anglash;

- jismoniy madaniyat sohasining qay darajali ta'sir mexanizmlarini, insoniyatga tabiat tomonidan in'om etilgan sifat va qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish, atrof muhitga moslashuv, salbiy ta'sirlarga chidamliligini rivojlantirish nuqtai nazaridan yetarlicha aniq va real imkoniyatlarini baholash;

- har tomonlama rivojlantirishning asosiy talablarini qondiruvchi individ jismoniy barkamolligini o'tgan zamon va hozirgi zamon shart-sharoitlaridan kelib chiqib optimal model xususiyatlari va mezonlarini ishlab chiqish.

Mavzuga oid mavjud ilmiy manbaalarni o'rganish oliy ta'lim "jismoniy madaniyat" ta'lim yo'nalishining o'quv tarbiyaviy jarayonida o'tkazilgan kuzatuvlar asosida dars va darsdan tashqari o'tkaziladigan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari vositasida STM ni rivojlantirishning pedagogik, texnologik jarayonini tashkil etish shart-sharoitlari aniqlandi:

1. Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishining an'anaviy ta'lim negizida zamonaviy shart-sharoitlarni hosil qilishning metodik va texnologik asoslarini yaratish.

2. O'quv jarayoni, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari jarayonida talabalar xulq-atvor, odatlar, sog'lom turmush tarzini olib borish, sog'lig'ini saqlash va rivojlantirishga oid diagnostik metodlar amaliyotini yo'lga qo'yish.

3. O'quv faoliyatiga o'quv texnologiyalarini joriy etish, jismoniy tarbiya nazariyasini rivojlantiruvchi va shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik nazariyalari bilan uyg'unlashtirish.

4. Talabalarni STM ni rivojlantirishga yo'naltirilgan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar tizimini joriy etish.

5. Talabalarda jismoniy tarbiya va sport vositasida STM ni rivojlantirish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi, ilmiy asoslangan vositalar mexanizmlarini amalda joriy etish.

Jismoniy tarbiya insonning umumiy madaniyatining bir qismidir. Jismoniy madaniyatda inson nafaqat o'zining tabiiy borlig'ini, balki o'zi, atrofdagi dunyo, tabiat va jamiyat bilan uyg'unlashishga intilib, insoniyat madaniyatini ham egallaydi.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida shaxsning jismoniy madaniyatining shakllanishi, asosan jismoniy tayyorgarlikdan jismoniy sog'liqni saqlash dasturlarini amalga oshirishga, shaxsning jismoniy o'zini takomillashtirish va psixofizik fazilatlar va xususiyatlarning rivojlanish darajasining o'zgarishiga yo'naltirilgan ko'p qirrali va shu bilan birga ajralmas jarayondir [6].

Sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirish, inson sog'ligini mustahkamlash, uning jismoniy va funksional imkoniyatlarini oshirishda jismoniy tarbiya va sport muhim ahamiyat kasb etadi. Inson turmush tarzi tarkibida jismoniy faollikka qonuniy va majburiy ehtiyoj sezishi lozim. Sog'lom turmush madaniyati, salomatlikni mustahkamlash jismoniy tarbiya va sport bilan munta'zam shug'ullanishni taqozo etadi. Zero, talabalarni sog'ligini saqlash va

mustahkamlash, ularni jismoniy kamolatga yetishishida jismoniy tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirish ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifadir.

Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalari talabalarini jismoniy tarbiya va sport vositasida STM rivojlantirishning muammosi bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib borishga ehtiyoj mavjud, aynan shu holat mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarida STM bo'yicha mavjud amaliy ahvolni ilmiy o'rganish va o'ziga xos bir necha xususiyat borligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda texnika taraqqiyotining rivojlanib borayotganligi, inson ish faoliyatida bajaradigan ishlarning o'rnini texnika vositalari egallayotgani kishi salomatligini mustahkamlashda sa'lbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunigdek, zamonaviy o'quv jarayoni ko'pincha talabalar salomatligini yomonlashuviga olib kelmoqda.

Talabalarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirish masalasi juda muhimdir. Sog'lom turmush tarzi avvalo oiladan boshlanadi. O'quvchi – yoshlar va talabalarda yoshligidan boshlab “Sog'lom turmush madaniyati” tushunchasini “Sog'lom hayot kechirish” g'oyasini singdirish asosiy va muhim masala hisoblanadi.

O'quv yurtlarida talaba – yoshlarni sog'lig'ini yomonlashuviga olib keladigan bir qancha omillar, sabablar mavjud. Masalan:

- kun tartibiga to'g'ri rioya qilinmasligi;
- jismoniy mashqlar bilan shug'ullanmaslik, gigenik talabalar;
- chekish, alkogol moddalarning tarqalishi;
- dam olish va bo'sh vaqtlarini, kompyuter zallari, kafelarda o'tkazishga bog'lashadi;

Yuqorida koo'rsatib o'tilgan holatlar talaba-yoshlarning o'z vaqtlarini turli xildagi bekorchilik ishlar bilan bandligi bilan o'tkazib, salomatlik haqidagi madaniyatining pastligidan, ularning sog'lig'iga beparvolik bilan munosabatda bo'lganligidan dalolat beradi. Shuning uchun bo'lajak jismoniy madaniyat o'quvchilarini jismoniy tarbiyalash jarayonida, sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda, dam olish va bo'sh vaqtni tashkil qilishda, ta'lim dargoxlarida darsdan tashqari milliy va ommaviy sport to'garaklari faoliyatini tizimli, samarali tashkil qilish STM ni rivojlantirish, rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, jismoniy tarbiya ishiga motivatsion munosabatni rivojlantirish talabalarga sog'liqni qadriyat yo'nalishi sifatida egallashiga qaratilishi zarur. Shuning uchun talaba-yoshlarning STM ni rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport asosiy maqsadi bo'lib, uning vazifalari tananing funktsional, moslashuvchan qobiliyatlarini oshirish, shaxsning jismoniy madaniyatini rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki jismoniy tarbiya va sport nafaqat o'quv intizomi, balki talaba yoshlarning sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib jismoniy va ma'naviy birlikni uyg'unlashtirishga yordam beradi, talabalarning salomatligi, jismoniy va aqliy barkamolligi kabi umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishini ta'minlaydi.

Xulosa. Talaba-yoshlarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirish muammosi yo'nalishida keyingi tadqiqot predmeti va usullarini aniqlash, shu jumladan metodologik masalalarni, STM ning nazariy asoslarining ta'lim tizimida va shaxs jismoniy madaniyatida tutgan o'rnini va ularni yanada rivojlantirish nuqtai nazaridan kelib chiqib hal qilish mumkin. Nazariy tahlilning yuqori darajasiga o'tishning asosiy uslubiy masalalari, o'rganilayotgan ob'ekt haqida dastlabki g'oyalarni aniqlashtirishni o'z ichiga oladi. Birinchi navbatda, aniq belgilash va ifodalash muhim bo'lgan masalalar:

- ilmiy yo'nalishlarida olib borilayotgan tadqiqotlarga tegishli ob'yektiv tajribalar ulushi;

- "sog'lom turmush madaniyati" kategoriyalarini o'zida qamrab oluvchi real hodisalar;

- ob'yektiv voqelikda STM ning ahamiyati va muhimligi.

Kelgusida STM ijtimoiy talab darajasida shakllantirish nuqtai nazaridan zaruriy tadqiqotlarni o'tkazish, shuningdek uni takomillashtirishga hissa qo'shishi kerak bo'lgan amaliy chora-tadbirlarni tizimli yo'naltirish, jismoniy tarbiya va sport sohasining axborot texnologiyali ta'lim modellar samaradorligini tajribaviy tekshirish rejalashtirilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 2 oktyabrdagi PQ -3306 – sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 24 yanvardagi PF -5924 – sonli farmoni.
4. Balsevich V.K.Ontokineziologiya cheloveka.-M.:Teor.i prakt. fiz. kult, 2000.- 275 s
5. Godnik S.M. Proses preyemstvennosti vьsshey i sredney shkolы. - Voronej.: VGU, 1981. - 207 s.
6. Meleshkova N.A. Formirovaniye zdorovogo obraza jizni studentov vuza v prosesse fizicheskogo vospitaniya: dis.... kand. ped. nauk. Kemerovo, 2005.
7. Matchanov I. DJ. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'smirlarning sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirish: ped.f....diss. aforefarati. Toshkent , 2001.
